


JSA

1

Jyul Vern

KAPITAN
GRANT
BOLALARI





«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2016



JYUL VERN
**KAPITAN
GRANT
BOLALARI**



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPAANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT - 2016

UO'K 821.133.1-311.3

KBK 84(4Fra)

V-47

T a h r i r h a y ' a t i :

Otabek G'ULOMOV (*rahbar*), Ahror AHMEDOV (*rahbar o'rinbosari*), Ravshan JUMABOYEV, Nosirjon JO'RAYEV, Alisher IBODINOV, Nizom KOMILOV, Tohir MALIK, Erkin MALIKOV, Anvar OBIDJON, Xudoyberdi TO'XTABOYEV, Erkin USMONOV, Barnobek ESHPO'LATOV (*hay'at kotibi*).

So'zboshi:

Tohir MALIK

Tarjimon:

Sulton MUHAMMADJONOV

Rassom:

Mixail SAMOYLOV

V-47 **Vern, Jyul.**

Kapitan Grant bolalari. Roman. "Jahon sarguzasht adabiyoti" turkumi. S. Muhammadjonov tarjimasi // So'zboshi: Tohir Malik // Tahrir hay'ati: Otabek G'ulomov va boshq. - T.: "Sharq", 2016. 640 bet.

ISBN 978-9943-25-415-1

UO'K 821.133.1-31

KBK 84(4Fra)

ISBN 978-9943-26-415-1

SARGUZASHTLAR OROLI

Assalomu alaykum, muhtaram kitob muhblari!

«Sharq»chilar siz – azizlar uchun ajib sovg'alarni tayyorlashgan ekan, qutlug' bo'lsin.

Siz mazkur kitobni balki farzandi arjumandingiz uchun xarid qilayotgandirsiz. Ehtimol, o'g'lingiz yoki qizingiz, yoinki jiyaningiz adabiyot olami bilan tanishuvi aynan shu kitobdan boshlanar. U holda, sizni ishontirib aytamizki, kitob tanlashda adashmabsiz. Balki siz yosh kitobxondirsiz, dadangiz saqichga bergan pullarni yig'ib, birinchi kitobingizni sotib olmoqchidirsiz. Sizni ham ishontirib aytamizki, kerakli kitobni tanlabsiz. Inonamizki, siz bundan buyon ham turli kitoblarni sotib olasiz, mironi qib o'qiyasiz, do'stlaringizga berib turasiz, shu zaylda kelajakda bir necha minglik ajib kutubxona egasi bo'lasiz.

Bilingki, eng bebaho boylik uydagi kutubxona sanaladi. «Avtomashina-chi, musiqa markazlari-chi, dang'illama uylar-chi?» deb ajablanib so'rarsiz. To'g'ri, ularni ham boylik deb atashimiz mumkin. Lekin gap shundaki, ular bevafo boyliklardir. Ya'ni, avtomashinangiz vaqt o'tishi bilan eskiradi, yoki ko'nglingiz boshqasini istaydi-da, uni sotib yuborasiz. Shu bilan uni unutasiz. Musiqa markazi ham shunday. Hatto eng dang'illama uyni ham sotib, boshqa yerga ko'chishingiz mumkin. Lekin shunda ham o'sha dang'illama uy to'rida saqlangan kitoblarni tashlamaysiz, o'zingiz bilan ola ketasiz. Siz kitoblarga, kitoblar esa sizga sadoqarda qolaveradi.

Badiiy adabiyotni, kitoblar olamini bir ummonga qiyos qilsak, «Sharq»chilar unda bir ajib orol bunyod etmoqchilarkim, orzulari ushlagay. Bu orolni ramziy ravishda «Sarguzasht kitoblar oroli» deb atasak ham bo'lar.

Har bir odamning o'z sarguzasht olami, ya'ni boshidan kechirgan voqealari bo'ladi. Hatto siz – aziz kichik do'stimizning ham o'zingizga yarasha ko'rgan-kechirganlaringiz bor. Bu voqealarni ba'zan do'stlaringizga hikoya qilib berasiz. Ularni ko'proq qiziqtirish uchun ora-sira o'zingiz to'qigan voqealarni ham qo'shib yuborasiz. Ba'zi birodarlarimiz sarguzasht adabiyot haqida so'z ketganda ko'proq Yevropa adiblarini tilga oladilar.

To'g'ri, Yevropa yozuvchilari dunyo sarguzasht adabiyotining rivojiga katta ulush qo'shganlar. Ammo bu tarzdagi adabiyotlar avvalo Sharqda, yanada aniqroq aytsak, bizning ota yurtimizda yaratilgan. Sarguzasht adabiyotlarning dastlabkisi shubhasiz, o'lmas dostonlarimizdir. «Alpomish»ni, «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Avazxon»... Yana o'nlab benazir dostonlarimizni mazkur adabiyotning durdonalari deb ataymiz. Sarguzasht adabiyotning yozma adabiyotdagi tarixi ham juda boy sanaladi. Yevropa adabiyotidan Sharq sarguzasht adabiyotining farqi – bizda mazkur tarzdagi asarlar ko'proq nazmda yaratilgan. Shuning barobarinda badiylik bobida yuqori maqomga ega bo'lgan.

Adabiyotimizning ulug'laridan bo'lmish, ulug' va benazir us-tozlardan Lutfiyning «Gul va Navro'z», Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin», Majlisiyning «Qissasi Sayfulmuluk», Sayqaliyning «Bah-

rom va Gulandom», Nishotiyning «Husn va Dil» kabi dostonlari hech shubhasiz dunyo sarguzasht adabiyotining nodir namunalaridan sanaladi. Navro'z, Sayfulmuluk, Farhod Dil kabi qahramonlar Yevropa adabiyotida yaratilgan obrazlardan o'tsa o'tarki, aslo qolishmaydi. Faqat afsus shundaki, yaqin o'tmish jamiyatida yoshlarni adabiyot vositasida tarbiyalashda ko'proq Yevropa adabiyotiga murojaat qilindi. «Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q», deganlariday o'zimizning boylikka e'tiborsiz qaraldi. Bu masalada qadim dostonlarimizning tili biroz murakkabroq bo'lgani, unda bugungi o'quvchi uchun tushunarsiz so'zlarning ko'p uchrashi ham sabab bo'lgandir. Lekin bu borada bir yo'l bor ediki, qalam ahli uni nazarga ilmadir. Holbuki, yevropaliklar bundan ustalik bilan foydalanishdi. Ya'ni, yozuvchilar qadimda yaratilmish asarlarni zamonaviy tilda qayta hikoya qilib berdilar. Bir-birlaridan tarjima qilishda ham erkin yo'l tutib, asarni o'z farzandlariga mosladilar. Rus adibi Aleksey Tolstoy qalamiga mansub, deb yuritiluvchi Buratino shu fikrimizga misol bo'la oladi. Italiyalik yozuvchining asarini A.Tolstoy shu tarzda tarjima qildi, hatto qahramonining nomini ham o'zgartirdi. Natijada bizga ham bu asar «Oltin kalit yoki Buratinoning sarguzashtlari» tarzida kirib keldi. Robinzon, Gulliverning sarguzashtlari ham shunga o'xshash usulda, qisqartirilgan holda rus o'quvchilariga taqdim etilgan edi. Hozir mazkur asarlarni asl holida o'zbek o'quvchilariga taqdim etish fursati yetdi.

Yevropaliklar sarguzasht adabiyotining tarixi haqida so'z yuritishganda milodiy uchinchi asrda yaratilmish yunon Geliodorning «Efiopika» asarini misolga keltiradilar. Sarguzasht adabiyotining gullab-yashnagan davri esa O'n sakkizinchi, asosan O'n to'qqizinchi asrga to'g'ri keladi. Yigirmanchi asrda ham bu sohada ko'pgina asarlar yaratildi. F.Kuper, F.Marret, A.Dyuma, M.Rid, R.Xaggard, J.Konrad, J.London kabi ulug' yozuvchilar adabiyot tarixiga aynan sarguzasht tarzida yozilgan asarlari bilan kirdilar. Robinzon Kruzoz, Gulliver, Robin Gud, Graf Monte Kristo, jasur uch qilichbozumshketyorlar, Don Kixot kabi obrazlar uzoq yillar davomida bir necha avlodning sevimli qahramonlari bo'lib keldilar.

Shu o'rinda bir savol tug'ilishi mumkin: sarguzasht tarzida yozilgan asarlar boshqa yo'nalishdagi asarlardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Eng avvalo o'zining shiddati bilan. Bu adabiyotdagi voqealar boshqalarga nisbatan shiddatliroq kechadi. Unda batafsil tahlil, uzun-uzun bayonlar, tasvirlar uchramaydi. Kitobxon «Voqeaning bu yog'i qanday bo'larkin?» deb bosh ko'tarmay o'qiydi. Lekin mazkur asarlar vengil-yelpi ekan-da, degan xulosaga kelmaslik kerak. Sarguzasht asarlarda ham muhim ijtimoiy masalalar o'rtaga tashlanadi. Qahramonlar adolat uchun kurashadilar va ko'p hollarda g'olib kecladilar. Adolat va zulm orasidagi kurash sarguzasht adabiyoti uchun poydevor vazifasini o'taydi. Mazkur yo'nalish ko'p hollarda sof muhabbat uchun kurashni ham qamrab oladi. Shu jihatdan qaralganda adabiyotni «sarguzasht» va «sarguzasht emas» deb ikkiga ajratish ham unchalik to'g'ri emas. Chunki har bir asarda sarguzasht unsurlari bo'ladi. Hammamiz sevib o'qiydigan «O'tkan kunlar» romanidagi Otabek va Kumushning sarguzashtlarini eslaylik...

Har bir odam o'smirlik, yoshlik chog'ida boshqalarni hayron qoldiradigan ishlarni amalga oshirishni orzu qiladi. O'smir va yoshlarda surur (romantika) yigit yoshidagi yoki ulug'roq yoshlardagiga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Tasavvur qilaylik, siz tog'ning ulug' bir cho'qqisiga chiqmoqchisiz. Lekin yo'lni bilmaysiz, tog'da yurish hadisini olmangansiz, qoyalarni zabt etishga ojizsiz. Sizga shu onda bir yo'l boshlovchi, bir ustoz darkor bo'ladi. Hayotda o'z o'rnini topishga intilayotgan, yaxshi bilan yomonning farqiga borayotgan, zulmga duch kelganda qanday yengishni bilmayotgan, o'zida matonat, iroda, jasurlik, rostgo'ylik, halollik kabi fazilatlarini tarbiyalashi kerak bo'lgan o'smiringa yoki yoshga sarguzasht adabiyoti yordamga kelishi mumkin. Bu adabiyotni kitobxonning yoshiga qarab ajratish maqsadga muvofiq. Chippolino yoki Buratino, yoki Bilmasvoy kichik yoshdagilar uchun, Gulliver yoki Robinzonlar o'smirlar uchun, Graf Monte Kristo esa yoshlar uchun.

O'tgan asrdagi adabiyotimizga nazar tashlasak, oz bo'lsa-da, sarguzasht tarzidagi asarlarni ham uchratamiz. Bularning durdonasi deb albatta, G'afur G'ulomning «Shum bola» asarlarini tilga olamiz. Shuningdek, Xudoyberdi To'xtaboyev, Oqiljon Husanov, Anvar Obidjon kabi ardoqli adiblarimiz ham bu yo'nalishda yaxshi asarlar yozishganki, bu kitoblarni ham «Sarguzashtlar oroli»da ko'rmoqlikdan umidvormiz.

Nashriyotning kuyunchak xodimlari o'zbek adabiyotidan namunalar bilan bir qatorda jahon adabiyoti tarixidan joy olgan nodir asarlarni, xususan Jyul Vernning asarlarini, Mayn Ridning «Boshsiz chavandoz», Jek Londonning «Uch qalb», Aleksandr Dyumaning «Uch mushketyor», Migel Servantesning «Don Kixot» asarlarini, shuningdek «Ming bir kecha»dan bir qancha qissalarni nashr etishni rejalashtiribdilarki, bu xayrli ishlarni amalga oshuvuda biz ularga kuch-quvvat tilaymiz.

Sarguzasht adabiyotini tushuntirishga urinishimizni muxtasar qilib, siz qo'lingizga olgan kitob va uning muallifi haqida ham ozgina gapirib o'tsak.

Jyul Vern dunyo tanigan, dunyo ardoqlagan fransiyalik yozuvchidir. U 1828-yilda Nant shahrida advokat oilasida tug'ilgan. Otasining xohishi bilan u ham huquqshunoslik ilmini egallagan. Ammo adabiyotga bo'lgan muhabbati huquqshunoslikdan ustun kelgan. U dastlab sahna asarlari yozgan. «Sindirilgan poxolpoya» kulgili pyesasini mashhur Aleksandr Dyumaga ko'rsatganida u o'zining teatrida sahnaga qo'yadi. Uni kitob holida nashr etish kerakligini ham aytadi. Jyul Vern undan cho'chiganda u «Qo'rqmang, kitobingizni hech bo'lmaganda bitta odam sotib oladi. O'sha odam – menman», deb dalda beradi. Keyinchalik Jyul Vern nasriy asarlar yoza boshlaydi. Bunda u ko'proq ilmiy kashfiyotlarga asoslanadi. Aytishimiz joizki, Jyul Vern yashagan davr va undan oldingi asrlar geografiya fanining rivojlanish pallasi bo'lgan. Yangi-yangi qit'alar, orollar kashf qilingan. Jyul Vern ko'proq ana shu voqealarga qiziqqan, o'rgangan. Davrning e'tiborga molik tomonlaridan yana biri – Yevropada turli fan tarmoqlari ham keskin ravishda rivojlana boshlagan. Havo shartlarida uchilgan, hatto suvosti kemalari yaratishga urinishlar ham bo'lgan. Jyul Vern qalami bilan yaratilgan «Nautilus» suvosti kemasi aslida hayotda ham bo'lgan, yozuvchi bu kemani umum-

lashtirgan, ilmiy jihatdan mukammallashtirgan holda uni adabiyotga olib kirdi. Jyul Vern ko'proq fanga, fandagi bo'lajak kashfiyotlar haqidagi bashoratlarga o'rin ajratgani uchun ham uni adabiyotdagi ilmiy-fantastika tarzining asoschilaridan biri sifatida qadrlashadi. Jyul Vern o'z asarlarida mavjud turli harakat vositalarini mukammallashtirgan. Hatto dastlabki sun'iy yo'ldoshlar ham asarlari sahifalarida uning ongi mahsuli sifatida uchgan. Televizor va ovozli kino ham uning asarlarida yaratilgan. Keyinchalik mutaxassislarining o'rganishicha, yozuvchi ayrim ilmiy kashfiyotlarni ellik, ba'zan esa yuz yil oldin bashorat qilgan ekan. Shundan ko'rinib turibdiki, uning zamonaviy fantastika otasi sifatida ardoqlanishi bejiz emas ekan.

Jyul Vern asarlarini bir xonada o'tirib yozmagan. Uning «Sen-Mishel» deb nomlangan kemasi bo'lgan. Ko'p asarlar aynan shu kema-dagi xonasida yozilgan. Yozuvchi ikki marta O'rtayer dengizini suzib o'tgan. Angliya, Shotlandiya, Irlandiya, Daniya, Gollandiya, Skandinaviya bo'ylab safar qilgan, Italiya, Malta, Ispaniya, Portugaliyaga, Afrika qirg'oqlariga, hatto Amerika qit'asiga ham borgan. Bu safarlarning hammasi shunchaki ko'ngilochar sayohat emas, balki ijodiy jarayon edi. Har bir sayohat yangi bir asarga turtki bo'lardi. Misol uchun olsak, yozuvchining «Suzuvchi shahar» deb nomlangan asari uning Amerikaga, yanada aniqrog'i, Nyu-Yorkka safaridan so'ng dunyoga kelgan.

Yozuvchi hali «Jyul Vern» nomida shuhrat qozonmasdan ilgari «Sirli orol» asarini yozishni o'ylab qo'ygani ekan. «Kapitan Grant bolalari»ni 1868-yilda nihoyasiga yetkazgach, «Suv ostida 20000 lye», «Dunyo bo'ylab 80 kunda» romanlarini yozdi va yana sarguzasht olamiga qaytib, ko'pdan o'ylab yurgani «Sirli orol»ni 1875-yilda, 1878-yilda esa «O'n besh yoshli kapitan»ni qog'ozga tushirib, nashr ettirdi. Shu dallilardan ko'rinib turibalki, qo'lingizdagi asarning yoshi yuz yildan oshib ketibdi. O'n to'qqizinchi asrda dunyo yuzini ko'rgan asar yigirmanchi asrda ham yashadi, dillarni quvontirdi, yigirma birinchi asrda ham yashamoqda.

Jyul Vern yetmish yetti yil umr ko'rgan. Hayotining oxirgi yillari uning uchun azobli, mashaqqatli kechgan. Og'ir kasalliklar yetmagan-day ko'zi ojiz bo'lib qolgan, eshitish qobiliyati ham susaygan. Lekin yozuvchi to'shakka mixdanib, bekor yotmagan. Qiyinchiliklarga chidab, ijodiy ishini davom ettirgan. Qog'ozni paypaslab bo'lsa-da, yozgan, charchagan kezlari o'g'li Mishelga aytib turib yozdirgan. U umri mobaynida yuzta kitob yozib nashr ettirishni orzu qilgan ekan. Ammo umri vafo qilmay, orzu ushalmay qolgan.

1905-yilning 24-martida joni uzilgan yozuvchi adabiyot ixlosmandlariga, avlodlarga to'qson yetti kitobni meros qilib qoldirdi. Bu o'n sakkiz ming kitob sahifasi degan gap. Siz, aziz kitobxon, hozir ana shunday ulug' adibning ajoyib asarini o'qishni boshlamoqchisiz. Zerikmay o'qib chiqasiz, adolat uchun kurashuvchilarning mardona hayotlari sizni befarq qoldirmaydi, deb o'ylaymiz.

Yangi kitobingiz, sadoqatli boyuigingiz sizga muborak bo'lsin!

Tohir MALIK.
2000-yil

**BIRINCHI
QISM**



Birinchibob

BOLG'A BALIQ

1864-yil 26-iyulda Shimoliy kanalning to'liqlarida sharqi shimoldan kuchli shamol urib turganda ajoyib bir yaxta yeldek uchib kelmoqda edi. Uning bizan-machtasida ingliz bayrog'i hilpirar, grot-machtadagi havorang vimpelda esa zar bilan tikilgan «E» va «G» harflari ko'rinib turardi. Bu yaxtaning nomi «Duncan» bo'lib, u Temzadagi butun Angliyaga mashhur bo'lgan qirol yaxt-klubining eng ko'zga ko'ringan a'zosi Eduard Glenarvanga qarashli edi.

«Duncan»da kema xo'jayini Glenarvan, uning yoshgina xotini Elen va Eduardning amakivachchalaridan biri, mayor Mak-Nabbs bor edilar.

Bu yaxta Klayd qo'ltig'idan bir necha mil narida, ochiq dengizda sinovdan o'tkazilib, endi yana Glazgoga qaytib kelmoqda edi.

Vaxtada turgan matros «Duncan»ning orqasidan katta bir baliq suzib kelayotganini xabar qilganida ufqda Arran oroli ko'rinib qolgan edi. Kapitan Jon Mangls darhol bu to'g'rida Glenarvanga xabar berishni buyurdi, Glenarvan esa Mak-Nabbs bilan birga darrov yutga¹ ko'tarildi.

– Menga qarang, bu qanday baliq deb o'ylaysiz? – deb so'radi u kapitandan.

– Menimcha, bu katta akula, ser, – deb javob berdi Jon Mangls.

– Bu atrofdagi suvlarda akula nima qilsin! – deb yubordi Glenarvan.

– Bunga hech qanday shubha yo'q, – deb davom etdi kapitan, – bunday akulalar barcha dengizlarda va barcha kengliklarda uchraydi. Bu bolg'a baliq. Yo men qattiq yanglishyapman, yo biz o'shanday yirtqichlardan biriga duch keldik. Agar ijozat etsangiz, ser va missis Glenarvan bu g'alati ovni tomosha qilishga

¹ Yul – kemaning old tomoni.

rozi bo'lsalar, uning qanday baliq ekanini aniq bilish uchun biz darhol ov qilishga boshlaymiz.

– Siz nima deysiz, Mak-Nabbs? – deb so'radi Glenarvan mayordan. – Ov qilib o'tirishga arzimikin?

– Oldinoq aytib qo'ya qolay, siz nima desangiz, men ham fikringizga sherikman, – dedi mayor bamaylixotir.

– Umuman-ku, yirtqich maxluqlarni iloji boricha ko'proq qirish kerak-a, – deb qo'ydi Jon Mangls. – Duch kelgan fursatdan foydalanaylik, juda g'alati tomosha ko'ramiz, ayni vaqtda foydali ish ham qilamiz.

– Bo'lmasa boshlang, Jon, – dedi Glenarvan.

Keyin u xotiniga aytib qo'yishni buyurdi, bu ajoyib baliq ovini tomosha qilishga juda qiziqqan Elen eri oldiga chiqishga shoshildi.

Kapitan ko'prikchasida turib, akulaning barcha harakatlarini kuzatib turish qiyin emas edi: akula goh sho'ng'ib ketar, goh hayron qolarlik darajadagi zo'r kuch bilan suv yuziga otilib chiqardi.

Jon Mangls kerakli buyruqlarni berdi. Matroslar yaxtaning o'ng bortidan uchiga changak bog'langan pishiq arqon tashladilar, changakka kattagina bo'lak cho'chqa yog'i ilib qo'yildi. Ochko'z akula «Duncan»dan ellik yardlar¹ chamasi narida bo'lsa ham, changakdagi yog'qni sezdi va yaxtani tez quvib kela boshladi. Endi uning uchi kulrang va past tomoni qora qanotlari suv to'lqinlarini kuch bilan yorib kelayotgani, dumi esa to'ppa-to'g'ri suzishga yordam berayotgani ko'rinib turardi. Kemaga yaqinlashib kelgan sari uning ochko'zlik bilan yongan ola ko'zlari tobora aniq ko'rina bordi; baliq ag'darilgan paytlarida uning katta ochilgan og'zidagi to'rt qator tishlari ko'rinib qolardi. Akulaning boshi yapaloq bo'lib, bitta dastaga o'rnatilgan ikkita to'qmoqni eslatar edi. Jon Mangls yanglishmagandi – bu haqiqatan ham akulalar oilasiga kiradigan baliqlarning eng ochko'zi – *bolg'a baliq* edi.

«Duncan»ning yo'lovchilari ham, komandasi ham akulaning harakatlarini diqqat bilan kuzatib turar edilar. Mana, u changakka juda yaqinlashib keldi, mana, yog'ni osonroq yutish uchun qornini osmonga qilib to'ntarildi. Bir lahzadan keyin katta bo'lak cho'chqa yog'i uning og'ziga kirib yo'q bo'ldi. Yana bir lahzadan

¹ Yard – 0,91 metr.

keyin baliq arqonni qattiq siltab tortdi va changakni o'z etiga o'zi sanchdi. Shundan so'ng matroslar, vaqtni qo'ldan bermay, grot-reyaga o'rnatilgan chig'irlar yordami bilan o'ljani torta boshladilar.

Akula o'zini qadrdon suvdan ajratib olishayotganini sezib, qattiq tipirchilay boshladi, lekin uning dumiga sirtmoq tashlab, qimir ettirmay qo'ydilar. Yana bir necha sekunddan so'ng akulani tortib oldilar va bortdan oshirib, palubaga tashladilar. Shu zahotiy oq matros-lardan biri ehtiyotlik bilan unga yaqinlashdi va baliq-ning dahshatli dumini bolta bilan shart uzib tashladi.

Baliq ovi tugadi. Endi bu yirtqichdan qo'rqmasa ham bo'lardi. Matros-larning akuladan o'ch olish hissi qondirildi, lekin hali unga qiziqib qarar edilar. Shu-ni aytish kerakki, barcha kemalarda ushlangan aku-lalarning qornini sinchiklab ko'zdan kechirish odat bo'lib qolgan. Bu nihoyatda ochko'z baliqning to'g'ri kelgan narsani yutib yuboraverishini bilgan matros-lar, odatda, baliqning qornidan hech kutilmagan nar-salar chiqib qolishiga qiziqishar, ularning kutgani ham ko'pincha to'g'ri chiqardi.

Elen Glenarvan bu yirganch «ko'rikni» tomosha qi-lishni istamay, rubkaga o'tib ketdi. Akula hali nafas olar, uning uzunligi o'n fut¹ va og'irligi olti yuz qadoq-dan ortiq kelardi. Odatda bolg'a baliqlarning uzunligi va og'irligi shuncha bo'ladi. Lekin bolg'a baliq akula-larning eng yirigi bo'lmasa ham, ularning eng xavflila-ridan hisoblanadi.

Ortiq cho'zib o'tirmay, tezda bu kattakon baliqning qornini bolta bilan yordilar. Changak baliqning bo'm-bo'sh oshqozoniga borib qadalgan ekan. Aftidan, ba-liq ancha vaqtdan beri och edi. Hafsalasi pir bo'lgan matros-lar akulani endi dengizga tashlab yubormoq-chi bo'lib turgan edilarki, birdan baliqning ichiga juda mahkam o'rnashib qolgan qattiq bir narsa kapitan yor-damchisining diqqatini jalb qilib qoldi.

– Iye! Bu nima? – deb qichqirib yubord u.

– Hoynahoy, bu baliq o'z og'irligini oshirish uchun yutib olgan qoya parchasi bo'lsa kerak, – deb javob berdi matros-lardan biri.

– Ol-a, – dedi boshqa bir matros. – Bu oddiy zam-

¹ Fut – 30 santimetrdan sal ortiq.

barak yadrosi: bu maxluqning qorniga tushgan-u, lekin hali hazm bo'lib ulgurmagan.

– Jim bo'linglar, hay! – deb gapga aralashdi kapitan yordamchisi Tom Ostin. – Bu maxluqning nihoyatda piyanista bo'lganini ko'rmayapsizlarmi? Ichkilikning bir tomchisini ham qoldirmay qorniga joylab, shishasini ham yutib yuboribdi!

– A! – deb yubordi hayron bo'lib Glenarvan. – Akulaning qornidan shisha chiqdimi?

– Rostakam shisha, – deb javob berdi kapitan yordamchisi, – lekin, ko'rinishidan, ombordan chiqqaniga ancha vaqt bo'lgan.

– Tom, bo'lmasa shishani oling, lekin ehtiyot bo'ling, – dedi Glenarvan, – ko'pincha dengizdan topilgan shishalar ichida muhim hujjatlar bo'ladi.

– Siz shunday deb o'ylaysizmi? – deb so'radi mayor Mak-Nabbs.

– Har holda, shunday bo'lishi mumkin.

– Mutlaqo qo'shilaman. Shishaning ichida biror sir bo'lsa ham ajab emas.

– Buni hozir bilamiz, – dedi Glenarvan. – Xo'sh, Tom, nima gap?

Kapitan yordamchisi akulanig qornidan o'zi zo'rg'a ajratib olgan bir narsani ko'rsatdi:

– Mana, – dedi u.

– Juda soz! – dedi Glenarvan. – Bu badhazm narsani tozalab yuvdirib, rubkaga olib kiring.

Tom buyruqni bajardi, ko'p o'tmay bunday g'alati vaziyatda topilgan shisha kayut-kompaniyadagi stol ustiga keltirib qo'yildi. Glenarvan, mayor Mak-Nabbs, kapitan Jon Mangls va Elen [aytishadi-ku, xotinlar doim har narsaga qiziqadigan bo'lishadi deb] stol atrofidan joy oldilar.

Dengizda har qanday hodisa ham kishini qiziqtiradi. Bir minutchka hammalari jim o'tirishdi. Har kim bu mo'rtgina idishga qiziqib qarardi: bu shisha ichida biror kema falokati to'g'risida xabar bormidi, yo biror bekorchi dengizchining zerikkanda yozib to'lqinlar quchog'iga otgan ahamiyatsiz biror qog'ozimi?

Har holda, unda nima gap borligini bilish kerak edi, shu maqsadda Glenarvan, bunday paytlarda zarur bo'lgan barcha ehtiyot choralarini ko'rib, shishani

ko'zdan kechira boshladi. Bu paytda Glenarvan yuz bergan jinoyatning sirini topishga tirishayotgan koronerga¹ o'xshar edi. Albatta, Glenarvan ishga bunday diqqat bilan qarab, juda to'g'ri qilayotir, chunki ko'pincha yuzaki qaraganda ahamiyatsiz ko'rinadigan eng mayda ikir-chikirlar ham ko'p yangiliklarning ochilishiga sabab bo'ladi.

Shishaning og'zini ochishdan oldin Glenarvan uni tashqi tomondan tekshirib chiqdi. Shisha uzun va mahkam bo'lib, unda zanglab ketgan bir bo'lak sim hali ham saqlanib qolgan. Yon tomonlari bir necha atmosfera bosimiga chidaydigan darajada qalin. Bu uning Shampanida chiqarilganini ko'rsatib turardi. Eperne bog'dorlari xuddi shunaqa shishalar bilan stullarning suyanchig'ini urib sindirardilar, lekin shisha biror joyidan bo'lsin qilt etib darz ketmasdi. Ana shuning uchun ham bu shisha uzoq safarning barcha qiyin sinovlariga binoyidek dosh bergan.

– Kliko firmasida ishlangan shisha, – dedi mayor.

Mayor bu sohadan yaxshigina xabardor kishi bo'lganidan, uning gapini rad qilishni hech kim xayoliga ham keltirmadi.

– Qimmatli mayor, – dedi Elen unga qarab, – shishaning qayerda ishlanganini bilganimiz bilan uning qayerdan kelib qolganini bilmasak, bundan nima foyda?

– Buni bilib olamiz, qimmatli Elen, – dedi Glenarvan. – Hozir ham uning juda uzoq safar qilgani ko'rinib turibdi. Ustini qoplab olgan tosh quyqalariga diqqat qiling. Bular dengiz suvidagi mineral moddalardan paydo bo'lgan. Akulaning qorniga tushib qolishdan oldin bu shisha okean to'lqinlarida uzoq vaqt suzib yurgan.

– So'zingizga qo'shilmalikning iloji yo'q, – dedi mayor. – Tosh qatlamga o'ralib olgan bu mo'rt shisha uzoq sayohat qila olar edi, albatta.

– Xo'sh, qayerdan kelgan u? – deb so'radi Elen.

– Shoshilmang, azizim Elen, shoshilmang, – dedi Glenarvan, – shishalar oldida kishi sabr-toqatli bo'lishi kerak. Menimcha, bizning hamma savollarimizga shishaning o'zi javob beradi.

¹ Koroner – Angliyada biror kishi to'satdan yoki shubhali tarzda o'lib qolganda tekshirish ishlari olib boradigan shaxs.

Shunday deb Glenarvan shishaning bo'yniga yig'ilib qolgan tosh quyqalarini tozalay boshladi, hademay dengiz suvi chiritib yuborgan probka ko'rindi.

– Esizgina, – dedi Glenarvan, – agar ichida biror qog'oz bo'lsa, juda ham chirib qolgani aniq.

– Men ham shunday bo'lsa kerak deb qo'rqib turibman, – dedi mayor.

– Yana shuni qo'shimcha qilishim mumkinki, – deb davom etdi Glenarvan, – og'zi yaxshilab berkitilmagan bu shishaning cho'kib ketishi ham hech gap emasdi. Baxtni qarangki, akula uni vaqtida yutib, «Duncan»ga olib kelgan.

– Shubhasiz, to'g'ri, – deb uning so'zini ma'qulladi Jon Mangls. – Lekin, har holda, biz uni ochiq dengizda, ma'lum bir kenglik va uzunlikdan topib olganimizda yaxshiroq bo'lar edi. Unda biz havo va dengiz oqimlarini o'rganib, bu shishaning bosib o'tgan yo'lini belgilashimiz mumkin bo'lardi. Ma'lumki, akuladek pochталon shamol va oqimga qarshi suza oladi, shuning uchun endi buni belgilash juda qiyin.

– Ko'ramiz, – dedi Glenarvan va juda ehtiyotkorlik bilan probkani tortib ola boshladi.

Shishaning og'zi ochilgandan keyin kayut-kompaniyani dengiz sho'r suvining o'tkir hidi tutib ketdi.

– Xo'sh? – deb so'radi Elen, xotinlarga xos qiziqsinish bilan.

– Men yanglishmabman, – deb javob berdi Glenarvan, – shishaning ichida qog'oz bor ekan.

– Hujjatlar! Hujjatlar! – deb qichqirib yubordi uning xotini.

– Lekin namdan juda shikastlangan ko'rinadi, – dedi Glenarvan, – shishaga shunchalik yopishib qolibdiki, olishning sira iloji yo'q.

– Bo'lmasa, sindiraylik uni, – dedi Mak-Nabbs.

– Shishani sindirmasak degan edim-da, – javob berdi Glenarvan.

– Men ham, – dedi mayor.

– Shishani sindirmaganimiz yaxshiroq edi, albat, – deb gapga aralashdi Elen, – lekin ichidagi narsa shishaning o'zidan qimmatliroq-da, shuning uchun shishaning bahridan o'tib qo'ya qolsak deyman.

- Bo'ynini sindirsak ham kifoya qiladi, - deb maslahat berdi Jon Mangls, - hujjatlarni urintirmasdan chiqarib olishimiz mumkin.

- Shunday qiling, azizim Eduard! - dedi Elen.

Haqiqatan ham, hujjatlarni boshqa yo'l bilan chiqarib olish juda qiyin edi, shuning uchun Glenarvan qimmatbaho shishaning bo'ynini sindirishga rozi bo'ldi. Shisha dengizda yuraverib, granitdek qattiq bo'lib ketgani uchun bolg'a bilan urishga to'g'ri keldi. Ko'p o'tmay stol ustiga shisha siniqlari sochilib ketdi va shisha ichiga yopishib qolgan qog'ozlar ko'rindi. Glenarvan ularni ehtiyot bilan chiqarib oldi-da, oldiga yozib qo'ydi. Elen, mayor va Jon Mangls stol ustiga engashdilar.

I k k i n c h i b o b

UCH HUJJAT

Shishadan chiqarib olingan qog'oz bo'laklarining yarmini dengiz suvi chiritib yuborgan edi. Deyarli butunlay o'chib ketgan satrlardan bir-biriga qovushmaydigan ayrim so'zlarnigina o'qib olish mumkin edi. Glenarvan ularni diqqat bilan ko'zdan kechira boshladi. U qog'ozlarni har qanaqasiga aylantirib ko'rar, yoruqqa tutib boqar, dengiz suvi rahm qilib qoldirgan o'sha bir qancha so'zlarni o'qishga tirishar edi. Keyin u o'ziga qiziqib qarab turgan do'stlariga o'girildi.

- Bunda, - dedi u, - uchta har xil hujjat bor ekan, aftidan, bitta hujjatning uch tildagi: ingliz, fransuz va nemis tillaridagi uch nusxasi bo'lsa kerak. Men saqlanib qolgan so'zlarni bir-biriga urishtirib ko'rib, shu fikrga keldim.

- Har holda o'sha so'zlardan biror ma'no chiqarib bo'ladimi? - deb so'radi Elen.

- Aniq bir narsa deyish qiyin, azizim: omon qolgan so'zlar juda oz.

- Ular bir-birini to'ldirmasmikin? - deb so'radi mayor.

- Turgan gap, - deb javob berdi Jon Mangls. - Chunki dengiz suvi uchala hujjatda ham nuqul bir joyni yuvib ketmagandir axir. Saqlanib qolgan so'zlarni bir-biriga ulab, ma'nosini topib olamiz.

– Ana shunday qilamiz, – dedi Glenarvan, – lekin bu ishni shoshmasdan, tartib bilan qilish kerak. Ingliz tilidagi hujjatdan boshlaymiz.

62	<i>Bri</i>	<i>gow</i>
<i>sink</i>	<i>aland</i>	<i>stra</i>
<i>skip</i>	<i>Gr</i>	
<i>and</i>	<i>lost</i>	<i>that monit of long</i> <i>ssistance</i>

Bu hujjatda saqlanib qolgan soʻzlar quyidagicha joylashgan edi:

– Hmm, – dedi hafsalasi pir boʻlib mayor, – bundan biror narsa tushunib olish qiyin.

– Nima boʻlganda ham, bu ingliz tilida yozilgan ekanini aniq, – deb qoʻydi kapitan.

– Bunga hech shubha yoʻq, – dedi Glenarvan, – *sink*, *aland*, *that*, *and*, *lost* soʻzlari saqlanib qolgan, *skip* degani skipper boʻlsa kerak. Aftidan, bunda gap allaqanday mister Gr... toʻgʻrisida boryapti, halokatga uchragan biror kemanding kapitani boʻlsa ham ajab emas.

– Bularga yana uzuq-yuluq saqlanib qolgan *monit va ssistance*¹ soʻzlarini qoʻshsak, gapning maʼnosi ravshan boʻladi-qoʻyadi.

– Ana, baʼzi narsalarni bilib ham oldik! – dedi Elen quvonib.

– Baxtga qarshi, butun-butun satrlar yetishmaydi hali, – dedi mayor. – Halokatga uchragan kemanding nomi bilan uning qayerda halokatga uchraganini qanday qilib bilamiz?

– Buni ham bilib olamiz, – dedi Glenarvan.

– Shubhasiz, – deb maʼqulladi doim umumiy fikriga qoʻshilishadigan mayor. – Lekin qanday qilib?

– Bir hujjatni ikkinchisi bilan toʻldirib.

– Qani, boʻlmasa, tezroq ishga kirishaylik! – dedi Elen.

Ikkinchi qogʻoz birinchisidan ham koʻproq chirib ketgan edi. Unda bir-biriga yopishmagan bir nechagi-

na so'z omon qolgan bo'lib, ular quyidagicha joylashgan edi:

7-juni	<i>Glas zwei atrosen graus bringt ihnen</i>
--------	---

- Bu nemis tilida yozilgan, - dedi Jon Mangls qog'ozga qarab.

- Siz bu tilni bilasizmi, Jon? - deb so'radi Glenarvan.

- Juda yaxshi bilaman.

- Bo'lmasa, shu bir necha so'zing ma'nosini bizga aytib bering.

Kapitan hujjatni diqqat bilan ko'zdan kechirdi.

- Hammadan oldin, - dedi u, - endi biz kema halokati qachon yuz berganini belgilay olamiz: u 7-juni: ya'ni 7-iyunda halokatga uchragan, buni ingliz tilidagi «oltmish ikki» raqami yoniga qo'ysak, aniq ko'rsatkichga ega bo'lamiz: 1862-yil 7-iyun.

- Juda soz! - dedi sevinib Elen. - Xo'sh, nariyog'i-chi, Jon?

- Xuddi o'sha satrning o'zida, - deb davom etdi kapitan. - *Glas* degan so'z turibdi. Uni birinchi hujjatdagi *gow* degan so'zga qo'shsak, *Glasgow* bo'ladi. Chamasi, so'z Glazgo portidan chiqqan kema to'g'risida borayotgan bo'lsa kerak.

- Men ham shunday fikrdaman, - dedi mayor.

- Bu hujjatda ikkinchi satr butunlay o'chib ketibdi, - deb davom etdi Jon Mangls, - lekin uchinchi satrda ikkita juda muhim so'z bor: *zwei* - buning ma'nosi «ikki»; so'ng *atrosen*, to'g'rirog'i, *matrosen*, buning tarjimasi - «matrosalar» demakdir.

- Undan chiqdi, bu yerda gap kapitan bilan ikki matros to'g'risida ekan-da, a? - deb so'radi Elen.

- Shunaqaga o'xshaydi, - deb javob berdi Glenarvan.

- E'tirof qilishim kerakki, - deb davom etdi kapitan, - undan keyingi *graus* so'zi meni qiyin ahvolga solib qo'yyapti - uni nima deb tarjima qilishni bilmayapman. Ehtimol, buning ma'nosini bizga uchinchi hujjat ochib berar. Oxirgi ikki so'zga kelsak, ularni tushunish

oson: *bringt ihnen* – «ularga... qiling» degan ma'noni bildiradi. Buni birinchi hujjatning xuddi shu so'zlar singari yettinchi satrida turgan inglizcha *assistance* so'ziga qo'shsak, o'z-o'zidan: «ularga yordam qiling» degan ifoda kelib chiqadi.

– To'q'ril «Ularga yordam qiling» degan ifoda kelib chiqadi! – deb takrorladi Glenarvan. – Lekin u bechoralar qayerda? Hozirgacha falokat yuz bergan joy to'g'risida hech gap yo'q.

– Zora fransuzcha hujjat aniqroq bo'lsa, – dedi Elen.

– Bo'lmasa fransuzcha hujjatni o'qiylik, – dedi Glenarvan, – bu tilni hammamiz bilganimiz uchun uni o'qish uncha qiyin bo'lmaydi.

Fransuz tilidagi hujjatning aniq ko'chirmasi mana bunday edi:

<i>Trios</i>	<i>ats</i>	<i>tannia</i>
<i>Contin</i>	<i>gonie</i>	<i>austral</i>
<i>et 37° 11'</i>	<i>pr</i>	<i>abor</i>
	<i>jete</i>	<i>cruel indi</i>
	<i>lat'</i>	<i>ongit</i>

– Bunda raqamlar bor ekan! – deb yubordi Elen. – Qaranglar, janoblar! Qaranglar!

– Ishni marom bilan qilaylik, – dedi Glenarvan, – boshdan boshlaymiz. Bu uzuq-yuluq so'zlarni birin ketin tiklab ko'rishga ruxsat etinglar. Dastlabki so'zdanoq ma'lum bo'ladiki, gap uch machtali kema to'g'risida boryapti. Kemaning nomi inglizcha va fransuzcha hujjatlardagi so'zlardan ma'lum bo'ldi: uning nomi «Britaniya». Qolgan ikki – *gonie va austral*¹ – so'zdan biz uchun faqat ikkinchisi tushunarli.

– Mana bu qimmatbaho tafsilot, – dedi Jon Mangls, – demak, kema halokati Janubiy yarimsharda yuz bergan.

– Bu u qadar aniq emas, – deb e'tiroz bildirdi mayor.

– Davom etaman, – dedi Glenarvan. – *Abor* so'zi *aborder*² fe'lining o'zagidir. U bechoralar qandaydir bir

¹ *Austral* – janubiy.

² *Aborder* – yetib olmoq, chiqib olmoq.

sohilga chiqib olganlar. Lekin qayerga? *Contin* so'zining ma'nosi nima? Qit'a emasmikin?¹ So'ngra *cruel*?²

– Gruel, – deb qichqirib yubordi Jon Mangls. – Nemischa hujjatdagi graus so'zining ma'nosi bu yoqdan chiqdi: grausam shafqatsiz degani!

– Davom etamiz! Davom etamiz! – dedi Glenarvan. U uzuq-yuluq so'zlarning ma'nosi ochila borgan sari tobora ko'proq ehtiros bilan hujjatlarga yopishar edi. – *Jndi...* Bu nima bo'ldiykin? Ularni dengiz Hindiston qirg'oqlariga chiqarib tashladimikin? Unda ongit degani nima bo'ldi? Ha-a! *Longitude*³. Mana kenglik haqidagi ma'lumotga ham yetib keldik: 37°11'. Nihoyat, aniq ko'rsatkichga ega bo'ldik.

– Ha, – dedi Mak-Nabbs, – lekin qo'limizda uzunlik to'g'risida ma'lumot yo'q-ku!

– Hamma ma'lumotlar ham bo'lavermaydi-da, aziz mayor, – deb javob berdi Glenarvan. – Kenglikni aniq bilishimizning o'zi ham katta gap. Hujjatlar ichida eng to'lig'i shu fransuz tilidagisi ekan. Bu hujjatlar bir-birining aniq tarjimasini ekanligi shubhasiz, chunki har uchala hujjatdagi satrlar miqdori bir xil. Shuning uchun bu uchala hujjatni bir-biriga qo'shib, bitta tilga tarjima qilish, so'ngra esa uning ishonarli, to'la va mantiqiy ma'nosini topishga harakat qilish kerak.

– Bu uchala tilning qaysinisiga tarjima qilmoqchisiz? – deb so'radi mayor.

– Fransuzchaga, – deb javob berdi Glenarvan, – chunki hujjatlar ichida shu tildagisi to'laroq saqlanib qolgan.

– Siz tamomila haqlisiz, – deb uning fikriga qo'shilishdi Jon Mangls. – Buning ustiga, fransuz tilini hammamiz ham yaxshi bilamiz.

– Demak, bu masala hal bo'ldi! Men bu hujjatni mana bunday usulda to'lataman: ifodalar va so'zlarni birlashtiraman, ularni bir-biridan ajratib turgan oraliq esa ochiq qolaveradi: ma'nosi shubhasiz aniq bo'lgan so'zlarni to'latib yozaveraman. Keyin esa biz ularni so'lishtirib, muhokama qilamiz.

Glenarvan qo'liga qalam olib, darhol ishga tushdi.

¹ *Continents* – qit'a, materik.

² *Cruel* – shafqatsiz.

³ *Longitude* – uzunlik.

Bir necha minutdan so'ng quyidagi so'zlar yozilgan qog'ozni do'stlariga uzatdi:

<i>1862-yil 7-iyunda uch machtali «Britaniya» kemasi</i>		
<i>Glazgo</i>		
<i>goni</i>	<i>janub kapitan Gr</i>	<i>[abor]</i>
<i>kontin</i>	<i>shafqatsiz</i>	<i>[indij]</i>
<i>bu hujjatni tashladilar uzunlikda va 37°11'</i>		
<i>kenglikda ularga yordam qiling.</i>		

Shu payt kayutaga bir matros kirib, kapitanga «Duncan» Klayd qo'ltig'iga kirayotganini xabar qildi va biror buyruq bo'lish-bo'lmasligini so'radi.

– Sizning maqsadingiz qanday, ser? – deb so'radi Jon Mangls Glenarvandan.

– Mumkin qadar tezroq Dumbartonga yetib olish. U yerdan missis Elen uyga, Malkolm-Kestlga ketadi, men esa mana bu hujjatlarni ko'rsatish uchun Londonga jo'nayman.

Jon Mangls lozim bo'lgan buyruqlarni berdi. Matros ularni kapitan yordamchisiga yetkazish uchun chiqib ketdi.

– Endi esa, do'stlarim, – dedi Glenarvan, – o'z tekshirishlarimizni davom ettiramiz. Biz yuz bergan katta halokat iziga tushib qoldik, endi bir necha kishining hayoti bizning fahm-farosatimizga bog'liq bo'lib qoldi. Bu muammoni hal qilish uchun butun idrokimizni ishga solaylik.

– Biz tayyormiz, azizim Eduard, – dedi Elen.

– Dastavval, – deb davom etdi Glenarvan, – biz bu hujjatlardagi uch xil narsani: birinchidan, bizga hozir ma'lum bo'lgan narsalarni, ikkinchidan, taxmin qilish mumkin bo'lgan narsalarni va, nihoyat, uchinchidan, bizga ma'lum bo'lmagan narsalarni muhokama qilishimiz kerak. Xo'sh, bizga nima ma'lum? 1862-yil 7-iyunda Glazgo portidan chiqqan uch machtali «Britaniya» kemasining halokatga uchragani, so'ngra, ikki matros bilan kapitan 37°11' kenglikda mana shu hujjatni dengizga tashlashgani va yordam so'rashayotgani bizga ma'lum.

– Juda to'g'ri, – deb qo'shilishdi unga mayor.

– Endi biz nimalarni taxmin qilishimiz mumkin? – deb davom qildi so'zida Glenarvan. – Dastlab biz fa-

lokat Janubiy yarim sharda yuz bergan deb taxmin qilishimiz mumkin. Men sizlarning diqqatingizni allaqanday bir soʻzning *gonie* degan boʻlagiga jalb qilaman. Bu biror mamlakatning oti emasmikin?

– Patagoniya boʻlmasin yana? – deb soʻradi Elen.

– Shubhasiz.

– Oʻttiz yettinchi kenglik Patagoniyadan oʻtadimi? – deb soʻradi mayor.

– Buni tekshirib koʻrish oson, – dedi Jon Mangls, Janubiy Amerikaning xaritasini ochaturib. – Xuddi shunday: oʻttiz yettinchi parallel Araukaniyani kesib oʻtadi, Patagoniyaning shimolidagi qirlar orqali Atlantika okeaniga chiqib ketadi.

– Juda soz! Endi taxminlarimizni davom ettiramiz, ikki matros bilan kapitan abor... yetib oldilar... qayerga? Contin... qitʼaga. Diqqatingizni shunga jalb qilaman. Ular orolga emas, qitʼaga yetib olganlar. Xoʻsh, ularning taqdiri nima boʻldi? Baxtimizga ikki harf, yaʼni *pr* harflari bor, bu harflar ularning qayerdaligini koʻrsatib turibdi. Bechoralar! Ular *prisonniers*, yaʼni asirlikdadirlar. Kimning qoʻlida? *Gruels indiyens* – shafqatsiz hindular qoʻlida. Ishonarlimi? Uzuq-yuluq soʻzlarning maʼnosi oʻz-oʻzidan oydinlashmayaptimi? Hujjatning maʼnosi koʻz oldimizda tobora ochilmayaptimi?

Glenarvan shunday ishonch bilan soʻzlar, koʻzlarida shunday ishonch porlar ediki, uning bu ishonchi oʻz-oʻzidan boshqalarga ham oʻtdi, shuning uchun ular baravariga:

– Albatta! Albatta shunday! – deb uning soʻzini tasdiqladilar.

Biroz jim turgach, Glenarvan yana soʻzini davom ettirdi:

– Doʻstlarim, mening nazarimda bu farazlarimizning hammasi ham toʻgʻriga oʻxshab koʻrinyapti. Menimcha, kema Patagoniya qirgʻoqlariga yaqin yerda halokatga uchragan. Har qalay Glazgoga yetganimizda men «Britaniya»ning qayoqqa joʻnab ketganini surishtirib koʻraman. Ana oʻshanda biz uning Patagoniya tomonlarga borgan boʻlishi mumkinmi, yo yoʻqligini aniq bilib olamiz.

– Yoʻq, Glazgoga borib oʻtirishning hojati yoʻq, – dedi Jon Mangls, – menda «Savdo floti gazeta»sining komp-

lekti bor, biz undan eng aniq ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin.

– Ko'ra qolaylik bo'lmasa! – deb yubordi Elen Glenarvan.

Jon Mangls gazetaning 1862-yilgi komplektini va-raqrab, tez ko'zdan kechira boshladi. U uzoq qidirmadi. Ko'p o'tmay mamnuniyat bilan quyidagi xabarni o'qib berdi:

– «1862-yil 30-may. Peru. Kalyao. Jo'nab ketgan joyi Glazgo. «Britaniya», kapitan Grant».

– Grant! – dedi Glenarvan. – Ulug' okeanning allaqayerida **Yangi Shotlandiya** barpo etmoqchi bo'lib yurgan shotlandiyalik dovyurak kapitan emasmi?

– Ha, – dedi Jon Mangls, – xuddi o'sha Grant. U 1861-yilda «Britaniya» kemasida Glazgodan jo'nab ketgan edi, o'shandan beri dom-darak yo'q.

– Endi hech qanday shubhaga o'rin yo'q, hech qanday shubhaga! – dedi Glenarvan. – Masala ravshan! «Britaniya» Kalyaodan 30-mayda yo'lga chiqqan, bir haftadan keyin, 7-iyunda Patagoniya sohillariga yaqin yerda halokatga uchragan. Mana, biz bunday qaraganda hech narsa tushunib bo'lmaydigan uzuq-yuluq so'zlardan bu falokatning butun tarixini bilib oldik. Do'stlarim, shunday deb taxmin qilishga imkoniyat bor edi. Endi bizga falokat qaysi uzunlikda yuz bergani noma'lum, xolos.

– Uning bizga keragi ham yo'q, – dedi Jon Mangls, – falokat yuz bergan kenglik bilan mamlakatning nomi ma'lum bo'lgandan keyin men u joyni shunday ham topib beraman.

– Demak, bizga hamma narsa ma'lum, shundaymi? – deb so'radi Elen.

– Shunday, azizim, endi men hujjatning suv yuvib ketgan joylarining xuddi kapitan Grant og'zidan eshitib turgandek ishonch bilan aytib bera olaman.

Shundan so'ng Glenarvan yana qo'lga qalam oldi va ishonch bilan quyidagilarni yozdi:

«1862-yil 7-iyunda Glazgo portidan chiqqan uch machtali «Britaniya» kemasi Janubiy yarim sharda, Patagoniya sohillari yaqinida halokatga uchradi. Ikki matros bilan kapitan Grant sohilga chiqib olishga harakat qildilar, u yerda shafqatsiz hindularga asir tushadilar. Ular bu hujjatni... gradus uzunlik va 37°11'

kenglikda dengizga tashladilar. Yordam qilinglar, yo'qsa ular halok bo'ladilar».

– Juda soz! Juda yaxshi, azizim Eduard! – dedi Elen. – Agar vaqti kelib, bu bechoralar o'z vatanlariga qaytsalar, hayotlarini qutqarganingiz uchun sizdan minnatdor bo'ladilar!

– Ular o'z vatanlarini ko'radilar! – deb javob berdi ishonch bilan Glenarvan. – Bu hujjat shunday aniq, ravshan va ishonchliki, Angliya bo'm-bo'sh dengiz qirg'og'iga chiqarib tashlangan o'zining uch farzandiga yordam bermay qololmaydi. U bir vaqtlar Franklin va ko'pgina boshqa odamlarga qilgan yordamini «Britaniya»da halokatga uchraganlardan ham aya-maydi.

– U bechoralarni o'ldiga chiqarib o'tirgan oilalari ham bor bo'lsa kerak, albatta, – dedi Elen. – Ehtimol, bechora kapitan Grantning xotini, bolalari bordir...

– Gapingiz to'g'ri, azizim, umid tamom uzilmagani-dan ularni xabardor qilishni men o'z zimmamga ola-man. Do'stlarim, endi palubaga chiqamiz, portga ya-qinlashib qolganga o'xshaymiz.

Haqiqatan ham, «Duncan» bu vaqtda tezligini oshirib But oroli oldidan o'tib bormoqda edi. O'ng tarafda Rotsey ko'rinib turardi. Keyin kema qo'ltiqning ensiz farvateriga kirib, Grinok yonidan o'tdi va kechqurun soat oltida Dumbartondagi bazalt qoya yaqinida langar tashladi; bu qoyaning cho'qqisida shotlandiyalik qah-ramon Uollesning oti ketgan qasri joylashgan edi.

Pristanda Elen bilan mayor Mak-Nabbsni Malkolm-Kestlga olib ketishi lozim bo'lgan kareta kutib turar edi. Glenarvan o'zining yosh xotini bilan quchoqlashib xayrlashdi-da, tezyurar poyezdga tushib Londonga jo'nash uchun vokzalga yugurdi.

Jo'nab ketishdan odin u xabar berishning eng tez bo'ladigan usulini qo'lladi: bir necha minutdan so'ng telegraf «Tayms» va «Morning kronikl» gazetalarining redaksiyasiga quyidagi mazmundagi e'lonni yetkazdi:

«Kapitan Grant va «Britaniya» kemasining taqdiri to'g'risida ma'lumot olmoqchi bo'lganlar mister Eduard Glenarvanga murojaat qilsinlar. Shotlandiya, Dumbarton grafligi, Lyuss, Malkolm-Kestl».

Uchinchibob

MALKOLM-KESTL

Malkolm-Kestl – Togʻli Shotlandiyaning eng koʻrkam qasrlaridan biri. U Lyuss qishlogʻiga yaqin yerda, goʻzal manzarali vodiya tepasida qad koʻtargan. Lomond koʻlining koʻm-koʻk suvlari uning granit devorlarini yuvib turadi. Bu qasr Rob-Roy va Fergus Mak-Gregorlarning vatanida koʻp zamonlardan beri Valter Skott qahramonlarining qadimiy mehmondoʻstlik urf-odatlarini saqlab kelgan Glenarvanlar avlodining mulki hisoblanadi.

Glenarvan rosa badavlat odam edi. U odamlarga juda koʻp yaxshilik qilar, qilgan yaxshiligi hatto saxiylikidan ham oshib ketar edi, chunki uning yaxshiligining cheki yoʻq edi, saxiylikning esa, istasa-istamasa, chegarasi boʻladi. Uni Angliya davlat arboblari uncha yoqtirmas edi, buning sababi dastlab shu ediki, Glenarvan oʻz ota-bobolarining yoʻlidan borar va «bu janubliklar»ning siyosiy tazyiqlariga qattiq qarshi chiqar edi. U butun yuragi bilan doim Shotlandiyaning sodiq farzandi boʻlib qoldi; hatto oʻz kemalari bilan Qirollikning Temzadagi yaxt-klubi uyushtirgan musobaqalarda qatnashganda ham faqat oʻz vatani Shotlandiyaning shon-sharafini oʻylar edi.

Eduard Glenarvan oʻttiz ikki yoshda boʻlib, baland boʻyli, chehrasi bir oz jiddiy, lekin boqishlari gʻoyat muloyim, nihoyatda jasur, epchil, tashabbuskor va oliyanob kishi edi. Undan Togʻli Shotlandiyaning toza nafasi gurkirab turardi.

Glenarvanning uylanganiga endi uch oy boʻlgan edi. Xotini Elen oʻz hayotini geografiya fani va geografik kashfiyotlar yoʻlida qurbon qilgan mashhur sayyoh Vil-yam Tuffnelning qizi edi.

Elen dvoryanlar oilasiga mansub emasdi, u shotlandiyalik qiz edi, bu esa Glenarvan uchun hamma narsadan ham afzal. Glenarvan oʻziga umr yoʻldoshi qilib ana shu goʻzal, jasur va fidokor qizni tanladi. Glenarvan Elen bilan u otasidan yetim qolib, otasining Kilpatrikdagi uyida hech qanday mablagʻsiz, tanho oʻzi yashab turgan paytda tanishdi. Glenarvan bu gʻarib qizning sadoqatli va fidokor xotin boʻlishini darhol

payqadi va unga uylandi. Elen yigirma ikki yoshdagi sarg'ish sochli, Shotlandiya ko'llarining go'zal bahor tongidagi shaffof suvlarini eslatuvchi ko'm-ko'k ko'zli ayol edi. U o'z erini nihoyatda yaxshi ko'rardi. Xizmatkorlarga kelsak, ular o'zlarining yosh bekachlaridan jonlarini ham ayamasi edilar.

Yosh er-xotin Tog'li Shotlandiyannig go'zal va yovvoyi tabiati quchog'iga solingan Malkolm-Kestlda baxtli hayot kechirar edilar. Ular ikki chetiga dub [bolut] va klyon [zarang] daraxtlari ekilgan alleyalarda, ko'l sohil-larida sayr qilib yurishar, qadimiy xarobalar Shotlandiyaning tarixini aks ettirib turadigan yovvoyi daralarga tushishar edi. Ular goh qayinzor va qarag'ayzor o'rmonlarda, o'tlari sarg'aya boshlagan keng dashtlarda kezib yurishar, goh tik ketgan tog' cho'qqilariga chiqib ketishar yoki bo'm-bo'sh vodiylarda ot chop-tirib yurishar edi. Ular shu paytlargacha **«Rob-Roy o'lkasi»** deb atalib keladigan bu go'zal o'lkani, Valter Skott g'oyat boplab tasvir qilgan bu mashhur joylarni o'rganishar va juda sevishar edi. Kechqurunlari ufqda «Mak-Farlanning fonari» yoqilganda – Oy chiqqanda ular Malkolm qasrini belbog' singari aylanib o'tadigan qadimiy gallereyani kezugani chiqib ketishar edi.

Ularning to'ydan keyingi dastlabki oylari shu tarzda o'tdi. Lekin Glenarvan o'z xotini mashhur sayyohning qizi ekanini unutmadi. U otasining sayohatga bo'lgan ehtiros-lari qizga ham o'tgan bo'lsa kerak, deb faraz qilar va bu bilan yanglishmagan edi. Shu maqsadda «Dunkan» qurildi. «Dunkan» Eduard va Elen Glenarvanlarni yaqin kunlarda O'rta dengizga olib ketishi kerak edi. Eduard «Dunkan»ni butkul Elenning ixtiyoriga topshirganda uning qanchalik sevinganini tasavvur qilish qiyin emas.

Mana, Glenarvan Londonga jo'nab ketdi. Lekin gap kema halokatiga uchragan bechoralarni qutqarish ustida borayotgani uchun Elen erining to'satdan jo'nab ketganiga xafa bo'lmadi. Faqat u erini juda zoriqib kutar edi. Ertasiga olingan telegrammada Glenarvan tez orada qaytib kelishni va'da qilgan edi. Kechqurun esa undan xat keldi, bunda Glenarvan o'zi boshlagan ish ba'zi moneliklarga duch kelib qolgani uchun bir qancha vaqt Londonda ushlanib qolishini xabar qildi.

Uchinchi kun yana bitta xat keldi, Glenarvan bu safar admiralteystvodan norozi ekanini yashirmagan edi.

Shu kundan boshlab Elen xavotirlanishga tushdi. Kechqurun o'z xonasida o'tirgan edi, Malkolm-Kestl qasrining boshqaruvchisi Xelbert kelib, mister Glenarvanni so'rayotgan bir yosh qiz bilan bir o'g'il bolani qabul qila olasizmi, deb so'radi.

– Ular shu yerlikmi? – deb so'radi Elen.

– Yo'q, missis, – deb javob berdi boshqaruvchi, – men tanimayman. Ballovgacha poyezdda, u yerdan Lyussga piyoda kelishibdi.

– Chaqiring ularni, Xelbert, – dedi Elen.

Boshqaruvchi chiqdi. Bir necha minutdan keyin Elenning xonasiga yoshgina bir qiz bilan bir o'g'il bola kirib keldi. Ular opa-uka edilar. Qiz bilan bola bir-biriga juda o'xshash bo'lganidan ortiqcha shubhaga o'rin ham yo'q edi. O'n olti yoshlarga kirgan bu qizning biroz horg'in, chiroyligina chehrasi, chamasi, halitdan ko'pgina ko'z yosh to'kib ulgurgan ko'zlari, kamtarinlik va ayni vaqtda jasorat sezilib turgan boqishlari, oddiy, lekin ozoda kiyimlari kishida unga mehr uyg'otadi. U o'n ikki yoshlar chamasidagi o'g'il bolaning qo'ldan yetaklab olgan edi. Bolaning chehrasida qat'iyat aks etib turar, ko'rinishidan u o'zini opasining homiysi hisoblar edi. Ha! Bu yigitcha opasi bilan gaplashganda uning hurmatini joyiga qo'yib muomala qilmagan har qanday kishining ta'zirini berib qo'yishga tayyor ekani shubhasiz.

Opasi Elen bilan yuzma-yuz kelgach, biroz o'ng'ay-sizlandi, biroq Elenning o'zi darhol gap ochdi:

– Siz men bilan uchrashmoqchi edingizmi? – deb so'radi Elen, qizga dalda berishga tirishib.

– Yo'q, siz bilan emas, – deb javob berdi bola. qat'iy qilib. – Biz mister Glenarvanning o'zini ko'rmoqchimiz.

– Siz uni kechiring, xonim, – dedi qiz va ta'na qilganday ukasiga qarab qo'ydi.

– Mister Glenarvan hozir bu yerda emas, – deb izoh berdi Elen, – lekin men uning xotini bo'laman. Agar men uning o'rnini...

– Siz mister Glenarvanning xotinimisiz? – deb so'radi qiz.

– Ha, miss.

– «Tayms» gazetasida «Britaniya» kemasining halokatga uchrangani to'g'risidagi xabarni e'lon qilgan Malkolm-Kestllik mister Glenarvanning xotini bo'lasizmi?

– Ha, ha! – de javob berdi Elen, shoshib, – Sizlar...

– Men kapitan Grantning qizi bo'laman, bu esa mening ukam.

– Miss Grant! Miss Grant! – deb yubordi hayajon bilan Elen va shaxt bilan qizni quchoqladi, bolannig kulcha yuzlaridan o'pdi.

– Xonim, – deb Elenga murojaat qildi miss Grant, hayajon bilan, – otam kapitanlik qilgan kemanding halokati to'g'risida nimalar bilasiz? U tirikmi? Biz uni yana qaytib ko'ramizmi? O'tinaman, tezroq ayting!

– Oh, yaxshi qiz! Men sizning porloq umidlaringiz qarshisida ojizman...

– Aytavering, xonim! Men har qanday g'amga ham bardosh bera olaman, hammasini aytavering.

– Jonginam, – deb javob berdi Elen, – umid har qancha oz bo'lsa ham, har holda, bir kun kelib otangiz bilan yana diydor ko'rishsangiz ajab emas.

– Yo rabbiy, yo rabbiy!.. – deb qichqirdi miss Grant va ortiq o'zini tutib turolmay, ho'ngrab yig'lab yubordi.

Ukasi Robert esa hayajon bilan Elenning qo'lidan o'pardii.

Bu alamli sevinchning dastlabki hayajonlari bosilgach, qiz Elenni behisob savollar bilan ko'mib tashladi, Elen ularga hujjatning qanday topilganini, «Britaniya»ning Patagoniya sohillarida halokatga uchraganini, kapitan bilan ikki matrosning kema halokati dan so'ng omon qolganini, chamasi, ular qirg'oqqa chiqib olgan ekanini va, nihoyat, uch tilda yozib okeanga tashlangan hujjatda ular yordam so'rab, butun dunyoga murojaat qilganliklarini so'zlab berdi.

Elen hikoya qilar ekan, Robert Grant go'yo o'zining butun hayoti Elenning og'zidan chiqayotgan ana shu so'zlarga bog'liqday, ko'zlarini uzmasdan, unga tikilib turdi. Uning bolalik tasavvuri otasi boshidan kechgan butun dahshatlarni ko'zi oldida jonlantirar, u otasini halokatga uchragan «Britaniya»ning palubasida, to'lqinlar orasida ko'rar, u bilan birga qirg'oqdagi qoya toshlarga tirmashar, to'lqin urib turgan qum ustida hansirab emaklar edi. Elenning hikoyasini eshitar ekan, u o'zi ham sezmagani holda bir necha marta:

– Oh, otajon! Bechora otajonim! – deb yubordi. Keyin opasining pinjiga yana ham qattiqroq qisildi.

Miss Grant esa qo'llarini qovushtirib, bir og'iz ham so'z demay tingladi.

– O'sha hujjat qani, xonim, o'sha hujjat?! – deb so'radi qiz, Elen hikoyasini tugatishi bilan.

– Hujjatlar hozir menda emas, jonginam, – deb javob berdi Elen.

– Endi yo'qmi?

– Ha, mister Glenarvan otangizga bir nafi tegarmikin deb, hujjatlarni Londonga olib ketdi. Lekin men sizga hujjatning mazmunini so'zma-so'z aytib berdimku, uni qay usulda o'qiganimizni ham aytdim. Deyarli butunlay o'chib ketgan bu uzuq-yuluq ifoda va so'zlar orasidan dengiz to'lqinlari bir necha raqamga insof qilibdi. Baxtga qarshi, uzunlik...

– O'shasiz ham topsa bo'ladi ularni, – deb qichqirib yubordi Robert.

– Albatta, mister Robert, – dedi Elen bolaning bunday qat'iyat bilan so'zlashiga beixtiyor tabassum qilib. – Ko'rib turibsizki, miss Grant, – deb u yana qizga tomon o'girildi, – men u hujjat to'g'risida nima bilgan bo'lsam, eng mayda ikir-chikirlarigacha – hammasi endi sizga ham yaxshi ma'lum.

– Ha, xonim, – deb javob berdi qiz, – lekin men otamning qo'li bilan yozilgan xatlarni bir ko'rsam degan edim!

– Ehtimol, bugun-erta mister Glenarvan uyga qaytib qolar. U qo'lidagi hech qanday shubhaga o'rin qoldirmaydigan bu hujjatni admiralteystvoga taqdim qilib, kapitan Grantni axtarish uchun darhol biror kema yuborilishiga erishmoqchi bo'lib ketgan.

– lloji bormikin buning! – deb yubordi qiz. – Nahotki, sizlar biz uchun harakat qilib yurgan bo'lsangiz?

– Oppoq qiz, – deb javob berdi Elen, – biz tashakkurga arziydigan hech qanday ish qilganimiz yo'q; bizning o'rnimizda har qanday odam ham shunday qilgan bo'lar edi. Ishqilib, hammamizning umidimiz puchga chiqmasa bo'lgani! Albatta, sizlar erim qaytib kelguncha shu yerda qolasizlar...

– Xonim, men sizning marhamatingizni suiiste'mol qilmoqchi emasman. Axir biz sizga tamomi begona odamlarmiz...

- Begona! Yo'q, jonim, siz ham, ukangiz ham bu uyda begona emassizlar! Men mister Glenarvan kelib, kapitan Grantning bolalariga ularning otasini qutqazish uchun nima ishlar qilinajagini aytib berishini istar edim.

Bunday chin yurakdan qilingan taklifdan bosh tortib bo'lmas edi. Miss Grant bilan ukasi mister Glenarvanning qaytishini kutib, Malkolm-Kestlda qoldilar.

T o' r t i n c h i b o b

ELEN GLENARVANNING TAKLIFI

Elen kapitan Grantning bolalari bilan gaplashar ekan, admiralteystvo Glenarvanning iltimosini qanday qarshi olgani to'g'risida hech narsa demadi. Shuningdek, kapitan Grantning Janubiy Amerika hindulariga asir tushib qolgan bo'lishi mumkinligi to'g'risida ham indamadi. Bola bechoralarni battar xafa qilib, ularning ota bilan ko'rishish umidini qaytadan so'ndirishning nima hojati bor! Buning biror foydasi ham tegmas edi. Shuni tushungan Elen miss Grantning savollariga javob berib bo'lgach, endi o'zi Meri Grantga uning hayoti to'g'risida savollar bera boshladi.

Meri Grantning ta'sirli va oddiy hikoyasi Elenning unga bo'lgan mehrini yana ham oshirib yubordi.

Kapitan Grantning Meri bilan Robertdan boshqa bolasi yo'q edi. Garri Grantning xotini Robertni tug'ishda vafot qildi. Kapitan Grant o'zining uzoqqa cho'ziladigan dengiz safarlari vaqtida bolalarini o'zining bir kekxa mehribon xolavachchasiga topshirib ketar edi. Kapitan Grant o'z ishini puxta bilgan, jasur dengizchi edi. Asli shotlandiyalik bo'lgan kapitan Shotlandiyada Pert grafligiga qarashli Dendi shahrida yashar edi.

Garri Grantning oldin kapitan yordamchisi, so'ngra kapitan sifatida qilgan dastlabki uzoq safarlari muvaffaqiyatli o'tdi. Robert tug'ilgandan keyin oradan bir necha yil o'tgach, u bir qadar mablag' egasi bo'lib qoldi.

Butun Shotlandiyada uning dongini chiqargan fikr ham kapitanning miyasida ana shunda tug'ildi. Glenarvan va ba'zi boshqa kishilar kabi kapitan Grant

ham Angliya Shotlandiyani asirlikka solgan deb hisoblar edi. Uning fikricha, Shotlandiyaning manfaatlarini anglo-sakslarning manfaatlariga mos kelmas edi, shuning uchun u Tinch okeandagi orollardan birida Shotlandiyaning katta mustamlakasini vujudga keltirmoqchi edi. U o'zining bo'lajak mustamlakasiga mustaqillik bermoqchi edimi? Ehtimol. U o'zining bu yashirin niyatlarini bitta-yarimtaga aytib qo'yan bo'lishi ham mumkin. Har holda, bu niyatlarini amalga oshirishda hukumat unga yordam bermadi. Yordam bermadigina emas, u kapitan Grantga turli vositalar bilan xalaqit bera boshladi. Lekin kapitan taslim bo'lmadi. U o'z vatandoshlariga murojaat qildi, o'zining butun bor-yo'g'ini sarflab, «Britaniya» kemasini qurdi va saralangan komanda tuzib, Tinch okeandagi katta orollarni tekshirgani jo'nab ketdi. Bolalarini esa xolavachchasi bo'lgan keksa bir kampirning qo'liga topshirdi. Bu 1861-yilda bo'lgan edi. 1862-yilning may oyigacha, bir yil mobaynida u o'zi to'g'risida xabar berib turdi. Lekin «Britaniya» 1862-yil iyun oyida Kalyaodan jo'nab ketganidan keyin hech kim ular to'g'risida hech nima eshitmadi. «Dengizchilar gazetasi» ham kapitan Grantning taqdiri to'g'risida hech qanday xabar bosmadi.

Bu orada Garri Grantning keksa xolavachchasi to'satdan vafot qildi va uning bolalari dunyoda yolg'iz qoldilar. Meri Grantning yoshi o'n to'rtta edi, lekin jasur qiz og'ir ahvolga tushib qolganidan qo'rqmadi, ruhi tushmadi va butun diqqatini hali juda ham yosh bola bo'lgan ukasiga qaratdi. Robertni tarbiyalash, o'qitish kerak edi. Rejali, ziyrak, saranjom va qanoatli qiz o'zi to'g'risida o'ylamadi, kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlab, ukasini tarbiyaladi, unga onalik qildi.

Yetim qolgan bolalar muhtojlik bilan mardona kurashib, Dendi shahrida yashadilar. Ularning ahilligiga kishining havasi kelardi. Meri faqat ukasi to'g'risida qayg'urar va uning kelajakda baxtli bo'lishini o'ylardi. Bechora qiz «Britaniya»ning halok bo'lganiga va otasining o'lganiga ishonib qolgan edi. «Tayms» gazetasidagi e'longa tasodifan ko'zi tushib qolganda, uning qanday hayajonga tushganini tasvirlab berish qiyin. Bu xabar uning so'ngan umidlarini birdan jonlantirib yubordi.

Meri darhol harakat qilishga qaror berdi. Kimsasiz begona sohillarda halokatga uchragan kema qoldiq-

lari orasidan kapitin Grantning jasadi topilibdi, degan mash'um xabarni eshitishga ham rozi edi, hatto shunday xabar ham doimiy shubhalar va doim azob beruvchi noma'lumlikdan ko'ra yaxshiroq edi.

Meri bor gapni ukasiga bildirdi. O'sha kuniyoq kapitan Grantning bolalari Pertdan o'tadigan poyezdga chiqdilar, kechqurun Malkolm-Kestlga yetib keldilar. Qanchadan qancha ruhiy azoblardan so'ng Merining qalbida qaytadan umid tug'ildi.

Meri Grant Elen Glenarvanga ana shunday qayg'uli hikoya so'zlab berdi. Qiz bu uzoq sinov yillarida o'zini qahramonona tutganini xayoliga ham keltirmay, oddiygina so'zlar edi. Lekin Elen buni juda yaxshi tushundi, shuning uchun u qizning hikoyasini tinglar ekan, ko'z yoshlarini yashirmas va kapitan Grantning bolalarini tez-tez quchoqlar edi.

Robert esa o'zlarining qanday ahvolda qolganliklarini endigina tuygandek bo'ldi. Opasining hikoyasini eshitar ekan, u Meriga ko'zlarini katta ochib qarardi. Robert Merining uni deb nimalar qilganini, qanday azoblar chekkanini faqat endigina anglab yetdi va ortiq o'zini tutolmay opasining bo'yniga tashlandi va uni mahkam quchoqladi.

– Oh, opajon! Aziz opajonim! – dedi g'oyat hayajonlangan bola. Suhbat davom etar ekan, asta-sekin qorong'u tushdi, bolalar juda charchaganini payqagan Elen gapni to'xtatdi. Meri bilan Robert o'zlari uchun ajratilgan xonalarga kirib, porloq kelajak to'g'risidagi shirin xayollar og'ushida uxlab qoldilar.

Ular chiqib ketgach, Elen mayor Mak-Nabbsni chaqirishni buyurdi va unga kechqurun bo'lgan hamma gapni so'zlab berdi.

– Meri Grant juda ajoyib qiz ekan-da, – deb baho berdi Mak-Nabbs, Elenning hikoyasini eshitib bo'lib.

– Gap erimning o'zi boshlagan ishni muvaffaqiyat bilan tugatishida qoldi, – dedi Elen, – aks holda, bu ikki bolaning ahvoli nihoyatda og'ir bo'ladi!

– Glenarvan o'z maqsadiga erishadi, – dedi Mak-Nabbs. – Nahotki, admiralteystvodagi lordlarning yuragi Shotlandiya sementidan ham qattiq bo'lsa.

Mak-Nabbsning bu ishonchiga qaramay, Elen kechani juda tashvishlanib, mijja qoqmay o'tkazdi.

Ertasiga ertalab, Meri bilan Robert barvaqt turib, Malkolm-Kestlning keng hovlisida sayr qilib yurisharkan, yaqinlashib kelayotgan faetonning ovozi eshitildi. Glenarvan Malkolm-Kestlga qaytib kelayotgan edi. Otlar ola-tasir yugurib kelardilar.

Glenarvan qasrga kirib kelishi bilanoq mayor va Elen uning qarshisiga yugurdi.

Glenarvan g'amgin, xomush, ayni vaqtda darg'azab ko'rinardi. U indamasdan xotinini quchoqladi:

– Xo'sh, nima bo'ldi, Eduard? – deb so'radi Elen.

– Chatoq, azimim, bu odamlarning qalbi toshdan ekan! – deb javob berdi Glenarvan.

– Rad qilishdimi?

– Ha, kema berish to'g'risidagi taklifimni rad qilishdi. Franklinni axtarish uchun bekorga sarf qilingan million-million pullar haqida gapirdilar. Hujjat aniq emas degan vaj ko'rsatdilar. Kema bundan ikki yil oldin halok bo'lgan, endi bu bechoralarni topish amrimahol deb bahona qildilar. Falokatga uchragan kishilar hindular qo'liga asir tushganidan keyin, albatta mamlakatning ichkarisiga olib ketilgan, uchta odamni, uchta shotlandiyalikni topish uchun butun Patagoniyani tintib chiqish mumkin bo'lmaydi-ku, deb ishontirmoqchi bo'ldilar. Bu xavfli, befoyda qidirish ishlarida qutqarmoqchi bo'lganimizdan ko'ra ko'proq odam halok bo'ladi, dedilar. Xullas, iltimosimni rad qilishga ahd qilgan kishilarning barcha dalillarini keltirdilar. Ular kapitan Grantning maqsadlarini hali unutganlari yo'q. Endi bechora kapitan butunlay halok bo'ldi!

– Otam! Bechora otam! – deb yubordi Meri Grant, Glenarvan qarshisida tiz cho'kar ekan.

Glenarvan oyoqlari ostiga tiz cho'kkan qizga hayron bo'lib qaradi:

– Otam dedingizmi?! Nahotki, siz miss...

– Ha, Eduard, – dedi gapga aralashib Elen, – miss Meri va uning ukasi Robert – kapitan Grantning bolalari. Admiralteystvodagi lordlar ularni yetimlikka mahkum qilibdilar.

– Oh, miss, – dedi Glenarvan qizning turishiga yordamlashar ekan, – men sizlarning shu yerda ekangizni bilganimda...

Uning gapi chala qoldi. Qasr hovlisida og'ir jimlik cho'kdi, bu jimlikni faqat ho'ng-ho'ng yig'i tovushi

buzar edi. Na Glenarvan, na Elen, na mayor va na o'z xo'jayinlari atrofida xomush turgan qasr xizmatkorlari churq etib og'iz ochmas edilar. Bu barcha shotlandiyaliklarning qalbida ingliz hukumatiga nisbatan g'azab qaynayotgani ochiq ko'rinib turardi.

Bir necha minutdan so'ng mayor Glenarvandan:

– Demak, endi hech qanday umid yo'qmi? – deb so'radi.

– Hech qanday!

– Unday bo'lsa, – deb qichqirdi kichkina Robert, – o'sha janoblarning oldiga men o'zim boraman. Ko'ramiz...

Opasi uning gapini tugatishiga imkon bermadi, lekin bolaning mahkam qisilgan mushtlari uning niyatlaridan darak berib turardi.

– Yo'q, Robert, yo'q! – dedi Meri Grant. – Bizga qilgan barcha yaxshiliklari uchun bu qasrning oliyjanob xo'jayinlariga tashakkur aytamiz-u, ketamiz. Biz ularning bu yaxshiligini hech vaqt unutmaymiz.

– Meril – deb qichqirdi Elen.

– Nima qilmoqchisiz endi? – deb so'radi Glenarvan qizdan.

– Men qirolichaning oyog'iga yiqilaman, – deb javob berdi qiz, – ko'ramiz, u ham otasini qutqarishni so'rab yolborgan ikki bolaning gapiga quloq solmay qo'yaverarmikin.

Glenarvan bosh chayqab qo'ydi, u qirolichaning biror iltifot ko'rsatishigagina emas, Meri Grant uning huzuriga kira olishiga ham shubha qilardi.

Ingliz kemalarining shturvali oldiga yozib qo'yiladigan: **«Passengers are requested not to speak to the man at the wheel»**¹ degan so'zlar go'yo podsho saroyining eshiklariga ham yozib qo'yilgandek, kishilarning ohi tojdorlarga kamdan kam yetib boradi.

Elen erining fikrini tushundi. U qizning barcha urinishlari natijasiz tugashini bilardi. Elen shu bugundan boshlab bu ikki bolaning hayoti umidsizlik va g'am bilan o'tishi aniq ekaniga shubha qilmasdi. Xuddi shu payt uning miyasiga g'oyat yuksak va oliyjanob bir fikr keldi...

– Meri Grant! – dedi u. – Biroz shoshmang, ketmay turing. Menga quloq soling.

¹ «Passajirlardan rulevoy bilan gaplashmaslik so'raladi»

Ukasining qo'lidan ushlab, ketmoqchi bo'lib turgan qiz to'xtadi.

Elen, ko'zlari yoshlanib, hayajon bilan eriga murojaat qildi.

– Eduard! – dedi u qat'iy tusda. – Kapitan Grant mana bu hujjatlarni dengizga tashlar ekan, o'z taqdirini shu hujjat borib tegadigan kishining qo'liga topshirgan. Hujjat bizning qo'limizga kelib tegdi...

– Bu bilan nima demoqchisiz, Elen? – deb so'radi Glenarvan.

Atrofdagilarning hammasi jim turishar edi.

– Men, – deb davom etdi Elen, – o'z hamjihat hayotimizni xayrli ish bilan boshlash – buyuk baxtdir, demoqchiman. Azizim Eduard, siz xursand qilish uchun meni sayohatga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygansiz. Lekin o'z vatani tomonidan taqdirning hukmiga tashlab qo'yilgan baxtsizlarni xalos etishdan ham buyukroq sevinch, shundan ham foydaliroq ishning bo'lishi mumkinmi?

– Elen! – deb yubordi Glenarvan.

– Ha! Siz mening fikrimni tushundingiz, Eduard. «Dunkan» – pishiqlik, ishonchli kema. U janubiy dengizlarda bemalol suzib yura oladi, butun dunyoni aylanib chiqishga ham chidaydi. Agar lozim bo'lsa, bunday sayohatga chiqadi ham! Yo'lga chiqaylik, Eduard! Kapitan Grantni axtarib topaylik!

Yoshgina xotining bu mardona so'zlaridan hayajonga kelgan Glenarvan uni quchoqladi va tabassum bilan bag'rig'a bosdi, Meri bilan Robert esa uning qo'llarini o'pa boshladilar. Bu manzaradan xursand bo'lib, qattiq hayajonlangan Malkolm-Kestldagi xizmatkorlar ham ovozlarning boricha:

– Ura! Ura, Eduard va Elen Glenarvanlar sharafiga uch martalab ural – deb qichqirishar edi.

B e s h i n c h i b o b

«DUNKAN»NING JO'NAB KETISHI

Elen Glenarvanning oliyjanob va dovyurak ayol ekanini biz ilgari aytib o'tgan edik. Kapitan Grantni axtarib topish to'g'risidagi taklifi bunga shubhasiz bir dalildir. Glenarvan uning fikrlariga darhol tushuna-

digan va hayot yoʻlini u bilan birga mardlarcha bosib oʻta oladigan bu oliyjanob xotini bilan har qancha faxrlansa ham arzir edi. Londonda, uning fikrini rad qilganlaridayoq, oʻzining ham miyasiga kapitan Grantni izlagani safarga chiqish fikri kelgan edi, lekin xotini bilan uzoq vaqt ayrilishni istamagani uchungina buni oldinroq ayta olmadi. Endi, kapitan Grantni axtarish taklifini Elenning oʻzi oʻrtaga tashlagandan keyin hech qanday ikkilanishga oʻrin qolmadi. Maikolm-Kestldagi xizmatkorlar bu taklifni shodlik bilan tabriklashdi, — axir, gap xuddi ular kabi shotlandiyaliklarni qutqarish toʻgʻrisida borayotgan edi-da. Shuning uchun Glenarvan ularning Elen sharafiga aytayotgan «ura» xitoblari-ga butun yurakdan qoʻshildi.

Yoʻlga chiqish masalasi hal boʻlgandan keyin bir soatni ham bekor oʻtkazmaslik kerak edi. Oʻsha kun-nyoq Glenarvan Jon Manglsga «Duncan»ni Glazgoga keltirish va unda janubiy dengizlarda suzish uchun barcha tayyorgarliklarni koʻrish toʻgʻrisida buyruq berdi; bu ekspeditsiya butun dunyo sayohatiga ham aylanib ketishi mumkin edi. Shuni ham aytish kerakki, «Duncan»da sayohatga chiqishni taklif qilar ekan, Elen kemanding layoqatiga baho berishda yanglishmagan edi. Bu juda pishiq va tezyurar kema uzoq dengiz sayohatlariga bemalol chidash bera olardi.

«Duncan» ikki yuz oʻn tonna hajmdagi, par bilan yuradigan ajoyib kema edi, vaholanki, Amerika qirgʻoqlariga yetib borgan dastlabki kemalar — Kolumb, Vespuchchi va Magellanning kemalari bunga nisbatan ancha kichik hajmda edi¹.

«Duncan»ning ikkita machtasi: marsel va bramstengali fok-machta, kontr-bizan va flagshtokli grot-machtasi bor edi; bulardan tashqari kemada uchbur-chakli yelkan — fok-staksel, katta va kichik kliverlar, shuningdek, shtangaga oʻrmashtirilgan yelkanlar ham bor edi. Xullas, «Duncan» oddiy klipperdan sira qo-lishmasdan suza olish darajadagi yelkanga ega edi. Lekin, albatta, kemanding mexanik kuchi — par mashinalariga hammasidan koʻproq tayanish mumkin edi. Eng

¹ Xristofor Kolumb Amerikaga toʻrtinchi marta sayohat qilganda toʻrt kema-da borgan edi. Bu kemalarning eng kattasi — Kolumbning oʻzi tushgan karavella yetmish tonna hajmli, eng kichigi esa ellik tonna sigʻimdagi kema boʻlgan. Ular qirgʻoq boʻylab suzishga yaraydigan kemalar edi, xolos *Jyul Vern* izohi).

yangi sistema asosida ishlanib, peregrevatellar bilan jihozlangan, bir yuz oltmish ot quvvatiga ega bo'lgan bu mashinalar ikki qavat vintni harakatga keltirar edi. Barcha yelkanlarini ochib yurganda «Dunkan» o'sha vaqtga qadar sira ko'rilmagan tezlikda suza olardi. Si-rasini aytganda, Klayd qo'ltig'ida sinovdan o'tayotgan paytda «Dunkan»dagi patent-lag¹ kemanding tezligi soa-tiga o'n yetti dengiz miliga² yetganini ko'rsatdi.

«Dunkan» hatto dunyo sayohatiga ham bemaolol chi-qa olardi, albatta.

Jon Mangls kemani ichki tomondan jihozlasa bo'lgani edi. U eng oldin ko'proq ko'mir g'amlab olish uchun ko'mirxonalarni kengaytirdi, chunki yo'lda ke-maga ko'mir topish oson emas edi. Kema kambuzi³ zaxiralarini to'ldirishga ham u alohida e'tibor berdi. U ikki yilga yetadigan oziq-ovqat g'amlab oldi. To'g'ri u pulga muhtojlik sezmasdi; uning qo'lidagi puli hatto durustgina bir to'p sotib olib, kemanding tumshuq to-moniga o'rnatishga ham yetdi. Yo'lda nimalar yuz be-rishini kim biladi deysiz!

Shuni ham aytish lozimki, Jon Mangls o'z ishi-ga mohir dengizchi edi, hozirda u faqat yaxtaga qo'mondonlik qilayotgan bo'lsa ham, lekin Glazgoda eng yaxshi shkipperlardan hisoblanardi. U o'ttizga kir-gan edi. Uning biroz xunuk yuzidan mard va olija-nob yigit ekani ko'rinib turardi. Uni yosh bolaligida Malkolm-Kestlga keltirgan edilar. Glenarvanlar oila-si uni o'qitib tarbiyaladi va ajoyib dengizchi qilib ye-tishtirdi. U bir necha marta uzoq dengiz sayohatla-riga chiqqan, o'shanda o'zining butun dengizchilik san'atini, g'ayrati va sovuqqonligini ko'rsatgan edi. Gle-narvan «Dunkan»ga qo'mondonlik qilishni taklif qilgan-da, u bajonidil rozi bo'ldi, chunki Malkolm-Kestlning xo'jayinini o'z akasidek yaxshi ko'rar, unga o'zining sodiq ekanini ko'rsatishga doim tayyor edi.

Jon Manglsning yordamchisi Tom Ostin bahuzur ishonish mumkin bo'lgan eski dengizchi edi. Kapitan bilan uning yordamchisini ham qo'shib hisoblaganda «Dunkan»ning komandasi yigirma besh kishidan iborat

¹ Patent-lag – strelka yordamida kemanding harakat tezligini ko'rsatadigan siferblatli asbob.

² Dengiz mili 1852 metrga teng.

³ Kambuz – oshxona.

edi. Ularning hammasi Dumbarton graffigidan bo'lib, tajribali va saralangan dengizchilar edi. Ular kemada ham mard shotlandlar klani¹ tashkil qilgandek edilar. Ular orasida hatto traditsion piper-bag² ham bor edi. Shunday qilib, kema komandasi Glenarvanga sodiq, o'z ishiga juda berilgan, tajribali, qurol tutishni bilgan eng qaltis ekspeditsiyalarda ham ish bera oladigan, mard dengizchilardan iborat edi. «Duncan» komandasi kemandaning qanday safarga chiqishidan darak topganda dengizchilar o'z quvonchlarini hech qayerga sig'dirolmay, qattiq aytilgan «ura» sadolari bilan Dumbarton qoyalarini larzaga keltirdilar.

«Duncan»ga ko'mir va oziq-ovqat ortish ishiga g'ayrat bilan kirishgan Jon Mangls Eduard va Elen Glenarvanlarning kayutalarini uzoq safarga tayyorlashni ham unutmadi. Shuningdek, u kapitan Grantning bolalari uchun ham kayutalar hozirlab qo'yishi lozim edi – axir, Elen Merining bu ekspeditsiyada ishtirok etish to'g'risidagi iltimosini rad qilolmas edi-da. Kichkina Robert esa qirg'oqda qolgandan ko'ra trumga yashirilib o'ishni afzal ko'rgan bo'lardi. Shunday yigitchani tashlab ketib bo'larmidi! Bunga urinishmadi ham. Shuningdek, Robertning yo'lovchi qilib emas, balki kema komandasi tarkibiga a'zo qilib olish to'g'risidagi talabiga ham rozi bo'lishga to'g'ri keldi. Unga dengizchilik ishlarini o'rgatish Jon Manglsga topshirildi.

– Yashasin! – dedi Robert. – Agar men biror ishni o'rniga keltirib qilolmasam, kapitan meni ayamay qamchin³ bilan savalasin.

– Unisidan xotirjam bo'l, o'g'lim, – dedi Glenarvan, jiddiy tusda, ammo u «Duncan»da qamchin bilan jazolash taqiqlangani to'g'risida hech narsa demadi.

«Duncan»dagi yo'lovchilar ro'yxatini tugallash uchun mayor Mak-Nabbsni ham eslatib o'tish lozim. U elliklarga kirgan, chiroyli va xotirjam yuzli, ajoyib tabiatli, kamtarin, indamas, beozor va soddadil kishi edi. Mak-Nabbsni qayerga boshlasangiz ketaverar, hech vaqt biron bilan tortishib o'tirmas, hech kim bilan

¹ Klan – oila, urug'.

² Piper-bag – polk surnaychilari [*Jyul Vern izohi*].

³ Ingliz flotida matroslarni savalash uchun ko'pincha qamchin ishlatilar edi [*Jyul Vern izohi*].

aytishmas, aslo achchiqlanmas edi. U xarob etilgan transheyalarga ham o'z yotoqxonasiga chiqayotgandek bamaylixotir ko'tarilar, uni hech narsa, hatto bomba ham hayajonga keltirolmas va yo'lidan qaytarolmas edi; u butun umrida bir marta ham achchiqlanmay o'lib ketsa kerak. Mak-Nabbs faqat jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan kishilarga xos jangovar jasoratga, jismoniy quvvatgagina emas, balki bundan ham qimmatliroq bo'lgan fazilatga, ya'ni bukilmas ma'naviy quvvatga ham ega edi. Uning birdan bir kamchiligi butun borligi bilan shotlandiyalik bo'lishi, shotlandiyalik ham emas, Kaledoniyaning chin farzandi bo'lishi, o'z vatanining qadimiy urf-odatlariga qattiq amal qilishi edi. Shuning uchun u hech vaqt Angliyaga xizmat qilishni istamadi, o'zining mayorlik unvonini esa komanda tarkibi nuqul shotlandiyalik dvoryanlardan iborat bo'lgan 42-gvardiyachi tog' polkida oldi. Mak-Nabbs Glenarvanning yaqin qarindoshi bo'lgani uchun Malkolm-Kestlda yashardi, mayor bo'lgani tufayli esa «Duncan»da safarga chiqishni tabiiy deb topdi.

Kutilmagan sabablarga ko'ra zamonamizning eng ajoyib sayohatlaridan biriga otlanayotgan kemaning yo'lovchilari ana shunday kishilar edi.

«Duncan» Glazgodagi paroxod pristanida paydo bo'lgan paytdan boshlab hammaning diqqatini o'ziga tortdi. Har kuni odamlar to'p-to'p bo'lib uni tomosha qilishar edi: hamma «Duncan» to'g'risida gapirar, unga qiziqar edi. Bu esa ko'p kapitanlarga xush kelmas, shu jumladan, pristanda «Duncan» bilan yonma-yon turgan va Kalkutta safariga tayyorlanayotgan «Shotlandiya» nomli ko'rkam paroxodning kapitani Bertonga ham yoqmas edi. Haqiqatan ham bu kattakon paroxodning kapitani o'zining kichkina qo'shnisi «Duncan»ni nazarpisand qilmaslikka haqli edi. Shunga qaramay, xalqning kundan kun oshib borayotgan nazar-e'tibori Glenarvanning kemasiga qaratilmoqda edi.

«Duncan»ning jo'nab ketish payti yaqinlashib kela boshladi. Jon Mangls mohir va g'ayratli kapitan ekanini ko'rsatdi. Kema Klayd qo'ltig'ida sinovdan o'tgan kundan bir oy keyin ko'mir, oziq-ovqat bilan ta'minlanib, uzoq safarga zarur bo'lgan barcha asbob-uskuna bilan jihozlangach, «Duncan» dengiz-

ga chiqishga tayyor edi. 25-avgustda jo'nab ketadigan bo'ldilar. Demak, kema janubiy kengliklarga taxminan bahorning boshlanishiga yetib borar edi.

Glenarvanning rejasi odamlarga ma'lum bo'lib qolgach, ko'p kishilar uni bunday sayohatning qiyin va xavfli ekani to'g'risida ogohlantira boshladilar. Lekin Eduard Glenarvan bu so'zlarga zarracha ham e'tibor bermadi, u kapitan Garri Grantni topib kelish maqsadidan aslo qaytmadi. Glenarvanning bu ishini qoralagan kishilarning ko'pi ayni vaqtda ichdan unga qo'yil bo'lardilar. Borib-borib, butun afkori omma ochiqdan ochiq Glenarvanni yoqlab chiqdi, shuning uchun ham hukumat gazetalaridan tashqari barcha matbuot admiralteystvodagi lordlarni bir og'izdan qoraladi. Glenarvan esa maqtovlarga ham, qoralashlarga ham e'tibor bermasdi – u o'zining burchi deb hisoblagan ishni amalga oshirmoqda, boshqasi bilan uning nima ishi bor?

24-avgustda Glenarvan, Elen, mayor Mak-Nabbs, Meri va Robert Grantlar, kema styuardi¹ mister Olbinet, uning Elen Glenarvanga xizmat qiluvchi xotini missis Olbinet Malkolm-Kestldan jo'nab ketishdi. Glenarvan oilasiga sodiq bo'lgan xizmatkorlar ularga butun yurakdan oq yo'l tilab, xayrlashdilar.

Bir necha soatdan so'ng sayohatchilar «Duncan» bortiga chiqdilar. Tinch, rohat turmushidan kechib, halokatga uchragan baxtsizlarni qutqarishga oshiqqan mard xotin Elenni Glazgo aholisi mehr bilan qizg'in tabrikladi.

Glenarvan bilan Elenga ajratilgan kayutalar «Duncan»ning yut qismida bo'lib, ikki yotoqxon, mehmon-xona va kiyinib-yuvinish uchun ajratilgan ikkita kichkinagina bo'lmadan iborat edi. So'ngra kemada yana bir umumiy kayut-kompaniya bo'lib, unga oltita kayutaning eshigi ochilar edi, undan beshtasini Meri va Robert Grantlar, mister va missis Olbinetlar va mayor Mak-Nabbs egallagan edilar. Jon Mangls bilan Tom Ostinning kayutalari kemanding tumshuq tomonida joylashgan bo'lib, eshigi palubaga ochilardi. Komanda esa palubalar o'rtasidagi kayutalarga joylashtirilgan edi; joy keng va butun qulayliklari bor edi, chunki

¹ *Styuard* – bufetchi. Asardagi shunga uyqashroq «*Styuart*» familiyasi bilan chalkashtirmang (*Muharrir*).

kemada ko'mir, oziq-ovqat va quroldan boshqa hech qanday yuk yo'q edi. Shunday qilib, kapitanning ixtiyorida joy juda ko'p edi, u esa bundan ustalik bilan foydalandi.

«Dunkan» 25-avgust erta tong soat uchlarda, suv qayta boshlaganda dengizga chiqishi kerak edi.

Kechqurun soat o'n birda hamma kemada hozir bo'ldi. Kapitan bilan komanda jo'nab ketish uchun oxirgi tayyorgarlik ishlarini ko'ra boshladilar. Yarim kechada bug' qozonlariga o't yoqildi. Kapitan o'tga tezroq ko'mir tashlash to'g'risida buyruq berdi, ko'p o'tmay kema trubalaridan chiqqan qop-qora tutun tungi tumanga ulanib ketdi. Janubi g'arb shamoli esayotgani uchun yelkanlardan foydalanib bo'lmas edi – dudlanib qolmasligi uchun ularni kanop g'iloflar bilan yaxshilab o'rab qo'yildi.

Soat ikkida «Dunkan»dagilar bug' qozonlarining kuchi bilan kemandagi titray boshlaganini sezidilar; manometr to'rt atmosfera bosim kuchini ko'rsatardi; qizib ketgan bug' klapanlar ostidan chiyillab otilib chiqa boshladi. Dengiz suvining ko'tarilishi to'xtadi, suvning qaytishidan oldingi vaqtincha tinish payti boshlandi. G'ira-shira tong otib kela boshladi, Klayd daryosining farvateri, uning tong yorig'ida xiralasha boshlagan baken chiroqlari ko'rina boshladi. Yo'lga chiqish payti keldi. Jon Mangls buni Glenarvanga xabar qilishni buyurdi. Glenarvan tez palubaga ko'tarildi.

Ko'p o'tmay suv qayta boshladi. «Dunkan»ning qattiq hushtagi yangradi: kema bog'lab qo'yilgan qoziqlardan bo'shatildi va qirg'oqdan ajraldi. Vint ishga tushdi va «Dunkan» daryo farvateridan yo'lga chiqdi. **Jon Mangls** *lotsman* olmadi; Klayd daryosining farvaterini u juda yaxshi bilar, kemani ochiq dengizga hech kim undan yaxshiroq olib chiqa olmas edi. Kema o'z kapitanining irodasiga bo'ysunib, itoat bilan borardi. Kapitan ishonch bilan o'ng qo'lida mashinani va so'l qo'lida rulni boshqarar edi. Ko'p o'tmay qirg'oqdagi eng so'nggi zavodlar ham orqada qoldi, tepalar ustiga joylashgan villalar ko'zga tashlana boshladi. Shahar shovqini orqada qoldi.

Bir soatdan so'ng «Dunkan» Dumbarton qoyalari oldidan o'tdi; ikki soatdan so'ng u Klayd qo'ltig'iga yetib bordi...

Ertalab soat oltida esa «Dunkan» ochiq dengizga chiqib oldi.

O l t i n c h i b o b

OLTINCHI KAYUTADAGI YO'LOVCHI

Safarning birinchi kuni dengiz ancha notinch edi; kechga borib shamol yana biroz kuchaydi. To'fqinlar «Dunkan»ni kuchligina chayqar edi. Shuning uchun ayollar palubaga chiqmadilar. Ular kayutalardagi koy-kalarda yotar edilar.

Ertasiga shamolning yo'nalishi bir qadar o'zgardi. Kapitan Jon Mangls fok, kontr-bizan va kichik marsel yelkanlarini ochishni buyurdi. Shundan so'ng «Dunkan»ning chayqalishi kamaydi. Elen bilan Meri Grant ertalab palubaga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Glenarvan, mayor va kapitan ham shu yerda edilar.

Quyoshning chiqib kelishi juda jozibador edi. Kat-takon oltin doiraga o'xshagan quyosh nihoyatda katta galvanik vannadan ko'tarilib kelayotgandek edi. «Dunkan» zarrin nurlar ustidan suzib borar, uning yelkanlarini shamol emas, quyosh nurlari kelib yoyayotgandek tuyulardi.

Kema yo'lovchilari quyoshning ko'tarilib kelishini indamay turib tomosha qildilar.

Nihoyat bu jimlikni Elen buzdi.

– Qanday go'zal manzara-ya! – dedi u. – Quyoshning bunday chiqishi kunning yaxshi bo'lishidan darak beradi. Faqat shamol o'z yo'nalishini o'zgartmay, orqadan esib tursa bo'lgani!

– Bundan yaxshi shamolni orzu qilish ortiqcha, azizim Elen, – dedi Glenarvan, – sayohatimizning bunday muvaffaqiyatli boshlanishidan mamnun bo'lishimiz kerak.

– Azizim Eduard, biz manzilga qancha vaqtda yetamiz?

– Buni faqat kapitan Jon ayta oladi, – dedi Glenarvan. – Qalay ketyapmiz, Jon? Kemangizdan xursandmisiz?

– Juda xursandman, ser. «Dunkan» juda yaxshi kema, bunday kemada suzgan har bir dengizchi o'zini baxtiyor sezadi. Mashina ham, korpus ham bir-biriga



juda mos tushgan. Shuning uchun kema to'fqinlarni osongina yorib o'tib, orqada tekis iz qoldirib kelmoqda. Biz hozir soatiga o'n yetti dengiz milyasi tezligida ket-yapmiz, agar bu tezlik kamayib qolmasa, o'n kundan keyin ekvatoridan o'tamiz, besh haftaga ham qolmay Gorn buruniga yetib boramiz.

– Eshitingizmi, Meri? Besh haftaga ham qolmay! – dedi qizga qarab Elen.

– Eshitdim, xonim, – deb javob berdi Meri. – Kapitanning bu so'zlarini eshitib, yuragim gupullab urib ketdi.

– Dengiz sayohatida o'zingizni qalay his qilyapsiz, Meri? – deb so'radi undan Glenarvan.

– U qadar yomon his qilayotganim yo'q, ser. Hade-may dengizga butunlay o'rganib olaman.

– Kichkina Robertimiz-chi?

– Robertmi?! – deb gapga aralashdi Jon Mangls. – Agar u hozir mashina bo'limida bo'lmasa, machtaga chiqib olgani aniq. Bu yigitcha dengiz kasalining nima ekanini mutlaqo bilmaydi... Ana, o'zingiz bir tomosha qiling-a. Qayerga chiqib olganini ko'ryapsizmi?

Hamma kapitan qo'li bilan ko'rsatayotgan tomonga – fok-machtaga qaradi: Robert palubadan yuz futcha balandlikda bram-stengoning arqonlarida osilib turardi. Meri beixtiyor titrab ketdi.

– Xotirjam bo'lavering, miss! – deb unga tasalli berdi Jon Mangls. – Uning yiqilib tushmasligiga men kafilman. Tez orada men yigitchani jasur dengizchi sifatida kapitan Grantga taqdim qilishga so'z beraman, men hurmatli kapitanni topishimizga zarracha ham shubha qilmayman.

– Koshki edi shunday bo'lsa! – deb javob qildi qiz.

– Umidimiz katta, miss Meri, – dedi Glenarvan. – Ishimiz muvaffaqiyatli boryapti. Bizning bu oliyjanob maqsadimizni amalga oshirishga bel bog'lagan mana bu azamatlarga bir qarang. Ular bilan biz albatta maqsadga erishamiz, erishganda ham ko'p qiynalmasdan erishamiz. Men Elenga ko'ngil ochish sayohatiga olib boraman, deb va'da qilgan edim, bu va'damni amalga oshiraman deb ishonaman.

– Eduard, siz bebaho odamsiz! – dedi Elen Glenarvan.

– Yo'q, aslo, lekin mening komandam – komandalarning, kemam esa – kemalarning eng yaxshi-

si. Nahotki, siz bizning «Duncan»ga qoyil qolmagan bo'lsangiz, miss Meri!

– Juda qoyilman, ser, – deb javob berdi qiz, – qoyil bo'lganda ham dengizchilik ishlariga tushunadigan kishi sifatida qoyilman.

– Rosti bilan-a?!

– Men hali yosh bola ekanimdayoq otamning kemalarida o'ynab yurar edim. U meni dengizchi qilib yetishtirishi kerak edi. Lozim bo'lib qolsa, men hozir ham yelkan ochish ishlarini bajara olaman.

– Rostdan ham-a, miss? – deb xitob qildi Jon Mangls.

– Unday bo'lsa, – dedi Glenarvan, – siz kapitan Jon bilan juda do'stlashib ketasiz, chunki u dunyoda dengizchilik hunarini hammadan ham yuksak qo'yadi. Hatto ayollar uchun ham bundan yaxshi ish yo'q deb hisoblaydi. Shunday emasmi, Jon?

– Juda to'g'ri aytdingiz, ser, – deb javob berdi yosh kapitan, – shunday bo'lsa ham men miss Grantning yelkan yozishdan ko'ra kayutada tinchgina o'tirganini afzal ko'raman. Shunga qaramay, missning boyagi so'zlari menga juda yoqib tushdi.

– Ayniqsa «Duncan»ga qoyil bo'lib turganda, a?.. – deb qo'shib qo'ydi Glenarvan.

– U bunga loyiq kema, – deb javob berdi Jon Mangls.

– Rostimni aytsam, siz kemani shunday maqtab yubordingizki, men uni boshdan oyoq, to'rumlarigacha ko'zdan kechirgim kelib qoldi, – dedi Elen. – Shu bilan birga azamat matroslarımız qanday joylashganlarini ham ko'rib kelamiz.

– Ular juda yaxshi o'rnashib olishgan, – dedi Jon Mangls, – xuddi o'z uyidagiday.

– Ular haqiqatan ham o'z uylaridalar, azizim Elen, – dedi Glenarvan. – Axir bu kema – o'z yurtimizning bir qismi, Dumbarton grafligining okean to'liqlarida suzib ketayotgan bir bo'lagi-da! Biz o'z vatanimizdan ketganimiz yo'q: «Duncan» – Malkolm-Kestlning xuddi o'zi.

Elen:

– Azizim Eduard, bo'lmasa bizga o'z qasringizni bir ko'rsating, – deb hazil qildi.

- Jonim bilan! - dedi Glenarvan. - Lekin oldin Olbinetga ikki og'iz so'z aytishga ruxsat etsangiz.

«Dunkan»ning bufetchisi Olbinet o'z ishiga nihoyatda mohir kishi bo'lib, o'z vazifasini jon-dili bilan, juda o'rinlatib bajarar edi. U xo'jayinining chaqirganini eshitib, darhol yetib keldi.

Glenarvan, go'yo gap qasrning atrofida sayr qilish to'g'risida borayotgandek, Olbinetga dedi:

- Olbinet, biz ovqatdan oldin biroz sayr qilib kelmoqchimiz. Biz qaytganda ovqat stol ustiga taxt qilib qo'yilgan bo'ladi deb umid qilaman.

Olbinet g'urur bilan bosh egdi.

- Biz bilan borasizmi, mayor? - deb so'radi Mak-Nabbsdan Elen.

- Buyursangiz, boraveraman, - deb javob berdi mayor.

- Mayor hozir, o'z sigarasining tutuniga qarab zavq qilib o'tiripti, - deb gapga aralashdi Glenarvan, - qo'yinglar, uning rohatini buzmaylik. Bilasizmi, miss Meri, bizning mayor chekishga nihoyatda berilgan odam - hatto uyqusida ham sigarasini og'zidan qo'ymaydi.

Mayor to'g'ri degandek qilib bosh silkitdi. Undan boshqa hamma kubrikka tushib ketdi.

Palubada yolg'iz qolgach Mak-Nabbs o'z odati bo'yicha atrofni quyuq tutun bilan qoplab, o'zi bilan o'zi suhbat qilishga kirishdi. U qimirlamay turar va kemanding orqasida qolayotgan ko'piklangan izni tomosha qilardi. Bir necha minut indamasdan turib tomosha qilgandan so'ng orqasiga o'girilib qaradi-yu, ko'zi notanish bir kishiga tushdi. Agar biror narsa mayorni taajjubga sola oladigan bo'lganda edi, hozir u bu odamni ko'rib taajjublangan bo'lardi, chunki qarshisidagi bu odam unga mutlaqo notanish edi.

Bu notanish kishi qirq yoshlar chamasidagi baland bo'yli, qotmadan kelgan odam edi. U qattiq qalpoqli uzun mixga o'xshardi. Kallasi katta va dumaloq, peshanasi keng, burni uzun, og'zi katta, dahani o'tkir. Katta dumaloq ko'zoynak orqasiga yashiringan ko'zlarining qarashi kechasi ham kunduzgidek bahuzur ko'raveradigan kishining boqishiga o'xshardi. Basharasidan aqlli va quvnoq odam ekanligi ko'rinib turar edi. U o'zining mayda va miskin odam ekani-

ni jiddiylik niqobi ostiga yashirishga tirishib, mutlaqo kulmay, doim gerdayib yuradigan odamlarga aslo o'xshamas, aksincha, o'zini erkin va samimiy tutishi bu noma'lum kishining odamlardagi va narsalardagi yaxshi jihatlarni ko'rishga moyil ekanidan darak berardi. U hali bir og'iz so'z aytmagan bo'lsa ham suhbatni sevadigan odam ekani ko'rinib turardi. U qarab turgan narsasini ko'rmaydigan va unga aytilayotgan so'zlarni eshitmaydigan parishon kishilarni eslatardi. Notanish kishi boshiga safar shapkasi, oyog'iga pishiq sariq botinka va charm getr kiygan edi. Egniga qo'ng'ir baxmal shim va xuddi shunday kurtka kiygan, kurtkasining son-sanoqsiz cho'ntaklari liq to'la ekanligini sezish qiyin emasdi, chunki ulardan har xil yon daftarchalar, bloknotlar, kartmonlar, xullas, yonda olib yurish sira ham zarur bo'lmagan har xil ortiqcha narsalar ko'rinib turardi. Uzun tasmasini yelkasidan oshirib ilib olgan dengizchilar trubasi ham bor edi.

Bu noma'lum kishining betinchligi bilan mayorning xotirjamligi bir-birining butunlay aksi edi. U Mak-Nabbsning atrofida gir aylanar, uni ko'zdan kechirar, unga savol nazari bilan qarar edi, mayor esa, aftidan, bu janobnig qayerdan paydo bo'lib qolgani, qayoqqa ketayotgani va «Dunkan»ga qanday tushib qolganiga mutlaqo qiziqmas edi.

Notanish kishi o'zining barcha urunishlari mayorning xotirjamligi oldida bekor ketgach, yelkasiga osib olgan durbinini qo'liga oldi – uzuniga yozib yuborganda bu durbin to'rt futga yetardi, – u oyoqlarini kerib yo'l yoqasidagi simyog'ochdek qotib turgan holda dengiz bilan osmon birlashib ketgan ufqni ko'zdan kechira boshladi. Shu tarzda besh minutcha dengizni tomosha qilgandan keyin u durbinini palubaga qo'ydi-da, hassaga tayangandek unga suyandi; lekin trubasining qismlari biri-birining ichiga kirib ketib, birdan yig'ilib qolgan edi, yangi yo'lovchi tayanch nuqtasini yo'qotib, grot-machta oldiga uzala yiqilishiga oz qoldi.

Mayordan boshqa odam bo'lganda juda bo'lmasa jilmayib qo'yan bo'lardi, lekin u pinagini ham buzmasdi. Shundan so'ng notanish odam ishga kirishdi.

– Styuard! – deb qichqirdi u, ajnabiylarga xos talafuz bilan.

Lekin hech kim kelmadi.

– Styuard! – deb qattiqroq chaqirdi u.

Mister Olbinet shu payt kambuzga o'tib ketayotgan edi. U noma'lum bir novcha kishi o'zini bunday odob-sizlik bilan chaqirayotganini ko'rib, shunday ham hayron qoldiki, asta qo'yaverasiz!

«U qayerdan kelib qoldiykin? – deb o'ylar edi Olbinet. – Mister Glenarvanning bironta do'stimikin? Yo'q-el!»

U notanish kishining oldiga keldi.

– Siz shu kemanding styuardi bo'lasizmi?

– Ha, ser, lekin men sizni...

Lekin noma'lum yo'lovchi uning so'zini birdaniga shart kesdi:

– Men oltinchi kayutadagi yo'lovchiman, – dedi u.

– Oltinchi kayuta yo'lovchisi? – deb takror so'radi Olbinet.

– Ha, ha! Sizning ismingiz nima?

– Olbinet.

– Gap bunday, do'stim Olbinet, – dedi oltinchi kayutali notanish kishi, – menga biroz ovqat bersangiz bo'lardi, lekin tezroq. Men o'ttiz olti soatdan beri og'zimga hech narsa olganim yo'q, to'g'rirog'i, men o'ttiz olti soat qimir etmay uxladim, bu esa Parijdan Glazgoga hech qayerda to'xtamay yetib kelgan odam uchun yo'l qo'yiladigan narsa. Ayting-chi, bu kemada nonushta soat nechada bo'ladi?

– To'qqizda, – deb javob berdi hech o'ylamasdan Olbinet.

Notanish kishining soatga qaragisi kelib qoldi, lekin bu ancha vaqtni oldi, chunki u soatini faqat to'qqizinchi cho'ntagidan topdi.

– Juda soz. Lekin hali sakkiz ham bo'lmapti-ku! Unday bo'lsa, Olbinet, nonushtagacha menga biskvit bilan bir stakan cherri bera turing – ochimdan o'lar holdaman.

Olbinet hech narsaga tushunmay, unga quloq solib turar, notanish kishi esa bir mavzudan ikkinchiga o'tib to'xtovsiz gapirar edi.

– Xo'sh, kapitan qani? Hali turgani yo'qmi? Uning yordamchisi-chi? U ham uxlab yotibdimi? – deb bidirdi notanish kishi. – Baxtimizga, havo ochiq, shamol orqadan esmoqda, kema juda yaxshi suzib bormoqda.

Xuddi shu payt yutdagi zinadan Jon Mangls chiqib keldi.

– Kapitan mana shu kishi boʻladi, – dedi Olbinet.

– Oh, juda baxtiyorman! – dedi notanish kishi. – Siz bilan tanishganimga juda xursandman, kapitan Berton!

Jon Manglsning hayronligi cheksiz edi. U oʻzini kapitan Berton deb ataganlari uchungina emas, balki oʻz kemasida butunlay nomaʼlum odamning paydo boʻlib qolganidan ham hayron edi.

Notanish kishi esa hamon shirin soʻzlarni yogʻdirib tashlamoqda edi:

– Qoʻlingizni qisishga ijozat bersangiz, – dedi u. – Buni bundan uch kun oldin qilmaganimga sabab, sa-farga chiqish oldidan hech kimni bezovta qilmay deb oʻylaganimdan edi. Lekin bugun men siz bilan tanishish sharafiga erishganim uchun behad xursandman, kapitan.

Jon Mangls koʻzlarini katta ochib, hayronlik bilan goh Olbinetga, goh notanish kishiga qarar edi.

– Mana, tanishib ham oldik, bundan buyoq qadrdon doʻst boʻlamiz, qimmatli kapitan, – deb soʻzida davom etdi notanish kishi. – Keling, endi u yoq-bu yoqdan otamlashaylik. Aytinch, siz oʻz «Shotlandiya»ngizdan mamnunmisiz?

– Qaysi «Shotlandiya» toʻgʻrisida gapiryapsiz? – deb soʻradi nihoyat Jon Mangls.

– Siz bilan bir ketayotgan «Shotlandiya» paroxodi toʻgʻrisida-da. Ajoyib kema. Menga uning tashqi sifat-larini ham, uning hurmatli komandiri ajoyib kapitan Bertonning yuksak axloqini ham rosa maqtashdi. Ha, aytgandek, siz jasur Afrika sayyohi Bertonning qarindoshi emasmisiz? Agar shunday boʻlsa, mening qizgʻin tabriklarimni qabul etgaysiz.

– Ser, men sayyoh Bertonning qarindoshi ham emasman, kapitan Berton ham emasman, – deb javob berdi Jon Mangls.

– Ha-a... – dedi choʻzib notanish kishi, – demak, men kapitan Bertonning yordamchisi mister Berdnes bilan gaplashayotgan ekanman-da-a!

– Mister Berdness dedingizmi? – deb takror soʻradi Jon Mangls.

U endi masalaga tushuna boshlagan, lekin qarshisidagi kishining qanday odam ekanini: biror ahmoq odammi yo shunchaki devonatabiat kishi ekanini aniqlay olmay turgan edi. Yosh kapitan bu masalani endi uzil-kesil hal qilmoqchi bo'lib turgan ediki, palubaga Glenarvan, uning rafiqasi va miss Grant chiqib kelishdi.

Notanish kishi ularni ko'rib, qichqirib yubordi:

– A, yo'lovchilar! Juda soz! Mister Berdnes, meni ular bilan tanishtirib qo'yarsiz deb umid qilaman...

Ammo o'zi Jon Manglsning tanishtirishini ham kutmay bemalol yurib, o'rtaga chiqdi.

– Missis... – dedi u miss Grantga. – Missis... – dedi u Elenga. – Ser... – deb qo'shib qo'ydi u Glenarvanga qarab.

– Mister Glenarvan, – deb tanitdi Jon Mangls.

– Ser, – deb davom qildi notanish kishi, – sizlar bilan o'zim tanishayotganim uchun kechirim so'rayman, lekin, o'ylashimcha, dengizda nazokat qoidalaridan biroz chetga chiqilsa ham zarari bo'lmasa kerak. Umidvormanki, biz tez do'stlashib ketamiz va bu xonimlar bilan birga «Shotlandiya» kemasidagi safarimiz ham ko'ngilli, ham qisqa ko'rinadi.

Na Elen, na miss Grant bunga javob berishga so'z topolmadilar. Ular bu notanish kishining «Duncan» palubasida qanday paydo bo'lib qolganiga sira tushunolmas edilar.

– Ser, – deb unga murojaat qildi Glenarvan, – men kim bilan suhbatlashish sharafiga muyassarman?

– Parij geografiya jamiyatining sekretari, Berlin, Bombay, Darmshtadt, Leypsig, London, Peterburg, Vena, Nyu-York geografik jamiyatlarining korrespondent a'zosi, shuningdek, qirollikning Sharqiy Hindistondagi geografiya va etnografiya institutining faxriy a'zosi Jak-Eliassen-Fransua-Mari Paganel. Qarshingizdagi kishi o'z kabinetida o'tirib yigirma yil ishlagandan keyin, nihoyat geografiya fani bilan amalda shug'ullanishga qaror qilib, buyuk sayyohlarning ilmiy asarlarini bir butun asarga birlashtirish maqsadida hozir Hindistonga jo'nab ketyapti.

Y e t t i n c h i b o b

JAK PAGANEL QAYERDAN PAYDO BO'LDI-YU, QAYERGA KETAYOTGAN EDI

Geografiya jamiyatining sekretari, aftidan, juda yoqimtoy odam edi, chunki u yuqoridagi gaplarini g'oyat nazokat bilan so'zladi. Endi Glenarvan ham uni tanib qoldi: Jak Paganelning hurmatli ismi unga yaxshi tanish edi. Uning geografiyaga oid asarlari, geografiya jamiyatining byulletenlarida bosiladigan eng yaxshi kashfiyotlar to'g'risidagi doklidlari, deyarlik butun dunyo bilan xat olishib turishi – bularning hammasi Paganelni Fransiyaning eng ko'zga ko'ringan olimlaridan biri darajasiga ko'targan edi. Shuning uchun Glenarvan o'zining kutilmagan mehmoniga samimiyat bilan qo'l cho'zdi.

– Endi, siz bilan tanishib olganimizdan so'ng, janob Paganel, sizga bitta savol berishga ruxsat etsangiz, – dedi u.

– O'nta savol bersangiz ham mayli, ser, – deb javob berdi Jak Paganel, – siz bilan suhbatlashish menga xush yoqadi.

– Siz kemaga bundan ikki kun oldin kechqurun chiqqansiz, shundaymi?

– Ha, ser, ikki kun oldin, kechqurun soat sakkizda. Poyezddan tushdim-u, o'zimni kebgga urdim, kebdan tusha solib esa, to'ppa-to'g'ri «Shotlandiya»ga chiqdim, hali Parijda ekanimizdayoq oltinchi kayutaga bilet buyurib qo'yg'an edim. Tun qop-qorong'u edi. Men palubada hech kimni ko'rmadim. O'ttiz soatli yo'l yurib, juda charchagandim, buning ustiga dengiz kasaliga muhtalo bo'lmaslik uchun kemaga chiqqach, darhol yotib uxlash va dengiz sayohatining dastlabki kunlarida karavotdan turmaslik kerakligini bilardim, shu sabablarga binoan darhol kayutaga kirib yotib uyquga ketdim. Sizni ishontirib aytamanki, sof vijdon bilan rosa o'ttiz olti soat qimirlamay uxladim!

Endi uning hikoyasini tinglab turganlarga Jak Paganelning «Duncan»da qanday paydo bo'lib qolgani ravshan bo'ldi. Fransuz sayyohi qorong'uda yanglishib, kemada deyarli hech kim yo'g'ida «Duncan»ga chiqib qolgan. Hamma gap oydin bo'ldi-qo'ydi. Lekin o'zi tu-

shib qolgan kemandi nomini va qayoqqa ketayotgani-
ni bilgandan keyin geografiya olimi nima deyarkin?

– Janob Paganel, demak, siz Kalkuttaga borib tush-
moqchisiz va quruqlikdagi sayohatingizni o'sha yerdan
boshlamoqchisiz, shundaymi? – deb so'radi Glenarvan.

– Ha, ser. Men shu vaqtga qadar Hindistonni
ko'rishni orzu qilardim. Mana, nihoyat men ko'ngildagi
orzularimga yetadigan bo'ldim!

– Demak, janob Paganel, siz Hindiston o'rniga bosh-
qa mamlakatga borib qolishga rozi bo'lolmasdingiz,
shundaymi?

– Bunga men rozi bo'lmadimgina emas, juda xafa
ham bo'lardim, chunki mening Hindiston general-
gubernatori lord Sommerset nomiga yozilgan tavsiya-
nomalarim bor, buning ustiga geografik jamiyat menga
vazifa topshirgan, men uni bajarishim kerak.

– Ha-a! Demak, vazifa topshirilgan deng?

– Ha, menga bitta foydali va juda qiziq ekspedi-
tsiya tashkil qilish topshirilgan; ekspeditsiyaning re-
jasi mening olim do'stim va hamkasabam janob Viven
de-Sen-Marten tomonidan tuzilgan. Bu rejaga muvofiq
men aka-uka sayyoh Shlaginvaytlar, polkovnik Vou,
Vebl, Xodjon, missionerlardan Xuk va Gabe, Murk-
roft, Jyul Remi va ko'pgina boshqa sayyohlarning izi-
dan borishim kerak. Men 1846-yilda missioner Krik
amalga oshirilmay qolgan vazifani bajarmoqchiman,
ya'ni Himalay tog'larni shimoliy tomonidan aylanib
o'tib, bir ming besh yuz kilometrli masofada Tibetni
suv bilan ta'minlab turadigan Yaru-Dzangbo-Chu dar-
yosining oqimini tekshirmoqchiman. Nihoyat, men bu
daryoning Assamdan shimoli sharqda Bramaputra
daryosi bilan qo'shilish-qo'shilmasligini aniqlamoqchi-
man. Hindiston geografiyasi uchun g'oyatda muhim
ahamiyatga ega bo'lgan bu masalani hal qilib bergan
sayyohga esa oltin medal berilishi aniq.

Paganelga qoyil bo'lmay iloji yo'q edi. U g'oyat
zavqlanib so'zlar, qizg'in tasavvuri qanot yozib, uni
ko'klarga ko'tarib ketardi. Reyn shalolasining suvini
to'xtatib bo'lmaganidek, so'zlab turgan Paganelni ham
to'xtatishning sira iloji yo'q edi.

– Janob Jak Paganel, – deb gap boshladi Glenar-
van, mashhur olim bir minutgina tinchiganidan foy-

dalanib, – siz aytgan sayohat, albatta, ajoyib sayohat, buning uchun fan sizdan g'oyat minnatdor bo'ladi. Lekin men endi sizdan haqiqatni yashirib o'tirmoqchi emasman, endi siz vaqtinchalik bo'lsa ham Hindiston safari to'g'risida o'ylamay turishingiz kerak bo'ladi.

– O'ylamay turishim kerak? Nechuk?

– Chunki siz hozir Hindiston yarimoroliga tamom qarama-qarshi tomonga ketyapsiz.

– Nima! Kapitan Berton...

– Men kapitan Berton emasman, – deb javob berdi Jon Mangls.

– Axir «Shotlandiya»...

– Bu kema «Shotlandiya» emas!

Paganelning hayronligini tasvir qilib bo'lmaydi, u navbati bilan tamomila jiddiy qarab turgan Glenarvanga, olimga achinib va xafa bo'lib qarab turgan Elenga va Meri Grantga, kulumsirab turgan Jon Manglsga, pinagini buzmagani mayorga bir-bir qarab chiqdi, keyin peshanasidagi ko'zoynagini burni ustiga tushirib, yelkasini qisib qo'ydi-da:

– Bu qanday o'rinsiz hazil! – dedi.

Lekin xuddi shu payt ko'zi shturvaldagi yozuvga tushib qoldi, unga: «Duncan, Glazgo», – deb yozib qo'yilgan edi.

– «Duncan!» «Duncan!» – deb qichqirdi hayratda qolgan Paganel, so'ng zinapoyadan otilib tushdi-da, o'z kayutasiga qarab yugurdi.

Bechora olim ko'zdan g'oyib bo'lishi bilanoq mayordan boshqa hamma qah-qah urib kulib yubordi, hatto matroslar ham o'zlarini tiya olmadilar. Temiryo'lda poyezdni adashtirish, masalan, aytaylik, Dumbarton poyezdi o'rniga Edinburg poyezdiga tushib qolish – bir nav edi-ya, lekin kemalarni adashtirib qo'yish va Hindistonga jo'nab ketish o'rniga Chiliga qarab yo'l olish, bu, endi o'taketgan parishonlik edi!

– Lekin Jak Paganelning bu ishi meni aslo ajablan-tirmaydi, – dedi Glenarvan. – Paganel bunday sarguzashtlari bilan dongi chiqqan kishi, bir marta u Amerikaning ajoyib xaritasini nashr qildirganda unga Yaponiyani joylab qo'yibdi. Lekin bu uning mashhur olim va Fransiyaning eng dongdor geograflaridan biri sifatida tanilishiga sira ham xalaqit berolmaydi.

- U bechorani endi nima qilamiz? - deb so'radi Elen. - O'zimiz bilan birga Patagoniyaga olib keta olmaymiz-ku, axir!

- Nima uchun olib ketolmas ekanmiz? - deb gap qistirdi Mak-Nabbs. - Uning parishonligiga biz javobgar emasmiz-ku? Yanglishib boshqa poyezdga tushib qolganda nima qilardi, uni to'xtata olarmidi?

- To'xtata olmas edi, lekin eng birinchi stansiyada-yoq tushib qolgan bo'lardi, - deb e'tiroz qildi Elen.

- Xohlasa yo'lda uchragan dastlabki gavandayoq tushib qolishi mumkin, - dedi Glenarvan.

Shu payt yuklari shu paroxodda ekaniga ishonch hosil qilgan Paganel yana palubaga chiqdi. Uyalgan va xunobi chiqqan olim, go'yo boshqa so'z topolmagandek nuqul: «Dunkan», «Dunkan» deb takrorlar, kemanding machtalarini ko'zdan kechirib, atrofda yastlanib yotgan bepoyon dengizga nazar tashlab, u yoqdan bu yoqqa yurar edi. Nihoyat, u yana Glenarvan oldiga keldi.

- Bu, «Dunkan» qayoqqa ketyapti? - deb so'radi u.

- Amerikaga, janob Paganel.

- Amerikaning qayeriga?

- Konsepsionga.

- Chiliga! Chiliga! - deb qichqirib yubordi sho'rlik olim. - Mening ekspeditsiyam esa - Hindistonga edi! Markaziy komissiyaning prezidenti Katrfaj janoblari nima deydi endi? Kortamber janoblari-chi! Viven de-Sen Marten janoblari-chi! Men endi Geografik jamiyatning majlisida qay yuz bilan ko'rinaman!

- Ko'p xafa bo'lavermang, janob Paganel, - deb unga tasalli bera boshladi Glenarvan, - hammasi to'g'rilanib ketadi, Hindistonga biroz kechikibroq yetib borasiz, xolos. Yaru-Dzangbo-Chu daryosi esa sizni Tibet tog'larida kutib tura turadi. Biz ko'p o'tmay Madyra orolida to'xtaymiz, Yevropaga ketayotgan biror kemaga o'tib olarsiz.

- Tasalli berganingiz uchun tashakkur, ser. Boshqa iloj ham yo'qqa o'xshaydi. Qarang-a, bundan ham qiziq ish bo'lishi mumkinmi! Mendan bo'lak hech kim bunday qilmas. «Shotlandiya»dagi buyurtirib qo'yan kayutamni aytmaysizmi...

- Endi «Shotlandiya»ni hozircha unutsangiz ham bo'ladi.

– Lekin «Duncan» ko'ngil ochish sayohatiga chiqqan kema ko'rinadi, – deb davom etdi Paganel, «Duncan»ni yana bir marta ko'zdan kechirib.

– To'g'ri aytdingiz, ser, – deb javob berdi Jon Mangls, – u mister Glenarvanga qarashli kema...

– ... u esa bu kemada mehmon bo'lib qolishingizni iltimos qiladi, – deb uning so'zini tugatdi Glenarvan.

– Ko'pdan ko'p rahmat, ser, – deb javob berdi Paganel. – Iltifotingiz uchun benihoyat xursandman. Lekin sizga oddiy bir fikr aytishga ruxsat etsangiz: Hindiston – ajoyib mamlakat, unda sayohatchilar har qadamda hech kutilmagan voqealar va mo'jizalarga duch keladi. Xonimlaringiz u yerlarni ko'rishmagan bo'lsa kerak... Shunday bo'lgandan keyin kapitan kemaning rulini bunday burib yuborsa, «Duncan» Konsepsion o'rniga Kalkuttaga qarab yo'l oladi-qo'yadi, sayohatingiz ko'ngil ochish uchun uyushtirilgan bo'lgandan keyin...

Lekin Paganel shu payt Glenarvanning, bu mumkin emas degandek bosh chayqatganini ko'rdi-yu, gapi og'zida qoldi.

– Janob Paganel, – dedi Elen, – agar biz ko'ngil ochish maqsadida sayohatga chiqqan bo'lganimizda, men o'ylab-netib o'tirmay, sizga: «Kelinglar, hammamiz birga Hindistonga boramiz», deb javob bergan bo'lardim, ishonamanki, ser Glenarvan ham bunga mutlaqo qarshi chiqmasdi. Lekin gap shundaki, «Duncan» Patagoniya qirg'oqlarida halokatga uchragan kishilarni o'z vataniga qaytarish maqsadida Amerikaga ketyapti, shuning uchun u o'zining bunday insonparvar maqsadidan kecholmaydi.

Bir necha minutdan keyin fransuz sayyohi hamma gapdan xabardor bo'ldi. Hujjatlarning qanday qiziq ahvolda topilgani, kapitan Grantning butun tarixi va Elenning oliyjanoblik bilan qilgan taklifi to'g'risidagi hikoyalarni u hayajon bilan tingladi.

– Xonim, – dedi u, Elenga qarab, – sizning himmatingiz va jasoringizga men g'oyat qoyil qoldim. Kemangiz o'z yo'lida davom etaversin! Men uni bir kun bo'lsa ham yo'ldan qo'ysam, vijdon qiynog'ida qolgan bo'lardim.

– Demak, bizning ekspeditsiyamizga qo'shilasiz, shundaymi? – deb so'radi Elen.

– Sira ilojim yo‘q: men topshiriqni bajarishim kerak. Men sizlar birinchi to‘xtagan yeringizdayoq tushib qolaman.

– Demak, Madeyra orolida tushib qolasiz, – dedi Jon Mangls.

– Madeyra orolida bo‘lsa bo‘laqolsin, mayli. Men u yerda Lissabondan nihoyati bir yuz sakson milya masofada bo‘laman va biror kemanding kelishini kutib turatiraman.

– Bo‘pti, janob Paganel, – dedi Glenarvan, – shunday qilamiz bo‘lmasa. Menga kelganda esa, shu bir necha kun ichida kemada mehmon bo‘lishingizga g‘oyat xursandman. Biz bilan juda ham zerikib qolmasangiz kerak, degan umiddamiz!

– Yo‘g‘-e, – dedi olim, – yanglishib, bu kemaga tushib qolganimga xursandman! Lekin, har holda, e‘tirof etishim kerak. Hindistonga ketayotgan odamning Amerikaga yo‘l olishidan ham kulgili gap bo‘lmas.

Yuz bergan bu voqea qanchalik xunuk bo‘lmasin, Paganel Hindistonga kechikibroq borish fikriga ko‘nishga majbur bo‘ldi, chunki boshqa iloji yo‘q edi. Uning yoqimtoy, quvnoq va, albatta, parishon odam ekanligi ma‘lum bo‘ldi, u o‘zining doimiy quvnoqligi bilan xonimlarni maftun qildi. Birinchi kunning o‘zidayoq Paganel hamma bilan do‘stlashib ketdi. U kapitan Grant haqidagi hujjatlarni ko‘rsatishni iltimos qildi, barcha ikir-chikirlarigacha nazardan qochirmay, diqqat bilan uzoq o‘rgandi va buni boshqacha izohlash mumkin emas degan fikrga keldi. U Meri Grant bilan ukasining holiga butun yurakdan achindi, otalari bilan albatta uchrashajaklariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga harakat qildi. U «Dunkan» ketayotgan ekspeditsiyaning muvaffaqiyat bilan tugashiga shunday ishonar, bu ishlarga shunday xushchaqchaqlik bilan qarar ediki, uning gaplarini tinglar ekan, qiz o‘zini tabassum qilishdan tiya olmasdi. Turgan gapki, vazifa topshirilgan bo‘lmaganda u ham hech so‘zsiz kapitan Grantni axtarish ishiga kirishib ketgan bo‘lard.

Paganel, Elen mashhur sayyoh Vilyam Tuffnelning qizi ekanini eshitib, shunday ham iyib ketdiki, asti qo‘yavering! U Elenning otasini tanir edi. Qanday mard sayyoh edi u! Vilyam Tuffnel Parij geografik jamiyatining korrespondent a‘zosi ekanida ular bir-birlariga

qanchadan qancha xat yozishgan edilar-u! Tuffnelni jamiyatga a'zo qilib olishni ham Paganel bilan Malt-Bryun janoblari taklif qilishgan edi!.. Mana bu uchra-shuvni qarang-a! Vilyam Tuffnelning qizi bilan sayohat qilish qanday yaxshi!

Oxiri u Elendan bitta o'pishga ruxsat so'radi. Gar-chi bu biroz «adabsizlik» bo'lsa ham o'pishga ijozat berildi.

S a k k i z i n c h i b o b

«DUNKAN»DAGI YAXSHI ODAMLARNING SONI YANA BITTAGA ORTDI

«Duncan» esa Shimoliy Afrika qirg'oqlaridagi yo'l-dosh oqimlar yordami bilan ekvatorga tez yaqinlashib kelmoqda edi. **30-avgustda** Madeyra oroli ko'rindi. Glenarvan o'z va'dasida turdi va Paganelga «Duncan» uni qirg'oqqa tashlab ketish uchun bu orolda to'xtashi mumkinligini bildirdi.

– Azizim Glenarvan, – deb javob berdi Paganel, – ke-ling, takallufni yig'ishtirib qo'yaylik-da, ochig'ini gap-lashaylik: kemada men paydo bo'lib qolishimdan oldin Madeyra orolida to'xtamoqchi edinglarmi?

– Yo'q, – dedi Glenarvan.

– Bo'lmasa bu badbaxt parishonligimdan foydali bir ish chiqarishga ruxsat etsangiz. Madeyra oroli juda yaxshi o'rganilgan, unda geografni qiziqtiradigan hech bir narsa yo'q. Orol to'g'risidagi gaplarning hammasi aytilib va yozilib bo'lgan; buning ustiga unda bir vaqt-lar taraqqiy qilgan vinochilik hozir tanazzulga uchra-gan. O'ylab qarang-a: Madeyra orolida uzum bog'lari yo'q endi! 1813-yilda orolda yigirma ikki ming pipa¹ vino tayyorlangan bo'lsa, 1845-yilda bu miqdor ikki ming olti yuz oltmish to'qqiz pipaga tushdi. Hozir u yerda tayyorlanadigan vinoning miqdori besh yuz pi-paga ham yetmaydi. Qanday achinarli hol! Qisqasi, agar sizga baribir bo'lsa, meni bu yerda emas, Kanar orollarida tushirib ketsangiz...

– Bo'lmasa Kanar orollarida to'xtab o'tamiz, – dedi Glenarvan, – shunday yo'limiz ustida-ku.

¹ Pipa – 50 gektolitrga teng [Jyul Vern izohi].

- Bilaman buni, azizim Glenarvan. Uch guruhdan iborat bo'lgan Kanar orollari meni ko'pdan beri qiziq-tirib kelayotgan Tenerif cho'qqisini hisobga olmagan-da ham, o'rganishga arziydigan joy. Mana endi bunga juda qulay payt kedi. Fursatdan foydalanib, meni qay-ta Yevropaga eltib tashlaydigan kema kelguncha bu mashhur tog'ga chiqib tushaman.

- Ixtiyoringiz, aziz Paganel, - dedi beixtiyor jilmayib Glenarvan.

Kulishga arzigudek asoslari bor edi.

Kanar orollari Madeyradan uzoq emas, hammasi bo'lib ikki yuz ellik milya masofada, bu masofani bo-sib o'tish esa «Dunkan»dek tezyurar kema uchun hech gap emas.

31-avgust kunduz soat ikkida Jon Mangls bi-lan Paganel palubada sayr qilib yurar edilar. Fran-suz olimi o'z hamsuhbatiga Chili to'g'risida savollar yog'dirmoqda edi.

Birdan kapitan uning so'zini kesdi:

- Janob Paganel! - dedi u, ufqning janub tomonida-gi allaqanday bir nuqtani ko'rsatib.

- Nima gap, aziz kapitan? - deb so'radi olim.

- Anavi tarafga bir qarang. Hech narsa ko'rma-yapsizmi?

- Hech narsa ko'rayotganim yo'q.

- Siz boshqa tomonga qarayapsiz. Ufqqa emas, ba-landroqqa, bulutlar orasiga qarang.

- Bulutlar orasiga? Qancha qaragam ham...

- Endi bushpritning reykasi yo'nalgan tomonga qa-rang.

- Hech narsa ko'rmayapman.

- Siz ko'rishni istamayapsiz, xolos! Ishonaver-ing, Tenerif cho'qqisidan hali qirq milya masofada bo'lsak ham, uning tik qoyasi ufqda yaqqol ko'rinib turibdi.

Paganel u tog'ni ko'rgisi kelsa-kelmasa, bir necha soatdan keyin o'zining ko'r emasligini isbot qilish uchun Jon Manglsning fikriga qo'shilishga majbur bo'ldi.

- Xayriyat, - dedi unga kapitan, - nihoyat uni ko'r-dingiz-a.

- Ha, ha juda yaxshi ko'ryapman. Tenerif cho'qqisi deganimiz hali shumi? - dedi geograf, uni mensima-ganday.

- Xuddi o'sha.

- Juda ham baland tog'ga o'xshamaydi-ku.
- Har holda, u dengiz sathidan o'n bir ming fut baland.

- O'shanda ham u Monblan bilan tenglasha olarmidi.

- Ehtimol, lekin siz bu tog'ga chiqa boshlaganingizda uning juda baland ekaniga amin bo'lasiz.

- Chiqish deysizmi? Tenerif cho'qqisiga chiqamanmi? Gumboldt bilan Bonplandan keyin unga chiqishning nima keragi bor? Genial Gumboldt bu tog'ga chiqib, uni shunday tasvirlab berganki, endi unga hech narsa qo'shib bo'lmaydi. U o'sha paytdayoq bu tog'ni besh mintaqaga bo'lgan: tokzorlar mintaqasi, lavra daraxtlari mintaqasi, qarag'aylar mintaqasi, alp archalari mintaqasi va, nihoyat, hech qanday o'simlik o'smaydigan mintaqa. Gumboldt Tenerif cho'qqisining eng uchigacha chiqqan, unda hatto o'tiradigan joy ham yo'q ekan. Uning ko'z oldida Ispaniyaning to'rtidan biriga teng keladigan sahn ochilgan. Keyin u bu so'nib qolgan vulqon kraterining eng tagigacha tushgan. Gumboltday buyuk odamdan keyin bu tog'da men nima ham qilardim?

- To'g'ri, undan keyin siz biror yangilik ocholmasangiz kerak, - deb uning so'ziga qo'shildi Jon Mangls. - Afsus, to biror kema kelguncha Tenerif portida juda zerikib qolasiz-da. Bu yerda kishini ovutadigan hech narsa ham yo'q.

- Turgan gap, bu yerda umid faqat kishining o'zidan, - deb kuldi Paganel. - Azizim Jon, Yashil Burun orollarida biror kattaroq port yo'qmi?

- Bor, albatta. Masalan, Villa-Prayyada Yevropaga ketayotgan biror o'tkinchi paroxodga osonlik bilan o'tib olishingiz mumkin.

- Buning yana bir qulaylik jihati bor, - dedi Paganel. - Yashil Burun orollari Senegalga yaqin joyda, Senegalda esa men hamshaharlarimni topib olishim mumkin. To'g'ri, bu orollar guruhining mutlaqo qiziq joyi yo'q, bo'm-bo'sh joylar ekanini, buning ustiga ob-havosi yomon ekanini men yaxshi bilaman. Lekin geograf uchun hamma narsa ham qiziq: ko'ra bilishning o'zi - fandır. Ba'zi odamlar hech narsani ko'rolmaydilar, ular shunday «oqilona» sayohat qiladilarki, qisqichbaqasimonlardan mutlaqo farq qilmay-

dilar. Lekin men undaylardan emasman, bunga amin bo'lavering.

– Ixtiyoringiz, janob Paganel, – deb javob berdi Jon Mangls. – Sizning Yashil Burun orollarida bo'lishingiz geografiya fanini albatta boyitishiga shubhasiz ishonamiz. Biz esa ko'mir g'amlab olish uchun u yerda albat-ta to'xtab o'tishimiz shart. Ana shunda siz qirg'oqqa tushib olasiz, bu bizni mutlaqo yo'ldan qo'ymaydi.

Kapitan shunday dedi-yu, kemani Kanar orollarining g'arb tomoniga qarata yo'lladi. Mashhur Tenerif cho'qqisi orqada qoldi. Ilgarigidek tez yo'l bosib borayotgan «Dunkan» **2-sentabr** ertalab soat beshda *Qisqichbaqa tropikidan* o'tdi. Ob-havo o'zgara boshladi. Havo yomg'irgarchilik paytlarida bo'lganiday og'ir va rutubatli bo'lib qoldi. Bunday paytlarni ispanlar «ko'lob payti» deb ataydilar. Bu sayohatchilar uchun juda og'ir tushadi, lekin Afrika orollaridagi o'simlikning kam bo'lishidan, demak, namgarchilikning yetishmasligidan azob chekuvchi aholi uchun esa foydali bo'ladi. Dengiz notinch bo'lganidan kemadagi yo'lovchilar palubaga chiqmas edilar, lekin bu kayut-kompaniyadagi suhbatlarni sovuta olmadi.

3-sentabrda Paganel kemadan tushib qolishga tayyorlanib, yuklarini saranjomlay boshladi. «Dunkan» endi Yashil Burun orollari o'rtasidan o'tib bormoqda edi. U qumloq qabrga o'xshagan bo'm-bo'sh va yalang'och Tuz oroli yonidan o'tdi, keng marjon riflari yoqalab suzdi, keyin esa shimoldan janubga qarab cho'zilgan bazalt tog' tizmalari ikkiga bo'lib turgan muqaddas Yakov orolini chetda qoldirib, Villa-Prayya ko'rfaziga kirdi-da, shunday shahar qarshisiga kelib, langar tashladi. Ob-havo juda yomon edi, ko'rfaz dengiz shamollaridan to'silganiga qaramay, unda to'lqinlar quturar edi. Yomg'ir chelaklab quygandek yog'ar, shahar zo'rg'a ko'rinardi. Shahar vulqondan paydo bo'lgan uch yuz fut balandlikdagi tog'ga borib taqaladigan tekislikka joylashgan edi. Qalin yog'ayotgan yomg'ir orqasida orol g'oyat ma'yus ko'rinardi.

Elen Glenarvan shaharni aylanaman degan o'yini amalga oshira olmadi. Kemaga ko'mir ortish juda qiyinchilik bilan bormoqda edi. Dengiz bilan osmon o'z suvlarini allaqanday iztirob ichida bir-biriga qo'shayotgan bir paytda yo'lovchilarimizning kayut-

kompaniyada o'tirishdan boshqa iloji yo'q edi. Tabiiyki, kemada hamma tabiat mavzuida so'zlashar, bu to'g'rida har kim ham biror gap aytardi. Faqat mayor bir og'iz ham so'z demadi; u butun dunyoni suv olib ketsa ham pinagini buzmasa kerak.

Paganel bosh chayqab, kayutada u yoq-bu yoqqa yurardi.

– Havo buni jo'rttaga qilayotganga o'xshaydi-yal – deb takrorlar edi u.

– Haqiqatan ham tabiat kuchlari sizga qarshi bosh ko'tarishdi, – dedi Glenarvan.

– Baribir men ular ustidan g'alaba qilaman.

– Shunday havoda kemadan qanday qilib tushasiz, axir? – deb so'radi Elen.

– O'zim-ku, xonim, sohilga bemaol yetib olaman-a, lekin yukim bilan asboblarimdan xavotirdaman: hammasi rasvo bo'lib ketadi-da.

– Qiyini faqat sohilga yetib olish, – dedi Glenarvan, – Villa-Prayyaga yetib olganingizdan so'ng boplab joylashib olasiz; to'g'ri, tozalik masalasi juda ham yaxshi emas bu yerda: maymunlar va cho'chqalar bilan yonma-yon yashashga to'g'ri keladi, ular bilan qo'shnicilik qilish esa hamma vaqt ham ko'ngilli bo'lavermaydi. Lekin sayyoh bunday arzimagan narsalarga e'tibor qilmasligi kerak. Siz bu yerda uzoq qolib ketarmidingiz, yetti-sakkiz oydan keyin Yevropaga ketayotgan biror kemaga chiqib olasiz.

– Yetti-sakkiz oydan keyin dedingizmi?! – deb so'radi Paganel.

– Ha, kam deganda yetti-sakkiz oydan keyin: yog'ingarchilik davrida Yashil Burun orollariga kemalar kamdan kam kiradilar-da! Lekin siz bu vaqtdan yaxshi foydalanishingiz mumkin. Bu arxipelag hali yaxshi o'rganilgan emas. Bu yerda topografiya sohasida ham, klimatologiya sohasida ham, etnografiya va gipsometriya¹ sohasida ham qilinadigan ishlar ko'p.

– Siz daryolarni tekshirish ishi bilan shug'ullanishingiz mumkin, – dedi Elen.

– Bu yerlarda daryo yo'q, xonim, – deb javob berdi Paganel.

– Unda kichikroq oqar suvlarni tekshirasiz.

– Bunday oqar suv ham yo'q.

¹ Gipsometriya – biror joyning balandligini o'lchash

– Unday bo'lsa o'rmonlarni o'rganishga to'g'ri kelar ekan-da, – deb gapga aralashdi mayor.

– O'rmon bo'lishi uchun daraxt bo'lishi kerak, bu yerda esa daraxt degan narsaning o'zi yo'q.

– Zap go'zal o'lka ekanmi! – deb qo'ydi mayor.

– Xafa bo'lmang, aziz Paganel, – deb unga tasalli berdi Glenarvan, – har holda tog'lar bor-ku.

– Be, ser! Bu yerdagi tog'lar baland ham emas, qiziq ham. Buning ustiga ular allaqachon o'rganib bo'lingan.

– Rostdan-a? – deb hayron bo'di Glenarvan.

– Ha, yana omadim yurishmadi. Kanar orollarida hamma yoqni Gumboldt tekshirib qo'ygan edi, bu yerlarni esa janob **Shari Sen-Kler Devil** degan bir geolog mendan oldinroq o'rganib chiqqan.

– Nahotki?

– Afsuski, shunday! – dedi ma'yuslik bilan Paganel. – U olim «Qat'iyat» degan fransuz korvetida Yashil Burunga kelgan, kemanding bu yerda to'xtab turganidan foydalanib, arxipelagdagi tog'larning eng qizig'i bo'lgan Fogo orolidagi vulqonga chiqqan. Shunday bo'lgandan keyin, men bu yerda nima ham qilardim?

– Bu haqiqatan ham achinarli hol, – dedi Elen. – Endi nima qilmoqchisiz, janob Paganel?

Paganel bir necha minut indamay qoldi.

– Asli vinosi qolmagan demay Madeyrada tushib qolaversangiz bo'lar ekan, – dedi Glenarvan.

Parij geografiya jamiyatining sekretari hamon indamay turardi.

– Men sizning o'rningizda bo'lsam, hozir tushmay turardim, – dedi mayor, odati bo'yicha pinagini ham buzmay.

– Aziz Glenarvan, – dedi nihoyat jimlikni buzib Paganel, – endi qayerda to'xtaysizlar?

– Endi shu bilan Konsepsionga borib to'xtaymiz.

– Obbo! Unda men Hindistondan juda uzoqlashib ketaman!

– Aksincha: Gorn burunini aylanib o'tgach, siz Hindistonga yana yaqinlashib boraverasiz.

– Unisini bilaman-a.

– Buning ustiga, – deb davom etdi Glenarvan, – G'arbiy Hindistonga bordingiz nima-yu, Sharqiy Hindistonga bordingiz nima? Baribir emasmi?

- Rostimni aytsam, ser, - dedi Paganel, - bu gap sira ham yodinga kelmabdi!

- Oltin medalni esa, aziz Paganel, - deb davom etdi Glenarvan, - xohlagan mamlakatda ham olishingiz mumkin. Har joyda ham ishlash, kashf qilish mumkin: Kordilyer tizma tog'larida ham, Tibet tog'larida ham.

- Xo'sh, unda Yaru-Dzangbo-Chu daryosini tekshirishim nima bo'ladi?

- Nima bo'lardi, Yaru-Dzangbo-Chu o'rniga Rio-Koloradoni tekshirasiz-ko'yasiz. Shunday katta daryo kam tekshirilgan, axir. Geograflar uni har xil xaritalarda turli joylardan oqishga majbur qiladilar.

- Bilaman buni, azizim, bilaman. Hatto bir necha gradusga qilingan xatolar ham uchraydi. Istasam Geografiya jamiyati meni Hindistonga yuborishga rozi bo'lganidek Patagoniyaga ham hech so'zsiz yuborgan bo'lar edi-ya, lekin bu fikr mening miyamga kelmagan edi-da.

- Bunga ham parishonligingiz sabab.

- Biz bilan yuravering-da, janob Paganel, - deb iltimos qildi Elen, g'oyat samimiy ravishda.

- Xonim! Menga berilgan topshiriq nima bo'ladi unda?

- Aytib qo'yay: biz Magellan bo'g'ozi orqali o'tamiz, - dedi Glenarvan.

- Ser, siz odamni yo'ldan urishga usta ekansiz!

- Biz Ochlik portida ham bo'lamiz.

- Ochlik portida-ya! - deb qichqirdi har tomonlama hujum ostida qolgan fransuz. - Axir u geografiya tarixi yozilgan barcha asarlarda tilga olinadigan mashhur port-ku!

- Yana shuni ham unutmangki, janob Paganel, - deb davom etdi Elen, - sizning bu ekspeditsiyada ishtirok etishingiz Fransiyaning nomini Shotlandiya bilan yonma-yon qo'yadi.

- Albatta, albatta!

- Bizning ekspeditsiyamizga geografiya olimi katta foyda keltirishi mumkin, fanni kishilik foydasiga xizmat qildirishdan go'zal ish bo'lishi mumkinmi?

- Juda ma'qul gap aytdingiz!

- Xo'p deyavering: siz ham bizga o'xshab, tasodifning irodasiga bo'ysuning. Tasodif bizga o'sha hujjat-

larni yetkazdi, biz yo'lga tushdik. Sizni ham tasodif «Dunkan»ga keltirib tashladi, siz ham unda qolavering.

– Hozir nimalar o'ylayotganimni aytaymi, do'stlarim? – dedi Paganel. – Mening qolishimni juda xohlaysizlarmi?

– O'zingizning ham qolgingiz kelib turibdi-ku, axir, – dedi Glenarvan.

– To'g'ri! – deb yubordi geografiya olimi. – Men sizlarga ortiqcha yuk bo'lishdan cho'chib turgan edim.

T o ' q q i z i n c h i b o b

MAGELLAN BO'G'OZI

Paganelning bu qarorini eshitib «Dunkan»dagilar hammasi xursand bo'lishdi. Kichkina Robert shaxt bilan uning bo'yniga osilib, oz bo'lmasa geografiya jamiyatining hurmatli sekretarini yiqitib yuboray dedi.

– O'ktam yigitcha! – dedi Paganel. – Men unga geografiyani o'rgataman.

Aftidan, Robert juda o'tkir odam bo'lib yetishdiganiga o'xshab qoldi, chunki Jon Mangls uni dengizchi qilib yetishtirishga, Glenarvan – mard, mayor – sovuq-qon, Elen – mehribon va oliyjanob yigit qilib yetishtirishga ahd qilgan edilar. Meri Grant esa uni bu barcha murabbiylaridan minnatdor qilib tarbiyalashga tirishdi.

«Dunkan» ko'mir yuklashni tezda tugatib, bu ko'rimsiz, g'amgin orollardan jo'nab ketdi. U g'arb tomonga qayrila borib, Braziliya qirg'oqlari yaqinidan o'tadigan dengiz oqimiga tushib oldi, 7-sentabrda esa shimoldan esib turgan kuchli shamol ostida ekvator-dan o'tib, Janubiy yarim sharga kirdi.

Safar qiyinchiliksiz borardi. Hamma ham ekspeditsiyaning muvaffaqiyat qozonishiga ishonar edi. Kapitan Grantni topishga bo'lgan umid borgan sari oshganday tuyulardi. Bunga juda ishonganlardan biri «Dunkan»ning kapitani edi. Uning bunchalik qattiq ishonch bildirishiga asosiy sabablardan biri Meri Grantni umidvor va baxtli holda ko'rishga qizg'in intilishi edi. Jon Mangls bu qizga juda boshqacha qiziqib qolgan bo'lib, qizga bo'lgan o'z hislarini shunday mu-

vaffaqiyat bilan yashirar ediki, buni Meri Grant bilan uning o'zidan boshqa hamma sezib oldi. Geografiya olimiga kelsak, butun Janubiy yarim sharda undan baxtli odam yo'qday edi. U kun bo'yi kayut-konpaniyadagi stol ustiga yozilgan xaritalarni o'rganar, stolga dasturxon yozmoqchi bo'lgan Olbinet bilan Paganel o'rtasida har kuni bir tortishuv bo'lardi. Shuni ham aytish kerakki, bu tortishuvda kemadagi butun yo'lovchilar Paganel tarafini olar, faqatgina mayor bundan chetda qolar edi; u o'z odaticha geografiyaga ham tamomi sovuqqonlik bilan qarardi, ayniqsa ovqat vaqtlarida unga mutlaqo qiziqmasdi. Paganel o'ziga geografiya bilan shug'ullanishdan boshqa ham ish topdi. U kapitan yordamchisining yashigidan bir qancha kitob topib keldi, bu kitoblar orasidan bir nechta ispancha kitob topib oldi-da, Servantesning tilini o'rganishga qaror qildi. Eslatib o'taylikki, kemada bu tilni hech kim bilmas edi. Ispan tilini bilish geografiya olimiga Chili sohillarini o'rganishda yordam berishi kerak edi. O'zining til o'rganish qobiliyati kuchli ekanidan foydalanib, u kema Konsepsionga yetib borguncha bu tilni gaplashadigan darajada egallab olmoqchi edi. Shuning uchun u ispan tilini o'rganishga jon kuydirib kirishdi va notanish so'zlarni to'xtovsiz ravishda takrorlay boshladi.

Buning ustiga Paganel bo'sh paytlarida Robertni yoniga chaqirib olar va unga «Dunkan» tezlik bilan yaqinlashib borayotgan sohillar to'g'risida so'zlab berardi.

10-sentabrda «Dunkan» 5°37' kenglik va 31°15' uzunlikka yetib bordi, shunda Paganelning yangi do'stlari hatto durustgina ma'lumotli kishilar ham bilmagan narsalardan xabardor bo'ldilar. Paganel ularga Amerikaning tarixini so'zlab berdi. Gap hozir «Dunkan» o'tib borayotgan yo'llardan yurgan buyuk dengiz sayyohlariga kelgach, u Xristofor Kolumb haqida gapirib ketdi va o'z hikoyasini genuyalik bu buyuk sayohatchi Yangi Dunyoni topganini o'zi bilmasdan o'lib ketdi, deb tugatdi.

Shunda uning hikoyasini eshitib o'tirganlarning hammasi qattiq e'tiroz bildirdilar, lekin Paganel o'z so'zida turib oldi.

- Bu tamoman tasdiqlangan gap, - dedi u. - Men Kolumbning shuhratini pastga urmoqchi emasman, lekin fakt faktligicha qoladi. O'n beshinchi asrning oxirida kishilarnig butun fikri-zikri Osiyo bilan munosabatni yengillashtirish va G'arb tomondan Sharqqa borish masalasiga qaratilgan edi. Qisqasi, «noz-ne'matlar o'lkasiga» boradigan eng qisqa yo'lni axtarib topishga intilar edilar. Kolumb ham o'z oldiga shu vazifani qo'ydi. U to'rt marta sayohat qildi, Kuman, Gonduras, Maskit sohillari, Nikaragua, Veragua, Kosta-Rika va Panamadan chiqdi, lekin, bu yerlarni Yaponiya va Xitoy sohillari deb gumon qildi. Shunday qilib, u kattakon qit'aning mavjudligidan bexabar vafot etib ketdi, afsuski, bu qit'a uning nomiga ham qo'yilmadi.

- Men sizga ishonmoq istardim, aziz Paganel, - dedi Glenarvan. - Lekin juda hayron bo'lib qoldim. Sizga bitta savol bermoqchiman: Kolumbning kashfiyotini dengiz sayyohlaridan kim to'g'ri tushungan?

- Shu ishni undan keyin davom ettirganlar: Kolumbning sayohatlarida ishtirok qilgan **Oxeddanning tortib, Vinsent Pinson, Amerigo Vesputchi, Mendosa, Bastidas, Kabral, Solis, Balboagacha**. Bu dengiz sayyohlari Amerikaning sharqiy sohillari bo'ylab o'tib, uning chegarasini xaritaga tushirib borganlar: bundan uch yuz oltmish yil burun ular ham hozir bizni oqizib ketayotgan okean oqimi bilan janubga tushib borganlar. Shuni ham aytayki, do'stlarim, biz ekvatorning o'n beshinchi asrning oxirgi yilida Pinson kesib o'tgan yeridan o'tdik, hozir esa biz Pinsonning Braziliya sohillariga tushgan yeri - janubiy kenglikdagi sakkizinchi gradusga yaqinlashib kelayotirmiz. Pinsondan bir yil keyin portugaliyalik Kabral undan ham pastroqqa - hozirgi Seguro portigacha tushdi. Undan so'ng dengiz sayohatchisi Vesputchi o'zining uchinchi sayohati paytida, 1502-yilda, yana ham janubroqqa tushdi. 1508-yilda Vinsent Pinson bilan Solis Amerikaning sohillarini hamjihatlik bilan tekshirish maqsadida birlashdilar, shundan so'ng 1514-yilda Solis La-Plata daryosining dengizga quyiladigan yerini ochdi va xuddi o'sha yerda o'zi yovvoyilarga go'sht bo'ldi. Solis halok bo'lgani tufayli materikni birinchi bo'lib aylanib o'tish sharafi Magellanga nasib etdi. Bu ulug' sayyoh 1519-yilda beshta kema bilan Amerikaga yo'l oldi. U Patagoniya sohillari

yoqalab o'tdi, Huzurijon portini, shuningdek, **Muqaddas Yulian** portini ham ochdi va bu portda uzoq turib qoldi. So'ng o'sha kenglikning ellik ikkinchi gradusida keyinchalik uning nomiga qo'yilgan **O'n bir ming Qiz** bo'g'ozini ochib, Magellan Tinch okeanga chiqdi. Ko'zi oldida quyosh nurlari ostida tovlanib turgan yangi dengiz ochilganda u o'zida yo'q xursand bo'lib, yuragi shodlikdan o'ynab ketgan bo'lsa kerak deyman!

– Eh, qani endi men ham o'shanda u bilan birga bo'lgan bo'lsam! – deb yubordi geografiya olimining so'zlaridan to'lqinlangan Robert.

– Buni men ham istardim, o'g'lim, bundan uch yuz yil burun tug'ilganimda bunday voqeada albatta ishtirok qilgan bo'lardim-a.

– Bundan biz xafa bo'lgan bo'lardik, janob Paganel – dedi Elen, – chunki unda siz hozir biz bilan «Dunkan»da o'tirmagan bo'lardingiz, biz esa siz hozir aytib bergan gaplarni eshitmagan bo'lardik.

– Men bo'lmasam, boshqa biror kishi so'zlab berardi, xonim. U Amerikaning G'arbiy sohilini aka-uka Pisarroklar tekshirganini ham qo'shib aytgan bo'lardi. Sarguzasht axtargan bu jasur kishilar qator shaharlarga asos qo'ydilar. Kusko, Kvito, Lima, Sant-Yago, Villa-Rika, Valparayso va hozir «Dunkan» ketayotgan Konsepsion shaharlarining hammasiga o'shalar asos solgan. Aka-uka Pisarroklarning kashfiyotlarini Magellanning kashfiyotlariga qo'shib, Amerika qit'asining sohillarini xaritaga tushirish mumkin bo'ldi, bu esa Eski Dunyo olimlarini juda xursand qildi.

– Lekin men bu bilan kifoyalanmagan bo'lardim, – dedi Robert.

– Nima uchun endi? – deb so'radi Meri, bu kashfiyotlar to'g'risidagi hikoyalarga juda qiziqib qolgan ukasiga qarab.

– Rost-a, o'g'lim, nima uchun? – deb takror so'radi dalda beruvchi tabassum bilan Glenarvan ham.

– Chunki men Magellan bo'g'ozining nariyog'ida nima borligini bilishga qiziqqan bo'lar edim.

– Barakalla, do'stim! – dedi Paganel. – Men ham qit'a Janubiy qutbgacha cho'zilib ketadimi yoki Dreyk degan sizning vatandoshlaringiz taxmin qilgandek, ochiq dengizga chiqadimi – mana shuni bilishga qiziqqan bo'lardim. Xullas, ishonamanki, Robert Grant bi-

lan Jak Paganel o'n yettinchi asrda yashagan bo'lsalar, bu geografik jumboqni hal qilishga intilib, albatta Sxouten bilan Lemer izidan ketgan bo'lardilar.

– Ular olimlar edimi? – deb so'radi Elen.

– Yo'q, ular kashfiyotlarning ilmiy jihati bilan kam qiziqqan oddiy komersantlar edi. U vaqtlar Gollandiyada Ost-Indiya kompaniyasi mavjud bo'lib, Magellan bo'g'ozini orqali tovar olib o'tish huquqiga faqat shu kompaniyagina haqli edi. Osiyoga olib boradigan bundan boshqa yo'lni bilishmaganidan, bo'g'oz Ost-Indiya kompaniyasining haqiqiy monopoliyasi edi. Shu sababdan bir qancha kommersantlar boshqa bo'g'oz topish orqali Ots-Indiya kompaniyasi bilan kurash olib borish payiga tushdilar. Bu kommersantlar orasida Isaak Lemer degan aqlli va bilimli kishi bor edi. U o'z hisobidan ekspeditsiya tashkil qilib, unga jiyani Yakov Lemer bilan gornlik tajribakor dengizchi Sxoutenni bosh qilib qo'yadi. Bu jasur sayyohlar Magellandan deyarli yuz yil keyin, 1615-yilning iyun oyida yo'lga chiqadilar. Ular Shtatlar hududi bilan Olovli Yer o'rtasida keyinchalik Lemer bo'g'ozini deb atalgan bo'g'ozni kashf etdilar. 1616-yilning fevralida esa ular hozir juda mashhur bo'lgan Gorn burunini aylanib o'tdilar; bu burunda Bo'ronlar buruni deb nom chiqargan Yaxshi Umid buruniga qaraganda ham qattiqroq bo'ron quturib yotardi.

– Eh, qani endi men ham o'shalar bilan birga bo'lsam! – deb yubordi Robert.

– O'g'lim, ular bilan birga bo'lganingda unutilmas shodiyona daqiqalarni boshdan kechirgan bo'larding! – dedi qizg'inlik bilan Paganel. – Chindan ham, dunyo xaritasiga o'z kashfiyotini tushirayotgan dengizchining mamnunligi va sevinchidan ham ortiq narsa bo'larmikin! Ko'z oldida go'yo sekin-asta dengiz to'lqinlari orasidan chiqib kelib, yangi-yangi yerlar, orollar, burunlar bunyod bo'layotganday tuyuladi. Dastlab bu yangi yerlar sal-pal ko'zga chalinadi, bo'lak-bo'lak bo'lib ko'rinadi, ularni aniq ajratib, ilg'ab olib bo'lmaydi: bir chetda sho'ppayib chiqqan yolg'iz burun ko'rinib qoladi, bir tarafda dengiz qo'ltag'i, yana bir tarafda uzoqdan ko'rfaz ko'zga tashlanadi. Lekin vaqti kelib, kashfiyotlar biri-birini to'ldiradi, xaritada uzoq-yuluq chiziqlar ulanib ketadi, undagi nuqtalar o'rnida aniq chiziqlar

paydo bo'ladi; bu burunlar ma'lum bir joyda quruqlikka tutashadi: burunlar ma'lum bir yerdan joy oladi, shu tarzda sekin-asta globusda butun boshli qit'aning qiyofasi paydo bo'ladi, unda yangi qit'aning butun ko'llari, daryolari, anhorlari, tog'lari, vodiylari, pasttekisliklari, qishloqlari, shaharlari, poytaxtlari ko'rsatilgan bo'ladi. Oh, do'stlarim, yangi yer ochgan kishi – bir kashfiyotchi! U ham kashfiyotchining hayajonlarini, hech kutilmagan hollarni boshidan kechiradi. Lekin bizning davrimizda bunday kashfiyotlar manbayi tamom bo'lgan: hamma yoqni ko'rib, tekshirib kashf qilish mumkin bo'lgan narsalarni kashf qilib bo'lganlar, bizday hozirgi geograflarga qiladigan ish qolmagan.

– Yo'q, aziz Paganel, – deb e'tiroz bildirdi Glenarvan. – Hali qilinadigan ish bor.

– Nima ekan u?

– Biz qilayotgan ish-da!

«Dunkan» esa Vespuchchi va Magellan o'tgan yo'llardan shtob bilan suzib bormoqda edi. **15-sentabrda kema Jaddiy tropikidan** o'tib, mashhur bo'g'ozga qarab yo'l oldi. Bir necha bor ufqda Patagoniyaning past sohillari sal-pal ko'zga ilg'ab qoldi. Kema bu sohillardan o'n mildan ham ortiqroq masofadan o'tib borardi, shuning uchun o'zinnig ajoyib dengiz trubasidan sohilni ko'rishga harakat qilgan Paganel ham Amerika qirg'oqlari to'g'risida tuzukroq bir taassurot ololmadi.

25-sentabrda «Dunkan» Magellan bo'g'oziga yetib keldi. Yosh kapitan kemani bo'g'ozga dadillik bilan olib kirdi. Tinch okeanga ketayotgan kemalar odatda shu yo'ldan o'tadilar. Magellan bo'g'ozining uzunligi nihoyati uch yuz yetmish olti mil keladi. U shunchalik chuqurki, hatto eng katta kemalar ham shunday sohilning yonidan bemalol suzib o'ta oladilar. Bo'g'ozning tagi kemalarning langar tashlab turishi uchun juda qulay. Uning sohillarida chuchuk suv manbalari, baliqqa boy daryolar, yovvoyi parrandaga kon o'rmonlar juda ko'p, kirish oson va xavfsiz bo'lgan bir qator limanlar bor. Qisqasi, bu yerda doim bo'ron va dovul quturib yotgan, haybatli qoyalari ko'p Gorn burunida ham, Lemer bo'g'ozida ham yo'q bo'lgan qulayliklar juda ko'p edi.

Magellan bo'g'ozidan o'tishda dastlabki soatlardagi, ya'ni Gregori burunigacha bo'lgan taxminan oltmish-

sakson milli yoʻldagi sohil past va qumloq yerlardan iborat. Jak Paganel sohilning biror qarich joyini, boʻgʻozning bironta detalini qoʻymay koʻrib oʻtishga tirishar edi. Boʻgʻozdan oʻtish uchun oʻttiz olti soatdan kamroq vaqt ketardi, shuning uchun jozibali janub quyoshining nurlari ostida tovlangan har ikki sohilning goʻzal manzarasi zavq bilan koʻz uzmay tomosha qilishga haqiqatan ham arzir edi. Shimoliy sohilda bironta ham odam koʻrinmas, Olovli Yerning yalangʻoch qoyalari ustida esa bir nechagina shu yerli odamlar kezib yurishar edi.

Paganel bironta ham patagoniyalikni uchratmaganiga achindi, olim bunga qattiq xafa boʻlar, uning yoʻldoshlari esa bundan juda zavqlanishardi.

– Patagoniyaliklarsiz qanday Patagoniya boʻldi bu! – deb takrorlardir u achchiqlanib.

– Sabr qiling, hurmatli geograf, hali patagoniyaliklarni koʻp koʻramiz, – deb unga dalda berar edi Glenarvan.

– Men bunga ishonmay qoʻydim.

– Ular mavjud-ku, axir, – dedi Elen.

– Birontasini ham koʻrmaganimdan keyin bunga shubhalanib qoldim, xonim.

– Har holda ispanchada «kalta oyoqlar» degan maʼnoni bildiradigan «patagoniyaliklar» xayoliy odamlar emas-ku.

– E! Ism hech narsani bildirmaydi hali! – deb tortishuvni qizitish uchun qaysarlik bilan soʻzida turib oldi Paganel. – Lekin, rostinni aytsam, ularning ismi qanday ekani ham nomaʼlum.

– Ana xolos! – dedi Glenarvan. – Mayor, siz buni birlarindingiz?

– Yoʻq, – deb javob berdi Mak-Nabbs, – buni bilish uchun bir funt shotland sterlingi ham bermagan boʻlardim.

– Oʻshanday boʻlsa ham hozir shu toʻgʻrida baʼzi gaplarni eshitasiz, odamning beparvosil! – dedi Paganel. – Toʻgʻri, Magellan bu yerli odamlarni patagoniyaliklar deb atagan, lekin fidjinliklar ularni tiremeneylar deb, chililiklar koukalular deb, Karmen koloniyachilari – teguelxlar deb, araukanliklar – uilixlar deb atashadi. Bugenvil ularni chauxlar deb atagan. Ularning oʻzlari

esa o'zlarini umumiy ism bilan ipakslar deb ataydilar. Ana endi menga shuni ayting: bularning qaysi biri rost, shunday ko'p ism bilan ataladigan xalq bo'lishi mumkinmi?

– Ana dadil-ul! – deb yubordi Elen.

– Shunday deb ham faraz qilaylik, – dedi Glenarvan, – lekin do'stimiz Paganel patagoniyaliklarning ismi masalasida shubhalar bo'lsa ham, juda bo'lmaganda, ularning bo'yi masalasida har xil fikr'lar yo'qligini e'tirof qilar, deb o'ylayman.

– Bunday fikrni men mutlaqo tasdiqlay olmayman! – dedi Paganel.

– Ular baland bo'yli bo'ladi, – deb o'z fikrida turib oldi Glenarvan.

– Bu menga noma'lum.

– Demak, past bo'yli ekan-da? – deb so'radi Elen.

– Buni ham hech kim tasdiqlay olmaydi.

– Bulmasa o'rta bo'yli odamlar bo'ladi-da, – dedi hammani kelishtirib qo'yish uchun Mak-Nabbs.

– Menga bunisi ham noma'lum.

– Yo'g'e, o'jarlikni juda oshirib yubordingiz! – dedi Glenarvan, – ularni ko'rgan sayyohlar...

– Ularni ko'rgan sayyohlar, – deb uning so'zini bo'ldi Paganel, – har xil fikr aytadilar. Masalan, Magellan mening bo'yim zo'rg'a ularning belidan keldi deydi...

– Ana, ko'rdingizmi?

– Ha, lekin Dreyk inglizlar eng novcha patagoniyalikdan ham balandroq degan fikrni aytgan.

– Albatta, bu yerda gap inglizlar to'g'risida emas, – dedi nafrat bilan Mak-Nabbs. – Gap shotlandiyaliklar to'g'risida bo'lsa kerak.

– Kevendish, patagoniyaliklar baland bo'yli baquvat odamlar degan edi, – deb so'zida davom qildi Paganel. – Naukins ularni pahlavon odamlar deb tilga oladi. Lemer bilan Sxouten esa ularning bo'yi o'n bir fut keldi degan fikrni bildiradilar...

– Juda soz! Ularning gapiga ishonsa bo'ladi, – dedi Glenarvan.

– To'g'ri, lekin Vudning ham, Narboroning ham, Falknerning ham gapiga ishonsa bo'ladi, ularning fikricha esa – patagoniyaliklar o'rta bo'yli, to'g'ri, Bayron, La-Jirode, Bugenvil, Uells va Karterelar patagoniya-

liklarning bo'yi o'rtacha olganda olti fut olti duymga to'g'ri keladi, degan fikrni bildiradilar, vaholanki, bu mamlakatni ancha yaxshi bilgan olim janob d'Orbini ularning bo'yi o'rta hisob bilan besh fut to'rt duymga to'g'ri keladi, xolos deb aytgan.

- Bo'lmasa, bu qarama-qarshi fikrlar ichidan haqiqatni qanday qilib topamiz? - deb so'radi Elen.

- Haqiqat mana bunday; patagoniyaliklarning oyoq-g'i kalta, gavdasi uzun bo'ladi. Hazilga burib aytsak, o'tirganda ularning bo'yi olti fut, turganlarida esa - faqat besh fut.

Glenarvan:

- Ofarin, bopladingsiz, aziz Paganel! - dedi.

- Patagoniyaliklarning o'zi tagida bo'lmagandan keyin, barcha qarama-qarshi fikrlar ham o'z-o'zidan kuchini yo'qotadi, - deb davom etdi Paganel. - Endi esa, do'stlarim, so'zimning oxirida bitta tinchlantiruvchi gap aytmoqchiman: Magellan bo'g'uzi patagoniyaliklarsiz ham g'oyat go'zal joy ekan.

Bu payt «Duncan» Brunsvik yarimorolini aylanib o'tmoqda edi. Ikkala sohil manzarasi ham tobora go'zallashib bormoqda. Daraxtlar orasidan Chili bayrog'i bilan cherkov qo'ng'iroqxonasi ko'rinib qoldi. Bo'g'uz suvi katta-katta granit massivlar orasidan oqib o'tardi. Tog'lar etagi ulkan o'rmon ichida yo'qolib ketgan, abadiy qorlar bilan qoplangan cho'qqilari esa bulutlar orasiga kirib yashiringan edi.

Janubi g'arb tomonda olti ming besh yuz fut balandlikdagi Tarn tog'i qad ko'targan edi.

Uzoqqa cho'zilgan oqshomdan so'ng qorong'u tushdi. Kunduz yorug'ligi sezilmaygina so'ndi, yerga qopqora soyalar cho'kdi. Osmonda yulduzlar charaqladi. Janubiy Qutb yulduzlar turkumi dengiz sayohatchilariga Janubiy qutb yo'lini ko'rsatib turardi.

Kema qop-qorong'u tunda madaniyatlashgan mamlakatlardagi mayaklar o'rnini bosadigan porloq yulduzlarga qarab, bo'g'uzda ko'plab uchrab turgan to'xtash uchun qulay qo'ltiqlarning birontasida ham langar tashlamay, dadillik bilan yo'lida davom etdi. Uning reyalari tez-tez to'lqinlar ustiga egilib turgan janub qora qayinlarining shoxlariga tegib o'tar, vintlari esa yovvoyi g'ozlar, o'rdaklar, bedanamashaklar, churraklar va bu yerdagi botqoqlarda yashovchi boshqa barcha qush-

lar olamining osoyishtaligini buzib, katta daryolar-ning bo'g'ozga quyiladigan joydagi chuchuk suvlarni ko'piklantirib o'tardi. Ko'p o'tmay allaqanday xarobalar va o'pirilgan joylar ko'rindi. Tunda ular vahimali ko'rinardi.

Bu tashlab ketilgan koloniyalarning ko'ngilsiz qoldiqlari bo'lib, bu koloniyaning ismiyoq bu yerlar serhosil yerlar, o'rmonlar esa qushlarga boy, degan fikrni tamom rad qilardi. «Duncan» Ochlik porti yonidan o'tib bormoqda edi.

Bu yerga 1581-yilda ispaniyalik Sarmiento boshchiligida to'rt yuzta emigrant ko'chib kelgan edi. Sarmiento bu yerda San-Filipp shahriga asos soldi. Ko'chib kelganlarning bir qismi qahraton qish sovuqlariga bardosh berolmay halok bo'ldi, qishdan omon chiqqanlar ochlikdan o'lib ketdilar, 1587-yilda korsar Kevendish kelganda bunda olti yil yashagan, lekin olti asrning azobini tortib qiynalib ketgan bechora to'rt yuz emigrantdan faqat bittasini tirik uchratgan edi.

«Duncan» mana shu bo'm-bo'sh sohillar yonidan o'tib bordi. Tong paytida kema qoraqayin, shumtol va oqqayin o'rmonlari orasidagi tor bo'g'ozdan o'tdi.

Kema Avliyo Nikolay ko'rfazi mansabi yonidan o'tib bordi. Bir vaqtlar Bugenvil uni Fransuz qo'ltig'i deb atagan edi. Uzoqda tulenlar, shuningdek, kitlar to'dasi o'ynoqlab yurar, kitlarning qay darajada katta ekanini ularning haddan tashqari kuchli fontan otayotganidan bilib olish mumkin edi, bu suv fontanlari to'rt mil masofadan ham ko'rinib turardi. Nihoyat, «Duncan» hali qishki muz bilan qoplanib yotgan Frouord burunini aylanib o'tdi. Bo'g'ozning narigi tomonida Olovli Yerda, Sarmiento tog'i olti ming fut balandlikka bo'y cho'zib turar, orasida bulutlar suzib yurgan bu qoyatoshlar va xarsanglar uyumi osmon bo'shliqlarida go'yo bir arxipelag tashkil qilgan edi.

Aslida, Frouord buruniga kelib Amerika qit'asi tugaydi, chunki Gorn buruni ellik oltinchi gradus janubiy kenglikda okean qa'riga kirib yo'qoluvchi tog'toshlardan boshqa narsa emas.

Frouord burunidan o'tgandan keyin, Brunsvik yarim-oroli bilan Umidsizlik Yeri oroli o'rtasida bo'g'oz torayadi. Xarsangtoshlar sochilib yotgan qirg'oqqa to'lqin chiqarib tashlagan bahaybat qit'ani eslatadigan bu

uzun orol bir qancha mayda orollar orasida cho'zilib yotadi. Amerikaning parcha-parcha bo'laklarga bo'linib ketgan bu uchi Afrika, Avstraliya va Hindistonning yaxlit, tekis burunlariga sira-sira o'xshamas edi. Ikki okean orasiga joylashgan bu kattakon burunni bizga noma'lum bo'lgan qanday falokat bunchalik parchalab tashladi ekan?

Keyin serhosil sohillar o'rniga bu chalkash labirintni tor qilib kesib o'tgan bo'm-bo'sh tosh sohillar cho'zildi.

«Dunkan» trubalaridan chiqqan tutunni o'zini o'rab yotgan tumanga aralashtirib, bu tez-tez qayrilib-burilib turgan yo'ldan to'xtovsiz va xatosiz o'tib borardi; ba'zan tuman orasidan qoyatoshlar mo'ralab qo'yadi. Kema yurishini sekinlatmay bu bo'm-bo'sh sohillarga o'rnashgan bir necha ispan faktoriyalari oldidan o'tib ketdi. Tamar buruni oldida bo'g'oz yana kengayadi. «Dunkan» Narboro orollarining tik sohillarini aylanib o'tib, janubiy sohilga yaqinlashib kela boshladi. Nihoyat, «Dunkan» Magellan bo'g'oziga kirganiga o'ttiz olti soat bo'ldi deganda kemadagilar Umidsizlik Yerining eng chetidagi Pilar burunining qoyasini ko'rdilar. «Dunkan» forshtevni qarshisida bepoyon dengiz quloch yozib yotar edi, shu payt uni xursandlik bilan tabriklagan Jak Paganelning hayajoni «Trinidad» kemasi Tinch okean shamollariga urilib chayqalgandagi Magellan-ning hayajonlaridan kam emas edi.

O' n i n c h i b o b

O'TTIZ YETTINCHI PARALLEL

«Dunkan» Pilar burunini aylanib o'tganiga bir hafta deganda, jadal suzib Talkaguano ko'rfaziga – uzunligi o'n ikki mil va kengligi to'qqiz mil bo'lgan ajoyib daryo mansabiga kirib keldi. Havo juda yaxshi edi. Bu o'lkada noyabrdan martgacha osmonda qilt etgan bulut ko'rinmaydi, Kordilyer tog'lari pana qilib turgan qirg'oq bo'ylab doim janub shamoli esib turadi. Eduard Glenarvanning buyrug'iga muvofiq Jon Mangls kemani Chiloe arxipelagi va Amerika materigining bu yerlardagi boshqa sonsiz-sanoqsiz orollariga yaqin olib

yurdi. Bu yerlarda uchrab qolgan biror siniq holda yoki taxta, odam qo'ldan chiqqan bir parcha yog'och «Dunkan»dagilarga «Britaniya»ning halokatidan darak berishi mumkin edi, lekin atrofda hech narsa ko'rinmadi. Kema o'z yo'lida davom etdi va, nihoyat, tumanli Klayd qo'ltig'idan chiqqaniga qirq ikki kun bo'ldi deganda, Talkaguano portida langar tashladi.

Glenarvan o'sha zahotiy oq suvga qayiq tushirishni buyurdi, Paganel ikkovi qayiqqa o'tdilar-da, ko'p o'tmay yog'och to'siq qilib qo'yilgan qirg'oqqa chiqdilar. Geografiya olimi ko'p mehnat sarf qilib o'rgangan ispan tilini amalda sinab ko'rmoqchi bo'ldi, lekin yerliklar uning bir og'iz so'ziga ham tushunmadilar.

– Aftidan, yomon talaffuz qilayotganga o'xshayman, – deb qo'ydi Paganel.

– Yuring bojxonaga, – dedi Glenarvan.

Bojxonadagilar bir necha inglizcha so'z va imoishoralar yordamida ularga ingliz konsuli bu yerdan bir soatli yo'ldagi Konsepsion shahrida turadi, deb tushuntirdilar. Glenarvan tezda ikkita chopqir ot topdi, ko'p o'tmay Paganel ikkovlari aka-uka Pisarro'larning yo'ldoshi uddaburon Valdivia tufayli qurilgan bu katta shaharga kirib bordilar.

Qarang, bir vaqtlar juda gullagan shahar endi qanday tushkunlikka uchrabdi! 1819-yildagi yong'indan hali ham devorlari qorayib yotgan, bo'shab qolgan va xarobaga aylangan shaharning aholisi endilikda zo'rg'a sakkiz ming kishiga yetardi. Uning o'rniga qo'shni shahar Talkaguano gullab ketdi. Konsepsion aholisi shunday ham dangasa odamlar ediki, hatto ko'chalari o't bosib, o'tloqqa aylanib ketibdi. Shaharda hech qanday savdo-sotiq, faoliyat, ish-harakat yo'q. Har bir uyning balkonidan mandolina ovozi kelar, panjarali derazalardan nozli ashula tovushi eshitilar edi. **Bir vaqtlar erkaklar shahri bo'lgan Konsepsion endi xotinlar va bolalar qishlog'iga aylangan.**

Paganel shaharning bunday ahvolga tushish sabablari to'g'risida gap ochgan bo'lsa-da, Glenarvan bunga uncha qiziqmadi. U bir minut ham vaqtni qo'ldan bermay, Britaniya konsuli mister J. R. Bentok huzuriga yo'l oldi. Bu e'tiborli janob ularni juda yaxshi qarshi oldi va kapitan Grant voqeasini eshitib, butun qirg'oqni daraklab ko'rishga kirishdi.

Konsul Bentok «Britaniya» nomli uch machtali kema o'ttiz yettinchi parallel yaqinida, Chili yoki Arakan sohillarida falokatga uchragan-uchramaganini bilmas edi. Na unga, na uning do'stlari – boshqa mamlakatlarning konsullariga bunday ma'lumot kelmagan edi. Ammo bu Glenarvaning ruhini tushirmadi. U Talkaguanoga qaytib keldi-da, g'ayratini ham, pulini ham ayamay butun sohilni razvedka qilishga odamlar yubordi. Afsus: sohilda yashovchi aholidan har qancha surishtirilmasin, natija bermadi. Bundan, falokatga uchragandan keyin «Britaniya»dan hech qanday nom-nishon qolmagan ekan, degan xulosa chiqar edi.

Glenarvan qidirish ishlarining natija bermaganini do'stlariga kelib aytdi. Meri Grant bilan ukasi o'z qayg'ularini yashirolmadilar. «Dunkan»ning Talkaguanoga kelganiga olti kun bo'lgan edi. Hamma yo'lovchilar kemaning yut qismiga to'plandilar. Elen kapitan Grantning bolalariga, albatta shirin so'z bilan [boshqa nima ham qila olar edi!] tasalli berishga harakat qilardi. Jak Paganel yana hujjatlar ustiga muk tushdi: u hujjatlardan biror yangi sirni tortib olmoqchi bo'lgandek, ularga nihoyatda zo'r diqqat bilan tikilib o'tirar edi. Geografiya olimi hujjatlar ustida bir soatcha bosh qotirib o'tirgandan keyin to'satdan Glenarvan unga murojaat qilib:

– Paganel! Men sizning kamoli idrokingizga ishonaman. Hujjatni o'qishda biz biror xato qilmadikmikan? Biz qo'shgan so'zlarda mantiq bormi?

Paganel hech narsa deb javob bermadi – u fikr yuritmoqda edi.

– Ehtimol, biz kema halokatga uchragan joyni noto'g'ri belgilagandirmiz? – deb so'radi yana Glenarvan. – Har qanday esi past odam ham buning «Patagoniya» ekanini darhol fahmlab olmaydimi?

Paganel yana indamadi.

– Nihoyat, «hindu» so'zi bizning to'g'ri xulosa chiqarganimizni ko'rsatmaydimi? – deb qo'shib qo'ydi yana Glenarvan.

– Shubhasiz, – dedi Mak-Nabbs.

– Shunday ekan, halokatga uchraganlar bu xatni yozayotganda hindular qo'lga asir tushish xavfi ostida bo'lgani o'z-o'zidan ravshan emasmi?

– Mana shu yerda so'zingizni bo'laman, azizim Glenarvan, – dedi nihoyat Paganel. – Dastlabki chiqargan

xulosalaringiz to'g'ri bo'lsa ham, mana shu keyingisi, menimcha, to'g'ri emasdek ko'rinadi.

– Bu bilan nima demoqchisiz? – so'radi Elen.

Hamma geografga tikilib qoldi.

– Men kapitan Grant hozir hindular qo'lida asirlikda demoqchiman, – javob berdi Paganel har bir so'zini alohida takidlab, – yana shuni ham qo'shib qo'ymoqchimanki, hujjat bu jihatdan sira shubha qoldirmaydi.

– Ochiqroq tushuntirib bering, janob Paganel, – deb iltimos qildi miss Grant.

– Bundan ham oson ish bormi, azizim Meri: «asir tushadilar» degan ifodani «asir tushdilar» deb o'qilsa, gap ravshan bo'ladi-qo'yadi.

– Bu mumkin emas! – dedi Glenarvan.

– Mumkin emas deysizmi? Nima uchun mumkin bo'lmasin, aziz do'stim? – deb so'radi jilmayib Paganel.

– Chunki shisha kema qoyaga kelib urilgan paytdagina dengizga tashlangan bo'lishi kerak. Bundan esa hujjatda ko'rsatilgan kenglik va uzunliklar halokat yuz bergan joyni ko'rsatadi, degan xulosa kelib chiqadi.

– Bunga hech qanday dalil yo'q, – darhol e'tiroz bildirdi Paganel. – Hindular halokatga uchraganlarini qit'aning ichkarisiga olib ketgan, deb faraz qilaylik. Xo'sh, nima uchun u bechoralar xuddi o'sha shisha yordami bilan o'zlarining qayerda asirlikda ekanliklarini xabar qila olmadilar ekan?

– Bunday qilolmasliklarining sababi juda oddiy, aziz Paganel: shishani dengizga tashlash uchun juda bo'lmaganda dengizga yaqin yerda bo'lish kerak.

– To'g'ri, lekin dengizdan uzoqda bo'lsangiz, dengizga kelib quyiladigan daryo sohilida bo'lishingiz ham kifoya.

Kutilmagan, lekin bo'lishi tamomila mumkin bo'lgan bu javobni eshitib, hamma hayron bo'lib jim qoldi. Hamrohlarining chaqnab ketgan ko'zlariga qarab, Paganel ularning yuragi yana umid bilan ura boshlaganini tushundi.

Jimlikni birinchi bo'lib Elen buzdi.

– Qanday yaxshi fikr-a! – dedi u.

– Yaxshi bo'lganda qandoq! – dedi soddadillik bilan Paganel.

- Endi, sizning fikringizcha, qanday tadbir ko'rishimiz kerak? - deb so'radi Glenarvan.

- Mening fikrim bunday: Amerika qit'asining o'ttiz yettinchi parallel o'tadigan joyini topish kerak, keyin yarim gradus ham chetga chiqmay, shu parallel Atlantika okeaniga chiqib ketadigan joygacha qit'ani kesib o'tish kerak. Shu marshrut bilan yurib, «Britaniya» kemasida halokatga uchraganlarni topsak ham ajab emas.

- Ishonch kam, - dedi mayor.

- Ishonch qanchalik bo'lmasin, biz buni nazarga olmay qololmaymiz, - deb e'tiroz bildirdi Paganel. - Agar mening bu taxminim to'g'ri chiqib, shisha haqiqatan ham shu qit'adagi okeanga kelib quyiladigan daryolardan biriga tashlangan bo'lsa, biz asir tushganlarning iziga uchramay o'tib ketishimiz mumkin emas. Qaranglar, do'stlarim, bu mamlakatning xaritasiga qaranglar: men fikrimning to'g'riligini to'la isbotlab bera olaman.

Shunday deb, Paganel stol ustiga Argentina viloyatlari bilan Chili xaritasini yozib qo'ydi.

- Qarab turinglar, - deb takrorladi u, - Amerika qit'asida qilinadigan bu sayohatda mening orqamdan boraveringlar: ingichkagina Chili yerini kesib o'tamiz. Kordilyer tog'laridan oshamiz. Pampaslarga tushib boramiz. Bu yerlarda soylar, daryolar, tog' jilg'alari kammi? Yo'q, juda ko'p. Mana bu Rio-Negro, mana bu Kolorado, mana bular ularning irmoqlari; ularning hammasi o'ttiz yettinchi paralleldan oqib o'tadi, hammasi ham hujjat solingan shishani dengizga oqizib ketgan bo'lishi mumkin. Ehtimol, o'sha yerlarda, hindularning biron o'troq qabilasi orasida, kam o'rganilgan daryolardan birining sohilida biror sherdasida biz o'zimizning do'stlarimiz deb atashga haqli bo'lgan kishilar asirlikda yordamga mushtaq bo'lib o'tirgandirlar. Biz ularning umidini puchga chiqara olamizmi? Men hozir barmog'im bilan ko'rsatayotgan chiziqdan hech qayoqqa og'ishmay, qit'ani kesib o'tishimiz kerak degan fikrga hammangiz qo'shilasizmi? Bordi-yu, taxminim o'rinsiz chiqib, men bu safar ham xato qilayotgan bo'lay, o'ttiz yettinchi paralleldan yo'limizni davom ettirib borish va agar zarur bo'lib qolsa, falokatga uch-

raganlarni topish uchun shu parallel bo'ylab dunyoni aylanib chiqish bizning vazifamiz emasmi?

Paganelning bu qizg'in va samimiy so'zlari tinglovchilarning hammasiga ham chuqur ta'sir qildi. Hammalari turib, uning qo'lini qisa boshladilar.

- To'g'ri! Otam mana shu yerda! - deb qichqirdi Robert, ko'zlari bilan yeb yuborgudek darajada xaritaga tikilib.

- Otangni topmay qo'ymaymiz, o'g'lim, - dedi Glenarvan. - Haqiqatan ham, do'stimiz Paganel hujjatni juda asosli tushuntirib berdi, biz hech ikkilanmay u ko'rsatgan yo'ldan borishimiz kerak. Kapitan Grant yo biror katta qabilaga, yoki aksincha, biror kichkina, kuchsiz qabilaga asir tushgan. Agar kichkina, kuchsiz qabilaga asir tushgan bo'lsa, uni o'zimiz qutqazib olamiz. Bordi-yu, u katta qabilaga asir tushgan bo'lsa, kapitanning qayerdaligini, hol-ahvolini bilib olamiz, keyin sharqiy sohilga qaytib, «Dunkan»ga o'tiramiz-da, Buenos-Ayresga yo'l olamiz. Mayor Mak-Nabbs u yerda shunday bir otryad tuzadiki, Argentina viloyatlaridagi barcha hindu qabilalariga ham kuchi yetadigan bo'ladi.

- To'g'ri, ser, to'g'ri! - dedi Jon Mangls. - Shuni ham aytish kerakki, qit'a orqali qilinadigan bu safaringiz bexatar o'tadi.

- Bexatar va yengil o'tadi, - deb uning so'zini tasdiqladi Paganel. - Bu yo'lni juda ko'p odamlar bosib o'tganlar, tag'in ularda bizdagiday, imkoniyatlar ham, bizning oldimizda turgan oliyjanob maqsadlar ham bo'lmagan! Bazilio Vilarmo degan bir kimsa 1782-yilda Karmendan to Kordilyergacha bo'lgan joylarni bosib o'tmaganmidi? Konsepsion viloyatida yashovchi chililik sidya don Luiz de-la Kruts 1806-yilda Antukodan yo'lga chiqib va Kordilyer tog'idan oshib o'tib, o'ttiz yettinchi paralleldan og'ishmay, qirq kun deganda Buenos-Ayresga yetib olmagan edimi? Nihoyat, polkovnik Garsia Alesid d'Orbini va mening muhtaram kasbdoshim doktor Martin de-Mussi - ular ham, hozir biz insonparvarlik burchimiz deb o'tlanganday, fanni boyitish niyatida o'tlanib, bu o'lkani boshdan oyoq kezib chiqmaganlarmi!

- Janob Paganel! Janob Paganel! - dedi hayajondan titragan tovush bilan Meri Grant. - Bizni deb bunday

xavf-xatarlar qarshisiga otlanayotganingiz uchun sizga qanday tashakkur bildirishni ham bilmay qoldim!

– Xavf-xatar? – deb so‘radi Paganel. – «Xavf-xatar» degan so‘zni kim aytdi, o‘zi?

– Men emas! – dedi Robert.

Bolaning ko‘zlari porlab turar, uning boqishlarida qat’iyat aks etardi.

– Xavf-xatar-a! – deb so‘zida davom etdi Paganel. – Umuman xavf-xatar degan narsa bo‘ladimi, o‘zi? Buning ustiga, gap nima to‘g‘risida boryapti? Nihoyati bir ming to‘rt yuz kilometrga cho‘ziladigan sayohat to‘g‘risida boryapti, – axir, biz qit‘ani to‘ppa-to‘g‘ri kesib o‘tamiz-ku, gap Shimoliy yarim shardagi Ispaniya, Sitsiliya, Gretsiya kengliklariga to‘g‘ri keladigan kenglikda bo‘ladigan sayohat to‘g‘risida, demak, o‘sha mamlakatlar ob-havosiga to‘g‘ri keladigan sharoitda o‘tadigan sayohat to‘g‘risida boryapti; nihoyat, gap ko‘p deganda bir oyga cho‘ziladigan sayohat to‘g‘risida boryapti. Bu sayohat emas, sayr-ku!

– Janob Paganel, – deb unga murojaat qildi Elen, – demak, siz halokatga uchraganlar hindular qo‘liga tushgan bo‘lsa, hindular ularni sog‘ qo‘ygan deb o‘ylaysiz-a?

– Albatta, xonim. Bu yerlik hindular odamxo‘r emas-ku. Mening bir vatandoshim, Geografiya jamiyatidagi tanishlarimdan biri Ginor degan kishi pampaslardagi hindular qo‘lida uch yil asirlikda yashagan. To‘g‘ri, u juda ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirgan, unga juda yomon muomala qilishgan, lekin oxiri u bu qiyinchiliklarni yengib chiqqan. Bu o‘lkalarda yevropalik odamni foydali kishi deb hisoblaydilar. Hindular yevropaliklarning qadriga yetadilar va ularni eng qimmatli hayvondek ehtiyot qiladilar.

– Unday bo‘lsa, ikkilanishga o‘rin yo‘q, – dedi Glenarvan. – Hech bir kechiktirmay tezda yo‘lga chiqish kerak. Biz qaysi yo‘ldan boramiz?

– Oson va ko‘ngilli yo‘ldan, – deb javob berdi Paganel. – Yo‘limiz oldin tog‘dan o‘tadi, lekin bu uzoqqa cho‘zilmaydi, keyin Kordilyerning qiya yonbag‘ridan pastga tushib boramiz, nariyog‘i tekis maysazor va qumloq joylar: bog‘ sayri deysiz.

– Xaritani ko‘rib olaylik, – deb taklif qildi mayor.

– Mana xarita, aziz Mak-Nabbs, o'ttiz yettinchi parallel Chili sohilidagi Rumen buruni bilan Korneyro ko'rfazi o'rtasida Amerika qit'asiga kirib keladigan punktni topamiz-da, o'sha yerdan yo'lga chiqamiz. Arukaniyaning markazi yonidan o'tib, Antuko tog' yo'li orqali Kordilyerdan oshamiz, vulqon bir chetda, janub tomonda qoladi. Keyin biz tog'ning qiya yonbag'ridan pastga tushamiz, Kolorado daryosini kechib o'tamiz va pampaslar orqali Salinas ko'liga, Guamini daryosiga, S'erra-Tapalkvemga yetib boramiz. Bu yerdan Buenos-Ayres viloyatining chegarasi o'tadi. Chegaradan o'tib, S'erra-Tandil tog'lariga chiqamiz va qidirish ishlarimizning Atlantika okeani sohilidagi Medano burunigacha davom ettiraveramiz.

Bo'lajak ekspeditsiya bosib o'tishi kerak bo'lgan marshrutni chizib berar ekan, Paganel oldida ochiq yotgan xaritaga qayrilib ham qaramadi: u bunga zarurat sezmasdi. Uning Freze, Molin, Gumboldt, Mor, d'Orbini asarlariga tayangan o'tkir xotirasi aldanishi ham, yanglishib qolishi ham mumkin emas edi. Bu geografik nomenklaturani tugatgach, Paganel qo'shimcha qildi:

– Shunday qilib, do'stlarim, yo'limiz to'ppa-to'g'ri yo'l. Bu yo'lni biz bir oy ichida bosib o'tamiz, agar g'arbdan esgan shamol «Duncan»ni yo'lda ushlab qolsa, biz sharqiy sohilga hatto undan oldinroq yetib boramiz.

– Demak, «Duncan» Korrientes buruni bilan **Muqaddas Antoniy** buruni o'rtasida u yoqdan bu yoqqa suzib yurib turishi kerak ekan-da!

– Xuddi shunday.

– Ekspeditsiyamiz qatnashchilari qilib kimlarni belgilamoqchisiz? – deb so'radi Glenarvan.

– Ekspeditsiya qatnashchilari ko'p bo'lmaydi. Axir biz faqat kapitan Grantnig ahvolini bilib kelmoqchimiz, xolos. Biz hindular bilan darhol jangga kirishish maqsadida emasmiz-ku. Menimcha, Glenarvan bizning boshlig'imiz bo'lishi tabiiy; mayor, u, albatta, o'z o'rnini birovga berishni sira istamasa kerak; kaminangiz Jak Paganel...

– Men ham! – deb qichqirdi Robert.

– Robert! Robert! – deb uni to'xtatmoqchi bo'ldi opasi.

– Nima uchun yo‘q deysiz? – dedi Paganel. – Sayohat yoshlar uchun foydali narsa: chiniqadi, ko‘p narsalarni o‘rganadi. Shunday qilib, bizdan to‘rt kishi, yana «Dunkan»dan uchta matros olinsa bo‘ldi...

– Ana xolos, – dedi Jon Mangls, Glenarvanga qarab, – demak, bu ekspeditsiyada men ishtirok qilmas ekanman-da?

– Azizim Jon, biz paroxodda yo‘lovchilarimizni, ya‘ni biz uchun dunyodagi eng qimmatli ayollarni qoldirib ketyapmiz. Ularga «Dunkan»ning sodiq kapitanidan ham yaxshiroq kim g‘amxo‘rlik qila oladi!

– Bundan chiqdi, biz birga borolmas ekanmiz-da? – dedi Elen, g‘amginlik bilan boqib.

– Sevimli Elen, – deb javob berdi Glenarvan, – bizning sayohatimiz juda tez sur‘at bilan o‘tkaziladi. Biz uzoq vaqtga ajralmaymiz, shuning uchun...

– Yaxshi, azizim, tushunaman, – dedi Elen. – Oq yo‘l, sizlarga chin yurakdan muvaffaqiyat tilayman!

– Buning ustiga, uni sayohat deb ham atab bo‘lmaydi, – dedi Paganel.

– Unda nima deb atash kerak uni?

– Shunchaki bir sayr. Biz sof vijdonli odamlarmiz, shuning uchun safarimiz vaqtida ko‘proq yaxshilik qilishga tirishamiz.

Agar hamma bir fikrda bo‘lgan hozirgi muhokamada «muzokara» so‘zini ishlatish o‘rinli bo‘lsa, Paganelning ana shu gapi bilan muzokaralar tugadi. Shu kunyoq ekspeditsiyaga tayyorgarlik boshlandi. Hindularning diqqatini tortmaslik uchun uni qattiq sir tutishga qaror qilindi.

Safarga chiqish 14-oktabrga belgilandi. Ekspeditsiyaga matroslardan kim qatnashadi, degan masalada so‘z ochilganda, barcha matroslar bunga hozir ekanliklarini bildirdilar. Qiyin ahvolga tushib qolgan va bu ajoyib yigitlardan birontasini ham xafa qilishni istamagan Glenarvan chek tashlashga qaror berdi. Shunday qilishdi. Orzu qilingan chek kapitan yordamchisi Tom Ostin, baquvvat Vilson va boksdan hatto Tom Sayersning¹ o‘ziga ham bo‘sh kelmaydigan Myulredilarga tushdi.

¹ Tom Sayers – londonlik mashhur boksyor [Jyul Vern izohi].

Bu tayyorgarlik ishlarida Glenarvan katta g'ayrat ko'rsatdi. U har qanday qilib bo'lsa ham belgilangan kuni yo'lga chiqishga tayyor bo'lishiga ahd qildi va maqsadiga erishdi. Jon Mangls ham Glenarvandan kam g'ayrat qilmadi. U darhol ochiq dengizga chiqish uchun ko'mir g'amlab olishga shoshildi. Jon Argentina sohillariga ulardan oldin yetib borishni istardi. Shu jihatdan Glenarvan bilan yosh kapitan o'rtasida haqiqiy musobaqa vujudga keldi va bu, albatta, ishga foyda keltirdi.

14-oktabrda tayin qilingan soatda hamma tayyor edi. Jo'nab ketishdan oldin yo'lovchilar kayut-kompaniyaga to'plandilar. «Dunkan» langarini ko'tara boshladi, yassi vint parraklari Talkaguano qo'lting'ining tiniq suvlarini loyqatdi. Karabinlar va Kolt revolverlari bilan qurollanib olgan Glenarvan, Paganel, Mak-Nabbs, Robert Grant, Tom Ostin, Vilson va Myulredi kemadan tushib ketishga tayyorlanardilar. Yo'l boshlovchilar bilan yuk ortilgan xachirlar ularni qirg'oqda kutib turar edi.

– Vaqt bo'ldi, – dedi nihoyat Glenarvan.

– Xo'p, oq yo'l, azizim, – dedi Elen, hayajonini bosishga tirishib.

Glenarvan uni bag'riga bosdi. Robert opasining bo'ynidan quchoqladi.

– Endi, aziz do'stlarim, – dedi Paganel, – kelinglar, ajralishdan oldin bir-birimizning qo'limizni qisaylik, shunday mahkam qisaylikki, to Atlantika okeani qirg'og'ida uchrashgunimizcha shu qo'l qisishganimiz sezilib tursin!

Paganel juda katta ketdi. Lekin xayrlasha turib, ba'zilar shunday qizg'in quchoqlashdilarki, muhtaram olimning orzusi haqiqatan ham amalga oshadiganga o'xshab qoldi.

Hamma yana palubaga chiqdi, ekspeditsiyaning yetti a'zosi «Dunkan»ni tark etdilar. Ko'p o'tmay ular sohilga yetib oldilar. Bu vaqtda manyovr qilayotgan kema qirg'oqqa yarim kabeltovdan ham yaqinroq keldi.

– Oq yo'l, do'stlarim, muvaffaqiyat tilayman! – deb qichqirdi oxirgi marta Elen kemanding yut qismidan.

– Olg'al – deb komanda berdi Jon Mangls mashinistga.

– Ketdik! – dedi Glenarvan, go‘yo kapitan bilan til biriktirgandek.

Sayohatchilar sohil yoqasidagi yo‘ldan ot choptirib ketganlarida «Dunkan» shitob bilan ochiq dengizga yo‘l oldi.

O‘n birinchi bob

CHILIDAN O‘TISH

Glenarvan o‘z ekspeditsiyasiga mahalliy kishilardan to‘rtta yo‘l boshlovchi qo‘shib oldi: ulardan uch-tasi katta kishilar va bittasi yosh bola edi. Yo‘l boshlovchilarning boshlig‘i bu mamlakatda yigirma yildan ham ortiqroq yashagan bir ingliz edi. U xachirlarini sayohatchilarga garovga berib, o‘zi Kordilyer dovonlaridan oshib o‘tishda ularga yo‘l boshlovchilik qilardi. Tog‘dan oshib o‘tgach, u odatda o‘z sayohatchilarini bakeanoga – pampaslardagi yo‘llarni yaxshi bilgan argentinalik yo‘l boshlovchiga topshirardi. Bu ingliz hindular orasida uzoq yashaganiga qaramay, o‘z ona tilini butunlay esdan chiqarib yubormagan bo‘lib, bizning sayohatchilar bilan bermalol so‘zlasha olardi. Bu, unga har xil topshiriqlar berish va ularning qanday bajarilganini tekshirishda Glenarvanning ishini ancha yengillashtirdi. Paganelning ispan tilini o‘rganaman deb har qancha harakat qilganiga qaramay, hozircha hech kim uning so‘ziga tushunmagani vajidan bu ayniqsa muhim edi.

Chili shevasida «katapats» deb yuritiladigan inglizning qo‘l ostida ikki **peon** bilan o‘n ikki yashar bir bola bor edi. Peonlar ekspeditsiya yuklari ortilgan xachirlarni haydab kelishar, bola esa madrilani – bo‘yniga qo‘ng‘iroqlar osilgan kichkinagina xachirni yetaklab borar edi. Madrila o‘z orqasidan kelayotgan o‘nta xachirni boshlab ketayotgandek karvonning oldida borar edi. Xachirlarning yettitasida bizning sayohatchilarimiz, sakkizinchisida – katapats kelar edi. Qolgan ikki xachirga oziq-ovqat va pampas katsiklarining¹ ko‘nglini ovlash uchun olingan bir necha toy gazlama ortilgan edi. Peonlar o‘z odatlariga ko‘ra piyoda borardilar. Sa-

¹ Katsik – hindu qabila boshlig‘i.

yohatchilarimizning Janubiy Amerikani kesib o'tish safarlari juda yaxshi sharoitdan ham tez, ham bexatar o'tadigandek tuyular edi.

Kordilyer tog' tizmalaridan oshib o'tish u qadar oson ish emas. Juda chidamli xachirlarsiz bunday sayohatni amalga oshirib bo'lmaydi, bu xildagi tog' sayohatlari vaqtida eng ish beradigan xachirlar Argentina xachirlaridir. Bu jonivorlar o'zlarining dastlabki nasllarida bo'lmagan ajoyib xususiyatlarga egadirlar. Ular ovqat tanlab o'tirmaydilar, kunda bir marta suv ichadilar, sakkiz soatda qirq kilometrda yo'l bosadilar va o'n to'rt arrob¹ yukni ko'rdim demaydilar.

Bir okeandan ikkinchi okeanga cho'zilgan bu yo'lda bitta ham karvonsaroy yo'q. Sayohatchilar odatda qotirilgan go'sht, murch sepib pishirilgan guruch va yo'lda otib olingan qushlar bilan ovqatlanadilar. Tog'larda jilg'alardan, pasttekislikda ariqdan suv ichadilar. Suvga har bir sayohatchining yonidagi ho'kiz shoxi – shiflda saqlanadigan romdan bir necha tomchi qo'shiladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, u yerlarda spirtli ichimliklarni kamroq iste'mol qilish kerak, chunki asablar o'shasiz ham juda tarang bo'ladi. O'rin-ko'rpa masalasiga kelsak, yo'lda u faqat mahalliy egar – rekadodan iborat bo'ladi. Bu rekado bir tarafi oshlangan, ikkinchi tarafi yungli qo'y po'stagidan – peliondan qilinadi va chiroyli gul tikilgan serbar ayil bilan xachir ustiga bog'lanadi. Sayohatchi kechasi shu issiq pelionga o'ralib yotib, bemalol uxlayveradi: undan hech qanday zax o'tmaydi.

Bir vaqtlar juda ko'p sayohat qilgan va mahalliy urf-odatlariga tez moslashib olishga odatlangan Glenarvan Chili kiyim-boshlarini kiyib oldi va hamrohlari ni ham shunday kiyintirdi. Paganel bilan Robert – biri katta, biri kichik bu ikki go'dak o'rtasida teshigi bor keng plashch – chili ponchosidan boshlarini chiqarib, oyoqlariga toychoqning keyingi oyog'i terisidan tikilgan etik kiyganlarida aytib bo'lmas darajada quvonib ketdilar. Chiroyli egar-jabduq bilan yasatilgan xachirlarni bir ko'rsangiz edi: arab so'liqlari, metall bezaklar taqilgan yugan, chilvirdan eshilgan uzun jilov [u ayni vaqtda qamchin vazifasini ham bajaradi], bir kunlik

¹ Arrob – 11 kilogrammga to'g'ri keladigan mahalliy og'irlik o'lchovi.

oziq-ovqat g'amlab qo'yilgan guldor ajoyib alforxas – xurjunlar. Doim parishonxotir bo'lgan Paganel bunday bezatilgan xachirga to minib olguncha undan bir necha tepki yeyishi ham gap emas edi. U doim birga olib yuradigan uzun durbinini yelkasiga osib xachirga minib olgach, oyog'ini uzangiga tirab, o'zini butunlay xachirning ixtiyoriga topshirib qo'ydi; shuni ham aytib o'tish kerakki, u bundan bir marta ham pushaymon bo'lmadi. Robert esa xachir ustiga minib olishi bilanoq, o'zining yaxshi chavandoz ekanini darhol ko'rsatdi.

Yo'lga chiqdilar. Havo juda yaxshi edi. Osmonda qilt etgan bulut ko'rinmasa-da, kun issiq emas, dengizdan mayin shabada esib turardi. Kichkina otryad o'ttiz mil janubdan o'tadigan o'ttiz yettinchi parallelga yetib olish uchun Talkaguano ko'rfazinnig ilang-bilang qirg'og'idan tez ilgarilab bordi. Kuni bilan qurib qolgan botqoqlar o'rnidan o'sib chiqqan qamishlar oralab xachirlarni tez haydab bordilar, lekin kam so'zlashdilar, chunki kemada qolganlar bilan xayrlashuvning taassuroti hali nari ketmagan edi. «Dunkan»ning o'zi ufqda ko'rinmay ketgan bo'lsa ham, uning tutuni hali ko'zga chalinib turardi. Paganeldan boshqa hamma jim, tishqoq geograf ispan tilida o'ziga-o'zi savollar berar va o'sha tilda yana o'zi javob qaytarar edi.

Yo'l boshlovchilarning boshlig'i – katapats – ancha indamas odam edi; uning kasbi ham ortiqcha sergap bo'lishni ko'tarmasdi. U o'z peonlariga deyarlik hech gapirmasdi. Peonlar o'z vazifalarini juda yaxshi bilar edilar. Biror xachir to'xtab qolsa, ular baqirib-chaqirib uni haydashar, agar bu ham yordam bermay, xachir o'jarlik qilib turib qolsa, peonlar unga mohirlik bilan tosh otib haydar edilar. Ayili bo'shshib ketsa yoki yugan chiqib ketsa, peon o'z plashchini yechar va u bilan xachirning boshini yopib qo'yib, ishni saranjomlardi, keyin xachir yana yo'lga tushardi.

Xachir haydovchilar odatda nonushtadan keyin, ertalab soat sakkizda yo'lga chiqadilar va kunduz soat to'rtgacha yo'l yuradilar, soat to'rt bo'lganda esa tunash uchun to'xtaydilar. Glenarvan shu odatga binonan ish tutdi. Katapats to'xtash uchun signal berganda ko'pik sohib to'lqinlanayotgan okean sohili bo'ylab kelayotgan sayohatchilarimiz ko'rfazning eng janubiy

qismida joylashgan Arauko shahriga yaqinlashib qolgan edilar. Bu shahardan to o'ttiz yettinchi parallel boshlanadigan yer – **Karneyro qo'ltig'igacha** g'arbga qarab yana yigirma milcha yo'l yurish kerak edi. Lekin Glenarvan yuborgan odamlar bu yerlarni juda sinchiklab tekshirib ketgani uchun sohilning bu qismini yana tekshirib o'tirish ortiqcha edi. Shuning uchun ekspeditsiya Arauko shahridan to'ppa-to'g'ri sharqqa yo'l oladi, deb qaror qilindi.

Kichkina otryad shu shahardagi qovoqxonalaridan birining hovlisida tunadi, qovoqxona ichkarisida tunash juda noqulay edi.

Arauko – Araukaniya degan kichkinagina davlatning poytaxti, bu davlatning hududi hammasi bo'lib uzunligi olti yuz kilometr va eni bir yuz yigirma kilometr maydondan iborat. Araukaniyada Chilining eng qadim xalqlari moluxlar yashaydilar. Ikkala Amerikada faqat shu mag'rur va kuchli moluxlar qabilasigina chet ellarga bo'ysunmagan. To'g'ri, bir vaqtlar Araukoni ispanlar bosib olgan edilar, lekin Araukaniya aholisi ularga bo'ysunmadi. Hozir Chili chet ellik bosqinchilarga qanday qarshilik ko'rsatayotgan bo'lsa, Araukaniya aholisi ham o'sha vaqtda ispanlarga shunday qattiq qarshilik ko'rsatgan edi. Hozir ham moviy osmondagi oq yulduz tasvir qilingan uning bayrog'i poytaxtni mudofaa qiladigan mustahkamlangan tuproq qo'rg'on ustida hilpirab, Arukaniyaning mustaqilligidan darak berib turardi.

Kechki ovqat tayyor bo'lguncha Glenarvan, Paganel va katapats tomi poxol bilan yopilgan uylar tushgan shahar ko'chalarida aylanib yurdilar. Araukoda cherkov binosi bilan fransiskan monastirining xarobalaridan boshqa durustroq imorat yo'q edi. Glenarvan «Britaniya» kemasi to'g'risida undan bundan surishtirib ko'rgan edi – foydasi bo'lmadi. Paganelning zo'r berib jon kuydirishiga qaramay, mahalliy aholidan hech kim uning tiliga tushunmadi. Biroq Paganel bu yerliklar to Magellan bo'g'ozigacha araukan lahjasida gaplashadigan bo'lganlaridan keyin, ular uchun ispan tili ham qadim yevropaliklar tilidek bir gap, deb o'ziga-o'zi tasalli berdi. Shuning uchun Paganel o'z qulog'idan foydalanmadi, faqat ko'zidan foydalanib, olimlarga xos zavq

va mamnuniyat bilan har xil tipdagi moluxlarni tomosha qilardi. Erkaklar baland bo'lyi, qizg'ish qora yassi betli, soqol qo'ymaydigan kishilar edi: ularda chiqqan soqolni yulib tashlash odat edi. Ular sayohatchilarga ishonchsizlik bilan qarar edilar. Erkaklar tinchlik paytlarida nima qilishni bilmagan jangchilarga o'xshab, bekorchilik bilan kun o'tkazadiganday ko'rinar edilar. Ayollar ro'zg'orga tegishli butun og'ir ishlarni bajarar, shu bilan birga otlarni va qurol-yarog'larni tozalashar, yer haydashar, o'z xo'jayinlari – erkaklar o'rnida ov qilishar edi. Molux ayollari shuncha ishdan vaqt orttirib, yana *poncho* – feruza rangli milliy plashchlar tikardilar. Bunday bitta ponchoni tayyorlash ikki yilga cho'zilar va bahosi yuz dollardan kam bo'lmasdi. Umuman, moluxlar hali yovvoyilik urf-odatlarini saqlab qolgan, turmushi uncha qiziq bo'lmagan xalq. Ularda odamzodga nimaiki illat xos bo'lsa bor, lekin ular bitta juda yaxshi fazilatga ega, u ham bo'lsa – ozodlikka muhabbat.

– Spartaliklarning xuddi o'zi-ya! – deb takrorlar edi Paganel sayrdan qaytib kelib, ovqatlanar ekan.

Albatta, muhtaram olim ularga juda ortiqcha baho berib yubordi. Lekin u Arauko shahrida sayr qilib yurganda, uning fransuz yuragi qattiq-qattiq urganini bildirib, hamsuhbatlarini yana ham hayron qoldirdi. Mayorning, yuragingizning birdan bunday urib ketishiga sabab nima edi, deb bergan savoliga Paganel bu juda tabiiy, chunki yaqinginada mening vatandoshlarimdan biri Araukoniya taxtida o'tirdi, deb javob berdi. Mayor u podshoning nomi nima edi deb so'radi. Jak Paganel, u perigyolik eks-advokat, juda sersoqol ajoyib bir odam – janob de-Tonnen edi, deb g'urur bilan javob berdi va janob de-Tonnen ham taxtdan tushgan qirollar «o'z fuqarolarining ko'rnamakligi» deb ataydigan holga uchradi, deb ilova qildi. Mayorning taxtdan quvilgan sobiq advokat to'g'risidagi bu gapni eshitib, jilmayib qo'rganini ko'rgan Paganel jiddiy ravishda, qirolning yaxshi advokat bo'lishidan ko'ra advokatning yaxshi qirol bo'lishi osonroq deb ilova qildi. Paganelnig bu so'zlari hammanig qah-qah urib kulishiga sabab bo'ldi. Keyin shu zahotiy oq hammalari Araukaniyaning sobiq qiroli Oreliy Antony I ning sog'lig'iga qadah ko'tardilar.

Bir necha minutdan keyin sayohatchilarimiz o'z poncholariga o'ralib olgan holda dong qotib uxlab yotardilar.

Ertasiga ertalab soat sakkizda kichkina otryad o'ttiz yettinchi parallel bo'ylab sharqqa yo'l oldi. Ilgari tartib bilan bordilar: karvon boshida madrila, eng keyinda peonlar. Yo'l serhosil yerlardan o'tardi: atrofda uzumzor bog'lar, katta-katta podalar o'tlab yurgan bepoyon yaylovlar uchrab turdi. Lekin borgan sari atrof bo'm-bo'sh bo'la bordi. Ahyon-ahyonda butun Amerikaga mashhur bo'lgan, yovvoyi otlarni o'rgatuvchi hindularning chaylasi – rastreadoreslar yoki hozir biroz sayoq hinduga boshpanalik xizmatini o'taydigan bo'lib qolgan sobiq pochta stansiyasi uchrab qolardi. Shu kuni sayohatchilarimizning yo'lini ikki daryo to'sib chiqdi, bular Rake va Tubal daryolari edi, lekin katapats ikkala daryodan ham kechuv joyi topdi va sayohatchilar daryoning narigi sohiliga o'tib oldilar. Ufqda borgan sari yaqqollashib va shimol tomonga qarab tizilib ketgan cho'qqilari aniq-ravshan ko'rinib, Kordilyer tog' tizmalari yastlanib yotardi. Lekin bu hali Yangi Dunyoning bahaybat gavdasini tutib turgan umurtqaning pastki bo'g'inlari edi, xolos.

O'ttiz besh mil yo'l bosib o'tgach, soat to'rtida sayohatchilarimiz qirning o'rtasida o'sgan baland mirta chakalakzoriga yetib kelib, dam olishga to'xtadilar. Xachirlarni jilovdan chiqarib, egarlarini olib, qo'yib yubordilar, jonivorlar darhol o'zini yaylovdagi qalin barra o'tga urdi. Chiroyli gullar tikilgan xurjun – alforxaslardan odatdagi safar ovqati, go'sht bilan gurunch olib yedilar. Ovqatdan keyin sayohatchilar qo'y terisidan tikilgan pelionlarga o'ralib, boshlari tagiga yostiq o'rniga rekado – egarni qo'yib, yangitdan kuch to'plash uchun qattiq uyquga ketdilar. Kechasi bilan katapats va peonlar galma-galdan navbatchilik qildilar.

Havo yaxshi bo'lgani uchun ekspeditsiyaning barcha ishtirokchilari, hatto Robert ham, o'zlarini juda yaxshi his qilardilar. Hamon bu sayohat shunchalik yaxshi boshlangan ekan, uning yaxshi natijalar bilan tugashiga umid qilaverish kerak edi.

Ertasiga yana shitob bilan yo'l bosib, eson-omon Rio-Bell ostonalaridan o'tdilar, kechqurun ispan Chi-

lisi bilan mustaqil Chilini bir-biridan ajratib turadigan chegara – Rio-Biobio daryosi qirg'og'ida to'xtashganida Glenarvan ekspeditsiya yana o'ttiz besh mil yo'l bosdi, deb yo'l daftariga yozib qo'yish imkoniyatiga ega bo'ldi. Tevarak-atrofdan o'zgarish bo'lgani yo'q. O'lka juda serhosil bo'lib, atrofda juda ko'p amarilislar, binafsha daraxtlari, bangidevona va tillarang gul ochib kaktuslar o'sib yotardi. Chakalaklarda allaqanday yirtqich hayvonlar yashirilib yurar, ular orasida otselot – yovvoyi mushuklar ko'rinib qolardi. Qushlar ko'p emas edi: goh-gohda biror qarqara, boyqush yoki lochin changaliga tushib qolmaslik uchun qochib ketayotgan mayna yo chomga ko'rinib qolar edi. Yerlik xalq deyarli uchramadi. Ahyon-ahyonda hindular bilan ispanlarning qoni aralashib dunyoga kelgan biror guassos yalang oyog'iga taqib olgan katta shporni otining qonab ketgan biqiniga niqtab, soyadek lip etib o'tib qolardi. Yo'lda ekspeditsiyani qiziqtirgan masalada surishtirib biror narsa bilsa bo'lguday hech jon uchramadi. Lekin Glenarvan bunga ko'nikib qoldi. U kapitan Grantni asir qilgan hindular uni Kordilyer tog'ining narigi tomoniga olib o'tib ketganlar, demak, uni qidirish ishlari tog'ning bu tomonida emas, balki pampaslarda natija beradi, deb o'zini ishontirishga tirishar edi. Demak, hozircha sabr qilish va tez sur'atlar bilan yo'l bosish kerak.

17-oktabrda odatdagi vaqtda va odatdagi tartib bilan yo'lga chiqdilar. Robert uchun bu tartibni saqlab yurish qiyin edi. Tinib-tinchimagan bola o'z xachirini haydab hadeb madriladan oldinga o'tib ketmoqchi bo'lar, faqat Glenarvanning jiddiy qichqirishigina uni qaytarib qolardi.

Atrof o'z tekisligini yo'qota bordi. Tez-tez uchrab turgan adirlar va sharillab oqayotgan riolar, ya'ni soylar tog'ning yaqinligidan darak berardi. Paganel tez-tez xaritaga qarar, yo'lda uchragan soylardan birontasi xaritaga tushirilmagan bo'lsa – bunday hol esa ko'p uchrab turardi – geografiya olimining qoni qaynab, xunobi oshib ketardi.

– Oti yo'q soyning huquqsiz odamdan hech farqi yo'q! – derdi u, jahli chiqib. – Geografiya qonuni uchun u yo'q narsa.

Shu sababga ko'ra olimimiz ismsiz soylarga hech tortinmay ot qo'yar, qo'yganda ham juda jarangdor qilib ispancha ism qo'yardi-da, darhol qo'lidagi xaritaga kiritardi.

– Zap til ekan-da! – deb takrorlar edi Paganel. – Juda ham ohangdor va jarangli-a! Xuddi metallardan quyilganga o'xshaydi! Imonim komilki, bu tilning tarkibi qo'ng'iroq quyiladigan bronzaga o'xshash, yetmish sakkiz qismi mis-u yigirma ikki qismigina qalayi.

– Lekin o'zingiz ispan tilini o'rganyapsizmi? – deb so'radi Glenarvan.

– Bo'lmasam-chi. Faqat talaffuzimning mazasi yo'q! Shunisi chatoq-da!

Shundan keyin Paganel sira ruhini tushirmay ovo-zini baland qo'yib, ispan tilining talaffuzi bilan kurashishga tushib ketar, lekin bu geografik kuzatishlar olib borishiga sira xalaqit bermas edi. Bu sohada u hayron qolar darajada kuchli bo'lib, albatta, bu borada hech kim uning oldiga tusha olmasdi. Glenarvan bu o'lkaning biror xususiyati to'g'risida katapatsdan biron narsa so'rab qolguday bo'lsa, geografiya olimi, doim yo'l boshlovchidan ilgariroq javob berar edi. Katapats unga juda hayron bo'lib qarardi.

Shu kuni kunduz soat ikkilarda otryad allaqanday bir yo'lni kesib o'tdi. Tabiiyki, Glenarvan katapatsdan bu yo'lning nomini so'radi, xuddu shunday tabiiy ravishda unga Jak Paganel javob berdi:

– Bu Yumbeldan Los-Anjelosga olib boradigan yo'l.

Glenarvan katapatsga qaradi.

– To'ppa-to'g'ri, – deb tasdiqladi katapats, so'ng geografdan so'radi. – demak, siz bu yerlardan o'tgan ekansiz-da?

– Albatta! – deb javob berdi Paganel tamomila jiddiy.

– Xachirdami?

– Yo'q, kresloda.

Katapats uning gapiga tushunmadi shekilli, yelkisini qisib qo'ydi-da, otryad boshidagi o'z joyiga ketdi.

Kechqurun soat beshda Loxa shahridan bir necha mil naridagi u qadar chuqur bo'lmagan bir darada tunashga to'xtadilar. Bu kechani sayohatchilar serra etaklarida, ya'ni Kordilyer tog'larining dastlabki pog'onalaridan birida o'tkazdilar.

O' n i k k i n c h i b o b

O'N IKKI MING FUT BALANDLIKDA

Chilidan o'tishda safar shu paytgacha hech qanday qiyinchiliksiz davom etdi. Lekin endi tog' sayohati bilan bog'liq bo'lgan barcha qiyinchiliklar va xavflar bir yo'la uchray boshlashi kerak edi. Tabiiy qiyinchiliklar bilan kurash boshlanmoqda edi.

Yo'lga chiqishdan oldin muhim bir qarorga kelish, ya'ni keyinchalik belgilangan yo'dan og'ib ketmaslik uchun Kordilyerdan qaysi yo'l bilan oshib o'tishlarini aniqlab olish kerak edi. Katapatsning fikrini so'rashdi.

- Men Kordilyerning bu qismida xachir bilan o'tish mumkin bo'lgan faqat ikkita dovonni bilaman, - deb javob berdi u.

- Siz Valdivia Mendosa ochgan Arika dovonini nazarda tutyapsiz, shundaymi? - deb so'radi Paganel.

- Ha.

- Ikkinchisi, Viarika dovoni, to'g'rimi?

- To'ppa-to'g'ri.

- Lekin bu dovonlarning bittasi ham bizga to'g'ri kelmaydi, do'stim, nega desangiz ulardan biri bizning yo'limizdan ancha shimolda, ikkinchisi esa ancha janubda.

- O'zingiz boshqa bir yo'l ko'rsatolmaysizmi? - deb so'radi mayor geografiya olimidan.

- Ko'rsata olaman, - dedi Paganel, - men Antuko vulqoni yonidan o'tadigan 37°3' janubiy kenglikdagi yo'lni nazarda tutaman, u bizning yo'limizdan taxminan yarim graduscha chetdan o'tadi. Yana tag'in, u nihoyati yetti ming fut balandlikdan o'tadi.

- Juda soz! - dedi Glenarvan. - Katapats, siz ham bu dovonni bilasizmi?

- Ha, bu dovondan bir o'tgan edim, lekin bu yo'l tog'ning sharqiy yonbag'ridan hindu cho'ponlari poda haydab o'tadigan yolg'izoyoq so'qmoq yo'l bo'lgani uchun indamagan edim.

- Hechqisi yo'q, do'stim, - dedi Glenarvan, - biya, ho'kiz va qo'y podalari o'ta olgan joydan biz ham o'tamiz. Rostki, u yo'l bizni o'ttiz yettinchi paralleldan olib yuradimi, o'sha yo'dan bormog'imiz kerak.

Darhol yo'lga chiqish uchun signal berildi, otryad katta-katta ohak toshlar orasidan yurib, Las-Lexas vo-

diysiga kirib ketdi. Yoʻl sezilar-sezilmas koʻtarila boʻrardi. Ertalab soat oʻn birlarda kichikroq bir koʻlni aylanib oʻtishga toʻgʻri keldi. Bu tabiiy suv ombori goʻyo bir-biriga hamma qoʻshni daryochalarning vaʼdalashib uchrashadigan joyi edi: ular shildirab oqib kelib, musaffo koʻl suvida jimgina qovushar edilar. Shu koʻlning yuqorisidan togʻga qarab lyanoslar, yaʼni hindular mol boqadigan boshhoqli oʻsimliklar toʻla keng adirlar boshlanar edi. Koʻp oʻtmay, otryad janub va shimolga choʻzilib ketgan botqoqlikka duch keldi. U yerdan faqat xachirlarning instinkti soyasidagina eson-omon oʻtib ketdilar. Soat birga borib, Ballenare qalʼasi koʻrindi, baland qoya ustida qad koʻtargan bu qalʼaning yarim xaroba devorlari choʻqqiga kiygizilgan tojga oʻxshab turardi. Otryad qoya yonidan oʻtib ketdi. Yoʻl tik tosh yoʻlga aylana bordi; xachirlar oyogʻi ostidan koʻchgan tosh suron koʻtarib, pastga otilar edi. Soat uchlarda 1770-yil qoʻzgʻoloni vaqtida vayron qilingan boshqa bir qalʼaning xushmanzara xarobalari koʻrindi.

Shu yerdan boshlab yoʻl qiyingina emas, hatto xavfli boʻlib qoldi. U tobora tikkalashib, jarliklar chuqurlashib, ular yoqasidan oʻtgan soʻqmoq tobora torayib bordi. Xachirlar boshini egib, yoʻlini hidlab-hidlab, ehtiyot bilan ilgarilab borar edilar. Oldinma-ketin tizilib borishar edi. Baʼzida oldinda ketayotgan madrila tik muyulishda birdan koʻzdan gʻoyib boʻlardi, bunday paytda kichkina karvon uning uzoqdan eshitayotgan qoʻngʻiroq tovushiga qarab boraverar edi. Koʻpincha ilonizi boʻlib ketgan soʻqmoq boʻlinib ketar, ikki qator boʻlib yurishga imkon tugʻilardi, shunday paytlarda katapats kengligi nihoyati ikki sajen chiqar-chiqmas, lekin chuqurligi ikki yuz sajen keladigan oʻtib boʻlmas oʻppon osha oʻz peonlari bilan gaplashib borardi.

Bu yerlarda oʻt hali toshga soʻz bermay, ular orasidan chiqib oʻsib yotar, lekin hademay minerallar dunyosi oʻsimlik olami ustidan gʻalaba qilajagi sezilib turardi. Antuko vulqonining yaqinligi goh unda, goh bunda koʻzga chalinib qolayotgan, ninasimon sariq kristallar bilan qoplanib, qotib qolgan temir rangli lava oqimidan sezilib turardi. Biri ustiga biri mingashib ketgan qoyatoshlar muvozanat qonuniga xilof ravishda oʻz joyidan qimirlamay turar, mana hozir ustlaridan

bosib tushadiganday ko'rinardi. Yer qimirlash paytida bu yerlar o'z qiyofasini osonlik bilan o'zgartirib yuborishi mumkin edi, albatta. Bir yonga qiyshaygan nayza uchli cho'qqilarni, gumbazzimon tosh uyumlarini, yonboshlatib qo'yilgan tepalarni ko'rganda bu tog'lik yerlarning hali tamom tashkil topib bitmagani ravshan bo'lib qolardi.

Bunday sharoitda yo'lni topib yurish oson ish emas. Kordilyer yerosti qatlamining deyarlik tinmay tebratib turishi yo'lni tez-tez o'zgartirib yuborar, undagi belgilar ko'pincha yo'qolib ketardi. Shuning uchun katapats ikkilanib tez-tez to'xtab qolardi. U to'xtab, atrof-tevarakni ko'zdan kechirar, qoyalarning shakliga diqqat qilar, tez maydalanib ketadigan toshlar orasidan hindularning oyoq izini axtarar edi. Lekin, aftidan, mo'ljal qilib yo'l yurishning iloji qolmadi.

Glenarvan yo'l boshlovchidan ajralmay, qadam-baqadam uning ketidan bordi. Yo'l yurish qiyinlashgan sari katapatsning ikkilanishi ortayotganini ko'rib va sezib turardi. U faqat xachirlardagina emas, ehtimol, yo'l boshlovchilarda ham ishonsa bo'ladigan instinkt bordir degan umidda unga savol bermas edi.

Shu tarzda katapats tavakkaliga yana bir soatcha adashib yurdi, lekin tobora tog'ga ko'tarilaverdi. Niho-yat, u to'xtashga majbur bo'ldi. Otryad hindular «kebradas» deb ataydigan tor daralardan birining tagida edi. Tik ketgan bir porfir qoya yo'lni to'sib qo'ydi. O'tib ketish uchun yo'l axtarib rosa ovora bo'lgach, katapats xachirdan tushdi-da, qo'llarini ko'ksida qovushtirib, payt poylayotganday jim turib qoldi. Glenarvan uning oldiga keldi.

– Adashdingizmi? – deb so'radi u.

– Yo'q, ser, – deb javob berdi katapats.

– Lekin biz hozir Antuko yo'lida emasmiz-ku?

– Biz shu yo'ldamiz.

– Yanglishayotganingiz yo'qmi?

– Yanglishayotganim yo'q. Ana hindular yoqqan gul-xanning kuli, anavilar esa biya va qo'y podalari qoldirgan iz.

– Demak, ilgari bu yo'ldan o'tish mumkin ekan-da?

– Ha, o'tsa bo'lardi, lekin endi o'tib bo'lmaydi: oxirgi yer qimirlash bu yo'lni o'tib bo'lmaydigan qilib berkitib tashlabdi.

– Xachirlar o'ta olmasligi mumkin, lekin odam o'ta oladi, – deb gap qistirdi mayor.

– Bu endi sizning ishingiz, – dedi katapats, – men qo'limdan kelgan hamma ishni qildim. Agar lozim top-sangiz, biz xachirlar bilan orqaga qaytib, Kordilyerdan o'tish mumkin bo'lgan boshqa yo'l axtarib ko'ramiz.

– Bu qancha vaqtimizni olishi mumkin?

– Kamida uch kun.

Glenarvan bu gaplarga indamay turib quloq soldi. Katapats bo'yniga olgan majburiyatni halol bajarishga harakat qilayotgani aniq ko'rinib turardi, lekin uning xachirlari nari borolmasdilar. Katapats orqaga qay-tishni taklif qilganda Glenarvan hamrohlariga o'girilib, so'radi:

– Nima bo'lsa ham shu yo'ldan qolmay, safarni da-vom ettirishga rozimisizlar?

– Biz sizdan qolmaymiz, – dedi Tom Ostin.

– Hatto sizdan o'tib ketamiz, – deb qo'shib qo'ydi Paganel. – Bunday o'ylab qaraganda, gap nima to'g'rida boryapti? Narigi yonbag'irning qiyaligi hozir biz turgan tomonning qiyaligiga qaraganda ancha tekis bo'lgan bir tog' tizmasidan oshib o'tish to'g'risida boryapti. Tog'ning narigi etagiga tushib olgach, biz argentinalik yo'l boshlovchi – bakeanoslar ham, tekis qirlarda tez yuradigan uchqur otlar ham topib olamiz. Hech qan-day ikkilanmasdan, olg'a!

– Olg'a! – deb uning so'zini quvvatlashdi Glenarvan-ning hamrohlari.

– Siz ham biz bilan bormaysizmi? – deb so'radi ka-tapatsdan Glenarvan.

– Men xachir haydovchiman, – deb javob berdi ka-tapats. – Ixtiyoringiz.

– Usiz ham bir amallaymiz, – dedi Paganel. – Tog'-dan oshib o'tgach, yana Antuko yo'lining so'qmog'iga tushib olamiz-ku, axir. Eng yaxshi mahalliy yo'l bosh-lovchidan ham yaxshiroq yo'l boshlab, Kordilyerning etagiga olib tushish mening bo'ynimga.

Glenarvan katapatsning haqini to'radi-da, peonla-ri va xachirlari bilan birga unga javob berib yubor-di. Qurollar, kerakli asbob-uskuna va bor oziq-ovqatni yetti sayohatchi o'zaro bo'lishib oldilar. Darhol yo'lga tushish va agar kerak bo'lib qolsa, tunda ham bir ne-cha soat yuqoriga ko'tarilib borish to'g'risida umumiy

bir fikrga kelindi. Tog'ning so'l yonbag'rida xachirlar o'tolmaydigan tik so'qmoq ilonizi bo'lib cho'zilib ketgan edi. Bunday so'qmoqdan tog'ga ko'tarilish haddan tashqari qiyin bo'lishiga qaramay, ikki soatli zo'r berishdan keyin Glenarvan bilan hamrohlari yana Antuko yo'lga tushib oldilar.

Endi ular Kordilyer tizmalariga yaqinlashib qolgan edilar. Lekin atrofda odam bosib o'tgan yo'l ko'rinmas, yaqinda bo'lib o'tgan zilzila bu yerlarning qiyofasini batamom o'zgartirib yuborgan edi, shuning uchun endi tog' cho'qqilariga hech qanday yo'lsiz ko'tarilishga to'g'ri keldi. Yo'lning birdan yo'qolib qolishi Paganelni juda shoshirib qo'ydi. Balandligi o'rtacha olganda o'n bir ming futdan o'n ikki ming olti yuz futgacha yetadigan Kordilyer cho'qqilari tepasiga yetib olish juda qiyinlashib ketadigan bo'ldi, deb o'yladi u. Sayohatchilarning baxtiga, yilning eng yaxshi payti edi: havo tinch, osmonda qilt etgan bulut yo'q. Qish oylarida – maydan oktabrgacha¹ – tog' tepasiga chiqish sira mumkin bo'lmasdi. Qor ko'chkilari sayohatchilarni halok qilar, ulardan omon qolgan kishilarni esa, yil sayin yangi-yangi qurbonlarni Kordilyerdan tubsiz jarlarga otib tashlaydigan rahmsiz temporaleslar [mahalliy bo'ronlar] yo'q qilardi.

Sayohatchilar kechasi bilan tog'ga ko'tarilishni davom ettirdilar. Ular goh deyarlik sira chiqib bo'lmaydigan joylarga tarmashib chiqishar, goh keng va chuqur yoriqlar ustidan sakrab o'tib ketishardi. Bunday paytlarda hamrohlarning yelkalari bir-biri uchun zina vazifasini o'tar, bir-birlariga uzatilgan qo'llar esa arqon vazifasini bajarardi. Jasur sayohatchilar allaqanday epchil akrobatlarga o'xshab tushardilar. Myulredining kuchi bilan Vilsonning epchilligi juda ish berdi. Bu ajoyib, fidokor va har yerda hozir-u nozir shotland yigitlari bo'lmaganda kichkina otryad necha martalab to'xtab qolishi turgan gap edi. Glenarvan Robertdan ko'z uzmay borardi, chunki bola juda o't bo'lganidan o'zini hech ehtiyot qilmas ei. Paganel fransuzlarga xos qizg'inlik bilan olg'a intiladi. Mayorga kelsak, u zarur bo'lganida boshqa bironta ham ortiqcha harakat qilmay to'xtovsiz yuqoriga ko'tarilib borar

¹ Janubiy yarim sharda qish Shimoliy yarim shardagi yoz oylariga to'g'ri keladi.

edi. Umuman, mayor bir necha soatdan beri tog'ga ko'tarilayotganini sezyaptimikan? Bu savolga javob berishi mushkul edi. Ehtimol, u o'zini tog'dan tushayotgandek sezayotgandir.

Ertalab soat beshda barometr sayohatchilarning yetti ming besh yuz fut balandlikka chiqqanlarini ko'rsatdi. Ular yog'och novdali o'simliklar tugaydigan yassi tog'liqqa yetgan edilar. Bu yerlarda ovchilarni ham xursand qiladigan, ham boy qiladigan hayvonlar sakrashib yurar, lekin bu xususiyatlarini o'zlari ham yaxshi bilganlaridan, odamlarni uzoqdan ko'rish bilananoq ura qochar edilar. Bu qo'yning ham, ho'kizning ham, otning ham o'rniga o'ta oladigan, hatto xachir tirikchilik qilolmaydigan balandlikda ham bahuzur yashay oladigan lamalar edi. Bu yerlarda mo'ynasi qimmat turadigan, quyon bilan qo'shoyoq o'rtasidagi kichkinagina, hurkak, beozor kemiruvchi hayvon – **shinshilla** yashar edi. U orqa oyoqlarida tursa kenguruga o'xshab ketardi. Bu chaqqon jonivorning olmaxonga o'xshab daraxtlar tepasida yugurib yurishini tomosha qilish rosa maroqli edi.

– Bu hali qush emas, lekin oyoqli ham emas, – dedi Paganel.

Lekin tog'ga ko'tarilish paytida kichkina otryad uchratgan jonivorlar lama bilan shinshillagina emas edi. To'qqiz ming fut balandlikda, abadiy erimay yotadigan qorlar boshlanadigan joyda kavsh qaytaradigan nihoyatda chiroyli hayvonlar poda-poda bo'lib yurardi, bular: yungi ipakdek mayin, uzun tolali bo'lgan pakoslar va yungi nihoyatda nozik, o'zi chiroyli va yuvosh vignon – shoxsiz echkilar edi. Lekin bu tog' go'zallariga aslo yaqinlashib bo'lmas, hatto yaxshilab tomosha qilish ham qiyin edi, chunki ular ko'zni qamashtirar darajada oppoq qor gilamlari ustidan sirpanib, hech qanday shovqin-suronsiz gurra qochib qolar edilar.

Manzara butunlay o'zgardi: to'rt tomonda osmonga bo'y cho'zgan, ba'zi yerlari ko'kish, yaltiroq katta-katta muz parchalari ko'tarilib kelayotgan quyoshning ilk nurlari ostida jilvalanardi. Tog'ga ko'tarilish juda xavfli bo'lib qoldi. Endi qor ustida biror yoriq yo'qmikan deb oldindan ehtiyot bilan paypaslab ko'rmasdan tavakkaliga oyoq bosib bo'lmasdi. Vilson otryad oldida

oyog'i bilan muzning qanchalik mustahkamligini sinab ko'rib borar edi. Uning hamrohлари xuddi u bosgan yerga oyoq bosishga harakat qilib, uning ketidan borishar, qattiq gapirmaslikka tirishar edilar, chunki salgina shovqin ham havoni titratib, tepalarida, yetti yuz-sakkiz yuz fut balandlikda uyulib yotgan qorlarni ko'chirib yuborishi mumkin edi.

Sayohatchilarimiz shu tarzda changalzorlar mintaqasiga yetib oldilar; yana bir ming yetti yuz fut ko'tarilganlarida changalzorlar boshoqli o'simliklar va kaktuslar bilan almashindi. O'n bir ming fut balandlikda ular ham yo'qoldi. Unumsiz tog' bag'rida endi hech qanday o'simlik ko'rinmas edi. Butun bu ko'tarilish paytida sayohatchilar faqat bir marta, ertalab soat sakkizda birpasgina dam oldilar. Tezgina, nari-beri ovqatlanib olib tobora ortib borayotgan xavf-xatarlarni pisannd qilmay, mardlik bilan yana tog'ga tarmashdilar. Ular nayza uchli tog' o'rkachlaridan, pastga qarashning o'ziyoq kishini dahshatga soladigan o'pqnlar yoqasidan o'tib bordilar. Ko'pgina joylarda ilgari bu yerlarda yuz bergan falokatlardan guvohlik berib, yog'och butlar qaqqayib turardi. Kunduz soat ikkilarda faqat toshdan iborat bo'lgan, cho'qqilar orasida cho'zilib yotgan va hech qanday o'simlik zoti o'smaydigan taqir cho'lga o'xshagan yassi tog'liklar boshlandi. Havo quruq, osmon ko'm-ko'k. Bunday balandlikda yomg'ir mutlaqo yog'maydi: namlik bu yerlarda yo qorga, yo do'lga aylanib ketadi. U yer bu yerda skelet suyaklari singari oppoq qor ostidan porfir va bazalt cho'qqilar so'rrayib chiqib turardi. Ba'zan shamol yalab yemirishi natijasida kvars yoki gneys jinslari gumburlab ko'chib tushardilar; siyraklashib qolgan havo ularning tovushini deyarli o'tkazmas edi.

Sayohatchilar qancha jasorat ko'rsatmasinlar, bari-bir charchab qoldilar. Hamrohlarining bunchalik toliqib qolganlarini ko'rgan Glenarvan ularni tog'ning bu qadar baland yerlariga boshlab kelganiga pushaymon qila boshladi. Yosh Robert charchoqqa so'z bermaslikka tirishardi, lekin uning kuchi tugab bormoqda edi.

Soat uchda Glenarvan to'xtadi.

-- Dam olish kerak, -- dedi u, o'zi aytmasa hech kimdan bunday gap chiqmasligini sezib.

– Dam olish kerak-ku, lekin qayerda dam olamiz? – deb soʻradi Paganel. – Bu yerda dam oladigan joy yoʻq-ku.

– Baribir dam olish zarur, juda boʻlmasa Robert uchun.

– Yoʻq, ser, men hali yura olaman... – deb eʼtiroz bildirdi jasur yigitcha. – Toʻxtamanglar...

– Seni koʻtarib olishadi, oʻgʻlim, – deb uning soʻzini boʻldi Paganel, – lekin biz har nima qilib boʻlsa ham togʻning sharqiy yonbagʻriga yetib olishimiz lozim. U yerda dam oladigan biror chayla-payla topsak ham ajab emas. Ana shuning uchun, menimcha, yana ikki soatcha yurishimiz kerak.

– Shunga rozimisizlar? – deb hamrohlarining raʼyini soʻradi Glenarvan.

– Rozimiz, – deb javob berdi hamma.

– Bolani men oʻzim koʻtarib olaman, – dedi Myulredi.

Shundan soʻng otryad sharqqa qarab yana yoʻlga tushdi. Togʻga chiqishdek nihoyatda mashaqqatli yoʻl yana ikki soat davom etdi. Togʻning eng baland choʻqqisiga yetib olish lozim edi. Havo siyraklashib ketgani uchun nafas olish qiyin boʻlib qoldi, sayohatchilarning milk va lablari qonab keta boshladi. Havo siyrakligi natijasida sekinlashib qolgan qon yurishini tezlatish uchun tez-tez nafas olishga toʻgʻri keldi, bu esa qorda aks etib, koʻzni qamashtirayotgan quyosh nuridan ham koʻproq charchatar edi. Sayohatchilarning irodasi qanchalik kuchli boʻlmasin, ularning eng baquvvatlari ham holdan toyib qoldi, togʻlarda yurgandagi eng yomon hol – bosh aylanish ularni jismoniy kuchdangina emas, balki ruhiy quvvatdan ham mahrum qildi. Bunday haddan tashqari charchoqni nazar-pisand qilmaslikning sira ham iloji yoʻq, sayohatchilardan goh bittasi, goh ikkinchisi yiqilib qolar, qaytib turgandan keyin esa yurishga qurbi kelmay, emaklab sudralib yoʻlida davom etardi. Bu nihoyatda holdan toygan odamlarning koʻp oʻtmay sira ham siljiy olmay qolishlari aniq koʻrinib turardi. Glenarvan muz va qor bilan qoplangan bu cheksiz, mashʼum oʻlkaga, boʻm-boʻsh choʻqqilarni qora pardaga oʻrab kelayotgan kechki gʻira-shira qorongʻulikka qoʻrqib-qoʻrqib qarar va atrof-tevarakda bitta ham boshpana yoʻq-a, deb

alam bilan o'ylar ekan, birdan mayor uni to'xtatib, barmaylixotir:

– Cnayla, – dedi.

O' n u c h i n c h i b o b

KORDILYER TOG'LARIDAN TUSHISH

Mak-Nabbsning o'rnida boshqa odam bo'lganda bu chaylaning yonidan, hatto ustidan yuz marta o'tib ketganda ham uning borligini sezmagan bo'lardi. Qor bosib qolgan chayla atrofida do'mpayib yotgan minglab xarsangtoshlardan deyarli farq qilmas edi. Uni qor tagidan ochib olishga to'g'ri keldi. Vilson bilan Myulredi yarim soatcha zo'r berib ishlaganlaridan so'ng kichkina otryad chaylaga kirib joylashdi.

Kazucha deb atalgan bu chaylani oftobda kuydirilgan g'isht – adobes bilan hindular qurgan edilar. Kazucha tomonlari o'n ikki futdan keladigan kub shaklidagi bino bo'lib, bazalt qoya ustiga qurilgan edi. Chaylaga kiriladigan torgina birdan bir teshik oldiga toshlardan zinapoya qilingan, teshik qanchalik tor bo'lmasin tog'larda temporales quturgan vaqtda undan shamol, qor va do'l yo'l topib kira olardi.

O'n kishi bahuzur joylasha oladigan bu chaylaning yog'ingarchilik paytlarda namdan unchalik saqlay olmaydigan devorlari hozir achchiq sovuqdan ancha saqlashi mumkin edi – termometr o'n gradus sovuqni ko'rsatib turardi. Buning ustiga, g'ishtdan nari-beri qo'nqaytirib qo'yilgan trubali o'choqqa o't yoqib, sovuq bilan kurashish ham mumkin edi.

– Mana boshpana ham topdik, – dedi Glenarvan, – u qadar qulay bo'lmasa ham, har holda o'ziga yarasha.

– Nima, nima?! – dedi Paganel. – Saroy-ku, saroy! A'yonlar bilan qorovullar yetishmaydi, xolos. Mazza qilib dam olamiz bu yerda!

– Ayniqsa o'choqqa o't yoqib yuborsak bormi, – dedi Tom Ostin. – Axir sovuq bizga ochlikdan kam azob berayotgani yo'q, hozir bir bog' o'tin meni bir parcha mazali go'shtdan ham xursand qilgan bo'lar edi.

– Tashvish tortmang, Tom, o'tin ham topamiz, – dedi Paganel.

– Kordilyer cho‘qqilarida o‘tin nima qilsin! – dedi Myulredi, ishonmaganday bosh chayqab.

– Kazuchaga o‘choq qilganlaridan keyin, yaqin oradan o‘tin ham topilishi kerak, – dedi mayor.

– Do‘stimiz Mak-Nabbs juda to‘g‘ri aytdi, – dedi Glenarvan. – Sizlar ovqat taraddudini ko‘raveringlar, o‘tin topib kelish mening zimmamda.

– Vilson ikkovimiz ham birga boramiz, – dedi Paganel.

– Mening ham foydam tegib qolar... – dedi o‘rnidan turar ekan Robert.

– Yo‘q, jasur o‘g‘ilcham, sen dam ol, – deb javob berdi Glenarvan. – Tengdoshlaring hali yosh bola chog‘ida sen kamolga yetgan yigit bo‘lib olasan.

Glenarvan, Paganel va Vilson kazuchadan chiqdilar. Kech soat olti edi. Tiq etgan shabada bo‘lmasa ham havo juda sovuq. Moviy osmon qorayib kela boshladi, botib borayotgan quyoshning oxirgi nurlari tog‘ cho‘qqilarining nayza uchida jilolanib o‘ynardi. Paganel barometrni o‘zi bilan olib oldi. Uning simobi o‘n bir ming yetti yuz fut balandlikni ko‘rsatib turar, demak, Kordilyerning bu qismi Monblandan nihoyati to‘qqiz yuz o‘n metr past edi. Shveysariyaning gigant tog‘larida har qadamda uchrab turadigan qiyinchiliklar bu yerlarda ham uchrab, sayohatchilarimiz bo‘ron va qor to‘fonlariga duch kelgudek bo‘lganlarida ularning birontasi ham Yangi Dunyoning qudratli tog‘ tizmalaridan oshib o‘tolmagan bo‘lardi.

Glenarvan bilan Paganel porfir qoya ustiga chiqib, ufqqa nazar soldilar. Ular Kordilyer tog‘ tizmalarining eng baland cho‘qqisida turar, qirq kvadrat mil masofani ko‘zdan kechirar edilar. Tog‘ning sharqiy yonbag‘ri qiya bo‘lib, undan tushish qiyin emas edi, peonlar hatto undan yuz sajenlab masofalarda sirg‘anib tushib ketaverar edilar. Uzoqda muzlar siqib tushirib yuborgan toshlar va xarsanglar to‘planib hosil bo‘lgan katta-katta morenlar ko‘rinib turardi. Kolorado vodiysida qosh qoraya boshlagan: quyosh g‘arbga botib bormoqda. Sharqdagi uning so‘nggi shu‘lalari tushib turgan do‘ngliklar, qoyalar, cho‘qqilar birin-ketin so‘nib, tog‘ning butun sharqiy yonbag‘ri sekin-asta qorong‘ulasha bordi. G‘arbiy tik yonbag‘irdagi hamma

past-baland tizmalar esa hali yorug'. Botib borayotgan quyosh nurida bu qoya va muzliklar juda chiroyli tovlanadi. Shimol tomonga esa borgan sari pastlashib borgan qat-qat cho'qqilar cho'zilib ketgan: asta-sekin bir-biriga qo'shila borib, oxiri ko'rinmay ketgan bu qator cho'qqilar tajribasiz odam qo'li bilan chizilgan to'g'ri chiziqqa o'xshaydi. Lekin janub tomondagi manzara g'oyat go'zal bo'lib, tun yaqinlashib kelgan sari yana ham go'zal va ulug'vor bo'la bordi. Pastda yovvoyi bir vodiy yastlanib yotar, uning tepasida esa, bizning sayohatchilar turgan yerdan ikki mil narida Antuko krateri og'iz ochib turardi. Vulqon og'zidan o't, kul va tutun purkab, bahaybat ajdahodek o'kirar, uni qurshab turgan tog'lar o't tushgandek qizarib turar edi. Vulqon og'zidan do'ldik otilib turgan, qiziganidan oppoq oqarib ketgan toshlar, buruqsab chiqayotgan qizg'ish tutun, to'xtovsiz oqib chiqayotgan lava – bularning hammasi qo'shilib yarqiroq bir oqim hosil qilgan. Quyosh o'chib borayotgan chiroqdek botib, qorong'u ufq orqasiga yashiringan sari, vulqonning tobora kuchayib borayotgan o'tkir yog'dusi ko'z ilg'amas masofada butun atrofni yorita borardi.

Tasodifiy o'tinchilarimiz Paganel bilan Glenarvan qalbida rassomlik hissiyoti uyg'ondi, ular zavqlanib tabiatni tomosha qilishga berilib ketdilar, agarda o'zini hushyorroq tutgan Vilson haqiqat olamiga qaytarmaganda ular osmon va yer yog'dusi o'rtasidagi bu ajoyib kurashni hali uzoq tomosha qilgan bo'lar edilar. To'g'ri, bu atrofda o'tin topilmadi, lekin baxtlaridan bo'lib, qoyalar ingichka, quruq lishaynik bilan qoplangan ekan. Sayohatchilarimiz shu lishaynik bilan ildizi yaxshi yonadigan lyaretta degan o'simlikdan anchagina g'amlab oldilar. Bu qimmatbaho o'tinni kazuchaga olib kelish bilanoq, darhol o'choqqa qaladilar. Lekin o'tni yoqish, ayniqsa uni o'chirmay yoqib turish juda qiyin ish edi. Siyraklashib qolgan havoda o'tning o'chib qolmasligi uchun yetarli darajada kislorod yo'q edi, to'g'rimiyo'qmi, har holda, mayor bunga shunday izoh berdi.

– Lekin, – deb qo'shib qo'ydi u, – bu yerda qaynatish uchun suvni yuz gradusgacha isitish shart emas; suvni yuz gradus issiqda qaynatib kofe ichishni yaxshi ko'rgan kishi bu yerda kamroq issiqlikda qaynagan

suvga qanoat qilishi lozim bo'ladi, chunki kofe to'qson gradusdan ham kamroq haroratda qaynab ketadi¹.

Mak-Nabbs to'g'ri aytgan ekan: suv qaynatganda uning ichiga tushirilgan termometr faqat sakson yetti gradusni ko'rsatdi. Hammalari ham maza qilib bir necha qultumdan kofe ichishdi. Qoq go'shtga kelsak, u yo'lovchilarga kam lazzat berdi, shunda Paganel garchi to'g'ri bo'lsa ham, hozir tamoman foydasiz bir fikr bildirdi.

– Rostimni aytsam, – dedi u, – hozir bir parcha qovurilgan lama go'shti bo'lsa ortiqchalik qilmasdi-da. Bu ajoyib jonivor ho'kizning ham, qo'yning ham o'rnini bosa oladi, deyishadi. Bu gap uning go'shtiga ham talluqlimikin, shuni bir bilishni istardim.

– Ana xolos! Hali ovqatimizdan rozi ham emassiz deyman, olim Paganel? – deb so'radi Mak-Nabbs.

– Yo'q, hurmatli mayor, men ovqatdan juda minnatdorman, lekin bir parchadan yangi go'sht bo'lsa juda o'rniga tushardi-da.

– Siz noz-ne'matni sevgan odam ekansiz, – dedi Mak-Nabbs.

– Bu qochirig'ingizga qo'shilishaman, mayor, lekin ochig'ini ayting, hozir yaxshilab pishirilgan bifshteks bo'lsa, yemas edingizmi?

– Yo'q demasdim, albatta, – dedi mayor.

– Bordi-yu, sovuqqa ham, qorong'uga ham qaramay, hozir sizni ovga yuborishsa, borar edingizmi?

– Albatta. Agar lozim topsangiz...

Mak-Nabbsning hamrohlari unga tashakkur bildirib, uning doim xizmatga tayyor ekanini suiiste'mol qilmoqchi emasliklarini bildirmoqchi bo'lib turgan edilarki, uzoqdan uvlagan tovush eshitildi. Bu biror yakka jonivorning emas, balki yaqinlashib kelayotgan butun bir podaning tovushiga o'xshar, tinmay eshilib turardi. Geografning miyasiga lop etib, bizga boshpana bergan tasodif, yana shirin taom ham yetkazib bermoqchi emasmikan degan fikr keldi. Lekin Glenarvan Kordilyerning bunchalik baland yerlarida to'rt oyoqli jonivorlar uchramaydi, deb uning hafsalasini pir qilib qo'ydi.

¹ Taxminan har 224 metr balandlikda suv 1 gradus past temperaturada qaynaydi [Jyul Vern ushij].

- Bo'lmasa, bu nimaning ovozi? - deb so'radi Tom Ostin. - Yaqinlashib kelyapti, eshityapsizmi?

- Ko'chki bo'lmasin yana? - dedi Myulredi.

- Yo'q! - deb e'tiroz bildirdi Paganel. - Bu hayvonlarning uvlagan tovushi.

- Hozir ko'ramiz, - dedi Glenarvan.

- Ko'rganda ham qo'lga qurol ushlagan holda ko'ramiz, - deb qo'shimcha qildi qo'lga karabin olib mayor.

Hammalari kazuchadan yugurib chiqishdi. Qop-qorong'u tun, yulduzlar charaqlab turibdi. Hali oy chiqmagan edi. Shimol va sharq tomondagi cho'qqilar qorong'ulik qo'yniga g'arq bo'lgan; eng yaqindagi bir necha qoyaning xayoliy shakllarigina g'ira-shira ko'zga ilg'ardi. Allanarsadan cho'chib ketgan hayvonlarning uvlagan tovushi tobora yaqinlashib kelar edi. Tovush qop-qorong'u zimiston ichiga g'arq bo'lgan tog'lar tomonidan eshitilardi.

U tomonda nima hodisa yuz berdi ekan-a? Birdan yassi tog' ustiga qo'rquvdan es-hushini yo'qotgan tirik jonivorlardan iborat quyun yopirildi. Butun yassi tog' tebranib ketgandek bo'ldi. Havo siyrak bo'lishiga qaramay, quloqni kar qilar darajada shovqin ko'tarib, yuzlab, ehtimolki, minglab jonivorlar yugurib kelar edilar. Bu - pampaslarda yashovchi yovvoyi hayvonlar edimi, yoki faqat lama va vignonlar podasi edimi? Glenarvan, Mak-Nabbs, Robert, Ostin va ikki matros o'zlarini tap-pa yerga tashlashlari bilanoq tepalaridan, nihoyati bir necha fut balanddan jonli quyun o'tib ketdi. Kechasi kunduzgidan yaxshiroq ko'radigan va chopib kelayotgan jonivorlarni tomosha qilish uchun tik turganicha qolgan Paganel bir zumda ag'darib tashlandi.

Xuddi shu payt o'q tovushi eshitildi. Bu o'qni tavakkaliga mayor otgan edi. Nazarida bir necha qadam narida allaqanday jonivor yiqilgandek tuyuldi, poda esa yana ham battarroq uvlab vulqon o'ti yorug'idan qizarib turgan tog' yonbag'ri tomonga o'qdek uchib o'tib ketdi.

- Ey! Mana bu yoqda ekan! - degan tovush eshitildi, bu Paganelning tovushi edi.

- Nima u? - deb so'radi Glenarvan.

- Ko'zoynagim-da. Bu ur-yiqitda ko'zoynak yo'qotmay bo'ladimi!

– O‘zingizga biror shikast yetmadimi?

– Yo‘q! Sal-pal ezib ketdi, xolos, lekin nima ezganini bilmayman.

– Mana bu ezgan, – dedi mayor, o‘zi otgan jonivorni sudrab kelar ekan.

Hammalari kazuchaga kirib, o‘choqdagi o‘t yorug‘ida Mak-Nabbs otib olgan jonivorni ko‘zdan kechira boshladilar.

Bu kichkinagina tuyaga o‘xshagan, lekin o‘rkachi yo‘q, boshi chiroyli, gavdasining bichimi kelishgan, oyoqlari uzun, ingichka, och jigarrang yungi ipakday mayin, qorinda oq-oq xollari bor chiroyli jonivor edi. Paganel uni ko‘rgani hamon:

– Bu guanako-ku! – deb qichqirib yubordi.

– Guanako qanday hayvon? – deb so‘radi Glenarvan.

– Go‘shhini yesa bo‘ladigan hayvon, – dedi Paganel.

– Juda shirin bo‘ladi. Olimp tangrilariga loyiq taom! Yangi go‘sh t yeyishimizni bilgan edim! Yana qanday go‘sh deng! Xo‘sh, qassoblikni kim qiladi?

– Men, – dedi Vilson.

– Juda soz! Qovurish mening bo‘ynimga, – dedi Paganel.

– Demak, oshpazlikni ham bilar ekansiz-da, janob Paganel? – deb so‘radi Robert.

– Fransuz bo‘lganimdan keyin bilaman-da, o‘g‘lim. Har bir fransuz o‘tkir pazanda bo‘ladi.

Besh minutdan keyin Panagel o‘choqdagi laqqa cho‘g‘da katta-katta bo‘lak go‘sh tni pishira boshladi. O‘n minutlardan keyin u hamrohlari oldiga juda ishtaha ochadigan «guanako file»sini tayyor qilib qo‘ydi. Hech kim noz qilib o‘tirmadi, hamma ham bu «tangrilar taomi»ga zo‘r ishtaha bilan o‘zini urdi.

Lekin go‘sh tni og‘ziga olgan odam borki, basharasi-ni burishtirib, uni tuflab tashladi.

– Tuf-el Biram bemazaki! – dedi kimdir.

– Mutlaqo og‘ziga olib bo‘lmaydi! – deb qo‘shib qo‘ydi ikkinchisi.

Bechora olim o‘zi pishirgan go‘sh tni totib ko‘rib, rost, och odamlar ham og‘ziga ololmaydigan go‘sh t ekan, deb e‘tirof qilishga majbur bo‘ldi. Hamrohlari uni askiyaga oldilar, bunga o‘zi ham qo‘shilishib, «tangrilar taomi»ni masxara qilib kula boshladi. U hammaning

maqtoviga sazovor bo'la olgan mazali guanako go'shti qanday qilib bemaza bo'lib qoldiykin, deb rosa bosh qotirdi. Shunda lop etib miyasiga bir fikr keldi...

- Topdim! - deb yubordi u. - Sababini topdim! Gapning nimada ekanini bilaman endi!

- Bu go'sht uzoq yotib, buzilib qolgan bo'lsa kerak, a? - deb kesatdi xotirjamlik bilan Mak-Nabbs.

- Yo'q, achchiq so'z do'stim, bu go'sht ko'p yotib emas, ko'p chopib buzilib qolgan. Shuni ham esimdand chiqarib qo'yibman-a!

- Bu bilan nima demoqchisiz, janob Paganel? - deb so'radi Tom Ostin.

- Guanakoni dam olib yotgan vaqtda otib olsangiz go'shti shirin bo'ladi, demoqchiman. Agar ketidan uzoq quvgan bo'lsangiz-u, u ko'p chopgan bo'lsa, guanakoning go'shtini yeb bo'lmaydi. Jarkop nihoyatda bemaza bo'lib pishganining sababi ham shundaki, bu jonivor, umuman, butun poda uzoqdan kelayotgan ekan.

- Siz bunga aminmisiz? - deb so'radi Glenarvan.

- Tamomila aminman.

- Lekin ularni qanday sabab, qanday tabiiy hodisa qo'rqitib, tinchgina uxlab yotgan yeridan qochishga majbur qildi ekan?

- Men bu savolingizga javob berishdan ojizman, aziz Glenarvan. Bu masalada ortiqcha bosh qotirib o'tirishning foydasi yo'q, kelinglar, yaxshisi yotib uxlaylik. Mening o'lgudek uyqum kelib turibdi. Xo'sh, mayor, uxlaymizmi?

- Uxlaymiz, Paganel!

O'choqqa o'tin tashlab qo'ydilar, so'ng har kim o'z ponchosiga o'ralib, uxlagani yotdi. Ko'p o'tmay hamma xurrak torta boshladi, bu xurraklar orkestri ichida geografiya olimining bahodirona tortgan xurrak tovu-shi alohida ajralib turardi.

Faqat Glenarvanning ko'ziga uyqu kelmadi. Uni allaqanday bir tashvish kelib bosgan edi. Glenarvanning fikri yana va yana hammasi ham bir tomonga qarab tiraqaylab qochayotgan guanakolar podasiga qaytib kelaverdi. Ularni yirtqich hayvonlar quvib kelayotgan bo'lishi mumkin emasdi, chunki tog'ning bunday baland yerlarida yirtqich hayvonlar deyarli yo'q, ovchilar esa undan ham kam uchraydi. Antuko jarlariga o'zini urishga ularni nima majbur qildi ekan? Glenarvan al-

laqanday falokat yaqinlashib kelayotganini oldindan sezib turardi.

Lekin mudroq aralash uning fikrlari boshqa narsalar ustiga ko'chdi, xavotirlik umid bilan almashindi. Ertaga u o'z hamrohlari bilan Kordilyerdan tushib oladi. Pastda kapitan Grantni astoydil qidirish ishlari boshlanadi, ehtimol, ko'p o'tmay uni topishar. Glenarvan kapitan Grant bilan uning ikki matrosini asirlikdan qutqarishlari to'g'risida shirin xayol surib yotdi. Bu manzaralar birin-ketin uning ko'zi oldidan o'taverdi. Goh-gohda chirs etib o'choq ustida uchgan uchqun yoki lov etib yonib uxlab yotgan hamrohlari-ning yuzini yoritgan va kazucha devorlariga soya tushirgan o't uning fikrini bo'lar edi. Keyin yana har xil vahimali xayollar kelib, uni bosar edi. U tashqaridan eshitilgan tiq etgan tovushga ham uyqu aralash quloq solib yotar, lekin bunday balandlikda u nimaning tovushi bo'lishi mumkinligini izohlab berolmasdi.

Qulog'iga uzoqdan momaqaldiroq tovushiga o'xshash gulduragan tovush eshitilganday bo'ldi, lekin bu tovush osmondan kelmasdi. Aftidan, bu – sayohatchilarimiz turgan yerdan bir necha ming fut pastda, tog' yonbag'rida quturayotgan momaqaldiroqning ovozi edi. Glenarvan buni o'z ko'zi bilan ko'rish uchun kazuchadan tashqari chiqdi.

Oy chiqib kelmoqda. Havo tiniq, tiq etgan shamol yo'q. Yuqorida ham, pastda ham bir parcha bo'lsin bulut ko'rinmaydi. U yer-bu yerda o't purkab yotgan Antuko vulqonining cho'glari yalt etib ko'rinib qoladi. Na momaqaldiroq bo'lmoqda, na chaqmoq chaqmoqda. Osmonda minglarcha yulduz porlab turibdi. Lekin gumburlagan tovush tinmas, Kordilyer bo'ylab harakat qilib, tobora yaqinlashib kelayotgandek tuyulardi. Glenarvan yana ham battarroq tashvishlangan holda kazuchaga qaytib kirdi. Bu yer ostidan kelayotgan gumburlashlar bilan guanakolar podasining qochishi o'rtasida qanday bog'lanish bor ekan-a? Biri-birining natijasi emasmikan? U soatiga qaradi. Tungi ikki. Biror xavf yaqinlashib kelayotganiga aniq ishonchi bo'lmagani uchun dong qotib uxlab yotgan o'rtoqlarini uyg'otmadi, o'zi ham bir necha soat yarim uyg'oq holda to'lg'anib yotdi.

Birdan dahshatli gumburlagan tovushni eshitib, u sakrab o'rnidan turib ketdi. Bu to'p snaryadlari ortib, tosh ko'chani gumburlatib ketayotgan son-sanoqsiz aravalar tovushiga o'xshar edi. Glenarvan oyog'i ostidagi yer larzaga kelayotganini sezib qoldi; kazucha lapanglab ketdi, devorlari yorildi.

– Trevoga! – deb qichqirdi u.

Hamrohlari darhol uyg'ondilar. Endi hammalari to'p bo'lgan holda yumaloq yostiq bo'lib, tik yonbag'irdan pastga tushib keta boshlagan edilar, tong yorug'ida ularning ko'zi oldida dahshatli manzara ochildi. Tog'larning qiyofasi birdan o'zgardi: ular pastroq bo'lib qoldi; uchli tog' cho'qqilari tebranib-tebranib turib, o'raga tushib ketgandek birdan g'oyib bo'lib qolardi. Kordilyer tog'lariga xos hodisa yuz bermoqda edi¹. Bir necha mil masofaga cho'zilgan tog' tizmalari o'rnidan ko'chib, pastlikka qulab tushmoqda edi.

Paganel:

– Zilzila! – deb qichqirdi.

Geograf yanglishmadi. Bu Chilining tog'li chegaralarida odat tusiga kirib qolgan tabiiy ofatlardan biri edi: o'n to'rt yil ichida Kopiapo ikki marta yakson qilib tashlangan, Sent-Yago esa to'rt marta vayron qilingan. Yer sharining bu qismi yerosti o'tlarining harakatiga ayniqsa ko'p duchor bo'ladi, bu tog' tizmalaridagi yaqinligida vujudga kelgan vulqonlarning klapani esa yerosti bug'lari va gazlarining chiqib ketishiga yetarli darajada xizmat qila olmaydilar. Mahalliy tilda tramblores deb atalgan to'xtovsiz zilzilalarning sababi ana shu.

Ko'chib tushib kelayotgan yassi tog' toshlari orasida qo'rqib ketganidan dovdirab qolgan, to'rt atrofda o'sib yotgan lishayniklarga yopishib olgan yetti kishi kur-yer poyezdi tezligida, ya'ni soatiga ellik mil tezlik bilan pastga tushib borar edilar. Bu falokatdan qochib qolish yoki o'zini bir chetga olish u yoqda tursin, hatto qichqirishning ham iloj yo'q edi. Yerosti gumbur-gumburi, granit va bazalt qoyalarning bir-biriga urilishidan hosil bo'lgan shovqin, qor to'zoni fikr almashinishga sira yo'l qo'ymas, aslo birov-birovining gapini eshitib bo'lmasdi. Yaxlit tog' tizmalari goh tekis tushib borar, goh to'lqin

¹ 1820-yilda Monblan tog' tizmalarida xuddi shunga o'xshash zilzila hodisasi yuz bergan edi. O'sha dahshatli ofat paytida shamunlik uch nafar yo'l boshlovchi halok bo'lgan [*Jyul Vern izohi*].

quturib turgan dengizdagi kema singari u yoq-bu yoqqa chayqalardi. U yo'lda uchragan jarliklar ustidan o'tar, tog' jinslaridan hosil bo'lgan xarsanglar tashlab asriy daraxtlarini tag-tugi bilan qo'porar, bahaybat bir o'roqday sharqiy yonbag'irdagi do'ngliklarni tekislab, pastga tushib borar edi.

Ellik graduslik qiyalikdan pastga qarab borgan sari tezlashib uchib kelayotgan bir necha milliard tonnalik bu bahaybat massaning butun qudratini hatto tasavvur qilish ham qiyin!

Bu tasvirlab bo'lmaydigan ko'chishning qancha vaqt davom etganini sayohatchilardan hech kim aytib berolmasdi. Ko'chib ketayotgan bu bahaybat tog' massasi qaysi jarga tushib to'xtashini ham ulardan hech kim bilmasdi. Hozir ularning hammasi tirikmi yoki biron-tasi allaqachon biror jar tagida dabdala bo'lib yotibdimi – buni ham hech kim aytolmasdi. Tezlikdan nafaslari tiqilib, qaqshatqich shamolda sovuqqa qotib, qor to'zonida ko'r bo'lgan, holdan toygan, deyarlik butunlay hushini yo'qotgan sayohatchilar zo'rg'a nafas olar, o'z jonini saqlab qolish instinktigina ularni qoyalarga tarmashishga majbur qilardi.

Birdan qudratli siltov ularni ko'chib tushayotgan oroldan ajratib oldi, ular tog'ning so'nggi etagidan pastga dumalab keta boshladilar. Ular tushib kelayotgan yassi tog' birdan taqqa to'xtadi.

Bir necha minutgacha hech kim qimirlamadi. Niho-yat, sayohatchilardan biri o'rnidan turdi. Siltov paytida qulog'i kar bo'layozgan esa-da, u oyoqlarini mahkam bosib turardi. Bu mayor edi. U ko'zlarini to'ldirib yuborgan changni artib, atrofni ko'zdan kechirdi. Yoni-verida biri ustiga biri mingashib, hamrohlari yotishardi. Hammasi tosh-tuproqqa qorishib yotar, faqat bittasi – **Robert Grant** yo'q edi.

O' n t o' r t i n c h i b o b

XALOSKOR O'Q

Kordilyer tog'larining sharqiy yonbag'ri uzun-uzun, qiya dovonlardan iborat, bu dovonlar sekin-asta pasttekislikka aylanib ketadi. Ko'chib tushib kelayotgan massiv bo'lagi xuddi ana shu pasttekislikda to'satdan to'xtab qoldi. Bu yangi o'lkada serhosil yaylovlar yas-

lanib yotar, qit'a istilo qilingan paytlarda o'tqazilgan olmazorlarda oltindek sap-sariq olmalar shig'il pishib yotardi. Go'yo bu pasttekisliklarga hosildor Normandiyaning bir bo'lagi ko'chirib keltirilgandek edi. Boshqa har qanday holda ham sayohatchilarimiz tog' bo'shliqlarining vohaga, qorli cho'qqilarning ko'm-ko'k o'tloqlarga, qishning yozga bunchalik tez almashinib qolishiga g'oyatda taajjublangan bo'lar edilar, albatta.

Yer yana butunlay tinchib qoldi. Zilzila to'xtadi. Afritidan, yerosti kuchlari o'zlarining yemiruvchilik faoliyatini boshqa bir uzoqroq joyga ko'chirgan edi, chunki doimo Kordilyer tizmalarining biror yerida zilzila bo'lib turadi. Bu safar zilzila ayniqsa qattiq bo'ldi. Tog'larning manzarasi juda o'zgarib ketdi. Moviy osmon sathida yaqqol ko'rinib turgan yangi-yangi cho'qqilar, qoyalar tog'ning kechagi manzarasiga mutlaqo o'xshamas edi, shuning uchun pampaslardagi yo'l boshlovchilar undagi tanish joylarni endi sira ham topolmagan bo'lardilar.

Ertalab soat sakkiz edi. Mayorning harakati bilan Glenarvan va uning hamrohlari sekin-asta o'zlariga keldilar. Ularning quloqlari bitib qolgan edi, bundan boshqa zarar ko'rmagan edilar. Shunday qilib, Kordilyerdan tushib oldilar, agarda hali go'dak bo'lgan eng yosh hamrohlari – Robert Grant yo'qolib qolmaganda ular tabiatning bunday g'amxo'rlikidan hatto quvongan ham bo'lardilar.

Bu jasur bola hammaning qalbini maftun etgan edi. Unga ayniqsa Paganel qattiq o'rganib qolgandi, sovuqqon bo'lishga qaramay mayor ham uni yaxshi ko'rardi, lekin Robertni hammadan ham ko'proq Glenarvan sevardi. U Robertning g'oyib bo'lib qolganini bilgach, juda xafa bo'ldi. Glenarvanning nazarida bechora bola biror jarning tagida uni, o'zining ikkinchi otasini yordamga chaqirib yotgandek tuyulardi:

– Do'stlarim, do'stlarim, – derdi Glenarvan, yig'lamoqdan beri bo'lib, – uni axtarish kerak, uni topish kerak! Qanday qilib uni bu yerda tashlab ketamiz! Butun jarlarni, butun vodiyni sinchiklab tekshirishimiz kerak. Mening belimdan arqon bog'lab, atrofdagi jarlarga tushiringlar. Men talab qilaman buni! Eshit-yapsizlarmi: talab qilaman! Ayting-ayting, Robert tirik bo'lsin! Robertsiz otasining yuziga qanday qaray-

miz? O'g'lining hayoti evaziga otasini topish ham ish bo'ldimi!

Glenarvanning hamrohlari unga indamay quloq solib turar edilar. Glenarvan ularning ko'zlarida juda bo'lmaganda umid uchquni axtarayotganini sezib, hamrohlari yerga qarar edilar.

– Indamayapsizlar, – deb davom etdi Glenarvan, – gapimni eshitdinglar. Nega jimsizlar?! Umidni uzdinglarmi?! Butunlay uzdinglarmi?!

Sukut bir necha minutga cho'zildi. Nihoyat Mak-Nabbs tilga kirdi.

– Do'stlarim, Robert qachon yo'qolib qolganini kim eslay oladi? – deb so'radi u.

Bunga hech kim javob bermadi.

– Tog'dan tushib kelayotganimizda bola kimning yonida edi, juda bo'lmasa shuni aytinglar, – deb so'zida davom etdi mayor.

– Mening yonimda edi, – dedi Vilson.

– Uni qachongacha yoningda ko'rding? Yaxshilab o'yla! Gapir!

– To'xtashimiz oldidan bo'lgan siltovdan ikki minutcha oldin Robert lishaynikka tirmashib, yonimda tushib kelmoqda edi, – deb javob berdi Vilson, – esimda qolgani shu, xolos.

– Ikki minutcha oldin deysanmi? Yaxshilab o'yla, Vilson. Minutlar senga juda uzoq tuyulgan bo'lishi mumkin. Yanglishayotgan bo'lmagin tag'in?

– Yanglishayotganim yo'q, deb o'ylayman. Ha, xuddi shunday: ikki minutcha oldin, ehtimolki, undan ham kamroqdir.

Mak-Nabbs:

– Shunday ham deylik. Robert sening qaysi tarafingda edi: o'ng tarafingdami, so'l tarafingdami? – deb so'radi.

– So'l tarafimda edi. Ponchosining etagi betimga kelib urilib turgani shunday esimda turibdi.

– O'zing bizdan qaysi tarafda eding?

– Men ham so'l tarafda edim.

– Demak, Robert faqat mana bu tarafda yo'qolib qolgan bo'lishi kerak, – dedi mayor tog' tomonga o'girilar ekan o'ng tarafni ko'rsatib. – Shuni ham aytayki, bolaning yo'qolib qolgan vaqtini nazarga olsak, u anavi tagi tekislik va tepasi ikki ming fut tik de-

vor bo'lgan joyda yo'qolgani aniq bo'ladi. Atrofni o'zaro bo'lishib olib, uni xuddi ana shu yerdan qidirishimiz kerak, biz uni ana shu yerdan topamiz.

Mayorning bu taklifiga hech kim bir og'iz so'z qo'shmadi. Hamrohlar bo'linishib, tog'ning turli ba-landligiga chiqdilar va Robertni qidira boshladilar. O'zlari tog'dan uchib tushgan yerning o'ng tomonida-gi eng kichkina yoriqlar ichini ham qoldirmay qidira boshladilar, minut sayin jarga qulab ketish xavfi os-tida xarsanglar yig'ilib qolgan jarlar tagiga tushdilar, ular jar ichidan oyoq-qo'llari qonga belanib, kiyimlari dabdala bo'lgan holda qaytib chiqar edilar. Uch-to'rtta sira ham tushib bo'lmaydigan jarlardan boshqa Kordil-yerning bu qismi bir necha soat ichida juda sinchiklab ko'zdan kechirildi, lekin bu jasur odamlarning biron-tasi ham dam olish to'g'risida o'ylamadi. Ammo butun mehnatlari behudaga ketdi. Aftidan, bechora Robert tog'larda o'lim topgan, tog' qoyalari esa uning qabri bo'lgan edi.

Soat birlarda Glenarvan bilan hamrohlari holdan toygan va xafa holda vodiya yana to'plandilar. Glenarvan juda xafa edi. U deyarli hech gapirmas, og'ir-og'ir xo'rsinar, lablaridan faqat:

– Bu yerdan ketmayman! Ketmayman! – degan so'zlargina uchar edi.

Uning o'jarlik bilan aytayotgan bu fikriga hamma tushunar va unga hurmat bilan qarardi.

– Sabr qilaylik, – dedi Paganel, mayor bilan Tom Ostinga, – biroz dam olib, kuch yig'amiz. Robertni qi-dirsak ham, yo'lga chiqsak ham oldin dam olishimiz kerak.

– To'g'ri, – dedi Mak-Nabbs, – Eduard istar ekan, demak, bu yerda qolamiz. U hali umid qilyapti, lekin nimaga umid qilyapti – bunisini bilmayman.

– Bechora Robert! – dedi Paganel, ko'z yoshlarini artib.

Vodiyda juda ko'p daraxtlar o'sib yotardi. Mayor g'uj bo'lib o'sgan bir necha sershox daraxt tagini tan-lab, o'sha yerga vaqtincha to'xtash uchun joy qildi. Bir necha odeyal, qurollar, biroz qoq go'sht bilan guruch – omon qolgan narsalar faqat ana shu edi. Shu oradan oqib o'tadigan ariqdan yer qimirlagandan keyin hali loyqa bo'lib oqayotgan suv olish mumkin edi. Myulredi

o't ustida gulxan yoqib yubordi va ko'p o'tmay Glenarvanga issiq kakao uzatdi. Lekin u ichmadi, yerga solgan ponchosi ustida qimir etmay, cho'zilib yotaverdi.

Shu tarzda kun o'tdi. Har kungidek osoyishta, tinch tun boshlandi. Hammalari yotdilar, lekin hech kimning ko'ziga uyqu kelmas edi. Glenarvan esa yana Kordilyer yonbag'irlaridan Robertni qidirgani ketdi. U bola yordamga chaqirmayaptimikan, deb to'xtab-to'xtab quloq solar edi. Glenarvan juda balandga chiqdi, goh yerga yotib, nafas chiqarmaslikka tirishib qulog'ini toshga qo'yib tinglab boqdi, goh alam bilan Robertni chaqirib qichqirdi.

Bechora Glenarvan tuni bilan tog' kezib chiqdi. Tubsiz jarlar yoqasida ehtiyotsizlik qilib, o'zi ham jargaga yiqilib ketmasligi uchun har daqiqa unga yordam berishga tayyor holda goh Paganel, goh mayor u bilan birga yurdilar. Lekin bu oxirgi axtarishlar ham bekor ketdi. Glenarvanning: «Robert! Robert!» – deb chaqirishlariga faqat aks sado javob berardi.

Tong otdi. Glenarvanning do'stlari uni baland tog' tepasidan zo'rlab pastga olib tushdilar. U tasvirlab bo'lmas darajada iltirob chekardi. Kim unga hozir yo'lga chiqishni, bu badbaxt vodiyni tashlab ketishni jur'at etib taklif qila olar edi? Buning ustiga oziq-ovqat yetishmasdi. Shu yaqin oradan katapats aytgan argentinalik yo'l boshlovchilarni ham, pampaslarda sayohat qilish uchun yaroqli otlarni ham topish mumkin edi. Orqaga qaytish olg'a yurishdan ko'ra qiyinroq edi. Bundan tashqari, «Dunkan» bilan Atlantika okeani sohilida uchrashamiz deb kelishilgan edi, axir! Bu muhim sabablar ortiqcha paysalga solishga yo'l qo'ymas, umuman, otryad vaqtni mutlaqo bekor o'tkazmay, tezda yo'lga chiqishi lozim edi.

Mak-Nabbs Glenarvanning fikrini g'amli o'ylardan boshqa tomonga tortmoqchi bo'lib ko'rди. U do'stini o'z taklifiga ko'ndirish uchun uzoq urindi, lekin Glenarvan, aftidan, hech narsa eshitmas va faqat «Yo'q» deganday bosh chayqar edi. Nihoyat u:

- Yo'lga chiqamiz deysizmi? – deb so'radi.
- Ha, yo'lga chiqish kerak.
- Yana bir soat tura turinglar.
- Xo'p, tura turamiz, – dedi mayor.



Bir soat o'tdi, Glenarvan yana bir soat muhlat berishni o'tinib iltimos qildi. U o'linga mahkum etilgan jinoyatchi singari, yolborib muhlat so'radi. Shu tarzda soat o'n ikki bo'ldi. Keyin Mak-Nabbs boshqa hamroh-lari bilan maslahatlashib olib, yo'lga chiqishni qat'iy talab qildi, ekspeditsiya ishtirokchilarining taqdiri shunga bog'liq, dedi u.

– To'g'ri, to'g'ri, – dedi Glenarvan, – yo'lga chiqish kerak, to'g'ri.

U shunday deb javob berar ekan, o'zi Mak-Nabbsga qaramas edi. Uning butun diqqati baland osmonda ko'ringan allaqanday qora nuqtada edi. Birdan u qo'lini ko'tardi va turgan yerida qotdi.

– O'sha yerda, o'sha yerda! – deb qichqirdi Glenarvan. – Qaranglar! Qaranglar!

Hamma osmonga, Glenarvan zo'r berib qo'li bilan ko'rsatayotgan tomonga tikildi. Qora nuqta endi ancha kattalashib qoldi – bu juda balandlikda parvoz qilib yurgan qush edi.

– Bu kondor, – dedi Paganel.

– Ha, kondor, – dedi Glenarvan. – Kim bilsin! U shu tomonga yaqinlashib kelyapti, pastlashyapti... Birpas shoshmanglar...

Glenarvan nimaga umid qilayotir? Aqldan ozmadi-mi ekan? «Kim bilsin!» degan gapning ma'nosi nima?

Paganel yanglishmadi: u haqiqatan ham kondor edi, qush tobora yaqinlashib kelar va tobora aniq-ravshan ko'rinardi. Bu ajoyib yirtqich qush Janubiy Kordilyer tog'larining podshosi edi. Bu yerlarda u juda katta bo'ladi. Kondor juda kuchli qush, u ba'zi vaqtlarda hatto ho'kizlarni ham jarga qulatib yubora oladi. U o'tloqlarda daydib yurgan qo'y, echki, buzoqlarga hujum qiladi, ularni o'tkir tirnoqlari bilan mahkam changallab, juda balandlikka olib chiqib ketadi¹. Kondor ba'zan yigirma ming fut balandlikda parvoz qilib yuradi. Bunday balandga chiqib olgan osmon podshohini yerdan mutlaqo ko'rib bo'lmaydi, u esa o'sha balandlikda uchib yurib, yerdagi eng mayda-chuyda narsalargacha ko'rib turadi, bunga tabiatshunos olimlar g'oyat hayron qoladilar.

Bu kondor nimani ko'rgan bo'lishi mumkin? Ehtimol, u Robert Grantning jasadini ko'rib qolgandir?

– Kim bilsin! – deb takrorladi Glenarvan, bahaybat qushdan ko'z uzmay.

Kondor esa goh tekis parvoz qilib, goh bo'shlikka otilgan jonsiz narsadan pastga otilib yaqinlashib kelaverdi. Mana, yerdan yetti yuz futcha yuqorida u katta doira yasab, charx ura boshladi. Endi kondorni yaxshilab ko'rib olish mumkin edi: keng yozilgan zo'r qanotlari o'n besh futdan ham uzun edi; kondor qanotlarini deyarli qoqmay parvoz qilib yurardi, chunki mayda hasharotlarning havoda birpas uchishi uchun ming martalab qanot qoqishi kerak bo'lsa, katta qushlar g'oyat xotirjamlik bilan uchib yura oladilar.

Mayor bilan Vilson o'z karabinlarini qo'lga oldilar. Glenarvan imo bilan ularni to'xtatdi. Kondor Kordilyer-ning sayohatchilarimiz turgan yerdan chorak milcha naridagi odam bolasi chiqa olmaydigan bir cho'qqisi ustida aylana boshladi. Kattakon qush qo'rqinchli changal-

¹ Kondorlarning changallari o'z tuzilishi jihatidan biron narsani ko'tarishga qodir emas, ayniqsa bunchalik balandlikka sira olib chiqolmaydi. O'sha vaqtlarda kondorlar to'g'risida yurgan juda ko'p cho'pchaklar Jyul Verni xato fikrga olib kelgan. Kondorlar haqidagi bu gaplarning tamomila noto'g'ri ekani keyingi ilmiy tekshirishlarda isbot qilingan.

larini goh yig'ib olib, goh pastga osiltirib va o'tkir tumshug'ini silkib-silkib, haddan tashqari tez uchib yurardi.

– O'sha yerda! O'sha yerda! – deb qichqirdi Glenarvan.

Uning miyasiga lop etib bir fikr keldi.

– Agar Robert tirik bo'lsa! – deb qichqirdi u dahshat bilan. – Bu qush... Otinglar, do'stlarim, otinglar!

Lekin endi vaqt o'tgan edi: kondor baland qoyalardan orqasida g'oyib bo'ldi. Asrlardek tuyulgan birgina sekund vaqt o'tdi... Kattakon qush yana ko'rindi, u yukning og'irligidan ilgarigidan ko'ra sekinroq uchib borardi.

Odamlar dahshat bilan qichqirib yubordilar – kondorning changalida jonsiz bir jasad, Robert Grantning jasadi osilib yotardi. Yirtqich qush bolani kiyimidan changallab ko'targan holda bir yuz ellik futcha balandlikda parvoz qilib lager tepasidan o'ta boshladi. U sayohatchilarni ko'rib qoldi-da, bu yerdan tezroq qochib qolish uchun qanotlarini zo'r berib qoqa boshladi.

– A-a! – deb qichqirdi Glenarvan. – Bu qushga yem bo'lguncha Robertning jasadi qoyalarga urilib parcha-parcha bo'lsin...

Glenarvan gapini tugatmay, Vilsonning qo'lidagi karabinni tortib oldi-da, kondorni nishonga ola boshladi, lekin qo'llari titrar, ko'zi tinar edi, shuning uchun u qushni nishonga ololmadi.

– Menga qo'yib bering, – dedi mayor.

So'ng xotirjam, o'ziga ishongan Mak-Nabbs kondorni nishonga ola boshladi: qush endi uch yuz futcha masofada uchib borardi.

Lekin mayor karabin tepkisini bosishga ulgurmay, vodiy ichkarisida o'q ovozi yangradi; katta-katta ikki bazalt qoya orasidan oppoq tutun ko'rindi, qoq miyasidan o'q yegan kondor qanotlarini keng yoygan holda, aylanib-aylanib, parashutdek sekin-asta pastga tusha boshladi. U o'ljasini changalidan chiqarmay, tik ketgan ariq labidan ikki yuz futcha nariga beozor kelib tushdi.

– Endi gap bizda qoldi! Bizda! – deb qichqirdi Glenarvan.

Shunday dedi-yu, xaloskor o'q qayerdan uzilganini ham surishtirmay, kondor tomonga chopdi. Hamroh-lari ham uning ketidan yugurdilar. Ular yetib borgan-

larida qush allaqachon o'lgan edi. Robertning gavdasi esa uning keng qanotlari ostida deyarli ko'rinmasdi.

Glenarvan bola ustiga otildi, uni kondor changalidan ajratib olib, o't ustiga yotqizdi-da, qimir etmay yotgan bolaning ko'kragiga qulog'ini tutdi.

Odamzodning og'zidan hali bunchalik xursandlik qichqirig'i eshitilmagan bo'lsa kerak.

- Tirik ekan! Tirik! - deb qichqirdi Glenarvan.

Bir zumda Robertning kiyim-boshlarini yechib oldilar, yuziga muzdek suv sepdilar. Bola qimirladi, ko'zini ochdi, Glenarvanni tanib:

- Ha, ser, bu sizmisiz... otajon!.. - deb shivirladi.

Hayajondan nafasi tiqilgan Glenarvan unga javob berishdan ojiz edi: u bir mo'jiza bilan o'limdan qutulib qolgan bola oldiga tiz cho'kib, sevinchdan ho'ngrab yig'lardi.

O' n b e s h i n c h i b o b

JAK PAGANELNING ISPAN TILI

Bir xavfdan zo'rg'a qutulib qolgan Robert shu ondayoq ikkinchi xavfga duchor bo'ldi, har qalay, bunisi undan kam emasdi: uni sayohatchilarimiz quchoqlayverib oz bo'lmasa ezib qo'yay deyishdi. Bola bechora hali ancha zaif bo'lishiga qaramay, sayohatchilardan bironyasi ham uni quchoqlab ko'ksiga bosishdan o'zini tiya olmadi.

Lekin xursandlik bilan bunday quchoqlashlardan bemor o'lmasa kerak, har holda, Robert tirik qoldi.

Keyin sayohatchilar Robertnig xaloskori to'g'risida o'ylay boshladilar, turgan gapki, uni atrofdan eng oldin mayor axtarishga kirishdi.

Mayorning ko'zi ariqdan ellik qadamcha narida, shundaygina tog' etagidagi tosh ustida qimir etmay turgan juda novcha bir odamga tushdi. U uzun miltiqqa tayanib turardi. Kutilmaganda paydo bo'lib qolgan bu odamning yag'rini keng, uzun sochlari ingichka charm qayish bilan o'rab qo'yilgan bo'lib, bo'yi olti futdan ham baland edi. Qoracha yuzi har xil bo'yoqlar bilan: ikki ko'zining o'rtasi - qizil, qovoqlarining osti - qora va peshanasi oq bo'yoq bilan bo'yalgan edi. U Patagoniyaning chegara mintaqalarida yashovchilar

singari kiyingan bo'lib, ustiga har xil jimjimador bezaklar taqib, tuyaqush tomiri bilan tikilgan guanako terisidan ajoyib plashch kiygan edi. Plashch ostidan yana tulki terisidan tikilgan kiyim ham ko'rinib turardi. Uning ustidan belbog' bog'langan bo'lib, belbog'da betini bo'yash uchun ishlatiladigan har xil bo'yoqlar solingan xaltacha osilib turardi.

Betini har xil bo'yoqlar bilan bo'yab olganiga qaramay, patagoniyalik bu kishining chehrasi juda go'zal bo'lib, uning aqlli odam ekani yaqqol ko'rinib turardi. U mag'rurlik bilan qaddini tik tutgan holda endi nima bo'lishini kutib turardi. Qimir etmay turgan bu azamat odamning gavdasiga qarab, uni sovuqqonlikni aks ettirgan haykal deb faraz qilish mumkin edi.

Mayor patagoniyalikka ko'zi tushishi bilanoq uni Glenarvanga ko'rsatdi, Glenarvan esa darhol uning oldiga yugurdi. Patagoniyalik olg'a ikki qadam tashladi. Glenarvan uning qo'lini olib, mahkam qisdi. Eduardning chaqnab turgan ko'zlarida, butun vajohatida shunday qizg'in minnatdorlik aks ettirdiki, patagoniyalik buni tushunmay iloji yo'q edi. U boshini sal egib, bir necha og'iz so'z aytdi, lekin uning gapini mayor ham, Glenarvan ham tushunmadi.

Shunda patagoniyalik ularga diqqat bilan qarab olgach, boshqa tilda so'zlay boshladi, lekin u har qancha harakat qilmasin, sayohatchilar bu safar ham hech narsa tushunmadilar. Ammo Glenarvan uning gaplaridagi bir necha so'zni ispan tilidagi so'zlarga o'xshatdi, u ko'p ishlatiladigan ba'zi ispancha so'zlarni bilardi.

- Espanol?¹ - deb so'radi u.

Patagoniyalik boshini yuqoridan pastga silkib qo'ydi - bu harakat barcha tillarda bir xil ma'noni bildiradi.

- Juda soz, - dedi mayor, - endi gap do'stimiz Paganelda qoldi. U ispan tilini o'rganib, yaxshi qilgan ekan!

Paganelni chaqirishdi. U yugurganicha kelib, patagoniyalik oldida fransuzlarga xos nazokat bilan ta'zim qildi, lekin, turgan gapki, patagoniyalik bunday nazokatni tushunmadi. Geografga gapning nimada ekanligini tushuntirdilar.

- E, bo'pti! - dedi Paganel.

¹ Ispanmisiz?

So'ng so'zlarni aniq va dona-dona qilib aytish uchun og'zini katta ochib dedi:

– Yos sois um homem de bem¹.

Yerli odam diqqat bilan quloq solsa-da, hech narsa deb javob bermadi.

– Tushunmayapti, – dedi geografiya olimi.

– Talaffuzingiz yomon shekilli, – deb o'z taxminini bildirdi mayor.

– Ehtimol. Juda qiyin til ekan-da, savil!

So'ng Paganel maqtovli jumlasini yana takrorladi, lekin baribir yana hech natija chiqmadi.

– Bo'lmasa, boshqa narsa deb ko'raychi, – dedi geografiya olimi va shoshmay, o'qituvchilardek salmoqlab, patagoniyalikdan so'radi:

– Sem duvida, um Patag'ao?²

Patagoniyalik yana jim turaverdi.

– Dizeime!³ – dedi Paganel.

Patagoniyalik yana miq etmadi.

– Yos compriendeis⁴, – dedi Paganel tomoqlari yirtilib ketguday baqirib.

Hinduning hech narsa tushunmayotgani aniq edi, chunki u nihoyat impanchalab javob berdi:

– No comprendo⁵.

Endi hayron bo'lish navbati Paganelga keldi, u asabiylashib, ko'zoynagini peshanasidan ko'zi ustiga tushirdi.

– Bu badbaxt tildan bir og'iz so'z tushunsam o'lay agar! – dedi u. – U araukan tilida so'zladi shekilli.

– Yo'g'-e, – dedi Glenarvan, – u hech shubhasiz ispan tilida gapirdi.

So'ng patagoniyalikka burilib qarab yana:

– Espanol?⁶ – deb so'radi.

– Si, si⁷, – deb javob berdi yerlik.

Paganel hayron bo'lganidan qotib qoldi. Mayor bilan Glenarvan yer ostidan bir-birlariga qarab olishdi.

– Menga qarang, olim do'stim, – deb gap ochdi salgina jilmayib mayor, – siz o'zingizga monopoliya qilib olgan parishonlikning qurboni bo'lgan ko'rinasiz yana.

¹ Siz juda yaxshi yigit ekansiz.

² Siz patagoniyaliksiz, shundaymi?

³ Javob bering!

⁴ Tushunmayapsizmi?

⁵ Tushunmadim.

⁶ Ispanmisiz?

⁷ Ha, ha!

– Nima? Nima dedingiz? – dedi hushyor tortib Paganel.

– Gap shundaki, patagoniyalik hech shubhasiz ispan tilida gapiryapti.

– U-ya?

– Ha, u! Tasodifan, siz ispan tili deb, boshqa biron tilni... – Mak-Nabbs soʻzini tugatolmadi. Paganel yelkasini qisib va «Ey!» deb qichqirib, uning soʻzini boʻldi.

– Juda oshirib yubordingiz, mayor, – dedi Paganel quruqqina qilib.

– Nima uchun uning tiliga tushunmayapsiz boʻlmasa? – deb soʻradi mayor.

– U ispan tilida yaxshi gapirolmas ekan, shuning uchun tushunmayapman, – deb javob berdi jahli chiqa boshlagan geografiya olimi.

– Demak, oʻzingiz tushunmaganingiz uchungina u tilni yaxshi bilmas ekan deb oʻylayapsizmi? – deb xotirjamlik bilan soʻradi mayor.

– Menga qarang, Mak-Nabbs, – deb gapga aralashdi Glenarvan, – bunday boʻlishi mumkin emas. Doʻstimiz Paganel har qancha parishon boʻlmasin, har holda bir til oʻrniga ikkinchi tilni oʻrganadigan darajada emas.

– Boʻlmasa, azizim Eduard, siz yoki siz oʻzingiz, muhtaram Paganel, tushuntirib beringlar, bu nima gap, oʻzi?

– Men hech narsani izohlab oʻtirmayman: men isbot qilaman, – dedi Paganel. – Mana bu men ispan tilini oʻrganish uchun har kuni foydalanadigan kitob. Oʻz koʻzingiz bilan koʻring, mayor, oʻshanda men sizni aldamayotganimga ishonasiz.

Shunday deb Paganel oʻzining son-sanoqsiz choʻntaklarini titkilay boshladi va bir necha minutdan keyin juda titilib ketgan bitta kitobni chiqarib, ishonch bilan mayorga uzatdi. Mayor kitobni olib, koʻzdan kechira boshladi.

– Bu nima degan asar? – deb soʻradi u.

– Bu «Luiziada», – deb javob berdi Paganel, – ajoyib qahramonlik poemasi, unda...

– «Luiziada» dedingizmi? – dedi Glenarvan.

– Ha, doʻstim, ulugʻ Kamoens yozgan «Luiziada»ning xuddi oʻzginasi.

– Kamoens deysizmi? – deb takror soʻradi Glenarvan. – Bechora doʻstim, Kamoens portugaliyalik-ku,

axir! Siz keyingi olti haftadan beri portugal tilini o'rganayotgan ekansiz!..

– Kamoens... «Luiziada»... Portugal tili... – deb g'uldirab qoldi Paganel.

Uning ko'zoynak ostidan chaqnab turgan ko'zlari qorong'ulashdi, atrofini o'rab turgan hamrohlarining birdan qah-qah urib yuborganlari qulog'ini kar qilayozdi.

Patagoniyalik pinagini ham buzmadi. U ko'zi oldida bo'layotgan, lekin o'zi tushunolmayotgan bu ishlarning nima bilan tugashini sabr bilan kutib, jim turardi.

– Obbo, men tentag-ey, ovsar-ey, – dedi nihoyat Paganel. – Ana xolos! Demak, haqiqatan ham shunday bo'пти-da! Buni men qilibman-a, men! Bu qanday badbaxtlik, axir! O'zingiz bir o'ylab ko'ring: Hindistonga keta turib Chilidan chiqib qoldim! Ispan tilini o'rganayapman deb, portugal tilida gapirib yuribman! Bunisi endi juda o'tib ketdi! Agar ish shunday davom etaversa, bir kunmas bir kun derazadan sigaramni tashlab yuborish o'rniga o'zimni otib yuboraman-ku!

O'z muvaffaqiyatsizligiga bunday munosabatda bo'lganini, o'zining kulgili bir holga tushib qolganiga bo'lgan munosabatini ko'rib, kulmaslikning iloji yo'q edi. Buning ustiga kulgini eng oldin Paganelning o'zi boshlab berdi.

– Kulinglar, do'stlarim, chin yurakdan kulinglar! – derdi u. – Lekin ishoninglarki, o'zimning bu ishingga hammadan ham ko'proq o'zim kulaman! – deb u shunday qah-qah urib kular ediki, butun dunyoda bironta ham olim bunchalik kulmagan bo'lsa kerak.

– Lekin, nima bo'lganda ham, biz tarjimonsiz qoldik, – dedi mayor.

– Yo'q, unday umidsizlikka tushmang, – dedi Paganel, – portugal tili bilan ispan tili bir-biriga shunday o'xshashki, ko'rganingizdek, men hatto ularni chalkashtirib ham qo'yibman, lekin bu o'xshashlik o'z xatoimni tez tuzatishga yordam beradi, yaqin kunlarda bu azamat patagoniyalikka o'zi juda yaxshi egallagan ispan tilida tashakkur bildiraman.

Paganel yanglishmadi: bir necha minutdan so'ng u hindu bilan bir necha og'iz so'zlasha oldi. Geografiya olimi uning ismi Talkav ekanini ham bilib oldi. Talkav degani araukan tilida «momaqaldir oq sochuvchi» degan

ma'noni bildirar ekan. Aftidan, bu nom unga miltiqdan yaxshi foydalana olish mumkimligi tufayli berilgan edi.

Lekin Glenarvanni hammadan xursand qilgan narsa patagoniyalikning kasbi yo'l boshlovchi ekani bo'ldi, yo'l boshlovchi bo'lganda ham qanday deng – pampaslarda yo'l boshlovchi. Patagoniyalik bilan uchrashuv ayni muddao bo'ldi, hamma ham endi ekspeditsiya muvaffaqiyat bilan tugaydi deb ishonar, shuning uchun kapitan Grantning qutqarilishiga hech kim shubha qilmas edi.

Sayohatchilarimiz hindu bilan birga Robertning oldiga qaytib keldilar. Bola hinduga qo'lini uzatdi, u esa indamay qo'lini bolaning boshiga qo'ydi. U bolani diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqdi, zararlangan a'zolarini ushlab ko'rdi. Keyin jilmayganча ariq bo'yiga borib undan yovvoyi selderey yulib keldi-da, u bilan bemorning badanini ishqadi. Juda ehtiyotlik bilan qilingan bu massaj natijasida bola o'ziga kuch-quvvat kirayotganini his qildi, u bir necha soat dam olsa, tamom oyoqqa turib ketishi aniq bo'lib qoldi.

Ertasiga ertalabgacha dam olishga qaror qilindi. Buning ustiga ikkita muhim masala – oziq-ovqat va transport masalasini muhokama qilib, hal etish kerak edi. Sayohatchilarda oziq-ovqat ham, xachirlar ham yo'q edi. Bularning baxtiga, endi yonlarida Talkav bor. Sayohatchilarni Patagoniya chegaralari yoqalab boshlab yurishga odatlanib qolgan, mahalliy bakeanoslar ichida eng aqllilaridan biri bo'lgan bu yo'l boshlovchi Glenarvanning kichik otryadi uchun hamma zarur narsalarni topib berishni zimmasiga oldi. Talkav bu yerdan nihoyati to'rt milcha masofada bo'lgan hindularning tolderiyasiga borishni taklif qildi: uning aytishiga qaraganda tolderiyadan ekspeditsiya uchun zarur bo'lgan hamma narsani topish mumkin edi. Bu taklifni u imo-ishoralar va Paganel tushuna olgan ba'zi so'zlar yordami bilan bayon qildi. Uning taklifi qabul qilindi, shundan keyin Glenarvan hamrohlari bilan vaqtincha xayrlashib, o'zining olim do'sti bilan birgalikda, patagoniyalik yo'l boshlovchi ketidan ariqning yuqori oqimiga qarab darhol yo'lga chiqdi.

Ular pahlavon Talkavdan orqada qolmaslikka ti-rishib, katta-katta odimlar bilan tez yurib bir yarim

soat yo'l bosdilar. Kordilyerning etaklariga kelib taqal-
gan bu yerlar juda go'zal va hosildor yerlar edi. Mah-
suldor o'tloqlar biriga biri ulanib ketgan. Bu o'tloqlar
yuz ming boshlab mollarni boqish uchun yetardi.
Kichkina-kichkina ariqchalar bilan bir-biriga ulan-
gan katta-katta hovuzlar ko'm-ko'k o'tloqlarni suv bi-
lan mo'l ta'minlab turar, ularda qora kalla oqqushlar
yayrab suzar edi, zig'irpoyalar ichida esa juda ko'p
tuyaqushlar chopib yurardilar. Umuman bu yerlar-
dagi qushlar juda chiroyli, sershovqin va nihoyatda
xilma-xil edi. Daraxt shoxiga qo'nib o'tirgan qanoti-
da oq-oq xoli bor chiroyli ko'k izakas – musichalar,
sariq kardinallar xuddi yangi ochilgan gulga o'xshar
edi. Ko'chmanchi kaptarlar allaqayoqlarga uchib o'tib
turar, biri ketidan biri quvib yurgan chumchuqlar esa
chirqillashib, atrofni boshiga ko'tarar edi.

Tabiatning bu go'zalliklaridan Jak Paganel benihoyat
lazzat olardi, u goh undan, goh bundan qoyil qol-
ganini bildirish uchun beto'xtov qiyqirardi. Patagoni-
yalik esa bunga g'oyat ajablanardi, chunki u osmonda
qushlar uchib yurganini, suvda oqqushlar suzib yur-
ganini, o'tloqlarda o't o'sib yotganni tabiiy bir hol deb
bilardi. Umuman, geografiya olimimiz bu safardan,
uning cho'zilib ketganidan mutlaqo xafa emas edi. Hin-
dular to'xtagan joyga yetib kelganlarida uning nazarida
endi yo'lga chiqqandek edilar. Tolderiya Kordilyer etak-
laridagi tizmalar bilan o'ralgan vodiyning ichkarisida
joylashgan bo'lib, undagi shox-shabbalardan qurilgan
chaylalarda o'ttiztacha ko'chmanchi hindu yashar edi.
Ular chorvachilik bilan shug'ullanar: sigir, ho'kiz, yil-
qi va qo'y podalarini o'tloqdan o'tloqqa haydab boqib
yurardilar, bunday sero't o'tloqlar bu atrofda sonsiz-
sanoqsiz edi.

Bu *ando-peruan hindulari* araukan, pexuen va
aukas irqlarining aralashuvidan kelib chiqqan. Ular
sarg'ish qora badanli, o'rta bo'yi, yag'rini keng, deyarli
dumaloq yuzli, tor peshana, yupqa labli odamlar. Ular-
ning yuz qiyofasi sovuq, lekin jasurona emas.

Qisqasi, ularning qiziqadigan yeri yo'q edi. Lekin
Glenarvanga ularning o'zi emas, podasi kerak edi.
Ko'chmanchilarda qoramol bilan otlar bor ekan, Gle-
narvanga bundan bo'lak hech nimaning keragi yo'q.

Talkav ular bilan bitishishni o'z ustiga oldi, bunga ko'p vaqt ketmasdi ham. Egar jabdug'i bilan argentina zotli yettita pastak ot, yuz qadoq qoq go'sht – karki, bir oz guruch va suv solinadigan bir necha mesh uchun hindular yigirma unsiya tilla olishga rozi bo'ldilar, chunki sayohatchilarimizda hindular uchun juda qimmatbaho bo'lgan vino yoki rom yo'q edi, lekin ular tillaning bahosini juda yaxshi bilar edilar. Glenarvan patagoniyalik uchun ham yana bitta ot sotib olmoqchi edi, lekin Talkav buning hech keragi yo'q ekanini bildirdi.

Ishni bitkazgach, Glenarvan o'zining yangi «mol yetkazib beruvchilari» bilan – ularni Paganel shunday deb atadi – xayrlashdi, oradan yarim soat ham o'tmay, ular lagerga yetib keldilar. Ularni lagerda qiyqiriqlar bilan kutib oldilar, to'g'ri, bu qiyqiriqlar ularga emas, egarlog'liq otlar bilan oziq-ovqatga taalluqli edi. Hammalari zo'r ishtaha bilan ovqatlandilar.

Robert ham biroz ovqat yedi. U endi o'zini ancha yaxshi his qilardi.

Kunning qolgan qismini faqat dam olib o'tkazdilar. Har to'g'rida jindak-jindak so'zlashdilar: aziz hamrohlari miss Meri bilan Elenni, «Duncan»ni, kapitan Jon Mangls va uning azamat matroslarini esga oldilar, Garri Grantni ham unutmadilar, axir, kapitan Grant shu yaqin orada bo'lishi mumkin edi-da.

Paganelga kelsak, u hindu yo'l boshlovchidan bir qarich ham nari ketmas, go'yo Talkavning soyasi bo'lib qolgan edi. Hinduning oldida o'zi yosh boladay ko'rinib qolgan geografiya olimi haqiqiy patagoniyalikni uchratganidan o'zida yo'q xursand edi.

Paganel o'zining ispancha iboralari bilan Talkavning boshini rosa qotirdi, lekin u olimning gapiga sabr-toqat bilan javob qaytarardi. Geografiya olimi ispan tilini endi kitobsiz o'rganmoqda edi. U tomog'i, tili va chakaklarini ishga solib baland ovoz bilan ispan so'zlarini talaffuz qilgani eshilib turardi.

– Talaffuzimni tuzata olmasam masxara qilmang, – derdi u mayorga qayta-qayta, – ispan tilini menga patagoniyalik hindu o'rgatadi deb mutlaqo o'ylamagan edim!

O' n o l t i n c h i b o b

RIO-KOLORADO

Ertasiga, **22-oktabr** ertalab soat sakkizda Talkav yo'lga chiqishga signal berdi. Argentina pasttekisligi yigirma ikkinchi va qirq ikkinchi gradus [uzunlik]lar orasida g'arbdan sharqqa qarab tobora pastlashib boradi: sayohatchilarimiz endi dengiz bo'yiga qarab borgan sari pastga tushib borishlari kerak edi.

Patagoniyalik otdan bosh tortganda Glenarvan u ham ko'pgina mahalliy yo'l boshlovchilar singari piyoda yurmoqchi shekilli, deb o'ylagandi, chunki bunday uzun-uzun oyoq bilan yo'l bosish qiyin ish emas albatta.

Lekin Glenarvan yanglishdi.

Yo'lga chiqish paytida Talkav g'alati qilib qattiq hushtak chaldi, shu zahotiyiq yaqin oradagi chakalakdan baland bo'yli ajoyib bir ot chiqib keldi. Bu chiroyli kuchli, mag'rur, asov, dovyurak qorato'riq ot edi. Uning kallasi kichkina, nihoyatda kelishgan bo'lib, kishnaganda burun teshiklari keng kerilar, ko'zlarida o't chaqnardi, oyoqlari baquvvat, yoli uzun, ko'krakdor – xullas, kuchli, chayir ekanligi shunday ko'rinib turardi. Ot zotidan yaxshi xabardor bo'lgan Mak-Nabbs pampas otlarining bu chiroyli namunasi ko'z uzolmay qoldi; mayor bu go'zal jonivorning ingliz gunteriga o'xshab ketadigan joylari borligini aniqladi. Bu uchqur otning laqabi «Tauka» ekan, patagon tilida bu so'zning ma'nosi «qush» demakdir. Shubhasiz, bu ism unga juda kelishib tushardi.

Talkav bir sakrab o'z Taukasiga mindi, ot darhol olg'a otildi. Patagoniyalikka qaragan kishining zavqi kelardi: Talkav ajoyib chavandoz chiqdi. Uning egariga Argentina qirlarida rasm bo'lgan ikkita ovchilik quroli – *bolas va lasso* bog'lab qo'yilgandi. Bolas bir-biriga charm qayish bilan ulangan uchta shardan iborat. Hindular bolasni quvib borayotgan dushman yoki hayvonlariga yuz qadam masofadan ham otaveradilar, yana shunday ustalik bilan mo'ljallab otadilarki, u qochib ketayotgan kishi yoki hayvonning oyog'iga o'ralib, uni darhol yerga yiqitadi. Bolas mohirlik bilan ishlata bilgan hindu qo'lida juda qo'rqinchli qurol. Las-

so esa hech qachon ovchining qo'lidan butunlay chiqib ketmaydi. U ikkita pishiq qayishdan to'qilgan, bir uchi sirtmoq qilinib, temir halqa o'rnatilgan o'ttiz futcha uzunlikdagi charm arqondan iborat. Ovchi bu sirtmoqni o'ng qo'li bilan uloqtiradi, chap qo'li bilan esa uning egarga mahkam bog'lab qo'yilgan uchini ushlab turadi. Yelkasiga osib olgan uzun karabin patagoniyalikning uchinchi quroli edi.

O'zining mag'rur, bamaylixotir, kelishgan xatti-harakatlari hamrohlarini qanchalik zavqlantirganini sezmay Talkav otryadning oldiga tushib, yo'l boshladi. Chavandozlar goh ot choptirib, goh mayda qadamlab bordilar, chunki Argentina otlari, aftidan, yo'rtib yurishni bilmas edi. Robert egarda shunday mahkam o'tirar ediki, Glenarvan undan mutlaqo xavotir olmay qo'ydi.

Pampaslar Kordilyer tog'larining xuddi etagidan boshlanadi. Ularni uch qismga bo'lish mumkin: pastak daraxtlar va chakalaklar bilan qoplangan birinchi qismi Kordilyerdan ikki yuz ellik milga cho'ziladi; ajoyib barra o'tlar bilan qoplangan va eni to'rt yuz ellik mil masofaga cho'ziladigan ikkinchi qismi Buenos-Ayresdan bir yuz sakson mil narida tugaydi. Bu yerdan to okean qirg'og'igacha sayohatchilar yovvoyi beda va qushqo'nmas bilan qoplangan oxiri-poyoni yo'q o'tloqlardan o'tadi, bu pampaslarning uchinchi qismidir.

Glenarvan otryadi Kordilyer daralaridan chiqishi bilanoq bu yerlarda «medanos» deb ataladigan qumtepalarga duch keldi. Agar bu qumtepalari o'simliklar il-dizi bilan mahkamlanmagan bo'lsa, shamol ularni dengiz to'lqinlaridek u yoqdan bu yoqqa hayday beradi. Bu tepaliklarning qumi nihoyatda mayda bo'lganidan sal shabada tursa ham uchib ketaveradi, ba'zan juda balandlarga ko'tarilib ketadigan qum quyunlar hosil bo'ladi. Bu ayni vaqtda ham juda tomoshabop manzara, ham ko'zning zavoli. Tomoshabopligi shundaki, qirda daydib yurgan quyunlarni kuzatish, ularning bir-biri bilan to'qnash kelishini, aralashib ketishini, yerga cho'kishini, so'ng yana boshi-keti yo'q tartibsizlik bilan ko'tarilishini tomosha qilish juda qiziq; ko'zning zavoli ekanining sababi shundaki, ko'chib yurgan bu son-sanoqsiz medanoslarning juda mayda zarralari

ko'zingni qancha qattiq yumsang ham ichiga kirib oladi.

Shimoldan esgan shamol qo'zg'agan bu quyunlar deyarli kun bo'yi davom etdi. Shunga qaramay otryad tez ilgarilab bordi, shuning uchun kechqurun soat otilarga borib, qirq milcha orqada qolib ketgan Kordilyer tog'lari oqshomgi tuman orasida bilinar-bilinmas qora-yib ko'rina boshladi.

O'ttiz sakkiz mil yo'l bosib anchagina charchagan sayohatchilarimiz dam olish vaqti kelganidan mamnun bo'ldilar. Ular baland qizg'ish qoyalar orasidan oqayotgan loyqa suvli, tezoqar Rio-Neukvem daryosi bo'yida to'xtadilar. Neukvem daryosini ba'zi geograflar «Ramid» deb, boshqalari esa «Komoe» deb ataydilar, daryo faqat hindularga ma'lum bo'lgan ko'llar orasidan oqib keldi.

Bu kecha bilan keyingi kunda hikoya qilib berishga arziydigan biror hodisa yuz bermadi. Hech qanday to'sqinlikka uchramay, tez ilgarilab bordilar. Tekis yo'l va mo'tadil temperatura sayohatni juda osonlashtirdi. Lekin, har qalay, tushga yaqin kun isib ketdi, quyosh nurlari badanni kuydira boshladi. Kechki payt janubi g'arb tomonda ufq qop-qora bulut bilan qoplandi. Bu ob-havoning o'zgarishidan darak berardi. Patagoniyalik buni bilmasligi mumkin emasdi, u geografiya olimiga qo'li bilan ufqning g'arb tomonini ko'rsatdi.

– Bilaman, – dedi Paganel va o'z hamrohlariga o'girilib. – Havo o'zgaryapti. Biz pampero bilan tani-shadiganga o'xshaymiz, – deb qo'shib qo'ydi.

So'ng darhol pampero – Argentina qirlarida tez-tez bo'lib turadigan juda quruq janubi g'arbiy shamol ekanini tushuntirib berdi. Talkav yanglishmadi, kechasi shitob bilan pampero esa boshladi. Faqat bir qavat ponchoga o'ralib yotgan odamlar uchun bu juda og'ir mashaqqat edi. Otlar yerga yotdilar, odamlar, esa ular atrofiga to'p bo'lib oldilar. Glenarvan bo'ron yo'ldan ushlab qolmasa edi, deb tashvishlana boshladi, lekin Paganel o'z barometriga qarab, uni tinchitdi:

– Barometr simobi pastlasha bersa, odatda, pampero uch kun uzluksiz davom etadi. Lekin hozir barometr simobi ko'tarilyapti, demak, bo'ron bir necha soat quturadi-yu, bosiladi. Xotirjam bo'lavering, aziz do'stim, ertalab yana havo ochilib ketadi.

– Siz hamma narsaga javob bera oladigan kitobga oʻxshaysiz-a, Paganel, – dedi Glenarvan.

– Men rostdan ham kitobman, – deb javob berdi Paganel, – istaganingizcha varaqlab oʻqishingiz mumkin.

Kitob xato qilmadi: kechasi soat birda boʻron birdan tinib qoldi, shundan soʻng sayohatchilar yaxshilab uxlab, kuch yigʻib oldilar. Hammalari, ayniqsa Paganel, uyqudan tetik va bardam boʻlib turdilar: olim maza qilib kerishar va suyaklarini qirsillatardi.

24-oktabr. Sayohatchilarimiz Talkaguanodan yoʻlga chiqqanlariga oʻn kun boʻldi. Oʻttiz yettinchi parallel Rio-Koloradoni kesib oʻtadigan yerga yetish uchun yana toʻqson uch mil¹, yaʼni uch kunlik yoʻl qolgan. Amerika qitʼasi orqali boʻlgan bu sayohat vaqtida Glenarvan kapitan Grant haqida biror maʼlumot olish umidida hinularni uchratishga harakat qildi, u buni Paganel endilikda durustgina gaplashadigan boʻlib qolgan patagoniyalik Talkav orqali amalga oshirishi mumkin edi. Lekin ular hindular kam yuradigan joylardan oʻtib borar edilar, chunki Argentina respublikasidan Kordilyer togʻlariga olib boradigan yoʻllar shimolroqdan oʻtardi. Shuning uchun sayohatchilarimiz oʻz yoʻllariga katsiklar qoʻl ostida yashovchi na oʻtroq, na koʻchmanchi hindularni uchratmadilar. Mabodo uzoqda biror otliq-koʻchmanchi koʻrinib qolgudek boʻlsa ham, sayohatchilarni koʻrishi bilanoq, aftidan, begona odamlarga duch kelishni xohlamay, ura qochar edi. Bu yerlardagi qirlarda yakka yurishga jurʼat qilgan kishiga bunday otryad haqiqatan ham shubhali koʻrinar, uchqur otlarga minib olgan sakkizta qurolli kishini koʻrgan har qanday kishi ham qoʻrqib ketishi, ularni yomon niyatli kishi deb oʻylashi mumkin edi. Shuning uchun sayohatchilar na tinch aholi bilan, na yoʻltoʻsar-qaroqchilar bilan gaplasha olmadilar. Ular hatto restreadoreslar² shaykasi bilan toʻqnash kelishga ham rozi edilar, hatto ular bilan miltiq otishdan gap boshlashga ham yoʻq demagan boʻlardilar.

Glenarvanning umidi roʻyobga chiqib, hindular bilan gaplashishning iloji topilmagan boʻlsa ham, har holda, hujjatning keyingi izohi toʻgʻri ekanini tasdiqlaydigan bir hodisa roʻy berdi.

¹ 150 kilometr [Jyul Vern izohi].

² Qir-adir yoʻltoʻsarlari [Jyul Vern izohi].

Otryad o'z yo'lida bir necha so'qmoqni shular orasida Karmendan Mendosga boradigan muhim so'qmoq yo'lni kesib o'tdi. Bu so'qmoqni unda tez-tez uchrab turgan xachir, ot, qo'y va ho'kiz singari uy hayvonlarining suyaklaridan bilib olish qiyin emas edi. Yirtqich qushlar top-toza qilib qo'ygan va shamolda oppoq bo'lib ketgan bu suyaklar go'yo yo'l ko'rsatuvchi qoziqlar vazifasini o'tardi. Bunday suyaklar ming-minglab sochilib yotar, ularga qanchadan qancha odam suyaklari aralashib ketgan bo'lsa ajab emasdi.

Talkav shu vaqtgacha sayohatchilar qayerni mo'l-jallab borayotganlari haqida bir og'iz bo'lsin so'ra-madi. Lekin sayohatchilar hozir ketayotgan yo'l pampaslardagi yo'llardan birontasiga ham aloqasi yo'qligini, bu tarzda yo'l yurib na biror shaharga, na biror qishloqqa, na Argentina viloyatlaridan birontasining idoralariga chiqib bo'lmasligini tushunar edi, albatta.

Otryad har kuni ertalab chiqib kelayotgan quyosh tomonga qarab yo'lga chiqar va kechgacha hech qayoqqa og'may, to'g'ri yo'l bosar, kechqurun tush uchun to'xtaganlarida botayotgan quyosh sayohatchilarning orqasida qolardi. Yo'l boshlovchi bo'lgani uchun bu tarzda yo'l yurish Talkavga g'alati tuyulgan bo'lsa kerak, chunki sayohatchilarni Talkav emas, aksincha, sayohatchilar uni boshlab borar edilar. Mabodo u bunga ajablangan bo'lsa ham, hindularga xos og'irlik bilan buni bildirmay borardi, shuning uchun otryad biror yo'lni kesib o'ta turib, unga burilishni istamaganda u hech narsa demas edi. Lekin bugun, otryad yuqorida tilga olingan Karmendan Mendosga boradigan so'qmoqqa chiqqanda Talkav otini to'xtatdi va Paganelga o'girilib:

– Bu yo'l Karmenga boradi, – dedi.

– To'g'ri, patagoniyalik aziz do'stim, – deb javob berdi Paganel, ispan so'zlarini iloji boricha aniq talaffuz qilishga tirishib, – bu yo'l Karmendan Mendosga olib boradi.

– Biz bu yo'ldan yurmaymizmi? – deb so'radi Talkav.

– Yo'q, – deb javob qaytardi Paganel.

– Biz qayerga ketyapmiz?

– Faqat sharqqa.

– Unda hech qayerdan chiqmaymiz-ku.

– Ko‘ramiz-da!

Talkav jim qoldi va juda hayron bo‘lib geografiya olimiga qaradi. Lekin u Paganel hazillashishi mumkin deb xayoliga ham keltirmas edi. Har narsaga ham doim jiddiy qaraydigan bu hindu hazilning nima ekanini bilmasdi.

– Demak, sizlar Karmenga ketayotganingiz yo‘q ekan-da? – deb so‘radi u, birozdan so‘ng.

– Yo‘q. Karmenga ketayotganimiz yo‘q, – dedi Paganel.

– Mendosga ham bormaysizlarmi?

– Mendosga ham bormaymiz.

Shu payt Glenarvan Paganel oldiga kelib, undan Talkav nima deganini va nima uchun to‘xtab qolganini so‘radi.

– U biz Karmenga ketyapmizmi, yo Mendosgami, deb so‘radi, – dedi Paganel, unga izoh berib, – bizning Karmenga ham, Mendosga ham bormasligimizni bilib, hayron bo‘lyapti.

– Rost, bizning sayohatimiz haqiqatan ham unga qiziq tuyulsa kerak, – dedi Glenarvan.

– Shunaqaga o‘xshaydi. Bunday yo‘l yurishda biz hech qayerdan chiqmaymiz, deydi.

– Menga qarang, Paganel, ekspeditsiyamizning maqsadini va nima uchun biz doim sharqqa qarab yurishimizni unga tushuntirib berolmaysizmi?

– Bu juda qiyin-da, – dedi Paganel, – geografik graduslarning nimaligini u mutlaqo tushunmaydi-ku, hujjatning tarixi esa unga xayoliy narsa bo‘lib tuyuladi.

– Qiziq, – dedi mayor jiddiy, – u so‘zlab berilgan voqeani tushunmasmikan, yoki so‘zlab berayotgan odamning so‘ziga tushunmasmikan?

– Eh, Mak-Nabbs! – dedi Paganel. – Hali ham siz mening ispancha so‘zlashuvimga shubha bilan qaraysiz-al!

– Bir harakat qilib ko‘ring, muhtaram do‘stim! – dedi mayor.

– Harakat qilib ko‘raman.

Paganel patagoniyalik oldiga keldi-da, unga ekspeditsiyaning maqsadini tushuntira boshladi. So‘z boyligi yetishmay qolgandan, shuningdek, ekspeditsi-

yaning ba'zi jihatlarini hinducha anglatish qiyinligidan va unga ba'zi tafsilotlarni tushuntirishi juda qiyin bo'lganidan geografiya olimi tez-tez to'xtab qolardi. Shu payt geografiya olimiga qarash kayf edi: u har xil imo-ishoralar qilar, ispan so'zlarini iloji boricha aniq talaffuz qilishga tirishar, umuman shunday jon kuydirar ediki, peshanasidan marjon-marjon ter oqardi. So'z boyligi yetishmay qolganda u qo'lini ishga soldi. Paganel sakrab otdan tushdi-da, qumga geografik xarita chiza boshladi, qumda birin-ketin meridianlar bilan kesishib o'tgan parallellar, ikki okean, ular o'rtasidagi materik va undan Karmenga o'tadigan yo'l paydo bo'ldi. Birorta ham o'qituvchi bunchalik mushkul ahvolga tushmagan bo'lsa kerak.

Talkav geografning butun xatti-harakatlarini xotirjamlik bilan yaxshilab kuzatib turdi, lekin uning qiyofasidan tushunayotgan-tushunmayotganini bilib bo'lmadi.

Geografiya olimining darsi yarim soatdan ortiqroq davom etdi. Nihoyat, Paganel jim bo'ldi, betidan oqib tushayotgan terni artdi-da, patagoniyalikka qaradi.

- Tushundimi? - deb so'radi Glenarvan.

- Hozir bilamiz, - dedi Paganel. - Agar tushunmagan bo'lsa, men yana tushuntirishdan bosh tortmayman.

Talkav qimirlamadi ham, biror og'iz so'z ham aytmadi. U shamol sekin-sekin o'chirib ketayotgan chizma-chiziq xaritadan ko'z uzmas edi.

- Xo'sh? - deb so'radi Paganel.

Talkav uning savolini eshitmagandek turardi. Geografiya olimi mayorning lablaridagi istehzoli tabassumni ko'rib, juda xafa bo'lib ketdi va o'zining geografiya darsini yana qayta boshdan boshlamoqchi bo'lgan ediki, patagoniyalik uni imo bilan to'xtatdi.

- Sizlar asir kishini axtarib yuribsizlar, shundaymi? - deb so'radi u.

- Ha, - dedi Paganel.

- Uni kunbotishdan kunchiqishga boradigan mana shu to'g'ri chiziqdan qidriyapsiz, a? - deb so'radi Talkav, g'arbdan sharqqa degan tushunchani hinduchasiga aytib.

- Ha, balli.

- Asirning sirini bahaybat dengiz to'liqlariga sizning xudoyingiz topshirganmi?

- Ha, xuddi shunday.

- Unaqa bo'lsa, aytgani kelsin, - dedi Talkav, hatto biroz tantana bilan, - sharqqa qarab boraveramiz, agar lozim bo'lsa Quyoshgacha ham boramiz.

Shogirdining so'zlaridan o'zida yo'q quvonib ketgan Paganel uning so'zlarini darrov hamrohlariga tarjima qilib berdi.

- Muncha ham aqli raso xalq ekan bular! - deb qo'shib qo'ydi u. - Aminmanki, mening vatanimdagi har bir yigirmata dehqondan o'n to'qqiztasi hozirgi gaplarimga tushunmagan bo'lardi.

Glenarvan Paganeldan: so'rab ko'ring-chi, patagoniyalik u yer-bu yerda pampaslardagi hindular qo'liga chet ellik kishilar asir tushgan-tushmaganini eshitmadimi ekan, deb iltimos qildi. Paganel hindu yo'l boshlovchidan buni so'rab, javob kutib turdi.

- Ehtimol, - dedi patagoniyalik.

Bu javob darhol ingliz tiliga tarjima qilindi, shunda yetti sayohatchining hammasi patagoniyalikni o'rab olib, unga savol nazari bilan tikilib qoldilar.

Paganel hayajonlanib va ispancha so'zlarni zo'rg'a topib, ketma-ket savol bera boshladi. Uning xotirjam va vazmin hinduning betiga tikilgan ko'zlari Talkav javob bermasidan oldinroq uning aytmoqchi bo'lgan gapini bilib olmoqchiday tuyulardi.

Patagoniyalikning har bir ispancha so'zini geografiya olimi darhol ingliz tilida takrorlardi, shuning uchun uning hamrohlari ham Talkavning javoblariga o'z ona tilida eshitgandek quloq solib turdilar.

Paganel:

- O'sha asir kim edi? - deb so'radi.

- U ajnabiy kishi, yevropalik edi, - deb javob berdi Talkav.

- Uni o'zingiz ko'rganmisiz?

- Yo'q, lekin uning to'g'risida yurgan hindularning hikoyalarini eshitganman. U jasur odam edi. Uning yuragi buqaning yuragidek edi.

- Buqaning yuragi! - deb takrorladi Paganel. - Patagoniya tili buncha ham ajoyib til-a! Tushunyapsizmi, do'stlarim? U «dovyurak odam edi» demoqchi!

– Otam! Mening otam! – deb qichqirib yubordi Robert Grant. Keyin Paganelga o'g'irilib. – Ispanchada: «Mening otam» degan gapni nima deyiladi? – deb so'radi.

– Es mio padre, – deb javob berdi geografiya olimi.

Shunda Robert Talkavning qo'lidan ushlab, mehribonlik bilan:

– Es mio padre! – dedi.

– Suvo padre?! – dedi patagoniyalik va uning chehrasi yorishib ketdi.

U bolani quchoqlab, egardan ko'tarib oldi-da, unga ham ajablanib, ham mehribonlik bilan qaray boshladi. Hinduning xotirjam, aqlli chehrasida achinish alomatlari ko'rindi.

Lekin Paganelning savollari hali tugamagan edi. Asir qayerda edi? U nima bilan band edi? Talkav bu to'g'ridagi gapni qachon eshitgan? Bu savollar Paganelga tinchlik bermasdi. Javobini ham darhol eshitdi. Paganel yevropalik kishining Kolorado va Rio-Negro daryolari o'rtasida ko'chib yuradigan ko'chmanchi qabilalardan birida asir ekanini bilib oldi.

– Keyingi vaqtlarda qayerda edi u? – deb so'radi Paganel.

– Kalfukur qabilasining katsigi qo'lida edi, – dedi Talkav.

– Biz yo'l bosib kelayotgan chiziqqa yaqin joydami?

– Ha.

– O'sha katsik kim, o'zi?

– Poyux hindularining boshlig'i, ikki tilli, ikki yurakli odam.

– Ya'ni u qabila boshlig'i ikkiyuzlama, labzi yo'q odam demoqchi, – deb tushuntirdi Paganel, bu chiroyli, obrazli gapni tarjima qilib. Keyin u yo'l boshlovchiga o'g'irilib. – Biz do'stimizni ozod qila olamizmi? – deb so'radi.

– Hali ham hindular qo'lida bo'lsa, ehtimol, ozod qila olarmiz.

– Siz buni qachon eshitgan edingiz?

– Ancha bo'ldi. O'sha vaqtdan beri Quyosh pampaslarga ikki marta yoz yubordi.

Glenarvanning quvonchini so'z bilan bayon qilib bo'lmaydi. Patagoniyalikning aytgan vaqti hujjatda

¹ Uning otasimi?

ko'rsatilgan vaqtga to'g'ri kelardi. Talkavdan so'raydigan yana bitta savol qolgan edi. Paganel uni ham darhol so'radi.

- Siz bitta asir to'g'risida gapiryapsiz, - dedi u, - ular uch kishi emasmi?

- Bilmadim.

- Asirning holi hozir nima kechayotganini ham bilmaysizmi?

- Bilmayman.

Shu bilan gap tugadi. Uchala asirning bir-biridan ajratib yuborilgan bo'lishi ham ajablanarli hol emas edi. Lekin patagoniyalikning gapidan: hindular orasida ular qo'liga asir tushgan yevropalik kishi haqida gap-so'zlar yuribdi degan xulosa kelib chiqardi. Uning asir tushgan vaqti ham, turgan joyi ham, asirning mardligi to'g'risidagi patagoniyalikning obrazli gapi ham - hammasi, aftidan, kapitan Grantga taalluqli edi.

Ertasiga, **25-oktabrda**, sayohatchilarimiz yana yangi ishtiyoq bilan sharqqa yo'l oldilar. Ular mahalliy xalq tilida «*travezias*» deb ataladigan, kishini zeriktirib yuboradigan darajada bir xil, bepoyon qirdan o'tib bordilar. Loytuproqli yer shamol ta'sirida tep-tekis bo'lib ketgan: ko'z ilg'agunday masofada na bironta tosh ko'rinardi, na shag'al. Qaqrab yotgan biror unumsiz jar tagida yoki hindular kovlagan hovuzlar qirg'og'idagina toshlarni uchratish mumkin. Ahyon-ahyonda uch tomoni qoramtir pastakkina chakalaklar uchrab turardi. Ular orasida bitta-yarimta serbutoq oq daraxtlar ko'rinib qoladi - ularning o'zagi shirin, yoqimli va ser-suv bo'ladi. Pista daraxtlari - xanar chakalaklari va turli xil tikanli butalar uchray boshladi, bularning qoq quruqligi yerning puturdan ketganidan darak berardi.

26-oktabrda yo'l yurish ancha og'ir bo'ldi. Tezroq Koloradoga yetib olish kerak edi. Chavandozlar o'z otlarini shunday qistab haydardilarki, o'sha kuni kechga yaqinoq pampaslardan oqib o'tadigan go'zal daryoga yetib bordilar. Bu daryoning hinducha nomi Kobu-Lebu bo'lib, «ulug' daryo» degan ma'noni bildiradi. U pampaslarda uzoq masofani bosib o'tib, Atlantika okeaniga kelib quyiladi. Daryoning manbayi yaqinida qiziq bir hodisa ro'y beradi: okeanga yaqinlashgan sari suvning yerga singib ketishidanmi, yoki bug'lanib keti-

shidanmi – daryoning suvi tobora kamaya boradi. Fan kamdan kam uchraydigan bu hodisaning sababini hali tamomila aniqlagani yo‘q.

Koloradoga yetib kelishgach, geograf sifatida Paganel dastavval uning qizg‘ish loyqa suvida cho‘milib chiqishni lozim ko‘rdi. U daryoning juda chuqurligiga hayron qoldi – buning sababi kun isib ketgach, qor erib, suvning ko‘paygani edi. Buning ustiga daryo shunday keng ediki, otlar undan suzib o‘tolmasdi. Sayohatchilarimiz daryoning yuqori oqimiga qarab borar ekanlar, baxtdan bo‘lib, ko‘p o‘tmay hindu usulida yaxshi egiladigan tayoqlardan to‘qib, qayish bilan mahkam bog‘langan osma ko‘priknı uchratdilar. Kichkina otryad shu ko‘prikdan daryoning chap sohiliga o‘tib, tunashga to‘xtadi.

Yotib uxlashdan oldin Paganel Koloradoning qayerdan oqib o‘tayotganini aniq belgilamoqchi bo‘ldi. Bu vazifani bajargach, u juda hafsala bilan daryoni xaritagaga tushirdi – nima ham qilsin, Tibet tog‘lari orasidan oqib o‘tadigan Yaru-Dzangbo-Chu daryosi juda uzoqda edi-da.

Keyingi ikki kunda – 27- va 28-oktabrda – sayohatchilarning yo‘lida hech qanday voqea yuz bermadi. Yo‘l hali ham bo‘m-bo‘sh, qoq dashtdan o‘tib borardi. Bundan ham bir xil, bundan ham zerikarli manzara bo‘lmasa kerak.

Lekin yer tobora zaxlasha bordi. *Kanadas* deb ataladigan suv bosib yotgan pastliklardan va suv o‘tlari bosib ketgan, hech qachon suvi arimaydigan mayda qumloq ko‘l – esteroslardan o‘tib bordilar. Kechqurun otlar Lankvem degan katta ko‘l oldiga kelib to‘xtadilar, bu ko‘lning suvida mineral moddalar juda ko‘p bo‘lganidan hindular uni Achchiq ko‘l deb atardilar. Bu ko‘l 1826-yilda Argentina qo‘shinlari hindular ustidan qilgan qirg‘inning guvohi bo‘lgan edi.

Sayohatchilarimiz shu yerda kundagidek tunash uchun to‘xtadilar, agar ko‘l atrofida maymunlar bilan yovvoyi it galalari bo‘lmaganda tun tinch o‘tgan bo‘lardı. Bu sershovqin jonivorlar, sayohatchilar sharafiga bo‘lsa kerak, ularning qulog‘ini batangga keltirib, kechasi bilan shunday bir yovvoyi simfoniya ijro etib chiqdilarki, kelajakda biror kompozitor buni ma‘qul ko‘rsa ham ehtimol.

O' n yettinchi bob

PAMPASLAR

Argentina pampaslari o'ttiz to'rtinchi va qirqinchi janubiy kengliklar orasida cho'zilib yotadi. «Pampa» araukancha so'z bo'lib, «o't bosgan tekislik» degan ma'noni bildiradi, bu nom esa bu yerlardagi qirlarga juda mos tushgan. Pampaslarning g'arbiy qismida o'sadigan daraxtsimon mimozalar va sharqiy qismdagi barra o'tlar unga o'ziga xos husn bag'ishlaydi. Bu o'simliklarning hammasi yerning ustki qatlamiga ildiz otadi, uning tagida qizil yoki sariq qum aralash tuproq qatlami bor.

Amerika pampaslari ham xuddi Ulug' Ko'llar mamlakatidagi savannalar yoki Sibiriya cho'llari singari o'ziga xos geografik hodisadir.

Pampaslarning iqlimi kontinental bo'lganidan qishining sovuqroq va yozining issiqroq bo'lishi bilan Buenos-Ayres viloyati iqlimidan farq qiladi. Paganelning so'ziga qaraganda, okean yozda emib olgan issiqni qishda sekin-asta yerga berar ekan. Ana shuning uchun materikning ichkari qismidagi iqlimga qaraganda orollar iqlimi mo'tadilroq bo'ladi¹. Pampaslar g'arbiy qismining iqlimi ana shuning uchun Atlantika okeani sohillaridagi iqlimdan farq qiladi. Pampaslarning g'arbiy qismida qishda qahraton sovuq, yozda jazirama issiq bo'ladi, ob-havo keskin o'zgarib turadi. Kuzda, ya'ni aprel va may oylarida ko'p yomg'ir yog'adi. Lekin biz tasvir qilayotgan paytda havo quruq, kun nihoyatda issiq edi.

Tong paytida sayohatchilar oldindan yo'nalishni aniqlab olib, yana yo'lga tushdilar. Daraxt va butalarning ildizi bilan mahkamlangan yer tamomila qattiq bo'lib qoldi. Medanoslar hosil qiladigan mayda qum tamom bo'ldi, havoda to'zg'ib yurgan chang ham orqada qoldi.

Otlar baland o'sgan o'tlar orasidan dadil yurib borardilar. Hindular bu o'tlar orasiga kirib momaqaldiroqdan yashirinadilar. Har zamonda majnuntollar va chuchuk suvli yer yaqinida o'sadigan mahalliy *gygne-rium argenteum* o'simliklari o'sib yotgan zaxkash past-

¹ Islandiyada qish Lombardiyadagigina qaraganda yumshoq bo'lishining sababi shu (*Jyul Vern izohi*).

liklar uchrab qolardi, lekin ular tobora kam uchray boshladi. Bunday pastliklarda suvni ko'rish bilan otlar paytdan foydalanib, go'yo suv zaxira qilib olishga uringandek to'yib suv ichib olardilar. Talkav atrofni ko'zdan kechirib va juda xavfli zaharli ilon - *xolinas*larni cho'chitib, oldinda borar edi, bu xolinaslarning chaqishidan hatto buqalar bir soatga qolmay o'ladi. Talkavning epchil oti xo'jayinining orqasidan ketayotganlarga yo'l ochib, qalin o'sgan butalar ustidan sakrab-sakrab borardi.

Bu tekis qirlardan yurish qiyin emas edi, shuning uchun otryad tez ilgariilib bordi. Qir hech o'zgarmasdi: yuz mil atrofda biror katta tosh u yoqda tursin, mayda shag'al ham uchramasdi. Yurakni siqib yuboradigan darajadagi bunchalik bir xil manzara hech qayerda bo'lmasa kerak! Hech kim hech narsa ko'rmaydigan bu xildagi yo'lda ham qiziqadigan biror narsa topa olish uchun Paganel singari shavq-zavqqa to'lgan olim bo'lish kerak. Uning diqqatini nima tortardi? U bu savolga javob berishga qiynalgan bo'lardi. Uning diqqatini biror buta yo, ehtimolki, o't tortardi. Ammo sergap olimning gapga tushib ketishi uchun o'sha ham kifoya edi. Paganel darhol Robertga dars bera boshlar, bola ham unga jon deb quloq solardi.

29-oktabr kuni ham yo'lovchilar ertalabdan kechgacha o'sha bir xil manzarali qirdan yo'l yurdilar. Kunduz soat ikkilarda chavandozlar oppoq oqarib ketgan uyum-uyum suyaklarni ko'rdilar. Bu katta bir qoramol podasining qoldiqlari edi. Lekin suyaklar podadagi mollarning yo'l-yo'lakay holdan toyib yiqilib o'lganini ko'rsatmasdi, ya'ni har yer-har yerda sochilib yotmasdi. Shuning uchun kichkinagina bir maydonchada nima uchun shunchalik ko'p hayvon skeletlari yig'ilib qolganini hech kim aytib berolmasdi. Buning sababini hatto Paganel ham bilmasdi, shuning uchun u buni Talkavdan so'radi. Olimning savoliga javob berish Talkavga qiyin emas edi shekilli, darhol allanarsa deb javob berdi.

Geografiya olimining: «Yo'g'-el» deb qichqirib yuborishi va bunga Talkavning ishonch bilan bosh silkitib javob berishi sayohatchilarni ham juda qiziqitirdi.

– Nima ekan? – deb so'radilar ular, Paganeldan.

– Osmondan tushgan o‘t, – deb javob berdi geografiya olimi.

– Nima? Yashin shunchalik qirg‘in qilibdimi? – dedi Tom Ostin. – Besh yuz boshli qoramol podasini o‘ldirsa-ya!

– Talkav shunday deyapti, u yanglishmaydi. Uning izohiga men ishonaman, chunki pampaslarda momaqaldiroq juda dahshatli bo‘ladi. Ishqilib, biz ham uning qahriga uchramasak bo‘lgani!

– Kun juda isib ketdimi, – dedi Vilson.

– Termometr soyada o‘ttiz daraja issiqni ko‘rsatayotgan bo‘lishi kerak, – deb javob berdi Paganel.

– Bu meni ajablantirmaydi, – dedi Glenarvan, – men a‘zoyi badanimda elektr zaryadlari jimirlayotganini sezib turibman. Lekin bunday issiq uzoq davom etmasa kerak.

– Aksincha, – dedi Paganel, – ufqda qilt etgan tutun ham ko‘rinmagandan keyin havo o‘zgarar deb umid qilishga hech qanday asosimiz yo‘q.

– Ana shunisi yomon-da, – dedi Glenarvan, – otlarimiz jaziramada issiqlab ketdi. Sen-chi, o‘g‘lim, isib ketmayapsanmi? – deb so‘radi u Robertdan.

– Yo‘q, ser, – deb javob berdi bola, – men issiqni yaxshi ko‘raman. Issiq – yaxshi narsa!

– Ayniqsa qishda, – ma‘nodor qilib gap qistirdi mayor, sigarasini tutatib.

Keçqurun qamish tomli tashlandiq bir kulba – *rancho* yonida tunagani to‘xtashdi. *Rancho* oldida atrofi poyalar bilan to‘silgan bir ayvoncha bor edi, devorlari qiyshayib qolgan bo‘lsa ham, har holda, otlarni tulki-lardan himoya qilishga yarardi. Bu ayyor yirtqichlar otlarning o‘ziga zarar yetkaza olmasa ham, no‘xtalarini g‘ajib ketadi, keyin otlar bundan foydalanib, qochib ketishi mumkin.

Ranchodan bir necha qadam narida bir chuqurcha bor edi, aftidan, u o‘choq edi, chunki ichida sovib qolgan kul ko‘rinib turardi. Ranchoning ichida kursilar, ho‘kiz terisidan qilingan so‘ri, kotelok, six va *mate*, ya‘ni Janubiy Amerikada rasm bo‘lgan, choy o‘rnini bosadigan quruq o‘tni damlash uchun choynak bor edi. Uni ham boshqa ko‘pgina Amerika ichimliklari singari naycha bilan so‘rib ichadilar. Paganelning ilti-

mosi bilan Talkav bir necha piyola mate hozirladi, sayohatchilarimiz odatdagi ovqatlarini mate ichib yedilar, bu ichimlik hammaga ham juda yoqib tushdi.

Ertasiga, 30-oktabr kuni quyosh issiq tuman orasidan nur sochib, yerni juda qizdirib yubordi. Shu kuni havo juda isib ketdi, qirda esa, baxtga qarshi, issiqdan yashirinadigan joy yo'q edi. Lekin kichkina otr-yad mardlik bilan yana sharqqa qarab yo'l oldi. Yo'lda bir necha marta katta-katta podalar uchradi. Jazirama issiqda ovqat yeyishga ham holi qolmagan mollar erinchoqlik bilan o'tga ag'anab yotar edilar. Qorovullar, to'g'rirog'i, cho'ponlar yo'q edi. Issiqdan jon saqlash uchun qo'ylarning sutini emishni o'rganib olgan itlarga sigir va buqalardan iborat katta-katta podalarni qo'riqlar edi. Bu yerlarda qoramol juda yuvosh bo'ladi.

Tush paytiga borib qir manzarasi o'zgarib boshladi, doim bir xil manzaraga o'rganib qolgan sayohatchilar buni darhol sezdilar. Boshqoli o'simliklar tobora kamroq uchray boshladi. Ularning o'rniga ingichka qariqiz o'tlari bilan bo'yi to'qqiz fut keladigan baland-baland qushqo'nmaslar uchray boshladi, bu o'tlarni butun dunyodagi eshaklar jon deb yegan bo'lardi. U yer-bu yerda tikanli pastak-pastak ko'm-ko'k butalar ko'zga chalinib qolardi. Ular qanchalik ko'rimsiz bo'lmasin, qaqrab yotgan yerlarda o'shalar ham ko'zni quvontirardi. Dashtning loytuproqli qatlamlariga singib qolgan namlik o'tloqlarni sug'orardi, shuning uchun ham ko'm-ko'k o'tlar gilamday o'sib yotar va go'zal manzara berardi. Lekin endi bu gilamning yirtilgan, toptalgan joylari tez-tez uchray boshladi-yu, uning tagi ko'rinib yerning zaif, shirasiz bo'la borayotgani sezilib qoldi. Talkav sayohatchilarning diqqatini bunga jalb qildi.

- Bu o'zgarishdan shaxsan men mutlaqo xafa emasman, - dedi Tom Ostin. - Qayerga qarama - nuqul o't. Kishining joniga ham tegib ketar ekan.

- To'g'ri-ya, - dedi mayor, - lekin o't bor joyda, suv ham bo'ladi-da.

- E, suvdan kamchilgimiz yo'q, - deb gapga aralashdi Vilson, - buning ustiga yo'lda ham albatta biron daryoni uchratamiz.

Bu gapni Paganel eshitgan bo'lganda Kolorado bilan Argentina viloyatidagi tog'lar orasida daryolar juda

kam deb aytgan bo'lar edi, albatta. Lekin xuddi shu paytda u Glenarvanning diqqatini tortib qolgan bir holni tushuntirib berayotgan edi.

Anchadan beri havoni tutun hidiga o'xshash bir hid bosgan edi, lekin chor atrofda ko'z ilg'aydigan yerda bironta ham o't ko'rinmasdi. Uzoqroq biror yerga o't tushganidan nishon ham ko'rinmasdi. Shuning uchun buni oddiy bir narsa deb izohlab bo'lmas edi. Ko'p o'tmay kuyuk hidi shunday kuchayib ketdiki, Talkav bilan Paganeldan boshqa hamma bunga juda hayron bo'ldi. Har qanday hodisani ham darhol izohlab berishga hozir bo'lgan Paganel hamrohlarining savoliga bunday javob berdi:

– Siz bilan biz yonayotgan o'tni ko'rmayapmiz, lekin tutun hidi dimog'imizga kelib urilyapti. Vaholanki, olov bo'lmasa, tutun ham bo'lmaydi, bu matal Yevropada qanchalik to'g'ri bo'lsa Amerikada ham shunchalik to'g'ri. Demak, qayerdadir o't yonayotgan bo'lishi kerak. Lekin pampaslar shunday tekis bir joyki, havo oqimi bu yerlarda hech qanday to'siqqa duch kelmaydi, shuning uchun yonayotgan o'tning hidi ko'pincha yetmish besh milcha masofadan ham sezilib turadi.

– Yetmish besh mil dedingizmi? – ishoninqiramay so'radi mayor.

– Ha, yetmish besh mil, – dedi Paganel. – Yana shuni ham qo'shimacha qilishim kerakki, bu yong'inlar juda katta maydonni qoplab oladi va ba'zi vaqtlarda nihoyatda kuchli bo'ladi.

– Qirga kim o't qo'yadi? – deb so'radi Robert.

– O'tlar jazirama issiqdan qurib qolsa, ba'zan yashin tushib yonib ketadi, ba'zan esa hindular o't qo'yib yuboradilar.

– O't qo'yishning nima keragi bor ularga?

– Qanchalik to'g'riligini bilmadim-ku, lekin hindularning aytishicha, yong'indan keyin o'tlar yaxshiroq o'sar emish. Bu kul bilan cho'lni o'g'itlash bo'lar edi. Ammo men, bu yong'inlardan maqsad mol podalarining joniga tegadigan milliard-milliard kanalarni yo'qotish bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

– Lekin bunday katta yong'inlar vaqtida qirda o'tlab yurgan ba'zi hayvonlar ham yonib ketishi mumkin-ku, – dedi mayor.

– Butun-butun podalar o‘t ichida qolib ketgan vaqtlar bo‘lgan, biroq sonsiz-sanoqsiz podalar ichida bu nima degan gap!

– Men hindularning g‘amini qilayotganim yo‘q – bu ularning ishi, – dedi Mak-Nabbs, – men pampaslardan o‘tadigan sayohatchilarni o‘ylayapman. Ular ham yong‘in ichida qolib ketishi mumkin-ku, axir?

– Bo‘lmasam-chi, bo‘lmasam-chi! – dedi zavq bilan Paganel. – Ba‘zan shunday ham bo‘ladi, shaxsan men bunday manzarani jon deb tomosha qilgan bo‘lar edim.

– Bu gap faqat bizning olim do‘stimizdan chiqishi mumkin, – dedi Glenarvan. – U fanga shunday berilib ketganki, fan yo‘lida tiriklayin yondirib yuborsalar ham yo‘q, demaydi!

– Yo‘g‘-e, aziz Glenarvan, men Kuper asarlarini o‘qiganman, uning «Charm Paypoq» seriyasidagi asarlari menga bostirib kelayotgan yong‘indan qanday qilib saqlanishni o‘rgatdi. Buning omili shuki, atrofdan radiusini bir necha sajen qilib o‘tini yulib tashlash kerak. Bundan ham oson ish bormi?! Shuning uchun men yong‘inning bostirib kelishidan aslo qo‘rqmayman, aksincha, iloji boricha uni ko‘rishga harakat qilaman.

Lekin Paganelning orzusi ro‘yobga chiqmadi, uning kabob bo‘lishiga sal qoldi, lekin buning sababi yong‘in emas, quyoshning ayovsiz nur sochishi edi. Tropik issiqning zo‘ridan otlar harsillab, zo‘rg‘a nafas olar edilar. Har zamonda bir uchrab qoladigan bir parcha bulut quyosh yuzini to‘sgandagina qirga sal soya tushar edi. Shunday paytlarda chavandozlar otlarini qistab haydashar, shamol sharqqa surib borayotgan bulut soyasidan chiqmay yo‘l yurishga tirishar edilar. Lekin ko‘p o‘tmay otlar bulutdan orqada qolib ketar, yuzi hech narsa bilan to‘silnagan quyosh qovjirab yotgan pampaslarni yana zo‘r berib qizdira boshlar edi.

Yetarli suv zaxiramiz bor deganda Vilson o‘z hamrohlarining bu jazirama issiqda qattiq chanqashlarini hisobga olmagan edi, yo‘limizda bironta daryo uchrab qoladi degan gapni u juda o‘ylamay, o‘rinsiz aytib qo‘ygan edi. Amalda esa bironta ham daryo ko‘rinmasdi [yer kaftdek tekis bo‘lgani uchun suvning oqib o‘tishiga noqulay edi], hatto hindular kovlagan hovuzlar ham qurib qolgan edi. Qirning har mil sari tobora qaqrab borayotganini ko‘rgan Paganel bunga

Talkavning diqqatini jalb qildi va endi u qayerdan suv topishi mumkinligini so'radi.

- Salinas ko'lida, - deb javob berdi hindu.
- Unga qachon yetamiz?
- Ertaga kechqurun.

Argentaliklar pampaslarda yo'l yurganlarida odatda quduq qaziydilar va bir necha sajen chuqurlikdan suv chiqaradilar. Lekin sayohatchilarimizda bunga kerakli asbob-uskuna yo'q edi, shuning uchun ular quduq qazib suv chiqara olmas edilar. Suv porsiyasini kamaytirishga to'g'ri keldi, kichkina otryad chanqoqdan u qadar qattiq qiynalayotgan bo'lmasa ham, har holda to'yib suv ichish imkoniyatiga ega emasdilar.

O'ttiz mil yo'l yurgach, kechqurun tunash uchun to'xtadilar. Maza qilib uxlab, hordiq chiqarmoqchi edilar, lekin iskaptoparlar bilan chivinlar buluti ularga tinchlik bermadi. Bu hasharotlarning paydo bo'lishi shamol yo'nalishi o'zgarishidan darak berar edi. Haqiqatan ham ko'p o'tmay shamolning yo'nalishi o'zgardi: shimoldan esa boshladi. Bu la'nati hasharotlar esa shamol janubdan yoki janubi g'arbdan esgandagina g'oyib bo'ladilar.

Mayor bunday mayda-chuyda qulaysizliklarga vazminlik bilan chidadi, Paganel esa, aksincha, nihoyatda darg'azab bo'ldi. U iskaptopar bilan chivinlarning boshiga la'natlar yog'dirar, chivinlar chaqa berib bezilab qolgan badaniga surish uchun dori-darmon olmagandan zorlanardi. Mayorning zo'r berib tabiatshunoslarga ma'lum bo'lgan uch yuz xil hasharotlarning faqat ikki xiligagina duch kelganiningizga xursand bo'lsangiz-chi, deb ovutishga urinishiga qaramay, Paganel uyqudan ta'bi xira bo'lib turdi. Ammo otryad yo'lga tushishga otlanganda Paganelni shoshirishga zarurat bo'lmadi, negaki bugun Salinas ko'lga yetib olishlari kerak edi. Otlar juda horib qolgan edi. Sayohatchilar ularning g'amini yeb, suvdan o'z hissalarini kamaytirgan bo'lishlariga qaramay, otlar chanqoqdan o'layozgan edilar. Suvsizlik tobora ko'proq ta'sir qila bordi, chang-to'zon olib kelayotgan shimoliy shamol esa borgan sari chidab bo'lmaydigan darajada nafasni bo'g'a boshladi.

Oldinda ketayotgan Myulredi birdan otini orqaga burib, hamrohlariga hindular otryadi yaqinlashib ke-

layotganini xabar qildi. Bu uchrashuvga hamma har xil qaradi. Glenarvanning xayoliga darhol: ulardan «Britaniya»da halokatga uchraganlar to'g'risida biror narsa eshitarmiz degan fikr keldi. Talkavning esa ko'chmanchi hindular bilan uchrashuvga u qadar xohishi yo'q edi, chunki yo'l boshlovchi ularni talovchilar deb hisoblar, ulardan nariroq yurishni afzal ko'rardi.

Uning ko'rsatmasi bilan kichkina otryad bir yerga to'planib, qurollarini shay qilib turdi. Har qanday tasodifga tayyor turish kerak edi.

Ko'p o'tmay hindular otryadi ko'rindi. Otryad katta emasdi, hammasi bo'lib o'n kishidan iborat edi. Bu patagoniyalikni tinchlantirdi. Hindular yuz qadamcha joyga kelib qoldilar. Endi ularni yaxshiroq ko'rish mumkin edi. Ular 1833-yilda **general Rozas** tor-mor qilgan pampaslik hindular qabilasidan edilar. Baland bo'lyi, keng, do'ng peshanali, qoramag'iz tanli bu odamlar hindu irqining ajoyib namunasi edi.

Ular guanako va sassiqko'zan terisidan tikilgan kiyim kiygan, uzunligi yigirma futcha keladigan nayza, pichoq, palaxmon, bolas va lasso bilan qurollangan edilar. Otda o'tirishlaridan, mohir chavandoz ekanlari ochiq ko'rinib turardi.

Hindular sayohatchilardan yuz qadamcha narida to'xtashdi-da, baqirib-chaqirib, qo'llarini paxsa qilib maslahatlasha boshlashdi. Glenarvan otini ularga tomon haydadi. Lekin u ikki sajen ham yurmasdan, hindular otryadi otlarini shartta burib, hayron qolar darajada tezlik bilan ko'zdan g'oyib bo'ldi. Sayohatchilarning holdan toygan otlari ularni quvib yeta olmadi, albatta.

– Obbo qo'rqoqlar-ey! – deb qichqirdi Paganel.

– Yaxshi odamlar bunchalik tez qochib qolmaydilar, – deb qo'shib qo'ydi Mak-Nabbs.

– Bu qanday hindular? – deb so'radi Paganel Talkavdan.

– Gauchoslar.

– Gauchoslar, – deb takrorladi Paganel, hamrohlariga o'girilib, – gauchoslar! Unda bunchalik ehtiyot choralari ko'rmasak ham bo'lar ekan, chunki hindulardan qo'rqishning hech hojati yo'q.

– Nima uchun? – deb so'radi mayor.

– Chunki bu gauchoslar – beozor dehqonlar.

- Siz shunday deb o'ylaysizmi, Paganel?

- Albatta. Ular bizni qaroqchilar deb o'ylashdi, shuning uchun qochib ketishdi.

Bu hindularning kim bo'lishidan qat'i nazar ular bilan gaplasha olmaganidan Glenarvan juda xafa bo'ldi.

- Yanglishmasam, gauchoslar hech ham beozor dehqonlar emas, - dedi mayor.

- Nimalar deyapsiz, mayor! - dedi Paganel.

So'ng geografiya olimi bu etnologik masala to'g'risida shunday jon kuydirib gapirib ketdiki, hatto mayorni bahslashishga tortishgacha bordi, shunda mayor odatda o'zini doim xotirjam tutishiga qaramay:

- Menimcha, siz nohaq bo'lsangiz kerak, Paganel, - dedi.

- Nohaq dedingizmi? - qaytarib so'radi Paganel.

- Ha. Ularni hatto Talkav ham yo'lto'sarlar deb o'yladi, bu o'lkani u yaxshi biladi.

- Bilsa nima bo'libdi? Bu safar Talkav yanglishdi, - deb e'tiroz bildirdi biroz keskinroq qilib Paganel. - Gauchoslar - tinch dehqon, ular dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadilar, xolos; pampaslar to'g'risida yozgan bir kitobchamda men o'zim shunday deb yozganman, kitobcham esa bir qadar keng tarqalgan.

- Demak, yanglishibsiz, janob Paganel.

- Men yanglishibmanmi, janob Mak-Nabbs?

- Parishonligingiz natijasida shunday bo'lgan, - deb davom etdi mayor, - shuning uchun kitobchangizning yangi nashrida ba'zi tuzatishlar kiritishga to'g'ri keladi.

O'zining geografik ma'lumotlari shubha ostida qolgani ustiga, yana hazil-mazax ham qilinayotganini ko'rgan Paganelning jahli chiqa boshladi.

- Shuni bilib qo'yingki, muhtaram janob, - dedi u mayorga, - mening kitoblarim bunday tuzatishlarga muhtoj emas!

- Yo'q, ayniqsa hozirgi masalada bunga muhtoj, - deb e'tiroz bildirdi birdan o'jarligi tutib qolgan mayor ham.

- Janob, siz bugun nima uchundir tirnoq ostidan kir izlab qoldingiz, - deb gapni shart kesdi Paganel.

- Siz esa nima uchundir jirtakilik qilyapsiz, - deb uning gapini rad etdi mayor.

Arzimagan narsa to'g'risida boshlangan tortishuv birdan kattalashib ketdi, shuning uchun Glenarvan gapga aralashishni lozim ko'rdi.

– Shubhasiz, tortishuvinglarda tirnoq ostidan kir qidirish ham, jirttakilik qilish ham bor, rostini aytsam, ikkalangiz ham meni hayron qoldirdinglar, – dedi u.

Talkav ikki do'stning nima to'g'risida g'ijillasha-yotganini tushunmasa ham, ularning urishib qolishga tayyor ekanini sezib oldi. U jilmayib qo'ydi-da, xotir-jamlik bilan:

– Shamol shimoldan esyapti-da, – dedi.

– Shamol emish! – dedi Paganel. – Shimoldan esgan shamolning bunga nima aloqasi bor?

– Bo'lmasa-chi, – dedi Glenarvan, – ta'bingizni tirriq qilayotgan ham o'sha shimoldan kelayotgan shamol. Esimda, Amerikaning janubida shimoldan esgan shamol nerv sistemasiga kuchli ta'sir qiladi, deb bir qulog'imga chalingan edi.

– Avliyo Patrik haqqi, to'g'ri aytdingiz, Eduard! – dedi mayor va qah-qah urib kulib yubordi.

Lekin juda achchig'i chiqib ketgan Paganel bo'sh kelmadi va Glenarvanga yopishdi, Glenarvanning gapga aralashuvi unga o'rinsiz hazilday tuyulgan edi.

– Demak, sizning o'ylashingizcha, mening asablarim joyida emas ekan-da, ser?

– Albatta, Paganel, buning sababi esa shimoldan esgan shamol. Bu shamol bu yerlarda xuddi Rim atrofidagi shimoliy shamolga o'xshab odamni ko'pincha hatto jinoyat qilib qo'yishgacha olib boradi.

– Jinoyatga dedingizmi! – deb qichqirib yubordi geografiya olimi. – Hali men jinoyatchiga o'xshab qoldimmi?

– Men bunday deganim yo'q.

– Yaxshisi, meni so'yib qo'ymoqchisan deb qo'ya qoling!

– Shunday qilmasangiz deb qo'rqaman! – dedi Glenarvan o'zini ortiq kulgidan tutolmay. – Yaxshi hamki shamol shimol tomondan faqat bir kungina esadi.

Glenarvanning so'zini eshitgan sayohatchilar xaholab kulib yubordilar.

Paganel yolg'izlikda jahldan biroz tushish uchun otini niqtab oldinga choptirib ketdi. Chorak soatchadan keyin u nima to'g'rida g'ijillashib qolganini ham, jahli chiqqanini ham esidan chiqarib yubordi. Doim

quvnoq bo'lgan geografiya olimi ana shu tarzda birpas qizishib oldi, lekin buning sababi, Glenarvan aytgandek, shimoldan esgan shamol edi.

Kechqurun soat sakkizlarda biroz oldinroqda bo'rayotgan Talkav Salinas ko'liga yaqinlashib kelganlarini xabar qildi. Chorak soatdan so'ng otryad Salinas ko'lining tik qirg'og'idan pastga tushib bormoqda edi. Lekin ko'lni ko'rib sayohatchilarning hafsalasi pir bo'ldi: ko'l qurib qolgan edi.

O' n s a k k i z i n c h i b o b

CHUCHUK SUV AXTARIB

Salinas ko'li S'erra-Bentan bilan S'erra-Guamini o'rtasida cho'zilib yotgan kichkina-kichkina ko'llarning eng oxirgisi. Ilgari Buenos-Ayresdan Salinas ko'liga tuz chiqarish uchun butun-butun ekspeditsiyalar kelar edi, chunki ko'lning suvida natriy xlor juda ko'p. Lekin hozir jazirama issiq bo'lganidan ko'lning suvi qurib qolgan, shuning uchun ko'lning tagiga cho'kib qolgan tuz uni kattakon oynaga o'xshatib qo'ygan.

Talkav Salinas ko'lidan suv topamiz deganda ko'lning sho'r suvini emas, unga kelib quyiladigan chuchuk suvli juda ko'p ariqlarni ko'zda tutgan edi. Lekin hozir ular qurib qolgan ekan. Hamma suvni o't purkayotgan quyosh ichib qo'ygan edi. Salinas ko'lining qurib qolganini ko'rganda chanqoqdan sillasi qurigan sayohatchilarning nima ahvolga tushganini ko'z oldingizga keltirish qiyin emas.

Darrov biror chora ko'rish kerak edi. Meshlarda qolgan ozgina suv ham yarim buzilib, chanqoqni bosa olmaydigan bo'lib qolgan. Chanqoq esa tobora vujudni o'rtab borayotir. Shuning uchun bu hayotiy zarurat oldida ochlik ham, charchoq ham bilinmay qoldi. Darmoni qurigan sayohatchilar hindular bir kichikroq jar tagiga qurib, tashlab ketgan charm palatka – *ruxa* ichiga joylashdilar. Otlar ko'lning balchiqli sohilida yotib, suv o'tlari bilan quruq qamish poyalarini ijirg'anib chaynar edilar.

Hamma ruxaga kirib joylashgach, Paganel Talkavga murojaat qilib, endi nima qilish kerakligi to'g'risida

uning fikrini so'radi. Geograf ham, hindu ham tez-tez gapirar edilar, shunday bo'lsa ham Glenarvan ularning suhbatidan bir necha so'zni ilib ola oldi. Talkav xotirjamlik bilan so'zlar, Paganel esa ularning ikkalasi uchun ham zo'r berib imo-ishoralar qilardi. Ularning dialogi bir necha minutga cho'zildi, so'ng patagoniyalik ikkala qo'lini ko'kragi ustiga qovushtirib oldi.

– U nima dedi? – deb so'radi Glenarvan. – nazarimda, u ikkiga bo'linishni maslahat berayotganga o'xshaydi.

– Ha, ikki guruhga bo'linishni maslahat beryapti, – deb javob berdi Paganel. – Oti juda sudralib qolganlar o'ttiz yettinchi paralleldan sekin-asta ilgarilab boraverinlar. Oti hali ancha bardam bo'lganlar esa birinchi guruhni orqada qoldirib, bu yerdan o'ttiz bir mil¹ narida San-Lukas ko'liga quyiladigan Gaumini daryosini qidirib borishlari kerak. Agar bu daryoning suvi yetarli bo'lsa, ikkinchi otryad birinchisini o'sha yerda kutib turadi. Agar Guamini ham qurib qolgan bo'lsa, otryad keyinda kelayotganlar bekorga yo'l bosmasligi uchun orqaga qaytadi.

– Unda nima qilamiz? – deb so'radi Tom Ostin.

– Unda yetmish mil janubdagi S'erra-Bentan yonbag'irlariga tushib borishga to'g'ri keladi, u yerda daryo juda ko'p.

– Yomon maslahat emas, – dedi Glenarvan, – biz darhol shunday qilishimiz kerak. Mening otim suvsizlikdan hali unchalik qiynalayotgani yo'q, shuning uchun men Talkavga hamroh bo'lishim mumkin.

– Ser, meni ham birga olib keting! – deb iltimos qildi Robert, go'yo ular sayr-tomoshaga borayotgandek.

– Bizga yetib yura olasanmi, o'g'lim?

– Bo'lmasam-chi! Otim yaxshi. Uchsam deb turibdi... Maylimi, ser?.. Olib keta qoling!

– Xo'p, bora qol, o'g'lim, – deb ko'ndi Glenarvan. Sirasini aytganda, u Robertning o'zi bilan birga bo'lishidan xursand edi.

– Nahotki, uch kishi biron-bir yerdan muzday, toza suv topa olmasak!

– Men-chi? – deb so'radi Paganel.

– Aziz Paganel, siz zaxira otryad bilan qolasiz, – dedi mayor. – Siz o'ttiz yettinchi parallelni ham, Gua-

¹ 50 kilometr (Muallif izohi)

mini daryosini ham, umuman pampaslarni yaxshi bilasiz, shuning uchun biz bilan qoling. Na Myulredi, na Vilson, na men – birontamiz Talkav tayin qilgan joyni topib borolmaymiz. Jasur Paganel boshchiligida esa biz hech qo‘rqmay olg‘a boraveramiz.

– Bo‘ysunishga to‘g‘ri keladi, – dedi geografiya olimi, otryadga boshliq qilib tayinlashganidan boshi osmonga yetib.

– Lekin parishonlikni tashlaysiz, – deb qo‘shib qo‘ydi mayor, – bizni hech lozim bo‘lmagan yerga, masalan, qaytadan Tinch okean bo‘yiga boshlab bormang tag‘ini!

– Aslida shunday qilib bir ta‘ziringizni berish kerak edi-ya, yaramas kishi! – dedi kulib Paganel. – Lekin Talkav bilan qanday gaplashasiz, aziz Glenarvan?

– Menimcha, patagoniyalik bilan gaplashishga hojat ham bo‘lmasa kerak, – dedi Glenarvan, – lekin juda zarur bo‘lib qolganda men bilgan ispan so‘zlari bir amallab tillashib olishishimizga kifoya qilsa kerak.

– Bo‘lmasa oq yo‘l, qimmatli do‘stim, – dedi Paganel.

– Oldin ovqatlanamiz, – dedi Glenarvan, – keyin, iloji bo‘lsa, yo‘lga chiqishdan oldin jinday-jinday mizg‘ib olamiz.

Sayohatchilar quruq ovqat yeb oldilar, lekin bu ularni qondirmadi, albatta, keyin esa yotib olishdan boshqa durustroq ish bo‘lmaganidan darrov uyquga yotdilar. Paganelning tushiga shaldirab oqayotgan ariqlar, sharsharalar, daryolar, anhorlar, hovuzlar, hatto suv to‘la grafinlar, xullas, ichadigan suv bilan aloqasi bor narsalarning hammasi kirib chiqdi.

Bu chidab bo‘lmaydigan azob edi.

Ertasiga ertalab soat oltida Talkav, Glenarvan va Robert Grantlarning oti egarlandi. Otlarni meshlarda qolgan suv bilan sug‘ordilar. Ular suvni yutoqib, ammo hech qanday lazzatlanmay ichdilar, chunki meshlardagi suv ko‘ngil aynatadigan edi. Otlarni sug‘orib bo‘lishgach, Talkav, Glenarvan va Robert egarga o‘tirdilar.

– Xayr! – deb qichqirib qolishdi orqadan boradiganlar.

– Ishqilib, orqaga qaytmaslikka harakat qilinglar! – deb qo‘shib qo‘ydi Paganel.

Ko'p o'tmay Talkav, Glenarvan va Robert geografiya olimi boshchiligida qoldirilgan otryad turgan yerdan ko'rinmay ketdilar.

Chavandozlar hozir o'tib borayotgan *Desertio de las Salinas*, ya'ni Salinas ko'li atrofidagi cho'l sarg'ayib, qovjirab yotgan, balandligi o'n futcha keladigan butalar, pastak-pastak mimoza [kurra-mamel]lar va yumma degan butasimon sersoda o'simliklar o'sib yotgan loytuproq tekis yer edi. Ahyon-ahyonda oftobda ko'zni jimirlashtirib yuboradigan darajada yaltirab yotgan tuz maydonlari uchrab qolardi. Agar kun jazirama is-siq bo'lmaganda bu barreroslarni muzlab yotgan yerlar deb o'ylash mumkin edi. Qaqrab, qovjirab yotgan yer bilan quyoshda yaltirab turgan tuz maydonlari bir-biridan keskin farq qilar va qirga o'ziga xos g'alati bir tus berardi.

Agar Guamini daryosi qurib qolgan bo'lsa, sa-yohatchilarimiz tushib borishi lozim bo'gan sakson milcha janubroqdagi S'erra-Bentanning manzarasi tamom boshqacha. «Bigl» nomli kemada 1835-yilda bu yerga kelgan ekspeditsiyaning boshlig'i kapitan Fits-Roy tomonidan tekshirilgan bu o'lka nihoyatda serhosil. Hindu yerlaridagi eng yaxshi, chiroyli o'tloqlar shu yerda. S'erra-Bentanning shimoli g'arbiy yonbag'ri barra o'tlar bilan qoplangan; pastroqda turli xil o'simliklarga boy o'rmonlar cho'zilib ketgan. Bu o'rmonlarda muguz daraxtlari turiga kiradigan algarobo o'sadi, uning mevasini quritib yanchadilar, un qiladilar va hindular juda xush ko'radigan non yopadilar; unda yana Yevropadagi majnuntolga o'xshab ketadigan uzun-uzun, egiluvchan novdali oq kvebraxo, bulardan juda pishiq bo'ladigan qizil kvebraxo; salga yonib ketaverishi uchun tez-tez dahshatli yong'inga sabab bo'lib turadigan naubuday, gunafsharang guli piramidaga o'xshash bo'ladigan viraro; nihoyat, balandligi sakson futgacha yetadigan gigant timbo daraxtlari o'sadi, bitta timboning soyasida butun bir poda dam olishi mumkin. Argentinaliklar bu boy o'lkani o'zlariga bo'ysundirishga ko'p urinib ko'rdilar, ammo hindularning qarshiligini baribir sindirolmadilar.

O'lkaning bunday boy bo'lishining sababi tog'lardan oqib tushadigan suvlardan hosil bo'lgan juda ko'p soylarning shu yerdan o'tishi edi, albatta. Haqiqatan, bu

soylar eng jazirama issiqlarda ham qurib qolmas edi. Lekin bu yerga yetib borish uchun janubga qarab bir yuz o'ttiz mil yo'l yurishlari kerak. Ana shuning uchun oldin Guamini daryosi tomonga borish kerak, deganda Talkav shubhasiz haqli edi, chunki Guamini ham yaqinroq, ham sayohatchilarning yo'li ustida edi.

Uchala chavandozning oti tez chopib borardi. Bu ajoyib jonivorlar xo'jayinlari ularni qayerga bunchalik qistab haydayotganini tushungandek ildam borar edilar. Ayniqsa Tauka o'zini bardam sezardi. U qurib qolgan ariq va kurra-mamel butoqlari ustidan qushday uchib o'tardi. Glenarvan bilan Robertning otlari ham undan ibrat olib, Taukachalik epchillik bilan bo'lmasa ham, har holda dadil ketib borardilar. Egarga quyib qo'ygandek o'tirgan Talkav esa chavandozlarga ibrat edi.

Patagoniyalik Robertga tez-tez ko'z tashlab qo'yardi. Robertning egarga to'g'ri va mahkam o'tirganini, ko'kragini sal kerib, oyog'ini bo'sh ushlab, tizzalari bilan egarni qisib borayotganini ko'rgan Talkav qiyqirib o'zining undan mamnunligini bildirardi. Robert Grant haqiqatan ham hinduning maqtoviga arziydigan ajoyib chavandoz bo'lib qolgan edi.

- Barakalla, Robert! - dedi Glenarvan, bolaning ko'nglini ko'tarib. - Talkav sendan juda mamnunga o'xshaydi.

- Nimamdan mamnun bo'ladi, ser?

- Ot minishingdan.

- Men egarda mahkam o'tiribman, xolos, - dedi bola, xursand bo'lganidan qizarib.

- Hamma gap ana shunda, Robert, - deb davom etdi Glenarvan. - Juda kamtarinsan, lekin hozirdanoq aytib qo'ya qolay, sendan ajoyib sportchi chiqadi.

- Sportchi bo'lsam yaxshi-ku, - dedi kulib Robert. - Ammo otam meni dengizchi qilmoqchi. Bunga u nima derkin?

- Biri-biriga xalaqit qilmaydi. Hamma chavandozlar yaxshi dengizchi bo'la olmasalar ham, hamma dengizchilar yaxshi chavandoz bo'la oladilar. Reyaga minib o'tirganingda yiqilib ketmaslik uchun o'zingni mahkam ushlashni o'rganasan kishi, otni yugurib ketayotgan yerida taqqa to'xtatish, uni yonga, orqaga burish o'z-o'zidan bo'lib ketadigan tabiiy narsa.

- Bechora otam! - dedi bola. - Qutqarib olganingizda u sizdan shunday minnatdor bo'ladiki, ser!

- Sen uni juda sevasanmi, Robert?

- Juda, ser. Otam men bilan opamni shunday yaxshi ko'radiki, asti qo'yasiz! Uning fikri-yodi bizda bo'lardi. Har bir uzoq safarga borganida o'sha o'zi borgan hamma uzoq o'lkalardan bizga sovg'alar olib kelardi. Lekin, hammasidan yaxshisi, safardan qaytib kelgach, u biz bilan shunday mehr-muhabbat bilan gaplashar, bizni shunday erkalatar ediki, qo'yaverasiz! Eh, otam bilan yaqindan tanishsangiz, uni siz ham yaxshi ko'rib qolasiz! Meri unga o'xshaydi. Otamning ovozi ham. Merinikiga o'xshagan yushmoq, mayin. Dengizchining ovozi shunday bo'lishi qiziq-a, to'g'rimi?

- Ha, juda qiziq, Robert, - dedi Glenarvan.

- Men uni xuddi ko'rib turgandekman, - deb davom etdi bola, go'yo o'zi bilan o'zi so'zlashayotgandek. - Sevimli, aziz otam! Kichkinaligimda u meni tizzasida tebratib o'tirib, vatanimiz ko'llari to'g'risidagi eski shotlandcha ashulani aytardi. Hali ham har zamon-har zamonda o'sha ashulani g'ira-shira eslayman. Merining ham esida bor. Eh, qanday yaxshi ko'rar edik uni! Bilasizmi, men nazarimda odam otasini bunchalik yaxshi ko'rish uchun bola bo'lishi kerakmi deyman-da!

- Lekin uni izzat-hurmat qilish uchun katta bo'lish kerak, o'g'lim, - deb javob berdi yigitchaning samimiy yurak gaplaridan ta'sirlangan Glenarvan.

Ularning bu suhbatida vaqtida otlar yurishini sekinlatib, qadamlab keta boshladilar.

- Biz uni topamiz-a, to'g'rimi? - dedi bir necha minut jim borgan Robert.

- Ha, topamiz, - dedi Glenarvan. - Talkav bizga uning izini topib berdi, men unga ishonaman.

- Talkav - ajoyib hindu, - dedi bola.

- Shubhasiz.

- Bilasizmi, nima, ser?

- Oldin ayt-chi, bilish-bilmasinmni keyin aytaman.

- Men, atrofingizdagi odamlarning hammasini ham ajoyib odamlar demoqchiman: missis Elen, - men uni juda yaxshi ko'raman! - doim xotirjam mayor, kapitan Mangls, janob Paganel, keyin «Dunkan»ning sodiq va jasur matroslari!

- Bilaman buni, o'g'lim, - dedi Glenarvan.

- O'zingizning hammadan yaxshi ekaningizni ham bilasizmi?

- Yo'q, bunisini bilmas ekanman.

- Bo'lmasa bilib qo'ying, ser! - dedi Robert, Glenarvanning qo'lini shart tortib olib o'par ekan.

Glenarvan sekin bosh chayqab qo'ydi. U Robert bilan yana gaplashgan bo'lar edi, lekin Talkav orqada qolmanglar, tezroq yuringlar deb imo qilib qoldi. Orqada qolganlarni unutmanglik, vaqtni bekor o'tkazmaslik kerak edi.

Uchala chavandoz yana ot choptirib ketdilar. Lekin ko'p o'tmay, Taukadan boshqa ikki otning bir tarzda chopishga quvvati yetmasligi ko'rinib qoldi. Choshgohda otlarga bir soat dam berishga to'g'ri keldi. Otlar shunday holdan toygan ediki, jazirama issiqda qovjirab qolgan, nimjon *alfafaraga*, ya'ni yovvoyi bedaga qayrilib ham qaramadilar.

Glenarvanni tashvish bosa boshladi, chunki atrof hali ham qaqrab yotgan dasht bo'lib, bu juda yomon oqibatlariga olib borishi mumkin edi. Talkav jim o'tirardi, aftidan, u Guamini daryosining qurib qolgan-qolmaganini aniqlamay turib, umidsizlikka tushishning hojati yo'q, deb o'ylardi.

Shunday qilib, u yana yo'lga tushdi, shpor va qamchin bilan qistoqqa olingan otlar zo'rg'a qadamlab yura boshladilar, ulardan bundan ortig'ini kutib ham bo'lmasdi.

Talkav o'z hamrohlarini orqada qoldirib ketishi mumkin edi, agar shunday qilsa Tauka uni bir necha soatda daryo bo'yiga yetkazib borgan bo'lardi. Lekin u o'z hamrohlarini dasht o'rtasida yolg'iz tashlab ketishni o'ylamadi ham. Shuning uchun patagoniyalik uchar otining jilovini tortib borardi.

Tauka bunga bo'ysungisi kelmadi - u ikki oyoqlab turar, qattiq pishqirardi. Egasi esa uni sekin yurishga majbur qilishdan ko'ra ko'proq gap tushuntirar, erkalatardi. Axir Talkav ot bilan to'g'ridan to'g'ri so'zlashardi-da, Tauka unga javob bermasa ham, lekin egasining hamma gapiga tushunardi. Patagoniyalikning dalillari juda muhim bo'lsa kerak, Tauka birpas «bahslashib» olgach, har qalay xo'jayinining nasihatlariga ko'nib, unga bo'ysundi, ammo hali ham so'liqni chaynab borardi.

Ammo Tauka Talkavning maqsadiga tushungani-dek, Talkav ham o'z otining nima uchun bunchalik sabrsizlik qilayotganini tushundi. Aqlli jonivor havoda namlik belgilari borligini sezgan edi; ot ochko'zlik bilan havoni yutar, go'yo hayotbaxsh suvga tiqmoqchi bo'layotgandek tilini chiqarib tamshanardi.

Patagoniyalik suvning yaqinligini angladi. U hamrohlariga Taukaning bezovta bo'layotganini aytib, ularning ko'nglini ko'tardi. Ko'p o'tmay, qolgan ikkala ot ham suvning yaqinligini sezib qoldi va oxirgi kuchini yig'ib, Taukaning ketidan chopib ketdi.

Soat uchlarda uzoqdan suv ko'rindi. U quyosh nurida jimirlab oqib yotardi.

– Suv! – deb qichqirdi Glenarvan.

– Ha, suv, suv! – deb qichqirdi Robert.

Endi otlarni qistashning hojati qolmadi. Suvning yaqinligini ko'rib bechora jonivorlarning kuchlariga kuch qo'shildi. Ular bir necha minutda Guamini daryosiga yetib bordilar va ko'kragigacha suvga botib, yutoqib suv icha boshladilar. Otlari bilan daryoga tushib ketgan sayohatchilar ulardan o'rnak olib, suvga sho'ng'idilar, bunga hech kim xafa ham bo'lmadi.

– Oh, qanday maza-ya! – deb qichqirdi daryoning o'rtasida rohat qilib suv ichayotgan Robert.

– Ko'p suv ichma, Robert, – dedi Glenarvan, ammo o'zi bunga amal qilishni xayoliga ham keltirmadi.

Hamma ham shoshib-pishib, yutoqib suv ichardi. Faqat Talkav shoshmay, xotirjamlik bilan, patagoniyaliklar tili bilan aytganda, «lassodek uzun-uzun» yutimlar bilan shimirib suv ichardi. U suvdan sira bosh ko'tara olmasdi, unga qarab turib, daryoning hamma suvini ichib yuborsa-ya, deb cho'chib ketish mumkin edi.

– Do'stlarimizning umidi puchga chiqmaydigan bo'ldi, – dedi Glenarvan. – Guamini daryosiga yetib kelishgach, ular istagancha toza suv icha oladilar, lekin Talkav daryoni quritib qo'ymasa bo'lgani.

– Ularga peshvoz chiqsak bo'lmaydimi? – deb so'radi Robert. – Bu bilan biz ularni bir necha soat bekorga tashvish tortishdan va suvsizlik balosidan xalos qilgan bo'lardik.

– To'g'ri, o'g'lim, shunday qilsak yaxshi bo'lardi, lekin suvni nimada olib borasan? Meshlarimiz Vilsonda

qolgan-ku. Yo'q, yaxshisi, shartimizga binoan shu yerda kuta turamiz. Ular bosib o'tadigan masofani, buning ustiga, otlarning oyog'iga qarab kelishlarini nazarga olsak, bu yerga faqat kechasi yetib keladilar. Shuning uchun ularga yaxshi ovqat bilan yotar joy tayyorlab qo'yaylik.

Talkav Glenarvanning taklifini kutmay, tunash uchun joy axtarib ketdi. U daryo bo'yidan bir *ramada* – uch tomoni devor bilan to'silgan molqo'ra topdi. Ochiq havoda yotishdan qo'rqmaydigan odamlar uchun ramada juda yaxshi joy, bizning sayohatchilar esa bundan qo'rqmas edilar. Shuning uchun ular bundan ham yaxshiroq boshqa joy axtarib o'tirmay, ho'l bo'lib ketgan kiyim-kechaklarini oftobda quritish maqsadida yerga yonboshladilar.

– Tunashga joy topdik, – dedi Glenarvan. – Endi faqat qorinning g'ami qoldi. Bizni ilgari yuborgan o'rtoqlarimiz mamnun bo'lishlari kerak, agar yanglishmasam, ularni xafa qilmaymiz ham. Biror soat ov qilsak, vaqtimiz bekor ketmas deyman. Tayyormisan, Robert?

– Tayyorman, ser, – dedi bola, miltig'ini ko'tarib o'rnidan turar ekan.

Glenarvanning miyasiga ov qilish fikri kelganiga sabab, Gaumini daryosining sohili atrofdagi butun qirlarda uchraydigan hayvon va qushlarning to'planadigan joyiga o'xshardi. Pampaslarda bo'ladigan qizil kakliklarning bir turi – *tinamular*, qora chillar, sariq qiziloyoqlar va chiroyli ko'kish patli suv tovuqlari gala-gala bo'lib uchib yurardi.

Lekin atrofda to'rt oyoqli hayvonlar ko'rinmasdi. Talkav, ular nariyoqda deganday, baland o'sib yotgan o'tlar va qalin o'rmon tomonni ko'rsatdi. Ovchilarimiz bir necha qadam bosishlari bilanoq hayvonotga boylilikda dunyoda tengi yo'q bir joyga yetib bordilar.

Ular parrandadan o'ldin bir-ikkita to'rt oyoqli hayvon otib olmoqchi bo'ldilar: shuning uchun dastlab pampaslarning yirik jonivorlaridan ov qildilar. Ular qarshisidan cho'chib ketgan yuzlab kosul va guanakolar chiqib qoldi, bu guanakolar Kordilyer tog'ida sayohatchilar ustiga bostirib kelgan guanakolarga o'xshardi. Ammo bu qo'rqoq jonivorlar shunday tez qochib qoldilarki, ularga o'q yetadigan masofada ya-

qinlashishning iloji bo'lmadi. Shundan keyin ovchilar parranda otishga kirishdilar. Qushlar guanakolarday hurkak emas, buning ustiga go'shti ham juda lazzeatli bo'ladi. O'n ikkita qizil kaklik bilan qiziloyoq otdilar, bundan tashqari, Glenarvan ustalik bilan o'q uzib, bitta *tai-tetr* ham otib oldi. Juni sarg'imgtir, eti qalin bo'ladigan bu jonivorning go'shti juda shirin, shuning uchun unga ketgan poroxga achinmasa ham bo'lardi.

Ovchilarimiz yarim soatga ham qolmay hech bir qiyinchiliksiz, keragicha narsa otib oldilar. Robert ham quruq qolmadi; u siyrak tishlilar oilasiga kiradigan *armadil* degan g'alati bir jonivorni otib oldi, armadil badani suyaksimon harakatchan plastinkalar bilan qoplangan bir yarim fut uzunlikdagi jonivor. U juda semiz ekan, patagoniyalikning aytishicha, undan juda lazzeatli taom pishirsa bo'larkan. Robert o'z o'ljasi bilan juda mag'rurlanardi.

Talkavga kelsak, u tuyaqushning pampaslarda yashaydigan va juda tez chopadigan bir turi – *nandu*ning qanday ovlanishini ko'rsatdi. Bunday tezchopar jonivorni ov qilganda ayyorlik qo'l kelmas edi, shuning uchun Talkav nanduga yetib olish uchun Tukaanini tez chopdirib, jonivorning ustiga bostirib bordi, agar u shunday qilmasa, nandu o'zini goh u yoqqa, goh bu yoqqa urib qochib, ovchini ham, otni ham qiynab qo'yg'an bo'lardi.

Nanduga keragicha yaqinlashgach, Talkav baquvat qo'li bilan qushga qarab bolas uloqtirdi, shunday epchillik bilan otdiki, bolas borib shu ondayoq tuyaqushning oyog'iga o'raldi, jonivor chopolmay to'xtadi. Yana bir necha sekunddan keyin nandu qanotlarini yozib, yerda cho'zilib yotardi.

Hindu nanduni o'zining ov qilishga ustaligini ko'rsatish uchun emas, kechki ovqatga o'z hissasini qo'shish maqsadida tutib keldi, chunki bu tuyaqushning go'shti juda mazali bo'ladi.

Bir to'da qizil kaklik, Talkavning tuyaqushi, Glenarvanning *tai-tetri* va Robertning armadilini ramadaga olib keldilar. Darhol tuyaqush bilan *tai-tetr*ning qattiq terisini shilib, go'shtini ingichka-ingichka tilimladilar. Armadiliga kelsak, bu jonivorning bir bebaho xususiyati bor: ustida kosasi bo'ladi, o'sha kosasida o'zini qovurish mumkin. Shuning uchun uni darhol o'z

kosasiga solib, laqqa cho'g' bo'lib turgan ko'mir ustiga qo'ydilar.

Ovchilar kechki ovqatda faqat kaklik go'shti bilangina kifoyalandilar, eng mazali ovqatlarni esa do'stlariga olib qo'ydilar. Ovqat ustidan dunyodagi barcha vinolardan ham yaxshiroq tuyilgan top-toza, muzdek suv ichdilar.

Otlarni ham yoddan chiqarmadilar. Ramadada poxol shunday ko'p ekanki, otlarning yemishigagina emas, sayohatchilarning tagiga solib yotishiga ham yetdi.

Hamma tayyorgarlik bitgach, Glenarvan, Robert va Talkav o'z poncholariga o'ralib, pampaslardagi ovchilarning oddiy to'shagi – alfafara ustiga cho'zildilar.

O' n t o' q q i z i n c h i b o b

QIZIL BO'RILAR

Tun kirdi, yangi oy ko'rinishidan oldin bo'ladigan qorong'u tunlardan biri. Qirni faqat yulduzlargina sal-pal yoritib turardi. Ufqda tumanga ko'milib, Zodiak yulduzlari miltillardi. Guamini daryosi jimgina oqmoqda. Qushlar, sudraluvchilar, jonivorlar – butun tabiat tin olayotir. Bepoyon pampaslar bag'riga sahro jimligi cho'kkan.

Glenarvan, Robert va Talkav ham umumdan o'rnak oldilar: taglariga yumshoq yovvoyi beda yozib, qattiq uyquga ketdilar. Charchab holdan toygan otlar ham cho'zilib yotib oldi. Faqat haqiqiy zotli ot Taukagina tik turgan holda uxlardi. Tauka uyqudaligida ham uyg'oqligidagidek qaddini mag'rur tutardi. U egasining birinchi chaqirig'i bilanoq qushdek uchib ketishga tayyor turardi. Molqo'radagi jimjitlikni hech narsa buzmas, zimiston bag'rida faqat o'chib borayotgan gulxanning xira shu'lasigina miltillab turardi.

Ammo kech soat o'nlarda sal ko'zi ilingan Talkav yana uyg'ondi. Uning yarim ochiq ko'zlarida jiddiyat ko'rindi: Talkav diqqat bilan allanarsaga quloq sola boshladi. Aftidan, u sal-pal eshitilayotgan sharpani ilib olmoqchi edi. Ko'p o'tmay, Talkavning odatda doim xotirjam bo'lgan chehrasida xavotirlik ko'rindi. Sayoq hindularning pisib kelayotganini eshitib qoldimikin? Yo qoplonlarning yaqinlashayotganini, yo bo'lmasa

yo'lbarzlarning, daryolar yaqinida uchrab turadigan boshqa yirtqich hayvonlarningmi irillashini eshitib qoldimikin? Bu keyingi taxmin to'g'riroq ko'rindi shekilli, hindu molqo'ra ichiga uyib qo'yilgan o'tin-cho'pga birrov ko'z tashlab oldi-da, xavotirligi yana ham ortdi. Haqiqatan ham zaxirada qolgan quruq alfafara gulxanga tashlansa tezlikda yonib tamom bo'lar, demak, yirtqichlarning shiddathi hujumidan uzoq saqlay olmasdi.

Bunday sharoitda Talkavning nima bo'lishini kutib yotishdan boshqa chorasi yo'q edi, shuning uchun kutilmagan xavfning yaqinlashib kelayotganidan uyg'onib ketgan Talkav har narsaga hozir holda nima bo'lishini kutib yotdi.

Bir soat o'tdi. Talkav o'rnida boshqa odam bo'lganda atrofdagi jimlikning sira buzilmayotganidan xotirjam bo'lib, yana uxlab qolgan bo'lardi. Lekin chet ellik odamlar hech narsa sezmagan bir vaqtda, yerlik hinduning o'tkir tuyg'usi va tabiiy instinkti xavf yaqinligini sezdi. Talkav diqqat bilan quloq solib, qorong'uga tikilib qarab yotar ekan, birdan Tauka kishnab yubordi va boshini molqo'raga kiraverish tomonga burib, burun teshiklarini kergan holda havoni qattiq hidladi. Patagoniyalik irg'ib o'rnidan turdi.

- Tauka dushmanni payqadi, - deb o'zicha po'ng'illaganicha ramadadan chiqdi-da, diqqat bilan qirga tikilib qarab boshladi.

Atrof jimjit, lekin qandaydir xavotirli edi. Talkav *kurra-mamellar* orasida lip-lip etib, u yoq-bu yoqqa o'tib yurgan allaqanday soyalarni ko'rib qoldi. U yerbu yerda allanarsalar cho'g'dek yonib qolardi. Ular bir joyda turmas, g'ivillab har tarafga surilar, o'chib qolar, so'ng yana yonardi. Kattakon ko'rfaz suvi yuzida allaqanday sirli chiroqlardan tushayotgan shu'lalar o'ynayapti deb o'ylash mumkin edi. Chet ellik kishi bu o'chib-yonayotgan cho'glarni pampaslarning ko'pgina yerida uchrab turadigan yorug' qo'ng'izlar deb o'ylashi mumkin, lekin Talkav yanglishmadi, u qanday dushman bilan to'qnash kelishini angladi. Miltig'ini o'qlab, molqo'ra og'zida tayyor holda kutib turdi.

Uzoq kutishga to'g'ri kelmadi. Pampaslarda uvlaganga o'xshash g'alati tovush eshitildi. Unga javoban karabandan o'q uzildi, keyin yuzlab yirtqichlar tomog'idan chiqqandek dahshatli uvullash eshitildi.



To'satdan uyg'onib ketgan Glenarvan bilan Robert irg'ib turdilar.

- Nima gap? - deb qichqirdi Robert.

- Hindular emasmi? - deb so'radi Glenarvan.

- Yo'q, - dedi Talkav, - aguarlar.

- Aguarlar? - deb qaytarib so'radi Robert, Glenarvanga savol nazari bilan qarab.

- Ha, - deb javob berdi Glenarvan, - pampaslarda bo'ladigan qizil bo'rilar.

Ular ham miltiqlarini olib, hinduning yonida turdilar. Talkav indamay qattiq uvlagan tovushlar eshitilayotgan qir tomonni ko'rsatdi. Robert beixtiyor bir qadam orqaga tislendi.

- Bo'rilardan qo'rqmaysanmi, o'g'lim? - deb so'radi Glenarvan.

- Qo'rqmayman, ser, - deb javob berdi bola dadilik bilan. - Siz bilan birga bo'lganimda hech narsadan qo'rqmayman.

- Yana ham yaxshi. Aguarlar unchalik xavfli yirtqich emas, bunchalik ko'p bo'lmaganda men ularga hech bir e'tibor qilmagan bo'lardim.

- Ko'p bo'lsa nima! - dedi Robert. - Biz yaxshi qurollanganmiz. Yaqinlashib ko'rsinlar-chi!

- To'g'ri, shunday boplaymizki, asti qo'yaverasan!

Shunday deb, Glenarvan bolani tinchitmoqchi bo'ldi, lekin o'zi tunda bostirib kelayotgan bu son-sanoqsiz yirtqichlardan cho'chib turardi. Bo'rilar bir necha yuz bo'lishi ehtimol, shuning uchun, yaxshi qurollangan bo'lsalar ham, uch kishining bunchalik ko'p yirtqichga bas kelishi qiyin edi.

Patagoniyalik «aguar» deganda Glenarvan darhol pampaslarda yashovchi hindular qizil bo'rilarini shunday deb atashlarini esladi. Tabiatshunoslar bu yirtqichni *canis iubatus* deb ataydilar. Qizil bo'rining jussasi kattakon itday keladi, boshi tulkinning boshiga o'xshaydi, yungi to'q qizil, orqasida dumidan to boshigacha qora yoli bor, qizil bo'ri juda chaqqon va kuchli yirtqich. Odatda u botqoqliklarda yashaydi, ko'pincha o'ljasini suvda ham quvadi. Qizil bo'ri kunduzi uyasida uxlab, qorong'u tushishi bilan ovga chiqadi. Ulardan ayniqsa estansiyalarda¹ qo'rqadilar. Och aguar hatto qoramolga ham hujum qiladi va ko'p mollarni qirib tashlaydi. Qizil bo'ri yakka uchraganda xavfli emas, lekin och bo'rilar galasi juda qo'rqinchli. Och qizil bo'rilar galasiga uchragandan kuguar yoki qoplonga duch kelgan yaxshiroq, chunki ular bilan yakkamayakka olishish uncha qiyin emas.

Pampaslardan eshitilayotgan uvlash va qirda yugurib kelayotgan soyalarning ko'pligini ko'rib, Guamini bo'yida yuzlab qizil bo'rilar yig'ilganiga Glenarvanning shubhasi qolmadi. Bu yirtqichlar mol qo'rada o'lja - ot va odam go'shti borligini sezib, har biri o'z iniga shu mazali go'shtdan biror parcha olib ketishning payiga tushgandi. Ahvol juda ham xatarli edi.

Bo'rilar borgan sari yaqinlashib kela boshladilar. Uyg'onib ketgan otlarni dahshat bosdi. Faqat Taukagina tizginni uzib, qirga qochishga urinar va zo'r berib yer tepinardi. Talkav to'xtovsiz hushtak chalib, uni tinchlantirishga harakat qildi. Glenarvan bilan Robert

¹ Estansiya - Argentina qir-adirlaridagi katta-katta chorvachilik fermalari (Jyul Vern izohi).

yirtqichlar hujumini daf qilishga hozirlanib ramada oldiga turdilar. Ular karabinlarini o'qlab, bostirib kelayotgan aguarlarning birinchi qatoriga qarata o'q uzmoqchi bo'lgan edilarki, birdan Talkav indamay qo'li bilan ularning miltig'i og'zini yuqori ko'tardi.

– Talkav nima demoqchi? – deb so'radi Robert.

– Otmanglar deyapti.

– Nima uchun?

– Hali erta demoqchi shekilli.

Lekin hinduning bunday qilishiga sabab bu emas, boshqa narsa edi. Talkav bo'shab qolay degan porox xaltasini olib ko'rsatganda, Glenarvan buning sababini tushundi.

– Nima deyapti! – deb so'radi Robert.

– Poroxni tejashga to'g'ri keladi. Kechqurungi ov bizga juda qimmat tushdi: porox bilan qo'rg'oshinimiz kam qolgan. Yigirma marta ham o'q uzolmasak kerak.

Bola hech narsa demadi.

– Qo'rqmayapsanmi, Robert?

– Yo'q, ser.

– Barakalla, o'g'lim.

Shu payt yana miltiq otildi. Talkav oldinda kelayotgan katta bir bo'rini cho'ziltirib qo'ydi. Zich bo'lib bostirib kelayotgan bo'rilar galasi chekindi va to'siqdan yuz qadamcha narida g'uj bo'lib to'plandi. Hinduning imosi bilan Glenarvan uning o'rnini egalladi. Talkav esa taglariga solib yotgan yovvoyi bedani, quruq o'tlarni – xullas, yonishi mumkin bo'lgan bor narsani yig'ishtirib, ramadaga kiraverishga bosdi-da, o'rtasiga cho'q' bo'lib turgan bir ko'mirni tashladi. Ko'p o'tmay qop-qorong'u osmon sathida gurullab yonayotgan to'siq ko'tarildi. Gulxan alangasi qir yuzini uzoq-uzoqlargacha yoritdi. Shunda Glenarvan sonsiz-sanoqsiz yirtqichlar hujumidan saqlanishlari kerak ekanini ko'rdi. Bunchalik ko'p och bo'rini hech kim ham ko'rmagan bo'lsa kerak. Talkav yoqib yuborgan gulxan yirtqichlarni darhol to'xtatdi, lekin ularni yanada battarroq quturtirdi. Shunga qaramay orqadagilarning siqig'i bilan oldingilaridan bir nechtasi gulxanga juda yaqin kelib, parjalarini kuydirib oldilar. Uvlab kelayotgan bo'rilar galasining hujumini to'xtatish uchun har zamon-har zamonda o'q uzib turishga to'g'ri keldi. Bir soatchadan

keyin qirda o'n beshga yaqin bo'ring o'ligi cho'zilib yotar edi.

Qamal-o'rovda qolganlarning ahvoli endi juda ham xavfli emasdi. Porox tutaguncha, ramadaga kirave-rishdagi gulxan o'chmaguncha bo'rilarning bostirib kirishidan qo'rqmasa ham bo'lardi. Lekin mudofaa-ning bu vositalari tugagach nima qilishadi? Glenarvan Robertga qaradi-yu, yuragi ezilib ketdi. Endi u o'zi to'g'risida o'ylamas, hali bola bo'lishiga qaramay, shu qadar dovyurak bo'lgan bechora Robertni o'ylardi. Robertning rangi oqarib ketgan edi, ammo u, miltig'ini qo'lida mahkam ushlab turar va dadillik bilan qutur-gan bo'rilarning hujumini kutardi.

Glenarvan ahvolni sovuqqonlik bilan o'ylab ko'r-di-da, undan qutulish yo'lini axtara boshladi.

- Biror soat o'tar-o'tmas poroximiz ham, o'qimiz ham tugaydi, gulxanimiz o'chadi, - dedi u, - lekin o'sha paytni kutib o'tirmay biror chora topishimiz ke-rak.

U Talkav oldiga bordi-da, o'zi bilgan butun ispan-cha so'zlarni ishga solib, so'zlashmoqqa boshladi, ular-ning suhbatlari o'q uzilgan paytlarda tez-tez bo'linib tur-di.

Ular bir-biriga zo'rg'a gap tushuntira oldilar. Yax-shi hamki, Glenarvan qizil bo'rilarning odat va xusu-siyatlarini bilardi, bo'lmasa u patagoniyalikning imo-ishoralari tushunmagan bo'lardi. Shunday bo'lsa ham Glenarvan Talkav bilan qilgan suhbatining maz-munini Robertga aytib berguncha chorak soat vaqt o'tdi.

- U nima dedi? - deb so'radi Robert Grant.

- Nima qilib bo'lsa ham ertalabgacha dosh berishi-miz kerak dedi. Aguar faqat kechasi ovga chiqadi, tong otishi bilan iniga qaytadi. U tun yirtqichi, juda yurak-siz bo'ladi, yorug'dan o'lguday qo'rqadi - to'rt oyoqli boyqush deganday gap.

- Bo'пти, tong otguncha turib beramiz!

- Ha, o'g'lim, miltiq foyda bermay qolganda pichoq bilan o'zimizni himoya qilamiz.

Talkav allaqachon mudofaaning bu usulini ham qo'llay boshladi, bironta bo'ri gulxanga juda yaqin kel-sa, patagoniyalik pichoq ushlagan uzun qo'lini gulxan

orasidan cho'zib, bo'riga hamla qilar, har safar pichog'i yirtqichning qoniga bo'yaliq qaytar edi.

Bu orada himoya vositalari tugay deb qoldi. Kechasi soat ikkilarda Talkav bir quchoq qilib, oxirgi bedani gulxanga tashladi; hammasi bo'lib beshta o'q qolgandi.

Glenarvan atrofga g'amgin nazar tashladi. U yonida turgan bolani, o'rtoqlarini, barcha sevgan kishilarini o'ylardi. Robert jim turardi. Uning bola tasavvurida bu xavf yengil-yelpi narsaday tuyulayotgan bo'lsa ehtimol. Lekin Robert uchun ham Glenarvan tashvishlanardi. Uning ko'ziga dahshatli o'lim, bo'rilarga tiriklayin yem bo'lish manzarasi ko'rinib ketdi. Ortiq o'zini tuta olmay, Robertni yoniga tortdi va uni mahkam ko'ksiga bosib, ko'z yoshlarini tiyib turolmay bolaning peshanasidan o'pdi.

Robert unga kulib qaradi.

- Men qo'rqayotganim yo'q, - dedi u.

- To'g'ri, o'g'lim, qo'rqishning hojati ham yo'q, - dedi Glenarvan. - Ikki soatdan keyin tong otadi, qutulamiz... Barakalla, Talkav! Yasha, patagoniyalik botir do'stim! - deb qichqirdi u, hinduning gulxan ustidan sakrab o'tmoqchi bo'lgan ikkita katta bo'rini miltiq qo'ndog'i bilan urib, cho'ziltirib qo'ygani ko'rib.

Lekin shu payt Glenarvan o'chayotgan gulxan yorug'ida bir gala bo'ri zich bo'lib ramadaga bostirib kelayotganini ko'rib qoldi.

Qonli fojining oxiri yaqinlashib kelmoqda edi. Gulxan sekin-asta o'cha boshladi. Shu paytgacha alanga yoritib turgan qirni zulmat qopladi, bo'rilarning ko'zi yana cho'g' bo'lib yona boshladi. Bir necha minutdan so'ng och yirtqichlar galasi to'siq ichiga bostirib kiradi.

Talkav miltig'idan oxirgi o'qni otib, yana bitta bo'rini o'ldirdi. Patagoniyalik butun o'q-dorisini tugatib, qo'lini ko'kragi ustiga qovushtirganicha turib qoldi. Boshi quyi egildi. U allanarsani o'ylayotgandek edi. Quturgan bo'rilar hujumini qaytarish uchun biror mardona, ko'z ko'rib quloq eshitmagan usul axtarayotgan edimi? Unga savol berishga Glenarvanning yuragi dov bermadi.

Shu payt birdan bo'rilarning harakati o'zgarib qoldi: ular uzoqlashib keta boshladilar, ovozlari ham birdan eshitilmay qoldi. Qir bag'riga sovuq sukunat cho'kdi.

– Qaytib ketishdi, – dedi Robert.

– Shunday boʻlishi ham ehtimol, – dedi qir tomonga quloq solib turgan Glenarvan.

Lekin bular nima toʻgʻrisida gaplashayotganini anglab olgan Talkav, yoʻq degandek bosh chayqadi. Patagoniyalik, och boʻrilar ikki qadamgina joydagi oʻljani tong yorishib, ularni qorongʻu uyalariga quvib yubor-guncha tashlab ketmasliklarini bilardi.

Ammo boʻrilarning taktikasi oʻzgardi. Endi ular ramadaga eshik tomondan bostirib kirishdan voz kechdilar, biroq tanlagan yangi usullari oldingisidan ham battar edi. Aguarlar, juda qattiq turib oʻt va oʻq bilan himoya qilinayotgan ramadaning old tomonidan hujum qilishdan kechib, uni aylanib oʻtdilar va orqa tomonidan hujum boshladilar. Koʻp oʻtmay qamal-dagilar yirtqichlarning tirnoqlari toʻsiqning chirib qolgan yogʻochlarini timdalayotganini eshitib qoldilar. Toʻsiqning qimirlab qolgan qoziqlari orasidan boʻrilarning qonga boʻyalgan kuchli panjalari va tumshuqlari koʻrinib qoldi. Hurkib ketgan otlar arqonni uzib, qoʻrquvdan aqldan ozib, qoʻra ichida u yoqdan bu yoqqa yugurib yurardilar.

Glenarvan bolani ushladi va uni imkoni boricha himoya qilishga ahd qilib, koʻksiga bosdi. U Robert bilan birga qochib qutulishni oʻylay boshlagan edi, birdan koʻzi hinduga tushib qoldi. Hozirgina qafasga tushgan yirtqichdek u yoqdan bu yoqqa tez-tez yurib turgan Talkav birdan sabrsizlik bilan dir-dir titrayotgan oti-ning oldiga bordi-da, bironta ham qayishini xayoldan qochirmay uni hafsala bilan egarlay boshladi. Yirtqichlarning battar zoʻraygan uvlashi uni zarracha ham tashvishga solmayotgandek edi. Glenarvan patagoniyalikka dahshat bilan qarab turardi.

– Bizni tashlab ketmoqchi! – deb qichqirdi Glenarvan, Talkavning minishga hozirlangan kishidek otning jilovidan ushlaganini koʻrib.

– Talkavmi? Hech vaqt! – dedi Robert.

Haqiqatan ham hindu doʻstlarini tashlab qochmoqchi emas, oʻz hayotini tahlika ostiga qoʻyib boʻlsa ham, ularni qutqarmoqchi edi.

Tauka egarlandi: u soʻliq chaynar va sabrsizlik bilan turgan joyida irgʻishlar, koʻzlaridan oʻt chaqnardi. Ot egasining maqsadini tushundi. Hindu jilovdan ush-

lab endi egarga minmoqchi bo'lib turganda Glenarvan titroq qo'llari bilan uni ushlab qoldi.

- Ketmoqchimisan? - deb so'radi u, qirning bo'rilardan bo'shab qolgan tomonini ko'rsatib.

- Ha, - dedi hindu, Glenarvanning imosiga tushunib. Keyin ispan tilida qo'shib qo'ydi. - Tauka - yaxshi ot! Uchqur! Bo'rilarni ergashtirib ketadi.

- Oh, Talkav! - dedi Glenarvan.

- Tezroq, tezroq! - deb shoshirdi hindu.

- Robert! O'g'lim! Eshityapsanmi? - dedi Glenarvan, hayajondan ovozi titrab. - U bizni deb jonini qurbon qilmoqchi! Bo'rilarning butun g'azabini o'ziga qaratib, bizni qutqazish uchun pampaslarga qarab ot qo'ymoqchi!

- Do'stim Talkav! - dedi Robert, patagoniyalikning oyog'i ostiga o'zini tashlab. - Do'stim Talkav, bizni tashlab ketma!

- Yo'q, u bizni tashlab ketmaydi, - dedi Glenarvan va hinduga o'girilib, qo'shimcha qildi. - Birga ketamiz!

U qo'rquvdan dir-dir titrab, bir burchakka tiqilib olgan otlarni ko'rsatdi.

- Yo'q, - dedi uning maqsadini tushungan hindu. - Yomon otlar. Qo'rqib ketgan. Tauka - yaxshi ot.

- Mayli, sen aytganча bo'lsin, - dedi Glenarvan. - Talkav seni tashlab ketmaydi, Robert. U mening nima qilishimni ko'rsatdi. Men ketaman, u sen bilan qoladi!

Shunday dedi-da, u Taukaning jilovidan ushladi:

- Men ketaman!

- Yo'q, - dedi xotirjamlik bilan patagoniyalik.

- Men ketaman deyapman! - deb qichqirdi Glenarvan, Talkavning qo'lidan jilovni tortib olishga tirishib. - Sen bolani qutqar! Uni senga ishondim, Talkav!

Hayajonlanib ketgan Glenarvan ispancha so'zlar bilan inglizcha so'zlarni aralash qilib gapirardi. Lekin bunday paytda til nima degan narsa! Bunday dahshatli minutlarda butun fikr-maqсад imo-ishora bilan bayon qilinadi, odamlar ham bir-birlariga darhol tushunadilar.

Lekin Talkav so'zida turib oldi, tortishuv cho'zilib ketdi, xavf esa sekund sari orta borardi. To'siqning g'ajib tashlangan yog'ochlari bo'rilarning siqig'iga taslim bo'la boshladi.

Na Glenarvan, na Talkav bir-biriga bo'sh kelmasdi. Hindu Glenarvanni to'siq og'ziga boshlab keldida, bo'rilaridan bo'shab qolgan qirni ko'rsatdi. U jon kuydirib, Glenarvanga bir sekund ham vaqtni qo'ldan boy bermaslik kerakligini tushuntirishga urundi; agar qo'ldan berilsa, bu yerda qoladiganlar ko'proq xavf ostida qolishi mumkin, nihoyat, Taukaning kuchi va chaqqonligini hammadan ham men yaxshiroq bilaman, undan sizlarni qutqarish uchun men yaxshiroq foydalana olaman, demoqchi bo'lardi. Lekin Glenarvan qaysarlik bilan oyog'ini tirab turib oldi: u nima bo'lsa ham boshqalarni qutqazish uchun o'zini qurbon qilmoqchi edi.

Birdan allakim uni qattiq itarib yubordi. Bezovtalanib, ikki oyoqlab osmonga irg'ishlayotgan Tauka birdan gulxan va o'lib yotgan bo'rilar ustidan sakrab o'tib, qirga otildi.

Xuddi shu payt bolaning:

– Xayr! – degan tovushi eshitildi.

Glenarvan bilan Talkavning ko'zi oldidan Taukaning yoliga mahkam yopishib olgan Robertning qorasi lip etib o'tdi, – u bir lahza ko'rindi-yu, qorong'uda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Robert! Sho'rlik bola! – deb qichqirib qoldi Glenarvan.

Lekin uning tovushini yonida turgan hindu ham eshitmadi. Dahshatli uvullash yangradi; qizil bo'rilar qirga qochgan ot ketidan quvib, g'arbga qarab o'qday ucha ketdi.

Talkav bilan Glenarvan ramadadan chopib chiqdilar. Qirga yana jimlik cho'kdi; faqat qorong'u tunda uzoqdan to'lqinsimon chiziq elas-elas ko'rinardi.

Esini yo'qotib qo'ygan, nima qilishini bilmay, zo'r berib qo'lini qirsillatayotgan Glenarvan yerga yiqildi. U Talkavga qaradi. Talkav odati bo'yicha xotirjamlik bilan jilmayib turardi.

– Tauka. Yaxshi ot. Jasur bola. Qutulib ketadi, – dedi hindu, so'zlarini bosh silkitib tasdiqlab.

– Yiqilib tushsa-chi? – dedi Glenarvan.

– Yiqilmaydi!

Talkav shunchalik ishonganiga qaramay, Glenarvan zo'r tashvish ichida tong ottirdi. U bo'rilarning g'oyib bo'lishi bilan o'zi xavfdan qutulganini o'ylamasdi ham.

Glenarvan Robertni axtarishga jo'namoqchi bo'ldi. Lekin Talkav bunga yo'l qo'ymadi. Mana bu otlar bilan Robertni quvib yetishga umid qilib bo'lmaydi, Tauka bo'rilar quvganidan allaqachon qochib qutulgan, uni qop-qorong'u qirdan axtarib topishning iloji yo'q, dedi u. Xullas, hindu ertalabgacha kutish kerak, tong otgandan keyin esa Robertni axtarib yo'lga chiqamiz, demoqchi bo'lardi.

Ertalab soat to'rtida tong yorishib, ufqda yig'ilgan quyuv tuman oqarib kela boshladi.

Qirga marjon donalariday shabnam tushdi, tong shabadasi baland o'sgan o'tlarni silkitib o'ynay boshladi.

– Ketdik! – dedi hindu.

Glenarvan indamay Robertning otiga mindi. Saldan keyin ikkala otliq orqada qolgan otryad kelishi lozim bo'lgan to'g'ri chiziq bo'ylab, g'arbga qarab yo'rtib borardilar.

Ular har qadamda Robertning qonga bo'yalib yotgan jasadini ko'rib qolishdan qo'rqib, lekin atrofdan ko'z uzmay, bir soatcha ot choptirib bordilar. Glenarvan otning biqiniga ayamay shpor urardi. Birdan uzoqdan miltiq tovushlari eshitildi; miltiq tovushi ma'lum vaqtda takrorlanib turardi: aftidan, kimdir signal bermoqda.

– Bu bizning do'stlarimiz! – dedi Glenarvan.

Ikkala chavandoz otlarini yana ham qattiqroq chop-tirdilar va bir necha minutdan so'ng Paganel boshliq otryadga borib qo'shildilar. Glenarvan sevinganidan qichqirib yubordi: Robert, hech qanday shikast ko'rmagan, tirik Robert Taukaga minib kelmoqda edi! Egasini ko'rgan Tauka shodlik bilan kishnab qo'ydi.

– Oh, Robert, o'g'lim! – deb qichqirdi Glenarvan, nihoyatda mehribonlik bilan.

Robert bilan Glenarvan otdan sakrab tushib, birbirining quchog'iga tashlandilar.

So'ngra kapitan Grantning mard o'g'lini bag'riga bosish navbati Talkavga keldi.

– Robert tirik! Tirik! – deb qichqirardi Glenarvan.

– Ha, – dedi Robert. – Tauka, tufayli omon qolldim! Ammo Robert bu so'zlarni aytmasdanoq hindu o'z Taukasi oldiga borib, bo'ynidan quchoqladi-da, minnat-

dorchilik bildira boshladi – Talkav Tauka bilan go'yo otning tomirlarida odam qoni oqayotgandek so'zlashar, uni o'par edi.

Keyin Talkav Paganelga o'girildi.

– Mard yigit! – dedi u, Robertni ko'rsatib. So'ng hindularning tilida ishlatiladigan istioradan foydalanib, qo'shib qo'ydi. – Shporlari titramadi.

– Ayt-chi, o'g'lim, seni qutqarmoq yo'lidagi oxirgi chorani ko'rish imkoniyatini nima uchun na menga, na Talkavga bermading! – deb so'radi Glenarvan, Robertni quchoqlab.

– Ser, – deb javob berdi bola, uning tovushida qizg'in minnatdorlik aks etardi, – o'zini qurbon qilish navbati meniki emasmidi? Talkav mening hayotimni bir marta saqlab qoldi, siz esa otamning hayotini qutqazaysiz!

Y i g i r m a n c h i b o b

ARGENTINA TEKISLIKLARI

Uchrashuvning dastlabki shodliklaridan so'ng Paganel otryadidagilarning hammasi ham chanqoqdan o'lar darajaga kelib qolganlarini sezdi, ehtimol, bundan faqat mayor Mak-Nabbs mustasno bo'lgandir. Ularning baxtiga Guamini daryosi yaqin qolgandi, shuning uchun sayohatchilar darhol yana yo'lga tushdilar. Ertalab soat yettida kichkina otryad qo'raga yetib keldi. Ramadaga kiraverishda cho'zilib yotgan bo'ri jasadlarini ko'rib, yirtqichlarning qanchalik zo'r berib bostirib kelganini va qamalda qolganlarning qanchalik kuch sarf qilib, o'zlarini himoya etganliklarini tasavvur qilish qiyin emasdi.

Sayohatchilar rosa to'yib suv ichdilar, qo'rada esa ularni mo'l-ko'l mazali ovqat kutardi. Tuyaqush go'shtidan pishirilgan file juda shirin deb, o'z kosasida qovurilgan *bronenos* esa og'izda mazasi qoladigan, tengi yo'q taom deb topildi.

– Bunday lazatli taomni rosa to'yib yemaslik gunoh bo'ladi, – dedi Paganel. – Yeyveringlar, osh bo'lsin!

Geografiya olimi rostdan ham ovqatni bosh ko'tarmay yedi, lekin bu Guamini daryosining suvi tufayli uning sog'lig'iga ziyon qilmadi; geografiya olimining

aytishicha, bu daryo suvining ovqatni hazm qilishga yordam beradigan xususiyati bor ekan.

Kapuyada haddan tashqari uzoq turib qolgan Ganibalning xatosini takrorlamaslik uchun Glenarvan ertalab soat o'nda yo'lga chiqishga signal berdi. Otryad meshlarni suvga to'ldirib olib, yo'lga chiqdi. Chanqoqni bosib va qorinlarini to'ydirib olgan otlar hech to'xtamay, yengil chopib borardilar. Yer borgan sari nam tortib, serhosil bo'la bordi, lekin atrof hali ham bo'm-bo'sh edi.

2- va 3- noyabr tinch o'tdi, uchinchi noyabr kechqurun uzoq safar vaqtida yo'l yurishga o'rganib qolgan sayohatchilar pampaslar bilan Buenos-Ayres viloyati chegarasiga yetib kelib, shu yerda to'xtadilar. Otryad Talkaguano qo'ltig'idan 14-oktabrda yo'lga chiqqandi. Demak, ular yigirma ikki kun ichida to'rt yuz ellik mil yo'l bosibdilar; boshqacha qilib aytsak, ular yo'lning uchdan ikki qismini bosib o'tgan edilar.

Ertasiga ertalab sayohatchilar Argentina tekisliklarini pampaslardan ajratib turgan shartli chegaradan o'tdilar. Talkav kapitan Garri Grant bilan uning ikki o'rtog'ini asirlikda ushlab turgan katsiklarni o'sha yerda uchratamiz deb mo'ljallab kelardi, u asirlar shu yerdagi hindular qo'lida deb ishonardi.

Argentina Respublikasini tashkil qiladigan o'n to'rt viloyat ichida eng kattasi va aholi eng ko'p joylashgan Buenos-Ayres viloyati. Uni hindu yerlaridan ajratib turadigan janubiy chegara oltmish to'rtinchi gradus bilan oltmish beshinchi gradus orasidan o'tadi. Bu viloyatning yeri juda serhosil, iqlimi esa nihoyatda sog'lom. U Tandil va Tapalkvem tog'larining etagigacha cho'zilgan hamda boshqoqli va dukkakli o'simliklar bilan qoplangan tep-tekis yalanglikdan iborat.

Sayohatchilarimiz Guamini daryosidan yo'lga chiqqandan keyin havoning hovuri borgan sari pasaya borganini sezdi: kunning issig'i Selsiy hisobida o'rtacha o'n yetti darajadan oshmas edi. Issiqning pasayib qolishiga sabab - Patagoniyadan hali ham tinmay esib turgan sovuq shamol edi. Suvsizlik va jazirama isiqdan rosa azob chekkan odamlar ham, otlar ham bundan mamnun bo'ldilar. Sayohatchilar ishonch bilan bardam borardilar. Lekin ahvol Talkav kutga-

nidek bo'lib chiqmadi: viloyatda hech kim yashamas, to'g'rirog'i, u bo'shab qolgandi.

Sayohatchilar g'arbdan sharqqa qarab ketayotgan o'ttiz yettinchi parallel ko'pincha goh sho'rtang, goh chuchuk suvli kichkina-kichkina ko'llar yoqalab borar, goh ularni kesib o'tardi. Suv yoqalaridagi o'tlar soyasida epchil yovvoyi tovuqlar donlab yurar, quvnoq to'rg'aylar tinmay sayrashardi; xuddi shu yerda patlarning rang-barangligi jihatidan kolibri degan qushlar bilan raqobat qila oladigan tangar qushlari uchib yurishardi. Bu chiroyli qushlarning birontasi ham, harbiy paradga qatnashayotgandek, yo'l yoqasida tizilishib yurgan yelkasi va ko'kragi qizil patlar bilan qoplangan maynalarga zarracha bo'lsin e'tibor qilmas edi. «*Annubis*» deb atalgan qushlar tikanli butalar shoxiga qo'ygan inlar belanchakday tebranar, shamolda olovdek qip-qizil qanotlarini yozib, ajoyib flamingolar to'da-to'da bo'lib uchib yurardi. Ularning bir-biriga juda yaqin qilib, shunday ko'l yoqasiga solingan sonsiz-sanoqsiz inlari bir fut balandlikdagi kesik konussimon uylardan iborat shaharchaga o'xshardi. Flamingolarning chavandozlarning yaqinlashib kelishidan uncha cho'chimagani Paganelga yoqmadi.

– Men anchadan beri flamingolarning uchishini bir ko'rsam deb yurardim, – dedi u, mayorga.

– Juda soz! – deb javob berdi mayor.

– Shuning uchun fursat kelgan ekan, foydalana-man, albatta.

– Foydalaning, Paganel.

– Bo'lmasa, yuring men bilan, mayor, sen ham yur, Robert. Menga guvohlar kerak.

Paganel hamrohlarining ko'pchiligini oldinga o'tkazib yuborib, mayor va Robert bilan birga qizil qanotlilar galasiga qarab ketdi. O'q yetadigan masofaga bor-ganda Paganel miltig'idan paxtavon o'q uzdi – u hatto qushlarning qonini ham nohaq to'kmaydigan odam edi – flamingolar maslahatlashib qo'ygandek birdan ko'tarilib, uchib ketdilar. Paganel ko'zoynagi ostidan ularning uchishini diqqat bilan kuzatib turdi.

– Xo'sh, ko'rdingizmi? – deb so'radi u, qushlar galasi ko'zdan g'oyib bo'lgach mayordan.

– Ko'rdim, albatta, – dedi Mak-Nabbs. – Buni faqat ko'rlar ko'rmasligi mumkin.

– Ayting-chi, uchi b ketayotgan flamingo dumiga pat qistirilgan kamon o'qiga o'xshaydimi, yo'qmi?

– Sira ham o'xshamaydi.

– Hech o'xshash joyi yo'q, – dedi Robert ham.

– Men bunga ishonar edim, – dedi mamnuniyat bilan Paganel. – Shatobrian degan bir vatandoshim uni kamon o'qiga o'xshatib xatoga yo'l qo'yan. Esingda bo'lsin, Robert, men bilgan ritorik shakllar orasida eng qaltisi – o'xshatish. O'xshatib gapirishdan iloji boricha qochgin, juda zarur paytlardagina ishlat.

– Demak, o'tkazgan tajribangizdan xursandsiz, shundaymi? – deb so'radi mayor.

– Juda.

– Men ham. Endi otlarni tezroq haydaylik, bo'lmasa o'sha mashhur Shatobrianingizni deb bir milcha orqada qolib ketdik.

Hamrohlariga yaqinlashib kelgan Paganel Glenarvanning hindu bilan allanarsa to'g'risida qizgin gaplashayotganini ko'rdi, aftidan, u hinduning gapiga tushunolmayotgan edi. Talkav tez-tez to'xtar, diqqat bilan ufqni ko'zdan kechirar, har safar ham juda hayron qolayotgani basharasidan ko'rinib turardi.

Glenarvan odatdagi tarjimoni yonida yo'qligini ko'rib, hindu bilan o'zi gaplashib ko'rmoqchi bo'ldi, lekin bu urinishi muvaffaqiyatsiz chiqdi. Keyin u olimning yaqinlashib kelayotganini ko'rib, uzoqdanoq:

– Tezroq keling, do'stim Paganel. Talkav ikkalamiz bir-birimizga hech gap tushuntirolmayapmiz! – deb qichqirdi.

Paganel patagoniyalik bilan bir necha minut gaplashib olgach, Glenarvanga o'girildi.

– Talkav bir narsaga juda hayron, – dedi u, – rostdan ham o'zi juda g'alati.

– Nima gap, o'zi?

– Gap shundaki, atrofda na hindularning o'zi, na izi ko'rinmaydi, vaholanki, ularning otryadlari bu yerlardan har tarafga tez-tez o'tib turadi: ular goh qoramol podalari haydab o'tishadi, goh o'zlari to'qigan gilam va charm qamchilarni sotgani Kordilyer tog'lari tomonga borishadi.

– Talkav nima deydi bunga?

– Sababini o'zi ham bilmaydi, juda hayron.

- U pampaslarning bu qismida qanday hindularni uchrataman deb mo'ljall qilgan ekan?

- Chet ellik kishilarni asirlikda saqlayotgan ko'chmanchi hindularni-da, Kalfukur, Katriel yoki Yanchetruts degan katsiklar qo'l ostidagi hindularni.

- Ular kim?

- Qabila boshliqlari. Bundan o'ttiz yil oldin tog'larning orqasiga siqishtirib qo'ymagunlaricha, bu katsiklar juda hukmi zo'r boshliq bo'lgan. Argentina respublikasiga bo'ysunganlaridan beri - hindularning bo'ysunishini shunday deb atab bo'lsa¹ - ular pampaslar bilan Buenos-Ayres viloyatlarida ko'chib yuradi. Rostimni aytsam, bu yerlarda hindularning izini uchratmayotganimizga men ham Talkavga o'xshab juda hayronman.

- Bo'lmasa, endi nima qilishimiz kerak? - deb so'radi Glenarvan.

- Hozir so'rayman.

Talkav bilan yana biroz gaplashib olgach, Paganel shunday dedi:

- Menimcha, patagoniyalikning maslahati juda ma'qul. U Mustaqillik qal'asiga yetgunimizcha, sharqqa qarab boraverishimiz kerak, u yerda kapitan Grantdan biror xabar topolmasak ham, har holda Argentina tekisliklaridagi hindularning qayerga g'oyib bo'lib qolganini bihb olamiz, deydi.

- U qal'a uzoqmi? - deb so'radi Glenarvan.

- Yo'q, Tandil tog'ida, oltmish milcha keladi.

- Qachon yetamiz?

- Indinga kechqurun.

Bu vaziyat Glenarvanni ancha o'ylatib qo'ydi. Pampaslarda hindularning uchramasligi aqlga sig'maydigan ish edi. Odatda qirda hindular kutgandan ham ko'p bo'ladi. Aftidan, ularning g'oyib bo'lib qolishiga favqulodda bir sabab bor bo'lsa kerak. Agar Garri Grant rostdan ham shu hindu qabilalaridan biri

¹ G'arbiy Yevropadan Amerikaga ko'chib borgan kolonistlar hindularga o'te shafqatsiz muomala qilganlar, aroq bilan aldab, ko'plab qirib, azal-azaldan o'zlariniki bo'lgan yerlardan haydab chiqarganlar. Hindular kelgindilarga qattiq qarshilik ko'rsatganlar, ammo bora-bora yengilib, bosqinchilar tomonidan qirib taslanganlar. Asar voqealari kechayotgan Janubiy Amerikadagi qirg'inbarot ko'lami Shimoliy Amerikadagidan, ayniqsa, Qo'sma Shtatlardagidan biroz torroq bo'lgani bois hozirda qariyb 35 million hindular va ularning bir necha tulari saqlanib qolgan. Buyuk adib Jyul Vernning mustamlakachilikka qarshiligi boshqa asarlarida ham yaqqol sezilib turadi (*Muharrir izohi*).

qo'lida asir bo'lsa, hindular uni shimol tomonga olib ketishganmi, janubgami – ana shuni bilish kerak edi. Bu savol Glenarvanga aslo tinchlik bermadi. Nima qilib bo'lmasin, kapitanning izini yo'qotmaslik kerak edi, shuning uchun eng yaxshi maslahat Talkavning so'ziga kirib, Tandildagi Mustaqillik qal'asiga borish edi. Har holda u yerda biror kishi bilan gaplashib, su-rishtirish mumkin-ku?!

Soat to'rtlarda ufqda bir tepalik ko'rindi, kaftdek tekis yerda uni tog' deb aytsa ham bo'lardi. Bu S'erra-Tapalkvem edi. Uning etagiga yetib borgach, sayohatchilarimiz tunash uchun to'xtadilar.

Ertasiga ular hech bir qiynalmay bu tog'dan oshib o'tdilar, chunki yo'l yotiq qum yonbag'irlikdan o'tardi. Kordilyer tog'laridan oshib o'tgan odamlar uchun bu tepalikni oshish hech gap emasdi. Otlar ham yurishini sekinlatmadi. Choshgoh paytida otliqlar tashlandiq Tapalkvem qal'asi yonidan o'tdilar. Lekin hindular bu yerda ham uchramadi, bunga Talkav nihoyatda hayron edi. Nihoyat choshgohdan keyin uzoqda yaxshi qu-rollangan va uchqur otlar mingan uchta odam ko'rindi. Ular kichkina otryadni birpas kuzatib turdilar-da, bu-lar yaqin borishguncha turmay, shitob bilan ot choptirib ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Talkav bu hindularni bir vaqt mayor bilan Paganel o'rtasida qizg'in tortishuvga sabab bo'lgan ism bilan:

– Gauchoslar, – deb atadi.

Sayohatchilar endi Talkavning maslahati bilan bir birlaridan olis ketmay, to'planishib, bora boshladilar, chunki bu viloyat qanchalik bo'm-bo'sh bo'lmasin, har holda ehtiyot bo'lish zarar qilmasdi. Ammo bu ehtiyot choralari ortiqcha bo'lib chiqdi. O'sha kuni kechqurun kichkina otryad bo'm-bo'sh va keng *tolderiyada* tunash uchun to'xtadi, katsik Katriel o'z qo'li ostidagi qabilalarni odatda shu yerda to'plar edi. Talkav atrofni juda sinchiklab ko'zdan kechirib chiqdi, hindularning hech qanday izi yo'qligiga qarab, *tolderiya* allaqachonlardan beri bo'sh yotgan ekan degan xulosaga keldi.

Ertasiga Glenarvan bilan hamrohlari yana tep-tekis yalanglikdan chiqdilar. Tandil tog' tizmalariga yaqin bo'lgan dastlabki estansiyalar ko'rindi. Lekin Talkav bu yerda to'xtamay, to'g'ri Mustaqillik qal'asiga qarab boraverishga qaror qildi, hindu yo'l boshlovchi u yerda

kerakli ma'lumotlarni olmoqchi edi. Uni hammadan ham viloyatning nima uchun bo'shab qolgani qiziqtirardi.

Kordilyer tog'laridan keyin juda kam ko'ringan daraxtlar yana urchay boshladi. Ularning ko'pchiligi Amerika hududini yevropaliklar bosib olgandan keyin ekilgan daraxtlar edi. Bu yerlarda shaftoli daraxtlari, teraklar, tollar, akatsiyalar o'sib yotardi; ular parvarishsiz ham tez va yaxshi o'sib ketaveradi. Bu daraxtlar ayniqsa korallar, ya'ni yog'och devor bilan o'ralgan katta-katta molqo'ralar atrofida ko'p. Bu korallarda minglab buqa, qo'y, sigir va otlar boqiladi, har bir molning badaniga o'z xo'jayinining tamg'asi bosilgan bo'ladi. Mollarni juda ko'p, katta-katta va hushyor itlar qo'riqlaydi. Tog' etagidagi salgina sho'rxok yerlar mol boqish uchun juda bop bo'lib, unda ajoyib o'tlar o'sadi. Shuning uchun estansiya qurishga ana shunday joylar tanlanadi. Bu chorvachilik xo'jaliklarini mudir bilan uning yordamchisi boshqaradi, ularning qo'li ostida peonlar ishlaydi, har bir ming bosh molga to'rtta peon qarab turadi. Bu odamlar qadim zamondagi podachilardek hayot kechiradilar. Mollari Mesopotamiya qirlarini to'ldirib yuborgan mollardek ko'p bo'ladi, undan ko'proq bo'lsa ham ehtimol.

Paganel o'z hamrohlarining diqqatini ana shu tekis yalangliklarga xos bir qiziq hodisaga – sarobga jalb qildi. Estansiyalar uzoqdan katta-katta orollarga o'xshar, ular atrofida o'sgan terak va tollar esa tiniq suvda aks etayotgandek tuyular, sayohatchilar yaqin borganlarida bular hammasi sarob bo'lib chiqardi. Illyuziya shunday ishonarli ediki, sayohatchilar har safar ham uning sarob ekanini sezmay, aldanib qolardilar.

6-noyabrda otryad bir necha *estansiya* va bir-ikki *saladero* yonidan o'tdi. Bu *saladerolarda* qirda boqib semirtirilgan mollar so'yiladi. *Saladero* – nomidan ko'rinib turganidek – faqat mol so'yiladigan kushxona emas, ularning go'shtini tuzlaydigan joy ham. Bunday xunuk ishlar odatda bahor oxiridan boshlanadi.

Saladeroslar mollarni tutib ketgani koralgaga boradilar; molni juda chaqqonlik bilan kamand otib tutadilar-da, *saladeroga* olib ketadilar. U yerda esa buqa, ho'kiz, sigir va qo'ylarni yuzlab so'yadilar; so'yilgan mollarning terisini shilib, go'shtini nimalarga ajratadilar.

Ko'pincha buqalar qattiq qarshilik ko'rsatadi. Shunda qassoblar toreadorlarga aylanadilar. Bu xavfli ishni qassoblar juda epchilik va bag'ritoshlik bilan bajardilar. Qisqasi, bu qon to'kish juda dahshatli manzara. Saladerodan jirkanch joy bo'lmasa kerak. Qo'lansa hid anqib turgan bu dahshatli molqo'ralardan doim saladeroslarning qiyqiriqlari, itlarning quturib hurishi, jon berayotgan mollarning cho'zib-cho'zib bo'kirishi eshitilib turadi. Bu yerga minglab argentina qirg'iyolari yig'ilib keladi.

Ammo hozir bu saladerolar jimjit, chunki unda hech kim yo'q. Hali ko'plab mol so'yish vaqti kelmagan.

Talkav sayohatchilarni shoshirdi. U shu kuni kechqurunroq Mustaqillik qal'asiga yetib bormoqchi edi. Qistovga olingan otlar oldinda borayotgan Taukaga ergashib, baland o'sgan o'tlar orasida yelib borardilar. O'tliqlar yo'lida tishsimon devorlar bilan o'ralib, chuqur zovurlar bilan ihota qilingan fermalar uchray boshladi. Fermalardagi asosiy uylar tepasida ayvonchalar bor, qir tomondan hujum bo'lib qolgan taqdirda jangga doim hozir turadigan xo'jayinlar shu ayvonga chiqib bosqinchilarni o'qqa tuta oladilar.

Glenarvan, ehtimol, shu fermalardan o'zi qiziqqan savolga javob olishi mumkin, lekin Tandil qishlog'iga yetib borish ma'qulroq. Shuning uchun o'tliqlar hech qayerda to'xtamadilar. Oldin Rio-Guezos anhoridan, bir necha mildan keyin esa Rio-Shapaleofu anhoridan kechib o'tdilar. Ko'p o'tmay Tandil tog' tizmalarining dastlabki ko'm-ko'k qiyaliklariga oyoq bosdilar, yana bir soatdan keyin tor bir dara ichkarisida qishloq ko'rindi, uning tepasida Mustaqillik qal'asining tishsimon dandonali devorlari qad ko'tarib turardi.

Yigirma birinchi bob

MUSTAQILLIK QAL'ASI

S'erra-Tandil dengiz sathidan ming fut baland. U juda qadimiy tog' bo'lib, yerda organik hayot vujudga kelishidan ham oldin paydo bo'lgan. Bu tog' tizmasi qalin o'tlar bilan qoplanib, yarim doira shaklida cho'zilib ketgan gneys tepalaridan iborat. Tog' tizma-

sining nomi bilan atalgan Tandil okrugi Buenos-Ayres viloyatining butun janubiy qismini tashkil qiladi. Okrugning shimoliy chegarasi shimolga qarab oqadigan barcha daryolar boshlanadigan tog' tizmalarining yonbag'irlaridir.

Tandil okrugida to'rt mingga yaqin aholi yashaydi. Uning ma'muriy markazi bo'lgan Tandil qishlog'i tog'ning shimoliy yonbag'rida joylashgan bo'lib, Mustaqillik qal'asining himoyasida turadi. Bu yerdan oqib o'tadigan Shapaleof nomli jilg'a qishloq manzarasini juda go'zal qilib yuborgan. Bu qishloqning bir g'alati xususiyati borki, Paganel buni bilmasligi mumkin emas edi, ya'ni unda fransuz basklari¹ va italyanlar yashardi. Haqiqatan ham, dastlab fransuzlar o'z koloniyalarini La-Plataning quyi oqimida barpo qilgandilar. 1828-yilda **Parshapp** degan fransuz yangi koloniyalarni o'z yerlarini himoya qilgan hindularning hujumidan saqlash uchun Mustaqillik qal'asini qurdirdi. Bu ishda unga Janubiy Amerikaning shu qismini yaxshi o'rgangan va o'z ishlarida tasvirlab bergan fransuz olimi Alsid d'Orbini yordam qildi.

Tandil qishlog'i nihoyatda ahamiyatli punkt. Uning galeraslari, ya'ni ho'kiz qo'shiladigan va tekis qirlarda yo'l yurishga juda qulay bo'lgan katta aravalari Buenos-Ayresga o'n ikki kunda yetadi, shuning uchun bu qishloq shahar bilan juda jonli savdo olib boradi. Tandillilar Buenos-Ayresga o'z estansiyalarida boqilgan mollarini, saladeroda tuzlagan go'shtlarini va hindu sanoatining juda g'alati mahsulotlari – iplik va jun gazlama, juda nozikligi bilan mashhur bo'lgan charm-dan tikilgan buyumlar va shunga o'xshash mollarni olib borib sotadilar.

Paganel shular to'g'risida hikoya qilib bergach, ketidan: Tandilda o'zimizni qiziqtirgan ma'lumotlarni yerlik aholidan hech shubhasiz bilib olamiz, buning ustiga qal'ada doim milliy qo'shin otryadi bo'ladi deb qo'shib qo'ydi. Glenarvan otlarni durustgina qurilgan fonda² otxonasiga olib kirib qo'yishni buyurdi, so'ng o'zi, Paganel, mayor va Robert birgalashib Mustaqillik qal'asiga yo'l oldilar. Talkav ularni kuzatib bordi.

Tepalikka biroz ko'tarilib, qal'a darvozasi oldiga

¹ Basklar – Pireney tog'larining Fransiya va Ispaniyaga qarashli ikkala yonbag'rida yashovchi bir xalq.

² Fonda – karvonsaroy.

yetib keldilar. Qal'a darvozasini bir argentinalik soldat juda beparvolik bilan qo'riqlab turardi. U sayohatchilarimizni indamay ichkari kiritib yubordi, bu yo uning nihoyatda beparvoligini, yoki bu yerlarda hech qanday xavf yo'qligini ko'rsatardi.

Qal'a sahnida soldatlar mashq qilayotgan edilar. Ularning eng kattasi yigirmadan oshmagan, eng kichigi esa hali yettiga ham to'lmagandi. To'g'risini aytganda, bular soldatlar emas, harbiy mashqlarni ancha epchillik bilan bajaryotgan bir dujina o'smirlar bilan yosh bolalar edi. Ularning harbiy formasi yo'l-yo'l ko'ylak bilan mahkam bog'langan kamardan iborat edi. Bittasining ham egnida shim yo'q. Bunday issiqda yengilyelpi kiyinishni ayb qilib bo'lmasdi ham. Hukumatning davlat pulini har xil bo'lar-bo'lmas harbiy kiyimboshlarga sarf qilishdan qochgani Paganelga juda yoqib tushdi. Bolalarning hammasida ham miltiq bilan qilich bor edi, ammo kichkinalariga miltiq og'irlik, qilich esa uzunlik qilardi. Ularning hammasi, hatto ularni o'rgatayotgan kapral ham qorachadan kelgan bo'lib, bir-biriga juda o'xshardilar. Ko'rinishdan ular eng kattasi harbiy ta'lim berayotgan o'n ikkita akaukaga o'xshardi, haqiqatan ham keyinchalik shunday bo'lib chiqdi.

Paganel bunga hayron qolmadi. U mahalliy statistik ma'lumotlardan har oiladagi bolalar soni o'rta hisobda to'qqiztadan ham ortiq bo'lishini bilardi, lekin uni boshqa bir hol juda hayron qoldirdi: yosh jangchilar fransuz armiyasida qabul qilingan miltiq mashqlarini bajarar, kapral esa har zamonda geografiya olimining ona tilida komanda berardi.

– Ana uni qarang-al – dedi hayron bo'lib u.

Ammo Glenarvan Mustaqillik qal'asiga bolalarning harbiy mashqini tomosha qilishga kelgan emasdi, ularning millati bilan ota-onalari ham uni mutlaqo qiziqtirmadi. Shuning uchun u Paganelning qiziqishiga ortiq fursat bermay, qal'a komendantini chaqirishni iltimos qildi. Paganel uning iltimosini kapralga tarjima qilib berdi, so'ngra argentinalik soldatlardan biri kazarma vazifasini o'taydigan uyga qarab ketdi.

Bir necha minutdan keyin undan komendant chiqib keldi. U elliklarga borgan, qaddi-qomatini harbiylarcha tutadigan, baquvvat kishi ekan. Mo'ylovi qattiq,

yuz suyagi turtib chiqqan, sochiga oq oralagan, qarashlari amirona. Komendantning og'zidagi to'xtovsiz tutab turgan kalta trubkasining tutuni orasidan bir qarashda ko'rish mumkin bo'lgan belgilari ana shu. Uning o'zini tutishi va qadam tashlashlari Paganelga vatanidagi qari unter-ofitserlarni eslatdi.

Talkav komendant oldiga borib, unga Glenarvan bilan uning hamrohlarini tanitdi. Talkav so'zlar ekan, komendant Paganelga diqqat bilan qarab turdi, bunday qarash har qanday odamni ham o'ng'aysizlantirib qo'yadi. Buning sababini tushunolmay hayron bo'lgan olim o'zi nima gap deb endi so'ramoqchi bo'lgan ediki, birdan komendant hech tortinmay uning qo'lini oldida, quvonch bilan Paganelning ona tilida:

– Fransuzmisiz? – deb so'radi.

– Ha, fransuzman, – dedi Paganel.

– Juda soz! Marhamat! Marhamat! Men ham fransuzman! – dedi komendant, geografiya olimining qo'lini baquvvat qo'llari bilan qisib va qattiq-qattiq silkib.

– Bu kishi do'stlaringizdan biri bo'ladimi? – deb so'radi geografdan mayor.

– Bo'lmasam-chil – dedi u faxrlanib. – Bunday do'stlarim dunyoning hamma qit'asida bor.

Paganel qo'lini oz bo'lmasa majaqlab qo'yay degan jonli iskanjadan zo'rg'a bo'shatib oldi-da, bahodir komendant bilan so'zlashmoqqa boshladi. Glenarvan o'zini qiziqtirgan masalaga oid gap qistirishga fursat poylab turdi, lekin o'z o'tmishini so'zlab ketgan sergap komendant aslo to'xtamasdi. Bu qari soldat Fransiyadan chiqib ketganiga juda ko'p vaqtlar bo'lgani o'z ona tilini ham yodidan chiqarib qo'yaboshlaganidan ko'rinib turar, garchi so'zlarni yodidan chiqarmagan bo'lsa ham, fransuzcha jumla tuzishni ancha unutgan edi. U fransuz koloniyalaridagi negrlarga o'xshab so'zlardi.

Mustaqillik qal'asining komendanti haqiqatan ham fransuz armiyasining serjanti, Parshappning sobiq o'rtoqi ekan. U qal'a qurilgan 1828-yildan beri undan hech qayerga jilmagan bo'lib, hozir esa qal'aning komendanti vazifasini bajarar ekan, bunga hatto Argentina hukumati ham rozilik beribdi. **Manuel Ifarager** ismli, elliklarga kirgan bu bask, ko'rganimizdek, deyarli ispan edi. Tandilga kelganiga bir yil bo'lganda

serjant Manuel Argentina grajdanligini qabul qiladi, so'ng Argentina armiyasiga xizmatga kiradi va bir hindu qizga uylanadi. Ko'p o'tmay xotini ikki egizak tug'ib beradi, turgan gapki, bolalari o'g'il bo'ladi, chunki serjantning layoqatli xotini eriga qiz tug'ib berishni o'ziga ep ko'rmasdi. Manuel harbiy xizmatdan boshqa hech narsani tan olmas, shuning uchun vaqti kelib, respublikaga butun bir rota soldat tayyorlab bermoqchi edi.

- Ko'rdingizmi? - dedi u. - O'tkir soldatlar! Azamatlarim! Xose! Xuan! Mikel! Pepe endi yettiga kirdi, ammo hozirdanoq miltiq otishni biladi!

O'zini maqtashayotganini eshitgan Pepe yalang oyoqlarini juftlashtirib, qaddini rosladi va juda kelishirib miltiq bilan chest berdi.

- Durust odam chiqadi, - dedi komendant. - Axir bir kun polkovnik yo bo'lmasa starshiy brigadir bo'ladi!

Manuel Ifarager Talkavni g'oyat taajjubga solib choarak soatcha to'xtamay gapirdi. Bitta og'izdan shuncha gapning qaynab chiqishiga hindu g'oyat hayron edi. Komendantning so'zini hech kim bo'lmadi. Lekin fransuz serjantning gapi ham axiyri tamom bo'lishi kerakku, mana, oxiri Manuel ham mehmonlarni ichkariga taklif qilib jim bo'ldi. Mehmonlar Ifarager xonimni ziyorat qilib chiqish zaruratini indamay bajardilar, u bilan tanishgach esa, «yaxshigina xotin ekan» deb topdilar.

Mehmonlar serjantning butun istaklarini bajarishgach, nihoyat u sayohatchilarning qal'aga kelishdan maqsadlarini so'radi.

Maqsadga ko'chishga eng qulay payt keldi. Bu vazifani Paganel o'z bo'yniga oldi. U gapni o'zlarining pampaslarda qilgan hamma sayohatlarini fransuz tilida so'zlab berishdan boshladi-da, hindular qirlarni nima sababdan tashlab ketishganini so'rash bilan tamomladi.

- E! Qirda hech kim yo'q! - dedi serjant, yelkasini qisib. - To'g'ri!.. Hech kim yo'q... Hammamiz qo'l qovushtirib o'tiribmiz... Qiladigan ish yo'q...

- Nima uchun axir?

- Urush.

- Urush?

- Ha, grajdanlar urushi...

- Grajdanlar urushi? - deb takror so'radi Paganel.

– Ha, Paragvay bilan Buenos-Ayres o'rtasida urush, – deb javob berdi serjant.

– Xo'sh, urush bo'lsa nima?

– Hindularning hammasi shimolda... general Flores izidan ketgan...

– Katsiklar qayerda?

– Katsiklar ham o'sha yoqda.

– Nima?! Katriel ham-a?

– Katriel ham.

– Kalfukura-chi?

– Kalfukura ham.

– Yanchetrutsa-chi?

– Yanchetrutsa ham.

Geografiya olimi bu suhbatni Talkavga tarjima qilib berdi, u to'g'ri deganday bosh silkib qo'ydi. Aftidan, Talkav Argentinaning Paragvay va Buenos-Ayres viloyatlari o'rtasida bo'layotgan grajdanlar urushi bu viloyatlarning aholisi qirilib ketishiga sabab bo'layotganini, shuning uchun bunga Braziliyaning aralashuvi lozim bo'lganini bilmas, yoki yodidan chiqarib qo'ygandi.

Lekin bu voqealar Glenarvanning butun rejalarini barbod qildi. Haqiqatan ham, Garri Grant o'sha katsiklar qo'lida asir bo'lsa, demak, ular kapitanni respublikaning shimoliy chegaralariga olib ketishgan. Agar shunday bo'lsa, uni qayerdan, qanday qidirish kerak? Yangitdan pampasiarning shimolida xatarli va deyarlik befoyda qidirish ishlarini boshlash lozim bo'ladimi? Ammo bunday jiddiy qarorni qabul qilishdan oldin uni atroflicha muhokama qilib olish kerak.

Serjantdan so'raydigan yana bir muhim narsa qolgandi, buni so'rash mayorning esiga kelib qoldi. Hamrohlari indamay bir-birlariga qarab o'tirishar ekan, Mak-Nabbs serjantdan: katsiklar qo'lida asirlikda bo'lgan yevropaliklar to'g'risida hech gap eshitganmisiz, deb so'radi.

Manuel allanarsani esiga tushirayotgandek bir necha minut o'ylanib turdi-da, keyin:

– Ha, eshitganman, – dedi.

Ko'nglida yana umid tug'ilgan Glenarvan:

– A! – deb yubordi.

U, Paganel, Mak-Nabbs va Robert serjantning atrofini o'rab oldilar.

– Gapiring, gapirsangiz-chi! – deb qistashdi ular ko‘zlarini javdiratib.

– Bundan bir necha yil burun,.. – deb gap boshladi serjant. – Ha, to‘g‘ri... Yevropalik asirlar... Lekin o‘zim ko‘rgan emasman...

– Bir necha yil burun deysizmi! – deb uning so‘zini bo‘ldi Glenarvan. – Yanglishyapsiz! «Britaniya» 1862-yilning iyunida halokatga uchragan. Demak, bunga hali ikki yil ham bo‘lgani yo‘q.

– Yo‘q! Ko‘p bo‘ldi, ser!

– Yo‘g‘-e! – deb qichqirdi Paganel.

– To‘g‘risi shu. Bu gap Pepe tug‘ilgan yil bo‘lgan... Ikkita asir to‘g‘risida gapirib yurishgan edi.

– Yo‘q, asirlar uchta, – deb gap qistirdi Glenarvan.

– Ular ikki kishi edi, – dedi yana serjant.

– Ikki kishi? – deb takror so‘radi Glenarvan. – Ikki ingliz edimi?

– Aslo, – dedi serjant. – Inglizlar nimasi! Yo‘q... Biri fransuz, biri italyan.

– Poyux hindulari o‘ldirgan italiyalikmi? – deb so‘radi Paganel.

– Ha... Buni keyin bildim. Fransuz qutulib ketgan.

– Qutulib ketibdi! – dedi Robert, u gap o‘z hayoti haqida borayotganday serjantning nima deyishini jon hovuchlab kutib turardi.

– Ha, asirlikdan qochib qutuldi, – dedi serjant.

Hamma Paganelga o‘g‘irilib qaradi: u xafalik bilan peshanasini shapatilardi.

– Endi tushundim, – dedi u nihoyat. – Hammasi ravshan! Hammasi aniq bo‘ldi!

– Nima gap, o‘zi? – deb so‘radi toqati toq bo‘lgan Glenarvan xavotirlanib.

– Do‘stlarim, – dedi Paganel, Robertning qo‘lidan ushlab, – biz katta muvaffaqiyatsizlikka uchrabmiz: xato yo‘ldan ketibmiz. Bunda gap kapitan Grant haqida emas, mening bir vatandoshim haqida boryapti, uning **Marko Vazello** degan o‘rtog‘ini haqiqatan ham poyux qabilasidan bo‘lgan hindular o‘ldirishgan. Fransuzni esa hindular o‘zlari bilan bir necha marta Kolorado bo‘yiga olib ketishgan, Keyin u qochib qutulishga muvaffaq bo‘lgan, hozir Fransiyada. Biz Garri Grantning izidan ketyapmiz deb, Ginar degan fransuz yigitning iziga tushgan ekanmiz.

Paganelning so'zini hamma jim turib tingladi. Xato qilishgani aniq edi. Serjant aytib bergan barcha tafsilotlar, asirning millati, o'rtog'ining o'ldirilgani, o'zining asirlikdan qochib qutulgani – hammasi buni tasdiqlardi.

Glenarvan garang bo'lib Talkavga qarab turardi.

– Siz asir tushgan uchta ingliz to'g'risida hech qanday gap eshitganingiz yo'qmi? – deb so'radi Talkav, serjantdan.

– Hech vaqt, – dedi Manuel. – Tandilda ma'lum bo'lardi... Men bilgan bo'lardim... Yo'q, bunday gap bo'lgani yo'q...

Bu uzil-kesil javobdan so'ng Glenarvanning qal'ada qiladigan ishi qolmadi. Glenarvan va uning hamroh-lari serjantga tashakkur aytib va qo'lini mahkam qisib xayrlashdilar-da, qal'ani tark etdilar.

Glenarvan butun umidlari puchga chiqqanidan o'zini qayerga qo'yishini bilmadsi. Robert ko'z yoshlarini artib, u bilan yonma-yon borardi. Bolani ovutish uchun Glenarvan bir og'iz ham so'z topolmadi. Qo'lini paxsa qilib, Paganel o'zi bilan o'zi gaplashib borardi.

Mayor miq etmasdi.

Chet ellik sayohatchilarni chatoq yo'ldan boshlab kelganiga Talkavning ham juda ta'bi xira edi.

Lekin bu xato uchun uni ayblash hech kimning xayoliga ham kelmadi.

Kechki ovqat xafalik bilan yeyildi. Albatta, bu jasur va bahodir odamlarning birontasi ham bekorga shuncha kuch sarf qilgani va xavf-xatarga duchor bo'lganiga afsuslanmas, lekin butun umidlar birdan puchga chiqqani hammasiga ham alam qilardi. Haqiqatan ham, Tandil tog'lari bilan okean orasida kapitan Grant to'g'risida yangi xabar topish mumkinmidi? Albatta, yo'q. Atlantika okeani sohilida biror yevropalik kishi hindular qo'liga tushib qolgan bo'lsa, turgan gapki, bu serjant Manuelning qulog'iga yetmay qolmasdi. Bunday voqea Tandil bilan ham, Rio-Negro daryosining etagiga joylashgan Karmen bilan ham doim savdo qiladigan hindularning nazaridan qochmagan bo'lardi. Argentina tekisliklarida savdo-sotiq qiladigan kishilar undagi hamma ishdan xabardor bo'ladilar, hamma yangiliklarni aytib turadilar. Shunday qilib, sayohatchilarning tezlik bilan shartga ko'ra ularni Medano bu-

runida kutib turishi kerak bo'lgan «Dunkan»ga qaytishdan boshqa ishlari qolmadi.

Shunga qaramay Paganel ularning bu muvaffaqiyatsiz safarga chiqishiga sabab bo'lgan hujjatlarni Glenarvandan so'rab oldi. Geograf hujjatlarni xunob bo'lib, yana qayta-qayta o'qiy boshladi. U hujjatlardan yangi bir ma'no topishga urinardi.

– Axir hujjatning ma'nosi juda aniq-ku! – derdi qayta-qayta Glenarvan. – Unda «Britaniya»ning halokatga uchrangani ham, kapitan Grantning qayerda asirlikda ekani ham aniq aytilgan.

– Men esa bunday emas deyman! – dedi Paganel mushti bilan stolga bir urib. – Aslo bunday emas! Hamon Garri Grant pampaslarda yo'q ekan, demak, u Amerikada emas. Lekin uning qayerda ekanini mana bu hujjat aytib berishi kerak. U buni aytib beradi ham, do'stlarim, bo'lmasa men Jak Paganel emasman!

Yigirma ikkinchi bob

TOSHQIN

Mustaqillik qal'asi Atlantika okeani sohilidan bir yuz ellik mil masofada joylashgan. Glenarvanning hisobicha, yo'lda biror kutilmagan hodisa yuz berib qolmasa – bunday bo'lishiga hech qanday sabab ko'rinmasdi, – ular to'rt kunda «Dunkan»da bo'ladilar. Lekin u o'z qidirish ishlarida batamom muvaffaqiyatsizlikka uchrab, kemaga kapitan Grantsiz qaytish fikri bilan aslo kelisha olmasdi. Shuning uchun u ertasiga yo'lga chiqishni paysalga solaverdi. Oziq-ovqat g'amlab olish, otlarni egarlash, qayerlarda to'xtash mumkinligini surishtirish kabi ishlarga mayorning o'zi bosh bo'ldi. Uning ko'rsatgan g'ayrati tufayli kichkina otryad ertalab soat sakkizda S'erra-Tandilning qalin o't bosgan yonbag'ridan tushib borar edi.

Glenarvan indamay Robert bilan yonma-yon o't choptirib borardi. Dadil va jasur Glenarvan bu muvaffaqiyatsizlikdan so'ng xotirjam qololmas, yuragi gupulab urar, boshi o't bo'lib yonardi. Muvaffaqiyatsizlikdan bo'g'ilgan Paganel hujjatdagi so'zlarni birin-ketin xayolidan o'tkazar, ulardan yangi ma'no axtarar edi. Talkav jilovni Taukaning bo'yniga tashlab qo'yib, in-

damay borardi. Hech vaqt umidsizlikka tushmaydigan mayorgina ruhiy tushkunlik nima ekanini bilmaydigan kishiday bardam borardi. Tom Ostin bilan ikki matros Glenarvanning holiga chin yurakdan achinardilar. Yo'lni allanarsadan hurkigan bir quyon kesib o'tdi. Irim-sirimga qattiq ishonadigan shotlandiyaliklar bir-birlariga qarab olishdi.

- Bu xosiyatsiz belgi, - dedi Vilson.

- Ha, Shotlandiyada shunday, - dedi Myulredi.

- Shotlandiyada xosiyatsiz bo'lgan narsa bu yerda ham xosiyatsiz, - dedi Vilson nasihatimiz.

Choshgohga yaqin sayohatchilarimiz Tandil tizmalarini orqada qoldirib to'liqinsimon cho'zilib okean sohiligacha tushib boradigan bepoyon tekislikdan chiqdilar. Har qadamda oqar suvlar uchrab turdi. Ular zilol suvlari bilan bu serunum yerlarni sug'orib, qalin o'tloqlar orasida ko'zdan g'oyib bo'lardilar. Yer, bo'rondan keyin tinchlanib kelayotgan okeandek, tobora tekislashaverdi. Tog' etaklaridagi oxirgi tepalar orqada qolib ketdi, otlar endi kattakon yashil gilamga o'xshagan bir xil manzarali tekis dashtdan borardi.

Havo shu vaqtgacha doim ochiq edi, lekin bugun aynib qoldi. Keyingi kunlardagi jazirama issiqda paydo bo'lgan bug'lar quyuq bulut hosil qilib, qattiq yomg'ir yog'ish xavfini tug'dirdi. Buning ustiga Atlantika okeanining yaqinligi va doim g'arbdan shamol esib turishidan bu yerlarning iqlimi ayniqsa nam. Yerning serunumligi, o'tloqlarning qalin barra o't bilan qoplanganligi, o'tlarning ko'm-ko'kligi buni yaqqol ko'rsatib turardi. Lekin bugun qop-qora bulutlar jala quymadi, qirq milcha yo'l bosib charchagan otlar kechqurun suv to'la katta-katta tabiiy chuqurliklar yoqasiga yetib bordilar. Shu yerda tunash uchun to'xtashdi. Kirib yashirinadigan bironta ham boshpana yo'q. Poncho sayohatchilarga ham boshpana, ham o'rin-ko'rpa o'rnida o'tdi. Hammalari minut sayin jala ostida qolishi mumkin bo'lgan ochiq yerda yotib uxlashdi. Sayohatchilarning baxtiga, hech narsa yog'madi. Ertasiga, tep-tekis dala okean tomonga pasaya borgani sari yerosti suvlarning juda yuza ekani yana ham aniqroq ko'rina bordi - suv imkon topgan barcha joydan yerning bag'rini teshib tashqariga chiqib yotgandek edi. Ko'p o'tmay sharqqa qarab borayotgan sayohatchilar yo'lini ko'llar

to'sib chiqa boshladi, ularning ba'zilari suvga to'la, ba'zilari esa endi to'layotgandi. Yo'lda ichini o't bosmagan, yuzi aniq ko'rinib turgan ko'llar uchraganda otlar ular yonidan o'tib bordi, lekin baland o't bosib ketgan yoriqlar – pentanlar uchray boshlagach, ahvol ancha og'irlashdi. Bu yoriqlarni darrov payqab olib, xatardan o'z vaqtida saqlanib qolish juda mushkul edi.

Bu *pentanlar*, aftidan, juda ko'p jonli mavjudotlar uchun balo bo'lgan edi. Chunki otryaddan yarim milcha ilgari lashib ketgan Robert, birdan ot choptirib kelib qoldi.

– Janob Paganel! Janob Paganel! – deb qichqirardi u. – Anavi yerda mollarning shoxi o'rmonday bo'lib o'sib yotibdi!

– Nima? – dedi hayron bo'lib Paganel. – Mollarning shoxi o'rmonday bo'lib o'sib yotibdi deysanmi?

– Ha, ha! Rostakam katta o'rmonday bo'lmasa ham, endi o'sib kelayotgan o'rmonday!

– Mollarning shoxi-ya? Dovdirayapsanmi deyman, o'g'lim! – dedi Paganel yelkasini qisib.

– Yo'q, dovdirayotganim yo'q, – dedi Robert, – mana o'zingiz ham ko'rasiz. Juda qiziq yerlar ekan-a! Bu yerda mollarning shoxini ekisharkan, shox ham xuddi bug'doydek o'sarkan. Urug'ini qayerdan topsa bo'larkin-a!

– Axir u jiddiy gapiryapti! – dedi mayor.

– Ha, janob mayor, hozir o'zingiz ham ko'rasiz.

Robert yanglishmagandi: ko'p o'tmay otryad nuqul shox ekib tashlangan katta dala yoniga yetib keldi. Shoxlar qator tizilib ketgan bo'lib, oxiri ko'rinmasdi. Bu dala haqiqatan ham past, qalin o'sgan daraxt ko'chatlari ekilgan, endi yetilib kelayotgan g'alati o'rmonga o'xshardi.

– Endi nima deysiz? – dedi Robert.

– Anavini qarang-a! – dedi Paganel, so'ng Talkavga o'girilib, buning nima ekanini so'radi.

– Shoxlari yer yuziga chiqib turibdi, lekin tagida ho'kizlar bor, – dedi Talkav.

– Nima! – deb yubordi Paganel. – Shu yoriqda butun bir poda botib ketganmi?

– Ha, – dedi patagoniyalik.

Haqiqatan ham tuproq bo'shlik qilib, bu yerda ana shunday katta podani yer yutib ketgan ekan. Yaqinda-

ginada kattakon yoriqqa tushib ketib, yuzlab bosh qoramol halok bo'libdi. Argentina tekisliklarida bunday hodisalar bo'lib turadi, Talkav buni eshitgan bo'lishi kerak. Bu saboqni nazarga olib qo'yish zarur, albatta.

Otryad qadimgi dunyoning eng ochko'z xudolari talabini ham qondira oladigan bu bahaybat gekatombani¹ chetlab o'tdi, bir soatdan so'ng shox dalasi ikki milcha orqada qolib ketdi.

Aftidan, Talkavni allaqanday g'alati belgilar tashvishga solardi. U tez-tez otini to'xtatib, uzangiga oyog'ini tiragan holda tik turib qaray boshladi. U novcha bo'lganidan uzoq-uzoqlarni ko'ra olardi, lekin xavotir oladigan hech narsa ko'rinmasdi shekilli, u yana ot choptirib ketardi. Bir milcha yo'l yurgach, yana to'xtardi-da, hamrohlaridan goh bir necha mil shimolga, goh janubga uzoqlashib ketar, so'ng yana qaytib kelib o'zining biror narsadan xavotir olayotganini ham, nimadan umid qilayotganini ham bildirmay indamasdan otryad oldiga tushardi. Paganel Talkavning nima uchun bunday qilayotganiga hayron qoldi, Glenarvan esa xavotirga tushdi. U Paganeldan nima gap ekanini Talkavdan so'rashni iltimos qildi.

Paganel darhol Talkavga savol bilan murojaat qildi. Hindu nima uchun yerning bunchalik zax ekani-ga tushunolmayapman, deb javob berdi. U yo'l boshlovchilik qila boshlagandan beri bunchalik nam yerni hech ko'rmagan ekan. Argentina tekisliklaridan hatto yog'ingarchilik eng avjiga chiqqan paytlarda ham bema-lol o'tish mumkin bo'lardi.

– Borgan sari ortib borayotgan namlikning sababi nima bo'lishi mumkin? – deb so'radi Paganel.

– Bilmadim, – dedi hindu, – bilganimda ham...

– Tog' jilg'alari kuchli sel kelgan kezlarda toshmaydimi?

– Toshadigan vaqtlari ham bo'ladi.

– Bo'lmasa, hozir ham shunday bo'layotgandir-da?

– Ehtimol.

Paganel bu mujmal javob bilan qanoatlanishga majbur bo'ldi va suhbatning natijasini Glenarvanga aytdi.

– Talkav nima qilishni maslahat ko'ryapti? – deb so'radi Glenarvan.

¹ Gekatomba – Qadimgi Yunonistonda ma'budlarga yuz bosh bo'kiz qurbon qilish. Ko'chma ma'noda – jonli mavjudotlarning ko'plab halok bo'lishi.

– Nima qilish kerak? – deb so‘radi Paganel patagoniyalikdan.

– Tezroq yurish kerak, – dedi hindu.

Bu maslahatni berish oson edi-yu, ammo amalga oshirish qiyinroq bo‘ldi. Oyoqlari botib qolayotgan loy yerdan yurish otlarni tez charchatib qo‘ydi. Yo‘l esa tobora pastlashib boraverdi. Tekislikning bu qismi atrofda oqib o‘tadigan daryolar toshsa, suv ostida qoladigan kattakon pastqamlilik edi. Shuning uchun bu pastqam joydan imkoni boricha tez chiqib olish kerak, suv toshgudek bo‘lsa, bu yerlar bir zumda ko‘lga aylanishi turgan gap.

Otlarni tezroq haydashdi. Otlar pilch-pilch kechib borayotgan suvning o‘zi yetmay turgandek, kunduz soat ikkilarda havoning fe‘li aynab, tropik jala quyib berdi. Jaladan yashirinishning iloji yo‘q edi. Sayohatchilar bunga filosoflar sifatida qarab, matonat bilan bardosh berishdan boshqa chora topolmadilar. Otliqlarning shlapasidan poncholariga tarnovdan to‘lib tushayotgandek suv oqar, egar popuklaridan jildirab quyilardi. Ot tuyoqlari ham to‘xtovsiz suv sachratib turdi, natijada chavandozlar ham yerdan, ham osmondan ikki tomonlama yomg‘ir ostida qolgandek borardilar.

Shalabbo bo‘lib ketgan, charchab holdan toygan sayohatchilarimiz sovuqdan dir-dir titrab, kechga yaqin tashlandiq bir ranchoga yetib bordilar. Nihoyatda kamsuqum kishilargina bunday xarobani boshpana deb hisoblashi mumkin. Nihoyatda ayanchli ahvolda tushgan sayohatchilargina uning ichiga kirib yashirinishlari mumkin. Ammo Glenarvan bilan uning hamrohlari joy tanlaydigan holda emasdilar, shuning uchun juda qashshoq hindu ham kirib yotishga or qiladigan bu xarobaga joylashdilar. Zo‘r mashaqqat bilan quruq o‘tdan gulxan yoqdilar, o‘t issiq berishdan ko‘ra ko‘proq tutardi. Tashqarida yomg‘ir hamon chelaklab quygandek yog‘ar, chirib qolgan poxol tomdan esa chakka o‘tardi. Chakka tufayli gulxan necha martalab o‘chay-o‘chay deb qoldi, necha martalab uni saqlab qolishdi.

Mazasiz va qorinni to‘yg‘izmaydigan ovqatni istaristamas yeyishdi. Hech kimning ishtahasi yo‘q. Ho‘l bo‘lib qolgan ovqatdan faqat mayor to‘yib yedi. Mak-

Nabbsning xotirjamligini hech narsa buzolmasdi. Asl fransuz bo'lgan Paganel hazil qilishga urinib ko'rdi, lekin hech kim kulmadi.

– Hazillarim ham ivib qolganga o'xshaydi, – deb qo'ydi u.

Bunday sharoitda eng ma'qul ish – yotib uxlash. Shuning uchun hammalari ham charchoqni unutilib yotib uxlashga intildilar. Kechasi bilan bo'ron tinmadi, xaroba rancho shamolda qirsillar, shamolning har bir qattiq xurujida tebranib, qulab tushay-qulab tushay derdi. Ochiq havoda, yomg'ir va bo'ronda qolgan bechora otlar ayanchli pishqirar, ammo xarobada, chakka ostida yotgan xo'jayinlari ham otlardan yaxshi ahvolda emas edilar. Ammo sekin-asta hammani uyqu bosa boshladi. Eng oldin Glenarvanning yelkasi-ga bosh qo'yib, Robert uxlab qoldi, undan keyin birin-кетин hamma uxlab ketdi.

Tun tinch o'tdi. Sayohatchilarni uyqudan Tauka uyg'otdi. Har vaqtdagidek bardam bo'lgan Tauka kishnar va tuyog'i bilan rancho devorini qattiq-qattiq tepardi. Talkav yo'lga tushishga signal bermagan paytlarda, buni uning oti qila olardi. Otryaddagilar Taukadan ko'p qarzdor edilar, shuning uchun unga quloq solmaslikning iloji yo'q. Birozdan so'ng otryad yo'lga tushdi.

Jala to'xtagan, yomg'ir faqat shivalab yog'ib turibdi, lekin endi yer havodan tushgan suvni shimmay qo'ygandi. Butun ko'llar, ko'lmaklar, botqoqlikdagi suvlar bir-biriga qo'shib, chuqurligini bilib bo'lmaydigan katta suv ombori hosil qilgan. Paganel xaritaga qarab, shu atrof-dagi barcha katta-kichik suvlar borib quyiladigan Rio-Grande va Rio-Vivarota daryolari toshib, bir necha mil kenglikdagi bitta katta daryo hosil qilgan bo'lsa kerak deb o'ylagani bejiz emas edi.

Nihoyatda tezlik bilan yurish kerak. Gap hammalarining hayot-mamoti to'g'risida borardi. Toshqin kuchaysa, qayerda jon asraydilar? Lekin atrofda, ko'z ilg'aydigan joyda bironta ham balandroq joy ko'rinmasdi, bunday pastlik yerni esa bir pasda suv bosib ketishi mumkin.

Otlarni qattiq choptirib ketdilar. Oldinda Tauka qushdek uchib borardi. Hozir u yerda yuradigan otdan ko'ra, dengiz otiga ko'proq o'xshardi, chunki u suv

ichida ham yerda yurgandek chaqqonlik bilan juda tez ilgarilab borardi.

Ertalab soat o'nlarga borib Tauka birdan qattiq bezovtalanib qoldi. U tez-tez tumshug'ini burib, janub tomondagi poyonsiz yalanglikka qarab qo'yar, ovozi-ning boricha kishnab, burun teshiklarini kerib nafas olar, o'qtin-o'qtin osmonga sapchir edi. Otning bu sapchishlari mohir chavandoz Talkavni yiqitolmas, ammo u Taukani zo'rg'a yo'lga solib borardi. U so'liqni tortib qo'ydi, otning og'zidan sochilayotgan ko'pik qonga bo'yaldi, lekin jonivor tinchlanmasdi. Talkav hozir otni o'z ixtiyoriga qo'yilsa, u shimol tomonga o'qdek uchib ketishini bilardi.

– Taukaga nima bo'ldi? – deb so'radi Paganel. – Suvdan biror zuluk yopishib oldimikin-a?

– Yo'q, – dedi hindu.

– Demak, bir narsadan cho'chibdi-da?

– Ha, u xavfni sezdi.

– Qanday xavf?

– Bilmadim.

Tauka sezgan xavfni hali ko'rib bo'lmasa ham, shovqini uzoqdan quloqqa kelib urila boshladi. Uzoqdan, ufqning naryog'idan sohilga kelib urilgan dengiz to'lqinining shovullashiday bo'g'iq tovush eshitilardi. Shiddat bilan esayotgan nam shamol suv ko'kishlarini uchirib kelardi. Sayohatchilarimizga noma'lum bo'lgan allaqanday tabiiy ofatdan hurkigan qushlar jon halpida o'qday uchib o'tdilar. Tizzasidan suv kechib borayotgan otlar suv ostidagi oqimni seza boshladilar. Ko'p o'tmay otryaddan yarim milcha janubda katta bir poda ko'rindi, qo'rqib ketgan jonivorlar jon holatda ma'rab, kishnab, bo'kirib, shovqin-suron ko'tarib kelardilar. Ular bir-birini turtib, ag'natib, yana o'rnidan turib, juda tez chopib borardilar. O'zlari sachratgan suv ostidan esi og'ib qolgan bu jonivornlarni ko'rib bo'lmasdi. Eng katta kitlardan yuztasi ham okeanni bunchalik to'lqinlata olmasa kerak.

– Anda, anda!¹ – deb qichqirdi Talkav guldurlagan tovush bilan.

– Nima gap, o'zi? – deb so'radi Paganel.

– Toshqin! Toshqin! – deb javob berdi Talkav va otiga shpor urib, shimol tomonga o'qdek uchib ketdi.

¹ Tezroq, tezroq!

- Toshqin! - deb qichqirdi Paganel.

So'ng hammalari Taukaning ketidan ot qo'ydilar.

Paysalga solib bo'lmadi: besh milcha janubda shu tomonga bostirib kelayotgan bahaybat suv to'liqu ko'rindi, u tekis dalani haqiqiy okeanga aylantirib keldi. Baland o'sgan o'tlar o'rib tashlagandek bir lahza da g'oyib bo'lib qoldi. Ildizi bilan sug'urilib chiqqan mimoz o'tlari suv yuzida orolchalar hosil qilganday oqib borardi. Suv juda tez ko'tarila boshladi: pampaslarning eng katta daryolari oralig'idagi to'siqlar buzilgan bo'lsa kerak, shimoldagi Rio-Kolorado bilan janubdagi Rio-Negro qo'shilib ketgan bo'lsa ham ajab emas.

Talkav ko'rsatgan suv to'liqu uchqur otdek tez bostirib kelaverdi. Sayohatchilarimiz undan bo'ron quvgan bulutdek qochib borardilar. Ular javdirab, atrofdan jon asrash mumkin bo'lgan biror joy axtarar, lekin ko'z ilg'aguday masofada hamma yoqni suv bosib yotardi. Qo'rqib quti o'chgan otlar jon holatda o'qdek uchib borar, otliqlar egarda zo'rg'a o'tirardilar. Glenarvan tez-tez orqasiga qarab qo'yardi.

«Suv bizga yetib oladi», deb o'ylandi u.

- Anda, anda! - deb qichqirardi Talkav.

Keyin otliqlar otlarini yana ham tezroq haydashga urindilar. Shpor zarbidan biqini shilini ketgan otlarning ikki yoni qip-qizil qonga bo'yaldi. Ular o'tgan joyda suv qip-qizil qon bo'lib qola boshladi. Otlar o'ydimchuqur yerlarda qoqilib-qoqilib ketardi. Oyoqlariga suv ostida qolib ketgan o'tlar o'ralishib, yiqilar edilar. Chavandozlar ularni turishga majbur qilardilar. Ular yana yiqilar, yana turishga majbur bo'lardilar. Suvning sathi esa borgan sari ko'tarila borardi. Suv yuzi to'liquqlana boshladi, bu esa kattakon to'liqu yaqinlashib qolgani-dan darak berardi, - uning ko'piklari qochqinlardan ikki milcha orqada quturib kelmoqda.

Tabiiy ofatlar ichida eng xatarlisi bilan bo'lgan bu kurash yana chorak soat davom etdi. Qochqinlar qancha yo'l bosib o'tganlarini bilmas edilar, otlarning tez chopib borishiga qarab hukm qilganda ular ozmuncha yo'l bosmadilar. Endi esa ko'krigidan suv kechib borayotgan otlar, juda qiyinlik bilan oyoq ko'tarib bosardilar. Glenarvan, Paganel, Ostin - hamma ham endi halok bo'ldik deb o'ylar edi. Otlarning oyog'i zo'rg'a

yerga tegib borardi, suvning chuqurligi olti futga yetsa sayohatchilarning halok bo'lishi muqarrar.

Orqasidan bahaybat suv to'fqini quvib kelayotgan bu sakkiz kishining qanday dahshat ichida qolganini tasvirlab berish qiyin. Ular tabiiy ofat bilan kurashish uchun ojizlik qilib qolayotganlarini seza boshladilar.

Endi ularning taqdiri o'z qo'lida bo'lmay qoldi.

Yana besh minutdan so'ng otlar suza boshladilar. Oqim ularni juda katta tezlik bilan surib ketdi, uning tezligi soatiga yigirma mildan ham oshib ketar, bu esa ular shu paytgacha yo'l yurgan eng baland sur'atdan ham tez edi.

Xalos bo'lishga hech qanday umid qolmagandek edi, lekin shu payt birdan mayorning ovozi yangradi:

- Daraxt!

- Daraxt? - deb so'radi Glenarvan.

- Hov ana, ana! - dedi Talkav va ulardan sakkiz yuz sajencha joyda tanho qo'qqayib turgan kattakon yong'oq daraxtini ko'rsatdi.

Talkavning hamrohlarini shoshirishiga hojat yo'q edi. Hech kutilmaganda oldilaridan chiqib qolgan o'sha daraxtga har qanday qilib bo'lsa ham yetib olish zarurligini hamma tushunardi. Aftidan, daraxtgacha suzib borishga otlarning kuchi yetmas, lekin odamlar unda jon saqlashlari mumkin edi, chunki oqim ularni to'ppa-to'g'ri o'sha tomonga surib borardi. Xuddi shu payt Ostinning oti bir kishnadi-yu, cho'kib ketdi. Ostinning o'zi oyog'ini uzangidan chiqarib oldi-da, baquvvat qo'llarini ishga solib, suzib ketdi.

- Mening egarimdan ushla! - deb qichqirdi unga Glenarvan.

- Rahmat, ser, - dedi Tom Ostin. - Qo'llarim juda baquvvat!

- Sening oting qalay, Robert? - deb so'radi Glenarvan, yosh Grantga o'girilib.

- Suzyapti, ser, baliqdek suzib ketyapti.

- Diqqat! - deb qichqirdi mayor, ovozini baland qo'yib.

U shunday deb qichqirishi bilanoq, sayohatchilar ustiga zo'r to'fqin bostirib keldi; balandligi qirq fut keladigan bu nihoyatda katta to'fqinning guvullashi quloqlarini kar qilayozdi. Odamlar ham, otlar ham - hamma girdob ostida qolib ketdi. Bir necha million

tonna og'irlikdagi suv massasi sayohatchilarni o'z qa'riga tortib ketdi.

To'lqin o'tib ketgach, sayohatchilar suv yuziga qalqib chiqib, shosha-pisha bir-birlarini sanadilar. Hammalari omon, lekin Taukadan boshqa barcha otlar g'arq bo'lgan edi.

- Dadilroq bo'ling! Dadilroq! - deb Paganelga dalda berdi Glenarvan, bir qo'li bilan suzib, ikkinchi qo'li bilan olimga yordam berar ekan.

- Hechqisi yo'q... Zarari yo'q!.. - deb javob berdi geografiya olimi. - Men hatto achinmayotganim ham yo'q...

Lekin uning nimaga achinmayotgani shu-shu noma'lumligicha qolaverdi, chunki bechora Paganel gapining davomini aytib tugatolmay, so'nggi so'zlari bilan juda ko'p miqdor loyqa suv yutib yuborishga majbur bo'ldi. Mayor xotirjamlik bilan quloch otib suzib borar, uning hozirgi suzishini har qanday trener ham ma'qullagan bo'lardi. Matroslar baliqdek suzib borardilar. Robert esa Taukaning yoliga yopishib olgan edi, ot uni suv yuzida olib borardi. Tauka keng, baquvvat ko'kraklari bilan suvni yorib, daraxt tomonga suzar, oqim ham ularni xuddi o'sha tomonga surib borardi.

Daraxtga yetishlariga nihoyat yigirma sajencha qoldi; yana bir necha minutdan keyin butun otryad unga yetib oldi. Bu ularning baxti bo'ldi; agar daraxt uchrab qolmaganda tirik qolishga hech qanday umid qolmagan bo'lar, to'lqinlar orasida halok bo'lib ketishar edi.

Suv daraxtning pastki katta shoxlariga yetgan edi, shuning uchun unga chiqib olish qiyin bo'lmadi. Talkav otini qo'yib yuborib, Robertni ko'targanicha eng oldin daraxtga chiqib oldi, so'ngra baquvvat qo'llarini uzatib, holdan toya boshlagan sayohatchilarni birin-ketin suvdan tortib oldi.

Taukani esa oqim jadal surib keta boshladi. U boshini egasi tomonga burib, uzun yollarini silkitar, yordamga chaqirayotgandek kishnar edi.

- Uni o'z holiga tashlamoqchimisan? - deb so'radi Paganel Talkavdan.

Buni eshitgan hindu:

- Menmi? - deb qichqirdi-da, to'lqinlanib oqayotgan suvga o'zini otdi, u daraxtdan o'n sajencha narida suv yuziga qalqib chiqdi. Bir necha minutdan so'ng u Ta-

ukaning bo'ynidan quchoqlab oldi va ikkalasi oqimda tuman bilan qoplangan shimol tomonga qarab suzib ketdilar.

Y i g i r m a u c h i n c h i b o b

SAYOHATCHILAR QUSHLARDEK HAYOT KECHIRDILAR

Glenarvan bilan uning hamrohlari chiqib, jon asragan daraxt barglari yaltiroq, shoxlari yo'g'on-yo'g'on yong'oqqa o'xshagan daraxt ekan. Bu, Argentina yalangliklarida tanho o'sadigan *ombu* daraxti edi. Uning bahaybat, qing'ir tanasi yo'g'on-yo'g'on ildizlari va yonlaridan o'sib chiqqan katta-katta novdalar bilan yerga mahkam o'rnashib olgan edi. Shuning uchun ham u haligidek zo'r to'lqinlar hamlasiga dosh berdi.

Bu ombuning balandligi yuz sajencha bo'lib, atrofda oltmish sajencha yerga soya bera olardi. Bu bahaybat daraxtning yo'g'onligi olti fut kelar, uchta katta-katta shoxi bor edi. Ulardan ikkitasi deyarlik tikka o'sgan. Daraxt tepasidagi novdalarni ana shular tutib turibdi, bu ikki shoxdan taralgan novdalar bir-biriga shunday chirmashib ketganki, xuddi savatchilar to'qigan savatga o'xshab, oftob o'tmaydigan soyavon hosil qilgan. Uchinchi shoxi esa, aksincha, quturib oqayotgan suv yuzida ko'ndalang cho'zilib yotardi; uning pastki novdalari suvga tegib turardi. Bu shox okean o'rtasidagi ko'm-ko'k orolning bir tomonga turtib chiqqan buruniga o'xshardi. Bunday katta daraxtda hammaga ham joy yetib ortardi, ko'm-ko'k quyuq barglar osti salqin va bahavo. Uchi bulutlarga tegay deb turgan, novdalari bir-biriga chatishib ketgan, quyuq barglari orasidan sal-pal quyosh nuri tushib turgan bu kattakon ombuga qarab, kishi o'zini butun bir o'rmonga kirib qolgandek his qilishi mumkin.

Sayohatchilar ombu ustiga chiqishlari bilan sonanoqsiz qushlar makonlarining bunday behayolik bilan bosib olinishiga norozilik bildirganday chag'irachug'ir ko'tarib, yuqoridagi shoxlarga uchib chiqib ketdi. Aftidan, qushlar ham toshqindan shu yakka-yolg'iz daraxtda jon saqlagan edilar. Ular had-hisobsiz edi: bu

yerga yuzlab qora *drozdlar*, *chug'urchuqlar*, *izaklar*, *xil-gueroslar* to'plangan, lekin patlari oltindek tovlanadigan *pikaflor* – *kolibrilar* ayniqsa ko'p. Bu rang-barang qushlar gur etib ko'tarilar ekan, qattiq esib o'tgan shamol daraxtning butun gullarini uzib, uchirib ketgandek tuyuldi.

Glenarvanning kichkina otryadiga tasodifan o'ng kelib qolgan joy ana shunday edi. Yosh Robert bilan epchil Vilson daraxtga chiqishlari bilanoq, uning eng uchiga ko'tarildilar. Ular daraxtning quyruq shoxlari orasidan boshlarini chiqarib, ufqni ko'zdan kechira boshladilar. Toshqin hosil qilgan okean chor atrofdan o'rab yotar, oxiri ko'rinmasdi. Suv bosgan bu yalanglikda boshqa bironta tikkaygan daraxt ko'rinmaydi, faqat ular chiqib olgan ombu daraxtigina quturib oqayotgan suv bosimi ostida titrab turibdi. Uzoqda kuchli oqim ildizi bilan sug'urib olib, janubdan shimolga oqizib ketayotgan daraxtlar, singan, bir-biriga chirmashib yotgan shoxlar, suv buzib ketgan rancholarning tomi-ga yopilgan poxollar, estansiyalar tomidan suv yulqib olgan xodalar, g'arq bo'lgan jonivorlarning jasadlari, qonga belangan yarador hayvonlar va to'lqinda chayqalib borayotgan bir daraxt ustida jon saqlayotgan bir necha qoplon ko'rindi, omonat kemalariga o'tkir tirnoqlari bilan mahkam yopishib olgan qoplonlar zo'r berib irillardilar. Undan narida Vilson sal-pal ko'z ilg'aydigan bir qora nuqta ko'rib qoldi. Bu Talkav bilan uning Taukasi edi – ular uzoqda ko'zdan g'oyib bo'lib borardilar.

– Talkav! Do'stim Talkav! – deb qichqirdi Robert, mard patagoniyalik hozirgina ko'rinib turgan tomonga qo'l cho'zib.

– U qutulib ketadi, master¹ Robert, – dedi Vilson. – Endi yuring, pastga tushamiz.

Bir minutdan keyin Robert Grant bilan matros «uchinchi qavatdan» pastga, daraxt tanasi uchta shoxga ajralib ketadigan yerga, sheriklari Glenarvan, Paganel, mayor, Ostin va Myulredi oldiga tushdilar. Har kim o'zi bilganча joylashgan: birov novdalardan ushlab o'tirar, birov shoxga minib olgan edi. Vilson ombuning tepasidan ko'rganlarini gapirib berdi. Uning Talkav ha-

¹ «Mister» xitob so'zi bolalarga murojaat qilganda «master» deb ishlatiladi.

lok bo'lmaydi, degan fikriga hamma qo'shildi. Faqat Talkav Taukani qutqazadimi, yoki Tauka Talkavni qutqazadimi, degan masaladagina fikrlar ikkiga bo'ldi.

Ombudagi mehmonlarning ahvoli patagoniyalikning ahvolidan xavfliroq edi, albatta. To'g'ri, daraxt suv oqimiga dosh berishi mumkin, ammo tobora ko'payib, ko'tarilib borayotgan suv uning uchigacha yetib chiqishi mumkin-da, chunki yalanglikning bu qismi eng pastqam yer bo'lib, tabiiy hovuzga o'xshab qolgan. Shuning uchun Glenarvan suvning sathi ko'tariyaptimiyo'qmi aniqlash uchun daraxtga o'yib belgi qo'yishni buyurdi. Suv boshqa ko'tarilmadi, – demak, toshqin eng yuqori nuqtasiga yetibdi. Bu hol sayohatchilari-mizni biroz tinchlantirdi.

– Endi nima qilamiz? – deb so'radi Glenarvan.

– Nima qilardik, in quramiz-da! – dedi quvnoqlik bilan Paganel.

– In quramiz! – deb qichqirdi Robert.

– Ha, in quramiz, o'g'lim, baliqlardek hayot kechirmaganimizdan keyin, qushlardek hayot kechirishimiz kerak-da.

– Xo'p, – dedi Glenarvan, – lekin bizni kim boqadi?

– Men, – dedi mayor.

Hamma Mak-Nabbsga o'girilib qaradi.

Ikkita egiluvchan shoxcha hosil qilgan kresloga boplab o'rnashib olgan mayor hamrohlariga suvda ivib qolgan ovqat bilan to'la xurjun uzatdi.

– Buni faqat sizdan kutish mumkin edi, Mak-Nabbs! – dedi xursand bo'lib Glenarvan. – Siz hech vaqt hech narsani unutmaysiz, hatto kishi hech narsa to'g'risida o'ylamaslikka majbur bo'lgan paytlarda ham o'zingizni yo'qotmaysiz!

– Rostki, cho'kib ketmaslikka ahd qilgan ekanmiz, demak, ochdan ham o'lmasligimiz kerak, – dedi mayor.

– Parishonxotir bo'lmaganimda men ham nima ye-yishimizni o'ylagan bo'lardim, – dedi Paganel soddalik bilan.

– Bu xurjunda nima bor? – deb so'rab qoldi Tom Ostin.

– Yetti kishiga ikki kunlik oziq-ovqat bor, – deb javob berdi Mak-Nabbs.

– Juda soz! – dedi Glenarvan. – Bir kundan keyin suv ancha pasaysa kerak, har holda.

– Yoki bu vaqt ichida quruq yerga yetib olish chorasini topamiz, – dedi Paganel.

– Demak, dastlabki burchimiz qorin to'yg'azib olish, – dedi Glenarvan.

– Kiyim-boshimizni quritib olgandan keyin, – deb gap qo'shdi mayor.

– Bunga o't qani? – deb so'radi Vilson.

– O't yoqish kerak, – dedi Paganel.

– Qayerda?

– Qayerda bo'lardi, mana shu yerda, daraxt ustida-da!

– Nima yoqamiz?

– Xuddi shu daraxtning quruq shoxlaridan sindirib tushamiz.

– Lekin qanday qilib yoqamiz? – deb so'radi Glenarvan. – Piligimiz ho'l bo'lib qolgan-ku.

– Usiz ham bir amallaymiz, – deb javob berdi Paganel. – Biroz quruq mox bo'lsa bas, mening durbinimning katta qilib ko'rsatadigan oynasini olib, quyosh nuri yordami bilan o't yoqamiz, gurullagan gulxan yonida isinishimni o'shanda ko'rasizlar. Xo'sh, o'rmonga o'tin terгани kim boradi?

– Men! – dedi Robert.

Shundan so'ng bola, do'sti Vilson bilan o'tinga ketdi, ular qalin shoxlar orasida mushuklardek birpasda ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Ular ketishgach, Paganel biroz quruq mox terib, daraxtning tanasi uch shoxga ajrab ketadigan joyiga terilgan ho'l barglar ustiga qo'ydi-da, durbinining katta qilib ko'rsatadigan oynasini olib, oftob tig'iga tutib, olov yoqishga urinib kordi. Quyosh charaqlab turgani uchun bu juda oson edi: yondi. Bunday gulxan mutlaqo xavfsiz. Ko'p o'tmay Vilson bilan Robert bir quchoqdan quruq shox sindirib kelishdi, o'tinlar darhol gulxanga tashlandi. Paganel shoxchalarni tezroq yondirish uchun arab usulini qo'lladi: u uzun oyoqlarini kerib, gulxan ustiga turdi-da, bir egilib, bir qaddini rostlab ponchosi bilan gulxanni yelpiy boshladi. Ko'p o'tmay hech kutilmagan paytda daraxt ustida paydo bo'lgan bu gulxan gurullab yonib ketdi. Har kim o'zicha kiyimlarini qurita boshladi; shoxlarga ilib qo'yilgan poncholar shamolda hilpirar edi. Kiyim-boshni quritib olishgach, ovqatlanishga o'tirdilar, lekin ovqatni qarab

yeyishga to'g'ri keldi – ertangi kunni ham o'ylash kerak edi-da! Oziq-ovqat juda kam, pastlikni bosgan suv esa Glenarvan kutganidan kechroq pasayishi mumkin. Ombuning hech qanday mevasi yo'q, lekin sayohatchilarning baxtiga, daraxtda qushlarning ini juda ko'p bo'lganidan, ombu o'z mehmonlarini turli-tuman tuxum bilan mo'l-ko'l ta'min qila olardi; buning ustiga, daraxtda qushlarning o'zi ham juda ko'p. Hozir esa ovqat tanlab o'tiradigan vaqt emas.

Bundan tashqari, daraxtda uzoq vaqt turib qo'llishlari ehtimol bo'lganidan qulayroq joylashib olishlari ham kerak.

– Oshxonamiz bilan ovqatxonamiz pastki qavatda bo'lgandan keyin, o'zimiz ikkinchi qavatga chiqib yotishimiz kerak, – dedi Paganel. – Uyimizda joy ko'p, kvartira bahosi ham qimmat emas, shuning uchun bahuzur joylashaveringlar. Hov anavi yerda, balandroqda bitta belanchak ko'rinyapti, tabiatning o'zi bizga atab tayyorlab qo'yganga o'xshaydi; agar o'zimizni unga yaxshilab bog'lab qo'ysak, dunyodagi eng yaxshi karavotda yotgandek maza qilib uyquni uraveramiz. Xavotir oladigan narsa yo'q. Buning ustiga navbatchi qo'yishimiz ham mumkin. Yetti kishilik otryad uchun bir gala yirtqich ham xavfli emas.

– Faqat qurol-yarog'imiz yo'q, xolos, – dedi Tom Ostin.

– Mening revolverim yonimda, – dedi Glenarvan.

– Meniki ham, – dedi Robert.

– Janob Paganel porox tayyorlash uchun biror usul topolmagandan keyin ularning nima keragi bor? – deb pisanda qildi Tom Ostin.

– Buning hojati ham yo'q, – dedi Mak-Nabbs, batamom qup-quruq porox xaltachani ko'rsatib.

– Qayerdan oldingiz uni, mayor? – deb so'radi Paganel, qiziqib.

– Bu Talkavniki. U bizga porox kerak bo'lib qo'llishini o'ylab Taukani qutqazish uchun o'zini suvga tashlashdan oldin uni menga bergan edi.

– Qanday jasur va oliyjanob hindu-a! – dedi Glenarvan, bundan ta'sirlanib.

– To'g'ri, – dedi Tom Ostin, – agar hamma patagoniyaliklar Talkavga o'xshagan bo'lsa, Patagoniya har qancha olqishga loyiq.

– Taukani ham yodingizdan chiqarmang, – deb gap qo‘shdi Paganel, – axir, Tauka Talkavning ajralmas bir bo‘lagi-ku. Men Talkavni o‘z Taukasi ustida yana ko‘rishimizga ishonaman.

– Biz hozir Atlantika okeanidan qancha uzoqdamiz? – deb so‘radi mayor.

– Ko‘p bo‘lsa, qirq mil, – deb javob berdi geografiya olimi. – Do‘stlarim, har kim istagan ishini qilsin deydi-gan bo‘lsanglar, endi menga ruxsat. Hozir men yuqoriga chiqaman-da, qulay bir joy topib, durbinim bilan tevarakni tekshiraman, dunyoda bo‘layotgan ishlardan sizlarni xabardor qilib turaman.

Olimni o‘z ixtiyoriga qo‘yib berdilar, u chaqqonlik bilan shoxdan shoxga o‘tib, birpasda ko‘m-ko‘k barglar orasida ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Hamrohlari esa uyquga yotish taraddudini ko‘ra boshladilar. Karavot qo‘yishning ham, o‘rin solishning ham hojati bo‘lmagani uchun bu ish tezda tugallandi. Shunga ko‘ra ular ko‘p o‘tmay yana gulxan atrofiga to‘plandilar.

Suhbat boshlandi, lekin gap sayohatchilar chidam bilan boshdan kechirayotgan hozirgi ahvol to‘g‘risida emas, hammaning fikri-yodini band qilgan mavzu – kapitan Grantning taqdiri to‘g‘risida bordi. Agar suv kamaysa, kichkina otryad uzog‘i bilan uch kundan keyin «Dunkan»ga yetib oladi, lekin halokatga uchragan bechora kapitan va uning ikki matrosi ular bilan kemaga chiqib bormaydi. Janubiy Amerikani kesib o‘tishdek foydasiz sayohatdan so‘ng ularni qutqarishga sira umid qolmagandek tuyulardi. Endi qayerdan axtarish kerak ularni? Kelgusida bu bechoralarni topishga hech qanday umid yo‘qligini eshitgach, Elen bilan Meri Grantning qanday qayg‘u ichida qolishini aytmaysizmi?

– Bechora opam! – dedi Robert ma‘yus. – Endi sira umid qolmaganini bilgandan keyin ne holga tusharkin!

Bolaga taskin berish uchun Glenarvan birinchi marta so‘z topolmay qoldi. Endi qanday umid to‘g‘risida so‘z bo‘lishi mumkin? Axir, ular topilgan hujjatda ko‘rsatilgan yo‘ldan sira og‘ishmay bordilar-ku!

– Har holda, o‘ttiz yettinchi parallel bekorchi gap emas, – dedi Glenarvan. – U Garri Grant asirga tushgan yerni ko‘rsatadimi, kemasi halokatga uchragan

yerni ko'rsatadimi – baribir, bu raqam uydirma emas, unda jon bor! Biz uni o'z ko'zimiz bilan o'qidik.

– Gaplaringiz to'g'ri-ya, ser, – dedi Tom Ostin, – lekin qidirishlarimiz natija bermadi.

– Xuddi ana shu narsa mening g'azabimni qaynatib xunobimni oshiryapti-da! – dedi Glenarvan.

– Xunob qilishi turgan gap, – dedi Mak-Nabbs xotirjamlik bilan, – lekin g'azablanishning hojati yo'q. Chunki, qo'limizda aniq raqamlar bor, o'sha raqam ko'rsatganni oxirigacha qilishimiz kerak.

– Bu bilan nima demoqchisiz? – deb so'radi Glenarvan, – sizningcha, yana nima qilishimiz mumkin?

– Bu o'z-o'zidan ko'rinib turgan oddiy gap, aziz Eduard. «Duncan»ga yetib olgach, sharqqa qarab yo'l olishimiz kerak, agar lozim bo'lsa o'ttiz yettinchi paraleldan, to yo'lga chiqqan joyimizgacha aylanib kelamiz.

– Nahotki, siz meni shu to'g'rida o'ylab ko'rmagan, deb o'ylasangiz Mak-Nabbs? – dedi Glenarvan. – Ha, albatta shunday qilishimiz kerak! Men buni yuz martalab o'ylaganman! Lekin hech umid bormi? Amerika qit'asini tashlab ketish bilan biz Garri Grantning o'zi ko'rsatgan joydan uzoqlashamiz-ku: hujjatda aytilgan Patagoniyadan uzoqlashib ketamiz.

– Demak, siz yana pampaslarda qidirish ishlarini boshlamoqchimisiz, shundaymi? «Britaniya» Atlantika okeani sohilida ham, Tinch okean sohilida ham halokatga uchramaganiga amin bo'ldingiz-ku, – deb e'tiroz bildirdi mayor.

Bu savolga Glenarvan hech narsa deb javob bermadi.

– O'ttiz yettinchi paraleldan borib, Garri Grantni boshqa yerdan topishga umid har qancha kam bo'lmasin, biz bundan bosh torta olamizmi? – dedi yana Mak-Nabbs.

– Men bunga yo'q demayman, albatta, – dedi Glenarvan.

– Sizlar nima deysiz, do'stlarim, – deb so'radi mayor dengizchilardan, – mening fikrimga qo'shilasizlarmi?

– Tamomila qo'shilmamiz, – deb javob berdi Tom Ostin.

Myulredi bilan Vilson uning so'zini bosh qimirlatib tasdiqladilar.

– Do'stlarim, – deb gap boshladi Glenarvan biroz o'ylab olgach, – gaplaringa quloq solinglar, sen ham,

Robert, gapimni yaxshilab uqib ol, chunki bu juda jiddiy masala. Men kapitan Grantni topish uchun qo'limdan kelgan barcha chorani ko'raman. Men bu ishni qilaman deb so'z berganman, zarur bo'lsa bunga butun umrimni bag'ishlayman. Ona Vatanimning sodiq farzandi bo'lgan u jasur odamni topishda meniga butun Shotlandiya yordam beradi. Men ham uni topishga umid qanchalik kam bo'lmasin, o'ttiz yettinchi parallel bo'ylab dunyoni aylanib chiqish kerak, degan fikrdaman. Shunday qilaman ham. Lekin hozir biz boshqa bir masalani, juda mushkul masalani hal qilib olishimiz kerak. Biz endi Amerika qit'asida qidirish ishlarini batamom to'xtatishimiz kerakmi-yo'qmi? Mana shunga nima deysizlar?

Uzil-kesil qilib qo'yilgan bu savol javobsiz qoldi. Hech kim o'z fikrini aytishga botinolmadi.

- Siz nima deysiz? - so'radi mayordan Glenarvan.

- Bu savolga javob berish uchun, aziz Eduard, juda katta javobgarlikni bo'ynimga olishim kerak, - dedi Mak-Nabbs. - Buni yaxshi o'ylashib ko'rish kerak. Dastlab men o'ttiz yettinchi parallel qaysi mamlakatlardan o'tishini bilmoqchiman.

- Bunga Paganel javob beradi, - dedi Glenarvan.

- Bo'lmasa, so'raylik undan.

Geografiya olimi qalin barglar ichida ko'rinmasdi, shuning uchun Glenarvan uni chaqirishga majbur bo'ldi:

- Paganel! Paganel!

Yuqoridan xuddi osmondan kelganday:

- Labbay, - degan javob eshitildi.

- Qayerdasiz?

- Minoramdaman.

- Nima qilyapsiz?

- Bepoyon ufqni ko'zdan kechiryapman.

- Birpas pastga tusha olasizmi?

- Kerak bo'lib qoldimmi?

- Ha.

- Nima sababdan?

- O'ttiz yettinchi parallel qaysi mamlakatlardan o'tishini bilmoqchimiz.

- Bundan oson ish bormi, - dedi Paganel. - Buning uchun pastga tushib yurishimning ham hojati yo'q.

- Bo'lmasa, ayting!

– Xo‘p, janubiy kenglikdagi o‘ttiz yettinchi parallel Amerikadan chiqib, Atlantika okeanini kesib o‘tadi.

– Xo‘p.

– Yo‘lda u Tristan-da-Kunya orollari yonidan o‘tadi.

– Juda soz!

– Keyin Yaxshi Umid burunining ikki gradus janubrog‘idan o‘tib ketadi.

– Keyin-chi?

– Keyin Hind okeanini kesib o‘tadi.

– Undan keyin-chi?

– Amsterdam arxipelagida Muqaddas Pyotr oroliga salgina tegib o‘tadi.

– Undan keyin-chi?

– Undan Keyin Avstraliyaning Viktoriya viloyatidan o‘tadi.

– Xo‘p, davom etavering!

– Avstraliyadan chiqib...

Oxirgi gap chala qoldi. Geografiya olimi taraddudlanib qoldimikan? Yo o‘ttiz yettinchi parallel undan keyin qayerdan o‘tishini unutib qo‘ydimikan? Yo‘q. Ombuning tepasidan qattiq qichqiriq eshitildi. Glenarvan bilan uning hamrohlari ranglari o‘chib, bir-birlariga qarab olishdi. Nahotki, yana bir falokat yuz bergan bo‘lsa? Nahotki, bechora Paganel yiqilib tushgan bo‘lsa?

Vilson bilan Myulredi yordamga yugurdilar, lekin shu payt tepada novcha odam gavdasi ko‘rindi, Paganel shoxdan shoxga dumalab, pastga tushib kelardi. Uning qo‘llari hech narsani ushlab ololmasdi. U tirikmidi-yo‘qmi? Kim biladi deysiz. Olim quturib hayqirayotgan to‘lqinlarga yiqilay degan ham ediki, mayorning baquvvat qo‘llari uni ushlab oldi.

– Salomat bo‘ling, Mak-Nabbs! – deb qichqirdi Paganel.

– Sizga nima bo‘ldi? – deb so‘radi mayor. – Nima gap, o‘zi? Yana parishonxotirlikmi?

– Ha, ha, – dedi Paganel, hayajondan nafasi tiqilib. – Ha, parishonxotirlik... Lekin bu safargisi juda kam uchraydigan parishonxotirlik...

– Nima gap axir?

– Biz xato qilgan ekanmiz! Biz hozir ham yanglish yo‘ldamiz! Biz shu vaqtgacha doim noto‘g‘ri yo‘ldan boribmiz!

- Bu bilan nima demoqchisiz?
- Glenarvan, mayor, Robert, hammangiz ham, do'stlarim, quloq solinglar! Biz kapitan Grantni u yo'q joydan qidirib yurgan ekanmiz!
- Rostdanmi? - deb yubordi Glenarvan.
- U bu yerda yo'qqina emas, bu yerlarga mutlaqo kelmagan ham! - deb qo'shimcha qildi Paganel.

Yigirma to'rtinchi bob

SAYOHATCHILAR HALI HAM QUSHLARDEK HAYOT KECHIRMOQDALAR

Hech kutilmagan bu xabar hammani hayron qoldirdi. Geograf bu bilan nima demoqchi? Sho'rluk aqldan ozmadimikan? Lekin u shunday ishonch bilan gapirardiki, hamma beixtiyor Glenarvanga qayrilib qaradi. Paganelning gapi hozirgina o'rtaga tashlangan savolga javob edi. Lekin Glenarvan faqat yo'q deganday bosh chayqab qo'ya qoldi. Aftidan, u geografiya olimining gapiga ishonmagan edi. Paganel esa o'zini bosib olgach, yana gapga kirdi:

- Ha, rostdan, - dedi u ishonch bilan, - biz uni tamoman boshqa yerdan qidiribmiz, buning ustiga, hujjatdan yo'q narsani o'qibmiz.

- Fikringizni ochiqroq aytsangiz-chi, Paganel, - dedi Mak-Nabbs, - lekin hovliqmasdan gapiring.

- Bu juda oson, mayor. Sizlar qatori men ham yanglishibman. Hamma qatori men ham hujjatni noto'g'ri izoh qilibman. Bundan bir minutgina burun, daraxt tepasida o'tirgan yerimda savollaringizga javob beraturib, «Avstraliya» deyishim bilanoq, miyamga lop etib bir fikr keldi-yu, hammasi ochiq-oydin bo'ldi-qo'ydi.

- Nima? - deb yubordi Glenarvan. - Siz Garri Grant...

- Ha, men shunday fikrga keldim, - deb uning gapini bo'ldi Paganel, - hujjatdagi «*austral*» so'zi biz shu paytgacha o'ylagandek to'la so'z emas, u Australia so'zining negizi.

- Mana bu original gap, - dedi mayor.

– Original gap emas, bunday bo'lishi mumkin ham emas! – dedi yelkasini qisib Glenarvan.

– Mumkin emas deysizmi!? – dedi Paganel. – Biz Fransiyada bunday so'zni tan olmaymiz.

– Nimalar deyapsiz o'zi, – deb davom etdi Glenarvan Paganelning gapiga sira ham ishonmay, – hujjatlarga asoslanib, «Britaniya» Avstraliya sohillarida halokatga uchragan demoqchimisiz?

– Bunga imonim komil, – deb javob berdi Paganel.

– Paganel, rostini aytsam, geografiya jamiyatining sekretari og'zidan bunday gap chiqishiga men juda hayron bo'lib qoldim, – dedi Glenarvan.

Bu gap Paganelga juda qattiq tegdi.

– Nima uchun? – deb so'radi u.

– Shuning uchunki, «*austral*» so'zini Avstraliya deb qabul qiladigan bo'lsangiz, ayni vaqtda u yerda hindularning borligini ham e'tirof qilishingiz zarur bo'ladi, vaholanki, Avstraliyada hindular mutlaqo bo'lgan emas.

Bu dalil Paganelga zarracha ham ta'sir qilmadi. Olim jilmayib qo'ydi: aftidan, u shunday deb e'tiroz qilishlarini kutgan edi.

– Aziz Glenarvan, – dedi u, – shoshmang: men hozir sizni shunday tor-mor qilib tashlayki, bironta ingliz hali bunday mag'lubiyatga uchramagan bo'lsin, ha, ishonavering. Bu, Kresi va Azenkur yonidagi Fransiya uchragan mag'lubiyatlarning qasosi bo'ladi!

– Juda xursand bo'lardim, Paganel. Tor-mor qila qoling!

– Bo'lmasa, quloq soling! Hujjatda hindular to'g'risidagi gap, Patagoniya to'g'risidagi gapdan zarracha ortiq emas, «*indi*» so'zi *indiens* – hindular degan so'zning emas, balki *indigenes* – yerli aholi degan so'zning bir qismi. Avstraliyda yerli aholi borligiga ishonarsiz deyman?

Shuni aytib o'tish kerakki, buni eshitgan Glenarvan geografiya olimiga tikilib qarab qo'ydi.

– Ofarin, Paganel! – deb ma'qulladi mayor.

– Xo'sh, aziz Glenarvan, mening fikrimga qo'shilasizmi-yo'qmi?

– Qo'shilishaman, lekin oldin siz «*gorie*» «Patagoniya» degan so'zning oxiri emasligini isbot qilib berishingiz kerak.

– Albatta, unday emas! – deb qichqirdi Paganel. – Bu yerda gap aslo Patagoniya to‘g‘risida borayotgani yo‘q. Boshqa nima so‘z desangiz dengki, lekin Patagoniya emas.

– Lekin boshqa nima so‘z bo‘lishi mumkin bu yerda!

– Kosmogoniya, teogoniya, agoniya...

– Agoniya, – deb oxirgi so‘zni tanladi mayor.

– Qaysinisi bo‘lsa ham menga baribir, – deb javob berdi Paganel. – bu so‘zning hech ahamiyati yo‘q; men hatto uning ma‘nosini ham axtarib o‘tirmayman. Shunisi muhimki, «austral» Avstraliya degan ma‘noni bildiradi. O‘shanda noto‘g‘ri yo‘lga burib yubormaganingizda, men to‘ppa-to‘g‘ri shu xulosaga kelgan bo‘lardim, bu mana men deb o‘zi chiqib turibdi. Bu hujjatni o‘zim topgan bo‘lsam, faqat shunday deb tushungan bo‘lardim!

Bu safar Paganelning so‘zlari «ura» sadolari va tabrik so‘zlari bilan qarshi olindi. Ostin, matroslar, mayor, ayniqsa yangi umid tug‘ilgandan shodlanib ketgan baxtiyor Robert – hamma muhtaram olimni tabrikladilar. O‘z xatosiga sekin-asta iqror bo‘la boshlagan Glenarvan ham geografiya olimiga taslim bo‘lishga tayyor ekanini bildirdi-da:

– Yana bitta savolim bor, azizim Paganel, – dedi, – agar bunga ham boplab javob bersangiz, sizga qoyil qolmay ilojim yo‘q.

– Aytin, Glenarvan!

– Hujjatni endi qanday o‘qiysiz?

– Bundan oson ish bormi. Mana hujjat, – dedi-da Paganel keyingi kunlarda yana zo‘r berib o‘rgangani qimmatbaho qog‘ozlarni ko‘rsatdi.

Geografiya olimi fikrlarini to‘plab olguncha, hamma indamay turdi. Birpasdan keyin Paganel hujjatning uzuq-yuluq so‘zlari ustidan ko‘rsatkich barmog‘ini yurgizib va ba‘zi so‘zlarga atayin diqqatni jalb qilib, quyidagicha o‘qidi:

– «1862-yil yettinchi iyunda Glazgo portidan chiqqan uch machtali «Britaniya» kemasi...». Bundan oldin, xohlasangiz, «ikki kundun keyin», «uch kundun keyin» yoki «uzoq agoniyadan keyin» degan so‘zlarni qo‘yishingiz mumkin – buning ahamiyati yo‘q. «... Avs-

traliya sohilida halokatga uchradi. Ikki matros bilan kapitan Grant sohilga chiqib olishga harakat qildilar... «yoki»... qit'aga chiqib oldilar, bu yerda ular shafqatsiz yerli aholi qo'liga asir tushdilar..». yoki «....asir tushadilar». «Ular bu hujjatni..». va hokazo va hokazo. Endi ravshanmi?

– Agar Avstraliyani qit'a deb bo'lsa, ravshan, lekin u qit'a emas, orol-ku.

– Xotirjam bo'lavering, aziz Glenarvan; eng yaxshi geograflar bu orolni Avstraliya qit'asi deb atash kerak, degan fikrdalar.

– Do'stlarim, unday bo'lsa men faqat: «Avstraliyaga!» deya olaman, xolos, – dedi Glenarvan.

Hamrohlari ham baravariga:

– Avstraliyaga! – deb uning so'zini quvvatladilar.

– Bilasizmi, Paganel, – dedi Glenarvan, – sizning «Dunkan»ga tushib qolganingiz Xudoning amri bilan bo'ldimi deyman-da!

– Juda yaxshi! – dedi Paganel. – Meni xudoning vakili deyaylik, endi bu to'g'rida boshqa gaplashmasak ham bo'ladi.

Kelajakda juda muhim natijalarga olib kelgan suhbat ana shunday tamom bo'ldi. U sayohatchilarning kayfiyatini tamom o'zgartirib yubordi. Ular adashib qolib, uzoq sarson bo'lgandan so'ng yana yo'l topgan odamlarga o'xshar edilar. Umidi uzilgan bu odamlarning qalbi yana umidga to'ldi. Endi ular hech ikkilanmay Amerika qit'asini tashlab ketishlari mumkin edi, ular fikran uni allaqachon tark etgan edilar ham.

Ular endi «Dunkan»ga umidsizlik bilan qaytmaydilar. Elen bilan Meri Grant endi kapitan Grantdan umid uzib ko'z yoshi to'kmaydilar. Shirin xayollarga g'arq bo'lgan sayohatchilarimiz o'zlariga tahdid solib turgan hamma xavf-xatarni tamomila unutdilar. Ular faqat bir narsaga: darhol yo'lga tusha olmaganlariga achinar edilar, xolos.

Kunduz soat to'rt bo'lgandi. Soat oltida ovqatlanishga qaror qildilar. Paganel bugungi baxtli kun sharafiga ziyofat o'tkazmoqchi bo'ldi, sayoatchilarning oziq-ovqatlari juda hisobli bo'lgani uchun u Robertga «qo'shni o'rmonga» borib ov qilib kelishni taklif qildi. Bola sevinganidan chapak chalib yubordi. Talkavning

porox xaltasi ishga solindi. Revolverlarni tozalashdi, o'qlashdi va ovga jo'nashdi.

- Juda uzoqqa ketib qolmanglar, - deb ovchilarga jiddiy tayinlab qoldi mayor.

Ovchilar ketishgach, Glenarvan bilan Mak-Nabbs daraxtga qilingan belgilarni tekshirish uchun turdilar, Vilson bilan Myulredi esa yana gulxan yoqdilar.

Yangi hosil bo'lgan bepoyon ko'l sohiliga tushgan Glenarvan suvning pasaymaganini ko'rdi. Lekin suv, ko'rinishdan eng yuqori nuqtasiga ko'tarilgan edi. Suv hali ham ilgariqday zo'r kuch bilan janubdan shimolga oqib yotar, bu esa Argentina daryolarining hali normal holatga qaytmaganidan dalolat berardi. Suvning sathi tusha boshlashidan oldin bu oqim to'xtashi kerak, suvning ko'tarilishi bilan pasayishi o'rtasida dengizda ham xuddi shunday bo'ladi. Shuning uchun suv shimolga qarab zo'r berib oqib yotgan bunday holda uning pasayishiga umid bog'lab bo'lmasdi.

Glenarvan bilan mayor tekshirish o'tkazayotganlarida ombuning tepasida qasir-qusir qilib to'p-ponchalar otildi, har o'q otilganda shodlik qichqiriqlari eshitilardi. Robertning ingichka ovozi Paganelning yo'g'on ovozigacha qo'shilishib ketar, ularning qaysi biri yosh bolaga ko'proq o'xshashini ajratib olish qiyin edi. Aftidan, ov juda muvaffaqiyatli borardi, shuning uchun maza qilib ovqatlanishga umid bog'lash mumkin. Gulxan oldiga qaytib kelgan mayor bilan Glenarvan Vilsonning ajoyib ish o'ylab topganini ko'rib, juda xursand bo'ldilar. Bu mard dengizchi to'g'nog'ich bilan kanopdan qarmoq yasab, baliq oviga kirishibdi, ovning natijalari ham g'oyat yaxshi edi: go'shti *koryushka* balig'inkiday juda shirin bo'ladigan *moyara* balig'idan bir necha dujinasi dengizchining ponchosi ustida pitirlab yotardi, bu esa sayohatchilar ziyofatining yana ham ajoyib bo'lishidan darak berardi.

Shu payt ombuning tepasidan ovchilar tushib kelishdi. Paganel ehtiyot bilan qora qaldirg'och tuxumi va bir qancha chumchuq olib tushib keldi, bu chumchuqlarning go'shtini u hamrohlariga maynaning go'shti deb o'tkazmoqchi edi. Robert esa bir necha juft *xilgueros* otib kelibdi: sarg'ish-ko'kish patli bu kichkina qushchalarning go'shti juda shirin bo'ladi, shuning uchun Montevideo bozorlarida ularga talab juda

katta. Tuxum pishirishning ellik bir xil usulini biladigan Paganel hozir ularni faqat gulxan qo'riga ko'mib pishira olardi, xolos. Shunga qaramay ziyofatga hilhil va mazali taomlar pishirildi. Qoq go'sht, pishgan tuxumlar, qovurilgan moyara, chumchuq va xilgueros go'shtlarining mazasi sayohatchilar og'zida umrbod qoldi.

Dasturxon ustida shirin suhbatlashib o'tirdilar. Paganelni usta ovchi va mohir oshpaz deb maqtadilar. Paganel esa bu maqtovlarni juda kamtarlik bilan qabul qildi.

Keyin u bu ajoyib ombu to'g'risida juda qiziq qilib hikoya so'zlab berdi:

– Ov qilib yurib, Robert ikkovimiz o'zimizni rostakam o'rmonda deb his qildik, – deb so'z boshladi u. – Men hatto adashib qoldik shekilli, deb ham o'yladim: chunki yo'lni hech topolmay qoldim-da! Quyosh g'arbga og'ib qolgan. Men bo'lsam zo'r berib kelgan izimizni axtaraman. Qorin o'lgudek och edi. Qop-qorong'u chakalakdan yirtqich hayvonlarning bo'kirkani eshitiladi. Yo'g'-e, yanglishib ketdim... Bu yerda yirtqich hayvon yo'q, shunisiga juda achinaman-da!

– Nima, yirtqich hayvon yo'qligiga achinaman deysizmi? – deb so'radi Glenarvan.

– Albatta, achinaman-da!

– Lekin ular shunday vahshiy...

– Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, vahshiylik degan narsaning o'zi yo'q, – deb e'tiroz bildirdi olim.

– Qo'ying-e, Paganel! – deb gapga aralashdi mayor. – Vahshiy hayvonlarning foydali bo'lishiga meni aslo ishontirolmaysiz. Ulardan nima foyda?

– Nima foyda deysizmi? – deb qichqirdi Paganel. – Ular, mayor, dastlab klassifikatsiya qilish uchun kerak: butun xillar, oilalar, urug'lar, turlar...

– Foydasidan o'rgildim! – deb uning so'zini bo'ldi mayor. – Menga buning hech keragi yo'q. Agar o'sha toshqin vaqtida Nuh payg'ambarning kemasida bo'lsam, o'sha beaql payg'ambarga so'zimni o'tkazib, befoydagina emas, buning ustiga zararli ham bo'lgan sherlar, yo'lbarslar, qoplonlar, ayiqlar va hokazo yo'rtqich hayvonlarni kemaga oldirmagan bo'lardim.

– Rostdan ham shunday qilgan bo'larmidingiz? – deb so'radi Paganel.

- Shubhasiz.

- Nima ham deyardim? Zoologik nuqtayi nazardan qaraganda siz noto'g'ri ish qilgan bo'lar edingiz.

- Lekin insonparvarlik nuqtayi nazaridan to'g'ri bo'lardi, - deb javob qildi Mak-Nabbs.

- Bunga chidab bo'lmaydi! - dedi olim. - Men esa, aksincha, Nuh payg'ambarni megateriylardan ham, pterodaktillardan ham, umuman, Buyuk to'fongacha Yer yuzida yashagan hayvonlardan bir juft-bir juft olib olishiga ko'ndirgan bo'lardim, afsuski, hozir o'sha hayvonlar yo'q bo'lib ketgan...

- Men esa, Paganel, - deb e'tiroz bildirdi Mak-Nabbs, - agar o'sha paytda siz aytgan hayvonlar rostdan ham yashagan bo'lsa, Nuh payg'ambar ularni kemasiga olmay juda to'g'ri qilgan deb o'ylayman.

- Men esa, - deb o'z so'zida turib oldi Paganel, - Nuh yaxshi ish qilmagan, shuning uchun bir umr olimlarning qarg'ishiga qoldi deyman.

Paganel bilan Mak-Nabbsning Nuh payg'ambar to'g'risidagi bu tortishuvini eshitib o'tirgan hamrohlari qotib-qotib kulardilar. Umrda hech kim bilan tortishib o'tirmaydigan mayor nihoyatda xotirjam va kamgap bo'lishiga qaramay, Paganel bilan har kun qizg'in bahslashib qolardi.

Aftidan, geografiya olimi mayorning jig'iga tegish yo'lini bilib olgandi.

Odati bo'yicha Glenarvan bahsga aralashdi.

- Nima bo'lganda ham, - dedi u, - biz yovvoyi hayvon yo'qligiga ko'nikishimiz kerak. Paganel bu samoviy o'rmonda unday hayvonlarni uchratish mumkin emas edi, albatta.

- Nima uchun? - deb so'radi olim.

- Yovvoyi hayvon daraxtda nima qilsin? - deb so'radi hayron bo'lib Tom Ostin.

- Ana xolos! Amerika yo'lbarasi - yaguar ovchilar o'rovida qolsa, odatda daraxtga chiqib jon saqlaydi. Shuning uchun toshqinda qolgan birorta yaguar ombuga chiqib olgan bo'lsa shoxlar orasida bermalol yotgan bo'lishi mumkin edi.

- Har holda, siz yaguarni uchratmagandirsiz, deyman? - deb so'radi mayor.

- Yo'q, butun «o'rmon»ni aylanib chiqqan bo'lsak ham uchratmadik. Ana shunisiga achinaman! Yaguar-

dek yirtqichni ov qilish juda g'alati ish bo'ladi-da. Yaguar juda kuchli yirtqich. Panjasi bilan urib otning belini sindira oladi. Bu yirtqich bir marta odam go'shtini tatib ko'rgan bo'lsa, albatta, yana uning payiga tushadi.

- Do'stim Paganel, nima bo'lganda ham, bu daraxtda o'sha ajoyib yaguarlaringiz hozir yo'qligiga juda xursandman, - dedi Glenarvan. - Ahvolimiz shunday ham ko'ngilsiz...

- Ahvolimiz ko'ngilsiz deysizmi? - deb so'radi Paganel, endi tortishuvga yangi yo'nalish berishi mumkin bo'lgan bu jumlagi yopishib olib. - Taqdiringizdan norozimisiz hali, Glenarvan?

- Albatta, - dedi Glenarvan. - Nahotki, shu toshdek qattiq shoxlarda yayrab o'tirgan bo'lsangiz?

- Men o'zimni hatto kabinetimda ham bunchalik yaxshi his qilmagan edim! Biz qushlardek hayot kechiryapmiz: sayraymiz, shoxdan shoxga uchamiz... Men, hatto, bora-bora odamlar daraxtda yashaydigan bo'lib ketmasmikin, deb o'ylab qola boshladim.

- Faqat qanotlari yetishmay turibdi, - deb gap qis-tirdi mayor.

- Vaqti kelib, qanot ham qilib olishadi.

- Lekin hozirchalik, bu qush inidan ko'ra yo'l-kalariga qum sepilgan bog'larni, uylardagi parket pol-larni yoki kema palubasini afzal ko'rishga ruxsat et-sangiz, - dedi Glenarvan.

- Sharoitga moslasha bilish ham kerak, - deb javob berdi Paganel. - Sharoit qulay bo'lsa - yaxshi, lekin yomon bo'lsa, bunga e'tibor qilmaslik kerak. Ko'rib tu-ribman, qasringizdagi qulayliklarni sog'inibsiz.

- Yo'q, lekin...

- Mana Robertni ko'ring, ishonamanki, u hech nar-sadan norozi emas, - deb Glenarvaning so'zini bo'ldi geograf, juda bo'lmasa, hamrohlaridan bittasini o'z ta-rafiga tortmoqchi bo'lib.

- Hech norozi emasman, janob Paganel! - dedi shodlik bilan Robert.

- Uning yoshida bu tabiiy gap, - dedi Glenarvan.

- Mening yoshimda ham, - dedi olim. - Qulaylik qanchalik kam bo'lsa, unga talab shuncha kam bo'la-di, talab qancha kam bo'lsa, odam shuncha baxtli.

– Ana xolos! Mana hozir Paganel boylik bilan zebziyvatlarga ham qarshiman deydi, – deb qo‘ydi Mak-Nabbs.

– Yanglishdingiz, mayor, – dedi olim. – Xohlasangiz, shu bahona bilan bitta arab ertagini aytib beray... Hozir esimga kelib qoldi.

– Ayting, janob Paganel, aytib bering! – dedi Robert.

– Ertagingiz nimani isbot qiladi, aziz do‘stim? – deb so‘radi mayor qiziqib.

– Barcha ertaklar nimani isbot qilsa – o‘shani-da!

– Demak, juda kam narsani isbot qilarkan, – dedi Mak-Nabbs. – Mayli, Shahrizoda, ertagingizni boshlayvering. Bunday ishlarga ustasiz-ku siz.

– Bir zamonlar buyuk Horun ar-Rashidning bir o‘g‘li bo‘lgan ekan, – deb boshladi Paganel. – Juda baxtsiz ekan. Kunlardan bir kun qari bir darvishning oldiga maslahatga boribdi. Darvesh shahzodaning arziini eshitib, bu dunyoda baxt topish umuman mushkul ish, debdi. «Lekin men sizga albatta baxt keltiruvchi bitta usulni bilaman», debdi u. «Qanday usul ekan u?» deb so‘rabdi shahzoda. «Baxtli odamning ko‘ylagini kiying», deb javob beribdi darvesh. Xursand bo‘lib ketgan shahzoda darveshni quchoqlab o‘pibdi-da, o‘sha tilsimni qidirib yo‘lga chiqibdi. U yurtma-yurt kezib, uzoq yuribdi. Yer yuzidagi barcha poytaxtlarga boribdi. Barcha podsholar, imperatorlar, shahzodalarning, amaldorlarning ko‘ylagini kiyib ko‘ribdi, lekin mehnati zoye ketibdi: baxtli bo‘lmabdi. Shundan so‘ng u san‘atkorlar, jangchilar, savdogarlarning ko‘ylaklarini kiyib ko‘ribdi, baribir bo‘lmabdi. Shu tarzda baxt axtarib, uzoq kezibdi. Oxiri maqsadiga yetolmay, xafa bo‘lib, otasining saroyiga qaytadigan bo‘libdi. Dalada kelayotib, birdan omoch haydayotgan bir dehqonni ko‘rib qolibdi. Dehqon ashulani baland qo‘yib, ishlayotgan ekan. Shahzoda o‘zicha: «Agar mana shu odam ham baxtsiz bo‘lsa, dunyoda baxtning o‘zi yo‘q», debdi-da, dehqonning oldiga borib: «Hoy, baraka topkur, sen baxtlimisan?» deb so‘rabdi. – «Ha, baxtliman», deb javob beribdi dehqon. «Hech narsaga zarur emasman?» «Mutlaqo!» «Hatto podsho bo‘lishni ham istamaysanmi?» «Hech bir!» «Bo‘lmasa, ko‘ylagingni menga sot». «Ko‘ylagimni? Mening ko‘ylagim yo‘q-da».

Yigirma beshinchi bob

O‘T BILAN SUV O‘RTASIDA

Paganelning ertagi katta muvaffaqiyat qozondi. Hatto qarsak chalib olqishladilar ham, lekin har kim o‘z fikrida qoldi. Geografiya olimi bahsga kirishganda doim erishadigan natijaga erishdi, ya‘ni u hech kimni ishontirolmadi. Shunday bo‘lsa ham, taqdir taqozosi bilan tushib qolingan hech bir vaziyatdan nolimaslik kerak, qasr ham, kulba ham bo‘lmaganidan keyin daraxtga ham ko‘nikish kerak, degan fikriga qo‘shilishdi.

Suhbat chog‘ida qorong‘u tushdi. Turli qiyinchiliklar va xavotirliklar bilan to‘la bo‘lgan bugungi kundan keyin yaxshilab uxlab dam olish zarur edi. Ombuning mehmonlari toshqin bilan kurashib charchashdan tashqari, kunning issig‘idan ham qattiq azoblangan edilar. Hamma qanotli qo‘shnilari qalin barglar orasiga kirib ketdi; *xilqueros* deb ataladigan pampas bulbularining yoqimli tovushlari ham sekin-asta tindi. Parandalar uyquga kirgan bo‘lsa kerak. Endi, yaxshisi, ulardan o‘rnak olish lozim.

Lekin, Paganel aytganday, «inlariga kirib yotishdan» oldin Glenarvan, Robert va geografiya olimi suv bosgan atrofni yana bir ko‘zdan kechirish uchun oxirgi marta o‘z «observatoriyalariga» chiqdilar. Kech soat to‘qqiz bo‘lib qolgan. Quyosh yarqillab ko‘rinayotgan tuman orqasiga o‘tib, endigina yashiringan. Osmonning g‘arb tomoni boshdan oyoq qaynoq bug‘ bilan qoplangan. Janubiy yarim shar yulduzlari odatda doim yaltirab turadi, lekin bugun ular qoramtir bilan qoplangan-day xira miltillab turardilar. Shunday bo‘lsa ham, har holda ularni tanib olsa bo‘lardi, Paganel fursatdan foydalanib Glenarvan bilan Robertga qutb yulduzlarini ko‘rsata boshladi. Shular orasida u birinchi va ikkinchi kattalikdagi to‘rtta yulduzdan iborat bo‘lgan Janubiy Krest yulduzini ham ko‘rsatdi; romba shaklidagi bu yulduzlar deyarlik qutbning tepasiga joylashgan. Geografiya olimi yana Kentavr yulduzlarini ham ko‘rsatdi, bu yulduzlardan biri – Alfa Yer sayyorasiga ayniqsa yaqin joylashgan. Paganel o‘z shogirdlariga ikki bo‘lak katta-katta tumanga o‘xshash Magellan bulutlarini ham ko‘rsatdi, ularning kattasi Oyning bizga

ko'rinib turgan yuziga qaraganda ikki yuz marta katta. Nihoyat, u osmondagi, «qora teshik»ni ham ko'rsatdi, osmonning o'sha yeri, yulduzlar go'yo mutlaqo yo'qdek, bo'm-bo'sh edi.

Geografiya olimi Yer sayyorasining har ikkala yarim sharidan ham ko'rinadigan Orion yulduzi hali chiqmaganiga juda achindi, buning o'rniga u o'z shogirdlariga Patagoniya «kosmografiyasi»ning g'alati bir xususiyati to'g'risida so'zlab berdi. Shoirsifat hindularning fikricha, Orion bepoyon osmon qirlarida kezib yurgan ovchi tomonidan otilgan kattakon kamand bilan uchta bolas emish. Osmondagi butun yulduzlar oynadek suvda aks etib, go'yo pastda ikkinchi osmon paydo qilganday ko'rinardi. Bu manzarani ko'rgan kishi zavqlanmay qololmasdi.

Paganel hamrohlarini kosmografiya sirlari bilan tanishtirayotgan paytda ufqning sharq tomoni qoraya boshladi. Qop-qora, quyuq bulut yulduzlar betini to'sib, osmonni qoplab kelaverdi. Yoqimsiz va xunuk bulut ko'p o'tmay, osmonning yarmisini qoplab oldi. Tiq etgan shamol bo'lmagani uchun u o'z-o'zidan surilib kelayotgandek tuyulardi. Havo dim, daraxtning birona bargi qimir etmaydi, suv yuzida qilt etgan to'lqin yo'q. Go'yo kattakon pnevmatik nasos bilan atrofdagi havo so'rib olingandek, nafas olish qiyin. Havo elektr zarralari bilan to'la, har bir jon egasi uning zarralarini sezib turgandek.

Glenarvan, Paganel va Robert ham buni sezdilar.

– Momaqaldiroq bo'ladi, – dedi Paganel.

– Momaqaldiroqdan qo'rqmaysanmi? – deb so'radi Robertdan Glenarvan.

– Yo'q, ser!

– Unday bo'lsa juda soz: hademay momaqaldiroq bo'ladi.

– Bo'lganda ham juda kuchli bo'ladi, havoning turqi shunaqa, – deb qo'shib qo'ydi Paganel.

– Men momaqaldiroqdan emas, uning ketidan keladigan jaladan qo'rqib turibman, – dedi Glenarvan. – Rosa shalabbo bo'lamiz-da. Nima bo'lganda ham, Paganel, inson qushlardek daraxtga in qurib yashay olmaydi, ko'p o'tmay bunga o'zingiz ham ishonasiz.

– Yo'g'e, falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda...

– Falsafa sizni shalabbo bo'lishdan saqlab qololmaydi.

– Albatta, lekin u kishini isitishi mumkin.

– Yuringlar endi, do'stlarimiz oldiga tushaylik, – dedi Glenarvan, – falsafiy nazariyalar bilan qurollanib, poncholariga yaxshilab o'ralib olishlarini maslahat beraylik, ayniqsa chidam bilan sabr-bardoshdan ko'proq g'amlab olishni tavsiya qilaylik, chunki bu hali bizga ko'p asqatadi.

Glenarvan qosh-qovog'ini osiltirib olgan osmonga oxirgi marta ko'z tashladi. Osmon qop-qora qalin bulut bilan qoplangan, faqat g'arb tomonda oqshom nuri bilan yorishgan g'ira-shira bir chiziq ko'rinadi. Suv ham qorayib, uzoqdagi quyuq tumanga qo'shilmoqchi ekan-day, kattakon quyuq bulutga o'xshab qoldi. Hammayoq qop-qorong'u. Tiq etgan tovush, milt etgan yorug' yo'q. Qop-qorong'u zulmatga aylangan atrofga chuqur sukunat cho'kkan.

– Yuringlar, pastga tushaylik endi, – dedi Glenarvan, – hademay momaqaldiroq boshlanadi.

Uchalovlari silliq shoxlardan pastga sirg'anib tushdilar. Bu yerning g'ira-shira yorug' ekani ularni hayron qoldirdi. Bu yorug' suv ustida vijillab uchib yurgan mayda-mayda nuqtalardan taralardi.

– Bu nima bo'ldi, fosforessensiyami? – deb so'radi Glenarvan geografdan.

– Yo'q, – deb javob berdi u, – bular yorug' qo'ng'iz, Buenos-Ayres xonimlari bu tirik va arzon olmoslardan bezak o'rnida foydalanadilar.

– Rostdanmi?! Shu uchib yurgan uchqunlar – hasharotmi? – deb so'radi Robert.

– Ha, azizim, shunday.

Robert yorug' qo'ng'izlardan bittasini tutib oldi. Paganel yanglishmagan ekan, – bu, kattaligi bir duym keladigan, qovoqariga o'xshash hasharot edi. Hindular uni «tuko-tuko» deb ataydilar.

Paganel bir qo'ng'izchalardan birini soatiga yaqin olib borib qaradi, soat o'n bo'lgan ekan.

Glenarvan mayor bilan uch matros oldiga borib, turli yo'l-yo'riqlar bera boshladi. Momaqaldiroq paytida jon asrash choralarini ko'rib qo'yish kerak edi. Momaqaldiroq boshlanishi bilanoq dovul turib, ombu qattiq tebrana boshlaydi. Shuning uchun har bir sa-

yohatchi o'z «karavot»iga o'zini mumkin qadar mahkamroq bog'lab qo'yishi kerak. Osmondan quyib beradigan jaladan saqlanishning iloji bo'lmagandan keyin, juda bo'lmasa, bo'ronda quturib to'qinlana boshlaydigan suvga tushib ketmaslikning ilojini qilish lozim.

Hammalari bir-birlariga: tinch uxlang, yaxshi tush ko'ring, deb joy-joylariga chiqib ketdilar, lekin kechaning tinch o'tishiga hech kim ham ishonmasdi. Sayohatchilar poncholariga o'ralib, uxlagani yotdilar.

Yaqinlashib kelayotgan tabiiy ofat har bir jonli mavjudotni xavotirlikka soladi; bu hisni hatto odamzod ham yenga olmaydi. Ombuning hayajonlangan, ezilgan mehmonlari shu tufayli ko'z yumolmay yotdilar, shuning uchun soat o'n birda momaqaldiroq dastlabki marta gumburlaganda, sayohatchilar hammasi uyg'oq edi. Glenarvan ko'ndalang o'sgan shoxning uchiga bordi-da, yaproqlar orasidan boshini chiqarib qaradi.

Uzoqda qop-qorong'u osmon bag'rini yorib, chaqmoq chaqa boshladi, chaqmoqning yorug'i suv yuzida aks etardi. Chaqmoq bulutlar bag'rini ovozsiz, go'yo yumshoq momiq mato orasidan o'tayotgandek oson yorib o'tardi.

Glenarvan yer-u osmonni qoplagan zimistonga bir oz qarab turgach, joyiga qaytib keldi.

– Xo'sh, Glenarvan, nima gaplar topib keldingiz? – deb so'radi Paganel.

– Boshlanishi chakki emas. Shu tarzda borsa, momaqaldiroq juda qattiq bo'ladi.

– Yana yaxshi! – dedi har narsaga ishqiboz Paganel. – Rostki, qochib qutulishga ilojimiz bo'lmagandan keyin, chiroyliroq bo'lgani yaxshi-da.

– Butun boshqa nazariyalarinigiz kabi bu nazariyangiz ham barbod bo'lishi turgan gap, – dedi mayor.

– Bu mening eng yaxshi ko'rgan nazariyalarimdan biri, Mak-Nabbs. Men Glenarvanning fikriga qo'shilishaman – momaqaldiroq juda qattiq bo'ladi. Hozir uxlayman deb yotganimda bunday manzaraning g'oyat go'zal bo'lishiga umid tug'dirgan bir necha hodisani esladim. Biz hozir elektr quvvati hukmronlik qiladigan bo'ronlar mamlakatida ekanimizni unutmang. Allaqaysi kitobda o'qigan edim: 1793-yilda xuddi shu yerda, Buenos-Ayres viloyatida bo'lgan bir momaqaldiroq vaqtida ketma-ket o'ttiz yetti marta chaqmoq chaqqan

ekan! Mening hamkasabam **Marin de Mussi** shu yerlarga kelganda momaqaldiroqning to'xtovsiz ellik besh minut gumburlab turganini kuzatgan ekan.

– Soatga qarab turib kuzatgan ekanmi? – deb so'radi mayor.

– Ha, soatga qarab turib. Meni xavotir qilayotgan birdan bir narsa, – deb qo'shib qo'ydi Paganel, – bu atrofda bizning ombudan baland narsaning yo'qligi. Qani endi ombuda yashin qaytarg'ich bo'lsa, ko'rgilikni qarangi, chaqmoq bu yerlardagi daraxtlar ichida nima uchundir ombuni juda yoqtiradi. Buning ustiga, olimlar momaqaldiroq paytida daraxt tagiga yashirinishdan qochishni maslahat beradi, buni o'zinglar ham bilasizlar, do'stlarim.

– Bu maslahatni hozir o'rinli deb hisoblab bo'lmaydi, – dedi mayor.

– Bu ko'ngilga taskin beruvchi ma'lumotlarni juda vaqtida beryapsiz-da, – dedi Glenarvan, kesatib.

– Be! Bilim olish uchun har qanday sharoit ham o'rinli, – dedi Paganel. – Ana! Boshlandi.

Bu bevaqt suhbatni momaqaldiroqning gumburgumburi bo'lib qo'ydi. U tobora kuchayib kelardi. Agar bu tovushlarni musiqadagi tovushlarga o'xshatish o'rinli bo'lsa, momaqaldiroq ovozi past tondagi tovushlardan o'rta tondagi tovushlarga ko'tarila bordi. Butun atrofda to'xtovsiz chaqmoq chaqib turdi. Borliqni tutib ketgan bu olov chaqinlarining qaysi biri cheksiz osmonni to'xtovsiz gumburlayotgan momaqaldiroq tovushini yaratayotganini ajratib bo'lmasdi.

To'xtovsiz chaqib turgan chaqmoqlarning shakli har xil edi: ba'zilari tik kesib tushgan chiziqlar shaklida, ayni bir joyning o'zida besh-olti martadan ketma-ket chaqnardi; ba'zan olim uchun juda qiziq hodisalar ro'y berardi: agar **Arago** [uning shoyoni diqqat ma'lumotlariga qaraganda] panshaxaga o'xshash ikki shoxga bo'lingan chaqmoqni bor-yo'gi ikki marta ko'rgan bo'lsa, bu yerda unday chaqmoqlarni yuzlab ko'rish mumkin edi. Sonsiz-sanoqsiz chiziqlarga bo'linib ketadigan, juda ko'p marjonsimon egri-bugri shakldagi chaqmoqlar ham chaqnar, qorong'u osmonni turli-turli ko'rinishdagi g'alati chaqinlar tutib ketardi. Ko'p o'tmay shimoli sharq tomonda fosforsimon ravshan yorug'lik paydo bo'ldi. U allaqanday yonuvchi

modda kabi bulutlarni alangalantirib va to'qinlanib oqayotgan suvda aks etib, sekin-asta butun ufqni qop-ladi. Ombu ko'kni tutgan bahaybat yomg'in sathida qo'qqayib turardi.

Glenarvan bilan uning hamrohlari bu dahshatli manzaraga indamay qarab o'tirardilar. Ular gapira ol-masdilar, chunki ovozlari baribir eshitilmagan bo'lardi. Chaqmoq chaqqanda taralgan oqish xayoliy yog'du goh mayorning xotirjam betini, goh Paganelning tabiat manzarasini qiziqib kuzatayotgan yuzini, goh chehra-sidan g'ayrat barq urib turgan Glenarvanni, goh bu manzaradan garang bo'lib o'tirgan Robertni, goh be-tashvish matroslarning basharasini bir lahza yoritib ketardi.

Shunga qaramay hali shamol ham, yomg'ir ham boshlangani yo'q. Lekin ko'p o'tmay osmonning tagi teshilib, qora bulut bilan suv qoplagan qir o'rtasida, to'qimachilik dastgohidagi iplar singari, sonsiz-sanoqsiz suv rishtalari tik tortildi. Yirik-yirik yomg'ir tomchilari yangi hosil bo'lgan ko'l yuziga kelib tush-ganda atrofga sachragan suv chaqmoq yorug'ida xuddi marvariddek tovlanib ko'rinardi.

Sharros urib bergan bu jala momaqaldiroqning tu-gashidan darak berarmidi? Sayohatchilarimiz bu ofat-dan yomg'irda cho'milish bilangina qutularmidilar? Yo'q! Osmonni elektr zarralariga to'ldirgan bu bo'ron paytida ombuning ko'ndalang o'sgan shoxi uchida qop-qora tutun bilan o'ralgan mushtumdek o't shari paydo bo'ldi. Bu o't bir necha lahza o'sha yerda aylanib turdi-yu, shunday qarsillab yorildiki, momaqaldiroq quloqni bitirar darajada gumburlab turgan bo'lsa ham, uning ovozi eshitildi. Oltinugurt hidi dimoqqa urildi. Atrofga bir lahza jimlik cho'kdi, xuddi shu payt Tom Ostinning ovozi eshitildi.

- Daraxt yonib ketdi!

Tom Ostin yanglishmagan edi. Ombuning butun g'arb tomoni bir lahzada o't ichida qoldi. Quruq shox-lar, quruq otlardan yasalgan qush uyalari va daraxt-ning mayda-mayda shoxlari o'tning yana ham avj olishi uchun juda qulaylik tug'dirar edi. Shu payt qo'zg'alib qolgan shamol o'tni battar alangalantirdi. Endi bu yerdan qochib, jon asrash kerak edi. Glenarvan bilan uning hamrohlari shoshib-pishib ombuning hali o't ol-

magan sharq tarafiga o'ta boshladilar. Hayajonlangan va shoshib qolgan bo'lishlariga qaramay, sayohatchilar og'irliklari ostida egilib-bukilayotgan daraxt shoxlariga goh osilib, goh tirmashib o'tdan nari qochdilar. O't ichida qolgan shoxlar tiriklay yoqib yuborilgan ilondek vishillar, egilib-bukilib, sinib tushardi. Yonib turgan shoxlar sinib suvga tushganda atrofga o'tli uchqunlar sachratardi, oqim esa ularni oqizib ketardi. O't goh gurr etib juda balandga ko'tarilib, osmonni qoplagan olsuv rangga qo'shilib ketar, goh quturgan dovul uni pastga qarab puflardi, shunda butun daraxt o't ichida qolardi. Glenarvan, Robert, mayor, Paganel va matroslar dahshat ichida qoldilar, chidab bo'lmas issiq badanlarini kuydirar, achchiq tutun nafaslarini bo'g'ardi. O't ular turgan joyga ham bostirib kela boshladi; uni hech narsa o'chira olmas, hatto to'xtata olmas ham edi. Bechoralarning tiriklayin yonib ketishlarigina qolgandi.

Nihoyat, chidab turishning sira iloji qolmadi. Ikki o'limdan osonrog'ini tanlash lozim edi.

– Suvga! – deb qichqirdi Glenarvan.

Kiyimlarini o't yalay boshlagan Vilson birinchi bo'lib o'zini suvga otdi, lekin birdan suv ichidan uning jon halpida:

– Yordam beringlar! Yordam beringlar! – deb qichqirgani eshitildi.

Ostin darhol o'zini suvga tashladi-da, uning yana daraxtga chiqib olishiga yordamlashdi.

– Nima gap?

– Kaymanlar! Kaymanlar! – deb qichqirdi Vilson.

Haqiqatan ham suyak badanlarini yong'in yorug'ida yaltiratib, eng xavfli o'rmalovchilardan hisoblangan kaymanlar ombu atrofida aylanib yurardilar. Paganel ularning yalpoq dumlarini, nayzaning uchiga o'xshagan boshini, chaqchayib turgan ko'zlarini, qulog'igacha yetadigan og'zini ko'riboq Amerika qit'asining eng yirtqich timsohlari ekanini darhol tanidi, ispan mustamlakalarida bu timsohlarni *kayman* deb ataydilar. Ular o'ntacha bo'lib, bahaybat dumlari bilan suvni shaloplatib urar va pastki jag'laridagi o'tkir tishlari bilan ombuni g'ajirdilar.

Bechora sayohatchilar halok bo'lishlari muqarrar ekanini angladilar. Yoki tiriklayin o'tda kuyib keta-



dilar, yoki kaymanlarga yem bo'ladilar. Hatto mayor ham xotirjamlik bilan:

– Rostdan ham, endi iloj qolmagan ko'rinadi, – deb qo'ydi.

Shunday vaziyatlar bo'ladiki, unda inson kurash olib borishdan ojiz qoladi, bunday vaziyatlarda qutur-gan tabiiy ofatlarni boshqa biror tabiiy kuchgina yenga oladi. Glenarvan ko'zlarini javdiratib, goh suvga, goh ularga qahrini sochayotgan o'tga qarar, nima qilib bu balolardan qutulishni bilmasdi.

Momaqaldiroq susaya boshladi, lekin undan keyin havoda bug' juda ko'payib ketdi, bu bug'lar esa qattiq harakatga kelgan edi. Ombuning janub tarafida katta-kon quyun paydo bo'ldi, u tumandan hosil bo'lgan va uch tomonini pastga qilib to'ntarib qo'yilgan nihoyatda katta konusga o'xshardi; u hamon gumburlab turgan bulutlar bilan quturib oqayotgan suvni bir-biriga qo-rishtirib uchirardi. Ko'p o'tmay o'sha quyun nihoyat-

da tez aylanib, ombuga yaqinlashib kela boshladi. U o'z o'qi atrofida tez aylanib, tevaragidagi barcha havo oqimlarini o'ziga torta boshladi. Bir necha minutdan keyin bu kattakon quyun ombuni o'rab oldi va o'z qa'riga tortdi. Daraxt tag-tomiri bilan titrab ketdi.

Glenarvan nazarida kaymanlar ombuga baravar yopishib, bahaybat jag'lari bilan uni yerdan sug'urib olayotgandek tuyuldi. Sayohatchilar bir-birlarini ushlab oldilar: ular azamat daraxt siqiqqa dosh berolmay, bir tomonga ag'darilayotganini sezib qoldilar. Yana bir lahzadan so'ng lovullab yonayotgan shoxlar vishilbab suv ichiga cho'kdi. Quyun esa bu payt ko'l suvini tagi bilan siqib chiqarib tashlamoqchi bo'layotgandek, o'zining xarob etuvchi kuchini boshqa tomonga surib ketmoqda edi.

Ildizi bilan qo'porilgan ombuni oqim tez oqizib ketdi. Kaymanlar qochib qoldilar, faqat bittasigina qo'porilib chiqqan ildizlardan o'tib, og'zini karrakdek ochganicha odamlarga yaqinlashib kelaverdi. Myulredi bir uchi hali yonib turgan bir shoxni sindirib oldi-da, u bilan yirtqichni shunday qarsillatib urdiki, timsohning beli sinib ketdi. Kayman suvga ag'darilib tushdi va dumi bilan suvni qattiq shaloplatganicha oqimda ko'zdan yo'qoldi.

Bu yirtqich sudraluvchilardan xalos bo'lgan Glenarvan bilan uning hamrohlari daraxtning shamol tegib turgan tomoniga o'tdilar. Ombu tun qorong'usida lovullab yonganicha oqib borardi, dovul yelpigan alanga tillari o'tli yelkanlarday chayqalardi.

Yigirma oltinchi bob

ATLANTIKA OKEANI

Ombu bepoyon ko'lda ikki soatdan beri oqib borar, sohil esa hamon ko'rinmas edi. Daraxtni yamlab borayotgan o't sekin-asta o'chdi. Bu qo'rqinchli suzishdagi asosiy xavf yo'qoldi. Mayor, bu balolardan qutulib qolsak ham ajab emas deb qo'ydi.

Oqim ombuni ilgarigidek janubi g'arbdan shimoli sharqqa oqizib bormoqda. Kech qolgan chaqmoqning har zamonda bir yarq etib, atrofni bir lahzaga yoritga-

nini hisoblamaganda tun qop-qorong' u zimiston. Paganel biron narsa ko'rmikanman degan maqsadda zo'r berib ufqqa tikiladi. Momaqaldir oq tinay deb qoldi, bulutlar tarqala boshladi. Yirik-yirik yomg'ir tomchilari mayda suv zarralari bilan almashindi. Ombu tanasi tagida kuchli motor ishlayotgandek, to'liqlanib oqayotgan suvda shitob bilan ilgarilab bordi. U shu tezlikda kunlab yo'l yuraveradigandek tuyulardi. Ammo ertalab soat uchlarda mayor daraxtning ildizi yerga tegib-tegib o'tayotganini sezib qoldi. Tom Ostin daraxtdan uzun shox sindirib olib, suv tagiga tiqib ko'rdi va chuqurlik kamaya borganini aniqladi. Haqiqatan ham yana yigirma minut chadan keyin ombu allanarsaga taqalib, taqqa to'xtab qoldi.

- Yer! Yer! - deb qichqirdi ovozing boricha Paganel.

Daraxt shoxlarining uchi allaqanday bir do'nglikka tegib turar edi. Shu paytgacha suv tagida uchragan biron ta yuzalik dengizchilarga bunday shodlik keltirmagan bo'lsa kerak; axir, bu ularga gavan edi-da.

Birinchi bo'lib yerga sakrab tushgan Robert bilan Vilson «ura» deb qichqira boshlagan edilarki, birdan tanish hushtak tovushi yangrab, ot tuyoqlarining do'piri eshitildi-da, qorong'ulikda Talkavning novcha gavdasi ko'rindi.

- Talkav! - deb qichqirdi Robert.

- Talkav!.. - deb qichqirib yubordilar barcha sayohatchilar.

- Amigos!¹ - deb javob berdi patagoniyalik.

U oqim sayohatchilarni sohilga chiqarib tashlashi lozim bo'lgan yerda kutib turardi, chunki oqim uning o'zini ham shu yerda sohilga chiqarib tashlagan edi. Patagoniyalik Robertni ko'tarib ko'ksiga bosdi. Bolatabiat geograf uning bo'ynidan quchoqlab oldi. Sodiq yo'l boshlovchilarini topganlaridan xursand bo'lib ketgan Glenarvan, mayor va dengizchilar do'stona samimiyat bilan uning qo'lini mahkam qisdilar. So'ng patagoniyalik ularni shu oradagi bir tashlandiq estansiyaning omboriga boshlab bordi. U yerda katta gulxan gurulab yonib turardi, sayohatchilar isinib oldilar. O'tda Talkav ov qilib kelgan jonivorlarning go'shti qovurilmoqda. Sayohatchilar ularni bir tishlam ham qoldir-

¹ Do'stlari

may, yeb bitirdilar. Qorinlarini to'ydirib, biroz o'zlariga kelib olishgach, bunchalik balolardan eson-omon qutulib qolganlariga sira ishonmasdilar: axir, ular suv balosidan, o't balosidan va Argentinaning eng yirtqich timsohlaridan qutulib qoldilar-a!

Talkav o'zining qanday qutulib qolganini Paganelga ikki og'iz so'z bilan aytib berdi-da, xalos bo'lishiga dovyurak oti sabab bo'lganini ham qo'shib qo'ydi. Keyin Paganel patagoniyalikka hujjatning o'zi sharhlagan yangicha ma'nosini tushuntirib berishga urindi va hujjatning yangicha sharhlanishi natijasida tug'ilgan umidlarni o'rtoqlashdi. Hindu yo'l boshlovchi olimning bu o'tkir gipotezalarini tushundimi? Bu anrimahol. Lekin u do'stlarning xursand ekanini va allanarsadan umidvorligini ko'rib turar, unga shuning o'zi kifoya edi.

Ombuda boplab «dam» olganlaridan keyin, mard sayohatchilarimiz yo'lga chiqishga shoshildilar. Erta-lab soat sakkizda ular yo'lga chiqishga tayyor edilar. Bu atrofdagi estansiyalar va saladerolar ancha shimolda qolgani uchun ot-ulov topishning iloji bo'lmadi. Yo'l ham uzoq emas, qirq milcha qolgandi. Buning ustiga charchab qolgan yo'lovchilardan bittasi, zarur bo'lib qolsa hatto ikkitasi galma-gal Taukaga minib borishi mumkin. O'ttiz olti soatda Atlantika okeani sohiliga yetib olsa bo'ladi.

Sayohatchilarimiz hamon suv bosib yotgan kat-takon havzani orqada qoldirib, balandroq yerlardan yo'lga chiqdilar. Atrofdagi manzara hamon ilgarigiday bir xil; har zamonda yevropaliklar ekan daraxtlar uchrab turadi. Mahalliy daraxtlar esa bu atrofda faqat qir chetida va Korrientes buruni atrofida o'sadi.

Shu tarzda bir kun o'tdi. Okeanning yaqinligi er-tasigayoq sezila boshladi, sohilga yetish uchun hali o'n besh milcha bor. Baland o'sgan o'tlarni yerga egib, *viratson* shamoli esadi, bu shamolning g'alati bir xususiyati bor: u kunduzi choshgohdan so'ng, tunda yarim kechadan so'ng esadi. Bo'z yerda pastak daraxtsimon mimozalar bilan akatsiya butalari o'sib yotgan siyrak chakalaklar uchrab turdi. Ahyon-ahyonda parcha-parcha oyna bo'laklari singari yaltiragan sho'r suv ko'lmaklari uchrardi. Ular yo'l yurishni qiyin-lashtirardi, chunki yonidan aylanib o'tish kerak. Yo'lovchilar esa shu bugunoq Atlantika okeani sohi-

lidagi Saldo ko'liga yetib olish uchun shoshilardilar. Kechqurun soat sakkizlarda ko'piklanib yotgan okean to'liqlari kelib urilayotgan, yigirma sajencha keladigan baland qumloq sohilni ko'rganlarida sayohatchilalarimiz juda charchab qolgan edilar. Ko'p o'tmay qalqib ko'tarilayotgan suvning guvullagani eshitildi.

– Okean! – deb qichqirdi Paganel.

– Ha, okean, – deb uning so'zini tasdiqladi Talkav.

Yo'lovchilarimiz oyoqlarini zo'rg'a ko'tarib bosa-yotgan bo'salar ham, qum tepalarga juda chaqqonlik bilan chiqdilar. Lekin qorong'u tushib qolgandi. Qorong'u zimistonda hech narsani ko'rib bo'lmas, «Duncan» ko'rinmasdi.

– Baribir «Duncan» shu yerda! – dedi Glenarvan. – U bizni kutib, shu atrofda aylanib yuribdi!

– Ertaga ko'ramiz uni, – dedi Mak-Nabbs.

Ostin ko'zga ko'rinmas kemani chaqira boshladi, lekin hech qanday javob bo'lmadi. Salqin shamol esib turar, okean ham ancha notinch edi. Bulutlar g'arb tarafga suzib borardilar, ko'piklanib sohilga kelib urilayotgan to'liqlar sachratgan suv zarralari qum tepalarning yuqorisigacha yetib kelardi. «Duncan» tayin qilingan joyda turgan bo'lganda ham, vaxtadagi matros baribir bu chaqiriqni eshitmagan va javob bermagan bo'lardi.

Bu sohilda kema turadigan joy yo'q, chunki bu atrofda na qo'ltiq, na ko'rfaz bor. Sohil dengizning ancha ichkarisidan boshlangan uzunchoq sayoz qumloqlardan iborat. Suv ostidagi bunday sayoz qumloqlar kema uchun suvdan chiqib turgan cho'kirtoshlarga qaraganda xavfli. Bunday qumloq sohillar to'liqlarni yana ham kuchaytirib yuboradi, shuning uchun bo'ron payti bu yerlarda to'liqlar ayniqsa quturadi. Bo'ron paytida bunday qumloqlarga kelib qolgan kemaning halokatga uchrashi muqarrar.

Hamon shunday ekan, «Duncan» sohildan ancha uzoqda suzib yurgan bo'lishi ancha tabiiy hol. Doim ehtiyotkor bo'lgan Jon Mangls kemasini hozir ham sohildan nariroqda olib yurgani shubhasiz. Xuddi shunday bo'lib chiqishiga Tom Ostinning iymoni komil: u, «Duncan» sohildan kamida besh mil uzoqda bo'lishi kerak degan fikrda.

Mayor besabr qarindoshiga ertalabgacha chidang, deb maslahat berdi. Bu qorong'u zimistonni yoritish-

ning iloji bo'lmagandan keyin qorong'uga hadeb tikilaverib, ko'zni toldirishning nima keragi bor!

Shunday deb, Mak-Nabbs qum tepalar panasida tunash uchun joy hozirladi. Sayohatning oxirgi tunida oziq-ovqatning ham qolgan-qutganlarini yeb tamomladilar. Keyin, mayordan o'rnak olib, hammalari qumni kovlab, o'zlariga joy hozirladilar va ustlariga qum tortib, qattiq uyquga ketdilar.

Faqat Glenarvanning ko'ziga uyqu kelmadi.

Qattiq shamol esib turar, bo'rondan keyin okean hamon tinchlanmagan edi. To'fqinlar shovqin bilan kelib qumli sohilga urilardi. Glenarvan «Dunkan»ning shu yaqin orada ekanini o'ylab, tinchlana olmadi. Kema tayin qilingan joyga hali yetib kelmagan, deb o'ylashga hech qanday asos yo'q, Glenarvan 14-oktabrda Tal-kaguano ko'rfazidan yo'lga chiqdi va 12-noyabrda Atlantika okeani sohiliga yetib keldi. Agar otryad shu o'ttiz kun ichida Chilini kesib o'tgan Kordilyerdan oshib, pampaslar va Argentina tekisliklarini bosib o'tgan ekan, bu vaqt ichida «Dunkan» albatta Gorn burunini aylanib o'tgan va Amerika qit'asining narigi tarafidagi tayin qilingan joyga yetib kelgan bo'lishi shubhasiz. «Dunkan»dek tezyurar kema yo'da kechikib qolishi mumkin emas. To'g'ri, kuni kecha bo'lib o'tgan shiddatli bo'ron Atlantika okeanida juda quturgan bo'lishi kerak, lekin «Dunkan» pishiq kema, kapitani esa – mohir dengizchi. Rostki, «Dunkan»ning shu yerga kelishi tayin qilingan ekan, demak, u shu yerda.

Ammo bu fikrlar Glenarvanga tasalli berolmasdi. Qalb idrok bilan kurash boshlaganda idrok qalb ustidan kamdan kam g'olib keladi. Glenarvanning qalbi esa o'zi sevgan barcha odamlar: xotini Elen, Meri Grant, «Dunkan» ekipaji shu qorong'ulik ichida, yaqin orada ekanini sezib turardi. U qorong'uga tikilar, atrofga quloq solardi. Ahyon-ahyonda okeanda xira chiroq ko'rinib ketgandek tuyulardi.

– Yanglishganim yo'q, – dedi u o'ziga. – Kema chirog'ini ko'rdim – bu «Dunkan»ning chirog'i. Eh, nega ko'zlarim qorong'ulikda hech narsani ko'rolmas ekan-a?!

Shunda lop etib, Paganelning men niktalopman, kechasi ham juda yaxshi ko'raman, degani esiga tushdi. Glenarvan geografiya olimini uyg'otgani ketdi.

Olim o'zining qum chuqurida qattiq uxlab yotardi, birdan kuchli bir qo'l uni bu to'shagidan tortib chiqardi.

- Kim bu? - deb so'radi u.

- Men, Paganel.

- Kimsiz?

- Glenarvanman. Yuring, menga sizning ko'zlaringiz kerak bo'lib qoldi.

- Ko'zlarim? - deb takror so'radi Paganel, zo'r berib ko'zlarini ishqar ekan.

- Ha, ko'zlaringiz - bu qorong'u zimistonda «Dunkan»ni ko'rish uchun. Yuraqolsangiz-chi!

«Ko'zing o'tkir bo'lsa ham bir balo ekan!» deb o'yladi o'zicha geografiya olimi, lekin shunday bo'lsa ham u Glenarvanga biror foydasi tegib qolishidan xursand edi.

Paganel chuquridan chiqdi, bir kerishib oldi-da, uyushib qolgan oyoq-qo'llarini uqalay-uqalay, Glenarvan ketidan sohilga qarab ketdi. Glenarvan undan qop-qorong'u ufqqa tikilib qarab chiqishni iltimos qildi. Geografiya olimi bir necha minutgacha zo'r berib tikilib, qorong'ulikni astoydil ko'zdan kechirdi.

- Xo'sh! Hech narsa ko'rinmayaptimi? - deb so'radi nihoyat Glenarvan.

- Hech narsa ko'rinmayapti! Bunday qorong'uda mushuk ham ikki qadam naridagi narsani ko'rmagan bo'lardi.

- Qizil yoki ko'k chiroqni axtaring, kemaning o'ng yoki so'l tomonida shunday chiroqlar yoqib qo'yilgan bo'ladi.

- Ko'k chiroq ham ko'rinmaydi, qizil chiroq ham. Hamma yoq qop-qoral - deb javob berdi Paganel.

Geografiya olimining ko'zi o'z-o'zidan yumilib ketaverdi. U sabrsiz do'sti ketidan beixtiyor ergashib yurdi; ba'zi-ba'zida uning boshi o'z-o'zidan ko'ksiga solinib tushar, shunda u boshini siltab ko'tarib, uyqusini qochirmoqchi bo'lardi. U mast odamdek gandraklab borar, Glenarvanning savollariga javob bermas, o'zi ham hech narsa so'ramasdi. Glenarvan Paganelga qayrilib qaradi, olim yurib ketayotgan yerida uxlardi. Glenarvan olimning qo'ltig'idan oldi-da, uyg'otmasdan olib borib chuquriga yotqizib qo'ydi.

Tong payti hammani Glenarvanning:

- «Dunkan!» «Dunkan!» - deb qichqirgani uyg'otib yubordi.

- Ura, ura! - qichqirishdi hamrohlari, sohilga qarab yugurar ekan.

Haqiqatan ham, ochiq dengizda besh milcha masofada pastki yelkanlarini yig'ib olgan kema, sekin-asta suzib borardi. Trubasidan chiqayotgan tutun tonggi tumanga qo'shilib ketmoqda. Dengiz hamon notinch, shuning uchun «Duncan»dek katta kema qumloq sohilga yaqin kelolmasdi.

Glenarvan Paganelning uzun durbini bilan «Duncan»ni ko'zdan kechira boshladi. Aftidan, Jon Mangls hali o'z yo'lovchilarini ko'rmagan edi.

Lekin shu payt Talkav miltig'ini o'qladi-da, «Duncan» tomonga qarata yuqorilatib o'q uzdi. Hamma kemaga tikilib quloq sola boshladi. Hindining karabini qumtepalar orasida aks sado berib, uch marta gumburladi.

Nihoyat, kema bortida oppoq tutun paydo bo'ldi.

- Bizni ko'rishdi! - dedi Glenarvan quvonib. - «Duncan» to'p otdi!

Bir necha sekunddan so'ng to'pning ovozi ham eshitildi. «Duncan» burildi-da, yurishini tezlatib sohilga qarab yo'l oldi.

Ko'p o'tmay, sayohatchilar Paganelning durbinidan kemadan suvga qayiq tushirilganini ko'rdilar.

- Missis qayiqda kelolmaydi, - deb qo'ydi Tom Ostin. - Dengiz ancha notinch.

- Jon Mangls ham qayiqqa tusholmaydi, - dedi Mak-Nabbs. - U kemani o'z holiga tashlab kelolmaydi.

Robert esa qo'lini kema tomonga cho'zib:

- Opa, opajon! - deb qichqirardi.

Kema to'liqida qattiq chayqalib turardi.

- Eh, qachon «Duncan»ga chiqarkanman-a! - dedi Glenarvan.

- Sabr qiling, Eduard, - dedi mayor. - Ikki soatdan keyin «Duncan»da bo'lasiz.

- Ikki soat-a!

Haqiqatan ham olti eshkakli qayiq kemadan sohilgacha va sohildan kemagacha bo'lgan masofani bundan vaqtli bosib o'ta olmasdi.

Patagoniyalik qo'llarini ko'kragi ustiga qovushtirib, Taukasi oldida to'liqinlanib yotgan okeanga xotirjam qarab turardi. Glenarvan uning qo'lidan ushladi-da, «Duncan»ni ko'rsatib:

- Yur biz bilan! - dedi.

Hindu sekingina bosh chayqadi.

– Yur, yuraqol! – deb takrorladi Glenarvan.

– Yo‘q, – dedi Talkav muloyimgina. – Bu yerda Ta-uka bor, ana u tomonda pampaslar, – dedi u jo‘shqin muhabbat bilan atrofda yostanib yotgan bepoyon qir-larni ko‘rsatib.

Glenarvan hinduning ota-bobolari o‘tgan qir-larni aslo tashlab ketolmasligini tushundi. U bu qir o‘g‘lonlari o‘z vatanini naqadar sevishini bilardi. Shu-ning uchun u qaytib qistamay, Talkavning qo‘lini mah-kam qisdi. Talkav o‘z xizmat haqisini olishdan bosh tortib:

– Do‘stligimiz uchun! – deb javob qilganda ham Gle-narvan uni ol deb qistamadi.

G‘oyat hayajonlangan Glenarvan unga hech narsa deya olmay qoldi. U bu oliyjanob hinduga uning yevro-palik do‘stlaridan biror narsa xotira qilib qoldirishni is-tardi, lekin yonida hech narsasi yo‘q edi, chunki otlari ham, qurollari ham toshqin paytida, suv ostida qoldi. Hamrohlarining ham yonida hech narsa yo‘q. Glenar-van bu xolis yo‘l boshlovchiga qanday qilib o‘z minnat-dorchiligimni bildirsam ekan deb turganda miyasiga lop etib bir fikr keldi. U karmonidan qimmatbaho me-dalon oldi va uni hinduga tutdi, medalonda Elenning Laurens degan usta ajoyib qilib ishlagan rasmi bor edi.

– Xotinim, – deb qo‘ydi Glenarvan.

Talkav portretni g‘oyat ta’sirlanib tomosha qildi.

– Oliyjanob va go‘zal ayol ekan! – dedi u, sodd-a-gina qilib. Robert, Paganel, mayor, Tom Ostin va ik-kala matros Talkav bilan hayajon ichida birin-ketin xayrlashdilar. Bu ajoyib odamlar o‘zlarining mard va sodiq do‘stlaridan ayrilayotganiga dilsiyoh bo‘ldilar. Hindu hammani birma-bir o‘zining keng ko‘kragiga bo-sib, xayrlashdi. Paganel unga Janubiy Amerika bilan ikki okean xaritasini qo‘yarda-qo‘ymay sovg‘a qildi, Pa-ganel bu xaritani ochganda Talkav unga doim qiziqib qarardi. Geografiya olimi unga o‘zining eng qimmatba-ho narsasini sovg‘a qilgan edi. Robertga kelsak, uning shirin so‘zlardan boshqa narsasi yo‘q edi, shuning uchun u o‘z xaloskoriga shirin so‘zlik bilan qizg‘in min-natdorlik bildirdi, bunda u Taukani ham unutmadi.

Bu orada «Dunkan»dan yuborilgan qayiq sohilga yetib keldi. Qayiq tagidan qumi chiqib yotgan ikki sa-yozlik o‘rtasidan o‘tib kelib, qumloq sohilga taqaldi.

– Xotinim qalay? – deb so‘radi Glenarvan.

– Mening opam-chi? – deb qichqirdi Robert.

– Missis Glenarvan bilan miss Grant sizlarni kema-da kutib turishibdi, – dedi starshiy matros. – Tezroq bo‘laqolinglar, ser, – deb qo‘shimcha qildi u, – har minut g‘animat: dengiz suvi pasaya boshladi.

Hammalari hindu bilan oxirgi marta quchoqlashib xayrlashdilar. Talkav o‘z do‘stlarini allaqachon suvga tushirilgan qayiqqacha kuzatib qo‘ydi. Robert qayiqqa endi o‘tay deb turganda, u bolani ushlab ko‘tarib oldida, unga mehr bilan qarab:

– Bilib qo‘y: sen endi er yigitsan! – deb qo‘ydi.

– Xayr, do‘stim, yaxshi qol! – deb qichqirdi yana bir marta Glenarvan.

– Nahotki, qaytib hech ko‘rishmasak-a? – deb so‘radi Paganel.

– Quien sabe!¹ – deb javob berdi Talkav, qo‘lini osmonga ko‘tarib.

Bu hinduning oxirgi so‘zlari edi. Uning ovozi shamolning chiyillashi bosib ketdi.

Matroslar qayiqni sohildan dengizga itarib yubordilar. Pasaya boshlagan okean suvi uni ochiq dengizga surib ketdi. Ko‘piklanib o‘ynayotgan to‘lqinlar ustidan sohilda qimir etmay turgan Talkavning gavdasi anchagacha ko‘rinib turdi, lekin sekin-asta kichraya bordi va oxiri butunlay ko‘rinmay ketdi.

Bir soatdan keyin Robert birinchi bo‘lib trapdan kemaga yugurib chiqdi-da, eson-omon qaytib kelgan Glenarvan hamda uning hamrohlarini quvonch bilan kutib olgan kema komandasining «ura» sadolari ostida chopganicha borib Meri Grantning bo‘ynidan quchoqladi.

To‘g‘ri chiziqdan sira ham chetga chiqmay, Janubiy Amerika qit‘asini to‘ppa-to‘g‘ri kesib o‘tib qilingan safar ana shunday tugadi. Sayohatchilarimizni tog‘lar ham, daryolar ham belgilangan yo‘ldan og‘ishga majbur etolmadi; bu mard, jasur odamlar kishilarning pastkashligi bilan kurash olib bormagan bo‘lsalar ham, tabiiy ofatlar ularning boshiga ko‘p balolar keltirdi; ko‘p qi-yinchiliklar soldi.

IKKINCHI QISM



B i r i n c h i b o b

«DUNKAN»GA QAYTISH

Dastlabki daqiqalarda yana uchrashganlaridan hamma xursand bo'ldi. Glenarvan qidirish ishlarining muvaffaqiyatsizlikka uchraganini aytib, odamlarning dilini xira qilishni istamadi.

– Topishimizga ishonaveringlar, do'stlarim! – dedi u. – Ishonaveringlar! Kapitan Grantni hozir topolmay keldik, lekin uni albatta topishimizga aminmiz!

Glenarvan shunday ishonch bilan gapirar ediki, «Dunkan»ning ayol yo'lovchilari ko'nglida yana umid tug'ildi.

Haqiqatan ham qayiq kemaga yaqinlashib kelatganda Elen bilan Meri Grantning qanchalik hayajonlanganini bilsangiz edi! Ular kemanding yut tarafida turib, qayiqdagilarni sanashga urinardilar. Bechora qizning goh umidi uzilar, goh, aksincha, qayiqdagilar orasida otasini ko'rayotgandek bo'lardi. Uning yuragi gupullab urardi, o'zi esa bir og'iz bo'lsin so'z aytishga majoli yo'q, yiqilib ketay, yiqilib ketay deb turar edi. Elen bechora qiz yiqilib tushmasin deb uni quchoqlab olgandi. Jon Mangls diqqat bilan qayiqqa tikilib, Merining yonida indamay turardi. Uning uzoq-uzoqlardagi narsalarni ham payqab ola oladigan dengizchilarga xos o'tkir ko'zlariga kapitan Grant ko'rinmasdi.

– Otam qayiqda! Ana u! Ota! – deb shivirladi qiz.

Ammo qayiq yaqinlashib kelgani sari, Merining umidlari puchga chiqaverdi. Qayiq kemaga yetib kelishiga yuz sajencha qolganda, faqat Elen bilan Jon Manglsning emas, Merining ham umidi tamom uzildi. Glenarvan ularga juda vaqtida tasalli berdi.

Dastlabki quchoqlashib va o'pishib ko'rishishlardan keyin Glenarvan Elen, Meri Grant va Jon Manglsga sayohat vaqtida yuz bergan asosiy hodisalarni so'zlab berdi-da, zehni o'tkir Paganel hujjatni yangicha sharhlab berganini aytib, ularga hujjatning yangi ma'nosini

ochdi. Glenarvan Robertni juda maqtadi va Meri Grantga ukangiz bilan har qancha faxrlansangiz arziydi, deb ta'kidladi. U bolaning xavfli paytlarda qanday mardlik va fidokorlik ko'rsatganini gapirib berdi va Robertni shunday maqtab yubordiki, agar bola opasining bag'riga suqulib olmaganda, uyalganidan qayerga yashirinishni bilmay qolgan bo'lar edi.

- Qizarishning sira hojati yo'q, Robert, - dedi Jon Mangls, - sen kapitan Grantdek odamga munosib o'g'il ekanligingni ko'rsatibsan.

Kapitan shunday deb turib Merining ukasini quchoqlab o'pdi, Robertning beti opasining ko'z yoshlaridan hali ham ho'l edi.

Mayor bilan Paganelning qanchalik hurmat bilan kutib olingani, oliyanob Talkavning qanchalik minnatdorchilik bilan tilga olinganini so'zlab o'tirmasak ham bo'ladi. Elen o'sha sofdil hinduning qo'lini qisib, minnatdorlik bildirolmaganiga juda achindi. Dastlabki holahvol so'rashlardan so'ng mayor o'z kayutasiga kirib, g'oyat xotirjamlik bilan soqolini ola boshladi. Paganel esa bir kishi oldidan ikkinchi kishi oldiga borar, shira yig'ayotgan asalari singari odamlarning maqtov va tabassumlarini yig'ardi. Geograf xursand bo'lib ketganidan «Dunkan» ekipajining hammasini o'pib chiqishni istab qoldi, Elen bilan Meri Grantni kema ekipajidan deb hisoblangani uchun u ayollardan boshladi va bu ishni mister Olbinetni o'pish bilan tugatdi.

Geografiya olimining bu iltifotiga minnatdorchilik bildirishning birdan bir yo'li shu deb hisoblagan styuard nonushta tayyorligini bildirdi.

- Nonushta dedingizmi? - deb so'radi geografiya olimi.

- Ha, janob Paganel, nonushta.

- Rostakam stol yonida o'tirib, pichoq-vilkalar bilan yeyiladigan rostakam nonushtami?

- Bo'lmasam-chi, janob Paganel!

- Na qoq go'sht, na pishgan tuxum, na tuyaqush filesi keltirib bermaysiz-a?

- Nimalar deyapsiz o'zi, taqsir! - dedi xafa bo'lgan styuard o'pkalab.

- Men sizni xafa qilmoqchi emasdim, - dedi jilmayib olim, - bir oygacha har kun yeganimiz shu bo'ldi-da, buning ustiga ovqatni stolda emas, yo yerda cho'zilib

yotib, yo daraxt shoxiga minib o'tirib yerdik. Shuning uchun ovqat tayyor deganingizda, siz aytgan nonushta menga bir tush, uydirma gap, xayol bo'lib tuyulishi ham hech gap emas-ku.

- Qani, yuring, janob Paganel, bu nonushta xayol ham, tush ham emasligiga o'z ko'zimiz bilan ko'rib ishonamiz, - dedi Elen, kulgidan o'zini tiya olmay.

- Ruxsat eting, kavaleringiz bo'lay, - dedi Elenga xushmuomala geografiya olimi.

- «Dunkan»ga doir biror buyruq bo'lmaydimi, ser? - deb so'radi Jon Mangls.

- Nonushtadan keyin, aziz Jon, - dedi Glenarvan, - avval hammamiz bir bo'lib, yangi ekspeditsiyamiz rejasini maslahatlashib olaylik.

Kema yo'lovchilari va yosh kapitan kayut-kompaniyaga tushdilar. Buyruq bo'lgani hamon yo'lga tushish mumkin bo'lsin uchun mexanikka kema qozonlariga yaxshilab o't yoqish buyurildi. Yangigina soqolini olib chiqqan mayor, shuningdek, tezgina boshqa kiyim-bosh kiyib olgan hamma sayohatchilar dasturxonga o'tirdilar.

Mister Olbinet tayyorlagan ovqat hammaga ma'qul tushdi. Uni juda mazali deb, hatto pampaslardagi ajoyib ziyofatdan ham yaxshi deb maqtadilar. Paganel «xayolparishonlikdan» deb tarelkasiga dasturxonga tortilgan hamma ovqatlardan ikki martadan solib yedi.

Bu mash'um so'zni eshitib Elen Glenarvan muhtaram fransuzdan, bunday parishonlikka tez-tez uchrab turarmidingiz, deb so'radi. Mayor bilan Glenarvan jilmayib, bir-birlariga qarab olishdi. Paganel esa gunohini bo'yniga olib, xaxolab kulib yubordi-da, to sayohatimiz tugamaguncha endi sira ham bunday gunoh qilmayman, deb so'z berdi. Keyin o'zi ispan tilini o'rganaman deb, yanglishib Kamoensning poemasini chuqur o'rganganini juda qiziq qilib so'zlab berdi.

- Lekin, - dedi u, - «Har bir chatoq ishning yaxshi jihati ham bo'ladi», deganlariday men ham xato qilganimdan xafa emasman.

- Nima uchun, muhtaram do'stim? - deb so'radi mayor.

- Shuning uchunki, endi men faqat ispan tilini emas, portugal tilini ham o'rganib oldim. Bir tilda so'zlashish o'rniga endi ikki tilda so'zlasha olaman.



– Rost, men bunisini o‘ylamabman, – deb javob berdi Mak-Nabbs. – Tabriklayman, Paganel, chin ko‘ngildan tabriklayman!

O‘tirganlar hammasi ovqat yeyish bilan band bo‘lgan geografiya olimini tabrikladilar. Paganel ham ovqat yer, ham suhbatdan qolmasdi. Lekin u Glenarvanning nazaridan qochmagan bir yangilikni sezmay qoldi: bu Jon Manglsning o‘z yonida o‘tirgan Meri Grantga alohida diqqat-e‘tibor ko‘rsatayotgani edi. Elen eriga bilinar-bilinmas bosh irg‘itib, «gap shunday» deb ishora qildi. Glenarvan bu ikki yoshga samimiyat bilan bir nazar tashlab oldi-da, Jon Manglsga butunlay boshqa savol bilan murojaat qildi.

– Safaringiz qanday o‘tdi, Jon? – deb so‘radi u.

– Juda yaxshi o‘tdi, – deb javob berdi kapitan. – Lekin, ser, shuni aytib qo‘yishim kerak: biz Magellan bo‘g‘ozi orqali o‘tganimiz yo‘q.

– Rostdanmi! – deb qichqirdi Paganel. – Demak, Gorn burunini aylanib o‘tibsizlar-da? Eh, attang, men bo‘lmabman-da...

– Osing o‘zingizni! – dedi mayor.

– Xudbinsiz! – dedi geografiya olimi. – Siz faqat arqonimga ega bo‘lish uchun menga shunday maslahat beryapsiz.

– Qo‘ysangiz-chi, azizim Paganel, – deb ularning gapiga aralashdi Glenarvan. – Bir vaqtning o‘zida bir necha joyda bo‘la olish qobiliyatiga ega bo‘lmaganingizdan keyin ikki yerni birdan ko‘rib bo‘lmaydi-ku, axir. Pampaslarda sayohat qilib yurgan ekansiz, ayni bir vaqtda Gorn burunini aylanib o‘tishda ishtirok qilishingizning iloji yo‘q edi-da.

– Lekin bu o‘sha safarda ishtirok eta olmaganimdan afsus qilishga mone bo‘lolmaydi, – deb javob berdi olim.

Shundan so‘ng Paganelni o‘z holiga qo‘ydilar. Jon Mangls esa kema safari to‘g‘risida gapirib bera boshladi. Uning aytganlaridan ma‘lum bo‘ldiki, Amerika sohillarini aylanib o‘tayotib, kemadagilar butun g‘arbiy arxipelaglarni tekshirib chiqishibdi, lekin hech qayerda «Britaniya»dan darak topmabdilar. Shamol peshanadan urib turgani uchun Magellan bo‘g‘oziga kiraverishdagi Pilar burunida marshrutni o‘zgartirib, janub tomonga suzib ketishga majbur bo‘lishibdi. Kema Umidsizlik orollari yonidan o‘tib, janubiy kenglikning oltmish yettinchi gradusiga yetibdi, Gorn burunini aylanib o‘tib, Olovli Yer yoqalab boribdi, keyin Lemer bo‘g‘ozidan o‘tibdi-da, Patagoniya sohillariga yo‘l olibdi. Patagoniya sohillariga yetib kelishgach, Korrientes burunida kema momaqaldiroq vaqtida sayohatchilaringiz boshdan kechirgan o‘sha nihoyatda qattiq bo‘ronga duch kelibdi. Kema bo‘ronga juda yaxshi chidash beribdi; sohildan otilgan karabin o‘qining tovushi sabrsizlik bilan kutilayotgan sayohatchilarning yetib kelganidan darak berganda, ular ochiq dengizda sohil bo‘ylab suzib yura boshlaganlariga uch kun bo‘lgan ekan. «Dunkan» kapitani hikoyasining oxirida missis Glenarvan bilan miss Grant o‘zlarini juda mardonavor tutganliklarini alohida eslatib o‘tmasam, adolatdan bo‘lmaydi, deb qo‘shimcha qildi. Bo‘ron ularni zarracha ham qo‘rqitilmadi. ular faqat Argentina qirlarida safarda bo‘lgan do‘stlaridan xavotir oldilar, xolos.

Jon Mangls hikoyasini ana shu so‘zlar bilan tugatdi. Lord Glenarvan uni dengiz safarining muvaffaqiyatli tugashi bilan tabrikladi-da, Meri Grantga o‘girildi.

– Qimmatli miss, – dedi u, – kapitan Jon fazilatlarigizga yuksak baho berayotganini ko‘rib turibman, siz uning kemasida o‘zingizni shunday yaxshi his qilishingizdan juda xursandman.

– Boshqacha bo‘lishi ham mumkinmi? – dedi Meri, Elen Glenarvanga qarab, ehtimolki, bu gaplarini ayni vaqtda yosh kapitanga ham qarata aytgandir.

– O, opam sizni shunday yaxshi ko‘radiki, mister Jon! – dedi Robert. – Men ham sizni juda sevaman.

– Men ham seni juda yaxshi ko‘raman, ukam, – deb javob berdi Jon Mangls.

Yosh kapitan Robertning gapidan biroz o‘ng‘aysizlandi, Meri Grant esa sal qizardi.

Jon Mangls gapni boshqa tomonga burishga shoshildi:

– Men «Duncan»da qilgan safarimiz to‘g‘risidagi hikoyamni tugatdim. Ser, endi siz ham bizga Amerika qit‘asida qilgan sayohatingiz to‘g‘risida, xususan yosh qahramonimizning jasoratlari to‘g‘risida mufassal so‘zlab berishga yo‘q demassiz deb o‘ylayman?

Turgan gapki, Elen bilan miss Grantga boshqa hech qanday hikoya bunchalik lazzat bermagan bo‘lardi, shuning uchun Glenarvan ular qiziqib turgan hikoyani darhol boshlab yubordi. Sayohatchilarning boshidan o‘tgan hodisalar: Kordilyer tog‘idan oshib o‘tishgani, yer qimirlashi, Robertning g‘oyib bo‘lgani, uni kondor ko‘tarib ketgani, Talkavning yordamga kelgani, qizil bo‘rilar hujumi, Robertning jasorati, serjant Manuel bilan uchrashuv, toshqin, ombuda jon saqlashgani, chaqmoq, yong‘in, kaymanlar, qyun va, nihoyat, Atlantika okeani sohilida o‘tkazilgan tun to‘g‘risida hikoya qilib berar ekan, u bir okeandan ikkinchi okeanga cha bosib o‘tilgan yo‘l mashaqqatlarini yana bir qayta boshdan kechirgandek bo‘ldi. Goh qo‘rqinchli, goh kulgili bo‘lgan bu epizodlar tinglovchilarni goh qo‘rquvga solar, goh kuldirardi. Robert to‘g‘risida gap borganda, Meri Grant bilan Elen Glenarvan qoyil qolib, uni qayta-qayta quchoqlab o‘pishdi.

Eduard Glenarvan hikoyasini tamomladi-da:

– Do‘stlarim, endi bugungi kun to‘g‘risida o‘ylaylik, – dedi. – O‘tgan kunlar – o‘tib ketdi, lekin kelajak bizning qo‘limizda. Kelinglar, yana kapitan Grantga qaytaylik.

Nonushta tugadi. Hammalari Elen Glenarvanning mehmonxonasiga o'tib, xarita va har xil rejalar uyilib yotgan stol atrofiga o'tirdilar.

- Jonim Elen, - deb gap boshladi Glenarvan, vaqtni bekor o'tkazmay, - «Dunkan»ga chiqqan zahotimiz, «Britaniya»da halokatga uchraganlarni topolmagan bo'lsak ham, ularni topishga bo'lgan umidimiz har vaqtdagidan ko'proq ekanini aytgan edim. Janubiy Amerika qit'asini kesib o'tganimizdan keyin kema halokati Tinch okean sohillarida ham, Atlantika okeani sohillarida ham yuz bergan emas, degan xulosaga keldik, xulosaga desak, juda ham to'g'ri bo'lmas - bunga ishonchimiz komil. Bundan esa o'z-o'zidan hujjatda Patagoniya to'g'risida gapiriladi deb o'ylaganimiz noto'g'ri ekan, degan xulosa kelib chiqadi. Baxtimizga, do'stimiz Paganelning miyasiga lop etib bir fikr kelib qoldi-yu, biz hujjatni noto'g'ri tushunib yurganimizni angladik. U biz noto'g'ri yo'ldan borayotganimizni isbot qilib berdi va hujjatni shunday sharhladiki, uning asl ma'nosini endi to'g'ri anglaganimizga sira ham shubha qolmadi. Men fransuz tilida yozilgan hujjat to'g'risida gapiryapman, hech kimda mening so'zlarimga shubha qolmasligi uchun Paganeldan uning ma'nosini hoziroq sharhlab berishni iltimos qilaman.

Geografiya olimi Glenarvanning iltimosini darrov qondirdi. U, o'zining fikricha gonie va indi so'z bo'laklarining asl ma'nosi nima ekanini juda ishontirarli qilib tushuntirib berdi. U austral so'zidan aniq qilib «Avstraliya» so'zini chiqarib berdi. U kapitan Grantning kemasi Peru sohillaridan yo'lga chiqqandan keyin, Yevropaga bora turib, halokatga uchragan bo'lishi mumkinligini va Tinch okeanning janubiy oqimlari uni Avstraliya sohillariga surib ketgan bo'lishi mumkin ekanini isbot qilib berdi. Olimning farazlari oqilona, xulosalari shunday mantiqiy ediki, ular hatto Jon Manglsga ham ma'qul tushdi, chunki Jon Mangls bunday masalalarga juda jiddiy qarar, bo'lar-bo'lmas xayoliy gaplarga sira uchmas edi. Paganel gapini tugatgandan so'ng Glenarvan endi «Dunkan» darhol Avstraliyaga qarab yo'lga chiqadi, deb e'lon qildi.

Lekin mayor sharqqa yo'l olishga buyruq berishdan oldin bitta oddiy fikr bildirishga ijozat bersanglar deb iltimos qildi.

- Gapiring, Mak-Nabbs, - dedi Glenarvan.

- Mening maqsadim, - deb gap boshladi mayor, - do'stim Paganelning dalillariga shubha tug'dirish emas; men uning dalillarini rad qilmoqchi ham emasman. Uning dalillarini men jiddiy, oqilona, har qancha diqqat qilishga ham arziydigan dalillar deb hisoblayman. Shuning uchun kelgusida qidirish ishlarimizda albatta ularga tayanishimiz kerak. Lekin men ularni yana bitta, oxirgi sinovdan o'tkazishni istar edim: ana shunda ular shak-shubhasiz va rad qilib bo'lmaydigan dalillar bo'lib qoladi.

Ehtiyotkor Mak-Nabbs gapni qayoqqa burayotgani hech kim tushunolmadi, shuning uchun hamma uning gapiga biroz xavotir bilan quloq solib turdi.

- Davom etavering, mayor, - dedi Paganel, - men barcha savollaringizga javob berishga tayyorman.

- Sizga buning hech qiyin joyi yo'q, - dedi mayor. - Biz bundan besh oy burun, Klayd qo'ltig'ida xuddi shu uchta hujjatni tekshirganimizda, uning ma'nosi biz anglagandan boshqacha bo'lishi mumkin emas, degan xulosaga kelgan edik. «Britaniya» faqat Patagoniya sohillarida halokatga uchragan bo'lishi mumkin deb o'ylagan edik. Bunga zarracha ham shubhamiz qolmagan edi.

- To'g'ri, - dedi Glenarvan.

- Keyinchalik, - deb so'zida davom etdi mayor, - baxtimizdan bo'lib, parishonxotirligi natijasida «Dunkan»ga tushib qolgan Paganelga ham hujjatlarni ko'rsatdik, shunda u ham halokatga uchraganlarni Amerika sohillaridan axtarish to'g'risidagi fikrimizga hech shubhasiz qo'shildi.

- To'g'ri, - deb uning gapini tasdiqladi geografiya olimi.

- Lekin, shunday bo'lsa ham, biz xato qildik, - deb so'zini tugatdi mayor.

- To'g'ri, xato qildik, - deb takrorladi Paganel. - Har kim ham xato qilishi mumkin, faqat telba odamlargina xatosini tan olgisi kelmaydi.

- Qizishmang, Paganel! - dedi mayor. - Men halokatga uchraganlarni Amerikadan axtarishni davom ettiraylik demoqchi emasman.

- Nima demoqchisiz bo'lmasa? - deb so'radi Glenarvan.

– Men yaqindagina bizga «Britaniya» faqat Amerika-da halokatga uchragan boʻlib tuyulganday hozir u faqat Avstraliyada halokatga uchraganday tuyulayotgan boʻlishi mumkin ekanini eʼtirof qilsak deyman.

– Bunga hech qanday eʼtirozsiz tan beraman, – dedi Paganel.

– Men buni eʼtiborga olaman, – deb davom etdi mayor, – shu bilan birga, fantaziya yetaklagan yoʻldan ketavermaslikni va «unday boʻlishi muqarrar, bunday boʻlishi muqarrar» degan farazlarga ehtiyotkorlik bilan yondashishni maslahat beraman. Kim biladi deysiz! Avstraliyadan keyin biz halokatga uchraganlarni shunday komil ishonch bilan boshqa biror mamlakatdan axtara boshlarmiz. Bordi-yu, qidirish ishlarimiz yana muvaffaqiyatsiz boʻlib chiqsa, halokatga uchraganlarni boshqa biror joydan axtarish lozimligi «muqarrar» boʻlib qolmasmikan?

Glenarvan bilan Paganel bir-birlariga qarab olishdi – mayorning fikri nihoyatda toʻgʻriligi bilan ularni hayratga solgan edi.

– Shuning uchun, – deb davom etdi Mak-Nabbs, – Avstraliyaga joʻnashdan oldin hujjatlarni soʻnggi marta yaxshilab tekshirib koʻrsak yaxshi boʻlardi. Hujjatlarda mana, mana bu xarita. Kelinglar, oʻttiz yettinchi parallel oʻtadigan yerlarning hammasini bir-bir koʻrib chiqaylik-da, hujjat koʻrsatishi mumkin boʻlgan boshqa biror mamlakat bormi-yoʻqmi – oʻylab koʻraylik.

– Buni tekshirib koʻrish qiyin emas, koʻp vaqt ham talab qilinmaydi, – dedi Paganel, – chunki, baxtimizga, bu parallel oʻtadigan kengliklarda quruqlik yerlar juda kam.

– Hozir koʻramiz, – dedi mayor, Yer sharining Merkator¹ qoʻlidan chiqqan inglizcha xaritasini yozar ekan.

Xaritani Elenning qarshisiga yozdilar-da Paganelning izohlarini koʻrib turish uchun hammalari unga yaqinroq joylashib oʻtirdilar.

– Daraxtda oʻtirganimizda aytganimdek, – deb soʻz boshladi geografiya olimi, – oʻttiz yettinchi parallel Janubiy Amerikadan okeanga chiqqandan keyin Tristan-da-Kunya orollarini kesib oʻtadi. Aminmanki, hujjatda bu orollarni eslatadigan bironta ham soʻz yoʻq.

Hujjatlarni rosa sinchiklab koʻzdan kechirib chiqqandan keyin, oʻtirganlar hammasi Paganelning gapini

¹ Merkator (1512-1594) – gollandiyalik geograf-kartograf.

to'g'ri ekaniga qanoat hosil qildilar. Tristan-da-Kunya orollari bir og'izdan rad qilindi.

– Davom etamiz, – deb yana gap boshladi geografiya olimi. – Yaxshi Umid burunidan ikki gradus janubroqda Atlantika okeanidan chiqib, Hind okeaniga kiramiz. Yo'limizda faqat bir guruh orollar uchraydi. Bu – Amsterdam orollari. Bu orollar to'g'risida ham Tristan-da-Kunya orollari to'g'risida gaplashgandek, mufassal gaplashib olaylik.

Sinchiklab tekshirgandan keyin Amsterdam orollari ham rad qilindi, chunki na fransuzcha, na nemischa, na inglizcha hujjatda Hind okeanidagi bu orollarni eslatadigan bironta ham to'liq yoki uzuq-yuluq so'z uchramadi.

– Endi biz Avstraliyaga yaqinlashib keldik, – deb gapida davom etdi Paganel. – O'ttiz yettinchi parallel bu qit'aga Bernulli burunidan kirib, Tufold qo'ltig'i joylashgan yerdan okeanga chiqib ketadi. Hujjatlar ustida ortiqcha bosh qotirmay turib oq inglizcha hujjatdagi *stra* degan chala so'zni fransuzcha hujjatdagi *austral* so'ziga tatbiq qilsak, *Avstraliya* degan so'z kelib chiqadi, mening bu fikrimga qarshi bo'lsangiz kerak?

Paganelning bu xulosasini hamma ham ma'qulladi. Uning bu fikri hammaga har taraflama asoslangandek tuyuldi.

– Yo'limizda davom etaylik, – dedi mayor.

– Xo'p, davom etaylik, – dedi darhol geografiya olimi, – bu qiyin sayohat emas. Tufold qo'ltig'idan chiqib, biz Avstraliyaning sharqidagi dengizni kesib o'tamizda, Yangi Zelandiyaga yetamiz. Men shu yerda sizlarga fransuzcha hujjatdagi «*contin*» so'zi hech shubhasiz kontinent, ya'ni qit'a to'g'risida borayotganini ko'rsatishini eslatib o'tmoqchiman. Demak, kapitan Grant Yangi Zelandiyada panoh topgan bo'lishi mumkin emas, chunki Yangi Zelandiya qit'a emas, orol. Lekin hujjatlardagi so'zlarni va so'z bo'laklarini istaganingizcha tekshirib, taqqoslab, o'ylab ko'ringlar, keyin ularning biron-tasi bu mamlakatga sal bo'lsa ham aloqador bo'lish-bo'lmasligini aytasiz.

– Zarracha aloqasi yo'q, – dedi Jon Mangls hujjatlarni sinchiklab ko'zdan kechirib, xaritani ko'rib chiqqandan keyin.

- Yo'q, eslatmaydi, - deb uning fikriga qo'shilishdi Paganelning so'ziga quloq solib o'tirganlarning barchasi, hatto mayor ham bunga qo'shildi. - Yangi Zelandiya to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emas.

- So'ngra, - deb gapida davom etdi geografiya olimi, - o'ttiz yettinchi parallel bu katta orol bilan Amerika sohillari o'rtasida yoyilib yotgan cheksiz suv bo'shlig'ida faqat bittagina kimsasiz, bo'm-bo'sh orolni kesib o'tadi.

- Orolning ismi nima? - deb so'radi mayor.

- Xaritaga qaranglar. Bu orol Mariya-Tereziya oroli, lekin hujjatlarning birontasida ham bu orolning ismini eslatadigan hech qanday imo-ishora yo'q.

- Mutlaqo yo'q, - dedi Glenarvan.

- Do'stlarim, - deb gapini tugatdi geografiya olimi, - endi o'zinglar aytinglar: mening hujjatlarda gap Avstraliya to'g'risida boryapti, deb chiqargan xulosam haqiqatga eng yaqin, yana ham to'g'rirog'i, shubhaga sira o'rin qoldirmaydigan xulosa emasmi?

- Shubhasiz, - deb javob berishdi yo'lovchilar bilan kema kapitani.

- Ayting-chi, Jon, - dedi Glenarvan kapitanga, - oziq-ovqat bilan ko'mir yetarli mi?

- Ha, ser Talkaguanoda rosa g'amlab olganman. Buning ustiga, Kapshtadtda yoqilg'i zaxiramizni yana to'ldirib olishimiz mumkin.

- Unday bo'lsa, yo'lga chiqishga buyruq bering.

- Yana bir gap bor... - deb Glenarvanning so'zini bo'ldi mayor.

- Ayting, Mak-Nabbs.

- Halokatga uchraganlarni Avstraliyada topishga ishonchimiz har qancha zo'r bo'lsa ham, Tristan-da-Kunya va Amsterdam orollarida bir-ikki kundan to'xtab o'tsak yaxshi bo'lmasmikan? Yo'limiz ustidaku. Shunday qilsak, «Britaniya» bu orollarda halokatga uchramaganiga uzil-kesil qanoat hosil qilib ketamiz.

- Aslo gapga ishonmaydigan odam ekan-ku bu mayor! - dedi Paganel. - O'zinikini ma'qul qilgani qilgan!

- Mabodo Avstraliya ham ishonchimizni oqlay olmasa, yana orqaga qaytib yurmaylik, deb aytyapman-da.

- Bu ehtiyot choralari menga ham ma'qul, - dedi Glenarvan.

– Albatta, men ham qarshi emasman bunga, – deb qo‘shimcha qildi Paganel, – aksincha, tarafdorman!

– Jon, bo‘lmasa, Tristan-da-Kunya orollariga yo‘lga chiqishni buyuring, – deb farmoyish berdi Glenarvan.

– Hozir, ser, – dedi kapitan va o‘z ko‘prikchasiga yo‘l oldi; Robert bilan Meri Grant esa Glenarvanga qizg‘in tashakkur bildirdilar.

Ko‘p o‘tmay «Duncan» forshtevni bilan Atlantika okeani to‘lqinlarining qa‘rini yorib, Amerika sohilla-ridan sharqqa yo‘lga chiqdi.

I k k i n c h i b o b

TRISTAN-DA-KUNYA OROLLARI

Agar kema Avstraliya bilan Amerika orasidagi masofani, yoki, to‘g‘rirog‘i, Bernulli buruni bilan Korrientes buruni orasidagi bir yuz to‘qson olti gradus masofani ekvator bo‘ylab bosib o‘tsa, o‘n bir ming yetti yuz oltmish geografik mil yo‘l bosgan bo‘lardi. Lekin Yer sharning formasi tufayli o‘ttiz yettinchi parallel ekvator-dan qisqaroq, shuning uchun yo‘li bu parallel bo‘ylab o‘tadigan «Duncan» faqat to‘qqiz ming to‘rt yuz sakson mil masofani bosib o‘tishi kerak edi. Amerika sohili bilan Tristan-da-Kunya orollarining oralig‘i ikki ming bir yuz mil hisoblanadi. Agar sharqdan esadigan shamollar yo‘lni qiyinlashtirmasa, Jon Mangls bu masofani o‘n kunda bosib o‘tishni mo‘ljallardi. Yosh kapitanning ishi o‘ngidan keldi: kechga borib shamol sezilarli darajada susaydi, keyin yo‘nalishini o‘zgartirdi. Dengiz tinchlanib qoldi, shundan so‘ng «Duncan» o‘zining butun yaxshi xususiyatlarini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Kemaga qaytgan yo‘lovchilarning hayoti o‘z iziga tushib ketdi. Ular kemani butun bir oy tashlab ketishmagandek tuyulardi. Lekin endi ular atrofida Tinch okeanning emas, Atlantika okeanining suvlari shovullab yotardi. Ammo tusidagi ba‘zi farqlarni e‘tiborga olinmasa, barcha to‘lqin ham bir to‘lqin. Sayohatchilarimizni qanchadan qancha qiyinchiliklarga duchor qilgan stixiya endi ularga qulay keldi. Okean oynadek tiniq, shamol orqadan esib turibdi, «Duncan»ning

g'arbdan esayotgan mayin shabada qappaytirgan yelkanlari kemanding to'xtovsiz ishlayotgan bug' mashinasiga yordam qila boshladi.

Mana shular tufayli safar tez, xavf-xatarsiz va hech qanday sarguzashtsiz o'tdi. Sayohatchilarimiz zo'r umidlar bilan Avstraliya sohiliga yetib borishlarini kuta boshladilar. Ular muvaffaqiyatga tobora ko'proq ishona bordilar. Kapitan Grant to'g'risida bo'lsa, go'yo uni ma'lum bir portdan olib kelgani ketayotgandek ishonch bilan so'zlashar edilar. Kapitan Grantga alohida kayuta, uning ikki matrosida esa karavotlar tayyorlab qo'yildi. Meri Grant otasining kayutasini zo'r ishtiyoq bilan bezatdi, har narsani joy-joyiga saranjom qilib qo'ydi. Bu kayutani Olbinet bo'shatib berdi; o'zi esa xotining kayutasiga ko'chib o'tdi. Kapitan Grantga mo'ljallangan kayuta «Shotlandiya» paroxodidan Paganel buyurtirgan o'sha mashhur oltinchi kayuta bilan yonma-yon edi. Geografiya olimi o'z kayutasiga kirib olib, ertadan kechgacha ishlardi: u «Geografning Argentina pampaslaridan olgan ajoyib taassurotlari» degan asar yozishga kirishib ketdi. Ko'pincha, oqqa ko'chirib yozishdan oldin, u o'zining dastlabki xomaki qo'lyozmalarini hayajon bilan ovoz chiqarib o'qiyotgani kayutasidan eshitilib qolardi.

To'g'risini aytib qo'ya qolish kerak, zavqi qaynab ketgan geografiya olimi tarixchilar homiysi Klioga tez-tez xiyonat qilib, qadimgi qahramonlarining bahodirliklarini sharaflagan dostonlar ilhomchisi Kalliopening ilohiy ta'siriga berilardi. Apollonning iffatli qizlari uni deb Parnas yoki Gelikonni fan deb tashlab ketishlarini Paganel yashirmas ham edi. Elen va mayor geografiya olimini uning huzuriga o'sha mifologik mehmonlarning kelishi bilan tabrikladilar.

- Lekin ko'zingizga qarab ish qiling, do'stim Paganel, - deb gap qistirib qo'yardi mayor, - parishonlikka ko'p berilmang, avstraliyaliklar tilini o'rganmoqchi bo'lib qolsangiz xitoy grammatikasini o'qib yurmang yana.

Shunday qilib, kemada har ish o'z izidan boraverdi. Eduard bilan Elen Glenarvanlar Jon Mangls bilan Meri Grantni qiziqish bilan kuzatib bordilar. Eduard bilan Elen, ular o'zlarini juda yaxshi tutyaptilar, Jon Manglsning o'zi bu to'g'rida og'iz ochmagandan keyin,

biz ham o'zimizni bilmaganga olib yuraveraylik, degan fikrga keldilar.

– Bunga kapitan Grant nima derkin? – deb so'rab qoldi bir kun Glenarvan xotinidan.

– Nima derdi, azizim Eduard, Jon Meriga juda munosib kuyov ekan deydi, bunda xato qilmaydi ham.

Kema esa manzilga tez yaqinlashib borardi. Korrientes buruni ko'zdan g'oyib bo'lganidan besh kun keyin, ya'ni 16-noyabrda g'arbdan Afrikaning janubiy sohilini aylanib o'tadigan kemalarning suzishiga juda qulaylik tug'diradigan mayin shamol qo'zg'aldi; odatda bu yerlarda janubi sharqdan esadigan shamollar ko'p bo'ladi. «Dunkan» yelkanlarni yozib yubordi-da, fok, grot, barcha marsel, bramsel va staksel yelkanlarining kuchi bilan so'f yonboshiga sal og'ib, shunday g'izillab suzib ketdiki, mashinaning vinti kema ostidan orqaga tez o'tib borayotgan suvni itarishga ulgura olmasdi. «Dunkan» hozir Temzadagi Qirol yaxta-klubining kemalari bilan musobaqa qilayotgandek edi.

Ertasiga ertalab sayohatchilar uyg'onib qarashsa, okeanning yuzi katta-katta yo'sinlar bilan qoplanib, u xuddi boshdan oyoq o't bosib ketgan nihoyatda katta hovuzga o'xshab qolibdi. «Dunkan» Paganel pampaslariga o'xshatgan bu o't bosgan tekislikdan suzib borardi. Suv o'tlari kema tezligini ancha sekinlatib qo'yg'an edi.

Yana bir kun o'tdi. Erta bilan azonda machtadan navbatchilikda turgan matrosning ovozi eshitildi.

– Yer! – deb qichqirdi matros.

– Qaysi tarafda? – deb so'radi bu payt vaxtada turgan Tom Ostin.

– Shamolga teskari tarafda, – dedi matros.

Dengizda hammani hayajonga soladigan: «Yer» degan qichqiriq eshinishi bilanoq paluba darhol odamga to'ldi. Ko'p o'tmay lyukdan uzun durbin ko'rindi, ketma-ket Jak Paganel chiqib keldi. Olim o'z asbobini darrov matros ko'rsatgan tarafga yo'naltirdi, lekin u tarafda yerga o'xshagan hech narsa ko'rmadi.

– Bulutlarga qarang, – dedi unga Jon Mangls.

– Rost, – dedi Paganel, – rost, o'sha tarafda tog' cho'qqisiga o'xshagan bir narsa ko'rinyapti.

– Tristan-da-Kunya o'sha, – deb izoh berdi Jon Mangls.

- Unday bo'lsa, - deb so'zida davom etdi geografiya olimi, - yanglishmasam, biz hozir undan sakson mil uzoqlikda bo'lishimiz kerak, chunki dengiz sathidan yetti ming fut balandlikda bo'lgan bu cho'qqi xuddi shuncha masofadan ko'rinadi.

- Juda to'g'ri aytdingiz, - dedi kapitan Jon.

Bir necha soat o'tdi, ufqda sohillari tikka kesib tushgan bir necha baland-baland orol yaqqol ko'rindi. Tristan-da-Kunyaning konussimon cho'qqisi chiqib kelayotgan quyosh nurlari ostida ming xil tusda tovlanagan osmon sathida qop-qora soyaga o'xshab ajralib turardi. Ko'p o'tmay, shimoli sharq tarafga cho'zilib ketgan bu arxipelagning tosh qoyalari orasidan uning asosiy oroli ko'rindi.

Tristan-da-Kunya Grinvich meridiani bilan $37^{\circ} 8'$ janubiy kenglikda va $10^{\circ} 44'$ g'arbiy uzunlikda joylashgan. Atlantika okeanidagi bu yakka-yolg'iz kichikkinna arxipelag undan o'n sakkiz milcha janubi g'arbdagi Mustahkam oroli bilan, undan o'n milcha janubi sharqdagi Bulbul oroli bilan to'ldirilgan. Choshgohga yaqin kema dengizchilarga yo'lni belgilashda yordamchi bo'lib kelgan ikkita asosiy belgi yonidan o'tdi; bu-lardan biri Mustahkam orolining bir burchidagi, yelkanli qayiqni eslatuvchi katta qoya, ikkinchisi - Bulbul orolining shimoliy qismidagi, eski qal'a xarobalarini eslatuvchi ikkita kichkina-kichkina orolcha edi. Soat uchda «Dunkan» Tristan-da-Kunyaning g'arb tarafidan keladigan shamollardan Gelm tog'i cho'qqilari saqlab turadigan Falmut ko'rfaziga kirib bordi. Bu yerda bir necha kit ovlovchi kemalar langar tashlab turardi; bu kemalar orol sohillarida juda ko'p bo'ladigan tyulen va boshqa har xil dengiz jonivorlarini ov qilar edilar.

Jon Mangls «Dunkan»ni to'xtatish uchun qulay va ishonchli joy axtara boshladi, chunki u shimol va shimoli g'arbdan shamol qo'zg'alib qolgudek bo'lsa, bu reyde kemalarga juda xavfli ekanini yaxshi bilardi. «Juliya» degan ingliz kemasi 1829-yilda butun yuki va komandasi bilan xuddi shu yerda cho'kib ketgandi. «Dunkan» sohildan yarim milcha berida, chuqurligi yigirma sajencha keladigan, tagi toshli yerda langar tashladi. Kema yo'lovchilari uchun darhol katta-kon qayiq tushirildi; ular ohaktoshlarning kuyishidan

va shamolda uqalanishidan hosil bo'lgan mayda qora qumning yupqagina qatlami bilan qoplangan sohilga chiqdilar.

Butun Tristan-da-Kunya arxipelagining poytaxti-ko'rfazning ichkarisiga, shaldirab oqib yotgan katta soy bo'yiga joylashgan bir kichkinagina qishloq. Qishloq, aftidan, ingliz arxitekturasi oxirgi yutuqlariga asosan qator qilib solingan elliktacha shinamgina uylardan iborat. Bu bejirimgina shaharchaning nariyog'i bir yarim ming gektarcha maydondan iborat dala, dalaning etagi sovub qolgan lavadan hosil bo'lgan qotishmalar uyilib yotgan tepaga borib taqaladi. Bu yassi tepalik nariyog'ida yetti ming fut balandlikdagi konusimon tik cho'qqi qad ko'targan.

Glenarvanni ingliz koloniyasining gubernatori qabul qildi, u gubernatordan darhol kapitan Garri Grant va «Britaniya» kemasini surishtirdi. Lekin gubernator bu ismlarni mutlaqo eshitmagan ekan. Tristan-da-Kunya orollari kemalar qatnab turadigan dengiz yo'llaridan chetda, shuning uchun bu yerga kemalar kamdan kam keladi. 1821-yilda Mustahkam orolining qoyalariga kelib urilgan «Blendon-Golle» degan ingliz kemasi-ning ma'lum halokatidan so'ng asosiy orol yonida yana ikki kema halokatga uchradi: bulardan biri 1845-yil cho'kib ketgan «Primoge» kemasi, ikkinchisi – 1857-yilda cho'kib ketgan «Filadelfiya» degan uch machtali Amerika Qo'shma Shtatlari kemasi. Bu yerlarda shu uch kema halokatidan boshqa hech qanday falokat yuz bermadi.

Aslida Glenarvan bu yerda biror ma'lumot olish umidida ham emasdi, u ko'nglini to'q qilib qo'yish maqsadida shunchaki surishtirdi. Xuddi shu maqsad-da u orol atrofini aylanib chiqishga qayiqalar yubordi, chunki bu orolning aylanasi o'n yetti mildan oshmaydi. Orol bundan uch hissa katta bo'lganda ham unga na London, na Parij sig'magan bo'lardi.

Bu qidirish ishlari olib borilayotgan vaqtda «Dunkan» yo'lovchilari qishloqni va uning atrofini tomosha qildilar. Qishloq aholisi bir yuz ellik kishiga ham yetmasdi, ularning hammasi negr ayollarga va kaplik gottentot ayollariga uylanib olgan inglizlar bilan amerikaliklar edi.

Turistlarimiz quruq yerda sayr qilib yurganlaridan xursand bo'ldilar. Qishloqni aylanib chiqqach, ular oroldagi ekin ekiladigan birdan bir vodiyning dengizga chiqadigan joyiga qarab yurdilar. Orolning shu vodiydan boshqa hamma joyi qotib qolgan lavadan hosil bo'lgan tik qoyalari va quruq toshlar bilan qoplangan: ular orasida sonsiz-sanoqsiz albatrosalar bilan mingminglab pingvinlar yashaydi.

Sayohatchilar oldin vulqon hosil qilgan qoyalarni tomosha qildilar, keyin vodiya yo'l oldilar. Ular atrofiga doim qor bosib yotadigan konussimon cho'qqidan tushib keladigan juda ko'p ariq va jilg'alar jildirab oqib turardi. Bu manzarani ko'm-ko'k butalar yana ham jonlantirib yuboradi, butalarda ularning gulidan ham ko'proq qushlar chug'urlashib sayrashadi. Ko'm-ko'k o'tloq orasida balandligi yigirma futcha chiqadigan bitta-yu bitta daraxt qo'qqayib turibdi; daraxtsimon poyali kattakon tusse butasi, urug'ining atrofini tikan bosgan *atsena*, poyalari bir-biriga chirmashib ketgan azamat lomariyalar, atrofga qo'lansa hid taratib turadigan ko'p yillik buta o'simligi anuerinlar, yo'sinlar, yovvoyi selderey, qirqquloqlar – orolning uncha ko'p xil bo'lmasa ham, har holda, ziynatli o'simliklari ana shulardan iborat. Bu ajoyib orolda doim bahorning rohatbaxsh nafasi esib turishi sezilardi.

Qishloq atrofiga qoramol va qo'ylar podasi o'tlab yurardi; orolga bundan qirq yil burun keltirib ekila boshlagan bug'doy, jo'xori, turli sabzavotlar ko'karib yotgan dala poytaxt ko'chalarigacha taqalib kelgan edi.

Glenarvan kemaga qaytib kelishi bilan qayiqalar ham «Duncan» oldiga kelib to'xtadilar. Qayiqalar bir necha soat ichida orolning atrofini aylanib chiqdilar, lekin bu atrofga «Britaniya»dan hech qanday asar topmadilar. Shunday qilib, Tristan-da-Kunya orollari kapitani Grantni axtarish to'g'ri keladigan joylar hisobidan uzilkesil chiqarib tashlandi.

Endi «Duncan» Afrikaning bu orollaridan bahu-zur chiqib, sharq tomonga qarab yo'lida davom etishi mumkin. Lekin kema o'sha kuni jo'nab ketmadi, chunki Glenarvan komanda a'zolariga tulen ovlashga ruxsat berdi. Falmut ko'rfazida tulenlar to'lib yotardi. Bir vaqtlar bu yerlarda kitlar ham bemalol suzib

yurar edi. Lekin ularni ov qilaverib, shunday qirib yuborganlarki, kitlar bu atrofda deyarlik yo'q bo'lib ketgan. Suvda ham, quruqlikda ham yashovchi jonivorlar esa bu yerda gala-gala bo'lib yuradilar. Kema komandasi kechasi bilan ov qilib, ertasiga ulardan yog' zaxirasini ko'paytirib olishga qaror qildi. Shu sababdan «Dunkan»ning yo'lga chiqishi indinga, ya'ni 20-noyabrgacha kechiktirildi.

Kechki ovqat paytida Paganel hamrohlariga Tristan-da-Kunya orollari to'g'risida bir qancha qiziq ma'lumotlar so'zlab berdi. Sayohatchilar Albukerkning yo'ldoshlaridan biri, portugaliyalik Tristan-da-Kunya tomonidan kashf etilgan bu arxipelag yuz yildan ortiq vaqt o'rganilmay yotganini bilib oldilar. Bu yerdagi orollar asosli ravishda «bo'ronlar makoni» deb hisoblanar va Bermud orollaridan battar deb nom chiqargan edi. Shuning uchun bu orollarga faqat Atlantika okeanining bo'ronlari surib tashlagan kemalargina kelardi.

1697-yilda, Ost-Indiya kompaniyasiga qarashli uch golland kemasi kelganda, bu orollarning koordinati belgilandi, 1700-yilda esa astronom Galley bu raqamlarga aniqlik kiritdi. 1712-yil bilan 1767-yillar o'rtasida bir necha fransuz dengizchisi Tristan-da-Kunya arxipelagini kelib ko'rdi. Ayniqsa, Laperuz bu orollarga ko'p ahamiyat berdi. U o'zining 1785-yilgi mashhur sayohati vaqtida, unga berilgan topshiriqqa muvofiq bu orollarga kelgandi. Odamlar kamdan kam keladigan bu orollar to 1811-yilgacha, ya'ni amerikalik Jonatan Lambertning miyasiga ularni koloniyaga aylantirish fikri kelguncha kimsasiz, bo'm-bo'sh yotdi. O'sha yilning yanvar oyida u ikki o'rtog'i bilan orolga kelib tushdi; ular darhol ish boshlab yubordilar. Yaxshi Umid burunidagi ingliz gubernatori kolonistlarning ishi yurishib ketganini eshitib, ularga Angliya davlatining himoyasiga o'tishni taklif qildi. Jonatan bu taklifni qabul qilib, chaylasi tepasiga Britaniya bayrog'ini qadab qo'ydi. Endi Jonatan, o'z xalqi ustidan – italiyalik bir chol bilan portugaliyalik bir mulat ustidan tinch va osoyishta hukmronlik qilib o'tishi tabiiydek tuyulardi. Lekin kunlardan bir kuni o'z «imperiyasining» sohil-larini o'rganayotib u suvga cho'kib o'ldi, rostdan ham o'zi cho'kib ketdimi yo cho'ktirib yuborishdimi – bu

sir sirligicha qoldi. 1816-yil keldi. Napoleon Muqaddas Yelena orolida asirlikda yotardi, shuning uchun Angliya uni yaxshiroq qo'riqlash bahonasida Tristan-da-Kunya orollarida bir garnizon, Vozneseniya orolida yana bir garnizon saqladi. Garnizon Yaxshi Umid burunidan ko'chirib kelingan bir artilleriya batareyasi bilan gottentotlar otryadidan iborat edi. Bu yerda u to Napoleonning o'limigacha, 1821-yilgacha turdi, keyin yana Yaxshi Umid buruniga qaytarildi.

– Faqat bitta yevropalik kishi, – deb hikoyasini davom ettirdi Paganel, – shotlandiyalik kapral...

– Ha, ha! Shotlandiyalik deng! – deb uning so'zini bo'ldi doim vatandoshlariga qiziqib qaraydigan mayor.

– Uning ismi Vilyam Glass edi, – deb davom etdi Paganel. – U xotini va ikki gottentot bilan orolda qoldi. Oradan ko'p o'tmay shotlandiyalikka yana ikki ingliz kelib qo'shildi: ulardan biri matros, ikkinchisi esa Temza bo'yida yashagan, o'sha vaqtgacha Argentina armiyasida dragun bo'lib xizmat qilgan baliqchi edi. Nihoyat, 1821-yilda «Blendon-Golle» halokatga uchraganda omon qolganlardan biri xotini bilan Tristan orolida panoh topdi. Shunday qilib, 1821-yilda bu orolda olti erkak bilan ikki ayol yashar edi. 1829-yilga kelib, orol aholisining soni oshdi; erkaklar yettitaga, xotinlar oltitaga, bolalar esa o'n to'rttaga yetdi. 1835-yilda bu raqam qirqaqqa yetdi, hozir esa orolda bundan uch hissa ortiq odam bor. Tristan-da-Kunyaning tarixini tag'in ham to'laroq yoritish uchun yana bir narsani aytay, – deb hikoyasini davom ettirdi Paganel, – mening fikrimcha, bu orollarni ham xuddi Xuan-Fernandes orollari kabi robinzonlar oroli deb atasa bo'ladi. Rostdan ham, Xuan-Fernandes orolida boshqa-boshqa paytlarda ikki matros taqdirning hukmiga havola qilingan bo'lsa, Tristan-da-Kunya orollarida ham ikki olimning boshiga xuddi o'sha kun kelishiga sal qolgan. 1793-yilda mening vatandoshlarimdan biri, tabiatshunos Ober dyu-Pti-Tuar orolda o'simlik yig'ishga juda qiziqib ketibdi-da, adashib qolibdi, u yo'lini topib, kema turgan joyga qaytib kelganda, kapitan allaqachon langar ko'tarishga buyruq berib bo'lgan ekan. 1824-yilda esa, azizim Glenarvan, sizning vatandoshlaringizdan biri Ogyust Erl degan bir usta rassom shu orolda qolib

ketib, bu yerda sakkiz oy umr ko'radi. Kema kapitani Erlning sohilga tushib ketganini unutib qo'yibdi-yu, yelkanlarini ko'tarib, Yaxshi Umid buruniga jo'nab ketibdi.

– Ana o'sha kapitanni chinakam parishonxotir odam ekan desak arziydi! – dedi mayor. – Sizning biron qarindoshingiz bo'lmasin yana, Paganel?

– Qarindoshim bo'lsayam arziydigan odam edi, – dedi geografiya olimi, shu bilan uning Tristan-da-Kunya orollari to'g'risidagi hikoyasi tugadi.

«Duncan» komandasining tungi ovi juda muvaffaqiyatli bo'ldi: ovchilar ellikta katta-katta tulen o'ldirdilar. Ov qilishga ruxsat bergan Glenarvan undan biror foyda olishni ham taqiqlamadi. Shuning uchun ertasiga butun kun tulenlarning terisini tozalash va saranjomlash bilan o'tdi. Shunday bo'lgandan keyin, o'z-o'zidan ma'lumki, «Duncan» yo'lovchilari yana bir marta orolga tushib, orol ichkarisida sayr qildilar. Glenarvan va mayor miltiqlarini ham ola ketdilar, chunki ular oroldagi qushlardan otib olmoqchi edilar.

Sayr qilib yurib, sayyohlar tog'ning etagigacha yetib bordilar. Bu yerning tuprog'i qop-qora, serkavak lava shlaklari hamda vulqon hosil qilgan boshqa har xil vulqon qoldiqlari bilan qorishib yotardi. Tog'ning asosi boshi-keti yo'q qoyalarga o'ralgan. Bu konussimon bahaybat cho'qqining qanday hosil bo'lganini sira xato qilmasdan aytish mumkin, shuning uchun ham Karmankel degan ingliz kapitani uni o'chib qolgan vulqon deb mutlaqo to'g'ri aytgan.

Ovchilar oldidan bir necha to'ng'iz chiqib qoldi. Mayor ulardan birini otib yiqitdi. Glenarvan esa bir necha qora kaklik otish bilan cheklandi, ulardan juda mazali ragu tayyorlasa bo'lardi. Tog'ning baland-baland yonbag'irlarida juda ko'p echkilar sakrashib yurardi. Orolde yovvoyi mushuk ham ko'p edi; hatto itlar uchun ham xavfli bo'lgan bu kuchli va yurakli jonivorlar vaqti kelib, haqiqiy yirtqich bo'lib yetishsa ham ajab emas.

Kechqurun soat sakkizda hamma kemaga qaytib keldi, kechasi esa «Duncan» Tristan-da-Kunyaga endi sira ham qaytmaydigan bo'lib yo'lga chiqdi.

Uchinchibob

AMSTERDAM OROLI

Jon Mangls Yaxshi Umid burunida ko'mir g'amlab olmoqchi edi, shuning uchun u o'ttiz yettinchi paralleldan biroz chetga chiqdi va shimol tarafga qarab ikki gradus ko'tarildi. Hali tropik shamollar zonasi boshlanmagan bo'lib, bu yerda «Duncan»ning yurishini qulaylashtiradigan kuchli g'arbiy shamollar urib turardi.

Kema olti kundan ham kamroq vaqt ichida bir ming uch yuz mil masofani, ya'ni Tristan-da-Kunya orollaridan Afrikaning janubiy uchigacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. 24-noyabr kuni kunduz soat uchda Oshxonaga tog'i ko'rindi, bir ozdan keyin Jon Mangls ko'rfazga kiraverishdagi Signallar tog'ini ham ko'rdi. «Duncan» ko'rfazga kechqurun soat sakkizlarda kirib, Kapshtadt portida langar tashladi.

Geografik jamiyatning a'zosi bo'lgan Paganel Afrikaning janubiy uchini dastlab 1486-yilda portugaliya admirali Bartolomey Dias sal-pal ko'rib o'tganini, 1497-yildagina Vasko-da-Gama uni aylanib o'tganini bilmasligi mumkin emasdi. Bu masalada geografiya olimi qiziq bir gap aytdi: agar Diats o'shanda, ya'ni 1486-yilda, Xristofor Kolumbning birinchi sayohatidan olti yil oldin, Yaxshi Umid burunini aylanib o'tganda Amerikaning ochilishi noma'lum vaqtgacha orqaga surilib ketishi mumkin edi. Chunki Afrikaning janubiy sohillaridan o'tadigan yo'l Sharqiy Hindistonga boradigan eng qisqa yo'l. Genuyali mashhur dengizchi esa g'arb tarafga sayohat qilar ekan, xuddi o'sha «shirin-sharbatlar mamlakati»ga olib boradigan eng yaqin yo'lni axtargan edi. Shuning uchun Yaxshi Umid buruni o'sha vaqtda aylanib o'tilganda, Kolumbning ekspeditsiyasi o'z qimmatini yo'qotgan bo'lardi, ehtimolki, u ekspeditsiyaga chiqmagan ham bo'lardi.

1652-yilda gollandiyalik Van-Ribek asos solgan Keyptaun, yoki Kapshtadt, Kap ko'rfazining ichkarisiga joylashgan. Bu shahar 1815-yil bitimlaridan so'ng uzil-kesil inglizlar qo'liga o'tgan kattagina koloniyaning poytaxti.

«Duncan» yo'lovchilari kemanding portda to'xtab turishidan foydalanib, shaharni tomosha qildilar. Ular-

ning ixtiyorida faqat o'n ikki soat vaqt bor edi, chunki kapitanning ko'mir g'amlab olishi uchun bir kun ham kifoya qilardi, u 26-noyabrda erta bilan yo'lga chiqmoqchi edi.

Lekin Kapshtadt deb atalgan, shaxmat taxtasi-ning to'g'ri to'rtburchakli kvartallari singari qurilgan bu shaharni tomosha qilish uchun shu vaqt ham yetib ortdi. Haqiqatan ham, shaharning janub sharqiy qismida qad ko'targan qasrni, gubernatorning uyi va bog'ini, birjani, muzeyni, o'z kashfiyoti xotirasiga atab Bartolomey Dias o'rnatgan tosh butni ko'rib, mahalliy vinolar ichida eng yaxshisi hisoblangan pontey vino-sidan bir stakandan tatib ko'rgandan keyin yo'lga tushishdan boshqa ish qolmaydi ham.

Sayohatchilarimiz ertasiga tongotar paytda xuddi shunday qildilar ham. «Dunkan» kliver, fok va marsel yelkanlarini ko'tarib, yo'lga chiqdi va bir necha soat deganda mashhur Bo'ronlar burunini aylanib o'tdi. Portugaliyaning optimist qiroli **Ioann II** Yaxshi Umid deb bu burunga juda ham muvaffaqiyatli ism bergan emas. Bu yerdan Amsterdam orollarigacha ikki ming to'qqiz yuz mil. Havo ochiq bo'lib, shamol orqa tomondan esib tursa, bu masofani o'n kunlarda bosib o'tsa bo'ladi. Sayohatchilarimizning pampaslardagiga qaraganda dengizda omadi keldi: ular dengizda tabiatning xurujlariga duchor bo'lmadilar.

- Eh, dengiz, dengiz! - deb takrorlar edi Paganel. - Dengiz - inson o'z qudratini rosa ko'rsata oladigan joy. Kema - madaniyat tarqatadigan haqiqiy vosita. Agar Yer shari bitta yaxlit qit'adan iborat bo'lganda, o'n to'qqizinchi asrda biz uning mingdan birini ham bilmagan bo'lardik. Katta qit'alarining ichkari taraflarida, Markaziy Osiyo qirlarida, Afrika sahrolarida, Amerika dashtlarida, Avstraliyaning bepoyon maydonlarida, qutb muzliklari hukm surgan mamlakatlarda nimalar bo'layotganiga bir nazar tashlang. U yerlarga odam qadam bosgani betlay olmaydi. Eng jasur odam chekinadi, eng dovyurak odam halok bo'ladi. U yerlarda odam yo'l yurolmaydi, chunki aloqa vositalari yetishmaydi. Jazirama issiq va turli kasalliklar o'tib bo'lmas to'siqlarni tashkil qiladi. Sahroda yigirma mil masofa odamlarni bir-biridan okeandagi besh yuz mildan ko'ra ko'proq ajratib turadi. Ikki sohilda yashovchi odam-

lar bir-birlarini qo'shni hisoblaydilar, qalin o'rmonning ikki tomonida yashovchilar esa bir-birlarini ajnabiy hisoblaydilar. Angliya Avstraliya bilan go'yo chegara-doshga o'xshaydi. Lekin Misrni misolga olaylik: u go'yo Senegaldan bir million le uzoqda joylashgandek. Peket Petrburgning antipodiga o'xshaydi. Bizning davrimizda eng kichkina cho'lda yurgandan dengizda sayohat qilish ming marta a'lo, shuning uchun ham dunyodagi besh qit'a o'rtasida yaqindan munosabat o'rnatilgan.

Paganel juda samimiy so'zlardi, okean sha'niga o'qilgan bu madhga hatto mayor ham e'tiroz bildirmadi. Haqiqatan ham, agar Garri Grantni qidirib o'ttiz yettinchi parallel bo'ylab faqat quruqlikdan yo'l bosiladigan bo'lsa, bu ishni amalga oshirib bo'lmasdi. Hozir esa jasur sayohatchilarimizga bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga borish uchun dengiz xizmat qilmoqda.

6-dekabr kuni tongotar paytda dengiz to'lqinlari orqasidan allaqanday bir tog' ko'rindi. Bu 37°47' janubiy kenglikda va 77° 24' sharqiy uzunlikda joylashgan Amsterdam orollari edi. Havo ochiq bo'lgani uchun konussimon cho'qqi ellik mil joydan ko'rinib turardi. Ertalab soat sakkizda hali uncha aniq ko'rinmayotgan bu tog' uzoqdan xuddi Tenerif cho'qqisining qorasiga o'xshab ko'rindi.

– Demak, u Tristan-da-Kunya orolidagi cho'qqiga ham o'xshar ekan-da, – dedi Glenarvan.

– Asosli xulosa, – dedi Paganel. – Bu xulosa, agar ikki o'xshash orol uchinchisiga o'xshasa, ular bir-biriga o'xshash bo'ladi, degan geometrografik aksiomadan kelib chiqadi. Amsterdam orollari ham Tristan-da-Kunya orollari kabi tulen bilan robinzonlarga boy bo'lganligini qo'shimcha qilib qo'yay.

– Demak, robinzonlar hamma yerda ham bor ekan-da, – deb so'radi Elen.

– Rostini aytsam, missis, mening bilishimcha robinzonlar bo'lmagan orollar juda kam, – dedi geografiya olimi. – mashhur vatandoshingiz Daniel Defo o'zining o'lmas romanida tasvirlangan voqealarni hayotning o'zi undan ancha burun yaratgan.

– Janob Paganel, – dedi unga Meri Grant, – ruxsat etsangiz, sizga bitta savolim bor.

– Ikkita bo'lsa ham mayli, miss. Javob berishni bo'ynimga olaman.

- Birdan kimsasiz bo'm-bo'sh orolga tushib qolsangiz, qo'rqib ketarmidingiz?

- Menmi? - dedi Paganel.

- Azizim, ko'pdan beri qilib yurgan orzum shu deb yurmang yana, - dedi mayor.

- Bunday demoqchi emasman, - deb javob berdi geografiya olimi, - lekin bunday sarguzasht menga juda yoqib tushgan bo'lar edi, chunki hayotimni boshqatdan qurgan bo'lardim - ov qilardim, baliq tutardim, qishda g'orda, yozda esa daraxtda yashardim, o'zim yetishtirgan hosil uchun ombor qurardim. Xullas, o'z orolimni koloniyaga aylantirardim.

- Yolg'iz o'zingiz-a?

- Ha, sharoit majbur qilsa, yolg'iz o'zim. Lekin dunyoda yakka-yolg'iz yashaydigan vaqt sira bo'lganmi? Jonvorlar orasidan do'st orttirishning iloji yo'q deyisizmi - biror echkini, shirinso'z biror to'tiqushni yoki ajoyib bir maymunchani o'rgatib olsa bo'ladi. Bordiyu, baxtingizdan bo'lib, Jumaboy singari sodiq do'st orttirsangiz, yana nima kerak sizga? Bir orolda ikki do'st, bu qaysi baxtdan kam? Mana, masalan, men bilan mayor.

- Salomat bo'lsinlar, - dedi Mak-Nabbs, - men Robinzon bo'lishni sira ham orzu qilmayman, robinzonlikni eplay olmagan bo'lardim ham.

- Hurmatli Paganel, - deb gapga aralashdi Elen, - qizg'in tasavvurlaringiz sizni yana fantaziya olamiga boshlab ketyapti. Lekin, menimcha, haqiqat olami xayol olamidan g'oyat katta farq qiladi. Siz xayolingizda faqat uydirma robinzonlarni ko'rasiz, taqdir u robinzonlarni sharoiti har taraflama qulay orollarga keltirib tashlaydi, bu orollarda tabiat ularni erka o'g'ildek ardoqlaydi. Siz buning faqat yaxshi tomonini ko'ryapsiz.

- Iye! Siz kimsasiz orolda baxtli yashab bo'lmaydi deb o'ylaysizmi?

- Ha, men buning iloji yo'q deb hisoblayman. Odam yolg'izlikda yashash uchun emas, jamiyatda yashash uchun yaratilgan. Yolg'izlik umidsizlik tug'diradi. Buning yuzaga kelishi uchun faqat ma'lum vaqt o'tishi lozim. Dengiz to'lqinlari hujumidan endigina qutulib chiqqan bir bechoraning butun fikri-yodi dastlabki paytlarda hayot uchun zarur bo'lgan ishlar bilan band bo'lishi, natijada u shu ishlar bilan o'ralishib qolib,

vaqtincha mash'um kelajagi to'g'risida o'ylamasligi ehtimol. Lekin vaqti kelib u odamlardan uzoqda yolg'iz qolganini sezadi, vatanini, sevgan odamlarini qaytib ko'rolmasligini tushunadi. Ana shunda u nimalarni o'ylamaydi, qanday azoblarni kechirmaydi deysiz? Uning uchun butun dunyo – o'sha o'zi tushib qolgan oroli, butun insoniyat – o'zi. Nihoyat yolg'izlikda o'lishday dahshatli payt kelganda, u o'zini dunyoning oxirgi kunida vafot qilayotgan eng oxirgi odamdek his qiladi. Yo'q, janob Paganel, xo'p deyavering, yaxshisi, o'shanday odamning kuni aslo boshimizga tushmasin.

Paganelning biroz achinib bo'lsa ham, Elenning dalillarini e'tirof etmaslikdan boshqa iloji qolmadi. Yolg'izlikda hayot kechirishning yaxshi va yomon tomonlari to'g'risidagi suhbat to «Dunkan» Amsterdam orollari sohilidan bir mil narida langar tashlaguncha davom etdi.

Hind okeanining o'rtasida qolib ketgan bu arxipelag bir-biridan taxminan o'ttiz uch mil uzoqlikda, xuddi Hindiston yarimorolidan o'tadigan meridianga joylashgan ikki oroldan iborat. Shimoliy orol Amsterdam oroli yoki Muqaddas Pyotr oroli deb, janubdagisi esa Muqaddas Pavel deb ataladi. Lekin shuni aytish kerakki, geograflar ham, dengizchilar ham ko'pincha ularni adashtirib yuradilar.

1859-yilda dunyo safariga chiqqanlarida Avstraliyaga qarashli «Navarra» degan fregatning ofitserlari bunday xatoga yo'l qo'ymadilar. Paganel o'sha xatolarni butunlay tuzatishni zarur deb hisoblar edi.

Amsterdam orolidan janubga joylashgan Muqaddas Pavel oroli kimsasiz, bo'm-bo'sh maskan; u konnussimon tog' cho'qqisidangina iborat bo'lib, bu cho'qqi o'chib qolgan vulqon bo'lsa kerak. «Dunkan» qayig'i kema yo'lovchilarini keltirib tushirgan Amsterdam orolining aylanasi o'n ikki milcha chiqadi. Aholisi esa o'zining g'aribona hayotiga o'rganib qolgan va bu quvg'indagidek hayotga o'z ixtiyori bilan kelgan bir necha kishidan iborat. Ular baliq ovlash korxonasi-ning qorovullaridir; korxon ham, orolning o'zi ham Birlashgan orollik Otovan degan kommertsantniki. Yevropaning buyuk davlatlari tomonidan hozircha tanilmagan bu hokim o'z mulkidan cheylodaktilis, oddiy qilib aytganda treska balig'ini ovlash, tuzlash va so-

tish orqasida yiliga sakson ming frankkacha daromad qiladi.

Amsterdam orolining taqdirida fransuz mulki bo'lib dunyoga tanilish va fransuzlarniki bo'lib qolish bor ekan. Orol dastlab unga eng oldin ko'chib kelgan Burbondagi Sen-Denili kema xo'jayini Kamenga qarardi. Keyin allaqanday xalqaro bitimga binoan Amsterdam oroli bir polyakka berildi, polyak Madagaskardan qul olib kelib, uni ishga soldi. Lekin oxiri, orol Otovan qo'liga o'tib, yana fransuz oroli bo'lib qoldi.

1864-yil 6-dekabrda «Dunkan» orol yaqinida langar tashlaganda, uning aholisi uch kishi, ya'ni bir fransuz va ikki mulat edi. Uchalasi ham orol xo'jayini kommersant Otovanning qo'lida xizmat qilardi. Paganel bu yerda o'z vatandoshi, ancha qartayib qolgan muhtaram janob Vioning qo'lini qisib ko'rishishga muyassar bo'ldi. «Dono qariya» sayohatchilarimizni juda xursandlik bilan qarshiladi. Xushmuomala va madaniyatli yevropaliklarni mehmon qilishga muyassar bo'lgan bu kun uning eng baxtiyor kuni edi. Muqaddas Pyotr oroliga odatda faqat tulen ovchilari va har zamonda kit ovchilari kelib turadilar, bunday ovchilar esa qo'pol, dag'al odamlar bo'ladi.

Vio mehmonlarni o'z «fuqaro»lari - ikki mulat bilan tanishtirdi. Orolida yashovchilar shu uch kishi, bir necha yovvoyi to'ng'iz va har narsaga ham befarq qaraydigan pingvinlar edi, xolos. Orolliklar yashaydigan uy orolning janubi g'arbiy tomonida, tog'dan qulagan toshlar hosil qilgan tabiiy bir limanning yuqorisida joylashgandi. Otovan I «hukmronlik» qila boshlashidan ko'p vaqtlar burun Muqaddas Pyotr oroli kema halokatiga uchraganlar uchun panoh bo'lib kelardi. Paganel «Amsterdam oroliga tashlab ketilgan ikki shotlandiyalikning tarixi» degan mavzuda so'zlab bergan hikoya hammani qiziqtirdi.

Bu voqea 1827-yilda bo'ldi. «Palmira» degan ingliz kemasi Amsterdam oroli yonidan o'tib keta turib osmonga tutun ko'tarilayotganini ko'rib qoladi. Kapitani qirg'oqqa yaqinlashib kela boshlaydi; ko'p o'tmay, yordam so'rab signal berayotgan ikki odamni ko'radi. U sohilga qayiq yuboradi, qayiq kemaga yigirma ikki yashar yigitcha Jak Penni va qirq sakkiz yoshli Robert Pridfutni olib keladi. Bechoralar juda achinarli holga

tushib qolgan ekanlar. Ular orolda nihoyatda qiynalib, ochlik va yalang'ochlikda o'n sakkiz oy tirikchilik qilganlar: deyarli yeydigan ovqatlari, ichadigan chuchuk suvlari yo'q ekan. Ular chig'anoqlar, har zamonda bukilgan mix bilan tutilgan biror baliq, yoki ushlab olishgan yovvoyi to'ng'iz bolasining go'shti bilan tamaddi qilib jon asrar, ba'zan uch kunlab och qolar ekanlar. Qadim zamonlardagi kabi qo'llaridagi oxirgi parcha piliq yordami bilan chiqarilgan o'tni ko'z qorachi'g'idek asraganlar. Bir yoqqa borishsa, bir bo'lak cho'g'ni qimmatbaho narsadek avaylab, doim birga olib yurishgan. Pen bilan Prudfutni orolga tulen ovlovchi kema tushirib ketgan. Baliq ovchilarining odatiga binoan, ularni orolga bir oy muddat bilan, tulen yog'i eritish va terisini oshlash uchun qoldirib ketganlar. Kema ularni olib ketgani kelmaydi. Besh oydan keyin orolga Vandimanga ketayotgan «Umid» nomli ingliz kemasi keladi. Kema kapitani allaqanday noma'lum sabablarga ko'ra shotlandiyaliklarni kemasiga olishdan bosh tortadi. U bechoralarga na bir chaqmoq qand, na bitta chaqmoq tosh qoldirmay jo'nab ketadi. Agar orol yaqinidan o'tayotgan «Palmira» olib ketmasa, ular hech shubhasiz halok bo'lar edilar.

Amsterdam orolining tarixida, – agar bu kabi faqat toshdan iborat orollarning o'z tarixi bo'ladi deb aytib bo'lsa, – yuz bergan ikkinchi hodisa kapitan Peronning sarguzashti, bu kapitan esa fransuz bo'ladi. Uning sarguzashti ham xuddi o'sha ikki shotlandiyalikning sarguzashti singari boshlanib, xuddi o'shanday tugaydi: oldin u orolda o'z ixtiyori bilan qoladi, keyin kutgan kemasi kelmaydi, qirq oydan keyin shamollar ittifoqo bir chet el kemasini orol yaqiniga surib keladi. Lekin bu sarguzashtning oldingisidan farqi shu bo'ldiki, kapitan Peron orolda ekanida, unda Daniel Defoning kitobida tasvirlangan voqealarga o'xshagan qonli to'qinishlar bo'lib o'tadi.

Kapitan Peron orolga to'rt matros bilan birga tushirilgan bo'lib, ulardan ikkitasi ingliz, ikkitasi fransuz edi. Ular o'n besh oy sivuchalar yoki dengiz sherlari ovlamoqchi edilar. Ov juda muvaffaqiyatli bordi, lekin o'n besh oy muddat o'tib, ovchilarni olib ketgani keladigan kemadan darak bo'lmay, oziq-ovqat zaxiralari sekin-sekin tugay boshlagandan keyin milliy nizo kes-

kin tus oladi. Ikki ingliz matros kapitan Peronga qarshi isyon ko'taradilar, agar vatandoshlari yonini olmagan-da kapitan halok bo'lib ketgan bo'lardi. Shu vaqtdan boshlab bir-biriga dushman bu ikki guruhning hayoti juda dahshatli tus olib, faqat yetishmovchiliklar ichidagina emas, buning ustiga yana xavotirlik ichida ham o'ta boshlaydi: ular kechasi-yu kunduzi bir-birlarini poylab yuradilar, qurollarini qo'ldan qo'ymaydilar, bir-birlariga hujum qiladilar, goh g'olib keladilar, goh mag'lub bo'ladilar. Axir, bir kun bu dushman guruhlaridan biri ikkinchisining boshiga yetishi turgan gap edi. Lekin baxtlaridan bo'lib, nihoyat allaqanday bir ingliz kemasi kelib qoladi-da, Hind okeani o'rtasidagi qoyada bema'ni milliy nizo qo'zg'ab, janjallashib yotgan bu bechoralarni vataniga olib ketadi.

Bu orolda ana shunday sarguzashtlar bo'lib o'tgan. Amsterdam oroli ikki marta unga tashlab ketilgan bechora dengizchilarning vatanidek bo'lib xizmat qildi, ularni ochlik va o'limdan ikki martasida ham tasodifiy kelib qolgan kemalargina qutqazib oldilar. Lekin o'shandan beri bu orol sohillarida bitta ham kema halokatga uchrangani yo'q. Agar biror kema halokatga uchrasa, to'lqin uning parchalarini qirg'oqqa chiqarib tashlagan bo'lar edi, albatta; kemaodagi odamlar esa qayiqlarda janob Vioning baliqchilik korxonasiga yetib kelgan bo'lardilar. Shuni ham aytish kerakki, bu yerda shuncha yillardan beri turishiga qaramay, keksa fransuz kema halokatiga uchragan birona odamga yordam bergan emas. U «Britaniya» kemasi to'g'risida ham, kapitan Grant to'g'risida ham hech narsa bilmasdi. Aftidan, bu kema halokati baliq va kit ovchilari tez-tez kelib turadigan Amsterdam oroli yonida ham, Muqaddas Pavel oroli yaqinida ham yuz bergan emas.

Janob Vioning so'zlari Glenarvanni na ajablantirdi, na xafa qildi. Axir uning ham, hamrohlarining ham bu orollarda to'xtab o'tishlaridan maqsad bu yerlarda kapitan Grantning bo'lganiga emas, aksincha, bo'lmaganiga ishonch hosil qilish edi-da. Ular o'ttiz yettinchi parallelning bu nuqtalarida kapitan Grantning yo'q ekanini aniqlamoqchi edilar, xolos. Shuning uchun «Dunkan»ning jo'nab ketishi ertagi kunga belgilandi.

Kech kirguncha qolgan vaqtlarini sayohatchilarimiz orolni tomosha qilishga bag'ishladilar. Orolning tomosha qiladigan joylari bor ekan-u, lekin o'simliklari bilan hayvonlari ko'p emas ekan. Orolning tasvirini yozib olmoqchi bo'lgan eng ezma tabiatshunos ham daftar-chasiga bir betdan ortiq narsa yozolmagan bo'lardi. Sutemizuvchilar bilan qushlardan bu yerda faqat yovvoyi to'ng'izlar, tulenlar, qordek oppoq chorloqlar, albatroslar va pingvinlargina bor. U yer-bu yerda qop-qora bo'lib qotib qolgan lava qatlamlari ostidan issiq buloqlar va tarkibida temir bo'lgan chashmalar vulqon hosil qilgan toshlar ustiga quyuv bug' yoyib, otilib yotadi. Ba'zi chashmalar suvi nihoyatda issiq. Jon Mangls ulardan biriga Farengeyt termometrini solib ko'rgan edi, u bir yuz yetmish olti gradus¹ issiqni ko'rsatdi. Qaynash darajasiga yaqin bo'lgan bu suvga undan bir necha qadam naridagi dengizdan tutib kelingan baliqni tashlab ko'rgan edilar, besh minut ichida pishib chiqdi. Bu hodisa bunday chashma suvida cho'milmoqchi bo'lib turgan Paganelning hafsalasini pir qildi.

Ancha sayr qilib kelgan sayohatchilarimiz qosh qoraya boshlagach, muhtaram janob Vio bilan xayrlasha boshladilar. Ularning har biri cholning bu bo'mbo'sh orolda imkoni bo'lganicha baxtiyor bo'lishini tiladilar, chol ham o'z navbatida bularning ekspeditsiyasiga muvaffaqiyatlar tiladi. Keyin qayiq sayyohlarni «Dunkan»ga olib ketdi.

T o ' r t i n c h i b o b

JAK PAGANEL BILAN MAYOR MAK-NABBSNING GAROVI

7-dekabr ertalab soat uchda «Dunkan» yo'lga chiqishga tayyor turar edi. Chig'ir ishga tushdi. Langar kichkinagina portning tagi qumli suvidan tortib olinib, bordagi o'z joyiga o'rnatildi. Vint ishlay boshladida, kema ochiq dengizga qarab yo'lga chiqdi. Ertalab soat sakkizda kema yo'lovchilari palubaga chiqqanlarida, Amsterdam oroli ufqdagi tuman orosida ko'zdan yo'qolib borardi. Bu sayohatchilarning o'ttiz yettinchi

¹ Selsiy bo'yicha 80 gradus.

parallel bo'ylab Avstraliyaga qilgan safarlaridagi oxirgi to'xtashlari edi, Avstraliya sohillarigacha esa hali rosa uch ming mil¹ yo'l yurishlari kerak. Agar shamol ilgarigidek g'arbdan esib, havo ham ochiqligicha tursa, «Dunkan» Avstraliya sohillariga taxminan o'n ikki kunda yetib boradi.

Meri Grant bilan Robert okean to'liqlariga hayajon bilan qarar edilar: balki bu suvlarni halokatga uchrashidan bir necha kun oldin «Britaniya» ham kesib o'tgandir? Shikastlangan kemasi to'xtovsiz ravishda sohilga surilib borayotganini bilgan kapitan Grant okeanning shu atrofdagi biror joyida komandasidan omon qolgan kishilar bilan Hind okeanining dahshatli bo'ronlariga qarshi kurashgan bo'lsa ham ajab emas. Jon Mangls qizni o'zining xaritalaridan dengizdagi oqimlar bilan tanishtirar va unga bu oqimlarning doimiy yo'nalishlarini ko'rsatardi. Bunday oqimlardan biri butun Hind okeani orqali o'tib, Avstraliya qit'asiga tomon boradi, uning ta'siri hatto Tinch va Atlantika okeanilarida ham seziladi. Shuning uchun, agar «Britaniya»ning mactalari sinib tushgan va ruli ishdan chiqqan bo'lsa, kema to'liqlar va shamolning siqig'iga dosh berolmay, to'g'ri qirg'oqqa borib urilgan va pachaqlanib ketgan bo'lishi kerak.

«Dunkan» Amsterdam orollaridan yo'lga chiqqaniga olti kun bo'ldi. O'n ikkinchi dekabr kechqurun edi. Eduard va Elen Glenarvanlar, Meri va Robert Grantlar, kapitan Jon, Mak-Nabbs va Paganel yutda suhbatlashib o'tirishardi. Suhbat, odatdagidek, «Britaniya» to'g'risida borardi – axir, sayohatchilarimizning butun fikri-xayoli halokatga uchraganlarda edi-da. Gap aylanib kelib, tasodifan kapitan Grant to'g'risidagi oxirgi ma'lumot ustiga ko'chdi: bu ma'lumot «Savdo floti gazetasi»dan olingan bo'lib, unda kapitan Grantning Klayaodan 1862-yil 30-mayda chiqib ketgani aytilgandi. Shu payt Glenarvan: «Britaniya» Peru sohillaridan jo'nab ketgandan keyin, qanday qilib sakkiz kun ichida, ya'ni 7-iyunda Hind okeaniga yetib kela oldi ekan, shu meni ajablantiradi, deb qoldi. Glenarvanning kutilmagandagi bu fikrini eshitgan Paganel yalt etib unga bir qaradi-yu, indamasdan hujjatlarni olib kel-

¹ 4800 kilometr.

gani ketdi. Qaytib kelib, meni shundayin «arzimagan narsa» bilan bezovta qilishning nima keragi bor, degan kishidek yelkasini qisib qo'ydi.

– Do'stim, har nima bo'lganda ham, bizga biror izoh bersangiz, – dedi Glenarvan.

– Yo'q, – dedi Paganel, – men faqat bitta savol bera-man, u ham bo'lsa kapitan Jonga.

– Qulog'im sizda, janob Paganel, – dedi Jon Mangls.

– Tezyurur kema Amerikadan Avstraliyaga bir oyda yetib bora oladimi?

– Kuniga ikki yuz mildan yo'l bossa, yetib bora ola-di.

– Bu aqlga sig'maydigan tezlikmi?

– Mutlaqo bunday emas. Yelkanli kemalar ko'pin-cha bundan ham tezroq yuradilar.

– Unday bo'lsa, hujjatdagi raqamlardan bittasini dengiz suvi yuvib ketgan deb faraz qiling-da, «7-iyun» o'rniga «17-iyun» yoki «27-iyun» deb o'qing, hammasi ravshan bo'ladi-qo'yadi.

– Rost-a, – dedi Elen, – o'ttiz birinchi maydan yigir-ma yettinchi iyungacha...

– ... kapitan Grant Tinch okeandan o'tib, Hind oke-aniga kirgan bo'lishi mumkin, – deb uning so'zini tu-gatdi Paganel.

Olimning bu so'zlarini hamma xursandlik bilan qarshi oldi.

– Shunday qilib, – dedi Glenarvan, – hujjatning yana bir yeri aniqlandi, buni ham olim do'stimiz ochib berdi. Endi Avstraliyaga yetib borib, uning g'arbiy so-hillaridan «Britaniya»ning izini qidirishimizgina qoldi.

– Sharqiy sohillaridan axtarsak ham ajab emas, – deb qo'shimcha qildi Jon Mangls.

– Ha, to'g'ri aytdingiz, Jon, hujjatlarda kema halo-kati qit'aning sharqiy sohilida emas, xuddi g'arbiy so-hilida yuz bergan deb ko'rsatilgan emas. Bundan esa biz qidirish ishlarini qit'aning o'ttiz yettinchi parallel o'tadigan har ikkala sohilida olib borishimiz kerak, de-gan xulosa kelib chiqadi.

– Bundan chiqdi, ularni qaysi sohildan qidirishimiz noma'lum ekan-da hali? – deb so'radi Meri.

– Yo'g'e, miss! – deb shoshilib javob berdi Jon Mangls, qizni shubhadan chiqarish uchun. – Agar ka-pitan Grant Avstraliyaning sharqiy sohiliga chiqib jon

saqlagan bo'lsa, u yerda har qanday yordam ola olgan bo'lardi, chunki qit'aning bu sohilini inglizlarniki desa bo'ladi – u yerlarda kolonistlar yashaydilar, mening bu fikrimga mister Glenarvan qo'shilsalar kerak, albatta. Bu sohilda «Britaniya» komandasi o'n mil ham yo'l yurmay, o'z vatandoshlarini uchratgan bo'lardi.

– To'g'ri, kapitan Jon, – deb uning gapini tasdiqladi Paganel, – men fikringizga qo'shilaman. Garri Grant sharqiy sohilda, Tufold ko'rfazida, Eden shahrida biror ingliz koloniyasidan boshpanagina emas, balki Yevropa qaytish uchun kema ham topgan bo'lardi.

– Halokatga uchraganlar Avstraliyaning biz hozir «Dunkan»da ketayotgan sohilida bunday yordam ola olarmidilar? – deb so'radi Elen.

– Yo'q, missis, chunki bu sohil bo'm-bo'sh, – deb javob berdi Paganel. – Bu sohilni na Melburn bilan, na Adelaida bilan qo'shadigan bironta yo'l yo'q. «Britaniya» qit'aning o'sha sohilidagi toshlarga borib urilgan bo'lsa, omon qolgan kishilar Afrikaning bo'm-bo'sh sohillariga kelib qolgan kishilar holiga tushib, hech qanday yordam ola olmagan bo'lar edilar.

– Unda ikki yildan beri otamning holi nima kechdi ekan? – dedi qiz.

– Qimmatli Meri, – dedi Paganel, – siz kapitan Grant halokat yuz bergandan so'ng Avstraliya sohiliga yetib olganiga ishonasiz-ku, axir, shunday emasmi?

– Ishonaman, janob Paganel, – deb javob berdi qiz.

– Shunday ekan, keling, bir narsani aniqlab olaylik: kapitan Grantning boshiga nima ishlar tushdi ekan? Bunga faqat uch xil javob bo'lishi mumkin: yo Garri Grant o'z hamrohlari bilan ingliz koloniyalaridan biriga yetib olgan, yo mahalliy aholi qo'lga asir tushgan, yoki Avstraliyaning bepoyon qirlarida adashib qolgan.

Paganel o'z dalillarining hamsuhbatlariga qanday ta'sir qilganini ularning ko'zlaridan o'qib olishga tirihib, birpas jim qoldi.

– Davom eting, Paganel, – dedi Glenarvan.

– Xo'p, – deb davom etdi geografiya olimi, – men birinchi farazni rad qilishdan boshlayman. Albatta, Garri Grant ingliz koloniyalariga yetib borolmagan, chunki shunday bo'lganda, u allaqachon sog'-salomat o'zining bolalari oldiga, jonajon Dendi shahriga qaytgan bo'lardi.

– Bechora otam! – deb shivirladi Meri Grant. – Biz bilan xayrlashib chiqib ketganiga rosa ikki yil boʻldi-ya!

– Opa, janob Paganelning soʻzini boʻlma! – deb uni toʻxtatdi Robert. – U hozir hammasini aytib beradi...

– Afsuski, oʻgʻlim, aytib berolmayman! Men faqat bir narsanigina ayta olaman: kapitan Grant avstraliyaliklar qoʻliga asir tushgan yoki...

– Bu yerning mahalliy aholisi... – deb uning soʻzini boʻldi Elen.

– Xotirjam boʻlaving, missis, – deb javob berdi geografiya olimi, uning nimadan xavotir olayotganini sezib, – toʻgʻri, bu odamlar hali yovvoyilarcha hayot kechiradilar, taraqqiyotning juda past tabaqasida turadilar, lekin ular beozor odamlar, qonxoʻr qoʻshnilari yangi zelandiyaliklarga mutlaqo oʻxshamaydilar. «Britaniya»dagilar ular qoʻliga asir tushgan boʻlsalar, ularning hayotiga hech qanday xavf tahdid qilmaydi, bunga ishonaving. Barcha sayohatchilar ham avstraliyaliklar qon toʻkishni yoqtirmaydilar, aksincha, sayohatchilarga katorgadan qochgan chinakam qonxoʻr jinoyatchilarning hujumiga qarshi kurashda koʻpincha yordam beradilar, degan fikr bildiradi.

– Janob Paganelning gaplarini eshitdingizmi? – deb Meri Grantga murojaat qildi Elen. – Agar otangiz mahalliy aholi qoʻlida asirlikda boʻlsa – hujjatlarda esa bunga ishora bor – biz uni topamiz.

– Agar u bu kattakon mamlakatda adashib qolgan boʻlsa-chi? – dedi qiz Paganelga savol nazari bilan qarab.

– Nima qilibdi! – dedi ishonch bilan geografiya olimi. – Oʻshanda ham topamiz uni! Shunday emasmi, doʻstlarim?

– Boʻlmasam-chi! – dedi Glenarvan. – Lekin uning adashib qolganiga men sira ishonmayman.

– Men ham, – dedi Paganel.

– Avstraliya juda kattami, oʻzi? – deb soʻradi Robert.

– Avstraliya, oʻgʻlim, yetti yuz yetmish besh million gektarga yaqin yerdan iborat, boshqacha qilib aytganda – Yevropaning beshdan toʻrt qismiga baravar.

– Shunday kattami u? – deb soʻradi hayron boʻlib mayor.

– Ha, Mak-Nabbs, xuddi shunday. Xo'sh, siz nima deysiz. Shunday mamlakat, hujjatlarda aytilganidek, qit'a degan nom olishga haqlimi, yo'qmi?

– Albatta haqli, Paganel.

– Men yana bir narsani qo'shimcha qilmoqchiman, – deb davom etdi olim. – Bu kattakon mamlakatda yo'qolgan sayohatchilar ko'p emas. Mening fikrimcha, bu yerda bedarak yo'qolib ketib, taqdiri noma'lum bo'lgan birdan bir sayohatchi – Leyxardt bo'lsa kerak, lekin yo'lga chiqishimdan sal oldin, geografik jamiyatda menga Mak-Intri uning iziga tushgan emish deb xabar qilishgan edi.

– Avstraliyaning hamma viloyatlari tekshirilmaganmi hali? – deb so'radi Elen Glenarvan.

– Yo'q, missis, – deb javob berdi Paganel. – Bu qit'a Afrikaning markaziy qismidan ham kamroq o'rganilgan, lekin, aytish kerakki, uni tekshirmoqchi bo'lgan uddaburon sayyohlar ozmuncha bo'lgan emas. 1606-yildan 1862-yilgacha Avstraliyaning markaziy viloyatlari va dengiz bo'yini tekshirish bilan ellikdan ortiq kishi shug'ullangan.

– Nima, nima?! Ellik kishi dedingizmi? – deb so'radi mayor ishonchsizlik bilan.

– Ha, Mak-Nabbs, ellik kishi. Men bu raqamni aytganimda, Avstraliyaning hali tekshirilmagan qirg'oqlari bo'ylab kemada safar qilishga jur'at etgan dengizchilarni hamda bu kattakon mamlakatning ichkarisiga sayohat qilgan sayyohlarni nazarda tutyapman.

– O'shanda ham ularning ellikta chiqishiga ishonгим kelmayapti, – dedi mayor.

– Isbot qilib beraman! – deb qichqirdi, odamlar gapiga shubha bilan qarasalar, doim qizishib ketadigan Paganel.

– Isbot qiling, do'stim!

– Ishonmasangiz, men hoziroq o'sha ellik kishining nomini birma-bir sanab beraman.

– Obbo, shu olimlar qiziq xalq bo'ladi-da! – dedi mayor xotirjamlik bilan. – Har qanday masalani ham birpasda hal qilishadi-ko'yadi!

– Mayor, garov o'ynamaysizmi? Agar mening gapim rost chiqsa, siz «Purdey-Moor va Dikson» firmasida chiqqan karabiningizni berasiz, agar siz yutsangiz mening Sekretan fabrikasidan chiqqan uzun durbinimni olasiz.

– Shu bilan xursand bo'lsangiz, aytganingizdek bo'lsin, Paganel! – dedi Mak-Nabbs.

– Juda soz, mayor, – deb qichqirdi geografiya olimi, – siz bu karabin bilan endi na yovvoyi echki, na tulki ovlay olasiz! Agar biror narsa otgingiz kelib qolsa, jon deb berib turaman.

– Sizga ham agar uzun durbinim kerak bo'lib qolsa, xizmatingizga doim tayyorman, Paganel, – dedi bunga javoban jiddiyat bilan mayor.

– Bo'lmasa boshladik! – dedi Paganel. – Muhtaram janoblar va xonimlar, guvoh bo'linglar, Robert, sen ismlarni sanab tur.

Eduard va Elen Glenarvan, Meri va Robert, mayor va Jon Mangls geografning so'zini tinglashga hozirlan-dilar. Bu tortishuv ularning hammasini ham qiziq-tirdi. Buning ustiga gap bular hozir ketishayotgan Avstraliya ustida borishi kerak, shuning uchun u juda foydali bo'lardi. Paganeldan hikoyani darhol boshlashni iltimos qildilar.

– **Mnemozina!** – dedi geografiya olimi. – Xotira ma'budasi, ilhom parilarining onasi, sodiq va qizg'in qulingga ilhom ber! Do'stlarim, bundan ikki yuz el-lik sakkiz yil burun Avstraliya hech kimga ma'lum emasdi. To'g'ri, janub tarafda bir katta qit'a bo'lishi kerak, deb taxmin qilar edilar. Aziz Glenarvan, sizlar-ning Britaniya muzeyingizda saqlanayotgan, 1550-yilda chiqqan ikkita xaritada, Osiyoning janubida portu-galiyaliklarning Katta Yavasi deb atalgan allaqanday bir yer ko'rsatilgan. Lekin bu xaritalar ishonchli emas. Shuning uchun men birato'la XVII asrga, aniqrog'i – 1606-yilga ko'chaveraman. Bu yili ispan dengizchisi Kviros yangi bir yer kashf qiladi va uni *Australia de Espirstus iantu*, ya'ni «Muqaddas ruhning janubdagi yeri» deb ataydi. Lekin ba'zi olimlar Kviros Avstraliya-ni emas, Yangi Gebrid orollarini ochgan degan fikr-ni bildirganlar. Men hozir bu janjalli masalaga to'xtab o'tirmayman. Robert Kvirosni hisobga olib qo'y, endi navbatdagi sayohatga o'tamiz.

– Bir! – deb e'lon qildi bola.

– Xuddi o'sha yili Kvirosning eskadruga qo'mon-donlik qilish bo'yicha yordamchisi Luis Vaz-de-Torres yangi ochilgan yerlarni tekshirib, janubga tomon tu-shadi. Lekin har holda Avstraliyani ochish sharafi gol-

landiyalik Teorodix Gertog hissasiga tushadi. U yigirma beshinchi gradus kengligida Avstraliyaning g'arbiy sohiliga kelib tushadi-da, bu yerga Endraxt deb o'z kemasining nomini beradi. Gertogdan keyin bir qator dengizchilar keladi. 1618-yilda ulardan biri, Si-xen shimoliy sohilda Arngeym va Von-Dimen yerlarini ochadi. 1619-yilda Yan Edels g'arbiy sohilning bir qismiga o'z nomini qo'yadi. 1622-yilda Lyovan hozir uning nomi bilan ataladigan burungacha boradi. 1627-yilda g'arbda de-Nuits, sharqda Vitt o'zlaridan oldingi sayyohlarning ixtirolarini tugallaydilar. Ulardan keyin eskadra komandiri Karpenter keladi. U o'z eskadrasi bilan kattakon bir ko'rfazgacha boradi – bu ko'rfaz hozir ham uning nomi bilan Karpentariya ko'rfazi deb ataladi. Nihoyat, 1642-yilda dengizchi Tasman Van-Dimen orollarini aylanib o'tadi va uni qit'aning bir qismi deb o'ylab, orolga Bataviya general-gubernatorining nomini qo'yadi. Keyingi avlodlar adolatli ish qilib, u orollarni Tasmaniya deb atay boshladilar. Shunday qilib, Avstraliya qit'asini har tarafdin aylanib chiqadilar. Uning sohillarini Tinch okean bilan Hind okeanining suvlari o'rab yotgani aniqlanadi. 1665-yilda bu kattakon janubiy orolga *Yangi Gollandiya* degan nom beriladi. Lekin u bu nomni saqlab qololmadi, chunki bu vaqtda gollandiyalik dengizchilar maydondan chiqib qola boshlagan edilar. Ismlar nechta bo'ldi, Robert?

– O'nta, – dedi bola.

– Yaxshi, endi bularni tugatib, inglizlarga o'taman. 1686-yilda janubiy dengizlardagi eng mashhur flibusterlardan¹ biri, korsar Vilyams Dalne goh quvnoq, goh og'ir juda ko'p sarguzashtlarni boshidan kechirgandan keyin «Oqqush» deb atalgan kemasida 16°50' kenglikda Yangi Gollandiyaning shimoli g'arbiy sohiliga keladi. U yerlik xalq bilan aloqa qiladi va ularning urf-odatleri va hayotini mufassal yozib chiqadi. 1699-yilda xuddi o'sha Vilyams Dalne – endi u qaroqchi emas, balki qiroflot kemalaridan biri, «Rebuki»ning komandiri edi – bir vaqtlar Gertog kelib tushgan ko'rfazga keladi. Yangi Gollandiya o'sha vaqtgacha odamlarni faqat geo-

¹ *Flibusterlar* – XVII asrdagi dengiz qaroqchilari. Angliya va Fransiyaning koloniyalar uchun Ispaniya bilan olib borgan kurashlarida katta rol o'ynaganlar. Ular ko'pincha Ispaniyani va uning koloniyalarini talar edilar.

grafik nuqtayi nazardan qiziqtirib keldi. Uni koloniyaga aylantirish hech kimning xayoliga kirmadi, shuning uchun 1699-yildan 1770-yilgacha, yetmish bir yil mobaynida bironta ham dengizchi uning sohillariga kelib tushmadi. Lekin mana kapitan Kuk maydonga chiqadi-yu, ko'p o'tmay yangi qit'aga yevropalik kolonistlar ko'chib kela boshlaydilar. Kuk o'zining uchala sayohatida ham Yangi Gollandiyaga tushib o'tadi. Birinchi marta bu yerga 1770-yil 31-martda kelib tushadi. Taitida Veneraning quyosh diski ustidan o'tishini muvaffaqiyatli ravishda kuzatgandan keyin Kuk kemasini Tinch okeanning g'arbiy tarafiga qarab haydaydi. Bu yerda u Yangi Zelandiyani kashf etadi, keyin Avstraliyaning sharqiy sohiliga qarab suzib, u yerdagi ko'rfazlardan birida langar tashlaydi. Bu ko'rfaz hech ko'rilmagan o'simliklarga shu qadar boy ekanki, buni ko'rgan Kuk unga Botanika ko'rfazi deb ism beradi. Bu ko'rfaz hozir ham Botani-bey deb ataladi. Dengizchining mahalliy odamlar bilan qilgan aloqasining qizigi kam. Botanika ko'rfazidan chiqib, Kuk shimol tarafga yo'l oladi, o'n oltinchi gradus kenglikka, Qayg'u buruni qarshisiga kelganda, sohildan sakkiz le joyda uning kemasi marjon toshga o'tirib qoladi. Kemaning cho'kib ketish xavfi tug'iladi. Lekin Kuk zambaraklar va oziq-ovqatlarni dengizga tashlashni buyuradi, natijada yuki yengillashgan kema ertasiga kechasi dengiz suvi ko'tarilganida toshlar orasidan chiqib ketadi. Shuni aytib o'tish kerakki, kema toshga kelib urilganda, uning teshilgan joyiga bir marjon tosh kirib, mahkam o'rnashib qoladi-da, kema ichiga suv kamroq kiradi, ana shu sabab bo'ladi-yu, cho'kib ketmaydi. Kuk o'z kemasini bir daryo kelib quyiladigan kichkinagina ko'rfazga olib keladi. Kemani tuzatishga ketgan uch oy ichida bu yerda turishga majbur bo'lgan inglizlar mahalliy aholi bilan aloqa o'rnatishga urinadilar, lekin bu ularga muyassar bo'lmaydi. Kemani tuzatib bo'lishgach, ular shimolga qarab yo'lda davom etadilar. Kuk Yangi Gvineya bilan Yangi Gollandiya o'rtasida biror bo'g'oz bor-yo'qligini aniqlamoqchi bo'ladi. Ko'p xavf-xatarlarni boshidan kechirgandan so'ng dengizchi janubi g'arbda bepoyon suv yo'li borligini ko'radi. Demak, bo'g'oz bor ekan! Kuk bo'g'ozdan o'tib, bir kichkinagina orolga kelib tushadi-da, Angliya nomidan o'zi

ochgan yangi yerlarni idora qila boshlaydi. U bu yerlarga sof britancha nom berib, Yangi Janubiy Uells deb ataydi.

Uch yildan keyin bu jasur dengizchi «Sarguzasht» va «Qat'iyat» degan ikki kemaga qo'mondonlik qiladi. «Sarguzasht» kemasida kapitan Fyurno Van-Dimen Yeri sohillarini tekshiradi va bu yerlar Yangi Gollandiyaning bir qismi deb o'ylab, orqasiga qaytadi. 1777-yilda, uchinchi sayohati vaqtidagina kapitan Kukning o'zi Van-Dimen Yeriga boradi. Uning «Qat'iyat» va «Ixtiro» degan ikki kemasi Sarguzasht ko'rfazida langar tashlaydi. Kuk bu yerdan Sandvich orollariga yo'l oladi va bir necha yildan keyin shu orollarda o'ladi. Kukning o'limidan keyin uning yo'ldoshi Benks ingliz hukumatiga Botanika ko'rfazida axloq tuzatish koloniyasi tashkil qilishni taklif qiladi. Undan keyin bu qit'aga butun mamlakatlarning dengizchilari kela boshlaydilar. 1787-yil 7-fevralda Botanika ko'rfazidan yozgan oxirgi xatida bechora Laperuz Karpentariya ko'rfazini, shuningdek, Yangi Gollandiya sohilini to Van-Dimen Yerigacha tekshirmoqchi ekanini bildirgan edi. Laperuz dengizga chiqib ketadi-yu, shu ko'yi qaytib kelmaydi. 1788-yilda kapitan Filipp Jekson portida birinchi ingliz koloniyasiga asos soladi. 1791-yilda Vanuver qit'aning janubiy sohili bo'ylab katta dengiz sayohati o'tkazadi. 1792-yilda Laperuzni axtarish uchun yuborilgan d'Antrkasto Yangi Gollandiyaning atrofini gir aylanib chiqadi, bu sayohati vaqtida u yo'l-yo'lakay qit'aning g'arb va janub taraflaridagi bir qator orollarni ochadi. 1795- va 1797-yillarda Flinders bilan Bass degan ikki mard yigit uzunligi sakkiz fut bo'lgan bir qayiqda suzib yurib, janubiy sohilni tekshirishni davom ettiradilar. 1797-yilda Bassning bir o'zi Van-Dimen Yeri bilan Yangi Gollandiya orasidagi bo'g'ozdan suzib o'tadi, bu bo'g'oz hozir uning nomi bilan ataladi. Xuddi o'sha yili, Amsterdam orollarini ochgan Flaming Yangi Gollandiyaning sharqiy sohilida qora patli oqqushlar makoni bo'lgan Svan-River¹ daryosini tekshiradi. Flindersga kelsak, u 1801-yilda yana tekshirish ishlarini boshlaydi. Uning kemasi Uchrashuv ko'rfaziga kiradi [35°40' kenglikda va 138°58' uzunlikda] va bu yerda «Geograf» va «Tabiatshunos» degan ikki fransuz kemasi

¹ Svan-River - Oqqush daryosi.

bilan uchrashadi, bu kemalarga Boden bilan Gamelen qo'mondonlik qilar edilar.

- E-e, siz kapitan Bodenni aytyapsiz, shundaymi? - deb takror so'radi mayor.

- Ha. Nima uchun bu ism sizni shunchalik qiziqtirib qoldi? - deb so'radi geograf hayron bo'lib.

- Shunday, o'zim! Davom etavering, azizim Paganel.

- Xo'p. Yuqorida aytganim kishilarning ismiga yana kapitan Kingning nomini qo'shib qo'yish kerak. Uning 1817-yildan 1822-yilgacha qilgan sayohati vaqtidagi tekshirishlari Yangi Gollandiyaning tropik sohillarini ilgari tekshirgan odamlarning ma'lumotlarini to'ldirdi.

- Janob Paganel, men yigirma to'rt kishining nomini yozdim, - deb ma'lum qildi Robert.

- Juda yaxshi! - dedi geografiya olimi. - Mayor karabinning yarmisi meniki bo'libdi. Dengizchilarni aytib tugatdim, endi quruqlikda sayohat qilganlarga o'tamiz.

- Juda soz, janob Paganel! - dedi Elen. - Xotirangiz hayron qolarlik darajada kuchli ekan!

- Bu esa... - deb Glenarvan so'z qistirgan edi, Paganel:

- Parishonxotir odam uchun qiziq hol demoqchisizda? - deb uning so'zini bo'ldi. - Mening xotiram faqat ismlar bilan raqamlarni eslab qolish uchun yaraydi, xolos, boshqa narsaga yaramaydi.

- Yigirma to'rt kishining ismini yozdim, - deb takrorladi Robert.

- Demak, leytenant Daus yigirma beshinchisi bo'ladi. Bu 1789-yilda, Jekson portida koloniya tashkil qilinganidan bir yil keyin bo'ldi. Bu vaqtga kelib qit'aning sohili boshdan oxirigacha tekshirib bo'lingan edi, lekin uning ichkarisida nimalar borligi hali hech kimga ma'lum emasdi. Qit'aning sharqiy sohili bo'ylab cho'zilib ketgan tog' tizmalari mamlakatning ichkarisiga boradigan yo'lni go'yo butunlay berkitib tashlagandek tuyulardi. Leytenant Daus to'qqiz kun yo'l yurgandan keyin Jekson portiga qaytib kelishga majbur bo'ldi. Xuddi o'sha yili kapitan Tench ham bu baland tog' tizmasidan oshib o'tishga urinib ko'rdi, lekin u ham udda qilolmadi. Bu ikki muvaffaqiyatsizlikni ko'rib, bu qiyin ishga kirishmoqchi bo'lgan boshqa sayohatchilar uch yilgacha sayohatga chiqishga yurak betlolmay yurdilar. Afrikani tekshirgan jasur pol-

kovnik Peterson 1792-yilda yana mamlakatning ichkarisiga o'tmoqchi bo'lib harakat qilib ko'rdi, lekin u ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1793-yilda ingliz flotining oddiy botsmani Gaukins o'zidan oldingi sayohatchilardan yigirma mil ichkariroqqa o'ta oldi. Keyingi o'n sakkiz yil ichida faqat ikki kishi – dengizchi Bass bilan koloniya injeneri Barel qit'aning ichkarisiga o'tishga urinib ko'rdilar, lekin ularning harakati ham oldingi sayohatchilarniki singari behuda ketdi. Nihoyat 1813-yilda Sidneydan g'arbroqda tog'lar orasidan yo'l topildi. 1815-yilda gubernator Makari shu yo'ldan tog'ning narigi tomoniga o'tishga jur'at qildi va Ko'k tog'larning narigi tarafida Batxors shahriga asos qurdi. Bundan keyin bir qator sayohatchilar yangi ma'lumotlar bilan geografiya fanini boyitdilar va bu bilan koloniyalarning o'sib borishiga yordam berdilar. Qit'ani o'rganish ishiga 1819-yilda Grosbi asos soldi, so'ng Oksley mamlakatning ichkarisiga uch yuz mil kirib bordi. Ulardan keyin Gouel bilan Gun sayohat qildilar. Bu ikki sayohatchi xuddi o'ttiz yettinchi parallel o'tadigan Tufold korfazidan yo'lga chiqdilar. 1829- va 1830-yillarda kapitan Shturt Darling daryosi bilan Myorrey daryolarining oqimini tekshirdi...

– O'ttiz olti, – dedi Robert.

– Juda soz! Men albatta garovni yutaman, – deb javob berdi Paganel. – Ma'lumotim to'laroq bo'lsin uchun 1840- va 1841-yillarda mamlakatning bir qismini ke-zib chiqqan Eyre bilan Leyxardtni eslatib o'taman; 1845-yilda Shturte Avstraliyani aylanib sayohat qiladi; 1846-yilda qit'aning g'arbiy tomonini tekshirgan aka-uka Gregorilar bilan Gelmanni eslatib o'taman; 1847-yilda Viktoriya daryosini, 1848-yilda esa Avstraliya-ni shimoliy qismini tekshirgan Kennedini; Gregorini; Ostinni; yana aka-uka Gregorilarni eslatib o'taman – ular 1855-yildan 1858-yilgacha Avstraliya qit'asining shimoli g'arbiy tarafini o'rganadilar; Torrens ko'lidan Eyr ko'ligacha sayohat qilgan Bebejeni aytib o'taman; nihoyat Avstraliya to'g'risidagi yilnomalarda ko'p eslatiladigan, qit'ani mardlik bilan uch marta kesib o'tgan mashhur sayyoh Styuartni eslatib o'tay. Styuart mam-lakat ichkarisiga birinchi martaba 1860-yilda sayohat qildi. Agar istasangiz, Avstraliyani janubdan shimolga qarab to'rt marta qanday qilib kesib o'tishganini ke-

yinchalik aytib berarman. Hozir esa sayyohlarning nomini sanab o'tish bilan kifoyalanaman. 1860- va 1862-yillar orasidagi vaqtga kelib, yuqoridagi sayohatchilar nomiga yana shularni qo'shib ketishim kerak: aka-uka Demisterlar, Klarkson bilan Xarper, Byork bilan Uils, Neylson, Uoker Lensboro, Mak-Kinley, Govit...

- Ellik oltita bo'ldi! - deb qichqirdi Robert.

- Yaxshi! Mayor, men o'z vazifamni juda halollik bilan bajaryapman, - deb davom etdi Paganel. - Men hali bir qator sayyohlarning nomini aytganim yo'q: na Dyupereni, na Bugenvilni, na Fits-Royni, na Shtokni...

- Bo'ldi! - dedi Mak-Nabbs shuncha kishining nomini ketma-ket sanab tashlayotgan olinga hayron qolib.

- ...na Peruni, na Kuayeni, - deb sanashda davom etdi Paganel tez ketayotgan ekspres poyezdi singari darhol to'xtay olmay, - na Benneni, na Keninggemni, na Terni...

- Insof qiling!

- ... na Diksonni, na Streletskiyni, na Reydni, na Vilkeni, na Mitchelni...

- Bas qiling, Paganel! - deb gapga aralashdi chin ko'ngildan xaxolab kulayotgan Glenarvan. - Bechora Mak-Nabbsga rahmingiz kelsin. Insof qiling! U yutqizganini tan oldi.

- Xo'sh, karabin-chi? - deb so'radi Paganel, tantana bilan.

- Karabin sizniki, Paganel, - dedi mayor. - Ros-timni aytsam, karabinimga juda yuragim achishyapti, lekin sizning xotirangiz shunday kuchli ekanki, butun boshli artilleriya muzeyini ham yutib olishingiz hech gap emas.

- Avstraliyani bundan yaxshi bilishning iloji bo'lmasa kerak, - dedi Elen. - Biron-ta ham ismni, biron-ta ham ikir-chikirni unutmaysda saqlab qolish...

- Lekin ikir-chikirlarga kelganda... - deb bosh chayqab qo'ydi mayor.

- Nima, nima? Bu bilan nima demoqchisiz, Mak-Nabbs? - deb so'radi Paganel qizishib.

- Avstraliyaning ochilish tarixiga oid ba'zi mayda tafsilotlar sizga ma'lum bo'lmasa kerak demoqchiman.

- Masalan? - dedi mag'rurlik bilan ko'krak kerib Paganel.

- Agar men siz bilmaydigan biror faktni aytib bersam, karabinimni qaytib berasizmi?

- Darhol qaytarib beraman.

- Demak, rozisiz?

- Roziman!

- Juda soz! Nima uchun Avstraliya fransuzlar koloniyasi emas, sababini bilasizmi, Paganel?

- Lekin, menimcha...

- Yoki, juda bo'lmasa, inglizlar bunga sabab qilib nimani ko'rsatishlarini bilasizmi?

- Yo'q, mayor, bilmayman, - dedi biroz ko'ngli ranjib Paganel.

- Bo'lmasa bilib qo'ying: Boden o'zi ancha mard odam bo'lishiga qaramay, 1802-yilda Avstraliya qurbaqalarining qurullashidan shunday qo'rqib ketganki, shosha-pisha kema langarini ko'tarishni buyurib, u yerdan birato'la qochib qolgan. Ana shuning uchun ham Avstraliya Fransiyaga qaramaydi.

- Nima, nima! - deb qichqirdi geografiya olimi, - Angliyada shunday deydilarmi? Axir, bu bema'ni hazilku!

- To'g'ri, juda bema'ni hazil, - dedi mayor, - lekin Birlashgan qirollikda bu tarixiy fakt hisoblanadi.

- Bemazgarchilik bu! - dedi vatanparvar olim. - Shu ham gap bo'libdi-yul!

- Buning haqiqatan shunday ekanini men ham e'tirof etishim kerak, aziz Paganel, - dedi hammaning qahqahasi ostida Glenarvan. - Ana xolos! Shu gapni bilmas edingizmi, a?

- Sira ham bilmas edim. Lekin men bunga norozilik bildiraman. Inglizlarning o'zi bizni qurbaqaxo'r deb ataydilar-ku, hech mahal odam o'zi yeydigan ovqatidan qo'rqadimi?

- Har holda, shunday gaplar bor, - dedi kamsuqumlik bilan jilmayib mayor.

Ana shu sababga binoan, «Purley-Moor va Dikson» firmasida ishlangan mashhur karabin mayor Mak-Nabbsning o'zida qoldi.

B e s h i n c h i b o b

HIND OKEANING G'AZABI

Paganel bilan Mak-Nabbsning bahs bog'lashganidan ikki kun keyin Jon Mangls odatdagidek choshgohda kuzatish ishlari o'tqazib, «Duncan» 113°37' uzunlikda suzib ketayotganini xabar qildi. Yo'lovchilar xaritaga qarab, kemaning Bernulli burunidan besh gradus ham chiqmaydigan joyda ekanini ko'rdilar va bunga juda xursand bo'ldilar. Bernulli buruni bilan d'Antrkasto buruni oraligida Avstraliya sohili do'g'adek yarim aylana hosil qiladi, bu yoyning ikki uchini uning ipidek o'ttiz yettinchi parallel birlashtirib turadi. Endi kema Hind okeanining suvlari Avstraliya qit'asining sohillarini yuvib yotadigan yerida borar edi. Yana to'rt kunlardan keyin ufqda Bernulli buruni ko'rinib qoladi deb umid qilsa bo'lardi.

Shu vaqtgacha kemaning yurishiga g'arbdan esib turgan shamol yordam berib keldi, lekin keyingi kunlarda u sekin-asta susayib bordi, 13-dekabrda esa butunlay to'xtadi. Yelkanlar machtalarga osilib, halpirab qoldi. Agar kuchli mashinalari bo'lmaganda «Duncan» okean shtilida taqa-taq to'xtab qolgan bo'lardi.

Ob-havo uzoq vaqtgacha shu ahvolda davom etishi mumkin edi. Kechqurun Glenarvan shu masalada Jon Mangls bilan gaplashdi. Yosh kapitan esa ko'mir o'ralarining tez bo'shab borayotganini ko'rib, shtil turganidan jahli chiqqandek edi. U qilt etgan shabadadan ham foydalanib qolish uchun barcha yelkanlarni ko'tarishni buyurdi. Lekin, matroslarning ta'biri bilan aytganda, «shamol bilan bitta shlapani ham to'ldirib bo'lmasdi».

- Har holda, bu ahvoldan nolimasak ham bo'ladi, - dedi Glenarvan. - Qarshidan esgan shamoldan shtil ham durust.

- To'g'ri aytdingiz, ser, - deb javob berdi Jon Mangls, - lekin bunday jimlik ob-havoning o'zgarishidan oldin bo'ladi, biz esa hozir oktabrdan aprelgacha shimoli-sharqdan esadigan mussonlar¹ chega-

¹ Mussonlar - Hind okeanida bo'ladigan juda kuchli shamollar. Yil faallari-ga qarab ularning yo'nalishi har xil bo'ladi. Odatda, yozdagi yo'nalishi qishdagi-ga teskari bo'ladi (*Jyul Vern izohi*).

rasida ketyapmiz; agar shamol qo'zg'alib qolsa, yo'lda ancha tutilib qolamiz.

– Nima ham qilar edik, Jon. Agar bunday to'siqlik tug'lsa, bo'sunishdan boshqa ilojimiz yo'q. Juda bo'lganda, biroz kechikamiz, xolos.

– Agar bo'ron qo'zg'almasa, albatta shunday.

– Havoning buzilishidan qo'rqyapsizmi? – deb so'radi Glenarvan, zarracha ham bulut bo'lmagan tiniq osmonga qarab.

– Ha, – dedi kapitan, – lekin buni faqat sizga ayt-yapman, ser. Men missis Glenarvan bilan miss Grant-ni xavotirlikka solmoqchi emasman.

– To'g'ri qilasiz, Jon. Nimadan xavotir olyapsiz?

– Bo'ron yaqinlashib kelayotganini bildiradigan aniq belgilar bor. Havoning ochiqligiga ishonmang, ser. U juda aldamchi bo'ladi. Ikki kundan beri barometr tinimsiz tushib boryapti, meni ana shu narsa xavotir qiladi. Hozir barometr yigirma yetti duymni ko'rsatib turibdi. Bu shunday belgiki, unga e'tibor qilmay bo'lmaydi. Men ayniqsa janubiy okeanning g'azabidan qo'rqaman, chunki oldin ham u bilan kurashib ko'rganman. Janubiy qutbning bepoyon muz saholari ustida yig'ilgan nihoyatda ko'p suv bug'lari juda kuchli havo oqimi hosil qiladi. Ekvator shamollari bilan qutb shamollari to'qnashib, bo'ronlar, dovullar va bo'ronning boshqa xillarini hosil qiladiki, bu bo'ronlarga qarshi kurashish kemalar uchun juda xavfli.

– Jon, – dedi Glenarvan, – «Dunkan» – pishiq kema, kapitani esa – mohir dengizchi. Bo'ron qo'zg'alsa qo'zg'ala bersin – biz unga bas kela olamiz.

Jon Mangls xavotir olayotgan bu xavf-xatardan uning dengizchilik instinkti xabar berib turardi. U, inglizlar aytganday *weather-wise*, ya'ni ob-havo bilimdoni edi. Barometrning to'xtovsiz tushib borishi yosh kapitanni o'z kemasida barcha ehtiyot choralarini ko'rib qo'yishga majbur qildi. Jon Mangls kuchli bo'ron bo'lishini kutar edi: hali osmonda bundan darak bo'lmasa ham, hech yanglishmaydigan barometrning aldashi mumkin emas. Havo oqimi bosim yuqori bo'lgan, demak, barometr ham baland turgan joylardan barometr tusha boshlagan joyga oqadi. Bu joylar bir-biriga qancha yaqin bo'lsa, havo bosimining kuchi

shuncha tez baravarlashadi, lekin shamolning tezligi ham o'shancha ortadi.

Jon Mangls tong otguncha o'z ko'prikchasida turib chiqdi. Soat o'n birlarda osmonning janub tarafi bulut bilan qoplana boshladi. Jon Mangls butun komandani yuqoriga chaqirib, kichik yelkanlarni tushirishni buyurdi. U faqat *fok, kosoy grot, marsel va kliver* yelkanlarini ochiq qoldirdi. Yarim kechaga borib, shamol zo'raya boshladi: shamolning tezligi sekundiga olti sajenga yetdi. Machtalarning qirsillashi, ishlayotgan komandaning shovqini, yelkanlarning quruq tirsillashi, ichki taxta devorlarning g'ijirlashi hali hech narsadan xabarsiz yo'lovchilarni yuqorida bo'layotgan ishlardan xabardor qildi. Paganel, Glenarvan, mayor va Robert palubaga chiqdilar: ba'zilar nima gapligiga qiziqib, ba'zilar lozim bo'lib qolsa, yordam berish maqsadida chiqqan edilar. Ular kayutalariga tarqalib ketishlaridan oldin yulduzlar charaqlab turgan, ochiq havoda hozir yo'lbars terisi singari yo'l-yo'l qalin bulutlar suzib yurardi.

– Dovulmi? – debi qisqa qilib so'radi Glenarvan, Jon Manglsdan.

– Hozircha yo'q, lekin tez orada boshlanadi, – deb javob berdi kapitan.

So'ng darhol marsel yelkanini pastki rifga tortib qo'yishni buyurdi. Matroslar uning buyrug'ini bajarishga otildilar. Ular shamol bilan kurashib, zo'r mashaqqatlar bilan yelkanning tepa qismini kichraytirdilar-da, yarmisi ochiq qolgan yelkanning pastki qismini tushirilgan reyaga mahkamlab qo'ydilar.

Jon Mangls kema kamroq chayqalsin va mustahkamroq tursin uchun iloji boricha ko'proq yelkanni ochiq saqlashga urinardi.

Kapitan bu ehtiyot choralarini ko'rib bo'lgach, Ostin bilan botsmanga boshlanayotgan dovulni kutib olishga tayyor turishni buyurdi. Qayiqalar bog'lab qo'yilgan arqonlar va zaxira rangoutlarning arqonlari ikki hissa ko'paytirildi. Zambaraklar mahkamroq bog'landi. Vant va bakshtaglar tarangroq tortib qo'yildi. Lyuklar mixlandi. Jon Mangls mustahkamlangan istehkomlarning yorib o'tilgan yerida turgan ofitserdek kemaning shamol gurullab kelib urayotgan tomonida qimir etmay turar va, go'yo sirini bilib olmoqchidek, dahshatli ko'kka boqardi.

Barometr yigirma olti duymga tushdi: bu kamdan kam uchraydigan hodisa edi. Shtormglass¹ bo'ronni ko'rsatardi.

Yarim kecha. Soat bir. O'z kayutalarida yotgan Elen bilan Meri kema hadeb chayqataverganidan bezor bo'lib, palubaga chiqishga jur'at qildilar. Shamol kema asbob-uskunalari va arqonlariga endi sekundiga o'n to'rt sajen tezlik bilan kelib urilib, guvullardi. Musiqa asbobining torlari singari tarang bo'lib ketgan metall arqonlar shamol kelib urilganda, kattakon kamon bilan chalinayotgandek guvullaydi.

Bloklar bir-biriga urilardi. Kema asbob-uskunalari o'zining silliq bo'lmagan o'rnida shovqin bilan qimirlar edi. Yelkanlar zambarak otgandek qarsillardi. Kattakatta to'fqinlar kema ustiga bostirib kela boshladi, kema esa go'yo to'fqinlarni masxara qilib kulgandek, dengiz qushlari singari ularning ko'piklashib turgan uchiga chiqib ketardi.

Ayollarni ko'rgan Jon tezlik bilan ular oldiga keldida, darhol kayut-kampaniyaga qaytishni iltimos qildi. To'fqinlar allaqachon kema bortidan oshib o'ta boshlagan, har minutda palubaga ham bostirib kelishi kutilar edi. Quturgan bo'ron shunday qattiq guvullar ediki, Elen yosh kapitanning so'zlarini zo'rg'a eshitdi.

Shovqin sal pasaygan vaqtdan foydalanib, u:

– Xavf yo'qmi? – deb savol bera oldi.

– Mutlaqo, missis, – deb javob berdi Jon Mangls. – Lekin siz ham, miss Meri ham palubada qolmasligingiz kerak.

Kapitanning bu so'zlari buyruqdan ham ko'ra ko'proq yolborishga o'xshasa-da, Elen Glenarvan bilan Meri Grant bunga qarshilik ko'rsatmadilar va kayut-kampaniyaga qaytib tushdilar; xuddi shu payt to'fqin kelib kemaning quyruq tarafiga shunday kuch bilan urdiki, oyna illuminatorlar zirillab ketdi. Shamol tobora kuchayib borardi. Yelkanlarning zo'ri bilan machtalar egildi, kema to'fqinlardan uzilib, havoga ko'tarilgandek tuyuldi.

– Fok gitovga olinsin! – deb qichqirdi Jon Mangls. – Marsel bilan staksel tushirilsin!

¹ Shtormglass – shamol yo'nalishi va atmosfera bosimiga qarab o'z rangini o'zgartiradigan modda solingan shisha idish (Muallif izohi).

Matroslar buyruqni bajarishga yugurdilar. Fallar bo'shatildi, gitovlar pastga tortildi, kliverlar tushirildi – ular shunday gumburlab tushdiki, ovozi o'kirib yotgan bo'ron shovqinini ham bosib ketdi. «Duncan» trubalaridan pag'a-pag'a qora tutun chiqardi. Kema vintlari suvni notekis urar, parraklari ba'zan suvdan yuqori ko'tarilib ketardi.

Glenarvan, mayor, Paganel va Robert «Duncan»ning to'liqlariga qarshi kurashini zavq va qo'rqinch bilan tomosha qilib turardilar. Bir og'iz ham so'zlashishning iloji yo'q, ular kuchlari boricha vantlarga yopishib olib, tabiat qahrini masxara qilib kulayotgandek gala-gala bo'lib uchib yurgan mash'um bo'ron qushlariga qarardilar.

Birdan bo'ronning guvullashini qattiq chiyillagan tovush bosib ketdi. Qozondagi bug' zo'r kuch bilan otilib chiqa boshladi, u o'z yo'lidan – bug' trubalaridan emas, klapanlardan otilib chiqardi. Undan keyin odatdagidan qattiqroq trevoga signali chalindi. Kema bir tomonga qattiq og'ib ketdi, shturval oldida turgan Vilsonga to'satdan rumpel kelib tegib, yiqitib yubordi. Bir lahza boshqaruvchisiz qolgan «Duncan» to'liqlariga ko'ndalang suza boshladi.

– Nima gap? – deb qichqirdi Jon Mangls, ko'prikchaga otilib.

– Kema yonboshlab qolyapti, – deb javob berdi Tom Ostin.

– Rul sindimi?

Shu payt mexanikning:

– Mashina oldiga chopinglar, mashina oldiga! – deb qichqirgani eshitildi.

Jon o'sha tomonga yugurdi va trapdan otilib pastga tushdi. Butun mashina bo'limini quyuq bug' qoplagan. Silindrdagi porshenlar ishlamas, shatunlar parrak va lini aylantirmay qo'yan edi. Mashinist mashinaning ishlamay qolganini ko'rib, unga bug' kiritmay qo'yan va qozonlar portlab ketmasin, deb bug'ni boshqa trubadan chiqarib yuborgan edi.

– Nima gap, o'zi? – deb so'radi kapitan.

– Vint yo qayrilib qoldi, yoki allanarsaga urildi, – deb javob berdi mashinist. – Ishlamayotir.

– Nima?! Uni bo'shatib olishning iloji yo'qmi?

– Iloji yo'q.

Ta'mirlash vaqti emas, lekin fakt faktligicha qoldi: vint ishdan chiqdi, bug' esa o'ziga boshqa yo'l topolmay saqlovchi klapandan chiqib ketmoqda. Jon yana yelkanlarni ishga solishga, hozir o'zining eng xavfli dushmani bo'lgan shamoldan yordam izlashga majbur bo'ldi.

Kapitan palubaga chiqdi-da, ikki og'iz so'z bilan Glenarvanga ahvolni bayon qildi. Keyin uni qolgan passajirlar bilan kayut-kampaniyaga tushib ketishga ko'ndira boshladi. Glenarvan palubada qolmoqchi ekanini bildirdi.

– Yo'q, ser, – dedi qat'iy qilib Jon Mangls, – men bu yerda faqat komandam bilan qolishim kerak. Kayut-kampaniyaga tushinglar. Palubaga suv to'lishi mumkin, unda hammangizni to'liqlar yuvib ketadi.

– Axir, bizning ham yordamimiz tegib qolishi mumkin...

– Tushib ketinglar, ser, tushib ketinglar! Iloji yo'q! Shunday hollar bo'ladiki, kemaning xo'jayini faqat men bo'lib qolaman. Pastga tushinglar, talab qilaman!

Jon Mangls Glenarvan bilan bunday amirona gaplashganiga qaraganda vaziyat juda jiddiy edi. Glenarvan boshqalarga o'rnak ko'rsatishi lozim ekanini tushundi-da, kayut-kampaniyaga tushib ketdi, uchala hamrohi ham uning ketidan tushib ketdilar. Ular tabiiy ofatga qarshi olib borilayotgan bu kurashning nima bilan tugashini kutib, kayut-kampaniyada xavotirlikda o'tirgan ayollar oldiga kirdi-lar.

– Azamatim Jon juda g'ayratli yigit, – dedi Glenarvan kayut-kampaniyaga kirib kelar ekan.

– Ha, – dedi Paganel. – Kapitanimiz menga buyuk yozuvchingiz Shekspirning «Bo'ron» dramasida o'z kemasidagi qiroлга: «Yo'qoling bu yerdan! Jim! Kayutangizga kiring! Bo'ronni tinchitish qo'lingizdan kelmadimi – jim bo'ling! Qoching yo'ldan deyapman sizga!» – deb qichqirgan Shkiperni eslatdi.

Bu orada Jon Mangls bir minutni ham bekor o'tkazmay, vint buzilgani tufayli xavf ostida qolgan kemaning ahvolini yaxshilashga harakat qildi. U yo'ldan mumkin qadar kamroq chetga chiqish uchun minimal miqdorda yelkan qoldirishga qaror qildi. Bir necha yelkanni ochiq qoldirib, avjiga chiqqan shamolga qiyalab yo'l yurish kerak edi. Marsel yelkanining yar-

mini ochish, shuningdek, grot-machtaga fok-stakselga o'xshatib kichikroq bir yelkan ko'tarish to'g'risida buyruq qildi. «Duncan» shamol esib turgan tomonga to'g'rilandi.

Dengiz safariga juda moslab ishlangan kema, biqiniga shpor kelib tekkan chopqir o'tdek, yarim doira yasadi-da, shitob bilan urilayotgan to'liqlarga yon berib, suzib ketdi. Qoldirilgan yelkanlar bo'ronga dosh bera olarmikan? To'g'ri, ular eng yaxshi matodan qilingan, lekin bunday quturib urib turgan bo'ronga nima ham chidash berardi!

Kapitan qo'llagan bu manyovr kemaga muhim bir qulaylik tug'dirdi: u to'liqlarga eng pishiq tomoni ni tutib, kerakli yo'nalishda borardi. Lekin hali ham xavf katta, chunki kema juda katta to'liqlar orasidagi chuqurlardan biriga tushib, undan chiqa olmay qolishi mumkin. Boshqa iloji yo'q, shuning uchun ham kapitan machtalar bilan yelkanlar butun ekan, shu manyovrni davom ettirishga ahd qildi. Komanda lozim bo'lgan joyga darhol otilishga tayyor holda uning ko'z o'ngida turardi. Jon Mangls o'zini arqon bilan vintlarga bog'lab olib, g'azablanib pishqirayotgan okeanni kuza-tardi.

Shu taxlitda tong otdi. Tong otishi bilan bo'ron tin-ar deb umid qilgan edilar. Qayda deysiz! Soat sakkiz-larda shamol yana kuchaydi: uning tezligi sekundiga o'ttiz besh metrga yetdi. Bu dovul edi.

Jon Mangls biror og'iz so'z aytmadi, lekin o'z ke-masi va undagi odamlar uchun yuragi zirillab ket-di. «Duncan» goh bir tomonga, goh ikkinchi tomonga og'ardi. Shunday vaqtlar ham bo'ldiki, «Duncan» ko-mandasi endi kema qaytib ko'tarilmaydi, deb o'yladi. Matroslar qo'llariga bolta ko'tarib grot-machtaning vantini chopib tashlash uchun otildilar, lekin xuddi shu payt yelkanlar uzilib, kattakon albatroslar singa-ri uchib ketdi. «Duncan» qaddini rostladi, lekin endi u tayanchini yo'qotib, yo'ldan chiqdi, to'liqlar uni shunday chayqata boshladiki, machtalar tagidan si-nib tushay-sinib tushay derdi. Kema bu xilda chayqa-lishlarga uzoq dosh berolmasdi: uning machtalari qi-mirlab qoldi, bortlari bo'shshib, ulangan yerlari bir-biridan qocha boshladi, kemaga har on suv bostirib kirishini kutish mumkin edi.

Jon Manglsning kichik stakselni ko'tarib, shamol surgan tomonga ketaverishdan boshqa iloji qolmadi. Lekin buning uchun bir necha soat zo'r berib mehnat qilish lozim bo'ldi: deyarlik bitgan ishni yigirma marta-lab boshidan boshlashga majbur bo'ldilar. Faqat kunduz soat uchlarda yelkanini ko'tara oldilar.

«Duncan» shu kichkinagina bo'lak yelkan kuchi bilan g'izillagancha keta boshladi. Bo'ron uni shimoli sharq tomonga surib borardi. Kemaning nihoyatda katta tezlik bilan suzib borishini ta'minlash lozim, chunki uni faqat ana shu saqlab qolishi mumkin. Ba'zan «Duncan» o'zi surilib borayotgan tomonga ketayotgan to'lqinlarga yetib olar, o'tkir tumshug'i bilan ularning ko'ksini kesib o'tar, o'zi esa kattakon kit singari to'lqin orasiga kirib, tumshug'i tomonidan quyrug'igacha yuvib ketishiga yo'l qo'yib berardi. Ba'zan esa kema to'lqinlar bilan baravar suzib borardi. Bunday vaqtlarda rul bo'ysinmay qo'yar, to'lqinlar kemani u tomondan-bu tomonga uloqtira boshlardi, u to'lqinlarga ko'ndalang tushib qolish xavfi ostida qolardi. Nihoyat, shunday hollar ham bo'lar ediki, dovul to'lqinlarni «Duncan»dan tezroq surib kelardi. Unda to'lqinlar nihoyatda zo'r kuch bilan kemaning orqasidan bostirib kelar, quyruq tomondan yopirilib, palubadagi bor narsani surib ketardi. Goh umid tug'ilib, goh umidni uzib, sayohatchilar ana shunday og'ir ahvolda 15-dekabr kunduzi va 16-dekabrga o'tar kechasini ham o'tkazdilar. Jon Mangls bir minut bo'lsin joyidan jilmadi, hatto tuz ham totimadi. U xavfning zo'rligidan xavotirda bo'lsa ham sir boy bermas, zo'r berib shimol tomonga tikilar, o'sha tomondagi quyuq tumandan ko'z uzmasdi.

Haqiqatan ham, yosh kapitan o'z kemasi taqdiridan xavotir olishi tabiiy gap edi. Bo'ron yo'lidan chiqarib yuborgan «Duncan» juda katta tezlik bilan Avstraliya sohillariga yaqinlashib borardi. Jon Mangls allaqanday zo'r oqim kemani nihoyatda tez surib ketayotganini instinktiv ravishda his qilar, kemaning minut sayin suvosti toshlariga borib urilib, parcha-parcha bo'lib ketishini kutardi. Yosh kapitan qit'ani shamol urayotgan tomonda taxminan yigirma mil joyda bo'lsa kerak deb o'ylar, quruqlikka yetib borib esa hozirgi sharoitda kemaning halokatga uchrashiga sabab bo'lardi. Bepo-

yon okean ming marta afzal. Garchi bo'ronga sal-pal yon berilsa ham, quturgan okean to'lqinlariga qarshi kurashish mumkin, lekin sohilga yetib borilsa ish tamom.

Jon Mangls Glenarvanning oldiga kirib, u bilan tanho so'zlashdi. U ahvolning jiddiy ekanini yashirmadi. Yosh kapitan xavfga har qanday falokatga tayyor turgan dengizchiga xos sovuqqonlik bilan qarardi. Suhbatning oxirida u, ehtimol, «Duncan»ni sohilga olib borib urishga to'g'ri kelar deb aytib qo'ydi.

- Iloji bo'lsa, kema dagilarni qutqarib qolish uchun shunday qilaman, - dedi u.

- Ma'qul topganingizcha qilavering, Jon, - deb javob berdi Glenarvan.

- Missis Glenarvan-chi? Miss Grant-chi? Ularni nima qilamiz?

- Dengizda jon asrashga sira umid qolmagunday bo'lsa, eng oxirgi minutda o'zim ularni ogohlantirib qo'yaman. Meni xabardor qilsangiz, bas.

- Xabar beraman, ser.

Glenarvan xotini bilan Merining oldiga qaytdi. Ular ikkalasi xavfning qanchalik zo'r ekanini bilmasalar-da, har holda xavf borligini his qilar edilar. Ular ham hamrohlari singari juda katta jasorat ko'rsatdilar. Paganel juda bevaqt bo'lsa ham, Robertga bo'ronlar, siklonlar va dovullarni juda qiziq qilib bir-biriga taqqoslab, havo oqimi yo'nalishlari nazariyasini tushuntirar, mayor esa bu hangomalarning nima bilan tugashini nihoyatda sovuqqonlik bilan kutardi.

Soat o'n birlarga borib, dovul pasaya boshlagandek tuyuldi. Nam tuman tarqalib, Jon olti milcha masofada allaqanday yassi sohil ko'rdi. «Duncan» katta tezlik bilan to'ppa-to'g'ri o'sha tomonga suzib borardi. Zo'r to'lqinlar sohilga borib urilar, ko'piklanib ellik fut va undan ham balandga otilardi. Jon o'sha joyda allaqanday bir qattiq yer bor ekanini darhol fahmladi, chunki to'lqin bir narsaga borib urilmasa, bu xilda ko'piklanib osmonga ko'tarilmaydi.

- O'sha yoqda qumloq sayoz yerlar borga o'xshaydi, - dedi u Ostinga.

- Men ham shunday deb o'ylayman, - deb javob berdi yordamchisi.

– Xavf katta, – deb davom etdi Jon Mangls. – Agar shu sayozliklar orasidan yoʻl topolmasak, halok boʻlishimiz muqarrar.

– Hozir ayni suvning koʻtarilgan payti, kapitan. Oʻtib ketsak ham ajab emas.

– Lekin anavi toʻlqinlarning quturishiga qarang, Ostin. Ularga qanday kema dosh bera oladi!

Bu orada «Dunkan» kichkina staksel kuchi bilan sohilga juda tez yaqinlashib boraverdi. Koʻp oʻtmay, kema sayozliklardan ikki mil masofaga kelib qoldi. Minut sayin tuman sohilni oʻrab ola boshladi, shunga qaramay, Jon Mangls suv koʻpiklanayotgan joyning nariyogʻida dengizning biroz tinchroq joyi bor ekanini koʻra oldi. «Dunkan» oʻsha yerda xavfdan nisbatan qutulgan boʻlardi. Lekin u yerga qanday qilib oʻtib olish kerak?

Kapitan yoʻlovchilarni palubaga chaqirdi. Jon Mangls ularning halokat paytida kayut-kampaniyada qamalib qolishlarini istamas edi. Glenarvan va uning hamrohlari gʻazab bilan pishqirayotgan dengizga koʻz soldilar. Meri Grantning rangi oʻchib ketdi.

– Jon, – dedi sekingina Glenarvan, yosh kapitanga, – men xotinimni qutqarib qolishga harakat qilaman, yoki u bilan birga halok boʻlaman. Miss Grantni sizga tops-hirdim.

– Xoʻp, ser, – dedi Jon Mangls, Glenarvanning qoʻlini oʻzining yoshdan nam boʻlgan koʻzlariga surtar ekan.

«Dunkan» sayozlik boshlanadigan yerdan niho-yati bir necha kabeltov berida edi. Ayni dengiz suvi koʻtarilgan payt boʻlib, bu esa kemandagi xavfli sayozlikdan oʻtib olishiga imkon berardi. Lekin oʻtish paytida goh koʻtarilib, goh pastga tushayotgan zoʻr toʻlqinlar uning kilini albatta dengiz tagiga olib borib uradi. Gʻazabi avjiga chiqqan bu dengizni tinchitishning iloji yoʻqmikan?

Jon Manglsning miyasiga lop etib ajoyib bir fikr keldi. Yogʻ, – deb qichqirdi u. – Yogʻ olib chiqinglar, yigitlar, yogʻ!

Kapitaning bu fikrini komanda darhol tushundi. Gap baʼzan juda yaxshi natijalar beradigan bir usul ustida borardi.

Urilib turgan toʻlqinlar ustiga yogʻ quyib, ularning gʻazabini yumshatish mumkin. Yogʻ qatлами suvning

yuziga yoyiladi-da, to'liqlarni silliqlab, ularning kuchini kesadi. Bu vosita o'z kuchini darhol ko'rsatadi-yu, lekin juda oz vaqtga kor qiladi. Dengizning sun'iy ravishda tinchlantirilgan yeridan kema o'tib olishi bilanoq, to'liqlar oldingisidan ham battarroq avj olib qutura boshlaydi, shuning uchun bu tahlitda o'ziga, yo'l ochib, o'tib ketgan kema ketidan borishga jur'at etganning sho'ri quriydi¹.

Xavfning yaqinligini sezib kuchi o'n hissa oshib ketgan komanda tulen yog'i solingan bochkachalarni darhol oldingi shkansalar ustiga olib chiqdi. Bochkachalarni bolta bilan ochishdi-da, o'ng va so'l bortlar tepasidan oshirib, suv ustiga osib qo'yishdi.

– Tayyorlan! – deb qichqirdi qulay paytning kelishini kutgan Jon Mangls.

Yigirma sekundda kema to'liqlar kelib shovqin-suron bilan urilayotgan qumli sayozlik chekkasiga yetib bordi. Kutilgan payt keldi.

– Quy! – deb qichqirdi kapitan.

Bochkachalarni to'ntarishdi, ulardan sharillab dengizga yog' quyila boshladi. Yog' qatlami darhol quturib o'kirayotgan to'liqlar damini kesdi. «Dunkan» tinchib qolgan suvdan tez o'tib keta boshladi, ko'p o'tmay u xavfli sayozliklarning narigi tomoniga, okeanga nisbatan ancha tinch ko'rfazga yetib oldi, orqada esa kishandan bo'shalgan okean ta'rifga sig'maydigan darajada zo'r kuch bilan yana quturib pishqira boshladi.

O l t i n c h i b o b

BERNULLI BURUNI

Jon Manglsning eng oldin qilgan ishi, besh sajen chuqurlikka ikkala langarni tashlab, kemani to'xtatish bo'ldi. Suvning tagi juda yaxshi – shag'al ekan, bu esa langar tashlab turishga juda qulaylik tug'dirardi. Shunday qilib, kema endi to'liqlarning ochiq dengizga surib ketish xavfidan va qumli sayozlikka o'tirib qolish xavfidan qutuldi. «Dunkan» zo'r tahlikalar bilan qanchadan qancha kurash olib borgandan keyin

¹ Shuning uchun Dengiz ustavida boshqa kemalar kelayotgan vaqtda bu usulni qo'llash taqiqlanadi (Muallif izohi).

okean shamollaridan do'g'a shaklidagi baland til bilan to'silgan tinch ko'rfazga kirib oldi.

Glenarvan yosh kapitanning qo'lini mahkam qisib:

– Rahmat, Jon, – dedi.

Shu ikki tashakkur so'zini eshitib, Jon Manglsning tortgan butun azoblari unutildi.

Glenarvanning boshdan kechirgan ruhiy azoblari ichida qolib ketdi: na Elen, na Meri, na Robert hozirgina qutulib qolishgani xavfning naqadar katta ekanini sezishmadi ham.

Endi eng muhim masalalarni hal qilish kerak: dahshatli bo'ron kemani sohilning qanday yeriga keltirib tashladi? Kema o'ttiz yettinchi paralleldan qancha chetlashdi? Janubi g'arbda qolgan Bernulli buruni bu yerdan qancha joyda?

Bu savollar hammasi Jon Manglsga berildi, shundan keyin u tekshirish va hisoblash ishlariga kirishib ketdi.

«Dunkan» o'z yo'lidan unchalik chetlashib ketmagan ekan: nihoyati ikki gradus. Kema $136^{\circ}12'$ uzunlikka va $35^{\circ}07'$ kenglikka, Avstraliyaning janubiy sohili-dagi, Falokatlar buruni yaqiniga, Bernulli burunidan uch yuz mil joyga kelib qolgan ekan.

Bunday yomon nom olgan Falokatlar buruni Kenguru orolidagi Borda buruni qarshisiga joylashgan. Bu ikki burun o'rtasidan Investigeytor bo'gozi o'tadi, bu bo'goz ikkita ancha chuqur ko'rfazga olib boradi: bulardan shimoliysi – Spanser ko'rfazi, janubiysi esa – Muqaddas Vinsent ko'rfazi. Bu janubiy ko'rfazning sharqiy sohilida Janubiy Avstraliya viloyatining poytaxti Adelaida porti joylashgan. Adelaidaga 1836-yilda asos solingan bo'lib, unda qirq ming kishi yashaydi. Bu ancha boy shahar, lekin uning aholisi uzum, apelsin va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini mo'l yetkazib beradigan serhosil yerlariga ekin ekib, yirik sanoat korxonalari qurmaydi. Shuning uchun ham shahar aholisi orasida injenerdan ko'ra agronom ko'p, bu yerdagilar umuman savdo-sotiq bilan texnikaga kam qiziqadilar.

«Dunkan» bu yerda o'z jarohatlarini tuzata oladimi? Bu masalani aniqlash kerak. Jon Mangls vintning nima ishdan chiqqanini bilish uchun g'ovvoslarni suv ostiga tushirdi; ular vint parraklaridan biri qayilib, ax-

tershtevenga¹ tiralib qolganini, shuning uchun ham vint ishlamay qoʻyganini aytdilar. Kemaning bu jarohati jiddiy deb topildi, bu jarohat shu qadar jiddiy ediki, uni tuzatish uchun kerakli asbob-uskunalar Adelaida portida topilmas edi, albatta.

Glenarvan bilan kapitan Jon Mangls rosa oʻylab, «Britaniya» halokatining izlarini axtarib, yelkan yordamida Avstraliya sohili boʻylab borish, Bernulli burunida toʻxtab, u yerda kerakli maʼlumotlarni toʻplash, soʻng yana yoʻlda davom etib, Melburngacha borish kerak degan qarorga keldilar. U yerda kemaning jarohatlarini tuzatish oson boʻlardi, albatta. Vinti tuzatildi deguncha «Duncan» qidirish ishlarini qitʼaning sharqiy sohillarida davom ettiradi va bu ishni shu yerda tugallaydi.

Shu reja maʼqullandi. Jon Mangls salgina qulay shamol esishi bilanoq langar koʻtarishga ahd qildi. Koʻp kutishga toʻgʻri kelmadi. Kechga yaqin boʻron tamom tindi. Yoʻlovchi janubi gʻarbiy shamol qoʻzgʻaldi. Yoʻlga chiqishga tayyorlik koʻra boshladilar. Yangi yelkanlar oʻrnatildi. Ertalab soat toʻrtida matroslar chigʻirlarni ishga soldilar. Langarni shagʻal ichidan chiqarib yuqoriga tortib oldilar, «Duncan» fok marsel, bramsel, kliverlar, kosoy grot va flakshtok yelkanlarini yoyib, Avstraliya sohili boʻylab suzib ketdi.

Ikki soatdan keyin Falokatlar buruni orqada qolib ketdi – kema Investigeytor boʻgozidan oʻtib borardi. Kechqurun Borda burunini aylanib oʻtdilar va Kenguru oroli yoqalab suzib bordilar. Avstraliyaning mayda orollari ichida eng kattasi boʻlgan bu orol surgundan qochgan mahbuslarga makon boʻlib qolgan. U juda goʻzal manzarali orol. Koʻm-koʻk gilam boʻlib yotgan koʻkalamzorlar qatlam-qatlam toshli sohillargacha choʻzilib keladi. Bu yalanglik va oʻrmonlarda hali ham orol yangi ochilgan 1802-yildagidek son-sanoqsiz kenguru podalari yugurib yuradilar.

Ertasiga «Duncan» sohil boʻylab borar ekan, Kenguru orolining tik qirgʻoqlarini koʻzdan kechirish uchun qayiqda komanda yuborildi. Kema oʻttiz oltinchi parallel oʻtadigan joydan suzib borardi, Glenarvan esa sohilni toʻ oʻttiz sakkizinchi parallel oʻtadigan joygacha tekshirmoqchi edi.

¹ Kemaning quyruq tomoni shu yogʻoch qism bilan tugaydi.
(Muallif irohi)

«Dunkan» 18-dekabrda haqiqiy kliperdan ham jadal suzib, uchrashuv ko'rfazining sohillari yonidan o'tib ketdi; 1828-yilda, Janubiy Avstraliyaning eng katta daryolaridan biri bo'lgan Myorrey daryosini ochgandan keyin, sayyoh Shturt shu yerga kelgan edi. Lekin bu ko'rfazning sohillari Kenguru orolining chamandek yashnagan qirg'oqlariga sira o'xshamadi. Uning qirg'oqlari yoqimsiz, qip-yalang'och, silliq yerlardagina iborat, qutb yerlari singari qiyqim-qiyqim. U yerbu yerdagina bu bir xil peyzajni qo'qqayib turgan biror ko'kish tosh yoki tepa bo'lib qolgan qum uyumiga o'xshash til buzib turadi.

Bu sayohat paytida qayiqlar komandasi qiyin ish olib bordi, lekin hech kim norozilik bildirmadi. Dengizchilarni sohilga doim Glenarvan va undan sira ajralmaydigan Paganel bilan Robert kuzatib borardilar. Ular «Britaniya»ning izini o'z ko'zlari bilan axtarishni xohlar edilar. Lekin ular sohillarni har qancha sinchiklab tekshirsalar ham hech narsa topolmadilar. Avstraliya sohillari ham Patagoniya qirlari singari unsiz edi. Shunday bo'lsa ham hujjatda ko'rsatilgan joyga yetib borguncha umidni uzib bo'lmadi.

Bu yerlarni qidirishdan maqsad har ehtimolga qarshi, kutilmagan tasodiflardan ko'ngilni to'q qilib qo'yish edi. Kechasi «Dunkan»ni iloji boricha bir joyda to'xtatib turishga harakat qilar edilar-da, tong otishi bilan sohilni yana sinchiklab ko'zdan kechirish boshlanardi.

20-dekabrda sayohatchilarimiz Bernulli buruniga yetib keldilar. Ular o'z yo'llarida «Britaniya»ning biron-ta ham sinig'ini topolmadilar. Ammo bu muvaffaqiyatsizlik hech gap emas. Axir, kema halokatga uchraganidan keyin roppa-rosa ikki yil o'tgandi, bu vaqt ichida dengiz uch machtali kemaning siniqlarini suvosti toshlaridan yuvib ketgan va yo'q qilib yuborgan bo'lishi mumkin, hatto mumkingina emas, yuvib ketgan va yo'q qilib yuborgan bo'lishi shubhasiz. Buning ustiga, kemalarning halokatga uchrashini o'limtik poylagan qarg'adek poylab yuradigan yerlik aholi «Britaniya»ning eng mayda ikir-chikirlarigacha tashib ketgan bo'lishi aniq. Garri Grant bilan uning ikki hamrohi esa, to'lqin qirg'oqqa chiqarib tashlagan zahoti yovvoyilar qo'lga asir tushgan, yovvoyilar ularni, hech shubhasiz, qit'aning ichkarisiga olib ketganlar.

Lekin bu taqdirida Jak Paganelning eng o'tkir gipotezalaridan biri o'z ma'nosini yo'qotardi. Geografiya olimi, gap Argentina ustida borganda hujjatlardagi raqamlar halokat yuz bergan joyni emas, balki asirlar turgan joyni ko'rsatadi, deb ta'kidlashida haqli edi, albatta. Pampaslardan o'tadigan serirmoq katta daryolar bu qimmatbaho hujjatlarni dengizga osongina olib chiqishi mumkin. Bu yerda, Avstraliyaning bu qismida esa, o'ttiz yettinchi parallelni kesib o'tadigan daryolar ko'p emas. Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, Rio-Kolorado bilan Rio-Negro daryolari hayot kechirish uchun yaroqsiz bo'm-bo'sh yerlardan o'tib kelib dengizga quyiladi. Avstraliyaning asosiy daryolari - Myorrey, Yarra, Torrens, Darming yo bir-biriga kelib quyiladi, yo shunday seraholi yerlardan oqib o'tadiki, ularning sohillarida yirik gavanlar, aholi qaynab-toshgan portlar ko'p. Bitta mo'rt shishaning doim kemalar qatnab turadigan daryolardan beshikast o'tib, Hind okeaniga borib tushishi aqlga sig'adigan gap emas!

Bu taxminning haqiqatga to'g'ri kelmasligi har qanday aqlli odamga ham tushunarli. Paganelning Argentinadagi Patagoniya viloyati sharoitiga to'g'ri keladigan gipotezasi Avstraliya sharoitiga to'g'ri kelmasdi. Paganel bu fikrga qo'shilishdi - bu mulohazani Mak-Nabbs o'rtaga tashlagan edi. Demak, hujjatda ko'rsatilgan yer faqat «Britaniya»ning halokatga uchragan joyi; demak, shisha okeanga Avstraliyaning g'arbiy sohilida tashlangan.

Lekin shunday bo'lsa ham, Glenarvan juda asosli qilib aytganidek, hujjatni bunday izohlash kapitan Grant asirlikda ekani to'g'risidagi gipotezani rad qilmasdi. Uning o'zi ham hujjatdagi: «u yerda shafqatsiz yovvoyilarga asir tushdilar» degan so'zlar bilan shu fikrga olib kelardi. Shuning uchun asirlarni xuddi shu o'ttiz yettinchi parallel o'tadigan yerlardan axtarish kerak, ularni boshqa biror joydan axtarib uchun hech qanday asos yo'q.

Uzoq muhokama qilingan bu masala ana shunday hal qilindi. Bu qarordan chiqadigan xulosa shunday bo'ldi: agar Bernulli burunida «Britaniya»ning izi topilmasa, Glenarvanning Yevropaga qaytishdan boshqa iloji qolmaydi. To'g'ri, uning qidirish ishlari natijasiz bo'lib chiqadi, ammo u o'z burchini mardlik va oliynoblik bilan bajaradi.

Bunday qaror «Dunkan»dagi yo'lovchilarni juda xafa qildi, Meri bilan Robertni umidsizlikka tushirdi. Kapitani Grantning bolalari Eduard va Elen Glenarvan, Jon Mangls, Mak-Nabbs va Paganel bilan qayiqqa tushib, sohilga borganlarida, har safar ham otamizning omon qolgan-qolmagani masalasi endi uzil-kesil hal bo'ladi, deb o'ylar edilar. Uzil-kesil hal bo'ladi deb o'ylashlariga sabab shu ediki, oldingi muhokama vaqtida Paganel, agar kema halokati qit'aning sharqiy sohilida yuz bergan bo'lsa, falokatga uchraganlar allaqachon o'z vatanlariga qaytib borgan bo'lar edilar, deb juda asosli ravishda isbot qilib bergandi.

- Umidni uzmang, umidni aslo uzmang, - deb takrorlar edi qayiq qirg'oqqa yaqinlashayotganda Merining yonida o'tirgan Elen.

Qirg'oqqa oz qoldi - qayiq yana bir kabeltovcha masofani suzib o'tsa, bas. Qirg'oq nishab bo'lib kelib dengizning ichkarisiga ikki milcha cho'zilib kirgan burunning uchida suvga borib taqalar edi. Qayiq ikki tomoni suv yuziga qator chiqib turgan marjon toshlar bilan o'ralgan kichik bir tabiiy ko'rfazda qirg'oqqa kelib to'xtadi, - vaqt o'tishi bilan Avstraliyaning janubiy sohilida bunday marjon toshlardan butun-butun to'siqlar hosil bo'lishi mumkin. Hozir ham ular kemalar uchun juda xavfli suvosti toshlariga aylangan. «Britaniya» xuddi shu toshlarga kelib urilgan bo'lishi ham ehtimoldan uzoq emas.

Kema yo'lovchilari bo'm-bo'sh sohilga hech qanday qarshiliksiz kelib tushdilar. Sohil bo'ylab balandligi oltmish futdan sakson futgacha yetadigan qatqat xarsangtoshlar qator tizilgan. Narvon va ilgaklar bo'lmaganda tabiat hosil qilgan bu tosh devordan oshib o'tish ancha qiyin bo'lardi. Baxtdan bo'lib, Jon Mangls yarim milcha janubroqda, aftidan, toshlarning qisman qulashidan hosil bo'lgan bir yoriq joy topdi. Ayniqsa kecha va kunduz baravarlashgan vaqtlarda juda qattiq to'qlinlanib turadigan dengiz, chamasi, tuf toshlari qatlamidan iborat bo'lgan tagi bo'sh bu to'siqni ostidan o'pirib tursa kerak.

Glenarvan bilan hamrohlari shu yoriq yerdan borib, anchagina tik yonbag'irlikdan qoyaga ko'tarildilar. Robert mushuk boladay tarmashib hammadan oldin yuqoriga chiqib bordi. O'n ikki yashar bolaning epchil-

lik qilib qirqqa kirgan, oyoqlari uzun-uzun kap-katta kishidan oldin o'tib ketgani Paganelga juda alam qildi. Lekin u bamaylixotir mayorni juda orqada qoldirib ketdi. Mayor esa buni parvosiga ham keltirmadi, albatta.

Ko'p o'tmay kichkina otryadning hamma a'zolari qoya cho'qqisida to'planib, qarshilarida yastanib yotgan yalanglikni ko'zdan kechira boshladi. Bu tikanaklar o'sib yotgan, ekin ekilmaydigan, deyarlik o'simliksiz yalang'och keng dala edi. Bu dala Glenarvanga Shotlandiya qirlarini, Paganelga esa Bretanning kamhosil dalalarini eslatdi. Lekin sohil atrofi bo'm-bo'sh, kimsasiz bo'lsa ham, o'lislarda ko'rinib turgan imoratlar bu yerda yovvoyilar emas, madaniyatli kishilar yashashidan darak berib turardi.

– Tegirmon! – deb qichqirdi Robert.

Haqiqatan ham, uch milcha narida shamol tegirmonining parraklari aylanib turardi.

– Rostdan ham tegirmon bu, – dedi Paganel uzun durbindan o'sha tomonga qarab olgach. – Bu kichkinagina inshoot o'zi qanchalik sodda bo'lmasin, lekin juda foydali. Shunday tegirmonlarni ko'rsam, doim quvonaman.

– Yuringlar, boramiz, – dedi Glenarvan.

Yo'lga tushdilar.

Yarim soat yo'l yurishgach, manzara o'zgardi. Yovvoyi tikanlar o'sib yotgan, qarovsiz yerlar birdan ekin dalalari bilan almashindi. Yovvoyi o't-o'lanlardan asar qolmadi; ko'rinishidan, yaqinda ishga solingan uchastka ko'm-ko'k bo'lib yotardi. Atrofiga Kenguru orolida juda ko'p uchraydigan serbutoq akas daraxtlari o'tkazilgan o'tloqlarda bir necha ho'kiz, besh-oltita ot o'tlab yurardi. Sekin-asta ekin dalalari ham uchray boshladi; ularda ba'zi yerlari pishib, sarg'aya boshlagan bug'doy o'sib yotardi. Baland-baland asalari kuvasiga o'xshatib uyilgan poxol uyumlari ham ko'rinib qoldi. Atrofi yaqin orada to'silgan meva bog'lari oldidan o'tdilar. Keyin juda yaxshilab, did bilan qurilgan omborlar va boshqa imoratlar oldiga yetib keldilar. Nihoyat, sayohatchilarimiz soddagina, lekin juda shi nam qilib solingan bir uyni ko'rdilar; uning tepasida o'zining keng parraklarini aylantirib, tegirmon tomga soya solib turardi.

To'rtta itning begona odamlar paydo bo'lganidan darak berib hura boshlaganini eshitib, eshik oldida elliklarga borgan, yoqimtoygina bir kishi paydo bo'ldi. Uning ketidan eshik oldiga beshta chiroyli-chiroyli, azamat yigit – xo'jayinning o'g'illari chiqishdi, yigitlardan keyin baland bo'yli, baquvvat bir xotin – ularning onasi chiqib keldi. Hamma gap ma'lum bo'ldi-qo'ydi; o'zining azamat oilasi bilan o'ralgan va bo'm-bo'sh yerlarga qurilgan yangi imoratlar orasida turgan bu kishi o'z vatanida qashshoqlikdan tinkasi qurib, baxt axtarib dunyoning narigi burchiga jo'nagan irlandiyalik kolonistlarning tipik namoyandasi edi.

Sayohatchilarimiz og'iz ochib ulgurmaslaridan xo'jayinning yoqimli ovozi eshitildi:

– Chet ellik mehmonlar, Paddi O'Murning uyiga marhamat qilinglar!

– Siz irlandiyalikmisiz? – deb so'radi Glenarvan, xo'jayinning o'ziga uzatilgan qo'lini qisar ekan.

– Irlandiyalik edim, – deb javob berdi Paddi O'Mur. – Endi avstraliyalikman. Janoblar, kim bo'lsangizlar ham ichkariga marhamat, o'z uyingizdek istirohat qilinglar.

Bu samimiy taklifdan foydalanib, o'ylab-netib o'tirmay, ichkari kirish vaqti keldi. Missis O'Mur Elen bilan Meri Grantni darhol ichkariga olib kirib ketdi, kolonistning o'g'illari esa xushmuomalalik bilan mehmonlarning qurollarini bir chetga olib qo'ydilar.

Uyning yo'g'on-yo'g'on yog'ochlardan qurilgan pastki qavati, ko'rinishidan, yaqinida bitkazilgan katta yorug' zal edi. Uning ochiq rangga bo'yalgan devorlari ostiga yog'och kursilar ishlangan. Zalda yana o'ntacha taburetka, ichiga oppoq chinni idishlar va qalayi ko'zalar qator terib qo'yilgan ikki dub bufet va yigirmata mehmon kelganda ham atrofiga bahuzur joylasha oladigan uzun, keng stol turardi. Zaldagi butun asbob-uskuna bu kattakon uyga va uyning novcha-novcha, azamat xo'jayinlariga juda mos tushgan edi.

Soat o'n ikkiga zang urdi, o'rtaga dasturxon tortildi. Rostbif bilan qovurilgan qo'yning soni o'rtasida sho'rva solingan idish bug'lanib turardi; ular atrofiga zaytun, uzum va apelsinlar solingan katta-katta laganchalar terib tashlandi. Xo'jayin bilan uning xotini shunday xursand edilar, stol xilma-xil lazzatli taomlar bilan shunday bezatilgan ediki, o'tirmaslikning sira

iloji qolmadi. Shu vaqt fermaning xizmatchilari kirib keldilar; ular ham xo'jayinlar bilan birga o'tirib ovqatlanishar ekan. Paddi O'Mur mehmonlarga ajratilgan joyni ko'rsatdi.

– Men sizlarni kutgan edim, – dedi u Glenarvanga soddagina qilib.

– Kutgan edim deysizmi? – deb so'radi Glenarvan hayron bo'lib.

– Men biznikiga keladigan odamlarni doim kutaman, – deb javob berdi xo'jayin.

Keyin u tantana bilan ovqatdan oldin o'qiladigan duoni o'qiy boshladi, oilasi bilan xizmatchilari stol oldida hurmat bilan kutib turdilar.

Ularning urf-odatlarini bunchalik soddaligini ko'rib, Elen juda ta'sirlandi. Eriga bir qarab qo'yib, uning ham bundan xuddi shunday ta'sirlanganini ko'rdi.

Mazali taomlar ishtaha bilan yeyila boshladi. Jonli suhbat boshlanib ketdi.

Paddi O'Mur o'zining o'tmishini so'zlab berdi. Uning o'tmishi qashshoqlikdan o'z vatanini tashlab ketishga majbur bo'lgan emigrantning tipik tarixi edi.

Paddi O'Mur boshdan kechirganlarini ochiq gapirib bergandan keyin, mehmonlar ham o'z dardini shunday ochiq aytishar deb kutdi, lekin biron-ta ham savol bermadi. U: «Men mana shunday odamman, sizning kimligingizni esa so'rayotganim ham yo'q» deydigan odamlar xilidan edi. Glenarvan ham «Duncan» to'g'risida, uning Bernulli buruni oldida langar tashlab turgani, o'zlarining hormay-charchamay olib borayotgan qidirish ishlari to'g'risida gapirib bergisi keldi. Lekin u to'ppa-to'g'ri maqsadga ko'chib qo'ya qoladigan odam bo'lganidan dastlab Paddi O'Murdan: «Britaniya»ning halokatga uchrangani to'g'risida hech narsa bilasizmi, deb so'radi.

Irlandiyalik bunday kema to'g'risida hech narsa eshitmagan ekan. Umuman keyingi ikki yil ichida na Bernulli burunining o'zida, na uning atrofida biron-ta ham kema halokatga uchramagan ekan. Vaholanki, «Britaniya»ning halokatga uchranganiga hali ikki yil bo'lgani yo'q. Shuning uchun Paddi O'Mur «Britaniya» ekipajidan hech kim g'arbiy sohilning bu qismiga chiqarib tashlangani yo'q, deb ishonch bilan ayta olardi.

– Endi esa, ser, – deb ilova qildi u, – men bu masalla sizni nega buncha qiziqtiriyapti, deb so'rayman.

Glenarvan kolonistga hujjatlarning qanday topilganini, «Duncan»ning qayerlarga borganini va kapitan Grantni axtarib topish yoʻlida qilingan hamma ishlarni bir-bir soʻzlab berdi. U Paddi OʻMurning ishonch bilan aytgan bu soʻzlaridan keyin «Britaniya»da halokatga uchraganlarni axtarish ishlaridan voz kechishga toʻgʻri kelishini ham ochiq aytdi.

Glenarvanning bu soʻzlari uning hamrohlari-ni yomon ahvolga solib qoʻydi. Robert bilan Merining koʻzlarida yosh yaltiradi. Hatto Paganel ham ovutib, dalda beruvchi bir ogʻiz soʻz topib aytolmadi.

Jon Mangls juda qattiq azobga tushib qoldi.

«Duncan»da shunday uzoq sohillarga qilgan safari bekor ketgan bu mard va oliyjanob odamlarni umidsizlik chulgʻab ola boshlagan ham ediki, birdan allakim:

– Umidni uzming, ser: kapitan Grant tirik boʻlsa, u albatta Avstraliyada, – deb qoldi.

Ye t t i n c h i b o b

AYRTON

Bu soʻzlar odamlarni qanchalik hayron qoldirganini tasvirlab berishning iloji ham yoʻq. Glenarvan sakrab oʻrnidan turib ketdi, taburetkasini surib tashlab:

– Kim aytdi buni? – deb qichqirdi.

– Men, – deb javob berdi Paddi OʻMurning stolning bir chekkasida oʻtirgan xizmatkorlaridan biri.

– Senmi, Ayrton? – deb soʻradi kolonist, Glenarvandan ham koʻproq hayron boʻlib.

– Ha, men, – dedi hayajon bilan, lekin qatʼiy qilib Ayrton, – men ham xuddi sizga oʻxshagan shotlandiyalikman, ser, buning ustiga «Britaniya»da halokatga uchraganlardan biriman.

Bu soʻzlarning odamlarga qanday kuchli taʼsir koʻrsatganini aytib odoq qilib boʻlmaydi. Baxt va hayajondan hushini yoʻqotayozgan Meri Grant boshini Elenning koʻkragiga qoʻydi. Jon Mangls, Robert va Paganel sakrab oʻrinlaridan turib, Paddi OʻMur hozirgina Ayrton deb atagan odamning oldiga otildilar.

Bu aft-basharasi jiddiy, quyuq qoshlari tagiga chuqur yashiringan koʻzlari chaqnagan qirq besh yoshlar-

dagi bir kishi bo'lib, ozg'inligiga qaramay, juda kuchli ekani ko'rinib turardi. U faqat suyag-u paydan iborat bo'lgan odamdek tuyular, shotlandiyaliklarning iborasi bilan aytganda, «yog' yig'ishga vaqti sarflanmaydigan» odamlar xilidan edi. Yag'rini keng, o'rta bo'yli, xatti-harakatlari qat'iy. Uning betidan aqlli va g'ayratli odam ekani ko'rinib turardi, bular esa kishida yaxshi taassurot qoldiradi. Chehrasida yaqin-orada ko'p azob-uqubatlarni chekkanini ko'rsatib turadigan allaqanday belgilar bor ediki, bu ham uning foydasiga so'zlardi. U, shubhasiz, ko'p azob-uqubat chekkan kishi edi, lekin bu azoblarga chidash beradigan, ularga qarshi kurasha oladigan va ularni yenga oladigan odam ko'rinardi.

Glenarvan bilan uning hamrohlari buni bir qarashdayoq his qildilar. Ayrton o'ziga nisbatan hurmat uyg'ota oldi. Glenarvan unga darhol savollar yog'dira boshladi. Ularning ikkalasi – Ayrton ham, Glenarvan ham – aftidan, bu uchrashuvdan hayajonlangan edilar, shuning uchun Glenarvanning dastlab bergan savollarida tartib bo'lmadi.

– «Britaniya»da halokatga uchraganlardan birimisiz-a? – deb so'radi Glenarvan.

– Ha, ser, men kapitan Grantning botsmani edim, – deb javob berdi Ayrton.

– Kema halokati vaqtida, siz u bilan birga qutulib qoldingizmi?

– Yo'q, milord, yo'q! O'sha dahshatli minutda, to'lqin meni palubadan yuvib ketib, sohilga chiqarib tashladi.

– Demak, siz hujjatda aytilgan matroslardan emas ekansiz-da?

– Yo'q. Men bunday hujjatlarning borligidan mutlaqo bexabarman. Kapitan uni men kemadan g'oyib bo'lganimdan keyin tashlagan bo'lsa kerak.

– Lekin kapitanga nima bo'ldiyki... Kapitanga?

– Men uni «Britaniya»ning butun komandasi bilan birga cho'kib ketgan, halok bo'lgan, faqat o'zim omon qolganman deb yurardim.

– Lekin hozirgina kapitan Grant tirik dedingiz-ku!

– Yo'q, men «Agar kapitan Grant tirik bo'lsa...» dedim.

– «...u Avstraliyada», deb qo'shib ham qo'yingiz.

– Ha, u faqat shu yerda bo'lishi mumkin.

– Demak, uning qayerdaligi sizga maʼlum emas ekan-da?

– Maʼlum emas, ser. Takror aytaman: men, uni toʻlqinlar oʻz qaʼriga yutib ketgan yoki sohildagi toshlarga urilib, halok boʻlgan deb oʻylab yurardim. Uning tirik boʻlishi ehtimolligini hozir sizdan eshitib turibman.

– Boʻlmasa, siz nimani bilasiz?

– Faqat bir narsani: agar kapitan Grant tirik boʻlsa, u Avstraliyada boʻlishi kerakligini.

– Halokat qayerda yuz berdi? – deb soʻradi mayor Mak-Nabbs.

Bu savolni eng oldin berish kerak edi, albatta, lekin Glenarvan bu uchrashuvdan shunday hayajonga tushgan, kapitan Grantning qayerdaligini bilishga shunday shoshilgan ediki, «Britaniya» qayerda halokatga uchraganini soʻrash esiga ham kelmadi. Suhbat shu paytgacha bir masaladan ikkinchiga sakrab, juda yuzaki, noaniq olib borildi. Mayorning savolidan keyin suhbat ish yuzasiga koʻchdi-da, koʻp oʻtmay bu sirli voqea tarixining barcha tafsilotlari hammaga butunlay aniq-ravshan boʻldi-koʻydi.

Mak-Nabbsning savoliga Ayrton mana bunday javob qildi:

– Toʻlqin yuvib ketganda, men bakda kliver yelkanini tushirayotgan edim, «Britaniya» esa Avstraliya sohiliga qarab jadal suzib kelayotgan edi, sohilga ikki kabeltovdan ham kam masofa qolgandi. Demak, kema ham halokatga xuddi oʻsha yerda uchragan ekan.

– Oʻttiz yettinchi daraja kenglikda edimi? – deb soʻradi Jon Mangls.

– Oʻttiz yettinchi parallelda, – dedi Ayrton.

– Gʻarbiy sohildami?

– Yoʻq, yoʻq, sharqiy sohilda, – deb darhol javob berdi botsman.

– Halokat qachon yuz berdi?

– 1862-yilning yigirma yettinchi iyuniga oʻtar kechasi.

– Xuddi oʻzi! Xuddi oʻsha kun! – deb qichqirdi Glenarvan.

– Ser, oʻzingiz koʻrib turibsizki, men faqat shunday deya olishim mumkin, – dedi Ayrton. – Agar kapitan

Grant hali tirik bo'lsa, uni faqat Avstraliya qit'asidan axtarish kerak, faqat Avstraliyadan.

– Axtaramiz ham, topamiz ham, qutqaramiz ham, do'stim! – deb qichqirdi Paganel. – Oh, qimmatbaho hujjat, – deb davom etdi geografiya olimi, nihoyatda soddadillik bilan, – qanday idrokli odamlar qo'lga tushganingni bir bilsang edi!

Lekin Paganelning bu xushomad so'zlarini hech kim eshitgani yo'q, albatta. Eduard va Elen Glenarvanlar, Meri va Robert – hammalari Ayrtonni o'rab olib biri-birlariga gal bermay, qo'lini qisar edilar. Bu odamning ular orasida o'tirgani kapitan Grantning qutqarilishiga garovdek tuyulardi. Kema halokatga uchragan-da bu matros jon saqlab qololgan ekan, nima uchun kapitan omon qolmasin? Ayrton, kapitan ham xuddi menga o'xshab omon qolgan bo'lsa, sira ham ajab emas, deb takror-takror aytdi. Kapitanning qayerdaligini aytib berolmayman, lekin u, hech shubhasiz, shu qit'aning biror yerida bo'lishi kerak, dedi u.

Sayohatchilarimiz bergan sonsiz-sanoqsiz savollarga, botsman juda bama'ni, aniq javob berardi. U gapirar ekan, miss Meri uning qo'lidan mahkam ushlab o'tirdi. Axir bu odam otasining hamrohlaridan biri, «Britaniya»ning matroslaridan biri bo'lgan-a! U Gari Grant bilan bir xil hayot kechirgan, u bilan birga dengizlar oshgan, xuddi o'sha xavf-xatarlarni boshdan kechirgan... Shuning uchun ham xursandligidan yum-yum yig'layotgan Meri botsmanning qat'iy yuzidan ko'zini uzmasdi.

Shu paytgacha, bu odam rostdan ham «Britaniya»ning botsmanimi, uning gaplariga ishonib bo'ladimi, degan xayol hech kimning miyasiga kelgani yo'q. Faqat hamma narsaga ham ishonavermaydigan mayor bilan Jon Manglsgina Ayrtonning gaplariga tamoman ishonsa bo'larmikan, deb o'ylar edilar, u bilan uchrashuv shunday kutilmagan ish bo'ldiki, haqiqatan ham uning gaplariga biroz shubha bilan qarash mumkin edi. To'g'ri, Ayrton gapirib bergan voqealar va tilga olgan chislolar hujjatda ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan bir bo'lib chiqdi, u hatto har xil tafsilotlargacha gapirib berdi. Lekin tafsilotlar har qancha aniq bo'lsa ham, hikoyaning ishonchli bo'lishiga asos bo'lolmasdi, chunki eng mayda-chuyda tafsilotlar orqasida yolg'on ya-

shirinib yotishi juda ko'p ko'rilgan. Lekin Mak-Nabbs shubhalarini hech kimga bildirmadi, bu haqda indamay qo'ya qoldi.

Jon Manglsga kelsak, botsman Meri bilan otasi to'g'risida gaplasha boshlashi hamonoq uning butun shubhalari tarqalib ketdi, keyin u Ayrtonning haqiqatan ham kapitan Grantning yo'ldoshi ekaniga ishonib qoldi. Ma'lum bo'ldiki, sobiq botsman Meri bilan Robertni bilar ekan, «Britaniya» safarga jo'nab ketishidan oldin Glazgoda ularni ko'rgan ekan. U kapitan Grant jo'nash oldidan o'z kemasida do'stlariga ziyofat berganini, ziyofatga Meri bilan Robertning ham kelganini qizning yodiga soldi. Bu ziyofatda shahar sherifi Mak Intayr ham bo'lgan. O'sha vaqtda endi o'nga kirgan Robertga ko'z-quloq bo'lib turish botsman Dik Ternerga topshirilgandi, bola esa undan qochib, bom-salingga chiqib ketgan.

– Rost, rost, esimda! – deb uning so'zini tasdiqladi Robert.

Ayrton bunday mayda-chuyda faktlarni ko'plab keltirdi, aftidan, u bularga uncha ahamiyat ham bermasdi, lekin bu ikir-chikirlar Jon Manglsning nazarida katta ahamiyatga ega edi. Botsman har safar so'zlashdan to'xtaganda, Meri yolborib undan:

– Otanizdan yana biror narsa gapirib bering, mister Ayrton, – deb so'rardi.

Botsman esa qizni xursand qilishi mumkin bo'lgan yangi-yangi narsalarni so'zlab ketardi. Glenarvan undan bu xotiralardan ko'ra foydaliroq narsalarni so'ramoqchi bo'ldi, lekin botsman bilan gaplashish Meri uchun qanchalik quvonch ekanini ko'rgan Elen imo bilan erini to'xtatib turardi.

Ayrton «Britaniya»ning Tinch okeandagi safarini boshdan oyoq so'zlab berdi. U aytib bergan hodisalarning ko'pini Meri ham bilardi, chunki to 1862-yilning may oyigacha kemadan xabar kelib turgandi. Bir yil davom etgan bu safar vaqtida Garri Grant Okeaniyaning juda ko'p orollarida bo'ldi. U Yangi Gebrid orollaridagi, hamda Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya, Yangi Kaledoniya orollaridagi gavanlarga kirib o'tdi. Lekin qayerga bormasin, barcha orollarning yeri egallab olinganligini, egallanganda ham ko'pincha hech qanday qonuniy asos bo'lmagani holda egallab olinganini

ko'rdi. Metropoliyadan ogohlantirib qo'yilgan mahalliy ingliz ma'murlari unga har jihatdan xalaqit qilardilar. Har holda kapitan Grant Yangi Gvineyadan g'arbroqda ma'qul yer topadi; kapitan bu yerlarda Shotlandiya koloniyasini yaratish va uni gullab-yashnatish qiyin emas, deb o'ylardi. Haqiqatan ham Molukk va Filippin orollari o'rtasida to'xtab o'tish mumkin bo'lgan yaxshigina bir port bo'lsa ko'pgina kemalarni o'ziga jalb qilishi mumkin edi, ayniqsa Suvaysh kanali bitib, Yaxshi Umid burunini aylanib o'tadigan yo'l o'z ahamiyatini yo'qotgandan keyin, bu port ko'p kemalarning diqqatini jalb qilgan bo'lardi.

Yangi Gvineyani tekshirib bo'lgandan keyin ko'mir va oziq-ovqat g'amlab olish uchun «Britaniya» Kalyaoga yo'l oladi. 30-mayda bu portdan chiqib, Hind okeani orqali, keyin Yaxshi Umid burunidan aylanib o'tadigan yo'l orqali Yevropaga qaytishni mo'ljallab, safarga chiqadi. «Britaniya» ochiq dengizga chiqqandan uch hafta keyin dahshatli bo'ron qo'zg'aladi, kema shikastlanib, bir tomoniga yonboshlagan holda yurolmay qoladi. Machtalarni chopib tashlashga majbur bo'ladilar. Tryum teshilib, uni berkitishning sira iloji bo'lmaydi. Ko'p o'tmay kema komandasi juda holdan toyib qoladi. Kema ichiga kirib qolgan suvning hammasini nasoslar bilan chiqarib tashlashning hech imkoni bo'lmaydi. «Britaniya» bir haftagacha bo'ronga o'yinchoq bo'lib yuradi. Trumdagi suv olti futgacha ko'tariladi. Kema sekin-asta cho'ka boshlaydi. Qayiq'larni bo'ron olib ketadi. Ekipajning halok bo'lishi muqarrar bo'lib qolgan ekan-u, birdan 27-iyunga o'tar kechasi [Paganel buni to'g'ri topgan edi] Avstraliyaning sharqiy sohili ko'rinib qoladi. Ko'p o'tmay «Britaniya» shiddat bilan sohilga kelib uriladi. Ayrtonni xuddi shu payt to'liqin yuvib ketadi va u hushini yo'qotadi. U o'ziga kelganda, yovvoyilar qo'lga asir tushganini ko'radi. Ular Ayrtonni qit'aning ichkarisiga olib ketadilar. O'shandan keyin u «Britaniya» to'g'risida hech narsa eshitmaydi va tamomila asosli ravishda kema Tufold ko'rfazining suvosti toshlariga urilib, pacha-pacha bo'lib ketgan, yuki bilan ekipaji halok bo'lgan deb o'ylaydi.

Shu bilan hikoyaning kapitan Grantga aloqador qismi tugadi. Ayrton hikoya qilar ekan, uning so'zini uh tortib necha martalab bo'lib turdilar. Botsmanning

hikoyasi rostligiga hatto mayor ham shubha qilmadi. Endi Ayrtonning boshidan kechirganlarini eshitish kerak edi, chunki uning boshidan kechirganlari hatto «Britaniya»ning tarixidan ham qiziqroq edi. Hujjatlariga asosan, halokatdan keyin kapitan Grant ham ikki matrosi bilan Ayrton singari tirik qolgani shubhasiz; demak, bulardan birining taqdiriga qarab, boshqalarining taqdirini ham bilish mumkin. Shuning uchun ham ular Ayrtondan o'z boshidan kechirganlarini gapirib berishni iltimos qildilar. U buni qisqa va sodda qilib so'zlab berdi.

Kema halokatidan keyin omon qolgan dengizchi asirlikda o'ziga keladi, uni yovvoyilar qabilasidan biri qit'aning ichkarisiga o'ttiz yettinchi parallel o'tadigan yerdan to'rt yuz mil chamasi shimolga, Darling daryosi vodiysiga olib ketadi. U yerda dengizchi og'ir hayot kechiradi, chunki qabilaning o'zi ham qashshoq edi, lekin yovvoyilar unga yomon muomala qilmaydilar. Og'ir qullikda o'tgan bu ikki yil juda uzoq cho'ziladi. Ammo u oxir bir kun ozod bo'lishga umid qiladi. U yo'lda ming xil xavf-xatarlarga uchrashini bilsa ham, qochib ketishni o'ylab yuradi, bunga faqat qulay sharoit kelishini kutadi.

1864-yil oktabr oyining tunlaridan birida yovvoyilarning ko'zini shamg'alat qilib, bepoyon qalin o'rmonlarning ichida g'oyib bo'ladi. Ildizlar, qirqquloqlar va mimoza yelimi bilan tirikchilik qilib, ko'pincha umidsizlikka tushib, bu bo'm-bo'sh kimsasiz yerlarda kunduzi quyoshga, kechasi yulduzlarga qarab yo'l bosib, rosa bir oy yuradi. Shu taxlitda u botqoqlardan o'tadi, daryolar kechadi, tog'lar oshadi, Avstraliyaning undan oldin faqat jasur sayohatchilardan bir necha kishigina borishga jasorat qila olgan bo'm-bo'sh joylaridan o'tib keladi. Nihoyat, holdan toygan, o'lay deb qolgan holda sudralib mehmondo'st Paddi O'Murning uyiga yetib keladi va uning xizmatiga kirib, tinch, baxtli hayot kechira boshlaydi.

– Ayrton mendan xursand bo'lsa, – dedi irlandiyalik kolonist, dengizchi hikoyasini tugatgandan so'ng, – men ham undan juda xursandman. U aqlli, dovyurak odam, xizmatni ham yaxshi qiladi, agar mening uyimda turish unga ma'qul bo'lsa, Paddi O'Murning uyi uzoq vaqtgacha uning o'z uyi bo'lib qoladi.

Ayrton irlandiyalikka tashakkur bildirib ta'zim qilib qo'ydi-da, odamlar hikoyamdan qanoat hosil qilgan bo'lsalar kerak deb o'ylasa ham, yana savol berilishini kuta boshladi. Rost-da, har bir gapni yuz martadan takrorlab aytgandan keyin, yana nima ham desin!

Glenarvan Ayrtondan eshitgan ma'lumotlari asosida yangicha ish boshlash rejasini muhokama qilishga kirishmoqchi bo'lib turgan ediki, mayor dengizchidan:

- Siz «Britaniya»da botsman edingizmi? - deb so'rab qoldi.

- Ha, - deb javob berdi Ayrton o'ylab-netib o'tirmay; keyin u Mak-Nabbs bu savolni uning so'zlariga hali ham to'la ishonch hosil qilmaganidan berganini sezib, qo'shib qo'ydi. - Hatto kemada xizmat qilish haqidagi shartnomam yonimda saqlanib qolgan.

So'ng u darhol ana shu rasmiy hujjatni olib kelgani chiqib ketdi. U bir minut ham o'tmay qaytib keldi, lekin bu vaqt ichida Paddi O'Mur Glenarvanga o'z fikrini aytib ulgurdi:

- Ser, menga ishonavering, Ayrton halol odam. U menikida ikki oydan beri xizmat qiladi, bu vaqt ichida u meni biror marta ham xafa qilgani yo'q. U xizmat qilgan kema halokatga uchraganini, o'zi asirlikda bo'lganini men ilgari ham eshitgan edim. Unga ishon-sangiz bo'ladi, halol odam.

Glenarvan, men uning halol odam ekaniga sira ham shubha qilayotganim yo'q, deb javob bermoqchi bo'lib turgan ediki, botsman qaytib kirib, Glenarvanga butun qoidalarga amal qilib tuzilgan shartnoma berdi. Shartnoma «Britaniya»ning xo'jayini kapitan Grant tomonidan imzolangan edi. Meri otasining qo'lini darhol tanidi. Hujjatda «birinchi klass matros Tom Ayrton uch machtali «Britaniya» kemasiga botsman qilib olindi» deb ko'rsatilgan edi. Shunday qilib, Ayrtonning kimligiga hech qanday shubha qolmadi, chunki uning qo'lidagi hujjatni uniki emas deb faraz qilish qiyin edi.

- Endi, - dedi Glenarvan, - hozirgi sharoitda biz nima qilishimiz kerak, shu masalada darhol o'z fikrlaringizni o'rtaga tashlashingizni iltimos qilaman. Ayrton, sizning maslahatingiz biz uchun ayniqsa qimmatli, har bir maslahatingiz uchun sizdan juda minnatdor bo'lamiz.

Ayrton biroz o'ylab oldi-da:

– Menga bunchalik ishonch bildirganingiz uchun rahmat, ser, – deb javob berdi. – Ishonchingizni oqlayman, deb o‘ylayman. To‘g‘ri, men bu mamlakat hamda yovvoyilarning odatlari to‘g‘risida ba‘zi narsalarni bila-man, bordi-yu, sizlarga biror foydam tegsa...

– Bunga shubha yo‘q, – dedi Glenarvan.

– Men ham xuddi sizning fikringizdaman, – deb davom etdi Ayrton, – kapitan Grant bilan uning ikki matrosi halokatdan keyin omon qolganlar, ular inglizlar qo‘lidagi yerlarga yetib borolmagan ekanlar, boyaqishlar to‘g‘risida boshqa hech qanday ma‘lumotlar yo‘q ekan, demak, ular ham men singari yovvoyilarning bi-ror qabilasi qo‘liga asir tushishgan.

– Ayrton, siz hali men keltirgan dalillarni takrorla-yapsiz, – dedi Paganel. – Kapitan Grant ikki matrosi bilan yovvoyilar qo‘lida asirlikda bo‘lsa kerak. Lekin yovvoyilar ularni ham sizni olib ketishganidek o‘ttiz yettinchi paralleldan shimolga olib ketishgan deya ola-mizmi?

– Ha, ser, shunday bo‘lishi ham ehtimol, – deb ja-vob berdi Ayrton, – inglizlarga dushman bo‘lgan yov-voyi qabilalar, inglizlar qo‘li ostidagi yerlarga yaqin joy-larda yashashni yoqtirmaydilar.

– Bu bizning ishimizni qiyinlashtiradi, – dedi tash-vishlanib Glenarvan. – Bunday katta qit‘ada asirlar-ning izini qaydan topib bo‘lar ekan?

Bu savolga javoban o‘rtaga uzoq sukut tushdi. Elen hamrohlarining har birining betiga bir-bir tikilib qarab chiqdi – hamma jim. Hatto Paganel ham hozir mum tishlab qolgan edi. Uning hamishagi ixtirochiligi ham hozir ish bermadi.

Jon Mangls katta-katta qadam tashlab zalda u yoq-dan bu yoqqa yurardi, u qiyin ahvolga tushib qolsa, o‘zining kemasi palubasida shunday qiladigan odati bor edi.

– Siz nima qilgan bo‘lar edingiz, mister Ayrton? – deb so‘radi botsmandan Elen.

– Jonim, men yana «Dunkan»ga o‘tirib, to‘g‘ri halo-kat yuz bergan joyga jo‘nagan bo‘lardim, – deb darhol javob berdi Ayrton. – U yerga yetib olgandan keyin esa, sharoitga qarab ish qilgan bo‘lardim, baxtimdan bo‘lib, ularning izini topib olishimga biror narsa sabab bo‘lib qolsa ham ajab emasdi, axir.

- Bu ma'qul reja, - dedi Glenarvan, - lekin «Dunkan»ni tuzatib olguncha kutib turishga to'g'ri keladi.

- Iye! Hali kemanding buzuq joyi bormi? - deb so'radi Ayrton.

- Ha, - dedi Jon Mangls.

- Jiddiy shikastlanganmi?

- Yo'q, lekin uni tuzatish uchun zarur asbob-uskuna kerak, ular bizda yo'q. Vintning parraklaridan biri qayrilib ketgan, uni faqat Melburnda tuzatish mumkin.

- Yelkan ko'tarib suzib borishning iloji yo'qmi?

- Iloji bor. Buning uchun shamol yo'lovchi shamol bo'lishi kerak; Tufold ko'rfaziga yetib borgunimizcha ancha vaqt o'tadi, Melburnda to'xtab o'tish ham zarur.

- Bo'lmasa «Dunkan» Melburnga boraversin, - dedi Paganel, - biz esa usiz ham Tufold ko'rfaziga yetib olamiz!

- Qanday qilib? - deb so'radi Jon Mangls.

- Avstraliyani ham Janubiy Amerika singari kesib o'tamiz. Buni biz o'ttiz yettinchi parallel bo'ylab borib, amalga oshiramiz.

- Xo'sh, «Dunkan» nima bo'ladi unda? - deb allaqanday o'jarlik bilan so'radi Ayrton.

- «Dunkan» bizning oldimizga keladi, yoki biz uning oldiga boramiz. Bu sharoitga qarab hal qilindi. Agar qit'ani kesib o'tish vaqtida kapitan Grantni topsak, u bilan birga Melburnga qaytamiz. Agar qidirishni qit'aning narigi sohiligacha davom ettirsak, «Dunkan»ning o'zi bizni olib ketgani keladi. Bu rejaga kim e'tiroz bildiradi? Mayorning e'tirozi yo'qmi?

- Avstraliyani kesib o'tishning iloji bo'lsa, mening e'tirozim yo'q, - deb javob berdi Mak-Nabbs.

- Albatta iloji bor, men hatto missis Glenarvan bilan miss Grantning biz bilan sayohat qilishlarini taklif qilaman, - dedi olim.

- Jiddiy gapiryapsizmi, Paganel? - deb so'radi Glenarvan.

- Juda jiddiy aytyapman, qimmatli ser. Bu, hammasi bo'lib uch yuz ellik milcha yo'l bo'ladi. Kuniga o'n ikki mildan yurganimizda bu yo'lni bir oyga qolmay, ya'ni «Dunkan»ni tuzatib bo'lishguncha bosib o'tamiz. Agar gap qit'ani sal shimolroqdan, eng enli joyidan,



chidab bo'lmis issiq bo'ladigan suvsiz qaqroq cho'llar cho'zilib ketgan yeridan kesib o'tish to'g'risida borgan-da boshqa gap edi, bu qiyin ishni bajarishga hali eng mard sayyohlar ham urinib ko'rganlari yo'q. O'ttiz yettinchi parallel esa Viktoriya viloyatidan, deyarlik hamma yerida odam yashaydigan inglizlar o'lkasidan, katta yo'llar, temiryo'llar qurilgan mintaqalardan o'tadi. Bunday sayohatni kolyaskada, hatto oddiy aravada ham qilish mumkin. Londondan Edinburgga borgandek gap.

– Yovvoyi hayvonlar-chi? – deb so'radi Glenarvan, u barcha e'tirozli masalalarni hal qilib olmoqchi edi.

– Avstraliyada yovvoyi hayvon yo'q.

– Yovvoyi odamlar-chi?

– Bu kengliklarda yovvoyi odamlarni uchratmaysiz, uchratsangiz ham, ular yangi zelandiyaliklar singari qonxo'r emas.

– Surgun qilinganlar-chi?

– Avstraliyaning janubiy viloyatlarida surgun qilinganlar yo'q. Ular Avstraliyaning sharqiy koloniyalaridagina bo'ladi. Surgunga yuborilganlarni Viktoriya viloyatiga qabul qilmaydiligina emas, hatto boshqa viloyatlarda surgun muddatini o'tab bitirganlarni ham bu viloyatga kiritmaslik to'g'risida qonun bor. Xuddi shu bu yil Viktoriya viloyatining boshqarmasi bir paroxod kompaniyasiga, agar g'arbiy sohildagi surgun qilinganlar yashashiga ruxsat etilgan portlarda ko'mir yuklashni to'xtatmasangiz, sizlarga subsidiya berishni to'xtatamiz, deb do'q qildi. Ingliz bo'laturib buni bilmasligingiz qiziq!

– Dastlab shuni aytayki, men ingliz emasman, – deb javob berdi Glenarvan.

– Janob Paganelning gaplari juda to'g'ri, – dedi Padi O'Mur. – Viktoriya viloyatigina emas, butun Janubiy Avstraliya, Kvinslend va hatto Tasmaniya – hech qaysi surgundan bo'shaganlarni o'z hududiga kirgizmaydi. Shu fermaga kelganimdan beri ular to'g'risida biron og'iz bo'lsin so'z eshitganim yo'q.

– Men ham birontasini bo'lsin ko'rganim yo'q, – deb qo'ydi Ayrton.

– Ana, ko'rdinglarmi, do'stlarim, – deb so'zida davom etdi Paganel, – bu yerlarda yovvoyi odamlar juda kam, yovvoyi hayvonlar ham, surgun qilinganlar ham

yo'q, vaholanki, Yevropada ular bo'lmagan joy kamdan kam. Demak, masala halmi?

– Siz nima deysiz, Elen? – deb so'radi Glenarvan, xotinidan.

– Men nima derdim, azizim Eduard, men ham sizlar aytadigan gapni aytaman-da, – deb javob berdi u qolgan sayohatchilarga o'girilib. – Yo'lga! Yo'lga!

S a k k i z i n c h i b o b

JO'NAB KETISH

Glenarvan bir qarorga kelgandan keyin uni amalga oshirishni cho'zib yuradigan odamlardan emasdi. Paganelning taklifi qabul qilinishi bilanoq, Glenarvan yo'lga chiqishni iloji boricha tezlatishni buyurdi. Yo'lga chiqish indingi kunga, 22-dekabrga belgilandi.

Avstraliyani kesib o'tishdan nima kutsa bo'lardi? Rostki, kapitan Grantning shu qit'ada ekani aniq fakt ekan, bu sayohat yaxshi natijalar olib kelishi mumkin. Bu sayohat foydali, muhim ma'lumotlar topish imkoniyatini ko'paytiradi.

To'g'ri, sayohatchilar kapitanni xuddi o'ttiz yettinchi paralleldan topishni umid qilmas, lekin biror yerda Garri Grantning daragini eshitishga umid bog'lardilar, juda bo'lmaganda, ular qit'ani kesib o'tmoqchi bo'lgan yo'l – o'ttiz yettinchi parallel – to'g'ri kema halokatga uchragan joyga olib chiqadi-ku. Eng muhimi ham shu.

Bundan tashqari, agar Ayrton sayohatchilarga qo'shilishga rozi bo'lsa va Viktoriya viloyatining o'rmonlarida yo'l boshlab borib, ularni qit'aning sharqiy sohiliga olib chiqsa, bu muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini yana ham orttirgan bo'ladi. Glenarvan buni tushunardi, shuning uchun u Garri Grantning sobiq yo'ldoshini o'ziga yordamchi qilib olib ketishni o'ylab, xo'jayindan Ayrtonga bizning yo'l boshlovchimiz bo'ling deb taklif qilsam, xafa bo'lmaysizmi, deb so'radi. Paddi O'Mur Ayrtondek mehnatkash xizmatkorni qo'ldan chiqarishga achinsam ham, lekin bunga qarshi emasman deb rozilik bildirdi.

– Xo'sh, Ayrton, «Britaniya»da halokatga uchraganlarni axtarish maqsadida uyushtirilgan ekspeditsiyamizda ishtirok etishga rozimisiz?

Ayrton bu savolga darrov javob bermadi. Hatto u bir necha minut ikkilanib qolgandek tuyuldi, lekin bir oz o'ylab olgach:

- Xo'p, ser, - deb javob berdi u, - men sizlar bilan boraman, kapitan Grantdan biror darak topib berolmagan taqdirda ham, har holda uning kemasi halokatga uchragan yerga boshlab bora olaman.

- Rahmat, Ayrton, - dedi Glenarvan.

- Ruxsat etsangiz sizga bitta savol bersam, ser.

- Gapiring, do'stim!

- Siz «Dunkan» bilan qayerda uchrashasiz?

- Agar Avstraliyani bir sohildan ikkinchi sohilgacha kesib o'tishga to'g'ri kelmasa, Melburnda; bordi-yu qidirish ishlarimiz qit'aning sharqiy sohiligacha davom etsa, unda o'sha yerda uchrashamiz.

- Lekin unda kemanding kapitani...

- Kemanding kapitani Melburnda mening buyrug'imni kutib turadi.

- Ma'qul, ser, - dedi Ayrton, - menga ishonavering.

- Ishonaman, Ayrton, - dedi Glenarvan.

«Dunkan»ning yo'lovchilari botsmanga qizg'in ta-shakkur bildirdilar. Kapitanning bolalari unga qanday qilib minnatdorchilik izhor qilishni bilmasdilar. Ayrtonning bu qaroriga aqlli va mehnatkash xizmatkorigan ajralib qoladigan irlandiyalik kolonistdan boshqa hamma xursand bo'ldi. Ammo Paddi O'Mur botsman-ning ekspeditsiyada ishtirok etishiga Glenarvan juda katta ahamiyat berayotganini ko'rib, o'ziga yetadigan bu zararga ko'ndi. Glenarvan Avstraliyani kesib o'tish paytida ekspeditsiyaga kerak bo'ladigan ot-ulov topib berishni irlandiyalikka topshirdi. Bu to'g'rida bitishib, Ayrton bilan kelishib olgach, sayohatchilarimiz kema-ga qaytdilar.

Orqaga juda xursand bo'lib qaytdilar. Rejalar bu-tunlay o'zgarib ketdi, taraddudga o'rin qolmadi. Endi bu mard sayyohlar halokatga uchraganlarni o'ttiz yet-tinchi parallel bo'ylab tavakkaliga qidirmaydilar. Garri Grant shu qit'ada, bunga endi hech qanday shubha qolmadi, shuning uchun odatda shubhalardan keyin bir ishga ishonch tug'ilganda bo'lgandagi kabi hamma-ning qalbi sevinchga to'lgan. Hamma ish silliq bitsa, «Dunkan» ikki oydan keyin Garri Grantni Shotlandiya-ga yetkazib boradi.

Jon Mangls Paganelning Avstraliyani kesib o'tish to'g'risidagi taklifini qo'llaganda, ekspeditsiyada bu safar «Duncan»ning ayol yo'lovchilari bilan birga men ham ishtirok etaman deb umid qilgan edi. U Glenarvan bilan shu to'g'rida gaplashar ekan, o'zining ekspeditsiyada ishtirok etishining foydasi juda ko'p ekanini isbot qilishga urindi: o'zining missis Elen bilan Glenarvanga juda sodiq ekanini, karvon tashkil qilishda ko'p foydasi tegishini, «Duncan»ni ta'mir qilishayotganda kapitanining unda bo'lishi zarur emasligini gapirdi. Xullas, Jon Mangls ming xil dalil-isbotlar keltirdi-yu, o'zi uchun eng muhim bo'lgan bitta sabab to'g'risida og'iz ochmadi.

– Bitta savolim bor sizga, Jon, – dedi Glenarvan yosh kapitanning gaplarini eshitib bo'lib. – Yordam-chingizga to'la ishona olasizmi?

– To'la ishonaman, – deb javob berdi Jon Mangls. – Tom Ostin yaxshi dengizchi, u «Duncan»ni Melburnga olib borib, yaxshilab ta'mir qiladi, keyin esa kemani tayin qilingan yerga aytgan kunimiz yetkazib boradi. Tom o'z vazifasini o'lsa ham bajaradigan, intizomga qattiq rioya qiladigan odam. U berilgan buyruqni bajarishdan hech vaqt bosh tortmaydi yoki uni kechikib bajarmaydi. Siz unga menga ishongandek ishonaver-sangiz bo'ladi, ser.

– Bo'пти, Jon, siz biz bilan borasiz, – dedi Glenarvan, keyin jilmayib qo'shib qo'ydi. – Meri Grantning otasini axtarib topganimizda, sizning ham o'sha yerda bo'lishingiz yaxshi-da.

– O, ser! – dedi g'udurlab Jon Mangls.

Yosh kapitan boshqa hech narsa deya olmadi. U rangi quv o'chib, Glenarvanning o'ziga uzatilgan qo'lini mahkam qisdi.

Ertasiga Jon Mangls duradgor usta va oziq-ovqatlarni olib ketayotgan matroslar bilan yana Paddi O'Murning uyiga jo'nadi. U irlandiyalik bilan birgalikda ekspeditsiya uchun zarur bo'lgan ot-ulovni tayyorlashi kerak edi.

Kolonistning butun oilasi aytganiga qarab ish boshlash uchun, uni kutib turardi. Ayrton ham shu yerda, u mahalliy sharoitni bilgani uchun har xil kerakli maslahatlar berib turdi.

Paddi O'Mur bilan Ayrtonning gapi bir joydan chiqdi: ular ayollarning ho'kiz qo'shilgan aravada. erkaklar-

ning otda safarga chiqishini maslahat ko'rdilar. Irlandiyalik ekspeditsiyaga aravani ham, ot va ho'kizlarni ham o'zi topib beradigan bo'ldi. Uning aravasi uzunligi yigirma fut keladigan, ustiga brezent yopilgan arava ekan. Aravaning to'rttala g'ildiragi yaxlit yog'ochdan ekan, uning na kegayi bor, na tegarchagi, na temir gardishi, xullas, oddiy bir dumaloq yog'och taxta. Aravaning oldingi ikki g'ildiragi o'rnatilgan o'q bilan keyingisining oralig'i juda katta, ular arava kuzoviga juda qadimiy sodda usulda o'rnatilganki, aravani biror tomonga darhol burishning sira iloji yo'q; oldingi o'qqa o'ttiz besh fut keladigan uzundan uzun shoti o'rnatilgan; unga uch juft ho'kiz qo'shiladi. Ho'kizlarni aravaga bo'yinturuq va unga o'rnatilgan temir halqa yordami bilan qo'shiladi. Bu uzun, tor, beso'naqay aravani haydash, ho'kizlarni faqat bittagina uchi nayza tayoq bilan boshqarish uchun juda epchil bo'lish kerak. Lekin Ayrton irlandiyalikning fermasida buni yaxshilab o'rganib olgandi. Paddi O'Mur Ayrton buni uddalay oladi, deb ishonch bildirdi. Shuning uchun aravakashlik vazifasi Ayrtonga yuklandi.

Hech qanday ressorsiz kattakon arava yurishga juda noqulay edi, albatta. Lekin boshqa iloj yo'q edi, shuning uchun shu aravada safarga chiqaverishga majbur bo'ldilar. Jon Mangls aravani bu jihatdan yaxshilashning boshqa ilojini qilolmagach, juda bo'lmasa, uni ichki tomonidan qulayroq qilishni o'yladi. U dastlab taxta bilan aravani ikki bo'limga ajratdi. Orqa qismi oziq-ovqat, bagaj va mister Olbinetning safar oshxonasini joylashga, oldingi qismini esa sayohatchi ayollar ixtiyoriga topshirish mo'ljallandi. Aravaning bu qismini duradgor shinamgina uychaqa aylantirdi, tagiga qalin gilam solishdi, shiringina bitta stolcha bilan Elen va Meri Grantga deb ikkita divancha o'rnatildi. Kechasi salqin tushganda uychaning chirm to'siqlarini tushirib qo'yilsa, u issiqqina joy bo'lardi. Jala quyib, zarurat tug'ilsa, erkaklar ham unda boshpana topishlari mumkin, lekin ular odatda chodirda tunashlari kerak edi. Jon Mangls bu kichkinagina xonaga ikkala ayol uchun zarur bo'ladigan barcha narsani joylashtirdi. Elen bilan Meri Grant «Dunkan»dagi qulay kayutalarini qo'msab achinmaydigan bo'ldilar.

Erkaklarning ishi oson edi. Glenarvan, Paganel, Robert Grant, Mak-Nabbs, Jon Mangls va bu yangi ekspeditsiyada ham Glenarvanni kuzatib borayotgan Vilson bilan Myulrediga yettita ot hozirlandi.

Ayrton aravakash bo'lgani uchun aravada ketishi kerak edi, mister Olbinet esa otda yurishdan yuragi bezillagani uchun omborga joylashib olsa ham bo'la-verardi. Otlar bilan ho'kizlar fermaning o'tloqlarida o'tlab yurardilar, yo'lga chiqish oldida ularni birpasda tutib kelish mumkin.

Jon Mangls duradgor ustaga barcha zarur ko'rsatmalarni berib bo'lgach, Glenarvanni ziyorat qilib kelmoqchi bo'lgan irlandiyaliklar oilasi bilan kemaga qaytdi. Ayrton ham ularga qo'shildi. Kunduz soat to'rtlarda Jon bilan uning hamrohlari «Dunkan»ga yetib keldilar.

Mehmonlarni quchoq ochib kutib oldilar. Glenarvan ularning hammalarini ovqatga taklif qildi, chunki u mehmondo'st avstraliyaliklardan qarzdor bo'lib qolishni istamasdi. Mehmonlar bu taklifni bajonidil qabul qildilar. Kayutalardagi mebel, devorlardagi oboy va gilamlar, kemanding nuqul zarang va palisandr yog'ochidan ishlangan butun suvdan yuqorigi qismi Paddi O'Murga juda yoqib tushdi. Ayrton esa, aksincha, bu qimmatbaho jihozlarga mutlaqo loqayd qaradi.

Ammo «Britaniya»ning botsmani kemani dengizchi sifatida sinchiklab ko'zdan kechirdi. U trumning eng tagigacha tushdi, vint o'rnatilgan joyni borib ko'rди, keyin mashina bo'limini aylandi, mashinaning kuchini surishtirdi, unga qancha yoqilg'i sarflanishini so'radi, ko'mir omborlarini, oziq-ovqat va porox zaxiralarini ko'zdan kechirdi. Ayrton, ayniqsa, qurol-yarog' zaxirasiga, bakka o'rnatilgan zambarak va uning qanchalik uzoqqa ota olishiga juda qiziqsindi. Glenarvanning yangi hamrohi juda tajribali dengizchi edi. Bu Ayrton berayotgan savollardan ochiq ko'rinib turardi. Botsman kema ko'rigini machtalar va takelajni ko'zdan kechirish bilan tamomladi.

– Kemangiz juda chiroyli ekan, ser! – dedi u.

– Yaxshi kema, eng muhimi shu, – deb javob berdi Glenarvan.

– Suv sig'imi qancha?

– Ikki yuz o'n tonna.

- «Duncan» bor kuchi bilan suzsa, soatiga o'n besh mil hech gap emasdir deyman, a?

- Yana ikki mil qo'shavering, - dedi Jon Mangls, - yanglishmaysiz.

- O'n yetti mil! - dedi botsman. - Ehhe, demak, bita ham harbiy kema, hatto eng tezyurarlari ham uni quvib yetolmas ekan-da?

- Mutlaqo! - dedi kema kapitani. - «Duncan» haqiqiy poyga kemasi, uni hech qanday kema quvib yetolmaydi.

- Hatto yelkan bilan ham!

- Hatto yelkan bilan ham-a?

- Unda, ser, siz, kapitan, siz ham, yaxshi kema-ning qadrini biladigan dengizchining tabriklarini qabul qilg'aysiz.

- Rahmat, Ayrton, - deb javob berdi Glenarvan. - Bizning kemada qolavering, istasangiz u sizning ham kemangiz bo'lib qoladi.

- O'ylab ko'raman, ser, - deb oddiygina qilib javob berdi botsman.

Mister Olbinet kelib, ovqat tayyor ekanini aytdi. Glenarvan mehmonlari bilan kayut-kampaniyaga qarab yurdi.

- Ayrton aqlli yigit ekan, - dedi Paganel mayorga.

- Haddan tashqari aqlli deyman-da, - deb qo'ydi Mak-Nabbs sekin.

Hech qanday vaj bo'lmasa ham botsmanning basharasi va o'zini tutishi mayorga yoqmay qolgan edi.

Avstraliya qit'asini juda yaxshi bilgan Ayrton ovqat vaqtida qit'a to'g'risida ko'pgina qiziq tafsilotlar so'zlab berdi. Gap orasida u Glenarvandan ekspeditsiyaga qancha matros olib ketmoqchi ekanini so'radi. Faqat ikki matros - Myulredi bilan Vilsonni olib ketayotganini eshitib, u biroz hayron bo'ldi shekilli, Glenarvanga bu ekspeditsiyaga «Duncan»ning eng yaxshi matrosalaridan butun bir otryad tuzishni maslahat bera boshladi. U shunday deb qayta-qayta tayinladi ham, bu esa mayorning oxirgi shubhasini ham tarqatib yubordi.

- Janubiy Avstraliyaga sayohatimiz mutlaqo xatarli emas-ku, - deb qo'ydi Glenarvan.

- Mutlaqo, - deb darhol uning gapini quvvatladi Ayrton.

– Unda kemada iloji boricha ko‘proq odam qolishi kerak. «Dunkan»ni yelkan bilan Melburnga olib borish, ta‘mir qilishga odam kerak bo‘ladi. Kemaning tayin qilingan joyga vaqtida yetib borishi juda zarur. Shuning uchun kema komandasini kamaytirmaymiz.

Ayrton Glenarvanning maqsadini tushundi shekilli, bu to‘g‘rida boshqa gapirmadi.

Kech kirdi, irlandiyaliklar shotlandiyaliklar bilan xayrlashdilar. Paddi O‘Murning oilasi bilan Ayrton fermaga qaytdilar. Otlar bilan ho‘kiz arava ertasi kunga tayyor bo‘lishi kerak edi. Ertalab soat sakkizda yo‘lga chiqadigan bo‘ldilar.

Elen Glenarvan bilan Meri Grant oxirgi tayyorgarlikni ko‘ra boshladilar. Yo‘lga otlanish uzoqqa cho‘zilmadi, Jak Paganelning otlanishichalik qiyin ham bo‘lmadi. Geograf yarim kechagacha uzun durbinining oynaklarini burab chiqarib, tozalab artib, yana joyiga solib o‘tirdi. Shuning uchun tong otganda u hali dong qotib uxlab yotardi. Mayor qattiq-qattiq chaqirib, uni uyg‘otdi.

Jon Mangls yuklarni fermaga jo‘natib bo‘ldi. Qayiq sayohatchilarni kutib turardi; sayohatchilar ham ko‘p kuttirmadilar. Yosh kapitan Tom Ostinga oxirgi topshirqlarni berdi. U Tomga Melburnda Glenarvanning buyrug‘ini kutishni, qanday buyruq berilmasin, uni aniq bajarishni ayniqsa qayta-qayta tayinladi.

Keksa dengizchi hammasini aniq bajaramiz, deb Jon Manglsiga va‘da berdi. Keyin u butun komanda nomidan ekspeditsiyaga to‘la muvaffaqiyat tiladi. Qayiq komandaning «ura» sadolari ostida sohilga qarab jo‘nadi.

O‘n minutdan so‘ng qayiq sohilga yetib keldi, yana chorak soatdan keyin sayohatchilarimiz irlandiyalikning fermasiga yetib bordilar.

Bu yerda hamma narsa yo‘lga taxt qilib qo‘yilgan edi. Elen o‘z xonasini ko‘rib, juda xursand bo‘lib ketdi. Ayniqsa, aravaning uzunligi bilan qadimiy g‘ildiraklari juda yoqib tushdi. Juft-juft qilib qo‘shilgan oltita ho‘kiz aravaga juda mos tushgan edi. Uchi ingichka qilib yo‘nilgan uzun tayoq ushlab olgan Ayrton yangi xo‘jayinining buyrug‘ini kutib turardi.

– Qoyil! – deb qichqirdi Paganel. – Buncha ham ajoyib ekan bu arava! Dunyodagi bironta pochta karetsasi u bilan tenglasha olmaydi. Dunyoni kezish uchun

bundan qulay vosita bo'lsa kerak! Ana uyu, mana uy: xohlasang – yuradi, xohlasang – to'xtaydi, bundan yaxshi narsa bo'lishi mumkinmi? Bir vaqtlar buni yaxshi bilgan sarmatlar shunday arava bo'lsa sayohat qilishmas edi.

– Janob Paganel, – dedi Elen, – mehmonxonamga tez-tez kelib turarsiz, deb umid qilaman.

– Albatta, missis! Jon deb mehmon bo'laman. Qaysi kunlari qabul qilasiz?

– Do'stlarim uchun har kuni ham uydaman, – dedi tabassum qilib Elen, – siz esa...

– ...ular ichida eng sodiqlaridanman, missis, – deb javob berdi Paganel, sipolik bilan.

Bu shirin suhbat egarlangan va jilovlangan yettita ot keltirilishi bilan uzildi. Otlarni Paddi O'Murning o'g'illaridan biri yetaklab keldi. Glenarvan irlandiyalikka hamma olingan narsalar uchun haq to'ladi va qizg'in minnatdorchilik bildirdi, bu esa halol fermer uchun olgan oltin gienalaridan ham qimmatli edi.

Jo'nashga signal berildi. Elen bilan Meri o'z kupe-laridan joy oldilar, Ayrton kozlaga, mister Olbinet esa aravaning orqa xonasiga joylashib oldilar. Glenarvan, Mak-Nabbs, Paganel, Robert, Jon Mangls va ikkala matros otga mindilar. Hammalari karabin va revolver bilan qurollangan edilar.

Ayrton avstraliyalik aravakashlar odaticha qiyqirib, uchi nayza uzun tayog'ini ho'kizlarga nuqtadi. Arava qo'zg'aldi, taxtalari qirsillab, g'ildirak va o'qlari g'ijirlab ketdi, ko'p o'tmay mehmondo'st irlandiyalikning fermasi muyulishning nariyog'ida ko'zdan yo'qoldi.

T o ' q q i z i n c h i b o b

VIKTORIYA VILOYATI

1864-yilning 23-dekabri. Shimoliy yarim sharda bulutli va seryog'in bo'ladigan dekabr oyini Avstraliya qit'asida iyun deb atasa bo'lardi. Astronomik nuqtayi nazardan qaraganda, bu yerda yoz kirganiga nihoyati ikki kun bo'ldi: 21-dekabrda boshlab quyoshning ufqda turishi kuniga bir necha minutdan qisqarib boradi-da, axir. Shunday qilib, Glenarvanning bu

yangi sayohati yilning eng issiq vaqtida, quyoshning deyarlik tropik nurlari ostida o'tadigan bo'ldi.

Tinch okeanning bu qismidagi barcha ingliz koloniyalari birgalikda Avstraliya deb ataladi. Unga Yangi Gollandiya, Tasmaniya, Yangi Zelandiya va o'sha atrofdagi bir necha orollar kiradi. Avstraliya qit'asining o'zi esa katta-kichikligi jihatidan ham, tabiiy boyliklari jihatidan ham bir-biridan juda farq qiladigan bir necha katta-katta koloniya – viloyatlarga bo'linadi. Avstraliyaning hozirgi xaritalariga qaralsa, undagi viloyatlarining chegarasi to'ppa-to'g'ri chiziqlar bilan belgilanganini ko'zga tashlanadi, – inglizlar viloyatlarga ajratilayotganda, aftidan, ularning na tog'liqlarga, na daryolar oqimiga, na ob-havo sharoitiga, na undagi qabilalarining har xil ekaniga e'tibor qilmagan bo'lsalar kerak. Bu koloniya – viloyatlar bir-biriga yondashgan to'g'ri to'rtburchaklardan iborat bo'lib, mozaikani eslatadi. Bu to'g'ri chiziq va to'g'ri burchaklarda geografning qo'lidan ko'ra geometriyaning qo'li ko'proq ekani bilinib turadi. Faqat sohildagi turli egri-bugriliklar, ko'rfazlar, burunlar, qo'ltiqlar o'zining notekisligi bilan tabiatning qit'a xaritasiga tortilgan to'g'ri chiziqlarga qarshi noroziligini ifodalaydi.

Jak Paganel Avstraliyaning shaxmat taxtasi kabi bunday to'g'ri to'rtburchaklarga bo'linishini haqli ravishda masxara qilib kuldi.

– Avstraliya Fransiyaning koloniyasi bo'lganda fransuz geograflari reysfeder bilan burchaklarga bunchalik mehr qo'ymagan bo'lardi, – dedi u.

Kattakon Avstraliya oroli hozir oltita koloniya – viloyatga bo'linadi: Yangi Janubiy Uelss – markazi Sidney, Kvinslend – markazi Brisben, Viktoriya – markazi Melbourne, Janubiy Avstraliya – markazi Adelaida, G'arbiy Avstraliya – markazi Petr va, nihoyat, Shimoliy Avstraliya – hozircha bu viloyatning markazi yo'q. Kolonistlar faqat dengiz sohillarida yashaydilar. Sohildan ikki yuz mil ichkarida biron-bir ahamiyatga ega bo'lgan shahar yo'q. Kattaligi jihatidan Yevropaning uchdan ikkisiga to'g'ri keladigan qit'aning markaziy qismiga kelsak, u hali deyarlik tekshirilmagan.

Baxtdan bo'lib, o'ttiz yettinchi parallel bu bepoyon cho'llardan, qator fan kishilari halok bo'lib ketgan yurib bo'lmas yerlardan o'tmasdi. Glenarvan u yerlardan

o'tolmagan bo'lardi. Uni faqat Avstraliyaning janubiy qismi qiziqitirdi: sayohatchilar avval Janubiy Avstraliya viloyatining bir qismini, keyin Viktoriya viloyatining u boshidan bu boshigacha kesib o'tishlari, nihoyat, uchi pastga qilib, to'ntarib qo'yilgan uchburchakka o'xshagan Yangi Janubiy Uells viloyatining o'sha uchidan kesib o'tishlari kerak edi.

Bernulli burunidan Viktoriya viloyatining chegara-sigacha bo'lgan masofa oltmish ikki milcha chiqadi. Bu yo'lni ikki kunda bahuzur bosib o'tsa bo'ladi, shuning uchun Ayrtton ertasiga kechqurun Viktoriya viloyatining eng g'arbiy shahri Eppliga borib tunashni mo'ljallardi.

Odatda har qanday sayohatning boshida odamlar ham, otlar ham juda g'ayratga minadilar. Odamlarning g'ayrati qo'zg'ab ketishiga bir narsa deb bo'lmaydi, lekin otlarning jilovini sal tortib qo'yish zarur. Uzoq safarga otlangan odam minib borayotgan otining kuchini tejashi kerak. Shuning uchun sayohatchilar kuniga yigirma besh-o'ttiz mildan ortiq yo'l yurmaslikka ahd qilishdi. Buning ustiga, otlarni shoshmasdan, bitta-bitta yurib, kuch-quvvatini saqlab boradigan chinakam jonli mashinalar – ho'kizlarning yurishiga qarab haydash kerak edi.

Ekspeditsiyaning yo'lovchilari bilan yuklarini olib ketayotgan arava uning yadrosi, harakatlanuvchi qal'asi edi. Otliqlar chor atrofda taralib borishlari mumkin, lekin aravadan juda uzoqlashib ketmasliklari shart. Umuman, otliqlarga ma'lum bir tartib joriy qilinmagan uchun ularni bir qadar o'z ixtiyoriga qo'yib berildi. Ovchilar qirda g'animat ketidan quvib yurishar, shirinso'z kavalerlar aravadagi yo'lovchi xonimlar bilan suhbat qilishar, filosoflar falsafiy fikrlar yuritishardi. O'zida bu xususiyatlarning barchasini mujassamlantirgan Paganel esa hammasiga ulgurishi kerak – ulgurmoqda ham.

Janubiy Avstraliya viloyatidan o'tish juda zerikarli bo'ldi. Bir necha milgacha yo'l goh chang bosib yotgan tuproq tepalar yonidan, goh bu yerlarda «bush» deb ataladigan bo'm-bo'sh dalalardan, goh u yer-bu yerida qo'y-qo'zilar yaxshi ko'radigan sho'rt dang o'tlar to'p-to'p bo'lib o'sib yotgan o'tloqlar yonidan o'tar edi. Yaqinda Adeliadani sohil bilan bog'lagan telegraf simi-

ning stolbalari orasida faqat Yangi Gollandiyada uchraydigan «cho'chqa boshlar», ya'ni boshi cho'chqaning boshiga o'xshagan qo'ylar tinchgina o'tlab yurardi.

Bu tekisliklar bir xil manzarali Argentina pampaslariga juda o'xshab ketadi: yer ham xuddi pampaslardagi kabi tekis va o't bosgan, yer bilan osmon ham xuddi pampaslardagi singari ufqda bir-biriga tutashib ketadi, lekin rangi bir-biridan keskin farq qilib turadi. Mak-Nabbs men o'zimni hali ham Janubiy Amerikada his qilyapman, dedi. Lekin Paganel hademay tevarakatrof o'zgarishi kerak deb ishontirdi, geografiya oli-mining so'ziga ishongan hamrohlari qiziq o'zgarishlar bo'lishini kuta boshladilar.

Soat uchda sayohatchilarimiz bironta daraxt o'smagan kattakon ochiq dalaga chiqdi – bu dala Chivinlar vodiysi deb ataladi. Paganel bu ismning to'g'ri qo'yilganiga juda tez iqror bo'ldi. Bu xira ikki qanotliklar sayohatchilarni ham, otlarini ham chaqaverib, bezor qilib yubordi. Ularning chaqishidan saqlanishning sira iloji yo'q edi. Safar aptechkasidagi nashatir spirti yordami bilan og'riqni sal susaytirish mumkin bo'ldi, xolos. Xunob bo'lib ketgan Paganel to'xtovsiz jizillatib chaqayotgan chivinlarga la'natlar o'qirdi.

Kechga yaqin jonli to'siq hosil qilgan bir necha akas daraxtlari yalang dalaga ancha husn berdi. U yer-bu yerda oq yelim daraxtlari to'p bo'lib yotardi; undan narida yangi solingan yo'l ko'rindi; keyin Yevropadan keltirilgan o'simliklar: zaytun, limon daraxtlari, doim ko'm-ko'k bo'lib yotadigan dublar uchray boshladi; nihoyat, to'siq chegara vazifasini bajaradigan o'simliklar uchray boshladi. Ayrton uchi nayza tayoq bilan haydab borayotgan ho'kizlar kechqurun soat sakkizda Red-Gum degan bir manzilga yetib bordi. «Manzil» deb bu yerda Avstraliyaning asosiy boyligi hisoblanuvchi qoramollar boqiladigan yerni aytiladi. Mahalliy chorvadorlar «skvatterlar», ya'ni «yerga qo'nadigan kishilar» deb ataladi. Haqiqatan ham, bepoyon qirlarda ko'chmanchilik qilaverib, tinkasi qurigan kolonist oxir bir kun yerga o'tirib qoladi, o'troqlashadi.

Red-Gum manzili kichkinagina joy ekan, lekin bu yerda Glenarvanni xursandlik bilan kutib oldilar. Bo'm-bo'sh yerlarga o'rnashgan bunday manzillarda sayohatchilarni doim yaxshilab mehmon qiladilar, kel-

gan har bir sayyoh avstraliyalik kolonist uchun aziz mehmon hisoblanadi.

Ertasiga Ayrton ho'kizlarini tong otardayoq aravaga qo'shdi. U o'sha kuniyoq Viktoriya viloyatining chegarasiga yetib olish niyatida edi.

Tevarak-atrof sekin-asta o'zgarib, past-balandlikka aylana bordi. Ko'z ilg'aguday masofa qizil tuproq bilan qoplangan o'rkach-o'rkach tepaliklar tizmasidan iborat bo'lib qoldi; bepoyon qirga shamolda hilpirab turgan kattakon qizil bayroq yopilganday tuyulardi. Mall daraxtlari – qarag'ayning bir xili, tanasi to'g'ri o'sgan bo'ladi – juda ko'p qo'shoyoqlar yugurib yurgan qalin o'tloqlar ustiga ko'm-ko'k shoxlarini yozgan. Undan keyin butalar va yosh yelim daraxtlari o'sib yotgan keng tekisliklar boshlandi. So'ngra ular o'rni yakkindukkam o'sgan daraxtlar, Avstraliya o'rmonlarining dastlabki vakillari egalladi.

Viktoriya viloyatining chegarasiga yaqinlashilgan sari manzara o'zgarib bordi. Sayohatchilar o'zlarini yangi mamlakatda his qila boshladilar. Ular doim to'ppa-to'g'ri chiziq bo'ylab borar, yo'lida uchragan ko'l ham, tog' ham ularni bu to'g'ri chiziqdan chetga chiqishga majbur etolmasdi. Ular ikki nuqta orasidagi chiziq to'g'ri chiziqdir degan geometrik teoreмага asosan ish ko'rdilar. Charchash va qiyinchiliklar to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. O'tliqlar otlarini ho'kizlarning oyog'iga qarab haydashardi, bu vazmin jonivorlar juda sekin yurishsa-da, yo'lida sira to'xtashmasdi. Shu tarzda yo'l yurgan karvon ikki kunda oltmish mil masofani bosib o'tdi va 23-dekabr kechqurun Viktoriya viloyatining chegaraga eng yaqin shahriga, Vimmera okrugida bir yuz qirq birinchi gradus uzunlikda joylashgan Eppliga yetib keldi.

Ayrton aravani bir mehmonxona oldida to'xtatdi, boshqa durustroq mehmonxonalar yo'qligi uchun u «Toj-taxt mehmonxonasi» deb atalar ekan. Mehmonlarga nuqul qo'y go'shti solib pishirilgan har xil taomlar tortildi. Ovqatni ko'p yedilar, lekin undan ham ko'proq gaplashdilar. Avstraliya qit'asining xususiyatlarini bilib olish maqsadida sayohatchilar Paganelni savolga ko'mib tashladilar. Paganel ham yalintirib o'tirmadi va jon deb Viktoriya viloyati to'g'risida so'zlab bera boshladi; Viktoriya viloyati, uning aytishicha, Baxtli Avstraliya deb ham atalar ekan.

– Noto'g'ri ism! – dedi Paganel, shu to'g'rida so'zlar ekan. – Bu viloyatni Boy Avstraliya deb atalsa to'g'riroq bo'lar edi, chunki: «Boylik baxt keltirmaydi», deb odamlar to'g'risida aytilgan maqol mamlakatlarga ham taalluqlidir. Oltin konlari tufayli Avstraliya beshafqat avantyuristlar qo'liga tushib qoldi. Oltin konlari yonidan o'tayotganimizda buni o'zinglar ham ko'rasizlar.

– Viktoriya koloniyasi tashkil etilganiga ko'p bo'lgani yo'q shekilli? – deb so'radi Elen.

– Ha, nihoyati o'ttiz yilcha burun tashkil qilingan, aniqrog'i – 1835-yil oltinchi iyun seshanba kuni...

– ... soat yettidan chorak o'tganda, – deb gap qis-tirdi mayor, uning vaqtni bu qadar aniq ayushi vajidan g'ashini keltirib.

– Yanglishdingiz. – deb jiddiy javob berli geograf. – Hozir katta shahar bo'lgan Melburn joylashgan xuddi o'sha ko'rfazda Beman bilan Falkner soat yetti-yu o'n minutda Port-Filipp degan qishloqqa asos solganlar. Dastlabki o'n besh yil ichida bu koloniya Yangi Janubiy Uells viloyatining tarkibiga kirar va uning ham poytaxti Sidney edi, lekin 1851-yilda u alohida mustaqil viloyat bo'lib ajraldi va «Viktoriya» degan nom oldi.

– O'shandan keyin u ancha mustahkamlandimi, taraqqiy qildimi? – deb so'radi Glenarvan.

– Buni o'zingiz aytib qo'yaqoling do'stim, – deb javob berdi Paganel. – men faqat raqamlar keltiraman – bu eng yangi statistik ma'lumotlar. Mak-Nabbs nima desa deyaversin, lekin men raqamlardan ham ishontirarli narsani bilmayman.

– Keltiravering raqamlaringizni, – deb qo'ydi Mak-Nabbs.

– Boshladim. 1836-yilda Port-Filipp koloniyasining aholisi ikki yuz qirq to'rt kishi edi, hozir esa Viktoriya viloyatining aholisi besh yuz ellik mingga yetdi. Viloyatda ekiladigan yetti million tup tokdan har yili bir yuz yigirma ming gallon vino tayyorlanadi. Uning bepoyon dalalarida bir yuz uch ming ot va olti yuz yetmish besh ming ikki yuz yetmish ikkita qoramol o'tlab yuribdi.

– Bu yerda cho'chqa ham bormi? – deb so'radi Mak-Nabbs.

– Bor. Yetmish to'qqiz ming olti yuz yigirma beshta.

– Qo'y-chi, Paganel?

– Yetti million bir yuz ellik ming to‘qqiz yuz qirq uchta, Mak-Nabbs!

– Bu hisobga biz hozir yeb o‘tirganimiz ham kiradimi, Paganel?

– Yo‘q, bunisi hisobga kirmaydi; uning to‘rttdan uch qismini yeb bo‘ldik-ku.

– Ofarin, janob Paganel! – deb xaxolab kulib yubordi Elen. – Geografiyaga oid narsalarni siz juda mukammal bilasiz, buni tan olish kerak. Mak-Nabbs sizni qo‘lga tushiraman deb qancha urinsa ham, mehnati zoye ketadi.

– Nima ham qilardim, bularning hammasini bilish va kerak bo‘lgan taqdirda sizlarga aytib berish – kasbim-da. Shuning uchun bu ajoyib mamlakatda hali ko‘p qiziq narsalarni ko‘rasiz, desam bemalol ishonavering.

– Lekin haligacha... – deb gap boshladi geografiya olimining g‘ashiga tegishni yaxshi ko‘radigan Mak-Nabbs.

– Shoshilavermang ko‘p, buncha besabr odamsiz-a! – dedi Paganel. – Chegaradan endi o‘tdingiz-u, tajang bo‘lishingizni qarang. Men aytamanki, qayta aytaman, qasam ichamanki, dunyoda eng qiziq o‘lka shu. Uning paydo bo‘lishi, tabiati, o‘simliklari, hayvonoti, obhavosi, uning qay tarzda yo‘qolib ketishi – bular hammasi dunyodagi barcha olimlarni hayron qoldirgan, hozir ham hayron qoldiryapti, kelajakda ham hayron qoldiradi. Do‘stlarim, dengiz to‘lqinlari orasidan oldin o‘rtasi emas, balki xuddi bir halqaga o‘xshab chekka qismlari chiqib kela boshlab, paydo bo‘lgan qit‘ani ko‘z oldingizga keltiring; bu qit‘aning o‘rta bir yerida suvining yarmi qurigan ichki dengiz bo‘lishi ham mumkin; uning daryolari kundan kun qurib boryapti; qit‘aning na havosida, na tuprog‘ida nam bo‘lmaydi; bundagi daraxtlar har yili bargini to‘kish o‘rniga po‘stloq tashlaydi; daraxtlar quyoshga barglarining yuzini emas, yonini tutadilar, shuning uchun ularning soyasi bo‘lmaydi; qit‘ada o‘sgan daraxtlar ko‘pincha o‘tda yonmaydi; toshlari yomg‘irda erib ketadi; daraxtlari pastak bo‘ladi-yu, o‘tlari juda baland o‘sadi; hayvonlari ham juda antiqa bo‘ladi; ba‘zi to‘rt oyoqlilarning yexidna bilan o‘rdaktumshuqniki singari tumshuqlari bo‘ladiki, olimlar shular tufayli maxsus qush hayvonlar sinfini



ajratishga majbur bo'lganlar, bundagi kengurularning oyoqlarining uzunligi bir xil emas; qo'ylarining boshi cho'chqanikiga o'xshagan; tulkilari daraxtdan daraxtga uchib o'tib yuradi; oqqushlari qora patli bo'ladi; kalamushlari o'ziga in quradi; qushlari sayrashining har xilligi va g'alatiligi bilan kishini hayron qoldiradi: biri soatning zang urishiga o'xshab sayrasa, boshqasi pochta karetsi aravakashining qamchini ovozi-ga taqlid qiladi, uchinchisi - charx ovozi-ga o'xshatib chirillaydi, yana boshqasi soat kapgiri singari daqiqalarni sanab turadi; bu yerda shunday qushlar borki, ertalab quyosh chiqish paytida qah-qah urib kuladi; yana shundaylari ham borki, kechqurun, kun botish paytida yig'laydi. Dunyo yaratilgandan beri uchragan eng qiziq, eng ajoyib, eng g'aroyib mamlakat shu! Bu tabiat qonunlarini rad qiluvchi yer! «Avstraliya dunyo qonunlarini masxara qilgan o'lka, yoki boshqacha qilib aytsak, dunyo qonunlariga ochiqdan ochiq qarshi

chiqqan yer!» deganda botanika olimi Grimar tamomila haqli edi.

Paganelning og'zidan to'xtovsiz chiqib kelayotgan bu so'z oqimining oxiri yo'qdek tuyulardi, geografiya jamiyatining gapdon sekretari endi o'zini to'xtata olmay qolgandi. U to'xtovsiz so'zlar, so'zlaganda ham qo'llarini paxsa qilib, vilkalarini shunday o'ynatib so'zlar ediki, ochiqdan ochiq xavf ostida qolgan yon qo'shnilari tegib ketmasin yana deb xavotirda edilar. Niho-yat, olqishlar uning tovshini bosib ketdi-yu, geografiya olimi jim bo'ldi.

Avstraliya qit'asining shuncha qiziq jihatlarini sanab bergandan keyin hech kim geografiya olimiga yana biror savol berishni xayoliga keltirmadi, albatta. Lekin shunday bo'lsa ham, mayor har vaqtdagidek xotirjam tovush bilan:

- Bo'lgani shumi, Paganel? - deb so'rab qoldi.

- Yo'q, hali bu hammasi emas! - dedi yangitdan g'ayratga minib geografiya olimi.

- Iye! Avstraliyada bundan ham qiziqroq narsalar bormi yana? - deb so'radi qiziqib Elen.

- Ha, bor. Bu uning ob-havosi. Qit'aning ob-havosi men sanab bergan barcha xususiyatlaridan ham qiziq-roq.

- Nimasi qiziq? - deb so'rashdi chekka-chekkadan.

- Men Avstraliya qit'asining kislorodga qanchalik boyligi, azotga qanchalik kambag'alligi to'g'risida gapirmay ham qo'ya qolay; passatlar uning sohillariga parallel esgani uchun qit'ada nam shamollarning bo'lmasligi to'g'risida ham so'zlamayman; tifdan tortib qizamiqqacha bo'lgan uzoq davom etadigan ko'pgina kasallarning bu yerda bo'lmasligini ham aytmay qo'ya qolay...

- Lekin shuning o'zi ham juda katta gap, - dedi Glenarvan.

- Shubhasiz, lekin, takror aytaman, qit'aning ob-havosi to'g'risida gapirganimda, men bularni ko'zda tutmayman, - deb javob berdi Paganel. - Bu yerning ob-havosi shunday bir xususiyatga egaki... sira ishonib bo'lmaydigan xususiyatga egaki...

- Qanday xususiyat ekan u? - deb so'radi Jon Mangls, qiziqib.

- Sira ham ishonmaysizlar...

– Ishonamiz! – deb javob berishdi bunga qiziqib qolgan hamsuhbatlari.

– Bo'lmasa u...

– Nima u?

– U kishi axloqiga ijobiy ta'sir etadi!

– Axloqqa?

– Ha, – deb javob berdi geograf ishonch bilan. – U kishi axloqiga ijobiy ta'sir etadi. Avstraliyada metall zanglamaydi, odamlar to'g'risida ham shuni aytish mumkin. Qit'aning toza va quruq havosi har narsani ham tez tozalaydi: kiyim-kechakni ham, kishilar dilini ham. Bu yerlarning ob-havosidagi bu xususiyatni Angliyada tez fahmlaganlar, ana shuning uchun ham bu yerga tuzatib bo'lmaydigan odamlarni yuborishga qaror qilganlar.

– Nima, nima! Rostdan ham havoning shunday ta'siri bormi? – deb so'radi Elen Glenarvan.

– Ha, uning ta'siri odamda ham, hayvonda ham sezilgan.

– Hazillashayotganingiz yo'qmi, janob Paganel?

– Yo'q, hazillashayotganim yo'q. Hatto Avstraliyadagi otlar bilan qoramol ham juda yuvosh bo'ladi. O'zingiz ko'rib ishonishingiz mumkin.

– Yo'g'-e!

– Lekin bu gap to'g'ri. Bu hayotbaxsh, ajoyib atmosferaga ko'chirilgan jinoyatchilar bir necha yil ichida tamoman boshqa odam bo'lib qoladilar. Bu filontrop-larga ma'lum. Avstraliyada hamma ham yaxshiroq bo'lib qoladi.

– Unda, o'zingiz qanday bo'lib qolasiz, siz shunday ham yaxshi odamsiz-ku? – deb so'radi tabassum bilan Elen.

– Tag'in ham yaxshi bo'laman, bebaho odam bo'laman! – deb javob berdi geograf.

O' n i n c h i b o b

VIMMERA DARYOSI

Ertasiga, 24-dekabr kuni tongotar paytida yo'lga tushdilar. Kunning issig'i ertalabdanoq sezilar, lekin hozircha chidasa bo'lardi. Yo'l ko'tarilmasdan, siyrak

o'rmon orasidan to'g'ri bordi, shuning uchun otlar toliqmay yo'l bosdi. Allaqancha yo'lni bosib o'tgan otryad kechqurun Oqko'l bo'yida to'xtadi; ko'lning suvi sho'rtang ekan, ichishga yaramadi.

Paganel Qora dengiz qop-qora, Qizil dengiz qip-qizil, Sariq daryo sap-sariq, Moviy tog'lar esa ko'm-ko'k bo'lmaganidek, bu Oqko'l ham oppoq emasligiga tan berishga majbur bo'ldi. Har qalay, u tortishib ko'rmoqchi ham bo'ldi-yu, lekin keltirgan dalillari hech kimni ishontirolmadi.

Mister Olbinet odatdagiday o'z vaqtida ovqat hozirlab, dasturxonga keltirib qo'ydi. Keyin sayohatchilar - ba'zilari aravada, ba'zilari chodirda - uyquga yotdilar, Avstraliya shoqoli - dingolarning uvlashiga hech kim e'tibor ham qilmadi.

Oqko'lning nariyog'ida xilma-xil xrizantemalar ochilib yotgan tekis dala cho'zilib ketgan. Ertasiga ertalab uyqudan turgan Glenarvan va uning yo'ldoshlari bu go'zal manzarani ko'rib, juda zavqlanishdi.

Yana yo'lga tushdilar. Atrof tep-tekis, faqat uzoqlarda bir necha past-baland do'nglik ko'zga tashlanadi. Ufqqa qadar cho'zilgan qirda oq, qizil gullar chaman bo'lib ochilib yotibdi. Mayda bargli zig'irning zangori gullari, ayiqtovonlarning qip-qizil gullari go'zal manzara tashkil qilgandi. Sho'rxok Yer yuzini serebryankalar, sho'ra o'tlar, sveklovichniklarning ko'kimtir yashil va qizg'ish gullari qoplab yotardi. Bu o'simliklar juda foydali, kulidan a'lo sifat soda olish mumkin. Gullar orasiga tushib, darhol botanikka aylanib qolgan Paganel bu dalada o'sib yotgan barcha o'simliklarni nomma-nom atay boshladi; raqam keltirib ma'lumot berish odatiga sodiq qolib, Avstraliya florasi bir yuz yigirma oilaga birlashgan to'rt ming ikki yuz turdagi o'simliklarni o'z ichiga olishini aytib o'tdi.

Ko'p o'tmay yana o'n milcha yo'l yurgan arava endi baland-baland akas daraxtlari, mimozalar va har xil gulli oq yelim daraxtlaridan iborat chakalaklardan o'ta boshladi. Buloqlarga boy bo'lgan bu yerlarning o'simliklarini quyosh nuriga ko'rnamaklik qilishda sira ayblab bo'lmasdi: quyosh bu o'simliklar ustiga qancha harorat, nur yog'dirsa, ular ham shuncha ko'p gul ochib, shuncha ko'p xushbo'y is tarqatardi. Ammo hayvonot dunyosi ancha kambag'al edi. Har zamon-

da bir sanqib yurgan emular ko'rinib qolar, lekin ularga yaqin borib bo'lmasdi. Shunga qaramay mayor tuxumi qurib borayotgan juda nodir bir qushni otib olishga muyassar bo'ldi. Bu qush ingliz koloniyalarida bo'ladigan kattakon turna – *yabiru* bo'lib, bo'yi besh fut kelar, keng, konussimon, uchi o'tkir, qora tumshug'ining uzunligi o'n sakkiz duym edi. Uning qizg'ish binafsharang boshi ko'm-ko'k tovlanib turgan bo'ynidan keskin farq qilar, ko'kragi yaltiroq, oppoq, uzun oyoqlari qip-qizil edi. Tabiat bu turnaning patlarini bezashga o'zining barcha asosiy bo'yoqlarini ayamay sarflagandek tuyulardi.

Sayohatchilar bu ajoyib qushni zavqlanib tomosha qildilar, agar bir necha mil ilgarilab ketgan Robert bir g'alati jonivorni uchratib, qo'rqmasdan otib olmaganda bugungi kunning qahramoni mayor bo'lib qolar edi; Robert otib kelgan jonivor kirpi bilan chumolixo'r o'rtasidagi bir jonivor bo'lib, qadim zamonlarning taraqqiy qilmagan maxluqlariga o'xshardi. Uning yumuq og'zidan uzun, yopishqoq tili osilib yotar, jonivor bu tili bilan o'zining asosiy ovqati bo'lgan chumolilarni tutib yerd.

– Bu yexidna, – dedi Paganel. – Shunaqa jonivorni hech ko'rganmidinglar?

– Juda jirkanch ekan! – dedi Glenarvan.

– Jirkanch, lekin qiziq jonivor, – dedi Paganel. – Buning ustiga, u faqat Avstraliyada uchraydi. Uni dunyoning boshqa qismidan qidirgan odamning mehnati zoye ketadi.

Turgan gapki, Paganel bu jirkanch yexidnani olib ketgisi kelib qoldi, olim uni aravaning yuk bo'limiga joylab qo'ymoqchi bo'lgan edi, mister Olbinet bunga shunday achchiqlandiki, geografiya olimi Avstraliya faunasining bu namunasini fan uchun asrab qo'yish fikridan voz kechishga majbur bo'ldi.

Shu kuni sayohatchilarimiz 141°31' uzunlikka yetib bordilar. Bu vaqtgacha ularning yo'lida kolonist dehqonlar ham, skvatterlar ham kam uchradi. Tevarakatrof bo'm-bo'shdek edi. Mahalliy aholi esa sira ham ko'rinmasdi, chunki yovvoyi qabilalar shimolroqda, Darling va Myorrey darvolari oqib o'tadigan bepoyon qirlarda yashaydilar.

Glenarvan otryadi, uddaburon savdogarlar sharqiy tog'lardan Viktoriya va Janubiy Avstraliya viloyatlariga haydab keladigan katta-katta podalardan biriga duch kelib, unga juda qiziqib qoldi.

Kunduz soat to'rtlarda Jon Mangls hamrohlariga uch-to'rt mil oldinda balandga ko'tarilayotgan quyuq to'zonni ko'rsatdi. Bu nima ekanini hech kim aytolmadi. Paganel bu biror meteorning ta'siri bo'lsa kerak, deb o'yladi, uning jo'shqin fantaziyasi buning tabiiy sababini izlab ketdi, lekin Ayrton uning fantaziya dunyosiga chuqur sho'ng'ib ketishiga yo'l qo'ymay, bu yaqinlashib kelayotgan kattakon poda ko'targan chang ekanini aytdi.

Botsman to'g'ri aytgan edi. To'zon buluti tobora yaqinlashib kelaverdi. O'sha tomondan otlarning kishnagani, qoramol va qo'ylarning ma'ragani eshitilardi. Bu pastoral simfoniyaga odamlarning hayqirgani, hushtak va so'kishlari aralashib ketgan edi.

Shovqin-suron eshilib turgan to'zon ichidan bir odam chiqib keldi. U ana shu to'rt oyoqlilar armiyasining boshlig'i edi. Glenarvan unga qarab yurdi, ular ortiqcha mulozamatsiz gaplasha boshladilar. Haligi kishi ham poda boshlig'i, ham uning bir qismining egasi ekan. Ismi Sem Mitchel bo'lib, podani sharqiy viloyatlardan Portland ko'rfaziga haydab ketayotgan ekan.

Uning podasi o'n ikki ming yetmish besh bosh, ya'ni mingta buqa, o'n bir ming qo'y va yetmish beshta otidan iborat edi. Moviy tog'lar vodiysida sotib olingan bu ozg'in mollar yaxshilab boqib semirtirilgandan keyin katta foyda baravariga sotish uchun Janubiy Avstraliyaning barra o'tlar o'sib yotgan o'tloqlariga haydab keltirilmoqda edi. Sem Mitchel har bir buqani ikki funt sterling, har bir qo'yni yarim funt sterling foydasiga sotib, bir yuz ellik ming frankdan foyda qilishni mo'ljallar edi. Bu ish juda foydali, lekin bu bebosh podani manzilga yetkazib borish uchun qanchadan qancha g'ayrat, kuch sarf qilish kerakki, asti qo'yaverasiz! Ha, bu mashaqqatli hunar orqasida foyda qilish oson emas.

Podasi mimoza chakalaklari orasidan o'tib borar ekan Sem Mitchel qisqa qilib o'zi to'g'risida so'zlab berdi. Elen Glenarvan bilan Meri Grant aravadan, otiqlar o'z otlaridan tushib keldilar, hammalari katta yelim daraxtining soyasiga o'tirib, mol jallobning hikoyasini tingladilar.

Sem Mitchel yetti oydan beri yo'lda ekan. U bir kunda o'rta hisob bilan o'n mil yo'l yurib kelayotgan ekan, uning bu uzundan uzoq sayohati yana uch oycha davom etishi kerak ekan. Bu qiyin ishda unga o'ttizta podachi bilan yigirmata it yordam qilar ekan. Podachilar ichida podadan ajrab qolgan mollarni izidan borib topib keladigan juda usta beshta negr bor ekan. Poda orqasidan oltita arava kelardi. Dastasi o'n sakkiz duym va qayishi besh fut keladigan qamchin ushlab olgan podachilar mollar orasida to'xtovsiz buzilib turgan tartibni tiklab borar, podaning ikki yonida kelayotgan itlar esa uning yoyilib ketishiga yo'l qo'ymas edilar. Podaning intizom bilan borishi sayohatchilarimizni hayron qoldirdi. Podadagi buqalar bir guruh, qo'ylar bir guruh, otlar yana bir guruh bo'lib borar edi, chunki yovvoyi buqalar qo'ylar o'tgan joydan o'tlamaydi. Shuning uchun buqalarni bu to'rt oyoqliklar armiyasining boshiga qo'yish zarur. Ikki batalyonga ajratilgan buqalar oldinda borar edi. Ular ketidan yigirmata podachi nazorati ostida besh polk qo'y borardi. Otlar vzvodi arergardda kelmoqda. Sem Mitchel bu armiyaning boshida odamlar emas itlar ham emas, balki ba'zi buqalar, ya'ni boshqalari hurmat qiladigan idrokli «liderlar» borayotganiga hamsuhbatlarining diqqatini jalb qildi. Ular instinktiv ravishda eng yaxshi yo'lni tanlab, poda oldida mag'rur borar, ko'rinishdan, podadagi eng e'tiborli mol ekaniga juda ishonar edilar. Butun poda ularga so'zsiz bo'ysunardi, shuning uchun ular bilan hisoblashmaslikning iloji yo'q. Agar ular to'xtab dam olishni istab qolsa, ularning bu istagiga ko'nmay bo'lmasdi, dam olib bo'lgandan keyin yo'lga chiqish uchun buqalarning o'zlari signal bermasalar, podani sira yo'lga solib bo'lmasdi.

Mol jallob ekspeditsiyasi to'g'risida yana bir qancha qiziq gaplar aytib berdi. Poda tekis daladan borayotganda hamma ish silliq boradi - hech qanday qiyinchilik yuz bermaydi, odamlar ham charchamaydi. Mollar shu yo'lning o'zida o'tlaydi, yo'lda uchragan ariqlarda suv ichib, chanqog'ini bosadi, kechasi uxlaydi, kunduzi yo'l bosadi, itlarning hurishiga bo'ysunadi. Lekin yo'l qit'aning katta-katta o'rmonlaridan, mimoza va evkalipt chakalaklaridan o'tsa, podani boshqarish qiyinlashib ketadi. Vzvodlar, batalyonlar, polklar aralashib yoki

atrofqa yoyilib ketadi, keyin ularni qaytadan bir yerga to'plash ko'p vaqtni oladi. Bordi-yu, falokat bosib, lider buqalardan biri yo'qolib qolsa, nima qilib bo'lmasin uni topish kerak bo'ladi, aks holda butun poda tarqab ketishi mumkin; bunday vaqtlarda izquvar negrlar ularni topib kelish uchun ba'zan bir necha kunlab vaqt sarf qiladilar. Qattiq yomg'ir yog'sa dangasa mollar yurmay qo'yadi, qattiq momaqaldiroq vaqtlarida esa qo'rquvdan o'takasi yorilgan mollarni vahima bosadi.

Shunday bo'lsa ham qayta-qayta yuz berayotgan barcha qiyinchiliklar mol jallobning g'ayrati va epchilligi orqasida bartaraf qilib kelinayotgan ekan. U podani to'xtovsiz haydab kelayotgan ekan. Tekis dalalar, o'rmonlar, tog'lar orqada qolib ketgan. Lekin faqat g'ayrat va epchillikning o'zi kifoya qilmasdi, podani biror daryodan o'tkazish vaqtida, u g'ayrat va epchillik ustiga yana nihoyatda katta chidam ko'rsatish ham kerak, bu chidam bir necha soatga yoki bir necha kunga emas, balki bir necha haftalarga yetishi lozim. Bu qiyinchilikka sabab daryoning o'tib bo'lmasligi emas, balki podaning o'jarlik qilib, daryodan o'tmay turib olishi bo'ladi. Buqalar suv ichib olib, ketiga buriladi; qo'ylar suvdan qo'rqib, chor atrofga tarqab keta boshlaydi. Podani yana daryoga surishga urinib ko'rish uchun qorong'u tushishini kutish kerak. Bu urinish ham bekor ketadi. Qo'chqorlarni ko'tarib, suvga otadilar, lekin boshqa qo'ylar ularga ergashmaydi. Mollarni bir necha kun sug'ormay, suvga tashna qilib ko'radilar, lekin bu ham foyda bermaydi. Bolalarining ovozi eshitib oldiga otilmikan deb, qo'zichoqlarni daryoning narigi tomoniga olib o'tadilar. Ammo qo'zichoqlar qancha zorilab ma'ramasin, onalari qimir etmay turaveradi. Bunday xunobgarchilik ba'zan bir oyga cho'ziladi, bechora mol jallob o'zining bu bebosh armiyasini nima qilishni bilmay boshi qotadi. Axir bir kun podaning bir qismi hech qanday sababsiz, o'zidan o'zi daryodan kechib o'ta boshlaydi, shunda yana bir qiyinchilik tug'iladi – mollarning suvga betartib tushuviga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki ular suvga g'uj bo'lib tushadi-da, girdobga duch kelib, ko'pchiligi cho'kib ketadi.

Sem Mitchel sayohatchilarimizga ana shularni so'zlab berdi. Sayohatchilar uning hikoyasini eshitib o'tirganlarida, podaning yarmidan ortig'i ular oldidan

tartib bilan o'tib ketdi, shuning uchun mol jallob yaxshi o'tloqlarni tanlab yo'l boshlash uchun poda oldiga tushishga shoshilib, o'rnidan turdi. U Glenarvan va uning hamrohlari bilan xayrlashdi. Hammalari uning qo'lini mahkam qisib xayrlashdilar. Keyin u podachilaridan biri jilovidan ushlab turgan ajoyib to'riq otga mindi-da, dam o'tmay chang-to'zon orasida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Arava yana yo'lga tushdi va kechqurun, Talbot tog'ining etagiga yetgandan keyingina to'xtadi. Bu yerda Paganel sayohatchilarga bugun 25-dekabr – ingliz oilalarida juda qadrlanadigan Rojdestvo bayrami kuni deb juda o'rinli eslatdi. Lekin buni mister Olbinet ham yodidan chiqarmagan ekan: palatkada juda mazali ovqatlar tortildi. Haqiqatan ham, mister Olbinet o'zini ko'rsatdi: u aravada bor oziq-ovqat zaxirasidan Avstraliya qirlarida pishirish doim ham nasib bo'lavermaydigan bir necha xil yevropacha taom tayyorlagan edi. Bu ajoyib ziyofatda kiyik go'shtidan pishirilgan vetchina, tuzlangan yaxna go'sht, dimlangan **semga** balig'i, arpa va suhi unidan pishirilgan pirog tortildi, choy istaganingizcha bor, dasturxoniga juda ko'p viski va bir necha shisha portveyn qo'yildi. Sayohatchilar o'zlarini Shotlandiya tog'lari orasidagi Malkolm-Kestl qasrida deb his qilsalar arzirdi.

Haqiqatan ham, bu ziyofatda zanjabil sho'rvasidan tortib, ovqatdan keyin yeyiladigan pecheniygacha bor edi. Paganel nariroqdagi bir tepa yonbag'rida o'sib yotgan yovvoyi apelsin daraxtining mevasidan uzib kelib, ziyofat dasturxoniga qo'shdi. Lekin e'tirof etish kerakki, bu apelsinlar ancha bemaza ekan, chaqib yeyilgan urug'lari esa qalampir singari og'izni lovullatib yubordi. Geografiya olimiga kelsak, ilmiy nuqtayi nazardan bo'lsa kerak, apelsindan juda ko'p yeb, tanglayi shilini ketdi-da, mayorning Avstraliya qirlarining xususiyati to'g'risidagi bir qator savollariga javob berolmadi.

Ertasiga 26-dekabr kuni hikoya qilib berarli biror hodisa yuz bermadi. Yo'lda Norton daryosining shoxobchalari uchradi, kechroq esa yarim qurigan Mekenzi daryosidan o'tdilar. Havo juda yaxshi, kun ham unchalik issiq emas. Janubdan salqin shamol esib turardi. Shimoliy yarim sharda shimoliy shamol shunday salqin bo'lsa, bu yerda janubiy shamol shunday

salqin bo'ladi. Paganel o'zining yosh do'sti Robertning diqqatini shunga jalb qildi.

– Bu biz uchun qulay, – deb qo'shimcha qildi u, – chunki o'rtacha olganda Shimoliy yarim sharga nisbatan Janubiy yarim shar ancha issiq bo'ladi.

– Nima uchun? – deb so'radi bola.

– Nima uchun deysanmi, Robert? Yer qishda Quyoshga yaqin bo'lishini hech eshitmaganmisan?

– Eshitganman, janob Paganel.

– Qishda Quyoshning nuri yozdagidek tik tushmagani uchun sovuq bo'lishini ham eshitganmisan?

– Ha, eshitganman, janob Paganel.

– Xuddi ana shu sababga binoan, o'g'lim, Janubiy yarim sharda kun ancha issiq bo'ladi.

– Tushunmadim, – dedi Robert, hayron bo'lib.

– O'zing o'ylab ko'r, – deb davom etdi Paganel. – Bizning Yevropada qish bo'lgan vaqtda, antipodimiz bo'lgan Avstraliyada yilning qaysi fasli bo'ladi?

– Yoz bo'ladi, – dedi Robert.

– Xo'p, demak, xuddi shu vaqtda Yer Quyoshga yaqin turgan bo'lsa... Tushundingmi?

– Tushundim.

– Demak, ana shu Quyoshga yaqin bo'lgani uchun ham Janubiy yarim sharda yoz Shimoliy yarim shardagiga qaraganda issiqroq bo'lar ekan.

– Endi hammasiga tushundim, janob Paganel.

– Demak, Yer qishda Quyoshga yaqin bo'ladi deyilganda, bu gap faqat bizga, Yer sharining shimoliy qismida yashovchi odamlarga nisbatan aytilgan bo'ladi.

– Bunisini sira xayolimga keltirmabman, – dedi Robert.

– Ehtiyot bo'l, bu esingdan chiqmasin, o'g'lim.

Kosmografiyaga oid bu kichkinagina leksiyaning Robert qiziqib tingladi, bu leksiya qo'shimcha ravishda bola Viktoriya viloyatida harorat o'rtacha olganda Farengeyt bo'yicha +74₀ [Selsiy bo'yicha +23,33] bo'lishini ham bilib oldi.

Kechqurun otryad Lonsdel ko'lidan besh mil narida, shimol tarafda Dramond tog'i, janubda Drayden tog'ining juda ham baland bo'lmagan cho'qqisi qad ko'targan yerda tunash uchun to'xtadi.

Ertasiga ertalab soat o'n birlarda arava bir yuz qirq uchinchi meridiandan oqib o'tadigan Vimmera daryosining sohiliga yetib keldi.

Kengligi yarim milcha keladigan zilol suvli bu daryo baland akas daraxtlari bilan yelim daraxtlari orasidan oqib o'tadi. Daraxtlar orasida, u yer-bu yerda majnun-to'lniki singari egilgan uzun-uzun shoxlarida qizil gullari ochilib yotgan ajoyib mirtalar ko'zga tashlanadi. Javroqi to'tiqushlarni hisoblamaganda ham, juda ko'p qushlar – zarg'aldoqlar, qizilto'shlar, oltin qanot kap-tarlar shoxdan shoxga sakrab yuradilar. Pastda, suvda ikkita hurkak qora oqqush suzib yuribdi. Biroq ko'p o'tmay Avstraliyaning bu nodir qushlari g'oyat go'zal bu vodiyni sug'orib o'tadigan Vimmera daryosining bu-ri-lishida ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Bu orada arava tezoqar suv yuziga egilib, gilam bo'lib o'sib yotgan o'tlar ustida to'xtadi. Na ko'prik, na parom bor. Lekin daryodan o'tish zarur. Ayrton biror sayoz joy axtara boshladi. Chorak mil yuqorida dar-yo ancha sayoz ko'rindi, u shu yerdan narigi sohilga o'tishning iloji bo'lar deb mo'ljalladi. Bir necha joyda suvning chuqurligini o'lchab ko'rgan edi, bu yerning chuqurligi uch futdan oshmasligi ma'lum bo'ldi. De-mak, arava bu sayoz yerdan qo'rqmay o'tsa bo'lardi.

– Narigi sohilga o'tishning boshqa biror iloji yo'q-mi? – deb so'radi Glenarvan botsmandan.

– Boshqa iloji yo'q, ser, – deb javob berdi Ayrton, – lekin, menimcha, bu yerdan o'tishning hech qanday xavfli yeri yo'q. Bir amallab o'tib olamiz.

– Xotinim bilan miss Grant aravadan tushishlari kerakmi?

– Aslo. Ho'kizlarim baquvvat, men ham ularni ke-rakli joydan haydab borishga harakat qilaman.

– Bo'lmasa jo'nayvering, Ayrton, – dedi Glenarvan. – Sizga ishonдим.

Otliqlar og'ir aravani o'rab oldilar, otryad dadillik bilan daryoga tushdi. Odatda aravalar daryolardan kechib o'tayotganda, cho'kib ketmasligi uchun atrofla-riga bo'sh bochka bog'lab qo'yadilar, lekin hozir sayo-hatchilarda bochka yo'q, shuning uchun ho'kizlarning hissi bilan aravakashning ehtiyotkorligiga ishonishdan boshqa iloj qolmadi. Ayrton aravaning oldidagi o'z jo-yida o'tirib, ho'kizlarni boshqarardi; mayor bilan ik-

kala matros tezoqar daryo suvini kesib, aravadan bir necha sajen oldinda borar edilar. Glenarvan bilan Jon Mangls zarur bo'lib qolgan paytda sayohatchi ayollarga darhol yordam berishga tayyor holda aravaning ikki tarafida bordilar. Paganel bilan Robert karvonning oxirida kelardilar.

Vimmeraning o'rtasiga yetguncha ish yaxshi bordi. Lekin o'rtaga kelganda suv chuqurlashib, g'ildiraklarni ko'mib yubordi. Oqim ho'kizlarni chuqur yerga oqizib ketdi, ular o'zlarini o'nglay olmay, qalqib turgan aravani ham tortib ketishlari mumkin edi. Ayrton o'zini shartta suvga otdi-da, ho'kizlarning shoxidan tortib, past yerga qaytib chiqishga majbur qildi.

Xuddi shu payt arava allanarsaga kelib urildi, qar-sillagan ovoz eshitildi-da, arava bir tomonga qiyshayib ketdi. Sayohatchi ayollarning oyog'igacha suv chiqdi. Glenarvan bilan Jon Mangls aravaning taxtalariga yopishib, uni to'g'rilashga har qancha urinmasin aravani ham, ho'kizlarni ham suv oqizib keta boshladi. Ahvol juda tang bo'lib qoldi.

Baxtdan bo'lib shu payt ho'kizlar shaxt bilan olg'a intildi-da, aravani tortib ketdi. Suv sayozlasha bordi, ko'p o'tmay ho'kizlar ham, shalabbo bo'lib ketgan, lekin xursand sayohatchilar ham eson-omon daryoning narigi sohiliga chiqib oldilar.

Lekin aravaning oldingi o'qi sinib, Glenarvan minib kelayotgan otning esa oldingi oyog'idagi taqasi tushib qolgandi.

Bu chatoqlarni iloji boricha tez tuzatish kerak edi. Sayohatchilar nima qilishni bilmay, xijolat tortishib, bir-birlariga qarardilar. Ayrton yigirma milcha shimoldagi Bley-Poynt degan manzilga borib, temirchi olib kelishni taklif qildi.

- Boring, albatta boring, aziz Ayrton, - dedi Glenarvan. - Qanchada borib kelasiz?

- Uzog'i bilan o'n besh soatda, - deb javob berdi Ayrton.

- Bo'lmasa, darrov yo'lga tushing. Biz esa Vimmera daryosi bo'yida manzil qurib, sizni kutib turamiz.

Bir necha minutdan so'ng Vilsonning otini minib olgan botsman qalin o'sgan mimozalarning orqasida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

O' n b i r i n c h i b o b

BYORK VA STYUART

Kunning qolgan qismi suhbat va sayr-tomosha bilan o'tdi. Sayohatchilar atrofning go'zalligidan zavqlanib, suhbatlasha-suhbatlasha Vimmera bo'yida aylanib yurdilar. Kulrang turnalar va ibislar xirillagan tovush chiqarib, hurkib uchishar, atlasqush yovvoyi anjir daraxtining uchida panoh izlardi, zarg'aldoqlar va qorashaqshaqlar gulsafsarga o'xshagan chiroyli o'simliklarning shoxidan shoxiga sakrab yurardilar, ko'ktarg'oqlar esa baliq tutishni to'xtatib, qochib ketardilar. Faqat ancha madaniy qush hisoblangan, pati kamalakning barcha rangida tovlangan *bluemountain* to'tilari, lolarang boshli, sariqto'sh mitti roshillar va qizg'ish-moviy patli lorilar guli chaman bo'lib yotgan yelim daraxtlarining shoxlarida tinmay bidirlab sayrardi.

Sayohatchilarimiz goh sharqirab oqib yotgan ariq bo'yidagi o't ustiga o'tirib, goh mimoza chakalaklari orasida kezishib, quyosh botguncha tabiatning go'zal manzaralarini tomosha qildilar. Qisqagina g'irashiradan keyin darhol qorong'u tushdi, sayohatchilar lagerdan yarim mil narida edilar. Ular Janubiy yarim sharda bo'lganlari uchun Qutb yulduziga qarab emas, balki ufqda porlab turgan Janubiy Krest yulduziga qarab lagerga yo'l oldilar. Mister Olbinet chodirga dasturxon yozib, ovqatni taxt qilib qo'ygan ekan. Hamma ovqat yegani o'tirdi. Vilson epchillik bilan otib kelgan va oshpaz boplab qovurgan to'tiqush ragusi hammaga ma'qul tushdi.

Ovqatdan keyin shunday go'zal tunda darrov uyquga yota qolmaslik uchun hamma ham bir bahona axtara boshladi. Elen hammaning ko'nglidagi gapni topib, Paganeldan Avstraliyani tekshirgan sayohatchilar to'g'risida so'zlab berishni iltimos qildi, geografiya olimi buni allaqachon va'da qilib qo'ygan ham edi.

Paganel qistatmadi. Tinglovchilar ajoyib banksiya ostiga joylashib o'tirdilar, ko'p o'tmay daraxt barglari tunning qora quchog'iga kirib ketgan yergacha sigara tutunlari bilan qoplendi. Geografiya olimi mislsiz darajada kuchli xotirasiga tayanib, hikoyasini boshladi.

- Do'stlarim, men «Dunkan»da sanab bergan sayohatchilarning ismlari yodingizdadir, mayor ham unutmagan bo'lsa kerak. Avstraliyaning markaziga yetib bormoqchi bo'lgan sayyohlardan faqat to'rttasi qit'ani janubdan shimolga, yoki shimoldan janubga kesib o'tishga muvassar bo'lgan. Byork buni 1860- va 1861-yillarda amalga oshirdi, 1861- va 1862-yillarda Mak-Kinley, 1862-yilda Lensboro bunga muvassar bo'ldilar. Styuart ham 1862-yilda qit'ani kesib o'tdi. Mak-Kinley bilan Lensboro to'g'risida men yo'lakay aytib o'taman. Mak-Kinley Adelaida shahridan chiqib, Karpentariya ko'rfazigacha yetib bordi, Lensboro esa Karpentariya ko'rfazidan Melburnga kesib o'tdi. Ularning ikkalasi ham Avstraliya tashkilotlari tomonidan Byorkni axtarib topish uchun yuborilgan edilar; Byork sayohatdan qaytib kelmadi, qaytib kelish nasib bo'lmadi ham.

Men hozir sizlarga ortiqcha kirish so'zisiz Avstraliyani tekshirgan ikki sayyoh - Byork bilan Styuart to'g'risida so'zlab beraman.

1860-yil yigirmanchi avgustda Melburn geografiya jamiyati sobiq irland ofitseri Robert O'Gara Byork boshchiligida ekspeditsiya jo'natdi. Uni o'n bir kishi: yosh astronomiya olimi Vilyam Jon Uils, atoqli yosh astronom, doktor Bekler, botanik Grey, hind armiyasining yosh harbiy xizmatchisi King, so'ngra Landels, Brage va bir necha sipoh¹ kuzatib bordilar. Sayohatchilarni ularning yuki va o'n sakkiz oyga yetadigan oziq-ovqatini yigirma besh ot va yigirma besh tuya olib borardi.

Ekspeditsiya qit'aning shimoliy sohiliga, Karpentariya ko'rfaziga qarab yo'l oldi, lekin yo'lda u Kuper daryosi bo'ylarini tekshirib o'tishi kerak edi. Ekspeditsiya Myorrey va Darling daryolarini hech qanday qiyinchiliksiz kechib o'tib, koloniyalar chegarasidagi Menindis manziliga yetdi. Shu yerga yetganda ular bunchalik ko'p yukni olib yurish juda qiyin degan qarorga keldilar. Mana shu hol va Byorkning biroz dag'al xarakteri otryadda kelishmovchiliklar tug'ilishiga sabab bo'ldi. Ish shungacha borib yetdiki, tuyalar karvonining boshlig'i Landels ekspeditsiyadan ajrab, bir

¹ Sipohlar - ingliz-hind armiyasining mahalliy aholidan olingan yollanma askarlari.

necha tuyakash hindu bilan Darling daryosining sohiliga qaytib ketdi. Byork yo'lida davom etdi. U goh ser-suv o'tloqlarda, goh suvsiz, quruq toshloq yo'llardan o'tib, Kupera daryosining bo'yiga tushib keldi. Byork uch oy yo'l yurgandan keyin, yigirmanchi noyabrda ana shu daryo bo'yida o'zining birinchi oziq-ovqat skladini tashkil qildi.

Sayyohlar shu yerda ancha turib qoldilar, chunki ular bu yerdan shimolga qarab boradigan suvli yo'l topolmadilar. Ular ko'p mashaqqatlar tortib, Meiburn bilan Karpentariya ko'rfazi o'rtasidagi punktga yetib bordilar. Ular shu yerni qo'rg'on solishga qulay joy deb topib, atrofiga devor qurdilar va unga «Uils forti» deb nom berdilar. Shu yerda Byork o'z otryadini ikki qismga bo'ldi. Brage boshchiligidagi bir otryad yangi qurilgan qo'rg'onda uch oy, agar oziq-ovqat yetsa, undan ham ko'proq turishi va ikkinchi otryadning qaytishini kutishi lozim edi. Ikkinchi otryadga Byorkning o'zi, King, Grey va Uils kirdilar. Ular oltita tuya va uch oyga yetarli oziq-ovqat, uch yuz qadoq un, ellik qadoq guruch, ellik qadoq sulini, yuz qadoq yaxna ot go'shti, yuz qadoq tuzlangan cho'chqa go'shti bilan cho'chqa yog'i, shuningdek, o'ttiz qadoq suxari olib ketdilar. Bu oziqa olti yuz le joyga borib kelishga yetishi kerak edi.

Shunday qilib, ana shu to'rt kishi yo'lga tushdilar. Zo'r mashaqqatlarni boshdan kechirgandan keyin ular toshloq qirni kesib o'tib, 1845-yilda Styuart kelgan Eyr daryosiga yetib bordilar. Bu yerdan ular iloji bo'lganicha bir yuz qirqinchi meridian yaqinidan borishga tirishib shimolga qarab yurdilar.

Yettinchi yanvarda ular jazirama issiqda tropikdan o'tdilar. Ba'zida ularni sarob aldadi; suvsizlikdan juda qiynaldilar, to'g'ri, har zamonda bir momaqaldiroq bilan yog'ib o'tgan yomg'irlar ularni suv bilan ta'minlar edi. Goh-gohda ular yerli ko'chmanchilarni uchratar, ular esa sayyohlarni xursandlik bilan qarshi olardi. Umuman olganda, sayohatchilarimiz yo'lida uncha qiynalmadilar, chunki yo'llarini na ko'llar, na katta dar-yolar, na tog'lar to'sib chiqmadi.

O'n ikkinchi yanvarda shimol tarafda bir necha qumtepa ko'rindi, ular orasida Forbs tog'i deb atalgani ham bor edi, bu tepalardan so'ng birin-ketin tizilgan granit tog'lar boshlandi. Shu yerga yetganda

yoʻl yurish juda qiyin boʻlib qoldi: ot va tuyalar zoʻrgʻa sudralib borar, baʼzan butunlay toʻxtab turib olardi. «Biz hali ham togʻ tizmalari orasidamiz. Tuyalarimiz qoʻrquvdan dagʻ-dagʻ titraydi», deb yozgan edi Byork yoʻl daftarchasiga. Har holda qattiq gʻayrat qilish natijasida sayohatchilar oldin Turner daryosining boʻyiga, keyin 1841-yilda Shtok koʻrgan Flinders daryosining yuqori oqimiga yetib bordilar. Flinders daryosi palma va evkalipt changallari orasidan oqib oʻtib, Karpentariya qoʻltigʻiga borib quyiladi.

Bu yerda botqoqlik koʻpligidan okeanning yaqinligi sezilib turar edi. Tuyalardan biri botqoqqa botib ketdi, boshqalari nari yurmay qoʻydi. King bilan Grey tuyalar yonida qolishga majbur boʻldilar. Byork bilan Uils ikkalasi shimolga qarab boravordilar, Byorkning yoʻl daftarchasida nari-beri eslatib oʻtilgan xotiralarga qaragʻanda, ular ming mashaqqatlar bilan dengiz suvi koʻtarilganda suv bosadigan botqoqlik yerlargacha yetib boradilar. Lekin ular baribir okeanni koʻrolmadilar. Bu 1861-yil oʻn birinchi fevralda boʻlgan.

– Demak, undan nariga borolmabdilar-da? – deb soʻradi Elen.

– Yoʻq, xonim, – deb javob berdi Paganel. – Botqoqlikdan boshqa yurishning iloji qolmaydi, shuning uchun ularning Uils fortida qolgan sheriklari oldiga qaytishdan boshqa choralari yoʻq edi. Bechoralarning holi haqiqatan ham achinarli boʻlgan. Ular holdan toʻyib, ozib-toʻzib, oyoqlarini zoʻrgʻa sudrab, Grey bilan King yoniga yetib keladilar. Ekspeditsiya bu yerdan avval oʻzi kelgan yoʻl orqali Kupera daryosi boʻyiga qaytadi. Bu sayohatning barcha mashaqqatlari, azoblari, xavf-xatarlari bizga maʼlum emas, chunki yoʻl daftarchasida bu toʻgʻrida maʼlumot yoʻq, lekin uning gʻoyat qiyin boʻlgani shubhasiz.

Aprel oyida Kupera vodiysiga ulardan faqat uchasi qaytib keladi. Grey yoʻl azoblariga chiday olmay vafot qiladi. Toʻrtta tuya ham halok boʻladi. Lekin sayyohlar Brage oʻzining oziq-ovqat ombori bilan ularni kutib turgan Uils fortigacha yetib kela olganlarida hammasi ham omon qolgan boʻlardilar.

Ular butun kuch-quvvatlarini yigʻib, yana bir necha kun yoʻl yuradilar. Nihoyat, yigirma birinchi aprelda fort devorlari koʻrinadi. Ular qoʻrgʻonga kirib keladilar –

lekin ko'rgulikni qarangi, ularni besh oygacha rosa kutib, nihoyat, umidini uzgan Brage xuddi o'sha kuni Uils fortidan jo'nab ketgan ekan.

– Ketib qolibdimi? – deb yubordi Robert.

– Ha, shum taqdirning o'yini bilan ketib qolgan ekan... Bragening tashlab ketgan xatiga qaraganda, u bularning qo'rg'onga kirib kelishidan nihoyati yetti soat oldin yo'lga chiqqan ekan. Uni quvib yetish to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. O'z holliga tashlab ketilgan bechora sayyohlar omborda qoldirilgan oziq bilan tirikchilik qilib, biroz kuch yig'adilar. Lekin yo'lga tushish uchun minadigan narsalari yo'q edi. Darling daryosiga yetib borish uchun esa rosa bir yuz ellik le yo'l yurish kerak edi.

Shunda Byorkning miyasida Uils fortidan oltmish le joydagi Gopeles tog'ining etaklariga joylashgan avstraliyalik kolonistlarning manziliga borish fikri tug'iladi. Uilsning bu rejaga qarshi chiqishiga qaramay, uchala sayyoh o'sha tomonga yo'l oladilar. Kupera daryosining sero't tarmoqlaridan birini kechib o'tish vaqtida qolgan ikkita tuyadan biri suvga cho'kib ketadi, ikkinchisining esa bir qadam bosishga ham madori qolmaydi; uni so'yib, go'shtini ovqat qilishga majbur bo'ladilar. Ko'p o'tmay butun oziqalari tugaydi. Bechoralarning uchalasi ham yeb bo'ladigan suv o'tlari – nardu bilan jon asraydilar. Ammo Kupera daryosidan nari ketolmaydilar, chunki bu atrofda daryodan boshqa yerda suv yo'q, suvni olib ketish uchun esa ularning hech qanday idishi bo'lmaydi. Ular tunab yurgan chayla yonib ketadi, chayla bilan ularning barcha narsalari ham o't ichida qoladi. Ular halokatga mahkum etilgan edilar. Endi faqat o'lishgina qoladi.

Byork Kingni yoniga chaqirib: «Mening bir necha soatlik umrim qoldi. Mana bu soatim bilan kundaligim. O'lganimdan keyin o'ng qo'limga to'pponcha ushlatib qo'yinglar, lekin ko'mmanglar» deydi. Bu Byorkning oxirgi so'zlari edi. Ertasiga ertalab soat sakkizda u vafot etadi. Esini yo'qotib qo'ygan King yerliklarning qabilalarini axtarish uchun yuguradi. Qaytib kelib, Uilsni ham o'lik holda topadi. Kingning o'zi mahalliy qabilalar manzilida jon saqlaydi. Lensboro va Mak-Kinley ekspeditsiyalari bilan bir vaqtda Byorkni axtarish uchun yuborilgan Govit ekspeditsiyasi Kingni sentabr oyi-

da xuddi shu yerdan topadi. Shunday qilib, Avstraliya qit'asini kesib o'tishni mo'ljallagan to'rtta sayyohdan faqat bittasi omon qoladi...

Paganelning hikoyasi hamsuhbatlarining hammasida ham og'ir taassurot qoldirdi. Hamma ham Byork bilan uning hamrohlari singari bu badbaxt qit'ani kezib yurgan bo'lishi ehtimol bo'lgan kapitan Grant to'g'risida o'ylar edi. Bu mard sayyohlarning boshiga kelgan kunlar ularning ham boshiga tushmadimikan? Shunday fikr miyaga kelishi juda tabiiy edi, shuning uchun Meri Grantning ko'zlarida yosh ko'rindi.

– Bechora otam, bechora otaginam! – deb pichirladi qiz.

– Miss Meri, miss Meri! – dedi Jon Mangls. – Bunday balolarga duchor bo'lish uchun qit'aning ichkarisiga kirish kerak, kapitan Grant esa King singari yovvoyilar qo'liga tushgan, u ham xuddi King singari xalos etiladi. Sizning otangiz hech vaqt bundayin qiyinchiliklar ko'rmaydi.

– Mutlaqo, – deb uning so'zini quvvatladi Paganel. – Aziz miss Meri, men sizga avstraliyaliklar mehmondo'st odamlar ekanini yana bir marta eslatib o'taman.

– Koshki edi shunday bo'lsa! – dedi qiz.

– Xo'sh, Styuart-chi? – deb so'radi Glenarvan, hamrohlarini bu g'amgin fikrlardan xalos etish uchun.

– Styuartmi? – deb qayta so'radi geografiya olimi. O, uning omadi keladi! Jon Mak-Dual-Styuart Avstraliyada 1848-yildayoq sayohat qila boshlagan edi, u o'sha vaqtda o'zining familiyadoshi bo'lgan bir sayyoh bilan Adelaida shahrining shimol tomonida cho'zilib yotgan cho'lga sayohat qiladi. 1860-yilda Styuart ikki kishi kuzatuvida yo'lga chiqib, Avstraliyaning ichkarisiga o'tish uchun urinadi, lekin harakati zoye ketadi. Ammo u muvaffaqiyatsizlik oldida fikridan qaytadigan odamlardan emas edi. 1861-yilning birinchi yanvarida u o'n bitta jasur yordamchisi bilan Chambers daryosi bo'yidan yo'lga chiqadi-da, Karpentariya burunidan nihoyati oltmish le joyga borib to'xtaydi. Har holda, Styuart bu xatarli qit'ani kesib o'tishga muassar bo'lolmaydi, oziq-ovqat yetishmay qolgani uchun u Adelaidaga qaytishga majbur bo'ladi.

Shunga qaramay Styuart yana bir marta baxtini sinab ko'rmoqchi bo'ladi va uchinchi marta ekspeditsiya

uyushtiradi. Bu safar u ko'pdan beri orzu qilib yurgan maqsadiga erishadi.

Janubiy Avstraliya parlamenti uning yangi ekspeditsiya uyushtirishga bo'lgan bu intilishini quvvatlab, Styuartga ikki ming funt sterling pul ajratishga qaror qiladi. Tekshirish ishlarida ancha tajriba orttirgan Styuart endi butun ehtiyot choralarini ko'radi. Uning do'stlari – tabiatshunos Uotergouz, Fring, Kekuik, shuningdek, oldingi sayohatdagi hamrohlari Vudferd, Old va boshqalar, hammasi bo'lib o'n kishi unga qo'shiladilar. U o'zi bilan amirkon teridan qilingan, ichiga yetti gallon suv sig'adigan yigirmata mesh oladi, 1862-yilning beshinchi aprelida ekspeditsiyaning barcha a'zolari o'n sakkizinchi gradus kenglikning nariyog'ida Nyukastl-Uoter havzasiga yetib keladilar; Styuart xuddi shu yerga kelganda nari borolmay, orqaga qaytgan edi. Ekspeditsiyaning bundan keyingi yo'li taxminan bir yuz o'ttiz birinchi meridian bo'ylab boradi, ya'ni Byork o'tgan yo'ldan bir necha gradus g'arbroqdan o'tadi.

Yangi tekshirish ishlarining bazasi vazifasini Nyukastl-Uoter havzasi bajarishi kerak edi. Styuart bu havzani o'rab yotgan qalin o'rmonlar orasidan shimol va shimoli sharq tarafga o'tishga zo'r berib urinadi, lekin mehnati bekor ketadi. G'arb tarafdin Viktoriya daryosiga ham yetib borolmaydi, o'tib bo'lmas changalzorlar uning yo'lini to'sadi. Shundan keyin Styuart o'z lagerini boshqa yerga ko'chiradi, u yangi manzilini sal shimolroqda, Govero botqoqliklari orasiga qurishga muvaffaq bo'ladi. Bu yerdan sharqqa qarab borib, o't bosib yotgan tekis daladan iborat bo'lgan yo'lida u Deyli soyidan chiqadi-da, soy oqimi bo'ylab taxminan o'ttiz mil yuqoriga yuradi.

Oldinda ajoyib manzara ochiladi: barra o'tlar o'sib yotgan o'tloqlar har qanday skvatterning havasini keltirar, uni boyitib yubora olar edi; evkaliptlar hayron qolarli darajada baland o'sgan. Bundan xursand bo'lgan Styuart yo'lida davom etadi. U Stanguyey daryosi bo'yiga va uning Leyxardt ochgan Roper-Krik degan irmog'i bo'yiga yetib keladi. Bu daryo tropik mamlakatlarda o'sadigan ajoyib palma daraxtlari orasidan oqib o'tadi. Bu yerlarda mahalliy qabilalar yashar edilar. Ular sayyohlarni xursandlik bilan qarshi oladilar.

Ekspeditsiya bu yerdan qum va temirsimon tog' jinslari bilan qoplangan daladan Van-Dimena ko'rfaziga borib quyiladigan Adelaida daryosining manbalarini axtarib topish uchun yo'lga chiqadi. Ekspeditsiyaning yo'li yovvoyi karam, bambuq, qarag'ay va pandanuslar o'sib yotgan dalalar orqali o'tadi. Adelaida daryosi borgan sari kengayib, sohillari esa botqoqlikka aylana boradi. Dengizning yaqinligi sezila boshlaydi.

Yigirma ikkinchi iyul seshanba kuni Styuart Frish-Uoter botqoqliklari orasida to'xtab, manzil quradi. Sonsiz-sanoqsiz ariq va soylar uning yo'lini qiyinlashtirib yuboradi, shuning uchun u hamrohlaridan uch kishini yaxshiroq yo'l topish uchun oldinga yuboradi. Ertasiga Styuart goh o'tib bo'lmas suv to'siqlarini aylanib o'tib, goh botqoq suvlarida shalabbo bo'lib, ko'm-ko'k o'tlar o'sib yotgan biroz balandroq yerlarga yetib oladi. U yer-bu yerda yelim daraxtlarining va allaqanday po'stlog'i tolali daraxtlarning chakalaklari ko'zga tashlanar edi. Ibislar, g'ozlar va allaqanday juda hurkak suv qushlari gala-gala bo'lib uchib yurardilar. Yaqin orada yerliklar ko'rinmasdi, faqat uzoquzoqlardagina ularning manilidan ko'tarilayotgan tutun ko'zga chalinardi.

Adelaidadan chiqqaniga to'qqiz oy deganda, yigirma to'rtinchi iyul kuni Styuart xuddi o'sha kuniyoq okean bo'yiga yetib chiqishni maqsad qilib, ertalab soat sakkiz-u yigirma minutda yo'lga chiqadi. U o'tib borayotgan yerlar past-balandliklardan iborat bo'lib, atrof temir rudalar va vulqon paydo qilgan allaqanday tog' jinslari bilan qoplangan edi. Daraxtlar pastak-pastak bo'la boradi. Sayohatchilar oldida qum o'tirib qolgan va u yer-bu yerda yakkam-dukkan daraxtlar ko'rinib turgan keng vodiy ochiladi. Styuart qirg'oqqa kelib urilayotgan dengiz to'lqinlarining shovqinini aniq eshitadi, lekin hamrohlariga hech narsa demaydi. Ular bir chakalak orasiga kelib kiradilar. Styuart bir necha qadam tashlaydi-yu, Hind okeani bo'yidan chiqib qoladi.

«Dengiz! Dengiz!» deb qichqiradi hayron qolgan Fring.

Ekspeditsiyaning boshqa qatnashchilari ham yugurib keladilar va Hind okeanini uch marta «ura» qichqiriqlari bilan olqishlaydilar.

Avstraliya qit'asi to'rtinchi marta kesib o'tilgan edi.

Soy bo'yida manzil quradilar. Ertasiga Fring janubi g'arb tarafdin Adelaida daryosining dengizga quyiladigan joyiga borib bo'ladimi-yo'qmi – aniqlash uchun razvedkaga jo'naydi. U yerga boradigan yo'l otlar yurolmaydigan darajada botqoqlik ekan, shuning uchun bu maqsaddan voz kechishga to'g'ri keladi.

Shunda Styuart daladagi eng baland daraxt ustiga chiqadi, uning pastki shoxlarini kesib tashlaydiyu, uchiga bayroq o'rnatadi. Daraxtning po'stlog'ini o'yib: «Bir fut janubroqdan, yer ostidan izla» deb yozib qo'yadilar.

Agar biror sayyoh qachondir o'sha ko'rsatilgan yerni kovlab ko'rsa, undan bitta tunuka quti topadi, qutida esa har bir so'zi mening miyamga singib ketgan quyidagi hujjat bor:

BUYUK TEKSHIRISH ISHI, AVSTRALIYA QIT'ASINING JANUBDAN SHIMOLGA QARAB KESIB O'TILISHI.

Jon Mak-Dual-Styuart boshchiligidagi sayyohlar bu yerga 1862-yil yigirma beshinchi iyulda yetib keldilar. Undan oldin ular Janubiy dengizdan to Hind okean sohiligacha, Avstraliya qit'asining o'rtasidan kesib o'tdilar. Ular Adelaida shahridan 1861-yilning yigirma oltinchi oktabrida, shahardan shimolda joylashgan ingliz koloniyalarining eng oxirgi punktidan esa 1862-yilning birinchi yanvarida yo'lga chiqdilar. Bu baxtli hodisaning sharafiga ular bu yerda ekspeditsiya boshlig'ining ismi yozilgan bayroq tikladilar. Hamma ishlar joyida.

Bu yozuv tagiga Styuart va uning hamrohlari imzo qo'yanlar. Shuhrati butun dunyoga yoyilgan bu katta voqea ana shu tarzda nishonlandi.

– Ular o'zlarining janubdagi do'stlari bilan ko'risha oldilarmi? – deb so'radi Elen.

– Ha, – deb javob berdi Paganel, – hammasi ham janubga yetib keldi, lekin bu sayohat ularga juda qimmatga tushdi! Styuart hammadan ko'proq zahmat chekdi. Ular Adelaidaga yo'lga chiqqanda, Styuartning sog'lig'ini zangla kasali juda yemirib tashlagan edi. Sentabrning boshida uning kasali shunday zo'rayib ketadiki, Styuart odamlar yashaydigan yerlarni ko'rishdan umidini uzib qo'yadi; endi u egarda

o'zini eplab o'tirolmay qolgan bo'lib, ikki ot o'rtasiga o'rnatilgan zambilda yotib yo'l bosardi. Oktabrning oxirida u qon tupura boshlaydi, bu esa sayyohning tinkatinkasini qurutib yuboradi. Unga sho'rva pishirib berish uchun otlardan birini so'yishga majbur bo'ladilar. Yigirma sakkizinchi oktabrda Styuart sal bo'lmasa o'lib qolayozdi, lekin shundan keyin bemorning ahvoli tez yaxshilana boradi; o'ninchi dekabrda kichkina otryadning barcha a'zolari dastlabki manzilga yetib keladilar.

O'n yettinchi dekabrda Adelaida aholisi Styuartni kutib oladi. Lekin sayyohning sog'lig'i zaiflashib qolgan edi, shundan keyin ko'p o'tmay u Geografik jamiyatning mukofoti – katta oltin medalni olib, «Hind» kemasida o'z vatani Shotlandiyaga jo'nab ketadi.

– Styuartning vafotidan keyin sayyohlardan boshqa hech kim yangi kashfiyotlar ochishga urinmadimi? – deb so'radi Elen.

– Nega endi, – dedi Paganel, – men Leyxardt to'g'risida bir necha marta to'xtab o'tdim. Bu sayyoh 1844-yil-dayoq Avstraliyaning shimoliga ajoyib sayyohat uyushtirgan. 1848-yilda u ikkinchi marta ekspeditsiya tashkil qildi, bu safar u Avstraliyaning shimoli sharqiga yo'l oldi. Hozir mana o'n yetti yil bo'ldiki, undan domdarak yo'q. Bultur melburnlik botanik doktor Myuller Leyxardtni axtarib topish uchun ekspeditsiya tashkil qilish maqsadida pul to'play boshlaganini e'lon qildi. Eksperitsiyaga zarur pul tez to'plandi va 1864-yilning yigirma birinchi iyunida Mak-Intr boshchiligidagi skvatterlar otryadi Paraodan jo'nab ketdi. Hozir, men sizlarga bu ekspeditsiya to'g'risida so'zlab berayotganim bir vaqtda, ular qit'aning ancha ichkarisiga kirib ketgan bo'lsalar kerak. Leyxardtni axtarib topishga ketganlar muvaffaqiyat qozonsinlar, biz ham u ekspeditsiya singari ishimizni muvaffaqiyat bilan oxiriga yetkazaylik, qimmatli do'stlarimizni topaylik!

Geografiya olimi hikoyasini shu so'zlar bilan tugatdi. Vaqt juda kech bo'lib qolgan edi. Tinglovchilar Paganelga rahmatlar aytib tarqalishdi. Bir necha minutdan keyin hammalari rohat uyquga ketdilar. Faqat oq yelim daraxtining barglari orasiga yashirinib olgan soat qush bir me'yorda tiqirlab, bu osoyishta kechaning sekundlarini sanardi.

O' n i k k i n c h i b o b

MELBURNDAN SENDXORSTGA BORADIGAN TEMIRYO'L

Mayor Ayrtonning temirchi topib kelish uchun Blek-Poyntga ketganiga shubha bilan qaradi. Ammo, u o'zining sobiq botsmanga ishonmayotganini hech kimga aytmedi-yu, daryoning atrofini tekshirib chiqdi. Atrofdagi o'tloqlarning tinchligini hech narsa buzmas edi. Qisqagina tun o'tib, ufqda yana quyosh ko'rindi.

Glenarvan esa faqat bir narsadan: Ayrtonning yolg'iz o'zi qaytib kelmasa edi deb xavotirda edi. Aravani tuzatmasdan yo'lga tushib bo'lmaydi. Unda bu yerda bir necha kun qolib ketishga majbur bo'ladilar, kapitan Grantni tezroq topishga intilgan Glenarvan esa tezroq jo'nash payida edi.

Haytovur, Ayrtonning vaqti va mehnati zoye ketmabdi. U ertasiga ertalab bir kishini boshlab keldi, uning aytishicha, bu kishi Blek-Poynt manzilining temirchisi ekan. Temirchi baland bo'lyli, baquvvat, lekin aft-basharasi, qarashlari allaqanday sovuq, yoqimsiz yigit edi. Sirasini aytganda, buning ahamiyati yo'q, o'z hunarini bilsa bas-da. U ham juda kam gap ekan.

- Usta temirchimi, o'zi? - deb so'radi Jon Mangls, botsmandan.

- Men ham uni sizdan ortiq bilmayman, kapitan, - dedi Ayrton. - Ko'ramiz-da.

Temirchi ishga tushdi. Uning aravani tuzatishiga qaraganda, ishiga pishiq ekani ko'rinib turardi. U epchillik bilan, ortiqcha kuchanmay, bemalol ishlardi. Mayor temirchining bilagida qotib qolgan qon dog'lari borligini ko'rib qoldi. Bu uning yaqin orada yarador bo'lganini ko'rsatardi. Mak-Nabbs temirchidan qo'lingizdagi bu jarohat juda og'riyotgan bo'lsa kerak-a, qanday yarador bo'ldingiz, deb so'radi, lekin u mayorga lom-mim deb javob bermadi, balki indamay ishini qilaverdi.

Temirchi ikki soat ichida aravani tuzatib bo'ldi. U Glenarvanning otini birpasda taqalab qo'ydi, chunki o'zi bilan tayyor taqa olib kelgan ekan. Taqaning g'alati bir xususiyati bor ekanki, bu hol mayorning nazaridan qochmadi: taqaning tagiga qo'polgina qilib ishlangan

uch bargning shakli tushirilgan edi. Mak-Nabbs buni Ayrtonga ko'rsatdi.

– Bu Blek-Poynt manzilining tamg'asi, – deb izoh berdi botsman.

– U manzilda adashib ketib qolgan otlarni qidirib topishda, boshqa otlar bilan adashtirib yubormaslikda yordam beradi.

Glenarvanning otini taqalab bo'lgach, temirchi ish haqini oldi-da, shu-shu bir og'iz ham so'z aytmagani-cha, jo'nab ketdi.

Yarim soatdan keyin sayohatchilarimiz yana yo'lda borar edilar. Ikki chetda o'sib yotgan mimozalar nar-yoqida o'zining openpleyn, ya'ni «ochiq dala» degan no-miga juda mos tushadigan keng dala yastanib yotardi. Butalar, baland-baland o'sgan o'tlar orasida, ichida ko'plab mollar o'tlab yurgan to'siqlar orqasida u yer-bu yerda kvars parchalari va qotib yotgan temirsimon tog' jinslari ko'zga tashlanar edi. Bir necha mil yurilgandan keyin aravaning g'ildiragi nam tuproqqa chuqur botib keta boshladi. Bu yerlardagi baland-baland qamish-lar ostida yashirinib mayda-mayda ariqchalar shildirab oqib yotardi. Keyinroq qurib borayotgan sho'r suvli katta-katta ko'llarni aylanib o'tishga to'g'ri keldi. Sayohat hech qanday qiyinchiliksiz, odamlarni zeriktirmay o'tmoqda edi.

«Mehmonxonasi» juda kichkina bo'lganidan Elen Glenarvan chavandozlarni o'z xonasiga navbati bilan, bitta-bittadan taklif qilardi. Chavandozlar shu bahona bilan hadeb ot ustida yo'l bosishdan dam olar va Elendek ajoyib ayol bilan suhbatlashib vaqtni ko'ngilli o'tkazar edilar. Elen Meri bilan birga mehmonlarini juda ochiqko'ngillilik bilan qarshi olardi. Albatta, Jon Mangls ham qatordan qolmadi. Uning ancha jiddiy suhbatini sayohatchi ayollarni sira ham toliqtirmadi. Hatto, aksincha, ular yosh kapitanning suhbatiga qiziqib quloq berar edilar.

Shu tahlitda yo'l bosib, otryad Kraulend bilan Xorsgemni bog'lovchi yo'lni o'rtasidan kesib o'tdi, – bu yo'l juda chang bo'lganidan piyoda safarga chiqqan kishilar odatda undan yurmaslikka harakat qiladilar. Talbot okrugi chegarasiga yaqin qolganda sayohatchilar bir qator pastak-pastak tepalar yonidan o'tdilar, kechqurun esa ular Meriborodan uch milcha shimolroq-

da tunash uchun to'xtadilar: Yomg'ir shivalab turardi. Boshqa har qanday mamlakatda ham bunday yomg'ir yerni loy qilib yuborgan bo'lar edi, lekin bu yerda havo namni o'ziga juda singdirib yuboradi, shuning uchun lager yomg'irdan mutlaqo zarar ko'rmadi.

Ertasiga 29-dekabr kuni otryad odatdagidan ancha sekin yo'l bosdi, chunki yo'l miniatyuralarda tasvirlangan Shveysariyaga o'xshash baland-pastlik yerlardan o'tib bordi. Yo'l goh tepaga ko'tarilib, goh pastga tushib borar, bunda arava rosa taraqa-turuq qilib silkitib tashlar edi: shuning uchun sayohatchilar bir qism yo'lni piyoda bosib o'tdilar, bu esa ularga ancha qulay tushdi.

Soat o'n birda Karlsbruk degan kattagina shaharga yaqinlashib keldilar, Ayrton vaqtni ketkazmaslik uchun shaharga kirmay, uni aylanib o'tish kerak, degan fikr bildirdi. Glenarvan uning fikriga qo'shildi, lekin har narsani ham o'z ko'zi bilan ko'rishni istaydigan Paganel Karlsbrukni bir ko'rib o'tmoqchi bo'lib qoldi. Unga shaharni ko'rib o'tish uchun ruxsat berdilar, arava esa sekin-asta o'z yo'lida davom etaverdi.

Paganel, o'z odaticha, Robertni birga olib ketdi. Ular Karlsbrukda juda oz bo'ldilar, lekin Avstraliya shaharlari to'g'risida bir taassurot olib ketish uchun bizning olimga shuning o'zi ham kifoya edi. Karlsbrukda bank, sud, bozor, maktab, cherkov va bir-biriga juda o'xshab tushadigan yuztacha uy bor edi. Ularning hammasi inglizcha usulda, ya'ni to'g'ri to'rtburchakli qilib, bir-birini kesib o'tadigan parallel ko'chalarga qurilgan edi. Undan ham oddiy, ammo bundan ham zerikarli manzara bo'lmasa kerak. Shahar kattalashgan sari, ko'chalari o'sgan sari o'zi bilan birga ishtoni ham uzunlasha borgan bola singari uzaya borar, shuning uchun uning dastlabki simmetriyasi buzilmay qola berardi.

Karlsbrukda jonlanish katta edi – kechagina dunyoga kelgan shaharlar uchun bu oddiy hol. Avstraliya shaharlari ham daraxtlari kabi quyosh nuri ta'sirida o'sadigandek tuyulardi. Ko'chalar o'z ishi bilan chor atrofga yelib-yugurgan odamlarga to'la. Tillafurushlar transport kontoralari oldida g'lvullashib yurardilar. Qimmatbaho metall mahalliy politsiya nazorati ostida bu yerga Bendigo zavodlari va Aleksandr tog'idan kel-

tirilar edi. Boylik orttirish payiga tushgan bu kishilar hammasi o'z ishiga shunday sho'ng'ib ketgan edilarki, hatto oldilaridan o'tib borayotgan chet ellik kishilarni sezmadilar ham.

Paganel bilan Robert bir soat ichida shaharni aylanib chiqdilar-da, o'z hamrohlarini quvib yetish uchun yaxshilab ishlov berilgan ekin dalalari orasidan yo'lga tushdilar va ko'p o'tmay ularga yetib oldilar. Ekin maydonlaridan keyin keng o'tloqlar boshlandi, bu o'tloqlarda sonsiz-sanoqsiz qo'ylar o'tlab yurar, u yer-bu yerda podachilarning chaylalari qo'qqayib turardi. Keyin, Avstraliyada tez-tez bo'lib turganiday, birdan sayohatchilar oldida keng cho'l ochildi. Simpson adirlari va Toranguver tog'i Loddo okrugining bir yuz qirq to'rtinchi uzunlikdan o'tadigan chegarasining xuddi o'zida joylashgan.

Ekspeditsiya shu vaqtgacha o'z yo'lida bironta ham mahalliy yovvoyi qabila uchratmadi. Glenarvan, Argentina pampaslarida hindular uchramaganiday Avstraliyada ham avstraliyaliklarni uchratmaymiz shekilli, deb o'ylay boshladi. Lekin Paganel unga mahalliy yovvoyi qabilalar asosan yuz milcha sharqdan oqib o'tadigan Myorrey daryosi bo'ylarida ko'chib yuradilar deb izoh berdi.

– Biz oltin konlari o'lkasiga yaqinlashib kelyapmiz, – deb davom etdi u. – Ikki kun ham o'tmasdan, biz nihoyatda boy Aleksandr tog'i okrugiga yetib boramiz. 1852-yilda bu okrugga juda ko'p oltin axtaruvchilar kela boshlagan. Yovvoyilar Markaziy Avstraliya cho'llariga ketishga majbur bo'lganlar. Garchi hali sezilmasa ham, biz hozir madaniy o'lkada ketyapmiz. Biz shu bugunoq Myorrey qirg'oqlarini dengiz bilan qo'shadigan temiryo'lni kesib o'tamiz. Lekin, do'stlarim, har nima bo'lganda ham Avstraliyada temiryo'l borligi menga juda g'alati tuyulyapti.

– Nima uchun, Paganel? – deb so'radi Glenarvan, qiziqib.

– Nima uchun deysizmi? Chunki u atrofdagi narsalarga yopishib tushmaydi. O, bilaman, bilaman: siz inglizlar uzoq-uzoqlardagi yerlarni mustamlakaga aylantirishni odat qilib olgansizlar; sizlar Yangi Zelandiyada telegraf qurdinglar, hatto u yerda dunyo vistavkalari tashkil qilyapsiz, shuning uchun siz bunday

temiryoʻllarga oddiy bir narsadek qaraysizlar. Lekin u mendek bir fransuzning aqlini lol qiladi va Avstraliya toʻgʻrisidagi butun tasavvurini chalkashtirib yuboradi.

– Chunki siz bu mamlakatning hozirgi ahvoriga emas, oʻtmishiga qaraysiz, – dedi Jon Mangls.

– Boʻlishi mumkin, – deb bunga rozilik bildirdi Paganel. – Lekin choʻlni boshiga koʻtarib oʻtib borayotgan parovozning chinqirgani, mimoza va evkaliptlarning shoxlarini oʻrab olayotgan tutuni, kuryer poyezdidan qochib ketayotgan yexidnalar, oʻrdakburunlar va kazuarlar, soat uch-u oʻttiz minutda oʻsha kuryer poyezdigacha chiqib, Melburndan Kastlmenga ketayotgan yovvoyilar – bularning hammasi inglizlar bilan amerikaliklardan boshqa har qanday odamni hayron qilmay qolmaydi. Sizning temiryoʻlingiz choʻlning oʻziga xos poeziyasini buzadi.

– Nima qilibdi, choʻlga yoʻl ochsa boʻldi-da! – dedi mayor.

Parovozning qattiq chinqirgan tovushi bu bahsga barham berdi. Sayohatchilar temiryoʻldan bor-yoʻgʻi bir milcha joyda edilar. Janub tarafdin sekin-asta kelayotgan parovoz temiryoʻlning xuddi arava kelayotgan yoʻl kesib oʻtadigan yeriga kelib toʻxtadi.

Bu temiryoʻl shoxobchasi, Paganel aytgandek, Viktoriya viloyatining markazini Avstraliyaning eng katta daryosi – Myorrey bilan ular edi. 1828-yilda Styuart ochgan bu kattakon daryo Avstraliya Alplaridan boshlanadi, keyin Laklan va Darling daryolarining suvi kelib quyilgandan keyin kattalashib, Viktoriya viloyatining butun shimoliy chegarasi boʻylab oqib oʻtadi va Adelaida shahri yaqinida Enkaunter qoʻltigʻiga borib quyiladi. Myorrey serunum, chaman dalalardan oqib oʻtadi; Melburn bilan temiryoʻl aloqasi yaxshi boʻlgani uchun uning qirgʻoqlarida yangi-yangi chorva xoʻjaliklarining manzillari tobora koʻpayib bormoqda. Bu temiryoʻl Sendxorstdan to Melburngacha choʻzilgan bir yuz besh millik joyga, shuningdek, Kint bilan Kastlmenga ham xizmat qiladi. Temiryoʻlning yetmish millik yangi shoxobchasi endi qurilmoqda edi. U Myorrey boʻyida shu bu yil asoslangan yangi Riverina viloyatining markazi Exuk shahriga borishi kerak.

Oʻttiz yettinchi parallel temiryoʻlni Kastlmendan bir necha mil shimolroqdan, Myorreyning koʻplab hisob-

langan irmoqlaridan biri Lyutton daryosi ustiga qurilgan Kemden ko'prigi yonidan kesib o'tardi.

Ayrton aravasini xuddi o'sha yerga qarab haydadi, arava atrofida kelayotgan otliqlar temiryo'lga tezroq yetib borishga qiziqib ot choptirib ketdilar. Temiryo'l ko'prigi tomonga juda ko'p odam borardi. Shu atrofda turadigan odamlar uylaridan chiqib, qo'ychivonlar podalarini tashlab, to'da-to'da bo'lib temiryo'l polotnosi tomonga kelmoqda edilar. O'qtin-o'qtin kishilarning:

– Temiryo'lga, temiryo'lga! – deb qichqirganlari eshilib qolardi.

Aftidan, bu g'ala-g'ovurga biror muhim voqea sabab bo'lgandi, biror falokat yuz bergan bo'lsa ham ehtimol.

Glenarvan bilan uning hamrohlari otlarini yana ham tezroq choptirib, bir necha minut ichida Kemden ko'prigiga yetib bordilar. Bu yerda shunchalik odam yig'ilganining sababi darhol aniq bo'ldi-qo'ydi.

Mudhish halokat yuz beribdi. Bu poyezdlar to'qnashuvi emas, Amerika temiryo'llaridagi eng katta halokatlarni eslatuvchi zo'r halokat edi. Temiryo'l kesib o'tgan daryo majaqlangan parovoz va vagonlar bilan to'lib ketgan. Ko'prik poyezdning og'irligini ko'tara olmaganmi, yo poyezd izdan chiqib ketganmi, har holda, olti vagonli poyezdning beshta vagoni parovozi bilan birga Lyutton daryosi ichida qalashib yotardi. Zanjiri uzilib ketib, bu falokatdan qandaydir tushunib bo'lmas tasodif tufayli omon qolgan oxirgi vagon ko'prikning labidan bir metrcha narida turar edi. Pastda suv yuzida qorayib, qiyshayib ketgan g'ildirak o'qlari, pachaqpachaqpacha vagonlar, qiyshayib, bukilib ketgan relslar, ko'mirga aylangan shpallar qalashib yotardi. Qattiq zarbdan yorilib ketgan parovoz qozonining parchalari chor atrofda sochilib yotardi. Biri ustiga biri uyilib yotgan bu har xil siniq-mertiklar ustida yong'in gurullar bug' aralash qora tutun burqsib yotar edi. Mudhish halokatdan keyin undan ham dahshatli yong'in! U yer-bu yerda halqob bo'lib qolgan qon, ko'mirga aylanib, xunugi chiqib yotgan murdalar ko'zga tashlanar, siniq-mertiklar tajida qancha odam qolib ketganini ko'z oldiga keltirgan kishining yuragi orqaga tortib ketardi. O'lganlar va yarador bo'lganlarni chiqarib olish ishlari boshlangan edi.

Glenarvan, Paganel, mayor, Jon Manglsar olomonga aralashib, atrofdagilarning gap-so'ziga quloq sola boshladilar. Hamma ham bu halokatning sababini o'zicha izohlashga tirishardi.

- Ko'prik sinib ketganga o'xshaydi, - dedi odamlardan biri.

- Nega sinib ketar ekan, - deb e'tiroz bildirdi ikkinchisi, - but-butun turibdi! Poyezd o'tishidan oldin uni bir-biriga ulashni unutilib qo'yishgan bo'lsa kerak.

Haqiqatan ham ko'prik kemalar o'tadigan vaqtda ikki tomonga tortib qo'yiladigan ko'prik ekan. Nahotki, temiryo'l qorovuli anqovlik qilib, ko'prikni tutashtirishni unutilgan bo'lsa? Shunday bo'lgan bo'lishi mumkin edi, chunki ko'prikning bir tomoni daryoga tushib ketgan vagon siniqlari tagida pacha-pacha bo'lib yotgan bo'lsa-da, ikkinchi yarmisi narigi sohilga tortib qo'yilganicha zanjirlariga osig'liq holda, but-butun, bezarar turar edi. Masala ravshan, temiryo'l halokati qorovulning anqovligi natijasida yuz bergan.

Melburndan kechqurun soat o'n bir-u qirq besh minutda yo'lga chiqqan o'ttiz yettinchi ekspress poyezdi falokatga uchragan edi. Poyezd Kemden ko'prigidan ertalab soat uchdan chorak o'tganda qulabdi, bundan yigirma besh minut oldin u Kastlmen stansiyasidan yo'lga chiqqan ekan. Omon qolgan eng keyingi vagondagi yo'lovchilar bilan temiryo'l xizmatchilari yordam chaqirmoqchi bo'ldilar, lekin telegraf stolbalari ag'darilib, aloqa ishdan chiqib qolgan edi. Shuning uchun kastlmenlik ma'murlar halokat yuz bergan joyga uch soatdan keyingina yetib keldilar. Shunday qilib, odamlarni qutqarish ishini soat oltidagina boshlashga muyassar bo'lishdi, bu ishlarga koloniyaning bosh inspektori bilan politsiya ofitseri boshliq bir otryad polismenlar rahbarlik qildilar. Polismenlarga mol saqlovchilar bilan ularning xizmatkorlari qarashdi. Ishni siniq-metrikarni nihoyatda tez yamlab borayotgan yong'inni o'chirishdan boshlashdi. Ko'tarmaning yonbag'rida tanib bo'lmas darajada ezilib ketgan bir necha murda yotardi. Bu jahannamdan bironta tirik odamni topaman deb umid qilmasa ham bo'lardi. Halokatdan keyin uning o'lim keltiruvchi ishini yong'in oxiriga yetkazibdi. Poyezddagi butun yo'lovchilardan - ularning necha kishi ekani noma'lum edi - faqat

oxirgi vagondagi o'n kishi omon qolgandi. Temiryo'l boshqarmasi ularni Kastlmenga qaytarib olib ketish uchun hozirgina parovoz yuboribdi. Bu orada Glenarvan inspektorga o'zini tanitdi-da, inspektor va politsiya ofitseri bilan gaplasha boshladi. Bu ofitser ozg'indan kelgan, baland bo'lyi va nihoyatda sovuqqon odam edi. Mabodo u biror narsani his qila oladigan odam bo'lsa ham, buni uning basharasidan ko'rib bo'lmasdi. U halokatga matematiklar qiyin bir masalani yechishga qaraganday qarardi. U hayajonlangan Glenarvanning: «Qanday katta baxtsizlik!» deganini eshitib:

- Baxtsizlikdan battar bu, ser, - deb qo'ydi.

- Battar deysizmi? - deb so'radi, uning gapidan hayron qolgan Glenarvan. - Bu baxtsizlikdan ham battarroq nima bo'lishi mumkin?

- Jinoyat, - deb xotirjamlik bilan javob berdi politsiya ofitseri.

Glenarvan inspektorga savol nazari bilan qaradi.

- To'g'ri, ser, - dedi bosh inspektor ham, - halokat joyini ko'zdan kechirib, biz bu halokat jinoyat orqasida yuz bergan, degan xulosaga keldik. Yuk vagoni talangan, omon qolgan yo'lovchilarga esa besh-olti kishidan iborat muttahamlar shaykasi hujum qilgan. Ko'priknig ulash esdan chiqqan emas, uni jo'rttaga ochiq qoldirganlar; agar bunga temiryo'l qorovulining g'oyib bo'lganini taqozo qilsak, u ablah ham jinoyatchilarning sherigi bo'lgan, degan xulosa kelib chiqadi.

Bosh inspektorning bunday xulosa chiqarganini eshitib, politsiya ofitseri bosh chayqab qo'ydi.

- Aftidan, siz mening fikringizga qo'shilmaysiz shekilli? - deb so'radi inspektor.

- Qorovul ham ishtirok etgan degan fikringizga qo'shilmayman.

- Lekin Myorrey atrofida izg'ib yurgan yovvoyilar buni faqat u ishtirok etgandagina qila olishlari mumkin, - deb e'tiroz bildirdi inspektor. - Qorovul yordam qilmasa, ko'priknig mexanizmini mutlaqo tushunmagan yerliklar uni hech vaqt ochib qo'ya olmas edilar-ku.

- To'g'ri.

- So'ngra, - deb davom etdi inspektor, - bir kapitanning aytishiga qaraganda, uning kemasi kechqurun soat o'n-u qirq minutda Kemden ko'prigi ostidan o'tib ketgandan so'ng, qoidaga muvofiq, ko'priknig yana birlashtirib qo'yilgan ekan.

– To'ppa-to'g'ri.

– Shuning uchun bu jinoyatda temiryo'l qorovulining qo'li borligi aniq deb o'ylayman.

Lekin politsiya ofitseri yana boshini tebratib qo'ydi.

– Demak, siz bu jinoyatni yovvoyilar qilgan emas demoqchisiz, shundaymi? – deb so'radi undan Glenarvan.

– Aslo ular emas.

– Bo'lmasa kim?

Shu payt Myorreynning yuqori oqimi tomondan, yarim milcha joydan shovqin-suron eshitildi. O'sha yerda olomon to'plandi. Olomon tez ko'paya bordi, ko'p o'tmay ko'prik oldiga yetib keldi. Odamlar orasida ikki kishi bir odamning jasadini ko'tarib kelardi. Bu allaqachon dunyodan o'tgan temiryo'l qorovulining murdasi edi. Uni qoq yuragiga xanjar urib o'ldirgan edilar. Aftidan, qotillar jasadni Kemden ko'prigidan uzoqroqqa eltib tashlab, politsiyani vaqtincha chalg'itmoqchi bo'lgandilar.

Topilgan murda politsiya ofitserining gapini to'la tasdiqlardi, bu jinoyatga yovvoyilarning mutlaqo aloqasi yo'q edi.

Ofitser:

– Bu halokatni boshlagan kishilar mana bu o'yinchoqni ko'pdan beri bilganlar, – dedi-da, temir halqadan qilingan, qulflanadigan qo'l kishanini ko'rsatdi. So'ng yana:

– Ko'p o'tmay, – deb gapini davom ettirdi u, – men ularga bu bilaguzuklarni yangi yil sovg'asi qilib taqdim etaman.

– Demak, sizning o'ylashingizcha bu...

– ...qirolicha janob oliylarning kemalarida tekin sayohat qiladigan yo'lovchilarning ishi.

– Nima, nima! Katorgadan qochganlarning ishi-mi? – dedi bunday nom bilan Avstraliya koloniyalarida katorgaga yuborilgan jinoyatchilar atalishini bilgan Paganel.

– Men bo'lsam, surgun qilinganlarning Viktoriya viloyatida yashashga haqqi yo'q deb o'ylab yuribman, – dedi Glenarvan.

– Nimasiga hayron bo'lasiz? – dedi politsiya ofitseri. – Haqlari yo'q bo'lsa ham, ular o'zlaricha bu huquqdan foydalanadilar. U muttahamlarning ichida katorga-

dan qochib keta oladiganlari ham bo'ladi; bu jinoyatni to'g'ri Pert katorgasidan qochib kelgan ablahlar qilgan desam, yanglish bo'lmas. Lekin ko'p o'tmay ularni o'z joyiga qaytaramiz, ishonaveringlar.

Inspektor bosh silkib ofitserning so'zlarini tasdiqladi. Shu payt sayohatchilarimiz aravasi temiryo'l kesib o'tiladigan yerga yetib keldi. Sayohatchi ayollarni bu mudhish manzaradan nariroq tutishni istagan Glenarvan darhol inspektor bilan xayrlashdi-da, hamrohlari-ni imlab, bu yerdan nari ketdi.

- Har holda bu ishlar bizning sayohatimizga xalaqit bermasligi kerak, - dedi u hamrohlariga.

Glenarvan arava oldiga kelib, Elenga temiryo'l-da halokat bo'lganini aytdi, lekin bu jinoyatchilar ishi ekani to'g'risida indamadi. Shuningdek, u katorgadan qochgan jinoyatchilar shaykasi to'g'risida ham og'iz ochmadi: Glenarvan bu to'g'rida faqat Ayrtonni xabar-dor qilib qo'ymoqchi edi. Kichkina otryad ko'priktan bir necha yuz metr nariroqda temiryo'l-ni kesib o'tdi-da, sharqqa qarab o'z yo'lida davom etdi.

O' n u c h i n c h i b o b

GEOGRAFIYADAN BIRINCHI MUKOFOT

Ufqda, temiryo'l-dan ikki milcha narida tekis dala etagidan bir qator tepalar cho'zilib ketgan edi. Ko'p o'tmay arava tor, qing'ir-qiyshiq daralarga kirib bordi. Sayohatchilarimiz bu daralardan o'tgach, go'zal bir vodiya chiqdilar; bu yerda tropik mamlakatlarga xos go'zal manzara kasb etib, to'da-to'da daraxtlar o'sib yotardi. Ulardan eng ajoyibi bo'lgan kazuarinlar dubning baquvvat tanasini, akasning hushbo'y hidini, qarag'ayning ko'm-ko'k qattiq barglarini olgandek edi. Kazuarinlar shoxiga husnda nodir banksiya daraxtlarining - *bankca latifolia* - konussimon uchi ulanib ketgan. Bu chakalaklardagi shoxi pastga egilib o'stgan katta-katta butalar hovuzlardan toshib tushayotgan ko'm-ko'k suvga o'xshardi.

Sayohatchilarimiz bu go'zal tabiat manzaralarining qay birini tomosha qilishni bilmay atrofga javdirar edilar.

Kichkina otryad birpasga to'xtadi. Elenning buyrug'i bilan Ayrton ho'kizlarini to'xtatdi, qumga ishqalanib g'ijirlayotgan g'ildiraklar ovozi tindi. Chakalaklar orasida ko'm-ko'k o'tlar gilam bo'lib yotar, kattakon shaxmat taxtasi singari joylashgan tepachalar o'tloq dalalarni to'g'ri to'rtburchaklarga ajratib turardi. Mangu uyqu uchun mo'ljallangan bu bo'm-bo'sh yerlarda ko'karib yotgan o'tloqlarning nimaga xizmat qilishini Paganel darhol tushundi. Olim bular yerliklarning o'tloqlardagi to'rtburchak qabrlari ekanini ko'rdi. Qabrlar hozir o't tagida qolib ketgani uchun Avstraliyada sayohat qilgan kishilarning nazariga kam uchrardi.

– Bu o'lim o'tloqlari, – dedi u.

Haqiqatan ham sayohatchilarimiz qarshisida cho'zilib yotgan bu dala yerliklarning qabristoni edi, lekin bu xushmanzara, ko'rkam, salqin, qushlar nihoyatda jonlantirib yuborgan qabristonni ko'rgan kishi aslo g'amgin o'ylarga botmasdi. Bir vaqtlar yerliklar qabrlarni juda yaxshi saqlar edilar, endi bo'lsa ular qalin o't tagida qolib ketgan. Yevropaliklar istilosi natijasida avstraliyaliklar ota-bobolari o'tgan joylarni tashlab ketishga majbur bo'lgan, hali ham davom etayotgan koloniyalashtirish natijasida bu qabristonlar yaqin orada chorvachilik dalalariga aylanib ketishi aniq edi. Ana shuning uchun hozir bunday chakalaklar tobora kam uchray boshlagan, bunday ishlarga befarq qarovchi sayohatchi oyoq bosgan yerlarda ko'pincha yaqin orada yashab o'tgan butun-butun avlodlarning suyaklari ko'milgan bo'ladi.

Paganel bilan Robert hamrohlarini ancha orqada qoldirib, o't tagida qolib ketgan qabrlar oralab, salqin daraxtlar tagidan ketmoqda edilar. Ular bir-birlarini oqartib, o'zaro suhbatlashib borardilar, – Paganel yosh Grant bilan suhbatlashsam, undan ko'p narsa o'rganaman derdi. Lekin Glenarvan bu ikki do'st chorak mil ham yurmasdan to'xtashganini, keyin otdan tushib yerga engashib qarayotganlarini ko'rib qoldi. Ularning bu xatti-harakatlaridan juda qiziq narsani ko'zdan kechirayotganlari ko'rinib turardi.

Ayrton ho'kizlarini qistab haydadi, arava hademay ikki do'st otdan tushgan yerga yetib keldi. Shunda Paganel bilan Robertning nima uchun to'xtashgani va nimadan bunchalik hayron bo'lib qolishgani darhol

ma'lum bo'ldi. Ajoyib banskiya daraxti soyasida yevropacha kiyim kiygan sakkiz yoshlar chamasidagi bir yerlik bola shirin uxlab yotardi. Jingalak sochlari, deyarlik tim qora badani, yapaloq burni, qalin lablari va nihoyatda uzun qo'llari uning Avstraliyaning markaziy viloyatlaridan ekanidan dalolat berar, ammo kiyimboshi hamda aft-basharasidan ko'rinib turgan zako bir oz madaniyatli ekanini ko'rsatib turardi.

Elen bu bolaga qiziqib, aravadan tushdi, ko'p o'tmay barcha sayohatchilar qattiq uxlab yotgan bolani qurshab oldilar.

– Bechora! – dedi Meri Grant. – Nahotki, u shunday bo'm-bo'sh dalada adashib qolgan bo'lsa?

– Menimcha, – dedi Elen, – u mana bu qabristonni ziyorat qilgani uzoqdan kelgan. Bu yerda uning juda yaqin ko'rgan odami yotgan bo'lsa kerak.

– Uni shunday tashlab ketib bo'lmaydi, – dedi Robert, – u axiyri yolg'iz o'zi-ya, buning ustiga...

Lekin jonkuyar Robertning gapi chala qoldi: avstraliyalik bola uyqusida ikkinchi yonboshiga ag'darildi, shunda atrofni qurshab olgan sayohatchilar uning orqasiga yopishtirilgan plakatni ko'rib, hayron qoldilar; plakatga ingliz tilida:

«Toline. Temiryo'l konduktori Jefri Smit nazorati ostida Exukaga yetkazilishi kerak. Yo'lkirasi oldindan to'langan», deb yozib qo'yilgan edi.

– Qoyilman inglizlarga! – dedi Paganel. – Odam bolasini posilka singari jo'natib, yana konvertga yozgandek, orqasiga adres ham yozib qo'yibdilar. Men ularning shunday odati bor deb oldin ham eshitgan edim, lekin ishongim kelmagandi.

– Bechora! – dedi Elen. – Izidan chiqib ketgan poyezdda ketayotgan bo'lmasin yana? Ehtimol ota-onasi halok bo'lib, yolg'iz qolgandir?

– Unday bo'lmasa kerak, – dedi Jon Mangls. – Aksincha, mana bu plakat uning yolg'iz o'zi sayohatga chiqqanidan darak beradi.

– Uyg'ondi, – dedi Meri Grant.

Rostdan ham bola uyg'ondi. Uning ko'zlari ochildi, keyin kunduzgi yorug' nurdan qamashib yana yumildi. Elen uning qo'lidan ushladi. Bola o'rnidan turdi-da, hayron bo'lib sayohatchilarga qarab qoldi. Dastlabki daqiqa uning yuzida qo'rquv aks etdi. Biroq Elenni ko'rib o'zini bosib oldi.

– Ingliz tilini tushunasanmi, azizim? – deb soʻradi Elen, boladan.

– Tushunaman, gaplashaman ham, – deb javob berdi bola, sayohatchilar tilida, lekin uning talaffuzi ingliz tilida gaplashadigan fransuzlarning talaffuziga oʻxshardi.

– Isming nima? – deb soʻradi Elen.

– Toline, – deb javob berdi bola.

– Toline degin! – dedi Paganel. – Yanglishmasam, mahalliy tilda bu «yogʻoch poʻstlogʻi» degan maʼnoni bildiradi, shundaymi?

Toline ha degandek qilib boshini silkib qoʻydi-da, yana sayohatchi ayollarni koʻzdan kechira boshladi.

– Qayerdan kelyapsan? – deb yana soʻradi Elen.

– Melburndan poyezdda kelayotgan edim.

– Kemden koʻprigida izidan chiqib ketgan poyezddamiding? – deb soʻradi Glenarvan.

– Ha, ser.

– Bitta oʻzing kelayotgan edingmi?

– Bitta oʻzim. Oʻqituvchimiz Pakston ota meni Jefri Smitga topshirgan edi. Afsuski, bechora konduktor oʻldirildi.

– Sen poyezdda boshqa hech kimni tanimas edingmi?

– Hech kimni, ser.

Lekin bolasi tushmagur bu boʻm-boʻsh dalalardan qayoqqa ketayotgan edi, nima uchun Kemden koʻprigi oldidan ketdi? Elen boladan shuni soʻradi.

– Oʻzimizning Laklandagi qabilamizga ketyapman, – deb tushuntirdi Toline, – ota-onamni koʻrib kelmoqchiman.

– Ular avstraliyalikmi? – deb soʻradi Jon Mangls.

– Avstraliyalik, laklanlik.

– Otang ham, onang ham bor, a? – deb soʻradi Robert Grant.

– Ha, akajon, – deb javob berdi Toline Robertga qoʻlini uzatib.

Tolinening «akajon» deganiga iyib ketgan Robert darhol uni mahkam quchoqlab oʻpdi, ikkala bola shu ondayoq doʻstlashib oldilar.

Yovvoyi bolaning javoblari sayohatchilarni shunday qiziqtirib qoʻydiki, ular Tolinening atrofiga doira tortib oʻtirib oldilar. Quyosh azim daraxtlar orqasiga ogʻa

boshladi. Joy tunash uchun qulay, shoshilishga asos yo'q, shuning uchun Glenarvan shu yerda to'xtashni buyurdi. Ayrton ho'kizlarni aravadan chiqardi, Myulredi va Vilson yordami bilan ularning oyog'ini tushovladi-da, o'tloqqa qo'yib yubordi. Chodirni qurdilar. Olbinet ovqat tayyorladi. Och bo'lishiga qaramay, biroz tortinchoqlik qilib turgandan keyin Toline ham sayohatchilar bilan ovqatlanishga rozi bo'ldi. Dasturxon-ga o'tirdilar. Bolalarni yonma-yon o'tqazdilar. Robert yangi o'rtog'iga yaxshi-yaxshi ovqatlardan olib berar, Toline esa uni uyatchanlik bilan Robertning qo'lidan olardi.

Ovqat vaqtida suhbat uzilmadi. Hammalari ham bolaga g'amxo'rlik qilar, unga sonsiz-sanoqsiz savollar yog'dirar edilar. Sayohatchilar bolaning o'tmishini bilishga qiziqdilar. Uning hayoti juda oddiy ekan. Koloniyalar huzuridagi yordam jamiyatlari ixtiyoriga tarbiyalash uchun qo'shni qabilalar tomonidan yoshlik paytidanoq keltirib topshirilgan ko'pgina yerlik bolalarning o'tmishi qanday bo'lsa, Tolining o'tmishi ham xuddi o'shanday edi. Avstraliyaliklar mo'min-ma'qul xalq bo'ladi. Ular ingliz istilochilarining yangi zelandiyaliklar va Shimoliy Avstraliyadagi ba'zi qabilalar singari yomon ko'rmaydilar. Yerliklarni Adelaida, Sidney, Melburn kabi katta-katta shaharlarda tez-tez uchratish mumkin; ular bu shaharlarda o'zlarining g'alati kiyimlarida yurib, o'zlari ishlagan har xil mayda-chuyda buyumlar, ovchilik va baliqchilik asboblari, qurollar bilan savdo-sotiq qiladilar. Ba'zi qabilalarning boshliqlari o'z bolalariga inglizcha tarbiya olish imkoniyatini tug'dirib beradilar.

Myorreyning narigi tomonidagi keng Laklan o'lkasida yashaydigan haqiqiy yovvoyilar – Tolining otionalari ham ana shunday qilganlar. Bola o'zi Melburnda o'tkazgan besh yil mobaynida qarindoshurug'laridan birortasini ko'rmagan. Lekin uning qalbi o'z oilasiga muhabbat bilan tepadi, shuning uchun u hozir butun Avstraliya qit'asiga tarqab ketganligi ham ehtimol bo'lgan o'z qadrdon qabilasini axtarib, qir-dashtlardan o'tadigan mashaqqatli safarga chiqishdan qo'rqmagan. U o'z oilasini ko'rib kelishga intilardi, ammo oilasi allaqachon halok bo'lib ketgan bo'lishi ham ajab emas.

– Ota-onangni ko‘rib, diydoriga to‘yganingdan keyin yana Melburnga qaytasanmi, o‘g‘lim? – deb so‘radi undan Elen.

– Ha, missis, – deb javob berdi Toline, yosh ayolga samimiy mehribonlik bilan qarab.

– Katta bo‘lganingdan keyin nima qilmoqchisan?

– Aka-ukalarimni qashshoqlik va johillik changalidan qutqarib olmoqchiman: ularni o‘qitmoqchiman.

Sakkiz yashar avstraliyalikning shavq bilan aytgan bu so‘zlari sayohatchilarni juda qoyil qoldirdi. Nihoyatda ta’sirlanib ketgan Paganel avstraliyalik bu kichkina bolani juda yaxshi ko‘rib qoldi. Shunisini ham aytib o‘tish kerakki, yevropacha kiyingan bu yovvoyi bola shu vaqtgacha geografiya olimiga uncha yoqinqiramay turgandi. Axir u Avstraliyaga syurtuk kiygan avstraliyaliklarni ko‘rish uchun kelibdimi?! U kiyim-bosh kiygan avstraliyaliklarni emas, badaniga har xil rasmlar solingan avstraliyaliklarni ko‘rsam derdi. Bolaning «binoyidek» kiyimi uning yerliklar to‘g‘risidagi barcha tasavvurini buzib yubordi. Lekin Tolinening hayajon bilan aytgan gaplari geografiya olimining unga bo‘lgan munosabatini tamom o‘zgartirib yubordi, endi u o‘zini kichkina avstraliyalikning muxlisi deb e‘lon qildi.

Suhbatning oxiri geografiya olimini bolaning yaqin do‘stiga aylantirdi. Elen Tolinedan: qayerda o‘qiysan, deb so‘ragan edi, u Melburndagi Pakston hazratlari boshliq normal maktabda o‘qishini aytdi.

– U maktabda senga qanday fanlarni o‘qitishadi? – deb so‘radi Elen.

– U maktabda menga bibliya, matematika, geografiya...

– A, geografiya ham o‘qitishadimi?! – deb uning so‘zini bo‘ldi Paganel, qizg‘inlik bilan.

– Ha, ser, – deb javob berdi Toline. – Yanvar kanikulidan oldin men hatto geografiyadan birinchi mukofot oldim.

– Geografiyadan mukofot oldim deysanmi, o‘g‘lim?

– Mana, ser, – dedi Toline, cho‘ntagidan kitob chiqarib.

Bu yaxshi muqovali bibliya bo‘lib, birinchi betining orqasida: «Melburndagi normal maktab. Laklanlik o‘quvchi Tolinega geografiyadan birinchi mukofot», degan yozuv bor edi.

Buni ko'rgan Paganel o'zini tutib turolmadi. Qarang-a: avstraliyalik mana shu bola, geografiyani yaxshi bilar ekan! Xursand bo'lib ketganidan u bolaning ikki betidan shartta-shartta o'pib oldi; mukofot berilgan kun Pakston hazratlari ham uni shunday o'pib olgan bo'lsa kerak. Lekin olimimiz Avstraliya maktablarida bunday bolalar ko'plab uchrashini bilishi kerak edi; yosh yovvoyilar geografiyaga nihoyatda qobiliyatli va unga juda qiziqadilar; lekin matematikaga uquvlari yo'qroq.

Paganel uni nima uchun o'pib olganini Toline mutlaqo tushunmadi. Buni ko'rgan Elen bolaga Paganelning mashhur geografiya olimi va ajoyib geografiya o'qituvchisi ekanini aytdi.

- Geografiya o'qituvchisi dedingizmi? - so'radi Toline. - O, ser, mendan bir so'rab ko'ring!

- So'rab ko'raymi, o'g'lim? - deb takror so'radi Paganel. - Jon deb so'rayman! Sen ruxsat bermasang ham so'rab ko'rmoqchi edim. Melburn normal maktabida geografiyani qanday o'qitishlarini bir bilib qo'yishga qarshi emasman.

- Toline geografiyadan sizni orqada qoldirib ketsa nima deysiz, Paganel? - deb so'radi Mak-Nabbs.

- Qullig'-e, mayor! - deb qichqirdi geografiya olimi. - Fransuz geografiya jamiyatining sekretarini orqada qoldirib ketib bo'larkanmi!..

Keyin Paganel burni ustidagi ko'zoynagini to'g'rilab oldi, baland qomatini tiklab, o'qituvchilarga xos jiddiylilik bilan bolani sinov qilishga kirishdi:

- O'quvchi Toline, o'rningizdan turing!

Shunday ham tikka turgan Toline o'qituvchi oldida yana ham hurmat bilan qotib, geografning savollarini kuta boshladi.

- O'quvchi Toline, - deb davom etdi Paganel, - menga dunyodagi besh qit'aning nomlarini aytib bering.

- Okeaniya, Osiyo, Afrika, Amerika va Yevropa, - deb javob berdi Toline.

- Juda soz! Rostki hozir biz Okeaniyada ekanmiz, avval o'shandan boshlaymiz. Aytinch-i, Okeaniya qanday bo'laklarga bo'linadi?

- U Polineziya, Melaneziya va Mikroneziyaga bo'linadi. Asosiy orollari quyidagilar: inglizlarga qarashli Avstraliya; inglizlarga qarashli Yangi Zelandiya; ing-

lizlarga qarashli Tasmaniya; Chetem, Oklend, Mkari, Kermodok, Makin, Maraki va boshqa orollar, bular ham inglizlarga qarashli.

– Yaxshil – dedi Paganel. – Yangi Kaledoniya, Sandvich orollari, Mendan orollari, Paumotu-chi?

– Bu orollar Buyuk Britaniyaning himoyasi ostida.

– Nima! Buyuk Britaniyaning himoyasi ostida deysizmi? – deb so‘radi Paganel. – Menimcha, aksincha ular Fransiyaning himoyasi ostida bo‘lsa kerak...

– Fransiyaning deysizmi? – deb hayron bo‘lib so‘radi bola.

– Barakalla! – dedi Paganel. – Melburn normal maktabida hali sizni shunday o‘qitadilarmi?

– Ha, janob o‘qituvchi. Yo bu noto‘g‘rimi?

Paganel biroz jahli chiqqan, biroz hayron bo‘lgan holda turardi, uning bu holatini ko‘rgan mayor maza qildi.

Ekzamen davom etdi.

– Osiyoga o‘tamiz, – dedi geografiya olimi.

– Osiyo – kattakon o‘lka, – dedi Toline. – Uning markazi – Kalkutta. Asosiy shaharlari: Bombay, Madras, Singapur, Kolombo; orollari: Lakadiv orollari, Malediv orollari va juda ko‘p boshqa orollar. Bularning hammasi inglizlarniki.

– Yaxshi, o‘quvchi Toline, yaxshi. Xo‘sh, Afrika to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

– Afrikada ikkita asosiy koloniya bor: janubda Kap koloniyasi – markazi Kapshtadt shahri; g‘arbdagi ingliz yerlarining asosiy shahri esa S‘erra-Lione.

– Juda yaxshi javob! – dedi endi inglizlarning bu fantastik geografiyasiga ko‘nika boshlagan Paganel. – Sizlarni juda puxta o‘qitishadiganga o‘xshaydi. Aljir, Marokash, Misrga kelsak, ular ingliz atlaslaridan o‘chirib tashlangan, albatta. Xo‘sh, endi Amerika to‘g‘risida nimalarni bilasan, qisqagina aytib ber-chi.

– Amerika Shimoliy va Janubiy qismlarga bo‘linadi, – deb so‘z boshladi Toline. – Shimoliy Amerikada inglizlarga Kanada, Yangi Brunsvik, Yangi Shotlandiya, shuningdek, gubernator Jonson boshqarayotgan Qo‘shma Shtatlar qaraydi.

– Gubernator Jonson deysanmi? – deb qichqirib yubordi Paganel. – Quldorlik tarafdori bo‘lgan bir

quturgan fanatik o'ldirgan odil Linkolning¹ vorisi Jonsan-a? Barakalla! Bundan o'tkir gapni o'ylab topib bo'lmasa kerak. Xo'sh, Janubiy Amerika-chi! Undagi Gviana, Folklend orollari, Shetland orollari, Georgiya, Yamayka, Trinidad va hokazo shuning kabi yerlar inglizlarga qaraydimi? Tortishib o'tirmayman. Endi Toline, men sening, to'g'rirog'i, o'qituvchilarningning Yevropa to'g'risidagi fikrini bilmoqchi edim.

– Yevropa to'g'risidami? – deb takror so'radi geografiya olimining nima uchun bunchalik qizishayotganini tushunmagan avstraliyalik bola.

– Ha, Yevropa to'g'risida. Xo'sh, Yevropa kimga qaraydi?

– Yevropa inglizlarga qaraydi, – deb ishonch bilan javob berdi bola.

– O'zim ham shunday dersan deb turgan edim, – dedi Paganel. – Lekin qanday qilib? Men mana shuni bilmoqchiman.

– Inglizlarga Angliya, Shotlandiya, Irlandiya, Malta, Jersey orollari, Ion orollari, Tebrid orollari qaraydi...

– Barakalla, Toline, balli! – deb uning gapini bo'ldi Paganel. – Lekin Yevropada boshqa davlatlar bor-ku, o'g'lim, sen ularning nomini aytishni unutding.

– Qanday davlatlar u, ser? – deb so'radi bola uyalmay.

– Ispaniya, Avstriya, Prussiya, Fransiya...

– Ular davlat emas, viloyat, – dedi Toline.

– Bunisi juda haddan oshib ketdi! – deb qichqirdi Paganel, ko'zoynagini shartta qo'liga olar ekan.

– Albatta, viloyat-da. Ispaniyaning poytaxti – Gibraltar...

– Balli! Barakalla! Ofarin! Xo'sh, Fransiya-chi? Men fransuzman-ku, shuning uchun o'zimning kimga qarashli ekanimni bilmoqchiman.

– Fransiya dedingizmi? Fransiya ingliz viloyati, – xotirjam javob berdi Toline, – uning bosh shahri Kale.

– Kale! – deb qichqirdi Paganel. – Nima, nima! Kale hali ham Angliyaga qaraydi deb o'ylaysanmi?

– Albatta!

– Seningcha, Kale Fransiyaning bosh shahrimi?

– Ha, ser. Gubernator lord Napoleon o'sha yerda yashaydi...

¹ Linkoln, Avraam – AQSH prezidenti.

Paganel o'zini tutolmay xaxolab kulib yuborgani uchun Toline so'zini tugatolmadi. Bola bechora nima qilishini bilmay qoldi. Undan saboq so'radilar, u ham bilganlarini iloji boricha yaxshilab aytib berishga harakat qildi. Ammo bergan javoblarining kulgili ekanligiga u mutlaqo aybdor emas; u buni xayoliga ham keltirmasdi.

Lekin yosh avstraliyalik xafa bo'lganga sira o'xshamas, jiddiy qiyofada hech narsadan hech narsa yo'q qahqaha urib kulayotgan olimning to'xtashini kutib turardi.

- Endi iqror bo'lgandirsiz! - dedi kulib mayor. - O'quvchi Toline sizni juda orqada qoldirib ketgan demabmidim sizga?

- Endi shubham yo'q, azizim mayor, - deb javob berdi geografiya olimi. - Melburnda geografiyani juda boplab o'qitishar ekan-da! Qoyilman-ey: Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika, Okeaniya - hammasi, butun dunyo inglizlarniki ekan! Ofarin-ey! Bunday tarbiya berish natijasida yerliklarning inglizlarga bo'ysunishiga ajablanmasa ham bo'ladi... Xo'sh, Toline, Oy-chi, Oy? Oy ham inglizlarnikimi?

- Ularniki bo'ladi, - deb jiddiy javob berdi kichkina yovvoyi.

Paganel ortiq chidab tura olmay sakrab turib ketdi. Kulgi uning halqumini bo'g'ar edi, shuning uchun u manzildan chorak milcha nariga, chetga chiqib ketdi, u to'yguncha kulib, humordan chiqmoqchi edi.

Paganel manzildan narida ekanida Glenarvan o'zining safar kutubxonasidan Samuil Richardsonning «Geografiyadan qisqa ocherk» kitobini qidirib topdi. Bu Angliyada juda keng tarqalgan kitob bo'lib, Yer shari to'g'risida Melburndagi o'qituvchilarga nisbatan ancha ilmiy ma'lumotlar berardi.

- Ma, mana bu kitobni o'zingga ol, o'g'lim, - dedi Glenarvan, avstraliyalik bolaga. - Geografiyadan bergan javoblaring juda ham to'g'ri emas, shuning uchun ularni to'g'rilab olsang yomon bo'lmaydi. Bu kitobni uchrashuvimiz xotirasi uchun senga sovg'a qilaman.

Toline indamay kitobni oldi, so'ngra ishonqiramay, boshini chayqab-chayqab, uni cho'ntagiga solishga jur'at qilolmay, diqqat bilan ko'zdan kechira boshladi.

Bu orada qorong'u tushdi. Kech soat o'n edi. Uyquga yotish uchun tayyorgarlik ko'rish kerak edi: axir, ertaga tong paytida turadilar. Robert o'z o'rnining yarmisini Tolinega taklif qildi, kichkina yovvoyi Robertning yoniga kelib yotdi.

Bir necha minutdan so'ng Elen bilan Meri Grant o'z aravalariga ketishdi, erkaklar chodirda yotdilar, endi Paganelning uzoqdan eshitilayotgan qahqahasi bilan zag'izg'onlarning sekin-asta yoqimtoy sayrashigina jimlikni buzardi.

Ertasiga ertalab soat oltida quyoshning ilk nurlari sayohatchilarimizni uyg'otdi, ammo ular kecha yonlarida uyquga yotgan avstraliyalik bolani ko'rmadilar. U g'oyib bo'lgandi. U o'zi tug'ilgan yerlarga tezroq yetib bormoqchi edimi, yoki Paganelning kulgisidan xafa bo'ldimi – bu noma'lum qoldi. Lekin uyqusidan uyg'ongan Elen o'z ko'ksi ustida bir dasta yangi uzilgan mimoza guli turganini ko'rди, Glenarvan esa kurtkasining cho'ntagidan Samuil Richardsonning «Geografiya»sini topdi.

O' n t o' r t i n c h i b o b

ALEKSANDR TOG'IDAGI OLTIN KONLARI

Londondagi Qirol geografiya jamiyatining hozirgi prezidenti Roderik Merchison 1814-yilda qit'aning shimolidan janubiga qarab cho'zilib ketgan va Avstraliyaning janubiy sohiliga kelib tugaydigan tog' tizmasini tekshirib, bu tog'ning Ural tog'lariga juda ham o'xshab ketishini aniqladi. Ural tog'larida esa oltin konlari bor, shuning uchun, tabiiyki, geologiya olimi bu qimmatbaho metall Avstraliya tog'larida ham bo'lishi kerak, deb taxmin qildi. U yanglishmagan ekan. Haqiqatan ham oradan ikki yil o'tgach, yangi janubiy Uellsdan Merchisonga oltin namunalarini yuboradilar, shundan keyin geologiya olimi kornuellik konchilaridan juda ko'pini Yangi Gollandiyaning oltin topilgan mintaqalariga borishga da'vat qiladi.

Janubiy Avstraliyada sof oltinni dastlab Frensis Lyutton topadi. Oltin sochmalarini Forb bilan Smit ham topadilar.

Oltin konlari topilgani to'g'risidagi bu xabar tarqalishi bilan Janubiy Avstraliyaga dunyoning barcha tarafidan oltin axtaruvchilar: inglizlar, amerikaliklar, italyanlar, fransuzlar, nemislar, xitoylar kela boshlaydi. Lekin faqat 1851-yilning 3-aprelida Xargrevs juda boy oltin konlarini topadi va Sidney koloniyasining gubernatori Fits-Royga bu yerni menga hujjatlab bering, deb iltimos qiladi, buning evaziga u gubernatorga arzimagan pul – besh yuz funt sterling bermoqchi bo'ladi. Gubernator bu taklifni qabul qilmaydi, lekin Xargrevsning kashfiyoti to'g'risidagi xabar tez tarqab, Sommerxill bilan Lenis-Pond oltin izlovchilarga to'lib ketadi. Bu yerda Ofir degan shahar barpo qilinadi, bu shahar oltin konlariga yaqin bo'lgani uchun tez o'sib, kattagina markazga aylanadi.

Bu vaqtgacha Viktoriya viloyatiga hech kim qiziqmagan edi, vaholanki u boyligi jihatidan boshqa barcha viloyatlarni orqada qoldirib ketadi.

Bir necha oydan so'ng, ya'ni 1851-yilning avgustida Viktoriya viloyatida dastlabki sof oltin topiladi, shundan keyin ko'p o'tmay viloyatning to'rt okrugida: Ballarat, Ovens, Bendigo va Aleksandr tog'larida katta-katta oltin konlari ochiladi. Bu to'rt okrug oltinga juda boy edi. Lekin Ovens daryosi bo'yida yerosti suvlari oltin qazish ishini qiyinlashtirardi; Ballarat okrugida oltin bir tekis joylashmagani uchun oltin izlovchilarning mo'ljali ko'pincha to'g'ri chiqmasdi; Bendigoda esa tuproqning yomonligi oltin kovlash ishini sekinlashtirardi, Faqat Aleksandr tog'idagina oltin kovlash ishi juda muvaffaqiyatli borardi, bu yerdan topilgan oltinning har bir qadog'i 1441 frank turardi, bu baho Yer sharining hamma yerida sotilgan oltinning bahosidan ham baland.

Garri Grantni axtarib yurgan sayohatchilarning o'ttiz yettinchi parallel bo'ylab borayotgan yo'li xuddi shu yerdan o'tardi.

31-dekabrda sayohatchilarimiz kun bo'yi juda no tekis yo'ldan bordilar, bu otlar bilan ho'kizlarni juda charchatib qo'ydi. Nihoyat, kechga yaqin uzoqda Aleksandr tog'ining dumaloq cho'qqilari ko'rindi. Sayohatchilar uncha baland bo'lmagan bu tog' tizmasi orasidagi bir torgina darada tunash uchun to'xtadilar-da, otlar bilan ho'kizlarning oyog'iga tushov solib, kvars parchalari orasiga o'tlatgani qo'yib yubordilar. Sayohatchi-

lar kelib to'xtagan bu yer hali oltin qaziladigan mintaqaga emasdi. Faqat ertasiga, yangi 1865-yilning birinchi kunigina aravaning og'ir g'ildiraklari bu boy o'lka yo'llaridan g'ijirlab o'ta boshladi.

Paganel bilan uning hamrohlari avstraliyaliklar tilida Jebur deb atalgan bu mashhur tog'ni yo'l-yo'lakay ko'rib o'tishga muyassar bo'lganlaridan xursand edilar. Bu yerga, bu tog'ga to'da-to'da avanturistlar, o'g'rilar va to'g'ri odamlar; osiladigan odamlar ham, ularni osadiganlar ham yopirilib kelgan edi. O'sha oltin yili, ya'ni 1851-yilda, «buyuk kashfiyot» to'g'risidagi xabar tarqaldi deguncha aholi shaharlarni, skvatterlar o'tloqlarni, dengizchilar kemalarni tashlab ketdilar. Oltin talvasasi bir dard tusiga, vabo singari yuqumli kasal tusiga kirdi, bu darddan qanchadan qancha odam endi boy bo'ldim deganda o'lib ketdi! O'z boyliklarini isrofgarchilik bilan har tarafga sochib yuborgan tabiat Avstraliyada yigirma besh gradusga ko'p millionlab oltin to'kkan ekan, degan mish-mishlar yurardi.

Oltin izlovchilik kasbi boshqa barcha kasblarni bosib ketdi. Oltin izlab kelganlarning juda ko'pi og'ir mehnatga chiday olmay halok bo'lib ketar, ba'zilari esa, aksincha, omadi kelib, birdan boyib ketar edilar. Omadi kelmaganlar to'g'risida gap-so'z bo'lmas, lekin omadi kelganlarning shuhrati butun dunyoga tarqalardi. Ko'p o'tmay turli tabaqadan bo'lgan sonsiz-sanoqsiz avanturistlar Avstraliya sohillariga yopirilib kela boshladi. 1852-yilning oxirgi to'rt oyida faqat Melburnning o'ziga ellik to'rt ming kishilik bir armiya kelib tushdi, lekin bu boshliqsiz va intizomsiz armiya edi. Xullas, bu kelgindilar ellik to'rt mingta borib turgan muttaham yirqichlar edi.

Oltin talvasasi boshlangan dastlabki yillarda bu atrofda hayron qolarlik darajada boshboshdoqlik hukm surdi. O'shandan beri o'n uch yil o'tdi. Endi ba'zi joylardan hech narsa topib bo'lmay qoldi. Oltin boyligi tugay boshladi. Oltin izlovchilar 1852-yildan 1858-yilgacha bo'lgan vaqt ichida yerdan oltin uch million funt sterlingli oltinni kovlab olsalar ham, oltin boyligi kamaymasinmi, axir? Oltin ham topila boshlashi bilan kelayotgan odamlarning soni ozaya bordi. Boylik orttirish payida bo'lganlar hali kishi qo'li tegmagan yerlarga o'zlarini urdilar.

Glenarvan Aleksandr tog'idagi behisob oltin konlarini ko'rib o'tmoqchi bo'lib, Ayrton va Myulredini arava bilan jo'natib yubordi-da, bir necha soatdan so'ng sizlarga yetib olamiz, deb va'da qildi. Uning bu rejasi Paganelni juda xursand qildi, u o'z odatiga ko'ra hamrohlariga chicherone, ya'ni yo'l boshlovchi bo'lish vazifasini bo'yniga oldi.

Uning maslahatiga binoan eng oldin bankka borishdi. Ko'chalar keng, tosh yotqizilgan va yaxshilab suv sepilgan. Turli oltin ishlab chiqarish kompaniyalarining katta-katta reklamalari ko'zga tashlanadi. Qum yuvayotgan va qimmatbaho kvarsni maydalayotgan mashinalarning shovqini eshilib turardi.

Binolarning orqasidan keng oltin dalalari, ya'ni oltin kovlab olinadigan kengliklar boshlanardi. Bu yerlarda oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar yollagan, yaxshigina haq oladigan kon ishchilari ishlardilar. Atrofda ko'rinib turgan chuqurlarni sanab chiqishning iloji yo'q. Panjaralarning temir uchi oftobda yashindek tovlanadi. Kon ishchilari orasida har xil millat kishilari bor.

– Lekin, – dedi Paganel – Avstraliyada oltin topish orzusi bilan yongan izlovchilar qolgani yo'q, deb o'ylash xato bo'ladi. To'g'ri, ularning ko'pchiligi har xil kompaniyalarga o'z mehnatini sotadi... Davlat oltin chiqadigan butun yerlarni kompaniyalarga sotib yoki ijaraga berib qo'ygandan keyin ular nima ham qilsin? Shunga qaramay hech narsasi yo'q kishi ham, oltin izlash mumkin bo'lgan yerni na sotib olishga, na ijaraga olishga qurbi kelmaydigan kishi ham boyib ketish imkoniga ega.

– Qanday imkoniyat ekan u? – deb so'radi Elen.

– Jemping tufayli, – deb javob berdi Paganel. – Masalan, bu yerdagi oltin konlariga mutlaqo aloqamiz yo'q bo'lishiga qaramay, omadimiz kelib qolsa hatto biz ham birdan boyib ketishimiz mumkin.

– Lekin qanday qilib? – deb so'radi mayor, qiziqib.

– Boya aytganimdek jemping tufayli.

– Jemping deganingiz nima, o'zi?

– Jemping kon ishchilari orasida odat tusiga kirib qolgan bitim. To'g'ri, bu bitim tufayli ko'pincha tartibsizliklar, hatto zo'ravonliklar bo'lib turadi, ammo

hokim doiralar bu bitimni hali ham bekor qilolmaydilar.

– Gaping bera qoling, Paganel, – dedi mayor, – ko‘p zoriqtirmang.

– Bo‘lmasa, quloq soling. Jemping shunday bir bitimki, unga binoan oltin konlari o‘rtasidagi biror uchastkada oltin kovlash ishi bir kun to‘xtatib qo‘yilsa [bunga katta bayramlar kirmaydi], bunday uchastka umumniki bo‘lib qoladi. Bunday uchastkani egallab olgan har bir kishi o‘zi uchun oltin kovlashi mumkin, baxti kelib qolsa, boyib ham keta oladi. Shuning uchun, Robert, tashlab ketilgan bironta shunday chuqurni top, topsang – seniki bo‘ladi.

– Ukamga bunday gaplarni aytmang, iltimos qilaman, sizdan, janob Paganel, – dedi Meri Grant.

– Men hazillashyapman, aziz miss, Robert ham buni juda yaxshi tushunib turibdi. Robert kon kovlar-midi? Hech vaqt! Yer haydash, chopish, unga ishlov berish, ekin ekish, so‘ng mehnatingga yarasha hosil kutish boshqa gap. Lekin ozgina oltin topish uchun yumronqoziqdek tavakkaliga yer kovlash ham ishmi – bema‘ni hunar, bunday ish bilan shug‘ullangan odamning holiga voy...

Sayohatchilarimiz oltin konlarining o‘rtasiga borib va bir vaqtlar oltin aralash bo‘lgan, hozir esa asosan kvars, loyga o‘xshagan qorishmalar va qumdan iborat bo‘lib qolgan yerlarni aylanib ko‘rishgach, bank yoniga keldilar.

Bu kattakon bir bino edi. Glenarvan bankning bosh inspektoriga murojaat qildi, inspektor unga va hamrohlariga o‘z idorasini ko‘rsatishga rozilik bildirdi. Bu bankka kompaniyalar yerdan qazib olingan oltinni asrash uchun tilxat olib, topshirib qo‘yar edilar.

Inspektor sayohatchilarga oltinning qiziq-qiziq xillarini ko‘rsatdi va bu qimmatbaho metallni kovlash ishidagi har xil qiziq usullarni so‘zlab berdi.

Oltin odatda ikki xil ko‘rinishda: yaxlit parchalar holda va mayda qum shaklida uchraydi. U rudada yo loyga qorishib yotgan holda, yo kvars qobiqqa o‘ralgan holda uchraydi. Shuning uchun u tuproqning joylashganiga qarab, yo sal qazilsa chiqa qoladi, yo yerni juda chuqur qazish kerak bo‘ladi. Oltin odatda oqar suv, vodiy va jarlarning tagida yotadi; o‘zining ko‘p-

ozligiga qarab, maydasi tepasida, yirigi tagida joylashgan bo'ladi.

Aleksandr tog'ida oltin ko'pincha loy qotishmalari va slanes qoyalarning yoriqlarida uchraydi. Bu yerda yirik-yirik oltin parchalari juda ko'p chiqadi.

Sayohatchilar oltinning har xil turlarini ko'rib bo'lgach, bankning mineralogik muzeyiga o'tdilar. Muzey juda yaxshilab tartibga solingan ekan: unda Avstraliya yerini tashkil etgan barcha jinslar bor bo'lib, ular yaxshilab klassifikatsiya qilib joylashtirilgan ekan: har bir jinsga kichkinagina yorliq yopishtirib qo'yilgan. Oltin bu mamlakatning birdan bir boyligi emas: uni tabiat o'z qimmatbaho buyumlarini asraydigan katta-kon nafis quti deb atalsa ham xato bo'lmaydi. Muzey vitrinalarining oynasi tagiga Braziliya topazlari bilan raqobat qila oladigan oq topazlar; yoqutlar; nihoyatda chiroyli – qip-qizil va pushti la'llar; Malabar va Tibet saffirlaridek yuqori baholanadigan zangor va yashil saffirlar; yarqiroq rutillar va nihoyat, Teron sohilidan topilgan kichkinagina olmos parchasi tartib bilan terib qo'yilgandi.

Glenarvan ko'rsatgan iltifoti uchun inspektorga tashakkur aytib, u bilan xayrlashdi; so'ng o'z hamrohlari bilan yana oltin konlarini tomosha qilib yurdi.

Paganel bu dunyoning qimmatbaho narsalariga uncha qiziqmaydigan odam bo'lsa ham, qimmatbaho metallga nihoyatda boy bo'lgan bu tuproqdan ko'z uzolmas, uni diqqat bilan ko'zdan kechirardi, aftidan, u o'zini qo'lga ololmay qolgandi, shuning uchun hamrohlarining hazillari ham uni to'xtata olmadi. U minut sayin engashib, yerdan yo biror tosh, yo bir parcha tog' jinsi, yoki kvars parchasini olib ko'rar, diqqat bilan ko'zdan kechirgach, uni nafrat bilan bir tomonga uloqtirib yuborardi. Lekin u bundan o'zini sira tiya olmadi.

– Sizga nima bo'ldi, Paganel? Biror narsa yo'qotdingizmi? – deb so'radi mayor.

– Yo'qotdim, albatta, – deb javob berdi geografiya olimi. – bu oltin va qimmatbaho toshlar mamlakatida hech narsa topolmasangiz – o'sha yo'qotganingiz-da. Nima uchunligini bilmadim-ku, lekin men bu yerdan bir necha unsiya yoki, iloji bo'lsa, hatto yigirma qadoqli oltin bo'lagini olib ketgim kelib qoldi.

– Uni nima qilar edingiz, muhtaram do‘stim? – deb so‘radi Glenarvan.

– O, men uni vatanimga sovg‘a qilar edim, – deb javob berdi Paganel. – Fransiya davlat bankiga qo‘yar edim.

– Qabul qilishardi deb o‘ylaysizmi?

– Shubhasiz, temiryo‘l obligatsiyalari sifatida qabul qildirardim.

Shu orqali o‘z vatanini «farovonlashtirish» fikri bilan Paganelni hamma tabrikladi, Elen esa sizga dunyodagi eng katta oltin bo‘lagini topish muyassar bo‘lsin, deb istak bildirdi.

Sayohatchilarimiz shu tarzda chaqchaqlashib, oltin konlarining ko‘pgina yerlarini aylanib chiqdilar. Hamma yerda hamma ish bir me‘yorda borardi, lekin odamlar ixtiyorsiz, hech qanday shavqsiz ishlardilar.

Ikki soatcha atrofni aylanib tomosha qilishgach, Paganel durustgina bir qovoqxonani ko‘rib qoldi-da, arava orqasidan yo‘lga chiqish vaqti bo‘lguncha shu yerda o‘tirib, vaqt o‘tkazishni taklif qildi.

Ularning har biriga bir stakandan nobler keltirishdi. Bu ichimlik grogning aksi bo‘ladi. Katta stakandagi suvga kichkinagina ryumkada aroq qo‘shish o‘rniga, bu yerda katta stakandagi aroqqa kichkinagina ryumkada suv qo‘shiladi, so‘ngra unga qand solib ichiladi. Bu ichimlik juda avstraliyachasiga bo‘lib ketgan edi, shuning uchun qovoqxonona xo‘jayinini hayron qoldirib, mehmonlar katta grafinda toza suv so‘rab oldilar, shundan so‘ng suv aralashtirilgan nobler rostakam britan grogiga aylandi.

Keyin, tabiiy, oltin konlari va kon ishchilari to‘g‘ri-sida gap ochildi. Paganel butun ko‘rganlaridan juda xursand bo‘lsa ham, har holda, bu yerlarga oltin topilgan dastlabki yillarda bir kelish juda ham qiziq bo‘lardi-da, dedi.

– O‘sha vaqtlarda, – deb so‘zini davom ettirdi u, – hamma yoq o‘ra bosib, butunlay ilma-teshik bo‘lib ketgan edi, sonsiz-sanoqsiz chuqurlarda ko‘plab mehnatsevar chumolilar qaynab yotardi! Ammo oltin izlab kelgan emigrantlar chumolilardan mehnatkashlikni o‘rgandilar-u, ehtiyotkorlikni o‘rganmadilar. Oltinni orqa-o‘ngga qaramay sarf qilardilar: ular topganini ichishar, qimorga boy berishardi, biz hozir o‘tirgan qo-



voqxona u vaqtda bir do'zaxga aylangan bo'lsa ham ajab emas. Qimor pichoqbozlik bilan tugar, politsiya biror chora ko'rishga ojizlik qilardi. Gubernator jinni bo'layozgan janjalkash oltin izlovchilarning g'alvasini bostirish uchun bir necha marta rasmiy harbiy qismlarni yuborishga majbur bo'lgan. Har qalay u oxiri odamlarni bosib oldi: qiyinchilik bilan bo'lsa-da, ularning har birini patent tanlashga majbur qildi, har holda, bu yerlarda janjal-suron va tartibsizliklar Kaliforniyadagidan kamroq bo'ldi.

– Demak, istagan odam oltin izlovchi bo'la olar ekan-da? – deb so'radi Elen.

– Ha. Buning uchun universitetda o'qib chiqish shart emas, ikkita baquvvat qo'l bo'lsa bas. Muhtojlik haydab kelgan avantyuristlar oltin konlariga bir tiyinsiz kelganlar, boyroqlari belkurak bilan, kambag'allari – pichoq bilan, lekin ular yer kovlashga shunday g'ayrat bilan kirishar edilarki, boshqa bironta ham

ishni bunchalik g'ayrat bilan qilmagan bo'lardilar, albatta. Bu oltinga boy yerlarning manzarasi u vaqtlarda shunday g'alati ediki, asti qo'yasiz! Chor atrofga palatkalar qurilgan, chodirlar tutilgan, chaylalar yasalgan, yerto'lalar qazilgan, yog'och va shox-shabbalardan baraklar qurilgan. O'rta tepasida Britaniya bayrog'i hilpirab turgan hukumat palatkasi o'rnashgan. Uning atrofida davlat ma'murlarining ko'k palatkalari; so'ng esa oltinni pulga almashtirib beruvchilar, oltin sotib oluvchilar, savdogarlar – qisqasi, vaqtdan foydalanib, boyluk orttirib qolishning payiga tushganlarning do'konlari tizilib ketgan. Bu janoblarning boyishi shubhasiz edi-ya, lekin qizil sherst ko'ylak kiygan, iflos va zax yerlarda yashayotgan uzun soqol oltin qidiruvchilarni bir ko'rsangiz edi! To'xtovsiz urilayotgan belkuraklarning taraq-turuqi quloqni batang qilar, harom o'lgan hayvonlarning qo'lansa hidi dимоqqa urilardi. Bechora oltin qidiruvchilarning tepasida doim nafasni bo'g'uvchi quyuq to'zon uchib yurardi. Albatta, bunday sharoitda juda ko'p odam qirilib ketishi turgan gap. Barcha avantyuristlar boyib ketsa ham boshqa gap edi-ya! Ammo bu azob-uqubatlardan naf yo'q edi, agar yaxshilab hisoblab ko'rilsa, muhtojlik va azob-uqubatda halok bo'lgan yuzta, ikki yuzta, hatto mingta oltin qidiruvchidan bittasigina boyigan bo'lib chiqardi.

– O'sha vaqtda oltinni qanday usulda kovlaganlarini aytib berolmaysizmi bizga, Paganel? – deb so'radi Glenarvan.

– Juda ham oddiy usulda kovlanardi, – deb javob berdi geografiya olimi. – Dastlabki oltin axtaruvchilar qimmatbaho metallni hozir Fransiyaning ba'zi yerlarida yuviladiganday yuwardilar. Endi esa oltin qazuvchi kompaniyalar boshqacha usulda ishlaydilar: ular oltinning katta-katta parchalari, mayda bo'laklar va qumi g'uj bo'lib to'planib yotadigan joygacha, avji konigacha qazib tushadilar. Lekin dastlabki oltin axtaruvchilar oltinni faqat qumdan yuvib olish bilan cheklanar edi. Ular yerni kovlashardi, ichida oltin ko'proq tuyulgan joyini olishardi-da, keyin uni yuvib, qimmatbaho metallni ajratib olishardi. Yuvish mashina yordamida bo'lardi. Bu ikki bo'limga ajratilgan, uzunligi besh futdan olti futgacha bo'lgan tobutga o'xshash yashik edi. Bo'limlardan birida bir necha elak ustma-

ust o'rnatilgan bo'lar, eng tagidagisi hammasidan ham mayda katakli edi. Ikkinchi bo'limning tagi torroq bo'lardi. Birinchi bo'limning eng tepasidagi elakka oltin aralash tuproq solinardi-da, ustidan suv quyilardi, keyin uni beshikdek tebrata boshlardilar. Shunda yuqoridagi elakda toshlar ajrab qolardi, pastdagilarida esa ruda bilan qum to'planardi. Suyuq loyga aylangan tuproq bo'lsa suv bilan birga tagi tor ikkinchi bo'limga oqib tushib ketardi. O'sha vaqtlarda ishlatiladigan mashina ana shunday edi.

- Lekin o'shani ham sotib ola bilish kerak edi-da, - dedi Jon Mangls.

- Odatda bu mashinani boyib ketganlardan yo xonavayron bo'lgan oltin izlovchilardan sotib olinardi yoki usiz bir amal qilinardi.

- Uning o'rniga nima ishlatishardi? - deb so'radi Meri Grant.

- Tunuka ishlatishardi, aziz Meri, oddiy taxta tunuka ishlatishardi. Tuproqni xuddi bug'doy sovurgandek shamolda sovurardilar, farqi faqat shu ediki, bug'doy o'rniga ba'zan oltin zarralari ajrab chiqardi. Oltin talvasasi boshlangan dastlabki yillarda xuddi ana shu usul bilan ham ko'pgina odamlar boyib oldi. Ko'rdingizmi, do'stlarim, bir juft etik bir yuz ellik frank, bir stakan limonad o'n shilling tursa ham o'sha vaqtlar juda serdaromad edi. Doim temirni qizig'ida bosgan kishi foyda qiladi-da. Oltin hamma yerda ham mo'l-ko'l edi: yerning yuzasida ham, ariq va anhorlar ostida ham, hatto Melburn ko'chalarida ham serob edi - ko'chaga tosh yotqizgan ustalarga ham oltin qumi bilan haq to'lardilar-da. Xullas, 1852-yilning yigirma oltinchi yanvaridan yigirma to'rtinchi fevraligacha Aleksandr tog'idan Melburnga hukumat qo'shinlari soqchiligi ostida sakkiz million ikki yuz o'ttiz sakkiz ming yetti yuz ellik frankli qimmatbaho metall tashib olindi. Bu o'rta hisob bilan bir kunga bir yuz oltmish to'rt ming yuz yigirma besh frankdan to'g'ri keladi.

- Birdan boyib ketish hodisalari ham bo'lganmi? - deb so'radi Elen.

- Ba'zi odamlar boyib ketgan.

- Siz o'sha hodisalarni ham bilasizmi? - deb so'radi Glenarvan.

– Albatta, bilaman, – deb javob berdi Paganel. – 1852-yilda Ballarat okrugiida og'irligi besh yuz sakson ikki unsiya kelgan yaxlit oltin topilgan, boshqa bir yaxlit oltin Jislendda topilgan, – uning og'irligi yetti yuz sakson ikki unsiya kelgan; yana xuddi o'sha yerda 1861-yilda og'irligi sakkiz yuz o'ttiz to'rt unsiya kelgan yaxlit oltin bo'lagi topildi.

– Bu konlar ochilgandan keyin Yer yuzida oltin qazish qancha ortdi? – deb so'radi Jon Mangls.

– Juda ortib ketdi, qimmatli Jon. Asrimizning boshida qazib olingan oltinning miqdori qirq yetti million frankka teng edi, hozir esa Avstraliya, Yevropa, Osiyo va Amerikada to'qqiz yuz million frankli deyarlik bir milliardlik oltin qazib olinmoqda.

– Demak, janob Paganel, hozir siz bilan biz turgan yerda, oyog'imiz ostida juda ko'p oltin yig'ilib yotgan bo'lishi ham mumkin ekan-da? – deb so'radi Robert.

– Ha, azizim, millionlab oltin bo'lishi mumkin. Biz ularni bosib yuribmiz. Rostki, biz uni toptab yurgan ekanmiz, bu bizning oltinni nazar-pisand qilmasligimizni ko'rsatadi.

– Demak, Avstraliya baxtli mamlakat ekan-da?

– Yo'q, Robert, – dedi geografiya olimi, – oltinga boy mamlakatlar hech vaqt baxtli bo'lgan emas. Unday mamlakatlarda kuchli va mehnatkash odamlar emas, aksincha, dangasalar ko'payadi. Braziliya, Meksika, Kaliforniya, Avstraliyani olib ko'r. O'n to'qqizinchi asrda ularning ahvoli qay holatda? Shuni yaxshi bilib ol, o'g'lim: farovonlik oltin mamlakatiga emas, temir mamlakatiga xosdir.

O' n b e s h i n c h i b o b

«AVSTRALIYA VA YANGI ZELANDIYA GAZETASI»

2-yanvar kuni tong otarda sayohatchilarimiz oltin konlari mintaqasi va Talbot grafligidan chiqib ketdilar. Endi ular Dalxouz grafligidan o'tib borar edilar. Bir necha soatdan so'ng otryad Kalboan va Kempeys-River daryolaridan kechib o'tdi. Sayohatchilarimiz mo'ljallagan yo'llarining yarmisini o'tgan edilar. Shunday yaxshi sharoitda yana o'n besh kun yo'l yurilsa, kichkina otryad Tfold ko'rfaziga yetib boradi.

Hammalari sogʻ-salomat edilar. Paganelning Avstraliya ob-havosi toʻgʻrisida aytgan gaplari toʻgʻri chiqdi. Havo begʻubor, kun ham unchalik issiq emas. Otlar bilan hoʻkizlar ham odamlar singari oʻzlarini juda yaxshi his qilardilar.

Shuni aytish kerakki, Kemden koʻprigidan keyin otryadning yoʻl bosish tartibida biroz oʻzgarish boʻldi. Ayrton temiryoʻldagi halokat jinoyat natijasida boʻlganidan xabar topgach, shu vaqtgacha zarurat boʻlmagan esa-da, baʼzi ehtiyot choralari koʻrish kerak, degan fikrni bildirdi. Endi otiqlar aravani nazardan qochirmas, tunash uchun toʻxtagan paytlarda esa galma-galdan navbatchilik qilar, ertalab bir, kechqurun bir qurollarini yaxshilab koʻzdan kechirar edilar. Hozircha hech qanday xavf-xatarga duch kelmagan boʻlsalar ham, shu atrofda muttahaamlar shaykasi izgʻib yurgani maʼlum boʻlgandan soʻng ehtiyot choralarni koʻrib qoʻyish shart edi. Bu ehtiyot choralari Elen bilan Meridan yashirin holda koʻrilishi ham oʻz-oʻzidan maʼlum: Glenarvan ularni qoʻrqitishni istamasdi.

Bu choralarni koʻrib qoʻyish zarur edi. Ehtiyot-sizlikka yoki hatto salgina beparvolikka yoʻl qoʻyilsa, ishning chatogʻi chiqishi mumkin. Muttahaamlar shaykasidan xavfsirayotgan faqat bizning sayohatchilari-mizgina boʻlmay uzoq-uzoqlardagi shahar aholisi ham, skvatterlar ham oʻz manzillarida hujum va har qanday kutilmagan voqealarga qarshi ehtiyot choralari koʻrib qoʻymoqda edilar. Qosh qorayar-qoraymas hamma uylarning eshigi taqqa-taq yopilar, zanjirdan boʻshatib yuborilgan itlar begona odamning yaqinlashganini sezgan hamon akillashib, shovqin-suron koʻtarardi. Oʻz podasini tunash uchun bir yerga toʻplagan har bir podachining egari qoshida karabin osigʻliq turardi. Bu ehtiyot choralari Kemden koʻprigida yuz bergan jinoyat toʻgʻrisidagi xabar tarqalgandan keyin koʻrila boshladi. Shu paytgacha eshik va derazalarini lang ochib yotadigan koʻpgina kolonistlar endi qosh qoraydi deguncha eshik va derazalarini taqqa-taq yopib olar edilar.

Shuningdek, viloyat maʼmurlari ham oʻzlarining hushyorlik va jonkuyarliklarini koʻrsatuvchi baʼzi choralarni koʻrdilar. Tevarak-atrofga mahalliy jandarm otryadlari joʻnatildi. Telegrammalar nazorat ostida yuborila boshladi. Ilgarilari pochta aravalari katta yoʻllarda

soqchisiz yuraverar edi, sayohatchilarimizning otryadi Kilmordan Xitkotga boradigan katta yo'lni kesib o'tgan kuni ular oldidan chang-to'zon ko'tarib, pochta aravasi o'tib qoldi, arava qanchalik tez o'tib ketgan bo'lmasin, Glenarvan arava eshigi yonida borayotgan polismenlarning karabinlarini ko'rib oldi. Avstraliyada oltin konlari ochilgan paytda qit'aga Yevropadan odamlar uzluksiz oqib kela boshlagandagi janjal-suron payt hali ham tugamagan ekan, deb o'ylash mumkin edi.

Kilmor yo'lidan bir mil o'tgandan so'ng arava yuzlab kilometrga cho'zilgan, azim daraxtlar o'sib yotgan bepoyon o'rmonga kirdi. Bernulli burunidan so'ng sayohatchilarimiz bunday o'rmonga birinchi marta kirishlari edi. Sayohatchilarimiz qalinligi besh duym keladigan po'stloqlari g'alvirak bo'lib ketgan, balandligi ikki yuz futga yetadigan bahaybat evkaliptlarni ko'rib, azbaroyi zavqlanib ketganlaridan qichqirib yubordilar. Yo'g'onligi yigirma fut chiqadigan bu azim daraxtlarning xushbo'y yelim oqib yotgan tanasida bironta ham shox, hatto bironta ko'z yo'q edi. Ular biror usta to'karning qo'lidan chiqqanda ham bunchalik silliq chiqmasdi. Go'yo bir qolipda ishlangan yuzlab katta-katta kolonnalar qad ko'tarib turgandek tuyulardi. Bu silliq kolonnalarning eng tepasida chiroyli toqi ravoq hosil qilib, faqat uchidagina barg o'sgan shoxlar osilib turar, simmetrik joylashgan barglar orasida daraxtning to'ntarib qo'yilgan qutilarga o'xshagan katta-katta gullari ochilib yotardi.

Bu hamisha yashil to'siq tagida havo tuproqni qurutib, doim harakat qilib turardi. Daraxtlar bir-biridan shunday uzoqda o'sgan ediki, orasidan ho'kizlar podasi, o'tliqlar va hatto ot-arava ham bahuzur o'ta olar edi. Bu qalin butalar o'sgan sertikan chakalakzor ham emas, dastlab o'tgan yo'lovchilar faqat bolta yoki o't yordami bilan yo'l ochib boradigan, daraxtlari qulab va lianlar chirmashib ketgan, o'tib bo'lmas yovvoyi o'rmon ham emas edi. Daraxtlar ostida o'tlar gilam bo'lib yotadi; daraxtlarning tepasi ko'm-ko'k soyabon bilan yopilgan; tikka va tekis o'sgan baland-baland daraxtlar safi uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketgan; o'rmon ichi soya ham, salqin ham emas; tepadan yupqa mato orasidan tushayotgandek allaqanday g'alati bir yorug'lik tushib turadi; bir tekis terilib tushgan oftob shu'lalari ajoyib jil-

valanadi. Avstraliya qit'asining o'rmonlari Yangi Dunyo o'rmonlariga aslo o'xshamaydi. Mirta daraxtining son-sanoqsiz turlaridan biri bo'lgan evkalipt Avstraliya o'rmonlarida eng ko'p o'sadigan daraxtdir. Uning soyasi quyuvq emasligiga va ko'm-ko'k barglarining osti qorong'u bo'lmasligiga sabab, barglarining g'alati o'sishidir. Quyoshga barglarining yuzi emas, yoni qarab turadi ko'zingiz bu g'alati barglarni yonidagina ko'radi. Shuning uchun ham quyosh nurlari evkalipt barglari orasidan panjara orasidan o'tgandek bahuzur o'taveradi.

Buni hamma sezdi va hayron qoldi: barglar nima uchun bunday g'alati joylashgan ekan? Turgan gapki, buning sababini Paganeldan so'radilar, u bilmaydigan narsasi yo'q odam bo'lgani uchun darhol javob berdi.

- Meni tabiatning bu g'alati xususiyati hayron qoldirmaydi, - dedi u. - Tabiat o'z ishini biladi, lekin botaniklar doim ham o'ylab gapiravermaydilar. Bu daraxtlarning bargini shu xilda o'stirgan tabiat yanglishmagan, lekin ularni evkalipt deb atagan odamlar yanglishganlar.

- Bu so'zning ma'nosi nima? - deb so'radi Meri Grant.

- U grekchasiga: «Men yaxshi yopaman» degani bo'ladi. Botaniklar bu daraxtga grekcha ism berib, o'z xatolarini yashirmoqchi bo'lganlar, lekin shunisi aniqki, evkaliptning soyasi qalin bo'lmaydi.

- Juda to'g'ri aytdingiz, aziz Paganel, - dedi Glenarvan. - Endi bizga barglarining nima uchun bunday o'sishi sababini aytib bering.

- Buning sababi, do'stlarim, juda tabiiy va tushunarlidir. Bu mamlakatning havosi quruq, yomg'ir kam yog'adi, yerida nam bo'lmaydi, daraxtlari na shamolga, na quyoshga muhtoj emas. Yerida nam bo'lmagandan keyin o'simliklariga ham suv yetishmaydi. Quyosh issig'idan saqlanish va o'zidagi suvni kamroq bug'lantirish uchun bu barglar shunday ingichka bo'ladi. Ularning quyoshga yuz tomonini emas, yon tomonini tutishiga ham sabab ana shu. Bargdan aqlliroq narsa yo'q.

- Undan hudbinroq ham narsa yo'q, - deb gap qo'shdi mayor. - Bu barglar sayohatchilarni tamom unutib, faqat o'zini o'ylar ekan.

Mak-Nabbsning bu soʻzlariga Paganeldan boshqa hamma qoʻshilishdi, ter bosgan peshanasini tez-tez artib turgan geografiya olimi esa soya bermaydigan daraxtlar ostidan oʻtib borayotganligi uchun nihoyatda shod edi. Daraxt barglarining bu xilda oʻsishining oʻziga yarasha yomon jihatlari bor: u yoʻlovchilarni quyoshning jazirama issigʻidan saqlamagani uchun bunday oʻrmonlarda yoʻl yurish juda uzoqqa choʻzilib ketgandek tuyuladi va mashaqqatli boʻladi.

Arava kun boʻyi sonsiz-sanoqsiz evkalipt qatorlari orasidan oʻtib bordi. Kichkina otryadning yoʻlida na bironta hayvon, na bironta yerli odam uchramadi. Bu azim daraxtlarning uchida *kakadu* qushlari yashar edi, lekin ular shunday balandlikda ediki, oʻzi ham zoʻrgʻa koʻrinar, shovqin-suroni ham quloqqa zoʻrgʻa eshitilardi. Har zamonda bir rang-barang patli toʻtiqushlar galasining atrofni jonlantirib shoxdan shoxga uchib oʻtgan koʻzga chalinib qolardi. Lekin, umuman olganda, bu kattakon koʻkalamzor ehromda chuqur sukunat hukm surar, bundagi jimlikni faqat ot tuyoqlarining doʻpir-doʻpiri, sayohatchilarimizning baʼzan birbirlariga aytgan uzuq-yuluq jumalari, aravaning gʻijirlashi va Ayrtonning har zamonda bir erinchoq hoʻkizlariga baqirib qoʻygani buzar edi.

Kechqurun tunash uchun evkaliptlar ostida toʻxtadilar. Daraxtlar tagida yaqin orada yoqilgan gulxanlarning qoldiqlari koʻrinib turar edi. Tagida olov yoqilgan bu azim daraxtlarning tanasi fabrika trubalariga oʻxshardi, chunki oʻt uning tanasini to uchigacha kuydirib yuborgan edi. Daraxtning aslida faqat poʻstlogʻi qolgan boʻlsa ham, koʻrinishdan, hali u mahkam turardi. Lekin skvatterlar va yerliklarning bu xilda olov yoqishdek zararli odatlari bu azamat daraxtlarni sekin-asta yoʻqotib boradi, ish shu tarzda davom etaversa bu daraxtlar ham lagerlarda ehtiyotsizlik bilan yoqilgan gulxanlar natijasida yonib, tugab ketayotgan Livandagi toʻrt yuz yillik kedrlar singari yoʻqolib ketadi.

Paganelning maslahati bilan Olbinet ovqat hozirlash uchun ichi kavak daraxtlardan birining tagida olov yoqdi. Daraxtning kavagi darhol tutunni tortib keta boshladi: tutun balandda, daraxt barglari orasida yoʻqolib ketardi.

Tunda barcha ehtiyot choralari ko'ridi: Ayrton, Myulredi, Vilson va Jon Mangls navbatma-navbat lagerni qo'riqlab chiqdilar.

Uchinchi yanvarda ham sayohatchilar kuni bilan bir tekisda saf tortgan daraxtlarning uzun qatorlari orasidan o'tib bordilar. O'rmonning poyoni yo'qdek edi. Lekin kechga yaqin daraxtlar siyraklasha boshladi, nihoyat, uncha katta bo'lmagan vodiya bir qator uylar ko'rindi.

– Seymur! – deb qichqirdi Paganel. – Bu Viktoriya viloyatida yo'limizda uchraydigan oxirgi shahar.

– U rostdan ham shaharmi? – deb so'radi Elen.

– Oddiy bir qishloq, – deb javob berdi Paganel, – endigina shaharga aylanish oldida turibdi.

– Unda durustroq biror mehmonxona bormikan? – deb so'radi Glenarvan.

– Bo'lsa kerak, – deb javob berdi geografiya olimi.

– Bo'lmasa o'sha Seymurga boraylik. Jasur sayohatchi ayollarimiz u yerda bir kun tunab ketishdan xursand bo'lsalar kerak, deb o'ylayman.

– Biz Meri ikkalamiz bunga rozimiz, azizim Eduard, – dedi Elen, – lekin bir shartimiz bor, bu – ortiqcha ovoragarchiliklarga sabab bo'lmasligi va yo'ldan qo'ymasligi kerak.

– Zig'ircha ham ovoragarchiligi yo'q, – dedi Glenarvan. – Buning ustiga ho'kizlarimiz ham dam olishi kerak. Ertaga erta bilan yana yo'lga tushamiz.

Kechqurun soat to'qqiz. Oy ufqqa og'ib qolgan, uning qiya tushib turgan nurlari tuman orasida o'z kuchini yo'qotardi. Qorong'ulik sekin-asta quyuqlasha bordi. Kichkina otryad Paganel boshchiligida Seymurning keng ko'chalariga kirib keldi. Geografiya olimi o'zi hech vaqt ko'rmagan joylarni doim juda yaxshi bilar edi. U o'zining qandaydir tug'ma bir hissi bilan hamrohlarini to'ppa-to'g'ri «Shimoliy Britaniya» mehmonxonasiga boshlab bordi.

Otlar bilan ho'kizlarni molxonaga, aravani saroyga kimg'izib qo'ydilar. Sayohatchilar esa anchagina yaxshi jihozlangan uylarga tushdilar. Soat o'nda yangi kelgan mehmonlarga kechki ovqat tortildi, bunga mister Olbinetning ham qo'li tekkan edi. Paganel Robert bilan shaharni aylanib kelishga ham ulgurdilar. Ammo geografiya olimi o'zining tunda shahar aylangani to'g'risida

qisqagina qilib: hech narsa ko'rganim yo'q, deb qo'ya qoldi.

Lekin Paganeldan ko'ra kamroq parishonxotir bo'lgan odam Seymur ko'chalarida odamlar allanarsadan xavotir ekanliklarini sezgan bo'lar edi. U yer-bu yerda odamlar to'planishar, ularning soni sekin-asta orta borardi. Eshiklar tagida odamlar o'zaro suhbatlashar edilar. Kishilar hayajon bilan bir-biridan allanimalarni surishtirar, bugun chiqqan gazetalarni ovoz chiqarib o'qishar, muhokama qilishar va bahslashar edi. Bu alomatlar har qanday beparvo odamning ham diqqatidan chetda qolmagan bo'lar edi. Lekin Paganel hech narsa sezmedi.

Mayor esa shaharga chiqmasdan, hatto mehmonxonaning ostonasiga qadam ham qo'ymasdan, faqat mehmonxonaning ezma xo'jayini mister Dikson bilan o'n minutcha so'zlashib, gapning nimada ekanini bilib oldi. Lekin u bu to'g'rida hech kimga hech narsa demadi.

Faqat ovqatdan so'ng Elen Glenarvan, Meri va Robert Grantlar o'z xonalariga tarqab ketishgach, mayor qolgan hamrohlarini to'xtatdi-da:

- Sendxorst temiryo'lida poyezdni halokatga uchratgan muttahamlar topilibdi, - deb xabar qildi.

- Ular qo'lga tushibdi hammi? - deb so'radi Ayrton shoshib-pishib.

- Yo'q, - deb javob berdi Mak-Nabbs, bunga bots-manning bunchalik qiziqqanini sezmagani kishi bo'lib [uning bunga qiziqishi hozirgi sharoitda juda tabiiy bir hol edi].

- Yaxshi bo'lmabdi, - dedi Ayrton.

- Xo'sh, jinoyatni kim qilgan ekan? - deb so'radi Glenarvan.

- Mana, o'qing, - dedi mayor Glenarvanga «Avstraliya va Yangi Zelandiya gazetasi»ni uzatib, - bosh inspektorning yanglishmagan ekaniga ishonasiz.

Glenarvan quyidagi maqolani ovoz chiqarib o'qidi:

«Sindey! 1865-yil 2-yanvar. O'tgan yili yigirma to'qqizinchi dekabrda o'ttizinchi dekabrga o'tar kechasi Melburn temiryo'lga qarashli Kastlmen stansiyasidan besh mil naridagi Kemden ko'prigida yuz bergan halokatni o'quvchilarimiz unutmagan bo'lsa kerak. Melburndan kechqurun soat o'n bir-u

qirq besh minutda yo'lga chiqqan tungi kuryer poyezdi tez yurib keta turib, Lyutton daryosiga tushib ketgan edi. Poyezd yetib kelganda Kemden ko'prigi ochiq turgan ekan. Halokat yuz bergandan so'ng qilingan o'g'irliklar, shuningdek, Kemden ko'prigidan yarim mil masofada temiryo'l qorovulining jasadi topilishi falokatning jinoyat natijasida yuz berganini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, tekshirish ishlari bu jinoyat bundan yarim yil oldin G'arbiy Avstraliyadagi Pert axloq tuzatish turmasidan qochgan katorjniklar shaykasi tomonidan qilinganini ko'rsatdi.

Bu muttahaamlar shaykasi yigirma to'qqiz kishidan iborat. Shaykaning boshlig'i Avstraliyada yaqinda paydo bo'lgan Ben Joys nomli o'ta xavfli bir jinoyatchidir.

Ma'murlar shaykani hali ushlaganlaricha yo'q. Shuning uchun shahar aholisi, kolonistlar va skvat-terlardan ehtiyot bo'lish, shuningdek, jinoyatchilarni qidirish ishiga yordam bera oladigan har qanday ma'lumotlarni bosh inspektorga xabar qilish so'raladi.

J. P. Michel, bosh inspektor».

Glenarvan bu xabarni o'qib bo'lgandan so'ng Mak-Nabbs geografiya olimiga o'girilib:

– Ko'rdingizmi, Paganel, Avstraliyada ham katorjniklar bo'lar ekan, – dedi.

– Qochqin katorjniklar bo'lishi mumkin – bu shubhasiz, – deb javob berdi geografiya olimi. – Jazo muddatini o'tab chiqqanlar bu yerda yashash huquqiga ega emas.

– Har holda ular shu atrofda izg'ib yurishibdi, – dedi Glenarvan. – Lekin bu rejamizni buzib, bizni yo'ldan to'xtatolmaydi. Jon, siz nima deysiz shunga?

Jon Mangls darhol javob bermadi. Yosh kapitan taraddudda edi: bir tomondan, Garri Grantni axtarish ishlarining to'xtatilishi Meri va Robert Grantlarni xafa qilishini oylasa, ikkinchi tomondan, u ekspeditsiyani xavf ostida qoldirishdan cho'chirdi.

– Missis Glenarvan, miss Grant bo'lmaganda bu muttahaamlar shaykasi meni sira ham cho'chitmagan bo'lardi, – deb javob berdi nihoyat u.

Glenarvan uning fikriga tushundi:

- Biz o'z bo'ynimizga olgan vazifani bajarishdan bosh torta olmaymiz, bu o'z-o'zidan ma'lum, lekin sayohatchi ayollarimiz tufayli hozir Melburnga qaytib ketganimiz yaxshiroq bo'larmikin? U yerdan «Duncan»da sharqiy sohilga borib, Garri Grantni qidirish ishlarini davom ettirardik. Siz nima deysiz, Mak-Nabbs?

- Men bir narsa deyishdan oldin Ayrtonning fikrini bilmoqchi edim, - deb javob berdi mayor.

Botsman Glenarvanga bir qarab olib, javob berdi:

- Biz hozir Melburndan ikki yuz mil masofada turibmiz, shuning uchun agar xavf haqiqatan ham bor bo'lsa, baribir janub tarafdagi yo'lda ham shimol tarafdagi yo'ldagiday xavf-xatarga uchrayveramiz. Bu yo'llarning ikkalasi ham bo'm-bo'sh, demak, birini ikkinchisidan xavfsizroq deb bo'lmaydi. Buning ustiga, men sakkizta yaxshi qurollangan jasur kishilar shu o'ttizta muttahamdan qo'rqmasa ham bo'ladi deb o'ylayman. Shuning uchun, menimcha, agar boshqa ma'qulroq taklif bo'lmasa, yo'limizda davom eta bersak.

- To'g'ri aytdingiz, Ayrton, - deb uning fikriga qo'shildi Paganel. - Biz agar o'z yo'limizda davom etsak, kapitan Grantning iziga tushishimiz mumkin, janub tomonga qaytsak, aksincha, uni topish umidi qolmaydi. Shuning uchun men sizning fikringizga qo'shilishaman. Pert turmasidan qochgan muttahamlardan men zarracha ham qo'rqmayman: jasur odamlar ulardan cho'chimasa ham bo'ladi.

Ilgarigi yo'ldan sayohatni davom ettirish to'g'risidagi taklif ovozga qo'yildi, uni hamma bir og'izdan ma'qulladi.

- Men yana bir fikr aytmoqchi edim, ser, - dedi botsman hammalari tarqab ketish uchun turishar ekan.

- Gapiring, Ayrton.

- Sohilga yaqinroq yurish to'g'risida «Duncan»ga buyruq yuborish payti kelmadimikin?

- Nima keragi bor buning? - deb gapga aralashdi Jon Mangls. - Oldin Tufold buruniga yetib olaylik, keyin yuboramiz-qo'yamiz. Agar biror tasodif bo'lib, Melburnga qaytishga majbur bo'lsak, «Duncan»ning u yerda yo'qligiga o'zimiz achinib qolamiz. Buning ustiga, kema hali ta'mirdan chiqmagan bo'lishi ham ehtimol.

Shuning uchun men hozircha tura turish kerak deb o'ylayman.

- Xo'p, - deb uning fikriga rozi bo'ldi Ayrton, o'z taklifini boshqa takrorlamay.

Ertasiga kichkina otryad Seymurdan chiqib ketdi. U yaxshi qurollangan va har qanday kutilmagan voqealarga tayyor edi. Yarim soatdan so'ng sayohatchilar yana sharq tomonga qarab cho'zilib ketgan evkalipt o'rmoniga kirib bordilar. Glenarvan ochiq daladan yo'l yurishni afzalroq ko'rar edi. Ochiq dala quyuuq o'rmonga nisbatan hujum yoki pistirmalar qo'yishga qulay bo'lmas edi, albatta. Lekin hozir buning iloji yo'q, shuning uchun arava kuni bilan bir xildagi azim evkaliptlar orasidan o'tib bordi. Kechqurun Englezi grafligining shimohiy chegarasi bo'ylab yo'l bosgan sayohatchilarimiz bir yuz qirq to'rtinchi meridianni kesib o'tib, Myorrey okrugi chegarasida tunash uchun to'xtadilar.

O' n o l t i n c h i b o b

MAYOR BU QANDAY MAYMUN DEB SO'RADI

Ertasiga, beshinchi yanvar kuni sayohatchilarimiz bepoyon Myorrey okrugiga kirib keldilar. Bu kam o'rganilgan, odam yashamaydigan o'lka to Avstraliya Alplarining baland tizmalarigacha cho'zilib boradi. Sivilizatsiya bu o'lkanani hali alohida grafiqlarga ajratmagan. Umuman, viloyatning bu qismiga odamlar kam keladi, u kam tekshirilgan. Vaqti kelib bu yerdagi o'rmonlar yog'och tayyorlovchilarning boltasi ostida qoladi, o'tloqlar esa skvatterlarning podalariga beriladi, lekin hozirchalik bu o'lkaning yerlari Avstraliya qit'asi Hind okeanining tagidan ko'tarilgan vaqtdagiday kimsasiz, yovvoyi.

Barcha ingliz karitalarida bu o'lka: «Reserve for the blacks» - «Qora tanlilar uchun ajratilgan» degan so'zlar bilan ifoda qilinadi. Bu yerga ingliz kolonistlar yovvoyilarni majburiy ravishda siqishtirib qo'yg'alar. Avstraliya irqiga uzoq qirlardan va o'tib bo'lmas o'rmonlardan ba'zi ma'lum joylarni ajratib berganlar, ular bu yerlarda sekin-asta yo'q bo'lib ketishga mahkum etilgan.

Har qanday oq tanli kishi - u xoh kolonist bo'lsin, xoh emigrant bo'lsin, xoh skvatter, xoh yog'och tayyorlovchi bo'lsin - bu yerlarga borishga haqli, lekin qora tanlining bu yerlardan chetga chiqishga haqqi yo'q.

Paganel o'z hamrohlari bilan suhbat qilar ekan, gapni yerlik qabilalar to'g'risidagi shu muhim masalaga burdi. Hammalari ham Britaniya siyosati yerlik qabilalarni ularning ota-bobolari yashagan joylardan haydab yuborishga va yo'q qilishga qaratilgan degan xulosaga keldilar. Geografiya olimi inglizlar o'zlarining barcha mustamlakalarida shunday mahv etuvchi siyosat olib boradilar, Avstraliyada esa bu siyosat boshqa joylardagiga qaraganda ayniqsa qattiqroq, dedi. Mustamlakachilikning dastlabki davrida surgun qilinganlar, shuningdek, kolonistlarning o'zlari ham yerliklarga vahshiy hayvonlarga qaragandek ko'z bilan qarar edilar. Ular qo'llarida miltiq ko'tarib, ularni ov qilar, o'ldirar edilar, so'ng yuristlarning gapini pesh qilib, avstraliyaliklar qonundan tashqari odamlar bo'lgach, ularni o'ldirish ham jinoyat emas, deb da'vo qilar edilar. Sidney gazetolari hatto Xanter ko'li atrofidagi yerli qabilalardan qutulishning radikal choralarini taklif qildilar, ya'ni yoppasiga zaharlashni maslahat berdilar.

Ko'rganimizdek, inglizlar mamlakatni bosib olgach, uni mustamlakaga aylantirishda mahalliy xalqni qirg'in qilish usulini qo'llaganlar. Ko'rsatilgan zulmni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Ular besh million hind yo'q bo'lib ketgan Hindistonda va bir million gottentotdan faqat yuz mingi omon qolgan Kap viloyatida o'zlarini qanday tutgan bo'lsalar, Avstraliyada ham o'zlarini xuddi o'shanday tutdilar. O'z-o'zidan ma'lumki, Avstraliyaning mahalliy aholisi bunday zulm va kolonizatorlar ular orasida tarqatayotgani piyanistalik natijasida sekin-asta kamayib boradi va o'lim tashuvchi sivilizatsiya siqig'ida ko'p o'tmay tamom qirilib ketadi. To'g'ri, qonxo'r yog'och tayyorlovchilarni bir oz tiyib qo'yish uchun ularga qarshi qaror chiqargan gubernatorlar ham bo'ldi, bu qarorlarga binoan qora tanlining burun yo qulog'ini kesib olgan yoki «trubkasini bo'shatish», ya'ni tomiridan qonini oqizish uchun uning jimjilog'ini kesgan oq tanli bir necha darra urib jazolanishi kerak edi. Bularning hech biri foyda berma-

di! Odamlarni qirg'in qilish ommaviy tus olaverdi, shu tarzda butun-butun qabilalar yo'q bo'lib ketdi. Bunga Van-Dimen Yeri orolini misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Bu yerda XIX asrning boshida besh ming mahalliy aholi bor edi. 1863-yilda esa faqat yetti kishi qoldi. Yaqinda esa «Merkuriy» gazetasi eng so'nggi tasmaniyalikning Gobart shahriga kelganini xabar qildi.

Na Glenarvan, na mayor, na Jon Mangls Paganelga e'tiroz bildirmadilar. Hatto ular shotlandiyalik emas, ingliz bo'lganlarida ham o'z vatandoshlarini himoya qilish uchun hech narsa deya olmagan bo'lar edilar: geografiya olimi keltirgan faktlar aniq-ravshan bo'lib, ularni rad qilishning iloji yo'q edi.

– Bundan ellik yilcha oldin shu yerdan o'tsak, – dedi Paganel, – biz yo'limizda allaqachon bir qancha avstriyaliklar qabilasini uchratgan bo'lar edik, bunga amin bo'lavering, hozir esa shu vaqtgacha bironta qabilaga duch kelganimiz yo'q. Yana yuz yilchadan keyin bu qit'ada bitta ham qora tanli qolmaydi.

Haqiqatan ham, qora tanlilarga ajratib berilgan yerlar mutlaqo odam turmaydigan joylarga o'xshar, ko'chmanchilar yoki o'troq aholidan bironta asar ko'rinmasdi. Qir asta-sekin o'rmonga almashinib bordi, tevarak-atrof esa borgan sari yovvoyilashardi. Qit'aning bir chetidagi bu yerlarga bironta ham jonli – na odam, na hayvon – qadam bosmaydigandek tuyulardi. Birdan Robert bir to'p evkaliptlar yonida to'xtab, kattakon bir jonivorni ko'rsatib qichqirdi:

– Maymun! Qaranglar, maymun!

Qop-qora bir jonivor shoxdan shoxga sakrab, bir daraxtdan ikkinchisiga shunday epchillik bilan o'tar ediki, go'yo uni havoda allaqanday parda qanot tutib turganday tuyulardi. Nahotki, bu g'alati o'lkada maymunlar ham ko'rshapalakdek uchib yuradigan tulklilarga o'xshagan bo'lsa?

Arava to'xtadi, hammalari ko'z uzmay, o'sha qora vujudni tomosha qila boshladilar. U bora-bora kattakon evkalipt shoxlari orasida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Lekin ko'p o'tmay, u nihoyatda tezlik bilan daraxt tanasidan pastga tusha boshladi, oxiri bir sakradi va har xil qiliqlar qilib, bir necha sajen joyga sakrab-sakrab bordi-da, uzun qo'llari bilan kattakon yelim daraxtining silliq tanasiga yopishdi. Sayohatchilarimiz ush-

laydigan joyi bo'lmagan va quchog'iga sig'magan silliq va sirg'anchiq daraxtga uning qanday qilib chiqishiga aqllari yetmay, hayron edilar. Lekin birdan maymunning qo'lida boltaga o'xshagan bir narsa paydo bo'ldi, u daraxt tanasini chopib-chopib, o'sha yerlarga oyog'ini qo'yib, daraxtning uchchiga chiqib oldi. Yana bir necha sekunddan keyin maymun quyuk barglar orasida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

- Bu qanday maymun? - deb so'radi mayor.

- Bu maymun - avstraliyalik odamning o'zginasi, - deb javob berdi Paganel.

Geografiya olimining yo'ldoshlari hayron bo'lganlaridan yelkalarini qisib ulgurganlaricha ham yo'q ediki, yaqin bir joydan: «Koo-e! Koo-el» deganga o'xshash qichqiriq eshitilib qoldi. Ayrton ho'kizlarini haydadi, yuz qadam ham bosmay kutilmaganda sayohatchilarimiz yerliklar manzilidan chiqib qoldilar.

Manzil shunday xarob ediki, asti qo'yaverasiz! Quruq yerga o'ntacha chayla qurilgan. Daraxt po'stloqlarini cherepitsa singari biri ustiga birini taxlab qurilgan bu gunioslar unda yashaydigan bechoralarni faqat bir tomondan asrar edi. Bu xarobalarning ochlikdan odam qiyofasini yo'qotgan baxtiqora xo'jayinlariga qarab, kishining ko'ngli aynir edi. Ular erkak, ayollar, bolalar bo'lib, o'ttiz kishicha edi. Hammasi ham kenguru terisidan tikilgan, churuk-churuk bo'lib ketgan kiyim kiygan edilar. Ular aravani ko'rib, qochish payiga tushdilar. Lekin Ayrtonning sayohatchilarimiz tushunmaydigan mahalliy shevada bir narsalar deb qichqirganini eshitib, aftidan, biroz tinchlandilar-da, yana qaytib keldilar.

Bo'yi besh fut-u yetti duymga yetadigan, sochlari to'zigan, qo'llari uzun-uzun va qorinlari qappayib chiqqan bu yerliklarning badani qop-qora emas, vaqt o'tishi bilan rangini yo'qotgan qorakuyaga o'xshar edi. Yovvoyilarning serjun badani tatuirovka¹ qilingan, bi-ror motam yoki marosim munosabati bilan eti kesib olinganidan qolgan chandiqlar bilan to'la edi. Bular yevropaliklar nazarida chiroyli deb hisoblanadigan odamlarning tamoman teskarisi bo'lib, og'zi katta-katta, burni puchuk, buning ustiga nihoyatda pachoq,

¹ Tatuirovka - yuvilmaydigan, ketmaydigan bo'yoq bilan badanga solingan bezak, rasm.

pastki jag'i turtib chiqqan, oppoq tishlari kurakdek-kurakdek edi.

Elen bilan Meri aravadan tushdilar, och-yalang'och yerliklarga mehribonlik bilan qo'l cho'zib, ularga ovqat berdilar. Yerliklar ochko'zlik bilan ovqatga tashlandilar.

Sayohatchi ayollarimiz ayniqsa yovvoyi xotinlarga qattiq achindilar. Avstraliyalik ayolning holini hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydi. O'gay tabiat ularga zig'ircha ham husn bermagan; ular qo'poldan qo'pol erkak tomonidan o'g'irlangan, tayoq bilan kaltaklanishdan boshqa hech qanday sovg'a-salomni bilmagan ojiza qullardir. Avstraliyalik xotin erga tekkandan keyin bevaqt va bot qarib qoladi: axir, ko'chmanchilikning barcha og'irliklari bechora xotinning zimmasiga tushadi-da. Bir manzildan ikkinchi manzilga ko'chishda u qamishdan to'qilgan belanchakda yotgan bolasinigina emas, balki erining ovga va baliq tutishga tegishli asboblarini ham, shuningdek, o'zi to'r to'qiydigan *phormium tenax* o'simligining quritilgan tolalarini ham ko'tarib yurishga majbur. Bundan tashqari xotinlar oilaga ovqat topish g'amini yeyishi kerak. U kaltakesak, duvutrobka va ilonlarni ov qiladi, ba'zan ov qilayotgan narsasining ketidan daraxtlarning uchigacha chiqishga majbur bo'ladi. O'tinni ham u yoradi, chayla qurish uchun daraxt po'stini ham u shiladi. U tinchish nimaligini bilmaydi, xo'jayini - eridan qolgan sarqit bilan tamaddi qiladi. Bu bechoralardan ba'zilari anchadan beri og'ziga ovqat tegmagan bo'lsa kerak - allanarsaning urug'i bilan qushlarni aldab tutmoqchi bo'lar edi. Ular misdek qizib ketgan yerda biror qushning ushlab olish mumkin bo'larli darajada yaqin kelishini kutib, soatlab o'likday qimir etmay yotishga majbur edilar. Aftidan, yovvoyi xotinlarning qush ovlash hunari bundan nariga o'tmas, bunday oddiy hiylaga faqat Avstraliya qushlarigina ilinishi mumkin edi.

Bu orada sayohatchilarning yaxshi muomala qilayotganliklarini ko'rib, yovvoyilar ularni o'rab oldilar, shuning uchun oziq-ovqat zaxirasini talon-torojdan ehtiyot qilish zarurati tug'ildi.

Yovvoyilar tanglaylarini taqillatib, hushtak chalgan-ga o'xshab so'zlashar edilar. Ularning so'zlashgani hayvonlarning qichqiriqlariga o'xshar, lekin ba'zi-ba'zida

ularning tilida ham shirin, yoqimli tovushlar eshitilib qolardi. Yerliklar «noki» degan soʻzni tez-tez ishlatardilar, bu soʻzni aytganda qilgan harakatlariga qaraganda u «menga ber» degan maʼnoni bildirar edi. Ular sayohatchilarning eng ikir-chikir narsalaridan tortib, barcha buyumlarini «ber» der edilar. Mister Olbinet aravaning yuk boʻlimini, ayniqsa undagi oziq-ovqatni saqlab qolaman deb juda qiynalib ketdi. Ochlikdan nihoyatda toliqqan bu bechoralar aravaga ochkoʻzlik bilan qarar edilar.

Glenarvan xotiniining iltimosi bilan aravani oʻrab olgan yerliklarga biroz oziq-ovqat ulashishni buyurdi. Yovvoyilar gapning nimada ekanini tushunib qolgach, shodlanib ketib shunday qiyqiriq koʻtardilarki, buni koʻrgan har qanday toshyurak odam ham taʼsirilanmay qolmas edi.

Mister Olbinet tarbiya koʻrgan kishi boʻlgani uchun oldin ayollarni mehmon qilmoqchi boʻldi. Lekin bu bechora mushtiparlar berahm erlaridan oldin ovqatga qoʻl urishga jurʼat qilolmadilar. Erkaklar esa ovqatga xuddi oʻljasi ustiga otilgan yirtqichlardek yopirildilar.

Otasining mana shunday yovvoyilar qoʻliga asir tushgan boʻlishi mumkin ekanini koʻz oldiga keltirgan Meri Grantning koʻzlariga jiqqa yosh keldi. Meri, kapitan Grant shunday sayoq qabilalar qoʻliga asir tushnan boʻlsa, holi nima kechishini, qashshoqlik, ochlik va qoʻpol muomaladan qanchalik azob chekishini darhol koʻz oldiga keltirdi. Qizga xavotir aralash mehribonlik bilan qarab turgan Jon Mangls uning fikrini darrov fahmladi-da, undan oldinroq «Britaniya»ning botsmaniga murojaat qildi:

– Siz ana shunday yovvoyilar qoʻlidan qochgan edingizmi, Ayrton?

– Ha, kapitan, Markaziy Avstraliyada koʻchib yuradigan qabilalarning hammasi ham bir-biriga oʻxshaydi. Lekin bular bir toʻp qashshoqlar, xolos. Darling boʻylarida koʻp kishilik qabilalar yashaydi, ular boshida juda katta huquqlarga ega boʻlgan qabila boshliqlari turadi.

– Bu yovvoyilar orasida yevropalik kishi nima ish qilishi mumkin? – deb soʻradi Jon Mangls.

– Men qilgan ishlarni qiladi-da, – deb javob berdi Ayrton. – Ular bilan birga ov qiladi, baliq tutadi,

urushlarida ishtirok qiladi. Bular yevropaliklar bilan, ilgari aytganimdek, uning xizmatlariga qarab muomala qiladilar, agar yevropalik asir aqlli va dovyurak odam bo'lsa, qabilada ancha ko'zga ko'rinarli o'rin tutadi.

– Lekin baribir asir bo'lib qolaveradi-da? – dedi Meri Grant.

– Albatta, uni kechasi-yu kunduzi nazorat qilib turadilar.

– Shunda ham siz qochishga muyassar bo'libsiz-ku, Ayrton, – deb gapga aralashdi mayor.

– Ha, mister Mak-Nabbs, men asir tushgan qabila bilan qo'shni bir qabila o'rtasida urush bo'layotganidan foydalanib qochdim. Baxtim kelib qoldi-yu, qochib qutuldim, bunga achinmayman, albatta. Lekin bordi-yu o'sha vaqt yana qaytib kelgudek bo'lsa, Markaziy Avstraliya cho'llarida boshimdan kechirgan qiyinchiliklarni qaytib ko'rmaslik uchun butun umrimni qullikda o'tkazishni afzal ko'rgan bo'lar edim. Ayting-ayting, ishqilib, kapitan Grant menga o'xshab qochib qutulaman deb yurmasin!

– Miss Grant, unda biz otangizning yovvoyi qabilalar qo'lida asirlikda bo'lishini istashimiz kerak bo'ladi, – dedi Jon Mangls. – Shunda biz uning izini o'rmonlardan qidirgandagidan ko'ra osonroq topa olamiz.

– Siz hali ham umidvormisiz? – deb so'radi qiz.

– Men sizni oxir bir kun baxtli holda ko'rishdan hali umidimni uzganim yo'q, miss Meri.

Meri Grantning ko'zlariga kelgan yosh qizning yosh kapitanga bildirgan minnatdorchiligining ifodasi bo'ldi.

Bu gap-so'zlar bo'lib turgan paytda yerliklar orasida allaqanday g'alati harakat boshlandi: ular qattiq-qattiq qichqirishar, u yoq-bu yoqqa yugurishar, qurollarini qo'lga olishar edi; bunday qaraganda, ular allanarsadan g'azablangedek ko'rinardi.

Glenarvan yovvoyilarga nima bo'lganini tushunolmay turgan edi, shu payt mayor botsmanga murojaat qilib qoldi:

– Ayrton, yovvoyilar orasida ko'p yashagan ekarsiz, mana bu yovvoyilarning tiliga tushunayotgan bo'lsangiz kerak?

– Ko'pda tushunayotganim yo'q, – deb javob berdi botsman, – chunki har bir qabilaning o'ziga xos she-

vasi bo'ladi. Shunga qaramay, salgina tushunganday bo'lyapman, nazarimda bu yovvoyilar janob Glenarvanga minnatdorchilik bildirish ushun jangga o'xshash bir tomosha ko'rsatmoqchi bo'lyaptilar.

Uning gapi to'g'ri chiqdi. Yerliklar hech qanday gap-so'zsiz bir-birlarining ustiga shunday g'azab bilan tashlandilarki, bu g'azabning yasama ekanini ajratib olish qiyin edi.

Haqiqatan ham, sayohatchilarning gapiga qaraganda, avstraliyaliklar juda yaxshi artist bo'ladilar; hozir ham ular o'zlarining juda talantli ekanliklarini ko'rsatdilar.

Ularning ham hujum qiladigan, ham mudofaa qiladigan qurollari har qanday qattiq boshni ham pachaqpacha qila oladigan pishiq so'yil va hindularning tomagavkiga o'xshagan tabardan iborat; tabar uchi juda o'tkir qilib charxlangan bir bo'lak toshni ikkita tayoq orasiga olib, o'simlik yelimi bilan mahkam yopishtirib yasaladi. Bandining uzunligi o'n fut keladigan bu tabar jang vaqtida juda qo'rqinchli qurol, tinchlik davrida esa foydali asbob. Vaqtiga qarab, u yo odamning boshini, yo daraxtning shoxini kesadi; goh odamning badaniga uriladi, goh daraxtning tanasiga.

Jangchilar so'yil va tabarlarni o'ynatib, g'azab bilan bir-birlariga otilar, ba'zilari o'lgan kishi bo'lib yiqilsa, ba'zilari g'olibona qiyqirar edilar. Xotinlar, ayniqsa kampirlar, xuddi savdoyi bo'lgandek ayyuhannos solib, jangchilarni rag'batlantirishar, yolg'ondan o'lgan jangchilar ustiga o'zlarini tashlashar va g'azab bilan ularni burda-burda qilib tashlayotgandek harakat qilishardi. Elen nuqul bu o'yin rostakam jangga aylanib ketmasin yana deb xavotirlanardi. Shuni ham aytish kerakki, bu soxta jangda ishtirok qilgan bolalar bir-birlarini rostakamiga urar edilar; ayniqsa qizlar qattiq quturdi, ular bir-birlarini sira ayamay mushtlar edilar.

Soxta jang o'n minutchacha davom etgandan so'ng, yovvoyilar birdan taqqa to'xtadilar. Qo'llaridagi qurollarini tashladilar. Shovqin-suron va ur-yiqit o'rnini chuqur sukunat egalladi. Yerliklar rasmlardagi tasvirlar singari turgan joylarida qotib turar, go'yo toshga aylanib qolgandilar. Ularning bunday qotib qolishlariga, qimir etmay turishlariga nima sabab bo'ldi ekan, ko'p o'tmay ma'lum bo'ldi. Yelim daraxtlari tepasida kaka-

dular galasi ko'rindi. Kakadular o'zlarining shovqin-suronlari bilan osmonni boshlariga ko'tardilar; ularning yarqiroq patlari galani kamalakka o'xshatib ko'rsatardi. Jangning buzilishiga sabab ana shu turli-tuman patli qushlar galasining paydo bo'lishi edi: urush undan ko'ra foydaliroq ish – ov bilan almashindi.

Yerliklardan biri qizil rangga bo'yalgan allaqanday bir g'alati shaklli qurolni olib, hali ham qimirlamay turgan o'rtoqlaridan ajralib chiqdi-da, daraxt va butalar orasidan o'tib, kakadular galasi ko'ringan daraxt tagiga bora boshladi. U bironta ham bargni qimirlatmay, bironta ham toshni joyidan qo'zg'atmay, emaklab, ehtiyot bilan surilib borardi. Odam emas, allaqanday ko'lanka surilib borayotganga o'xshardi.

Qushlarga ancha yaqin borib olgandan keyin yovvoyi qo'lidagi qurolini uloqtirdi. U yerdan ikki futcha balandroqdan gorizontall chiziq bo'ylab qirq futcha uchib bordi-da, yerga tegmasdan osmonga tikka ko'tarilib ketdi, yuz futcha yuqori ko'tarildi-da, o'ntacha qushni qulatdi, keyin yarim doira yasab, yana ovchining oyog'i ostiga kelib tushdi.

Glenarvan bilan hamrohlari nihoyatda hayron qoldilar – ular o'z ko'zlariga ishonmasdilar.

– Bu bumerang, – deb tushuntirdi Ayrton.

– Bumerang! Avstraliya bumerangi! – deb qichqirdi Paganel va bolalarday, «uning ichida nimasi borligini ko'rish uchun» yugurganicha borib, o'sha ajoyib qurolni qo'liga oldi.

Haqiqatan ham, bu bumerangning ichida biror murvati bor, birdan bo'shatib yuborilgan prujina uning yo'nalishini o'zgartirib yuboradi, deb o'ylash mumkin edi. Lekin aslo bunday emas. Bumerang o'ttiz-qirq duym uzunlikdagi biroz egilgan oddiy qattiq tayoq bo'ladi. Bu tayoqning o'rtasidagi qalinligi taxminan uch duym chiqar, ikkala uchi esa o'tkirlashtirilgan edi. Uning egilgan qismi boshqa joylaridan yarim duym ingichkaroq. Do'ppayib chiqqan tarafining qirralari o'tkirlashtirilgan. Bular hammasi juda oddiy va allaqanday tushunib bo'lmaydigan edi.

– Bumerang degani shu ekan-dal – dedi Paganel, bu g'alati qurolni diqqat bilan ko'zdan kechirar ekan. – Oddiy bir tayoq. Lekin to'g'ri gorizontall chi-

ziq bo'ylab borib, qanday qilib birdan tikkasiga yuqori ko'tarilarkin va yana otgan odamning oyog'i ostiga qaytib tusharkin? Na olimlar, na sayohatchilar buning sirini haligacha tushuntirib berolganlari yo'q.

- Bumerang shu jihatdan sersoga o'xshamaydimi? Ma'lum bir usulda uloqtirilgan seraso ham o'sha otilgan joyiga yana qaytib keladi-ku? - dedi Jon Mangls.

- Yoki, to'g'rirog'i, kiy bilan urilgan billiard shari-ning boshqa sharga urilib, orqaga qaytishiga o'xshagan hodisa emasmikin? - dedi Glenarvan.

- Mutlaqo, - deb javob berdi Paganel. - Siz aytgan har ikki holatda ham o'sha narsaning borib uriladigan nuqtasi bor: seraso yerga borib uriladi, billiard shari esa stol chetiga yoki boshqa sharga uriladi. Bumerangning esa borib uriladigan nuqtasi yo'q: u yerga tegmaydi, shunga qaramay ancha yuqoriga chiqadi.

- Bo'lmasa siz nima bilan izohlaysiz buni, janob Paganel? - deb so'radi Elen.

- Men unga hech qanday izoh berolmayman, men mana shu faktni yana bir marta qayd qilib o'tyapman, xolos. Gap bumerangni otish usulida va uning tuzilishida bo'lsa kerak. Uni otish usuli esa avstraliyaliklarning siri.

Ammo vaqt o'tib borardi, shuning uchun Glenarvan bu yerda ortiq qolib ketmaylik deb, sayohatchi ayollardan aravaga chiqishlarini so'ramoqchi bo'lib turgan ediki, shu payt yovvoyilardan biri yugurib keldi-da, hayajon bilan allanarsalar deb qichqirdi.

- Anavini qarang! - dedi Ayrton. - Ular kazuarlarni ko'rib qolishibdi.

- Nima gap, o'zi? - deb so'radi qiziqib Glenarvan.

- O! Buni albatta bir tomosha qilish kerak! - dedi Paganel. - O'zi ham juda g'alati tomosha bo'lsa kerak. Bumerang yana ishga tushsa ham ajab emas.

- Siz nima deysiz bunga, Ayrton? - deb so'radi Glenarvan, botsmandan.

- Ko'p vaqt ketmasa kerak deyman, ser, - deb javob berdi Ayrton.

Yerliklar bir minutni ham qo'ldan boy bermadilar. Axir bir necha kazuarini o'ldirish ular uchun juda katta muvaffaqiyat edi-da: bu butun qabila bir necha kunlik oziq-ovqatini g'amlab oladi degan so'z. Ovchilar bunday g'animatni qo'lga tushirish uchun butun

hunarini ishga solishi o'z-o'zidan ma'lum. Lekin kazu-
ardek chopqir jonivorni itlarsiz va miltiqsiz qanday ov
qilisharkan? Paganel ko'rishga bunchalik qiziqayotgan
tomoshaning eng qiziq yeri ana shu edi.

Emu, yoki avstraliya kazuari [uni yovvoyilar «mu-
rek» deb atashadi] Avstraliya pasttekisliklarida tobo-
ra kam uchraydigan bo'lib qoldi. Bo'yi ikki yarim fut
keladigan bu katta qushning go'shti kurka go'shtiga
o'xshash oqish bo'ladi. Kazuarining boshida shox-
ga o'xshagan tangalari bo'ladi, ko'zi och jigarrang,
tumshug'i qora, pastga qayrilgan. Har bir oyog'ida uch-
tadan o'tkir tirmoqli barmog'i bo'ladi. Qanotlari juda
cho'ltoq bo'lganidan ucholmaydi. Uning yungi desa
ham bo'ladigan patlari bo'yni bilan ko'kragida bosh-
qa yerlaridagidan to'qroq. Kazuar ucholmaydi, lekin
shunday tez chopadiki, eng uchqur otni ham orqada
qoldirib keta oladi. Uni faqat hiyla bilan qo'lga tushi-
rish mumkin.

Yugurib kelgan yovvoyining chaqirig'iga javoban
o'nlab avstraliyaliklar ovga otlanganiga sabab ana shu
edi. Ular o'qchilar otryadi singari yovvoyi indigo gullari
ko'm-ko'k ochilib yotgan ajoyib vodiya sochilib ketdi-
lar. Sayohatchilarimiz esa mimoza chakalaklari yoqa-
sida to'planib turdilar.

Yovvoyilar yaqinlashib borganda, bir necha kazuar
sakrab o'rnidan turib, ura qochib qoldi. Xabar topib
kelgan boyagi yovvoyi – aftidan, u shu qabilaning ov-
chisi edi, – qushlarning qayerga borib to'xtaganini bilib
olgach, o'rtoqlariga bundan nari bormanglar deb isho-
ra qildi. Yovvoyilar yerga uzala tushib yotib oldilar,
ovchi esa to'rxaltasidan bir-biriga boplab yopishtirib
tikilgan ikkita kazuar terisini chiqardi-da, ustiga kiyib
oldi. So'ng o'ng qo'lini yuqori ko'tarib, ovqat izlab yur-
gan kazuarining yurishini qilib, kazuarlar to'dasi to-
mon yo'l oldi. U goh don axtarayotgan bo'lib to'xtar,
goh oyoqlari bilan yer titib, to'zon ko'tarardi. Ovchi
qushning bu qiliqlarini u juda o'rinlatib bajarardi. Ka-
zuarlar odatiga bundan yaxshiroq taqlid qilib bo'lmasa
kerak. Buning ustiga u qushning bo'g'i q qaqillashi-
ga shunday o'xshatib taqlid qilar ediki, hatto kazu-
arlarning o'zi ham aldandi. Ko'p o'tmay ovchi bepar-
vo yurgan qushlar to'dasi orasiga kirib oldi. Birdan u

qo'lidagi so'yilini ishga solib, olti kazuardan beshtasini yiqitdi.

Ov muvaffaqiyatli tugadi.

Glenarvan, sayohatchi ayollar va butun otryad yerliklar bilan xayrlashdilar.

O' n y e t t i n c h i b o b

CHORVADOR MILLIONERLAR

146°15' uzunlikda tunab, tinchgina tong ottirganlaridan so'ng, sayohatchilarimiz 6-yanvar kuni ertalab soat yettida yana yo'lga chiqdilar va keng Myorrey okrugini kesib o'ta boshladilar. Ular sharqqa qarab borardilar, shuning uchun ot va ho'kizlarining izi qirda to'ppa-to'g'ri iz qoldirib ketardi. Ular yo'lda ikki marta shimol tomonga o'tib ketgan skvatterlarning iziga duch keldilar, agar Glenarvanning oti oyog'idagi Blek-Poynt manzilining tamg'asi bilan belgilangan taqa izi bo'lmaganda, sayohatchilarning izi albatta boshqa izlar bilan aralashib ketgan bo'lardi.

Ba'zan qirda ilang-bilang bo'lib oqib o'tadigan soylar va daryochalar uchrab qolar, qirg'og'ida buksalar o'sib yotgan bu oqar suvlarning ko'pi qurib qolayozgan edi. Bu suvlarning hammasi Buffalo tog'laridan oqib keladi; Buffalo tog'larining uncha baland bo'lmagan, lekin ajib ko'rkam manzarali tizmalari hozir ufqda ko'rinib qoldi.

Kechgacha o'sha tog' ostiga yetib olib, o'sha yerda manzil qurishga ahd qildilar. Ayrton ho'kizlarni qisqab hayday boshladi, shundan so'ng ho'kizlar ancha charchab qolgan bo'lsalar ham, har holda o'sha kuni o'ttiz besh mil yo'l yurib, aravani Buffalo tog'larining etagiga yetkazib keldilar. Bu yerda katta-katta daraxtlar ostiga palatkani qurdilar.

Tun kirdi. Nari-beri ovqatlanib oldilar: shuncha uzoq yo'lni bosib o'tgandan keyin hammaning ovqat yeyishdan ham ko'ra tezroq yotib uxlagisi kelar edi.

Eng oldin navbatchilik qilish Paganelga to'g'ri keldi. Qisib kelayotgan uyquga so'z bermaslik uchun u miltig'ini yelkasiga osib olib, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Oy chiqmagan bo'lsa ham janub yulduzla-

rining charaqlab turganidan kecha ancha yorug' edi. Olim buyuk osmon kitobini o'qishga berildi; osmon kitobi uni o'qiy oladiganlar uchun doim ochiq bo'ladi va qiziq-qiziq ma'lumotlarni so'zlab beradi. Uyquga ketgan tabiatning chuqur sukunatini faqat otlar oyog'iga urib qo'yilgan temir tushovlarning shaqirlashi buzardi.

Astronomik kuzatishlarga berilib ketgan Paganelning es-hushi yerdagi ishlardan ham ko'ra osmondagi ishlar bilan band edi, shu vaqt birdan uning diqqatini uzoqdan eshitilayotgan allaqanday ovoz jalb qildi. Geografiya olimi o'sha yoqqa diqqat bilan quloq soldi-yu, royal ovozi kelayotganini eshitib, hayron bo'lib qoldi. Uning qulog'iga jarangos kuyning yoqimli sadolari kelib urildi. Bunda hech qanday xatolik yo'q edi.

– Qirda royal chalinyapti-ya! – dedi hayron bo'lib Paganel. – Ishonib bo'lmaydigan gap-ku bu.

Haqiqatan ham bu juda hayron qoladigan bir hol edi, u yerning ba'zi qushlari soat va charxning ovozigacha taqlid qilib sayrashini bilgan Paganel bu tovushlar ham biror ajoyib qushning royal ovozigacha o'xshatib sayragani bo'lsa kerak, deb o'yladi.

Shu payt havoda ravshan va tiniq ovoz eshildi – pianistga ashulachi jo'r bo'la boshladi. Paganel qulog'ini ding qilib eshitib turdi. Ammo birpasdan keyin u «Don-Juan» operasidagi «Jul mio tesoro tanto» degan ariyaning ajoyib sadolari eshitilayotganini e'tirof qilishga majbur bo'ldi.

«Ana xolos! Avstraliya qushlari kishini qanchalik hayron qoldiradigan bo'lmasin, lekin dunyodagi eng mashshoq to'ti ham Motsartning operasidan ariya aytolmasa kerak deyman!» deb o'yladi geografiya olimi va kuyning yoqimli sadolariga berildi.

Tunning toza, beg'ubor havosidan oqib kelayotgan bu yoqimli ariyaning naqadar ta'sirli ekanini tasvirlab berish qiyin. Paganelni maftun qilgan bu tovush yana ancha eshitilib turdi; nihoyat, u tindi, so'ng atrofga yana chuqur sukunat cho'kdi.

Geografiya olimining o'rniga turgani kelgan Vilson uning chuqur xayolga botganini ko'rdi. Paganel matrosga hech narsa demadi, bu g'alati hol to'g'risida ertaga Glenarvanga so'zlab berishga ahd qilib, uxlagani palatkaga kirib ketdi.

Ertasiga ertalab manzildagilar to'satdan vovullagan it tovushidan uyg'ondilar. Glenarvan sakrab o'rnidan turib ketdi. Ikkita ajoyib poynter, ingliz zotidan bo'lgan iskovich it chakalak yoqasida u yoq-bu yoqqa chopib yurardi. Ular sayohatchilarning yaqinlashib kelgani-ni ko'rgach, daraxtlar ichiga kirib yashirindi-da, yana ham qattiqroq vovullay boshladi.

- Bu qirda biror manzil borgan o'xshaydi, - dedi Glenarvan, - ovchi itlar bo'lgandan keyin, shu yerda ovchilar ham bo'lishi kerak.

Paganel o'zining tungi taassurotlarini aytgani endi og'iz ochgan ediki, qarshidan zotli ajoyib otlarga mingan ikki yigit chiqib keldi. Ular juda chiroyli ov kiyimi kiyib olgan edilar. Ikkala jentelmen ham lo'lilar singari chodir qurib, manzilga to'xtagan sayohatchilarni ko'rib, otlarini to'xtatdilar. Aftidan, ular bu yerda qurol-yarog'li odamlarning paydo bo'lib qolganidan hayron bo'lgan edilar, lekin shu payt aravadan tushayotgan sayohatchi ayollarni ko'rib qoldilar.

Otliqlar darrov otlaridan sakrab tushib, shlapalarini qo'llarida tutganча ayollar qarshisiga yurdilar. Glenarvan ular qarshisiga chiqib, o'zini tanitdi. Yigitlar ta'zim qilishdi, shundan so'ng ularning kattasi:

- Ser, xonimlar va boshqa hamrohlaringiz bilan biznikida bir kun dam olib ketsangiz qanday bo'larkin? - deb so'radi.

- Men kim bilan gaplashish sharafiga muyassar bo'ldim? - deb so'radi Glenarvan.

- Gottem chorvadorlik xo'jaligining egalari Maykl va Sendi Patersonlar bilan. Sizlar hozir shu xo'jalikning yeridasizlar, uyimiz ham bu yerdan chorak mil chiqar-chiqmas joyda.

Glenarvan:

- Janoblar, rostimni aytsam, men mehmondostligingizdan foydalanib, sizlarni ishdan qo'yishdan cho'chib turibman... - deb gap boshlagan edi, Maykl Paterson:

- Ser, iltimosimizni qaytarmasangiz, bizni juda xursand qilasiz, - deb javob berdi.

Glenarvan ularning taklifini qabul qilganini bildirib, ta'zim qildi.

- Ser, - deb Maykl Patersonga murojaat qildi Paganel, - aybga buyurmasangiz, sizdan bir narsani so'ra-

moqchi edim: kecha Motsartning jozibali ariyasini siz kuyladingizmi?

– Ha, ser, – deb javob berdi jentlmen. – Royalda menga amakivachcham Sendi jo‘r qilib turdi.

– Unday bo‘lsa, ser, musiqaning chin ixlosmandi bo‘lgan fransuzning tabriklarini qabul qilg‘aysiz! – dedi Paganel yigitga qo‘lini cho‘zib.

Paterson odob bilan olimning qo‘lini qisdi, so‘ng mehmonlarini uyiga boshladi. Otlarni Ayrton bilan matrosarga tashlab, sayohatchilarimiz suhbatlashib va tevarak-atrofdagi go‘zal manzaralarni tomosha qilib, yigitlar bilan birga ularning uyiga ketdilar.

Patersonlarning chorvadorlik xo‘jaligi juda tartibli edi. Tog‘ yonbag‘ridan cho‘zilib ketgan bepoyon yaylovlarning oxiri ko‘rinmasdi. Bu yaylovlarda minglab qoramol va millionlab qo‘y o‘tlab yurardi. Shovqin-suronli va tinib-tinchimagan pada juda ko‘p podachi va ulardan ham ko‘p itlar nazoratida o‘tlab yurardi. Qoramol va qo‘ylarning ma‘rashi itlarning vovullashi va qamchilarning qarsillashiga aralashib ketardi.

Sharq tomonda avstraliya akaslari va yelim daraxtlari cho‘zilib ketgan. Ularning naryog‘ida dengiz sathidan yetti yarim ming fut baland bo‘lgan ajoyib Gottem tog‘i qad ko‘targan. Uyning chor atrofida ikki chetiga doim ko‘m-ko‘k bo‘lib yotadigan daraxtlar ekilgan alleylar cho‘zilib ketgan. U yer-bu yerda bo‘yi o‘n futcha keladigan, kichkina-kichkina palmalarga o‘xshagan qalin buta to‘plari uchrab turdi. Ularning tanasi ingichka, uzun-uzun barglari ostida ko‘rinmay ketgan. Havo yumshoq dafna daraxtlarining oppoq ochilib yotgan gullaridan taralgan hushbo‘y hidga to‘la.

Bu ko‘rkam mahalliy daraxt guruhleri orasida Yevropadan olib kelingan daraxt navlari ham ko‘rinib qolardi. Bu daraxtlarni, ya‘ni shaftoli, apelsin, anjir, olma, nok va hatto dublarni ko‘rgan sayohatchilarimiz o‘zlarini tutib turolmay, «ura» deb qattiq qichqirib yubordilar. O‘z vatanlarida o‘sadigan daraxtlar soyasidan borar ekan, rang-barang patli qushlarning, go‘yo oltin va baxmal patlarga o‘ralgandek tuyulgan zarg‘aldoqlarning daraxtdan daraxtga pirillab uchib yurganini ko‘rib nihoyatda zavqlari qaynab ketdi.

Sayohatchilarimiz menurani – dumi Orfeyning nafis cholg‘u asboblariga o‘xshagan qushni ham birinchi

marta mana shu yerda ko'rdilar. U daraxtsimon qirqquloqlar orasida donlab yurar, dumi yaproqlarga tegib ketganda musiqa ovozi eshitilmasligi kishiga qiziq tuyulardi. Paganelning o'sha lirada biror kuy chalgisi kelib ketdi.

Ikki chetida kazuarin daraxtlari o'sib yotgan keng alleyaning oxirida Patersonlar uyi ko'rindi.

Bu shveysar uslubida g'isht va yog'ochdan solingan, zich o'sgan emirofilislar orasiga qurilgan ovchilar uyi edi. Uning atrofiga qadimiy rim binolarining galereyalariga o'xshatib olingan ayvonlarga xitoy fonarchalari osib qo'yilgan. Derazalar tepasiga katta-katta gullarga o'xshagan rang-barang soyabonlar o'rnatilgan. Bundan ham shinam, bundan ham go'zal va bundan ham qulay uyni ko'z oldiga keltirish qiyin. Uyning atrofidagi shinam o'tloqlar va go'zal chakalaklar o'rtasida bronza qandilli chiroyli fonarlar osig'liq turadi. Qosh qorayishi bilan butun bog' akas daraxtlari bilan daraxtsimon qirqquloqlar zich o'sib yotgan chakalak ichiga joylashingtirilgan gazometr yordamida oppoq yoritilar edi.

Uy yaqinida qishloqni eslatuvchi na biror xizmatkorxonona, va otxona, na molxonalar ko'rinmadi. Bu xildagi imoratlarning hammasi kichkinagina bir vodiyning ichkarisida, uydan chorak milcha narida joylashgan bo'lib, yigirmatacha uyli shiringina bir qishloqqa o'xshardi. Xo'jayinning uyi bu qishloq bilan elektr simlari - telegraf orqali bog'langan bo'lib, xo'jayinlar istagan mahalda qishloq bilan aloqa qila olar edilar. Har qanday shovqin-surondan uzoqqa solingan uyning o'zi esa go'zal daraxtlar orasida yo'qolib ketgandek tuyulardi.

Kazuarin alleyasining oxirida sharaqlab oqib yotgan tog' jilg'asi ustiga chiroyli temir ko'prik qurilgan. Bu ko'prik bog'ning uyga kelib taqaladigan qismiga olib chiqadi.

Sayohatchilarimiz xo'jayinlar bilan birga ko'prikdan o'tganlarida, ularni basavlat ish boshqaruvchi kutib oldi. Gottem xo'jayinlari yashaydigan uyning eshiklari katta ochildi, mehmonlar oddiy g'ishtdan qurilgan va gullar bilan o'ralgan uyning hashamatli xonalariga kirdilar.

Chavandozlik va ovchilikka tegishli asbob-uskunalar osilgan dahlizdan o'tib, besh derazali katta meh-

monxonaga kirdilar. Bu yerda ustida yangi-eski aralash har xil notalar taxlab qo'yilgan bir royal turardi; hali bitmagan rasmlar qo'yilgan molbertlar, marmar haykallar qo'yilgan sokollar ko'zga tashlandi. Devorlarga flamand rassomlari ishlagan bir necha rasm, shuningdek, mifologik rasmlar solib to'qilgan bir necha gilam osib qo'yilgan. Oyoq ostiga yumshoq patgilamlar solingan, shippga qadimiy lyustra osilgan. Hamma yoq qimmatbaho chinni idishlar, chiroyli-chiroyli buyumlar bilan bezatilgan. Avstraliyadagi uyning bunday yasatib qo'yilganini ko'rish kishiga qiziq tuyulardi. Ertaklardagidek bu mehmonxonada xayolni Yevropaga olib qochuvchi jamiki narsalar to'planganday edi. Unga kirgan kishi o'zini Fransiyadagi yoki Angliyadagi biror knyazning qasrida deb tasavvur qilardi.

Mehmonxonaga yorug'liq yarim qorong'u qilib qo'yilgan ayvon va derazalarga tutib qo'yilgan yupqa soyabonlar orqali o'tib tushardi. Derazalardan birining oldiga kelib tashqariga qaragan Elen tabiat manzaralaridan ko'zini uzolmay maftun bo'lib qoldi. Uy sharq tomonga, to tog' etagigacha cho'zilib ketgan vodiyning eng baland joyiga qurilgan. O'tloqlar o'rmon bilan almashinib ketadi; ular oralig'ida keng sayhon yerlar ko'zga tashlanadi, uzoqlarda esa bir guruh dumaloq tepaliklar ko'rinib turadi. Bular hammasi tasvirini keltirib bo'lmas darajada go'zal manzara kasb etadi. Dunyodagi bironta joy, hatto Norvegiyadagi, Telemark yaqinidagi Jannat vodiysi ham bu yerga teng kelolmasdi.

Goh oftob, goh soya-salqin yerlar qatorlashib ketgan bu manzara quyoshning harakati bilan o'z tusini o'zgartirib turardi.

Elen derazadan qarab, tabiatning go'zal manzaralarini zavq bilan tomosha qilar ekan, Sendi Pater-son xizmatkorini chaqirib, mehmonlarga ovqat tayyorlashni buyurdi, sayohatchilar kelganlariga chorak soat ham bo'lmasidan nihoyatda ziyinatli servizlar bilan yasatilgan stol atrofidan joy oldilar. Tortilgan ovqatlar bilan vinolarni har qancha maqtasa ham kamlik qilardi, lekin mehmonlarni ovqatlar bilan vinolarining rang-barangligidan ham ko'ra xo'jayinlarning mehmondo'stligi xursand qildi. Ovqat vaqtida ekspeditdiyaga chiqishdan maqsad nimaligini eshitgan Pater-sonlar Glenarvanning ishiga juda qiziqib qoldilar.

Ularning so'zi kapitan Grant bolalarining umidini yana ham oshirdi.

- Garri Grant sohilning biror yeridan topilmagan ekan, demak, u yerliklar qo'lida, - dedi Maykl Paterson. - Topilgan hujjatga qarab fikr qilinganda, kapitan o'zining qayerdaligini aniq bilgan, shunga qaramay biror ingliz koloniyasiga yetib kelmagan ekan, demak, u yovvoyilar qo'lga asir tushgan.

- Uning botsmani Ayrtonning boshiga xuddi ana shunday savdo tushgan, - dedi Jon Mangls.

- Sizlar «Britaniya»ning halokati to'g'risida hech narsa eshitmaganmisizlar? - deb so'radi Elen, aka-uka Patersonlardan.

- Hech narsa eshitganimiz yo'q, missis, - deb javob berdi Maykl.

- Avstraliyaliklar qahri qattiq odamlar emas, - dedi skvatter yigit, - miss Grant bundan xavotir bo'lmasalar ham bo'ladi. Bu yerlik yovvoyilarning yumshoqko'ngil ekanligini ko'rsatadigan ko'p misollar bor. Ba'zi yevropaliklar ular orasida uzoq-uzoq turib qolganlar va ularning dag'al muomala qilganidan hech vaqt noligan emaslar.

- Shulardan biri King edi, - dedi Paganel, - u Byork boshchiligidagi ekspeditsiya qatnashchilaridan omon qolgan birdan bir kishi bo'ldi.

- Yovvoyilar orasida uzoq yashaganlar faqat o'sha mard sayyoh emas, - deb gapga aralashdi Sendi Paterson, - Bakli degan ingliz soldati ham ular orasida uzoq yashagan. Bakli 1803-yilda Port-Filippdan dezertirlik qilib, qochib, yovvoyilar qo'lga asir tushgan va yovvoyilar bilan o'ttiz uch yil birga yashagan.

- «Avstraliya gazetasi»ning so'nggi sonlaridan birida, - deb qo'shib qo'ydi Maykl Paterson, - allaqanday Morill degan odamning o'n olti yil asirlikda yashagandan so'ng vataniga qaytgani to'g'risidagi xabar bosildi. Kapitan Grantning boshiga ham shunday ish tushgan bo'lsa ajab emas, chunki o'sha Morill 1846-yilda «Peruanka» degan kema halokatga uchragan vaqtda yerliklar qo'lga asir tushib, qit'aning ichkarisiga olib ketilgan ekan. Shuning uchun, menimcha, sizlar mutlaq noumid bo'lmasliginglar kerak.

Yosh xo'jayinlar keltirgan ma'lumotlar mehmonlarni juda xursand qilib yubordi, chunki ular ham Paganel bilan Ayrton aytgan gaplarni tasdiqlar edi.

Elen bilan Meri Grant turib ketganlaridan so'ng erkaklar katorjniklar to'g'risida gap ochdilar. Patersonlar Kemden ko'prigida yuz bergan halokatdan xabardor edilar, lekin shu atrofda izg'ib yurgan qochqin muttahamlar shaykasi ularni zarracha ham bezovta qilmasdi. Muttahamlar yuzdan ortiq erkak yashaydigan joyga hujum qilishga botinolmasdi, albatta. Buning ustiga, jinoyatchilarning Myorrey daryosiga borib taqaladigan bu dashtlarga kelishini yoki yo'llari yaxshi qo'riqlanadigan Yangi Uells koloniyalariga yaqin borishlarini faraz qilish qiyin. Ayrton ham shunday fikrda edi.

Glenarvan ularni bunchalik xursandlik bilan qarshi olgan mezbonlarning shu yerda bir kun dam olib ketinglar degan taklifini yerga tashlay olmasdi. Bu yerda qolish bilan qo'ldan beriladigan o'n ikki soat vaqt sayohatchilarga ham, ularning yaxshi molxonaga kiritib qo'yilgan ot va ho'kizlariga ham yaxshilab dam olish imkoniyatini berardi.

Shuning uchun ertasiga ertalabgacha shu yerda qolishga qaror qildilar. Mezbon yigitlar darhol mehmonlariga kunni qanday o'tkazish to'g'risidagi o'z programmalarini bildirdilar, mehmonlar ham bunga jon deb rozi bo'ldilar.

Choshgoh vaqtida asl zotli otlardan yettitasi eshik oldida yer tepinib turar edi. Ayollarga to'rtta ot qo'shilgan arava berildi. Yo'lga chiqdilar. Nihoyatda yaxshi ov miltiqlari bilan qurollangan otliqlar aravaning ikki yonida borardilar. Ot minib olgan sakbonlar oldinroqda borishar, bir to'da itlar esa o'rmonni boshga ko'tarib vovullar edilar.

Otliqlar kattaligi jihatdan chog'roq bir german davlatidan qolishmaydigan bog'ning alleya va yo'llaridan to'rt soat yo'l yurdilar. To'g'ri, bu yerlarda odam kam ko'rinardi, lekin o'tlab yurgan qo'ylarning son-sanog'i yo'q edi. Yovvoyi parranda esa shunday ko'p ediki, butun boshli bir armiya yuborilsa ham ovchilar qarshisiga bunchalik ko'p parranda haydab kelishi mushkul edi. Shuning uchun oradan ko'p o'tmay chakalaklarda, dashtlarda yashovchi parranda va hayvonlarni cho'chitib, birin-ketin o'q ovozlari yangray ketdi. Mak-Nabbs bilan yonma-yon yurib ov qilayotgan Ro-

bert katta mahorat ko'rsatdi. Dovyurak bola opasining qayta-qayta tayinlashiga qaramay, doim hammadan oldinga o'tib ketar va eng oldin o'q uzardi. Lekin Jon Mangls Robertga qarab borishni o'z zimmasiga olib, uning opasini tinchlantirdi.

Bu ovda avstraliya jonivorlaridan bir nechitasi o'ldirildi. Shu vaqtgacha Paganel ham bu jonivorlarning nominigina bilardi. Ov qilingan jonivorlar ichida *vombat* va *bandikut* ham bor edi.

Vombat – qo'ydek keladigan, go'shti juda shirin o'txo'r jonivor. Bandikut esa xaltalilar turiga kiradigan jonivor, u yevropa tulkisidan ham ayyorlik qiladi, hatto unga qush qo'ralarida qanday o'g'irlik qilishni o'rgatib qo'yishga ham yaraydi. Uzunligi bir yarim futcha chiqadigan, xunukdan xunuk bu jonivorni otgan Paganel o'z ovchilik g'ururini kamsitmaslik uchun uni juda chiroyli jonivor deb topdi.

– Qanday ajoyib jonivor-al – dedi geografiya olimi.

Robert kichkinagina tulkiga o'xshagan dumli pahlavoq bir jonivorni otib oldi. Uning oq aralash qora serjun terisi suvsar terisidan qolishmasdi. Keyin Robert katta-katta daraxtlarning quyuc barglari orasiga yashirilib olgan dvuutrobkalardan ikkitasini otib oldi.

Lekin eng qiziqi kenguru ovi bo'ldi. Soat to'rtlarda itlar bu ajoyib xaltali jonivorlarning bir galasini hurkitib yubordi. Bolalari bir zumda onalarining xaltasi ichiga kirib oldi, shundan so'ng butun poda gurullab qochishga tushdi. Kengurularning haklab-haklab qochishini tomosha qilish juda qiziq edi. Ularning orqa oyoqlari oldingi oyoqlariga qaraganda ikki hissa uzun bo'ladi va xuddi prujinaga o'xshab cho'ziladi.

Qochib qolgan bu poda oldida bo'yi besh futcha chiqadigan kattakon erkak kenguru sakrab-sakrab borardi. Ovchilar sira orqada qolmay ularni to'rt-besh mil joygacha quvib bordilar. Kengurular charchash nimaligini bilmay qochib borar, ularning o'tkir tirnoqli bahaybat panjasidan qo'rqan itlar esa kengurularni quvib yetishga astoydil harakat qilmasdilar. Nihoyat, qochaverib holdan toygan poda to'xtadi, haligi ulkan kenguru orqasini daraxtga tirab, mudofaaga hozirlandi. Quvib kelayotgan itlardan biri qiziq ichida to'g'ri

borib unga yopishdi, lekin kenguru uni bir urib, os-monga uchirib yubordi, qorni yorib tashlangan it yerga chalqanchasiga tushdi.

Albatta, barcha itlar birdan hamla qilganda ham bu baquvvat jonivorlarga bas kelolmasdilar. Ovchilar mulkiqlarni ishga solishga majbur bo'ldilar – katta kenguruni faqat otib o'ldirish mumkin edi.

Shu payt Robert o'z ehtiyotsizligining qurboni bo'lishiga sal qoldi. U yaxshiroq nishonga olish uchun jonivorga juda yaqin borib qoldi, hayvon bundan foydalanib uning ustiga tashlandi. Robert qichqirib yubordi. Aravada o'tirgan Meri qo'rqib ketganidan og'iz ochib, biror so'z aytishga ham holi qolmay, qo'llarini ukasi tomon cho'zdi. Bolaga tegib ketishidan qo'rqib, ovchilardan birontasi ham hayvonga o'q uzishga botinolmadi. Jon Mangls jonidan ham kechib, ov pichog'i ko'targancha kenguruga o'zini otdi-da, uning qoq yuragiga pichoq soldi. Jonivor gurs etib yerga ag'anadi. Eson-omon qolgan Robert o'rnidan turdi. Bir lahza o'tar-o'tmas shodlikdan o'zini yo'qotayozgan opasi kelib, uni mahkam quchoqladi.

– Rahmat, mister Jon, rahmat! – dedi Meri Grant qo'lini yosh kapitanga uzatar ekan.

– U mening himoyam ostida edi, – dedi Jon Mangls, qizning titroq qo'llarini qisar ekan.

Shu bilan ov ham tugadi.

Yo'l boshchilari halok bo'lgach, kengurular tumta-raqay qochib ketdi, katta kenguruni esa ovchilar olib ketdilar.

Uyga kechqurun soat oltida qaytib keldilar. Ovchilarga ajoyib ovqat hozirlab qo'yishgan edi. Mehmonlarga kenguru dumidan avstraliyaliklar usulida pishirilgan sho'rva ayniqsa yoqdi.

Ovqatdan keyin morojenoye bilan sharbat tortilgach, hamma mehmonxonaga o'tdi. Oqshom musiqaga bag'ishlandi. Ajoyib pianistka bo'lgan Elen royal cholib, xushchaqchaq xo'jayinlarga jo'r qildi; mezbonlar esa Guno, Felisen David va hatto Rixard Vagner asarlarini g'oyat mahorat bilan ijro etdilar.

Soat o'n birda choy tortildi. Choy inglizcha usulda damlangan edi. Lekin Paganel unga avstraliya choydandan berishlarini iltimos qildi. Geografiya olimiga si-

yohga o'xshagan bir suyuqlik olib keldilar. Hayron qolishning hojati yo'q – bir litr suvga yarim qadoq quruq choy solib, to'rt soat qaynatilgan edi-da! Paganel undan bir ho'plab ko'rib, aftini burishtirdi-yu, lekin juda mazali choy bo'libdi deb maqtadi.

O' n s a k k i z i n c h i b o b

AVSTRALIYA ALPLARI

Janubi sharq tomonga qarab ketgan yo'lni Avstraliya Alplari tizmasi kesib qo'yar edi. Gigant qal'alarning devoriga o'xshab tushadigan bu ajoyib tog' tizmasi bir ming besh yuz milga cho'zilib ketadi va to'rt ming fut balandlikda bulutlar yo'lini to'sib yotadi.

Osmonni bulut qoplab ola boshladi, shuning uchun qalin bug' qatlami orasidan o'tib tushgan quyosh nurlari uncha qizdirmas, issiq sayohatchilarni uncha qiynamasdi. Lekin borgan sari past-baland bo'lib borayotgan yo'ldan yurish tobora qiyinlashaverdi. Ko'm-ko'k yosh yelim daraxtlari o'sib yotgan tepaliklar uchray boshladi. Ulardan so'ng baland-baland adrlar boshlandi. Bu Alp tizmalarining boshlanishi edi. Yo'l doim yuqoriga ko'tarilib bordi. Buni ayniqsa ho'kizlarning kuchanib qadam tashlashidan ko'rish mumkin edi. Ularning bo'yinturug'i aravaning og'irligi ostida g'ijirlar, o'zlari qattiq harsillab borishardi, astoydil zo'r berganlaridan muskullari mana hozir uzilib ketadiganday tarang tortilardi. Arava kutilmagan turtkilardan g'ijirlab ketar, hatto epchil Ayrton ham ularni chetlab o'tolmay qolardi. Sayohatchi ayollar bundan zorlanishmas, kulib qo'ya qolishardi.

Jon Mangls ikki matrosi bilan yo'lni tekshirib, bir necha yuz qadam oldinda borardi. Ular past-balandliklar orasidan eng tekisroq yo'l, to'g'rirog'i, farvater' axtarar edilar, chunki arava zo'r to'lqinlar quturayotgan dengizda suvosti toshlari orasidan o'tib borayotgan kemaga juda o'xshab ketardi.

Bu qiyin, o'rni bilan hatto xavfli ish. Vilson boltasini ishga solib, changallar orasidan yo'l ochib borishga

Farvater – kemalar o'tishi uchun signallar o'rnatiladigan dengiz yo'li. Avvalgi sahifalarda ham kelgan.

tez-tez majbur bo'lib turdi. Loy va nam tuproqqa qadam bosgan sari oyoq botib ketardi. Ko'pincha yo'ldan o'tib bo'lmas to'siqlar: baland-baland granit qoyalari, chuqur jarliklar, ishonib bo'lmaydigan ko'lmak chiqib qolar, natijada uzoq joylardan aylanib o'tishga majbur bo'lardilar. Shuning uchun kuni bilan yo'l yurib, yarim gradus masofani bosib o'tdilar.

Kechqurun Alp tog'larining etagidagi Kobongra degan soy yoqasida, bo'yi to'rt futgacha yetadigan, qizg'ish bargli butalar o'sib yotgan vodiya tunash uchun to'xtadilar.

– Bu tog'dan oshib o'tish qiyinroq bo'ladigan ko'rinadi, – dedi Glenarvan, qosh qoraya boshlashi bilan sekin-asta qorong'ulik qa'riga kirib yo'qola boshlagan tog' tizmalariga qarab. – Alp tog'lari-ya! Nomining o'zi o'ylatib qo'yadi kishini.

– Buni aynan tushunmang, azizim Glenarvan, – dedi Paganel. – Butun boshli bir Shveysariyadan o'tamiz deb o'ylamang. To'g'ri, Avstraliyada ham Yevropadagidek Pireney va Alp tog'lari bor, lekin bular kichikroq. Bu tog'larning shu ism bilan atalishiga sabab yo geograflar fantaziyasining cheklangan ekani yoki geografik ismlarning ko'p emasligi.

– Demak, bu Avstraliya Alplari... – deb Elen gap boshlagan edi, Paganel:

– Cho'ntakka solib ketsa ham bo'ladigan tog'lar, – deb javob berdi. – Undan qanday oshib o'tganimizni sezmay ham qolamiz.

– Siz faqat o'zingizni ko'zda tutib gapiryapsiz! – dedi mayor. – Faqat parishon odamlargina tog'dan oshib o'tganini sezmay qolishi mumkin.

– Parishon deysizmi! – dedi geografiya olimi. – Men endi parishon emasman. Bu masalani xonimlar hal qilib berisha qolsin. Qit'aga qadam qo'yganimizdan beri men so'zinning ustidan chiqmagan paytim bo'ldimi? Biror marta bo'lsin parishonlik qildimmi? Biror narsani adashtirib qo'ydi deb ayblay olasizmi meni?

– Birona narsani ham adashtirganingiz yo'q, janob Paganel! – dedi Meri Grant. – Siz endi odamlarning eng takomilga yetganisiz!

– Takomilga yetganda ham juda yetib ketganisiz! – deb qo'shib qo'ydi Elen, kulib. – Parishonligingiz o'zingizga juda yarashar edi.

– Biror kamchiligim boʻlmasa, oʻrtamiyona odam boʻlib qolaman, toʻgʻri emasmi? – dedi Paganel. – Shuning uchun men yaqin orada katta bir chatoq ish qilishga harakat qilib koʻraman, oʻshanda kulaverib ichaklaringiz uziladi. Rostimni aytsam, biror chatoq ish qilib qoʻymasam, nazarimda oʻz isteʼdodimga xiyonat qilayotgandek boʻlaman.

Ertasiga, 9-yanvar kuni, oʻzbilarmon geografiya oli-mining ishontirishiga qaramay, kichkinagina otryadimiz Alp togʻlaridan oshib oʻtish uchun qilgan dastlabki harakatlaridayoq katta qiyinchiliklarga duch keldi. Tor va chuqur daralardan tavakkaliga yoʻl yurishga toʻgʻri keldi, bu daralarning oxiri berk boʻlib chiqishi ham ehtimoldan xoli emasdi.

Bir soatcha yoʻl yurishgandan keyin togʻ yoʻli yoqasiga qurilgan xarob bir qovoqxonaga tasodifan duch kelmaganlarida Ayrton juda qiyin ahvolda qolgan boʻlardi.

– Bunday joyga qurilgan qovoqxonadan egasi nima manfaat koʻrarkin! – dedi Paganel. – Undan nima foyda?

– Juda boʻlmasa, yoʻlni soʻrab olamiz-ku, foydasi shu-da! – dedi Glenarvan. – Yuringlar, kiramiz!

Glenarvan Ayrton bilan birga qovoqxonaga kirdi. Xoʻjayinning qoʻpol odam ekani koʻrinib turardi. U qovogʻi soliq, afti xunuk, yoqimsiz odam ekan, uning basharasiga qaragan kishi qovoqxonasi-gadagi djin, brendi va viskini hammadan ham koʻra oʻzi koʻproq ichishiga shubha qilmasdi. Odatda uning qovoqxonasi-ga faqat sayohat qilib yurgan skvatterlar va poda haydab oʻtgan choʻponlar kirib oʻtar edilar.

Qovoqxonaga egasi sayohatchilarning savollariga istamaygina javob berdi, lekin shunday boʻlsa ham, uning bergan baʼzi maʼlumotlariga asoslanib, Ayrton qaysi yoʻldan yurish kerakligini aniqlab oldi.

Glenarvan qovoqxonaga egasiga bir necha kron berib, endigina chiqib ketayotgan ediki, koloniya politsiyasi-ning devorga yopishtirib qoʻyilgan eʼloniga koʻzi tushib qoldi, unda Pert turmasidan katorjniklar qochgani xabar qilinish, Ben Joysni tutib bergan odamga yuz funt sterling mukofot berilishi aytilgan edi.

– Bunday ablahni osib yuborsa ham arziydi, albat-ta, – dedi Glenarvan botsmanga, eʼlonni oʻqib chiqar ekan.

– Uni tutib berishni aytmaysizmi! – dedi Ayrton. – Yuz funt steriing – hazil pul emas! Uning o‘zi shuncha turmas deyman.

– Qovoqxona egasiga kelsak, devorga bu e‘lonni yopishtirib qo‘ygani bilan baribir o‘zi bejoroq odamga o‘xshaydi, – dedi Glenarvan.

– Menga ham shunday ko‘rindi, – deb qo‘ydi Ayrton.

Glenarvan bilan botsman arava oldiga qaytib keldilar. Bu yerdan otryad Lyuknou dovoniga olib boradigan yo‘l tog‘ tizmalarini kesib o‘tadigan tor, ilonizi daraga kirgan joyga qarab yurdi. Tog‘ga ko‘tarilish qiyinchiliklari boshlandi. Tez-tez sayohatchi ayollar aravadan, erkaklar esa otdan tushib piyoda yurishga majbur bo‘lar edilar. Yuqoriga ko‘tarilishda og‘ir aravani orqasidan itarib yordamlashishga, yo‘l juda ham qiyalashib pastga tushib ketgan joylarda uni ehtiyot bilan tislantibroq tushirishga, yo‘l keskin burilib ketgan joylarda ho‘kizlarni chiqarib olishga, arava orqasiga surinib keta boshlagan vaqtlarda g‘ildiraklar ostiga tosh qo‘yishga majbur bo‘lardilar. Ba‘zan Ayrton zo‘rg‘a oyoq ko‘tarib bosayotgan otlarni ham aravaga qo‘shishga majbur bo‘lardi.

Juda ham charchab, holdan toyib qolganidanmi yo boshqa biror sababdanmi, har holda o‘sha kuni otlardan biri o‘ldi. Oldin bunday baxtsiz hodisa ro‘y berishidan hech qanday nishon bo‘lmasa ham u birdaniga gurs etib yiqildi-yu, o‘ldi-qoldi. Bu Myulredining oti edi. Myulredi uni o‘rnidan turg‘izmoqchi bo‘lib, qarasa ot o‘lib yotibdi.

Ayrton ot oldiga kelib, uni ko‘zdan kechira boshladi. Ko‘rinishidan u otning nima uchun to‘satdan o‘lib qolganiga juda hayron edi.

– Otning biron tomir-pomiri uzilib ketgan ko‘rinadi, – dedi Glenarvan.

– Shunday bo‘lsa kerak, – dedi Ayrton.

– Mening otimga minib ol, Myulredi, – dedi Glenarvan, – men xotanim yoniga, aravaga chiqib olaman.

Myulredi bo‘ysundi, kichkina otryad o‘lgan otni qarg‘a-quzg‘unlar ixtiyoriga tashlab, yana qiyin tog‘ yo‘lidan yuqori ko‘tarila boshladi.

Avstraliya Alplari juda ham enlik tog‘ emas: undan oshib o‘tiladigan dovonning uzunligi sakkiz mil

ham chiqmaydi. Shuning uchun Ayrton boshlab bora-yotgan yo'l rostdan ham tog'ning sharqiy yonbag'riga olib chiqadigan bo'lsa, kichkina otryad ikki kundan so'ng tog' tizmalarining narigi tomoniga o'tib olishi kerak, tog'ning narigi tomonida esa to dengiz sohiligacha hech qanday o'tib bo'lmas to'siqlar uchramaydi.

10-yanvar kuni sayohatchilarimiz tog'ning eng baland yeriga, ya'ni ikki ming fut balandlikka yetib chiqdilar. Ular tog'ning bir yassi joyida turar edilar, bu yerdan uzoq-uzoqlar ko'rinardi: shimol tomonda suv qushlari bilan to'lib toshgan Omeo ko'li yarqillab turibdi, uning naryog'ida esa bepoyon Myorrey dashtlari cho'zilib ketgan; janub tarafta ko'm-ko'k Jipslend o'lkasi, undagi oltin qazib olinadigan yerlar va baland-baland o'rmonlar yaslanib yotardi. Bu o'lka boshdan oyoq qadimiy, ibtidoiy zamondagi yerlarga o'xshardi. Bu yerlarda tabiat o'zi yaratgan narsalar ustidan o'zi hukmron; daryoning suviga, biron марта ham bolta tegmagan katta-katta daraxtlarga tabiatning o'zi xo'jayin; hozircha bu yerlarda kamdan kam uchraydigan skvatterlar ham hali tabiat bilan kurash boshlaganlari yo'q. Alp tog'lari bir-biriga sira o'xshamaydigan ikkita o'lkani ajratib turgandek tuyuladi, bu o'lkalardan biri o'zining ibtidoiy zamonga xos yovvoyi tusini hali yo'qotmagan. Xuddi shu payt quyosh botib borayotgan edi, uning xafagazak bulutlar orasidan tushayotgan so'nggi nurlari Myorrey okrugi manzaralarini juda jonlantirib yubordi.

Tog'lar bilan to'silgan Jinslend esa g'ira-shira ichida ko'zdan yo'qola bordi. Alp tog'lari orqasidagi o'lkaga vaqtidan oldin tun kira boshlagandek edi. Bir-biriga sira o'xshamagan bu ikki o'lka o'rtasida turgan tomoshabinlarga bu keskin farq qattiq ta'sir qildi, shuning uchun ular Viktoriya viloyatining chegarasiga yetib olgunlaricha bosib o'tishlari lozim bo'lgan bu yovvoyi o'lkaga hayajon bilan qarab turar edilar.

Shu yerning o'zida, tog' tepasidayoq manzil qurib, tunadilar. Ertasiga ertalab pastga tusha boshladilar. Tog'dan tushish tez bordi. Birdan nihoyatda kuchli do'l yog'ib, sayohatchilarni qoyatoshlar ostiga yashirinishga majbur qildi. To'g'rirog'i, bu yog'ayotgan do'l emas, mushtumdek-mushtumdek muz parchalari edi, ular

go'yo palaxmondan otilayotganday quyuq bulutlar ichidan nihoyatda katta kuch bilan tushib kelar edilar; bir nechta muz parchasi qattiq kelib tegib, bir-ikki joyini g'urra qilib olgan Paganel bilan Robert ham tezroq qoyalar ostiga kirib yashirinishga majbur bo'ldilar. Muz parchalari aravani bir necha joydan teshib, uning soyabonini g'alvirga o'xshatib qo'ydi. Bunday qirra uchli muz parchalarining zarb bilan kelib urilishiga uylarning tomi ham dosh berolmaydi. Bir necha muz parchasi hatto daraxt tanalariga ham sanchilib kirdi. Sira ko'rilmagan bunday do'l ostida qolib o'lmaslik uchun uning to'xtashini kutishga majbur bo'ldilar. Do'l bir soatcha yog'di, so'ng kichkina otryad eriyotgan do'ldan sirpanchiq bo'lib qolgan qiya tosh so'qmoqlardan yana yo'lga tushdi.

Kechga yaqin arava Alp tog'larining so'nggi pog'onalaridan tushib borardi. Tevarak-atrofdan yolg'iz o'sgan katta-katta archalar qo'qqayib turadi. Arava qattiq silkingan paytlarda uning o'qlari ancha bo'shashib qolgan edi, lekin shunday bo'lsa ham hozircha o'zining qo'poldan qo'pol yog'och g'ildiraklarida mahkam turardi. Tog' yo'li Jinslend dashtlari etagida tugar, undan chiqib dashtga kirish bilanoq sayohatchilarimiz Alp tog'larini eson-omon oshib o'tdik, deb hisoblasalar bo'lardi. Shu yerda tunashga qaror qilib, odatdagidek manzil qurish harakatiga tushdilar.

12-yanvarda tong otishi bilanoq kichkina otryad yana yangi g'ayrat bilan yo'lga tushdi. Hamma ham mo'ljallangan joyga, ya'ni Tinch okeanning «Britaniya» halokatga uchragan joyiga mumkin qadar tezroq yetib olishga intilardi. Albatta, halokatga uchragan kema-ning izini bu yerda, ya'ni bo'm-bo'sh Jinslend dashtlarida emas, balki o'sha yerda qidirishga astoydil kirishish foydaliroq edi. Shuning uchun Ayrton «Dunkan»ga tezroq sharqiy sohilga kelish haqida buyruq yuborish kerak, bu sohildagi qidirish ishlarida kema-ning juda katta foydasi tegadi, deb Glenarvanni qistardi. Botsmanning fikricha, bunday xabarni Lyuknoudan Melburnga boradigan yo'ldan yuborish kerak edi. Keyinroq chopar yuborish qiyin bo'lib qoladi, chunki narida poytaxtga olib boradigan boshqa yo'l yo'q.

Botsmanning fikrini asossiz deb bo'lmasdi, shuning uchun Paganel uning bu maslahatiga hamrohlarining

diqqatini jalb qildi. Geografiya olimi ham bunday sharoitda kemanding yordami ko'p tegadi, Lyuknou yo'lidan o'tib ketganimizdan keyin esa Melburnga chopar yuborib bo'lmaydi, degan fikrda edi.

Glenarvan ikkilanib qoldi, agar mayor qat'iy qarshi chiqmasa, u Ayrtonning maslahatiga kirib, «Dunkan»ga buyruq yuborgan ham bo'lardi. Mak-Nabbs Ayrtonning biz bilan birga bo'lishi juda zarur deb isbot qildi: u sohil atrofini yaxshi bilardi-da, bordi-yu otryad Gari Grantning iziga tushib qolgundek bo'lsa botsman otryadni bu izdan hammadan yaxshiroq boshlab bora oladi; nihoyat, «Britaniya» halokatga uchragan joyni faqat Ayrton topib bera oladi. Qisqasi, mayor sayohat hech qanday o'zgarishsiz ilgarigi tartibda davom etaversa derdi. Uni Jon Mangls qo'llab-quvvatladi. Yosh kapitan agar «Dunkan»ga hozir chopar yuborsak u yovvoyi o'lkadan ikki yuz mil yo'l bosib o'tishga majbur bo'ladi, undan ko'ra Tufold ko'rfazidan dengiz orqali xabar yuborish qulayroq, deb maslahat berdi.

Mayor bilan kapitan ustun kelishdi. Glenarvan Tufold ko'rfaziga yetib borgach, chopar yuborishga qaror qildi. Ayrtonni kuzatib turgan mayorning nazarida bunga botsmanning jahli chiqqandek tuyuldi. Lekin Mak-Nabbs o'z mulohazalarini hech kim bilan o'rtoqlashmadi, odatdagidek, hech kimga hech narsa demadi.

Avstraliya Alplarining etagidanoq boshlanadigan dasht sharqqa borgan sari sezilar-sezilmas pasayardi. Dashtning bir xil manzarasini har zamon-har zamon-da uchrab qoladigan mimoza, evkalipt va har xil yelim daraxtlari o'sgan chakalaklar, shuningdek, qip-qizil gullari chaman bo'lib yotgan gastrolobium grandiflorum o'simligining butalari buzib qolardi. Sayohatchilarning yo'lini ikki qirg'og'ida qamishlar va orxideyalar o'sib yotgan soylar, to'g'rirog'i, ariqlar kesib chiqardi. Ularni kechib o'tar edilar. Otryadning yaqinlashib kelishi bilan to'xtatuvaloqlar va kazuarlar galasining duv ko'tarilib qolgani va kengurularning prujinali qog'oz o'yinchoq singari butalar orasidan sakrab-sakrab qochgani uzoqdan ko'rinib turardi. Lekin sayohatchilar ov qilish to'g'risida o'ylamas ham edilar, charchab qolgan otlari ovga yaramasdi.

Buning ustiga kun juda issiq, havo nihoyatda dim edi. Hayvonlar ham, odamlar ham qattiq qiynalardilar. Ularning hammasi ham holdan toygan holda indamay yo'l bosar edilar. Sukunatni faqat ho'kizlarni xo'k-xo'klab haydayotgan Ayrtonning ovozi buzardi.

Soat o'n ikkidan ikkigacha otryad ajoyib qirqquloq o'rmoni orasidan o'tib bordi. Sayohatchilarimiz bunchalik charchamagan bo'lsalar, bu o'rmon manzaralaridan juda zavqlangan bo'lardilar. Balandligi o'ttiz futgacha yetadigan bu daraxtsimon o'simliklar juda rivoj topgan edi. Gigant qirqquloqlarning egilgan shoxlari ostidan otlargina emas, otliqlar ham boshlarini egmay, bahuzur o'tib borar, ba'zan biror otliqning oyog'idagi shpor qirqquloqlar tanasiga urilib, jaranglab ketardi. Qimir etmay turgan barglarning tagi ancha salqin, bunday joylarda yurish hammaga ham ma'qul tushdi. Bunday yangiliklarni ko'rganda o'zini tutolmay qoladigan Paganel bir necha bor ovoz chiqarmaygina xo'rsinib, o'z shodligini bildirdi-da, bir gala to'tiqush va kakadularni cho'chitib yubordi; qushlar qattiq shovqin ko'tardilar.

Geografiya olimi o'zining shodligi va zavqlanayotganini bildirib eh-ah qilayotgan edi, birdan hamrohlarining ko'zi oldida oti bilan birga gursillab yerga yiqildi. Unga nima bo'ldiykin: boshi aylandimikin yo jazirama issiqdan bo'g'ilib qoldimikin?

Hamma uning oldiga yugurdi.

- Paganel! Paganel! Sizga nima bo'ldi? - deb qichqirdi Glenarvan.

- Nima bo'lardi deysiz - otsiz qoldim, aziz Glenarvan, - deb javob berdi geografiya olimi, oyog'ini uzan-gidan chiqarib olar ekan.

- Otingizga nima bo'ldi?..

- Xuddi Myulredining oti singari yashin urgandek birdan o'ldi-qoldi.

Glenarvan, Jon Mangls va Vilson otni ko'zdan kechirdilar. Paganel to'g'ri aytgan ekan: ot birdan harom qotgan edi.

- Qiziq, - dedi Jon Mangls.

- Juda qiziq, - dedi qo'ydi mayor ham.

Glenarvan bu yangi falokatdan xavotir bo'lmay qololmasdi. Bu bo'm-bo'sh dashtda boshqa ot topishning

iloji yo'q edi-da. Bordi-yu, bu yerlarda epidemiya tarqalgan bo'lsa, ekspeditsiya juda qiyin ahvolda qolgan bo'lardi.

Qosh qorayguncha «epidemiya» so'zining asossiz aytilmagani tasdiqlandi: Vilson minib ketayotgan ot ham harom qotdi, undan keyin esa otryadga eng og'ir zarba bo'lib, ho'kizlardan biri o'ldi. Endi ekspeditsiya ixtiyorida faqat uchta ho'kiz bilan to'rtta ot qolgan edi.

Ahvol jiddiylashib qoldi. Oti o'lib qolgan sayohatchilar juda bo'lmasa piyoda ham ketavergan bo'lardilar: axir, ko'pincha skvatterlar bu bo'm-bo'sh dashtni piyoda bosib o'tadilar-ku. Lekin ho'kizlarning hammasi o'lib qolib, aravani tashlab ketishga majbur bo'lsalar, sayohatchi ayollarning holi nima kechadi? Ular Tufold ko'rfazigacha qolgan bir yuz yigirma mil masofani piyoda bosib o'ta olarmikanlar?

Xavotirga tushgan Glenarvan bilan Jon Mangls omon qolgan otlarni ko'zdan kechirdilar. Ehtimol, endi yangi qurbonlar berishning oldini olib bo'lar? Ular otlarning biror kasal bilan og'rganinigina emas, hatto holsizlanganini ham sezmadilar. Otlar soppa-sog' bo'lib og'ir safar qiyinchiliklarini bardamlik bilan yengib borardilar. Glenarvan ekspeditsiyaning boshiga kelgan bu g'alati epidemiya shu to'rtta hayvonning o'lishi bilan tugagan bo'lsa kerak, deb umid qila boshladi.

Ayrton ham shu fikrda edi. Hayvonlarning bunday paqqa-paqqa o'lib qolishiga botsman ham juda hayron ekanini aytdi.

Kichkina otryad yana yo'lga tushdi. Piyoda qolganlar navbatma-navbat aravaga chiqib, dam olar edilar. Hammasi bo'lib o'n mil yo'l yurgandan so'ng kechqurun tunash uchun manzil qurdilar. Daraxtsimon qurquloqlar chakalagi orasida tun tinch o'tdi, qurquloqlar orasida uchuvchi tulkichalar deb atalgan katta-katta ko'rshapalaklar uchib yurardi.

Ertasi kuni, ya'ni 13-yanvar juda yaxshi boshlandi. Boshqa hech qanday falokat yuz bermadi. Ekspeditsiya a'zolarining sog'lig'i ilgarigidek yaxshi edi. Ot va ho'kizlar bardamlik bilan olg'a boradilar. Elenning «mehmonxonasi»da mehmonlar uzilmagani uchun to'xtovsiz ravishda jonli suhbatlar bo'lib turdi. Mister Olbinet muzdek ichimliklar bilan har bir mehmonning chanqog'ini bosib turdi, o'ttiz gradus issiqda bu

ayni muddao edi. Bir bochka elni – pivoni yarimlatib qo'ydilar. Paganel ko'p ichar va turli-turli mavzularda yana ham qizg'in va'zxonlik qilardi.

Shunday yaxshi boshlangan kun yaxshi tugashi kerakdek edi. Otryad qizg'ish tuproqli tepalik yerlardan o'n besh milcha yo'l bosdi. O'sha kuni kechqurunok Viktoriya viloyatining janubida Tinch okeanga borib quyiladigan Snou degan katta daryo bo'yiga yetib olishga umid bog'lasa bo'lardi. Ko'p o'tmay arava g'ildiraklari baland-baland o'tlar va *gostrolobium* butalari bosib ketgan yumshoq qora tuproq yerlardan iz qoldirib o'ta boshladi.

Kech kirdi. Ufqda aniq ko'rinib turgan tuman pardasi Snou daryosining oqimini ko'rsatib turardi. Ho'kizlar aravani yana bir necha mil joyga tortib bordilar. Uncha baland ham bo'lmagan bir tepa yonidan o'tilgandan keyin yo'l katta-katta daraxtlar o'sib yotgan o'rmon ichiga burilar edi. Ayrton qattiq charchagan ho'kizlarini o'sha katta-katta daraxtlar o'sgan qopqorong'u o'rmon ichiga burdi, bir yalanglikdan o'tdi, daryoga yetishlariga nihoyati yarim milcha yo'l qolganda birdan arava gupchagigacha loyga botib qoldi.

– Ehtiyot bo'linglar! – deb qichqirdi botsman, arava ketidan kelayotgan otliqlarga.

– Nima bo'ldi? – deb so'radi Glenarvan.

– Loyga botib qoldik, – dedi Ayrton.

U ho'kizlarni hay-haylab va uzun tayoq bilan urib, yurgizishga harakat qilib ko'rdi, lekin tizzasigacha loyga botib qolgani uchun ho'kizlar o'rnidan qimirlay olmas edi.

– Shu yerda manzil qurib qo'ya qolaylik, – deb taklif qildi Jon Mangls.

– Shunday qila qolganimiz durust, – dedi Ayrton ham. – Ertaga erta bilan bu yerdan chiqib ketish osonroq bo'ladi.

– Shu yerda tunaymiz! – deb qichqirdi Glenarvan.

Sal-pal qosh qorayib turdi-yu, birdan qorong'u tushdi, lekin salqin tushmadi. Havo dim. Ufqda har zamon-har zamonda bir yalt etib chaqmoq chaqqani ko'rinar, uzoq-uzoqlarda momaqaldiraq gumburlagani eshitilardi.

Botib qolgan arava hamda katta-katta daraxtlar ostiga o'rnatilgan palatkada bir amal qilib joylashdilar.

Kechasi yomg'ir quyib bermasa bo'lgani, boshqa hech narsadan nolimay, tong ottirib olish mumkin.

Ayrton qornigacha loyga botib qolgan ho'kizlarni zo'r mashaqqatlar bilan bo'lsa ham chiqarib oldi. Keyin hech kimning yordamisiz, bir o'zi ularni otlar bilan bir yerga bog'lab oldiga ovqat soldi, bu ishlarni u doim o'zi qilardi. Umuman botsman hayvonlarga yaxshi qarardi. Ayrtonning bugun ayniqsa yaxshi harakat qilayotganini ko'rgan Glenarvan unga tashakkur bildirdi, chunki endilikda mollarni ehtiyot qilish eng muhim ish edi.

Ayrton ot va ho'kizlar bilan ovora ekan, sayohatchilar ovqatlanish uchun o'tirdilar, ovqat ham aytarlik yaxshi emasdi. Lekin hech kimning ham ovqat yegisi yo'q edi, chunki qattiq charchagan va issiqdan qiynalgan sayohatchilar ovqatdan ko'ra dam olishga muhtoj edilar. Elen bilan Meri Grant hamrohlariga tinch uyqu tilab, har vaqtdagidek aravadagi o'z divanlariga chiqib yotdilar. Erkaklarga kelsak, ularning ba'zilari palatkaga kirib yotdilar, ba'zilari daraxt ostidagi qalin o'tlar ustiga cho'zildilar, ochiq yerda o'tlar ichida yotish bu ajoyib mamlakatda xavfli emasdi.

Sekin-asta hamma og'ir uyquga ketdi. Osmonni katta-katta quyuv bulutlar qoplab kela boshladi, tun borgan sari qorong'ulashib borardi. Tiq etgan shamol yo'q. Tun sukunatini faqat Yevropa kakkusiga o'xshab sayraydigan morpukning g'amgin ovozigina buzardi.

Soat o'n birlarga borib, biroz mizg'ib olgan mayor birdan uyg'onib ketdi. U daraxtlar ostida bilinar-bilinmas miltillayotgan allaqanday xira yorug'liqqa hayron bo'lib qarab qoldi. Mak-Nabbs dastlab biror yerga o't tushgan bo'lsa kerak deb o'yladi.

U o'rnidan turib, o'rmonga qarab yurdi. Lekin bu yorug'likning sababi atrofni bosib ketgan yorug' beruvchi qo'ziqorinlar ekanini ko'rib, juda ajablendi. Ba'zi qo'ziqorinlar qorong'ulikni anchagina yoritib turar edilar.

Mayor xudbin odam emasdi, u bu nodir hodisani o'z ko'zi bilan ko'rsin deb, endigina Paganelni uyg'otmoqchi bo'lib turgan edi, to'satdan ko'zi bir narsaga tushib qoldi-da, bu fikrdan qaytdi.

Qo'ziqorinlar shu'lasini o'rmonda yarim mil atrofni yoritib turardi. Mak-Nabbsning nazarida o'rmon yo-

qasida allaqanday ko'lan-kalar qimirlayotgandek bo'ldi. Yo unga shunday tuyuldimikan?

Mayor yerga yotib, diqqat bilan kuzata boshladi. Ko'p o'tmay u bir necha kishini aniq ko'rdi. Ular goh engashib, goh qaddini rostlab, aftidan, yerga yangi tushgan izlarni axtarar edilar.

Qanday qilib bo'lmasin, bu odamlarning maqsadi nima ekanini bilish kerak edi.

Mak-Nabbs ikkilanib o'tirmadi. U bironta ham hamrohini uyg'otmay, dashtda o'sgan yovvoyilardek, o'siq o'tlar orasiga kirib, g'oyib bo'ldi.

O' n t o' q q i z i n c h i b o b

KUTILMAGAN NATIJA

Tun juda yomon o'tdi. Kechasi soat ikkida jala quya boshladi, u to ertalabgacha to'xtovsiz yog'di. Palatkada yomg'irdan saqlanishning iloji yo'q edi. Glenarvan bilan hamrohlari aravaga chiqib panoh topishga majbur bo'ldilar. Uyqu to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emasdi. Har xil mavzularda suhbatlashib o'tirdilar. Bir-pas allaqayoqqa borib kelganini hech kim sezmay qolgan mayorgina sira og'iz ochmadi, u faqat quloq solib o'tirdi. Sharillab quyayotgan jalaning tinishidan darak yo'q edi. Yomg'ir shu xilda yog'aversa, Snou daryosi toshib ketishi mumkin, unda loyga botib yotgan aravani chiqarib olishning sira iloji qolmaydi. Shuning uchun Myulredi, Ayrton va Jon Mangls suvning toshgan-toshmaganini bilib kelish uchun navbatma-navbat bir necha marta daryo sohiliga borib, shalabbo ho'l bo'lib keldilar.

Nihoyat, tong ota boshladi. Yomg'ir tindi, ammo osmonni qoplab yotgan qalin bulutlar orasidan quyosh nurlari o'tib, yerni yoritilmadi. Chor atrofdan loyqa, iflos hovuzlarga o'xshagan sarg'ish suvli katta-katta ko'lmaklar hosil bo'lgan. Yomg'ir yuvib ketgan yerdan issiq hovur ko'tarilib, havoni yaramas rutubat bilan to'ldirdi.

Glenarvan dastlab aravani chiqarib olishga kirishmoqchi bo'ldi. U bu bizning eng muhim vazifamiz deb hisoblardi. Og'ir aravani ko'zdan kechira boshladilar.

U kattagina bir chuqurlikda yelimdek yopishqoq loyga botib qolgandi. Oldingi g'ildiragi butunlay loyga kirib ketgan, keyingi g'ildiragi esa o'qigacha botgan. Bunday katta aravani odamlarning va otlar bilan ho'kizlarning baravar zo'r berishi bilan ham chiqarib olish oson ish emas.

- Har nima bo'lganda ham, tezroq harakat qilish kerak, - dedi Jon Mangls, - loy quriy boshlagandan keyin uni chiqarib olish yana ham qiyin bo'lib qoladi.

- Qani, bo'lmasa, tezroq harakat qilaylik, - dedi Ayrton.

Glenarvan, ikkala matros, Jon Mangls va Ayrton otlar bilan ho'kizlarni olib kelgani o'rmonga ketdilar. Bu baland-baland yelim daraxtlaridan iborat yoqimsiz siyrak o'rmon edi. Bir-biridan uzoq-uzoqda tamoman qurib qolgan daraxtlari qad ko'tarib turardi, chunki po'stlog'i tushib ketganiga ancha bo'lganidan ular po'kak yig'ish vaqtidagi po'kak emanlariga o'xshab qolgan edilar. Yerdan ikki yuz futcha yuqorida bir-biriga chirmashib ketgan ayanchli, yalang'och shoxlari ko'rinib turardi. Quruq skelet bo'lib qolgan bu daraxtlarda bironta ham qush ko'rinmas, quruq suyakka o'xshab yotgan tanasida bironta ham yaproq yo'q edi. Avstraliyada go'yo biror epidemiyaga uchragandek boshdan oyoq qurib qolgan o'rmonlar tez-tez uchraydi, buning sababi nima ekanini hech kim bilmaydi. Na keksa yerliklar, na ularning allaqachon go'rga kirgan ota-bobolari bu o'rmonlarning ko'karib turgan vaqtini ko'rmaganlar.

Glenarvan bu o'lik daraxtlar ostidan borar ekan, bulut burkab yotgan osmonga qarardi, tepada go'yo osmon gumbaziga naqshkorlik bilan o'yib ishlagandek tuyulgan daraxtlarning mayda-mayda shoxlari ko'rinardi. Ayrton na otlarni, na ho'kizlarni kecha kechqurun qo'yib ketgan joyidan topolmay juda hayron bo'ldi; tushovlab qo'yilgan hayvonlar u qadar uzoqqa ketib qolmasdi-ku!

Ularni butun o'rmondan axtara boshladilar, lekin hech qayerdan topolmadilar. Hayron bo'lgan Ayrton ajoyib mimozalar o'sib yotgan Snou sohiliga qaytib keldi. Shu yerdan u ho'kizlarini ularga yaxshi ma'lum bo'lgan hayqiriq bilan qattiq-qattiq chaqira boshladi, lekin ho'kizlardan darak bo'lmadi. Botsman juda xa-

votirda qolgandek tuyulardi; uning hamrohlari hayron bo'lib bir-birlariga qarardilar.

Hayvonlarni qidirib shu tarzda bir soat vaqt o'tdi, Glenarvan endigina bu yerdan bir milcha narida qolgan arava yoniga qaytmoqchi bo'lgan ham ediki, birdan otning kishnagani, u bilan ketma-ket ho'kizning ma'ragani eshitilib qoldi.

– Mana bu yerda ekan ular! – deb qichqirdi Jon Mangls, baland o'sgan gastrolobiumlar orasidan ichkariga o'tar ekan; bu butalar orasiga butun bir podani ham yashirib qo'ysa bo'lardi.

Glenarvan, Myulredi va Ayrton uning ketidan o'sha joyga chopdilar va hayron bo'lib qotib qoldilar: ikki ho'kiz bilan uch ot ilgari harom qotgan sheriklaridek yerda cho'zilib yotar edi. Ularning tanasi allaqachon sovib bo'libdi. Mimosalar orasida o'ljaga tashlanish paytini kutib, och quzg'unlar galasi qag'illardi.

Glenarvan bilan hamrohlari bir-birlariga qarashdi. Vilson beixtiyor so'kinib yubordi.

– Nima ham qilardik, Vilson, – dedi o'zini zo'rg'a ushlab turgan Glenarvan. – Ayrton, omon qolgan ho'kiz bilan otni olib keting. Endi bizni shu ikkalasi falokatdan qutqarishi kerak.

– Arava loyga botib qolmaganda bu ot blian ho'kiz uni bir amallab, sekin-asta bo'lsa ham sohilga yetkazib borardi, demak, biz nima qilib bo'lsa ham bu badbaxt aravani loydan chiqarib olishimiz kerak.

– Harakat qilib ko'ramiz, Jon, – dedi Glenarvan. – Endi yuringlar, manzilga qaytaylik: bizning bunday uzoq yo'q bo'lib ketishimizdan xavotir olib o'tirishmasin.

Ayrton ho'kizning tushovini, Myulredi esa otning tushovini yechdilar, so'ng hammalari daryoning ilonizi sohilidan manzilga qarab ketdilar.

Yarim soatdan so'ng Paganel, Mak-Nabbs, Elen va Meri Grantlar barcha voqeadan xabardor bo'ldilar.

– Ayrton, afsuski, Vimmera yonida hamma otlarni taqalatib olmagan ekansiz, – dedi chiday olmagan mayor botsmanga.

– Nima uchun, ser?

– Chunki otlardan faqat o'sha yerda siz topib kelgan temirchi taqalab bergani omon qoldi.

- Rost-a, - dedi Jon Mangls. - Mana bu qiziq tasodifni qaranglar!

- Tasodif, xolos, - dedi botsman, mayorga diqqat bilan tikilib.

Mak-Nabbs ichdan qaynab kelayotgan so'zlarini aytib yuborishni istamagandek, labini tishladi.

Glenarvan, Mangls, Elen, aftidan, uning o'z fikrlarini oxirigacha aytishini kutib turar edilar, lekin u indamay, Ayrton ko'zdan kechirayotgan arava tomonga ketdi.

- U nima demoqchi bo'ldiykin? - deb so'radi Glenarvan Jon Manglsdan.

- Bilmadim, - dedi yosh kapitan, - lekin mayor be-sabab bir narsa deydigan odam emas.

- Albatta, Jon, - dedi Elen. - Aftidan, Mak-Nabbs nima uchundir Ayrtondan shubhalanyapti.

- Shubhalanyapti? - dedi yelkasini qisib Paganel.

- Nima uchun? - deb hayron bo'ldi Glenarvan. - Nahotki, u Ayrtonni otlar bilan ho'kizlarni o'ldirishda shubha qilsa? Nima maqsadda? Botsmanning manfaat-lari bizning manfaatimiz bilan bir emasmi?

- To'g'ri aytdingiz, azizim Eduard, - dedi Elen, - men shuni qo'shimcha qilmoqchimanki, safarning boshidan beri u bizga o'zining sadoqatini juda ko'p ko'rsatdi.

- Bunga shubha yo'q, - dedi Jon Mangls. - Lekin mayor nima demoqchi bo'ldi ekan? Men har qanday qilib bo'lsa ham buni aniqlashim kerak.

- Mayor uni anavi katorjniklarning sherigi deb o'ylayotgan bo'lmasin yana? - deb yubordi birdan Pa-ganel.

- Qaysi katorjniklarning? - deb so'radi Meri Grant.

- Janob Paganel yanglishyapti, - dedi darhol Jon Mangls. - Viktoriya viloyatida hech qanday katorjnik yo'qligini u yaxshi biladi.

- Bo'lmasam-chi, men buni yaxshi bilaman, albat-ta, - dedi aytgan so'zini qaytib olishga ham tayyor turgan geograf darhol es-hushini yig'ib olib. - Nimalar deyapman o'zim? Katorjniklarim nimasi - Avstraliyada hech kim hech vaqt bunday odamlar to'g'risida hech narsa eshitgan emas! Buning ustiga, har qanday ji-noyatchi ham bu yerga kelib tushishi bilanoq yaxshi odam bo'lib qoladi. Bu yerning iqlimi shunaqa o'zi,

miss Meri, iqlimi! Bilasizmi, iqlimning ta'siri natijasida...

Bechora olim aybini yopishga urinib aravaning horiga tushdi – yolg'on gaplar botqog'iga botib qoldi. Elen unga tikilib qarab turardi, bu esa Paganelning yana ham dovdirab qolishiga sabab bo'ldi. Buni sezgan Elen geografiya olimini noqulay ahvoldan qutqarish uchun Merini mister Olbinet butun san'atini ishga solib ovqat hozirlayotgan palatkaga olib ketdi.

– Bu aybim uchun mening o'zimni surgun qilish kerak! – dedi Paganel xijolat bo'lib.

– Men ham shunday deb o'ylayman, – dedi Glenarvan.

Glenarvanning sovuqqonlik bilan jiddiy qilib aytgan bu so'zlari, bechora geografiya olimini yana ham dovdiratib qo'ydi. Glenarvan bilan Jon Mangls arava oldiga ketdilar.

Bu vaqt Ayrton bilan ikki matros aravani loydan chiqarishga urinmoqda edilar. Aravaga yonmayon qo'shilgan ot bilan ho'kiz butun kuchini sarf qilib, tortar edilar. Qayishlar uzilay-uzilay deb turar, bo'yinturuqlar sinib ketay derdi. Vilson bilan Myulredi zo'r berib aravani joyidan qo'zg'atishga tirishar, botsman esa qattiq hayqirib va qamchi solib ot bilan ho'kizni haydar edi. Og'ir arava joyidan qo'zg'almadi. Ancha qurib qolgan loy uni sementdek mahkam tishlab turardi.

Jon Mangls loyni suyuqroq qilish uchun g'ildiraklar ostiga suv quyishni buyurdi. Foydasi bo'lmadi: botib qolgan g'ildiraklar ilgarigidek qimir etmay turardi. Yana bir ko'plashib harakat qilishgandan so'ng aravani chiqarib bo'lmasligiga ishonch hosil qildilar. Faqat bir yo'l – aravani bo'laklarga ajratib, chiqarib olish qolgan edi. Lekin hech qanday asbob bo'lmagani uchun buni amalga oshirib bo'lmasdi.

Faqat birgina Ayrton bo'sh kelmasdi – u nima qilib bo'lsa ham aravani chiqarib olmoqchi edi. U yana bir urinib ko'rmoqchi bo'lgan edi, Glenarvan uni to'xtatdi.

– Bo'ldi, Ayrton, bas endi! – dedi u. – Omon qolgan ho'kiz bilan otni ehtiyot qilishimiz kerak. – Hamon qolgan yo'lni piyoda bosishga to'g'ri kelar ekan, bulardan biri ayollarni olib ketsa, biriga oziq-ovqatlarimizni ortamiz. Ular bizga hali ko'p yordam beradi.

– Xo'p, ser, – deb javob berdi Ayrton va qiynalib ketgan jonivorlarni aravadan chiqara boshladi.

– Do'stlarim, – deb davom etdi Glenarvan, – endi manzilga yuringlar. Masiahatlashib, yuz bergan ahvolni muhokama qilamiz, nimalarga umid qilishimiz, nimadan ehtiyot bo'lishimiz lozimligini o'ylashib, so'ng biror qarorga kelamiz.

Tunni ancha betinch o'tkazgan sayohatchilar ozoginadan ovqat yeb olib, ahvolni muhokama qilishga kirishdilar. Qatnashuvchilar hammasi o'z fikrini aytishi kerak edi.

Eng oldin qayerda turganliklarini aniq bilib olish lozim edi. O'ziga yuklatilgan bu vazifani Paganel juda puxta bajardi.

Geografiya olimining gapiga qaraganda, ekspeditsiya a'zolari Snou daryosining bo'yida, o'ttiz yettinchi parallelda, 147°53' uzunlikda turar edilar.

– Tufold buxtasining aniq koordinatlari qanday? – deb so'radi Glenarvan.

– U bir yuz elliginchi gradus uzunlikda, – deb javob berdi Paganel.

– Bu ikki gradus-u yetti minut necha mil keladi?

– Yetmish besh mil.

– Bu yerdan Melburn qancha masofada?

– Ikki yuz mildan kam emas.

– Yaxshi, – dedi Glenarvan. – Turgan joyimizni aniq-ladik, endi nima qilish kerakligini maslahatlashib olamiz.

Hamma ham darhol okean sohiliga qarab yo'lga chiqish kerak degan fikrga qo'shildi. Elen bilan Meri Grant har kuni besh mildan yo'l yurishga va'da berdilar. Jasur ayollar agar lozim bo'lsa, Snou bo'yidan to Tufold ko'rfazigacha piyoda borishga tayyor edilar.

– Siz safarda mard yo'ldoshsiz, azizim Elen, – dedi Glenarvan xotiniga. – Lekin Tufold ko'rfaziga yetib olganimizdan keyin hamma zarur narsalarni topa olamizmi?

– Shubhasiz, – dedi Paganel. – Eden kechagina qurilgan shahar emas, Eden porti bilan Melburn o'rtasida kemalar tez-tez qatnab turishi kerak. Ajab emaski, bu yerdan o'ttiz besh mil naridagi Delegeyt degan shaharchada faqat oziq-ovqat emas, ot-ulov ham topsak.

– Xo‘sh, «Duncan» nima bo‘ladi? – deb so‘radi Ayrton. – Uni Tufold ko‘rfaziga chaqirishning payti kelmadimikan, milord?

– Siz nima deysiz, Jon? – deb so‘radi Glenarvan.

– Menimcha, bunga shoshilmasak ham bo‘ladi, ser, – deb javob berdi yosh kapitan, biroz o‘ylab olgach, – Tom Ostinni istagan vaqtda chaqirib olishingiz mumkin.

– Bunga shubha yo‘q, – deb so‘z qistirdi Paganel.

– To‘rt yo besh kundan keyin biz Edenga yetib olamiz, buni esdan chiqarmanglar, – deb davom etdi Jon Mangls.

– To‘rt-besh kunda deysizmi? – deb qayta so‘radi Ayrton, bosh chayqab. – Yo‘q, kapitan, bahuzur o‘n besh kun, hatto yigirma kun ketadi deb hisoblayvering, aks holda keyin xato qilganingizdan xafa bo‘lib yurasiz.

– Yetmish besh mil yo‘lni bosib o‘tish uchun o‘n besh-yigirma kun vaqt kerakmi? – dedi Glenarvan.

– Kam deganda, ser. Axir sizlar Viktoriya viloyatining eng qiyin joylari – bo‘m-bo‘sh dashtlardan o‘tasiz, skvatterlarning gapi rost bo‘lsa, bu dashtlarda hech qanday manzil yo‘q, bu yerlardan hech narsa topib bo‘lmaydi. Hamma yoqni butalar bosib ketgan, yo‘l yo‘q. Bolta yoki mash‘al bilan yo‘l ochib yurishga to‘g‘ri keladi, xo‘p deyavering, bu ahvolda yo‘l yurib, bir kunda hech qancha joyni bosib o‘tolmaysiz.

Ayrton bu gaplarni juda ishonch bilan aytdi, o‘tirganlar savol nazari bilan Paganelga qaragan edilar, u boshini qimirlatib, botsmanning gapini tasdiqladi.

– Shunday ham bo‘lsin deylik, – dedi Jon Mangls. – Hechqisi yo‘q, «Duncan»ga o‘n besh kundan keyin buyruq yuborasiz-qo‘yasiz-da.

– Shuni ham qo‘shib qo‘yay, – deb davom etdi Ayrton, – men aytgan gaplar hali eng muhimi emas, eng katta qiyinchilikni hali aytganim yo‘q, – hali Snou daryosidan o‘tish kerak-ku; buning uchun daryo suvi kamayishini kutishimiz zarurdir?

– Kutish deysizmi? – dedi yosh kapitan. – Uni kechib o‘tib bo‘lmaydimi hali?

– Bo‘lmas deyman, – deb javob berdi Ayrton. – Bugun ertalab men kechib o‘tadigan joy qidirib ko‘rdim, ammo topolmadim. Yilning bu faslida Snoudek toshqin

daryolar kamdan kam uchraydi. Lekin bunga iloj topib bo'lmaydi.

– Demak, Snou juda keng ekan-da? – deb so'radi Elen Glenarvan.

– Ham keng, ham chuqur, missis, – deb javob berdi Ayrton. – Eni bir milcha chiqadi, o'zi juda tezoqar. Undan suzib o'tish hatto usta suzuvchilar uchun ham xatarli.

– Nima bo'bdi! – dedi Robert bu qiyinchiliklarni nazar-pisand qilmay. – Bironta daraxtni kesamiz-da, orasini o'yib qayiq yasaymiz, keyin daryodan suzib o'tib ketamiz. Vassalom!

– Yasha, kapitan Grantning o'g'li! – dedi Paganel.

– To'g'ri aytdi u, – dedi Jon Mangls. – Boshqa ilojimiz yo'q. Shuning uchun men befoyda muzokaralarga berilib, vaqtimizni bekor o'tkazmaylik, degan fikrdaman.

– Siz nima deysiz, Ayrton? – deb so'radi Glenarvan, botsmandan.

– Yordam yetib kelmasa, bir oydan keyin ham Snou bo'yida o'tiravermasak edi deb xavotirdaman, ser.

– Boshqa biror yaxshiroq rejangiz bormi, bo'lmasa? – deb so'radi biroz diqqati oshib Jon Mangls.

– Bor: «Dunkan» Melburndan chiqib, sharqiy sohilga kelishi kerak.

– Obbo, yana «Dunkan!» Qani, ayting-chi, kema Tufold ko'rfaziga kelsa bizning u ko'rfazga borishimiz qanday qilib osonlashadi?

– Men o'zimning fikrimni o'tkazmoqchi emasman. Men faqat hammamizning foydamizni ko'zlab, taklif kiritayotibman, o'zimga qolsa bir og'iz buyursangiz bas – darhol yo'lga tushishga roziman, – deb gapni mujmal qildi botsman, biroz o'ylab turgach.

Keyin qo'llarini ko'ksiga qovushtirib oldi.

– Bu gap emas, Ayrton, – dedi Glenarvan. – Bizni rejangiz bilan tanishtiring, o'rtada muhokama qilib ko'ramiz.

– Men aytmochimanki, biz ana shunday og'ir ahvolda bo'la turib, tavakkaliga ish ko'rmasligimiz, Snou bo'yidan ketmasligimiz kerak, – deb ishonch bilan, xotirjam gap boshladi Ayrton. – Biz shu yerda turib, yordam kutishimiz kerak, yordamni esa faqat «Dunkan»dan olishimiz mumkin. Shu yerga man-

zil qurib to'xtaylik-da, bittamiz Tom Ostringa Tufold ko'rfaziga kelish to'g'risida buyruq olib boraylik.

Bu kutilmagan taklifdan hamma taajjublandi, Jon Manglsga esa bu reja ochiqdan ochiq yoqmadi.

- Bu orada, - deb davom etdi botsman, - yo Snouning suvi qaytadi va biz uni kechib o'tamiz, yoki, agar daryoning suvi qaytmasa, ungacha biz qayiq yasab ulguramiz. Mening rejam ana shu, ser.

- Yaxshi, Ayrton, - dedi Glenarvan, - taklifingiz jiddiy muhokama qilib ko'rishga loyiq. Uning asosiy kamchiligi shuki, uni qabul qilsak, allaqancha vaqtni qo'ldan beramiz, lekin charchab, holdan toyishdan qutulamiz, ehtimolki, ba'zi xavf-xatardan ham xalos bo'lamiz. Sizlar nima deysiz, do'stlarim?

- Siz ham o'z fikringizni ayting, aziz Mak-Nabbs, - dedi mayorga qarab Elen. - Maslahatimiz boshlangandan beri quloq solib o'tiribsiz-u, o'zingiz hech narsa demaysiz.

- Mening fikrimni so'ragan ekansiz, aytaman, - deb javob berdi Mak-Nabbs, - men o'z fikrimni ochiq-oydin qilib aytaman: menimcha, hozir Ayrton juda aqlli va ehtiyotkor odamning gapini aytdi, men uning taklifini quvvatlayman.

Hech kim uning bunday javob berishini kutmagan edi, chunki shu vaqtgacha Mak-Nabbs doim Ayrtonning gapiga qarshi chiqar edi. Botsmanning o'zi ham bunga hayron qoldi shekilli, yalt etib mayorga qarab qo'ydi. Paganel, Elen va matroslar Ayrtonning taklifini yoqlashga tarafdor edilar, Mak-Nabbsning so'zi ularning so'ngi shubhalarini tamom tarqatib yubordi.

Glenarvan Ayrtonning rejasi asosan qabul qilindi deb e'lon qildi.

- Jon, - dedi yosh kapitanga qarab Glenarvan, - siz ham daryo bo'yida qolib, ot-ulov olib kelishlarini kutganimiz ma'qul deysizmi?

- Ha, - deb javob berdi Jon Mangls, - agar choparimiz biz o'zimiz o'tolmagan Snou daryoidan o'ta olsa.

Hamma botsmanga qaradi. U o'ziga ishongan odamning tabassumi bilan jilmaydi.

- Chopar daryodan o'tmaydi ham, - dedi u.

- O'tmaydi? - deb so'radi Jon Mangls, hayron bo'lib.

- U Lyuknou yo'liga qaytib boradi-da, undan to'g'ri Melburnga yo'l oladi.

- Ikki yuz ellik mil yo'lni piyoda bosadimi? - dedi yosh kapitan.

- Yo'q, otda, - dedi Ayrton. - Bitta sog' otimiz bor-ku. Unda bu yo'lni to'rt kunda bosib o'tish mumkin. Bunga «Dunkan»ning Tufold qo'ltig'iga kelishi uchun ketadigan ikki kunni ham qo'shing, yana bir kun bizning manzilga kelish uchun ketadi. Demak, chopar bir haftadan keyin matroslar otryadi bilan yana shu yerda bo'ladi.

Mayor Ayrtonning gapini bosh qimirlatib ma'qullab o'tirardi, bu Jon Manglsni juda hayron qoldirdi. Shunday qilib, botsmaning taklifi bir og'izdan qabul qilindi, endi haqiqatan ham pishiq bo'lgan bu rejani amalga oshirish qolgan edi.

- Do'stlarim, - dedi Glenarvan, - endi faqat chopar tanlashimiz qoldi. Vazifa og'ir va mas'uliyatli, buni yashirib o'tirmayman. Qani, kim o'rtoqlari uchun o'zini fido qiladi? Ko'rsatmamizni Melburnga kim olib boradi?

Vilson, Myulredi, Jon Mangls, Paganel va hatto Robert darhol bunga hozir ekanliklarini bildirdilar. Ayniqsa Jon Mangls qattiq turib oldi.

Lekin shu paytgacha jim turgan Ayrton so'zga kirdi:

- Ruxsat etsangiz, shunga men borsam. Men bu o'lkani yaxshi bilaman. Bundan ham yovvoyi, bundan ham xavfli joylardan ko'p yurganman. Boshqalar halok bo'lib ketadigan joydan men eson-omon o'tib keta olaman. Ana shuning uchun, hammamizning manfaatlarimizni ko'zlab, Melburnga meni yuborishingizni so'rayman. Siz kapitan yordamchisiga xat yozib berasiz, «Dunkan»ning olti kun ichida Tufold ko'rfaziga yetib kelishiga men kafil.

- Ma'qul gap aytdingiz, Ayrton! - dedi Glenarvan. - Siz aqlli, dovyurak odamsiz, albatta so'zingiz ustidan chiqasiz!

Haqiqatan ham, bu og'ir vazifani boshqalardan ko'ra Ayrton yaxshiroq bajarishi shubhasiz edi.

Buni hamma tushundi, shuning uchun hech kim u bilan tortishib o'tirmadi. Faqat Jon Mangls: u «Britaniya» va Garri Grantni qidirishda kerak bo'ladi, deb

uni to'xtatib qolishga oxirgi marta urinib ko'rdi. Lekin mayor bunga e'tiroz bildirib, botsman qaytib kelmaguncha ekspeditsiya Snou bo'yidan hech qayoqqa jilmaydi, shuning uchun Ayrton yo'qligida qidirish ishlarini davom ettirish to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas, dedi. Demak, Ayrtonning safarga chiqishi kapitan Grantni axtarish ishiga sira ham xalaqit bermaydi.

– Xo'p, bo'lmasa jo'nayvering, Ayrton, – dedi Glenarvan. – Tezroq yetib borib, Eden orqali bizning Snou bo'yidagi manzilizmizga vaqtlitroq qaytishga harakat qiling.

Bu gaplarni eshitib, botsmanning ko'zlarida sevinch o'tlari porladi. U tez o'g'irilib oldi, lekin Jon Mangls uning juda shodlanib ketganini sezdi. Yosh kapitanning qalbidagi Ayrtonga nisbatan bo'lgan ishonchsizlik tobora ortib borar edi.

Botsman yo'l hozirligini ko'ra boshladi. Unga ikkala matros yordam berdilar: biri otni egarladi, ikkinchisi unga oziq-ovqat tayyorladi. Glenarvan esa bu vaqt Tom Ostinga xat yozgani o'tirdi. Xatda u kapitan yordamchisiga darhol Tufold ko'rfaziga yetib kelish to'g'risida buyruq berdi. Ayrton to'g'risida kam ilova qilib, u ishonchli odam, deb qo'shib qo'ydi. Kema sharqiy sohilga yetib kelgandan keyin Tom Ostin Ayrtonga bir otryad matros berishi kerak edi. Glenarvan xatning xuddi shu yerini yozayotganda Mak-Nabbs qarindoshiga tikilib turib g'alati bir ohangda «Ayrton»ning ismini qanday yozdingiz, deb so'rab qoldi.

– Qanday bo'lardi, aytilganidek yozdim-da, – deb javob berdi Glenarvan.

– Yanglishasiz, – dedi mayor xotirjamlik bilan, – bu ism aytilishda «Ayrton» deb aytiladi-yu, yozishda «Ben Joys» deb yoziladi!

Y i g i r m a n c h i b o b

«LANDIYA! LANDIYA! ZELANDIYA!»

Ben Joys degan ism yashin urgandek ta'sir ko'rsatdi. Ayrton shartta qaddini rostladi. Uning qo'lida to'pponcha yaraqladi. Qars etib o'q uzildi. Glenarvan yerga yiqildi. Tashqarida miltiq tovushlari eshitildi.

Dastlabki daqiqada kutilmagan bu hodisadan hayron bo'lib, qotib qolgan Jon Mangls bilan matroslar o'zlariga kelib Ben Joys ustiga tashlanmoqchi bo'ldilar, lekin epchil katorjnik allaqachon g'oyib bo'lib, o'rmon yoqasida to'plangan o'z shaykasiga borib qo'shilgan edi.

Chodir o'qdan saqlay olmasdi. Chekinish kerak. Yengil yarador bo'lgan Glenarvan o'rnidan turdi.

- Aravaga! Aravaga! - deb qichqirdi Jon Mangls, Elen bilan Meri Grantni yetaklab, o'sha tomonga chopar ekan.

Ko'p o'tmay ular qalin taxtalardan yasalgan aravaga kirib yashirindilar.

Jon Mangls, mayor, Paganel va matroslar o'z karabinlarini olib, arava panasiga o'rnashdilar va qochqin mahbuslar hujumini qaytarishga hozirlik ko'rdilar. Olbinet ham darhol himoyachilar orasidan o'rin oldi.

Bu ishlar hammasi yashin tezligida qilindi. Jon Mangls o'rmon chetida nima bo'layotganini diqqat bilan kuzatib turardi. Ben Joys o'z shaykasiga borib qo'shilishi bilanoq pala-partish otilayotgan miltiq ovozlari tinib, jimlik cho'kdi. Faqat u yer-bu yerda, yelim daraxtlari orasida yaqindagina otilgan miltiq o'qlarining tutuni tarqalib borar, baland o'sgan gastrolobium butalari qimir etmasdi. Hujum tayyorlanayotganini ko'rsatadigan hech qanday alomat yo'q.

Mayor bilan Jon Mangls to'ormongacha razvedka qilib keldilar. Hech kim yo'q. Ko'p odamlarning izi ko'zga tashlanar, u yer-bu yerda miltiq otilganda to'kilgan porox yonib turmoqda edi. Qurib yotgan o'rmonga o't ketishi uchun bitta uchqun ham kifoya qilishini yaxshi bilgan ehtiyotkor mayor uni tepkilab o'chirib tashladi.

- Katorjniklar g'oyib bo'libdi, - dedi Jon Mangls.

- Ha, - dedi mayor, - rostimni aytsam, bu meni tashvishga solyapti, menimcha, bu muttahamlar bilan yuzma-yuz uchrashganimiz ma'qul edi, chunki qalin o't ichida yashirilib yotgan ilondan ochiq dashtdagi yo'lbars xavfsizroq. Arava atrofidagi anavi butalarni bir ko'zdan kechirib chiqaylik.

Mayor bilan Jon Mangls aravaning to'rt atrofini bir-bir tekshirib chiqdilar. O'rmon yoqasidan to' Snou sohiligacha bitta ham qochqin uchramadi. Ben Joysning

shaykasi yirtqich qushlar galasi singari uchib ketgandek tuyulardi. Ularning bunday g'oyib bo'lishi juda g'alati edi, chunki sayohatchilar o'zlarini xavfsizlikda deb hisoblay olmasdilar. Shuning uchun ular doim hushyor bo'lishga qaror qildilar. Arava, boshqacha qilib aytganda, loyga botib qolgan bu rostakam qal'a manzilning markazi bo'lib qoldi. Har soatda almashinib, ikki kishidan poyloqchilikda tura boshladilar.

Elen bilan Meri Grant dastlab Glenarvanning yarasinı bog'ladilar. Glenarvan Ben Joysning o'qidan yaralanib, yerga yiqilganda Elen qo'rqib ketib, erining ustiga o'zini otdi. Keyin bu mard xotin o'zini bosib olib, erining aravaga yetib borishiga ko'maklashdi. Glenarvanning yelkasini ochib ko'rdilar. Yarani sinchiklab ko'zdan kechirgan mayor o'q na muskulga, na suyakka zarar yetkazmaganiga ishonch hosil qildi. Yaradan tinmay qon oqar, lekin Glenarvan qo'li va barmoqlarini bemalol qimirlata olardi - bu hol xotini bilan do'stlarini ancha tinchlantirdi. Darhol yarani yaxshilab bog'lashdi, shundan so'ng Glenarvan men bilan ortiq ovora bo'lib o'tirmanglar, deb talab qildi. Hozirgina bo'lib o'tgan hodisaning sabablarini aniqlab olish payti keldi. Tashqarida soqchilik qilayotgan Vilson bilan Myulredidan boshqa barcha sayohatchilar bir amallab arava ichiga joylashib oldilar-da, mayordan izoh so'radilar.

Hikoyasini boshlashdan oldin mayor Elenni hali unga ma'lum bo'lmagan narsalar: Pert turmasidan katorjniklar shaykasi qochgani, bu shayka Viktoriya viloyatida paydo bo'lgani, Kemden ko'prigida yuz bergan halokat o'shalarning ishi ekanidan xabardor qilib qo'yishni lozim topdi. Shuningdek, u Elenga «Avstraliya va Yangi Zelandiya gazetasi»ning o'zi Seymurda sotib olgan sonini ham berdi-da, bir yarim yil ichida qilgan jinoyatlari bilan yomon nom chiqargan xavfli qaroqchi Ben Joysning boshi uchun politsiya yuz funt sterling mukofot belgilaganini ham qo'shib qo'ydi.

Lekin botsman Ayrtonning Ben Joys ekanini Mak-Nabbs qanday bilib oldi? Hammaning ham ana shu sirni tezroq bilgisi kelardi. Mayor quyidagilarni hikoya qilib berdi.

Mak-Nabbsning aytishicha, Ayrton bilan dastlabki uchrashuvdayoq nima uchundir mayorning ko'nglida

ishonchsizlik uyg'onadi. Bitta-ikkita mayda-chuyda faktlar, uning Vimmera daryosi yoqasida temirchi bilan g'alati qilib ko'z urishtirib olishlari, iloji boricha shahar va qishloqlarni chetlab o'tishga urinishi, ha-deb «Dunkan»ni sharqiy sohilga chaqirishni iltimos qilishi, ixtiyoriga topshirib qo'yilgan ot va ho'kizlarning g'alati bir usulda halok bo'lishi – bularning hammasi, shuningdek, botsmaning odamlar bilan muomala qilishidagi doimiy ehtiyotkorligi mayorda shubha uyg'otadi. Ammo kecha kechasidagi hodisagacha Ayrtondan nima uchun shubha qilayotganini mayorning o'zi ham aniq bilmaydi.

Lekin u kecha kechasi baland o'sgan butalar orasidan yashirinib, uzoqdan o'zining diqqatini tortgan, manzildan yarim mil naridagi shubhali ko'lankalar oldiga boradi. Yorug' beradigan qo'ziqorinlar qop-qorong'u zimistonni sal-pal yoritib turardi. Uch kishi yerga tushib qolgan yangi izlarni ko'zdan ko'chirayotgan ekan. Mak-Nabbs ulardan biri Blek-Poyntdan kelgan temirchi ekanini tanib qoladi. «Bu o'shalarning izi», deydi bittasi. «Ha, – deb javob beradi ikkinchisi, – mana belgili taqaning izi». – «Bu Vimmeraning xuddi o'zidan boshlangan iz». – «Hamma otlar harom qotib bo'ldi». – «Zahar har qadamda tayyor». – «Ha, u butun bir kavaleriya polkining otlarini qirib tashlashga ham yetadi». – «Gastrolobium juda foydali o't chiqdi-da!»

– Shundan so'ng ular jim bo'lib qolishdi, – deb davom etdi mayor, – keyin nari ketishdi. Lekin menga bu eshitganlarim hali ozlik qilardi, shuning uchun men ham ular ketidan ketdim. Ko'p o'tmay ular yana gap-ga kirdilar. «Ben Joys juda epchil yigit chiqdi-da! – dedi temirchi. – Qoyilman-e, botsmani tushmagur kema halokatini yaxshi o'ylab topdi-da! Agar uning rejasi amalga ohsa, bizdan badavlat odam bo'lmaydi! Bu Ayrton odam emas, shayton», – «Yo'q, uni Ben Joys deb atayver, u bu ismga loyiq ekanini ko'rsatdi!» Shundan keyin ablahlar o'rmondan chiqib ketishdi. Endi men o'zimga kerak narsalarning hammasini bilib olgan edim, shuning uchun, Paganelning jahli chiqmasin-u, Avstraliya har qanday mahbuslarning ham axloqini tuzata olmas ekan, degan xulosa chiqarib, manzilga qaytib keldim.

Mayor jim qoldi. O'rtoblari indamay, o'yg'a cho'mib o'tirar edilar.

– Demak, Ayrton bizni bu yerga talash va o'ldirish uchun olib kelgan ekan-da? – deb so'radi g'azabdan rangi oqarib ketgan Glenarvan.

– Ha! – deb javob berdi mayor.

– Uning shaykasi Vimmera daryosi yoqasidan to shu yergacha izimizdan ergashib kelgan, shundaymi?

– Ha.

– Demak, bu muttahaam «Britaniya» kemasining matrosi ham emas ekan-da? Demak, u Ayrton degan tamoman boshqa kishining ismini va kema kapitani bilan qilgan bitim daftarchasini o'g'irlab olgan ekan-da?

Hamma Mak-Nabbsga qarab turardi: axiyri bu fikr uning miyasiga ham kelgan bo'lishi kerak edi-ku.

– Bu mudhish voqealardan mana shularni aniq aytish mumkin, – deb javob berdi mayor odatdagidek xotirjamlik bilan. – Menimcha, uning ismi haqiqatan ham Ayrton. Ben Joys – uning laqabi. U Garri Grantni bilishi va «Britaniya»da botsman bo'lgani ham shubhasiz. Bularning hammasini Ayrtonning o'zi mufassal aytib bergan gaplar isbot qila oladi, buni men hozir aytib bergan katorjniklarning suhbatlari ham tasdiqlaydi. Befoyda taxminlar bilan boshimizni qotirib o'tirmaylik-da, Ayrton bilan Ben Joys bitta odam, ya'ni «Britaniya» kemasining matrosi keyinchalik qochqin katorjniklar shaykasining boshlig'i bo'lib olgan deb xulosa chiqaraylik.

Mak-Nabbsning so'zlariga hech kim e'tiroz bildirmedi.

– Endi, – dedi Glenarvan, – Garri Grantning botsmani qanday qilib Avstraliyaga kelib qolgan, menga shuni tushuntirib bera olasizmi, Mak-Nabbs?

– Qanday qilib? Bilmadim, – deb javob berdi mayor. – Politsiya ham bundan xabarsiz ekanini bildirdi. Nima uchun? Buni men ham bilmayman. Bu sirni faqat ke-lajak ochib berishi mumkin.

– Ayrton bilan Ben Joysning bitta odam ekanini politsiya xayoliga ham keltirmaydi, – dedi Jon Mangls.

– To'g'ri aytdingiz, Jon, – dedi mayor. – Bu ma'lumot politsiyaning qidirish ishlarini yengillatgan bo'lardi.

– U muttaham, Paddi Murning fermasiga yomon niyat bilan borgan bo'lsa kerak, – dedi Elen.

– Shubhasiz, – dedi Mak-Nabbs. – Aftidan, u Irlandiyaning fermasida allaqanday biror jinoyat hozirlayotgan ekan-u, bu yoqda u o'ylaganidan ham yaxshiroq o'lja chiqib qolgan. Tasodif u bilan bizni to'qnash qiladi. U Glenarvanning hikoyasini eshitadi, kema halokati yuz berganini bilib oladi-da, surbet, dovyurak odam bo'lgani uchun darhol yuz bergan bu ahvoldan foydalanmoqchi bo'ladi. Ekspeditsiya tashkil qilishga qaror qilinadi. Vimmera daryosi bo'yida o'z odamlaridan biri, ya'ni Blek-Poyntli temirchi bilan aloqa bog'laydi, temirchi esa Glenarvanning otini uch yaproq rasmi tushirilgan taqa bilan taqalab, shaykaga bizning izimizdan kelish imkoniyatini beradi. Ben Joys zaharli o't yordami bilan birin-ketin ot va ho'kizlarimizni qirib bitiradi. Nihoyat, vaqti yetib, bizni Snou botqoqligiga olib keladi-da, o'zi bosh bo'lgan qochqin katorjniklar ixtiyoriga topshiradi.

Hammasi ravshan bo'ldi. Mayor Ben Joysning butun taktikasini ochib tashladi, u muttahamning asl basharasi ochildi-qo'ydi: Ayrton dovyurak va xavfli jinoyatchi edi. Uning niyatlari endi ma'lum, shuning uchun Glenarvan nihoyatda ehtiyot bo'lishi kerak. Sayohatchilarning baxtiga fosh qilingan qaroqchi, xoin-dan xavfsizroq, albatta.

Lekin mayor tomonidan har tomonlama ochib tashlangan hozirgi vaziyatdan bir muhim natija chiqardiki, bu to'g'rida hozircha Meri Grantdan boshqa hech kim o'ylab ko'rganicha yo'q edi. Hamma bo'lib o'tgan hodisalarni muhokama qilish bilan band ekan, Meri Grant kelajak to'g'risida o'ylardi.

Qizning umidsizlikka tushgani, rangi oppoq oqarib ketganini eng oldin Jon Mangls sezib qoldi. U qizning ko'nglida nimalar yuz berayotganini darhol fahmladi.

– Miss Meri! Miss Meri! Yig'layapsizmi?! – deb yubordi u.

– Nega yig'layapsan, jonim? – dedi Elen Meriga mehribonlik bilan.

– Oh, otajonim, otam!.. – deb shivirladi bechora qiz.

Gapini davom ettirishga uning holi qolmadi. Hammaning miyasiga lop etib bir fikr keldi – Merining gapiga hamma tushundi, uning nima uchun

yig'layotganini, nima uchun otasini eslayotganini hamma darhol anglab oldi.

Ayrtonning xiyonati fosh qilingandan keyin Garri Grantni topishga bo'lgan har qanday umid ham puchga chiqdi. Muttaham katorjnik Glenarvanni qit'aning ichkarisiga olib kirib, qo'lga tushirish uchun kema Avstraliya sohilida halok bo'lgan degan uydirmani o'ylab chiqargan edi. Muttahamlarning Mak-Nabbs eshitib kelgan suhbatida ham bu aniq-ravshan ko'rinib turardi. «Britaniya» hech vaqt Tufold ko'rfazining suvosti toshlariga urilib halok bo'lmagan ekan! Garri Grant hech vaqt Avstraliya qit'asiga kelmagan ekan! Hujjatlarning noto'g'ri tahlil qilinishi «Britaniya»ni axtarib yurgan kishilarni yana, ikkinchi marta noto'g'ri yo'lga solib yuborgan ekan.

Yosh Grantlarning g'ami bilan yuraklari ezilgan sayohatchilar sukut qilar edilar. Robert opasining pinjiga kirib yig'lardi. Muhtaram olim esa jahl bilan:

– Eh! Badbaxt hujjat! Bir to'da sofdil odamlarning miyasini rosa ham qotirding-da! – deb to'ng'illar va o'zidan o'zi achchiqlanib, nuqul miyasiga mushtlar edi.

Bu orada Glenarvan qorovullikda turgan Myulredi bilan Vilsonning oldiga chiqdi. O'rmon yoqasidan boshlanib, daryo yoqasigacha cho'zilib ketgan ochiq maydonda jimjitlik hukm surar, osmon betini qoplagan qalin bulutlar qilt etmay turardi. Og'ir sukunatga cho'mgan bu yerda tiq etgan tovush ham uzoq-uzoqlardan eshitilgan bo'lardi, lekin atrof jimjit. Aftidan, Ben Joys bilan uning shaykasi ancha nariga ketib qolgan edilar, aks holda daraxtlarning pastki shoxlarida o'ynashib yurgan qushlar bunday chug'ullashmas, bir necha kenguru bolasi bunday xotirjamlik bilan o'tlab yurmas, anavi bir juft *eurus* bunday dadillik bilan inidan kallasini chiqarib atrofga mo'ralamas edi – bularning hammasi chuqur sukunatga cho'mgan bu atrofda odam yo'qligini ko'rsatar edi.

– Shu bir soat ichida hech narsa ko'rmadingiz ham, eshitmadingiz hammi? – deb so'radi Glenarvan, matroslardan.

– Hech narsa, ser, – deb javob berdi Vilson. – U yaramaslar hozir bu yerdan bir necha mil uzoqda bo'lsalar kerak.

– Aftidan, ular ozga oʻxshaydi, bizga hujum qilishga jurʼat qilishmadi, – dedi Myulredi. – Ben Joys Alp togʻlari etagida izgʻib yurgan oʻziga oʻxshash qochqin mahbuslardan odam toʻplash uchun ketganga oʻxshaydi.

– Shunday boʻlsa kerak, Myulredi, – dedi Glenarvan. – Bu ablahlar – juda qoʻrqqoq boʻladi. Ular bizning qurollanganligimizni, qurollanganda ham juda yaxshi qurollanganligimizni biladi. Ehtimol, ular bizga hujum qilish uchun qorongʻu tushuvini kutishayotgandir. Qorongʻu tushuvi bilan biz hushyorligimizni yana ham orttirishimiz kerak. Eh, qani endi bu botqoqlikdan ketib, yoʻlimizni davom ettirishning iloji boʻlsa! Ammo daryo toshib, yoʻlimizni toʻsib qoʻydi. Bizni daryodan oʻtqazib qoʻygan kishiga tilla bilan haq toʻlardim-da.

– Nima uchun bizga sol yasashni buyurib qoʻya qolmaysiz, ser? – deb soʻradi Vilson. – Bu yerda daraxt toʻlib yotibdi-ku.

– Yoʻq, Vilson, – deb javob berdi Glenarvan, – bu Snou daryo emas, bir balo.

Shu payt Glenarvanning oldiga Jon Mangls, mayor va Paganel keldilar. Ular hozirgina Snou daryosini koʻzdan kechirib kelgan edilar. Soʻnggi yomgʻirdan keyin uning suvi yana bir fut koʻtarilibdi. Uning suvi Amerika daryolarining dengizga kelib quyiladigan joyiday juda tez oqadi. Guvullab koʻpiklar sochib va girdoblar hosil qilib, hayqirib oqib turgan suvdan oʻtishning sira iloji yoʻq. Jon Mangls daryodan oʻtishning iloji yoʻq, dedi.

– Har holda qoʻl qovushtirib oʻtirishimiz toʻgʻri emas, – dedi u. – Menimcha, Ayrtonning xiyonati ochilguncha qilmoqchi boʻlgan ishimizni endi amalga oshirish yana ham zarurroq boʻlib qoldi.

– Bu bilan nima demoqchisiz, Jon? – deb soʻradi Glenarvan.

– Bizga yordam juda zarur, Tufold koʻrfaziga borib boʻlmas ekan, demak, Melburnga odam yuborish kerak, demoqchiman.

– Bu juda xavfli ish-ku, Jon, – dedi Glenarvan. – Nomaʼlum oʻlkada qilinadigan ikki yuz milli bunday katta safarning barcha xavf-xatarlarini aytmaganda ham, barcha yoʻllar bilan soʻqmoqlarni Ben Joysning sheriklari kesib qoʻyganini eʼtiborga olish kerak-ku.

– Men buni bilaman, ser, lekin ahvolning bunday davom etishi mumkin emas-da, axir. Ayrtonning gapiga qaraganda, «Duncan»ning matroslarini bu yerga boshlab kelish uchun bir hafta kifoya qiladi; men esa ularni Snou bo'yiga olti kunda yetkazib kelishni zim-mamga olaman. Xo'sh, ser? Nima deysiz shunga?

Glenarvandan oldin Paganel gap boshlab qoldi.

– Men bir fikr aytmoqchiman, – dedi u. – Melburn-ga odam yuborish kerak, lekin men bu xavf-xatar-larga Jon Mangls duchor bo'lishiga qarshiman. U «Duncan»ning kapitani, shuning uchun hayotini xavf ostiga qo'ymasligi kerak. Uning o'rniga men boraman.

– Mardona gap aytdingiz! – deb uni maqtadi ma-yor. – Lekin nima uchun kelib-kelib, xuddi siz bori-shingiz kerak ekan?

– Biz borolmas ekanmizmi? – deb so'rashdi bara-variga Myulredi bilan Vilson.

– Men-chi, shu ikki yuz mil yerga safar qilish, yana ot bilan safar qilish meni qo'rqitadi deb o'ylaysizmi? – dedi Mak-Nabbs.

– Do'stlarim, – dedi Glenarvan, – rostki bittamiz Melburnga borishimiz zarur ekan, kelinglar, chek tashlaymiz. Paganel, ismlarimizni yozing.

– Har nima bo'lganda ham, sizning ismingizni yoz-maymiz, ser, – dedi Jon Mangls.

– Nima uchun? – deb so'radi Glenarvan.

– Axir missis Elenni qanday tashlab ketasiz? Bu-ning ustiga yarangiz hali bitgani yo'q!

– Glenarvan, sizning bu yerdan ketishingiz bo'l-maydi! – deb qichqirdi Paganel.

– Men ham qarshiman bunga, – dedi Mak-Nabbs. – Siz shu yerda bo'lishingiz kerak, Eduard, siz hech qa-yerga ketmasligingiz kerak.

– Safar xatarli bo'ladi, shuning uchun men boshqa-larni yuborib o'zim chetda qolishni istamayman, – deb javob berdi Glenarvan. – Yozing, Paganel. Mening is-mim ham o'rtoqlarimning ismi qatorida bo'lsin.

Glenarvanning hamrohlari bo'ysunishga majbur bo'ldilar. Glenarvanning ismi ham qo'shib yozildi. Chek Myulrediga chiqdi. Dovyurak matros shodlik bi-lan «ura» deb qichqirib yubordi.

– Ser, men yo'lga chiqishga tayyorman, – deb raport berdi u.

Glenarvan Myulredining qo'lini qisib, arava tomonga yurdi, mayor bilan Jon Mangls esa soqchilikda qoldilar.

Elen Melburnga chopar yuborish to'g'risidagi quvonchli qarorni darhol eshitdi, u chekning kimga chiqqanidan ham xabardor qilindi. Elenning minnatdorchilik bildirib aytgan gaplaridan sofdil matrosning ko'ngli tog'dek ko'tarilib ketdi. Myulredi dovyurak, aqlli, charchamas odam ekanini hamma bilar, chek ham juda bop odamni topib chiqqan edi.

Myulredi kechqurun soat sakkizda, qosh qorayishi bilan yo'lga chiqadigan bo'ldi. Otni safarga hoizrlashni Vilson o'z zimmasiga oldi. U otning oyog'idagi uch yaproq belgisi tushirilgan taqani olib tashlab, o'rniga kechasi o'lib qolgan otlardan birining taqasini qoqdi. Shunday qilsam, katorjniklar Myulredining iziga tusholmaydi, otlari bo'lmagandan keyin uning orqasidan quvolmaydi ham, deb o'ylardi u.

Vilson ot bilan ovora ekan, Glenarvan Tom Ostinga xat yozgani o'tirdi. U qo'li yarador bo'lgani uchun o'zi yozolmay, Paganeldan yozib berishni iltimos qildi. Allaqanday fikrlar bilan band bo'lib qolgan geografiya olimi, aftidan, atrofida nimalar bo'layotganidan tamom bexabar edi. To'g'risini aytish kerak, hamma xavotirlikka tushib qolgan hozirgi sharoitda Paganel faqat bir narsa: hujjatning noto'g'ri tahlil qilingani to'g'risida o'ylardi. U hujjatning uzuq-yuluq so'zlarini ming ohangga solib ko'rar, ulardan yangi ma'no axtarar, bu ishga tamom sho'ng'ib ketgandi.

Shunig uchun ham u Glenarvanning iltimosini eshitmadi, albatta. Glenarvan takror so'rashga majbur bo'ldi.

– Juda soz! Men tayyorman! – dedi Paganel.

Shunday deb u beixtiyor yozuv daftarchasidan bir varaq qog'oz yirtib oldi-da, qo'lga qalam ushlab, yozishga tayyorlandi.

Glenarvan aytib turdi:

– «Tom Ostinga darhol dengizga chiqishni va «Dunkan»ni...

Paganel shu oxirgi so'zni yozayotganda ko'zi birdan yerda yotgan «Avstraliya va Yangi Zelandiya gazetasi»ga tushib qoldi.

Gazeta buklangan bo'lib, nomining faqat «Zelandiya» degan yerigina ko'rinib turardi. Paganelning qo'lidagi qalam birdan to'xtab qoldi: geografiya olimi, aftidan, Glenarvanni ham, xatni ham tamom unutgan edi.

– Paganel! – deb chaqirdi uni Glenarvan.

– Ah! – deb yubordi cho'chib ketgan olim.

– Nima bo'ldi sizga? – deb so'radi mayor.

– Hech narsa, hech narsa bo'lgani yo'q, – deb ping'illadi Paganel. Keyin o'zicha. – Zeland... land... landiya! – deb shivirladi.

U irg'ib o'rnidan turdi. Borib gazetani oldi. U og'zidan otilib chiqishga tayyor turgan so'zlarini zo'rg'a to'xtatib, gazetani boshi ustida silkitdi.

Elen, Meri, Robert, Glenarvan uning bunchalik hayajonlanishiga sabab nima ekanini tushunolmay, geografiya olimiga hayron bo'lib qarab turishardi.

Paganel birdan esi og'ib qolgan kishiga o'xshar edi. Lekin uning bunday hayajonlanishi uzoqqa cho'zil-madi. Olim sekin-asta o'zini bosib oldi. Ko'zlarida porlagan shodlik o'tlari so'ndi, keyin u yana o'z joyiga o'tirib, xotirjamlik bilan:

– Men tayyorman, ser, – dedi.

Glenarvan xatning davomini ayta boshladi. Xat quyidagicha qilib yozildi: «Tom Ostinga darhol dengizga chiqishni va o'ttiz yettinchi paralleldan borib «Duncan»ni Avstraliyaning sharqiy sohiliga olib kelishni buyuraman».

– Avstraliyaning deysizmi? – takror so'radi Paganel. – Ha-ya, Avstraliyaning!..

Geografiya olimi xatni yozib bo'lib, imzolagani Glenarvanga berdi. U bir amallab qo'l qo'ydi – chunki yarasi xalaqit berardi. So'ng xatni konvertga solib yopishtirdilar, Paganel esa hayajondan hali ham titrayotgan qo'li bilan ustiga adres yozdi:

«Melburn, «Duncan» kemasining kapitan yordamchisi Tom Ostinga».

Shundan so'ng u qo'llarini qimirlatib va g'alati so'zlarni takrorlab, aravadan tushib ketdi:

– Landiya! Landiya! Zelandiya!

Yigirma birinchi bob

ZORIQTIRARLI TO'RT KUN

Kunning qolgan qismi tinch o'tdi. Myulredining jo'nab ketishi uchun hamma narsa taxt qilib qo'yildi. Sofdil matros Glenarvanga o'zining sodiqligini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lganidan xursand edi.

Paganel o'zini tutib oldi. To'g'ri, uning aftiga qarab, u doim allanarsa to'g'risidagi o'ylar bilan band ekanini sezib olish qiyin emasdi, ammo u o'z o'ylarini hech kimga bildirmadi. Albatta, bunga olimning jiddiy sabablari bor edi, chunki mayor uning nuqul o'zi bilan o'zi so'zlashib:

– Yo'q, yo'q! Ular menga ishonmaydilar! Ishonishlarining ham nima keragi bor? Baribir vaqt o'tgan endi! – deb takrorlaganini eshitgan edi.

Shunday qarorga kelgandan so'ng Paganel Myulredini yoniga chaqirib oldi-da, unga Melburnga qanday yetib olishni xaritadan ko'rsatib bera boshladi. Dashtdagi barcha so'qmoqlar Lyuknou yo'lga chiqardi. Lyuknou yo'li esa to okean sohiligacha to'g'ri janubga tushib borardi-da, o'sha yerda keskin burilib Melburn tomonga ketardi. Geografiya olimi Myulrediga doim mana shu yo'ldan yurishni, Melburnga to'g'ri kesib o'taman deb noma'lum o'lkada adashib qolishdan ehtiyot bo'lishni tayinladi. Bundan ham oson ish yo'q edi. Myulredining adashib qolishi mumkin emasdi.

Xavf faqat shu yaqin orada, manzildan bir necha mil joyda, chunki Ben Joys o'z shaykasi bilan shu atrofda pistirma qurib o'tirgan bo'lishi kerak, Myulredina shu masofadan eson-omon o'tib olsa, katorjniklar uni endi quvib yetolmasliklariga va o'ziga yuklangan muhim vazifani albatta bajarishiga ishonishi mumkin.

Soat oltida ovqatlandilar. Yomg'ir quyib turar, palatka undan saqlay olmasdi. Shuning uchun hamma-lari aravaga kirib o'tirdilar. Arava ishonchli boshpana edi. Loyga botib qolgan arava tagi pishiq qilib ishlab chiqilgan qal'adan qolishmasdi. Bu qal'aning yetti karabin va yetti to'pponchadan iborat qurol-yarog'i bor ediki, bu qurollar bilan ancha vaqtgacha aravani himoya qilsa bo'lardi. O'q-dori bilan oziq-ovqatdan esa sira kamchilik yo'q. Buning ustiga, olti kundan keyin

«Duncan» Tufold ko'rfaziga kelib langar tashlaydi, yana bir kundan so'ng esa uning komandasi Snouning narigi sohiliga yetib keladi, deb umid qilish mumkin, hatto o'shanda ham daryodan o'tib olishning iloji bo'lmasa, juda bo'lmaganda, katorjniklar shaykasi dushmanning ko'payib ketgan kuchlari qarshisida chekinadi. Lekin buning uchun dastlab Myulredi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani muvaffaqiyat bilan bajarishi lozim.

Kechqurun soat sakkizda qorong'u tushib bo'ldi. Yo'lga chiqish vaqti keldi. Egarlangan otni olib keldilar. Taqalariga latta o'rab qo'yilgani uchun ot ovoz chiqarmay yurardi. Jonivor juda charchab qolgandek ko'rinardi, vaholanki, hammaning xalos etilishi uning baquvvatligi va bardamligiga bog'liq edi. Mayor Myulrediga katorjniklar xavfidan qutulgandan keyin otni ayabroq yo'l yurishni maslahat berdi. Yarim kun kech-roq bo'lsa ham, har holda maqsadga albatta yetib borish yaxshiroq.

Jon Mangls matrosga hozirgina o'zi yaxshilab o'qlagan to'pponchani berdi. Bu to'pponcha dovyurak odamning qo'lida dahshatli qurol bo'lishi mumkin, chunki bir necha sekund ichida ketma-ket uzilgan olti o'q bilan banditlar to'sib chiqqan yo'lni ochib o'tib ket-sa bo'ladi. Myulredi sakrab otga mindi.

– Mana bu xatni Tom Ostinga berasan, – dedi Glenarvan. – Unga ayt: bir soatni ham bekor o'tkazmay, Tufold ko'rfaziga qarab yo'lga chiqsin, agar Snoudan o'tishning iloji bo'lmay, ungacha sohilga yetib borol-masak darhol yordam yuborsin. Mard matrosim, endi yo'lga tush!

Glenarvan, Elen va Meri Grant – hammalari Myulredining qo'lini qisib xayrlashdilar. Yomg'ir yog'ib, har qadamda xavf-xatar kutib turgan qop-qorong'u tunda, notanish va bepoyon yovvoyi o'lkada safarga chiqishga har qanday odamning ham yuragi dosh beravermaydi, lekin mard matros sira cho'chimadi.

– Xayr bo'lmasa, ser, – dedi u, xotirjamlik bilan.

Keyin o'rmon yoqalab cho'zilgan so'qmoqdan ot qo'yib ketdi-da, ko'p o'tmay ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shu payt shamol yana ham kuchaydi. Evkaliptlar-ning shoxlari qarsillab bir-biriga urilar, bazan shox-larning ho'l va loy yerga gursillab sinib tushgani eshi-tilardi. Bu notinch kechada qurib qolgan bo'lishiga

qaramay, hamon tik turgan katta-katta daraxtlarning anchasi qulab tushdi. Daraxtlarning gursillab yiqilishi va Snou daryosining shovullashi orasida bo'ronning guvullashi eshitilardi. Shamol sharq tomonga haydab ketayotgan quyuq bulutlar shunday pastlab suzib o'tardiki, xuddi yerdan ko'tarilayotgan pag'a-pag'a bug'derdingiz. Atrofni bosib yotgan zim-ziyo qorong'ulik shunday ham dahshatli bo'lgan bu tunni yanada qo'rqinchliroq qilib ko'rsatardi.

Myulredi jo'nab ketgandan so'ng sayohatchilar aravaga chiqib joylashdilar. Elen, Meri Grant, Glenarvan va Paganel oldingi bo'limga o'rnashdilar. Ehtiyotdan u bo'limni har tarafdin berkitib tashlagan edilar. Orqa bo'limga Olbinet, Vilson va Robert joylashib oldilar. Mayor bilan Jon Mangls katorjniklar hujum qilishi ehtimolligidan, tashqarida qorovullikda turardilar.

Bu ikkala sadoqatli soqchi yuzlariga g'uvullab kelib urayotgan shamol va yomg'irga mardona bardosh berib, hushyor turardilar. Hozirgiday zim-ziyo kechaning hujum qilish uchun qanchalik qulay ekanini bilganlaridan, ular qorong'ulik qa'riga qattiq tikilishardi, chunki bo'ronning uvullashi, shoxlarning qasir-qusur qilib sinishi, daraxtlarning gumburlab yiqilishi, daryo suvining shovullashi ostida hech narsani eshitib bo'lmasdi.

Ammo bu shovqun-suron orasida har zamonda bir qisqagina jimlik ham cho'kardi. Shamol go'yo nafasini rostlab olmoqchi bo'lganday bir lahza tinardi. Faqat qotib turib qolgan qamishlar va qorong'uda devordek qad ko'targan yelim daraxtlari orasidan oqib yotgan Snou daryosining shovullashi tinmasdi. Shunday paytlarda sukunat ayniqsa chuqur tuyular, Jon Mangls bilan mayor yana ham diqqat bilan qorong'ulikka quloq solar edilar.

O'shanday birpas jimjitlik cho'kkan paytlardan birida to'satdan qattiq chalingan hushtak tovushi eshitildi. Jon Mangls shoshib mayorning oldiga keldi.

- Eshitingizmi? - deb so'radi u.

- Ha, - deb javob berdi Mak-Nabbs. - Lekin bu odammikin yo hayvonmi?

- Odam, - dedi Jon Mangls.

Ikkalasi ham diqqat bilan quloq sola boshladilar. Birdan yana o'sha g'alati hushtak tovushi eshitildi, ke-

yin o'q tovushiga o'xshagan ovoz keldi. Xuddi shu payt bo'ron yana battarroq uvulay boshladi.

Mak-Nabbs bilan Jon Mangls bir-birlarining ovozi- ni eshitolmay «qolganlari uchun aravaning» orqasiga o'tdilar. Ular aravaning shamoldan pana turgan to- moniga o'tishlari bilanoq uning charm to'sig'i ochilib, Glenarvan chiqib keldi.

U ham arava ichida o'tirib, o'sha hushtak va o'q to- vushini eshitgan edi.

– Qaysi tomondan eshitildi? – deb so'radi u.

– Mana bu tomondan, – deb Myulredi jo'nab ketgan so'qmoq tomonni ko'rsatdi Jon Mangls.

– Uzoqdan eshitildimi?

– Shamol olib keldi. Uch milcha naridan kelgandir deb o'ylayman, – javob berdi Jon Mangls.

– Yuringlar! – dedi Glenarvan, yelkasiga karabinini osib.

– Mumkin emas! – dedi mayor. – Bu banditlarning hiylasi, ular bizning aravadan nariroq ketishimizni is- taydilar.

– Myulredi bu ablahlarning o'qidan halok bo'lgan bo'lsa-chi? – deb qistadi Glenarvan, Mak-Nabbsning yengidan tortib.

– Buni ertaga bilamiz, – dedi Glenarvanni bundan befoyda ehtiyotsizlikdan to'xtatib qolishga qat'iy ahd qilgan mayor sovuqqonlik bilan.

– Siz manzildan ketmasligingiz kerak, ser, – dedi Jon, – men o'zim borib kelaman.

– Siz ham bormasligingiz kerak, – dedi qat'iy qilib Mak-Nabbs. – Nahotki bizni bitta-bittadan qirib tuga- tishlarini istasangiz? Bizning kuchlarimizni kamayti- rishni, o'zingizni o'sha muttahamlar qo'liga tutib be- rishni istaysizmi? Myulredi qurbon bo'lgan bo'lsa bu baxtsizlikka yana yangi baxtsizlik qo'shishning nima keragi bor? Myulredi o'ziga chek chiqqani uchun ketdi. Agar chek menga chiqsa, u emas men borgan bo'lardim, lekin hech qanday yordam ham so'ramas- dim, yordam berilishini kutmasdim ham.

Mayor, Glenarvan bilan Jon Manglsni yubormay, har jihatdan ham to'g'ri ish qildi. Shunday zim-ziyo kechada katorjniklar pistirmada o'tirgan o'rmonga matrosni qidirib borish ham aqlsizlik, ham mutlaqo befoyda ish bo'lardi. Yana biror kishini tavakkaliga

bunday xavf ostiga yuborish uchun Glenarvan otryadida odam juda kam edi.

Ammo Glenarvan mayorning bu dalillariga rozi emasdek ko'rinar, qo'llari hadeb karabinini qisardi. U tiq etgan tovushga quloq solib, zim-ziyo qorong'ulikka tikilib, toqatsizlik bilan arava oldida u yoq-bu yoqqa yura boshladi. Eng yaqin kishilaridan birining allaqayerda qattiq yarador bo'lib yotganini, uning o'z jonini qurbon qilib bo'lsa ham yordam bermoqchi bo'lgan do'stlarini yordamga chaqirayotganini o'ylab, Glenarvan ich-ichidan azob chekdi. Mak-Nabbs Glenarvanni ushlab qolishiga ko'zi yetmay qoldi, u Glenarvan qalbining chaqirig'iga bo'ysunib, Ben Joysning o'qiga o'zini tutib bermasa edi deb qo'rqardi.

– Eduard, – dedi u, – tinchlaning. Do'stingizning gapiga quloq soling. Elenni, Meri Grantni, bu yerda qoladigan odamlaringizni o'ylang. Qayoqqa ham borasiz? Myulredini qayerdan qidirasiz? Unga hujum qilgan bo'lsalar, bu yerdan ikki mildan ham narida hujum qilganlar. Lekin qaysi yo'lda? U yerga qaysi so'qmoqdan borish kerak?

Xuddi shu payt mayorning gapiga javob bo'lgandek ingragan tovush eshitildi.

– Eshityapsizmi? – dedi Glenarvan.

Tovush o'q ovozi kelgan tomondan, chorak milcha yaqin joydan eshitildi. Glenarvan mayorni itarib yuborib, allaqachon o'sha tomonga chopib ketayotgan edi, lekin shu payt aravadan uch yuz qadamcha joydan:

– Yordam bering! Yordam bering! – degan ovoz eshilib qoldi.

Tovush umidsizlik to'la, ayanchli edi. Jon Mangls bilan mayor ovoz eshitilgan tomonga yugurdilar. Bir necha minut chopib borgandan keyin ular o'rmon yoqasida bir odamning ingrab-ingrab, sudralib kelayotganini ko'rib qoldilar. Bu yarador, o'lar holga kelib qolgan Myulredi edi. O'rtoqlari uni yerdan ko'tarib olganlarida qo'llariga qon tekkanini sezidilar.

Jala kuchaygandan kuchayib bordi, qurib qolgan daraxtlarning shoxlarini qirsillatib bo'ron uvullardi. Shamolning g'azab bilan qilgan xurujlariga dosh berib Glenarvan, mayor va Jon Mangls Myulredini aravaga olib ketdilar.

Ular Myulredini olib kirganlarida, hamma o'rnidan turdi. Paganel, Robert, Vilson va Olbinet aravadan tushib ketdilar, Elen esa bechora Myulrediga o'z bo'limini bo'shatib berdi. Mayor matrosning qon va yomg'irdan shalabbo bo'lib ketgan kurtkasini yechdi-da, uning o'ng biqiniga xanjar urib yarador qilganlarini ko'rdi. Mayor uning yarasini juda epchillik bilan bog'ladi. Xanjar asosiy organlarga tekkan-tegmaganini Mak-Nabbs aniqlay olmadi. Yaradan goh ko'payib, goh kamayib, qip-qizil qon oqardi. Yaradorning devorday oqarib, tamom holdan ketganligi uning qattiq jarohatlanganini aytib turardi. Mayor avval yarani toza suv bilan yaxshilab yuvdi, keyin ustiga qattiq tampon va bir necha qavat titilgan ip qo'ydi-da, mahkam bintlab tashladi. Shu usul bilan u qon oqishini to'xtatdi. Myulredini boshi va ko'kragini balandroq qilib, sog' yonboshi bilan yotqizdilar, keyin Elen unga bir necha qultum suv ichirdi.

Chorak soatcha jim yotgandan keyin yarador qimirlab qoldi, ko'zlarini yarim ochdi-da, allanarsalar deb shivirlay boshladi. Mayor engashib, uning bir necha marta:

– Ser... xat.. Ben Joys... – deb shivirlaganini eshitdi.

Mak-Nabbs uning bu so'zlarini qattiqroq qilib takrorladi-da, o'rtoqlariga savol nazari bilan qaradi. Myulredi nima demoqchi edi? Aftidan, Ben Joys matrosga hujum qilgan edi. Lekin nima uchun? Nahotki, faqat uning «Dunkan»ga yetib olishiga xalaqit berish uchun bo'lsa? Xat... Glenarvan Myulredining cho'ntaklarini qarab chiqdi. Tom Ostinga yozilgan xat yo'q edi!

Ming xil tashvish ichida tong ottirdilar. Yarador o'lib qoladi, deb qo'rqar edilar. U isitmada kuyib-yonib yotardi. Hamshiralik vazifasini bo'yniga olgan Elen bilan Meri Grant uning yonidan jilmasdilar. Birona ham bemor hech qachon bunday izzat-hurmat ko'rmagan bo'lsa kerak, birona bemorga ham hech vaqt bunchalik mehribonlik bilan qaramagan bo'lsalar kerak.

Tong otdi. Yomg'ir tindi, lekin og'ir-og'ir bulutlar hali osmon yuzini to'sib yotardi. Yer daraxtlardan sinib tushgan shoxlar bilan to'lib ketgan edi. Yomg'irdan ke-

yin yerning loyi yana ham yopishqoq bo'lib qoldi, arava bundan ortiq botib qolishi mumkin emasdi-yu, lekin uning oldiga kelish qiyinroq bo'lib qoldi.

Jon Mangls, Paganel va Glenarvan tong otgandan keyin manzil atrofini tekshirib kelish uchun ketdilar. Ular qon izlari hali ko'rinib turgan so'qmoqdan bordilar. Ben Joys bilan uning shaykasidan hech qanday asar yo'q edi. Ular katorjniklar Myulrediga hujum qilgan joygacha bordilar. U yerda ikkita odamning o'ligi yotardi: bu Myulredining o'qi tegib, o'lgan banditlarning o'ligi edi. Ulardan biri Blek-Poyntlik temirchi ekan. Uning basharasi o'lim talvasasida g'oyat o'zgarib ketgan edi. Glenarvan shu bilan razvedkani tugatdi – manzildan uzoqlashib ketish aqldan bo'lmasdi.

U yuz bergan holning jiddiyligidan xunob bo'lib, arava oldiga qaytdi.

– Endi Melburnga yangi chopar yuborishni o'y-lamasak ham bo'ladi, – dedi u.

– Ammo shunday qilishimiz zarur, – dedi Jon Mangls, – men matrosim o'tolmagan joydan o'tishni o'z zimmamga olaman.

– Yo'q, Jon, ikki yuz milli masofaga safar qilish uchun sizning otingiz ham yo'q.

Haqiqatan ham Myulredi minib ketgan ot, sayohatchilarning birdan bir omon qolgan oti manzilga qaytib kelmadi. Yaramaslar o'ldirib yubordimi, hurkib dashtga qochib ketdimi yo katorjniklar tutib olishdimi?

– Nima bo'lganda ham, – dedi Glenarvan, – biz endi bir-birimizdan ajralishmaymiz. Bir haftami, ikki haftami, Snouning suvi kamayguncha kutamiz. Keyin ozozdan bo'lsa ham yurib, Tufold ko'rfaziga yetib olamizda o'sha yerdan xavfsizroq yo'l orqali «Dunkan»ga buyruq yuborib, uni sharqiy sohilga chaqirib olamiz.

– Birdan bir chora shu endi, – dedi Paganel, uning fikriga qo'shilib.

– Gap ana shu, do'stlarim, – deb davom etdi Glenarvan, – takror aytaman: endi biz bir-birimizdan sira ajralishmaymiz. Atrofdagi qaroqchilar izg'ib yurgan bu dasht-biyobonlardan yolg'iz o'zi safarga chiqmoqchi bo'lgan odam o'zini katta xavf ostiga qo'yadi.

Glenarvan Melburnga boshqa chopar yubormaymiz deganda ham, Snouning suvi kamayishini kutamiz deganda ham haqli edi. Axir ular Yangi Janubiy Uells viloyatining chegarasidagi Delegeyt shaharchasidan nihoyati o'ttiz besh mil masofada edilar. Albatta, sayohatchilar u yerdan Tufold ko'rfaziga yetib olish uchun zarur bo'lgan ot-ulovni topadilar, Tufold ko'rfaziga yetib olgandan keyin esa, Melburnda turgan «Dunkan»ga telegraf orqali buyruq yuboradilar. Bu choralar oqilona edi-yu, lekin ancha kechikib amalga oshirilmoqda edi. Glenarvan Myulredini Lyuknou yo'lidan Melburnga jo'natmaganda, bechora matrosning og'ir yarador qilinishini hisobga olmaganda ham, sayohatchilar bunchalik azob-uqubat chekmagan bo'lar edilar.

Manzilga qaytib kelgan Glenarvan hamrohlarining chehrasi biroz ochilganini ko'rdi. Ularning chehrasida umid belgilari paydo bo'lgandek edi.

– Ahvoli yaxshi, ancha yaxshi! – deb qichqirdi Robert, Glenarvan qarshisiga otilar ekan.

– Myulredining ahvoli yaxshimi?

– Ha, Eduard, – deb javob berdi Elen. – Xavfli payt o'tdi. Matrosimiz tuzalib ketadi!

– Mak-Nabbs qani?

– Myulredining oldida. O'zi gapim bor deb chaqirtirib oldi. Xalaqit bermanglar.

Haqiqatan ham bundan bir soat burun yarador hushiga keldi, issig'i pasaydi. O'ziga kelib, Myulredi darhol Glenarvanni, u yo'q bo'lsa mayorni chaqiringlar deb iltimos qildi. Mak-Nabbs yaradorning hali juda holsiz ekanini ko'rib, unga har qanday gap-so'zni taqib qo'ydi, lekin Myulredi so'zida qattiq turib olgani uchun mayor unga so'zlashga ruxsat berdi.

Glenarvan manzilga qaytib kelganda suhbat boshlanganiga bir necha minut bo'lib qolgan edi. Mayorning chiqishini kutishdan boshqa iloj yo'q. Ko'p o'tmay aravaning charm to'siqlari ko'tarilib, Mak-Nabbs tushib keldi. U do'stlari kutib turgan yelim daraxti ostidagi chodirga kirdi. Odatda, doim xotirjam bo'lgan mayor hozir g'amgin va tashvishli ko'rinardi. Elen bilan Meri Grantga qaraganida uning ko'zlarida chuqur g'amginlik aks etdi.

Glenarvan mayordan gap so'ray boshladi. Mak-Nabbs yaradordan mana shularni bilib chiqqan edi:

Myulredi manzildan yo'lga chiqqandan so'ng Paganel ko'rsatgan so'qmoqdan ot qo'yib ketdi. U otni qop-qorong'u zim-ziyo kechada iloji bo'lganicha tez haydab borardi. Myulredi o'z taxminida ikki milcha yo'l bosgandan keyin birdaniga bir necha kishi [besh kishi bo'lsa kerak] yo'lini to'sib chiqdi. Ot oldingi oyoqlarini ko'tarib, osmonga irg'idi. Myulredi shartta to'pponchasini chiqarib, o't ochdi. Nazarida hujum qilganlardan ikki kishi yiqilgandek bo'ldi. O'q otilganda chaqnagan o't yorug'ida u Ben Joysni tanib oldi. Myulredi boshqa hech narsani ko'rmadi. U to'pponchasidagi hamma o'qni otib ulgurolmay, kuchli bir zarb yeb otdan g'iqli. Lekin u hali hushidan ketmagan edi. Qotillar uni o'ldiga chiqardilar. Myulredi uni tintiyotganlarini sezdi. Keyin qaroqchilardan birining: «Xatini topdim!» – deganini eshitdi. «Ber bu yoqqa, – dedi unga Ben Joys. – Endi «Duncan» bizniki!»

Hikoyaning shu yerida Glenarvan beixtiyor ihrab yubordi. Mak-Nabbs so'zida davom etdi:

– «Endi otni tutinglar, – deb qichqirdi Ben Joys. – To'rt kundan keyin men «Duncan»da bo'laman, olti kundan keyin esa Tufold ko'rfaziga yetib boraman. O'sha yerda uchrashamiz. Glenarvanning otryadi bu yerda, Snou botqoqlarida hali ancha vaqt botib yotadi. Sizlar esa Kemplpir ko'prigi orqali daryodan o'tib, okean sohiliga boringlar-da, o'sha yerda meni kutinglar. Men bir iloj qilib sizlarni «Duncan»ga olib chiqaman. Kema komandasini dengizga uloqtirib tashlagandan keyin esa biz «Duncan»dek kema bilan Hind okeanining xo'jayini bo'lib olamiz». – «Ben Joysga ural» deb qichqirishdi qaroqchilar. Shu payt Myulredining otni tutib keldilar, Ben Joys unga minib, Lyuknou yo'li tomonga ot qo'yib ketdi, shaykasi esa daryo tomonga yo'l oldi. Myulrediga kelsak shunday qattiq yarador bo'lganiga qaramay, biz uni topib olgan joygacha emaklab kelishga kuch topdi. Myulredi menga ana shularni gapirib berdi, – deb hikoyasini tugatdi Mak-Nabbs. – Dovyurak matros nima uchun bizni bundan xabardor qilish zarur deb hisoblaganiga endi o'zingiz ham tushunarsiz? – deb qo'shib qo'ydi u.

Mayorning hikoyasi Glenarvan bilan hamrohlarini dahshatga soldi.

– Qaroqchilar! Qaroqchilar! – deb qichqirdi Glenarvan. – Ular mening komandamni qirib tashlaydilar, «Dunkan»ni qoʻlga kiritadilar!

– Albatta, – dedi Mak-Nabbs. – axir, Ben Joys kema komandasiga kutilmaganda hujum qiladi, keyin esa...

– Boʻlmasa, biz u ablahlardan oldinroq sohilga yetib olishimiz kerak! – dedi Paganel.

– Lekin Snoudan qanday oʻtamiz? – deb soʻradi Vilson.

– Biz ham ular oʻtgan joydan oʻtamiz, – deb javob berdi Glenarvan. – Katorjniklar Kempipir koʻprigidan oʻtishadi, biz ham xuddi oʻsha yerdan oʻtamiz.

– Myulredi nima boʻladi? – deb soʻradi Elen.

– Uni koʻtarib olib ketamiz! Galma-galdan koʻtaramiz! Men himoyasiz komandamning Ben Joys shaykasi qoʻliga tushib qolishiga yoʻl qoʻymayman!

Kempipir koʻprigidan oʻtish mumkin, lekin xavfli. Katorjniklar koʻprik atrofida pistirma qurgan boʻlishlari mumkin, bu holda ular sayohatchilarning narigi sohilga oʻtishiga yoʻl qoʻymaydilar. Ular otryadagi yetti erkakka oʻttiz kishini qarshi qoʻyishlari ham mumkin. Lekin hayotda shunday vaqtlar boʻladiki, unda dushmanning kuchlari qanchaligini hisobga olmay, nima qilib boʻlsa ham, olgʻa yurishga toʻgʻri keladi.

– Ser, – dedi Jon Mangls, Glenarvanga qarab, – Kempipir koʻprigidan oʻtishdek qaltis ishga bel bogʻlashdan oldin uni bir tekshirib koʻrsak yaxshi boʻlardi. Buni men oʻz zimmamga olaman.

– Men ham birga boraman, Jon, – dedi Paganel.

Yosh kapitan geografiya olimining taklifini bajonidil qabul qildi, ular darhol yoʻl hozirligini koʻra boshladilar. Jon Mangls bilan Paganel Snou yoqalab, Ben Joys aytgan koʻprikkacha tushib borishlari kerak edi. Bu safar vaqtida katorjniklar koʻrib qolmasligi uchun ehtiyot choralarini ham koʻrishlari zarur, albatta. Ular daryo sohilini kuzatib turgan boʻlsalar ham ajab emas.

Shunday qilib, yaxshi qurollangan va yetarli darajada oziq-ovqat gʻamlab olgan ikki mard sayohatchi yoʻlga tushdi, ular daryo yoqasida oʻsib yotgan baland qamishlar orasiga kirib, koʻp oʻtmay koʻzdan gʻoyib boʻldilar.

Kuni bilan ularni kutdilar, mana kech ham kirdi, ammo ulardan hamon darak yo'q. Manzildagilar xavotir ola boshladilar.

Nihoyat, soat o'n birlarga yaqin Vilson ularning qaytib kelishayotganini xabar qildi. Paganel bilan Jon Mangls o'n milli safardan horib-charchab qaytdilar.

– Xo'sh, ko'prik qalay ekan? Bor ekanmi, o'zi? – deb so'radi ular qarshisiga otilgan Glenarvan.

– Ha, liandan qurilgan ko'prik ekan, – dedi Jon Mangls. – Katorjniklar haqiqatan ham o'sha yerdan o'tibdilar, lekin...

– Nima lekin? – deb so'radi yangi bir falokat yuz berganini sezib Glenarvan.

– O'zlari o'tib olib, ko'prikni yondirib yuboribdilar! – deb javob berdi Paganel.

Yigirma ikkinchi bob

EDEN

Ahvol jiddiy, umidsizlikka tushib o'tirish emas, harakat qilish lozim. Hamon Kemplpir ko'prigi yondirib yuborilgan ekan, qanday qilib bo'lmasin Snou daryosidan o'tish va Tufold ko'rfaziga Ben Joys shaykasidan oldinroq yetib borish kerak. Ana shuning uchun bekorchi gaplarga berilib vaqt o'tkazmay, Glenarvan bilan Jon Mangls ertasiga, 16-yanvar kuniyoq bir amalab kechuv tashkil qilish uchun daryo bo'yiga ketdilar.

Snouning so'nggi yomg'irdan keyin ko'tarilgan shoshqin suvi, hali ham kamaymagan. Daryo guvullab, nihoyatda tez oqayotir. Undan o'taman deyish – o'zni baloga duchor qilish bo'lardi.

Glenarvan boshini quyi solib, qo'llarini ko'kragi ustiga qovushtirib, daryo bo'yida qimirlamay turardi.

– Men narigi sohilga suzib o'tishga harakat qilib ko'raymi? – deb taklif qildi Jon Mangls.

– Yo'q, Jon, – deb javob berdi Glenarvan, jasur yigitning yengidan ushlab, – kuta turamiz!

Ular manzilga qaytib keldilar. Kun ming xil azoblar ichida o'tdi. Glenarvan Snou yoqasiga o'n martacha borib keldi. U daryodan o'tishning biror dadil yo'lini topsam deb bosh qotirardi.

Iloji topilmadi.

Snou daryosidan suv o'rniga lava oqib yotganda ham, undan o'tish hozirgidek xavfli bo'lmasdi.

Majburiyat natijasida bu yerda qolib ketishgan kunlarda Elen mayorning maslahatiga amal qilib, yarador Myulredini sidqidildan va hafsala bilan parvarish qildi. Matros sekin-asta quvvatga kirayotganini sezar edi. Endi Mak-Nabbs yaradorning eng muhim a'zolari zararlanmagan ekan, deb dadil aytish imkoniyatiga ega bo'ldi. Aftidan, matrosning juda holsizlanib qolishi ko'p qon oqqanidan edi. Shuning uchun, hamon qon oqishini to'xtatishgan va yara bitib kelayotgan ekan, u tamom tuzalib ketish uchun tinch yotib, orom olishi lozim. Elen Myulredini sidqidildan va hafsala bilan parvarish bo'limda qolib, davolanishni qattiq talab qildi, bu esa yaradorni ko'p xijolat qilardi. Sofdil matrosni hammadan ko'proq uni deb butun otryad shu yerda qolib ketishi xijolat qilardi, Myulredi daryodan kechib o'tishning iloji topilsa, uni Vilson bilan birga shu yerga tashlab ketishlariga va'da oldi.

Baxtga qarshi, na o'sha kuni, na ertasiga, 17-yanvarda, daryodan o'tishning iloji bo'lmadi. Buncha vaqt tutilib qolishlari Glenarvanni umidsizlikka sola boshladi. Elen bilan mayor uni sabr qiling, deb ko'ndirishga bekor ovora bo'lishardi. Ehtimol, Ben Joys hozir «Duncan» palubasiga chiqib borayotgandir, ehtimol, «Duncan» langar ko'tarib, o'zini falokat kutib turgan sharqiy sohilga yo'l olish uchun dengizga chiqayotgandir, shunday paytda sabr qilib bo'larmidi!

Turgan gapki, Glenarvan boshdan kechirayotgan barcha azoblar Jon Manglsning ham boshidan o'tmoqda edi. Shuning uchun, ularning yo'lida g'ov bo'lgan bu to'siqni qanday bo'lsa ham yengish uchun u yelim daraxtlarining katta-katta po'stloqlaridan qayiqqa o'xshash bir narsa yasadi. Yengil po'stloqlardan yog'och mix yordami bilan yasalgan bu qayiq juda nimjon bo'lib chiqdi.

18-yanvar kuni kunduzi kapitan o'z matrosi bilan o'sha oqimda qayiqni sinovdan o'tkaza boshladi. Juda ehtiyotkorlik, epcillik, mardlik bilan ish ko'rdilar, lekin qayiq oqimga uchrashi bilanoq to'ntarilib ketdi, jasur yigitlarimizning cho'kib ketishiga sal qoldi. Qayiq

esa girdobda birpas aylanib yurdi-da, g'oyib bo'ldi. Yog'gan yomg'irlar va qorning erishi natijasida suvi juda ko'payib, bir milcha joyga toshib ketgan tezoqar daryoda ular qayiq bilan o'n sajen joyga ham suzib bo'rolmadilar.

19- va 20-yanvarda ham taskin beruvchi biror o'zgarish bo'lgani yo'q. Mayor bilan Glenarvan daryoning yuqori oqimi tomon yurib, besh milcha joyga borib keldilar, lekin kechuv topilmadi. Daryo hamma yoqda ham bir xil, nihoyatda katta tezlik bilan shovullab oqib yotardi: unga Avstraliya Alplarining janubiy yonbag'ridan oqib tushadigan barcha ariq va soylar kelib quyilardi-da!

«Duncan»ni qutqarish fikridan voz kechishga to'g'ri kelardi. Ben Joysning jo'nab ketganiga besh kun bo'ldi. Kema allaqachon sharqiy sohilga yetib kelib, katorjniklar qo'liga tushgan bo'lsa ham ehtimol.

Lekin bunday ahvol uzoq davom qilmasdi. Suv toshqini qancha kuchli bo'lsa, shuncha tez tugaydi. 21-yanvarda ertalab Paganel Snouning suvi kamaya boshlaganini sezib qoldi. Geografiya olimi buni Glenarvanga xabar qildi.

- E, endi baribir emasmi! - deb javob berdi Glenarvan. - Vaqt o'tdi endi!

- Lekin bu yerda doim qolib ketmasligimiz kerakku, axir, - dedi Mak-Nabbs.

- Albatta, - dedi Jon Mangls. - Ehtimol, ertaga daryodan o'tish imkoniyati tug'ilar.

- Lekin endi mening komandamni qutqazib bo'larmidil - dedi Glenarvan.

- Gapimga quloq soling, ser, o'tinib so'rayman, - dedi yosh kapitan. - Men Tom Ostinni yaxshi bilaman. U, albatta, buyrug'ingizni bajarib, iloj bo'ldi deguncha dengizga chiqadi. Lekin Ben Joys Melburnga yetib bordanda kemanding ta'miri bitganmidi, yo'qmi, bunisi bizga ma'lum emas-ku?.. Bordi-yu, kemanding ta'miri hali bitmagan bo'lsa-chi? Ostin ta'mir bilan ovora bo'lib, yana ikki-uch kun kechikib kelsa-chi?

- Gapingiz to'g'ri, Jon, - dedi Glenarvan, - biz Tufol ko'rfaziga yetib borishimiz kerak. Delegeytdan nihoyati o'ttiz besh mil joydamiz-a!

– U yerdan esa, – dedi Paganel – biz ot-ulov topamiz, u bizni manzilga tez yetkazib boradi. Kim biladi deysiz, ehtimol, biz baloning oldini olish uchun qirg'oqqa vaqtida yetib borarmiz!

– Bo'lmasa, yo'lga chiqaylik! – deb qichqirdi Glenarvan.

Jon Mangls bilan Vilson vaqtni bekor o'tkazmay, katta sol yasay boshladilar. Endi ular daraxt po'stloqlari shiddatli oqimga dosh berolmasligini amalda ko'rgan edilar. Shuning uchun Jon Mangls bir necha yelim daraxtini yiqitdi, ulardan qo'pol, lekin ancha pishiq sol yasadilar. Sol yasash oson ish emasdi, u faqat ertasiga tayyor bo'ldi.

Bu vaqtgacha Snouning suvi yana ham kamaydi. Telba oqim yana ilgarigi daryo holiga tushdi. To'g'ri, suv hali ham juda tez oqardi, lekin u daryo holiga keldi. Jon solni epchillik bilan boshqarib, suvni tikkasiga kesib o'tilsa, eson-omon narigi sohilga chiqib olish mumkin deb ishonardi.

Soat o'n ikki yarimda solga har bir odam ikki kun ko'tarib yura oladigan miqdorda oziq-ovqat ortdilar. Qolgan oziq-ovqat arava va palata bilan tashlab ketildi. Myulredi endi o'zini ancha durust his qilardi, shuning uchun uni ham birga olib ketadigan bo'ldilar. U tez tuzalib kelmoqda edi.

Kunduzi soat birda hammalari sohilga bog'lab qo'yilgan sol ustiga chiqdilar. Jon Mangls solning o'ng tomoniga oqim bilan kurashish va solni kerakli tomonga yo'naltirishda kerakli, eshkakka o'xshagan bir tayoq o'rnatdi. Kapitan eshkakni boshqarishni Vilsonga topshirdi. O'zi esa solning quyruq tomonida turib, qo'pol ishlangan quyruq eshkagi yordamida solni boshqarmoqchi edi. Elen, Meri Grant va Myulredi solning o'rtasiga o'rnashib oldilar.

Glenarvan, mayor Paganel va Robert zarur bo'lgan taqdirda darhol yordamga kelish maqsadida ular atrofidan joy oldilar.

– Hamma narsa tayyormi, Vilson? – deb so'radi kapitan.

– Tayyor, kapitan, – deb javob berdi Vilson, baquvat qo'llari bilan eshkakni ushlar ekan.

– Hushyor bo'! Oqim surib ketmasin!

Jon Mangls arqonni uzdi-da, solni sohildan itarib Snou oqimi orasiga surdi. O'n besh sajen chamasi tinch suzib bordilar. Vilson oqim bilan muvaffaqiyatli kurashardi. Lekin ko'p o'tmay sol girdoblar orasiga tushib qolib, shunday tez aylana boshladiki, Jon Mangls bilan Vilson har qancha urinsalar ham, hech narsa qilolmadilar.

Zaruratga bo'ysunishga to'g'ri keldi. Solning to'xtovsiz aylanishini to'xtatishning sira iloji yo'q edi. Girdob solni chirpirak qilib aylanitirib, oqizib borardi. Oppoq oqarib ketgan Jon Mangls labini qimtiganicha, girdobdan ko'z uzmay turardi. Sekin-asta sol daryoning o'rtasiga chiqdi. Hozir u o'zi daryoga chiqqan sohildan yarim mil pastda oqib borardi. Daryoning o'rtasida oqim yana ham tez ekan, lekin u girdoblarni to'xtatib qo'ygani uchun sol biroz o'zini o'nglab oldi.

Jon Mangls bilan Vilson yana eshkaklarni ishga soldilar, shunday qilib ular daryoni qiyasiga kesib, solni narigi sohilga tomon yo'naltirish imkoniga ega bo'ldilar.

Sohilga yetib olishlariga ellik sajencha qolganda birdan Vilsonning eshkagi sindi. Solni oqim surib ketdi. Jon o'zining ham eshkagini sindirib qo'yishdan qo'rqmay, zo'r berib esha boshladi. Vilson qonga belangan qo'llari bilan yordamga otildi. Nihoyat, ularning zo'r berib qilgan harakati o'z natijasini ko'rsatdi: yarim soatdan ko'proq suzib yurgandan so'ng, sol tik qirg'oqqa borib urildi. Sol qirg'oqqa nihoyatda qattiq urildi: xodalarni bir-biriga bog'lab qo'yilgan arqon shartta uzildi, xodalar bir-biridan ajrab ketdi va sol ustiga shovullab suv otilib chiqdi. Sayohatchilar darhol qirg'oq tepasidan engashib turgan daraxt shoxlariga yopishdilar va kiyim-boshi ho'l bo'lib ketgan ayollar bilan Myulredini sohilga chiqarib oldilar. Hamma omon qoldi, lekin mayorning karabinidan boshqa barcha qurollar bilan oziq-ovqatning ko'p qismi solning ajrab ketgan xodalari bilan birga oqib ketdi.

Daryodan o'tib olgan sayohatchilar Delegeytdan o'ttiz besh milcha joyda, bo'm-bo'sh, kimsasiz bir o'lkada deyarlik oziq-ovqatsiz va quolsiz qoldilar. Bu yerda na skvatterlarni, na kolonistlarni uchratib bo'lmas, faqat shafqatsiz qaroqchilar izg'ib yurardi.

Darhol yo'lga tushishga qaror qildilar. Bu ahvolda boshqalarga dardisar bo'lishini tushungan Myulredi to Delegeytdan yordam yuborilguncha o'zini shu yerda yolg'iz qoldirib ketishni so'radi.

Glenarvan bunday iltimosni bajarishdan bosh tortdi. Ular Delegeytgga uch kunsiz yetib borolmas edilar, sohilga esa besh kunsiz, ya'ni 26-yanvardan avval yetib bo'lmadi. «Dunkan» Melburndan 16-yanvarda yo'lga chiqishi kerak edi. Shunday bo'lgandan keyin bir necha soat oldin borishdi nima-yu, keyin borishdi nima!

– Yo'q, do'stim! – deb so'zini tugatdi Glenarvan, – men seni tashlab ketmayman. Biz zambil yasab, seni navbatma-navbat ko'tarib ketamiz.

Zambilni evkalipt daraxtlarining pishiqliq novdalaridan to'qidilar, Myulredi istasa-istamasa unga tushib yotishga majbur bo'ldi. Glenarvan matrosini eng oldin o'zi ko'tarishni istab qoldi. Zambilni bir tomonidan Eduard, ikkinchi tomonidan Vilson ko'tarib oldilar-da, yo'lga tushdilar.

Qanday ayanchli ahvol! Shunday yaxshi boshlangan safar ana shunday yomon tugamoqda! Endi sayohatchilar bu yerdan Garri Grantni qidirmas edilar. Garri Grant hech vaqt kelmagan va mutlaqo ko'rmagan bu qit'a uni axtarib yurganlar boshiga qancha-qancha kulfatlar soldi. Uning mard vatandoshlari okean sohiliga eson-omon yetib olsalar ham, o'z vatanlariga qaytish uchun u yerdan «Dunkan»ni topmaydilar.

Safarning birinchi kuni sukut va g'amginlik ichida, og'ir o'tdi. Zambilkashlar har o'n minutda almashinib turdi, charchagan odamlarni jazirama issiq battar qiy-nar, ammo hech kim nolimasdi.

Besh mil yo'l yurgandan keyin kechqurun yelim daraxtlari chakalagi ichida tunash uchun to'xtadilar. Sol halokatga uchraganda qutqarib qolingani ovqatlar bilan qorin to'yg'azdilar. Bundan keyin umid faqat mayorning karabinidan edi.

Tun yomon o'tdi, buning ustiga yomg'ir yog'a boshladi. Sayohatchilar zo'rg'a tong ottirib, yana yo'lga tushdilar. Mayor hech narsa otib ololmadi: bu mash'um o'lka har qanday cho'ldan battar edi – aftidan, bu yerlarga hatto hayvonlar ham kelmasdi.

Sayohatchilarning baxtidan bo'lib, Robert to'xtatuvaloq iniga duch kelib qoldi, unda o'n ikkita kattakatta tuxum bor ekan. Olbinet tuxumlarni ataydan gulxan yoqib, kulga ko'mib pishirdi, 22-yanvardagi nonushta qo'rda pishirilgan ana shu tuxum va jardan topib chiqishgan portulak nomli o'simliklardan iborat bo'ldi, xolos.

Yo'l yurish juda qiyin edi. Qumloq cho'l Melburnda «jayratikan» deb atalgan tikanli *spinifeks* o'ti bilan qoplangan edi. Bu o't kiyim-boshlarni yirtar, oyoqni tirnab, qonga botirardi. Shunga qaramasdan mard ayollar hech narsadan nolimay, erkaklarga o'rnak bo'lib, goh unisiga, goh bunisiga bir og'iz shirin so'z, yo bir qarash bilan dalda berib, olg'a bordilar.

Kechqurun Bulla-Bulla tog'ining etagida, Yungalla degan kichik tog' daryosi bo'yida to'xtadilar. Agar Mak-Nabbs, *mus conditor* degan katta bir kalamushni otib olmaganda, kechqurungi ovqat nonushtadan ham battar bo'lardi; bu kalamush go'shtinig juda to'q tutadigan xususiyati bor. Olbinet uni qovurdi. Go'shti ming yaxshi bo'lgani bilan u har holda qo'ydek emasdi. Boriga baraka deb qo'ya qolishdan boshqa iloj yo'q.

23-yanvarda holdan toygan, lekin ilgarigiday g'ayrati qaynab toshgan sayohatchilar yana olg'a yurdilar. Ular tog' etagini aylanib o'tib, kit mo'yloviga o'xshash o'tlar o'sib yotgan keng yaylovdan chiqib qoldilar. Bu yaylov o'tlari allaqanday bir-biriga chirmashib ketgan, o'tkir nayzalar o'sib yotgan jonli devorga o'xshardi; bu-lar orasidan goh bolta, goh o't bilan yo'l ochib borishga to'g'ri keldi.

O'sha kuni ertalab nonushta to'g'risida so'z ham bo'lmadi. Kvars parchalari sochilib yotgan bu cho'ldan battar taqir yerni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Sayohatchilarimizni ochlikdan tashqari tashnalik ham qattiq qiynar, jazirama issiq zo'raygan sari bu azoblar besh battar ortardi. Ikki soat ichida zo'rg'a yarim mil yo'l bosdilar. Ochlik va tashnalik kechgacha davom etsa, sayohatchilarimiz holsizlanib yiqilgan va qaytib o'rnidan turolmagan bo'lardi.

Lekin quvonchli tasodif yordamga keldi: kichkina otryad marjonsimon *sefalot* o'simliklari o'sib yotgan yerdan chiqib qoldi; bu o'simliklarning guli ko'vacha-

larga o'xshab ketadi, ichida esa mazali suyuqlik to'la bo'ladi. Hamma ana shu suyuqlikdan to'yib ichdi-da, o'zini biroz bardam sezdi. Ovqat o'rnida esa odatda yovvoyilar na biror qush, na biror jonivor, na biror ilon topolmagan vaqtlarda iste'mol qiladigan o'simliklardan yedilar. Bunday o'simlikni qurib qolgan bir tog' jilg'asi tagidan Paganel topdi. Olim Geografik jamiyatdagi hamkasabalaridan birining maqolalarida bu o'simlikning ajoyib xususiyatlari to'g'risida ko'p o'qigan edi.

Bu yashirin jinslilar sinfiga kiradigan *nardu* o'simligi edi. Byork bilan King Markaziy Avstraliya sahrolarida adashib yurganlarida ana shu o'simlik bilan jon saqlaganlar. Uning se barganing bargiga o'xshab ketadigan barglari ostida quruq no'xat donlari ko'rinib turardi. Bu no'xatlarni ikki tosh orasiga olib yanchdilar, unga o'xshash bir narsa hosil bo'ldi. Undan nonga o'xshagan bir narsa pishirdilar, shu non sayohatchilarning nafsini biroz aldadi. Bu yerda nardu juda ko'p edi. Olbinet undan ancha g'amlab oldi, bu esa sayohatchilarni bir necha kun ochlik balosidan saqlay olardi.

Ertasiga Myulredi biroz piyoda yura olar daraja o'zini durust his qildi. Yarasi bitib qolayozdi. Delegeyt shahriga o'n milcha yo'l qoldi. Shu kuni bir yuz qirq to'qqizinchi gradus uzunlikda, xuddi Yangi Janubiy Uels viloyatining chegarasida tunadilar.

Bir necha soatdan beri shivalab mayda yomg'ir yog'ardi. Atrofda pana bo'ladigan joy yo'q, lekin bu yerda ham kichkina otryadning omadi kelib qoldi: Jon Mangls tashlab ketilgan bir xaroba chaylani qidirib topdi, bu chaylada bir vaqtlar arrakashlar turgan ekan. Shox-shabba va poxoldan qilingan shu chayla ichida jon asrashga majbur bo'ldilar. Vilson gulxan yoqib, non yopish uchun atrofda sochilib yotgan shox-shabbalarni to'plab keldi, ammo gulxan yoqish nasib bo'lmadi. Bu Paganel bir vaqtlar Avstraliyada uchraydigan g'alati narsalarni sanab berganda, tilga olgan «yonmovchi daraxt» ekan.

Gulxan yoqmaslikka, demak, non ham yopmaslikka, buning ustiga ho'l kiyimlar bilan yotib qolishga majbur bo'ldilar. Daraxtlar tepasiga qo'nib olgan qaqildoq qushlar go'yo bechora sayohatchilarni masxara qilib kulayotgandek, tinmay qahqahlab kulardilar.

Har holda, kichkina otryadning boshiga tushgan azob-uqubatlar tugay deb qolgan edi. Tugamasa bo'lmadi ham.

Yosh ayollar zo'r chidam bilan mardona qadam tashlab borar, lekin soat sayin holdan toymoqda edilar. Ular endi oyoqlarini ko'tarib tashlamas, balki sudrab bosardilar.

Ertasiga tong otar-otmas yo'lga tushdilar. Soat o'n birda nihoyat Tufol ko'rfazidan ellik mil yerda joylashgan, Uelsley grafligining shahri Delegeyt ko'rindi.

Delegeytda ot-ulov masalasi tez hal qilindi.

Sohilga yaqinlashib qolganini sezgan Glenarvanning ruhi ko'tarildi. Ehtimol, haqiqatan ham biror sabab bilan «Duncan» Melburnda turib qolganidir, ehtimol, ular sohilga vaqtida yetib borishar! Axir ular nihoyati bir kecha-kunduzdan so'ng Tufold ko'rfaziga yetib boradilar-ku.

Yaxshilab qorin to'yg'azib olgan sayohatchilarimiz choshgohda pochta karetasiga chiqdilar, beshta baquvat ot ularni Delegeytdan olib chiqib ketdi. Yo'l yaxshi edi. Yaxshigina choy puliga va'da olgan kucher bilan foreytorlar otlarni iloji boricha tez haydab bordilar, bir-biridan o'n mi! masofada joylashgan pochta stansiyalarida esa otlarni juda chaqqonlik bilan almashtirdilar. Glenarvanning ich-etini kuydirib borayotgan sabrsizlik ularga ham yuqqandek tuyulardi.

Kun-u tun tinmay, soatiga olti mildan yo'l bosdilar. Ertasiga ertalab tong otar paytida to'liqlarning guvullashi okeanning yaqinligidan darak berdi. Tom Ostin sayohatchilarimizni sohilning o'ttiz yettinchi parallel o'tadigan yerida kutishi kerak edi, u yerga yetish uchun esa qo'ltiqni aylanib o'tish kerak bo'lardi.

Ular dengiz bo'yiga yetib kelganlarida hammaning ko'zi «Duncan»ni axtarib okean bo'shliqlariga tikildi: birdan «Duncan» bundan bir oy burun Argentina sohillarida, Korientes buruni yonida suzib yurgandek shu orada suzib yurgan bo'lsa-ya!

Lekin hech narsa ko'rinmasdi. Ufqda birlashib ketgan suv bilan osmondan boshqa hech narsa yo'q. Be-poyon okean bo'shlig'ida bironta yelkan ko'zga chalinmaydi. Endi faqat bitta umid qoldi: ehtimol, Tom Ostin Tufold ko'rfazida langar tashlagandir, chunki dengiz

shovullab to'liqlanar, yalang'och sohil yaqinida yurish xatarli edi.

– Edenga! – deb buyurdi Glenarvan.

Pochta karetsasi o'ngga burildi, qo'ltiq sohili bo'ylab cho'zilgan yo'ldan kichkinagina Eden shaharchasiga qarab uchdi. Shaharga yana besh milcha yo'l bor edi.

Kucher portga kiriladigan yo'lni ko'rsatib turgan mayak yonida aravani to'xtatdi. Portda bir necha kema langar tashlab turar, lekin bittasining ham tepasida Malkolm bayrog'i ko'rinmasdi.

Glenarvan, Jon Mangls va Paganel pochta karetsasidan sakrab tushib, port idorasiga yugurdilar. Xizmat-chilardan surishtirdilar, kemalar daftaridan so'nggi kunlarda kelgan kemalarning ro'yxatini ko'zdan kechirdilar.

Keyingi bir hafta ichida portga bitta ham kema kel-mabdi.

– Balki «Dunkan» hali Melburndan chiqmagandir? – dedi Glenarvan, oxirgi ilinjga umid bog'lab. – Biz bu yerga undan oldin yetib kelgan bo'lsak-chi?

Jon Mangls bosh chayqadi. Kapitan o'z yordamchisini yaxshi bilardi. Tom buyruqni olib, o'n kun ichida uni bajarmay qo'ymasdi.

– Men bor gapni ochiq bilsam deyman, – dedi Glenarvan. – Bexabarlikdan achchiq haqiqatni bilgan yaxshi.

Chorak soatdan keyin Melburnga, kemalarni ta'mir qilish ishlarining boshqaruvchisiga telegramma yuborildi.

Keyin Glenarvan kucherga aravani «Viktoriya» mehmonxonasiga haydashni buyurdi.

Kunduz soat ikkida Glenarvanga quyidagi mazmunda javob telegramma topshirdilar:

Eden, Tufold ko'rfazi, mister Glenarvanga. «Dunkan» shu oyning 18-kuni dengizga chiqib, noma'lum tarafga jo'nab ketdi.

J.Endryu.

Telegramma Glenarvanning qo'lidan tushib ketdi.

Endi hech qanday shubhaga o'rin qolmagan edi! Shotland kemasi Ben Joysning qo'liga tushib, qaroqchilar kemasiga aylangan.

Juda yaxshi sharoitda boshlangan Avstraliya safari ana shunday tamom bo'ldi. Kapitan Grant bilan hamrohlarining izi tamom yo'qolgandek edi. Bu muvaffaqiyatsizlik «Dunkan»ning butun komandasi hayoti baravariga tushdi. Glenarvan mag'lubiyatga uchradi, Argentina pampaslarida qanchadan qancha tabiiy balolar chekinishga majbur qilolmagan bu mard odamdan Avstraliyada inson pastkashligi g'olib keldi.

UCHINCHI QISM



B i r i n c h i b o b

«MAKARI»

Kapitan Grantni qidirib yurgan sayohatchilar biror vaqt umidsizlikka tushishi mumkin bo'lsa, bu hol ular hamma narsadan ajragan hozirgi kunlarda yuz berishi mumkin edi. Endi dunyoning qaysi qismiga yangi ekspeditsiya uyushtirish kerak? Yangi mamlakatlarni qanday tekshirsa bo'ladi? «Duncan» qo'ldan ketdi, hatto o'z vatanlariga darhol qaytishning ham iloji yo'q. Shunday qilib, bu oliyanob shotlandiyaliklarning ekspeditsiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Muvaffaqiyatsizlik! Dovyurak kishilar qalbidan o'rin ololmaydigan qayg'uli so'z bu. Shunday bo'lsa ham Glenarvan o'z bo'yniga olgan bu mardona ishni davom ettirishdan o'z ekanini e'tirof etishga majbur edi.

Mana shu og'ir paytda Meri Grant otasining nomini tilga olmaslikdek qiyin ishga mardlik bilan chidadi. U «Duncan»ning halok bo'lgan komandasi to'g'risida o'ylar ekan, dardini ichiga yutar, shu bilan birga ilgari o'zini ovutib kelgan Elenga tasalli berardi. Shotlandiyaga qaytish to'g'risida eng oldin Meri gap ochdi. Qizning mardligini, taqdiriga qanchalik mardlik bilan bo'ysunayotganini ko'rgan Jon Mangls qizga juda qoyil bo'ldi. Bir kun u kapitan Grantni qidirish ishlarini davom ettirish to'g'risida so'z ochgan edi, Meri bir qarash bilan uni to'xtatdi, birozdan so'ng unga:

– Yo'q, mister Jon, endi o'zini qurbon qilganlar to'g'risida o'ylaylik. Mister Glenarvan Yevropaga qaytishi kerak, – dedi.

– To'g'ri aytdingiz, miss Meri, – deb javob berdi Jon Mangls, – uning Yevropaga qaytishi zarur. Lekin ingliz ma'murlarini «Duncan»ning taqdiri to'g'risida xabardor qilib qo'yish ham zarur. Siz ham umidingizni uzmang. Men boshlagan ishimizni tashlab qo'ymayman – bir o'zim davom ettiraman. Yo kapitan Grantni topaman, yo uni qidirib yurib o'zim ham halok bo'laman!

Jon Mangls bo'yniga olayotgan bu majburiyat hazil gap emasdi. Meri bunga rozi bo'lib, go'yo bu ahdni qo'l qisish bilan mustahkamlashni istagandek yosh kapitanga qo'lini berdi. Jon o'z ixtiyori bilan hayotini xavf-xatarlarga duchor qilmoqda edi, shuning uchun Merining qalbi unga nisbatan cheksiz minnatdorchilik bilan to'ldi.

O'sha kuni o'z vatanlarga qaytish to'g'risida qat'iy bir qarorga keldilar. Darhol Melburnga qarab yo'lga chiqishga qaror qildilar. Ertasiga ertalab Jon Mangls yo'lga chiqadigan kemalar bor-yo'qligini bilib kelgani ketdi. Yosh kapitan Eden bilan Viktoriya viloyatining poytaxti o'rtasida kemalar tez-tez qatnab tursa kerak deb o'ylagan edi.

Lekin ish u o'ylagandek bo'lib chiqmadi: kemalar juda kam qatnar ekan. Portda langar tashlab turgan uch-to'rtta kemanding hammasi mahalliy savdo flotining kemalari bo'lib, birontasi ham na Melburnga, na Sidneyga, na Poynt-de-Gallga bormas ekan. Angliyaga esa faqat o'sha portlardangina borish mumkin.

Endi nima qilish kerak? Biror o'tkinchi kema kelishini kutish kerakmi? Unda juda uzoq kutib qolish ham hech gap emas, chunki Tufold ko'rfaziga kemalar kamdan kam keladi. Ochiq dengizdan qanchadan qancha kemalar o'tar, ammo buxtaga kirmasdi.

Glenarvan shu to'g'rida o'rtioqlari bilan maslahatlashib olib, Sidneyga quruqlikdan ketaversakmikin deb turgan ediki, Paganel hech kimning xayoliga kelmagan bir maslahatni o'rtaga tashlab qoldi.

Geografiya olimi ham Tufold ko'rfaziga borib kelgan bo'lib, u yerda Melburn yoki Sidneyga boradigan kemalarning yo'qligidan xabardor edi. Lekin u ko'rfazda turgan kemalardan biri Yangi Zelandiya orollarining shimoliysi bo'lgan Ika-na-Maui orolining poytaxti Oklendga jo'nab ketishga tayyorlanayotganini bilib kelgan edi. Paganel o'sha kemani yollab, Oklendga yetib olishni taklif qildi, u yerdan Yevropaga doim kemalar qatnab turgani uchun vatanga qaytishlari oson bo'lardi.

Bu taklif diqqatga sazovor edi. Buning ustiga Paganel o'z odatiga qarshi o'laroq taklifini o'tkazish uchun ming xil dalillar keltirib o'tirmadi, balki maqsadini aytish bilan cheklandi-da, bu safar besh-olti kunga cho'ziladi, xolos, deb qo'shib qo'ydi. Haqiqatan ham,

Avstraliyadan Yangi Zelandiyagacha bo'lgan masofa bir ming mildan oshmaydi.

Taqdirning g'alati bir taqozosi bilan Oklend sayohatchilarimiz Araukaniya sohillaridan beri sal bo'lsa ham chetga chiqmay bosib kelayotganlari o'ttiz yettinchi parallelning xuddi o'zida edi. Geografiya olimi, o'zini xudbinlikda ayblashlaridan ham cho'chimay, so'zini o'tkazish uchun buni dalil qilib keltirsa bo'lardi, albatta [axir bu unga Yangi Zelandiya sohillarini borib ko'rish imkoniyatini berardi]. Lekin Paganel bunday qilmadi. Aftidan, hujjatlarni ikki marta qilib bergan tahlili ham noto'g'ri bo'lib chiqqandan keyin u hujjatlarni yana, uchinchi marta yangicha ma'noda tahlil qilib berishga cho'chigan bo'lsa kerak. Buning ustiga, hujjatlarning o'zida kapitan Grant oroldan emas, qit'adan boshpana topgan deb aniq aytib qo'yilgandan keyin uni Yangi Zelandiyada deb isbot qilib bo'larmidi? Yangi Zelandiya esa orol, albatta. Shu sababdanmi, yo boshqa biror sababdanmi, har holda, Paganel Oklendga jo'nash to'g'risida taklif kiritar ekan, u yerda qidirish ishlarini davom ettirish mumkin degan gapni aytmadi, balki Oklend bilan Buyuk Britaniya o'rtasida doim kemalar qatnab turishiga e'tiborni jalb qilish bilan cheklandi.

Tufold ko'rfaziga kemalar qachon keladi, deb kutib yotish o'rniga shu kemaga tushib yo'lga chiqish ma'qulroq, degan fikrda bo'lgan Jon Mangls Paganelling taklifini quvvatladi. Lekin u bunday qaror qabul qilishdan oldin geografiya olimi aytgan kemani bir ko'rib kelish kerak, degan fikrda edi. Glenarvan, mayor, Paganel, Robert va yosh kapitan qayiqqa tushib bir necha marta eshkak eshishdayoq qirg'oqdan bir necha kabeltov joyda turgan o'sha kema oldiga yetib bordilar.

Bu suv sig'imi ikki yuz ellik tonna bo'lgan «Makari» nomli kema edi. U Avstraliya va Yangi Zelandiyaning turli portlari orasida qatnab turardi. Kapitan, yoki to'g'rirog'i, kemanding xo'jayini ularni ancha dag'allik bilan qarshi oldi. Sayohatchilar uning beshala matrosi kabi juda tarbiyasiz odam ekanini darhol sezib oldilar. U semiz, qip-qizil, qo'llari dag'al, burni pachoq, ko'zlari shilpiq odam edi; bular ustiga uning vahshiyona ko'rinishini qo'shsangiz, Bill Galley juda yoqimsiz

odam ekanini ko'z oldingizga keltira olasiz. Lekin boshqa chora yo'q, safar bir necha kungagina cho'ziladigan bo'lgani uchun bunga uncha ahamiyat berilmasa ham bo'laverardi.

- Ey, nima kerak sizlarga? - deb qichqirdi Bill Galley, kemasiga chiqib kelayotgan begona kishilarga.

- Kapitan siz bo'lasizmi? - deb so'radi Jon Mangls.

- Men, - deb javob berdi Galley. - Xo'sh, yana nima deysiz?

- «Makari» Oklendga yuk olib ketyaptimi?

- Ha. Xo'sh, yana!

- U nima olib ketadi?

- Nuqul olish va sotish mumkin bo'lgan narsalarni. Xo'sh, yana!

- U qachon yo'lga chiqadi?

- Ertaga choshgohda, suv ko'tarilishi bilan. Xo'sh, yana?

- Kemaga yo'lovchi olarmidingiz?

- Odamiga qaraymiz-da, buning ustiga - ular kema-dagi umumiy qozondan ovqat yeyishga rozi bo'lishlari kerak.

- Ularning o'z oziq-ovqatlari bo'ladi.

- Xo'sh, yana!

- Yana?

- Ha. Ular necha kishi?

- To'qqiz kishi, ikkitasi ayollar.

- Kemada kayuta yo'q.

- Rubkada ham ketaveradilar.

- Xo'sh, yana!

- Rozimisiz? - deb so'radi Jon Mangls, kapitanning qo'pol muomalasi va bema'ni qiliqlariga zarracha ham ahamiyat bermay.

- O'ylab ko'rish kerak, - deb to'ng'illadi «Makari»-ning xo'jayini.

Bill Galley tagiga nag'al qoqilgan, qo'pol etiklarini gursullatib palubaning u boshidan bu boshiga ikki marta borib keldi, keyin shartta burilib kelib, Jon Manglsning qarshisida to'xtadi-da:

- Qancha to'laysiz? - deb so'radi.

- Qancha so'raysiz? - deb so'radi Jon.

- Ellik funt.

Glenarvan rozi ekanini bildirib, bosh silkitdi.

- Xo'p, - dedi Jon Mangls, - rozimiz: ellik funt to'laymiz.

- Bu faqat yo'lkira.
- Faqat yo'lkira.
- Ovqat xaqini alohida to'laysizlar.
- Alohida to'laymiz.
- Bo'пти. Xo'sh, yana! - dedi to'ng'illab Galley.
- Nima yana?
- Bay puli.
- Mana bu kira haqining yarmisi - yigirma besh funt, - dedi Jon Mangls, pulni kemanding xo'jayini ko'z oldidayoq sanab berar ekan.

Galley rahmat deyishni xayoliga ham keltirmay, pulni cho'ntagiga tiqdi.

- Ertaga shu yerda bo'linglar. Choshgohgacha. Yetib kelsanglar, kelmasanglar - langarni ko'taraverman.

- Yetib kelamiz.

Ishni tugatib, Glenarvan, mayor, Robert, Paganel va Jon Mangls kemadan jo'nab ketdilar, Bill Galley esa ularga hurmat yuzasidan juda bo'lmaganda shapkasi-ga qo'l tegizib qo'yishni ham ep ko'rmadi.

- Qo'polligini qarang-a! - dedi Jon Mangls.

- Menga esa yoqdi, - dedi Paganel. - Haqiqiy dengiz bo'risi ekan!

- Ayiq deng, ayiq, - deb qo'ydi mayor.

- Menimcha, bu ayiq bir vaqtlar qul oldi-sotdisi ham qilgan bo'lsa kerak, - dedi Jon Mangls.

- Bizga baribir emasmi? - dedi Glenarvan - Bizga kerakli joyi shuki, u «Makari»ning kapitani, «Makari» esa Yangi Zelandiyaga boradi. Tufold ko'rfazidan chiqib, Oklendga yetib borguncha biz uni har zamonda bir ko'ramiz. Oklendga yetib olgandan keyin esa sira ham ko'rmaymiz.

Elen bilan Meri Grant ertaga yo'lga chiqishlarini eshitib juda xursand bo'ldilar. Glenarvan ularni «Makari»da «Duncan»dagi qulayliklar yo'q deb ogohlantirib qo'ydi. Lekin bu arzimas ikir-chikirlar shuncha qiyinchiliklarni boshdan kechirgan dovyurak ayollarni cho'chita olmadi. Oziq-ovqat g'amlashni Olbinetga topshirildi. Bechora Olbinet kemada qolgan xotining dardida kuyardi: u ham, albatta, butun ekipaj bilan birga yovuz katorjniklar qo'lida halok bo'lgan. Shunga qaramay, mister Olbinet o'zining oshpazlik vazifasini har vaqtdagidek puxta bajarardi. U oziq-ovqat sotib olish ishini bir necha soatda tamomladi.

Bu orada mayor Glenarvanning cheki bilan Melburn ittifoqi bankidan borib pul oldi. Keyin u qurol va o'q-dori sotib olishga kirishdi. Paganel esa Yangi Zelandiyaning ajoyib bir xaritasini sotib oldi.

Myulredi yana kuchga kirdi. Yarasining og'rig'i deyarlik qoldi. Dengiz safari uning sihatini tamom tiklashi kerak edi. U Tinch okean shamollarida davolanib, tamom tuzalib ketish umidida edi. Vilsonga «Makari»da yo'lovchilar uchun joy hozirlash vazifasi topshirildi. U shchetka va supurgi bilan kemadagi rubkani yaraqlatib tozaladi. Bill Galley hayron bo'lib yelkasini qisdi, lekin Vilsonni o'z holiga qo'yib berdi. Glenarvan va uning hamrohlari kapitanni zarracha ham qiziqtirmasdi. U o'z yo'lovchilarining ismini ham bilmas, bilishga qiziqmasdi ham. Bu yo'lovchilar unga qo'shimcha ellik funt daromad keltirardi – boshqasi bilan uning ishi yo'q. Uning uchun kema trumiga liq-liq qilib ortilgan ikki yuz tonna oshlangan teri ko'proq ahamiyatga ega. Unga, odamdan teri afzalroq.

U negotsiant¹ edi. Shunga qaramay, uni marjon qoyalari ko'p bo'ladigan bu atrofdagi dengizlarni yaxshi biladigan tajribali dengizchi deb tanir edilar.

Glenarvan jo'nab ketishdan oldingi kunning oxirgi soatlarini sohilning o'ttiz yettinchi parallel o'tadigan joylarini yana bir tekshirib chiqishga bag'ishlamoqchi bo'ldi. Bunda u ikki maqsadni ko'zda tutardi. Birinchidan, u «Britaniya» halokatga uchragan bo'lishi ehtimol tutilgan sohilni yana bir marta ko'zdan kechirishni istardi. Axir Ayrton, albatta «Britaniya»ning botsmani bo'lgan, kema haqiqatan ham Avstraliyaning sharqiy sohilida, shu orada halokatga uchragan bo'lishi ehtimol. Bu mamlakatdan butunlay ketishdan oldin o'sha yerni yaxshiroq tekshirib ko'rmaslik yengiltalik bo'lardi. Ikkinchidan, u yerda «Britaniya»ning biror izini topib bo'lgmaganda ham, «Dunkan» katorjniklar qo'liga shu sohilda tushganligi shubhasiz. Ehtimol, jang bo'lgandir. Shunday ekan, sohilda bo'lib o'tgan kurash izlarini, ko'rsatilgan oxirgi, keskin qarshilik izlarini uchratish mumkin emasmidi? Agar komanda dengiz to'liqlari orasida halok bo'lgan bo'lsa, to'liqin aqalli bir necha murdani sohilga chiqarib tashlagan bo'lishi ehtimol emasmidi?

¹ Negotsiant – savdogar.

Shuning uchun Glenarvan Jon Mangls bilan birga razvedkaga jo'nadi. «Viktoriya» mehmonxonasining xo'jayini ularga ikkita ot topib berdi, so'ng ular yana Tufol ko'rfazini aylanib o'tadigan yo'ldan shimol tomonga yo'l oldilar.

Bu nihoyatda ko'ngilsiz razvedka bo'ldi. Glenarvan bilan kapitan Jon Mangls indamay borishar, ammo ikkovi ham bir-birining dilidagi gapni yaxshi tushunardi. Ikkovi ham bir narsa haqida o'ylar, demak, ikkovini bir tashvish qiynardi. Ular dengiz yemirib ketgan qoyalarga qarab borishardi. Ularning bir-biriga beradigan savoli ham, javobi ham yo'q edi.

Jon Manglsning g'ayrati va uddaburonligini nazarga olib, ular sohilning bu qismini juda sinchiklab tekshirib chiqqanlariga astoydil ishonish mumkin. Tinch okeanning suvi unchalik baland ko'tarilmasa ham, har holda kema siniqlarini chiqarib tashlashi mumkin bo'lgan har bir buxta, har bir maydoncha, har bir burchak sinchiklab ko'zdan kechirildi. Ammo bu yerlarda yangitdan tekshirish ishlarini boshlab yuborishga asos bo'ladigan hech narsa topilmadi. «Britaniya»ning shu yerda halokatga uchraganidan dalolat beradigan hech narsa ko'rinmadi.

«Dunkan»ning ham bu yerlarga kelganini eslatadigan hech qanday belgi yo'q edi. Avstraliyaning bu qismi bo'm-bo'sh edi. Lekin Jon Mangls qirg'oqdan sal narida allaqanday lagerdan qolgan ba'zi belgilarni uchratdi. Yaqinda yoqilganligi aniq ko'rinib turgan gulxan qoldiqlarini ko'rdilar. Bundan bir necha kun oldin bu yerda biror ko'chmanchi qabila to'xtab o'tganmikin? Yo'q, bu gulxanni yerliklar yoqqan emas: Glenarvan bu yerda katorjniklar bo'lganini ko'rsatadigan narsaga duch keldi.

Bu daraxt tagiga tashlab ketilgan sarg'imgir-kulrang eski yamoq-yamoq kurtka edi. Churuk-churuk bo'lib ketgan bu kiyimda Pert axloq tuzatish turmasining tamg'asi ko'rinib turardi. Katorjnikning o'zi yo'q, lekin kiyimi uning yaqin orada shu yerda bo'lganidan dalolat berardi. Biror ablahning egnida xizmat qilgan bu maxsus turma kiyimi endi bo'm-bo'sh sohilda chirimozda edi.

– Ko'rdingizmi, Jon, – dedi Glenarvan unga, – katorjniklar shu yerda bo'lishgan. Lekin «Dunkan»dagi bechora o'rtoqlarimiz qayerda ekan?



- Ha, - dedi yosh kapitan bo'g'iq tovush bilan, - ularni sohilga tushirishmaganiga va ularning halok bo'lganiga shubha yo'q!..

- Muttahamlar! Agar qo'limga tushib qolsalar, komandam uchun o'ch olaman! - dedi Glenarvan.

U bepoyon okean bo'shliqlari orasida o'z kemasi-ni ko'rishga umid qilayotgandek bir necha minut ufqqa tikilib turib qoldi. Sekin-asta uning g'azabi bosildi. So'ng u bir og'iz ham so'z aytmay, qalbidagi o'ylarini bironta harakat bilan bo'lsa ham ifoda etmay, otining boshini Eden tomonga burdi-da, choptirib ketdi.

Yana bir ish qoldi - yuz bergan voqeadan politsiya ofitserini rasmiy ravishda xabardor qilib qo'yish kerak edi. Politsiyaga o'sha kuniyoq xabar berdilar. Politsiya ma'muri Tomas Benks protokol tuzar ekan, o'zining bundan mamnunligini yashirolmadi. Benks Ben Joys

bilan uning shaykasi bu atrofdan g'oyib bo'lganini eshitib, quvonardi. Uning bu xursandligiga butun shahar aholisi sherik edi. To'g'ri, katorjniklar Avstraliyadan ketayotib, yana bir jinoyat qilgan bo'lsalar ham, har holda bu yerdan ketgan edilar. Bu muhim yangilik telegraf orqali darhol Melburn va Sidneyning hokim doiraloriga xabar qilindi.

Glenarvan bu jinoyat to'g'risida xabar bergach, «Viktoriya» mehmonxonasiga qaytib keldi.

Sayohatchilar Avstraliyadagi so'nggi tunni g'am ichida o'tkazdilar. Ular o'zlariga bunchalik baxtsizlik keltirgan bu mamlakat to'g'risida o'ylardilar. Bernulli burunida tug'ilgan va o'sha vaqtda asosli bo'lib tuyulgan, Tufold ko'rfazida esa puchga chiqqan umidlar esga tushdi. Paganel allaqanday g'alati bo'lib yurardi. Snou daryosi bo'yida bo'lib o'tgan voqeadan keyin doim unga razm solib yurgan Jon Mangls geografiya olimining dilida allaqanday bir gap borligini, lekin buni u aytgisi kelmayotganini sezib yurardi. Jon buning sirini bilish uchun olimni ko'p gapga solib ko'rdi, lekin hech narsa bilolmadi. Shunday bo'lsa ham o'sha kuni geografiya olimini o'z xonasiga kuzatib qo'yar ekan, Jon uning nima uchun bunday asabiylashib yurganini so'radi.

– Jon, – dedi geografiya olimi ochiq javob berishdan qochib, – men hech bir asabiylashayotganim yo'q, har vaqtdagidek xotirjamman.

– Janob Paganel, – dedi qat'iy qilib Jon Mangls, – siz allanarsani bizdan sir saqlayapsiz, sizni o'sha sir qiynayapti.

– Xo'p, shunday ham deylik! Lekin men nima qila olardim? – deb qichqirdi geografiya olimi umidsizlik bilan qo'l siltab.

– Qanday chorasiz sir ekan, o'zi?

– Bir jihatdan – xursandchilik, ikkinchi jihatdan qaraganda esa – umidsizlik.

– Demak, siz ayni vaqtda ham xursandsiz, ham xafasiz, shundaymi?

– Ha, Yangi Zelendiyaga ketayotganimdan ham xafaman, ham xursandman.

– Yo hujjatlardan yana biror yangilik topdingizmi? – deb so'radi Jon Mangls qiziqib. – Yana kapitan Grantning biror izini topdingizmi deyman-a?

– Yo‘q, do‘stim Jon! *Yangi Zelandiya borsa kelmas joy.* Lekin... Qisqasi, inson tabiatini o‘zingiz yaxshi bilasiz-ku: noumid – shayton. Axir mening shiorim: «Spiro – spero»¹. Bu eng yaxshi shior, agar bilsangiz.

I k k i n c h i b o b

SAYOHATCHILARIMIZ YO‘L OLGAN MAMLAKATNING O‘TMISHI

Ertasiga, 27-yanvarda «Makari» kemasining yo‘lovchilari uning tor rubkasiga joylashdilar. Bill Galley sayohatchi ayollarga o‘z kayutasini bermadi, albatta; lekin bunga achinmasa ham bo‘lardi, chunki Bill Galleydek ayiqning ini ham o‘z egasiga mos edi.

Kunduzi soat o‘n ikki yarimda suv ko‘tarila boshlashi bilanoq langarni ko‘tardilar. Uni dengiz tagidan zo‘rg‘a tortib oldilar. Janubi g‘arbdan mo‘tadil shamol esib turardi. Birin-ketin yelkanlarni ko‘tardilar. Kema komandasidagi besh matros shoshilmas edi. Vilson ularga yordam bermoqchi bo‘lgan edi, Galley birovning ishiga aralashma deb, dag‘allik bilan uni to‘xtatdi. Galley yana, men har qanday qiyin ahvoldan o‘zim chiqib o‘rganganman, hech kimning yordamiga ham, maslahatiga ham zor emasman, deb qo‘shib qo‘ydi.

Keyingi ibora Jon Manglsga qarata aytilgan edi. Matroslarning naqadar beso‘naqay ishlayotganlarini ko‘rgan yosh kapitan goh-gohda asta kulib qo‘yardi. Jon Mangls Galleyning shamasini tushundi va to komandaning noshudligi natijasida kema xavf ostida qolmaguncha, uni boshqarish ishiga aralashmaslikka ahd qildi.

Nihoyat, beshta matros xo‘jayinning so‘kishlari va baqiriq-chaqiriqlari ostida yelkanlarni ko‘tarib bo‘ldi, so‘ng «Makari» pastki yelkanlari, marsellar, bramsellar, qiya grotlar va kliverlari yordami bilan so‘l tomoniga sal qiyshayib, ochiq dengizga chiqdi. Lekin yelkanlari shuncha ko‘pligiga qaramay, kema juda sekin borardi. «Makari»ning to‘mtoq tumshug‘i, tagining nihoyatda kengligi va orqa tomonining juda og‘irligi uning dengizchilar «kalosh» deb nom berishgan kemalarning tipik namoyandasi ekanidan darak berardi.

¹ «Tirik ekanman – umidim bor» *(lotincha)*.

Bunga chidashga majbur edilar. Bularning baxtiga, «Makari» har qancha sekin yurmasin besh kundan keyin, uzog'i bilan olti kundan keyin Oklend portida langar tashlashi kerak.

Kechqurun soat yettida Avstraliya sohili va Eden portidagi mayak ko'zdan yo'qoldi. Dengiz anchagina notinch, to'lqinlar kemani kuchligina chayqar, u og'ir gavdasi bilan to'lqinlar orasiga sho'ng'ib-sho'ng'ib borardi. Yo'lovchilar qattiq-qattiq chayqalar, bu esa tor rubkada o'tirishni qiyinlashtirardi; ammo kuchli jala quyib turgani uchun palubaga chiqib bo'lmadi.

Yo'lovchilarning hammasi ham o'z fikrlari bilan band. Kam gaplashishar, Elen bilan Meri Grant har zamonda bir-ikki og'iz so'zlashib qo'yardilar. Glenarvan bir joyda o'tirolmas, tinmay u burchakdan bu burchakka yurardi. Mayor qimir etmay o'tirardi. Jon Mangls Robert bilan birga har zamonda dengizni kuzatgani palubaga chiqardi. Paganel esa bir burchakka tiqilib olib, allaqanday tushunib bo'lmaydigan so'zlarni aytib, to'ng'illab o'tirardi.

Muhtaram geografning xayoli qayoqlarda ekan? Uning xayollari taqdir o'zini olib ketayotgan Yangi Zelandiyada edi. Paganel Yangi Zelandiyaning butun tarixini birma-bir miyasidan o'tkazar, ko'zi oldida bu mamlakatning mudhish o'tmishi jonlanardi.

Lekin bu mamlakatning tarixida uni ochgan kishilar bu o'lkani qit'a deb o'ylashlariga asos beradigan biror voqea yoki sabab bo'lganmi? Hozirgi zamon geografi yoki dengizchisi bu orollarni qit'a deb ayta olarmidi? Ko'rganimizdek, Paganel kapitan Grantning hujjatini tahlil qilishga qayta-qayta urinardi. Bu unga allaqanday yopishqoq bir ideya, tashlab bo'lmaz bir yuk bo'lib qoldi. Bitta so'zning yordami bilan uning tasavvuri olimni Yangi Zelandiya orollariga olib ketdi. Lekin bir narsa, faqat bir narsa, uning boshini qotirar edi.

- Kontin... kontin... - deya takrorlar edi u tinmay. - Axir bu kontinent, ya'ni qit'a degan so'z-ku.

Shundan so'ng u janubiy dengizlar orasidagi bu ikki katta orolni tekshirgan dengizchilarni eslab ketdi.

1642-yil 13-dekabrda gollandiyalik Tasman Van-Dimen Yerini ochgandan keyin, u vaqtlarda hali noma'lum bo'lgan Yangi Zelandiya sohillariga keldi. Bu sohillar bo'ylab u bir necha kun suzib yurdi, 17-

dekabrda esa uning kemalari keng bir qoʻltiqqa kirdi, qoʻltiqning ichkarisiga ikki orolni bir-biridan ajratib turgan tor boʻgʻoz koʻrinib turardi.

Bu orollarning shimoliysi Ika-na Maui oroli boʻlib, uning ismi zelandachasiga «maori baligʻi» degan maʼnoni bildiradi. Janubiy orolning nomi Tavai-puna-mu, bu «yashil nefrit hosil qilayotgan kit» degan maʼnoni bildiradi. Avel Tasman sohilga qayiq yubordi, qayiq-lar shovqin-suron koʻtarib kelgan yovvoyilarning ikki qayigʻi kuzatuvida qaytib keldi. Bu yovvoyilar oʻrta boʻyli va kulrang-sariq badanli odamlar edi; suyaklari turtib chiqqan, ovozlari keskin, yaponlarnikiga oʻxshatib bogʻlangan, qop-qora sochlariga katta oq pat qadalgan.

Yevropaliklar bilan yerliklarning bu birinchi uchrashuvi ular orasida yaxshi va mustahkam aloqa bogʻlashga umid tugʻdirardi. Lekin ertasiga qayiq-lardan biri sohilga yaqinroq yerdan toʻxtash uchun yangi joy axtarib yurganda, yettita qayiqqa tushib kelgan juda koʻp yovvoyilar ularga hujum qildi. Qayiq qiyshayib ketib, ichiga suv toʻldi. Qayiqni boshqarib borayotgan botsmaning boʻynini nari-beri charxlangan nayza sanchib, yarador qildilar. Botsman dengizga qulab tushdi. Olti matrosdan toʻrttasi oʻldirildi. Qolgan ikki matros bilan yarador botsman suzib kemaga yetib olishga muvaffaq boʻldilar va omon qoldilar.

Bu mudhish hodisadan keyin Tasman darhol langarni koʻtara boshladi. Mushketlardan bir necha marta oʻq uzib, yerliklardan oʻch olgan boʻldi, mushket oʻqlari ularga tegmagan boʻlsa ham ajab emas. Tasman bu qoʻltiqdan joʻnab ketdi, oʻshandan beri bu qoʻltiq Qirgʻin qoʻltigʻi deb nom olgan. Tasman orolning gʻarbiy sohili boʻylab borib, 5-yanvarda uning shimoliy chekkasida langar tashladi. Lekin kuchli toʻlqin urib turishi va yovvoyilarning dushmanlik bilan qarshi olishi natijasida Tasman chuchuk suv gʻamlab ololmay, bu oʻlkadan butunlay joʻnab ketdi-da, unga Gollandiya General Shtatlari sharafiga Shtatlar Yeri deb nom berdi.

Gollandiyalik dengichi bu yerlarni bunday nom bilan atar ekan, bu yerlar Amerikaning janubiy uchidagi Olovli Yerdan sharqda joylashgan va oʻsha nom bilan atalgan orollarga chegaradosh deb faraz qilgan,

shuning uchun u Buyuk janubiy qit'ani ochdim deb o'ylagan.

«Lekin o'n yettinchi asr dengizchisi qilgan xatoni o'n to'qqizinchi asr dengizchisi bo'lgan Garri Grant mutlaqo qilmasa kerak, – deb ta'kidlardi o'ziga-o'zi Paganel. – Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas! Bunda mening aqlim yetmaydigan allaqanday bir sir bor!»

Tasmanning kashfiyotini yuz yilcha vaqt ichida hech kim esga olmadi ham. 35°37' kenglikda uning sohillariga fransuz dengizchisi Syurvil kelib qolmaguncha go'yo Yangi Zelandiya dunyoda butunlay yo'qdek edi. Dastlab yerliklardan xafa bo'lishga uning hech qanday asosi yo'q edi. Ammo keyincha kuchli shamol qo'zg'aldi, dengizda bo'ron boshlandi, ana o'sha bo'ron vaqtida kasal matroslarni olib kelayotgan qayiqni dengiz Boshpana qo'ltig'i sohiliga chiqarib tashladi. Bu yerda yerliklar boshlig'i Nagi-Nui fransuzlarni juda yaxshi kutib oldi, hatto ularni o'zining chaylasida mehmon ham qildi. Syurvilning qayiqlaridan biri o'g'irlanmaguncha hamma ish yaxshi bordi. Syurvil qayiqni qaytib berishni qattiq turib talab qilgani bekor ketdi, shundan keyin, u o'g'irlik uchun yerliklarning jazosini berib qo'ymoqchi bo'lib, qishloqlardan birini butunlay yondirib yubordi. Bu mudhish va asossiz o'ch keyinchalik Yangi Zelandiyada qonli intiqomlar yuz berishida katta rol o'ynadi.

1769-yil 6-oktabrda bu yerlarga kapitan Kuk keldi. U «Endevor» degan kemasini Taue-Roa qo'ltig'ida to'xtatib, yerliklarning ishonchini qozonishga harakat qilib ko'rdi. Lekin odamlarning ishonchini qozonish uchun avval ularni o'ziga qiziqtirib olish kerak. Shuning uchun Kuk, sira ikkilanmay, yerliklardan ikki-uch kishini asir oldi, ularga majburiy ravishda yaxshilik qildi. Asirlarga har xil sovg'a-salomlar berib, sohilga tushirib yubordi.

20-oktabrda «Endevor» Toko-Malu qo'ltig'ida langar tashladi. Bu sohilda ikki yuz kishilik tinch bir qabila yashardi. Kemadagi botaniklar shu atrofda foydali tekshirish ishlari olib bordilar, yerliklarning o'zi o'z qayiqlarida ularni sohilga tushirib qo'ydi. Kuk bu yerda atrofiga baland-baland qoziq qoqib, tuproq-tepalar yasab va ikki qator chuqurlar bilan o'ralgan ikkita qishloqni borib ko'rdi. Bu esa mahalliy aholining mudofaa

lagerlari qurishdan xabardor ekanini ko'rsatardi. Ularning asosiy mustahkamlangan joyi bir qoya tepasida bo'lib, bu qoya dengiz suvi ko'tarilgan vaqtlarda chinakam orolga aylanib qolardi: bu mustahkam oroldan ham yaxshi edi, chunki to'liqlar uni atrofdan o'rabgina qolmay, bu olib bo'lmas qo'rg'on joylashgan, balandligi oltmish fut chiqadigan tabiiy arkning oralriga ham urib turar edi.

Kuk Yangi Zelandiyada besh oy turdi. U ikki orolni bir-biridan ajratib turgan bo'g'ozga o'zining ismini berib, 31-martda Yangi Zelandiyadan jo'nab ketdi. U o'zining keyingi sayohatlarida bu yerga yana qaytib kelmoqchi edi.

Haqiqatan ham 1773-yilda dengizchi yana Gouks qo'ltig'iga keldi. Bu safar yovvoyilar uni dushmanlik bilan qarshi oldilar.

O'zining uchinchi sayohati vaqtida Kuk bu yerlarga yana keldi, bu yerlarni u allanechuk yoqtirib qolgan edi. Dengizchi bu yerda o'zining gidrografik ishlarini, albatta, tugatishni istardi. Yangi Zelandiya sohillarini u 1777-yilning 25-fevralida butunlay tashlab ketdi.

1791-yilda Vankuver Orollar qo'ltig'ida yigirma kun langar tashlab turdi. Shu yigirma kun ichida u na tabiat fanlari, na geografiya fani sohasida hech qanday tekshirish ishlari olib bormadi. 1793-yilda d'Antrkasto Ika-na-Maui orolining shimoliy sohilida yigirma besh mil joyning rasmini oldi. Savdo flotining kapitanlari Gauzen va Dalrimp, ulardan keyinroq Baden, Richardson, Moodilar bu orollar bo'yida oz-ozdan to'xtab o'tdilar. Yangi Zelandiyada besh hafta turgan doktor Sevej mahalliy aholining urf-odatlarini to'g'risida ko'pgina qiziq ma'lumotlar to'pladi.

1805-yilda qabila boshlig'i Rangi-Xuning zehni o'tkir jiyani Dua-Tara «Argo» kemasida jo'nab ketdi. Kapitan Badan qo'mondonligidagi bu kema o'sha vaqtda Orollar qo'ltig'ida langar tashlab turardi.

Dua-Taraning sarguzashtlari kelgusida biror yangi zelandiyalik Gomerning poemasiga sujet bo'lsa ham ajab emas. Bu sarguzasht azob-uqubat, adolatsizlik va yomon muomalalar bilan to'la bo'ldi. Va'daga vafo qilmaslik, qamoq, kaltaklar, yaradorlik – bechora yovvoyi o'zining sadoqatiga javoban ana shunday azoblarga uchradi. Bulardan keyin o'zini «madaniyatli» deb tanit-

gan odamlar haqida uning tasavvuri qanday bo'lishi kerak edi!

Dua-Tarani Londonga olib kelib, eng past razryaddagi matros qilib qo'yishdi. Uni butun komanda xo'rlar, kaltaklar edi. Marsden himoya qilmasa, bechora yigit bu azob-uqubatlarga chiday olmagan bo'lardi. Marsden bu yovvoyi yigitning zehni o'tkirligini, mardligini, yovvoshligini va xushmuomala ekanini ko'rib, unga qiziqib qoldi. Marsden o'zi yaxshi ko'rib qolgan bu yigitga vatanida ekish uchun bir necha qop bug'doy, dehqonchilik asbob-uskunalari olib berdi, lekin bularning hammasini bechora yigitdan o'g'irlab qo'yishdi. Bechora Dua-Taraning boshiga yana qamoq va qiynoq balolari yog'ila boshladi, u o'z ota-bobolari o'tgan mamlakatga faqat 1814-yilda qaytib kelishga muyassar bo'ldi. Ammo u endigina o'z mamlakatining qiyofasini o'zgartirishga kirishmoqchi bo'lib turganda, yigirma sakkiz yoshida vafot etadi. Shubhasizki, bu tuzatib bo'lmas baxtsizlik Yangi Zelandiyaning madaniy taraqqiyot yo'liga kirishini uzoq yillarga to'xtatib qo'ydi. Qalbi yaxshi niyatlar va vataniga muhabbat bilan tepgan oliyjanob, aqlli kishining o'rnini hech narsa bosolmasdi!

1816-yilgacha Yangi Zelandiyaga hech kim qiziqmadi. O'sha yil Tompson, 1817-yilda Nikolas, 1819-yilda Marsden bu ikkala orolning turli yerlarini tekshirdilar, 1820-yilda esa 84-piyoda askarlar polkining kapitani Richard Kryuys bu orollarda o'n oy turdi va bu vaqt ichida yerliklarning urf-odati to'g'risida ko'p qimmatli materiallar yig'di.

1824-yilda «Chig'anoq» kemasining komandiri Dyuperey Orollar qo'ltig'ida o'n besh kun langar tashlab turdi, yovvoyilar u bilan juda do'stona munosabatda bo'ldilar.

Undan keyin 1827-yilda inglizlarning «Mercuriy» degan kit ovlovchi kemasi yerliklardan o'zini himoya qilishga majbur bo'ldi. Xuddi o'sha yili ikki yerda to'xtab o'tgan kapitan Dilsoni yerliklar g'oyat mehmondo'stlik bilan qarshi oldilar.

1827-yilda «Avstrolyabiya» kemasining komandiri mashhur Dyumon Dyurvil Yangi Zelandiya sohilidagi yerliklar orasida hech qanday qurolsiz bir necha kun turdi. U yerliklarga sovg'alar berdi, o'zi ham sovg'alar

oldi, ularning ashulalarini eshitdi, chaylalarida tunab qoldi va rasm olishdek qimmatli ishlarni hech qanday qarshiliksiz bajardi, natijada flot uchun juda qimmatli xarita chizib berildi.

Bir yildan keyin Jon Jons qo'mondonligidagi «Gaus» degan ingliz kemasi Orollar qo'ltig'ida to'xtab o'tib, Sharqiy burunga yo'l oldi. Bu yerda inglizlar Enararo degan xiyonatchi qabila boshlig'idan ko'p azob-uqubat ko'rdilar. Jon Jonsning ba'zi yo'ldoshlarini bu yerda juda mudhish qiynoqlar bilan o'ldirdilar.

Bu bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan voqealardan, do'stona munosabatlarning vaqti-vaqti bilan shafqatsizlikka almashinib turishidan yangi zelandiyaliklar ko'pincha o'ch olish uchungina bunday shafqatsizlik ko'rsatardilar, degan xulosa chiqarish kerak. Yerliklarning yaxshi yoki yomon munosabatda bo'lishlari bu yerga kelgan kema kapitanlarining muomalasiga bog'liq edi. To'g'ri, hech qanday sababsiz hujum qilish hollari ham uchragan, lekin bular ko'pincha yevropaliklarning o'zi aybdor bo'lgan vaqtlarda o'ch olish uchun qilinardi. Ammo, baxtga qarshi, bunda mutlaqo aybsiz kishilar jazolanardi.

Dyurvildan keyin Yangi Zelandiyaning etnografiyasi butun Yer sharini yigirma marta aylanib chiqqan ko'chmanchi, daydi ingliz olimi Irl tomonidan boyitildi. U ikkala orolning ham tamom tekshirilmagan joylariga bordi, o'zini yerliklar xafa qilmagan bo'lsalar ham, u yerliklarning odam go'shti yeganlarini ko'p ko'rdi. Yangi zelandiyaliklar allaqanday jirkanch ehtiros bilan birlarining go'shtini yer edilar.

Xuddi shunday odamxo'rlik manzarasini 1831-yilda Orollar qo'ltig'ida turgan vaqtida kapitan Laplas ham ko'rgan. Yerliklar orasidagi o'zaro janglar u vaqtlarda juda dahshatli tus olgan edi, chunki endi yerliklar miltiq otishni nihoyatda yaxshi o'zlashtirib olgan edilar. Shuning uchun ham bir vaqtlar gullab-yashnagan, aholisi zich bo'lgan Ika-na-Maui oroli haqiqiy sahroga aylandi. Butun-butun qabilalar yo'q bo'lib ketdi.

Yangi zelandiyaliklar bostirib kelgan yevropaliklardan qochib ketadigan avstraliyaliklarga o'xshamaydi — ular qarshilik ko'rsatadi, o'zini himoya qiladi, istilochilarni ko'rgani ko'zlari yo'q. Hozirda esa bu kuchli nafrat ularni ingliz emigrantlaridan o'ch olishga chor-

laydi. Paganel Yangi Zelandiyaga tezroq yetib olish is-
tagi bilan yonar ekan, uning tarixini mana shu tarzda
bir-bir xotiridan o'tkazdi. Lekin, afsuski, olim bu orol-
larni qit'a deb atashga hech qanday asos topmoldi.
Kapitan Grantning hujjatidagi ba'zi so'zlar geografiya
olimining miyasida uni yangicha tahlil qilishga har xil
taxminlar uyg'otganiga qaramay, «kon-ti» degan ikki
bo'g'inli bittagina so'z bunga qattiq turib monelik qilar
edi.

U c h i n c h i b o b

YANGI ZELANDIYA QIRG'INI

To'rt kun ichida «Makari» Avstraliyadan Yangi Ze-
landiyagacha bo'lgan yo'lnig uchdan ikkisini ham bo-
sib o'tolmadi. Bill Galley kemaga kam qarar, hamma
ishni yordamchilariga tashlab qo'yardi. U kamdan kam
ko'rinar, yo'lovchilar ham bundan xafa emas edilar.
Galley har kuni vaqtini o'z kayutasida o'tirib o'tkazsa
ham bunga hech kim qarshi bo'lmas edi-yu, lekin
qo'rs xo'jayin har kuni djin va brendi ichib, mast bo'lib
yurardi. Komanda ham undan o'rnak olardi, natijada
kema o'z holiga tashlab qo'yilardi, hech vaqt hech bir
kema ham Tufold qo'ltig'idan chiqqan kemachalik o'z
holiga tashlab qo'yilmagan bo'lsa kerak.

Bu kechirib bo'lmas beparvolik Jon Manglsni hush-
yor bo'lishga va kemaning boshqarilishini doim diqqat
bilan kuzatib turishga majbur etardi. kema yonbosh-
lab qolay degan paytlarida, Myulredi bilan Vilson bir
necha bor ruini to'g'rilashga otildilar. Lekin Bill Galley
har safar ham ikkala matrosni rosa bo'ralab so'kib
berdi. Bunday qo'pol muomalaga o'rganmagan matros-
lar har safar ham bu piyanistaning qo'llarini orqasiga
qayirib, manzilga yetib olguncha trumning eng tagi-
ga qamab qo'ygilari kelar edi. Lekin Jon Mangls haqli
ravishda g'azabga kelgan o'z matroslarini bir amallab
shaxtidan qaytarib turdi.

Shunday bo'lsa ham kemaning ahvoli yosh kapi-
tanni tashvishga solmay qolmasdi. Lekin u Glenarvan-
ni xavotir qilmaslik uchun buni faqat mayor bilan Pa-
ganelga aytdi. Maks-Nabbs ham unga Myulredi bilan
Vilson aytgan gapning xuddi o'zini maslahat berdi.

- Agar zarur deb topsangiz, Jon, - dedi mayor, - hech ikkilanmay kema qo'mondonligini, yoki - agar siz fikrimni bundan boshqacharoq ifoda qilishni so'rasangiz - kemani boshqarishni o'z qo'lingizga olishingiz kerak. Oklendga borib tushganimizdan keyin bu piyanista yana kemasining xo'jayini bo'lib qolaveradi, ana o'shanda kemasini istaganicha to'ntaraversin, istagan vaqtda cho'kib ketaversin.

- To'g'ri, mister Mak-Nabbs, zarurat tug'ilishi bilanoq shunday qilaman, - dedi Jon Mangls. - Lekin hozircha ochiq dengizdamiz, kuzatib turishning o'zi ham kifoya qiladi. Na men, na matroslarim palubadan ketmaymiz. Lekin Bill Galley sohilga yaqinlashganda ham es-hushini yig'ib olmasa, rostimni aytsam, men juda qiyin ahvolda qolaman.

- Siz to'g'ri yo'lni topib yurolmaysizmi? - deb so'radi Paganel.

- To'g'ri yo'lni topib yurish oson emas-da, - dedi Jon. - Aytsam ishonmassizlar, lekin bu kemada dengiz xaritasi yo'q.

- Rostdanmi?

- Ha, rost. «Makari» faqat Eden bilan Oklend o'rtasida yuk tashiydi, Bill Galley bu yerlarni shunday o'rganib olganki, hech qanday hisob-kitobga muhtoj emas.

- Aftidan, u kemanding o'zi yo'lni topib ketaveradi deb o'ylasa kerak, - dedi Paganel.

- Lekin men o'zi yo'lini topib yuradigan kemalarga ishonmayman, - dedi Jon Mangls. - Bill Galley kema sohiliga yaqinlashganda ham mast-alast bo'lsa, ahvolimiz juda chatoq bo'ladi.

- Zora bu piyanista sohilga yaqinlashganda es-hushini yig'ib olsa, - dedi Paganel.

- Demak, zarur bo'lib qolsa, siz «Makari»ni Oklend portiga olib kirolmas ekansiz-da? - deb so'radi Mak-Nabbs.

- Sohilning xaritasi bo'lmasa, olib kirib bo'lmaydi. Bu sohil atrofi juda xavfli, u Norvegiya sohillaridagi fiordlarga o'xshagan katta-kichik qing'ir-qiyshiq va g'alati fiordlardan iborat. U yerda suvosti toshlari juda ko'p, kemani ularga olib borib urmaslik uchun sohilni yaxshi bilish kerak. Kema har qancha pishiq bo'lmasin, kili biror suvosti toshiga borib urilsa, pacha-pacha bo'lib ketadi.

- Unda kemadagilar faqat sohilga chiqib jon as-rashlari mumkin, shundaymi? - deb so'radi mayor.

- Ha, mister Mak-Nabbs, agar bunga ob-havo im-kon bersa.

- Chatoq ekan, - dedi Paganel. - Axir Yangi Zelan-diyanning sohillari mehmondo'st joylar emas-ku, sohil-da xavf-xatar dengizdagidan ham ko'proq.

- Siz maorilarni nazarda tutyapsiz-a, janob Paga-nel? - deb so'radi Jon Mangls.

- Ha, do'stim. Okeanda suzib yuradigan dengiz-chilar orasida ularning juda dong'i chiqqan. Maorilar yovvosh avstraliyaliklar emas, zehni o'tkir qonxo'r xalq ular, nihoyatda odamxo'r bo'ladi.

- Demak, agar kapitan Grant Yangi Zelandi-ya sohillarida halokatga uchragan bo'lsa, uni qidirib o'tirmaslikni maslahat ko'rar ekansiz-da? - deb so'radi mayor.

- Faqat dengiz sohilidan qidirish to'g'ri bo'lardi, - deb javob berdi geografiya olimi, - chunki «Britaniya»-ning izini faqat sohildan topish mumkin, lekin orolning ichkarisiga kirib borish befoyda. Bu o'lkaga kirishga jur'at etgan har bir yevropalik maorilar qo'liga tusha-di, ularning qo'liga tushgan odam esa tirik chiqmaydi. Men do'stlarimni pampaslardan o'tishga, Avstraliyani kesib chiqishga da'vat qildim, lekin hech vaqt Yangi Zelandiya so'qmoqlariga boshlamayman. Bu shafqatsiz yerliklardan xudoning o'zi asrasin!

Paganelning xavfsiraganicha bor edi. Bu orollar yo-mon nom bilan dong chiqargan edi: u orollarni tek-shirish uchun bo'lgan deyarlik har bir urinish qonli voqealar bilan bog'langan.

Azob-uqubatlar ichida o'lgan dengizchilar orasida yangi zelandiyaliklarning qurboni bo'lganlar juda ko'p. Bu shafqatsizliklarning qonli tarixi yerliklar tomonidan Avel Tasmanning besh matrosini o'ldirib, yeb yuborilishi bilan boshlanadi. Kapitan Tukley bilan uning qayig'idagi matroslarning taqdiri ham xuddi shunday bo'lgan. Yangi zelandiyaliklar «Sidney-Kov» kemasi-ning beshta baliqchisini ham Fovo bo'g'ozining shar-qiy qismida ushlab olib yeb yuborganlar. Shu qator-da «Og'aynilar» kemasining Moline gavanida o'ldirilgan to'rt matrosini, general Geytsning bir necha soldatini, «Matilda» kemasidan dizertirlik qilgan uchta matros-

ni eslatib o'tish kerak, nihoyat, achinarli taqdiri haqidagi shum xabarlar juda keng tarqalgan kapitan Mariondyu-Frenni ham aytib o'tish kerak.

1772-yil 11-mayda, Kukning birinchi sayohatidan keyin fransuz kapitani Marion o'z qo'mondonligi ostidagi «Maskaren» va «Kastri» degan ikki kema bilan kelib, langar tashlaydi; «Kastri»ga uning yordamchisi kapitan Kroze boshchilik qilardi. Ikkiyuzlamachi yangi zelandiyaliklar yangi kelgan mehmonlarni juda xursandlik bilan qarshi oladilar. Hatto fransuzlarga o'zlarini qo'rqoq qilib ko'rsatadilar. Ularni o'rgatib olish uchun sovg'alar berishga, har xil yaxshiliklar, do'stona muomala qilishga to'g'ri keladi.

Dyumon-Dyurvilning aytishicha, ularning boshlig'i bo'lgan idrokli Takuri vangaroa qabilasidan bo'lib, bundan ikki yil burun Syurvil olib ketgan yerlik yigitning qarindoshi ekan.

Har bir haqorat uchun qonli o'ch olish odati bo'lgan maorilar mamlakatining fuqarosi bo'lgani uchun Takuri uning qabilasinigina emas, hatto urug'ini ham haqorat qilib ketgan oq tanlilarni kechirolmas edi. U yevropaliklarnig biror kemasi kelishini sabr bilan kutardi. Qanday o'ch olishni yaxshilab o'ylab qo'ygan Takuri o'z rejasini nihoyatda sovuqqonlik bilan amalga oshirdi.

Takuri oldin o'zini fransuzlardan qo'rqqan qilib ko'rsatdi-da, barcha vositalar bilan fransuzlarni tamoman bexavotir yurishga o'rgatdi. U o'rtoqlari bilan ko'pincha fransuz kemalarida tunab qoldi. Ular fransuzlarga eng yaxshi baliqlarni tanlab olib kelardilar. Ularga xotinlari bilan qizlari yordam qilardi. Ko'p o'tmay yerliklar ofitserlarning ismini ham bilib oldi, ularni o'z qishloqlariga taklif qila boshladi. Bunday mehmondo'stlikka ishongan Marion bilan Kroze aholisi to'rt ming kishiga yetadigan sohildagi barcha qishloqlarni aylanib chiqadilar. Yerliklar fransuzlarning qarshisiga hech qanday qurolsiz chopib chiqishar, ularning to'la ishonchini qozonishga harakat qilar edilar.

Kapitan Marionning Orollar qo'ltig'iga langar tashlab to'xtashidan maqsad «Kastri» kemasining so'nggi bo'ron vaqtida ishdan chiqqan machtasini yangilash edi. Shuning uchun u orolni ko'zdan kechira boshladi va 23-mayda ajoyib kedr daraxtlari o'sib yotgan o'rmonga duch keldi; bu o'rmonlar sohildan sakkiz kilometr ichkarida edi, kemalar esa qo'ltiqda sohildan

to'rt kilometr masofada turar edilar. O'sha o'rmonga lager qurdilar, keyin matroslarning uchdan ikki qismi bolta va boshqa asbob-uskuna bilan kedr daraxtlarini kesib, qo'ltiqqacha yo'l qurishga kirishdilar. Bundan boshqa yana ikkita lager qurdilar: biri ko'rfazning o'rtasidagi Motu-Aro orolchasida qurildi va unga ekspeditsiyaning bemorlari va kema temirchilari bilan bochkasozlari joylashtirildi; ikkinchi lager okean sohiliga, kemalar turgan yerdan olti kilometr beriga qurildi; bu lager duradgorlar lageri bilan aloqa qilib turar edi. Hamma lagerlarda ham dengizchilarga kuchli va har xizmatga hozir yerliklar yordamlashib turdilar.

Kapitan Tarion ana shu vaqtgacha ba'zi ehtiyot choralari ko'rishni zarur deb hisoblagan edi. Jumladan, yovvoyilarning qurolli holda kemaga kelishlari taqiqlangan edi, qayiqlar esa sohilga borganda yaxshi qurollangan komanda soqchiligida borardi. Lekin yerliklar o'zlarining yaxshi muomalalari bilan Marionnigina emas, hatto eng hushyor ofitserlarni ham alday oldilar. Shuning uchun ekspeditsiya boshlig'i matroslarga sohilga qurolsiz boraverishni buyurdi. Kapitan Kroze bu buyruqni bekor qildirishga ko'p urindi, lekin bunga erisha olmadi.

Buning ustiga yangi zelandiyaliklar yana ham sadoqat va tadbirkorlik ko'rsata boshladilar. Ularning qabila boshliqlari fransuz ofitserlari bilan juda qalin munosabatda bo'ldilar. Takuri kemalarga o'g'lini juda ko'p olib kelar va kechalari o'sha yerda qoldirib ketardi. 8-iyunda Marion qabila boshlig'inikida tantanali ravishda mehmon bo'ldi, yerliklar fransuz kapitanini butun o'lkaning «buyuk boshlig'i» deb e'lon qildilar va hurmat yuzasidan uning sochiga to'rtta oq pat qadab qo'ydilar.

Kemalar Orollar qo'ltig'iga kelganidan keyin shu tarzda o'ttiz uch kun o'tdi. Machta qurish ishlari ancha ilgari surilib qolgan edi. Bu ishga kapitan Krozening shaxsan o'zi rahbarlik qilardi. Kemalarga Motu-Aro orolidagi buloqlardan chuchuk suv g'amlab bo'ldilar. Hullas, ishlar shunday silliq borar ediki, uning muvaffaqiyatli tugashiga hech qanday monelik yo'qdek tuyulardi.

12-iyunda komandirning kateri Takuri yashaydigan qishloq yonida baliq ovlashga tayyorlandi. Marion bu baliq oviga o'zining ikki yosh ofitseri – Vodrikur va

Legu, bir ko'ngilli matros, bir kaplenarmus va o'n ikki matros bilan birga bordi. Ularni Takuri boshchiligida beshta qabila boshlig'i kuzatib bordi. O'n yettita yevropalikdan o'n oltitasining hayotini olib ketadigan dahshatli qirg'indan hech narsa darak bermas edi.

Kater kema yonidan qirg'oqqa qarab jo'nab ketdiyu, ko'p o'tmay ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Kechqurun kapitan Marion kemaga qaytib kelmadi. Bundan hech kim xavotir olmadi. Kapitan o'rmondagi lagerni ko'rgani borib, o'sha yerda tunab qolgan bo'lsa kerak deb qo'ya qoldilar.

Ertasiga ertalab «Kastri» kemasining bir qayig'i har kungidek Motu-Aro oroliga chuchuk suv olib kelgani ketdi. U eson-omon qaytib keldi.

Ertalab soat to'qqizda «Maskaren» kemasida vaxtada turgan matros dengizda kemalar turgan joyga juda holdan toygan bir odam suzib kelayotganini ko'rib qoldi. Darhol unga yordam berish uchun qayiq yubordi, qayiq uni kemaga olib keldi.

Bu kishi kapitan Marionning katerida eshkakchi bo'lib ketgan Turner ekan; uning biqinida nayza sanchib qilingan ikkita yara izi ko'rinib turardi. Bir kun avval baliq oviga ketganlardan faqat u tirik qaytib keldi.

Turnerni savollarga ko'mib tashladilar, ko'p o'tmay mudhish qirg'inning barcha tafsilotlari ma'lum bo'ldi.

Bechora Marionning kateri ertalab soat yettida sohilga yetib boradi. Yovvoyilar mehmonlarga peshvoz chiqish uchun shodlik bilan o'zlarini suvga tashlaydilar va ofitserlar bilan oyog'ini ho'l qilishni istamagan matroslarni yelkalarida ko'tarib, sohilga olib chiqadilar.

Sohilga chiqib olgandan keyin fransuzlar har tarafga tarqalib ketadilar. Xuddi ana shu paytda nayza va so'yillar bilan qurollangan yovvoyilar ularning har bit-tasi ustiga o'ntadan bo'lib tashlanadilar-da, qirib tashlaydilar. Yarador Turner dushmanlaridan qochib, chakalak ichiga yashirinishga muvaffaq bo'ladi. U o'sha yerda o'tirib, butun dahshatli manzaraning guvohi bo'ladi. Turner hech kimga ko'rinmay o'zini dengizga tashlaydi, o'lar holatga yetganda «Maskaren»dan yuborilgan qayiq uni kemaga olib keladi.

Bu qirg'in to'g'risidagi xabar ikkala kema komandasini ham dahshatga soldi. O'ch olish to'g'risidagi chaqiriqlar eshitila boshladi. Ammo o'lganlar uchun o'ch

olishdan oldin tiriklarni qutqarish lozim edi. Sohilda uchta lager bor edi axir, ularni esa odam go'shtining mazasini allaqachon tatib ko'rgan odamxo'r yovvoyilar o'rab yotardi.

Kapitan Kroze kemada emasdi; u o'rmonda, lagerda tunab qolgandi. Shuning uchun starshiy ofitser Dklemmer shoshilinch ravishda barcha zarur ehtiyot choralarini ko'rdi. U «Maskaren»dan bir ofitser boshchiligida soldatlar otryadini sohilga yubordi. Bu ofitserga birinchi navbatda duradgorlarni qutqazish vazifasi topshirildi. U jo'nab ketdi, sohil bo'ylab borib, Marionning tashlab ketilgan katerini ko'rdi va shu yerda sohilga tushdi.

Yuqorida aytilgandek, o'rmonda tunab qolgan kapitan Kroze qirg'indan tamom xabarsiz edi. Kunduz soat ikkilarda u lagerga yaqinlashib kelayotgan soldatlar otryadini ko'rib qoladi. Kroze allaqanday baxtsizlik yuz berganini sezib, darrov otryadga peshvoz chiqadi va yuz bergan hodisadan xabardor bo'ladi. Bu xabarni eshitsa, komandaning ruhi tushib ketishidan qo'rqib, u hech kimga hech narsa aytmaslikni tayinlaydi.

Bu orada yerliklar lager atrofidagi barcha tepaliklarni egallab oladilar. Kapitan Kroze eng zarur asboblarni olib, boshqalarini ko'mib tashlashni va omborlarga o't qo'yishni buyuradi. Bu buyruq bajarilgach, u chekina boshlaydi; uning qo'li ostida oltmish kishi bor edi.

Yerliklar: «Takuri mate Marion!»¹ – deya qichqirib ular ketidan kelishardi. Ular matroslarga boshliqlari o'ldirilganini bildirib, ular orasida sarosima boshlamoqchi edilar. G'azablangan matroslar yovvoyilar ustiga otildoqchi bo'lar, kapitan Kroze ularni zo'rg'a bosib turardi.

Sakkiz kilometr yo'lni bosib o'tadilar. Otryad sohilga yetib kelib, ikkinchi lagerdagi matroslarga qo'shilishadi-da, qayiq'larga tusha boshlaydi. Bu paytda mingta yovvoyi hech qanday chora ko'rmay, sohilda o'tirar edilar. Lekin qayiq'lar dengizga chiqishi bilan ular ustiga tosh yog'ila boshlaydi. Shunda to'rtta mergan matros o't ochib, birin-ketin yerliklarning hamma boshliqlarini o'ldiradilar, bu bilan miltiq nima ekanini hali bilmagan yovvoyilarni nihoyatda hayron qoldiradilar.

¹«Takuri Marianni o'ldirdi».

«Maskaren»ga yetib kelgach, kapitan Kroze darhol bir qayıqda Motu-Aro oroliga soldatlar otryadi yuboradi. Orolidagi bemorlar shu soldatlar soqchiligida yana bir kecha o'sha yerda tunaydilar, ertalab esa hamma kasallarni kemalarga qaytarib olib keladilar.

Ertasiga Motu-Arodagi soqchilar posti qo'shimcha soldatlar bilan yana ham kuchaytiriladi. Orolni undagi yerliklardan tozalab, chuchuk suv g'amlashni yana davom ettirish kerak edi. Motu-Arodagi qishloqda uch yuztacha yerlik aholi yashardi. Fransuzlar ularga hujum qilib, oltita qabila boshlig'ini o'ldiradilar, qolganlarini nayza bilan qochib ketishga majbur qiladilar, qishloqqa esa o't qo'yadilar.

Ammo «Kastri» mactasiz dengizga chiqolmasdi. Kroze kedr daraxtlaridan macta qurish fikridan voz kechishga majbur bo'ladi, shuning uchun u eski mactani tuzatishga buyruq beradi. Kemalarga chuchuk suv tashish davom etardi. Shu tarzda bir oy vaqt o'tadi. Yovvoyilar Motu-Aroni qaytarib olishga bir necha bor urinib ko'radilar, lekin uddasidan chiqolmaydilar. Yovvoyilarning qayiqlari ko'rinishi bilanoq zambarak o'qlari ularni parcha-parcha qilib yuborar edi.

Nihoyat, ishlar tugatildi. Endi o'n olti qurbondan birortasi tirik qoldimikan, – ana shuni bilish va undan keyin hammalari uchun o'ch olish qolgan edi. Ofitserlar va soldatlar otryadi tushgan qayıq Takuri yashaydigan qishloqqa jo'naydi. Qayıq yaqinlashib kelganda yerliklarning xoin va qo'rqqoq boshlig'i komandir Marionning shineli kiyib, qochib ketadi. Uning qishlog'idagi barcha kulbalar sinchiklab tintiladi. Takurining o'z uyida yaqinda pishirib yeyilgan odamning kallasi topiladi. Unda odamxo'rning tish izlari hali ko'rinar, devorda odamning bir soni osig'liq turardi. Marionning yoqasi, qonga belangan ko'ylagi, yosh ofitser Vodrikurning kiyim-boshlari bilan to'pponchasi, qayıqdagi qurollar va dabdala bo'lib ketgan kiyimlar topiladi. Nariroqda, boshqa bir qishloqda tozalangan va pishirilgan odam ichak-chavoqlarini topadilar.

Qotillik va odamxo'rlikni isbot qiladigan bu barcha dalillarni yig'ib keladilar. Odam qoldiqlarini izzat-ikrom bilan yerga ko'madilar. Keyin Takuri bilan uning sherigi Piki-Orening qishlog'iga o't qo'yib yuboradilar. 1772-yil 14-iyulda ikkala kema ham bu mudhish joylardan jo'nab ketadi.

Yangi Zelandiya zaminiga boradigan har bir sayohatchi yodda tutishi kerak bo'lgan dahshatli voqea ana shu. Bunday ogohlantirishga quloq solmagan har bir kapitan noma'qul kishidir. Yangi zelandiyaliklar hali ham odamxo'rlik va shafqatsizlikni tashlaganlari yo'q. Bunga o'zining ikkinchi sayohati vaqtida, yaxshi ko'rgan o'lkasi Yangi Zelandiyaga 1773-yilda yana kelgan Kuk ham ishondi. Uning kemalaridan birining 17-dekabrda sohilga o't o'rib kelgani yuborilgan qayig'i qaytib kelmadi. Qayiqda michman bilan to'qqiz matros bor edi. O'sha kemanding kapitani Fyurno komandaning qaytmaganidan xavotir olib, leytenant Byurney rahbarligida sohilga odam yuboradi. U oldingi qayiq sohilga yondashgan yerga borib, mudhish bir vahshiylik va shafqatsizlik manzarasi ustidan chiqadi, bu to'g'rida, leytenantning so'ziga qaraganda, «xotirjamlik bilan gapirib bo'lmasdi. Atrofdagi qumloq yerda o'rtoqlarimizning kallasi, ichak-chavoqlari, o'pkalari sochilib yotardi, sal narida xuddi shunday odam qoldiqlarini bir necha it yeb yurardi».

Bunday qonli voqealar sanog'ini tugallash uchun yuqoridagilarga yana yangi zelandiyaliklarning 1815-yilda «Og'aynilar» degan kemaga qilgan hujumini, shuningdek, 1820-yilda «Boyd» kemasining butun komandasi, hatto kapitani ham, yangi zelandiyaliklar qo'lida halok bo'lganini qo'shib o'tish kerak. Nihoyat, 1829-yilning 1-martida qabila boshlig'i Enararo Sidneydan kelgan «Gaus» degan kemani talab ketdi. Bu talon-toroj vaqtida uning odamlari bir necha matrosni o'ldirib, go'shtini keyin pishirib yedilar.

«Makari» kemasi o'zining kaltafahm matroslardan iborat komandasi va piyanista kapitani bilan ketayotgan Yangi Zelandiya ana shunday joy edi.

T o ' r t i n c h i b o b

SUVOSTI TOSHLARI

Og'ir safar esa davom etardi. 2-fevralda, «Makari» yo'lga chiqqaniga olti kun bo'lsa ham Oklend sohillari hali ko'rinmasdi. Shamol orqa tarafdan – janubi g'arbdan esardi. Ammo kemaga qarshidan kelayotgan dengiz oqimlari xalaqit berar, shuning uchun u juda

sekin ilgarilab borardi. Dengiz to'qinlanib turardi. «Makari» qattiq chayqalib borar, butun tanasi qisirlardi; kema to'qinlar ichiga munkib ketar, undan o'zini zo'rg'a ko'tarib olardi. Vantlar, bakshtaglar va shtaglar tarang tortilmagani uchun machta mahkam turmas, kema qattiq chayqalganda esa, ular lopillardi.

Baxtdan bo'lib, shoshilishni yomon ko'rgan Bill Galley ko'p yelkan ochmagan edi, bo'lmasa machtalar allaqachon sinib tushgan bo'lardi. Har holda Jon Mangls bu shaloq kemanding bir amallab portga yetib olishidan umidini uzmasdi, lekin hamrohlari bu kema-da qanday yomon sharoitda ekanliklarini o'ylash unga og'ir edi.

Ammo na Elen, na Meri Grant, tinmay urib turgan yomg'ir rubkadan chiqishga yo'l qo'ymasa ham, hech narsa deb nolishmas edi. Rubka esa dim, kemanding chayqashi ham u yerda kuchliroq seziladi. Shuning uchun, yomg'ir yog'ib turganiga ham qaramay, ular tez-tez palubaga chiqishardi, bunday vaqtlarda ularni faqat shamolning qattiq urib berishigina yana tor rubkaga qaytib kirishga majbur etardi, bu rubka esa yo'lovchi tashishdan ko'ra tovar tashishga mosroq edi, yo'lovchi ayollar to'g'risida-ku gapirmaasa ham bo'ladi.

Do'stlar bir amal qilib, ayollarning ko'nglini ochishga urinishardi. Paganel ularga o'z hikoyalaridan so'zlab bermoqchi bo'lib ko'rди, lekin foydasi bo'lmadi. G'amginlik bilan qaytib ketayotganlari sayohatchilarga og'ir ta'sir etardi. Ana shuning uchun oldin geografiya olimining pampaslar va Avstraliya haqidagi hikoyalarini qiziqib tinglagan sayohatchilar, endi Yangi Zelandiya to'g'risida gap bo'lganda, uning hikoyalariga qiziqishmasdi. Axir ular bu g'amgin mamlakatga ularni g'ayratga mindiruvchi biror maqsadsiz, o'zlari istab emas, balki yaramas zarurat natijasida ketayotgan edilar.

«Makari»dagi yo'lovchilar ichida hammadan ham Glenarvanga achinardi kishi. U rubkada kamdan kam o'tirar, bunga sabri chidamasdi. Tabiatan yuragi torroq va tez diqqati oshib ketadigan bu odam tor rubkaga sig'ib o'tira olmasdi. U urib turgan to'qinlarga ham, quyib turgan yomg'irga ham e'tibor bermay, butun kunni, hatto kechaning ham bir qismini palubada o'tkazardi. Eduard goh kema panjarasiga tayanib turar, goh atrofni bosib yotgan tumanga tikilib, paluba-

da u yoqdan bu yoqqa yurardi. Tuman biroz tarqalgan vaqtlarda Glenarvan uzun durbinni qo'ldan qo'ymasdi. U tilsiz to'qinlardan gap so'rayotgandek tuyulardi; bir qo'l siltashda tuman pardasini yirtib tashlamoqchi bo'layotgandek, ufqni bosib ketgan to'p-to'p bug'larni surib tashlamoqchi bo'layotgandek ko'rinardi. U, boshiga tushgan kulfatlar bilan aslo kelisha olmas, nihoyatda qattiq azob chekayotgani basharasidan ko'rinib turardi. U g'ayratli, baxtli va dasti uzun kishi edi, endi esa birdan baxtsiz va qo'li qisqa bo'lib qoldi.

Jon Mangls Glenarvanni yolg'iz qo'ymadi, u butun qiyinchiliklarni Glenarvan bilan birga tortishdi. Shu kuni Glenarvan tuman siyraklashganidan foydalanib dengizga, ayniqsa diqqat bilan tikildi.

- Yerni qidirypsizmi, ser? - deb so'radi Jon Mangls.

Glenarvan yo'q deganday bosh chayqab qo'ydi.

- Har hollda, bu kemadan tushadigan vaqtni sabrsizlik bilan kutayotgan bo'lsangiz kerak, - dedi yosh kapitan. - Biz Oklend chiroqlarini bundan o'ttiz olti soat burunoq ko'rishimiz kerak edi.

Glenarvan hech narsa demadi. U hamon qo'lidagi uzun durbin bilan shamol esib turgan tomonga qarardi.

- Yer u tomonda emas, - dedi Jon Mangls. - O'ng tomonga qarang, ser.

- O'ngga qarab nima qilaman, Jon? - dedi Glenarvan. - Men yerni axtarayotganim yo'q.

- Bo'lmasa nimani axtaryapsiz, ser?

- Kemamni! «Duncan»imni! - deb javob berdi Glenarvan, g'azab bilan. - Axir u mana shu atrofda qarochilik qilib yurgan bo'lishi kerak-da! Aytyapman-ku sizga, Jon, u shu orada, Avstraliya bilan Yangi Zelandiya oralig'ida. Yuragim sezib turibdi, biz u bilan albatta uchrashamiz.

- Yaxshisi, uchrashmaganimiz tuzuk, ser!

- Nima uchun, Jon?

- Hozir biz qanday ahvolda ekanimizni unutmang, ser. Agar «Duncan» bizni quvib qolsa, bu shaloq kema-da biz nima ham qila olamiz? Biz undan qochib qutula olmaymiz ham.

- Qochamiz deysizmi, Jon?

- Ha, ser! Lekin mehnatimiz zoye ketgan bo'lardi! Biz qo'lga tushar va o'sha ablahlarning asiri bo'lib

qolardik, Ben Joys esa hech qanday jinoyatdan ham qaytmasligini ko'rsatdi. Gap bizning hayotimiz to'g'risida borayotgani yo'q – biz oxirgi nafasimizgacha kurashgan bo'lardik. Lekin, ser, ayol hamrohlarimizni o'ylang!

– Bechora ayollar! – deb shivirladi Glenarvan. – Yurak-bag'rim pora-pora bo'lib ketdi, Jon, hatto ba'zan juda umidsizlikka tushib qolyapman. Nazarimda, bizni yangi-yangi balolar kutib turgandek, taqdir bizga qarshi turgandek tuyuladi, shuning uchun ba'zan qo'rqib ketaman.

– Siz-a, ser?

– Men o'zimdanda qo'rqmayman, Jon, o'zim yaxshi ko'radigan va siz ham yaxshi ko'radigan odamlar uchun qo'rqaman.

– Xotirjam bo'ling, ser, – deb javob berdi yosh kapitan. – Qo'rqadigan hech gap yo'q. «Makari» suzishi-ning mazasi yo'q, lekin har holda suzib boryapti. Bill Galley to'pos bir hayvon, lekin men shu yerdaman-ku, agar sohilga yaqinlashish xavfli bo'lib qolsa, kemani yana ochiq dengizga buraman. Demak, bu jihatdan xavf kam, ehtimolki butunlay yo'q. Lekin «Duncan» bilan uchrashib qolish xavfli, shuning uchun, ser, agar siz «Duncan»ni qidirayotgan bo'lsangiz bundan maqsad u bilan to'qnashishdan qochish, undan nari yurish bo'lishi kerak.

Jon Mangls haqli edi: «Duncan» bilan uchrashuv «Makari» uchun falokat bo'lardi. Qaroqchilar bahuzur talon-toroj qila oladigan yerlar bo'lganidan atrof juda xavfli edi. Baxtdan bo'lib, o'sha kun kechgacha ham kema ko'rinmadi, «Makari» Tufold qo'ltig'idan chiqqanidan keyingi oltinchi tun ham hech qanday xavfdan darak bermay kirdi.

Ko'rinishidan, bu juda dahshatli bo'lishi kerak edi. Kechqurun soat yettida birdan qorong'u tushdi. Havoning avzoyi buzuq. Hatto piyanista Bill Galleyning ham dengizchilik instinkti uyg'onib qoldi. Kapitan ko'zlarini ishqalab, katta qizil soch boshini silkitib-silkitib kayutasidan chiqdi-da, ba'zi kishilar es-hushini yig'ib olish uchun bir stakan suv ichganday, kuch bilan o'pkasini to'ldirib havo yutdi, so'ng yelkanlarni ko'zdan kechira boshladi. Shamol kuchayar, o'z yo'nalishini g'arb tomonga bir rumb o'zgartirib, kemani Yangi Zelandiya sohillari tomon surib borardi.

Bill Galley og'ziga kelganini qaytarmay, matroslarni so'kib, bramselni yig'ib olishni buyurdi. Jon Mangls kapitanning buyrug'ini ma'qulladi, lekin uning o'ziga hech narsa demadi. U bu qo'rs bilan hech narsa to'g'risida gaplashmaslikka ahd qildi. Ammo na Glenarvan, na yosh kapitan palubadan ketmadilar. Ikki soatdan so'ng shamol yana ham kuchaydi, Bill Galley marsel yelkanini kichraytirishni buyurdi. Agar «Makari»da amerika sistemasida ishlangan ikki qavatli reyalar bo'lmaganda, besh kishilik komanda bilan bu ishni amalga oshirish qiyin bo'lardi. Tepadagi reyani tushirish bilan marsel yelkani juda kichkina bo'ldiqoldi.

Yana ikki soat o'tdi. Dengiz tobora qattiq to'liqlinardi. To'liqlinlar kemaga shitob bilan urilar, kema go'yo suvosti toshlariga borib urilayotgandek tuyulardi. «Makari»ning og'ir tanasi to'liqlinlar ustiga zo'rg'a ko'tarilar, shuning uchun orqadan kelib urgan to'liqlinlar paluba ustidan oshib o'tib ketardi. Kemaning so'l bortiga bog'lab qo'yilgan qayiqni ana shunday to'liqlinlardan biri dengizga surib ketdi.

Jon Mangls xavotir bo'la boshladi. Aslida bu juda ham kuchli bo'lmagan to'liqlinlar boshqa har qanday kema uchun xavfli emas, lekin yuki og'ir «Makari» birdan cho'kib ketishi mumkin edi, chunki u har safar to'liqlinlar orasiga sho'ng'iganda palubasiga juda ko'p suv bostirib kirardi, palubaning atrofida yetarli darajada tarnovlari bo'lmaganidan, suv darrov chiqib ketolmasdi, bundan esa kemaning cho'kib ketish xavfi tug'ilardi. Suvning chiqib ketishini osonlashtirin uchun bortning tepasidan bolta bilan teshiklar ochish foydali bo'lardi, lekin Bill Galley bunday ehtiyot choralarini ko'rishni istamadi. Ammo baribir «Makari» uchun undan ham kattaroq xavf tug'ilib qoldi, bu xavfning oldini olish vaqti esa o'tgan edi.

Bortning shamol kelib urayotgan tarafida turgan Jon Mangls bilan Vilson kechasi soat o'n bir yarimlarda birdan allaqanday g'alati guvullagan tovush eshitib qoldilar. Ularda dengizchilik instinkti uyg'ondi. Jon matrosning qo'lidan mahkam tutdi.

– To'liqlin toshga urilyapti! – dedi u.

– Ha, – dedi Vilson, – to'liqlinlar qoyalarga borib urilyapti. – Ikki kabeltovdan uzoqda emasga o'xshaydi-ya?

– Ha, shuncha joyda. Bu – yer.

Jon bort ustidan engashib, qop-qora to'liqlarga tikilib qaradi.

– Lot tashla, Vilson, lot!

«Makari»ning tumshug'ida turgan kema xo'jayini yuz bergan ahvolga tamom beparvo edi. Vilson bakda o'rog'liq turgan lotni olib, dengizga tashladi. Arqon uning barmoqlari orasidan sirg'anib, pastga tusha boshladi. Uchinchi tugunga kelganda lot to'xtadi.

– Uch sajen! – deb qichiqirdi Vilson.

– Kapitan, toshlarga yaqin kelib qolibmiz! – deb qichiqirdi Jon, Bill Galley yoniga yugurganicha kelib.

Jon Mangls Galleyning yelkasini qisib qo'rganini sezdimi-yo'qmi – buning ahamiyati yo'q, lekin yosh kapitan rulga otildi, rumpelni burib yubordi, Vilson esa lotni tashlab, kemani shamolga to'g'rilash uchun marselni torta boshladi. Jon Mangls kuch bilan itarib yuborgan rul oldidagi matros kutilmagan bu hujumdan angrayib qoldi.

– Bo'shat! Bo'shat! – deb qichqirardi yosh kapitan, kemani suvosti toshlaridan nari olib ketish uchun boshqa tarafga burar ekan.

Kema yarim minutcha o'ng biqini bilan suvosti toshlariga urilay-urilay deb suzib bordi, shunda tun qanchalik qorong'u bo'lmasin, Jon to'rt sajencha joyda oppoq o'rkach otib quturayotgan to'liqlarni ko'rib qoldi. Nihoyat, kemanding qanday xavf ostida qolganini tushungan Bill Galley esini yo'qotib qo'ydi. Zo'rg'a kayfi tarqagan matroslar kapitan ulardan nima talab qilayotganini aslo tushunolmas edilar. Uning bir-biriga yopishmagan gaplari, bir-biriga zid buyruqlari bu to'pos piyanistaning aslo sovuqqonlikni bilmasligidan darak berardi. Galley nihoyatda hayron qoldi: u yer hali o'ttiz-qiriq mil masofada deb o'ylardi, yer esa nihoyati sakkiz mil joyda ekan. Oqim kemani odatdagi yo'lidan chetga surib ketibdi, ojiz mutaassib – kapitan esa buni bilmay qolgan edi.

Jon Mangls tezlik bilan o'tkazgan manyovr natijasida «Makari» suvosti toshlariga borib urilmadi. Lekin Jon Mangls farvaterni bilmasdi. Ehtimol, suvosti toshlari kemani har tarafdin o'rab yotgandir? Shamol kemani to'g'ri sharqqa surib borardi, shuning uchun kema har minutda boshqa biror suvosti qoyasiga borib urilishi mumkin edi.

Ko'p o'tmay to'liqning toshga borib urilayotgani o'ng tarafdin eshitila boshladi. Jon Mangls yana suvosti toshlariga chap berib o'ta boshladi. Kemaning tumshuq tarafdin birin-ketin qoyalar chiqib kelaverdi. Qanday qilib bo'lmasin ochiq dengizga qaytib chiqish kerak edi. Lekin bunday yelkanlari kam qaltis kema bilan kerakli tomonga biror falokatsiz qayrilib bo'larmikin? Muvaffaqiyat qozonishga umid kam, lekin shunday manyovr qilmasdan iloj yo'q.

– Rulni bur! Oxirigacha! – deb qichqirdi Jon Mangls Vilsonga.

«Makari» suvosti toshlarining yangi qatoriga yaqinlashib keldi. Toshlariga urilgan to'liqlar ko'piklanib yotardi. Og'ir kutish minutlari yetib keldi. Oppoq ko'pik bosgan to'liqlar fosfor nurlari yoritgandek yariqirab ketar, dengiz quturib o'kirardi.

Vilson bilan Myulredi egilib kuchlarining boricha rulni burdilar. Birdan kema qattiq silkinib ketdi. «Makari» suvosti toshiga urilgan edi. Vater-shtaglar uzildi, shuning uchun fok-machta bo'shashib qoldi. Jon Manglsning miyasidan yalt etib kemani boshqa biror falokatsiz burib olib bo'larmikan?» degan fikr o'tdi.

Yo'q, kemani eson-omon burib olishning iloji bo'lmadi shamol birdan tinib, kema to'xtab qoldi. Bos-tirib kelgan zo'r to'liq uni surib ketdi va dast ko'tarib suvosti toshlariga urdi. Fok-machta o'zining butun asbob-uskunalari bilan qulab tushdi. Kema kilining orqa qismi bilan suvosti toshiga ikki marta urildi-da, o'ng yonboshiga o'ttiz gradus qiyshayib, qimirlamay yotib qoldi.

Rubkadagi oynalar chil-chil sindi. Yo'lovchilar palubaga yugurib chiqdilar, ammo palubaga to'liqlar kelib urilayotgani uchun unda qolish xavfli edi. Jon Mangls kema uzil-kesil qumga o'tirib qolganini sezib, yo'lovchilardan rubkaga qaytishni iltimos qildi.

– To'g'risini aytavering, Jon, – dedi Glenarvan, sovuqqonlik bilan yosh kapitanga.

– To'g'risini aytsam, ser, ahvol mana bunday; kema cho'kib ketmaydi. Kemani to'liqlar parcha-parcha qilib tashlaydimi-yo'qmi – bu boshqa masala, ammo zarur choralar ko'ra olishimiz uchun vaqt yetarli.

– Hozir yarim kechami?

– Ha, ser, shuning uchun tong otguncha kutib turishimiz kerak.

– Suvga qayiq tushirib boʻlmaydimi?

– Kuchli toʻlqinlar quturib turgan bunday zim-ziyo kechada qayiq tushirishning foydasi yoʻq. Buning ustiga, sohilning qaysi tarafda ekanini ham bilmaymiz.

– Xoʻp, Jon, tong otguncha shu yerda qolamiz.

Bu payt Bill Galley oʻz kemasining palubasida telbalardek u yoqdan bu yoqqa yugurib yurardi. Uning matroslari es-hushini biroz yigʻishtirib olib, aroq solingan bir bochkani ochib ichishga tushdilar. Mast boʻlib olishgach, ular har qanday nomaʼqulchilik qilishdan ham toymaydilar, deb oʻyladi Jon. Kapitan oʻz komandasini tinchitadi deb umid qilib boʻlmasdi – bu oʻjiz odam sochlarni yular, qoʻllarini qarsillatar va faqat straxovaniya qilinmagan yukini oʻylardi.

– Xarob boʻldim! Xonavayron boʻldim! – deb qichqirar edi Galley, u bortdan bu bortga chopib.

Jon Mangls unga dalda berib oʻtirmadi. U, oʻz hamrohlariga qurol-yarogʻlarni tayyor tutinglar deb maslahat berdi, soʻng hammalari zarur boʻlib qolsa, matroslarning esini joyiga tushirib qoʻyishga hozirlik koʻrdilar. Matroslar esa aroq ichishar, ogʻziga kelganini qaytarmay soʻkinishar edi.

– Ablahlardan birontasi rubkaga yaqin kelib koʻrsin-chi, itdek otib tashlayman, – dedi xotirjamlik bilan mayor.

Matroslar ularni ayab oʻtirmasliklarini tushundilar shekilli, sayohatchilarni talashga bir urinib koʻrib, ish chiqmagach, allaqayoqqa gʻoyib boʻldilar. Jon Mangls bu piyanistalarni oʻylamay ham qoʻydi. U sabrsizlik bilan tong otishini kutardi.

Kema qimir etmay turardi. Shamol pasaya bordi. Dengiz sekin-asta tinchlana boshladi. Aftidan, kema-ning korpusi yana bir necha soat toʻlqinlarga dosh bera olardi. Quyosh chiqish paytida Jon Mangls sohilni koʻrib olmoqchi edi. Unga yetib olish qiyin boʻlmasa, kemada omon qolgan birdan bir qayiq komandani ham, yoʻlovchilarni ham sohilga chiqarib qoʻyadi. Qayiq sohilga bir necha marta borib kelishi lozim boʻladi, chunki unga toʻrt kishidan ortiq odam sigʻmasdi. Kemaning katta qayigʻini esa, avval aytganimizdek, toʻlqin yuvib ketgan.

Jon Mangls qanday xatarli ahvolda qolganlarini oʻylar ekan, kema bortiga suyangancha, joʻsh urayot-

gan serko'pik to'qlinlarning guvullashiga quloq solar-
di. U atrofni bosib yotgan qop-qorong'u zimistondan
biror narsani ilg'ab olishga urinib, dengizga tikilar va
tezroq yetib olishni orzu qilib kutishgan, ayni vaqt-
da mehmondo'st bo'lmagan yer qancha masofadaykin,
deb o'z-o'zidan so'rardi. Suvosti toshlari ko'p joylar-
da sohildan bir necha mil uzoqda bo'ladi. Yengilgina,
nimjon qayiq shuncha yerni bosib o'tishga dosh berar-
mikan?

Jon Mangls, tong yorishishini kutib, yuz bergan ah-
vol haqida bosh qotirayotgan vaqtda, u tinchlantirgan
yo'lovchi ayollar o'z koykalarida uxlab yotar edilar. Ke-
maning qimirlaymay turishi natijasida bir necha soat
dam olish imkoniyati tug'ildi. Glenarvan, Jon Mangls
va ularning boshqa hamrohlari o'lgudek mast koman-
daning ovozi eshitilmay qolgani uchun jinday-jinday
mizg'ib olishga qaror qildilar. Kechasi soat birda qum-
ga o'tirib qolgan «Makari»da jimlik cho'kdi.

Ertalab soat to'rtlarda sharq tarafdanda tong yori-
shib kela boshladi. G'ira-shira tong yorug'ida bulut-
lar oqardi. Jon Mangls yana palubaga chiqdi. Ufqni
tuman pardasi to'sib turardi. Uzoqdan nimaligi aniq
ko'rinmagan allanarsalar ertalabki bug' ichida suzib
yurgandek ko'rinar, dengiz suvi asta jimirlardi.

Jon Mangls kuta boshladi. Sekin-asta tong yo-
rishib, sharq taraf qizil tus oldi. Tuman pardasi sekin-
asta ko'tarilib, suvdagi qora qoyatoshlar ko'rina bosh-
ladi. So'ng suv yuzini qoplagan ko'pik chizig'i ortida
bilinar-bilinmas bir chiziq paydo bo'ldi, uning tepasi-
da mayak singari allaqanday o'tkir yorug'lik ko'rindi -
bu tog' cho'qqisini yoritib yuborgan, lekin o'zi hali
ko'rinmayotgan quyosh edi. Yer o'sha tomonda, to'qqiz
milga yetar-yetmas joyda edi.

- Yer! - deb qichqirdi Jon Mangls.

Uning ovozidan uyg'onib ketgan hamrohlari kema
palubasiga yugurib chiqdilar va ufqda ko'rinib tur-
gan yerga jimgina tikilib qaray boshladilar. Bu yer
mehmondo'stmi, falokatlar keltirarmi, har holda u sa-
yohatchilarga boshpana berishi kerak edi.

- Bill Galley qani? - deb so'radi Glenarvan.

- Bilmadim, ser, - deb javob berdi Jon Mangls.

- Matroslari-chi?

- Ular ham kapitanidek g'oyib bo'ldi.

– Ular ham kapitandek o'lgudek mast bo'lsalar kerak, – deb qo'shib qo'ydi Mak-Nabbs.

– Izlab topinglar, – dedi Glenarvan. – Ularni bu kemada tashlab ketib bo'lmaydi-ku, axir.

Myulredi bilan Vilson bakdagi hujraga tushib darhol qaytib chiqdilar, chunki u yerda hech kim yo'q ekan. Keyin ular kemandagi hamma yog'ini rosa qidirdilar, hatto trumga ham tushib chiqdilar, lekin na Bill Galley, na uning matroslari hech qayerda yo'q edi.

– Nima? Hech kim yo'qmi? – deb so'radi Glenarvan.

– Dengizga yiqilib tushgan bo'lmashinlar yana? – deb so'radi Paganel.

– Bo'lishi mumkin, – dedi ularning g'oyib bo'lib qolganidan juda xavotirga tushgan Jon Mangls. Keyin kemandagi quyruq tomoniga yurar ekan. – Qayiqqa! – deb qichqirdi.

Vilson bilan Myulredi qayiqni suvga tushirish uchun uning ketidan yurdilar, lekin qayiq yo'q – u g'oyib bo'lib qolgandi.

B e s h i n c h i b o b

ZO'RAKI MATROSLAR

Bill Gallay kemadagi bitta-yu bitta qayiqqa tushib, kechasi sheriklari bilan qochib ketibdi. Bunga hech qanday shubha yo'q. O'z burchiga binoan kemadan eng keyin ketishi kerak bo'lgan kapitan undan hammadan oldin qochib qolgan edi.

– Nomardlar qochib ketishibdi, – dedi Jon Mangls. – Nima ham derdik! Tag'in ham yaxshi, ser: ancha ko'ngilsizlikdan qutulibmiz.

– Men ham shu fikrdaman, – dedi Glenarvan. – Buning ustiga, Jon, kemada kapitan ham bor, matroslar ham bor, juda usta bo'lmashalar-da, har holda, mard o'rtoqlaringiz bor. Buyuravering, bajarishga tayyormiz!

Mayor, Paganel, Robert, Vilson, Myulredi va hatto Olbinet Glenarvanning so'zlarini chapak bilan qarshi oldilar va palubada saf tortib, Jon Manglsning buyrug'ini kuta boshladilar.

– Nimadan boshlaymiz? – deb so'radi Glenarvan.

Yosh kapitan dengizga ko'z tashladi, keyin ko'p qismlari yetishmay qolgan kema rangoutini ko'zdan kechirdi-da, biroz o'ylab olib, dedi:

– Bu ahvoldan qutulishning ikki yo'li bor, ser: yo kemani toshlar orasidan chiqarib olishimiz kerak, yoki solda sohilga yetib olishimiz kerak – sol qurish qiyin emas.

– Kemani toshlar orasidan chiqarib olishning iloji bo'lsa, shunday qilish kerak, – dedi Glenarvan, – yaxshisi shu, to'g'ri emasmi?

– To'g'ri, ser, chunki sohilga yetib olganimizdan keyin ot-ulovsiz qiyin ahvolda qolamiz.

– Sohildan nariroq yurganimiz yaxshi, – deb ilova qildi Paganel. – biz Yangi Zelandiyadan ehtiyot bo'lishimiz kerak.

– Buning ustiga, Bill Galleyning beg'amligi natijasida yo'ldan ancha chetga chiqib ketganimizni ham qo'shib qo'yish kerak, – dedi Jon Mangls. – Aftidan, biz janubga surilib ketganga o'xshaymiz. Choshgohda men turgan joyimizni aniqlayman, agar taxmin qilganimdek, Oklenddan janubroqda bo'lsak, unga qirg'oq yoqalab borib, yetib olishga harakat qilamiz.

– Kema shikastlangan-ku, uni nima qilasizlar? – deb so'radi Elen.

– Menimcha, kema uncha qattiq shikast yemagan bo'lsa kerak, – deb javob berdi Jon Mangls. – Men sinib ketgan fok-machtani vaqtinchalik machta bilan almash-tiraman, keyin «Makari» sekinroq bo'lsa ham, har holda, biz istagan tomonga boraveradi. Bordi-yu, baxtimiz yurishmay, kemaning korpusi ajrab ketgan bo'lsa, yoki uni toshlar orasidan chiqarib olishning iloji bo'lmasa, zaruratga bo'ysunib, sohilga solda yetib olishga, u yerdan esa Oklendga piyoda jo'nashga majbur bo'lamiz.

– Demak, eng oldin kemani ko'zdan kechiramiz, – dedi mayor.

Glenarvan, Jon Mangls va Myulredi trumga tushdilar. Bu yerga ikki yuz tonnacha oshlangan teri betartib taxlab tashlangan edi.

Shtagga o'rnatilgan bloklar yordami bilan teri toylarini uncha qiynalmay boshqa joyga olib taxlashga muyassar bo'ldilar. Jon Mangls kemani biroz yengillatish uchun darhol teri toylaridan bir qismini dengizga tashlashni buyurdi.

Uch soat zo'r berib ishlaganlaridan keyin kemaning tagini ko'zdan kechirish mumkin bo'ldi. So'l bortning bir yeri ozroq ajrab ketgan edi. «Makari» o'ng tomonga yonboshlab qolgani uchun zararlangan so'l bort suvdan yuqorida turardi. Faqat shuning uchun trumga suv kirmabdi. Vilson ajralib ketgan taxtalar orasiga kanop losi tiqdi-da, ustidan mis tunuka bilan yaxshilab mixladi. Trumning tagiga lot tashlab, undagi suv ikki fut ham chiqmasligini aniqladilar. Bu suvni nasoslar bilan chiqarib tashlab, kemani yengillatish qiyin emasdi.

Jon Mangls kemaning korpusini ko'zdan kechirib, «Makari» toshga urilganda ko'p shikastlanmagani aniqladi. To'g'ri, kemani toshdan ko'tarib olishda falshkilning bir qismi qumga botgan yerida qolib ketishi mumkin, lekin bu xavfli emas.

Kemaning ichki qismini ko'zdan kechirib bo'lganlaridan keyin Vilson «Makari»ning qumga qanchalik o'tirib qolganini aniqlash uchun suv tagiga sho'ng'idi. Burni shimoli g'arbga qarab qolgan kema dengiz tagiga deyarlik tik tushib boradigan balchiq aralash qumga o'tirib qolgan ekan. Forshtevnning pastki tomoni va kilning uchdan ikki qismi qumga chuqur o'rnashib qolibdi. Kemaning axterishtevnigacha bo'lgan boshqa qismi esa suv ichida bo'lib, suvning chuqurligi bu yerda besh sajangacha yetardi. Shunday qilib, rul botib qolmagan, demak, bahuzur xizmat qilishi mumkin. Bu esa zarur bo'lishi bilanoq undan foydalanish imkoniyatini berardi.

Tinch okeanda suv u qadar ko'p ko'tarilmaydi, shunday bo'lsa ham Jon Mangls undan foydalanmoqchi bo'ldi. Kema suv pasayishidan taxminan bir soat oldin o'tirib qolgandi. Suv pasaya boshlashi bilan kema o'ng tomoniga borgan sari ko'proq yonboshlab boraverdi. Ertalab soat oltiga borib, ya'ni suv eng pasaygan vaqtda, kema juda qiyshayib qoldi, lekin kemani tirab qo'yishga hozircha zarurat yo'q edi. Shu sababdan reyalar bilan xodalarni Jon Mangls kemaning burun tomoniga vaqtincha o'rnatmoqchi bo'lgan machta uchun asrab qo'yish imkoniyati tug'ildi.

Endi «Makari»ni qumdan ko'tarib olishning chorasini ko'rish qoldi. Bu ish ko'p vaqt talab qilar va og'ir edi. Bu ishlarning hammasini suvning ko'tarilish paytiga-

cha, ya'ni kunduz soat o'n ikki-yu chorakkacha bitkazishning sira iloji yo'q edi, albatta. Buguncha suvning ko'tarilishi kemanding botmagan qismiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rish ham kifoya qilar, faqat suvning yanagi ko'tarilishidagina «Makari»ni qumdan chiqarib olish uchun butun kuchni sarf qilish zarur bo'lardi.

– Qani, boshladik bo'lmasa! – dedi Jon Mangls.

Yangi matroslar kapitanning buyrug'ini kuta boshladilar. Jon Mangls dastlab yelkanlarini yig'ib olishni buyurdi. Mayor, Robert va Paganel Vilson rahbarligida marsga chiqdilar. Shamol urib tursa grot-marsel kemani qumdan chiqarib olishga xalaqit bergan bo'lardi. Uni yig'ib olish kerak, buni bir amallab bajardilar. Keyin bu ishga o'rganmagan qo'llar uchun og'ir va mashaqqatli mehnatdan keyin grot-bram-stenga shkivdan chiqarib olindi. Bu qiyin ishda mushukdek epchil va yungalardek mard Robert kattalarga ancha yordam ko'rsatdi.

Bundan keyin kemanding orqasiga, kilning qarshisiga langar tashlash, iloji bo'lsa ikkala langarni ham tashlash kerak edi. Bu langarlar suv ko'tarilganda «Makari»ni qumdan tortib olishlari lozim. Qayiq bo'lsa, buni qilish qiyin emas. Unda langarni kerakli joyga olib borasiz-da, tashlab kelaverasiz. Lekin hech qanday qayiq yo'q, shunga qaramay, uning bir ilojini topish kerak.

Glenarvan kemani qumdan chiqarib olish uchun langarni suv qaytgan vaqtda tashlash lozimligini yaxshi tushunadigan darajada dengizchilik ishlarini bilardi.

– Lekin qayiqsiz qanday tashlaymiz langarni? – deb so'radi u, Jon Manglsdan.

– Fok-machtaning siniqlari va bo'sh bochkalardan solga o'xshagan bir narsa yasashga to'g'ri keladi, – deb javob berdi yosh kapitan, – Bunday sharoitda langar tashlash qiyin, lekin bir amallasa bo'ladi, chunki «Makari»ning langarlari uncha katta emas. Ularni joyiga tashlay olsak va ular uzilib ketmasa, ishning muvaffaqiyatli chiqishiga men kafil.

– Xo'p, bo'lmasa, vaqtni bekor o'tkazmaylik, Jon.

Hamma, matroslar ham, «Makari»ning yo'lovchilari ham palubaga chaqirildi, keyin hamma ishga kirishdi. Hali ham fok-machtani ushlab turgan arqonlarni

bolta bilan uzdilar. Machta top yonidan sinib tushgani uchun marsni osonlik bilan chiqarib oldilar. Jon Mangls bu yog'ochlarni solga mo'ljallab qo'ydi. Ajratib olingan mars maydonchasini bo'sh bochkalarga o'rnatdilar, endi ular langarlarni bahuzur ko'tara olardi. Boshqarish uchun uning ketiga eshkak o'rnatdilar. Suv pasaya boshlaganda solni shunday ham kemanding orqa tomoniga surib ketardi. Langarlarni tashlagach, ular bog'langan arqonni ushlab, kemaga qaytish oson.

Choshgohga borib solning yarmini qurib bo'ldilar, Jon Mangls Glenarvanga ishlayotganlarni kuzatib turishni topshirib, o'zi kemanding turgan joyini belgilashga kirishdi, buni bilish juda zarur edi. Baxtidan bo'lib, Jon Mangls Bill Galleyning kayutasidan Grinвич observatoriyasining qo'llanmasi bilan juda kir bo'lib ketgan, lekin ishga yaroqli sekstant topdi. Yosh kapitani uni tozaladi-da, palubaga olib chiqdi.

O'sha sekstant yordami bilan u o'zlarining o'ttiz sakkizinchi daraja kenglikda ekanliklarini aniqladi, Yangi Zelandiyaning g'arbiy sohilida bo'lganlari uchun kapitani yer $171^{\circ}13'$ uzunlikda ekanini bilardi.

Jon Mangls Paganel Edenda sotib olgan Jonston xaritasiga qarab, falokat Oklend viloyatining sohilida, Kapua burunni yonida, Aotea qo'tig'iga kiraverishda yuz berganini aniqladi. Oklend shahri o'ttiz yettinchi parallelda, demak, «Makari» o'z yo'lidan bir gradus janubga surilib ketgan, endi Zelandiyaning poytaxtiga borish uchun kema bir gradus shimolga ko'tarilishi kerak.

- Nihoyat yigirma besh mil yo'l ekan. Gapirib o'tirishga ham arzimaydi, - dedi Glenarvan.

- Dengizdan suzib o'tilsa, to'g'ri - yigirma besh mil gapirib o'tirishga ham arzimaydi, agar sohildan borilsa, bu juda uzoq yo'l, - deb e'tiroz bildirdi Paganel.

- Shuning uchun «Makari»ni qumdan chiqarib olishga butun kuchimizni sarf qilamiz, - dedi Jon Mangls.

Yana ishga tushdilar. Soat o'n ikkidan chorak o'tganda suv ko'tarila boshladi, lekin Jon Mangls undan foydalana olmadi, chunki hali langarlar tashlanmagan edi. Shunday bo'lsa ham u «Makari» qanday ahvolga kelishini hayajon bilan kuzatib turdi. Suv ko'tarilganda, kema qumdan chiqib ketsa-ya? Bu besh minut ichida hal bo'lishi kerak.

Kutib turdilar. Birdan allanarsa qarsillab ketdi. Bu tovush kemanding ko'tarilayotganidan bo'lmasa ham, tagi larzaga kelganidan darak berardi. Kema joyidan qimirlamadi, lekin Jon Manglsning butun umidi suvning keyingi safar ko'tarilishidan edi.

Yana ish qaynadi. Soat ikkida sol tayyor bo'ldi. Unga kichik langarni ortdilar. Jon Mangls bilan Vilson solni kemanding quyruq tomoniga bog'lab qo'yib, unga o'zlari ham chiqib oldilar. Suv pasayganda ularni kemandan yarim kabeltov joyga surib ketdi; ular shu yerda chuqurligi o'n sajencha chiqadigan joyga langarni tashladilar. Langar mahkam o'rnashdi, shundan so'ng sol kema yoniga qaytib keldi.

Endi ikkinchi, katta langarni tashlash kerak edi. Uni solga tushirish qiyinroq bo'ldi. Lekin tushirib olganlaridan keyin solni suv yana surib ketdi, ko'p o'tmay katta langar kichigidan ham nariroqqa, lekin o'n besh sajen chuqurlikka tashlandi. Bu ishni ham bitirgach, Jon Mangls bilan Vilson tortilgan arqon yordami bilan «Makari»ga qaytib keldilar.

«Makari»dagilarning hammasi arqonlarni brash-pilga mahkam bog'lab qo'yib, suvning keyingi ko'tarilishini kuta boshladilar. Bu safar suv kechasi soat birda ko'tariladi. Hozir esa soat nihoyati kechqurungi olti edi.

Jon Mangls matroslarini maqtab qo'ydi, Paganelga esa doim shunday intizomli va mard matros bo'lsangiz, bir kun borib botsman bo'lishingiz ham mumkin deb gap keltirdi.

Bu orada terlab-pishib rosa ishlagan mister Olbinet oshxonasiga qaytdi. Bu yerda u mazali ovqat tayyorlay boshladi, ovqat juda vaqtida tortildi. Kema komandasi a'zolarining ishtahasi karnay bo'lib ketgan edi. Ovqat hammaga manzur bo'ldi va sayohatchilarga yangi ishlar uchun kuch-quvvat berdi.

Ovqatdan keyin Jon Mangls o'ylab qo'yilgan rejaning muvaffaqiyatli chiqishiga yordam berishi kerak bo'lgan oxirgi ehtiyot choralarini ko'rib qo'ydi. Gap kemani qumdan ko'tarib olish haqida borar ekan zig'ircha e'tiborsizlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Unda ish muvaffaqiyatsiz chiqib qoladi, kemanding yuki keragidan sal og'irroq bo'lsa ham, kil o'zining qumloq o'rnidan chiqmaydi.

Jon Mangls kemani yengillatish uchun undagi teri toylarining ko'pgina qismini dengizga tashlashni buyurdi. Endi qolgan teri toylari, og'ir xodalar, zaxira reyalar, ballast solingan bir necha bochkani o'z og'irligi bilan forshtevnning ko'tarilishiga yordam bersin degan maqsadda kemandi quyruq tomoniga taxlab qo'ydilar. Vilson bilan Myulredi quyruq tomonga yana bir necha bo'sh bochkalarni dumalatib kelib, ularga suv to'ldirdilar. Bu ishlar faqat yarim kechada tugadi. Butun komanda juda charchab qoldi, bu juda chatoq edi, chunki ko'p o'tmay, hamma butun kuchini sarf qilib, kemani ko'tarishga yordam berishi kerak edi. Bu hol Jon Manglsni yangi qaror qabul qilishga majbur etdi.

Shu vaqt shamol tinib qoldi. Dengiz yuzi bilinar-bilinmas jimirlab turardi. Jon Mangls ufqqa diqqat bilan tikilib, janubi g'arbdan esayotgan shamol to'xtab shimoli g'arbiy shamol ko'tarilayotganini sezdi. Dengizchi buni bulutlarning joylashishi va rangiga qarab aniqladi. Vilson bilan Myulredi ham kapitanning fikrini ma'qulladilar.

Jon Mangls o'z kuzatuvlarini Glenarvanga aytdi-da, kemani ko'tarish ishini ertaga qoldirishni taklif qildi.

– Mening dalillarim mana bunday, – dedi yosh kapitan. – Eng oldin shuki, hammamiz charchab qoldik, «Makari»ni qumdan chiqarib olish uchun esa butun kuchimizni sarf qilishimiz kerak. Undan keyin, kemani chiqarib olsak ham shunday zim-ziyo kechada suvosti toshlari orasidan qanday qilib olib o'tamiz? Yaxshisi buni kunduzi qilish kerak. Buning ustiga, shoshmaslikka mening yana bir asosim bor: ertaga shamol ham boshqa tomondan esa boshlab, bizga yordam beradi, men bundan ham foydalanmoqchiman. Men ertaga suv ko'tarilgan paytda shamol bu eski kaloshni orqasiga sursa deyman. Agar yanglishmasam, ertaga shamol shimoli g'arbdan esa boshlaydi. Biz grot-machtadagi yelkanlarni ko'taramiz, keyin ular kemani ko'tarishga yordam beradi.

Yosh kapitan keltirgan dalillar shunday ishontirarli ediki, hatto yuz bergan holatdan qattiq iztirob chekayotgan Glenarvan bilan Paganel ham bunga rozi bo'ldilar, shunday qilib «Makari»ni qumdan chiqarib olish ertasiga qoldirildi.

Tun tinch o'tdi. Asosan langarlarga qarab turish uchun qorovul qo'yildi. Tong otdi. Jon Manglsning

aytganlari to'g'ri chiqdi: shimoli g'arbdan shamol ko'tarilib, tobora kuchaya bordi. Buning katta foydasi tegdi. Butun ekipaj palubaga chaqirildi. Grot-machtaning tepasiga chiqib olgan Robert, Vilson va Myulredi, palubada turgan mayor, Glenarvan va Paganel zarur bo'lgan paytda yelkanlarni ko'tarishga tayyor turar edilar. Grot-marsning reyasini ko'tardilar. Grot va grot-marselni gitovlarga tortib qo'ydilar.

Ertalab soat to'qqiz bo'ldi. Suv ko'tarilishining eng yuqori nuqtasiga chiqishiga hali to'rt soat bor edi. Bu to'rt soat bekor o'tmadi. Jon Mangls bu vaqt ichida sinib tushgan fok-machta o'rniga vaqtinchalik fok-machta o'rnatdi. Bu esa «Makari»ni qumdan chiqarib olish bilanoq bu xatarli yerdan jo'nab ketishga imkon berardi. Komanda yana zo'r berib ishga tushdi, buning natijasida choshgohgacha bram-reya kema tumshug'iga vaqtincha machta qilib mahkam o'rnatildi. Elen bilan Meri Grant zaxiradagi yelkanni for-bram-reyaga o'rnatib o'rtoqlariga katta yordam berdilar. Ular hammani qutqarish uchun olib borilayotgan ishga o'z hissalarini qo'shganlaridan juda xursand bo'lib ketdilar. Uskunalash tamom bo'lgandan keyin kemaning husni ancha ayanchli tusda bo'lsa ham unda yo'lga chiqish mumkin edi - lekin sohildan uzoqlashib ketib bo'lmasdi.

Ko'p o'tmay suv ko'tarila boshladi. Dengizda choqqina to'lqinlar yura ketdi. Toshlarining qora gavdasi go'yo o'zi o'rgangan sharoitga sho'ng'ib ketayotgan dengiz hayvonlaridek sekin-asta suv ostiga kirib ketdi. Hal qiluvchi payt yaqinlashib kela boshladi. Sayohatchilar uni hayajon bilan kutib turardilar. Hamma Jonga tikilib, uning buyrug'ini kutardi.

Yosh kapitan kema panjarasidan engashib, suvning ko'tarilishini kuzatardi. U tarang tortilgan langar arqonlariga xavotirlik bilan qarardi.

Kunduzi soat birda suv eng yuqori nuqtasiga ko'tarildi. Suv ko'tarilmaydigan ham, pasaymaydigan ham vaqt keldi. Tez harakat qilish kerak edi. Grot va grot-marsel yelkanlarini ko'tardilar, shamol ularni darhol ochib yubordi.

- Brashpilga! - deb qichqirdi Jon Mangls.

Brashpil - o't o'chiruvchilarning nasosiga o'xshatib qurilgan langar tortadigan chig'ir. Bir tomondan Gle-

narvan, Myulredi va Robert, ikkinchi tomondan Paganel, mayor, Olbinet brashpilni harakatga keltiradigan bandlarga yopishdilar. Jon Mangls bilan Vilson uzun xoda ko'tarib, qiyshaygan kemani ko'tarishga yordamlasha boshladilar.

– Qattiqroq! Qattiqroq bosinglar! – deb qichqirdi yosh kapitan. – Baravar zo'r beringlar, baravar!

Brashpilning kuch bilan tortishi natijasida arqonlar tarang bo'lib ketdi. Langarlar mahkam turardi.

Muvaffaqiyatga erishish uchun shoshilish kerak edi. Bir necha minutdan keyin suv pasaya boshlaydi. Komanda yana ham zo'r bera boshladi. Kuchayib borayotgan shamol yelkanlarni ochib, kuch bilan machtaga yaqin surib bordi. Kemaning korpusi titrab ketdi. U hozir ko'tarib ketadigandek tuyulardi. Ehtimol «Makari»ni qumdan chiqarib olish uchun yana bir kishining yordami kifoya qilardi.

– Elen! Meri! – deb qichqirdi Glenarvan.

Yosh ayollar o'rtoqlariga yordam berishga chopdilar. Brashpil so'nggi marta g'ijirladi. Ammo kema qimirlamadi. Ish natija bermadi. Suv pasaya boshladi. Bunday ozchilikdan iborat bo'lgan komanda hatto shamol va to'lqinlarning yordami bilan ham kemani qumdan chiqarib ololmasligi ravshan bo'ldi.

O l t i n c h i b o b

BU BOBDA YOVUZLIK NAZARIY JIHATDAN TALQIN QILINADI

Shunday qilib, Jon Mangls sinab ko'rgan birinchi najot usuli natija bermadi. Darhol ikkinchi rejani amalga oshira boshlash kerak edi. «Makari»ni toshdan ajratib olishning iloji yo'qligi aniq bo'ldi, bu ahvoldan qutulishning birdan bir to'g'ri yo'li kemani tashlab ketish ekani ham ravshan ko'rindi. Yordam kutib o'tirish ehtiyotsizlikkina emas, aqlsizlik ham bo'lardi. Biror kema bularni ko'rib qolib yordamga kelguncha «Makari» parcha-parcha bo'lib ketadi. Bo'ron turib qolsa yoki ochiq dengizda salgina qattiqroq shamol qo'zg'alsa ham, to'lqinlar nogiron kemani qumloqqa surib ketib, toshlarga ura boshlaydi-da, pachoq-pachoq qilib tash-

laydi. Turgan gapki, Jon Mangls bu falokat yuz berishidan oldinroq sohilga yetib olish niyatida edi.

Shuning uchun u Yangi Zelandiya sohiliga hamma yo'lovchilar bilan yetarli darajada oziq-ovqat olib bora oladigan pishiq sol qurishga kirishishni taklif qildi.

Muhokama qilib o'tirish emas, darhol ish boshlash zarur edi.

Ish qizib ketdi, qorong'u tushguncha talay ish qilib qo'ydilar. Kechqurun soat sakkizlarda, ovqatdan keyin Elen bilan Meri Grant rubkadagi koykalarida dam olib yotishganda, Paganel o'zlari tushib qolgan ahvolni muhokama qilib, do'stlari bilan palubada kezib yurardi. Robert ham uxlagani ketmadi. Dovyurak bola zarur bo'lib qolsa, har qanday xavfli ishda ham yordam berishga tayyor holda ularning so'ziga quloq solardi.

Paganel yosh kapitandan, qurilayotgan sol o'z yo'lovchilarini sohilga tushirib qo'yishi o'rniga, sohil bo'ylab Oklendga olib borolmaydimi, deb so'radi. Jon Mangls bu juda xavfli, deb javob berdi.

- Biz solda amalga oshirolmaydigan bu safarni ke-maning qayig'ida qilish mumkin edimi?

- Juda zarur bo'lib qolsa, mumkin bo'lardi, - deb javob berdi Jon Mangls, - o'shanda ham faqat kunduzi yo'l yurib, kechasi langar tashlab turishimiz lozim bo'lardi.

- Demak, bizni tashlab qochgan nomardlar...

- Ha, ularni aytayotgan edingizmi! - dedi Jon Mangls. - Ular g'irt mast edi, hali bu nomardliklari uchun jonlaridan ajramagan bo'lsalar deb qo'rqaman.

- O'zlariga qiyin, - dedi Paganel, - lekin bizga ham oson emas, chunki o'sha qayiq hozir bizga juda asqatgan bo'lardi.

- Nima ham qilardik endi, Paganel! - dedi gapga aralashib Glenarvan. - Bizni sohilga sol chiqarib qo'yadi.

- Men ana shundan qochyapman-da, - dedi geografiya olimi.

- Nima, nima! - dedi Glenarvan. - Nihoyati yigirma mil joyni bosib o'tish pampaslarda va Avstraliyada sayohat qilgan bizdek chiniqqan odamlarni qo'rqita oladimi?

- Do'stlarim, - dedi Paganel, - men bizning jasoratimizga ham, ayol hamrohlarimizning mardligiga ham

shubha qilmayman. Yigirma mil masofa Yangi Zelandiyadan boshqa har qanday mamlakatda ham arzimagan yo'l, albatta. Meni qo'rqoqlikda ayblamassizlar deb o'ylayman, chunki sizlarni Amerikani kesib o'tishga, Avstraliyani kesib o'tishga eng oldin da'vat qilgan men edim. Lekin hozir yana takror aytaman: nima bo'lsa ham, bu xiyonatlar mamlakatida sayohat qilishdan ko'ra o'sha yaxshiroq.

- Qumga o'tirib qolgan kemada halok bo'lishdan o'sha ham yaxshi, - deb e'tiroz bildirdi Jon Mangls.

- Yangi Zelandiyaning nimasidan qo'rqamiz? - deb so'radi Glenarvan.

- Yovvoyilaridan, - dedi Paganel.

- Yovvoyilardan! - deb takrorladi Glenarvan. - Dengiz yoqalab borsak, ular bilan uchrashmay o'tib ketolmaymizmi? Buning ustiga, bir to'da ojiz yovvoyilarning hujumi yaxshi qurollangan va o'zini himoya qila oladigan o'nta yevropalik uchun qo'rqinchli ham emas.

- Gap ojiz yovvoyilar ustida borayotgani yo'q, - dedi bosh chayqab Paganel. - Yangi zelandiyaliklar ingliz hukmronligiga qarshi kurash olib borayotgan kuchli qabilalarga birlashganlar. Ular o'z yurtlarini istilo qilmoqchi bo'lganlarga qarshi jang olib bormoqdalar, hatto ko'pincha ularni yengmoqdalar ham, yenggandan so'ng esa, doim ularning go'shtini yeydilar!

- Ular odamxo'r ekan-da! Odamxo'r ekan! - deb qichqirdi Robert, keyin eshitilar-eshitilmas qilib. - Opam... missis Elen... - deb shivirladi.

- Qo'rqma, o'g'lim, - dedi Glenarvan, uni yupatishga harakat qilib. - Do'stimiz Paganel juda oshirib yubordilar.

- Hech ham oshirib yuborganim yo'q-da! - dedi geografiya olimi. - Robert o'zining azamat yigit ekanini ko'rsatdi, shuning uchun men undan haqiqatni yashirmay, yigit kishi bilan gaplashgandek ochiq gaplashyapman. Nahotki hamma yangi zelandiyaliklarni madaniyatli deb o'ylasangiz! - deb davom etdi Paganel. - Bultur Uokner degan bir inglizni mudhish yovuzlik bilan qiynab o'ldirganlar. Shunisiga diqqat qilingki, bu jinoyatni ular 1864-yilda, Oklenddan nihoyati bir necha le joyda, shunday ingliz ma'murlarining ko'zi oldida qilganlar.

- Qo'ysangiz-chi! - dedi mayor. - Bu hikoyalarning ko'pini sayohatchilarning o'zi to'qigan deyman-a? Ni-

hoyatda xatarli mamlakatdan, odamxo'rlarga yem bo'lmay, eson-omon qaytish yaxshi-da.

- Bu hikoyalarda ma'lum darajada bo'rttirilgan o'rinlar bo'lishi mumkin, to'g'ri, - dedi Paganel, - lekin ularni Marsden, kapitan Dyurvil, Laplas kabi ishonsa bo'ladigan obro'li odamlar va boshqa ko'pgina kishilar aytib o'tganlar, men ularga ishonaman, men ularga ishonmay qololmayman. Yangi zelandiyaliklar tabiatan shafqatsiz bo'ladi. Biror qabila boshlig'i o'lsa, ular odamlardan qurbon qiladilar. Ularning nazarida, bu qurbonlar vafot qilgan boshliqning g'azabini yumshatar ekan, aks holda uning g'azabi tirik odamlar boshiga balolar keltirishi mumkin ekan. Ayni vaqtda boshliq «u dunyoda» xizmatini qildirish uchun xizmatkorlar ham ola ketadi. Yangi zelandiyaliklar o'sha xizmatkorlarni qurbonliqqa so'yib, keyin go'shtini yeydilar, bu esa ularning irimchiligidan ham ko'ra odam go'shti yeyishni istab qolganlarini ko'rsatadi, deb o'ylashga asos beradi.

Paganel to'g'ri aytdi. Odamxo'rlik Yangi Zelandiyada ham Fidji orollaridagi yoki Torres bo'g'ozidagi singari odat tusiga kirib qoldi. Bu yaramas odatlarga xurofot ham biroz sabab bo'ladi, albatta, lekin har holda odamxo'rlik bu yerlarda mavjud ekan, buning sababi asosan shuki, bu yerlarda ba'zan ov qilish mumkin bo'lgan narsalar oz, ochlik esa kuchli bo'ladi. Doim och bo'ladigan yovvoyilar har zamonda bir bo'lsa ham nafslarini qondirish uchun odam go'shti yeydigan bo'lganlar. Keyinchalik ularning kohinlari bu mudhish odatni ma'lum tartibga soladilar va muqaddaslashtiradilar. Ziyofat rasm tusiga kirib qoladi, ana shu xolos.

Buning ustiga, maorilar nazarida, bir-birining go'shtini yeyishdan ham tabiiy narsa yo'q. Bundan tashqari, yangi zelandiyaliklarning aytishicha, agar ular dushmanning go'shtini yesalar, uning ruhini ham yo'q qilib yuboradilar, shu tarzda dushmanning joni, kuch-quvvati, jasorati ularga o'tadi, ularning hammasi asosan uning miyasida bo'ladi. Odamxo'rlarning ziyofatlarida odam miyasi ana shuning uchun eng laz-zatli va eng tabarruk taom hisoblanadi.

Lekin Paganel faqat yangi zelandiyaliklarning emas, balki ibtidoiy davrda Yevropada yashaganlarning ham odamxo'rlik qilganlariga sabab - ochlik bo'lgan degan

fikrni qattiq turib ilgari surdi, har qalay bu fikri asos-siz emasdi.

– Ha, – deb qo‘shib qo‘ydi geografiya olimi, – odamxo‘rlik eng madaniy xalqlar orasida ham uzoq vaqt hukm surib kelgan, sizlar ko‘nglinglarga olmanglar-u, ammo bu xunuk ish shotlandiyaliklar orasida taraqqiy etgan edi.

– Rostdanmi? – deb so‘radi Mak-Nabbs.

– Ha, mayor, – deb ta‘kidladi Paganel. – Agar Shotlandiya yilnomalaridan parchalar o‘qisangiz, bobokalonlaringiz qanday odamlar bo‘lganini bilib olasiz, shunda hatto uzoq o‘tmish zamonlar tarixiga murojaat qilib o‘tirmay, Yelizaveta podsholik qilgan davrda, Shekspir o‘zining Sheylokini yaratayotgan bir zamonda shotlandiyalik qaroqchi Sevney Bek odamxo‘rlik qilgani uchun qatl etilganini bilib olasiz. Odam go‘sh-ti yeyish-ga uni nima majbur qildi? Dinmi? Yo‘q, ochlik.

– Ochlik? – deb so‘radi Jon Mangls.

– Ha, ochlik, – deb takrorladi Paganel. – Chunki ularning hayvonlari yo‘q, yangi zelandiyaliklarni oq-lash uchun emas, odamxo‘rlikning sababini tushu-nish uchun buni bilish kerak. Bu mehmondo‘stlikni bilmagan mamlakatda to‘rt oyoq-qilargina emas, hatto qushlar ham kam bo‘ladi. Maorilar ana shuning uchun doim odam go‘sh-ti yeb kelganlar. Madaniy mamla-katlarda ovchilikning o‘z mavsumi bo‘lgandek, bular-da ham odamxo‘rlikning o‘z mavsumi bo‘ladi. O‘sha mavsum kelganda yangi zelandiyaliklar katta ov bosh-laydilar, ya‘ni boshqacha qilib aytganda, katta urush boshlaydilar, bu urushdan keyin butun-butun qabila-lar g‘oliblar dasturxoniga tortiladi.

– Demak, Paganel, so‘zingizga qaraganda, Yangi Ze-landiyadagi odamxo‘rlik undagi yaylovlarda qo‘y, qora-mol va cho‘chqa podalar boqila boshlagandan keyingi-na yo‘q bo‘lib ketar ekan-da? – deb so‘radi Glenarvan.

– Shunday bo‘lsa kerak, qimmatli ser.

– Maorilar odam go‘sh-tini qanday yeydilar? – deb so‘radi Mak-Nabbs. – Xomligicha yeydilar-mi yo pishi-ribmi?

– Buni so‘rab nima qilasiz, mister Mak-Nabbs? – deb qichqirdi Robert.

– Nega bo‘lardi, o‘g‘lim! – deb javob berdi mayor jiddiy. – Axir men hayotimni odamxo‘rning qornida tu-

gatadigan bo'lsam, unga pishirilgan holda tushishni istayman.

- Nima uchun?

- Chunki o'shanda men tirikligimdayoq yeb qo'ymasliklariga ishonaman.

- Sizni tiriklayin qovura boshlasalar nima bo'lardi, mayor? - deb uni o'ygga solib qo'ydi geografiya olimi.

- Buni qarang-a, - dedi mayor, - qanday qilib o'lishingni ham bilolmay qolasan kishi.

- Har holda bilib qo'yganingiz ma'qul, Mak-Nabbs, yangi zelandiyaliklar odam go'shtini faqat qovurib yoki dudlab yeydi. Bular yaxshi tarbiya ko'rgan, pazanda odamlar. Mendan so'rasangiz, odamxo'rlarga yem bo'lish menga hech ham yoqmaydi. Hayotingni yovvoyilar qornida tugatish-a! Tuf-ey!

- Xullas, ularning qo'liga tushmasligimiz kerak ekan-da, - dedi Jon Mangls.

Y e t t i n c h i b o b

XATARLI SOHIL

Paganel keltirgan faktlarni isbotlab o'tirishning hojati yo'q edi. Yangi zelandiyaliklarning shafqatsizligiga shubha bo'lishi ham mumkin emas. Bu orollarning sohiliga chiqish xavfli edi. Lekin xavf bundan yuz marta ko'proq bo'lganda ham orolga tushilmasa bo'lmasdi. Jon Mangls tez orada pachoq-pachoq bo'lib ketadigan bu kemani iloji boricha vaqtliroq tashlab ketish zarurligini tushunar edi. Biri muqarrar va ikkinchisi ehtimol bo'lgan ikki xavfdan qaysi birini tanlash kerakligi o'z-o'zidan ma'lum emasmi? Sayohatchilarni biror kema olib ketishiga umid bog'lash qiyin, chunki «Makari» Yangi Zelandiyaga keladigan kemalar yo'lida emas. Ular odatda yo shimolroqdan - Oklendga, yo janubroqdan - Yangi Plimutga qatnaydilar, «Makari» esa xuddi shu ikkala yo'lning o'rtasida, Ika-na-Maui orolining bo'm-bo'sh sohili yonida qumga o'tirib qolgan. Bu sohillar xatarli, unga odam kamdan kam keladi. Kemalar bu yerga kelishdan qochadilar, bordi-yu shamol surib kelsa, ular bu yerdan iloji boricha tezroq qochishning payidan bo'ladilar.

– Qachon yo'lga tushamiz? – deb so'radi Glenarvan.

– Ertaga soat o'nda, – deb javob berdi Jon Mangls, – soat o'nda suv ko'tarila boshlaydi-da, solimizni sohilga surib ketadi.

Sol ertasiga, 5-fevral kuni ertalab soat sakkizlarda bitdi. Jon Mangls uni iloji boricha qulay va pishiq qilib qurishga butun kuchini sarf qildi. Langarlarni tashlab kelish uchun qurilgan sol ham odamlarni, ham anchagina oziq-ovqatni sohilga yetkazib qo'ya olmaydi, aibatta. To'qqiz mil masofani suzib o'tishga chiday oladigan pishiq sol kerak. Bunday solni faqat machtalardan qurish mumkin.

Vilson bilan Myulredi ishga kirishdilar. Ular takelajni buzib oldilar, keyin grot-machtani ham qulatlilar.

Machtaning pastki qismi, stenga va bram-stengani arralab bo'laklarga bo'ldilar. Endi solning asosiy qismlari suvga tushirilgan edi. Ularni fok-machtaning sinqlariga qo'shdilar. Bu uzun xodalarning hammasini bir-biriga arqon bilan qattiq bog'ladilar, Jon Mangls ular orasiga oltita bo'sh bochka o'rnatishni buyurdi – bu bochkalar solni suvdan sal yuqori ushlab turishlari kerak edi.

Vilson bu mustahkam fundament ustiga kema panjarasidan pol qoqdi. Shuning uchun suv sol ustida to'xtab qolmay, dengizga oqib tushib ketaveradigan bo'ldi. Solning atrofiga mahkam qilib bo'sh bochkalar bog'lab, uning sahnini kattaroq to'lqinlardan saqlaydigan bortga o'xshash to'siq hosil qilindi.

O'sha kuni ertalab Jon Mangls shamol dengizdan qirg'oqqa qarab esayotganini ko'rib, solning o'rtasiga machta o'rnatishni buyurdi. Machtani vint yordami bilan o'rnatdilar-da, unga yelkan ko'tardilar. Solni boshqarish mumkin bo'lsin uchun uning orqa tomoniga yuzi keng katta eshkak o'rnatdilar.

Shunday havsala bilan qurilgan sol to'lqinlarning zarbiga dosh berishi kerak edi. Lekin birdan shamolning yo'nalishi o'zgarib qolsa, solni boshqarib bo'ladimi, u sohilga yetib ola oladimi? Gap ana shunda edi.

Soat to'qqizda solga to Oklendgacha yetadigan oziq-ovqat ortdilar, chunki bu unumsiz o'lkada yeydigan biror narsa topishga umid bog'lab bo'lmas edi.

Olbinet kema­dagi safar vaqtida yeyish uchun olgan ovqatdan faqat ozgina go'sht konserva qolgan edi, xolos. Bu, albatta, kamlik qilar edi. Kema­dagi jo'ngina oziq-ovqatdan olishga to'g'ri keldi: undan oddiygina dengiz suxarisi bilan ikki bochka tuzlangan baliq oldilar. Bundan oshpaz juda xijolatda qoldi.

Oziqlarni dengiz suvi kirmaydigan qilib ishlangan yashiklarga joyladilar, keyin ularni solga olib tushib yo'g'on arqonlar bilan machta tagiga bog'lab qo'y­dilar. Miltiqlar bilan o'q-dorilarni xavfsiz yerga joyladilar. Baxtdan bo'lib, sayohatchilarimiz karabin va to'p­ponchalar bilan yaxshi qurollangan edilar.

Mabodo shu kungi suv ko'tarilishidayoq sohilga yetolmay qolsalar, yanagi suv ko'tarilishini kutib, langarda turish uchun langarlardan birini ham solga ortib oldilar.

Soat o'nda suv ko'tarila boshladi. Kuchsizgina shimoli g'arbiy shamol esib, dengiz yuzi jimirlab turardi.

- Hamma narsa tayyormi? - deb so'radi Jon Mangls.

- Hammasi taxt, kapitan! - deb javob berdi Vilson.

- Bo'lmasa solga! - deb qichqirdi Jon Mangls.

Elen bilan Meri Grant dag'al arqon narvondan tushib, machta tagidagi oziq-ovqat yashiklari ustiga o'tir­dilar. Hamrohlari ularning atrofiga joylashdilar. Vilson rulni qo'liga oldi. Jon Mangls arqonlar yoniga borib turdi. Myulredi solni kemaga bog'lab qo'yishgan arqonni uzib yubordi. Yelkanni ko'tardilar, sol ko'tarila­yotgan suv va shamol kuchi bilan sohilga qarab suzib ketdi.

Sohil to'qqiz mil narida. Bu masofa uncha uzoq emas; yaxshi eshkakchilar eshkak otib turgan qayiqda bu masofani bor-yo'g'i uch soat ichida bosib o'tish mumkin. Bu masofani solda suzib o'tish uchun ko'proq vaqt lozim bo'ladi, albatta. To'g'ri, agar shamol to'xtamay esib tursa, suvning shu bir ko'tarilishidayoq sohilga yetib olsa bo'ladi, lekin shamol tinib qolsa, suv pasaya boshlagach, solni yana dengizga surib keta boshlaydi, u holda langar tashlab, keyingi suv ko'tarilishini kutish lozim bo'ladi. Demak, ahvol ancha chatoq, shuning uchun Jon Mangls juda xavotirlandi.

Shunday bo'lsa ham u ishi muvaffaqiyat bilan tugashiga ishonardi. Shamol kuchayib bordi. Soat

o'ndan suv ko'tarila boshlagani uchun sohilga kunduz soat uchgacha yetib olish zarur, aks holda langar tashlab to'xtash kerak bo'ladi, bo'lmasa suv solni yana dengizga surib ketishi mumkin.

Dastlab ish yaxshi bordi. Suvosti toshlarining qora gavadasi va sarg'ish qumloq sayozliklar sekin-asta ko'tarilib kelayotgan suv to'lqinlari ostida qolib ketdi. Rulga ko'pda bo'yinsunmay ha deb boshqa taraflarga ketib qolayotgan solni suv ostiga kirib yashirinayotgan toshlar orasidan olib o'tish uchun nihoyatda hushyor va usta bo'lish kerak edi.

Soat o'n ikki bo'ldi, sol hali sohildan besh mil joyda edi. Osmonning shimoli sharq tomonida g'alati bir tog' ko'zga tashlanar edi; u boshini orqasiga tashlab qiyshanglayotgan maymunga o'xshardi. Xaritada ko'rsatilishiga qaraganda bu o'ttiz sakkizinchi parallelga joylashgan ikki ming fut balandlikdagi Pirongiya tog'i edi.

Soat o'n ikki yarimda Paganel o'z hamrohlarining diqqatini barcha toshlar suv ostida qolib ketganiga jalb qildi.

- Faqat bittasi qoldi, - dedi Elen.

- Qani? - deb so'radi Paganel.

- Huv ana, - dedi Elen, soldan bir milcha narida qorayib turgan nuqtani ko'rsatib.

- Rost-a, - dedi geografiya olimi. - Kelinglar, urilib ketmaslik uchun uning turgan joyini eslab olaylik: ha demay suv uni ham ko'mib yuboradi.

- U tog'ning shimol tarafida ekan, - dedi Jon Mangls. - Ko'zingga qara, Vilson, uni chetlab o't.

- Xo'p bo'ladi, kapitan! - deb javob berdi matros, katta rul eshkagini kuch bilan bosar ekan.

Yarim soat ichida yana yarim mil masofani suzib o'tdilar. Qiziq, haligi qora nuqta hali ham to'lqinlar ichida ko'rinib turibdi. Jon Manls unga diqqat bilan tikilardi, kapitan uni yaxshiroq ko'rish uchun Paganeldan uzun durbinini so'rab oldi. So'ngra bir minutcha o'sha narsaga qarab turib:

- U tosh emas ekan, - suv bilan birga ko'tarilib, birga tushyapti, - dedi.

- «Makari»ning biror parchasi bo'lmasin yana? - deb so'radi Elen.

- Yo'q, - dedi Glenarvan, uning bironta bo'lagini suv bunchalik uzoqqa olib ketolmaydi.

– Ey, shoshmanglar, shoshmanglar! – deb qichqirib yubordi Jon Mangls. – Bildim nimaligini – bu qayiq-kul!
– Kemadagi qayiqmi? – deb so‘radi Glenarvan.
– Ha, ser, xuddi o‘sha, lekin to‘ntarilib yotibdi.
– Bechoralar! – deb yubordi Elen. – Halok bo‘lishibdi!

– Ha, halok bo‘lishibdi, – deb uning so‘zini tasdiqladi Jon Mangls, – halok bo‘lishlari turgan gap edi-da, chunki o‘sha tungidek to‘lqinlanib yotgan dengizda, shunday qop-qorong‘u kechada suvosti toshlari orasida sog‘ qolish mumkin emasdi.

Yo‘lovchilar yaqinlashib kelayotgan shaloq qayiqqa tikilib, bir necha minut jim qoldilar. Aftidan, u qirg‘oqdan to‘rt mil joyda to‘ntarilib ketgan edi, matroslardan bittasi ham omon qolmagan bo‘lsa kerak.

– Har qalay, bu qayiq bir korimizga yarar, – deb qo‘ydi Glenarvan.

– Albatta, – deb javob berdi Jon Mangls. – O‘sha tomonga bur, Vilson.

Matros kapitanning buyrug‘ini bajardi, lekin shamol pasaya boshlagani uchun sol qayiq yoniga faqat soat ikkida yetib bordi.

Solning old tomonida turgan Myulredi qayiqni epchillik bilan bort chekkasiga tortib oldi.

– Bo‘shmi? – deb so‘radi Jon Mangls.

– Ha, kapitan, – deb javob berdi matros. – Qayiq teshik, bizga xizmat qila olmaydi.

– Demak, yaramas ekan-da? – deb so‘radi Mak-Nabbs.

– Yaramaydi, – dedi Jon Mangls. – O‘tindan boshqa narsaga ishlatib bo‘lmaydi.

– Esiz, – deb qo‘ydi Paganel. – Unda biz Oklendga yetib olgan bo‘lardik-a!

– Nima ham qilardik, janob Paganel, ko‘nishga majburmiz, – dedi Jon Manls. – Dengiz mana bunday to‘lqinlanib turganda bu shaloq qayiqdan o‘zimizning solimiz ham tuzuk. Ko‘rdingizmi, salgina zarb bilan to‘kilibdi-qo‘yibdi... Ser, xullas, bu yerda bizning boshqa qiladigan ishimiz yo‘q.

– Ketdik bo‘lmasa, Jon, – dedi Glenarvan.

– To‘g‘ri sohilga bur, Vilson! – deb buyurdi yosh kapitan.

Suv ko‘tarilishi yana bir soat davom etishi kerak edi. Bu vaqt ichida yana ikki mil masofani bosib

o'tishga ulgurдилar. Lekin shu payt shamol deyarlik tinib qoldi: endi u sohil tarafdан esa boshlaydiganga o'xshardi. Sol to'xtadi. Lekin ko'p o'tmay, pasaya boshlagan suv uni ochiq dengizga surib keta boshladi. Bir sekundni ham qo'ldan berish mumkin emas.

– Langarni tashla! – deb qichqirdi Jon Mangls.

Tayyor turgan Myulredi darhol langarni tashladi. Sol yana ikki sajenga orqaga qaytdi, keyin uni tarang tortilgan arqon ushlab qoldi. Suvning keyingi ko'tarilishi kechqurun soat o'nda boshlanishi kerak edi, Jon Mangls solda kechasi yo'l bosishga qarshi bo'lgani uchun sayohatchilar ertalab soat oltigacha shu yerda qolishlari kerak edi. Ular sohildan uch mil kelar-kelmas yerda to'xtagan edilar.

Dengizda katta-katta to'liqlar yurib turar, ular sohil tomonga o'tib ketayotganday tuyulardi. Glenarvan kechasi bilan shu yerda qolishlarini eshitgach, Jon Manglsdan sohilga yetib olish uchun ana shu to'liqlardan foydalansa bo'lmaydimi, deb so'radi.

– Sizni optik aldov yanglishtiryapti, ser, – deb javob berdi unga yosh kapitan. – Bu to'liqlar sizga sohil tomonga surilayotgandek tuyulyapti, xolos: aslida esa ular hech qayoqqa surilayotgani yo'q. Shu to'liqlar ustiga bir parcha yog'och tashlang, suv kamaya boshlamaguncha u hech qayoqqa ketmaydi. Yo'q, ser, biz faqat sabr-toqat bilan kutishimiz kerak.

– Ovqat yeb olishimiz ham kerak, – deb qo'shib qo'ydi mayor.

Olbinet oziq-ovqat solib qo'yilgan yashikdan darrov bir necha bo'lak qoq go'sht bilan ozgina suxari oldi. Oshpaz ovqatning xili kamligidan xijolatda edi, ammo hamma zo'r ishtaha bilan ovqatlandi, sol qattiq-qattiq chayqalib turgani uchun ko'ngillari uncha ovqat tusamaganiga qaramay, sayohatchi ayollar ham ko'pchilikdan chetda qolmadilar.

Shuni ham aytish kerakki, kuchli to'liqlar kelib urishi natijasida langarga bog'langan arqon ushlab turgan solning qattiq-qattiq chayqalishi kishini juda holdan toydirar edi. Sol qisqa, lekin shitob bilan urilayotgan to'liqlar zarbi ostida sakrab-sakrab ketardi; sol suvosti toshlariga ham bunday qattiq urilmas. Ba'zan u haqiqatan ham toshga kelib urilgandek bo'lardi. Arqon siltab-siltab tortardi, shuning uchun yosh kapitan uni har yarim soatda bir sajendan uzay-

tirib turdi. Agar shunday qilinmasa, arqon shartta uzilib, suv solni ochiq dengizga surib ketishi mumkin.

Jon Manglsning xavotirligini tushunish oson: arqon minut sayin uzilib ketishi yo langar joyidan qo'zg'alib qolishi mumkin. Har ikki holatda ham sayohatchilar qiyin ahvolda qolgan bo'lar edilar.

Kech bo'ldi. Nurning sinishi natijasida cho'ziq ko'rinayotgan qip-qizil quyosh gardishi ufqning nariyog'ida g'oyib bo'lay deb turibdi. G'arb tomonda uzoq-uzoqlarda suv yuzi eritilgan simobday yaltirardi. U tomonda osmon, dengiz va hali ham joyidan qimirlamay turgan «Makari»dan boshqa hech narsa ko'rinmasdi.

Birpas g'ira-shira bo'lib turdi-yu, birdan qorong'u tushib, shimol va sharq tomonda ufqqa tutashib turgan qirg'oq qorong'ulik ichida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Kema halokatiga uchragan sayohatchilarimiz bu tor solda, bunday qop-qorong'u zimistonda qanday siqilganlarini aytmayisizmi! Ba'zilarini yomon tushlar ko'rishga olib boradigan og'ir mudroq bosdi, ba'zilari esa kechasi bilan mijja qoqmay chiqdilar. Tong otganda hammalari juda ezilib ketgan edilar.

Yana suv ko'tarila boshladi, yana ochiq dengizdan shamol qo'zg'aldi. Ertalab soat olti. Vaqt g'animat – bir minutni ham bekor o'tkazib bo'lmaydi. Jon Mangls yo'lga tushishga tayyorlana boshladi, langarni ko'tarishni buyurdi. Lekin langarning ilmoqlari arqonning ha deb siltab tortaverishi natijasida qum ichiga chuqur o'rnashib qolgan edi. Brashpil bo'lmagani uchun Vilson bir amallab bunyodga keltirgan chig'ir yordami bilan ham langarni tortib olib bo'lmadi.

Yarim soatcha urinishgani bekor ketdi. Nihoyat, tezroq yo'lga chiqish payida bo'lgan Jon Mangls arqonni uzib tashlashni buyurdi. Langardan ajrar ekan, yosh kapitan bu safargi suv ko'tarilishida ham sohilga yetib ololmasalar, bir joyda to'xtab turish imkoniyatidan mahrum bo'lar edi. Lekin Jon Mangls ortiq kutib o'tirishni istamas edi, shuning uchun bolta bilan arqonni shartta uzib, solni shamol bilan oqim ixtiyoriga topshirdi. Oqimning tezligi soatiga ikki mil edi.

Yelkanni ko'tardilar, sol sekin-sekin qirg'oq tomonga jila boshladi; yer ko'tarilib kelayotgan quyosh nurlari ostida hali aniq ko'rinmasdi.

Suvosti toshlarini ustalik bilan chetlab o'tib ketdilar. Lekin dengiz tomondan esib turgan shamol tez-tez sekinlab qolar, sol nihoyatda sekin jilib borayotganidan, go'yo joyidan qimirlamayotganga o'xshardi. Qanchadan qancha xavf-xatarlarga uchrash mumkin bo'lgan Yangi Zelandiya sohiliga yetib olish ana shunday mashaqqat bo'ldi!

Har holda, soat to'qqizda qirg'oqqa yetib olish uchun bir milcha joy qoldi. Tik sohilga borib urilayotgan to'lqinlar ko'piklanib yotardi. Sohilga chiqish uchun qulay joy topish kerak. Shamol tobora susayib borib, oxiri taqqa to'xtadi. Yelkan xaltadek osilib qoldi va machtaga shalp-shalp urila boshladi. Jon uni tushirishni buyurdi. Endi solni qirg'oqqa faqat ko'tarilayotgan suv surib borar, uni boshqarishning iloji yo'q edi. Buning ustiga katta-katta suvosti o'tlari solning suzishini battar sekinlashtira boshladi.

Jon ertalab soat o'nda sol deyarlik jilmay qolgani ko'rди, qirg'oqqa yetib olish uchun esa yana uch kabeltovcha masofa bor. Langar yo'qligi uchun solni to'xtatishning iloji yo'q. Nahotki, pasaya boshlagan suv ularni yana ochiq dengizga surib ketsa?

Jon Mangls mushtini qisib, sira yetib bo'lmayotgan quruqlikka g'azab bilan qarab turar edi.

Baxtdan bo'lib – endi bu haqiqatan ham baxt edi – sol bir narsaga urildi-da, to'xtab qoldi. U sohildan yigirma besh sajen joyda sayoz yerga duch kelib to'xtagan edi.

S a k k i z i n c h i b o b

SAYOHATCHILARIMIZ KELIB QOLGAN MAMLAKATNING HOZIRGI KUNI

Glenarvan, Robert, Vilson, Myulredi o'zlarini suvga tashladilar. Sol arqon bilan eng yaqin toshlarga bog'landi. Sayohatchi ayollarni qo'lma-qo'l uzatib, qirg'oqqa olib chiqdilar, ularning etagi ham ho'l bo'lmadi. Ko'p o'tmay, qurol-yaroq va oziq-ovqatlarni olib, hammalari ularning yuragiga shuncha g'ulg'ula solgan Yangi Zelandiya qirg'og'iga chiqib oldilar.

Glenarvan sohil bo'ylab darhol Oklendga yo'l olsak derdi, lekin ertalabdan oq osmonni qop-qora bulutlar

o'rab ola boshlab, sayohatchilar sohilga tushganlarida, ya'ni ertalabki soat o'n birlarda jala quyib berdi. Yo'lga chiqib bo'lmadi. Biror boshpana axtarishga to'g'ri keldi.

Vilson bazalt qoyalari orasidan dengiz to'lqinlari o'yib ochgan bir g'or topdi, sayohatchilar oziq-ovqat va qurol-yaroqlar bilan o'sha g'orga joylashib oldilar. G'orda bir vaqtlar dengiz to'lqinlari surib kelgan ancha-muncha quruq suv o'tlari bor ekan. Ular sayohatchilarga tayyor to'shak edi - o'sha quruq o'tlar bilan qanoatlanib qo'ya qoldilar. G'orga kiraverishda shox-shabbalar sochilib yotgan ekan; gulxan yoqib, hammalari gulxan atrofida kiyim-boshlarini qurita boshladilar.

Jon Mangis bunday qattiq jala uzoq davom etmas, degan umidda edi. U yanglishdi: jala sira tinmay, bir necha soat quydi, choshgohga yaqin unga yana nihoyatda qattiq shamol qo'shilishdi. Bunday ahvol har qanday odamning ham xunobini oshirib yubora olardi. Nima ham qilib bo'lardi deysiz? Hatto ot-ulovi ham bo'lmagan odamlarning bunday ob-havoda yo'lga chiqishi aqlga to'g'ri kelmagan ish bo'lardi. Buning ustiga Oklendga yetib olish uchun bir necha kun yo'l yurish kerak, shuning uchun shaharga o'n ikki soat kechroq yetib borilsa hech narsa qilmaydi, ishqilib, yerliklar uchrab qolmasa bo'lgani, albatta.

Majburiy ravishda to'xtab qolganlari bu g'orda hozir Yangi Zelandiyada bo'layotgan urush to'g'risida gap ochildi. Lekin «Makari»da halokatga uchragan sayohatchilarimiz sohilga chiqib olishgan vaqtda bu orollardagi ahvol naqadar jiddiy bo'lganini yaxshi tushunish uchun Ika-na-Maui orolida boshlanib ketgan qonli urushning tarixini bilish kerak.

1642-yilda Kuk bo'g'oziga Avel Tasman kelib ketganidan so'ng bu sohillarga yevropaliklarning kemalari tez-tez kelib turadigan bo'ldi, lekin bu yangi zelandiyaliklarning o'z mustaqil orollarida ozod yashayverishlariga xalaqit bermas edi. Bironta Yevropa davlati hali Tinch okeanda juda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan bu arxipelagni bosib olishni o'ylamagan edi. Ba'zi missionerlar, ayniqsa, anglichan missionerlar yangi zelandiyalik qabila boshliqlarini Angliya hukmronligiga bo'ysunishinglar lozim, degan fikrga

o'rgatmoqchi bo'lar edilar. Missionerlar o'z maqsadlariga erishdilar: rosa boplab aldangan boshliqlar homiylik qilishni so'rab, qirolicha Viktoriya nomiga yozilgan xatga imzo qo'ydilar. Biroz uzoqni ko'ra olgan qabila boshliqlari buning ahmoqlik ekanini tushunar edilar, ana shunday boshliqlardan biri qirolichaga yozilgan xat tagiga o'zining tatuировka belgilarini chizar ekan, bashorat qilib: «Biz vatanimizdan ajraldik. Endi u bizniki emas. Ko'p o'tmay uni ajnabiylar bosib oladi, biz esa ularning quli bo'lib qolamiz» degan edi.

U to'g'ri aytgan edi. 1840-yil 29-yanvarda Ika-na-Maui orolining shimolidagi orollar qo'ltig'ida «Gerold» degan uch machtali ingliz harbiy kemasi paydo bo'ldi. Kema kapitani Gobson Korora-Reka qishlog'iga kelib tushdi. Yerliklar u yerdagi protestantlar cherkoviga majlisga chaqirildi. Bu yerda kapitan Gobson ularga ingliz qirolichasining yorlig'ini o'qib berdi, bu yorliqda qirolicha Yangi Zelandiyani o'z himoyasi ostiga olishga rozi ekanini bildirar edi.

1841-yil 5-yanvarda Para qishlog'ida ingliz rezidenti yangi zelandiyaliklarning eng katta qabila boshliqlarini o'z huzuriga chaqirtirdi. Bo'lib o'tgan yig'ilishda xuddi o'sha kapitan Gobson ularni ingliz qirolichasiga bo'ysunish zarurligiga da'vat qilib, qirolicha Yangi Zelandiyani himoya qilish uchun askar va kemalar yuborganini ko'rsatib o'tdi-da, sizlarning huquqlaringiz daxlsiz qoladi, sizlar mutlaqo ozod yashayverasizlar, deb ta'kidladi. Lekin kapitan Gobson o'z so'zini, sizlar o'z yerlaringizni ingliz qirolichasiga sotishingiz kerak, deb tugatdi.

Qabila boshliqlaridan ko'pchiligi ingliz qirolichasining himoyasiga o'tish juda qimmatga tushar ekan, deb bu homiylikdan voz kehdilar. Lekin katta-katta va'da hamda sovg'a-salomlar yovvoyilarga kapitan Gobsonning dabdabali so'zlaridan yaxshiroq ta'sir qildi, natijada Angliyaning homiyligi barcha shartlari bilan qabul qilindi.

1840-yilgi o'sha mashhur kundan to «Dunkan» Klayd qo'ltig'idan chiqquncha o'tgan vaqt orasida Yangi Zelandiyada nimalar bo'lgan edi?

Dunyoda Jak Paganel bilmaydigan narsa yo'q edi, o'zi bilgan narsalarni esa u hamrohlariga jon deb aytib berardi.

- Missis, - deb Elenga murojaat qildi u, - men ilgari aytgan gapimni yana takrorlamoqchiman: yangi zelandiyaliklar jasur xalq bo'ladi. Ular Angliyaning talablariga yon berib, ko'p o'tmay o'z yerlarining har bir qarichini inglizlardan himoya qila boshladilar. Yangi Zelandiyaning erkaklari mag'rur va botir odamlar bo'ladi. Ularning ba'zilari baland bo'yi, silliq sochli bo'ladi, ba'zilari esa bo'yi pastroq, yag'rini keng, mulatlarga o'xshagan, lekin hammasi ham baquvvat, takabbur va jangari bo'ladilar. Bir vaqtlar ularning Xixi degan mashhur boshlig'i bo'lgan. Bulardan xabardor bo'lganingizdan keyin siz Ika-na-Maui orolida inglizlarga qarshi olib borilayotgan urush qachonlardan beri davom etib kelayotganiga hayron bo'lmaysizlar. Bu yerda vaykatlar deb ataladigan ajoyib bir qabila bor, Vilyam Tomson ana shu qabilani o'z ona yerlarini himoya qilishga otlantirgan.

- Inglizlar hozir Yangi Zelandiyadagi asosiy punktlarga xo'jayin bo'lib olmaganmilar, axir? - deb so'radi Jon Mangls.

- To'g'ri, qimmatli Jon, - deb javob berdi Paganel. - 1840-yilda kapitan Gobson Yangi Zelandiyani bosib olib, unga gubernator bo'lganidan beri bu orollarda 1862-yilgacha to'qqiz koloniya vujudga keldi, ularning hammasi ham juda qulay yerlarda joylashgan. O'sha koloniyalardan to'qqiz viloyat tashkil etildi: shimoliy orolda to'rt viloyat - Oklend, Taranaki, Vellington, Gauks viloyatlari, janubiy orolda esa besh viloyat - Nelson, Malboro, Kenterberi, Otago va Sautlend viloyatlari. 1864-yilning 30-iyunigacha bu viloyatlarning aholisi hammasi bo'lib bir yuz sakson ming uch yuz qirq olti kishi hisoblanardi. Ko'p yerlarda muhim savdo shaharlari paydo bo'ldi. Aminmanki, Oklendga yetib borganimizda bu janub Korinfining xush manzaraligini ko'rib lazzatlanmay qolmaysiz. U Tinch okean suvlari ustiga solingan ko'prikka o'xshab ketadigan uzun ensiz bo'yinga joylashgan. Oklend aholisi hoziroq o'n ikki ming kishi hisoblanadi. G'arbiy sohilda Yangi Plimut, sharqiy sohilda Agururi, janubiy sohilda esa Vellington shaharlari qad ko'tardi; ularning hammasi ham savdosotiq rivojlanayotgan, gullab-yashnayotgan shahar hisoblanadi. Janubiy orolga - Tavai-puna-muga kelganda esa undagi qaysi shaharni yaxshiroq deyishni ham

bilmay qolasiz: bog'lar qo'yniga ko'milgan Nelsonni yaxshiroq desammikin, Fransiyadagi singari vinosi bilan dong chiqargan Monpeleni yaxshiroq desammikin, yo Kuk bo'g'ozi bo'yiga tushgan Piktonni yaxshiroq desammikin yoki butun dunyodan oltin axtaruvchilar kelib turadigan boy Otogo viloyatidagi Kraystchyorch, Inverkargil va Dendin shaharlarini yaxshiroq desammikin deb o'ylab qolasiz. Shunisiga e'tibor beringlarki, do'stlarim, gap yovvoyilarning oilalari turadigan bir necha chayla to'g'risida emas, xuddi Parij yoki Londondagidek portlari, soborlari, banklari, doklari, botanika bog'lari, muzeylari, akklimatizatsiya jamiyatlari, gazetalar, kasalxonalar, moddiy yordam jamiyatlari, falsafa institutlari, mason jamiyatlari, klublari, xor aytish jamiyatlari, teatrlari, butun jahon miqyosidagi vistavkalar tashkil qilish uchun qurilgan saroylari bo'lgan haqiqiy shaharlar ustida boryapti. Agar yanglishmayotgan bo'lsam, 1865-yilda, qolaversa, xuddi men hozir sizlarga shularni hikoya qilib berayotganimda bu yerda, shu mamlaktada butun dunyoning sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan buyumlar vistavkasi ochilgan bo'lishi kerak.

– Yovvoyilar bilan urush bo'lib turgan vaqtda-ya? – deb so'radi Elen.

– Inglizlarning asablari mustahkam bo'ladi, – deb javob berdi Paganel. – Ular ayni vaqtda urush ham olib boraveradilar, vistavkalar ham tashkil qilaveradilar. Bu ularni zarracha ham xijolat qilmaydi. Ular yangi zelandiyaliklarning o'qlari ostida temiryo'llar ham quraveradilar. Oklend viloyatida ikkita temiryo'l shaxobchasi qo'zg'olonchilar ishg'ol qilib turgan eng muhim punktlar orqali qurilyapti. Garov o'ynashim mumkin, o'sha yo'llarni qurayotgan ishchilar yerliklar bilan pirovozlarda turib otishadilar.

– Lekin bu uzundan uzoq urush qanday natijalar berdi? – deb so'radi Jon Mangls.

– Bizning Yevropadan yo'lga chiqqanimizga olti oy bo'lay deb qoldi, albatta men jo'nab ketganimizdan keyin nima bo'lganini bilmayman, – deb javob berdi Paganel, – men faqat Avstraliyadan o'tayotganimizda «Meliboro» va «Seymur» gazetalarida bosilgan ba'zi xabarlarinigina bilaman, xolos. Esimda bor, u vaqtda Ika-na-Maui orolida shiddatli janglar bo'layotgan edi.

- Bu urush qachon boshlangan, o'zi? - deb so'radi Meri Grant.

- Aziz miss, siz: «bu urush qachon qaytadan qo'zg'olgan» deb so'ramoqchi bo'ldingiz shekilli, - deb javob berdi Paganel, - chunki birinchi marta qo'zg'olon 1845-yilda ko'tarilgan. Xo'sh, bu urush 1863-yilning oxirida qaytadan qo'zg'aldi. Lekin maorilar bungacha ingliz istibdodini ag'darish uchun ancha vaqt tayyorgarlik ko'rdilar. Yerliklar xalq partiyasi saylovlarda maori boshliqlaridan biri bo'lgan Potatau nomzodini o'tkazish uchun g'ayrat bilan ish olib bordi. Bu partiya o'sha qari qabila boshlig'ini qirol qilib, uning Vaykato va Vaypa daryolari oralig'iga o'rnamashgan qishlog'ini yangi dalvatning poytaxti qilib tayinlamoqchi edi. Potatauning o'zi uncha dovyurak bo'lmasa ham, juda makkor chol edi, lekin uning negatixaxua qabilasidan bo'lgan aqlli va g'ayratli bosh ministri bor edi, bu qabila ajnabiylar istilosi boshlanishidan oldin Oklend bo'yida yashardi. Vilyam Tomson degan ana shu ministr ozodlik urushining joni bo'lib qoldi. U maori qabilalaridan juda ustalik bilan jangovar otryadlar tuzdi. Uning ta'siri bilan Taranakidan bo'lgan bir boshliq tarqoq qabilalarni milliy g'oya atrofiga to'plab birlashtirdi. Vaykato viloyatidan bo'lgan boshqa bir qabila boshlig'i Yer ligasi tashkil qildi, bu liga yerliklarni inglizlarga yer sotmaslikka da'vat qilardi. Ingliz gazetalari bu tashvishli alomatlariga diqqatni torta boshladilar; hukumat bundan juda tashvishga tushib qoldi. Qisqasi, odamlar ruhiy jihatdan uyg'ongan, qo'zg'olon pishib qolgan edi. Qo'zg'olon lov etib alanganib ketishi uchun faqat bir uchqun yetishmasdi, yoki, to'g'rirog'i, yangi zelandiyaliklar bilan inglizlarning manfaatlari to'qnash kelmay turgan edi, xolos.

Glenarvan endigina:

- Bu to'qnashish?.. - deb so'ramoqchi bo'lgan edi Paganel.

- ... 1860-yilda Ika-na-Maui orolining janubi g'arbiy sohilida, Taranaki viloyatida yuz berdi, - deb javob berdi. - Bir avstraliyalikning Yangi Plimut yaqinida olti yuz akr yeri bor ekan. U o'sha yerini ingliz hukumatiga sotadi. Yer o'lchovchilar sotilgan joyni o'lchagani kelganlarida, qabila boshlig'i Kingi bunga norozilik bildiradi, keyin esa o'sha janjalli olti yuz akr yerning

atrofiga yog'och devor bilan o'rab, mustahkamlangan lager quradi. Bir necha kundan keyin polkovnik Gold o'z otryadi bilan kelib bu qal'ani kuch bilan oladi. Xalq urushiga ana o'sha kuni birinchi signal beriladi.

- Maorilar juda ko'pmi o'zi! - deb so'radi Jon Mangls.

- Keyingi yuz yil ichida ular kamayib ketdi, - deb javob berdi geografiya olimi. - 1769-yilda Kuk ularning soni to'rt yuz ming kishiga yetadi deb belgilagan edi. 1845-yili protektoratning yerlik aholisi hisobga olinganda esa ularning soni bir yuz to'qqiz ming kishi chiqqan. Hozirgi vaqtda kasalliklar «oqartuvchi» inglizlarning aroxo'rlik tarqatishi va ularni shafqatsiz ravishda qirishiga qaramay, ikkala orolda to'qson ming yerlik aholi bor, shulardan o'ttiz mingi jangchilar, mening fikrimcha, bular ingliz qo'shinlarini yana ancha vaqtgacha mag'lubiyatga uchratib yuradilar.

- Qo'zg'olon shu vaqtgacha muvaffaqiyatli bordimi? - deb so'radi Elen.

- Ha. Yangi zelandiyaliklarning mardligi hatto inglizlarning o'zini ham necha marta qoyil qoldirgan. Ular partizanlar urushi olib boradilar, rasmiy qo'shinning kichik-kichik otryadlariga to'satdan hujum qiladilar, ko'chib kelgan ingliz xonadonlarining uy-joylarini talab ketadilar. General Kameron har bir buta ostini diqqat bilan tintib chiqish lozim bo'lgan bu o'lkada o'zini erkin his qilmas edi. 1863-yilda, uzoq davom etgan qonli kurashdan keyin maorilar Vaykato daryosining yuqorisidagi tik tepaliklar etagida, uch qator qilib qurilgan mudofaa istehkomlari nariyog'ida turar edilar. Mahalliy agitator pakekaslar, ya'ni oq tanlilar ustidan g'alaba qozonishni va'da qilib, barcha aholini o'z qadrdon yerlarini mudofaa qilishga chaqirardilar. Yerliklarga qarshi general Kameron boshchiligida uch ming ingliz soldati jang qilardi; yerliklar kapitan Sprentni vahshiylarcha qiynab o'ldirganlaridan keyin inglizlar ularga sira shafqat qilmay qo'ydilar. Qonli janglar bo'lib turdi. Ba'zi janglar o'n ikki soatlab davom etardi, lekin maorilar yevropaliklarning zambarak o'qi yog'dirib turishlariga ham qaramay, sira chekinmas edilar. Bu erksevar, jasur armiyaning asosi Vil-yam Tomson boshchiligidagi vaykato degan nihoyatda yovuz qabila edi. Yerliklarning bu lashkarboshisi dastlab ikki yarim ming jangchiga boshchilik qildi, ke-

yin u sakkiz ming jangchiga boshchilik qila boshladi, chunki Shongi va Xeki degan atoqli qabila boshliqlari kelib qo'shildi. Bu ozodlik urushida erkaklarga xotinalar ham katta yordam berdilar. Lekin haq ish doim ham g'alaba qozonavermaydi. Uzoq davom etgan qonli janglardan keyin general Kameron har holda Vaykato okrugini ingliz hukmdorlariga bo'ysundira oldi, lekin maorilar qochib ketib, okrug kimsasiz va bo'm-bo'sh bo'lib qolgandi. Bu urush vaqtlarida kishini hayron qoldiradigan qahramonona ishlar bo'lardi. Masalan, Orakan qal'asida mingta ingliz tomonidan qurshab olingan to'rt yuzta maori qal'ada na suv, na oziq-ovqat yo'qligiga qaramay, taslim bo'lishdan bosh tortdilar. Kunlardan bir kun choshgoh payti ular qirqinchi polk soldatlari orasidan o'zlariga qonli yo'l ochib o'tdilar va botqoqlikda g'oyib bo'ldilar.

- Bu qonli urush oxiri Vaykato okrugini bo'y-sundirish bilan tugadimi? - deb so'radi Jon Mangls.

- Yo'q, do'stim, tugagani yo'q, - deb javob berdi Paganel. - Inglizlar Taranaki viloyatiga borib, Vilyam Tomson to'xtagan Matantava qal'asini qurshab olishga qaror qildilar. Albatta, bu qal'ani olishda ular ko'p talofat ko'rishlari turgan gap. Esimda, Parijdan jo'nab ketishimdan salgina oldin gazetalardan taranga qabilasi general va gubernatorga bo'ysunishga rozi bo'libdi, ular esa yerning to'rtidan uch qismini yerliklarga qoldiribdi deb o'qigan edim. O'sha gazetalarda qo'zg'olonning bosh rahbari Vilyam Tomson ham taslim bo'lishga tayyorlanyapti, degan xabarlar bor edi. Lekin Avstraliya gazetalarida men buni tasdiqlaydigan bironta xabar o'qiganim yo'q - aksincha, u gazetalar-dagi xabarlarga qaraganda, yangi zelandiyaliklar bundan keyin ham qarshilik ko'rsatishga g'ayrat bilan tay-yorgarlik ko'rmoqdalar.

- Demak, siz bu kurash Taranaka va Oklend viloyatlarida bo'ladi deb o'ylaysizmi, Paganel? - deb so'radi Glenarvan.

- Ha, shunday bo'lsa kerak deb o'ylayman.

- Ulardan biri «Makari» halokatga uchragandan keyin biz kehib qolgan xuddi mana shu viloyat, a?

- Xuddi shu viloyat. Biz Kavia gavanidan nihoyati bir necha mil joyda sohilga chiqdik, menimcha, u yerda hozir ham maorilarning milliy bayrog'i hilpirab turgan bo'lsa kerak.

- Bo'lmasa, shimol tomonga yursak, to'g'ri qilgan bo'lar ekanmiz, - dedi Glenarvan.

- Albatta, - deb unga qo'shilishdi Paganel. - Yangi zelandiyaliklar yevropaliklarni, ayniqsa, inglizlarni yomon ko'radilar. Shuning uchun ularning qo'lga tushmaslikka harakat qilamiz.

- Ehtimol, biz ingliz qo'shinining biror otryadiga duch kelarmiz, - dedi Elen. - Katta baxt bo'lardi-da!

- Ehtimol, - dedi geografiya olimi, - lekin bunga mening ishonchim kam. Alohida ingliz otryadlari har bir buta, har bir shox orasida usta merganlar yashirib o'tiradigan bu yerlarda yurishni uncha xush ko'rmaydilar. Men ana shuning uchun qirqinchi polk soldatlari himoyasiga o'tishni umid qilmayman. Ammo Oklendga boradigan yo'limiz o'tadigan g'arbiy sohilda bir necha missiya bor, biz o'sha missiyalarda to'xtab o'tishimiz mumkin. Men hatto Goxstetter Vaykato daryosi bo'ylab o'tgan yo'lga chiqib olishni umid qilib turibman.

- U kim, sayohatchimi? - deb so'radi Robert Grant.

- Ha, o'g'lim, u 1858-yilda «Navarra» degan Avstraliya fregatida butun dunyoni sayohat qilgan ilmiy ekspeditsiyaning a'zosi.

- Janob Paganel, - yana so'radi buyuk geografik kashfiyotlar to'g'risidagi fikr miyasiga kelishi bilanoq ko'zlari chaqnab ketgan Robert, - Avstraliyani tekshirgan Byork va Styuart singari Yangi Zelandiyani tekshirgan sayohatchilar ham bo'lganmi?

- Bir necha sayohatchi tekshirgan, o'g'lim: masalan, doktor Guker, professor Brizar, tabiiyotshunos Diffenbax va Yulius Gast. Ulardan ba'zilari sarguzasht axtarib hayotidan ajragan bo'lsa ham, Avstraliya va Afrikani tekshirgan sayohatchilardek mashhur emas.

- Siz ularning sayohati tarixini bilasizmi? - deb so'radi yosh Grant.

- Bo'lmaman-chi! Ko'rib turibman, og'aynim, o'sha sayohatchilar to'g'risida men bilgan narsalarni bilishga qiziqib turibsan, hoziroq aytib berishim mumkin.

- Rahmat, janob Paganel, qulog'im sizda.

- Biz ham eshitamiz, - dedi Elen. - Yomon havo il-mimizni oshirishga birinchi marta majbur qilayotgani yo'q. Shuning uchun, janob Paganel, hammamizga hi-koya qilib berasiz.

- Xizmatingizga hozirman, - deb javob berdi geografiya olimi. - Lekin hikoyam uzun emas. U Avstraliyada minotavr¹ bilan yakkama-yakka jang qilgan qahramon sayyohlar to'g'risidagi hikoyaga o'xshagan bo'lmaydi. Yangi Zelandiya juda kichkina mamlakat. Shuning uchun men hozir hikoya qilib bermoqchi bo'lgan odamlar sayohatchilar emas, balki oddiy baxtsiz hodisalar vaqtida halok bo'lgan turistlar, xolos.

- Ismlarini ayting, - deb iltimos qildi Meri Grant.

- Geometr Uitkomb va Charlton Govit, bu Vimmeri daryosi bo'yida turganimizda aytib berganim o'sha mashhur ekspeditsiya vaqtida halok bo'lgan Byorkni qidirib borgan Govit. Uitkomb bilan Govit ikkovi ikki ekspeditsiyaga boshchilik qilib, Tavai-puna-mu orolini tekshiradilar. Ularning ikkalasi 1863-yilning boshida Kenterberi viloyatining shimolidagi tog'lardan yo'l topish maqsadida Kraystchyorchedan yo'lga chiqadilar. Govit viloyatning shimoliy chegarasida tog' tizmasidan oshib o'tib, Bryuner ko'li bo'yiga o'zining shtabkvartirasini o'rnatadi. Uitkomb esa Rakaya vodiysidan Tindal tog'ining sharqiy yonbag'riga o'tadigan yo'l topadi. Uitkombning Yakov Luper degan hamrohi bor edi, u keyinchalik bu sayohat to'g'risida va uning qanday falokat bilan tugagani to'g'risida «Littlton Tayms» gazetasida hikoya qilib berdi. Agar yanglishmayotgan bo'lsam, bu ikkala sayohatchi 1863-yilning yigirma ikkinchi aprelida Rakaya daryosi boshlanadigan muzlikda edilar. Bu yerdan ular tog' cho'qqisiga chiqib, yangi tog' yo'llari axtara boshlaydilar. Ertasiga Uitkomb bilan Luper holdan toyib va sovuq qotib, qor yog'ib turgan paytda dengiz sathidan to'rt ming fut balandlikda dam olgani to'xtaydilar. Ular har tarafdin tik qoyalar bilan o'rab olingan vodiya yetti kun daydib yuradilar. Yomg'ir yog'ib turgani uchun ular ko'pincha gulxan ham yoqolmaydilar, ba'zan och ham qoladilar. Ular o'zlari bilan olib ketgan qand siropga, suxarilari esa xamirga aylanadi, kiyim-boshlari shalabbo ho'l bo'lib ketadi, o'zlariga har xil hasharotlar tinchlik bermaydi. Ular bir kunda ko'p deganda uch mil yo'l yurishadi, lekin nihoyati ikki yuz yard yo'l yurishgan kunlar ham bo'lgan. Nihoyat, yigirma to'qqizinchi aprelda ular bir maorining kulbasiga kelib qoladilar; kulba yaqinidagi

¹ *Minotavr* - grek mifologiyasida tasvirlangan gavdasi odamning gavdasiga, kallasi ho'kizning kallasiga o'xshagan maxluq.

bog'dan bir necha dona kartoshka topadilar. Bu yerda ikkala do'st oxirgi marta birga ovqat yeydilar. Kechqurun ular Taramakau daryosining dengizga quyiladigan yeriga yaqin joydan dengiz bo'yiga chiqadilar. Shimol tarafga, Grey daryosining bo'yiga borish uchun o'ng sohilga o'tish kerak edi. Taramakau keng va chuqur daryo. Luper ancha qidirishdan keyin ikkita teshik qayiqcha topadi. U qayiqchlarni qo'lidan kelganicha tuzatgan bo'ladi, keyin ikkalasini bir-biriga bog'laydi. Kechga yaqin ikki sayohatchi qayiqchlarga o'tirib, daryodan suzib o'ta boshlaydilar. Ular daryoning o'rtasiga yetar-yetmas qayiqchlarga suv to'ladi. Uitkomb o'zini daryoga tashlab, so'l qirg'oqqa qaytadi. Yakov Luper suzishni bilmas edi, shuning uchun o'z qayig'iga yopishib oladi. Ana shu uni qutqaradi, lekin u juda ham qo'rqib ketadi. Daryo bechorani toshlarga olib borib uradi. To'lqin uni ko'mib yuboradi, ikkinchi bir to'lqin yana suv yuziga olib chiqadi. Suv uni toshdan toshga urib boraveradi. Qop-qorong'u tun kiradi. Chelakdan quygandek yomg'ir yog'ib beradi. A'zoyi badani qonga belangan, rosa shalabbo bo'lgan Luperni daryo bir necha soat oqizib boradi. Nihoyat, qayiqcha sohilga borib uriladi va hushidan ketgan Luperni sohilga chiqarib tashlaydi. Ertalab o'ziga kelgan Luper ariq yoqasiga emaklab keladi-da, suv o'zini daryoga tushgan joylaridan bir mil joyga oqizib kelganini biladi. Keyin o'rnidan turib, daryo yoqalab ketadi va ko'p o'tmay, bechora Uitkombni ko'rib qoladi – u boshi va gavdasi suv o'tlariga o'ralashib, o'lib yotgan ekan. Luper qumni qo'li bilan qazib, o'rtog'ini o'sha yerga ko'madi. Ikki kundan keyin ochidan o'layozgan Lupreni allaqanday mehmondo'st maorilar topib olib, boshpana beradilar – yerliklar orasida shundaylari ham bor – to'rtinchi mayda esa u Charlton Govit manzil qurib to'xtagan Bryuner ko'li bo'yiga yetib keladi. Shuni ham qo'shib qo'yayki, olti haftadan keyin Govit ham xuddi baxtsiz Uitkomb singari halok bo'ladi.

– Qiziq, – dedi Jon Mangls, – aftidan, bir ish ketidan yurgan sayohatchilar qandaydir bir yo'l bilan bir-biriga bog'langan bo'ladi. O'sha bog'lanish uzilishi bilan oq sayohatchilar birin-ketin halok bo'ladilar.

– To'g'ri aytdingiz, do'stim Jon, – dedi Paganel, – men ham ko'pincha shunday deb o'ylab qolaman. Qanday hamkorlik qonuniga binoan Govit ham ha-

yotini xuddi Uitkomb singari tugatdiykin, degan savol tugʻiladi. Bunga nima desa boʻladi? Charlton Govitni hukumat ishlarining boshligʻi mister Uayd chaqirib, Xurunui yaylovidan va Taramakau daryosining dengizga quyiladigan joyigacha yoʻl qurish loyihasini chizib berish vazifasini topshiradi. Govit 1863-yil birinchi yanvarda besh kishi bilan yoʻlga chiqadi. U oʻziga topshirilgan ishni juda muvaffaqiyatli tugallaydi: to Taramakau daryosigacha qirq mil joyga yoʻl quriladi, lekin daryodan oʻtishning iloji boʻlmaydi. Govit Krayschyorchga qaytib keladi. Qish yaqinlashib kelayotganiga qaramay, u yoʻl qurish ishini davom ettirishga ruxsat soʻraydi. Mister Uayd rozilik beradi. Govit barcha zarur narsalarni olib, oʻz lageriga qaytib ketadi, u oʻsha yerda qishlamoqchi edi. Yigirma yettinchi iyunda Govit Robert Litl va Genri Myuls degan ikki ishchisi bilan birga lagerdan chiqib ketadi. Ular qayiqqa tushib, Bryuner koʻlining narigi sohiliga joʻnaydilar. Shundan keyin ular dom-daraksiz boʻlib ketdilar. Ular tushib ketgan shaloq qayiqni koʻl sohilidan toʻntarilib yotgan holda topib oladilar. Govit bilan uning hamrohlarini toʻqqiz haftagacha rosa qidiradilar, lekin topolmaydilar. Bittasi ham suzishni bilmagan u bechoralar koʻlda choʻkib ketgan boʻlsalar kerak.

– Ehtimol, ular eson-omondir, yangi zelandiyalik biror qabilada yashab turgandir, – deb qoʻydi Elen. – Har holda, ularni aniq oʻlgan deb boʻlmaydi-ku.

– Afsuski, bunday emas, – deb javob berdi Paganel? – oʻsha falokatdan bir yil keyin ham qaytib kelmagach... – Geografiya olimi gapini shivirlab tamomladi, – Yangi Zelandiyadan odam bir yil ichida ham qaytib kelmadimi, albatta, halok boʻldi deyavering.

T o ‘ q q i z i n c h i b o b

SHIMOLGA QARAB OʻTTIZ MIL

7-fevral kuni ertalab soat oltida Glenarvan yoʻlga chiqish uchun signal berdi. Yomgʻir kechasiyoq tingan edi. Osmonni oʻrab olayotgan kulrang bulutlar quyosh nurini yerdan uch mil yuqorida toʻsib qoʻygan edilar. Issiq sezilarli emasdi, shuning uchun kunduzgi sayohat ogʻir boʻlmasligi kutilardi.

Paganel xaritaga qarab, Kauxa burunidan Oklendgacha boʻlgan oraliqni oʻlchadi: oraliq sakson mil chiqdi. Bu masofani har kuni oʻn mildan yoʻl bosib, sak-kiz kunda oʻtsa boʻlardi. Lekin geografiya olimi ilonizi boʻlib ketgan dengiz sohili boʻylab yurishdan koʻra oʻttiz mil naridaʻgi, Vaykato va Vaypa daryolari qoʻshiladigan joydagi Ngarnavaxia qishlogʻi tomonga yoʻl olishni afzal koʻrdi. U yerda pochta yoʻli bor, yana ham toʻgʻrirogʻi, faqat arava yura oladigan va orolning juda koʻp joyini kesib oʻtadigan, Goks koʻrfazidan Oklendga boradigan yoʻl bor. Oʻsha yoʻldan Dryuriga yetib olish va u yerda ayniqsa tabiatshunos Goxshtetter juda maqtagan ajoyib mehmonxonada dam olish mumkin. Oziqalarni oʻzaro boʻlishib olib, sayohatchilarimiz Aotea koʻrfazi yoqalab yoʻlga tushdilar. Ehtiyot yuzasidan erkaklar oʻqlangan karabinlarini tayyor holda koʻtarib, sharq tomonga choʻzilib ketgan adirdan beixtiyor koʻz uzolmay borar edilar.

Qoʻlidagi xaritaga qarab borayotgan Paganel, unda har bir narsa nihoyatda aniq koʻrsatilganiga oʻzida yoʻq shodlanardi.

Kichkina otryad ancha vaqtgacha qoʻsh qanotli chigʻanoqlar maydasidan hosil boʻlgan qum ustidan bordi.

Koʻtarilib kelayotgan dengiz suvining toʻlqinlari sekin-sekin kelib urilib turgan sohilda bir necha tullenlar bemalol oʻynashib yotardi. Yumaloq boshli, keng silliq peshanali, koʻzlari jonli bu dengiz hayvonlari juda xotirjam boʻladilar. Bu ajoyib jonivorlarga qarab turib, ularning juda yoqimsiz ovoz chiqarishiga qaramay, mifologiyalardagi goʻzal dengiz parilarini nima uchun shularga oʻxshatganliklarini tushunib olasiz. Yangi Zelandiya sohillarida tulen juda koʻp uchraydi, tulen ovi juda ham foydali, chunki uning yogʻi bilan terisiga talab katta.

Tulenlar orasida uchta yoki toʻrtta dengiz fili koʻrinardi. Ularning rangi kulrang-zangori boʻlib, uzunligi yigirma besh-oʻttiz fut chiqardi. Suvda va qumqlikda yashovchi bu bahaybat hayvonlar lamintariy degan katta-katta suv oʻtlari qalin oʻsgan yerda choʻzilib yotishar va tumshugʻini koʻtarib, oliftalarning oro berib burab qoʻygan moʻylovlariga oʻxshash uzun, dagʻal, qayrilma moʻylovlarini gʻalati qilib qimirlatar edilar.

Robert bu g'alati jonivorlarni maza qilib tomosha qildi.

- Iye, qaranglar! - deb qichqirib yubordi birdan hayron bo'lgan bola. - Tulenlar tosh yeyishyapti!

Haqiqatan ham tulenlardan ba'zilari sohilda sochilib yotgan toshlardan shoshib-pishib yutayotgan edilar.

- Bo'lmasam-chil - dedi Paganel. - Tulenlar sohilda yotgan toshlarni yeydilar, bu bor gap.

- G'alati ovqat ekanmi, hazm qilib ham bo'lmaydi, - dedi Robert.

- Bu jonivorlar toshni ovqat o'rnida yemaydilar, balki ballast o'rnida yutib oladilar, o'g'lim. Shu usul bilan ular o'z og'irliklarini oshiradilar: gavda og'ir bo'lgandan keyin suv tagiga sho'ng'ish osonroq bo'ladi. Sohilga qaytib chiqqandan keyin ular toshlarni darhol yana chiqarib tashlaydilar. Tosh yutib olgan tulenlar suv tagiga tushib ketishini hozir o'zing ko'rasan.

Haqiqatan ham, besh-oltita tulen keragicha ballast g'amlab oldilar shekilli, ko'p o'tmay lapanglab suvga tomon o'rmalab qoldilar, suv yoqasiga borib, dengiz tagiga sho'ng'ib ketdilar. Lekin ularning qaytib chiqib, yukini tashlashini kutishga Glenarvanning vaqti yo'q edi. Shuning uchun kichkina otryad yana yo'lga tushdi, Paganel bunga juda achindi.

Soat o'nda nonushta qilib olish uchun shunday dengiz yoqasida qaqqayib turgan katta-katta bazalt toshlar ostida to'xtadilar. O'sha yerdagi sayozlikdan juda ko'p ustritsalar topdilar. Ustritsalar juda mayda va ancha bemaza ekan. Lekin Paganelning maslahati bilan Olbinet ularni cho'g'da qovurdi, natijada ustritsalar juda shirin bo'lib pishdi, nonushta vaqtida ular dan bir necha o'nini yeb yubordilar.

Ovqatlanib va dam olib bo'lib, sayohatchilarimiz qo'ltiq yoqalab yana yo'lga tushdilar. Arraning tishiga o'xshab qolgan qirrali qoyalar tepasida juda ko'p dengiz qushlari uchib yurardi. Ular orasida fregatlar ham, tentakqushlar ham, baliqchi qushlar ham, qoya cho'qqilarida qimir etmay o'tirgan katta-katta albatrosalar ham bor edi. Soat to'rtgacha sira qiynalmay va uncha charchamay o'n mil yo'l bosib o'tdilar. Ayollar qorong'u tushguncha yuraverishni taklif qilishdi. Xuddi shu payt yo'lni sal boshqa tarafdin solish kerak

bo'lib turgan edi. Shimol tarafda ko'rinib turgan tog' etagidan o'tib Vaypa daryosi vodiysiga kirish kerak edi.

Uzoqda bepoyon yaylovlar ko'rinar, ulardan o'tish qiyin emasdek tuyulardi. Lekin dengizga o'xshab yotgan u ko'mko'k yaylovlarga yetib borib qaraganda, ish sayohatchilarning o'ylaganicha bo'lib chiqmadi: yaylov o'rnida ular qarshisida oq-oq gulli butalar o'sib yotardi, butalar orasida esa Yangi Zelandiyada juda ko'p bo'ladigan baland qirqquloqlar ko'rinib turardi. Ana shu daraxtsimon butalar orasidan yo'l ochib yurishga majbur bo'ldilar, bu ancha qiyin ish edi. Har holda kechqurun soat sakkizlarda Xakarixatoa tizma tog'laridan birining etagini aylanib o'ta oldilar, shundan keyin sayohatchilar tunash uchun to'xtadilar.

O'n to'rt mil yo'l yurgandan keyin dam olish ham kerak edi. Na arava, na palatka bo'lmagani uchun ajoyib norfolk qarag'aylari tagida yotishga majbur bo'ldilar. Baxtlaridan bo'lib, odeyaldan kamchilik yo'q edi, taglariga o'sha odeyallarni solib yotdilar.

Glenarvan kechasiga zarur ehtiyot choralari ko'rib qo'ydi. Erkaklar ikkita-ikkidadan bo'lib, qurollarini tayyor ushlagan holda to tong otguncha navbatma-navbat qorovullik qilib chiqadigan bo'lishdi. Gulxan yoqmadilar. Gulxan yirtqich hayvonlar hujumidan saqlanish uchun yaxshi xizmat qila oladi, lekin Yangi Zelandiyada na yo'lbars, na arslon, na ayiq uchraydi – unda bironta ham yirtqich hayvon yo'q.

Yerliklar lahjasida ngamu deb ataladigan qumloq pashshalarining jiz-jiz chaqib, allaqanday jangovar oiladan bo'lgan kalamushlarning oziq-ovqat solib qo'yilgan qoplarni sira qo'rqmay qirtillatib chiqqanini hisobga olmaganda, tun umuman tinch o'tdi.

Ertasiga, 8-fevral kuni ertalab Paganel ancha xotirjam kayfiyatda uyg'ondi, u Yangi Zelandiyaga deyarlik ko'nikib qolgan edi. Geografiya olimi doim xavotir bo'layotgan maonilar ko'rinmadi, bu odamxo'rlar geografiya olimining tushiga ham kirmadi. U buni mamnu-niyat bilan Glenarvanga so'zlab berdi.

– Bilasizmi, menimcha, biz bir sayrdek bo'lgan bu sayohatimizni eson-omon tamomlaymiz, – deb qo'shib qo'ydi u. – Bugun kechgacha Vaypa daryosi bilan Vaykato daryosi qo'shiladigan yerga yetib olamiz, u yerdan Oklend yo'liga chiqib olganimizdan keyin esa yerliklar bilan uchrashib qolishdan qo'rqmasak ham bo'ladi.

- Vaypa va Vaykato daryolari qo'shiladigan joyga yetib olish uchun qancha yurishimiz kerak? - deb so'radi Glenarvan.

- O'n besh mil, deyarlik kecha yurganimizcha.

- Lekin mana bu badbaxt butalar yo'limizni qiyinlashtirib yuboradi-da, - dedi Glenarvan.

- Yo'q, - deb e'tiroz bildirdi geografiya olimi, - endi Vaypa daryosini yoqalab boramiz, daryo bo'yida esa hech qanday to'siq yo'q, yurish oson bo'ladi.

- Qani, bo'lmasa, yo'lga tushdik! - dedi Glenarvan, hammaning yo'lga chiqish uchun tayyor ekanini ko'rib.

Dastlabki soatlarda quyuq o'sgan butalar sayohatchilarning yo'lini ancha qiyinlashtirib turdi. Albatta, ular hozir o'tib borayotgan joylardan arava u yoqda tursin, otda ham o'tib bo'lmasdi. Shuning uchun Avstraliyada qolgan aravani orzu qilmasa ham bo'lardi. Bu changallar orasiga yo'l solinmaguncha Yangi Zelandiyada faqat piyoda yo'l yurish mumkin. Bu yerlarda o'sib yotgan har xil qirqquloqlarning o'zi ham o'z vatani ajnabiylardan maorilarga qaraganda yaxshiroq himoya qiladi.

Shuning uchun Xakarixatoa tog' tizmalari adirlarga aylanib boradigan bu dashtda kichkina otryad ko'p qiyinchiliklarni yengib o'tishga majbur bo'ldi. Shunga qaramay, sayohatchilar choshgohgacha Vaypa daryosi bo'yiga chiqib oldilar-da, undan uyog'iga hech qiynalmay, tik sohil bo'ylab shimol tarafga yo'l oldilar.

Top-toza, zilol suv oqib yotgan tog' jilg'alari tez-tez uchrab turgan ajoyib vodiyaning bordilar - ularning suvi butalar orasidan shildirab oqib yotardi. Botanika olimi Gukerning aytishicha, Yangi Zelandiyada ikki ming xil o'simlik o'sadi, bulardan besh yuz xili faqat Yangi Zelandiyada o'sadigan o'simliklar. Bu yerda gul kam bo'ladi, bor gullar ham rang-barang emas. Bir yillik o'simliklar deyarlik yo'q, lekin qirqquloqlar, boshoqli o'simliklar, zontiksimonlar juda ko'p. U yer-bu yerda, sohildan nariroqda ko'm-ko'k bo'lib yotgan dalada yakkam-dukkan daraxtlar uchrab turadi: bular orasida qip-qizil gulli matrosider daraxtlari, norfolk qarag'aylari, shoxlari tik o'sgan tui daraxtlari, sarv daraxtining bir xili, yevropalik urnug'-aymog'iga juda o'xshab ketadigan rimular bor. Bu daraxtlarning ham-

masi ko'm-ko'k maysadek so'lib yotgan qirqquloqlar orasidan o'sib chiqqan.

Daraxt shoxlari orasida va butalar ustida kakadular, bo'ynida qizil yo'li bor, ko'm-ko'k kakariklar, chekkasida ajoyib qop-qora patlar o'sgan taupolar va, nihoyat, tabiyotshunoslar «janubiy nestorlar» deb ism bergan – ularning kattaligi o'rdakdek keladi, patlari sap-sariq va o'siq bo'ladi – to'tiqushlar chug'urlashib uchib yurishardi.

Mayor bilan Robert o'rtoqlaridan orqada qolmay, daraxt shoxlari orasiga yashirinib o'tirgan bir necha botqoq loyxo'ragi bilan kaklik otib oldilar. Olbinet ularni yo'l-yo'lakay tozalab bordi.

Paganel qushlarning go'shtiga uncha qiziqmasdi, u faqat Yangi Zelandiyaga xos qushlardan birontasini tiriklay ushlab olsam derdi. Uning tabiatshunoslik bilimiga qiziqishi sayohatchilik ishtahasidan ustun keldi. Geografiya olimining esiga tui degan mahalliy qushning ta'rifi tushib qoldi. Yerliklar uni birovni masxara qilayotgandek chag'illashiga qarab «masxaraboz» deb ataydilar; pati katolik monaxlarning kiyimiga o'xshab ketgani uchun uni «kyure» deb ham ataydilar; uning bo'yin atrofidagi pati oq, qolgan yerdagi barcha patlari qop-qora bo'ladi.

– Tui qishda shunday semirib ketadiki, hatto bundan o'zi betob bo'lib qoladi, gavdasini ko'tarib ucholmaydigan holga keladi, – deb hikoya qilib bera boshladi Paganel mayorga. – Yog'ini kamaytirib, biroz yengilroq bo'lib olish uchun u tumshug'i bilan o'z ko'kragini teshadi. Sizga bu g'alati tuyulmayaptimi, Mak-Nabbs?

– Shunday g'alati tuyulyaptiki, – deb javob berdi mayor, – men bu hikoyangizga mutlaqo ishonmayman.

Geografiya olimi hech narsaga ishonmaydigan mayorga o'z so'zini isbot qilish uchun tui qushidan birontasini ushlab, uning teshilgan, qonga bo'yalgan ko'kragini ko'rsata olmaganiga juda afsus qildi.

Lekin Paganelning boshqa bir narsadan omadi kelib qoldi, bu ham o'shanday qiziq bir jonivor edi: u odamning, itlar bilan mushuklarning ta'qibidan qochib, oroldagi hech kim turmaydigan, bo'm-bo'sh yerlarga chiqib ketgan va endi sekin-asta tuxumi qurib ketayotgan Yangi Zelandiya qushi edi. Iskovich itday hamma yoqni tintib borayotgan Robert buta ildizlari-

dan to'qilgan bir qush inini topdi, inda na dumi, na qanoti bo'lmagan ikkita tovuq bor ekan. Ularning oppoq pati tukka o'xshab o'sgan, tumshug'i bekasniki singari uzun, oyog'ida esa to'rttadan barmog'i bor. Bu g'alati jonivorlar tuxum qo'yuvchilar bilan sut emizuvchilar orasidagi o'tkinchi bir turkumga o'xshaydi.

Bu Yangi Zelandiya kivi-kivisi bo'lib, lichinkalarni ham, chuvalchaglarni ham, hasharot va don-dunni ham yeyaveradi. U faqat Yangi Zelandiyada yashaydi, shuning uchun uni o'z iqlimiga o'rgatib olish Yevropadagi hayvonot bog'lari uchun juda qiyin bo'ldi. Kivi-kivi gavda tuzilishining originalligi, o'ziga xos g'alati qilib yurishi bilan sayohatchilarning diqqatini tortgan, Fanlar akademiyasi okeandagi orollarga yuborilgan katta ilmiy ekspeditsiya boshlig'i Dyumon-Dyurvilga o'sha g'alati qushdan bir-ikki nusxa olib kelishni topshiradi. Lekin olim yerliklarga katta sovg'alar va'da qilib ham, tirik kivi-kivini olib ketishga muyassar bo'lmaydi.

Topilgan bu ajoyib g'animatdan xursand bo'lib ketgan Paganel ikkala tovuqni bir-biriga bog'lab ko'tarib oldi-da, ildamlilik bilan qadam tashlab ketdi; olim bu qushlarni Parij hayvonot bog'iga sovg'a qilishni o'ylab, halitdan terisiga sig'may sevinardi. Xayol uzoqlarga olib qochgan geografiya olimining ko'ziga hayvonot bog'idagi eng yaxshi qafasga yopishtirib qo'yilgan: «Jak Paganelning sovg'asi» degan yozuv ko'rinib ketdi.

Bu orada kichkina otryad Vaypa daryosi bo'ylab ildam yurib borar edi. Atrof bo'm-bo'sh. Yerliklarning bironta izi ko'rinmas, bu orada odam borligini ko'rsatadigan bironta so'qmoq uchramasdi. Daryo suvi yo butalar orasidan, yo uzun qumloq sohil o'rtasidan oqib o'tardi. Suv qumloq sohil orasidan oqib o'tadigan joylarda sharq tomondan pastgina tog' etagiga borib taqaladigan keng past-tekislikning boshdan oyog'i ko'rinar edi. Bu tog'larning g'alati tuzilishi uzoqdan qorayib ko'rinib turgan gavdasi qadim zamondagi gigant hayvonlarga o'xshardi. Ular go'yo birdan toshga aylanib qolgan kitsimon katta-katta hayvonlar galasiday tuyulardi. Qoyalarning bunday betartib, g'alati shakl olib yotishi ularning vulqon harakati hosil qilganidan darak berardi. Haqiqatan ham, Yangi Zelandiya vulqon harakati natijasida nisbatan yaqin zamonda hosil bo'lgan yer. Bu orollar hozir ham suvdan

ko'tarilishda davom etmoqda. Orolning ba'zi bir joylari yigirma yil ichida dengiz sathidan butun bir sajen yuqori ko'tarilgan. O't Yangi Zelandiya orollari ostini hali ham larzaga solib turadi; unda zilzila qo'zg'atadi va ko'p joylarda geyzerlar va vulqonlar orqali otilib chiqadi.

Soat to'rtgacha dadil qadamlar bilan to'qqiz mil yo'lni bosib o'tdilar. Paganel tez-tez qarab borayotgan xaritaning ko'rsatishicha, Vaypa va Vaykato daryolari qo'shilishadigan joyga yetish uchun yana besh mil yo'l yurish kerak edi. U yerdan Oklendga boradigan yo'l o'tadi, tunash uchun to'xtash mumkin. Oklendgacha qolgan ellik milni ikki-uch kun ichida bosib o'tsa bo'ladi, baxtlaridan bo'lib, Goks va Oklend ko'rfazlari orasida oyiga ikki marta qatnab turadigan pochta aravasiga duch kelib qolsalar, Oklendga sakkiz soatda yetib olsa ham bo'ladi.

– Xullas, yana bir kun ochiq havoda yotadiganga o'xshaymiz, – dedi Glenarvan.

– Ha, – dedi Paganel, – lekin bu oxirgi marta ochiq havoda yotishimiz bo'ladi deb umid qilaman.

– Juda soz bo'ladi-da, nega desangiz, ochiq havoda yotishdan Elen bilan Meri juda qiynaliyaptilar.

– Ammo bundan noliyotganlari ham yo'q, – deb gap qistirdi Jon Mangls. – Agar men gapingizni to'g'ri tushungan bo'lsam, janob Paganel, siz bu ikki daryo qo'shilishadigan joyga yaqin bir yerda allaqanday qishloq bor degandek bo'lib edingiz.

– Ha, bor, – deb javob berdi geografiya olimi, – Jonsonning xaritasida ko'rsatilgan. Daryolar tutashadigan joydan ikki mil naridagi Ngarnavaxia qishlog'i.

– Xo'sh, o'sha yerdagi biror mehmonxonaga borib tushsak bo'lmaydimi? Meningcha, ayollarimiz tuzukroq mehmonxonaga borib, yaxshilab dam olish uchun ortiqcha ikki mil yo'l yurishga rozi bo'ladilar.

– Mehmonxona deysizmi? – deb yubordi Paganel. – Maorilar qishlog'ida mehmonxona nima qilsin! U qishloqlarda mehmonxona! U qishloqlarda mehmonxona u yoqda tursin, katta karvonsaroy ham, qovoqxona ham yo'q! Bu qishloq deganimiz bir nechta yerliklar kulbasidan iborat, xolos, shuning uchun, menimcha, u qishloqlardan boshpana axtarish emas, aksincha, iloji boricha nari yurish kerak.

– Hali ham qoʻrquvingiz qolmabdi-ya, Paganell – deb qoʻydi Glenarvan.

– Qimmatli ser, xoʻp deyavering, bu yerlarda ishonchsizlik har qanday ishonchdan aʻlo. Hozir maorilar bilan inglizlarning munosabati qandayligi bizga nomaʼlum: qoʻzgʻolon bostirilganmi yo gʻolib kelganmi, bilmaymiz. Ehtimol, biz bu yerga urush avj olib turgan bir vaqtda kelgandirmiz. Agar kamtarlikni bir chetga surib qoʻysak, bizdek odamlar yerliklar uchun yomon oʻlja boʻlmas edik, shunga koʻra, men oʻz istagimdan tashqari yangi zelandiyaliklarning mehmondoʻstligini koʻrishni istamayman. Shu sababli men oʻsha qishloqdan nariroq yurganimiz, uni aylanib oʻtganimiz, yerliklar bilan uchrashib qolishdan qochganimiz yaxshiroq deb hisoblayman. Dyuriga yetib olganimizdan keyin boshqa gap: u yerda ayollarimiz ogʻir safardan keyin istaganlaricha dam olishlari mumkin.

Geografiya olimining soʻzi oʻtdi. Elen oʻrtoqlarini xavf-xatarga duchor qilishdan koʻra, yana bir kun ochiq havoda yotishni afzal koʻrdi. Na Elen, na Meri Grant dam olish toʻgʻrisida ogʻiz ochmadilar, daryo yoqalab yana yoʻlga tushaverdilar.

Ikki soatdan keyin togʻ tomondan kechki qorongʻulik bostirib kela boshladi. Ufqqa ogʻib borayotgan quyosh birdan bulutlar orasidan moʻralab qoldi, uning qizil nurlari sharq tomonda uzoqdan koʻrinib turgan togʻ choʻqqilarini yoritdi. Quyosh goʻyo sayohatchilarimiz bilan xayrlashayotgandek edi.

Hamma qadamini ildamlatdi, chunki bu kenglikda qosh qorayib keladigan vaqtning qisqa boʻlishini, birdan qorongʻu tushib qolishini bilar edilar. Qorongʻu tushmay turib, daryolar tutashadigan yerga yetib olish zarur edi. Lekin xuddi shu payt atrofni quyuk tuman bosdi-da, yoʻlni topib yurish juda qiyinlashib qoldi.

Sayohatchilarning baxtiga, koʻz koʻrmagan narsani quloq bilan eshitib ajratib olsa boʻlardi. Koʻp oʻtmay suvning guvullashi kuchaydi, bu ikki daryoning shu orada birlashuvidan darak berardi. Kechqurun soat sakkizda kichkina otryad nihoyat Vaypa daryosi guvullab Vaykatoga quyiladigan joyga yetib bordi.

– Bu Vaykato, – dedi Paganell, – Oklendga boradigan yoʻl uning oʻng sohili yoqalab oʻtadi!

– Daryoni ertaga koʻramiz, kelinglar, hozir tunash uchun joy tayyorlaylik, – dedi mayor. – Meningcha,

anavi ko'rinib turgan quyuq soya biror chakalakning soyasi bo'lsa kerak, u bizni yashirish uchun jo'rttaga o'stirilgandek bo'lib turibdi. Ovqat yeb olamiz-da, yotib uxlaymiz.

– Ovqat yeymiz, – dedi Paganel, – lekin gulxan yoqmay, suxari bilan qoq go'sht yeb qo'ya qolamiz. Biz bu yerga yashirin ravishda keldik, ketganimizni ham hech kim bilmay qo'ya qolsin, yaxshiki tuman tufayli bizni hech kim ko'rolmaydi.

Haqiqatan ham shunday yonginada chakalak bor ekan. Geografiya olimining maslahatini yodda tutgan sayohatchilar chakalak ichiga kirib, tinchgina ovqatlanib oldilar. Ko'p o'tmay, o'n besh mil yo'l yurib charchagan yo'lovchilar qattiq uyquga ketdilar.

O' n i n c h i b o b

MILLIY DARYO

Ertasiga ertalab, tongotar paytida daryo betini nihoyatda quyuq tuman qopladi. Havoni to'yg'izgan bug'ning bir qismi kecha salqini ta'siridan quyuqlashdi va daryo ustini quruq bulut bo'lib qoplab oldi. Ammo ko'p o'tmay quyosh nuri pag'a-pag'a bo'lib yotgan bu quyuq pardani yorib o'tdi, keyin yarqirab chiqqan quyosh nigohi ostida tuman tarqab ketdi. Tuman bosib yotgan sohil ochildi-da, Vaykato daryosi o'zining butun tongi chiroyini namoyish qila boshladi.

Butalar bosib yotgan uzun tor til ikkala daryo tushadigan joyda ensiz burun bo'lib tugallanardi. Tez oqar, shoshqin Vaypa suvi chorak mil joygacha Vaykato suvi bilan qo'shilmay oqib borardi. Lekin katta, tinch oqar daryo sho'x daryoni baribir o'ziga bo'ysundirib olar, uning suvini o'z suvlariga qo'shib, xotirjamlik bilan Tinch okeanga oqizib ketar edi.

Tuman tarqalgach, Vaykatoning oqimi bilan yuqoriga qarab borayotgan yerliklarning uzun tor qayig'i ko'rindi. Uzunligi yetmish fut, eni besh fut va chuqurligi uch fut keladigan bu qayiq *kaxikatea* degan mahalliy archa yog'ochidan o'yib yasalgan bo'lib, ko'tarilib turgan tumshug'i bilan venetsiyaliklarning gondolasiga o'xshab ketardi. Qayiqning tagiga qirqquloq xasha-

gi solingan. Qayiq sakkizta eshkak yordami bilan tez suzib borar, uning quyruq tomonida quyruq eshka-gini boshqarib bir kishi o'tirardi. U qirqlarga borgan, baland bo'lyli, ko'krakdor, go'shtdor, oyoq va qo'llari baquvvat bir kishi edi. Ajin bosib ketgan do'ng peshana-si, o'grayib qarashi, basharasining ko'rimsizligi bu odamni qo'rqinchli bir kishi qilib ko'rsatardi.

U maorilarning ko'zga ko'ringan yo'lboshchilaridan biri edi. Bu uning basharasi bilan badaniga mohirlik bilan tushirilgan tatuirovkadan ko'rinib turardi. Qiyg'ir burnining teshiklari yonidan ikkita qora aylanma chi-ziq boshlanar va sariq ko'zlari yonidan o'tib, peshana-sida tutashardi-da, qalin sochlari ichiga kirib yo'qolar edi. Oppoq tishlari ko'rinib turgan og'zi atrofida har xil rangli chiziqlar tortilgan, shuningdek, iyagi orqali to baquvvat ko'kragigacha jingalak-jingalak qilib chiroyli chiziqlar tushirilgan.

Bunday tatuirovka – *moko* – yangi zelandiyaliklar rasmida odamning amal darajasini farq qilish uchun xizmat qiladi. Bunday faxriy belgilarga faqat bir qan-cha janglarda ish ko'rsatgan odamlar munosib bo'ladi, lekin qullar bilan past tabaqa kishilariga moko bel-gilari chizishga mutlaqo huquq berilmaydi. Mashhur boshliqlar ularning badaniga tushirilgan mokoning tugalligi, aniqligi va xarakteri bilan ajralib turadilar; ko'pincha ularning badaniga hayvon rasmlari solingan bo'ladi. Yerliklarning boshliqlaridan ba'zilar moko chi-zish azobiga o'zlarini besh martagacha duchor qiladi-lar. Yangi Zelandiyadagi dong chiqargan odamlarning badani rasmga to'lib ketgan bo'ladi.

Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, maorilar mo-kosi unga bo'lgan izzat-hurmatni oshirish bilan birga o'zi uchun foydali ham, chunki u odamning terisini qalin qilib, ob-havo o'zgarishlari bilan chivinlarning ji-villatib chaqishini pisand qilmaydigan holga keltiradi.

Qayiqni boshqarib borayotgan boshliqning daraja-si baland ekaniga shubha yo'q. Maorilar moko chi-zish uchun ishlatadigan o'tkir albatros suyagi uning mag'rur betida chuqur iz qoldirib, besh marta rasm chizgan edi. Boshliqning egnida formium degan o'simlikdan to'qilgan va it terisidan burma hoshiya qi-lingan plashch bor edi. Oldiga peshband tutib olgan, peshbandida yaqinda bo'lib o'tgan janglardan qolgan



qon izlari ko'rinib turardi. Qulog'iga ko'k nefrit parchasi, bo'yniga esa xurofotchi yangi zelandiyaliklar juda inobatga oladigan muqaddas tosh – *punamulardan* marjon taqib olgan. Boshliqning yonida ingliz miltig'i bilan ikki damli, uzunligi o'n sakkiz dyuym keladigan boltaga o'xshash och yashil qurol – *patupatu* yotardi.

Boshliqning oldida darajasi unchalik baland bo'lmagan to'qqiz jangchi o'tirardi. Ularning qovog'i so'liq, o'zlari qurollangan. Ulardan ba'zilari, aftidan, yaqinda yarador bo'lgan edilar, yaralari azob berayotgandek ko'rinardi. Hamma jangchilar formiumdan to'qilgan plashchlariga o'ralib, qimir etmay o'tirar, oyoqlari ostida uchta qopog'on it yotardi. Eshkakchilar, aftidan, boshliqning qullari yo xizmatkorlari edi. Ular kuch bilan eshkak tortishar, uncha shiddatli bo'lmasa ham, har holda qarshidan urib turgan daryo oqimiga qarshi ketayotgan qayiq ancha tez suzib bordi.

Qayiqning o'rtasida oyoqlari bog'langan, lekin qo'llari yechiq o'nta yevropalik asir bir-birining pinjiga

suqilib o'tirardi. Bular Glenarvan, Elen, Meri Grant, Robert, Paganel, mayor, Jon Mangls, styuard va ikki matros edi.

Kecha kechqurun kichkina otryad quyuq tuman orasida adashib, bilmasdan juda ko'p yerliklar turgan lager o'rtasida tunash uchun to'xtadi. Yarim kechaga yaqin uxlab yotgan sayohatchilarni tutib, asir oldilar va qayiqqa o'tqazdilar. Maorilar hozircha ularga hech qanday yomonlik qilganlari yo'q, lekin endi qarshilik ko'rsatish befoyda edi, chunki qurollari bilan o'q-dorilari yerliklar qo'liga o'tib ketdi, agar sayohatchilarning qarshilik qilmoqchi bo'layotganliklarini sezib qolsalar, yerliklar ularni o'z qurollari bilan otib tashlaydilar.

Yerliklar o'zaro so'zlashganlarida ular og'zidan chiqqan inglizcha so'zlardan asir tushganlar bu maorilarning ingliz qo'shinlari tomonidan tor-mor keltirilib, endi Vaykato daryosining yuqori tomoniga ketishayotganini bilib oldilar. Ularning boshlig'i 42-polkka qattiq qarshilik ko'rsatib va jangda eng yaxshi jangchilaridan ajrab, endi bu daryo bo'yida yashaydigan aholini jangga chaqirish va yangi qo'shin to'plab, bosqinchilar bilan hali ham kurash olib borayotgan bo'ysunmas Vilyam Tomsonga qo'shilish maqsadida ketayotgan edi. Boshliqning nomi Kai-Kumu bo'lib, yerliklar tilida bu: «Dushmanining go'shtini yeydigan odam» degan ma'noni bildiradi. U dovyurak, bahodir odam edi, lekin shafqatsizligi ham jangovarligidan qolishmasdi. Bunday odamdan shafqat kutib bo'lmasdi. Kai-Kumuning ismi ingliz soldatlariga yaxshi ma'lum bo'lib, yaqinda uning boshi uchun Yangi Zelandiya gubernatori tomonidan pul mukofot va'da qilingan edi.

Bu dahshatli zarba Glenarvanning boshiga zoriqib kutgani Oklendga yetay deb turgan bir vaqtda tushdi, Oklendga yetib olsa, Glenarvan o'z vatani Shotlandiyaga qaytgan bo'lardi.

Lekin beparvo, xotirjam chehrasiga qarab, hech kim uni azob chekyapti deb o'ylamasdi. Og'ir vaziyatga tushib qolgan vaqtlarda Glenarvanning ruhi tushmasdi. U xotini va hamrohlariga o'rnak bo'lishi kerakligini, ularga dalda berish lozimligini yaxshi tushunardi, agar shart-sharoit talab qilib qolsa, boshqalarning qutqarilishi yo'lida hatto eng oldin jonidan kechishga ham

tayyor edi. Bu dovyurak kishi dahshatli xavf qarshisi-da ham hamrohlari shunday yovvoyi o'lkaga boshlab kelganiga bir lahza bo'lsin afsus qilmadi.

Glenarvanning hamrohlari ham unga munosib odamlar edi. Ular Glenarvanning oliyjanob fikrlariga o'rtoq edilar, shu sababdan ularning mag'rur, xotirjam chehralariga qarab, o'limga ketayotgan odamlar deb o'ylab bo'lmadi. Glenarvanning maslahati bilan ular bo'layotgan hamma ishga beparvo qarashga, mutlaqo e'tibor qilmaslikka ahd qildilar. Bu o'zlariga nisbatan yerliklarda hurmat uyg'otishning birdan bir usuli edi. Yerliklarning hammasida, ayniqsa, maorilarda o'zining qadriga yeta bilish hissi kuchli bo'ladi, bu his ularni hech vaqt tark etmaydi. Ular o'zini mardona va xotirjam tutgan odamlarni hurmat qiladilar. Glenarvan hamrohlari o'zlarini ana shunday tutsalar, yangi zelandiyaliklar ularga qo'pol muomala qilmasligini bilard edi.

Qayiq yo'lga tushgandan beri barcha yovvoyilar singari kangap bo'lgan maorilar o'zaro bir-ikki og'iz so'zlashdilar xolos, lekin shuning o'zidan Glenarvan ularning ingliz tilini yaxshi bilishlarini anglab qoldi. U yangi zelandiyaliklar boshlig'idan ularni nima qilishmoqchi ekanini bilib olmoqchi bo'ldi.

– Bizni qayoqqa olib ketyapsan, boshliq? – deb so'radi u Kai-Kumudan; uning tovushida zarracha ham qo'rquv ohangi sezilmasdi.

Boshliq unga sovuqqina qilib bir qarab qo'ydi-yu, hech narsa deb javob bermadi.

– Bizni nima qilmoqchisan? – deb unga yana savol berdi Glenarvan.

Kai-Kumuning ko'zlari chaq nab ketdi, u viqor bilan:

– Vatandoshlaring rozi bo'lsa, ayirbosh qilaman. Yo'q desa o'ldiraman, – deb javob berdi.

Glenarvan boshqa savol berib o'tirmadi, lekin qalbida yana umid tug'ildi. Demak, maorilarning allaqanday boshliqlari inglizlar qo'lga tushib qolgan, shuning uchun yerliklar ayirboshlash yo'li bilan ularni qaytarib olmoqchi. Bundan chiqdiki, qutulishga ko'p bo'lmasa ham, har holda umid bor, juda umidsiz bo'lmaslik kerak.

Qayiq esa hamon daryoning yuqorisiga qarab tez suzib borardi. Tabiati ancha yengil bo'lgan Paganel sog' qolishdan butunlay umidini uzib qo'ygan edi, endi esa bunga yana umid qila boshladi. Endi uning nazarida, maorilar sayohatchilarni inglizlarning oldingi postlariga yetib olish zaruratidan qutqarganday, shu ma'noda asirlik hatto foyda keltirganday tuyulardi. Geografiya olimi taqdiriga tan berib, Vaykato ularni qanday pasttekislik va vodiylardan olib o'tib borayotganini xaritadan ko'ra boshladi.

Elen bilan Meri Grant qo'rquvlarini yashirib, Glenarvan bilan gaplashardilar, eng tajribali fizionomist ham bu ayollarning chehrasiga qarab, ular azob chek-yapti deb o'ylamagan bo'lardi.

Vaykatoni Yangi Zelandiyaning milliy daryosi desa bo'ladi. Maorilar bu daryo bilan faxrlanib yuradilar. Bu daryo ikki yuz mil masofada shimoliy orolning eng serunum va ko'rkam joylaridan, ya'ni Vellington viloyatidan to Oklend viloyatigacha bo'lgan yerlardan oqib o'tadi. Bu daryo bo'yida yashaydigan barcha kuchli, sarkash qabilalar uning nomi bilan ataladi. Bu qabilalar hammasi bir jon-bir tan bo'lib, bosqinchilarga qarshi ko'tarilganlar. Vaykatoda ajnabiylar kemasi deyarlik ko'rinmaydi. Uning to'lqinlarida faqat orolliklarning balandtumshuq qayiqlari suzib yuradi. Uning muqaddas sohillari o'rtasida suzib yurishga kamdan kam turistlar jur'at qila oladi. Vaykatoning yuqori oqimiga esa kelgindi yevropaliklar uchun mutlaqo yo'l yo'q. Paganel Yangi Zelandiyaning bu buyuk daryosini yerliklar qanday yaxshi ko'rishlarini bilar edi. Shuningdek, u bironta tabiyotshunos Vaypa va Vaykato qo'shilishadigan yerdan yuqoriga chiqmaganini ham bilardi. Lekin Kai-Kumu ularni qayerga olib borarkin? Boshliq bilan uning jangchilari «Taupo» degan so'zni tez-tez takrorlayotganlariga e'tibor qilmaganida geografiya olimi buni aslo bilolmagan bo'lardi. U xaritaga qarab, yerliklar aytayotgan ism geografiya yilnomalarida mashhur bo'lgan ko'ning nomi ekanini bilib oldi. Taupo ko'li orolning eng baland qismida. Oklend viloyatining janubida edi. Vaykato o'sha ko'ldan boshlanadi. Geografiya olimi xaritaga qarab, Vaykato Vaypa bilan qo'shiladigan yerdan Taupo ko'ligacha bo'lgan oraliq bir yuz yigirma milcha kelishini aniqladi.

Paganel yovvoyilar tushunib qolmasin uchun Jon Manglsga fransuz tilida murojaat qilib, qayiqning qanday tezlikda suzib ketayotganini belgilab berishni iltimos qildi. Yosh kapitan qayiq soatiga taxminan uch mildan suzib borayotganini aytdi.

– Boʻlmasa, – dedi geografiya olimi, – agar biz kechasi tunash uchun toʻxtab-toʻxtab yoʻl yursak, safarimiz toʻrt kuncha davom etadi.

– Inglizlarning postlari qayerdaykin-a? – deb soʻradi Glenarvan.

– Buni aytish qiyin, – deb javob berdi Paganel. – Ammo harbiy harakatlar Taranaki viloyatida olib borilayotgan boʻlsa kerak, deb taxmin qilish mumkin. Shuning uchun qoʻshin koʻlining narigi tomonida, togʻning orqasida, qoʻzgʻolon avj olgan yerda toʻplangan boʻlsa kerak, deyman.

– Iloyo shunday boʻlsin! – deb qoʻydi Elen.

Glenarvan yosh xotini va Meri Grantga maʼyus qarab qoʻydi. Bechoralar shafqatsiz yerliklar ixtiyorida edi; ularni yovvoyi bir oʻlkaga olib ketayotgan edilar, u yerda esa hech kim ham yordamga kelolmaydi. Lekin Kai-Kumu oʻziga tikilib qarab turganini sezgan Glenarvan bu asir ayollardan biri uning xotini ekanini yovvoyilar boshligʻi fahmlab qolishidan choʻchib, hayajonini bosib oldi-da, tamom sovuqqonlik bilan daryo sohillarini tomosha qila boshladi.

Qayiq ikki daryo tutashadigan joyidan yarim mil yuqoridagi qirol Potatauning sobiq poytaxti yonidan toʻxtamay oʻtib ketdi. Vaykato daryosida boshqa biron-ta qayiq koʻrinmasdi. Daryo boʻyida u yer-bu yerda buzilib yotgan chaylalar bu yerlarda yaqinda dahshatli janglar boʻlib oʻtganidan guvohlik berib turardi. Daryo boʻyidagi qishloqlar tashlab ketilgan joylarga oʻxshab qolgandi. Boʻm-boʻsh, kimsasiz yerlarga faqat suv qushlari biroz jon kirgizib turardi. Ana, qanoti qora, qorni oq, qizil tumshuq botqoq qushi – *taparunga* havoga uchib chiqdi-da, daraxtlar orqasiga oʻtib, koʻzdan gʻoyib boʻldi. Besoʻnaqay, koʻrinishidan oʻlgudek nodon koʻkqoʻton – *matuku* bilan oppoq, oyogʻi qora, sariq tumshuq koʻrkam oqqoʻton – *kotuku* oʻtib borayotgan qayiqqa xotirjam qarab turibdi. Daryoning sohili tik boʻlgan joylarda suv chuqur oqadi, maorilar tilida «kotare» deb ataladigan bir shrikun Yangi Zelandiya dar-

yolarida millionlab bo'ladigan mayda-mayda ilonbaliqlarni poylab yotardi. Suv betidagi butalarga qo'nib olib, chiqib kelayotgan tong quyoshi nurida mag'rur popishaklar va chiroyli yovvoyi tovuqlar o'zlariga oro berib o'tirishardi. Bu qushlarning hammasi qonli urush quvib yuborgan yoki qirib tashlagan odamlardan qolgan joylarda ozodlik nash'asini surmoqda edilar.

Oldin Vaykato bepoyon pasttekisliklar orasidan keng yoyilib oqib o'tadi, lekin yuqoriga chiqib boravergan sari daryo oldin adirlar, keyin tog'lar siqishtirib qo'ygan vodiyaning oqib o'tadi. Paganelning qo'lidagi xaritaga qaraganda, daryolar tutashgan joydan o'n mil yuqorida, daryoning so'l sohilida Kiri-Kiroa degan qishloq bo'lishi kerak edi. Qishloq haqiqatan ham bor ekan. Kai-Kumu bu qishloqda to'xtamadi. U asirlarga maorilar kechasi bostirib kelganlarida tortib olingan o'z oziqlaridan berishni buyurdi. Yangi zelandiyaliklar boshlig'i bilan uning jangchilari va qullari o'zlarining odatdagi ovqatlari – yeb bo'ladigan qirqquloq, pishirilgan ildiz va ikkala orolda ham juda ko'p bitadigan kapanas degan kartoshkadan yeb qorin to'yg'azdilar. Maorilarning ovqati ichida hech qanday go'shtli taom yo'q edi, asirlarning go'sht konservalari ham aftidan ularni qiziqtirmadi.

Soat uchda daryoning o'ng sohilida Pokaroa tog' tizmalarining xarobaga aylangan qal'a devorlariga o'xshaydigan tarmoqlari ko'rindi. Ularning qirra cho'qqilarida bir vaqtlar maorilar qurgan o'tib bo'lmas qal'alar – *palar*ning xarobalari ko'rinib turardi. Ular katta-katta burgut inlariga o'xshardi.

Qayiq vulqon chiqarib tashlagan va Vaykatoning suvi oqizib kelgan jilvir toshlar tik qirg'oq hosil qilgan yerga kelib to'xtaganda, quyosh orqasiga botib bormoqda edi. Bu yerda bir necha daraxt o'sgan edi, tunash uchun maorilarga shu yer ma'qul bo'ldi.

Kai-Kumu asirlarni sohilga tushirishni buyurdi. Erkaklarning qo'llarini bog'ladilar, ayollarning qo'li ilgorigicha yechiq qoldi. Ularning hammasini manzilning o'rtasiga joylashtirdilar, atrofga esa shunday ko'p gulxanlar yoqib tashladilarki, ulardan o'tib bo'lmas to'siq hosil bo'ldi.

Kai-Kumu asirlarga ularni ayirbosh qilmoqchi ekanini bildirmasdan oldin Glenarvan bilan Jon Mangls gochish rejasini muhokama qilayotgan edilar. Qayiqda

ekanlarida qochish mumkin emasdi, lekin ular kechasi yuz berishi mumkin bo'lgan har xil tasodiflardan foydalanib qochishga, bugun tunash uchun to'xtaganda sohilda urinib ko'rmoqchi edilar.

Lekin Glenarvan yangi zelandiyalik boshliq bilan gaplashganidan keyin bundan voz kechish ma'qulroq bo'lib qoldi. Sabr qilish kerak edi. Maorilar bilan olishish yoki notanish o'lka orqali qochishdan ko'ra asirlarni ayirbosh qilish orqali tutqunlikdan qutulishga umid ko'proq edi. Asirlarni ayirbosh qilishning cho'zilib ketishiga sabab bo'ladigan yoki unga xalaqit beradigan shart-sharoitlar yuz berishi mumkin, lekin har holda muzokaralarning natijasini kutish kerak. Rostda, o'nta qurolsiz odam o'ttizta qurollangan yerlikka teng kela olarmidi? Buning ustiga, Glenarvan Kai-Kumu qabilasidan ko'zga ko'rinarli biror boshliq asir tushgan bo'lsa kerak, uning hamqabilalari har qanday qilib bo'lsa ham uni qutqazib olishni istaydilar deb o'ylar edi, bu fikri asossiz ham emasdi.

Ertasiga ertalab qayiq daryoning yuqori qismiga qarab kechagidan ham tezroq suzib ketdi. Ertalab soat o'nda daryoning o'ng tomonida yastlanib yotgan pasttekisliklardan oqib keladigan Paxoyvena soyining Vaykatoga quyiladigan joyida birpas to'xtab o'tdilar. Bu yerda Kai-Kumuning qayig'i oldiga o'ntacha yerlik tushgan boshqa bir qayiq suzib keldi. Jangchilar palapartish. - «Ayre-may-ra», ya'ni: «Eson-omon kel» deb so'rashgan bo'ldilar; so'ng ikkala qayiq yonma-yon suzib keta boshladi. Aftidan, yangi qo'shilgan qayiqdagi maorilar yaqin orada inglizlar bilan jang qilgan edilar. Dabdala bo'lib ketgan kiyimlari, qonga belangan qurollari va titilib ketgan kiyimlari ostidan ko'rinib turgan qonli yaralari shundan darak berardi. Jangchilar jim o'tirishar, hammasining qovog'i soliq edi. Ular barcha yovvoyilarga xos bir bosiqlik bilan o'zlarini yevropaliklarga e'tibor bermayotgandek tutardilar.

Choshgohda g'arbdan Maungatotari tog'ining cho'qqilari ko'rindi. Vaykato oqib o'tadigan vodiy to'raydi, tik sohillar orasiga qisilgan azim daryo tog' dar-yosidek sho'xlik qila boshladi. Lekin eshkakchilar zo'r berdilar, eshkak tortish ohangiga moslab allaqanday ashula boshladilar, natijada qayiq ko'pirib oqayotgan daryo to'liqlarida yana ham tez suzib ketdi. Daryo-

ning tez oqar yeri orqada qoldi, endi Vaykato ilang-bilang qirg'oqlari o'rtasidan yana tinchgina oqib borar edi.

Kechqurun Kai-Kumu qayiqni tor, tik qirg'oq bo'yi-da to'xtatishni buyurdi, bu qirg'oqqa dastlabki tog' etaklari tik kelib ulanar edi. Bu yerda qayiqdan tushgan yerliklardan yigirmatachasi tunash uchun joylashayotgan edi. Daraxtlar tagida gulxanlar yonib turardi. Darajasi Kai-Kumuga teng keladigan bir boshliq shoshilmasdan kelib, «shongui» qildi, ya'ni burni uning burniga ishqab, Kai-Kumu bilan do'stlarcha salomlashdi. Asirlarni yana lager o'rtasiga joylashtirib, tong otguncha hushyorlik bilan qo'riqlab chiqdilar.

Ertasiga ertalab Vaykatoning yuqori oqimi sari yana o'sha qiyin safar boshlandi. Daryoning, mayda tar-moqlaridan yangi-yangi qayiqlar chiqib kelaverdi. Ularda oltmishtacha jangchi bor edi. Aftidan, bular ingliz o'qlaridan ozmi-ko'pmi jarohatlanib, endi o'z tog'lariga qaytib kelayotgan oxirgi qo'zg'olon qatnashchilari edi. Biri ketidan biri tizilib kelayotgan qayiqlardan ahyon-ahyonda ashula eshitilib turar, jangchilardan birontasi maorilarni istilochilarga qarshi kurashga chorlovchi ashula boshlab qolardi:

*Papa rativati tidi,
I dunga nei...*

Ashulachining baland va jarangdor ovozi tog'larda aks sado berardi. Har bir banddan keyin yerliklar do'mbira chalganday, ko'kraklariga mushtlab, jangovar naqoratni takrorlar edilar. Eshkakchilar yangi g'ayrat bilan eshkak tortishar, qayiqlar esa daryo oqimining qarshiligini pisand qilmay, suv yuzida suzib borardi.

Shu kuni Vaykatoda g'alati bir holni tomosha qilish mumkin bo'ldi. Kunduz soat to'rtlarda Kai-Kumuning baquvvat qo'li bilan boshqarilayotgan qayiq tezligini kamaytirmay tor daraga dadil kirib bordi. Daryo suvi suzib kelayotgan qayiqlarga juda xavfli bo'lgan son-sanoqsiz orolchalarga shovullab borib urilardi. Falokat bosib, qayiq shu yerda to'ntarilib ketsa ham-maning halok bo'lishi turgan gap, chunki jon asrab bo'ladigan joy yo'q: qaynab turgan sohil balchig'iga qadam qo'yan har qanday odam ham mutlaqo halok bo'ladi.

Gap shundaki, Vaykato bu yerda juda ko'p vaqtlardan beri turistlarning diqqatini tortib kelayotgan issiq buloqlar orasidan oqib o'tadi. Temir oksidi sohildagi balchiqni qip-qizil rangga bo'yagan; u yerda bir sajen ham qattiq yer topib bo'lmaydi. Havo achchiq oltingugurt hidi bilan to'la. Yerliklar buni pisand qilmas edilar, lekin asirlar yer yoriqlari orasidan chiqayotgan va yer osti gazlari ta'siri ostida yorilib pufaklardan ajralayotgan nafasni bo'g'uvchi bug'lardan juda qiynaldilar. Lekin oltingugurt hidini olib kelib bo'g'ayotgan bu kulrang bug'lardan nafas olish qiyin bo'lgani bilan, bu ajoyib manzarani suqlanib tomosha qilmay iloj yo'q edi.

Qayiqlar quyuq bug' buluti orasiga kirib ketdi. Ular oppoq paxtadek bo'lib daryo ustini qoplab turardi. Ikki qirg'oqda yuzlab geyzerlar qaynab yotardi, ulardan ba'zilari bug' purkar, ba'zilaridan esa suv otildirdi. Bug' bilan suv yaratgan bu manzaraning xilma-xilligiga qarab, uni inson qo'li bilan yaratilgan va allaqanday sirli bir mexanizm yordami bilan yuritiladigan fontanlar deb o'ylash mumkin edi. Suv bilan bug' havoda bir-biri bilan aralashib, quyosh nuri ostida kamalakning barcha ranglarida tovlanib ko'rinardi.

Vaykato bu yerda yerosti o'tining ta'sirida uzluksiz qaynab turadigan tagi bo'sh joydan oqib o'tadi. Daryodan sharq tarafda, sal nariroqdagi Rotorua ko'li tomonda, ba'zi mard sayohatchilar ko'rgan issiq buloqlar va bug'lanib turadigan Rotomaxan hamda Teatarata shalolalari guvullab yotardi. Bu atrof geyzerlar, kraterlar va past-baland tepaliklardan iborat edi. Yangi Zelandiyaning harakatda bo'lgan ikki vulqoni – Tongariro bilan Vakarining kraterlaridan o'ziga yo'l topib chiqib ketolmagan ortiqcha gazlar mana shulardan chiqib turadi.

Qayiqlar ikki milcha joyni suv ustida suzib yurgan ko'kish bug'lar orasidan o'tdilar. Nihoyat, bu oltingugurt bulutlari tarqab ketdi-da nafasi bo'g'ilib ketgan asirlar daryo suvining nami bilan muzdek bo'lib turgan toza havodan nafas olib, yengil tortdilar. Oltingugurt buloqlari orqada qoldi.

Kech kirguncha qayiqlar eshkakchilarning g'ayrat qilishi natijasida, daryoning Gipapatua va Tamatea degan ikki tez oqar joyidan suzib o'tdilar. Kechqurun

Kai-Kumu Vaypa bilan Vaykato tutashadigan yerdan yuz mil joyda tunash uchun to'xtadi. Shu vaqtgacha halqa yasab, sharqqa qarab borayotgan daryo bu joydan Taupo ko'liga yaqinlashar edi.

Ertasiga daryoning o'ng tarafida tog' ko'rindi. Jak Paganel xaritaga qarab, uning balandligi uch ming fut chiqadigan Taubara tog'i ekanini aniqladi.

Choshgoh vaqtida qayiqlar karvoni Vaykatoning tarmoqlaridan biri orqali Taupo ko'liga kirib bordi. Ko'l bo'yidagi kulbalardan birining tomida bir parcha latta hilpirab turardi. Yerliklar uni shodlik qiyqiriqlari bilan tabrikladilar – bu ularning milliy bayrog'i edi.

O' n b i r i n c h i b o b

TAUPO KO'LI

Tarixdan ilgari zamonlarda Yangi Zelandiya oroli-ning markazida g'orlarning o'pirilishi natijasida uzunligi yigirma besh mil va kengligi yigirma mil keladigan tagsiz bir jar paydo bo'lgan. Atrofdagi tog'lardan oqib tushgan suvlar uni tagsiz ko'lga aylantirganlar, chunki shu vaqtgacha tushirilgan bironta *lot* ko'lning tagiga yetgan emas.

Taupo ko'li deb ataladigan bu g'alati ko'l dengiz sathidan bir ming ikki yuz ellik fut balandlikka joylashgan va balandligi ikki ming sakkiz yuz fut keladigan tog'lar bilan o'rab olingan. Uning g'arb tarafida baland-baland qirra cho'qqili qoyalar qad ko'tarib turadi; shimol tarafida uzoqdan yonbag'rida pastakkina o'rmon o'sib yotgan tog' cho'qqilari ko'rinib turadi; sharq tarafida keng nishab qumloq sohil cho'zilib ketgan, undan yo'l o'tadi va ko'm-ko'k butalar orasida chiroyli jilvir toshlar yaltillab ko'rinib turadi; janub tarafda o'rmon-o'rmonning orqasida esa vulqonlarning konussimon cho'qqilari ko'zga tashlanadi. Qattiqligi jihatidan okean siklonlaridan qolishmaydigan kuchli bo'ronlar bo'lib turadigan bu kattakon suv havzasini qurshab turgan mahobatli manzara ana shunday.

Bu atrof go'yo yerosti o'ti ustiga qurilgan kattakon qozondek biqillab qaynab yotadi. Yer titrab turadi, pechkaga qo'yilganda qobig'i nihoyatda shishib

ketgan pirog singari yerning qobig'i ham ko'p joylaridan yorilib-yorilib ketgan, u yoriqlardan esa yerosti bug'lari otilib chiqadi. Shubhasizki, agar yig'ilib qolgan yerosti bug'lari ko'ldan yigirma mil naridagi Tongariro vulqonining krateridan chiqib turmaganda, bu nishablikning hammasi yerosti o'chog'iga qulab tushgan bo'lardi.

O't purkab turadigan mayda-mayda tepachalar orasida qad ko'tarib, tutun va o'tga ko'milib yotadigan Tongariro vulqoni ko'lning shimoliy sohilidan ko'rinib turadi. Tongariro juda murakkab orografik sistemaga mansub vulqon. Uning nariyog'idagi pasttekislik o'rtasida boshqa bir vulqon, konussimon boshi to'qqiz ming fut balandlikda, bulutlar orasida ko'rinmay ketadigan Ruapau vulqoni qo'qqayib turadi. Uning qadam yetmas cho'qqisiga hali na bironta odam, na biror hayvon chiqolgan emas, uning krateri ichiga bironta kishi nazar tashlay olgan emas. Tongariro vulqoniga kelsak, so'nggi yigirma yil ichida olimlar uning cho'qqisini uch marta o'lchab ko'rganlar.

Bu vulqon to'g'risida juda ko'p afsonalar to'qilgan. Sayohatchilar bunday fojiali ahvolda bo'lmaganlarida Paganel o'rtoqlariga juda bo'lmaganda, masalan, qo'shni va do'st bo'lgan ikki vulqon, Tongariro bilan Taranakining xotin talashib urishib qolgani to'g'risidagi afsonani so'zlab bergan bo'lardi, albatta. Kunlardan bir kun barcha vulqonlar singari jahldor bo'lgan Tongarironing g'azabi qaynab ketib, Taranakini bir uribdi. Kaltak yegan va tahqirlangan Taranaki Vangani vodiysidan qochib ketibdi, yo'lda ikkita adir tushirib qoldirib, nihoyat, dengiz sohiliga yetib kelibdi; u hozir dengiz bo'yida Egmont tog'i nomi bilan bir o'zi shumshayib turar emish.

Lekin geografiya olimi hozir afsona so'zlab beradigan, do'stlari esa bunga quloq soladigan holda emasdi. Ular taqdirning taqozosi bilan kelib qolishgan Taupo ko'lining shimoli sharq sohiliga indamay qarab o'tirishardi.

Kai-Kumu qayig'ini bir kichkinagina ko'rfazdan olib o'tdi, ko'lning ichkarisiga ancha yorib kirgan qirrali bir burunni aylanib o'tdi-da, sharqiy sohilga, ikki ming futdan ham baland keladigan Mango tog'ining dastlabki tarmoqlaridan biri etagiga kelib to'xtadi. Bu

yerda Yangi Zelandiyaning qimmatbaho zig'iri bo'lgan formiumlar o'sib yotgan dala bor edi. Yerliklar uni «xarakeke» deb ataydilar. Bu foydali o'simlikning chiqitga chiqadigan narsasi bo'lmaydi. Uning gulidan ajoyib asal olinadi. Tanasidan mum bilan kraxmal o'rnini bosadigan yopishqoq bir modda chiqadi. *Formiumning* bargidan bundan ham yaxshiroq narsa olinadi: u ho'l vaqtida qog'oz o'rnini bosadi, qurib qolganda esa pilik o'rnida ishlatiladi. Uning bargiarini eshib, kanop arqon va to'rlar to'qiladi. Tolasidan esa odevallar, bo'yralar, plashchlar va peshbandlar to'qiladi. Qizil yoki qora rangga bo'yalgan formium matasi maorilarning eng qimmatbaho va eng chiroyli kiyimi hisoblanadi.

Bu qimmatbaho formium ikkala orolning hamma yerida: dengiz sohilida ham, ko'l va daryolar sohili-da ham uchraydi. Bu yerda esa uning yovvoyi butalari butun-butun dalalarni bosib ketgan. Uning agava guliga o'xshab ketadigan qizg'ish-jigarrang gullari uzun-uzun va tig' kabi o'tkir quyuc barglari orasidan mo'ralab turardi. Ular ustida formium dalalarining doimiy mehmonlari bo'lgan chiroyli nektariylar galagala bo'lib uchib yurishar va gullarining asal maza sharbatidan shimib lazzat qilishardi. Ko'l suvida, aftidan, o'rgatilgan ko'k va yashil xolli qora o'rdaklar suzib yurardilar.

Chorak mil narida, tog'ning tik yonbag'rida, maorilarning olib bo'lmas qal'asi - pa ko'rinib turardi. Asirlarni birin-ketin sohilga tushirdilar, keyin jangchilar ularning oyoq-qo'llarini yechib, qal'aga olib ketdilar. So'qmoq yo'l oldin formium dalasi o'rtasidan bordi, keyin yashnab yotgan chakalakdan o'tdi. Bu yerda bargi to'kilmaydigan va mevasi qizil bo'ladigan *kaykatealar* ham, yerliklar «ti» deb atashadigan avstraliya dratsenlari ham, mevasidan matolarni qoraga bo'yash uchun foydalaniladigan *guyuslar* ham o'sib yotar edi. Asirlar bilan jangchilar yaqinlashib kelganda, chakalakdan patlari metall singari yaltillagan yirik kaptarlar, ko'k *kurklyushlar* va qizg'ish tojli chug'urchuqlar galasi duv etib uchib ketdi.

Anchagina aylanma yo'ldan yurib, Glenarvan, Elen, Meri Grant va ularning hamrohlari paga kirib keldilar. Qal'a uch qator inshootlar bilan o'rab olingan edi. Birinchi inshoot balandligi o'n besh fut keladigan va

qo'rg'on atrofiga gir aylantirib qoqilgan pishiq nayza xodalardan iborat edi; ikkinchi inshoot ham xuddi o'shanday xodalardan qurilgan; uchinchi ichki inshoot esa toldan qurilgan bo'lib, ora-orasidan miltiq otish uchun teshiklar qoldirilgan edi. Qal'aning ichkarisida maorilarning o'ziga xos bir necha imoratlari bilan tekis qilib solingan qirqtacha kulba bor edi.

Ikkinchi inshoot xodalarining uchiga o'rnatib qo'yilgan odam kallalari asirlarda qo'rqinchli taassurot qoldirdi. Elen bilan Meri qo'rquvdan ham ko'ra nafratdan teskari qarab oldilar. Bular janglarda o'ldirilgan, go'shtini esa g'oliblar yeb yuborgan dushman qabila boshliqlarining kallasi edi.

Kai-Kumuning uyi paning to'rida, pastroq martabali yerliklarning kulbalari o'rtasida edi. Uyning oldida ochiq maydon bor bo'lib, yevropaliklar uni harbiy mashqlar maydoni deb atagan bo'lardilar. Boshliqning uyi bir-biriga novdalar bilan bog'langan xodalardan qurilgan bo'lib, ichkarisiga formiumdan to'qilgan bo'yra qoplangan edi. U bo'yi yigirma fut, eni besh fut va balandligi o'n futli bir xona edi, boshqacha qilib ayt-sak, bu yangi zelandiyaliklar boshlig'ini qondira oladigan uch ming kubofutli bir bino edi.

Bu imoratning eshik o'rnida xizmat qiladigan bit-tagina teshigi bor edi. U ham pishiq bo'yra bilan to'sib qo'yilgandi. Uyning tomi eshik tepasini bekitib turadigan qilib chiqarib ishlangan, bu yerda yomg'ir suvini to'xtatib qoladigan chuqurcha ishlangan. Starapillarining uchiga bir necha rasm o'yilgan. Peshtoqlarga yerlik ustalarining qo'li bilan anchagina narsalarning rasmi - novdalar, barglar, har xil simvolistik maxluqlarning rasmlari o'yilgan. Uyning tagi, uyning atrofidagi yerdan yarim fut balandroq qilib shibbalab ishlangan supa. Qo'g'a poyasidan yasalgan panjara bilan ustiga tifa o'simligining mayin va yupqa barglaridan to'qilgan odeyal yopilgan, qirqquloq solingan to'shak karavot xizmatini o'tardi. Kulbaning o'rtasida bir chuqurcha bor: bu o'choq. Tomning o'rtasidagi teshik mo'ri vazifasini bajaradi. O'choq yoqilganda chiqqan quyuq tutun oldin uyning devorlarini rosa qoraytirib, keyin o'sha teshikdan chiqib ketadi. Kai-Kumuning kulbasi yonida omborlar joylashgan, unda boshliqning zaxira oziq-ovqatlari - uning dalasida pishgan formium, kartosh-

ka va yemishlik qirqquloq hosili saqlanadi. Olov yoqib, cho'g'ida har xil ovqat pishiriladigan pechlar ham shu yerga qurilgan. Sal nariroqqa qurilgan chog'roq to'siqlar ichida cho'chqalar bilan echkilar boqiladi; Yangi Zelandiya orollarida kam uchraydigan bu foydali jonivorlarni bir vaqtlar kapitan Kuk orol iqlimiga o'rgatib tashlab ketgan edi. U yer-bu yerda ovqat izlab izg'ib yurgan itlar ko'rinib qolardi. Ko'rinishidan, maorilar ularning go'shtini yesalar ham, boqishni o'ylamasdilar.

Glenarvan bilan uning hamrohlari boshliqning asirlar to'g'risida biror farmon berishini kutib, allaqanday bir bo'sh kulba yonida mana shu manzarani tomosha qilib turardilar.

Bu vaqt ularni o'rab olgan bir to'da kampirlar og'ziga kelganini qaytarmay, asirlarni qarg'ardilar. Bu alvastilar qo'llarini musht qilib, «la'nati yevropaliklar»ga daf qilib kelishar, chuvvos ko'tarib, do'q urishardi. Ularning qalin labidan uchgan bir necha ingliz so'ziga qarab hukm qilganda kampirlar darhol o'ch olishni talab qilishardi.

Kampirlarning ulishlari va do'qlari orasida Elen xotirjamdek turardi. Erining tutaqib ketishidan qo'rqib, u o'zini qo'lga olish uchun butun kuch-quvvatini sarf qildi. Bechora Meri hushidan ketay deb turardi. Qiz uchun jonini ham berishga tayyor bo'lgan Jon Mangls uni suyab turardi. Uning o'rtoqlari yog'ilayotgan bu do'q va qarg'ishlarga har xil munosabatda bo'ldilar: mayor singari og'ir odamlar buni nazar-pisand qilmadi, Paganel singari yuragi torroqlar esa bunga tobora tutaqib bormoqda edilar.

Glenarvan xotinini bu avishqa kampirlarning zahridan qutqarish uchun Kai-Kumuning oldiga bordi-da, jirkanch alvastilar olomonini ko'rsatib:

– Haydab yubor bularni, – dedi.

Maorilar boshlig'i o'z asiriga tikilib qaradi-yu, javob bermadi, lekin ayyuhannos solayotgan kampirlarga jim bo'linglar, deb ishora qildi. Glenarvan tashakkur bildirgan bo'lib, boshini sal egib qo'ydi-da, shoshilmay hamrohlari yoniga qaytdi.

Bu orada pa ichida yuzga yaqin yangi zelandiya-lik to'plandi: ular orasida chollar ham, o'rta yashar kishilar ham, o'smirlar ham bor edi. Ulardan ba'zilari

qovog'i soliq, lekin xotirjam holda Kai-Kumuning buyrug'ini kutishar, ba'zilari esa so'nggi janglarda halok bo'lgan o'z qarindoshlari yoki do'stlarining g'amida ko'z yoshi qilar edilar.

Vilyam Tomsonning chaqirig'i bilan jangga otlangan maori boshliqlaridan o'z ko'li sohiliga faqat Kai-Kumu qaytib kelgandi, u yangi zelandiyaliklar Vaykatoning quyi oqimida mag'lubiyatga uchraganini, qo'zg'olonning tor-mor keltirilganini o'z qabilasiga hammadan oldin xabar qildi. Uning boshchiligi ostida o'z vatanini himoya qilish uchun jangga otlangan ikki yuz jangchidan faqat ellik kishi qaytib keldi. To'g'ri, ulardan ba'zilari inglizlarga asir tushib qoldi, ammo jang maydonida yiqilgan jangchilardan qanchadan qanchasi yana qaytib turmadi!

Kai-Kumu qaytib kelgandan keyin yerliklarni qamrab olgan cheksiz dilxastalikning sababi ana shu edi. Ular oxirgi jang oqibatidan tamom bexabar edilar, shuning uchun bu xabar ularning hammasiga yashin urgandek qattiq ta'sir qildi.

Yovvoyilar hammaga ko'rsatib g'am chekardilar. Mana hozir ham halok bo'lgan jangchilarning qarindosh-urug'lari, ayniqsa, ayollar o'tkir chig'anoq toshlar bilan yuz va yelkalarini tirnashga tushdilar. Tirqirab chiqayotgan qon ko'z yoshlari bilan aralashib oqardi. Chuqurroq yaralar g'amning kattaligidan darak berardi. Qonga belangan, aqldan ozayozgan yangi zelandiyalik ayollarga qarab turish dahshatli edi.

Yerliklarning dilxastaligiga yana bir sabab bor ediki, bu ularning nazarida katta ahamiyatga ega: uning qarindoshi yoki do'sti halok bo'lganidan tashqari, uning suyaklari ham oilaviy qabrga ko'milmay qoladi. Bu esa, maorilarning e'tiqodicha, u dunyodagi hayot uchun zarur. Yerliklar *udupaga*, ya'ni «shonsharaf makoni»ga odamning chirib ketadigan tanasini emas, balki suyaklarini ko'madilar, ko'mishdan oldin ularni hafsala bilan qirib tozalaydilar, pardozlaydilar, hatto laklaydilar. Qabr tepasiga xuddi marhumning o'z tanasida bo'lganidek tatuirovka solingan haykallari o'rnatiladi. Endi esa ularning qabri bo'sh qoladi, ko'mish marosimida qilinadigan urf-odatlar qilinmaydi, o'ldirilgan jangchilarning suyaklarini esa yovvoyi

itlar g'ajib ketadi yoki ular ko'milmay jang maydonida qolib ketaveradi.

Ularning g'ami ana shu sababdan yana ham ortib ketdi. Xotinlarning do'qiga yevropaliklar boshiga yog'dirilayotgan erkaklarning la'natlari ham qo'shildi. Qarg'ishlar tobora avj olar, do'qlar borgan sari qattiqlashar edi. Baqiriq-chaqiriqlarning ur-kaltakka aylanib ketishi ham hech gap emasdi.

Kai-Kumu o'z qabilasidagi aqldan ozayozgan mutaassiblarni tiyib qo'yishga ko'zi yetmadi shekilli, asirlarni paning narigi burchidagi, jar yoqasidagi bir maydonchaga qurilgan ibodatxonaga qamab qo'yishni buyurdi.

Ibodatxona balandligi yuz fut chiqadigan tog' bag'riga taqab solingan bir kulba edi. Bu muqaddas xonada yerliklarning ruhoniylari – ariklar – yangi zelandiyaliklarga din o'rgatadilar. Keng, hamma yog'i berk bu kulbada muqaddas qushning haykali turardi.

G'azabdan esini yeb qo'yayozgan yerliklarning hamlasidan o'zini vaqtincha bexatar sezgan asirlar formium bo'yralar ustiga cho'zildilar. Holdan toygan va ezilib ketgan Elen erining ko'kragiga bosh qo'ydi. Glenarvan uni mahkam quchoqladi.

– Dadil bo'l, azizim Elen, – deb takrorlardi u.

Asirlarni qamab ketishlari bilanoq Robert Vilsonning yelkasiga mindi-da, har xil tumorlar osib qo'yilgan devor bilan ship orasidan boshini chiqarib, tashqarini kuzata boshladi.

U yerdan Kai-Kumu uyigacha bo'lgan yerlar bahu-zur ko'rinib turardi.

– Ular o'z boshlig'i atrofiga to'planishdi, – dedi bola past tovush bilan. – Qo'llarini paxsa qilib gapirish-yapti... Uvullashyapti... Kai-Kumu allanarsa demoqchi bo'lyapti...

Robert bir necha minut jim qoldi, keyin yana davom etdi:

– Kai-Kumu allanarsalar deyapti... Yovvoyilar tinchlanishdi... Quloq solib turishibdi...

– Maorilar boshlig'ining bizni himoya qilishidan biror maqsadi borgan o'xshaydi, – dedi mayor. – U bizni o'z qabilasining boshliqlariga ayirbosh qilmoqchi. Lekin jangchilar bunga rozi bo'lisharmikan?

– Ha, – dedi bola, yana tovush berib, – ular boshliqqa bo'ysundilar... tarqab ketishyapti... Ba'zilari o'z chaylalariga kirib ketishyapti... Ba'zilari qal'adan chiqib ketishdi...

– Rostdanmi? – deb so'radi mayor.

– Rost, mister Mak-Nabbs, – deb javob berdi Robert, – Kai-Kumuning yonida faqat biz bilan qayiqda kelgan jangchilar qolishdi... Ana, bittasi bizning kulbaga kelyapti...

– Tush pastga, Robert, – dedi Glenarvan.

Shu payt Elen qaddini rostlab, erining qo'lidan ushladi.

– Eduard, – dedi u, qat'iy qilib, – men ham, Meri Grant ham bu yovvoyilar qo'liga tirik tushmasligimiz kerak!

U shunday deb, Glenarvanning qo'liga o'qlangan to'pponcha tutqazdi. Shodlikdan Glenarvanning ko'zlari chaq nab ketdi.

– To'pponcha! – deb yubordi u.

– Ha! Maorilar asir ayollarni tintishmas ekan. Lekin bu to'pponchani ularga qarshi ishlatish uchun berganim yo'q. U bizning o'limimizga xizmat qilishi kerak, Eduard.

– Berkiting to'pponchani, Glenarvan, – dedi shoshib Mak-Nabbs. – Hali vaqti bor.

Eduard to'pponchani kiyimi ostiga yashirib qo'ydi.

Kulbaning eshigi o'rniga tutib qo'yilgan bordon ochilib, bir yerlik kishi kirdi-da, asirlarga orqamdan yuringlar, deb ishora qildi.

Glenarvan bilan hamrohlari bir-birlariga yaqin yurib, pa maydonidan o'tdilar va Kai-Kumu qarshisida to'xtadilar.

Boshliqning atrofida uning qabilasidagi eng ko'zga ko'ringan jangchilar to'plangan edilar. Ular orasida Po-xayvena soyi Vaykatoga quyiladigan yerda Kai-Kumuga qo'shilgan maori turardi. U qirqlarga borgan, baquvvat, qovog'i soliq, qahrli bir kishi edi. Uning ismi Kara-Tete bo'lib, bu yangi zelandiyaliklar tilida «qahri qattiq» degan ma'noni bildiradi. Nozik tatuirovkasiga qaraganda, u o'z qabilasida darajasi baland odam edi, hatto Kai-Kumu ham unga bir qadar hurmat ko'rsatardi. Lekin tuzukroq zehn solib qaragan odam bu ikkala boshliq o'rtasida raqobat borligini sezgan bo'lardi. Kara-

Tetening obro'si balandligi Kai-Kumuning g'ashini kel-tirayotgani mayorning nazaridan qochmadi. Ularning ikkalasi ham Vaykato sohilida yashaydigan katta-katta qabilalarning boshida turishar, ikkalasi ham bir xil huquqqa ega edi. Kai-Kumu o'z o'rtog'i bilan gapla-shayotganda lablari kulib tursa ham, ko'zlarida chek-siz adovat o'tlari chaqnardi.

Kai-Kumu Glenarvanni tergov qila boshladi.

- Sen inglizmisan? - deb so'radi u.

- Ha, - deb javob berdi Glenarvan, u o'zini ingliz deb tanitsa, ayirboshlash ishi yengillashadi deb o'ylagan edi.

- O'rtoqlaring-chi? - deb tergovni davom ettirdi Kai-Kumu.

- O'rtoqlarim ham xuddi menga o'xshash inglizlar. Biz kema halokatiga uchragan sayohatchilarimiz. Agar seni qiziqtirsa, shuni ham aytib qo'yay, bizning biron-tamiz ham urushda qanashganimiz yo'q.

- Buning ahamiyati yo'q! - deb dag'allik bilan uning so'zini bo'ldi Kara-Tete. - Har bir ingliz bizning dush-manimiz. Sening vatandoshlaring bizning orolni kuch bilan bosib oldilar! Ular bizning yerlarimizni o'ziniki qilib oldilar! Qishloqlarimizga o't qo'ydilar!

- To'g'ri qilmabdilar, - dedi Glenarvan jiddiy. - Men buni sening qo'lingda bo'lganim uchun aytayotganim yo'q, o'zim shunday deb o'ylaganim uchun aytyapman.

- Quloq sol, - deb davom etdi Kai-Kumu, - bizning Nui-Atua xudomizning oliy darajali ruhoniysi Togonga sening birodarlaring qo'liga tushib qoldi - u hozir pakekaslarning¹ asiri. Xudo uni qutqarishimizni talab qiladi. Men sening yuragingni sug'urib olishni istar edim, sening kallang bilan o'rtoqlaring kallasi doim shu qal'a devorlariga sanchilib turishini istar edim... Lekin Nui-Atua amr qildi!

Shu so'zlarni aytar ekan, hozirgacha o'zini tutib turgan Kai-Kumu g'azabdan titrab ketdi, basharasi-dan cheksiz qahr-g'azab aks etdi. Bir necha minutdan so'ng u yana tilga kirdi.

- O'zing nima deysan shunga, inglizlaring seni biz-ning Togonga bilan ayirbosh qilishga rozi bo'ladilarmi?

Glenarvan bunga darhol javob bermadi; u indamay turar, maorilar boshlig'ini diqqat bilan ko'zdan kechi-rardi.

¹ Pakekas - yevropalik.

– Bilmadim, – dedi u nihoyat.

– Javob ber, – deb davom etdi Kai-Kumu. – sening joning bizning Togonganing joniga arziydimi-yo'qmi?

– Arzimaydi, – deb javob berdi Glenarvan, – men o'z vatanimda boshliq ham, ruhoniylar ham emasman.

Bu javobdan ajablangan Paganel Glenarvanga juda hayron bo'lib qaradi.

Aftidan, Kai-Kumu ham hayron bo'lib qolgan edi.

– Demak, sen bunga shubha qilasan shundaymi? – deb so'radi u.

– Bilmadim, – deb takrorladi Glenarvan.

– Demak, inglizlaring seni bizning Togonga bilan ayirbosh qilishga rozi bo'lmaydilar?

– Mening bir o'zingga ayirbosh qilmaydilar, hamma-mizga ayirbosh qilsalar ehtimol.

– Biz, maorilar kishini boshma-bosh ayirbosh qilib o'rganganmiz.

– Bo'lmasa, mana bu ikki ayolni o'sha ruhoniylar ayirbosh qilishdan boshla, – deb taklif qildi Glenarvan, Elen bilan Meri Grantni ko'rsatib.

Elen eri tomonga otilmoqchi bo'ldi-yu, lekin mayor uni to'xtatib qoldi.

– Bu ikkala ayolning, – deb davom etdi Glenarvan, Elen bilan Meri Grant oldida hurmat bilan bosh egib, – o'z mamlakatida hurmat-e'tibori juda baland.

Boshliq o'z asiriga sovuqqina qarab qo'ydi. Lablarida achchiq zaharxanda ko'rindi, lekin u g'azabini bosdi va o'zini zo'rg'a tiyib turib javob berdi:

– Sen Kai-Kumuni yolg'on gaplar bilan aldamoqchi bo'lyapsanmi hali, la'nati yevropalik? Sen Kai-Kumu odamlarning qalbini o'qiy olmaydi deb o'ylaysanmi? – Boshliq Eleni ko'rsatdi. – Anovi sening xotining-kul!

– Yo'q, mening xotinim, – deb qichqirdi Kara-Tete va boshqa asirlarni nari turtib, Elenning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

Elen bundan oppoq oqarib ketdi.

– Eduard! – qichqirdi Elen qo'rquvdan o'takasi yorilib.

Glenarvan indamay qo'lini ko'tardi. O'q tovushi yangradi. Kara-Tete o'lik holda yerga quladi.

O'q tovushini eshitib, chaylalardan juda ko'p yerliklar chopib chiqdilar, pa maydonchasi birpasda odamga liq to'ldi. Bechora asirlar tomonga yuzlarcha

qo'llar cho'zildi. Glenarvanning qo'lidan to'pponchani bir zumda yulib oldilar. Kai-Kumu unga g'alati qilib bir qarab qo'ydi. Keyin bir qo'li bilan qotilni to'sib, ikkinchi qo'lini yuqoriga ko'tardi-da, «la'nati pakekas» ustiga otilmoqchi bo'lib turgan olomoni to'xtatdi.

Uning baland ovozi shovqin-suronni bosib tushdi:

– Tabu! Tabu!

Bu so'zni eshitgan yerliklar olomoni go'yo bir g'ayritabiiy kuch to'xtatib qolganday Glenarvan bilan uning hamrohlari qarshisida taqqa to'xtab qoldi.

Bir necha minutdan keyin asirlarni yana o'sha turma vazifasini bajargan ibodatxonaga qamab qo'ydilar. Ammo ular ichida na Robert, na Paganel bor edi.

O' n i k k i n c h i b o b

MAORILAR BOSHLIQ'INI KO'MISH MAROSIMI

Kai-Kumu o'z qabilasida faqat boshliq emas, balki uning *ariki*, ya'ni ruhoniysi ham edi – bunday hollar Yangi Zelandiyada ko'p uchraydi, – shuning uchun o'z qabiladoshlarining xurofotchiligidan foydalanib, tabu e'lon qila olardi.

Tabu – Polineziya xalqlarining hammasida rasm tusiga kirgan; biror kishiga yo biror narsaga tabu e'lon qilinsa, u kishi bilan biror munosabatda bo'lish, u narsadan biror maqsadda foydalanish butunlay man qilinadi. Maorilar dini tabu e'lon qilingan narsani tahqir qilgan har bir kishi xudoning g'azabiga uchraydi deb ta'lim beradi. Shunisi ham borki, xudo bunday odamlarning jazosini berishga shoshilmasa, xudo o'rniga uning jazosini ruhoniy beradi.

Boshliqlar siyosiy maqsadlarda tabu joriy qiladilar, lekin tabu kundalik hayotda, shaxsiy manfaatlar yo'lida ham joriy qilinishi mumkin. Biror yerlikka bir necha kungacha tabu e'lon qilish hollari tez-tez uchrab turadi: yerlik odam sochini oldirsa, uni taituirovka qilinsa, u o'ziga qayiq yasasa yoki uy qursa, o'lim to'shagida yotgan bo'lsa, yoki, nihoyat, vafot qilinsa, unga tabu joriy qilinadi. Agar yerliklar baliqni juda ko'p tutib yuborsalar-u, daryoda baliq qolmaslik xavfi tug'ilsa, yoki yana o'sha yerlik odamlar hali pishib

yetilmagan shirin patatlarni yeb qo'ya boshlasalar-u, plantatsiyani quritib yuborishlari xavfi tug'lsa, unda baliqlarga ham, patatlarga ham ularni saqlab qoladigan tabu e'lon qilinadi. Agar boshliq ha deb kelaverib, bezor qilgan mehmonlardan qutulishni istasa, uyiga tabu joriy qiladi. Bordi-yu boshliq biror ajnabiy kema-da kelgan mollarni faqat o'z ixtiyoriga olmoqchi bo'lib qolsa, u darhol kemaga tabu joriy qiladi. U o'ziga yoq-magan biror yevropalik savdogarni xaridordan mah-rum qilmoqchi bo'lsa ham, unga tabu e'lon qiladi. Boshliqning bu taqiqlari qirollar bir vaqtlar joriy qilgan *vetoni* eslatadi.

Agar biror narsaga tabu joriy qilinsa, unga tekkan kishi jazolanmay qolmaydi. Yerlik odamga tabu joriy qilinsa, u ma'lum bir vaqtgacha ba'zi xil ovqatlarga qo'l urolmaydi. Agar tabu joriy qilingan kishi badavlat bo'lsa, unga qullari yordam beradilar: u o'z qo'li bilan tegishi mumkin bo'lmagan taomni qullari og'ziga solib qo'yadilar. Tabu joriy qilingan odam kambag'al bo'lsa, o'sha ovqatni to'g'ridan to'g'ri og'zi bilan olib yeyishi kerak: tabu tufayli u hayvon darajasiga tushib qoladi.

Xullas, bu o'ziga xos odat yangi zelandiyaliklarning eng arzimagan xatti-harakatlarini ham ma'lum bir yo'riqqa solib va o'zgartirib turadi. Tabu qonun kuchiga ega, uning tez-tez joriy qilinib turishi yerliklarning butun qoida-qonunlari o'rnini bosadi, uni muhokama qilish ham, unga shak keltirish ham mumkin emas.

Sayohatchilarimizga joriy qilingan tabuga kelsak, Kai-Kumu ularni g'azabi qaynab toshgan hamqabilalaridan saqlab qolish uchun joriy qildi. Kai-Kumu bir sehrlil so'zni aytishi bilanoq uning do'stlari va tarafdorlari taqqa to'xtab, asirlarni o'z himoyalari ostiga olishdi, keyin ularni o'zlari qo'riqlasha boshlashdi.

Lekin Glenarvan o'zining taqdiri qanday bo'lishini yaxshi bilardi. U yerliklar boshlig'ini o'ldirgani uchun o'z hayoti bilan xun to'lashini tushunardi. Yovvoyi xalqlar esa birovni o'ldirishdan oldin rosa qiynaydilar. Glenarvan Kara-Teteni o'ldirishiga sabab bo'lgan g'azabining qanchalik o'rinli bo'lishiga qaramay, har qanday qiynoqlarga dosh berishga tayyor edi, lekin u Kai-Kumuning g'azabi faqat mening boshimga tushadi deb umid qilardi.

Glenarvan bilan hamrohlari tunni qanday azoblar ichida o'tkazganlarini bilsangiz edi! Ularning g'amini, tortgan uqubatlarini kim tasvirlab bera oladi! Bechora Robert bilan dovyurak Paganel qaytib kelmadilar. Ularning taqdiriga zarracha ham shubha qilish mumkinmidi! Ular o'ch olishga tashna bo'lib yotgan yerliklarning dastlabki qurboni bo'ldilar. Hatto Mak-Nabbs ham umidsizlikka tushdi. Ukasidan ajralgan Meri Grantning dili siyohligini ko'rib, Jon Mangls jinni bo'layozdi. Glenarvan Elenning mash'um iltimosi to'g'risida, qiynoqlar va qullik azobini ko'rmaslik uchun erining qo'lida o'lishni orzu qilgani to'g'risida o'ylar edi. U shunday dahshatli ishga kuch topa olarmikanman, deb o'zidan so'rardi.

«Xo'sh, Meri-chi, uni o'ldirishga mening qanday haqqim bor?» – deb o'ylar edi dilxastalik bilan Jon Mangls.

Qochish to'g'risida o'ylashning ham hojati yo'q: tish-tirnog'igacha qurollangan o'nta jangchi ibodatxona eshigi oldida soqchilik qilib turardi.

13-fevral tongi otdi. Yerliklar tabu joriy qilingan asirlar bilan hech qanday aloqa qilmas edilar. Ibadatxonada biroz ozuqa bor edi, lekin bechora sayohatchilar zo'rg'a bir-ikki luqma ovqat yegan bo'ldilar. G'am ochlikdan ustun keldi. Kun ham o'tdi, lekin hech qanday o'zgarish bo'lmadi, qutulishga biror umid ham tug'ilmadi. Aftidan, o'ldirilgan boshliqni dafn qilish marosimi bilan qotilni qatl qilish bir vaqtda bo'lishi kerak edi.

Glenarvan Kai-Kumu asirlarni ayirbosh qilish fikridan voz kechganiga ishonib qoldi. Mak-Nabbs esa hamon salgina bo'lsa ham bundan umidvor edi. Lekin Mak-Nabbs har nima demasin, Glenarvan endi tamom umidini uzib qo'ydi. 14-fevral ham o'tdi, lekin bugun ham qatlgaga hech qanday tayyorgarlik ko'rilmadi. Buning sababi esa quyidagicha edi:

Maorilar o'lgan kishining joni uch kungacha murdani tashlab ketmaydi deb ishonadilar, shuning uchun uni uch kungacha ko'mmay saqlaydilar. Dafn qilishni orqaga surishga majbur etgan bu odatga har galgidek bu safar ham qat'iy rioya qilindi. 15-fevralgacha pa huvillab yotdi. Jon Mangls Vilsonning yelkasiga chiqib, tashqarini bir necha marta ko'zdan kechirdi. Tashqari-

da bitta ham yerlik ko'rinmas edi. Faqat ibodatxona eshigi oldida asiriarni hushyorlik bilan qo'riqlab turgan soqchilar almashinib turardi.

Lekin uchinchi kun kulbalarining eshiklari katta ochildi. Bir necha yuz maori – erkaklar, xotinlar, bolalar – pa maydoniga to'plandilar. Ular xotirjam va jim turardilar.

Kai-Kumu qabilaning asosiy boshliqlari qurshovida o'z uyidan chiqib keldi-da, qal'aning o'rtasiga qurilgan bir necha sajen narida yarim doira shaklida g'uj bo'ldilar. Hali ham hamma jim turardi.

Kai-Kumu ishora qildi, jangchilardan biri ibodatxona tarafga yurdi.

– Gapim esingda bo'lsin, – dedi Elen eriga.

Glenarvan indamay uni bag'riga bosdi. Shu payt Meri Grant Jon Mangls oldiga keldi.

– Xo'rlikdan xalos etish uchun er xotinini o'ldira olsa xuddi shu maqsadda bo'lajak kuyov ham o'z qallig'ini o'ldira oladi. Jon, ehtimol, bu umrimizning oxirgi minutlaridir, sizdan shuni so'rab olay, siz meni allaqachonlardan beri sevasiz, shunday emasmi? Azizim Jon, Elen o'z eridan iltimos qilgan narsani men ham sizdan kutishim mumkinmi?

– Meri! – deb yubordi dovdirab qolgan yosh kapitan.
– Meri! Jonim!..

U gapini tugata olmadi: eshik o'rniga tutib qo'yilgan bordon ko'tarildi-yu, ularni Kai-Kumu oldiga olib ketdilar. Ayollar taqdirilariga tan bergan edilar. Erkaklar esa butun kuch va irodalarini sarf qilib, o'zlarini xotirjam ko'rsatishga tirishardilar.

Asirlarni yangi zelandiyaliklar boshlig'i oldiga olib bordilar. Hukm qisqa bo'ldi.

– Sen Kara-Teteni o'ldirdingmi? – deb so'radi Kai-Kumu Glenarvandan.

– O'ldirdim, – deb javob berdi u.

– Ertaga tong paytida sen o'lasan.

– Bir o'zimmi? – deb so'radi Glenarvan; uning yuragi gupillab urib ketdi.

– Eh, Togongamiz hayoti sizlarnikidan qimmatliroq bo'lmaganda edi! – dedi g'azab aralash afsus bilan Kai-Kumu.

Shu vaqt yerliklar orasida allaqanday harakat boshlandi. Glenarvan darhol o'sha tomonga qayrilib qara-

di. Ha demay olomon chetlashib, allakinga yo'l berdi, odamlar orasidan terlab ketgan, charchab holdan toygan bir jangchi o'tib keldi. Kai-Kumu uni ko'rishi bilan oq ingliz tilida savol berdi – aftidan, u gapini asirlar ham tushunishini istar edi.

- Sen pakekaslar lageridan keldingmi?
- Ha, – deb javob berdi maori.
- Sen asirni – bizning Togongani ko'rdingmi?
- Ko'rdim.
- U tirikmi?
- O'ldi. Inglizlar otib tashladilar.

Glenarvan bilan hamrohlarining taqdiri hal etilgan edi.

- Ertaga tongotar paytda hammangiz o'lasiz! – dedi Kai-Kumu.

Shunday qilib, asirlarning hammasi ham jazolanadigan bo'ldi.

Asirlarni ibodatxonaga qamadilar. Ular boshliqni dafn qilish marosimida va bu marosimda bo'ladigan qonli udumlarda qatnashishlari lozim edi. Yerliklar otriyadi asirlarni bir necha qadam chetroqqa, *kuni* degan kattakon daraxt ostiga olib bordi. Asirlar ulardan ko'z uzmay turgan soqchilar qurshovida turardilar. Boshliqni ko'mish mahalida talab qilinadigan g'am-g'ussaga berilgan boshqa maorilar ularni unutgandek edi.

Kara-Tete o'lganidan keyin odat talab qilgan uch kun o'tdi. Yangi zelandiyaliklarning e'tiqodicha, endi uning ruhi chirik tanasidan butunlay chiqib ketdi. Ko'mish marosimi boshlandi. Boshliqning jasadini olib kelib, qal'a o'rtasidagi supaga qo'ydilar. Marhumga eng yaxshi kiyimlar kiydirilgan va ustiga a'lo navli *formium* sholcha yopilgan edi. Patjig'alar bilan bezatilgan boshiga ko'k barglardan yasalgan gulchambar qo'yilgandi. Marhumning yuzi, qo'llari va ko'kragiga o'simlik moyi surtilgan bo'lib, jasad sira buzilmagandi.

Kara-Tetening qarindosh-urug'lari va yor-do'stlari uning jasadi qo'yilgan supa yoniga keldilar, shunda go'yo marosimda motam marshini chalishga diriyorlik qilayotgan kapelmeysterning tayoqchasiga bo'ssungandek, birdan quloqni batangga keltiruvchi dod-faryod, oh-voh ko'tarildi. Azadagi bu dod-dodlar va fig'on chekishlarga qarab, ularga achinmay bo'lmas edi. Marhumning do'stlari o'z boshlariga mushtlar,

qarindosh-urugʻlari esa oʻtkir tirnoqlari bilan yuz-koʻzlarini timdalashar, koʻz yoshidan koʻra koʻproq qon toʻkishardi. Bu bechora ayollar oʻzlarining yovvoyi odatlarini chin yurakdan bajarmoqda edilar. Lekin marhumning ruhi halovatda boʻlishi uchun, aftidan, hali bu kifoya qilmasdi, shuning uchun jangchilar boshliqning oʻlmay qolgan qabiladoshlariga qahri kelmasin deb qoʻrqib, bu dunyoda koʻrgan izzat-hurmatini u dunyoda ham koʻrsin uchun marhumni rozi qilmoqchi boʻldilar. Shuning uchun Kara-Tetening turmush yoʻldoshi vafot etgan erini narigi dunyoga yolgʻiz joʻnatmasligi kerak edi. Bechora xotin oʻzi ham eridan keyin qolishni istamasdi. Odat, qonun ana shunday edi. Yangi Zelandiya tarixi bunday qurbon keltirishlarini juda koʻp koʻrgan.

Kara-Tetening tul qolgan xotini paydo boʻldi. U hali yoshgina ekan. Toʻzib ketgan sochlari yelkasida yo-yilib yotar, uvvos koʻtarib, oh-voh qilardi. U yigʻi orasida oʻlgan erining fazilatlarini aytib yigʻlar va uning oʻlganiga afsuslar chekardi. Nihoyat, u gʻam-alamga toqat qilolmay, supa oldiga uzala choʻzildi-da, zoʻr berib boshini yerga ura boshladi.

Shu payt uning oldiga Kai-Kumu keldi. Bechora qurbon birdan oʻrnidan turdi, lekin boshliq qoʻlidagi tayoq bilan uning boshiga qarsillatib urib, uni yana bir yerga agʻdardi. Xotin yashin urgandek gursillab yiqildi.

Dahshatli hayqiriqlar eshitildi. Yuzlab qoʻllar gʻazab bilan asirlar tarafga choʻzildi. Lekin hech kim joyidan qimirlamadi, chunki dafn qilish marosimi hali tugamagan edi.

Kara-Tetening xotini eriga qoʻshildi. Endi ularning jasadi yonma-yon yotardi. Lekin marhumning mangu hayoti uchun sodiq xotinigina kifoya qilmas edi. Bu dunyodagi qullari ketlaridan joʻnatilmasa, Nua-Atua dargohida er-xotinga kim xizmat qiladi?

Bechora qullardan oltitasini olib kelib, xoʻjayinlarining jasadi yoniga turgʻizishdi. Bular urushning shafqatsiz qonunlari natijasida qul boʻlib qolgan xizmatkorlar edi.

Bu bechoralar, aftidan, oʻz taqdirilariga soʻzsiz boʻysungan edilar. Ular bunga hayron boʻlmadilar: shunday boʻlishini ular allaqachon bilardilar. Ular-

ning qo'li bog'lanmaganligi qurbonlar qarshilik ko'rsatmasligini bildirardi.

Buning ustiga qullarning o'limi tez bo'ldi: ularni qiynoqdan xalos qildilar. Qiynoqlar azobi boshliqni o'ldirganlarni kutardi. Ular bu mash'um manzaradan yuzlarini teskari o'girib yigirma qadamcha narida turardilar; mash'um manzara hali bundan ham avjga minishi kerak edi.

Oltita baquvvat jangchi tayoq bilan urib qurbonlarni yerga ag'dardilar, ular qora qonlariga belanib yiqildilar. Bu odamxo'rlikdek jirkanch ishning boshlanishiga signal bo'ldi.

Ko'jayinlarning jasadiga joriy qilingan tabu qullarning jasadiga taalluqli bo'lmaydi. Qullarning jasadi qabila o'ljasi hisoblanadi. Bu - dafn etish marosimida ko'z yoshi to'kkanlarga tashlangan mayda xayr-ehson. Shuning uchun, qurbonlar yiqilishi bilanoq yerliklar hammasi - boshliqlar, jangchilar, chollar, ayollar, bolalar - yoshi va jinsidan qat'i nazar, hammalari vahshiyona bir ochko'zlik bilan qurbonlarning o'lik tani ustiga tashlandilar.

Glenarvan bilan uning hamrohlari jirkanib, bu yaramas manzarani ayollar ko'zidan yashirishga urindilar. Ular ertasi kuni ertalab kun chiqar paytda o'zlarini nima kutib turganini va o'limdan oldin qanday qiynoqlarga duchor bo'lishlarini yaxshi bilar edilar. Sayohatchilar dahshat va nafratdan qotib qolgan edilar.

Odam go'shti ziyofatidan keyin dafn raqslari boshlandi. Garmdori aralashtirilgan o'tkir ichkiliklar paydo bo'ldi, qon ichib mast bo'lib turgan yovvoyilar battarroq quturib ketdilar. Ularning odam ekanini ko'rsatadigan hech qanday alomat qolmadi. Ular boshliq joriy qilgan tabuni ham unutib, o'zlarining hozirgi ahvolidan esi og'ib qolayozgan asirlar ustiga tashlanadigandek tuyulardi.

Lekin umumiy mast-alastilik ichida Kai-Kumu o'zini yo'qotmadi. U bu qonli marosimni eng yuqori nuqtasiga yetib chiqishiga qo'yib berdi, so'ng marosim sekin-asta tinchlana bordi va, nihoyat, belgilangan qoida yo'liga kirib tugadi. Kara-Tete bilan xotining jasadini ko'tarib, yangi zelandiyaliklar rasmi bo'yicha, oyog'ini yig'ib, qorniga tirab o'tqazdilar-da, tizzasi us-

tiga murdalarning qo'lini qo'ydilar. Jasadlarni chirib, faqat suyagi qolguncha yerga ko'mish vaqti keldi.

Qabr uchun joyni qal'adan tashqaridan, ikki milcha nariroqda, ko'lining o'ng sohilida qad ko'tarib turgan, uncha katta bo'lmagan Maunganamu tog'ining cho'qqisidan tanladilar.

Boshliq bilan xotining jasadini o'sha yerga olib borishlari kerak edi. O'liklar yotgan supa oldiga ikkita ibtidoiy taxtiravon yoki to'g'rirog'i, ikki zambil olib keldilar. Ularga ikkala o'likni o'tqazdilar va kiyimlaridan lian bilan zambilga bog'lab qo'ydilar. To'rtta jangchi zambillarni ko'tarib oldi, butun qabila yana yig'i-sig'i, dod-faryod ko'tarib, ularni ko'madigan yerga jo'nadi.

Hali ham soqchilar hushyorlik bilan qo'riqlab turgan asirlar shu payt marosimga ishtirok etayotganlarning birinchi to'siqdan tashqari chiqib ketganini ko'rib turdilar, shundan keyin qo'shiq va dod-faryod sekin-asta pasaya boshladi.

Vodiydan o'tib borayotgan marosim qatnashchilari yarim soatcha asirlarga ko'rinmay turdi, so'ng to'qqa ko'tarilib boradigan ilonizi so'qmoqda yana ko'rina boshladi. Ilonizi bo'lib ko'tarilib borayotgan odamlar uzoqdan g'ira-shira ko'zga chalinardi.

Qabila Maunganamu cho'qqisida, sakkiz yuz fut balandlikda, Kara-Teteni ko'mish uchun qabr hozirlab qo'yilgan yerda to'xtadi.

Oddiy bir maorini ko'mayotgan bo'lsalar, oddiy bir chuqur qazib, o'likni tosh bilan ko'mib qo'ya qolgan bo'lardilar. Lekin qabila yaqin orada shubhasiz ilohiyot darajasiga ko'tariladigan qahri qattiq, qudratli boshliqqa uning ko'rsatgan xizmatlariga yarasha qabr hozirlagan edi.

Qabr atrofi katta-katta to'sinlar qoqib o'ralgan, boshliq bilan xotining jasadi qo'yiladigan chuqur atrofiga ham qoziqlar qoqilgan; bu qoziqlar oxraga bo'yalgan har xil tasvirlar bilan bezatilgan. Dafn qilina-yotganlarning qarindoshlari *vaydua*, ya'ni o'lganlarning ruhi tirik vaqtdagi singari ovqat yeyishini unutmagan edilar. Shuning uchun qabrga marhumlarning quroli va kiyim-boshidan tashqari har xil oziq-ovqat ham qo'yildi.

Shunday qilib, o'lgan boshliqning qabrida unga zarur bo'lgan hamma narsa bor edi. Er-xotinni yonma-

yon yotqizdilar, keyin yangidan oh-voh qilib, ko'z yoshi to'kib oldilar-da, ularni tuproq va gul bilan ko'mdilar. Bu ishlar tamom bo'lgach, hamma chuqur sukunat ichida tog'dan tushdi. Shundan buyon o'lib ketishdan qo'rqib, Muanganamu tog'iga hech kim chiqmaydigan bo'ldi, chunki 1846-yilgi yer qimirlashda halok bo'lgan boshliq ko'milgan Tangariro tog'iga joriy qilingandek, bu toqqa ham tabu e'lon qilindi.

O' n u c h i n c h i b o b

SO'NGGI SOATLAR

Quyosh Taupo ko'lining narigi tomonidagi tog' cho'qqilari orasiga bota boshlaganda, asirlarni yana turmaga qamab qo'ydilar. Bechoralar undan quyoshning ilk nurlari tog' tizmasining cho'qqilariga tushganda chiqishlari kerak edi.

Bu ularning o'lim oldidagi so'nggi kechasi edi. Niho-yat, charchaganlari va dahshatli minutlar kechirayotganlariga qaramay, ular birga oqvatlangani o'tirdilar.

– O'limning yuziga tik boqish uchun kuch yig'ib olishimiz kerak, – deb qo'ydi Glenarvan. – Bu yovvoyilarga yevropaliklar o'limdan qo'rqmasligini ko'rsatishimiz lozim.

Ovqatdan keyin Meri Grant bilan Elen kulbaning bir burchagiga borib, bo'yra ustiga cho'zildilar. Har qanday g'amni unuttirib yuboradigan orombaxsh uyqu ularni o'z og'ushiga oldi. Kechalarni bedor o'tkazib, juda holdan toygan bechora ayollar bir-birlari pinjiga kirib, uxlab qoldilar.

Glenarvan do'stlarini bir chekkaga olib chiqib, dedi:

– Aziz do'stlarim, peshanamizda ertaga o'lish bor bo'lsa, biz o'limni oliyjanob maqsadga intilib kelganimizni anglagan holda qarshi olishimizga ishonaman. Lekin gap shundaki, bizni bunda faqat o'lim emas, balki azob-qiynoqlar kutadi, sharafimiz poymol qilinsa ham ehtimol, shuning uchun bu ikki ayol...

Gap shu yerga kelganda Glenarvanning hozirgacha qat'iy bo'lgan ovozi titrab ketdi. U hayajonini bosib olish uchun bir nafas to'xtadi.

- Jon, - dedi u, bir minutchadan keyin yosh kapitanga qarab, - men Elenga bergan va'damni, siz ham Meriga bergansiz. Endi nima qilmoqchisiz?

- Menimcha, va'damni bajarishga haqli bo'lsam kerak deyman, - dedi Jon Mangls.

- To'g'ri, Jon, lekin siz bilan bizning hech qanday qurolimiz yo'q-ku.

- Bir dona bor, - dedi yosh kapitan, unga xanjar ko'rsatib, - men uni Kara-Tete oyog'ingiz ostiga yiqilayotganda qo'lidan tortib oldim. Ser, qaysi birimiz keyin qolsak, o'shanimiz xotiningiz bilan Meri Grantga bergan va'damizni bajarishimiz kerak.

Oraga chuqur sukunat tushdi. Bu jimjitlikni mayor buzdi.

- Do'stlarim, - dedi u, - bu oxirgi chorani so'nggi daqiqalargacha qo'llamanglar. Men tuzatib bo'lmas xatolarga tamomila qarshiman.

- Men bunday deganimda, biz erkaklarni nazarda tutganim yo'q, - dedi Glenarvan. - Bizni qanday o'lim kutayotgan bo'lmasin, sira qo'rqmay qarshi olamiz. Eh, qani endi bizning yolg'iz o'zimiz bo'lsak! Unda men allaqachon: «Do'stlarim, ular orasini yorib o'tishga urinib ko'ramiz! Bu muttahamlarga hujum qilamiz!» deb da'vat qilgan bo'lardim. Lekin xotinim, Meri...

Jon Mangls eshik o'rniga tutib qo'yilgan bo'yroni ko'tarib, ibodatxona eshigini qo'riqlab turgan maorilarni sanay boshladi: yigirma besh kishi. Ular yoqqan katta gulxan maydonga, atrofdagi kulbalar va pa to'siqlariga vahimali yorug'lik tashlab turardi. Bu yovvoyilarning ba'zilari yerda cho'zilib yotishar, ba'zilari qimirlamay tik turishardi, ularning soyasi yorqin gulxan sathida qop-qora bo'lib ko'rinardi. Lekin hammasi ham o'zlariga qo'riqlash topshirilgan kulba tomonga tez-tez qarab qo'yishardi.

Qochib ketmoqchi bo'lgan tutqunning muvaffaqiyat qozonishga bo'lgan imkoni uni qo'riqlayotgan turma nazoratchisidan ortiqroq bo'ladi deyishadi. Haqiqatan ham mahbus bunda nazoratchidan ko'ra ko'proq manfaatdor. Nazoratchi o'zining nazorat qilib turish uchun qo'yilganini unutmaydi. Mahbus qochish to'g'risida soqchi uni qo'riqlash to'g'risida o'ylagandan ko'proq o'ylaydi. Mahbuslarning ko'pincha kishini hayron qoldirib qochib ketishiga sabab ana shu.

Lekin bizning tutqunlarni oddiy turma soqchilari emas, nafrat va intiqom hislari qo'riqlab turardi. Asirlarning oyoq-qo'llarini bog'lab qo'ymaganlariga sabab ibodatxonadan chiqadigan birdan-bir yo'lni yigirma besh kishi qo'riqlab turishi edi.

Bu kulba qal'aning eng to'riga, katta qoyatoshga tirab qurilgan bo'lib, unga faqat qal'a ichidan yo'l bor edi. Bundan bir tor yo'l orqali qal'adagi pa maydoniga borilardi. Kulbaning yon tomondagi ikki devori tik qoyalar tepasida qad ko'targan bo'lib, tagidan chuqurligi yuz futcha chiqadigan jar boshlanardi. Bu yerdan tushishning iloji yo'q. Orqa devordan qochishning ham iloji yo'q, chunki u baland qoyaga taqalgan. Undan olib chiqadigan bitta-yu-bitta yo'l kulbaning eshigi bo'lib, u pa maydoniga olib boradigan ko'tarma ko'prik singari tor yo'lga ochilardi. Lekin bu yerda ularni maorilar qo'riqlab turardilar. Shunday qilib, qochishning iloji yo'q. Turma devorlarini yigirma martalab ko'zdan kechirib chiqqan Glenarvan buni e'tirof qilishga majbur bo'ldi.

Ammo bu kechaning har bir soati qanchalik og'ir bo'lmasin, har qalay birin-ketin o'tib borardi. Tog'lar qop-qorong'u zimiston ichiga g'arq bo'lgan, osmonda na oy, na yulduzlar ko'rinmasdi. Ahyon-ahyonda ibodatxona ustunlarini larzaga keltirib, guvullab shamol urib qolardi. Shamol maorilar gulxanini alangalantirib yuborar, shunda uning gur etib ko'tarilgan alangasi ibodatxona ichini va unda o'tirgan tutqunlarni bir lazha yoritardi. Bechoralar o'lim oldi xayollariga cho'mib o'tirardilar. Chayla ichida qabriston jimligi hukmron.

Ertalab soat to'rtlarda allaqanday shitirlagan tovush mayorning diqqatini o'ziga jalb qildi, tovush chaylaning orqa devori taqalgan qoya tarafdin eshitalayotgandek edi.

Mayor avval bunga e'tibor bermadi, lekin shitirlash ha deganda tinavermagach, mayor unga quloq sola boshladi, birozdan so'ng qiziqib qolib, yaxshiroq eshitish uchun yerga yotib, quloq berdi. Uning nazari-da, devor orasida allakim yerni kavlayotgandek, toshni yo'nayotgandek tuyuldi.

Mak-Nabbs shitirlagan ovoz anig eshitalayotganiga ishonch hosil qilgach, sekin yurib Glenarvan bilan Jon

Mangls oldiga bordi-da, rutubatli o'ylarini bo'lib. ularni chaylaning to'riga olib keldi.

– Quloq solinglar, – dedi u shivirlab va engashinglar deb imladi.

Shitirlagan tovush tobora aniqroq eshitila bordi. Endi allaqanday o'tkir qurol siqig'iga dosh berolmay g'ijirlab ko'chayotgan va pastga tushib ketayotgan mayda toshlarning tovushi aniq eshitildi.

– Allaqanday bir hayvon in kavlayapti, – dedi Jon Mangls.

Glenarvan birdan peshanasiga shartta urdi.

– Kim biladi deysiz! – dedi u. – Bordi-yu, odam bo'lsa-chi!

– Uning odammi yo hayvon ekanini mana hozir bilamiz-da, – dedi mayor.

Shu payt ular oldiga Vilson bilan Olbinet keldilar; keyin to'rt kishilashib devor tagini qaziy boshladilar: Jon Mangls xanjarini ishga soldi, boshqalar esa yerdan ko'chirib olgan toshlar yoki quruq qo'llari bilan yerni kavlay ketdilar. Myulredi yerga cho'zilib yotib oldi-da, eshik o'rniga tutib qo'yilgan bo'yraning tagini sal ko'tarib, yerliklarni kuzata boshladi.

Yovvoyilar gulxan atrofida qimirlamay o'tirishardi, ular o'zlaridan yigirma qadamgina joyda nimalar bo'layotganidan tamom bexabar edilar.

Asirlar kavlayotgan yer yumshoq ekan, tuproqning tagi esa toshloq bo'lib chiqdi. Shuning uchun hech qanday asbob yo'qligiga qaramay, o'ra tez chuqurlasha bordi. Ko'p o'tmay bir kishi, yoki bir necha kishi chayla tagini kovlab, yo'l ochib kelayotgani aniq ma'lum bo'ldi. Ularning maqsadi nima edi? Ular bu yerda asirlar borligini bilarmikin, yoki o'zlarining biror shaxsiy manfaati bormikin?

Asirlar yana ham zo'r berdilar. Ularning barmoqlari timdalanib qonab ketdi, lekin ular hamon tinmay yer kavlar edilar. Yarim soat deganda ular yarim sajencha chuqurlatib qo'yidilar. Narigi tomondan shitirlagan tovush borgan sari aniqroq eshitila berdi: ikkala tomondan yer qaziyotgan odamlarni yupqa bir qatlam ajratib turgani aniq edi. Yana bir necha minut o'tdi, shunda birdan mayorning qo'lga allaqanday o'tkir narsaning tig'i kelib tegib, qonatib yubordi, u qo'lini shartta tortib oldi. Mayor baqirib yuborishdan o'zini zo'rg'a tiyib

qoldi. Jon Mangls yer tagidan chiqib kelgan pichoqni o'z xanjari bilan nari surib, uni tutib turgan qo'lni mahkam ushlab oldi. Bu yo biror ayolning, yo yosh bolaning qo'li, yevropalik odamning qo'li edi!

Na narigi tomondan, na bu tomondan hech kim indamadi. Aftidan, har ikki tomon ham jimlik saqlashdan manfaatdor edilar.

- Robert emasmi bu? - deb shivirladi Glenarvan.

Glenarvan buni qanchalik sekin aytgan bo'lmasin, atrofida bo'layotgan harakatdan uyg'onib yotgan Meri Grant darrov Glenarvan oldiga yetib keldi va tuproqqa belangan qo'lni mahkam ushlab, o'pa boshladi.

- Senmisan-a! Sen-a! - deb shivirlar edi qiz. Axir o'z ukasining qo'lini tanimasligi mumkinmidi! - Senmisan, ukajonim Robert!

Yer ostidan Robertning:

- Ha, opajon, menman, - degan ovozi eshitildi. Sizlarni qutqargani keldim. Lekin jim, shovqin qilmanglar!

- Dovyurak bola!.. - deb takrorlar edi Glenarvan.

Yer ostidan yana yosh Grantning:

- Eshikdan yovvoyilarni kuzatib turinglar, - degan tovushi eshitildi.

Bola paydo bo'lishi bilan o'z kuzatish punktini tashlab kelgan Myulerdi yana joyiga qaytdi.

- Tinchlik, - dedi u, - soqchilikda faqat to'rt kishi turibdi. Boshqalari uxlab yotishibdi.

- Qani, bo'la qolinglar! - dedi Vilson.

Bir minutda teshikni kengaytirishdi, Robert opasining quchog'idan Elenning quchog'iga o'tdi. U beliga formiumdan eshilgan uzun arqon o'rab olgan edi.

- O'g'lim, ukam, - deb shivirlar edi Elen, - shukurki, yovvoyilar o'ldirib qo'yishmabdi!

- O'ldirishgani yo'q. Hammaning esi og'ib turganda qanday qilib qochib ketganimni o'zim ham bilmayman. Qal'adan qochib chiqdim-da, ikki kungacha butalar orasida yashirinib yotdim. Kechasi tentirab yurdim. Sizlarni ko'rmoqchi edim. Butun qabila boshliqni dafn qilish bilan band ekanida men sizlarning turmangiz joylashgan qal'aning narigi tarafini ko'zdan kechirdim, shunda sizlarning oldingizga kelish imkoni borligini ko'rdim. Bir bo'sh chayladan mana bu pichoq bilan arqonni bildirmay olib chiqdim-da, o'tlar bilan butalar-

ga tirmasha-tirmasha shu tarafga chiqib kela berdim. Baxtimizdan bo'lib, bu kulba turgan qoya tagida g'orga o'xshash bir kovak bor ekan, bu yerga yetib chiqish uchun o'sha kovak ichidan bir necha fut yumshoq yerni kavlashim kifoya qildi. Mana, endi sizlar bilan bir-gaman!

Robertning hikoyasiga yigirma qaynoq bo'sa so'zsiz javob bo'ldi.

- Yuringlar! - dedi u, qat'iy qilib.

- Paganel pastdami? - deb so'radi Glenarvan.

- Janob Paganelmi? - qaytarib so'radi Robert, hayron bo'lib.

- Ha. U bizni kutib turgandir?

- Yo'q, ser. Janob Paganel sizlar bilan birga emasmi hai?

- U bu yerda emas, Robert, - deb javob berdi Meri Grant.

- Nima! Sen uni ko'rganing yo'qmi? - deb so'radi Glenarvan. - Demak, o'shanda bir-birlaringizni ko'rmagan ekansiz-da. Birga qochib ketmagan ekansiz-da?

- Yo'q, ser, - dedi do'sti Paganelning g'oyib bo'lib qolganini eshitib hayron bo'lgan bola.

- Yuringlar, - dedi mayor. - Bir minutni ham qo'ldan berib bo'lmaydi. Paganel qayerda bo'lsa ham, ahvoli bizning hozirgi ahvolimizdan yomon bo'lmasa kerak. Yuringlar!

Haqiqatan ham har bir minut g'animat edi. Tezroq qochib qutulish kerak edi. Baxtdan bo'lib, g'ordan chiqishdagi yigirma futcha keladigan deyarlik tik jarni hisobga olmaganda, qochib ketish hech bir qiyin emasdi. Nariyog'i esa tog'ning etagigacha ancha yotiq. Asirlar u yerdan tezda pastda yoyilib yotgan vodiya yetib olishlari mumkin. Maorilar esa, yevropaliklarning qochib ketganini sezib qolgudek bo'lsalar, ularni quvib yetish uchun ancha uzoq aylanma yo'lni bosib o'tishlari kerak, chunki ular jar bilan kulba o'rtasida teshik borligini bilmaydilar.

Asirlikdan qochish boshlandi. Barcha ehtiyot choralarini ko'rildi. Asirlar birin-ketin tor teshikdan o'tib g'orga kirib oldilar. Jon Mangls ibodatxonadan chiqib ketishdan oldin qilishgan ishlaridan qolgan barcha izlarni yo'qotdi, keyin o'zi ham teshikka kirdi-da, uning

og'zini bu yerda teshik borligi bilinmaydigan qilib bo'ya bilan yopib qo'ydi.

Endi tik qoyadan pastga tushish kerak edi. Robert formium arqon olib kelmaganda, undan tushishning sira iloji bo'lmasdi. Arqonni chuvatib, bir uchini qoyaning qirrasiga bog'ladilar, bir uchini esa pastga tashladilar. Jon Mangls do'stlarining bir formium tolalaridan eshilgan arqondan osilib pastga tushishiga ruxsat berishdan oldin uning qanchalik pishiq ekanini o'zi sinab ko'rdi. Arqon unga unchali pishiq emasdek tuyuldi. Ehtiyot bo'lish shart edi: odam bunday baland joydan yiqilib tushsa, sog' qolishi qiyin.

– Menimcha, bu arqon ikki kishidan ortig'ini ko'tara olmaydi, – dedi u. – Demak, shunga qarab ish tutish kerak. Men oldin mister Glenarvan bilan miss Elen pastga tushib olsinlar, deb taklif qilmoqchiman. Ular qoyaning tagiga yetib olgandan keyin arqonni uch marta silkitadilar – bu endi boshqalarning tushaverishi mumkin degan signal bo'ladi.

– Eng oldin men tushaman, – dedi Robert. – Pastda bir chuqur pana joy topganman, oldinroq tushib olganlar o'sha yerga yashirinib tursa bo'ladi.

– Tush bo'lmasa, o'g'lim, – dedi Glenarvan, Robertning qo'lini qisib.

Bola pastga tushib ketdi. Bir minutdan keyin uch marta silkingan arqon uning eson-omon pastga tushib olganidan darak berdi. Glenarvan bilan Elen darhol g'ordan chiqdilar. Hali tun qop-qorong'u, ammo sharq tomondagi tog' cho'qqilari g'ira-shira yorishib kela boshlagandi.

Muzdek tong shabadasi yosh ayolni tetiklantirdi, uning kuchiga kuch qo'shildi. Oldin Glenarvan, ketidan Elen pastga tusha boshladilar. Ikkovlari ham eson-omon qoya tagiga yetib oldilar. Bu yerdan Glenarvan xotiniga yordamlashib, tog' yonbag'ridan pastga tusha boshladi. U qorong'uda paypaslab, o'sib yotgan o'tlar va butalarni topar, mustahkamligini sinab ko'rardi-da, so'ng ustiga xotining oyog'ini qo'yardi. Birdan cho'chib ketgan qushlar shovqin ko'tarib uchib ketardilar. Oyoqlari ostidan ko'chgan tosh shaqirshuqur qilib pastga uchganda, qochqinlar cho'chib tushardilar.

Glenarvan bilan xotini qiya tog' yonbag'ining yarmisiga yetgan edilarki, yuqoridan Jon Manglsning sekingina:

– To'xtanglar!.. – degani eshitildi.

Bir qo'li bilan o'tni, bir qo'li bilan xotinini ushlab turgan Glenarvan joyida taqqa to'xtadi.

Xavfdan Vilson xabar bergandi. U kulba oldidagi maydonchadan allaqanday tovushlar kelayotganini eshitib, ibodatxonaga qaytib kirgan va eshik o'rniga tutib qo'yilgan bo'yroni ko'tarib, maorilarni kuzata boshlagan edi. Uning ishorasi bilan Jon Mangls Glenarvanni to'xtatdi. Allaqanday notanish shitirlashni eshitib qolgan bir jangchi o'rnidan turib ibodatxona oldiga kelgan ekan, maori ibodatxonadan ikki qadamgina narida boshini quyi egib, tovushga quloq solibdi. Shu turishda u bir minutcha qimir etmay quloq solib turgan. Vilsonga esa bu bir minut bir soat bo'lib tuyulibdi. Keyin maori yanglishganiga ishonch hosil qilgan kishidek, boshini bir silkitib qo'yib, yana o'rtoqlari oldiga borib o'tiribdi-da, yerdan bir tutam shox olib, o'chay deb qolgan gulxanga tashlabdi. Lov etib yongan o't uning betini yoritibdi, unda endi zarracha ham tashvish alomati ko'rinmabdi. Keyin u ufqdan g'irashira otib kelayotgan tog' yorug'iga qarab olib, sovqotib qolgan yerlarini isitish uchun gulxan oldiga cho'zilibdi.

– Bo'ldi, – dedi sekingina Vilson, g'orga qaytib kirib.

Jon Mangls Glenarvanga tushaveringlar deb ishora qildi, ko'p o'tmay Glenarvan bilan Elen torgina so'qmoqqa tushib oldilar, bu yerda ulrani Robert kutib turardi.

Arqon yana uch marta silkitildi, shundan keyin bu xavfli yo'lga Jon Mangls bilan Meri Grant tushdilar.

Ular ham eson-omon yerga yetdilar-da, Robert ko'rsatgan pana yerda Glenarvanga kelib qo'shildilar.

Nihoyati besh minutchadan so'ng ibodatxonadan eson-omon tushib olgan barcha qochqinlar, o'zlari vaqtincha yashiringan pana yerdan yo'lga tushdilar. Ular ko'l bo'yidagi aholi yashaydigan joylardan tezroq nari ketish uchun tog'larning eng ichkarisiga olib boradigan tor so'qmoqdan yurdilar. Ular bitta-yarimtaning ko'zi tushib qolmaydigan chetroq joylarni tanlab, tez yurib borar, butalar orasidan xuddi soyalarday lip-lip o'tib ketardilar. Ular qayoqqa ketmoqda edilar? Boshlari oqqan tarafga, lekin har holda ular ozod edilar.

Soat beshlarda tong yorishib kela boshladi. Baland osmonda suzib yurgan bulutlar zangori tusga kirdi. Tog' cho'qqilari ertalabki tumandan tozalandi. Ko'p o'tmay quyosh chiqadi, quyosh chiqishi bugun ularning o'limiga signal bo'lishi kerak edi, endi esa ularning qochib ketganidan darak beradi, xolos.

Shuning uchun qochqinlar quyosh chiqquncha har qanday qilib bo'lsa ham yovvoyilar quvib yetolmaydigan joyga borib olishlari kerak. Lekin qochqinlar ancha sekin ilgarilab borardilar, chunki so'qmoq ancha tik edi. Glenarvan xotinini qo'ltiqlab emas, ko'tarib ketayotgandek olib borardi. Meri Grant Jon Manglsning qo'liga tayanib olgan. Topgan chorasi muvaffaqiyatli chiqqanidan o'zida yo'q xursand Robert hammadan oldinda borardi. Eng ketinda ikki matros kelardilar.

Yana yarim soatdan keyin tuman bosib yotgan ufqda quyosh ko'rinishi kerak.

Shu yarim soat ichida qochqinlar tavakkaliga yo'l bosdilar: axir, ularni doim to'g'ri yo'lga boshlab boruvchi Paganel ular orasida yo'q edi-da, Paganelning yo'qligi ularni xavotir qilar, erishgan baxtlariga ko'lanka tashlab turardi. Shunday bo'lsa ham, ular, iloji boricha sharq tarafga, otib kelayotgan go'zal tong tarafga surilib qolishga harakat qilaverdilar. Ko'p o'tmay Taupo ko'lidan besh yuz fut yuqoriga chiqib oldilar. Bu yerda ertalabki salqin ayniqsa sezilarli edi. Qochqinlar qarshisida adirlar, ular tepasida esa tog'lar g'ira-shira ko'rinib qoldi. Ammo Glenarvan faqat tezroq o'sha tog'lar orasiga kirib, g'oyib bo'lishni istardi. Tog'lar orasidan qanday chiqib ketish keyin bir gap bo'lar, der edi u o'ziga. Nihoyat, quyosh chiqdi-da, dastlabki nurlari bilan qochqinlarni yoritdi.

Birdan dahshatli uvlash eshitildi – bu yuzlab odamlarning bo'kirayotgani edi. Tovushlar qal'a tarafdin eshitilardi; qal'aning hozir qay tarafda ekanligini Glenarvan aniq belgilay olmadi; buning ustiga pastda yastanib yotgan vodiyni qalin tuman qoplab olgandi.

Qochqinlar o'zlarining qochib ketganlari yovvoyilarga ma'lum bo'lganini tushundilar. Yovvoyilar qo'lidan eson-omon qutulib keta olarmikinlar? Ko'rib qolishmadimikan? Izlariga tushib olmadimikanlar?

Shu payt pastda suzib yurgan tuman yuqori ko'tarildi, qochqinlarni bir minutgina nam bulutga o'rab

o'tdi, shundan so'ng ular o'zlaridan uch yuz futcha pastda g'azabdan bo'kirayotgan yerliklar olomonini ko'rdilar. Ular yerliklarni ko'rib turar edilar, lekin ularni ham ko'rib qoldilar. Yana dahshatli baqiriqlar eshitildi, unga itlarning hurishi qo'shildi, shundan keyin kulba turgan qoyadan o'tishga bo'lgan barcha urinishi bekor ketganini ko'rib, butun qabila qal'adan tashqariga otildi-da, intiqomdan qochib ketayotgan qochqinlarni quvib yetish uchun eng qisqa so'qmoq orqali ular ketidan yugurdi.

O' n t o' r t i n c h i b o b

TABU JORIY QILINGAN TOG'

Qochqinlar hali tog' cho'qqisidan yuz fut pastda edilar. Ular maorilar ko'zidan g'oyib bo'lish uchun ana shu cho'qqiga yetib olishlari kerak edi. Undan nari esa tog' tizmasining biror qulayroq qirrasidan boshqa bir cho'qqiga o'tib ketadilar, tog' tizmalarining shunday bir chigal joylariga kirib ketadilarki, ularni bular bilan birga bo'lganda faqat bechora Paganel ajratib olishi mumkin edi.

Yerliklarning g'azabli tovushlari tobora yaqinlashib kelaverdi, shuning uchun qochqinlar iloji boricha tezroq yuqori ko'tarila boshladilar. Quvib kelayotgan olomon tog' etagiga yaqinlashib qoldi.

– Tezroq, tezroq do'stlarim! – deb qichqirdi Glenarvan, o'rtoqlariga so'z va imo-ishoralalar bilan dalda berib.

Qochqinlar besh minutga ham qolmay cho'qqiga chiqib oldilar. Bu yerda ular vaziyatni aniqlash va maorilarni adashtirib ketish imkoniyatini beradigan yo'lni tanlash uchun bir nafas to'xtadilar.

G'arb tarafdagi ajoyib tog'lar orasida Taupo ko'li yastanib yotardi. Shimol tomonda Pirongiya cho'qqilari qad ko'targan, janubda esa – Tangariro vulqonining o'tpurkab turuvchi krateri. Sharq tarafdagi Vaxiti tog'lari bilan tugaydigan baland tog' devori cho'zilib ketgandi, bu tog' tizmasi shimoliy orolda Kuk bo'g'ozidan to Sharqiy burungacha butun orol bo'ylab cho'zilib boradi. Demak, hozir cho'qqining narigi tarafiga tushish va

tor daralardan biriga kirib ketish kerak, bu daraning oxiri berk bo'lsa ham ajab emas.

Glenarvan jonsaraklik bilan alanglab atrofni ko'zdan kechirdi. Quyosh nuri ostida tuman tarqab ketganidan atrof baralla ko'rinib turardi. Yovvoyilarning bironta harakati uning nazaridan qochmadi.

Qochqinlar cho'qqiga chiqib olganlarida yerliklar ulardan besh yuz futcha berida edilar.

Glenarvan bir minutni ham qo'ldan berib bo'lmashligini tushunardi. Har qancha charchagan bo'lsalar ham, quvib kelayotganlarning qo'liga tushib qolmaslik uchun qochish zarur edi.

- Pastga tushamiz! - dedi u. - Yo'lni kesib qo'ymasliklaridan oldin pastga tushib olish kerak!

Bechora ayollar zo'rg'a o'rinlaridan turdilar. Mak-Nabbs ularni to'xtatdi.

- Tushmasak ham bo'ladi, Glenarvan, - dedi u. - Qarang.

Rostdan ham yerliklar tarafda allaqanday o'zgarish yuz bergandi. Toqqa chiqishni allakim birdan man qilib qo'ygandek, ular taqqa to'xtab qoldilar. Dengiz to'liqlari sohildagi toshga kelib urilganda to'xtaganidek, yovvoyilar olomoni tog' etagida to'xtadigoldi.

Qochqinlarning qoniga tashna bo'lgan yovvoyilarning hammasi tog' etagida turib bo'kirishar, do'q qilishar, miltiq va boltalarini silkitishar edi-yu, ammo bir qadam ham olg'a bosishmasdi. Egallari singari taqqa to'xtab qolgan itlari ham quturib vovullar edi.

Nima gap, o'zi? Yovvoyilarni qanday qudratli kuch to'xtatib qo'ydi ekan? Qochqinlar hech narsaga tushunmay, pastga tikilishar, Kai-Kumuning qabilasi birdan o'zini tutib turgan sehrdan xalos bo'lib, yuqoriga otilmasa edi, deb qo'rqishardi.

Birdan Jon Mangls qichqirib yubordi. O'rtoqlari unga qayrilib qarashdi. U qo'li bilan cho'qqining eng tepasidagi kichkinagina bir qo'rg'onni ko'rsatdi.

- Iye, bu Kara-Tetening qabri-ku! - deb yubordi Robert.

- Rostanmi, Robert? - deb so'radi Glenarvan.

- Ha, ser, bu rostdan ham uning qabri, men uni tayniyapman...



Bola yanglishmagan edi. Ulardan ellik futcha yuqorida, cho'qqining uchida yangi bo'yalgan to'siq ko'rinib turardi. Endi yangi zelandiyaliklar boshlig'ining qabri ni Glenarvan ham tanib qoldi. Baxtli tasodif qochqinlarni Maunganamu cho'qqisiga olib kelgan edi.

Glenarvan bilan hamrohlari boshliqning qabriga chiqdilar. Atrofi o'rab qo'yilgan qabrga kiriladigan keng yo'lga bo'yra to'sib qo'yilgan edi. Glenarvan ichkari kirmoqchi bo'ldi-yu, lekin darrov orqasiga qaytdi.

- Ichkarida bir yovvoyi o'tiribdi, - dedi u.

- Qabr yonida-ya? - deb so'radi mayor.

- Ha, Mak-Nabbs.

- O'tirgan bo'lsa nima? Yuringlar, kiramiz.

Glenarvan, mayor, Robert va Jon Mangls ichkari girdilar. Haqiqatan ham ichkarida formiumdan to'qilgan uzun plashch kiygan bir maori o'tirardi. To'siq soyasida o'tirgani uchun uning betini ko'rib bo'lmasdi. U, aftidan, tamomila xotirjam bo'lib, bahuzur ovqat yemoqda edi.

Glenarvan u bilan gaplashmoqchi bo'lgan edi, yovvoyi odamning o'zi undan oldinroq gap boshlab, sof ingliz tilida:

- O'tiring, aziz ser! Ovqat tayyor, - dedi.

Bu Paganel edi. Hammalari uning ovozi ni tanib muhtaram olimga tashlandilar va quchoqlashib ko'risha ketdilar. Paganel topildi! Qochqinlar uning topilishi o'zlarining qutulishlariga garov deb bilar edilar. Har kim ham tezroq undan hol so'ragusi, uning Maunganamu cho'qqisiga qanday qilib kelib qolganini bilgisi kelardi, lekin Glenarvan bu bevaqt sinchkovlikka bir og'iz so'z bilan barham berdi.

- Yovvoyilar! - dedi u.

- Yovvoyilar deysizmi! - dedi Paganel, yelkasini qisib. - O'sha yovvoyilaringizni men zarracha ham pisan qilmayman.

- Axir ular...

- Ular-a! O'sha befahmlar-a? Yuringlar, ularni bir ko'ringlar.

Hamma Paganelga ergashdi. Yangi zelandiyaliklar hali ham ayyuhannos ko'tarib, tog' etagida turishardi.

- Baqiraveringlar! Dodlayveringlar! Tomog'ingizni yirtaveringlar! - dedi Paganel. - Qani, bu cho'qqiga chiqib ko'ringlar-chi!

– Nega chiqolmas ekanlar endi? – deb so‘radi Glenarvan.

– Chunki bu cho‘qqiga ularning boshlig‘i ko‘milgan, chunki bu toqqa tabu joriy qilingan.

– Tabu!

– Ha, do‘stlarim! Men ham ana shuning uchun bu yerga chiqib oldim, o‘rta asrlarda ham ko‘pgina bechoralar ana shunday joylarda jon asraganlar.

Haqiqatan ham toqqa tabu joriy qilingan edi, shuning uchun xurofotchi yovvoyilar bu yerga chiqolmasdilar.

Bu qochqinlarni qutqarolmas, ammo, har holda, hordiq chiqarib, kuch yig‘ib olishga yordam bera olardi. Nihoyatda hayajonlanib ketgan Glenarvan bir og‘iz ham so‘z aytolmadi; mayor esa mamnunlik bilan bosh chayqar edi.

– Do‘stlarim, – dedi Paganel, – endi bu ahmoqlar bizni qancha poylasa, poylab o‘tiraversin, bari bir ushlab ololmaydilar – ikki kun ham o‘tmasdan biz ular qo‘lidan qutulib ketamiz.

– Qochib ketamiz! – dedi Glenarvan. – Ammo qanday qilib?

– Buni hozircha aytolmayman, lekin, albatta, qochib ketamiz, – dedi Paganel.

Endi hamma o‘z sarguzashtlaringizni aytib bering, deb geografiya olimiga yopishdi. Lekin shunisi qiziqki, so‘zamol geografiya olimi hozir zo‘rg‘a-zo‘rg‘a gapirardi. Hikoyalar so‘zlab berishni juda yaxshi ko‘radigan olim hozir do‘stlarining savollariga qisqa-qisqa, mujmal javob berardi.

«Paganel do‘stim o‘zgarib qolibdi-ya», deb hayron bo‘ldi Mak-Nabbs.

Haqiqatan ham muhtaram geografiya olimida g‘alati bir o‘zgarish sezilardi: u zo‘r berib formiumdan tikilgan katta plashchiga o‘ralar, go‘yo unga qiziqib qarayotgan do‘stlarining nazaridan o‘zini olib qochayotgandek tuyulardi. Geografiya olimi gap o‘zi to‘g‘ri-sida borganda juda uyalib ketayotganini hamma sezdi, lekin odob yuzasidan buni hech kim o‘ziga sezidirmadi. Shunisi ham borki, gap boshqa mavzularga ko‘chishi bilanoq u yana ilgarigidek quvnoq Paganel bo‘lib qolardi.

Paganelning sarguzashtlariga kelsak, o'rtoqlari to'siq tagida uning atrofiga davra olib o'tirganda geografiya olimi quyidagilarni aytib berishni lozim ko'rdi.

U ham Robert singari Kara-Tetening o'ldirilishi natijasida yerliklar o'rtasida yuz bergan sarosimadan foydalanib, padan chiqib oladi. Lekin uning Robertchalik baxti kelmaydi: olim boshqa bir maorilar qishlog'iga borib qoladi. Bu yerdagilarning boshlig'i baland bo'lyi, aqlli ekani basharasidan ko'rinib turgan, saviyasi o'z jangchilaridan ancha yuksak bir kishi edi. U ingliz tilida yaxshigina gapirar ekan, geografiya olimini «shongui» qilib, ya'ni burnining uchini Paganelning burniga tekkizib tabriklaydi.

Paganel dastlab o'zining asirlikdami yo ozodlikda ekanini ajrata olmaydi, lekin ko'p o'tmay, boshliqning undan sira orqada qolmay, ketidan yurganini ko'rib, o'zining asir ekanini tushunadi.

Xixi ya'ni «Quyosh nuri» deb ataladigan bu boshliq uncha zolim emas edi. Aftidan, geografiya olimining ko'zoynagi bilan uzun durbini uni qabila boshlig'i nazarida juda yuqori ko'tarib yuborgan edi, shuning uchun Xixi olimni o'ziga bog'lab olmoqchi bo'ladi, bog'langanda ham faqat yaxshi muomala bilan emas, balki pishiq formium arqon bilan ham bog'lab qo'yadi.

Shu tarzda uzundan uzoq uch kun o'tdi. Shu uch kun ichida sizga yaxshi munosabatda bo'ldilarmi, degan savolga u: «Ham yaxshi, ham yomon muomala qildilar» deb javob berdi. Qisqasi, u ham asirlikda kun kechirgan-u, bechora do'stlaridan ahvolining yaxshiligi uni shoshilinch o'lim jazosi kutmagani bo'lgan.

Baxtidan bo'lib, bir kun kechasi olim arqonni tishi bilan uzib, qochib ketishga muyassar bo'ladi. U Kara-Teteni Maunganamu cho'qqisiga ko'mishganini uzoqdan ko'rgan bo'lib, cho'qqiga boshliq ko'milishi bilan o'sha toqqa tabu joriy qilinganini yaxshi bilardi. Paganel o'z do'stlari asirlikda bo'lgan yerdan ketishni istamay, tabu joriy qilingan tog'da jon asrashga qaror qiladi. Olim bu xavfli ishning uddasidan chiqadi. Kecha kechasi u Kara-Tetening qabriga yetib keladida, bu yerda «kuch-quvvat yig'ib», biror baxtli tasodif do'stlarimni ozod qilmasmikan, deb kuta boshlaydi.

Paganel ana shularni hikoya qilib berdi. U yerliklar qo'lida asirlikda bo'lgan vaqtida yuz bergan biror nar-

sani jo'rttaga yashirib qolmadimi ekan? Geografiya oli-mining boshidan o'tganlarni hikoya qila yotib, uyalishi, qizarishi hamrohlarini xuddi ana shunday fikrga olib kelardi. Lekin nima bo'lganidan qat'i nazar, asirlikdan eson-sog' qaytib kelgani bilan uni hamma tabrikladi.

Shundan so'ng o'tgan gaplarni bir chetga qo'yib, endi nima qilish kerakligi to'g'risida o'ylay boshladilar. Qochqinlarning ahvoli hali ham nihoyatda xavfli edi. To'g'ri, yerliklar Maunganamu cho'qqisiga chiqishga jur'at qilolmasdilar, ammo ular asirlarni ochlik va tashnalikda qiynab, qo'lga tushirish umidida edilar. Endi gap faqat vaqtning o'tishida, yovvoyilar esa juda sabr-chidamli xalq bo'ladi.

Glenarvan ahvolning juda og'ir ekanini bilardi. Lekin u qulay vaqt kelishini kutishga, juda bo'lmasa o'sha qulay paytni o'zi yaratishga ahd qildi. Dastlab u o'zining to'satdan qo'lga kirib qolgan qal'asi – Maunganamuni ko'zdan kechirib chiqmoqchi bo'ldi: Maunganamuga hujum qiladilar deb qo'rqmasa ham bo'lardi, shuning uchun uni himoya qilish maqsadida emas, balki undan ketish maqsadida bir ko'rib chiqish kerak edi. Glenarvan mayor, Jon Mangls, Robert va Paganel bilan tog'ni sinchiklab ko'zdan kechirdi: undagi barcha so'qmoqlar, ularning qayoqqa olib borishi va tog'dan tushish mumkin bo'lgan qiyaliklarni bir-bir ko'zdan kechirdi. Maunganamu bilan Baxiti tog' tizmasini bir-biriga ulaydigan, bir milcha uzunlikdagi tog' qirrasini vodiyaning pastlab o'tadi. Bu pastakkina ilang-bilang tog' qirrasini vodiyaning qochib ketishi uchun birdan-bir yo'l edi. Qochqinlar tun qorong'usidan foydalanib, shu qirra ustidan yerliklarga bildirmay o'tib ola olsalar, maori jangchilaridan qutulib, Vaxiti tog'ining ichkari vodiylariga kirib keta oladilar.

Lekin bu yo'l juda xavfli edi. Qirraning past yeriga miltiq o'qi yetardi, pastda poylab yotgan yeriiklarning ikki tomonlama yog'dirgan o'qidan hech kim omon qolmagan bo'lardi.

Glenarvan bilan do'stlari o'sha tog' qirrasining xavfli yeriga tushdilar, pastdagi jangchilar ularni o'q yomg'iri bilan qarshi oldi, lekin bu o'qlardan birontasi mo'ljalga tegmadi. Shamol ular oldiga bir necha *pjini* uchirib keldi. Ular allaqanday kitob qog'ozidan qilingan edi. Paganel qiziqib bu *pjilarni* yerdan terib oldi-da, ochib, unda nimalar yozilganini o'qib ko'rdi:

– Anavini qarang-a? – deb yubordi u. – Miltiqlarini nima bilan o‘qlaganlarini bilasizlarmi, do‘stlarim?

– Yo‘q, Paganel, bilmaymiz, – deb javob berdi Glenarvan.

– Bibliyadan yirtib olingan sahifalar bilan o‘qlashar ekan! To‘g‘risini aytsam, bu maorilarni ilm-ma‘rifatga chaqirgan missionerlarga achinaman. Maorilar uchun kutubxona tuzishlari oson emasga o‘xshaydi.

Glenarvan bilan hamrohlari tik so‘qmoqdan cho‘q-qiga ko‘tarila boshladilar: ular boshliq qabrini ko‘zdan kechirmoqchi edilar. Yuqoriga chiqib olgach, ular oyoq ostidagi yerning ahyon-ahyonda titrab ketishini ko‘rib hayron bo‘ldilar – yer suv vaqirlab qaynab yotgan qozon o‘qtin-o‘qtin uzoq titrab qo‘ygandek, titrardi. Af-tidan, tog‘ qatlamlari tagida yer osti o‘tining harakati natijasida ancha-muncha bug‘ to‘planib qolgan edi.

Bu o‘ziga xos hodisa yaqinda Vaykato buloqlari orasidan o‘tib kelgan odamlarni hayron qoldirmadi. Ular Ika-na-Mauining markaziy viloyati yer qimirlashidan ayniqsa ko‘p zararlanganini bilar edilar. Bu yerlar kataklar orasidan tashqariga issiq buloqlar va oltin-gugurt bug‘lari otilib yotadigan kattakon g‘alvirning o‘zginasi edi.

Maunganamu tog‘ini ilgari ham kuzatgan Pagan-el do‘stlarining e‘tiborini tog‘ning vulqondan paydo bo‘lganiga jalb qildi. Geografiya olimining fikricha, Maunganamu tog‘i orolning markaziy qismida juda ko‘p bo‘lgan, kelajakda vulqonga aylanib ketadigan konus-simon tog‘lardan biri edi. Biror arzimmas mexanik ta‘sir bilan ham toshsimon tufdan iborat bo‘lgan bu tog‘da vulqon paydo qilsa bo‘lardi.

– Shunday ham deylik, – dedi Glenarvan, – lekin biz hozir har holda «Dunkan»ning bug‘ qozoni oldi-da o‘tirgandek xavfsiz yerda o‘tiribmiz. Axir yer qatlami chidamlilikda qozonning temir devoridan qolish-maydi-da.

– To‘g‘ri, – dedi mayor, – lekin eng yaxshi bug‘ qozoni ham uzoq ishlatilgandan keyin baribir yoriladi.

– Lekin men bu tog‘da umrbod qolib ketmoqchi emasman, Mak-Nabbs, – deb e‘tiroz bildirdi Paganel. – Biror ma‘qul yo‘l ko‘rsating, o‘sha zamonoq men bu yerdan ketaman.

– Eh, ostida shunchalik mexanik kuch yashirinib yotgan bo'lsa, bu Maunganamuning o'zi nega bizni olib keta qolmas ekan-a! – dedi Jon Mangls. – Shu yerda, oyog'imiz ostidan necha-necha millionlab ot kuchi befoyda yotgan bo'lsa ham ajab emas. «Duncan» bu kuchning mingdan biri bilan ham bizni dunyoning u burchiga olib keta olardi!

«Duncan» tilga olinishi bilan Glenarvanni qayg'uli fikrlar chulg'ab oldi. Ahvoli qanchalik og'ir bo'lmasin, u kemani ko'p o'ylar, o'z komandasi taqdiriga achi-nardi.

Boshqa hamrohlari bularni kutib turgan Maunganamu cho'qqisiga yetib chiqishganda ham Glenarvan hamon o'sha g'amgin fikrlar bilan band edi. Elen erini ko'rib, darrov uning qarshisiga yurdi.

– Azizim Eduard, – dedi u, – ahvolimizni aniqlab bo'ldinglarmi? Qutulishga umid qilaylikmi yo iloji yo'q ekanmi?

– Umid qilamiz, azizim Elen, – deb javob berdi Glenarvan. – Yovvoyilar tog' tepasiga chiqishga jur'at qilolmadilar, bizning esa qochib ketish rejasi haqida o'ylab ko'rishga vaqtimiz yetadi.

– Endi qabrga! – deb qichqirdi shodlik bilan Paganel. – Axir bu bizning qal'amiz, qasrimiz, oshxonamiz va ishxonamiz-ku. U yerda bizga hech kim xalaqit bermaydi Missis Elen, miss Grant, bu ajoyib boshpanada sizlarga mehmondo'stlik ko'rsatishga ruxsat etsanglar.

Hammalari oliyjanob Paganel ketidan yurdilar. Yovvoyilar qochqinlarning tabu joriy qilingan qabrga yana kirib, uni harom qilishga otlanayotganlarini ko'rib, ularga qarata miltiqlardan ko'plab o'q uzdilar va ovozlarning boricha bo'kira boshladilar, ularning ovozlari qarsillab otilgan miltiq ovozlari ham bosib ketdi. Lekin qochqinlarning baxtiga, o'qlar ovozlari singari uzoqqa bormadi: tog'ning yarmiga ham yetmadi, yerliklarning ovozi esa fazoga singib ketdi.

Maorilarning xurofotga ishonchi g'azabidan ham kuchli ekanini ko'rgan Elen, Meri Grant va ularning hamrohlari xotirjam bo'lib, qabr to'sig'i ichiga kirdilar.

Yangi zelandiyaliklar boshlig'i ko'milgan bu qabr atrofi qizil bo'yoqqa bo'yalgan yog'och devor bilan o'rab qo'yilgan edi. Yog'ochlarga yo'nilgan simvolistik qiyofalar, yog'ochga tushirilgan haqiqiy tatuировka marhum-

ning mansabi balandligidan va jangovar ishlaridan darak berib turardi. Ustunlarga chig'anoq va yo'nilgan toshlardan qilingan tumorlar osib qo'yilgandi. Yog'och to'siq ichkarisiga gilamdek qilib ko'k barglar yozib tashlangan. O'rtadagi do'nglik esa, bu yerga yaqinda biron ko'milganidan darak berib turardi.

Qabr atrofiga boshliqning qurol-yarog'i: o'qlangan miltiqlar, nayza, yashil nefritdan yasalgan ajoyib bir bolta terib qo'yilgandi. Xuddi shu yerda, yovvoyilar-ning e'tiqodicha, Kara-Tetening «mangu hayot» dunyosida ov qilishi uchun kerak bo'ladigan o'q-dori zaxirasi turardi.

– Mana bu qurol-yarog' arsenalidan biz marhumdan ko'ra yaxshiroq foydalanamiz! – dedi Paganel. – Bu yovvoyilar narigi dunyoga qurol-yarog' olib ketishni zap o'ylab chiqargan ekanlar-da!

– Iye, bu ingliz miltiqlari-ku! – dedi mayor.

– Bunga shubha yo'q, – dedi Glenarvan. – Yovvoyilarga o'tli qurollar sovg'a qilish yaramas odat ekanini e'tirof qilish kerak. Yovvoyilar bu qurollarni keyin istilochilarga qarshi ishlatadilar, to'g'ri qiladilar ham. Har holda, bu qurollar bizga foyda keltirishi mumkin.

– Kara-Tetega deb qo'yib ketilgan mana bu oziq-ovqat bilan suv bizga bulardan ham ko'proq foyda keltiradi, – deb qo'shib qo'ydi Paganel.

Haqiqatan ham, marhumning qarindosh-urug'lari bilan do'stlari juda saxiylik qilib yuborgan edilar. Oziq-ovqatning ko'pligi boshliqning oliy martabasiga hurmat zo'rligini ko'rsatardi. Bunday ovqat o'n kishiga yarim oyga yetardi, boshliqqa esa manguga yetishi mumkin. Bu ovqatlar o'simliklardan iborat bo'lib, unda qir-quloqlar shirin patatlar va yevropaliklar Yangi Zelandiyaga allaqachon olib kelgan kartoshkalar bor edi. Katta-katta idishlarda yangi zelandiyaliklar odatda ovqat vaqtida ichadigan toza suv turardi. Shular orasiga qo'yilgan, ustalik bilan to'qilgan savatlarga sayohatchilarimiz bilmaydigan allaqanday ko'k mevalar to'latib qo'yilgandi.

Shunday qilib, qochqinlarimiz bir necha kunga yetadigan oziq-ovqat va suv bilan ta'minlangan edilar. Ular uzoq qistatib o'tirmay, boshliqning oziqlarini xilay boshladilar.

Glenarvan hamrohlariga zarur bo'lgan narsalarni ajratib olib mister Olbinetga berdi. Eng og'ir sharoitlarda ham o'z ishini juda mohirlik bilan bajaradigan styuard oziq-ovqat xilini juda kam deb topdi. Buning ustiga mister Olbinet bu ildizlarni pishirishni mutlaqo bilmas, buning ustiga o't ham yo'q edi.

Lekin Paganel uni bu qiyin ahvoldan qutqardi, olim qirqquloq bilan patatni yerga ko'mishni maslahat berdi. Haqiqatan ham, yerning yuqori qatlami juda issiq bo'lib, termometr tiqilsa, oltmish-oltmish besh gradus issiqni ko'rsatishi ham ajab emasdi.

Mister Olbinetning kuyib qolishiga sal qoldi, chunki u o'z ildizlarini ko'mib qo'yish uchun yerni qaziy boshlaganda, yer ostidan guv etib bug' ko'tarildi-da, chiyil-lab bir sajen yuqoriga otilib chiqdi.

Qo'rqib ketgan styuard mukkasidan yerga yiqildi.

– Jo'mragini burab qo'yinglar! – deb qichqirdi mayor va ikki matros bilan chuqur tepasiga yugurib kelib, ular yordamida shu orada yotgan jilvir toshlar bilan o'rani ko'mib tashladi.

Bu ishlarni g'alati bir nazar bilan kuzatib o'tirgan Paganel o'ziga-o'zi:

– Ha... Ha, to'g'ri... Nega mumkin bo'lmasin? – derdi.

– Kuyib qolmadingizmi? – deb so'radi mayor Olbinetdan.

– Yo'q, mister Mak-Nabbs, – deb javob berdi styuard, – lekin to'g'risini aytsam...

– ...bunday muvaffaqiyatni kutmagan edim! – deb quvonch bilan qichqirdi Paganel. – Qarang-a, bu yerda faqat Kara-Tetening ovqati bilan suvigina emas, yerning o'ti ham bor ekan. Bu tog' jannat ekan-kul! Men bu yerda koloniya tashkil etishni, dehqonchilik qilib, umrimizning oxirigacha shu yerda yashashni taklif qilaman. Maunganamu tog'ining robinzonlari bo'lamiz! Rostimni aytsam men bu mehmondo'st cho'qqida bizga yana nima yetishmayotganini bilolmay turibman!

– Cho'qqi mustahkam bo'lsa hech narsadan kamchiligimiz yo'q, – dedi Jon Mangls.

– Gapingizni qarang-a! U kechagina bunyodga kelmagandir, axir, – deb e'tiroz qildi Paganel. – U yer osti o'tining siqig'iga juda ko'p vaqtlardan beri dosh berib keladi, biz bu yerdan ketganimizcha ham dosh berib turadi, albatta.

Shu payt mister Olbinet, go'yo o'z vazifasini Malkolm-Keyetlda bajarayotgandek tantanali qilib:

– Ovqat tayyor! – dedi.

Qochqinlar darhol yog'och to'siq tagiga o'tirib, ovqatlana boshladilar, taqdir ularga eng qiyin vaziyatlarda ham ovqat yetkazib turdi.

Sayohatchilar ovqatni tanlab o'tirmadilar, lekin qirqquloqning mazasi haqidagi fikrlar, har holda, ikki xil bo'lib chiqdi. Ba'zilari uni shirin va mazali deb topdilar, ba'zilari esa u allaqanday shilimshiq, bemaza va toshday qattiq ekan, deb turib oldilar. Lekin issiq tuproqda pishirilgan shirin patat juda mazali bo'lib chiqdi. Qorin to'yg'azib olganlaridan keyin Glenarvan darhol qochish rejasini muhokama qilishga kirishaylik deb taklif qildi.

– Darrov-a? – dedi Paganel, shikoyatomuz. – Shunday maza joyni darrov tashlab ketmoqchimisizlar?

– Mayli, biz o'zimizni Kapuyada deb faraz qilaylik, janob Paganel, – dedi Elen. – Lekin Gannibalga taqlid qilib bo'lmaydi-ku¹.

– Missis, – deb javob berdi geografiya olimi, – men gapingizni mutlaqo o'ldirmoqchi emasman, rostki siz qochish rejasini muhokama qilaylik der ekansiz, muhokama qilamiz.

– Eng birinchidan, – dedi Glenarvan, – biz bu yerdan ochlik majbur qilmasidan oldinroq ketish yo'lini topishga harakat qilishimiz kerak deb hisoblayman. Hozircha kuch-quvvatimiz bor ekan, undan foydalanishimiz kerak. Shu bugun kechasiyoq tun qorong'usidan foydalanib, sharqiy vodi y orqali yerliklar qurshovidan chiqib ketishga urinib ko'ramiz.

– Maorilar o'tib ketishimizga yo'l qo'ysalar, juda yaxshil – dedi Paganel.

– Bordi-yu, yo'l qo'ymasalar-chi? – deb so'radi Jon Mangls.

– Unda kuchliroq tadbirlar ko'rishga majbur bo'lamiz, – dedi Paganel.

– Demak, sizda shunday kuchli tadbir bor-a? – qiziqib so'radi mayor.

– Kuchli tadbirlarim shunday ko'pki, qayerga ishlatishni bilmay turibman, – dedi Paganel, u boshqa hech qanday izoh bermadi.

¹ Kapuyada to'xtab qolgan Gannibal armiyasi butunlay tarqab ketgan edi.

Maorilar o'rovidan chiqib ketishga urinib ko'rish uchun qorong'u tushishini kutishdan boshqa ish qolmadi.

Maorilar esa joylaridan qimirlamas edilar. Ularning safi kech qolganlari bilan to'lib, yana ham zichlashgandek edi. Pastda yonayotgan gulxanlar tog' atrofini halqadek o'rab oldi. Qo'shni vodiylar qorong'ulik qo'yniga cho'nganda, Maunganamu tog'i o'tli halqalar o'rtasidan ko'tarilib borayotgandek tuyular, lekin uning cho'qqisi qorong'ulik qa'riga kirib ketgan edi. Olti yuz fut pastda esa dushman lagerining guvullashi, shovqin-suronlari eshilib turardi.

Soat to'qqizda, atrofni tun qorong'uligi bosganda, Glenarvan bilan Jon Mangls o'rtoqlarini bunday xavfli yo'ldan boshlab o'tishdan oldin o'zlari razvedkaga borib kelmoqchi bo'ldilar.

Ular sekin-asta pastga tusha boshladilar, o'n minutdan keyin dushman o'rovini ellik fut yuqoridan kesib o'tadigan tog' qirrasiga yetdilar.

Shu paytgacha ish yaxshi bordi. Gulxanlar atrofida yotgan maorilar ikki qochqinni sezmagandek edilar, ular yana bir necha qadam ilgarilab bordilar. Ammo birdan ham so'l tarafdin, ham o'ng tarafdin gumburlab miltiqlar otila boshladi.

- Orqaga! - dedi Glenarvan. - Bu qaroqchilar qorong'ulikda mushukdek ko'rar ekanlar, miltiqlari ham yaxshi otarkan.

Glenarvan bilan Jon Mangls darhol orqaga qaytib, tik yonbag'irlikdan yuqori ko'tarildilar-da, ko'p o'tmay miltiq tovushlarini eshitib, xavotirlikka tushgan o'rtoqlari yoniga yetdilar. Glenarvanning shlapasini ikki yeridan o'q teshib o'tibdi. Shunday qilib, ikki tomondan otilib turgan o'q yomg'iri ostida uzundan uzoq qirradan o'tib ketishning iloji yo'qligi ma'lum bo'ldi.

- Endi tong otishini kutamiz, - dedi Paganel. - Yerliklarning qurshovidan kechasi o'tib ketolmas ekanmiz, ularni o'zim tayyorlagan ovqat bilan bir mehmon qilishga ruxsat etasizlar.

Tun ancha salqin edi. Baxtdan bo'lib, Kara-Tete qabriga eng yaxshi tungi kiyimlari bilan formiumdan to'qilgan issiq odevallarini olib kelgan edi. Qochqinlar tortinib o'tirmay, ularga o'ralib, qabr to'sig'i ichida

joylashib yotdilar-da, ko'p o'tmay, xurofotchi yerliklar qo'riqchiligida, tashqariga chiqolmay, mavj urayotgan gazlar silkib-silkib qo'yayotgan iliqqina yerda tinch uxlab qoldilar.

O' n b e s h i n c h i b o b

PAGANELNING KUCHLI TADBIRLARI

Maunganamu cho'qqisida yotib qolgan qochqinlar ertasiga 17-fevral kuni ertalab quyoshning ilk nurlari ostida uyg'ondilar. Allaqachon turib olgan maorilar yuqorida nimalar bo'layotganini kuzatib, tog' etagida aylanib yurardilar. Yevropaliklar oyoqosti qilingan qabrdan chiqishlari bilanoq ularni g'azabli qichqiriqlar qarshi oldi. To'siq ichidan chiqib, qochqinlar atrofdagi tog'larni, hali tuman chulg'ab yotgan pastdagi vodiylarni, tong shabadasi sal-sal jimirlatib turgan Taupo ko'lini ko'zdan kechirdilar. Keyin Paganelning yangi rejasini bilish uchun hammalari geografiya olimini o'rab oldilar-da, unga savol nazari bilan tikildilar.

Paganel hamrohlarining qiziqishini darhol qondirdi.

- Do'stlarim, - deb gap boshladi u, - rejamning yaxshi jihati shuki, u butun kutilgan natijalarni bermasa ham, hatto muvaffaqiyatsizlikka uchrasa ham, bundan bizning ahvolimiz yomonlashmaydi. Lekin bu reja muvaffaqiyatli chiqishi kerak, muvaffaqiyatli chiqadi ham!

- Qanday reja ekan u? - deb so'radi Mak-Nabbs.

- Mening rejam mana bunday, - deb davom etdi Paganel. - Yerliklarning xurofotga ishonishi bizga bu yerni boshpana qildi, endi shunday qilish kerakki, xuddi o'sha xurofotga ishonch bizni bu yerdan qutqarsin. Men Kai-Kumuni qabrni behurmat qilganimiz uchun halok bo'lganimizga, bizga osmonning qahri kelganiga, qisqasi, halok bo'lganimizga, halok bo'lganda ham qiynoqlar ichida jon berganimizga ishontira olsam, Kai-Kumu Maunganamu tog'i etaklaridan darhol o'z qishlog'iga ketadimi-yo'qmi?

- Ketishiga shubha yo'q, - dedi Glenarvan.

– Bizni qanday dahshatli o‘lim bilan jazolamoqchisiz? – deb so‘radi Elen.

– Shakkoklar o‘limi bilan, do‘stlarim, – deb javob berdi Paganel. – Jazolovchi o‘t oyog‘imiz ostida. Unga yo‘l ochsak bas!

– Nima! Vulqon hosil qilmoqchimisiz deyman? – dedi Jon Mangls.

– Ha, sun‘iy vulqon yaratamiz, uning g‘azabini biz boshqaramiz. Bu yerda, oyog‘imiz ostida, tashqariga otilib chiqishga intilayotgan yerosti o‘ti va bug‘ nihoyatda ko‘p. O‘z foydamiz uchun sun‘iy vulqon yaratishimiz mumkin emasmi, axir!

– Yaxshi fikr! – dedi mayor. – Ma‘qul o‘ylabsiz, Paganel.

– Bilasizlarmi, – deb davom etdi geografiya olimi, – biz pastdagilarga o‘zimizni yangi zelandiyaliklar Plutoni¹ g‘azabga olgan qilib ko‘rsatamiz, o‘zimiz esa Kara-Tetening qabriga kirib yashirinamiz. Biz u yerda uch kun, to‘rt kun, lozim bo‘lib qolsa, hatto besh kun, – qisqasi yovvoyilar bizning halok bo‘lganimizga ishonib, o‘ch olish fikridan kechib bu yerdan ketgunlaricha kutib turamiz.

– Bizning halok bo‘lganimizni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, ishonch hosil qilish uchun bu yoqqa chiqsalar nima bo‘ladi? – deb so‘radi miss Grant.

– Yo‘q, aziz Meri, – deb javob berdi Paganel, – ular bunday qilmaydilar. Axir toqqa tabu joriy qilingan-a, joriy qilingan tog‘ shakkoklarning jazosini bergandan keyin tabuning kuchi yana ham ortadi.

– Rejaingiz haqiqatan ham pishiq, – dedi Glenarvan. – U faqat yovvoyilar bizning oziq-ovqatlarimiz tugaguncha Maunganamu tog‘i etagidan ketmay turib ol-salargina muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Lekin bunday bo‘lishidan, bo‘lmasi ko‘proq, ayniqsa biz ustalik bilan ish ko‘rsak, muvaffaqiyat qozonamiz.

– Bu oxirgi chorani qachon sinab ko‘ramiz? – deb so‘radi Elen.

– Shu bugun kechqurun, – deb javob berdi Paganel, – atrofni qop-qorong‘u zimiston o‘rab qoplashi bilanoq.

– Bo‘pti, – dedi Mak-Nabbs. – Paganel, siz genial odamsiz. Men odatda biror narsaga tez qiziqib ketadi-

¹Pluton – qadim zamon greklarida do‘zax xudosi.

gan kishilardan emasman, lekin bu ishda maqsadga erishishimizga kafilman.

Shu taxlit, Paganelning rejasi qabul qilindi, maorilarning xurofotlari nazarga olinsa, bu reja haqiqatan ham amalga oshishi mumkin va amalga oshishi turgan gap edi. Endi faqat uni amalga oshirish qoldi. Reja yaxshi edi-yu, lekin uni amalga oshirish uncha oson emasdi. Vulqon o'ziga krater ochib bergan mardlarni halok qilmasmikin? Yerosti bug'lari, o't va o'tli lava tashqariga otilib chiqa boshlagach, uni boshqarish, kerakli tomonga burib yuborishning iloji bo'larmikin? Butun cho'qqi o'tli chuqurga uchib ketmasmikin?

Paganel bunday qiyinchiliklar tug'ilishini bilar, lekin vulqonni kattalashtirib yubormay ehtiyot bilan ish ko'rmoqchi edi. Maorilarni aldash uchun rostakam vulqon ochish emas, go'yo vulqon otilgandek qilib ko'rsatish kifoya qilardi.

O'sha kuni biram uzayib ketdiki, asti qo'yasiz! Sayohatchilarning hammasi ham uzundan uzoq soatlarni sanab, vaqtni zo'rg'a o'tkazardilar. Qochish uchun hamma narsa tayyor. Qabrdagi oziqlarni og'irlik qilmaydigan qilib hamma qochqinlarga ulashib berdilar. Boshliqning miltiqlarini va bir necha bo'yрани ham o'zaro taqsimlab qo'yidilar. O'z-o'zidan ma'lumki, bu tayyorgarlik qabr to'sig'i ichida, yovvoyilardan yashirin holda qilindi.

Kechqurun soat oltida styuard mo'l-ko'l ovqat tortdi. Bundan keyin qaysi vodiyda va qachon ovqat ye-yishga imkoniyat tug'ilishini hech kim bilmasdi, shuning uchun hammalari to'yib ovqatlanib oldilar. Asosiy ovqatni oltita katta-katta kalamush tashkil qildi - ularni Vilson tutib kelgan edi. Elen bilan Meri Yangi Zelandiyada eng mazali taom hisoblanadigan kalamush go'shtidan qat'iy bosh tortdilar, lekin erkaklar haqiqiy maorilar singari uni poqqos tushirdilr. Kalamush go'shti rostdan ham juda shirin ekan, kemiruvchilarning rosa g'ajilgan quruq suyaklarigina qoldi.

Nihoyat, qosh qoraydi. Quyosh qalin qora bulutlar orqasiga botdi. Ufqda yaltillab chaqmoq chaqar, uzoqdan momaqaldiroq gumburlagani eshitilardi.

Paganel momaqaldiroq boshlanayotganidan xursand bo'ldi, chunki u olimning o'ylab qo'ygan rejasi-ga yordam berardi, xurofotga ishongan yovvoyilar

momaqaldiraq, chaqmoq kabi tabiat hodisalaridan qo'rqadilar. Momaqaldiraq guldurasa, yangi zelandiyaliklar unga o'z xudolari Nui-Atuaning g'azabi keldi deb, chaqmoq chaqsa, uning ko'zlaridan o't chaqnadi deb qaraydilar. Shuning uchun ular endi tabuni buzgan shakkokiarning jazosini berish uchun xudoning o'zi keldi, deb o'ylashlari turgan gap edi.

Soat sakkizda Maunganamu cho'qqisini qop-qorong'u zulmat qopladi. Osmon Paganel yer tagidan chiqarmoqchi bo'layotgan o'tning yana ham yorqin ko'rinishi uchun, tun qorong'usini battar qaraytirib yubordi. Maorilar endi o'z asirlarini ko'rolmay qoldilar. Vaqtni qo'ldan bermay, darhol harakat boshlash payti keldi. Glenarvan, Paganel, Mak-Nabbs, Robert va Styuart ahillik bilan ishga kirishdilar.

Kraterga Kara-Tetening qabridan o'ttiz qadamcha narida joy tanlashdi. Vulqon qabrni yakson qilmasligi shart edi, chunki qabr buzilishi bilan tabu o'z kuchini yo'qotadi.

Paganel vulqonni tagidan bug' otilib yotgan kattakon qoyadan ochmoqchi bo'ldi. Aftidan, bu qoya shu yerda paydo bo'lgan kichikroq bir tabiiy krater og'zini berkitib turar, yer ostidan o't otilib chiqishiga faqat uning og'irligi to'sqinlik qilardi. Agar o'sha qoyatoshni o'rnidan surishning iloji bo'lsa, ochilgan joydan zo'r kuch bilan bug' va lava otilib chiqa boshlaydi.

Yer qazuvchilarimiz qabrning ichki to'sig'idan sug'urib olingan bir necha qoziqdan richag sifatida foydalanib, kuchlarining boricha kattakon qoyatoshni o'rnidan qo'zg'ata boshladilar. Ahillik bilan zo'r berishlari natijasida ko'p o'tmay tosh o'rnidan jildi. Keyin ular tosh yumalab tusha olsin uchun tog' yonbag'ridan choqqina transheya kavladilar. Toshni ko'targanlarida zilzila kuchaya bordi. Yupqa yer qobig'i ostidan bo'g'iq gulduragan va chiyillagan tovush eshitilardi. Mard yer qazuvchilar indamay ishlardilar. Ko'p o'tmay tosh tagi bir necha yerdan yorildi-da, ulardan issiq bug' otilib chiqa boshladi. Bu tosh ko'tarayotganlarga endi bu yerda qolish xavfli ekanini ko'rsatdi. Ular yana bir zo'r bergan edilar, tosh joyidan ko'chib, yonbag'irlikdan pastga dumalab ketdi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Yupqa yer qobig'i darhol yorildi. Hosil bo'lgan teshikdan guvullab o't otilib chiqdi, uning ketidan qay-

nab yotgan suv bilan lava chiqa boshladi. Ular tog' yonbag'ridan yerliklar lageri bilan vodiya oqib tusha boshladi.

Butun cho'qqi larzaga keldi, u hozir tagsiz o'pqonga qulab ketadigandek tuyulardi.

Glenarvan bilan hamrohlari vulqondan zo'rg'a qochib qutuldilar. Ular deyarlik qaynab yotgan suvdan bir necha joylarini kuydirib, qabr to'sig'i ichiga kirib oldilar. Bu suvdan oldin bir pas sho'rva hidi kelib turdi, keyin achchiq oltingugurt hidi anqidi. Loyqa, lava, vulqon toshlari, aralash-quralash bo'lib Maunganamu yonbag'ridan pastga oqib tusha boshladi. Vulqon yorug'i qo'shni tog'larni yoritdi. Chuqur vodiylar ham yorishib ketdi. Yovvoyilar shovqin-suron bilan o'rinlaridan turib ketdilar: lager o'rtasida lava qaynardi. Bu o'tli oqim kuydirmaganlari qochib borib, atrof-dagi adirlarga chiqib oldilar. Keyin o'sha yerdan turib, g'azabga kelgan xudolarining amri bilan yuz bergan bu vulqonning qaynab-toshib, muqaddas tog'ni oyoqosti qilgan shakkoklarning jazosini berayotganini tomosha qila boshladilar. Vulqonning guldurashi biroz pasaygan paytlarda maorilarning:

- Tabu! Tabu! Tabu! - deb qichqirayotganlari eshiltildi.

Maunganamu vulqonidan esa behisob bug'lar, qizib yotgan toshlar, lava to'xtovsiz otilib turardi. Bu Islandiyadagi Gekla vulqoni atrofidan otilib chiqib yotgan geyzerlardan emas, balki o'sha Geklaning o'ziga o'xshagan haqiqiy vulqon edi. To'xtovsiz otilib chiqayotgan bu o'tli massani shu vaqtga qadar Maunganamu cho'qqisi bosib yotardi, chunki ularning Tangariro vulqonidek Yer yuziga otilib chiqib turadigan yo'li bor edi, endi, yangi yo'l ochib berilgandan so'ng esa, ular zabt bilan ana shu joydan otilib chiqa boshladilar, shuning uchun muvozanat qonuniga binoan bugun qo'shni vulqonlarda yerosti o'tining otilib chiqishi odatdagidan kuchsiz-roq bo'lishi kerak edi.

Yer yuzida paydo bo'lgan bu yangi vulqon otilib chiqa boshlaganiga bir soat bo'ldi deganda uning yonbag'irlaridan keng lava oqimlari oqib tusha boshladi. Sonsiz-sanoqsiz kalamushlar o'z inini tashlab, o't ichida qolgan yerdan qochishga tushdi.

Tuni bilan osmon-falakni larzaga keltirib momaqal-diroq gulduradi, otilib yotgan yangi vulqon shunday kuch bilan o't purkab chiqdiki, buni ko'rib Glenarvan tashvishlanmay qolmasdi: kraterning og'zi tobora ken-gayib bormoqda edi-da.

Qochqinlar qabr to'sig'i orqasiga yashirilib, tabiat-ning tobora kuchayib borayotgan bu qudratli hodisasi-ni tomosha qilardilar.

Tong otdi. Vulqonning g'azabi pasaymadi. O'tga sarg'ish quyuq tutun aralashib chiqar, chor atrofda ilonizi bo'lib lava oqib yotardi.

Glenarvan yuragi gupullab urgan holda to'siq ora-sidan yerliklarni kuzatib turardi. Maorilar vulqon zarar yetkazolmaydigan qo'shni adirlarga chiqib, ya-shirindilar. Ularning ilgarigi lageri turgan joyda ku-yib ko'mirga aylangan bir necha murda ko'rinib tu-rardi. Undan narida, paga boradigan yo'lda o'tli lava bir necha o'n kulbani kuydirib ketgan bo'lib, ulardan ba'zilari hali ham tutab yotardi. U yer-bu yerda yan-gi zelandiyaliklar to'da-to'da bo'lib turishar, o't ichida qolgan Maunganamu cho'qqisiga ixlos aralash qo'rquv bilan tikildilar.

Jangchilar orasida Kai-Kumu paydo bo'ldi. Glenar-van uni darhol tanidi. Yerliklar boshlig'i lava oqib tush-mayotgan tarafdin tog' etagiga keldi, lekin u yerdan bir qadam ham oldinga yurmadi. U afsun o'qiyotgan jodugar singari qo'llarini yuqori ko'tarib, bir necha xil qiliqlar qildi, qochqinlar buning ma'nosini yaxshi tu-shundilar: Paganel aytganidek, Kai-Kumu intiqom ol-gan toqqa yana ham kuchliroq tabu joriy qildi.

Ko'p o'tmay maorilar ilonizi so'qmoqlardan pastga, pa tomonga qarab ketdilar.

- Ketishyapti! - dedi Glenarvan. - Ketishyapti! Har-biy hiylamiz muvaffaqiyatli chiqdi! Azizim Elen, aziz do'stlarim, mana biz halok ham bo'ldik, lava ostiga ko'mildik. Ammo shu bugun kechqurunoq biz yana tirilamiz, qabrimizni tashlab, bu yovvoyilardan qochib qutulamiz!

Qochqinlarimizning shodligini tasavvur qilish qi-yin. Hammaning qalbida yana umid chirog'i yon-di. Boshlaridan kechirgan mashaqqatlarni tamom unutgan. Mard sayohatchilarimiz kelajak to'g'risida o'ylamasdilar - ular faqat hozirgi onning shodligiga be-

rildilar. Vaholanki, bu o'rganilmagan o'lkada biror ingliz koloniyasiga yetib olish juda qiyin gap edi. Lekin Kai-Kumuni aldashga muvaffaq bo'lganlaridan keyin Yangi Zelandiyaning hech qanday yovvoyilari ularga pisand emasday tuyula boshlagan edi.

Shunga qaramay, qochqinlar qabrda yana bir kun o'tirishlari kerak edi. Ular bu vaqtni qochish rejasini muhokama qilishga bag'ishladilar. Paganel Yangi Zelandiyaning qimmatbaho xaritasini saqlab qolgan edi, shuning uchun u eng xavfsiz yo'llarni ko'rsatib bera oladi.

Ahvolni har tomonlama o'ylab chiqib, sharq tarafga, Plenti ko'rfaziga yo'l olishga qaror qildilar. Bu yo'l tekshirilmagan, lekin, aftidan bo'm-bo'sh yerlardan o'tardi. Endi harqanday qiyinchilikni yengib ketishga o'rganib qolgan sayohatchilarimizni faqat bir narsa – maorilar bilan uchrashib qolish cho'chitardi. Ular har qanday qilib bo'lsa ham bunday uchrashuvdan qochishga va missionerlar tomonidan bir qancha koloniyalar tashkil qilingan sohilga yetib olishga ahd qildilar. Buning ustiga, orolning bu tarafini hali urush vayron qilmagan, shu sababli unda yerliklarning otryadlari izg'ib yurmasdi.

Taupo ko'li bilan Plenti buxtasi orqasidagi masofa taxminan yuz mil keladi. Har kuni o'n mildan yo'l yurib, o'n kun ichida bosib o'tish mumkin. Safar oson bo'lmaydi, albatta, lekin mard sayohatchilardan bittasi ham charchash to'g'risida o'ylamasdi. Biror koloniyaga yetib olinsa bo'lgani, u yerda esa Oklendga yetib olish uchun biror qulay fursat yuz berishini kutib dam olish ham mumkin. Shunday qarorga kelib olishgach. Glenarvan bilan hamrohlari kechgacha yerliklarni kuzatib turdilar. Tog' etagida bironta maori ko'rinmasdi, atrofdagi vodiylarni qorong'ulik bosganda, maorilarning borligidan darak beradigan bironta ham gulxan yoqilmadi. Yo'l ochiq edi.

Soat to'qqizda, atrofni qop-qorong'u zimiston qoplaganda, Glenarvan yo'lga tushishga signal berdi. Kara-Tetening qurol-yaroqlari va kiyim-boshlarini olib, hammalari ehtiyot bilan Maunganamudan tusha boshladilar. Oldinda Jon Mangls bilan Vilson bordilar. Ular yilt etgan yorug'liqqa e'tibor berishar, tiq etgan tovushga to'xtab quloq solishar edi. Tog' yonbag'ridan tushib ke-

tayotgan qochqinlarning hammasini ham yurib tushyapti deb emas, unga yopishib sirg'anib boryapti deb aytish mumkin edi.

Yosh kapitan bilan matros ikki yuz fut pastga tushib, maorilar yaqindagina hushyorlik bilan qo'riqlayotgan o'sha xatarli tog' qirrasiga yetdilar.

Baxtga qarshi, maorilar sayohatchilardan ayyorlik qilib, sun'iy vulqonning otilishiga ishonmay, qochqinlarni boplab qo'lga tushirish maqsadida o'zlarini go'yo pa tarafga ketgandek qilib ko'rsatishga urungan bo'lsalar, ularning shu yerdaligi mana hozir, xuddi shu qirrada ochilishi kerak edi. O'zining ishonch bilan borayotgani va xushchaqchaq Paganelning hazil qilishiga qaramay, Glenarvan beixtiyor cho'chib ketdi: tog' qirrasidan o'tiladigan shu o'n minut ichida eng yaqin kishilarining hayoti qil ustida turadi, u pinjiga kirib olgan xotining yuragi gupullab urayotganini yaqqol eshitardi. Lekin u orqaga qaytishi xayoliga ham keltirmadi. Jon Mangls ham bu fikrdan uzoq edi.

Tun qorong'usida tog'ning tor qirrasidan eng oldin yosh kapitan emaklab o'tib ketdi. Uning ketidan boshqalar o'tib oldilar. Biror tosh tog' yonbag'ridan pastga yumalab ketsa, hammalari turgan joylarida taqqa to'xtab qolardilar. Mabodo yovvoyilar hali ham tog' etagida ularni poylab yotgan bo'lsa, bu favqulodda tovush, albatta, tasira-tusur o'q yog'ilishiga sabab bo'lardi. O'z-o'zidan ma'lumki, tik qirrali tog'dan o'rmalab o'tib kelar ekan, qochqinlar juda sekin siljib borardilar. Jon Mangls tog' qirrasining eng past yeriga yetib tushganda, yaqinda yovvoyilar lageri turgan joydan yigirma besh fut yerda turardi. Bu yerdan tog' qirrasini yana tikka ko'tarilib ketar va o'rmonga borib tutashardi.

Sayohatchilar bu xavfli yerdan eson-omon o'tib oldilar-da, indamay toqqa ko'tarila boshladilar. Qopqorong'u bo'lgani uchun o'rmon ko'rinmasdi, ammo ular o'rmon yaqin ekanini bilardilar; Glenarvan: bordiyu o'rmonda biror pistirmaga duch kelib qolmasak, xavf-xatardan qutulamiz, deb o'ylardi. Lekin u endi tabu himoyasidan chiqqanlarini ham bilardi, albatta, chunki qirraning yuqori ko'tarila boshlagan ikkinchi qismi Taupo ko'lining sharq tarafidagi boshqa toqqa qarashli edi. Demak, bu yerda faqat miltiq o'qlaridan

emas, balki yerliklar bilan yuzma-yuz uchrashishdan ham ehtiyot bo'lish kerak.

Qochqinlar tog' qirrasidan o'n minutcha yuqori ko'tarilib bordilar. O'rmon Jonga hali ham ko'rinmasdi, lekin u ikki yuz futdan ham berida bo'lishi kerak.

Yosh kapitan birdan taqqa to'xtadi, hatto orqaga qaytgandek ham bo'ldi. Qop-qorong'u zimiston ichidan u allaqanday shitirlagan tovush eshitgandek bo'ldi. Hammalari turgan joylarida taqqa to'xtab qoldilar. Jon Mangls allamahalgacha qimir etmay turib qoldi, hamrohlari xavotirlana boshladilar. Ular kutib turardilar. Ularning qanchalik xavotir bo'lganlarini kim tasvirlab bera oladi! Nahotki, yana orqaga qaytib, Maunganamu cho'qqisida jon asrashga majbur bo'lsalar?

Lekin Jon Mangls shitirlagan tovushlar boshqa eshitilmayotganiga qanoat hosil qilib, tor qirradan yana yuqori ko'tarila boshladi. Ko'p o'tmay qorong'ulikda daraxtlar ko'zga ilg'ay boshladi. Yana bir necha qadam yurgandan so'ng qochqinlar o'rmonga yetib oldilar va uning quyuq shoxlari orasida g'oyib bo'ldilar.

O' n o l t i n c h i b o b

IKKI O'T ORASIDA

Tunning qop-qorong'uligi qochqinlarga qulay keldi. Taupo ko'lining badbaxt sohillaridan nariroqqa ketib olish uchun shundan foydalanish kerak edi. Paganel kichik otryadga yo'l boshchilik qilishni o'z bo'yniga oldi va bu tog' safari vaqtida o'z ajoyib sayohatchilik hissini yana bir namoyish qilib ko'rsatdi. U g'ira-shira ko'rinib turgan so'qmoqlardan ustalik bilan yo'l boshlab, belgilangan yo'ldan sira og'ishmay borardi. To'g'ri, bunga geografiya olimining niktalopiyasi, ya'ni ko'zi kechasi ham yaxshi ko'rishni yordam berardi: uning mushuknikidek o'tkir ko'zlari qop-qorong'u zimistonda eng mayda narsalarni ham yaxshi ko'rdi.

Qochqinlar uch soatgacha tog'larning sharqiy tik yonbag'ri bo'ylab to'xtovsiz yo'l yurdilar. Paganel Kaymana va Vaxiti tog' tizmalari orasidagi tor daraga borish uchun bir oz janubi sharq tarafga burildi, u dara orqali Oklenddan Goksa ko'rfaziga boradigan yo'l o'tar

edi. U daradan o'tgandan keyin bu yo'lni tashlab, viloyatning bo'm-bo'sh qismi orqali baland tog'lar himoyasida yo'l yurmoqchi edi.

Ertalab soat to'qqizda, o'n ikki soat yurib, o'n ikki mil yo'l bosib o'tdilar. Jasur ayollardan bundan ortig'ini talab qilib bo'lmasdi. Buning ustiga, yetib kelgan joylari to'xtash uchun juda qulay ekan. Qochqinlar ikki tog' tizmasini bir-biridan ajratib turadigan daraga yetdilar. Janub tomonga qarab ketgan, Oberlendga olib boradigan yo'l o'ng tomonda qolib ketdi. Paganel xaritasiga qarab, shimoli sharq tarafga burildi, soat o'nda kichik otryad tik tog' pog'onasi ostidan kelib chiqdi. Shu yerda sumkalardan oziq-ovqatlarni olib, ishtaha bilan ovqatlandilar. Shu vaqtgacha yeyiladigan qirqquloqni yoqtirmay yurgan Meri Grant bilan mayor ham endi uni mazza qilib yedilar.

Sayohatchilarimiz kunduz soat ikkigacha dam olib, yana sharqqa qarab yo'lga tushdilar-da, kechqurun tog'lardan sakkiz mil narida yana tunash uchun to'xtadilar. Hammalari ham maza qilib yalang yerga cho'zildilar va qattiq uyquga ketdilar.

Ertasiga qiyinroq yo'ldan yurishga to'g'ri keldi. Yo'l ajoyib vulqon paydo qilgan ko'llar, geyzerlar va Vaxiti tog'larining sharq tarafiga cho'zilib ketgan, tutab yotgan oltingugurt tepalari orasidan o'tdi. Bu yo'l ko'zni quvontirar, ammo oyoqni charchatib qo'yardi. Doim tepa yo ko'llarni aylanib, kishini charchatib qo'yadigan to'siqlarni oshib o'tishga to'g'ri kelardi. Lekin atrof shunday go'zal ediki, asti qo'yasiz! Xilma-xil go'zal manzaralar behisob edi!

Yigirma kvadrat mil keladigan keng maydonda yer osti kuchlari o'zini turli xilda namoyish qiladi. Yovvoyi choy daraxtlari hosil qilgan changalzor orasida sonsiz-sanoqsiz hasharotlar bijirlab yotgan top-toza sho'r buloqlar qaynaydi. Ularning suvidan kuygan porox hidi kelar va yerda ko'zni qamashtirar darajadagi oppoq qordek quyqa qoldirardi. Ba'zi buloqlar qaynash darajasida issiq bo'lsa, ba'zilar muzdek sovuq. Ular bo'yida Siluriy erasidagi sharoitga o'xshab ketadigan sharoitda katta-katta qirqquloqlar o'sib yotardi.

Hamma yoqni tutib ketgan bog'lar orasida chor atrof dan bog'lardagi fontanlarni eslatadigan fontanlar urib turardi. Ulardan ba'zilar uzluksiz, ba'zilar esa

o'jar Plutonning amriga bo'ysungandek, to'xtab-to'xtab suv otardi. Bu fontanlar tabiiy terrasalarda amfiteatr singari joylashgan edi. Ularning oppoq bug' bilan o'ralgan suvi sekin-asta bir-biri bilan qo'shilar, keyin bu gigant tabiiy zinalarning yiltillab turgan pillapoyalari buzib-yanchib, qaynab yotgan shalolalar hosil qilardilar.

Qaynab yotgan buloqlar va guvullagan geyzerlardan keyin oltingugurt tepalari uchray boshladi. Butun Yer yuzi katta-katta husnbuzar bilan qoplangandek tuyulardi. Bular yarim so'ngan kraterlar edi; ularning behisob yoriqlaridan har xil gazlar chiqib yotardi. Havoda sulfat kislotasining achchiq, qo'lansa hidi anqib turar, Yer yuzini oltingugurt kristallari bosib ketgan. Bu yerda necha asrlardan beri behisob boyliklar yig'ilib yotardi.

Sayohatchilarimizning bunday mo'l-ko'l to'siqlar orasidan qanday qiyinchiliklar bilan o'tib borganlarini ko'z oldingizga keltira olasizmi! To'xtash uchun joy topish oson emasdi, ovchilar mister Olbinetning qo'liga tozalang deb berilshga arzigulik bironta qush uchratmadilar. Shuning uchun faqat qirqquloq va shirin patat bilan tirikchilik qilishga majbur bo'ldilar, bu arzimas ovqatlar, albatta, charchagan sayohatchilarga kuch bo'lolmasdi. Tabiiyki, hammalari ham bu bo'm-bo'sh, unumsiz joylardan tezroq o'tib ketishga intildirdi.

Shunga qaramay, bu yo'l bosish qiyin bo'lgan o'l-kani kesib o'tishga to'rt kun vaqt ketdi. Sayohatchilarimiz faqat 23-fevraldagina Maunganamudan ellik mil narida, Paganelning xaritasida ko'rsatilgan ismsiz bir tog' etagida tunash uchun to'xtadilar. Bu yerdagi tekislikda butalar o'sib yotardi, ulardan narida esa, ufqda yana keng o'rmonlar ko'rindi.

Bu, albatta, yaxshi, lekin u yerlarda aholi ko'p bo'lmasa bo'lgani. Shu vaqtgacha sayohatchilarimiz yerliklarning qorasini ham ko'rmadilar.

O'sha kuni Mak-Nabbs bilan Robert uchta kivi otib oldilar, parranda go'shti ovqatning ziynati bo'ldi, lekin lazzat uzoqqa cho'zilmadi, chunki bir necha minutdan keyin qushlardan asar ham qolmadi.

Parranda go'shti ketidan kartoshka bilan shirin patat yeb o'tirar ekanlar, Paganel cho'qqisi uch ming fut

balandlikda bulutlar orasiga kirib yo'qoladigan ismsiz tog'ni Glenarvanning nomi bilan atashni taklif qildi, uning taklifi shodlik bilan qarshi olindi. Geografiya olimi darhol uning nomini o'z xaritasiga yaxshilab yozib qo'ydi.

Sayohatning davomini tasvirlab o'tirish uncha qiziq emas: kunlar bir xilda va zerikarli o'tdi.

Sayohatchilarimiz odatda kuni bilan o'rmon va qirlarda yo'l yurar edilar. Jon Mangls yo'lni quyosh va yulduzlarga qarab belgilab borardi. Havo ularga rahm qildi: yomg'ir ham yog'madi, kun ham juda isib ketmadi. Shunga qaramay qanchadan qancha qiyinchiliklarni boshidan o'tkazgan sayohatchilar charchab qolgani-dan, harakat tobora sustlashaverdi, ular tezroq biror ingliz koloniyasiga yetib olishga intilardilar.

Har holda, ular o'zaro suhbatlashib borardilar, lekin suhbat umumiy tus olmasdi. Otryad guruh-guruh bo'lib borardi.

Glenarvan odatda bitta o'zi borar, sohilga yaqinlashgan sari «Dunkan» va uning komandasi haqida ko'proq o'ylardi. U Oklendga yetib olguncha otryadni yo'lda kutib turgan xavf-xatar to'g'risida o'ylamay nuqul halok bo'lgan matroslarni o'ylardi. Bu dahshatli manzara uni to'xtovsiz qiynardi.

Garri Grant to'g'risida hech kim og'iz ochmadi. Yordam berishning iloji bo'lmaganidan keyin buning nima keragi bor! Mabodo kapitanning nomi tilga olinsa ham, faqat uning qizi bilan Jon Mangls orasidagi suhbatda bo'lardi.

Yosh kapitan o'sha mash'um tunda Meri kulbada aytgan so'z to'g'risida boshqa gap ochmadi. Bu nozik masala bo'lgani uchun eng umid uzilgan minutlarda qizning og'zidan chiqib ketgan gaplarni eslatishga yigitning ko'ngli bo'lmas edi.

Garri Grant to'g'risida gap ochilsa, Jon Mangls doim kapitanni axtarishning yangi rejalari to'g'risida gapirardi. U Glenarvan, albatta, yangi ekspeditsiya tuzadi deb Merini ishontirardi. Yosh kapitan o'z fikrini shishada topilgan hujjatlarning soxta emasligiga shubha yo'qligi bilan asoslardi. Demak, Garri Grant biron-bir joyda bo'lishi kerak. Hamon shunday ekan, butun dunyoni kezib chiqishga to'g'ri kelsa ham, u oxiri topilishi lozim.

Bu gaplarni eshitib, Merining ko'ngli ko'tarilardi. Ular Jon Mangls ikkalasi bir xil fikrlar, bir xil umidlar bilan yashar, ularning suhbatida Elen ham tez-tez ishtirok etib turardi. U yigit bilan qizning umidiga sherik bo'lolmas, lekin ularni qayg'uli haqiqat olamiga qaytarishni ham istamasdi.

Mak-Nabbs, Robert, Vilson va Myulredilar o'z hamrohlaridan juda ham uzoqqa ketib qolmay, iloji boricha ko'proq ov qilish payida edilar.

Paganel hali ham formium plashchiga o'ralib olgan cha bir chetda chuqur o'yg'a botib indamay borardi.

Shuni ham aytish kerakki, har xil azoblar, xavf-xatarlar, charchoq va yetishmovchiliklar eng yaxshi xarakterli odamlarni ham holdan toydirib, tez jahli chiqadigan qilib qo'yadi, lekin sayohatchilarimizning do'stligi buzilmadi, ular hamon bir-biriga sodiq va biri uchun jonini ham berishga tayyor edilar.

25-fevral kuni sayohatchilarimizning yo'lini bir daryo to'sib chiqdi. Paganelning xaritasiga qarab, uning Vaykari daryosi ekanini bildilar. Undan kechib o'tishga muvassar bo'ldilar.

Ikki kungacha mayda butalar bilan qoplangan tekis daladan o'tib bordilar. Endi charchagan bo'lsalar ham, har holda, yerliklarga to'qnash kelmay, Taupo ko'li bilan dengiz sohili o'rtasidagi yo'lning yarmisini bosib o'tgan edilar.

Shundan keyin Avstraliya o'rmonlari singari baland, bepoyon o'rmonlar boshlandi, lekin bu o'rmonlarda evkaliptlar emas, kauri daraxtlari o'sib yotardi. To'rt oydan beri safarda bo'lgach, Glenarvan bilan hamrohlari har xil ajoyibotlarni ko'raverib, har narsaga ham ajablanmaydigan bo'lib qolgan esalar-da, Kaliforniyada o'sadigan kedr va mamont daraxtlari bilan bahuzur raqobat qila oladigan bu o'rmonni ko'rib qoyil qoldilar. Bu daraxtlar shunday baland ediki, yuz fut balandlikdan so'nggina shoxlardi. O'rmon shox va barglari ikki yuz fut balandlikda zont hosil qilgan bu azamat gigantlarning behisob ayrim-ayrim chakalaklaridan iborat edi.

Endigina yuzga kirgan ba'zi yosh kaurilar Yevropa mamlakatlaridagi qizil archaga o'xshab ketardi: ularning ko'm-ko'k shox-barglari konussimon o'sgandi.

Anchagina qarib qolgan, besh yuz-olti yuz yil umr ko'rgan daraxtlarning shoxlari bir-biriga chatishib ketgan bo'lib, kattakon ko'k chodirga o'xshardi. Yangi Zelandiya o'rmonlarining patriarxlari bo'lgan bu daraxtlarning tanasi aylanasiga ellik fut chiqadi. Sayohatchilarimizning hammasi qo'l ushlab, uni o'rtaga olganlarida ham bunday daraxt tanasi quchoqlariga sig'magan bo'lardi.

Kichkina otryad uch kungacha odam qadami yetmagan bu azim daraxtlar orasidan yo'l yurdi. Bu yerlarga hali odam oyoq bosmaganini yelim daraxtlari ostida uyulib yotgan yelindan bilish mumkin edi: bu yelimlar yerliklarning yevropaliklar bilan savdo-sotiq qilishi uchun uzoq yillarga yetgan bo'lardi.

Ovchilar maorilar yashaydigan joylarda juda kam uchraydigan kivi galalariga duch kelib turdilar. Bu ajoyib qushlar, aftidan, Yangi Zelandiya itlaridan shu yerda boshpana topgan edilar. Ularning go'shti sayohatchilarimiz uchun mazali va mo'l-ko'l taom bo'ldi.

1-mart kuni kechqurun Glenarvan bilan uning hamrohlari nihoyat gigant kaurilar o'rmonidan chiqdilar va balandligi besh yarim ming futga yetadigan Iki-Renj tog'i etagida tunash uchun to'xtadilar.

Maunganamu tog'idan yo'lga chiqqanlaridan beri yuz milcha masofani bosib o'tdilar, okean sohiliga yana o'ttiz milcha bor edi. Jon Mangls Maunganamudan sohilga o'n kunda yetib olarmiz deb o'ylagan edi, lekin Jon unda yo'lning bunday qiyinligini bilmagandi.

Amalda esa, yo'lga uchragan to'siqlarning ko'pligi, ularning aylanib o'tish, otryadning turgan joyini belgilashda yo'l qo'yilgan xatolar yo'lga beshdan bir qismiga cho'zib yubordi. Shuning uchun sayohatchilarimiz Iki-Renj tog'iga juda holdan toyib yetib keldilar.

Sohilga yetib olish uchun yana ikki kun zo'r berib yo'l yurish kerak edi. Buning ustiga, g'ayrat va hushyorlikni mana endi kuchaytirish lozim, chunki yo'lovchilar yerliklar kelib-kelib turadigan yerlarga yetgan edilar. Shunga qaramay, ertasiga hammalari charchoqni yengib, tong otar paytda yana yo'lga tushdilar.

Ikki tog' orasidan o'tib borishga to'g'ri keldi: o'ng tarafda Iki-Renj tog'i, so'l tarafda balandligi uch ming yetti yuz fut keladigan Gardi tog'i qad ko'tarib turardi.

Yo'l juda qiyinlashib ketdi. Bu yerda «bo'g'uvchi lianlar» deb juda topib ot qo'yilgan elastik o'simliklar o'sib yotgan tekis dala o'n milcha cho'zilib ketgan ekan. Yo'lovchilar har qadamda o'sha o'simliklar o'roviga tushib qolar edilar. Lianlar ilondek qo'l, oyoqlarga, butun gavdaga chirmashib olardi. Ikki kungacha sayohatchilar qo'lda bolta ko'tarib va o'sha ko'p boshli gidraajdah, jonga tegadigan yopishqoq o'simlik bilan kurashib borishga majbur bo'ldilar, bu lianlarni Paganel sira ham ikkilanmay jonivor o'simliklar klassiga kiritgan bo'lardi.

Bu past tekislikda ov qilishning iloji bo'lmaganidan, ovchilar otryad ovqatiga o'z hissalarini qo'sholmay qoldilar. Oziqlar tugab qoldi, ularni to'ldirishning esa iloji yo'q edi. Suv ham tugadi, shuning uchun yo'lovchilar endi o'z chanqovlarini ham bosolmay qoldilar, charchoq esa ularni battar chanqatardi.

Glenarvan bilan hamrohlari juda qiynalib ketdilar. Ularning birinchi marta ruhi tushay deb qoldi. Nihojat, sillasi qurigan yo'lovchilar yurib emas, instinktiv ravishda sudralib Tinch okean sohilidagi Lottin buruniga yetib keldilar.

Bu yerda urush natijasida xarob bo'lgan qishloqning bir necha bo'm-bo'sh kulbalari, tashlab ketilgan ekin dalalari uchradi. Chor atrofda talon-taroj va yong'in izlari ko'rinib turardi. Xuddi shu yerda bechora sayohatchilarni taqdir yangi balolarga duchor qildi.

Holdan toygan yo'lovchilar okean sohilida sudralib borar edilar, shu vaqt birdan bir milcha narida yerliklar otryadi ko'rinib qoldi. Yerliklar qurollarini silkitib, ular tomonga yugurdilar. Qochadigan joy yo'q, shuning uchun Glenarvan oxirgi kuchini to'plab, mudofaaga kirishish to'g'risida buyruq bermoqchi bo'lib turgan edi, birdan Jon Mangls:

- Qayiq! Qayiq! - deb qichqirib qoldi.

Haqiqatan ham, qumloq sohilda, qochqinlardan yigirma qadamcha narida, yerliklarning qumga o'tirib qolgan olti eshkakli uzun qayig'i turardi. Glenarvan bilan hamrohlari bir minut ichida qayiqni dengizga surib tushib, unga chiqib oldilar va bu xavfli sohildan nari suzib ketdilar. Jon Mangls, Mak-Nabbs, Vilson, Myulredi eshkak torta boshladilar, Glenarvan rulni qo'liga

oldi, ikkala ayol, Olbinet, Paganel va Robert qayiqning quyruq tomoniga joylashib oldilar.

O'n minutdan so'ng qayiq sohildan chorak mil narida edi. Dengiz tinch. Qochqinlar indashmasdi.

Yerdan juda uzoqlashib ketishni istamagan Jon sohil bo'ylab suzishga buyruq bermoqchi bo'lib turgan ediki, birdan qo'li eshkakni ko'targan joyida qotib qoldi: Lottin buruni orqasidan uchta qayiq chiqib keldi – yerliklar ularning payiga tushgan edilar.

– Dengizga! Dengizga! – deb qichqirdi yosh kapitan. – To'liqlar orasida halok bo'lganimiz yaxshiroq!

To'rt eshkakchi zo'r berib eshkak ota boshladilar. Qayiq yana ochiq dengiz ichkarisiga suzib ketdi. Ular yarim soatcha yerliklarni o'zlariga yaqinlashtirmadilar, lekin qanchadan qancha qiynoqlarni boshdan kechirgan bechora sayohatchilar ko'p o'tmay holdan toydilar, dushman qayiqlari yaqinlashib kela boshladi. Oralari-da ikki mil ham chiqmaydigan masofa qoldi. Yerliklarning hujumiga chap berib ketishning sira iloji yo'q – ular o'zlarining uzun stvolli miltiqlaridan o't ochish uchun tayyorlik ko'rmoqda edilar.

Xo'sh, bu vaqtda Glenarvan nima qilayotgan edi? U qayiqning orqa tomonida tik turganicha ertaklarda tasvirlangandek biron-bir kema ittifoqo yordamga kelib qolmasmikin deb ufqqa tikilardi. U nimani kutardi? Nimani istardi? Yoki ko'ngli biror narsadan darak berayotgan edimi?

Birdan uning ko'zlarida o't chaq nab ketdi, qo'li esa uzoqdagi allanarsani ko'rsatib, oldinga cho'zildi:

– Kema! – deb qichqirdi u. – Kema, do'stlarim! Eshkaklarga zo'r beringlar! Eshkaklarga!

To'rt eshkakchidan birontasi ham kutilmaganda paydo bo'lib qolgan bu kemani ko'rish uchun qayrilib qarab o'tirmadi: eshkakni bir marta ortiqroq tortishgani ham harna edi. Faqat Paganel o'rnidan turdi va uzun durbini bilan Glenarvan ko'rsatgan nuqtaga qaradi.

– Ha, – dedi geografiya olimi, – paroxod ekan. U biz tarafga qarab shaxd bilan suzib kelyapti. Bo'sh kelmanglar, azamat do'stlarim!

Qochqinlar yana g'ayrat bilan eshkak torta boshladilar va yerliklarni yarim soatcha yana o'zlariga sal bo'lsa ham yaqinlashtirmay suzib bordilar. Paroxod to-

bora yaqqol ko'rina boshladi. Endi uning ikkita machtasini, undagi yig'ib qo'yilgan yelkanlarni va qop-qora tutunini bahuzur ko'rish mumkin edi.

Glenarvan rulni Robertga berib, Paganelning durbinini qo'lga oldi-da, kemanding har bir harakatini diqqat bilan kuzata boshladi.

Lekin birdan Glenarvanning basharasi o'zgarib, rangi quv o'chganini va durbin qo'lidan tushib ketganini ko'rib, Jon Mangls va boshqa qochqinlar qay holga tushganlarini ko'z oldingizga keltirasizmi? Uning og'zidan chiqqan bir og'iz so'zning o'ziyoq hammaga ahvolni ma'lum qildi.

– «Dunkan!» – deb qichqirdi Glenarvan. – «Dunkan» bilan qaroqchilar!

– «Dunkan» deysizmi! – dedi Jon Mangls, eshkakni tashlab o'rnidan turar ekan.

– Ha! O'lim-u! U tarafdin ham, bu tarafdin ham o'lim bostirib kelyapti, – deb shivirladi Glenarvan dilxastalik bilan.

Haqiqatan ham bunga sira shubha qolmadi: kelayotgan kema banditlar qo'lga tushgan «Dunkan» edi! Mayor beixtiyor so'kinib qo'ydi. Bundan ortiq azobning bo'lishi sira mumkin emasdi!

Qayiq esa o'z holiga tashlab qo'yildi. Uni qayoqqa qarab haydash kerak? Qayoqqa qochib bo'lardi? Yovvoyilar bilan katorjniklardan qaysi birini tanlash kerak? Yaqinlashib qolgan yerliklar qayig'idan o'q uzildi, o'q Vilsonning eshkagiga kelib tegdi. Eshkaklar yana bir necha marta suvga urilib, qayiqni «Dunkan» tarafga surib yubordi. Shitob bilan, nihoyatda tez suzib kelayotgan kema endi qayiqdan chamasi yarim mil joyda edi.

Jon Mangls qurshovda qolganlarini ko'rib, qayiqni qay tarafga haydashni bilmay qoldi. Yerliklar olatasir o't ochdilar, o'qlar qayiq atrofiga yomg'irdek yog'ila boshladi. Birdan allanarsa gumburlab, qochqinlar tepasidan zambarak o'qi g'uvullab uchib o'tdi: «Dunkan»dagi zambarak o'q uzgan edi. Ikki o't o'rtasida qolgan qochqinlar «Dunkan» bilan yerliklarning qayiq-lari o'rtasida to'xtadilar.

Jon Mangls dilxastalikdan o'zini yo'qotib, boltani qo'lga oldi. U qayiqning tagini teshib, o'zini va ham-

rohlarini cho'ktirib yubormoqchi edi, lekin uni Robertning ovozi to'xtatib qoldi.

– Tom Ostin! Tom Ostin! – deb qichqirdi bola. – U kema bortida turibdi! Men uni ko'ryapman! Bizni taniydi, shlapasini silkityapti!

Jon boltasini ko'targancha qotib qoldi. Qochqinlarning boshi ustidan guvullagancha yana bir to'p o'qi uchib o'tdi. U yerliklarning uchta qayig'idan bularga eng yaqin kelib qolganini ikki bo'lak qilib yubordi. «Dunkan»da «ura» sadolari yangradi. O'takasi yorilgan yerliklar qayiqlarini burib, jon holatda sohil tarafga suza boshladilar.

– Bu yoqqa! Bu yoqqa, Tom! – deb qichqirdi Jon Mangls ovozinig boricha.

Bir necha minutdan keyin es-hushi og'ib, nimalar bo'layotganini ham tushunolmay qolgan qochqinlar «Dunkan»ga chiqib, xavf-xatardan qutuldilar.

O' n y e t t i n c h i b o b

NIMA UCHUN «DUNKAN» YANGI ZELANDIYANING SHARQIY SOHILIDA SUZIB YURGAN EDI

Qadim Shotlandiya kuyini eshitganda Glenarvan bilan hamrohlarining qanday shodlanganlarini tasvirlab berishning iloji yo'q. Ular kemaga chiqishi bilan «Dunkan» volinkachisi qadimiy Malkolm urug'i xalq qo'shig'i kuyini chala boshladi.

Glenarvan, Jon Mangls, Paganel, Robert va hatto mayor ham ko'z yoshlari bilan bir-birlarini quchoqlar va o'par, xursandlikdan o'zlarini yo'qotgan edilar. Geografiya olimi o'zini tamom yo'qotib qo'ydi: u nuqul telbalardek o'yin tushar, ayrilmas durbini bilan sohilga yaqinlashib borayotgan, omon qolgan qayiqlarni mo'ljalga olardi.

Glenarvan bilan hamrohlarining kiyim-boshlari to'zib ketganini, ularning boshidan o'tgan og'ir qiynoqlar aks etib turgan chehralarining ozib, suyagi tur-tib chiqib qolganini va rangparligini ko'rib, kema komandasi o'zining shovqin-suron bilan ifoda qilayotgan shodligini to'xtatdi. «Dunkan»ga bundan uch oy oldin katta umidlar bilan kapitan Grantni axtarib topishga

ketgan jasur, azamat sayohatchilarning faqat soylarigina qaytib keldi. Ularni yana qaytib ko'rishdan tamom umid uzib qo'ygani kemaga tasodif, ajoyib bir tasodif olib keldi. Lekin ular shunday ayanch holda edilar, shunday ozib-to'zib ketgan va holdan toygan edilarki, asti qo'yasiz!

Shunga qaramay, dam olish, qorin to'yg'azish va suv-puv ichib, chanqoqni bosishdan oldin Glenarvan Tom Ostindan nima uchun «Duncan» Yangi Zelandiya-ning sharqiy sohilida suzib yuribdi, deb so'radi. Qanday qilib u Ben Joysning shaykasi qo'liga tushmay qoldi? Qanday g'alati tasodif bo'lib, u qochqinlar qarshisidan chiqib qoldi?

Tom Ostinga har tomondan: «Nima uchun? Nega? Qanday qilib?» degan savollar yog'ila boshladi.

Keksa dengizchi kimning gapiga quloq solishini ham bilmasdi. Nihoyat, u faqat Glenarvanning so'ziga quloq solib, faqat uning savollariga javob bera boshladi.

- Katorjniklar qani? - deb so'radi Glenarvan. - Ularni nima qildinglar?

- Katorjniklar deysizmi? - deb qaytarib so'radi Tom Ostin ajablanib.

- Ha! Kemaga hujum qilgan muttahamlar-da.

- Qaysi kemaga? - deb so'radi Tom Ostin. - Sizning kemangizgami?

- Ha, ha, Tom, «Duncan»ga. Kemangizga Ben Joys degan odam keldimi, axir?

- Men hech qanday Ben Joysni bilmayman. Men unday odamni ko'rganim yo'q, - deb javob berdi Ostin.

- Nega «ko'rmas ekansiz»?! - deb yubordi keksa dengizchining javobidan hayron bo'lib qolgan Glenarvan. Bo'lmasa nima uchun hozir «Duncan» Yangi Zelandiyaning sharqiy sohili bo'ylab suzib yuribdi?

Glenarvan, Elen, Meri Grant, Paganel, mayor, Robert, Jon Mangls, Olbinet, Myulredi, Vilson keksa dengizning nimaga bunday ajablanayotganini tushunolmay turgan edilar, lekin uning xotirjamlik bilan:

- Kema bu yerda sizning buyrug'ingizga binoan suzib yuribdi, - deganini eshitib, ularning qanchalik hayron bo'lishganini bir ko'rsangiz edi!

- Mening buyrug'im bilan?! - deb yubordi Glenarvan.

– Xuddi shunday, ser, sizning o‘n to‘tinchi yanvarda yozgan xatingizdagi buyruqni bajarib yuribman, xolos.

– Mening xatimdagi buyruqni deysizmi? Mening xatimdagi-ya? – dedi Glenarvan.

O‘nta sayohatchi Tom Ostinni qurshab, unga tikilib qoldilar: demak, Snou daryosi bo‘yida yozilgan xat har holda «Duncan»ga yetib kelgan ekan-da?

– Menga qarang, keling, yaxshilab aniqlab olaylik, – dedi Glenarvan, – bo‘lmasa, bularning hammasi menga tushga o‘xshab tuyulyapti. Tom, siz xatni oldim dedingiz-a?

– Ha.

– Melburnda oldingizmi?

– Melburnda, ta‘mirni tugatishim bilan oldim.

– U qanday xat edi?

– Uni siz yozmagan ekansiz, lekin imzo sizniki edi, ser.

– Bu to‘g‘ri. Uni sizga Ben Joys degan katorjnik keltirib berdimi?

– Yo‘q, ser, xatni «Britaniya» kemasining botsmani Ayrton degan dengizchi olib keldi.

– Rost-a! Ayrton bilan Ben Joys – ikkalasi bir odam! Xatda nima deyilgan ekan?

– Unda Melburndan chiqib, Yangi Zelandiyaning sharqiy sohili bo‘ylab suzib yurish buyurilgan ekan.

– Avstraliyaning deysizmi? – hayron bo‘lib takrorladi Tom Ostin, ko‘zlarini katta ochib. – Yo‘g‘-e, Yangi Zelandiyaning sharqiy sohili bo‘ylab!

– Avstraliyaning, Tom, Avstraliyaning! – deb bir og‘izdan quvvatladilar Glenarvanning barcha hamroh-lari.

Endi Tom hayronlikdan nima qilishini bilmay qoldi. Glenarvan shunday ishonch bilan so‘zlar ediki, keksa dengizchi hatto xatni rostdan ham chatoq o‘qigan ekanman-da, degan xayolga bordi. Nahotki, Ostindek sodiq va saranjom dengizchi shunday xato yo‘l qo‘ygan bo‘lsa? U xijolatdan qizarib ketdi.

– Tinchlaning, Tom, – dedi muloyimlik bilan Elen, – taqdir shunday ekan-da.

– Yo‘g‘-e, missis, kechiring meni, – deb g‘uldiradi keksa dengizchi. – Bunday bo‘lishi mumkin emas,

men yanglishganim yo'q! O'sha xatni Ayrton ham xuddi shunday o'qidi. Buyruqqa qarshi o'laroq Avstraliya sohiliga borishimni u shunday o'tinib so'radiki, asti qo'yasiz!

– Ayrton? – deb yubordi Glenarvan.

– Xuddi o'sha. Ayrton, xatda xatoga yo'l qo'yishibdi. Tufold ko'rfazida uchrashamiz deb belgilangan edi, deb meni ishontirmoqchi bo'ldi.

– O'sha xat hozir turibdimi, Tom? – deb so'radi bunga juda qiziqib qolgan mayor.

– Ha, mister Mak-Nabbs, – deb javob berdi Ostin. – Hozir olib kelaman.

Tom Ostin chopganicha o'z kayutasiga ketdi. Orada o'tgan bir necha minut ichida hech kim churq etib og'iz ochmadi, hammalari indamay bir-birlariga qarab-qarab qo'yishardi. Faqat qo'llarini ko'kragi ustiga qovushtirib olgan mayor Paganelga qattiq tikilib qoldi.

– Paganel, bu safar juda ham oshirib yuborgan ko'rinasiz, – deb qo'ydi u.

– A? Nima dedingiz? – deb g'uldiradi geografiya olimi.

Ko'zoynagini peshanasiga ko'tarib qo'ygan va munkayibroq turgan olim xuddi kattakon savol alomatiga o'xshardi.

Ostin qaytib keldi. U Paganel yozgan va Glenarvan qo'l qo'ygan xatni olib kelgan edi.

– Mana, o'zinglar o'qib ko'ringlar, – dedi kekxa dengizchi.

Glenarvan xatni olib, o'qiy boshladi:

– «Tom Ostringa darhol dengizga chiqishni va o'ttiz yettinchi paralleldan borib, «Duncan»ni Yangi Zelandiyaning sharqiy sohiliga olib kelishni buyuraman...»

– Yangi Zelandiyaning! – deb qichqirib yubordi Paganel turgan yerida bir sakrab tushib.

U Glenarvanning qo'lidan xatni tortib oldi, ko'zlarini ishqaladi, ko'zoynagini to'g'rilab qo'ydi-da, xatni o'zi o'qib chiqdi.

– Yangi Zelandiyaning! – dedi u aslo tasvirlab bo'lmaydigan g'alati ohangda, xatni qo'lidan tushirib yuborar ekan.

Shu payt u allakim yelkasiga qo'lini qo'yganini sezdi. Olim boshini ko'tardi. Qarshisida mayor turardi.

- Nima ham derdik, muhtaram Paganel, - dedi g'oyat jiddiylik bilan Mak-Nabbs, - tag'in ham omdimiz kelibdi: yaxshiki, «Dunkan»ni Hindi-Xitoyga yubormabsiz.

Bu hazil bechora geografiya olimini juda esankiratib qo'ydi. Hamma qah-qah urib kulib yubordi. Paganel telbalardek u yoqdan bu yoqqa yurar, boshini changallab, sochlarini yular edi. Endi u o'zining nima qilayotganini, nima qilmoqchiligini mutlaqo bilmas edi. U kemanding yut qismidan trap orqali palubaga tushib, hech qanday maqsadsiz qoqila-suqila kezib yura boshladi, keyin bakka ko'tarildi. Bu yerda oyog'i arqon o'ramiga ilashib qolib, turtinib ketdi-da, o'ng kelib qolgan bir arqonga yopishib oldi.

Birdan gumbirlagan tovush eshitildi. Zambarak otildi. Okeanning tinch suvlariga sochma o'q yog'ildi. Sho'rluk Paganel hali turtinganida o'qlab qo'yilgan zambarakning arqoniga yopishib olgan ekan, kurok tushib, zambarak otilib ketibdi. Havo to'lqini geografiya olimini bakning trapiga keltirib urdi, u kubrikka yiqilib tushdi.

Bir zum davom etgan hayronlik o'rnini qo'rquv bosdi. Hamma ham biror falokat yuz bermadimikan deb cho'chib ketdi. Matroslar duv etib pastga yugurdilar va Paganelni palubaga ko'tarib chiqdilar. Uning uzun gavadasi ikki bukilib qolgandi, o'zi so'zlay olmasdi. Olimni yutga olib o'tdilar. Hurmatli fransuzning do'stlari juda shoshib qolgan edilar. Baxtsiz hodisa yuz berib qolgan vaqtlarda vrachlik vazifasini bajaradigan mayor yaralarini bog'lash uchun Paganelni yechintirmoqchi bo'ldi, lekin u o'lay deb qolgan Paganelning kiyimiga qo'l tekkizar-tekkizmas olim tok urgandek dik etib o'rnidan turib ketdi.

- Tegmang! Tegmang! - deb qichqirdi u, titilib ketgan kiyimiga o'ralib, keyin nihoyatda shoshqinlik bilan tugmalarini solib oldi.

Mayor endigina:

- Menga qarang, Paganel, axir... - deb gap boshlagan edi, Paganel:

- Yo'q dedim-ku, sizga, yo'ql - deb qichqirib berdi.

- Ko'rib qo'yishim kerak axir...

- Yo'q, ko'rmaysiz!

- Ehtimol, biror yeringiz lat yegandir... - deb uni ko'ndirishga urindi Mak-Nabbs.

- Ha, sindi, - dedi Paganel, uzun oyoqlarini mahkam tirab turib olar ekan, - lekin men sindirgan narsani duradgor usta tuzatadi.

- Nimani sindirdingiz, o'zi?

- Yiqilib tushayotib, paluba tambasini sindirdim.

Uning bu so'zlari avvalgidan ham kuchliroq qahqaha ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bu javob muhtaram Paganelning hamma do'stlarini tinchlantirdi: hurmatli olimning zambarak voqeasidan eson-sog' chiqqani ma'lum bo'ldi.

«Muncha uyatchang bo'lmasa, bu olimi tushmagur!» - deb o'ylar edi mayor.

Hozirgina boshidan kechirgan barcha hayajonlari bosilgandan keyin Paganel muqarrar turgan yana bir savolga javob berishga majbur bo'ldi.

- Paganel, endi menga ochiq javob bering, - deb unga murojaat qildi Glenarvan. - Parishonligingiz foydali bo'lib chiqqanini e'tirof qilaman... Siz bo'lmasangiz, «Duncan» albatta katorjniklar qo'liga tushgan bo'lardi. Siz bo'lmasangiz, maorilar bizni yana ushlab olgan bo'lar edilar. Lekin, xudo haqi, menga bir narsani tushuntiring: «Avstraliya» so'zi o'rniga «Yangi Zelandiya» deb yozib yuborishga sizni qanday fikrlar majbur qildi?

- E, jin ursin, - dedi Paganel, - men buni...

Lekin birdan Robert bilan uning opasiga ko'zi tushib, u tutilib qoldi. Keyin:

- Nima ham derdim, aziz Glenarvan! Men bir telbatentak, tuzalmaydigan odamman. To o'la-o'lgunimcha shu parishonxotir tentakligimcha qoladigan ko'rinaman.

- Agar avvalroq hushingizni joyiga tushirib qo'yishmasa, - deb qo'ydi mayor.

- Hushingizni joyiga tushirib qo'yishmasa deysizmi? - deb qichqirdi g'azab bilan geografiya olimi. - Bu nima: biron choraga ishora qilyapsizmi?

- Qanday ishora ekan u, Paganel? - deb odatdagi cha xotirjamlik bilan so'radi Mak-Nabbs.

Lekin gap shu yerga kelganda to'xtadi. «Duncan» ning birdan paydo bo'lib qolishining sababi ma'lum bo'ldi. Ajoyib tasodif munosabati bilan qutulib qolgan sayohatchilar o'zlarining yaxshi jihozlangan, qulay ka-

yutalariga kirib ketdilar, birozdan so'ng hamma nonushtaga yig'ildi.

Elen, Meri Grant, mayor, Paganel va Robertlar tarqab ketishgach, Glenarvan bilan Jon Mangls Tom Ostindan ba'zi narsalarni so'rash maqsadida palubada qoldilar.

- Keksa dengizchim Tom, - deb Ostinga murojaat qildi Glenarvan, - endi siz menga shuni aytingchi: Yangi Zelandiya sohillarida suzib yurish to'g'risidagi buyruq sizga g'alati tuyulmadimi?

- Ha, ser, to'g'risini aytsam, men bunga juda hayron bo'ldim, - deb javob berdi kekxa dengizchi. - Lekin odatdagidek olgan buyruqni muhokama qilib o'tirmay bo'ysundim. Boshqacha ish tutishim mumkinmidi? Bordi-yu, buyrung'ingizni aniq bajarmasam, buning natijasida biror falokat yuz bersa, men javobgar bo'lmasmidim? Siz nima deysiz, kapitan, boshqacha yo'l tutgan bo'larmidingiz? - deb Jon Manglsga murojaat qildi u.

- Yo'q. Tom, men ham xuddi shunday qilgan bo'lardim.

- Lekin o'shanda siz nima deb o'yladingiz?

- Nima deb o'ylardim, ser, men Garri Grantni topish ishiga yordam berish uchun siz buyurgan joyga borishim kerak deb, biror yangi sababga binoan sizlar boshqa biror kemada Yangi Zelandiyaga kelsangiz kerak, men esa sizlarni bu orolning sharqiy sohilida kutishim kerak ekan, deb o'yladim. Shuni ham aytishim kerakki, Melburndan chiqib ketayotganda, men qayoqqa jo'nayotganimizni hech kimga bildirmadim, shuning uchun komanda bu yoqqa kelayotganimizni faqat kema ochiq dengizga chiqib, Avstraliya qirg'oqlari ko'zdan g'oyib bo'lgandan keyin bildi. Lekin shu payt bir hodisa yuz berdiki, u meni juda xavotirlikka solib qo'ydi.

- Nima hodisa yuz berdi, Tom? - deb so'radi Glenarvan.

- Melburndan yo'lga chiqqan kunimizning ertasiga «Dunkan»ning qayoqqa ketayotganini eshitgan Ayrton...

- Ayrton deysizmi! - deb qichqirdi Glenarvan. - U kemadami hali?

- Ha, ser.

- Ayrton shu yerda ekan! - dedi Glenarvan, Jon Manglsqa qarab.

- Taqdir-da, - deb qo'ydi yosh kapitan.

Bir lahzada ularning ko'z oldidan Ayrton qilgan barcha yaramasliklar: uning oldidan tayyorlab kelgan xiyonati, Glenarvanning yarador bo'lishi, Myulredini o'ldirish maqsadida qilingan suiqasd, butun otryadning Snou daryosi bo'yida tortgan azoblari gavdalanib o'tdi. Mana endi, taqdirning g'alati taqozosi bilan, katorjnik ularning qo'lida.

- Qayerda u? - deb qiziqib so'radi Glenarvan.

- Bakdagi kayutalardan biriga qamab qo'rganman, - deb javob berdi Tom Ostin.

- Nima uchun qamab qo'ydingiz?

- Chunki kema Yangi Zelandiyaga ketayotganini bilgandan keyin Ayrtonning joni chiqib ketdi, meni kemanding yo'lini o'zgartirishga majbur qilmoqchi bo'ldi, do'q qilib ko'rди, komandamni qo'zg'olon ko'tarishga tashviqot qila boshladi. Keyin men: bu xavfli yigit ekan deb zarur choralarni ko'rishga majbur bo'ldim.

- Keyin nima bo'ldi?

- O'shandan beri u kayutada, undan chiqishni o'ylamaydi ham.

- Yaxshi qilibsiz, Tom!

Shu payt Glenarvan bilan Jon Manglsni kayut-kompaniyaga taklif qildilar: nonushta tayyor bo'lgan edi. Ular Ayrton to'g'risida og'iz ham ochmay, ovqatlanmani o'tirdilar. Lekin ovqatlanib, qorin to'yg'azib olgan sayohatchilar palubada to'planishgach, Glenarvan ularga botsmanning «Dunkan»da ekanini aytdi. U Ayrtonni hammaning oldida so'roq qilmoqchi ekanini ham qo'shib qo'ydi.

- Shundan meni xalos qilishning iloji yo'qmi? - deb so'radi Elen. - Rostini aytsam, azizim Eduard, o'sha bechorani ko'rishga sira toqatim yo'q.

- Bu yuzma-yuz uchrashuv bo'ladi, Elen, - deb javob berdi Glenarvan. - Iltimos qilaman, qoling. Ben Joys barcha qurbonlari bilan uchrashuvi kerak.

Bu dadil Elenni qolishga majbur qildi. Elen bilan Meri Grant ikkalasi Glenarvanning yoniga o'tirdilar. Ularning atrofiga mayor, Paganel, Jon Mangls, Robert, Vilson, Myulredi, Olbinet - katorjnikning xiyonatidan

shunchalik azob-uqubatlarga duchor bo'lganlarning hammasi doira olib o'tirdilar. Bu uchrashuvning qanchalik muhimligini ham uncha tushunib yetmagan kema komandasi jim turardi.

- Ayrtonni olib kelinglar, - dedi Glenarvan.

O' n s a k k i z i n c h i b o b

AYRTONMI YO BEN JOYS?

Ayrtonni olib keldilar. U palubadan dadil qadamlar tashlab keldi-da, trapdan rubkaga chiqdi. U qovog'ini solib, tishlarini mahkam qisgan, qo'llarini musht qilib olgan edi. Uning qiyofasida na g'ashga tegadigan be-odoblik, na itoatgo'ylik bor edi.

Glenarvan oldiga kelgach, u indamay qo'llarini ko'kragi ustiga qovushtirib turib oldi-da, so'roqning boshlanishini kuta boshladi.

- Ayrton, - deb gap boshladi Glenarvan, - mana endi bizlar siz Ben Joys shaykasiga topshirmoqchi bo'lgan o'sha «Dunkan»damiz.

Botsmanning lablari bilinar-bilinmas titrab ketdi, beparvo yuzi qizardi. Lekin bu tavba qilgan odamning emas, balki ishi o'ngidan kelmagan odamning qizarishi edi. Endi u o'zim qo'mondoni bo'laman degan kemasida asir, bir necha minutdan keyin taqdiri hal bo'lishi kerak. U hech narsa deb javob bermadi. Glenarvan sabr qilib javob kutar, Ayrton esa o'jarlik bilan jim turardi.

- Gapiring, Ayrton, - dedi nihoyat Glenarvan. - Endi nima deysiz?

Aftidan, Ayrton taraddudda edi. Uning peshanasi-dagi ajinlar chuqurlashdi. Nihoyat, u xotirjamlik bilan dedi:

- Mening aytadigan so'zim yo'q ser. Ahmoqlik qilib qo'lingizga tushib qoldim. Endi nima qilsangiz - o'zingiz bilasiz.

Shunday deb botsman g'arb tarafda cho'zilib yotgan sohilga qarab turib oldi, o'zini bunday tutishi bilan u bu yerda bo'layotgan gaplarning menga zarracha ham qizig'i yo'q, demoqchi bo'ldi. Unga qarab turib, bu yer-dagi gap-so'zlarga hech aloqasi yo'q odam, deb o'ylash

mumkin edi. Lekin Glenarvan o'zini yo'qotmaslikka ahd qildi. U Ayrtonning sirli o'tmishidan ba'zi tafsilotlarni, ayniqsa Garri Grant bilan «Britaniya»ga tegishli qismini bilib olmoqchi edi. U yana so'roq qila boshladi. U qalbida qaynab toshayotgan g'azabini bosib, yumshoq va muloyim gapirishga harakat qilardi.

– Ayrton, – deb yana gap boshladi u, – men sizdan ba'zi narsalarni so'ramoqchiman. Javob berishdan boshtortmasangiz kerak-a? Eng oldin shuni ayting: men sizni kim deb atay: Ayrton debmi, yo Ben Joys deb? Siz «Britaniya»da botsman bo'lganmisiz-bo'lmaganmisiz?

Ayrton go'yo uning savolini eshitmagandek, hamon xotirjamlik bilan sohilga qarab turardi.

Glenarvanning ko'zlari g'azab bilan chaq nab ketdi, lekin u o'zini bosib, botsmanni yana so'roq qila boshladi:

– Javob bering: «Britaniya»ni qanday sharoitda tashlab ketgansiz, Avstraliyaga qanday kelib qolgansiz?

Ayrton yana boyagiday beparvo qiyofada indamay turaverdi.

– Menga qarang, Ayrton. – deb unga yana murojaat qildi Glenarvan, – javob bersangiz o'zingizga yaxshi; ahvolingizni faqat ochiqdan ochiq so'zlash yengillash tirishi mumkin. Oxirgi marta so'rayman: savollarimga javob berasizmi yo yo'qmi?

Ayrton Glenarvan tomonga qayrildi-da, uning ko'ziga tik qaradi.

– Ser, javob berishimning hojati yo'q, – dedi u, – meni odil sudning o'zi fosh qilsin.

– Odil sudga bu qiyin ish emas, – dedi Glenarvan.

– Qiyin emas deysizmi, ser? – dedi istehzo bilan Ayrton. – Menimcha, juda katta ketdingiz! Men aytamanki, eng usta sudya ham meni hech narsa qilolmaydi. Kapitan Grant Avstraliyada emas ekan, mening u yerga nima uchun borganimni kim biladi? Men politsiyaning qo'liga bir marta ham tushmaganimdan keyin, o'rtoqlarim ozodlikda bo'lgandan keyin, politsiya belgilarini aytib qidirayotgan o'sha Ben Joys men ekanimni kim isbot qiladi? Meni jinoyatda emas, hatto qoralash mumkin bo'lgan jindakkina ayb bilan sizdan boshqa kim aybdor qila oladi? Mening bu kemani qo'lga tushi-

rib, katorjniklar qo'liga topshirmoqchi bo'lganimni kim tasdiqlaydi? Hech kim! Eshityapsizmi? Hech kim! Sizning shunday shubhalarangiz bormi? Yaxshi. Lekin bir odamni aybdor qilish uchun bu hali kamlik qiladi, buning uchun ishonch bo'lishi kerak, sizning esa ishonchingiz yo'q. To buning aksi isbot qilinmaguncha, men Ayrtonman, «Britaniya» kemasining botsmaniman.

Shularni gapirayotganda Ayrton biroz jonlandi, lekin gapirib bo'lishi bilan yana ilgarigi beparvo holatiga tushib oldi. Aftidan, botsman shu bilan uni so'roqqa barham berishar deb o'ylagan edi, lekin u yanglishdi. Glenarvan yana gap ochdi.

– Ayrton, men sizning o'tmishingizni tekshirish topshirilgan sud tergovchisi emasman. Bu mening ishim ham emas. Biz bir-birimizga nisbatan qanday munosabatda bo'lishimizni aniqlab olishimiz kerak. Men sizdan sizni ayblash mumkin bo'ladigan narsalarni so'rayotganim yo'q. Bu odil sudning ishi. Ammo siz mening qanday qidirish ishlari olib borayotganimni yaxshi bilasiz, bir og'iz so'z bilan men yo'qotib qo'ygani iz tarafga yo'llab yuborishingiz mumkin. Menga kerakli ma'lumotlarni aytib berishga rozimisiz?

Ayrton gapirmaslikka qat'iy ahd qilganini bildiradigan tarzda bosh chayqadi.

– Kapitan Grant qayerda ekanini ayta olasizmi? – deb so'radi Glenarvan.

– Yo'q, ser, – deb javob berdi Ayrton.

– «Britaniya» qayerda halokatga uchraganini menga aytasizmi-yo'qmi?

– Yo'q!

– Ayrton, – dedi Glenarvan yalinmoqdan beri bo'lib, – Garri Grantning qayerdaligini bilsangiz, buni juda bo'lmasa, uning bechora bolalariga ayting. Ular juda bo'lmasa bir og'iz so'z aytishingizni qanday zoriqib kuyayotganlarini bir ko'ring!

Ayrton, aftidan, taraddudda edi. Uning basharasida ichki kurash ifodalari aks etdi. Lekin u baribir:

– Aytolmayman, ser, – deb sekin javob berdi.

Shunday dedi-yu, bir lahza kuchsizlik qilganidan afsuslangandek qat'iy qilib:

– Yo'q! Yo'q! Siz mendan hech narsa bilolmaysiz! Xohlasangiz, meni osib yuboring! – deb qo'shib qo'ydi.

– Osilsin! – deb qichqirdi o'zini unutilib Glenarvan.

Lekin o'zini bosib olib, yana jiddiy qilib dedi:

– Ayrton, bu yerda na sudyalari bor, na jallodlar. Biz dastlab to'xtagan yerdayoq sizni ingliz ma'murlariga topshiramiz.

– Men ham faqat shuni istayman, – dedi botsman.

Shunday deb, u xotirjamlik bilan o'zining turmasi bo'lib qolgan kayutaga qarab ketdi. Kayuta eshigi oldida turgan ikki matrosga uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatish buyurildi.

Bu manzaraning guvohi bo'lganlar g'azabi qaynab toshgan va umidsizlikka tushgan holda tarqalishdi.

Glenarvan Ayrtondan hech qanday ma'lumot ololmaganidan keyin endi nima ham qila olardi? Edenda qabul qilingan qarorni amalga oshirishgina qoldi: vaqti bilan qidirish ishlarini yana davom ettirish uchun Yevropaga qaytishdan boshqa chora yo'q. Hozircha esa bu fikrdan qaytishga to'g'ri keladi: axir, «Britaniya»ning izi butunlay yo'qolgan, hujjatlarni esa boshqacha tahlil qilib bo'lmaydi, chunki o'ttiz yettinchi parallelda ular borib tekshirmagan bironta mamlakat qolmadi. Shunday qilib, «Duncan»ning vatanga qaytishidan boshqa iloj yo'q edi. Glenarvan do'stlari bilan maslahatlashib olgandan keyin, Jon Mangls bilan qaytish masalasini muhokama qildi.

Jon ko'mir omborlarini ko'zdan kechirib, ko'mir ikki haftadan ortiqqa yetmaydi degan xulosaga keldi. Demak, dastlabki to'xtagan yerdayoq ko'mir g'amlab olish kerak. Jon Glenarvanga Talkaguano ko'rfaziga yo'l olishni taklif qildi, «Duncan» dunyo safariga chiqishidan oldin o'sha yerdan bir marta ko'mir olgan edi. Bu yo'l to'ppa-to'g'ri yo'l bo'lib, o'ttiz yettinchi paralleldan o'tardi. Zarur narsalarni yetarli g'amlab olgach, kema janub tarafga yo'lga chiqishi va Gorn burunini aylanib o'tib, Atlantika okeanidan Shotlandiyaga yo'l olishi mumkin.

Bu reja qabul qilingach, mexanik qozonlarga o't yoqish haqida buyruq oldi. Yarim soatdan keyin «Duncan» Talkaguano ko'rfaziga yo'l oldi. Kema oynadek yaltirab turgan okean yuzida suzib borardi, soat oltida Yangi Zelandiyaning oxirgi tog'lari ufqni tutib ketgan kema tutuni ichida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shunday qilib, vatanga qaytish boshlandi. Garri Grantni qidirib safarga chiqqan va endi uni topolmay

qaytib ketayotgan mard odamlar uchun bu og'ir edi! Safarga chiqishdan oldin Shotlandiyada shod-xurram va umidlarga to'la bo'lgan «Duncan» komandasining endi ruhi tushib ketgan va Yevropaga eng yomon kayfiyatda qaytmoqda edi. Mard matroslardan birontasi ham tez orada vatanga qaytib borishidan xursand emasdi, ular hammasi kapitan Grantni topishning iloji bo'lsa, xatarli okean safarida yana uzoq vaqt yurishga tayyor edilar.

Yaqindagina Glenarvanni shodlik bilan «ura» deb qichqirib tabriklagan «Duncan»da endi chuqur sukut cho'kdi. Yo'lovchilarning o'zaro to'xtovsiz gaplashishlari, ularni yo'lda doim ovuntirib kelgan umumiy suhbatlar kesildi. Hamma o'z holiga chekka-chekkaga chiqib ketgan, o'z kayutasiga tiqilib olgan, «Duncan» palubasida odam kamdan kam ko'rinadi.

Kema yo'lovchilari boshlaridan kechirgan hayajonni – shodlikni ham, g'am-g'ussani ham, – darrov o'zida aks ettiradigan, birovga dalda berish uchun doim so'z topa oladigan Paganel ham o'shshayib jim yurardi. Geografiya olimi odamlar ko'ziga deyarlik ko'rinmasdi. Uning tabiatidagi sergaplik va fransuzlarga xos jonlilik o'rnini indamaslik va umidsizlik olgandi. U, ko'rinishidan, o'rtoqlaridan ham ko'proq xafa edi. Glenarvan vaqti bilan yana kapitan Grantni qidirish ishlarini boshlash kerakligi to'g'risida gap ochsa, Paganel umidini butunlay uzib qo'yan, «Britaniya»da halokatga uchraganlar tamom halok bo'lganiga ishonch hosil qilgan odamdek bosh chayqardi. U halokatga uchraganlarni butunlay yo'q bo'lib ketgan deb o'ylashi ko'rimib turardi.

Vaholanki, «Duncan»da o'sha halokat to'g'risida so'zlab berishi mumkin bo'lgan odam, Ayrton bor edi, lekin u hali ham hech narsa demasdi. Bordi-yu, bu ablah kapitan Grantning hozir qayerdaligini bilmasa ham, juda bo'lmasa, falokat qayerda yuz berganini bilishiga hech shubha yo'q. Lekin, aftidan, Garri Grant botsman uchun zararli guvoh bo'lardi. Uning o'jarlik bilan sukut qilishi ana shundan edi. Bu hammaning g'azabini toshirib yubordi. Ayniqsa matroslar g'azablanib ketdilar. Ular hatto undan o'ch olmoqchi ham bo'lib qoldilar.

Glenarvan botsmandan biror ma'lumot olishga ko'p urindi. Va'dalar ham, do'qlar ham foyda bermadi. Ayrtonning sukut qilishi shu darajaga borib yetdiki, uning umuman biror narsa bilishiga mayor shubhalanib qoldi. Geografiya olimi ham shu fikrda edi, chunki buni Garri Grantning taqdiri to'g'risidagi o'z fikri ham tasdiqlardi.

Lekin Ayrton hech narsa bilmasa, nima uchun buni aytib qo'ya qolmaydi? Uning bundan xabarsizligi o'ziga zarar yetkazmaydi-ku; botsmanning sukut qilishi yangi reja tuzishni yana ham qiyinlashtirib yubordi. Botsmanning Avstraliyada ekanidan kelib chiqib, Garri Grant ham o'sha qit'ada deb xulosa chiqarsa bo'lardimi? Har qanday qilib bo'lsa ham Ayrtonni gapirishga majbur qilish kerak edi.

Elen erining botsmandan biror ma'lumot ololmaganini ko'rib, Ayrton o'jarligini sindirishga o'zi urinib ko'rishga eridan ruxsat so'radi. U erkak kishi erisholmagan narsaga, shirin gap bilan xotin kishi erishsa, zora, deb umid qilardi. Yo'lovchi yopinib olgan plashchini uchirib ketishga bo'ronning kuchi yetmaganini, chiqib kelayotgan quyoshning dastlabki nurlari yo'lovchini bunga majbur qilgani to'g'risidagi qadimiy masal to'g'ri emasmi, axir?

Yosh xotining qanday aqlli ekanini yaxshi bilgan Glenarvan bunga rozilik berdi.

O'sha kuni, ya'ni 5-martda, Ayrtonni Elenning kayutasiga olib keldilar. Meri Grant ham o'sha yerda edi. Bu uchrashuvda qizning ham qatnashishi botsmanga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin edi, Elen esa muvaffaqiyat qozonishga bo'lgan bironta ham imkoniyatni qo'ldan bermocchi emasdi.

Ikkala ayol «Britaniya» botsmani bilan ikki soat suhbat qildilar, lekin ularning nimalar deyishganini, katorjnikdan kerakli sirni bilib olish uchun qanday dalillar keltirishganini hech kim bilmadi. Shunisi boriki, Ayrton bilan bo'lgan bu uchrashuvdan keyin Elen bilan Meri juda xafa bo'lib qoldilar. Ular, aftidan, muvaffaqiyatsizlikka uchragan edilar. Botsmanni yana o'z kayutasiga olib ketayotganlarida matroslar uni yeb qo'yar darajada yomon ko'z bilan kuzatib qoldilar. Ayrton faqat yeikasini qisib qo'ya qoldi. Bu komandaning g'azabini battar toshirib yubordi, faqat Jon Mangls bi-

Ian Glenarvanning aralashuvi Ayrtonni qasosdan saqlab qoldi.

Lekin Elen o'zini yengilgan deb hisoblamadi. U bu bag'ritosh odamning yuragini yumshatishga hali umid qilardi. Ayrtonning kema palubasida paydo bo'lishi bilan yuzaga kelishi ehtimol bo'lgan janjaldan qochish uchun ertasiga u botsmanning kayutasiga o'zi kirdi.

Oq ko'ngil, oliyjanob xotin qochqin katorjniklar boshlig'i bilan bu safar ikki soat vaqt suhbatlashdi. Glenarvan goh Ayrtonning sirini bilib olish uchun shu oxirgi chorani oxirigacha qo'llashga qaror qilib, goh bunday og'ir suhbatdan xotinini xalos qilmoqchi bo'lib, hayajon bilan kayuta oldida kezib yurdi.

Elen do'stlari orasiga qaytib chiqqanda, bu safar uning ko'zlarida umid uchqunlari chaqnardi. Nahotki, Elen bu ablahning tosh bag'rida saqlanib qolgan oxirgi shafqat torlariga ta'sir eta olgan va sirni bilib chiqqan bo'lsa?

Elenning kayutadan chiqib kelganini eng oldin ko'rgan Mak-Nabbsning chehrasida tabiiy ishonchsizlik belgilari aks etdi.

Botsman Elen Glenarvanning iltimosiga nihoyat ko'nibdi, degan xabar komanda orasida elektr uchquniday tez tarqaldi. Matroslar palubaga Tom Ostinning ishga chaqirgan hushtagini eshitib chiqqandan ham ko'ra tezroq to'plandilar.

Glenarvan xotinini ko'rib, uning qarshisiga otildi.

– Ayrton bor gapni aytdimi? – deb so'radi u.

– Yo'q, – deb javob berdi Elen, – lekin mening iltimosingga ko'nib, siz bilan uchrashmoqchi.

– Oh, azizim Elen, axiyri maqsadga erishibmiz-da!

– Shunaqaga o'xshaydi, Eduard!

– Unga men qo'llashim kerak bo'lgan biror narsa va'da qilganingiz yo'qmi?

– Men unga faqat bir narsani va'da qildim: siz uning gunohini yumshatish uchun qo'lingizdan kelgancha harakat qilasiz.

– Xo'p bo'ladi, azizim. Ayrtonni hoziroq mening oldimga olib kelisha qolsin.

Elen Meri Grant bilan o'z kayutasiga kirib ketdi, botsmanni esa Glenarvan kutib o'tirgan kayutakompaniyaga olib keldilar.

O' n t o' q q i z i n c h i b o b

BITIM

Botsmanni kayut-kompaniyaga olib kirib, soqchilar chiqib ketishdi.

– Men bilan gaplashmoqchi bo'ldingizmi, Ayrton? – deb so'radi undan Glenarvan.

– Ha, ser, – deb javob berdi botsman.

– Faqat bir o'zim bilanmi?

– Ha. Lekin suhbatimiz vaqtida mayor Mak-Nabbs bilan janob Paganel ham hozir bo'lsalar, yana ham yaxshi bo'lar edi.

– Kim uchun yaxshi bo'lar edi?

– Men uchun.

Ayrton juda xotirjamlik bilan so'zlardi. Glenarvan unga tikilib qaradi. Keyin Mak-Nabbs bilan Paganelga odam yubordi. Ular darhol yetib kelishdi. Ikkala do'sti stol oldiga kelib o'tirishi bilanoq, Glenarvan botsmanga:

– Qulog'imiz sizda, – dedi.

Ayrton bir necha minutda fikrlarini yig'ib oldi-da, dedi:

– Ser, ikki kishi o'zaro kontrakt yoki bitim tuzganlarida guvohlar hozir bo'lishi kerak. Men ana shuning uchun mister Paganel bilan mayor Mak-Nabbsni chaqirishingizni iltimos qildim. Chunki, to'g'risini aytsam, men siz bilan bitim tuzishni taklif qilmoqchiman.

Ayrtonning qiliqlariga o'rganib qolgan Glenarvan, botsmandek odam bilan biror bitim tuzish unga har qancha qiziq tuyulmasin, pinagini ham buzmadi.

– Qanday bitim ekan, o'zi? – deb so'radi u.

– Mana bunday, – dedi Ayrton. – Siz mendan o'zingiz uchun foydali bo'lgan ba'zi ma'lumotlarni bilmoqchisiz, men esa sizdan o'zim uchun qimmatli bo'lgan ba'zi foydalarni olmoqchiman. Qisqasi, ser, sizlar menga yaxshilik qilsanglar, men ham bilganimni aytib beraman. Ma'qulmi sizga shu shartlar yo yo'qmi?

– Qanday ma'lumot ekan u? – deb darrov so'radi Paganel.

– Yo'q, – deb to'xtatdi uni Glenarvan. – siz qanday foydani ko'zda tutyapsiz?

Ayrton, fikringizni tushundim, degandek bosh sil-kib qo'ydi.

– Men sizlardan olmoqchi bo'lgan foydam mana bunday, – dedi u. – Ser, siz hali ham meni ingliz ma'murlari qo'lga topshirish fikridamisiz?

– Ha, Ayrton, bu eng adolatli ish bo'ladi.

– Bu to'g'rida tortishib o'tirmayman, – dedi xotir-jamlik bilan botsman. – Demak, siz menga ozodlik be-rihga rozi bo'la olmaysiz?

Glenarvan bir zum ikkilanib qoldi. Ochiq-oydin qilib qo'yilgan bu savolga javob berish oson emasdi. Garri Grantning taqdiri uning hozirgi javobiga bog'liq bo'lishi ham ehtimoldan uzoq emasdi. Shunga qaramay, burch hissi ustun keldi, shuning uchun u:

– Yo'q, Ayrton, men sizga ozodlik va'da qilolmay-man, – deb javob berdi.

– Men ozod qilinglar deb so'rayotganim yo'q! – g'urur bilan javob berdi botsman.

– Sizga nima kerak bo'lmasa?

– Meni kutib turgan dor sirtmog'i bilan siz, ser, menga va'da qilolmagan o'sha ozodlik o'rtasidagi bir narsa.

– O'sha narsa nima?

– Meni Tinch okeandagi bo'm-bo'sh orollardan bi-riga tashlab ketishni, shu bilan birga menga eng za-rur bo'ladigan ba'zi narsalarni qoldirishni so'rar edim. U qiyin ahvoldan qutulib ketish o'zimning bo'ynimga, vaqt o'tishi bilan, ehtimol, tavba ham qilarman, kim biladi deysiz!

Bunday taklifni kutmagan Glenarvan do'stlariga qaradi. Ular lom-mim deb og'iz ochmadilar. Bir necha minut o'ylab olib, Glenarvan botsmandan:

– Ayrton, agar siz so'ragan narsalarni bajarishga rozi bo'lsam, menga zarur bo'lgan ma'lumotlarni aytib berasizmi? – deb so'radi.

– Ha, ser, to'g'rirog'i, kapitan Grant va «Britaniya»-ning taqdiri haqida barcha bilganlarimni so'zlab bera-man.

– Barcha haqiqatni-ya?

– Ha, hammasini.

– Lekin bunga kim kafil bo'la oladi...

– O! Sizni nima bezovta qilayotganiga tushunaman, ser: siz mendek qallobning so'ziga ishonishingiz kerak!

Bu to'g'ri gap, lekin na chora! Shunday vaziyat yuz berib qoldi. Bunday paytda yo shu shartga rozi bo'lish kerak, yo rad qilish.

- So'zingizga ishonaman, Ayrton, - dedi oddiygina qilib Glenarvan.

- Xato qilmaysiz ham, ser. Bordi-yu, aldasam, siz mendan o'ch olish imkoniyatiga doim ega bo'lasiz.

- Qanday imkoniyat ekan u?

- Men tushib qolgan orolga qaytib kelasiz-u, meni yana qo'lga tushurasiz: men u yerdan qochib ketolmayman-ku, axir.

Ayrton hamma narsaga ham javob hozirlab qo'ygani edi. Yuz berishi mumkin bo'lgan mushkul ahvollarni oldindan o'zi aytib berar va bunga qarshi o'zi rad qilib bo'lmaydigan dalillar keltirardi. U o'zi taklif qilayotgan bitimga juda halollik bilan yondashayotgani aniq edi. Hamsuhbatiga nisbatan bundan ortiq ishonch bilan so'zlashning iloji yo'q edi. Shunga qaramay, u halollik yo'lida bundan ham nari bordi.

- Mister Glenarvan, sizlar ham, janoblar, - deb qo'shib qo'ydi u, - men bor gapni ochiq aytib qo'ya qolmoqchi ekanimga sizlarni ishontirmoqchiman. Men sizlarni aldamoqchi emasman, bunga hozir yana bir yangi dalil keltiraman. Men hammasini ochiq aytib beraman, chunki sizlarning halol odamlar ekaningizga ishonaman.

- Gapiring, Ayrton, - dedi Glenarvan.

- Men hali sizlardan o'z taklifimga rozilik olganim yo'q, shunga qaramay, men sizlarga hech ikkilanmay Garri Grant to'g'risida ko'p narsa bilmasligimni aytib qo'ymoqchiman.

- Ko'p narsa bilmayman deysizmi! - deb yubordi Glenarvan.

- Ha, ser. Men sizlarga aytib berishim mumkin bo'lgan gaplar faqat shaxsan o'zimga taalluqli ma'lumotlar. Shuning uchun ular siz yo'qotib qo'ygani izni qaytadan topishga yordam berolmasa kerak deyman.

Glenarvan bilan mayorning hafsalasi pir bo'lib ketdi. Ular botsman biror muhim sirni bilsa kerak deb o'ylagan edilar, u esa men aytib beradigan ma'lumotlar sizga befoyda bo'lsa kerak deyapti. Faqat Paganel pinagini buzmay, xotirjam o'tirardi.

Shunday bo'lsa ham, o'z taqdirini hech qanday garovsiz Glenarvan qo'liga topshirgan Ayrtonning bu e'tirofi do'stlarning yuragini yumshatib yubordi. Ularga botsmanning:

– Shunday qilib, ser, men sizlarni ogohlantirib qo'ydim: bu bitim sizlardan ham ko'ra menga foydaliroq bo'ladi, – degan oxirgi gapi ularga ayniqsa qattiq ta'sir qildi.

– Buning ahamiyati yo'q, – deb javob berdi Glenarvan. – Men taklifingizni qabul qilaman. Sizni Tinch okean orollaridan biriga tushurib ketishga va'da bera-man.

– Yaxshi, – deb qo'ydi botzman.

Bu g'alati odam Glenarvanning qaroridan rozi edimi yo yo'qmi? Uning bundan roziligiga ishonish ham qiyin edi, chunki Ayrtonning hech qanday ehtirossiz yuzida hayajon izlari aslo sezilmadi. U go'yo o'ziga emas birovga oid muzokaralar olib borayotgandek tuyulardi.

– Men javob berishga hozirman, – dedi u.

– Biz sizga savol berib o'tirmaymiz, – deb e'tiroz bildirdi Glenarvan. – Ayrton, siz bizga o'zingiz bilgan bor gapni gapirib beravering, eng oldin esa o'zingizning kimligingizni ayting.

– Janoblar, – deb gap boshladi Ayrton, – men haqiqatan ham «Britaniya»ning botsmani Tom Ayrton bo'laman. 1861-yilning o'n ikkinchi martida, Garri Grantning kemasida Glazgodan safarga chiqqanman. O'n to'rt oy mobaynida biz u bilan birga Shotlandiya uchun koloniya barpo qilishga yaraydigan yer axtarib, Tinch okean suvlarida suzib yurdik. Garri Grant katta ishlar uchun yaratilgan odam edi, lekin ikkalamiz o'rtamizda tez-tez jiddiy chiqishmovchiliklar bo'lib turardi. Uning xarakteri menga to'g'ri kelmasdi. Men birovga so'zsiz bo'ysunishni yoqtirmayman, Garri Grant esa biror qaror qildimi – tamom: unga sira qarshilik ko'rsatib bo'lmaydi. U o'ziga nisbatan ham, boshqalarga nisbatan ham temirdek mustahkam odam. Shunday bo'lsa ham men unga qarshi bosh ko'tarishga jur'at etdim. Men komanda orasida isyon chiqarib, kemani o'z qo'limga olishga urinib ko'rdim. Mening qanchalik haq yo nohaqligim – boshqa masala. Har qalay, Garri Grant 1862-yil sakkizinchi aprelda meni hech ikkilanmay Avstraliyaning g'arbiy sohiliga tushirib ketdi.

– Avstraliyaga deysizmi? – deb takror soʻradi mayor, uning hikoyasini boʻlib. – Demak, siz «Britaniya»dan kema toʻgʻrisida oxirgi maʼlumot olingan joy – Kalyaoga yetmasdan tushib qolgan ekansiz-da?

– Ha, – deb javob berdi botsman. – Men «Britaniya» bortida ekanimda kema Kalyaoga biron marta ham kirgani yoʻq. Paddi OʻMur fermasida sizlarga Kalyao toʻgʻrisida gapirganimning sababi faqat shuki, «Britaniya»ning oʻsha yerda toʻxtaganini sizlarning hikoyangizdan eshitib oldim.

– Davom eting, Ayrton, – dedi Glenarvan.

– Shunday qilib, men deyarlik boʻm-boʻsh sohilda, Pert axloq tuzatish turmasidan nihoyati oʻn ikki mil joyda yolgʻiz oʻzim qoldim. Sohilda kezib yurib, men yaqindagina turmadan qochgan mahbuslarni uchratdimda, ularga qoʻshilishdim. Keyingi ikki yarim yillik umrim toʻgʻrisida indamay oʻtishga ruxsat etasizlar. Faqat shuni aytishim mumkinki, men Ben Joys laqabi ostida qochqin mahbuslar shaykasining boshligʻi boʻlib qoldim. 1864-yilning sentabr oyida men irlandiyalikning fermasiga kelib, oʻzimning haqiqiy ismim bilan batrak boʻlib ishga joylashdim. Men bu fermada biror kemani qoʻlga tushirish uchun qulay fursat kelishini kutib yurdim. Bu mening eng katta orzum edi. Ikki oydan keyin u yerga «Duncan» kelib qoldi. Sizlar fermaga kelib mehmon boʻlganingizda kapitan Grantning tarixini gapirib berdinglar. Oʻshanda men oʻzimga maʼlum boʻlmagan narsalarni bilib oldim: bu – «Britaniya»ning Kalyaoga kirgani va kemaga oid oxirgi maʼlumot 1862-yilning iyun oyida [meni kemadan tushirib ketganlaridan ikki oy keyin] olingan edi. Shuningdek, men qoʻlingizda kemaning oʻttiz yettinchi parallelda halokatga uchrangani toʻgʻrisida hujjat borligini va, nihoyat, Garri Grantni faqat Avstraliyadan axtarish kerak degan muhim dillaringiz borligini eshitib oldim. Men taraddudlanib oʻtirmadim. Men «Duncan»dan, Britaniya flotining eng tezyurar kemalarini ham orqada qoldirib keta oladigan bu ajoyib kemani qoʻlga tushirishga ahd qildim. Lekin «Duncan» jiddiy shikastlangan boʻlib, taʼmirlarga muhtoj edi. Shuning uchun men uning Melburnga ketishiga yoʻl qoʻydim. Oʻzim esa men «Britaniya»ning botsmani-man, deb – bu haqiqatan ham shunday edi, – sizlarni kapitan Grant kemasining oʻzim oʻylab topgan halokat

joyiga, ya'ni Avstraliyaning sharqiy sohiliga boshlab borishni taklif qildim. Sizning ekspeditsiyangizni Viktoriya viloyatiga ana shunday qilib jo'natdim. Shaykam goh bizdan oldin, goh keyin kelar edi. Showvozlaringiz Kemden ko'prigida befoyda bir jinoyat qildilar: u shuning uchun befoyda ediki, «Duncan» sharqiy sohilga kelishi bilanoq, albatta, mening qo'linga tushgan bo'lardi, «Duncan»dek kema bilan esa men okeanga xo'jayin bo'lib olardim. Shunday qilib, birontangizda ham ishonchsizlik uyg'otmay, otryadingizni Snou dar-yosi bo'yigacha boshlab bordim. Gastrolobium bilan zaharlangan otlar bilan ho'kizlar birin-ketin o'ldi. Aravani Snou botqoqligiga botirdim. Mening qattiq turib qilgan iltimosim bilan... Boshqa gaplarni o'zingiz ham yaxshi bilasiz, shunga ham imoningiz komil bo'lsinki, agar janob Paganel parishonlik qilmaganda, men hozir «Duncan»da qo'mondonlik qilayotgan bo'lardim. Mening o'tmishim ana shunday, janoblar. Baxtga qarshi, men keltirgan ma'lumotlar sizlarni Garri Grantning iziga tushura olmaydi. Ko'rganingizdek, bitimimiz sizdan ko'ra menga foydaliroq.

Botsman jim qoldi, o'z odatiga ko'ra, qo'llarini ko'kragi ustiga qovushtirib, javob kuta boshladi. Glenarvan bilan uning do'stlari jim o'tirar edilar. Ular bu g'alati muttahamning hikoyasida sira ham yolg'on yo'qligiga ishongan edilar. U «Duncan»ni o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga binoan qo'lga tushirolmay qolgan. Uning sheriklari Tufold ko'rfazi sohiliga to'planganlar, bunga Glenarvan topgan katorjniklar kurtkasi guvoh bo'la oladi. Ular bu yerda atamanlari-ning buyrug'iga binoan «Duncan»ning kelishini kutganlar, oxiri toqatlari toq bo'lib, yana Yangi Janubiy Uells qishloqlarini talon-taroj qilish va o't qo'yib kuydirish bilan shug'ullanib ketganlar.

Eng oldin mayor so'roq qilishni boshladi: u «Britaniya»ga doir ba'zi narsalarni bilib olmoqchi edi.

– Demak, – deb so'radi u, – sizni Avstraliyaning g'arbiy qirg'og'iga 1862-yilning sakkizinchi aprelda tushirib ketganlar, shundaymi?

– Xuddi shunday.

– O'sha vaqtda Garri Grantning rejalari qanday edi, xabaringiz yo'qmi?

– Es-es yodimda bor.

- Harholda, bilganlaringizni gapirib bering. Arzimas bir fakt ham bizni to'g'ri izga solib yuborishi mumkin.

- Men sizlarga faqat mana shularni aytishim mumkin, - deb javob berdi botsman. - Kapitan Grant Yangi Zelandiyaga bormoqchi edi. Men kemadalgimda bu maqsad hali amalga oshirilmagandi. Shuning uchun, kapitan Grant Kalyaodan chiqqandan so'ng Yangi Zelandiyaga jo'nab ketgan bo'lsa ham ajab emas. Bu hujjatda ko'rsatilgan vaqtga: 1862-yil yigirma yettinchi iyunga ancha to'g'ri keladi.

- To'g'ri, - dedi Paganel.

- Lekin hujjatlarda saqlanib qolgan uzuq-yuluq so'zlardan birontasi ham Yangi Zelandiyaga oid emas-ku, - deb e'tiroz bildirdi Glenarvan.

- Bunisiga men bir narsa deyolmayman, - dedi botsman.

- Xo'p, Ayrton, - dedi Glenarvan, - siz o'z so'zingizning ustidan chiqdingiz, men ham va'damni bajaraman. Endi sizni Tinch okeandagi qaysi orolga tushirib ketishimizni gaplashib olaylik.

- E, menga buning hech farqi yo'q, - dedi Ayrton.

- Kayutangizga borib, bizning qanday qarorga kelishimizni kuting, - dedi Glenarvan.

Botsman uni qo'riqlab turadigan ikki matros kuza-tuvida chiqib ketdi.

- Bu ablah yaxshigina odam bo'lishi mumkin-a, - deb qo'ydi mayor.

- Ha, - dedi Glenarvan, uning so'ziga qo'shilib. - U aqlli, kuchli xarakterli odam. Yaxshi fazilatlari kelib-kelib yomonlikka xizmat qilishini qarang-a.

- Xo'sh, Garri Grant-chi?

- Uni topib bo'lmasa kerak deb xavotirdaman. Bola bechoralar! Otasi qayerdaligini ularga kim aytib bera oladi endi?

- Men aytib bera olaman, - dedi Paganel. - Ha, men!

Odatda juda so'zamol, betoqat bo'lgan geografiya olimining so'roq vaqtida deyarlik hech narsa demay, jim o'tirganini o'quvchilar sezgan bo'lsalar kerak. U indamay quloq solib o'tirdi. Lekin hozir og'zidan chiqqan qisqagina ibora ko'p narsalarni ifoda qilardi. Glenarvan cho'chib ketdi.

– Siz-a, Paganel? Siz kapitan Grantning qayerdaligini bilasizmi? – deb yubordi u.

– Ha, imkoniyati boricha, albatta, – deb javob berdi geografiya olimi.

– Buni qayerdan bildingiz?

– O'sha hujjatning o'zidan.

– Ha-a... – dedi mayor, tamoman ishonchsizlik bilan.

– Oldin gapga quloq soling, Mak-Nabbs, yelkangizni keyin qisasiz, – dedi geografiya olimi. – Men bunga baribir ishonmaysizlar deb shu vaqtgacha indamay keldim. Gapirishning nima foydasi ham bor edi deysiz! Shunday bo'lsa ham hozir uni aytayotgan ekanman, buning sababi shuki, Ayrtonning so'zi mening taxminimni tasdiqladi.

Glenarvan endigina:

– Siz o'ylaysizki, Yangi Zelandiyada... – deb gap boshlagan edi, Paganel uning so'zini bo'ldi.

– Oldin gapimga quloq solinglar, keyin o'zingiz mulohaza qilib, ko'raverasiz, – dedi Paganel. – Xat yozayotganda men qilgan xato tasodifiy bir xato emasdi, uning asosi bor. O'sha paytda men Glenarvan aytib turgan xatni qog'ozga tushirar ekanman, «Zelandiya» degan so'z menga tinchlik bermayotgan edi, buning sababi mana bunday. Bir aravada ketayotganda Mak-Nabbs missis Glenarvanga katorjniklar to'g'risida, Kemden ko'prigida yuz bergani esingizdami? O'shanda u missis Glenarvanga yuz bergan falokat to'g'risidagi ma'lumot bosilgan «Avstraliya va Yangi Zelandiya gazetasi»ning bir sonini berdi. Men xat yozayotganimda o'sha gazeta yerda yotardi; u shunday buklanib qolgan ediki, gazeta nomidan faqat «landiya» degan ikki bo'g'ini ko'rinib turardi. Xuddi o'shanda miyanga lop etib hujjatdagi «landiya» «Zelandiya» so'zining bir qismi bo'lsa kerak degan fikr kelib qoldi.

– Nima, nima? – deb yubordi Glenarvan.

– Ha, – deb so'zida davom etdi Paganel, uning ovo-zidan juda ishonch bilan so'zlayotgani bilinib turardi, – hujjatni bunday tahlil qilish o'sha paytgacha sira miyanga kelmagan edi. Nima uchunligini aytaymi? Shuning uchunki, men doim hujjatning boshqalaridan ko'ra to'liqroq bo'lgan fransuzcha nusxasini tekshirgan edim, unda esa xuddi shu muhim so'z yo'q.

- O'h-ho! Juda xayolparastsiz-da, Paganel! - dedi Mak-Nabbs. - Oldingi xulosalaringizni juda tez unutilib yuboribsiz-a!

- Marhamat, mayor, savollaringizga javob berishga tayyorman.

- Bo'lmasa, menga shuni ayting, austral degan so'z qanday ma'noni anglatadi?

- Dastlab qanday ma'noni bildirgan bo'lsa, o'sha ma'noni-da. «Janubiy mamlakatlar» degan ma'noni bildiradi.

- Xo'p! Indi degani-chi! Uni dastlab indiens - «hindular» deb, keyin esa indigenes - «yerliklar» deb tahlil qilindi. Uni endi qanday tushunasiz?

- Uning uchinchi va oxirgi tahlili mana bunday: u indigence - muhtojlik, degan ma'noni bildiradi.

- Xo'sh, contin-chi? U ham ilgarigidek «kontinent» degan ma'noni anglatadimi? - deb so'radi Mak-Nabbs.

- Yo'q, albatta, chunki Yangi Zelandiya orol, xolos.

- Bo'lmasa, uni nima deb tushunish kerak? - deb so'radi Glenarvan.

- Aziz, ser, men hozir hujjatning sizga yangi, uchinchi tahlilini o'qib beraman, o'zingiz tushunib olasiz. Lekin oldin sizdan ikki narsani iltimos qilaman: birinchidan, hujjatning oldingi tahlilini tamom unuting va miyangizga o'rnashib qolgan fikrlarni chiqarib tashlang; ikkinchidan, shuni aytib qo'yayki, hujjatning yangicha tahlilida ba'zi o'rinlar sizga zo'rma-zo'raki yopishtirilgandek tuyulishi mumkin, men ularni noto'g'ri tahlil qilayotgan bo'lishim ham ajab emas; masalan, *agone* so'zi juda yopishib tushmaydi, lekin men uni boshqacha ma'noda ishlatolmadim. Harholda, bu o'rinlarning aslo ahamiyati yo'q. Buning ustiga, men hujjatning fransuz tilida yozilgan nusxasini asos qilib olganman, uning chet tilining ba'zi nozik tomonlarini bilmasligi ehtimol bo'lgan ingliz qo'li bilan yozilganini unutmang. Sizni ogohlantirib qo'rganimdan keyin, endi hujjatni yangicha o'qib beraman.

Paganel shoshmasdan, dona-dona qilib, hujjatni quyidagicha o'qidi:

- «1862-yil 7-iyunda Glazgo portidan chiqqan uch machtali «Britaniya» kemasi uzoq agoniyadan keyin janubiy dengizlarda, Yangi Zelandiya [inglizchasi Ze-

land] sohillari yaqinida halokatga uchradi. Ikki matros bilan kapitan Grant sohilga chiqib olishga muvaffaq bo'ldilar. Bu yerda qattiq muhtojlikka uchragan holda ular bu hujjatni... gradus uzunlik va 37°11' kenglikda dengizga tashladilar. Ularga yordam qilinglar».

Paganel jim qoldi. Hujjatni u hozir o'qigancha tahlil qilsa bo'lardi. Lekin xuddi ana shuning uchun, ya'ni hujjatning oldingi tahlillari singari uni shu xilda tushunish mumkinligi uchun ham, u xato bo'lishi mumkin edi. Ana shuning uchun Glenarvan ham, mayor ham tortishib o'tirmadilar.

– Lekin «Britaniya»ning izi na Patagoniyaning, na Avstraliyaning o'ttiz yettinchi parallel o'tadigan joyidan topilmagan ekan, demak, uni Yangi Zelandiyadan topish mumkin.

Geografiya olimining bu oxirgi ilovasi do'stlariga qattiq ta'sir qildi.

– Menga qarang, Paganel, – dedi unga Glenarvan, – nima uchun siz hujjatning bu yangicha tahlilini ikki oygacha sir saqlab yurdingiz?

– Sizlarni bekorga umidvor qilishni istamadim. Buning ustiga, biz baribir ham hujjatda ko'rsatilgan o'sha o'ttiz yettinchi parallelga joylashgan Oklendga kelayotgan edik.

– Xo'sh, keyinchi, biz bu yo'ldan chetga chiqib ketganimizdan keyin nega indamadingiz?

– Buning sababi shuki, men hujjatni qanchalik to'g'ri tahlil qilgan bo'lmay, u kapitan Grantni qutqarishga baribir yordam bermasdi.

– Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?

– Oradan ikki yil o'tgan bo'lishiga qaramay kapitan Grantdan darak chiqmagan ekan, bu yo uning falokat natijasida yo'q bo'lib ketganini, yo yangi zelandiyaliklar qo'lida halok bo'lganini bildirardi.

– Xo'sh, endi qanday fikrdasiz?

– Mening fikrim shunday: biz «Britaniya»ning qoldiqlarini topsak ham ehtimol, lekin unda falokatga uchragan odamlarning bittasi ham omon qolmagan.

– Bu to'g'rida hech kimga og'iz ochmanglar, do'stlarim, – dedi Glenarvan. – Bu xunuk xabarni biror qulay fursat topib kapitan Grant bolalariga aytishni menga topshiringlar.

Yigirmanchi bob

TUNGI QICHQIRIQ

Ayrton bergan ma'lumotlar kapitan Grantning sirli taqdirini tushunishga yordam bermagani ko'p o'tmay «Dunkan» komandasiga ma'lum bo'ldi. Hamma umidsizlikka tushdi: botsmandan qanday katta umid qilgan edilar, vaholanki, u ham «Dunkan»ni «Britaniya»ning iziga solib yuboradigan biror narsa bilmas ekan.

Shunday qilib, kema belgilangan yo'ldan suzib boraverdi. Endi faqat Ayrtonni tushirib ketish uchun biror orol tanlash qolgan edi.

Paganel bilan Jon Mangls kema xaritalarini ko'zdan kechirdilar. Xuddi o'ttiz yettinchi parallelda, bir chetda Mariya-Tereziya oroli turardi. Tinch okean suvlari orasida yolg'iz qaqqayib turgan, faqat qoyatoshlardan iborat bu orol Amerika sohillaridan uch yarim ming mil va Yangi Zelandiyadan bir ming besh yuz mil mas-kanda joylashgan. Shimol tarafda unga eng yaqin yer - Fransiya protektorati ostidagi Paumotu arxipelagi; janubda esa to Janubiy qutbning doim muz bosib yotadigan joylarigacha hech qanday yer yo'q. Bir chetda qolib ketgan bu orolga hech vaqt bironta ham kema kelib to'xtamaydi. Dunyoda bo'layotgan ishlar bu orolga hech vaqt yetib kelmaydi. Bu orolda faqat uzoq sa-farga otlangan bo'ron qushlarigina dam olgani qo'nib o'tadilar. Tinch okean suvlari ichida yo'qolib ketgan bu orol ko'p xaritalarda butunlay ko'rsatilmagan ham.

Agar dunyoda absolyut xilvat joy bor bo'lsa, u barcha dengiz yo'llaridan chetda, okean ichkarisida qolgan shu kichkina orolcha. Ayrtonga orol joylashgan yerni aytdilar. Botsman o'sha orolda, odamlardan uzoqda qolishga rozi bo'ldi, shundan keyin «Dunkan» Mariya-Tereziya oroliga yo'l oldi. Kema bu vaqt Talkaguano qo'ltig'i bilan Mariya-Tereziya orolidan o'tadigan to'g'ri chiziqdan suzib borardi.

Ikki kundan keyin, kunduzi soat ikkida vaxtada turgan matros ufqda yer ko'ringanidan darak berdi. Bu past, suvdan sal ko'tarilib turgan, kattakon kitga o'xshab ketadigan Mariya-Tereziya oroli edi.

Okean to'lqinlarini soatiga o'n olti uzul tezlik bilan yorib borayotgan kema bu vaqt oroldan hali o'ttiz mil

berida edi. Orol qiyofasi sekin-asta ko'rina boshladi. Botib borayotgan quyosh fonida orolning qorasi aniq ko'rinib turardi. U yer-bu yerda quyosh nurlari ostida tovlanib, uncha baland bo'lmagan tepalar ko'zga tashlanardi.

Soat beshda, Jon Manglsning nazarida, oroldan bilinar-bilinmas tutun ko'tarilayotgandek tuyuldi.

- Nima u, vulqon emasmi? - deb so'radi yosh kapitan Paganelndan.

Geografiya olimi o'zining uzun durbini bilan orolga qarab turardi.

- Nima deyishimni ham bilmay qoldim, - deb javob qildi u. - Bu orol kam tekshirilgan, lekin uning vulqon ta'sirida yuzaga kelgan bo'lishi ham ajab emas, albat-ta.

- Agar uni vulqon yaratgan bo'lsa, yana o'sha vulqonning o'zi uni yemirib tashlashi mumkin emasmi, axir? - deb so'radi Glenarvan.

- Bunday bo'lishi ehtimoldan uzoq, - dedi Paganel. - Orolning mustahkamligiga uning bir necha asrdan beri mavjudligi guvoh bo'la oladi. O'rta dengizda paydo bo'lgan Juliya orolini olsak, bu boshqa masala; u paydo bo'lgandan bir necha oy keyin tamom yo'q bo'lib ketdi.

- Xo'p, - dedi Glenarvan. - Siz nima deb o'ylaysiz Jon, qorong'u tushguncha orolga yetib bora olamizmi?

- Yo'q, ser. Qorong'uda notanish sohilga yaqin olib borib, kemani xavf ostiga qo'ya olmayman. Men ertalabgacha orol yonida qisqa masofada u yoq-bu yoqqa qatnab turaman, ertaga tong otarda esa, unga qayiq yuboramiz.

Kechqurun soat sakkizda kemadan nihoyati besh mil masofada bo'lgan Mariya-Tereziya oroli dunyoning bir chetida qolib ketgan, ko'zga sal-pal chalinadigan bir soyadek ko'rinib turardi.

Soat to'qqizda orolda ancha yorug' bir o't lovullab ko'rindi. U bir tekis yonib turar, qimirlamasdi.

- Ana shu o'tga qaraganda u yerda vulqon borga o'xshaydi, - dedi Paganel, uzoqqa diqqat bilan tikilib qarar ekan.

- Lekin u yerda vulqon otilayotgan bo'lsa, bunday yaqin masofada biz uning guldurashini eshitgan bo'lardik, - dedi Jon Mangls, - sharqdan esayotgan

shamol ham hech qanday shovqin olib kelayotgani yo'q.

– To'g'ri, haqiqatan ham vulqon yaltillab ko'rinyaptiyu, lekin ovozi eshitilmaydi, – deb uning so'ziga qo'shilishdi Paganel. – Buning ustiga, menimcha, o't mayoq singari o'chib yonayotganga ham o'xshaydi.

– To'g'ri, aytdingiz, – dedi Jon. – Vaholanki, bu yerlarda mayoq yo'q. Ha-a! – dedi u. – Ana – shunday sohil bo'yida yana bir o't paydo bo'ldi. Qarang! Qimir-layapti! Joyini o'zgartiryapti!

Jon yanglishmagan edi. Rostdan ham, orolda yana bir o't paydo bo'ldi. U bir o'chib, bir yonib ko'rinar edi.

– Demak, orolda odam yashar ekan-da? – deb so'radi Glenarvan.

– Aftidan, yovvoyilar yashasa kerak, – deb javob berdi Paganel.

– Unda biz botsmanni bu yerga tushirib ketolmaymiz.

– Yo'q, albatta, – deb gapga aralashdi mayor, – bu yovvoyilar uchun ham juda yomon sovg'a bo'lar edi.

– Bo'lmasa biz boshqa biror odam yashamaydigan orol topamiz, – dedi Glenarvan. – Men Ayrtonga sog'-salomat bo'lasan deb va'da qilganman, so'zimning ustidan chiqmasam bo'lmaydi.

– Har holda, biz ehtiyot bo'lishimiz kerak, – dedi Paganel. – Yangi zelandiyaliklarning, bir vaqtlar Kornuel orollarida yashagan odamlar singari, sohilga kemalarni o't yoqib o'chirib chaqirib oladigan vahshiyona odatlari bor. Mariya-Tereziya orolining aholisi ham bu odatni biladiganga o'xshaydi.

– Sohildan chorak mil berida yur! – deb qichqirda Jon Mangls rulda turgan matrosga. – Ertaga ertalab nima gap ekanini bilamiz.

Soat o'n birda Jon Mangls va yo'lovchilar o'z kayutalariga tarqalib ketdilar. Kemaning bak qismida navbatchi matroslar yurishar, quyruq qismida esa rul oldida turgan matrosdan boshqa hech kim yo'q edi.

Shu vaqt Meri Grant bilan Robert yutga chiqdilar. Kapitan Grantning bolalari kema panjarasiga suyanib, fosfor yorug'i miltillab yotgan dengizga va «Dunkan» orqasida yarqillab ko'rinayotgan kema iziga g'amgin qarab turar edilar. Meri Robertning kelajagi haqida, Robert esa opasining kelajagi haqida o'ylar edi. Ikka-

lasi ham otasi to'g'risida o'ylashardi. Sevikli otalari hayotmikin? Nahotki, uni ko'rish umidadan voz kechishga to'g'ri kelsa? Yo'q, usiz qanday qilib yashaydilar? Ularning holi nima kechadi? Glenarvan bilan xotini bo'lmasa, ularning holi hozir nima kechgan bo'lardi?

G'am bolani yoshiga nomunosib darajada ulg'aytirdi. U opasining miyasidan qanday fikrlar o'tayotganini tushunardi.

– Meri, – dedi u opasining qo'lidan ushlab, – hech umidsizlikka tushma. Otam nima deb o'rgatar edi, esingdami? «Dunyoda har narsani ham mardlik yengadi» derdi u. Kel, biz ham otam singari mard va so'zimizdan qaytmaydigan bo'lamiz, – bu har qanday to'siqlarni yengish uchun unga quvvat berardi. Shu vaqtgacha, opa, sen men uchun ishlading, endi esa, navbati bilan, sen uchun men ishlayman.

– Ukajonim!.. – dedi qiz.

– Meri, men senga bir narsa demoqchiman. Jahling chiqmaydi-a?

– Nega jahlim chiqar ekan, ukam!

– Demak, o'ylab qo'yan ishni qilishga ruxsat berasan, shundaymi?

– Nima demoqchi eding? – deb so'radi, Meri, xavotirlanib.

– Opajon! Men dengizchi bo'lmoqchiman...

– Meni tashlab ketmoqchimisan? – deb yubordi Meri ukasining qo'lini qisib.

– Ha, opa, men otam singari, kapitan Jon singari dengizchi bo'laman! Meri, opajonim Meri, axir, kapitan Jon otamni qidirib topishdan umidini uzgani yo'qku. Uning sadoqatiga men singari sen ham ishonaver. Jon meni ajoyib, mohir dengizchi qilib yetishtirmoqchi, ungacha esa biz u bilan otamni qidirishni davom ettiramiz. Roziman deya qol, jon opa. Otam biz uchun qilishi muqarrar bo'lgan ishni biz, ayniqsa men uning uchun qilishimiz kerak. Endi mening maqsadim bitta: u ham bo'lsa, dunyoda sog'-omon bor bo'lsa, hech vaqt bizni tashlab qo'ymasligi aniq bo'lgan otamni qidirish, sira hormay qidirishdir. Meri, opajon, otam qanday mehribon edi-ya!

– Qanday oliyjanob, qanday ajoyib edi ul – deb qo'shib qo'ydi Meri. – Bilasanmi, Robert, u bilan vatanimiz faxrlanardi, taqdir faoliyatini uzib qo'ymaganda

u vatanimizning ulug' kishilari orasidan joy olgan bo'lardi.

– Bo'lganda qandoq! – deb qichqirdi Robert.

Meri ukasini ko'ksiga bosdi, shunda bola opasining ko'z yoshlari o'z peshanasiga tomchilab tushayotganini sezdi.

– Meri! Meri! – deb qichqirdi u. – Do'stlarimiz nima desalar ham, qanchalik sukut qilsalar ham men hali umidimni uzganim yo'q, uzmayman ham! Bizning otamizdek odam o'z vazifasini bajarmasdan o'lmaydi!

Meri Grant hech narsa deyolmadi: u ho'ngrab yig'lardi. Qiz Garri Grantni yana qidirishni boshlash to'g'risidagi fikrdan va yosh kapitanning mislsiz sadoqatidan juda hayajonlanib ketgan edi.

– Demak, mister Jon hali ham umid qilar ekan-da, – deb so'radi u.

– Ha, – dedi Robert. – U bizni hech vaqt yolg'iz tashlab ketmaydigan akamizday bo'lib qoldi. Opa, men dengizchi bo'laman-a, u bilan otamni birga qidiraman, shundaymi? Rozimisan?

– Rozi bo'lmay ilojim bormi! Lekin ajralish... – deb shivirladi qiz.

– Sen yolg'iz qolmaysan, Meri. Bilaman, buni menga do'stim Jon aytdi. Missis Glenarvan seni hech qayerga ketkizmaydi. Sen ayol kishisan-ku, axir, opa, shuning uchun buni rad qilmaysan, bunday qilmasliging ham kerak. Bu ko'rnamaklik bo'ladi. Erkaklar esa o'z taqdirini o'zi yaratishi kerak – bu gapni otam juda ko'p takrorlar edi.

– Unda Dendidagi uyimiz nima bo'ladi? Axir u yerda ajoyib hayot kechirgan edik!

– Biz uni saqlab qolamiz, opajon! Hammasi o'ylab qo'yilgan, do'stimiz Jon bilan mister Glenarvan yaxshilab o'ylab qo'rganlar. Sen Malkolm qasrida mister Glenarvan bilan missis Glenarvan huzurida ularning qizidek yashaysan. Buni do'stim Jonga uning o'zi aytibdi, u esa menga aytdi. Sen ularnikida o'zingni xuddi o'z uyingdagidek his qilasan, otamiz to'g'risida gaplashib turadigan odamlar ham bo'ladi. Vaqti kelib, ajoyib kunlarning birida biz uning o'zini topib kelamiz. Eh! Juda ajoyib kun bo'ladi-da u! – dedi o'zida yo'q xursand Robert.

– Ukajonim, agar bu so'zlaringni otam eshitsa, qanday xursand bo'lar edi-ya! – dedi Meri. – Xuddi otamning o'zisan-a, Robert, aziz otamning xuddi o'zi bo'libsan!

– Oh, Meri!.. – dedi o'g'illik g'ururi bilan bola.

– Lekin mister va missis Glenarvanlarning yaxshiligini biz qanday qaytaramiz? – dedi Meri.

– O, bu oson narsa! – dedi bolalarga xos ishonch bilan Robert. – Biz ularni sevamiz, izzat-hurmat qilamiz, ularga shu to'g'rida gapiramiz, qattiq-qattiq o'pamiz, zarur bo'lib qolsa, ular uchun jonimizni qurbon qilamiz.

– Yo'q, yaxshisi, ular uchun yasha! – dedi qiz, ukasini o'pib. – Ularga shunisi ma'qulroq, menga ham.

Kapitan Grant bolalari jim bo'lishdi. Ular xayollarga berilib, bir-birlariga qarab turishardi. Fikran ular hali ham yuqoridagi suhbatni davom ettirishar, bir-birlariga savol berishar, javob qaytarishardi. Atrofda dengiz yaslanib yotar, qorong'ulikda kema vinti ko'pirtirgan suv yaltillab ko'rinardi.

Shunda birdan g'alati bir hodisa yuz berdi. Opa-ukaning qulog'iga bir vaqtda goh qorayib, goh yaltillab ko'rinayotgan to'lqinlar orasidan allakimning baqirgan ovozi eshitilgandek bo'ldi, o'tkir, g'am aks etgan tovush ularning yurak-yuragiga borib yetdi.

– Yordam beringlar! Yordam beringlar! – deb qichqirardi birov.

– Meri, eshitdingmi, eshitdingmi deyapman? – deb so'radi Robert.

Ular kema panjarasi ustiga egilib, qorong'ulikka tikildilar. Atrofni poyonsiz zulmat qoplab yotar, hech nima ko'rinmasdi.

– Robert, – deya oldi zo'rg'a hayajondan rangi oqarib ketgan Meri, – mening nazarimda... xuddi senga eshitilganday... Ikkalamiz dovdarayapmiz, Robert, ukam...

Lekin yordamga chaqirgan tovush yana eshitildi, bu safar illuziya shunday kuchli ediki, opa-uka ikkalasi baravariga:

– Otam! Otam! – deb yubordilar.

Bu Meriga ortiqchalik qildi. Juda hayajonlanib ketgan qiz hushini yo'qotib, ukasining qo'lga yiqildi.

– Yordam beringlar! – deb qichqirdi Robert. – Opa! Ota!.. Yordam beringlar!..

Rul oldida navbatchilikda turgan matros o'zidan ketib qolgan qizga yordamga otildi. Navbatchilik qila-yotgan boshqa matroslar ham yugurib kelishdi, shov-qindan uyg'onib ketgan Jon Mangls, Elen, Glenarvan yetib keldilar.

– Opam o'lyapti, otam esa anavi tomonda! – deb baqirdi Robert, to'liqlar tomonni ko'rsatib.

Lekin nima gapligini hech kim tushunmadi.

– Rost, rost, – deb takrorlar edi bola, – otam o'sha yerda! Ovozini o'zim eshitdim, opam ham eshitdi...

Shu payt Meri o'ziga keldi va miyasini yo'qotib, eshushidan adashgan holda u ham:

– Otam! Otam o'sha yerda! – deb qichqirdi.

Qiz panjara ustiga engashib, o'zini dengizga tashlashga urinardi.

– Aytyapman-ku sizga, otam o'sha yerda! – deb takrorlar edi u, qo'llarini qisib. – Ishonaveringlar, ovozini eshitdim! Uning ovozi to'liqlar orasidan shikoyatdek, oxirgi vidolashuvdek eshitildi...

Bechora qiz tamom esidan og'ib qolgandi. Uni kayutaga olib ketishga majbur bo'ldilar. Elen ham yordam berish uchun uning kayutasiga kirdi.

Robert esa hadeb:

– Otam! Otam o'sha yerda! Bunga ishonaman, ser! – deb takrorlar edi.

Bu og'ir ahvolning guvohi bo'lgan kishilar nihoyat kapitan Grant bolalariga bir narsa eshutilganini tushundilar. Lekin ularga shunday tuyulganini qanday qilib tushuntirib bo'lardi?

Glenarvan buni tushuntirmoqchi bo'ldi. Robertning qo'lidan ushlab:

– Otangning ovozini eshitdingmi, o'g'lim? – deb so'radi u.

– Ha, ser. To'liqlar ichidan baqirganini eshitdim. U: «Yordam beringlar! Yordam beringlar!» deb qichqirdi.

– Ovozini ham tanidingmi?

– Nega tanimas ekanman? Albatta tanidim, qasam ichaman bunga! Opam ham men singari uning ovozini eshitdi, u ham tanidi. Nahotki, ikkalamiz ham yanglishgan bo'lsak? Ser, otamga yordam qilaylik! Qayiq tushiring! Qayiq!

Glenarvan bolani gapidan qaytarib bo'lmasligiga ishonadi. Shunday bo'lsa ham u bunga yana bir urinib

ko'rmochi bo'ldi-da, rul oldida turgan matrosni chaqirdi.

- Gaukins, - dedi Glenarvan, - bu g'alati voqea miss Grantni shunday hayron qoldirganda, siz rul oldida edingizmi?

- Ha, - deb javob berdi Gaukins.

- Lekin siz hech narsa ko'rmadingiz, eshitganingiz ham yo'q, shundaymi?

- Hech narsa eshitganim yo'q.

- Ana, ko'rdingmi, Robert!

- Agar u o'z otasi bo'lsa, Gaukins hech narsa eshitganim yo'q demasdi! - deb qichqirdi bola, battarroq. - U mening otam, ser, otam, otam!

Robert jim bo'lib qoldi. Rangi quv o'chib ketgan va holsizlangan Robert ham o'zidan ketgan edi. Glenarvan uni kayutadagi o'rniga olib borib yotqizishni buyurdi, keyin bolaning bunday qattiq hayajonga tushganidan qiynalib, og'ir xayolga botdi.

- Bechora yetimchalar, - dedi Jon Mangls, - qanday og'ir kunga qoldilar!

- Ha, - dedi Glanarvan, - ularning g'ami juda og'ir, shuning uchun ham ikkalasiga baravar otasining tovuhi eshitilgan.

- Ikkalasiga-ya? - deb shivirladi Paganel. - Qiziq! Bunday bo'lishini fan e'tirof etmaydi.

Keyin geografiya olimi kema panjarasi osha engashib atrofida turgan odamlarga jim turinglar degandek qilib qo'l ko'tardi-da, diqqat bilan quloq sola boshladi. Atrof jimjit. Paganel dengizda birov bormikin degandek ovozing boricha qichqirdi, lekin javob bo'lmadi.

- Qiziq, qiziq, - deb takrorlar edi geografiya olimi, o'z kayutasiga tomon borar ekan. - Miyaga o'rnashib qolgan fikrlarning va g'am-alamning bir xil bo'lishi ham bunga izoh berolmaydi.

Ertasiga, 8-mart kuni ertalab soat beshda, g'irashira tong ota boshlashi bilan kema yo'lovchilari, shular qatorida Robert bilan Meri ham - ularni kayutada qoldirib chiqishning sira iloji bo'lmadi - «Dunkan» palubasiga yig'ildilar. Hamma ham kecha kechqurun bir nafasgina ko'rganlari yerni tomosha qilishni istardi. Uzun durbinlar bilan zo'r berib orol tomonga qaray boshladilar. Kema orol bo'yidan bir mil berida uni yo-

qalab suzib borar, oroldagi barcha ikir-chikir narsalargacha yaqqol ko'rinib turardi.

Birdan Robertning qattiq qichqirgani eshitildi. Bola uch kishi ko'rinyapti: ikkitasi qirg'oqda allanarsalar deb baqirib yugurib yuribdi, uchinchi esa bayroq silkiyapti, deb takrorlardi.

– Ingliz bayrog'i! – deb qichqirdi Jon Mangls, uzun durbindan qarar ekan.

– To'g'ri! – dedi Paganel, shartta Robertga o'girilib.

– Ser, – dedi bola, hayajondan titrab, – agar mening orolga suzib ketishimni istamasangiz, qayiq tushirishni buyuring. Tiz cho'kib so'rayman, sohilga eng oldin chiqishga ruxsat bering!

Hamma lol bo'lib qoldi. Bu qanday bo'ldi! O'ttiz yettinchi paralleldagi bu orolchada kema halokatiga uchragan uch kishi, uch ingliz bor ekan! Hammalari ham kechasi yuz bergan hodisani eslab, qorong'ulikda Robert bilan Meri eshitgan ovoz to'g'risida o'yladilar. Bolalar biror kishining ovozini eshitgan bo'lishlari ehtimol, lekin u ularning otasimidi-yo'qmi? Afsus! Bunday bo'lishi mumkin emas! Shuning uchun ular hammasi bechora yetimchalarning endi qanday holga tushishini o'ylab, ularning boshiga keladigan yangi kulfatlariga qanday chidaydilar deb yuraklari zirqirardi. Lekin ularni to'xtatib qolishning iloji bormidi? Bunga Glenarvanning yuragi betlamadi.

– Qayiq tushiringlar! – deb qichqirdi u.

Bir minutga qolmay, dengizga qayiq tushirildi. Kapitan Grantning bolalari, Glenarvan, Jon Mangls, Paganel qayiqqa tashlandilar, olti matrosning zo'r berib eshkak otishi natijasida qayiq orol tomonga qarab o'qdek suzib ketdi.

Sohilga o'n sajen qolganda Meri yuraklarni ezib yuboradigan tovush bilan:

– Ota! – deb qichqirib yubordi.

Sohilda ikki kishi o'rtasida uchinchi bir novcha, baquvvat kishi turardi. Uning sodda va ayni vaqtda jasur kishi ekanligidan dalolat beruvchi nuroniy yuzi ikkala yosh Grantga juda o'xshab ketardi. U Meri bilan Robert tez-tez tasvirini qiladigan odamning xuddi o'zi ekanligi shubhasiz edi. Ularning qalbi aldamagan – bu ularning otasi, kapitan Grant edi.

Kapitan Garri Grant qizi Merining ovozini eshitib, qo'llarini oldinga cho'zdi-da, yashin urgandek qumloq sohilga gurs etib yiqildi.

Yigirma birinchi bob

TABOR OROLI

Xursandlikdan hech kim o'lgan emas: otasi ham, bolalari ham qayiq ularni kemaga olib borguncha o'zlariga keldilar. Shunda nimalar bo'lganini tasvirlab berishga so'z qani! Bu uch kishining hech so'zsiz bir-birining quchog'ida singib ketganini ko'rib butun komanda yig'ladi.

Garri Grant qadrdon Shotlandiyasining bir bo'lagidek tuyulgan «Dunkan»ga chiqar ekan, Glenarvanga va uning hamrohlariga hayajondan titragan tovush bilan qizg'in tashakkur bildirdi.

Qayiq kemaga yetib kelguncha o'tgan qisqa vaqt ichida Meri va Robert kapitan Grantga bir necha og'iz so'z bilan uni qanday qidirganlarini so'zlab berdilar.

U oliyanob xotin Elen Glenarvanga, uning hamrohlariga naqadar behisob qarzdor edi! Glenarvandan tortib to eng oddiy matrosgacha uni deb qanchadan qancha qiyinchiliklar bilan kurashgan, mashaqqat tortgan emasmidi! Garri Grant qalbida to'lib-toshgan minnatdorligini shunday oddiy, shunday oliyanoblik bilan izhor qildi, shunda mardlik aks etib turgan chehrasidan shunday muloyimlik aks etar va nur yog'ilib turardiki, buni ko'rgan butun komanda barcha tortgan azob-uqubatlarini unutilib yubordi. Hatto hech narsaga pinagini buzmaydigan mayor ham ko'z yoshlarini tiya olmadi. Paganel esa ko'z yoshlarini yashirishga harakat ham qilmay, yosh boladek ho'ng-ho'ng yig'lar edi.

Garri Grant qizidan ko'zini ololmasdi. U Merini juda chiroyli, nafisa qiz bo'lib yetilibdi deb va buni hammaga eshittirib ham qayta-qayta takrorlab, so'zim to'g'rimi axir, deb Elenni guvohlikka chaqirardi. So'ng o'g'liga qayrilib qarab, xursandlik bilan:

– Kap-katta yigit bo'lib qolibdi-yal – dedi.

Keyin sevimli bolalarini yana qayta-qayta o'pdi.

Robert otasini navbatma-navbat hamma do'stlari bilan tanishtirdi. Bola ularni har xil so'zlar bilan xarakterlab, tanishtirishga harakat qilsa ham, Glenarvanning har bir hamrohi bu ikkala yetimga yaxshi munosabatda bo'lgani bilan bir-biriga o'xshash odamlar bo'lib chiqardi. Jon Manglsni tanishtirish navbati kelganda yosh kapitan qiz bolalardek qip-qizarib ketdi, Merining otasi bilan suhbatlashar ekan, uning ovozi titrardi.

Elen kapitan Grantga o'z sayohatlari to'g'risida so'zlab berdi. Kapitan o'z o'g'li va qizi bilan faxrlansa arzirdi.

Garri Grant kichkina qahramonning sarguzashtlarini eshitdi, shuningdek, u Glenarvanga otasining qarzidan bir ozini qaytarganidan ham xabardor bo'ldi. Elendan so'ng Jon Mangls so'zlay boshladi. U Meri to'g'risida shunday so'zladiki, ikkala yoshning bir-birini yaxshi ko'rish to'g'risida Elen tarafidan oldinroq xabardor qilib qo'yilgan Garri Grant qizining qo'lini yosh kapitanning qo'liga tutqizdi.

Butun gaplar ming martalab hikoya qilinib bo'lgandan so'ng Glenarvan Garri Grantga Ayrton to'g'risida gap ochdi. Kapitanning so'ziga qaraganda, botsmanning umi Avstraliya sohiliga tushirib ketganlari to'g'risidagi hamma gapi rost ekan.

- U aqlli, mard yigit, - deb qo'shib qo'ydi kapitan, - lekin yomon yo'lga kirib ketgan. Esi joyiga tushib qolar, tavba qilib, odam bo'lar, deb umid qilamiz.

Lekin Garri Grant Ayrtonni Mariya-Tereziya oroliga tushirib qo'yishlaridan oldin o'z makonida yangi do'stlarini bir mehmon qilish umidida edi. U do'stlarini o'z yog'och uyida mehmon bo'lishiga va Okeaniya Robinzoni dasturxonida bir maishat qilishga taklif qildi.

Glenarvan bilan hamrohlari bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qildilar. Robert bilan Meri otalari ularni sog'inib, shuncha vaqt yolg'izlikda kun kechirgan joylarni tezroq ko'rishga oshiqar edilar.

Suvga qayiq tushirildi, ko'p o'tmay kapitan bolalari bilan, Eduard va Elen Glenarvanlar, mayor, Jon Mangls va Paganel orolga borib tushdilar.

Garri Grantning mulkini aylanib chiqishlari uchun bir necha soat kifoya qildi. Bu orol aslida suvosti tog'ining cho'qqisi bo'lib, juda ko'p bazalt qoyalar va

vulqon jinlaridan iborat bir joy edi. Yerosti o'tining harakati natijasida bu tog' sekin-asta Tinch okean ostidan ko'tarilib chiqqan. Lekin oradan ko'p asrlar o'tib, vulqon o'chgan, shu tarzda tinchgina bir orolcha hosil bo'lgan; unda hosil beradigan yer paydo bo'lgan; yangi yerda sekin-asta o'simliklar o'sa boshlagan. Orol oldidan o'tgan kit ovchilari unga uy hayvonlari – echkilar va cho'chqalar tushirib ketganlar, ular esa ko'payib vaqt o'tishi bilan yovvoyilashganlar.

Tinch okean suvlari orasida yo'qolib ketgan bu orolchada ana shunday qilib tabiatning uch xil mavjudoti paydo bo'lgan. Orolida «Britaniya»da halokatga uchragan dengizchilar paydo bo'lishi bilan tabiat kuchlari odamga bo'ysungan. Ikki yarim yil vaqt ichida Garri Grant bilan uning matrosleri orolni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yuborgan edilar. Ular ekin eka boshlagan bir necha akr yer ularga juda yaxshi sabzavot hosili bera boshlagandi.

Mehmonlar ko'm-ko'k yelim daraxtlari soyasiga qurilgan uy oldiga keldilar; uy derazalari qarshisida quyosh nurlari ostida jilolanib yotgan dengiz yaslanib yotardi. Sershox daraxtlar soyasiga stol qo'ydilar, hamma stol atrofidan joy oldi. Dasturxonga echki soni, nardunoni, bir necha idishda sut, bir necha poya yovvoyi sikoriya, toza muzdek suv keltirib qo'yildi.

Paganel o'zida yo'q xursand edi. U yana Robinzon bo'lishni orzu qila boshladi.

– Bu muttaham Ayrtonga achinmasak ham bo'ladi: bu orol jannat-ku! – deb qichqirar edi shodlik bilan geografiya olimi.

– Ha, u kema halokatiga uchragan uch bechoraga haqiqatan ham jannat bo'ldi, – dedi Garri Grant. – Lekin men orolning kattaroq, serhosilroq emasligiga, unda ariq o'rniga daryo oqmaganiga, kichkinagina ko'rfazcha o'rniga katta qulay port bo'lmaganiga achinaman.

– Buning nimasiga achinasiz, kapitan? – deb so'radi Glenarvan.

– Chunki men bu yerda, Tinch okeanda koloniya barpo qilib, uni Shotlandiyaga sovg'a qilgan bo'lardim.

– Hali shunday deng, kapitan Grant! Demak, vatanimizda shunday dong chiqarishingizga sabab bo'lgan o'sha fikrdan hali ham qaytmabsiz-da? – dedi Glenarvan.



– Yo‘q, qaytganim yo‘q, ser. Nazarimda, siz meni xuddi ana shuning uchun, o‘sha maqsadni amalga oshirish uchun qutqarganday tuyulasiz. Bizning qadim Kaledoniyada yashovchi bechora kambag‘al kishilarimiz yangi yerda qashshoqlikdan boshpana topishlari kerak. Vatanimizning shu dengizlarda faqat uning o‘ziga qarashli bo‘lgan koloniyalari bo‘lishi kerak, Yevropada unga yetishmayotgan mustaqillik, farovonlik shu yerda bo‘lishi kerak.

– O! Yaxshi so‘z aytdingiz, kapitan Grant! – dedi Elen. – Mard odamlarga loyiq ajoyib reja! Lekin bu orol...

– Bizning qoyatoshlardan iborat orolimiz bir necha kolonistnigina boqa oladi, bizga esa juda katta, hosildor yerlar kerak.

– Hechqisi yo‘q, kapitan, – dedi Glenarvan, – kelajak sizning qo‘lingizda! Yangi yerlarni birga axtaramiz.

Garri Grant bilan Glenarvan bu va‘dani mustahkamlab qo‘ymoqchi bo‘lgandek, bir-birlarining qo‘llarini mahkam qisishdi.

So'ngra hammalari bu orolda, mana shu oddiygina uyda o'tirib, «Britaniya»da halokatga uchraganlarning odamlardan uzoqda uzundan uzoq bo'lgan ikki yilni qanday o'tkazganliklarini eshitishga istak bildirdilar.

Garri Grant yangi do'stlarining iltimosini bajonidil bajardi.

– Mening boshimga bo'm-bo'sh orollarga tushib qolgan barcha Robirzonlar boshiga tushgan kun keldi, – deb boshladi u o'z hikoyasini. – Umid faqat o'zlaridan ekanini yaxshi bilan bu Robinzonlar hayot uchun tabiat kuchlari bilgan kurash boshlashlari kerakligini yaxshi biladilar. 1862-yil yigirma oltinchi iyundan yigirma yettinchi iyunga o'tar kechasi olti kun quturgan bo'ron vaqtida ishdan chiqqan «Britaniya» Mariya-Tereziya oroli qoyalariga kelib urilib, parcha-parcha bo'lib ketdi. Dengiz shunday quturar ediki, odamlarni qutqarib qolishning iloji bo'lmay, butun bechora komandam halok bo'ldi. Faqat ikki matros, Bob Pirs va Jo Bell bilan men juda ko'p uringandan so'ng sohilga chiqib oldik.

Bizni o'z quchog'iga olgan yer uzunligi besh mil va kengligi ikki mil chiqadigan shu orolcha bo'ldi. Unda o'ttiztacha daraxt o'sib yotar, bir necha o'tloqlar ko'karib turar, shuningdek, baxtimizga, hech vaqt qurimaydigan bir necha toza suvli buloq qaynab yotardi. Ikki matrosim bilan Yer sharining bir burchagida yo'qolib ketgan bu orolga chiqib olgandan so'ng men o'zimni yo'qotmay, qattiq kurashga tayyorlandim. Baxtsizlikda hamrohim bo'lgan Bob bilan Jo menga g'ayrat bilan yordam bera boshladilar.

Daniel Defo tasavvuri bilan yaratilgan Robinzon singari biz ham ishni kemanding siniqlari, asbobuskuna, biroz porox, qurol-yarog' va biz uchun niho-yatda qimmatli bo'lgan bir qop donni sohilga chiqarib olishdan boshladik. Dastlabki kunlarda juda qiynaldik, lekin ko'p o'tmay ov bizni boqa boshladi: orolda yovvoyi echkilar juda ko'p ekan, orol sohilida esa dengiz jonivorlari to'lib yotibdi. Sekin-asta turmushimiz yaxshilanib ketdi.

Men qutqarib qolishga muyassar bo'lgan asboblarim yordami bilan orolimizning qayerda ekanini aniqlab, u odatda kemalar qatnaydigan yo'ldan juda uzoqdaligini, faqat biror baxtli tasodifgina bizni qut-

qarishi mumkinligini bildim. Doimo sevimli bolalarim to'g'risida o'ylab, lekin ularni qaytib ko'rishga umid qilmay, men boshimga tushgan qiyinchiliklarga bardosh berishga ahd qildim. Biz tinim bilmay ishladik. Ko'p o'tmay bir necha akr yerga «Britaniya»dan qutqarib olgan bug'doyni ekdik. Kartoshka, sikoriy va shovul bizning odatdagi ovqatimizni yana ham quvvatli qildi. Keyinchalik boshqa narsalar ham eka boshladik. Keyin bir necha echki tutib oldik. Ularni o'rgatish oson bo'ldi. Shundan so'ng sutli, yog'li ham bo'ldik. Qurib qolgan ariqlar tagidan o'sib chiqqan nardudan ancha to'q tutadigan non yopa boshladik. Qisqasi, qorin masalasidan endi g'amimiz yo'q edi.

«Britaniya»ning to'liqlar sohilga chiqarib tashlagan parchalaridan uycha qurib oldik, tomini yaxshilab mumlangan yelkanlar bilan yopdik. Shu tarzda yomg'irlar davrida bahuzur jon asrasa bo'ladigan boshpanali ham bo'ldik. Bu uyda qanday rejalar tuzmadik, qanday orzular qilmadik deysiz, – mana butun o'sha orzularimizning eng ajoyibi amalga oshdi! Oldin men «Britaniya» siniqlaridan qayiq yasab, dengiz safariga chiqmoqchi ham bo'ldim, lekin bizga eng yaqin bo'lgan yer – Paumotu arxipelagi bu yerdan bir ming besh yuz mil uzoqda. Bunday uzoq safarga hech qanday qayiq chidash berolmagan bo'lardi. Bu fikrdan qaytishga to'g'ri keldi. Bizni faqat biror baxtli tasodif qutqarib qolishi mumkin edi.

Eh, jonim bolalarim! Sohildagi toshlar ustiga chiqib, dengizda biror kema ko'rinib qolmasmikan deb necha-necha marta uzoqlarga tikildik! Biz bu yerda qamalib yotgan vaqt ichida nihoyati ikki-uch martagina uzoqdan yelkan ko'rindi, lekin ko'rindi-yu, darhol yana ko'zdan yo'qoldi. Shu tarzda ikki yarim yil o'tdi. Biz endi umidimizni uza boshlagan, lekin hali tamom umidsizlikka tushmagan edik.

Nihoyat, kecha bu yerdagi tog'larning eng baland yeriga chiqib, birdan g'arb tarafda yengilgina tutun ko'rdim. Tutun tobora yaqinlashib kelaverdi. Ko'p o'tmay kema ham ko'rindi. U biz tarafga kelayotgandek edi. Lekin u orol yonidan o'tib ketmasmikan? Axir uning bu yerda to'xtashiga hojat yo'q edi-da.

Eh, bu shunday og'ir kun bo'ldiki! Yuragimning yorilib ketmaganiga hayronman! O'rtoqlarim tog'lardan

birining tepasiga gulxan yoqishdi. Qorong'u tushdi, lekin kemada bizni ko'rganliklarini bildiruvchi bironta ham belgi yo'q edi. Vaholanki, qutulishimizga butun umid ana shu kemada edi. Nahotki u ham o'tib ketaversal! Ikkilaniib o'tirishga o'rin qolmadi. Qorong'u quyulashib borardi. Kechasi kema orolni aylanib o'tib o'z yo'lga ketaverishi mumkin. Men o'zimni suvga tashladim-da, kema tarafga suzib ketdim. Umid kuchlarimni uch hissa oshirib yubordi. Men odamzod qo'lidan kelmaydigan darajada zo'r g'ayrat bilan to'lqinlarni yorib borardim. Kemaga yetib borishimga nihoyat o'ttiz sajencha qolganda, birdan kema yo'nalishini o'zgartirib, boshqa tarafga burildi. Shunda men jonjahdim bilan qichqirdim, mening ovozimni faqat bolalarim eshitibdilar, buning ularga shunday tuyulgan bo'lishi ham mumkin emasdi. Shundan so'ng men hayajondan o'zimni yo'qotgan va horigan holda sohilga qaytdim. Matroslar meni chala jon holda suvdan tortib oldilar. Biz orolda o'tkazgan bu oxirgi kun nihoyatda og'ir bo'ldi. Bizning xaloskorimiz mangulikka shu yerda sekin-asta suzib yurgan ekan. Keyin undan qayiq tushirildi. Biz qutuldik! Baxtni qarangki, qimmatli bolalarim ham o'sha qayiqda men tarafga qo'lini cho'zib turar edilar!..

Garri Grantning hikoyasi tugar ekan Meri bilan Robert uni yana qayta-qayta quchoqlab o'pdilar. Ana shundagina kapitan o'zining najot topishiga sabab halokat yuz berganidan bir hafta keyin o'zi shisha ichiga solib, dengizga tashlagan o'sha hujjat ekanini bilib qoldi.

Lekin Jak Paganel bu vaqt ichida nimalarni o'ylab o'tirgan edi?

Muhtaram olim hujjatning so'zlarini ming martalab miyasidan o'tkazar edi. U hujjatni uch marta uch xil tahlil qilganini, biroq uchovi ham noto'g'ri bo'lib chiqqanini xotiridan o'tkazardi. Dengiz suvi ko'p so'zlarini o'chirib yuborgan bu hujjatda Mariya-Tereziya oroli qanday ko'rsatilgan bo'lishi mumkin?

Paganel sabri chidamay, Garri Grantning qo'lidan ushladi.

- Kapitan, - dedi u, - aytsangiz-chi, axir, o'sha sirli hujjatga nimalar deb yozgan edingiz!

Geografiya olimining bu so'zlarini eshitib, ham-malari kapitanning og'ziga qarab qoldilar: hozir ular to'qqiz oydan beri ma'nosiga yetolmagan sir ochilishi kerak edi-da!

- Kapitan, hujjatdagi so'zlarni aniq eslaysizmi? - deb davom etdi Paganel.

- Juda yaxshi esimda, - deb javob berdi Garri Grant. - Men o'sha so'zlarni takrorlamagan kun yo'q edi: axir, butun umidimiz o'sha hujjatdan edi-da!

- Unga nima deb yozgan edingiz, kapitan? - deb so'radi Glenarvan. - Shuni bizga ma'lum qiling: butun aqlimizni shunga ishlatganmiz-a!

- Xizmatingizga hozirman, - deb javob berdi Garri Grant. - Bu yerdan qutulishga umid ko'proq bo'lsin uchun men shishaga uch tilda uch hujjat solganman, bu sizga ma'lum bo'lsa kerak, albatta. Ulardan qaysi biri qiziqtiradi sizni?

- Axir ular bir ma'noni bildiradi-ku, - dedi Paganel.

- To'g'ri, faqat bir ismdan boshqa hammasi bir xil.

- Bo'lmasa fransuz tilidagi hujjatning tekstini aytib bering, - deb iltimos qildi Glenarvan, - dengiz suvida eng kam o'chgani fransuzchasi edi, shuning uchun biz asosan fransuz tilidagi hujjatga asoslanib ish ko'rdik.

- Hujjatni so'zma-so'ziga o'qib beraman, mana u: «1862-yil 7-iyunda Glazgodan chiqqan uch machtali «Britaniya» kemasi Janubiy yarim sharda, Patagoniyadan bir ming besh yuz le masofada halokatga uchradi. Ikki matros bilan kapitan Grant Tabor oroliga yetib oldilar».

- Nima?! - deb qichqirib yubordi Paganel.

- «Bu yerda, - deb davom etdi Garri Grant, - doim qiyinchiliklarni boshidan kechirib, 153° uzunlikda va 37° 11' kenglikda shu hujjatni suvga tashladilar. Ular-ga yordam qilinglar».

«Tabor» so'zini eshitgan Paganel sakrab o'rnidan tu-rib ketdi. So'ng o'zini tutolmay:

- Nima - Tabor oroli dedingizmi? Axir, bu Mariya-Tereziya oroli-ku! - deb qichqirdi.

- To'ppa-to'g'ri, mister Paganel, - deb javob berdi Garri Grant. - Ingliz va nemis xaritalarida u Mariya-Tereziya oroli deb, fransuz xaritalarida esa - Tabor oroli deb ataladi.

Shu payt allakim Paganelning yelkasiga kuchining boricha musht tushirib, uni yerga yiqitdi. Rostgo'y bo'lish uchun shuni aytishimiz kerakki, bu birinchi marta o'zini tutolmay qolgan mayorning ishi edi.

– Geograf bo'lmay qol! – dedi Mak-Nabbs cheksiz nafrat bilan.

Lekin Paganel musht zarbini sezmedi ham. Uning olimlik g'ururiga tekkan zarbaga nisbatan bir mushtning zarbasi nima degan gap?

Shunday qilib, kapitan Grantga o'zi so'zlab bergandek, u sekin-asta haqiqatga yaqinlashib kelavergan. Navbati bilan u Patagoniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya halokat yuz bergan yer ekanligi shubhasiz degan qarorga kelgan. *Contin* degan so'z bo'lagini u dastlab *continent* [kontinent] deb o'qigan, bu so'z sekin-asta o'zining *continnenle* [doimiy] degan ma'nosini oladi; indi dastlab *Indiens* [hindular] deb so'ng *indigens* [yerliklar] deb nihoyat, *indigence* [muhtojlik] deb to'g'ri o'qiladi. Faqat *abor* degan so'z bo'lagi zehni o'tkir geografiya olimini yanglishtiradi. Paganel uni nuqul *aborder* [chiqib olmoq] degan fe'lining o'zagi deb o'qiydi, vaholanki, «Britaniya» halokatga uchragan, Mariya-Tereziya orolining, fransuzlar Tabor deb ataydigan orolning ismi ekan. To'g'ri, «Dunkan»dagi barcha xaritalarda bu orol «Mariya-Tereziya» oroli deb ko'rsatilgandan keyin bu xatoga yo'l qo'ymaslikning iloji yo'q edi.

– Baribir! – deb qichqirar edi Paganel, jon-jahdi bilan sochlarini yulib. – Men bu orolning ismi ikki xil ekanini unutmasligim kerak edi! Bu Geografiya jamiyatining sekretariga yarashmaydigan, yo'l qo'yib bo'lmaydigan xato! Sharmanda bo'ldim!

– Janob Paganel, o'zingizni bosing! – deb unga dalda berardi Elen.

– Yo'q, yo'q! Men eshakman, eshak!

– Eshak bo'lganda ham o'rgatilmaganisiz, – deb unga dalda bergan bo'ldi mayor.

Ovqatlanib bo'lganlaridan so'ng Garri Grant uy-ro'zg'orini tartibga keltirishga kirishdi. U jinoyatchi, sofdil odamning ro'zg'orini meros qilib olsin uchun hech narsa olib ketmadi.

Hammalari «Dunkan»ga qaytdilar. Glenarvan o'sha kuniyoq jo'nab ketmoqchi edi, shuning uchun u bots-

manni sohilga tushirib qo'yishni buyurdi. Ayrtonni kemanding yut qismiga olib keldilar, Garri Grant ham o'sha yerda edi.

- Bu menman, Ayrton, - dedi Grant.

- Ko'rib turibman, kapitan, - deb javob berdi botsman, sira ham hayron qolmay. - Nima ham der edim, sizni sog'-salomat ko'rganimga xursandman.

- Ayrton, aftidan, men sizni odamlar yashaydigan joyga tushirib xato qilganga o'xshayman.

- Shunaqaga o'xshaydi, kapitan.

- Siz hozir mana shu bo'm-bo'sh orolda mening o'rnimga qolasiz. Odamlarga qilgan yomonliklaringiz uchun tavba qilarsiz deb o'ylayman.

- Hammasi ham bo'lishi mumkin, - xotirjamlik bilan javob berdi Ayrton.

Glenarvan botsmanga qarab dedi:

- Xo'sh, Ayrton, siz hali ham kimsasiz orolga tushirib ketishimni talab qilasizmi?

- Ha.

- Tabor oroli sizga ma'qulmi?

- Juda ma'qul.

- Ayrton, endi mening sizga aytmqochi bo'lgan oxirgi so'zimga quloq soling. Siz bu yerda har qanday yerdan ham juda uzoqda bo'lasiz, boshqa odamlar bilan munosabatda bo'lishdan mutlaqo mahrum qolasiz. Mojizalar kam bo'ladi: siz bu oroldan qochib ketolmaysiz. Siz yolg'iz qolasiz, lekin kapitan Grant singari yo'qolib ketmaysiz, butun dunyodan ajralib qolmaysiz. O'zingiz odamlarning esga olishiga arzimaydigan kishi bo'lsangiz ham, lekin ular sizni yodda saqlaydilar. Men sizni qay yerdan topish kerakligini bilaman, Ayrton, buni unutmayman ham.

- Rahmat, - deb oddiygina javob berdi Ayrton.

Glenarvan bilan botsmanning suhbatini shu bilan tamom bo'ldi.

Qayiq tayyor turardi. Ayrton unga tushdi.

Jon Mangls sal oldinroq orolga bir necha yashik konserva, kiyim-bosh, asbob-uskuna, qurol, shuningdek, porox bilan o'q dori tushirib qo'ygani edi. Shunday qilib, botsman ishlash imkoniyatiga va mehnat qilib odam qatoriga qo'shilish imkoniyatiga ega edi. Odam uchun zarur bo'lgan barcha narsalar, hatto kitoblar ham bor edi.

Ayrilish vaqti keldi. Komanda va yo'lovchilar palubaga to'plandilar. Ko'p kishilarning yuragi siqildi. Meri Grant bilan Elen hayajonlarini yashira olmas edilar.

– Uni tashlab ketish juda zarurmi? – deb so'radi yosh ayol eridan. – Shu bechorani tashlab ketish juda zarurmi-a?

– Ha, Elen, zarur, – deb javob berdi Glenarvan. – Jazosi!

Shu payt qayiq Jon Manglsning buyrug'i bilan orol tomonga suzib ketdi. Har vaqtdagidek xotirjam bo'lgan Ayrton shlapasini yechdi-da, jiddiylik bilan egilib ta'zim qildi.

Glenarvan, undan so'ng esa butun komanda go'yo o'layotgan odamning to'shagi tepasida turgandek bosh kiyimlarini qo'lga oldilar. Qayiq tobora uzoqlashib borar, palubadagilar hammasi jim turardi.

Qayiq sohilga yetganda Ayrton sakrab qum ustiga tushdi, qayiq esa kema yoniga qaytib keldi. Kunduz soat to'rt. Kemaning yut qismida turgan yo'lovchilar qo'llarini ko'ksiga qovushtirib, dengiz bo'yidagi katta qoyada haykaldek qotib turgan botsmanni ko'rib turar edilar. Uning ko'zlari, «Duncan»da edi.

– Jo'nayveramizmi, ser? – deb so'radi Jon Mangls.

– Ha, Jon, – deb javob berdi Glenarvan. U hayajonlanar, lekin o'zi buni sezdirmaslikka tirishardi.

– Olg'al – deb qichqirdi kapitan mexanikka.

Trubalarda bug' chiyilladi, vint ishga tushdi, soat sakkizda Tabor orolining so'nggi cho'qqilari kechki g'ira-shirada ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Yigirma ikkinchi bob

JAK PAGANELNING OXIRGI PARISHONLIGI

18-martda, «Duncan»ning Tabor orolidan jo'nab ketganidan o'n bir kun keyin, Amerika sohillari ko'rindi, ertasiga esa kema Talkaguano ko'rfazida langar tashladi.

Kema bu yerga besh oylik safardan qaytib keldi, bu safar vaqtida sayohatchilarimiz o'ttiz yettinchi paralleldan sira og'ishmay, butun Yer sharini aylanib chiq-

dilar. Sayohatchilar Klubi yilnomalariga yozilmaydigan bu ajoyib sayohat ishtirokchilari Chilida boʻldilar, pampaslardan, Argentina Respublikasidan oʻtdilar. Atlantika okeanida, Tristan-da-Kunya orollarida, Hind okeanida, Amsterdam orollarida, Avstraliyada, Yangi Zelandiyada, Tabor orolida va Tinch okeanda sayohat qildilar. Lekin ularning mehnatlari zoye ketmadi: ular «Britaniya»da halokatga uchragan dengizchilarni qutqarib, oʻz vatanlariga olib kelmoqda edilar.

Glenarvanning chaqirigʻiga javoban ekspeditsiyaga chiqqan shotlandiyaliklardan birontasi ham halok boʻlmadi. Ularning hammasi oʻz koʻhna Shotlandiyalariga sogʻ-salomat qaytib kelmoqda edilar. Bu ekspeditsiya qadim zamonlarda «koʻz yoshsiz janglar» deb atalgan janglarga oʻxshab ketardi.

«Duncan» yoqilgʻi gʻamlab olib, Patagonya sohili boʻylab yoʻlga tushdi-da, Gorn burunini aylanib oʻtib, Atlantika okeaniga chiqdi.

Bironta ham safar bunday yaxshi sharoitda oʻtmagan boʻlsa kerak. Kema limmo-lim baxt toʻladek tuyular, endi unda bironta ham sir qolmagan edi. Jon Manglsning Meri Grantga boʻlgan muhabbatidan tortib, hammasi ochiq-ravshan.

Yoʻgʻ-e, sira tushinib boʻlmaydigan yana bir sir bor edi, oʻsha sir Mak-Nabbsga sira tinchlik bermasdi. Nima uchun Paganel doim kiyimlarining hamma tugmalarini solib, sharfini qulogʻigacha yetkazib oʻrab yurdi? Mayor bu gʻalati odatning sababini tezroq bilgisi kelardi.

Shuni ham aytish kerakki, Mak-Nabbsning shunchalik surishtirishiga, imo-ishoralariga, shubha qilishiga qaramay, Paganel tugmalarini biron marta yechmadi. Ha, u tugmasini «Duncan» ekvatoridan oʻtayotgan, paluba taxtalari orasiga surib qoʻyilgan mum ellik gradusli issiqda erib ketganda ham yechmadi.

- U shunday parishonki, oʻzini Peterburgda deb oʻylaydi, - der edi mayor, Paganelning havo hatto termometr simobi ham muzlab qoladigan darajada sovuqdek keng plashchiga oʻralib yurishini koʻrib.

Nihoyat, toʻqqizinchi may kuni, Talkaguano koʻrfazidan yoʻlga chiqqanlariga ellik uch kun boʻldi deganda, Jon Mangls Klir buruni chiroqlarini koʻrdi. Kema

avliyo Georg kanaliga kirdi, Irland dengizidan o'tdi-da 10-mayda Klayd ko'rfaziga yetib qoldi. Ertalab soat o'n birda «Dunkan» Dumbartonda langar tashladi, kechasi soat ikkida esa, yo'lovchilar tog'liklarning «ura» sadolari ostida Malkolm qasriga kirib bordilar.

Garri Grant bilan uning ikki o'rtog'i xalos etilishi, Meri Grant bilan Jon Manglsning qadimiy avliyo Mungo soborida nikoh qilinishi, Robertning Garri Grant va Jon Mangls singari mard dengizchi bo'lib yetishishi, shuningdek, ular bilan birga, Glenarvanning yordami bilan, kapitan Grant rejasini amalga oshirish ustida ishlashi taqdir ekan. Lekin Paganelning dunyodan toq o'tishi ham taqdirdan edimi? Yo'q, unday bo'lmasa kerak.

Haqiqatan ham, olimimiz shunday qahramonliklar ko'rsatib, dong taratib qolaverishi mumkin emasdi. Uning parishonligi Shotlandiya aristokratlari orasida juda mashhur bo'lib ketdi. Geografiya olimini birlaridan talashib, mehmondorchilikka aytar, u esa hamma aytilgan yerlarga borib ulgurolmasdi.

Ana shunda mayor Mak-Nabbsning xolavachchasi bo'lmish o'ttizlarga kirgan, juda sho'x, lekin soddadil, hali ancha chiroyli bir ayol tentak geografni yaxshi ko'rib qoldi-da, unga o'z yuragini topshirdi. Uning bir million mablag'i bor edi, lekin bu to'g'rida hech kim hech narsa demadi.

Paganel miss Arabellaning nozik tuyg'ulariga befarq qaramas, lekin buni o'zi ochiq ayto'lmasdi.

Bir-biri uchun yaratilgan bu ikki qalb o'rtasida mayor turdi. U hatto Paganelning uylanishi geografiya olimi yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan «oxirgi parishonlik» bo'lishini aytdi.

Lekin afsus! Paganel shoshib qolganidan hech narsa deyo'lmas edi.

– Nahotki, miss Arabella yoqmasa sizga? – deb so'radi Mak-Nabbs.

– Nimalar deyapsiz, mayor! U juda chiroyli, – der edi Paganel, – haddan tashqari chiroyli! To'g'risini aytsam, miss Arabella bundan ko'ra biroz xunukroq bo'lganda, yana ham yaxshiroq bo'lardi. Men uning juda bo'lmasa bitta kamchiligini topishni istardim!

– Xotirjam bo'ling, – deb javob berardi mayor, – kamchiliklari topiladi, topilganda ham anchagina topiladi. Eng to'kis ayolning ham o'ziga yarasha kamchiliklari bo'ladi. Demak, Paganel, ish pishdi deyavermizmi?

– Nima deyishimni ham bilolmay qoldim, – deb javob beradi Paganel.

– Ayta qolsangiz-chi axir, olim do'stim, nega buncha ikkilanasiz?

– Men miss Arabellaga loyiq emasman, – deb javob berardi geografiya olimi doim.

U shu gapidan sira qaytmadi.

Nihoyat, bir kun mayor geografiya olimini shunday qistoqqa oldiki, u juda qat'iy sir saqlashni o'tinib, mayorga bir g'alati sirni ochdi, bu bir kun kelib, politsiyaga olimimizning belgilari kerak bo'lib qolsa, juda ham yaxshi xizmat qiladigan sir edi.

– Rostdanmi?! – deb yubordi mayor.

– Ha, rost, – deb javob berdi Paganel.

– Lekin buning nima ahamiyati bor, oliyjanob do'stim?

– Siz shunday deb o'ylamaysizmi?

– Aksincha, bu bilan siz yana ham boshqacharoq odam bo'libsiz. Bu sizning shaxsiy fazilatlaringizga qo'shimcha bo'libdi. Bu sizni boshqa odamlardan yana ham ajratib turadigan bir belgi bo'libdi. Arabella xuddi ana shunaqangi odamga tegish to'g'risida orzu qilib yurardi.

Mayor shunday dedi-yu, pinagini ham buzmay, jiddiy qiyofada chiqib ketdi, Paganel esa g'oyat xavotirlikda qoldi.

Mak-Nabbs bilan Arabella o'rtasida qisqagina suhbat bo'ldi.

Ikki haftadan keyin Malkolm qasrida Jak Paganel bilan miss Arabellaning to'yi dabdaba bilan o'tkazildi. Kuyovga qarab ko'zingiz quvnardi, lekin u butun tugmalarini solib olgan, kelin esa, juda chiroyli edi.

Agar mayor Paganelning sirini Glenarvanga, Glenarvan esa Elenga so'zlab bermaganida, Elen esa o'z navbatida buni missis Manglsga xabar qilmaganida Paganelning sirini hech kim bilmagan bo'lardi. Qisqa-

si, bu sir missis Olbinetgacha borib yetdi, shundan so'ng esa hammaga oshkor bo'ldi.

Paganel maorilar qo'lida uch kun asirlikda bo'lganda, tatuirovka qilingan - oyog'idan yelkasigacha rasm solingan, ko'kragiga qanotlarini keng yozib va tumshug'i bilan uning yuragini cho'qib turgan katta kivi qushining surati tushirilgandi.

Paganelning ana shu, faqat ana shu sarguzashtigina uni juda katta qayg'uga soldi. U yangi zelandiyaliklarning bu qilmishlarini sira ham kechira olmaydi. Olim juda ko'p martalab chaqirishlariga qaramay, o'z vatani Fransiyaga qaytib bormadi, lekin bunga juda achinar edi. U o'zi sekretar bo'lgan geografiya jamiyati karikaturachilari va gazeta askiyabozlarining kulgisi ostida qolmasam edi deb, andisha qilardi.

Kapitan Grantning vataniga qaytib kelishini shotlandiyaliklar umumxalq ahamiyatiga ega bo'lgan hodi-sadek bayram qildilar. Garri Grant butun qadimiy Kaledoniyada ancha mashhur odam bo'lib qoldi. Uning o'g'li Robert otasiga va kapitan Jon Manglsga o'xshagan dengizchi bo'lib yetishdi, hozir u Glenarvan homiyligi ostida otasining Tinch okeandagi orollarda Shotlandiya koloniyasi tashkil qilish rejalarini amalga oshirish ustida ishlamoqda.

Adabiy-badiiy nashr

«JAHON SARGUZASHT ADABIYOTI»

JYUL VERN

KAPITAN GRANT BOLALARI

Roman

Toshkent

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi

Bosh tahririyati

2016

Muharrir *Barnobek Eshpo'latov*

Badiiy muharrir *Feruz Basharova*

Texnik muharrir *Diana Gabdraxmanova*

Sahifalovchilar: *Mastura Atxamova, Asal Nisanbayeva*

Musahhihlar: *Ma'mura Ziyamuhamedova,*

Sharofat Xurramova

Nashr litsenziyasi AI № 201 28.08.2011.

Bosishga ruxsat etildi: 10.12.2015. Bichimi 84x108/32.
Ofset bosma. “Bookman Old Style” garniturasi. Shartli
bosma tabog'i 33,6. Nashr bosma tabog'i 35,0. Adadi 5000
nusxa. Buyurtma № 4098. Bahosi kelishuv asosida.

“Sharq” nashriyot-matbaa

aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.



ISBN 978-9943-26-415-1



9 789943 264151